



**TA'LIM TASHKILOTLARIDA ZAMONAVIY TALABLAR ASOSIDA
O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ В
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ НА ОСНОВЕ
СОВРЕМЕННЫХ ТРЕБОВАНИЙ**

**МАТЕРИАЛЫ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
РЕСПУБЛИКИ**

GULISTON-2024

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI**

**SIRDARYO VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA
O‘RGATISH MILLIY MARKAZI**

**TA’LIM TASHKILOTLARIDA ZAMONAVIY TALABLAR ASOSIDA
O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI
*2024-yil 15-16-may***

**«СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ В
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ НА ОСНОВЕ
СОВРЕМЕННЫХ ТРЕБОВАНИЙ»
МАТЕРИАЛЫ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
РЕСПУБЛИКИ
*15-16 май 2024 г.***

GULISTON-2024

Ta'lim tashkilotlarida zamonaviy talablar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Sirdaryo viloyati pedagogika markazi.

Ushbu konferensiya to'plamida Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi tomonidan tashkil etilgan – "Ta'lim tashkilotlarida zamonaviy talablar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumaniga kelib tushgan tezis va maqolalar o'rin olgan. Mazkur Respublika ilmiy-amaliy anjumanda pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish, ularning malakasini oshirish, raqamli texnologiyalarni qo'llagan holda ta'lim samaradorligini oshirishga doir xalqaro va mahalliy ilmiy tadqiqotlarni to'plash, tajribalarni o'rganish, aniqlash, ta'lim samaradorligini ta'minlashda life-long learning – hayot davomida o'qish tamoyilining o'rni, o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ta'lim bosqichlari uzviyligini ta'minlashda masofaviy ta'lim sifatini tubdan oshirish va takomillashtirishga oid xorijiy tajribalar bo'yicha to'plangan materiallar joy olgan.

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallaridan oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, umumta'lim maktab o'qituvchilari, barcha tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir: markaz direktori G.Berdaliyeva

Tahrir hay'ati: filologiya fanlari doktori, professor T.Mirzaqulov;
pedagogika fanlari bo'yicha PhD, dotsent G.Berdaliyeva;
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD O.Shirinov
filologiya fanlari bo'yicha PhD, dotsent A.Uralov;
Aniq va tabiiy metodikasi kafedrasida dotsenti, f.-m.f.n. K.Eshkuvatov
katta o'qituvchilar: A.Nizamov, U.Bekmatova, B.Atayeva,
I.Biybalayev, I.Abduraimov, N.Yunusmetova, O.To'raboyev.

Taqrizchilar: A.Uralov – SVPYMO'MM Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasida mudiri, filologiya fanlari bo'yicha PhD, dotsent.
M.B.Niyozov – Guliston davlat pedagogika instituti p.f.b.f.d. (PhD), dotsent

Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Ilmiy-metodik kengashining 2024-yil 25-apreldagi o'tkazilgan 3-sonli yig'ilishining qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

To'plamdan o'rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldir.

© SVPYMO'MM, 2024

SO‘Z BOSHI

XXI asr fan-texnika, axborotlashtirish asri bo‘lishligi bilan bugungi jadallashib borayotgan ilm-fan yutuqlari kechagi oldimizga qo‘yilgan rejalarning natijasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda butun dunyoda ro‘y berayotgan globallashuv sharoitida mamlakatimiz barqaror taraqqiy etib borish uchun har tomonlama modernizatsiyalashgan tizimli yondashuvni taqozo qilayotganligi munosabati bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida ko‘plab vazifalar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023-yil 11-sentabr kuni “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash haqidagi PF – 158-sonli farmon imzolandi. Bu esa ta‘lim sohasida ham ko‘plab vazifalarni amalga oshirish shartini qo‘ydi.

Uchinchi Renessans davriga kelib yurtimizda ko‘plab ta‘lim muassasalari yangidan qurildi, ta‘mirlandi, eng zamonaviy o‘quv anjomlari bilan ta‘minlandi. Bu boradagi ishlar bugungi kunda ham jadal davom etmoqda, mustaqil fikr, intellektual jihatdan rivojlangan, o‘z dunyoqarashiga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash har doimgidek dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, dunyo taraqqiyoti shiddati, unda kechayotgan voqealar rivoji barcha sohalar kabi ta‘lim-tarbiya jarayoniga ham yangicha yondashuv, innovatsiyalarni tatbiq etishni taqozo etmoqda. Avvalo bu, ta‘lim sifatini ta‘minlash eng muhim o‘rin tutadigan o‘qituvchi-pedagoglar saviyasini muntazam oshirib borish, jarayonga eng zamonaviy va ilg‘or axborot hamda ta‘lim texnologiyalarini joriy etish bilan bog‘liq muammolarda ko‘rinmoqda.

Muvaffaqiyatli ta‘lim tizimlarida o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratiladi. Misol tariqasida Norvegiyada o‘qituvchining yillik ish vaqtining 6 kuni malaka oshirish uchun ajratilsa, Yaponiyada bu ko‘rsatgich 10 kunni, Singapurda 12, Shanxayda 33 kunni tashkil etadi.

E‘tiborlisi, o‘quvchilarining ta‘limdagi yutuqlarini baholashga qaratilgan xalqaro PISA tadqiqotlarida Shanxay, Singapur, Yaponiya yuqori o‘ntalikka kirishini hisobga olsak, o‘qituvchining malaka oshirishi va o‘quvchilarining ta‘limdagi yutuqlari o‘rtasida uzviy bog‘liqlik bor.

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi 16-sonli buyrug‘i 1-ilovasiga, shuningdek, Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tasarrufidagi Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi yillik ish rejasiga asosan tashkil etilayotgan Respublika anjumani – *Ta‘lim tashkilotlarida zamonaviy talablar asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish* masalasini hal etishni rejalashtirib, o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘ydi: *raqamli ta‘lim texnologiyalarini joriy etishdagi innovatsion yondashuvlar; zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida interfaol darslarni tashkil etish; pedagog kompetentligi va kreativligini rivojlantirish; muammo va yechimlari; ta‘lim sifat samaradorligini oshirishda ilg‘or xorijiy tajribalarning ahamiyati.*

Ta'lim tizimi tajribalari shuni ko'rsatmoqdaki, o'quv jarayonida internet tizimi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yangi bilimlarni egallash, saqlash, uzatish hamda amaliy qarorlar qabul qilish vositasiga aylantirish hisobiga kadrlarning sifat darajasini tubdan yaxshilashning imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda. Endi maktabgacha va maktab ta'limi tizimi xodimlari masofadan turib ham malaka oshirishlari mumkin. Buning uchun ularda telefon yoki kompyuter va internet bo'lishining o'zi kifoya qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan masofaviy ta'limda foydalanish avvalo ta'lim sifati, ijtimoiyligi, ommabopligi hamda iqtisodiy jihatdan hammaga maqbul bo'lishligini ta'minlaydi. Bulardan tashqari masofaviy ta'limni bir qator afzalliklari hamda ijobiy jihatlari ham mavjud.

O'ylaymanki, bugungi konferensiya a'zolari tomonidan ishlab chiqiladigan ilmiy maqolalar, ishlab chiqiladigan tavsiyalar maktabgacha va maktab ta'limi tizimini va rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Milliy markaz direktori G.Berdaliyeva

1-SHO‘BA. RAQAMLI TA‘LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHDAGI INNOVATSION YONDASHUVLAR

RAHBAR MA‘NAVIYATINING BOSHQARUVDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Nodira Djanibekova

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Tayanch so‘zlar: Axloq, o‘qituvchi, boshqaruv, bag‘rikenglik.

Annotatsiya. Maqolada rahbar ma‘naviyati, uning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning shakllanishi va rivojlanishining omillari tahlil qilingan. Shuningdek, rahbar ma‘naviyatining boshqaruvdagi o‘rni va ahamiyati ochib berilgan.

Insondagi axloqiy sifatlar qanchalik go‘zal yoki xunuk bo‘lmasin, ular faqatgina ijtimoiy faoliyatda namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, rahbarning ma‘naviyati jamoada yakkol ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun rahbar alihida xulq-atvorga, ma‘naviyatga va madaniyatga ega bo‘lishi, uni doimo takomillashtirib borishi zarur.

Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari rahbarlari maktabni boshqarishda innovatsion yondashuvlarga asoslanishi, kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy sifatlarga ega bo‘lishi, ixtiyoriy vaziyatlarda o‘zini-o‘zi nazorat qila olishi, shuningdek, ta‘lim muassasasida hukm suruvchi tarbiyaviy munosabatlarni e‘tiborga olgan holda faoliyat olib borishi, turli xil masalalarni va muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me‘yoriy mezonlarga asoslanishi zarur bo‘lib, bular rahbarning boshqaruv yo‘nalishida kompetentligini ifodalaydi.

Ushbu fikrlardan kelib chiqqan holda, umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari rahbarlari kasbiy kompetentligining quyidagi asosiy komponentlarini ajratib ko‘rsatish mumkin, o‘z faoliyati va ta‘lim muassasasi faoliyati samaradorligini tahlil qilish va ob‘ektiv baholashga xizmat qiluvchi reflektiv ko‘nikmalar, o‘z faoliyati va o‘zaro munosabatlar jarayonidagi xatti-harakatlarining natijalarini hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayoniga tayyorgarligini his etishni ifodalovchi oldindan ko‘rish ko‘nikmalari, boshqaruv jarayonlarida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan muammoli vaziyatlarda sub‘ektlar faolligini ta‘minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish ko‘nikmasi, boshqaruv jarayonlarida mavjud sun‘iy to‘siq va qarama-qarshiliklar jamoadagi ongli intizomga salbiy ta‘sir ko‘rsatishining oldini olish ko‘nikmasi, hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish va vaziyatlarga ko‘ra rahbarlik uslublaridan oqilona foydalanish ko‘nikmasi, muloqotga oson kirishish ko‘nikmasi, kommunikativ kompetentlilik, ya‘ni turli sharoitlarda insonlar bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan o‘zaro ta‘sir ko‘rsatish ko‘nikmasi, axborotlar to‘plash, tahlil qilish, ob‘ektiv baholash, qayta ishlash va axborotlar almashinish ko‘nikmasi, o‘zini-o‘zi boshqarish va shaxsiy rivojlantirish ko‘nikmasi kabi bir qator zaruriy ko‘nikmalarni o‘zida shakillantirishi kerak.

Bugungi kun rahbari o‘zida kasbiy, umummadaniy, maxsus va shaxsiy sifatlarni uyg‘unlashtirgan holda mujassam etsa, ya‘ni har tomonlama hammaga o‘rnak bo‘la oladigan shaxsga aylansagina haqiqiy ma‘naviy qiyofaga ega bo‘ladi. Ba‘zi rahbarlarning o‘qituvchiga xos ma‘naviy qiyofasini ko‘rsata olishiga to‘sqinlik qiluvchi bir qancha omillar mavjud. Shulardan biri, o‘qituvchining

kechirimli bo‘la olmasligidir. Shunday pedagoglar borki, o‘quvchisining xatosini kechira olmaydilar, undan xunini olmaguncha tinchimaydilar, hatto masalaga shunchalik chuqurlashib kirishib ketadiki, shogirdini har ko‘rganida dushmanini ko‘rgandek muomala qiladilar. Axir o‘qituvchi shaxsiga xos sifatlardan biri – bag‘rikenglik, ya’ni kechirimli bo‘lish emasmi, uni kek saqlashiga aslo haqqi yo‘q. Ikkinchi omil - ba’zi ota-onalarimizda pedagogik savodxonlikning etishmasligidir. Navoiyning fikricha: “Ba’zan bir kishi bitta bolaga tarbiya berishga ojizlik qiladi, muallim esa bir to‘da bolalarga ilmu adab o‘rgatadi. Bu jarayonda muallim ko‘p aziyat chekadi, mashaqqatlarni boshdan kechiradi. Shuning uchun shogirdlar ustoz oldida umrbod qarzdor ekanliklarini his etishlari lozim. Shogird podsholik martabasiga erishsa ham muallimga qulluq qilsa arziydi”. Ba’zan savodxonligi past darajadagi ota-onalar ham uchraydiki farzandining yoxud o‘quvchilarning ko‘z o‘ngida o‘qituvchisiga qo‘pol muomalada bo‘lib, haqorat qiladigan, shaxsiyatiga tegadigan, hatto qo‘l ko‘tarishgacha boradigan holatlarni guvohi bo‘lamiz. Ko‘pgina maktablarda o‘tkaziladigan ota-onalar majlisi, ota-onalar kengashida bolaning ta’limi va tarbiyasi, iqtisodiy harajatlarga oid masalalar muhokama etiladi. Lekin ota-onaning o‘zini ham pedagogik savodxonligini oshiruvchi masalalarga kamdan-kam hollarda e’tibor qaratiladi.

Omillarning yana biri – ayrim ta’lim muassasalari rahbarlarining pedagog xodimlariga nisbatan muomala madaniyatining yo‘qligidir. Amaliyotda ko‘pchilik boshqaruv faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan rahbarning ushbu lavozimga qancha muddat ishlaganiga, ya’ni boshqaruv jarayonida orttirgan tajribasiga bog‘liq deb hisoblashadi. Tadqiqotlarda esa ta’lim muassasasi faoliyatini tashkil etish va takomillashtirishda bilim, ko‘nikma, malakadan tashqari rahbarning shaxsiy sifatleri, kasbiy tayyorgarligi va ma’naviy-axloqiy sifatlariga bog‘liq, deb ko‘rsatiladi. Aslida rahbar har qanday vaziyatlarda o‘zini tuta olishi, tashabbuskor bo‘lishi, har qanday vaziyatlardan jamoani olib chiqishi, ko‘pchilik dardi bilan yashashi, hamjihatlik, hamijodkorlik bilan ish yuritishi, kasbiy mahoratga ega bo‘lishi, so‘zi bilan ishi bir bo‘lishi, vijdonli, adolatli bo‘lishi, samimiy, vazmin, bag‘rikeng, ijodkor, bunyodkor, talabchan, mehribon va albatta xushmuomala bo‘lishi kerak. Boshqaruv nazariyasida rahbar tomonidan yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatolar mavjud. Masalan, tasavvurning boy bo‘lmasligi, xudbinlik, so‘zida turmaslik, turli nom va martabalarni pesh qilish, o‘zini tuta olmaslik va boshqalar. Mana shularning orasidan amaliyotda eng ko‘p uchraydigani – bu rahbarning o‘zini tuta olmasligi.

O‘z hissiyotini boshqara olmaydigan rahbarni hech kim hurmat qilmay qo‘yadi, bu holat ularni ranjitadi. Tasavvur qiling: o‘qituvchi rahbardan doimiy ravishda qo‘pol muomala, baqiriqlar, shaxsiyatiga tegadigan so‘zlarni ayniqsa, jamoa oldida yoki o‘quvchilar oldida eshitaversa. Nohaq tarzda ayblovlarni eshitaversa, axiyri sabri tugagan o‘qituvchi rahbarning “savoliga yarasha javob qaytaradi”. Qani u erda ma’naviy qiyofa? Axir pedagoglar qiyofasining qanday bo‘lishi ko‘p jihatdan rahbarning qiyofasini qanday bo‘lishiga bog‘liq emasmi? Bunday rahbarlar nafaqat o‘z xodimlariga nisbatan, balki huzuriga tashrif buyurgan har qanday insonda ham yomon taassurot uyg‘otadi. Qani bizning ota-

bobolarimizdan meros qolgan “Xush kelibsiz”, “Marhamat”, “Kechirasiz”, “Iltimos”, “Yana kelib turing” kabi mulozamat soʻzlari. Shuning uchun ham boshqaruv jarayonining muvaffaqiyatli kechishi va samarali boʻlishi – bu koʻp jihatdan rahbar shaxsida namoyon boʻladigan maʼnavi, axloqiy, psixologik va shaxsiy sifatlarning oʻrni beqiyosdir.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, boshqaruv jarayonining muvaffaqiyatli kechishi va samarali boʻlishida rahbarning oʻzida muayyan sifatlarni namoyon eta olishi ham hal qiluvchi omillardan biri sanaladi. Rahbar shaxsida namoyon boʻladigan maʼnaviy, axloqiy, psixologik va shaxsiy sifatlari boshqaruv faoliyatining samarali natijasini kafolatlaydi. Shu sababli umumiy oʻrta taʼlim maktablarining rahbarlari ham oʻzlarida mazkur sifatlarni doimiy ravishda takomillashtirib borishga eʼtibor qaratishlari, oʻz ustida izlanishlari lozim.

Foydalangan adabiyotlar roʻyhati

1. Abdullayeva X.A. Mashgʻulotlarda faol taʼlim usullaridan foydalanish – Fargʻona: FarDU, 2008.
2. Axliddinov R.Sh. Maktabni boshqarish sanʼati.-T: “Fan”, 2006
3. Djurayev R.X, Inoyatova M.E. Isteʼdodli farzand tarbiyasi. Ota onalar kitobi. Toshkent, 2013
4. Doʻstmuhamedova Sh.A., Nishonova Z.T. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: Fan va texnologiyalar, 2013
5. Ibragimov X.I, Yoʻldoshev U.A, Bobomirzayev X. Pedagogik psixologiya. Oʻquv qoʻllanma. Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007
6. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: Fan, 2004.
7. Yoʻldoshev J.Gʻ, Usmonov S. Taʼlim menejmenti.-T, 2006.

XXI ASR KOʻNIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA REBUS VA KROSSVORDLARNING AHAMIYATI

Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna

Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Maktabgacha, boshlangʻich va maxsus taʼlim metodikalari kafedrasi mudiri v.v.b +998972456806

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlangʻich sinf oʻqish savodxonligi darslarida rebus va krossvordlardan foydalanish asosida XXI asr koʻnikmalarini shakllantirish imkoniyatlari misollarda keltirib oʻtilgan.

Kalit soʻzlar: boshlangʻich sinf, oʻqish savodxonligi, 4K modeli: kollaboratsiya, kommunikativlik, kritik va kreativ fikrlash, rebus, krossvord.

Boshlangʻich taʼlim – shaxs shakllanishi davrining eng muhim bosqichi. Bu davr bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi boʻlgani uchun ham nozik eʼtibor talab etadi. Ayni shu pallada bola oʻzida “oʻquvchi shaxsi”ni yaratadi, maktabga va taʼlim olishga nisbatan qiziqishni, mehrni tuyadi, ilm yoʻlidagi kelgusi natijalar uchun kuch toʻplashni boshlaydi. Bu esa, zamonaviy pedagogika oldidagi doimiy va murakkab masala sifatida

darsliklarning g‘oyaviy, tarbiyaviy va ma’rifiy saviyasiga jiddiy yondashishni talab etadi.

Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o‘qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo‘yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari yangidan “4K” modeli asosida tayyorlandi. “4K” modelidan foydalanish ko‘plab sinovlardan o‘tgan, muhimi, zamonaviy yondashuvdir. Bugungi kunda o‘quvchilarda zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishning asosiy maqsadi – yosh avlodni har tomonlama yetuk, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan barkamol insonlar etib shakllantirishdir.

O‘quvchilarning zamonaviy ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida bolaning turli qobiliyatlari rivojlanadi, g‘oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi.

Pedagog olimlar o‘quvchilarning zamonaviy ko‘nikmalarining hayot bilan bog‘liqligi, bolaning yoshi, o‘ziga xos xususiyatlari, hatto jinsiy tafovutini hisobga olish ham qonun deb hisoblaydilar.

O‘quvchilarning zamonaviy ko‘nikmalarini ma’lum maqsadga qaratilganligi prinsipi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollari ko‘ra bilishda muhim o‘rin tutadi. Quyida krossvord va rebuslar asosida zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyatlarini ko‘rib chiqamiz.

Krossvordlar darslikdagi mavzular asosida tuzilishi ularning turlaridan: rasmlar asosidagi krossvordlar, savollar asosidagi krossvordlar, raqamlar asosidagi krossvordlar va boshqalar o‘quvchini intellektual qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan krossvordlardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Krossvordlarni yechish orqali o‘quvchilarda mavzuni mustahkamlash imkoni yuzaga keladi, integratsiya jarayoni amalga oshiriladi. Berilgan krossvordlarning slayd ko‘rinishida berilishi esa o‘qituvchi uchun axborot texnologiyasi asosida dars tashkil etish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan bir qatorda krossvord va rebuslar yechish yoki yaratish kreativ fikrlashga, tahlil qila olish, baholash ko‘nikmalarini shakllanishi kritik fikrlashga, fikrlarini bayon qila olish – kommunikativlikni, berilgan krossvord yoki rebusni guruhlarda topish – kollaboratsiyani yuzaga keltiradi.

Rasmlari rebus namunasi:

Rasmlarni bosh harflarini ketma-ketlikda to‘g‘ri joylashting.



Javobi: Nutq sehri.

Sonli krossvord namunasi:

3	6	9	1	5	7	8	4	2
bil	pa	mas	qa	ni	ri	bil	gan	ri

Javobi: Qari bilganni pari bilmas.

Savollar asosidagi krossvord namunasi:



"Navro'z" krossordi

1) Fasllar kelinchagi.

• 2) Milliy o'yin

• 3) Millat.



Xulosa qilib aytish mumkinki, krossvordlardan foydalanish mashg'ulotlar dasturda qayd etilgan mavzularning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarini hal qilishga qaratilgan bo'lishi bilan bir qatorda 4k modeliga asoslangan holda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
2. Azizxojayeva N.N., Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. –T. Adabiyot jamgarmasi. 2006.
3. "Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy metodikasi" dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo'llanmasi. – Toshkent, 2023.
4. Aydarova. U.B. O'qish savodxonligi. 2-sinf uchun darslik. –Toshkent, Novda Edutainment, 2023.
5. Toirova. M.E. O'qish savodxonligi. 4-sinf uchun darslik. –Toshkent, Novda Edutainment, 2023.

O'QUVCHI SHAXSIDA TALABLAR DARAJASINI ORTISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

O.Shirinov

*Sirdaryo viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
Pedagogika, va psixologiya ta'lim texnologiyalari kafedراسi mudiri*

Kalit so'zlar: O'quvchi, shaxs, ishonch, talab.

Annotatsiya: Har qanday pedagog hech qanday vositalardan foydalanmay, bolani maktabga tayyorgarligini aniqlay oladi. Ba'zi ota-onalar ham bola qanchalik sog'lom, chaqqon, mustaqil, aqlli, o'qishga tayyor ekanligini taxminan bilishadi. Bog'cha tarbiyachilari har bir bolaning maktabga tayyorgarligini to'g'ri aniqlashda yetarli pedagogik, texnologik bilim va tajribalarga ega bo'lishlari kerak, bunda ular maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya dasturi talablariga tayanishlari kerak. Agar maktabgacha davrda bola normal rivojlangan bo'lsa, uning jismoniy va aqliy rivojlanishiga hech qanday kuchli ta'sirlar bo'lmagan bo'lsa, unda bola yetti yoshda ta'lim olish darajasiga yetadi. Ammo ba'zi oilalar va bog'chada maktabga tayyor bo'lmagan bolalar ham uchraydi. Bunday bolalar mutaxassis nazoratida maxsus tekshiruvdan o'tishadi va o'qishga tayyorgarligi

darajasi haqida mutaxassis xulosa chiqaradi. Bolaning o'yinqaroqligi, mustaqil bo'la olmasligi, histuyg'u va ijtimoiy rivojlanishining juda past darajaliligi uning maktabga tayyor bo'lishiga to'siq bo'ladi. Bunday bolalar o'rtoqlari va tengdoshlari orasida o'z o'rnini topa olmaydilar. Ular kundalik faoliyatlarida yordamga muhtoj: berilgan vazifalarni tushuna olmaydilar va mustaqil bajara olmaydilar, qo'llarining mayda harakatlari yaxshi rivojlanmagan. Lug'at boyligi, o'z fikrlarini ifodalashi chegaralangan, xotirasi sust, umumlash-tirishni bajara olmaydi va hokazo. Bularga nafaqat bolaning yomon ijtimoiy ahvoli sabab bo'ladi, balki nasliy omillar, jiddiy va murakkab kasalliklari, yengil tug'ma jarohatlari, nevrozlar keltirib chiqaradigan sharoitlar ham sabab bo'ladi. Bola o'qishni butun mamlakat oldida javobgar bo'lgan o'z burchi, kishilarning mehnat hayotidagi ishtiroki tarzida anglay boshlaydi. Bola o'quvchi bo'lgandan so'ng, maktabgacha ta'lim yoshidagiga nisbatan sifat jihatdan yangi o'rin egallaydi. Shaxsning o'ziga o'zi baho berishi turli yoshda turlicha bo'lib, aksariyat o'quvchilarda mos bo'lmagan yuqori baho kuzatiladi. O'quvchi o'zining kuchiga va imkoniyatlariga ortiqcha baho berishi, undagi salbiy bo'lgan sifatlar: Manmanlik, o'ziga bino qo'yish hislarini vujudga keltiradi. O'quvchining o'z imkoniyatlarini asossiz oshirib baholashi, o'z oldiga bajara olmaydigan, qo'lidan kelmaydigan vazifalarni qo'yishiga olib keladi. Bundan tashqari, o'ziga mos bo'lmagan yuqori baholashning amaliy faoliyatda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi o'quvchida og'ir emotsional holatlarga olib kelishi mumkin. Bunday holat o'quvchida ichki ishonchsizlikni vujudga keltiradi, bu esa, o'z navbatida, salbiy xulqni shakllanishiga sabab bo'ladi.

YE.A.Serebryakovaning fikricha shaxsning – o'ziga ishonishi, ishonchsizligi va o'ziga ortiqcha ishonishi hamda intilishlari darajasi – o'ziga qanday baho berishiga va o'zi haqida qanchalik to'g'ri fikr yuritishiga bog'liq bo'ladi. O'ziga baho berish insonning o'ziga va o'z imkoniyatlariga qanchalar to'g'ri qarashida ifoda etadi.

Shaxsning o'ziga to'g'ri baho berishi insonga ma'naviy qoniqish beradi. Inson o'z imkoniyatlarini, qobiliyatlarini to'g'ri baholashi, shaxsning o'z oldiga qo'yadigan vazifalar va maqsadlarini bajarishga o'zini qodir deb bilishida ifodalanadi. Shaxsning intilish darajasi va o'zini baholashi hayotiy vaziyatlarda, jamoada, kundalik o'quv faoliyatida, ijtimoiy ishlarda, mehnatda yaqqol ko'rinadi.

Nemis psixologi K.Raven va uning izdoshlari tadqiqotlarida— intilishlar darajasi, motivlar, ehtiyojlar va ularning dinamik nisbatlari o'rganib chiqildi. Aniqlangan omillarga ko'ra, o'ziga baho berish va intilishlar darajasi, shaxsning turli topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarishida yoki muvaffaqiyat qozonmasligiga hamda shaxsning jamoadagi mavqeiga bog'liq ekanligi aniqlandi.

Kishi navbatdagi harakatning qiyinchilik darajasini bemalol tanlash imkoniyatiga ega bo'lgan paytda o'ziga o'zi beradigan bahoning oshib ketishi, ikkita psixik hodisa o'rtasida ziddiyatning kelib chiqishiga sabab bo'ladi, bir tomondan, ko'p yutuqqa erishish uchun intilishlar darajasini kuchaytirib yuborishga harakat qilsa, ikkinchidan, muvaffaqiyatsizlikka uchramaslik uchun intilishlar darajasi mezonini kamaytirishga harakat qiladi. Muvaffaqiyatga erishilgan taqdirda, intilishlar darajasi, odatda, osha boradi, kishini yana ham

qiyinroq vazifalarni bajarishga shayligini ko'rsatadi, muvaffaqiyatsizlikka uchragan paytda, bunday shaylik tegishli ravishda susayadi.

Intilishlar darajasining shakllanishi faqat yutuqqa erishilishi yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkinligini oldindan sezish bilan emas, balki, avvalo, aql- idrok, ba'zan esa o'tmishdagi yutuqlar va muvaffaqiyatsizliklarni sal bo'lsa-da, anglanilgan tarzda hisobga olish va baholash bilan belgilanadi. Maqsadga intilishlarning shakllanishi o'quvchilarning o'qishida, to'garakda qiladigan ma'ruzaning mavzusini, jamoat topshirig'ini tanlash jarayonlarida va hokazolarda ko'rish mumkin.

Chet ellarda o'tkazilgan tajribalardan birida sinaluvchilar orasida xavf-xatar bo'lgan taqdirda muvaffaqiyat qozonish emas, balki muvaffaqiyatsizlikka uchramaslik uchun ko'proq intiladigan shaxslar borligi aniqlandi. Agar ularga qiyinlik darajasi har xil bo'lgan vazifalardan birini tanlash topshiriladigan bo'lsa, bu holda ular yo eng yengil vazifalarni yoki eng qiyin vazifalarni tanlaydilar. Birlari, muvaffaqiyatga erishishga ishonganlari uchun shunday qilishsa, boshqalari muvaffaqiyatsizlikka duch kelganda bo'sh vazifaning g'oyat darajada qiyin ekanligi bilan izohlash mumkinligi uchun shunday qilishadi. Bunda nafsoniyatga ham putur yetmaydi va «men»ning siymosi ham buzilmaydi.

Shaxsning intilishlari darajasini faqat ularning ta'sirchanligi jihatidan emas, balki ularning mazmuni yuzasidan jamoaning maqsadlari va vazifalari bilan aloqadorligi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar kishi xulq-atvor motivlarini yaxshiroq anglab yetish va shaxsda eng yaxshi fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan ta'sir o'tkazish imkoniyatini berishini ko'rsatdi. Bir xil hollarda pedagog uchun o'quvchi shaxsining intilishlari darajasini oshirish vazifasi juda muhimdir, agar maktab o'quvchisi o'ziga va o'z imkoniyatlariga unchalik yuqori baho bermaydigan bo'lsa, bu muayyan darajada muvaffaqiyatga erishishga ishonchning tamomila yo'qolishiga olib boradi.

Bu o'rinda sinf jamoasi tomonidan ko'rsatiladigan bevosita yordam ham, shaxs istiqbolini yaratishning turli xil usullari ham ish beradi. Bu istiqbollari oldiniga frustratsiya namoyon bo'ladigan soha bilan bog'lanmagan boshqa jabhada aniqlanadi. So'ngra shu tariqa vujudga kelgan faollik shaxsning intilishlari darajasini oshirish va o'ziga-o'zi bergan bahosining pasayib ketgan darajasini asl holiga ko'tarish lozim bo'lgan jabhaga ko'chiriladi. Inson shaxsiga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, uning istiqbollari oqilona ishonch bilan yondashuv pedagogga o'quvchilar va o'qituvchilar jamoasining yordamiga tayangan holda, bola yoki o'spirin bilan unda o'ziga nisbatan hurmat va o'z imkoniyatlariga ishonchni uyg'otishga yordam beradigan individual ish olib borish strategiyasini topish imkonini beradi. Boshqa ko'pgina sohalardagi kabi bunda ham tarbiya tizimining insonparvarligi namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Асмолов А.Г., Цветков А.В. О роли символа в формировании эмоциональной сферы младших школьников с трудностями развития психики// Вопросы психологии.

2. Asomova R.Z. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi: Psixol. f. n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis.

3. Бекниязова Л.Б. Психологические особенности адаптации у младших подростков: Дисс. канд. психол. наук.

4. Васильев И.А., Магомед-Эминов М.Ш. Мотивация и контроль за действием.

5. Венар Ч., Керич П. Психопатология развития детского и подросткового возраста.

6. Виллюнас В.К. Психологические механизмы мотивации человека.

TA'LIM SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK USULLARI

F.F.Babajanova, Ustin P.N

Guliston davlat universiteti, pedagogika va psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi, p.f.n., dotsent Qozon federal universiteti (Rossiya)

Annotatsiya

Maqolada o'smirlik va o'spirinlik davrida ta'lim va tarbiya berishning eng samarali yo'llari va usullari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek o'sib kelayotgan yosh avlodning mafkuraviy immunitetini shakllanishiga ijobiy va salbiy ko'rsatuvchi omillar ko'rsatilgan.

***Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, o'smir, o'spirinlik davri, ma'naviyat, ijtimoiy institutlar, mafkuraviy immunitet, psixologik himoya.*

Аннотация

В статье рассказывается об эффективных путях и средствах обучения и воспитания в подростковом и юношеском периоде. В ней также раскрываются факторы положительного и отрицательного воздействия развития идеологического иммунитета подростка поколения.

***Ключевые слова:** обучение, воспитание, подросток, юношеский возраст, духовность, социальные институты, идеологический иммунитет, психологическая защита.*

Annotation

The article describes about effective ways and means of education and upbringing in juvenile and adolescence periods. It also reveals the factors of positive and negative impacts of ideological immunity on rising generation.

Key words: training, upbringing, teenager, adolescence, spirituality, social institutions, ideological immunity, psychological defense.

Ta'lim va tarbiya shaxsni kamol toptirishning asosiy poydevori bo'lib, u turli ijtimoiy institutlar, muassasa va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan, muayyan maqsadga qaratilgan ijtimoiy faoliyat va tadbirlar tizimi bo'lib hisoblanadi.

Ta'limni tarbiyadan ayro tutmagan holda olib borilishini anglab turib ham, uning ayrim talablari tarbiyachilar, ustozlar va albatta ota-onalar tomonidan to'la bajarilmayotganligi insonni bir oz taajubga soladi.

Hozirda axborot oqimining juda katta shiddat bilan hayotimizga kirib kelishi, har bir tarbiyachi-pedagogni zamon bilan hamnafas bo'lib faoliyat yuritishiga, davlatimiz tomonidan pedagog kadrlarga qo'yilayotgan talablarni o'z vaqtida, sifatli bajarilishi lozimligi o'qituvchi, tarbiyachi-murabbiylardan albatta ma'naviy,

ruhiy kuch, energiya va vaqt talab etadi. Ammo ta'lim berish, ta'lim-tarbiya jarayonida talab etiladigan me'yoriy hujjatlarni talab darajasida yuritish, ta'lim muassasalarida bajarilishi shart hisoblangan tashkiliy ishlarni sidqidildan bajarish barobarida ta'lim-tarbiya jarayonining bosh sub'ekti va ob'ekti bo'lmish o'quvchi shaxsining ma'naviy-ruhiy ozuqa bilan o'z vaqtida va qay darajada ta'minlanayotganligi haqida bir oz unutib qo'yilganligi seziladi. *Masalan*, maktab o'qituvchilari o'quvchi-yoshlar bilan aynan ularni ruhiy, jismoniy kamolotining eng murakkab bosqichi bo'lmish, o'smirlik va ilk o'spirinlik vaqtida ta'lim-tarbiya olib boradilar. O'qituvchining u tomonidan bajarilishi shart hisoblangan me'yoriy hujjatlarni yuritishiga, ta'lim muassasining har-xil tashkiliy ishlariga ajratadigan vaqti uni o'quvchi bilan olib borishi shart bo'lgan tarbiyaviy ahamiyatga ega ma'naviy-ma'rifiy soatlar hajmini tom ma'noda, to'liq bajarilmay qolishiga olib kelmayaptimikin? Shuningdek, ta'lim muassasalarida yildan-yilga qog'oz ishlari va ortiqcha majlislar o'qituvchining ish vaqtini o'g'irlab, uni ta'lim tarbiyaning bosh sub'ekti va ob'ekti bo'lmish shaxs tarbiyasidan biroz chetlashib qolishiga sabab bo'lmayaptimi?- degan savollar o'z-o'zidan kelib chiqadi.

O'quvchilar sevib ishtirok etishni yaxshi ko'radigan, ulardan juda katta ma'naviy ozuqa olish mumkin bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, yoshlarning ma'naviy-ruhiy va jismoniy kamolotiga katta ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarda oqko'ngillik, mehribonlik, Vatanga, yaqin insonlariga bo'lgan muhabbatni, insonparvarlik va bag'rikenglikni, o'ziga nisbatan talabchanlikni, o'zligini, aniq masadini va faoliyatini to'g'ri anglash, mas'uliyatni his etish, to'g'ri so'zlik, mardlik va jasurlik kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ammo yurtimizning ardoqli qariyalari, urush va mehnat fahriylari, o'z kasbining ustalari sanalmish har-xil kasb egalari, teatr va san'at ustalari bilan uchrashuvlar, rang-barang rukndagi tanlovlar, kitobxonlik kechalarini kamayib borayotganing, joylarda faqat qog'ozlarda qoralanib kelayotganligi achinarli holdir.

Ammo mafkuraviy immunitetni kuchaytirish uchun nima qilmoq kerak?

Inson tug'ilib, o'zining ilk nafasini olishi bilanoq, uning shaxs sifatida shakllanishining uzoq va mushaqqatli jarayoni boshlanadi. Oilamizda farzand tug'ilsa, butun oila, quda-andalar, qo'ni-qo'shnilar, yaqin qarindoshlar quvonchli damlarni boshimizdan o'tkazamiz, o'zimizni eng baxtiyor inson sifatida anglaymiz. Farzand tug'ilishidan ortiq baxt yo'q, deb hisoblaymiz.

Ammo inson salomatligining boshqa, har doim yaqqol ko'rinmaydigan va anglanmaydigan yashirin bir qirrasini ham mavjud. Bu ma'naviy va mafkuraviy salomatlikdir. Farzandimizning qornini to'ydirish va egnini bud qilish bilan bir qatorda, uning ahloqiy va estetik tafakkurini shakllantira borish, uni takomillashtirib borish, ota-onalar, mahalla, maktab, kattalar majburiyati hisoblanadi.

Inson mafkurasi, bir kunda va birdaniga shakllanadigan hodisa bo'lmay, balki yillar davomida asta-sekinlik bilan shakllanadigan, inson xulq-atvori orqali o'zini namoyon etadigan ijtimoiy hodisadir. Inson shaxs sifatida shakllanishining mazkur ikki qirrasini, salomatligi, ya'ni uning jismoniy salomatligi va ma'naviy salomatligi,

uning hayoti va taqdirigagina emas, balki yaqinlari, qolaversa, butun jamiyat va davlat taqdiriga ham o'z ijobiy (yoki salbiy) ta'sirini o'tkazishi mumkin. Har bir insonning maslak va orzu-umidlari yig'indisidan davlatchilik va jamoa orzu-umidlari shakllanadi, agar ana shu istaklar ichida buzg'unchilik va parokandalik tuyg'ulari bo'lsa, tabiiy ravishda, bu holatlar o'z qo'poruvchi ta'sirini davlatchilik va jamoa rivojiga ham o'tkazadi.

Din inson mafkurasi va e'tiqodida o'ziga xos mustahkam o'ringa ega bo'lib, diniy e'tiqod odamlar uchun zaruriy ma'naviy ehtiyoj hisoblanadi. Din insonlarning ma'naviy poklanishi, ahloqiy tarbiyasi, insoniy komilligi, hayot zarbalariga qarshi kurashidagi tayanchi, xalqlar va millatlar ma'naviy boyligi va boy madaniyatining ajralmas bir bo'laki, inson ijtimoiy taraqqiyotining uzviy tarkibiy qismi hisoblangan. Din inson ma'naviy shakllanishida uning tabiatida chuqur ildiz otgan insoniy yetuklik va barkamollik, insonparvarlik me'yorlaridan biri hisoblanadi.

Biz maktab davrining ilk bosqichidan boshlab oliy ta'lim dargohini tamomlab yetuk mutaxassis bo'lgunga qadar farzandlarimizni salbiy ta'siralardan himoya qilishimiz, ularning aqliy bilimni qabul qilish imkoniyati darajasida ularga ilm-ma'rifatni berib bormog'imiz darkor. Buning uchun faqat dars jarayonida ta'limiy-tarbiyaviy metodlarni qo'llab o'quv jarayonini tashkil etishimizni o'zi kamlik qiladi.

Biz muntazam ravishda uzluksiz ta'lim tizimining qaysi turida ta'lim berilishidan qat'iy nazar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni ko'proq, sifatliroq, samaraliroq va maqsadli tarzda, takror aytaman aniq tarbiyaviy maqsadni ko'zlagan (sog'lom fikrga ega, o'zligini yaxshi anglagan, har tomonlama yetuk va mustaqil shaxsni tarbiyalash) holda tashkil etilishiga e'tibor qaratmog'imiz darkor. Yana shuni hamisha yodda tutmog'imiz kerakki, ta'lim oluvchining ota-onasi ham bizning doimiy tarbiya ob'ektimiz va tarbiya jarayonida hamkorlarimiz bo'lishlari lozim.

Insonparvar demokratik jamiyatni qurayotgan O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya ma'naviy barkamol, ruhan tetik, mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan, zamon talabiga javob beradigan komil insonni shakllantirishga yo'naltirilgan. Zotan faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib obro'li o'rinni egallashi uchun fidoiylik bilan kurashishi mumkin.

Ushbu maqsadlarni ko'zlab, ichki ishlar idora xodimlari bilan ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari hamkorlikda ta'limni yuqorida sanab o'tilgan bosqichlarida ta'lim-tarbiya olayotgan voyaga yetmagan yoshlar bilan aqidaparaslik, diniy ekstremizm va fundamentalizm, terrorizm, missionerlik va prozelitizm kabi yurtimiz tinchligiga rahna solayotgan salbiy oqimlarga qarshi kurash maqsadida muntazam ravishda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishmoqda. Bunday tadbirlar albatta yurtboshimiz tomonidan aytib o'tilgan yoshlarning ma'anaviy immunitetini mustahkam bo'lishida asosiy omillardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bezduxov V.P., Mishina, S.Ye. Pravdina O.V. Teoreticheskie problemy stanovleniya pedagogicheskoy kompetentnosti uchitelya. Samara, 2001. 132 s.
2. Babajanova Fotima Farmanovna. SYSTEM OF IMPROVING PSYCHOLOGICAL PREPARATION OF STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY. International Engineering Journal For Research & Development Teacher of the Department "Psychology" E-ISSN: 2349-0721 <https://internationalbulletins.com/intjour/index.php/ibet/article/view/790>
3. Babajanova Fotima Farmanovna. The early juvernile age is the sensitive perlod for displaying scientific and creative abilities. Austrian Journal of Humanities and Social Sciences. Scientific journal № 3–4 2015 (March–April)
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/sposoby-emotsionalnogo-vozdeystviya-na-proyavlenie-nauchno-tvorcheskih-sposobnostey-lichnosti-v-yunosheskom-vozraste>

O‘QUVCHILARNI KRITIKAGA O‘RGATISH

Uralov Azamat Begnarovich

Sirdaryo viloyati pedagogika markazi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Mavzu doirasidagi bir termin **4K** medilidir. 4K – XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirib beradi. 4K ning tarkibiy qismlari 4 ta “k” dan iborat bo‘lib, **kommunikativlik, kollabaratsiya, kreativlik va kritikani** qamrab oladi. Fikr (mavzu) doirasiga kirivchi kritika haqida bir oz to‘xtalamiz.

Kritik (tanqidiy) fikrlash. Ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o‘rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtayi nazarini shakllantiradi. Yangi innovatsion yondashuvni O‘zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o‘rganilgan. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta’limi ilg‘or mamlakatlar o‘quvchilarda 4K tamoyilini o‘z ichiga olgan XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratildi.

Kreativ fikrlashning afzal tomonlaridan yana biri o‘quvchiga yodlatish usuli bilan emas, izlanish va kashfiyotchilik qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash orqali asosiy bilimni egallashga erishishdir. PISA – 2022 tadqiqotlari faqatgina 15 yoshli o‘quvchilarning kreativ fikrlash jarayoniga ko‘proq e’tibor qaratildi. Bu xalqaro tadqiqot faqatgina ijodkor o‘quvchilarni ajratmasdan, balki o‘quvchilarning fikrlashini orttirish hamda fikrini ifodalashda va bu kabi qobiliyatlarini o‘qitish jarayoni maktab faoliyati yoki ta’limning boshqa xususiyatlari bilan qanchalik uzviylikini baholadi. PISA tadqiqotlarining oldidagi asosiy ishi ta’lim sohasi va pedagogikada katta natijalarga erisha oladigan kreativ fikrlash ko‘nikmasiga tegishli xalqaro darajadagi ma’lumotlar berishdan iborat. Shuni takidlash kerakki,

kreativ fikrlash ko'nikmasi ta'lim olish jarayonida shakllanishi, uning o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini o'qitish jarayonida kreativ fikrlashining imkoniyatlari aniq natijalarga olib keladi. Bu jarayonda o'quvchilarning o'zlashtirishidan kelib chiqqan holda, beriladigan topshiriqlar maktabda o'qitiladigan fanlar bilan uzviy bog'langan bo'lishi, amaliy hamda test topshiriqlari sinfda yoki sinfdan tashqari bajariladigan topshiriqlarga yaqin oddiy va sodda bo'lishi kerak. Testlarda mulohaza qilish, baholash uchun zarur topshiriqlar bilan ishlash jarayonida beriladigan ma'lumotlar o'quvchini kreativ fikrlashini rivojlantirish darajasida bo'ladi.

Yozma ifodalash. Maktab va maktabdan tashqari muhitda yozma ifodalash kreativ ifodalashning tabiiy usulidir. Bu orqali o'quvchilarda kognitiv, nutq, muloqat qila olish va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishga erishiladi. Haqiqiy kreativ yozuvchi yozgan yozma ifoda tushinishga oson, tavsilotga boy va eng muhimi mantiqiy bog'liqlikka tayanadi. Kitobxondan esa tasavvur qilish va tushinishgina talab etiladi. Yozma ifodani yaratayotgan yozuvchi yozuvida kechayotgan voqea jarayonlarning mazmun mohiyatiga hattoki o'z galar kechinmalari va matnlariga javobgar bo'ladi. Kreativ yozuvchi yaratgan kreativ yozmalar orqali kitobxon borliqni anglash umumiy qilib aytganda, hissiy va intellektual qobiliyatlarga ega bo'ladi. Yozma kreativlik o'quvchiga hayotni to'laligicha anglash, hamda ijtimoiy muhit bilan muloqat qilish kabi yutuqlarni beradi. Ona tili darslarida bu jihatlarni shakllantirib borish vazifasi aynan sizga yuklatiladi.

Bizga ma'lumki, kreativ fikrlash o'quvchida mantiqiy va tanqidiy fikrlashga asos bo'ladi. Ta'lim jarayonida kreativ fikrlash imkoniyati va uning namoyon bo'lishi quyidagicha: Maktablar kreativ fikrlash konikmasi, aqliy ko'nikmalar, bilim sohasining tayyorligi (ma'lum sohaga tegishli bilim va tajriba), yangi goyalar va tajribalarga nisbatan ochiqlik, boshqalar bilan ishlash konikmasi yoki boshqalar fikri bilan kelishish (hamkorlik, kollabaratsiya), qiyinchilikka duch kelganda o'z maqsadiga erishishga harakat qilish, insonning ijodkorlikka nisbatan qobiliyatiga ishonish (maqsadga yo'naltirilganlik va ishonch) shu bilan birga, topshiriqni bajarishga ragbatlantirilganlikni o'zlashtirish uchun oquvchilarning ichki imkoniyatlarining turli jihatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Sinfda kreativ fikrlashni bunday o'ziga xos tarzda namoyon etuvchi omillar bir-biriga o'zaro chambarchas bog'langan bo'ladi. Kreativ fikrlashni ijtimoiy jihatdan rag'batlantiruvchi omillar umumiy madaniy tartiblar yoki qonuniyatlar yordamida o'z-o'zidan shakllanib boradi. Ta'lim olish jarayonida o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini ragbatlantirilishi ularning yaratuvchanlik qobiliyatlariga bo'lgan ishonchini, o'zini o'zi boshqarish xususiyatlarida va faoliyatlarida, jumladan, qat'iylik va sabr-matnatda samaradorlikni oshirishga qaratilgan bo'lib, bu o'z navbatida, oquvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillar qayidagi tarzda shakllanishi va mustahkamlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ichki ijodiy samaradorlik insonni biror vazifani ijodkorona amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi uchun kerakli ishonchga nisbatan aytiladi. Maqsadga yo'nalganlik va kreativlik borasida o'z-o'ziga ishonch bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ayrim tadqiqotchilar insondagi ichki ijodiy samaradorlikning qiyinchilikka

qaramasdan harakat qilishi va nihoyat oldiga qo‘ygan vazifani to‘liq bajarishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaydi. Insondagi bunday qat’iy ishonch, o‘z navbatida, insonda mavjud bo‘lgan tirishqoqlik, kayfiyat va bajarilishi kerak bo‘lgan vazifaning ijtimoiy holatiga bog‘liq bo‘ladi.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimiga e’tibor berilib, o‘quvchi yoshlarimizning jahon andozalariga mos ravishda zamonaviy bilim va kasb-hunarli bo‘lishi, jismonan va ma’nan yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi, ularning qobiliyat va iste’dodini yuzaga chiqarish ularning qalbida vatanparvarlik, insoniylik, kasbiga fidoiylik tuyg‘ularini rivojlantirish kabi ulkan ishlar rejalashtirilib, ketma-ketlikda amalga oshirilmoqda.

Dunyoning turli mintaqalarida kreativ tushinchalar insoniyat madaniyatining ravnaq topishiga, tabiiy, falsafa san’at va gumanitar fanlarning rivojlanishiga asos bo‘ldi. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy fikrlashdan farq qiladi. Kreativ fikrlash bilim va tajribaga asoslangan haqiqiy kompetensiya bo‘lib, insonlarning keskin va murakkab vaziyatlarda kutilgan natijalarga erishishga sharoit yaratadi. Ta’limning vazifasi o‘quvchilarni kelajakda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zaruriy kompetensiyalar bilan ta’minlashdan iborat. Bular sababli ular globallashuv jarayonida tez o‘zgarib borayotgan, savodxonlik va raqamlash ilgari surilgan va hozirgi zamon talablariga ega moslashuvchan ishchilarni dunyoga moslashishiga yordam beradi. Kreativ fikrlashni o‘quvchi yoshlar egallashi natijasida ularda dolzarb muammolarni yechish uchun yangi texnologiyalardan foydalanib, hali yaratilmagan sektorlarda ishlash, shu qatorda mashina bajara olmaydigan ishlarni bajarish va global muammolarni yechish qobiliyatlari rivojlanadi. Maktablarda ham o‘quvchilarni kreativ fikrlashga bo‘lgan ehtiyoji maktab bozori talabidan kelib chiqqan holda ortmoqda. Maktablarning jamiyat hayotidagi ahamiyati shundan iboratki: o‘quvchilarni jamiyatning bir qismi ekanligini his qilgan holda, jamiyat ravnaqi uchun o‘z hissalarini qo‘shish va uning oldidagi burchlarini bajarish kabi tuyg‘ularni ularda oshirishdir. Xalqaro tadqiqotlar esa o‘quvchilarda kreativ fikrlashini oshirish orqali ularning, tajribalar, hodisalar va shu qatorda vaziyatlarni yangicha uslubda yondashishini ta’minlaydi, bilim olishiga yordam beradi. O‘quvchining fikrlashi, qiziquvchanligini tezlashtirish va rag‘batni oshirish uchun uning ijodkorlik imkoniyatlari shuningdek yangicha qirralarini ochib beradigan yangi uslubdagi texnologiya va o‘rganish shakllari shakllantirilishi kerak. Bu kabi rivojlanish uslublari ta’lim olishi sust o‘quvchilarni o‘z fikrini ifodalash hamda qiziqishlarini ortishiga yordam beradi. Kreativ fikrlash ham boshqa qobiliyatlardak maqsadli va amaliy bo‘lishi mumkin. Bazi o‘qituvchilar nazarida o‘quvchini kreativ fikrlashini oshirish o‘quv dasturidan tashqari boshqa faoliyat turiga jalb qilishdek ko‘rinadi. Aslini olganda esa, o‘quvchilar mavjud hamma fanlar kesimida kreativ fikrlay olish qobiliyatlari hisobga olinadi. Kreativ fikrlashning avzal tomonlaridan yana biri o‘quvchiga yotlatish usuli bilan emas, izlanish va kashfiyotchilik qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash orqali asosiy bilimni egallashga erishiladi.

O‘quvchilarning fikrlash jarayonlarini baholab borish, samarali va mahsuldor g‘oyalar topishga yordam beradi. Bu jarayonlarda yangi g‘oyalar topiladi yoki mavjud g‘oyalar qaytadan shakllanadi. Takrorlash va baholash jarayonlari kreativ

fikrlashning asosi bo'la oladi. Tashqi tomondan boshqa shaxslar beradigan g'oyalardagi kamchilik va qulayliklarni aniqlay olish qobiliyati tufayli hosil qilingan ko'nikma jamoa bo'lib ishlashning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida kreativ fikrlash imkoniyati va uning namoyon bo'lishi quyidagicha Maktablar kreativ fikrlash konikmasi, aqliy ko'nikmalar, bilim sohasining tayyorligi – bilim va tajriba, yangi goyalar va tajribalarga nisbatan ochiqlik, boshqalar bilan ishlash ko'nikmasi yoki boshqalar fikri bilan kelishish (hamkorlik), qiyinchilikka duch kelganda o'z maqsadiga erishishga harakat qilish, insonning ijodkorlikka nisbatan qobiliyatiga ishonish shu bilan birga, topshiriqni bajarishga ragbatlantirilganlikni o'zlashtirish uchun o'quvchilarning ichki imkoniyatlarining turli jihatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Sinfda kreativ fikrlashni bunday o'ziga xos tarzda namoyon etuvchi omillar bir-biriga o'zaro chambarchas bog'langan bo'ladi. Kreativ fikrlashni ijtimoiy jihatdan ragbatlantiruvchi omillar umumiy madaniy tartiblar yoki qonuniyatlar yordamida o'z-o'zidan shakllanadi, ta'lim olish jarayonida o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini ragbatlantirilishi ularning yaratuvchanlik qobiliyatlariga bo'lgan ishonchini, o'zini o'zi boshqarish xususiyatlarida va faoliyatlarida, jumladan qat'iylik va sabr-matnatda, samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Bu o'z navbatida, o'quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillar qayidagi tarzda shakllanishi va mustahkamlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ichki ijodiy samaradorlik insonni biror vazifani ijodkorona amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi uchun kerakli ishonchga nisbatan aytiladi. Shu sababli o'quvchilarda kreativ fikrlashga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada his etilmaydi.

Kreativ fikrlovchi o'quvchilarni tavsiflovchi shaxsiy xususiyatlarni aniqlashga doir juda ko'p adabiyotlar mavjud. Kreativ o'quvchilarning shaxsiyati haqida xulq-atvorini o'rganuvchi empirik tadqiqotlarda, odatda anketa vositalaridan foydalaniladi va ijodkorlikni nisbatan barqaror shaxsiyat fazilati sifatida ishlatadi. Ko'pchilik kreativ o'quvchilar fikrlashga va shuning bilan birgalikda, "ochiqlikka" ishtiyoqmand ekanini: ya'ni ularda ham "tajribaga ochiqlik" ham "bilim olishga ochiqlik" (garchi ikkala variant ham kattaroq "ochiqlik" faktorini o'z ichiga olgandek ko'rinsa ham) mavjud ekanligini ko'rsatadi. O'quvchilar boshqalarning fikr-mulohazalarini hurmat qilishni, birgalikda ishlash ko'nikmasini hosil qilishni va jamoaviy harakatlanishni o'rganishlari kerak. Topshiriq motivatsiyasi – kreativ fikrlashga asoslangan topshiriq esa o'quvchini dunyoqarashini yanada oshiradi. Turli noananaviy fikrlarga ega bo'lgan har qanday o'quvchining kelajakda o'rin topib ketish ehtimoli yuqori bo'ladi. Quyida ayrim mantiyiqiy fikrlashga doir masalalar berib ko'ramiz:

1. Savatda 5 ta olma bor. 5 kishiga olmalarni taqsimlab 1 ta olmani savatda qoldirish uchun nima qilish kerak? Bir kishiga olmani savati bilan berish kerak.
2. Bo'sh savatga nechta olma sig'adi? Bitta.
3. 3 nafar shaxmat o'yinchisi bir partiyadan o'yin o'tkazdi. Har bir o'yinchi 2 soatdan vaqt sarfladi. O'yin qancha vaqt davom etgan? 3 soat.
4. O'rindiqda 5 bola o'tirgan edi. Ulardan 2 tasi uyiga ketishga qaror qildi. O'rindiqda nechta bola qoldi? 5 ta.

5. Tasavvur qiling dengizda qayiqda ketyapsiz. Birdan qayiq teshilib qayiqqa suv kira boshladi. Cho'kish arafasidasiz, kamiga akulalar hujumi yaqinlashmoqda.

Nima qilishingiz kerak? Tasavvurni to'xtatish kerak.

6. Qaysi so'zni tog'ri talaffuz qilsangiz noto'g'ri bo'ladi, notog'ri talaffuz qilsangiz to'g'ri bo'ladi? Notog'ri.

Xulosa. Ta'lim sohasida olib borilgan bir qator izlanishlar orqali bilim va ko'nikmalarning hosil qilinishi ehtimolini oshiradigan o'qitish yoki o'rganishning turli usullariga tayanib aytish mumkinki, kreativ fikrlash bilim va ko'nikmalarni hosil qilishga imkon beruvchi jamoaviy muhitda birgalikda ishlash orqali rivojlantiriladi. Boshqacha aytganda, maktablar bilim va ko'nikmalarni hosil qiluvchi tashkilot sifatida faoliyat ko'rsatib, unda o'quvchilar yangidan yangi g'oyalarni bilan sug'orilgan ijodiy va muntazam faoliyat turi bilan faol shugullanadi. Qachonki bilim hosil qilish jarayoni ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lgan maqsadli faoliyatga, ya'ni kundalik faoliyat turiga aylansa, o'quvchi yangidan yangi fikr-mulohazalarini doimiy rivojlantirib boradigan amaliy faoliyatlar bilan jamiyat rivojiga o'z hissasini qoshadi. Dunyoga savol to'la hayrat kozi bilan qarash, deganda o'quvchining dunyoni anglashga urinish jarayoni tushuniladi va bu o'quvchilarni turli hodisalar borasida o'zlarining fikr-mulohazalarini ilgari surishlariga turtki bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

G'ofurjanova Nilufar Bo'lajak o'qituvchilarning xalqaro baholash dasturlari standartlarida qayd etilgan kompetensiyalarni rivojlantirish mavzusiga bag'ishlanga maqolasi.

1. G'ulomov A., Qodirov M. O'zbek tili o'qitish metodikasi darslik – T, 2012.
2. Mahmudov N., Sobirov A., Mannopova D. 6-sinf ona tili darsligi - T, 2020.
3. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh.
5. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. – Toshkent: Nosir, 2009.
4. Sanoyeva Muxtabar Nabiyevena "Matn ustida ishlash metodikasi" darslik-T., 2023.
5. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Adabiyot jamg'armasi, 2006.
6. Uralov A., Qambarov M. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: MIF MSH, 2024.

ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA PEDAGOGLARNING TA'LIM BERISHDAGI ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Nizamov Akmal Shoxobiddinovich

Guliston davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi, Sirdaryo viloyati

Pedagogika markazi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada raqamli asrda an'anaviy o'qitish usullari qanchalik yetarli emasligi ta'kidlanib, o'qituvchilarning texnologiyani o'qitish amaliyotiga muammosiz integratsiyalash zarurligi ta'kidlangan. Bu o'qituvchilarning elektron

o'quv vositalari va platformalaridan samarali foydalanishini ta'minlash uchun zamonaviy o'qitish usullari muhimligini ta'kidlaydi. Maqolada asosiy e'tibor elektron ta'lim muhiti yordamida osonlashtirilgan o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvlariga qaratilgan. Unda zamonaviy o'qitish usullari o'qituvchilarni o'quvchilarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va o'rganish uslublariga moslashtirilgan shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasini yaratish uchun qanday jihozlashi muhokama qilinadi.

Аннотация. В статье подчеркивается неадекватность традиционных методов обучения в эпоху цифровых технологий и подчеркивается необходимость для учителей беспрепятственно интегрировать технологии в свою педагогическую практику. Это подчеркивает важность современных методов обучения для обеспечения эффективного использования учителями инструментов и платформ электронного обучения. В статье основное внимание уделяется подходам к обучению, ориентированным на учащихся, которым способствует среда электронного обучения. В нем обсуждается, как современные методы обучения позволяют учителям создавать персонализированный опыт обучения, адаптированный к индивидуальным потребностям, интересам и стилям обучения учащихся.

Kalit so'zlar. Raqamli vositalar, differensial ta'lim, zamonaviy o'qituvchi, an'anaviy, elektron ta'lim, individual ehtiyoj, ta'lim texnologiyasi

Ключевые слова. Цифровые инструменты, дифференцированное образование, современный педагог, традиционное, электронное обучение, индивидуальные потребности, образовательные технологии.

Bugungi jadal raqamli davrda ta'lim landshafti doimiy ravishda rivojlanib bormoqda, elektron ta'lim muhirlari tobora keng tarqalgan. Ta'lim texnologiyani qamrab olganligi sababli, o'qituvchilarning roli ushbu yangi hududda harakat qilishda murabbiylar va yo'l boshchilar roliga aylanadi. Ushbu raqamli ta'lim ekotizimida samarali harakat qilish va rivojlanish uchun o'qituvchilar elektron ta'lim muhitining imkoniyatlaridan to'liq foydalanishini ta'minlash uchun o'z mashg'ulotlarida zamonaviy usullar bilan jihozlangan bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bu erda biz elektron ta'lim muhiti uchun o'qituvchilarga ta'lim berishda zamonaviy usullarni integratsiyalash muhimligini ko'rib chiqamiz.

Raqamli pedagogikaga moslashish. O'qituvchilarning elektron ta'lim muhitidan samarali foydalanishini ta'minlash uchun o'qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy usullari muhim ahamiyatga ega. Raqamli vositalar va platformalar ta'limda markaziy rol o'ynaydigan dunyoda an'anaviy o'qitish usullari endi yetarli emas. O'qituvchilar malakasini oshirish dasturlariga zamonaviy usullarni kiritish orqali o'qituvchilar texnologiyani o'z o'qitish amaliyotiga muammosiz integratsiya qilishni o'rganishlari mumkin, faollik, hamkorlik va talabalar natijalarini oshirish.

Texnologik taraqqiyot bilan hamnafas bo'lish. O'qituvchilarning elektron ta'lim muhitidan samarali foydalanishini ta'minlash uchun o'qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy usullari muhim ahamiyatga ega. Raqamli vositalar va platformalar ta'limda markaziy rol o'ynaydigan dunyoda an'anaviy o'qitish usullari endi etarli emas. O'qituvchilar malakasini oshirish dasturlariga zamonaviy

usullarni kiritish orqali o'qituvchilar texnologiyani o'z o'qitish amaliyotiga muammosiz integratsiya qilishni o'rganishlari mumkin, faollik, hamkorlik va talabalar natijalarini oshirish.

Texnologik taraqqiyot bilan hamnafas bo'lish. Texnologiya sohasi dinamik bo'lib, muntazam ravishda yangi innovatsiyalar paydo bo'ladi. O'qituvchilarning elektron ta'lim muhitida dolzarb va samarali bo'lishlari uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish juda muhimdir. Ta'limning zamonaviy usullari o'qituvchilarni yangi texnologiyalarga moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlar bilan jihozlaydi va o'quvchilarining o'quv tajribasini oshirish uchun ulardan foydalanadi. Ta'limni boshqarish tizimlaridan tortib interaktiv multimedia resurslarigacha bo'lgan zamonaviy o'qituvchilar malakasini oshirish o'qituvchilarning keng ko'lamli texnologik vositalardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

O'quvchilarga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirish. Elektron ta'lim muhitlarining asosiy afzalliklaridan biri ularning shaxsiylashtirilgan va o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim tajribasini osonlashtirish qobiliyatidir. O'qituvchilar malakasini oshirishning zamonaviy usullari o'quvchilarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va ta'lim uslublarini birinchi o'ringa qo'yadigan pedagogik yondashuvlarni qo'llash muhimligini ta'kidlaydi. Differensial ta'lim, moslashtirilgan ta'lim va loyihaga asoslangan ta'lim kabi usullar orqali o'qituvchilar turli xil talabalar populyatsiyasiga mos keladigan dinamik va interaktiv o'quv muhitini yaratishi mumkin.

Raqamli savodxonlik va raqamli fuqarolikni tarbiyalash. O'qituvchilar malakasini oshirishdagi zamonaviy usullar fanga oid bilim va pedagogik mahoratdan tashqari, o'qituvchilarda raqamli savodxonlik va raqamli fuqarolikni tarbiyalashga ham e'tibor qaratadi. O'qituvchilar raqamli platformalarda harakat qilish, onlayn resurslarni tanqidiy baholash va talabalarga texnologiyaga mas'uliyatli va axloqiy munosabatda bo'lishni o'rgatishda mohir bo'lishi kerak. Raqamli xavfsizlik, kiberhujumning oldini olish va axborot savodxonligi bo'yicha darslarni o'qituvchilar tayyorlash dasturlariga kiritish orqali o'qituvchilar o'quvchilarga tobora o'zaro bog'langan dunyoda mas'uliyatli raqamli fuqarolar bo'lishlari mumkin.

Uzluksiz ta'limni targ'ib qilish. Ta'lim – bu umrbod sayohat va o'qituvchilar uchun ham xuddi shunday. O'qituvchilar malakasini oshirishning zamonaviy usullari uzluksiz ta'lim madaniyatini shakllantiradi, pedagoglarni doimiy ravishda yangi bilim, ko'nikma va ilg'or tajribalarni izlashga undaydi. Kasbiy rivojlanish imkoniyatlari, onlayn kurslar va hamkorlikdagi o'quv jamoalari orqali o'qituvchilar ta'limdagi so'nggi tendensiyalar va innovatsiyalardan xabardor bo'lib, elektron ta'lim muhitidagi o'zgarishlarning samarali agenti bo'lib qolishlarini ta'minlashlari mumkin.

Xulosa

Elektron ta'lim muhiti ta'limda tobora kengayib borayotgan bir paytda, o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyasida zamonaviy usullardan foydalanishning ahamiyatini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. O'qituvchilarni raqamli sinflarda rivojlanish uchun zarur bo'lgan ko'nikma, bilim va fikrlash tarzi bilan

jihozlash orqali biz o'quvchilarning yuqori sifatli, qiziqarli va moslashtirilgan ta'lim tajribasini olishini ta'minlay olamiz. Uzluksiz kasbiy rivojlanish va umrbod ta'limga sodiqlik orqali o'qituvchilar texnologiyaning kuchidan o'quvchilarning keyingi avlodini ilhomlantirish, kuchaytirish va tarbiyalash uchun foydalanishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xusan Xolmuratovich Muratov. Elektron ta'lim resurslari va multimediali elektron o'qitish vositalari orqali ta'lim muhitining rivojlanishi. academic research in educational sciences |volume 2 | issue 1 | 2021.

2. Марчук Н.Ю. Психолого-педагогические особенности дистанционного обучения // Педагогическое образование в России. - 2013. №4.

3. Куфлей О.В, Дмитриенко И.А. Внедрение электронного обучения как системный фактор развития образования. Ksla.kg. [Электронный ресурс]. URL: http://ksla.kg/upload/file/vestnik/vestnik_2014_2/90-94.pdf.

4. Taylakov, Norbek Isakulovich, and Fotima Urazaliyevna Anarbaeva. "Pedagogical Features Of Moodle Platform." The American Journal of Applied sciences 2.07 (2020): 104-107.

5. Anarbayeva, Fotima Urazaliyevna, Asqar Abduhakimovich Abdullaev, and Abduvafo Fazliddinovich Qorayev. "Pedagogical Approach To The Use Of Electronic Education In The Educational Process."

6. Anarbayeva, Fotima, and Gayrat Nurmatov. "Features of electronic learning." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 10.5 (2020): 1781-1783.

https://uz.wikipedia.org/wiki/Elektron_ta%27lim

VIRTUAL MAKONNING DAVLAT BOSHQARUV SOHASIDAGI O'RNI. VIRTUAL TAHDIDLARINING YOSHLAR DUNYOQARASHIGA TA'SIRI

Muhiddinova Dilnoza Shavkatovna

Gulistan State University Teacher

Shavkatovna2022@mail.ru +99 899 474 56 96

Annotatsiya: Virtual ijtimoiy tarmoq tahdidlarining omma ongiga ta'sir doirasi

juda katta bo'lib, uning asosiy sabablaridan biri, juda katta oqimdagi insonlarni (foydaluvchilarni) qamrab olganligidadair. Tarmoqlardan oqilona foydalan olgan shaxslar uchun katta manfaatlar ko'zlangan bo'lib, keng ma'noda axborot almashishi, ayniqsa bir necha yil davom etgan karantin davrlarida ta'lim jarayoniga ham yordami behisob bo'ldi. Ammo, virtual makondan o'zining shaxsiy vayronokr maqsadlari uchun foydalanadigan shaxslar ham yo'q emas. Virtual tarmoqning ko'rinmas qarmog'idan himoyalanimiz zarur.

Kalit so'zlar: Virtual tarmoq, g'oyalar, axborot vositalari, tarmoq foydalari, tahdidlar, yolg'on xabarlar, foydalanuvchilar, omma ongi, ta'sir doirasi, ta'lim, tarbiya, dunyoqarash.

Virtual makon tushunchasi davlat va xo‘jalik ishlarida keng foydalanilib, davlat rahbarining muhim strategiyalaridan biri hisoblanadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining virtual makonda ishtirokini ta‘minlash, elektron davlat xizmatlari ko‘rsatishning yagona tizimini rivojlantirish borasida izchil ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, bugungi tub demokratik islohotlar davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari faoliyatining yanada ochiqligi va shaffofligini ta‘minlashni, ularning jamoatchilik bilan aloqalarini yangi bosqichda rivojlantirishni taqozo etmoqda. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishga oid vazifalarni amalda ro‘yobga chiqarish hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining virtual makonda ishtirokini yanada takomillashtirish, axborot xizmatlarining jamoatchilik fikrini, ushbu organlar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarga aholining munosabatini tizimli o‘rganish bo‘yicha rolini kuchaytirish, ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga davlat organlarining o‘z vaqtida va doimiy ravishda munosabat bildirishini samarali tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi.¹ Mamlakatda davlat organlarining virtual makonda ishtirokini ta‘minlash, elektron davlat xizmatlari ko‘rsatishning yagona tizimini rivojlantirish, davlat organlarining aholi bilan muloqotini takomillashtirishning yangi mexanizmlarini joriy qilish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Davlat hokimiyati tizimida yangi institut — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi, joylarda esa Xalq qabulxonalari tashkil etildi. Ushbu tuzilmalar barcha darajalardagi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining fuqarolar bilan ularning eng muhim muammolarini hal etish bo‘yicha samarali hamkorlik tizimiga aylandi. Jadal rivojlanayotgan milliy axborot-kommunikatsiya infratuzilmasining yangi axborot texnologiyalarini faol qo‘llash hisobiga davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslar, tadbirkorlik sub‘ektlari bilan o‘zaro tezkor aloqa o‘rnatishini ta‘minlamoqda. Shu bilan birga, ushbu sohada islohotlarning hozirgi bosqichi, rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari faoliyatining yanada ochiqligi va shaffofligini, qarorlar qabul qilishda jamoatchilik bilan faol hamkorlikni ta‘minlash borasida bir qator tizimli muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Chunonchi:

birinchidan, Internet jahon axborot tarmog‘idagi (keyingi o‘rinlarda Internet deb ataladi) milliy axborot resurslari mamlakatning innovatsion rivojlanish yo‘liga, raqamli jamiyat va iqtisodiyotga o‘tish, axborotlashgan jamiyat shakllanishi bilan bog‘liq muhim vazifalarni amalga oshirishga yetarli darajada xizmat qilmayapti; ikkinchidan, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari axborot xizmatlarining jamoatchilik fikrini, ushbu organlar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarga aholining munosabatini tizimli o‘rganish, ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga davlat organlarining o‘z vaqtida va doimiy ravishda munosabat bildirishini

¹ Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири А. АРИПОВ Тошкент ш., 2018 йил 7 август, 622-сон ДАВЛАТ ВА ХЎЖАЛИК БОШҚАРУВИ ОРГАНЛАРИНИНГ ВИРТУАЛ МАКОНДА ИШТИРОКИНИ ФАОЛЛАШТИРИШ КОНЦЕПЦИЯСИНИ ТАСДИҚЛАШ ТЎҒРИСИДАги қарори

samarali tashkil etish borasidagi faoliyati hozirgi kun talablariga to'la javob bermaydi;

uchinchidan, davlat boshqaruvi tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar, aholining kundalik hayotiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish borasidagi ishlar yangicha innovatsion yondashuvni talab etmoqda;

to'rtinchidan, O'zbekistonning tezkor «raqamli taraqqiyoti»ni rivojlantirish uchun zarur tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratishda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining biznes va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligi yetarli darajada rivojlanmagan;

beshinchidan, aholining axborot va raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, sohada ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalariga yetarli darajada e'tibor qaratilmayapti;

oltinchidan, xalqaro axborot makonida O'zbekistonning ijobiy imijini shakllantirish, mamlakatning milliy manfaatlarini ilgari surish va himoya qilish maqsadida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda qo'shimcha choralar belgilash talab etilmoqda.

O'zbekistonda axborotlashgan jamiyatni jadal shakllantirish, Internet tarmog'ini fuqarolar, jamiyat hamda davlat ehtiyojlaridan kelib chiqqan xolda ularning barqaror ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma'lumotlar bilan boyitish, global virtual makonda milliy axborot mahsulotlarini keng tarqatish; aholi bilan muloqotning va ikki tomonlama aloqaning faol va samarali shakllarini joriy etish, ayniqsa, qarorlar qabul qilishda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining jamoatchilik bilan barqaror, rejali hamda representativ axborot-kommunikatsiya aloqalarini ta'minlash; davlat boshqaruvi tizimiga, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga, aholining kundalik hayotiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish bo'yicha keng miqyosli ishlarni izchil davom ettirish va ularni yangi bosqichga olib chiqish; O'zbekiston hamda uning iqtisodiyoti, ijtimoiy va gumanitar sohalarda zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etishni biznes tuzilmalari va fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokida amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy sharoitlarini yaxshilash; davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining virtual makondagi ishtirokini, aholining axborotdan va raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyatini rivojlantirish maqsadida ilmiy tadqiqotlar hamda ishlanmalarni ko'paytirish, sohada kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish; xalqaro axborot makonida O'zbekistonning ijobiy imijini shakllantirish, mamlakatning milliy manfaatlarini ilgari surish va himoya qilish maqsadida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish; kichik biznes vakillari va aholining raqamli iqtisodiyot makonini shakllantirishdagi faol ishtirokini qo'llab-quvvatlash va ularning raqamli texnologiyalardan keng foydalanish samaradorligiga ishonchini oshirishga qaratilgan tashkiliy shart-sharoitlar yaratish va uning huquqiy asoslarini mustahkamlash; virtual makondagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida qonun hujjatlarini takomillashtirish, axborotlashgan jamiyatni shakllantirish, jamiyat va davlat faoliyatida raqamli texnologiyalarni, axborot texnologiyalarini

rivojlantirish, davlat axborot tizimlari va resurslarini, shuningdek, Internet milliy segmentining axborot xavfsizligini ta'minlash.²

Yuqorida davlatimiz tomonidan ijtimoiy tarmoqlar va ulardan foydalanish choralari hamda foydali tomonlari keltirildi. Shunga qaramasdan, vaqt o'tgani sayin bolalar va internet muammosi tobora chuqurlashib borayotgan bir paytda, global tarmoqning yashirin xavflariga faqatgina ta'sir tushib qolishni emas, balki ekstremistik xarakterdagi, sekta va turli xil uyushmalar saytlarining foydalanishga ochiqligini, virtual firibgarlikka keng yo'l qo'yilganlikni ham ko'rsatish mumkin. Bolalarning qiziquvchan tabiati ularni yuqorida tilga olingan turdagi saytlarga yetaklashi, bu veb sahifalarda ularning ruhiy yoki jismoniy sog'lig'iga xavf soluvchi ma'lumotlarni ko'rishiga olib kelishi tabiiy. Elektron pochta manzillari orqali olingan xabarlar kuchli ruhiy ta'sir o'tkazib, bolalarni internet doirasida va undan tashqarida ham jinoyatga undashi hech gap emas. Shubhasiz, internet bilim va kerakli axborotni olish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi, biroq tarmoqqa joylashtiriladigan katta hajmdagi axborotning barchasini ham ishonchli va foydali deb bo'lmaydi. Foydalanuvchilar ma'lumotlarning to'g'riligini aniq ajrata bilishi uchun tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi. Yosh avlodni keng doiradagi manbalardan foydalanishga yo'naltirish natijasida faktlarni fikrlardan farqlashga, to'g'riligi tasdiqlanmagan axborotdan himoyalaniishga ularni o'rgatish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV Toshkent sh., 2018 yil 7 avgust, 622-son DAVLAT VA XO'JALIK BOSHQARUVI ORGANLARINING VIRTUAL MAKONDA ISHTIROKINI FAOLLASHTIRISH KONSEPSIYASINI TASDIQLASH TO'G'RISIDAGI qarori
2. Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 avgustdagi 622-son qaroriga Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining virtual makonda ishtirokini faollashtirish KONSEPSIYASI
3. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi / M.X.Toxtaxodjaeva va boshqalar. Prof. M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 1996.
4. Oliy ta'lim: me'yoriy hujjatlar to'plami. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2001. – 18-52-betlar.
5. Ochilov M., Ochilova M. O'qituvchi odobi. – Toshkent: O'qituvchi, 1998.
6. Sharipova D. D., Chernikov V. G Protivonarkoticheskoe vospitanie podrastayushchego pokoleniya. — T.: Ukituvchi, 1991.
7. Metodika i texnologiya raboty sotsialnogo pedagoga / Pod red. M.A.Galaguzovoy. — M.: Izd.sentr «Akademiya», 2002.

² Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 7 августдаги 622-сон қарорига Давлат ва хўжалик бошқаруви органларининг виртуал маконда иштирокини фаоллаштириш КОНЦЕПЦИЯСИ

VERTUAL IJTIMOY ALOQALARNING YOSHLARDAGI PSIXOLOGIK MUAMMOLARNI HAL QILUVCHI MANBA SIFATIDA

Muxiddinova Dilnoza Shavkat qizi

Guliston davlat Universiteti, Psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Annatsiya. Internet ijtimoiylashuvning yangi omiliga aylandi, bu ham yangi psixologik muammolarni, ham ularni engish uchun yangi imkoniyatlarni olib keldi

Yoshlar o'rtasida muammoga yo'naltirilgan kurash va ijtimoiy yordamni qidirishni o'z ichiga olgan javoblar nisbati o'smirlarga qaraganda ancha yuqori. Shu bilan birga, o'smirlarning 21 foizi va yoshlarning 7 foizi psixologik muammolarni engish uchun Internetdan foydalanish imkoniyatini rad etadi. Olingan natija Internetga botish darajasi va psixologik muammolarni hal qilishda foydalaniladigan Internet resurslari o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi gipotezani sinab ko'rish uchun asos bo'ladi.

Kalit so'zlar: *psixologik muammolar, engish, Internet, o'smirlar, yoshlar.*

Abstract. The internet has become a new factor of socialisation, which has brought both new psychological problems and new coping strategies.

At the same time, 21% of adolescents and 7% of students deny the possibility of using the internet for coping with psychological problems. These results become the basis for testing the hypothesis about the relationship between the degree of immersion in the internet and its use for coping with psychological problems.

Keywords: *psychological problems, coping, internet, teenagers, university students.*

Zamonaviy jamiyatda axborot va kompyuter texnologiyalari inson ruhiyatiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Internet makonidan cheksiz foydalanish o'smirlar va yoshlar hayotining ajralmas qismidir. Shaxsning sotsializatsiyasi virtual muhitda vositachilik bilan bog'liq bo'lib chiqadi. Bizning fikrimizcha, internet muhiti uning keng axborot imkoniyatlaridan unumli foydalanilgandagina psixologik muammolarni hal qilishda va yosh shaxsning ijobiy rivojlanishida manba vazifasini o'taydi. U bilan o'zaro ta'sir qilish usullari va strategiyalari o'zgargan ijtimoiylashuv sharoitida shaxs rivojlanishining muhim omiliga aylanadi va maxsus o'rganishni talab qiladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi o'smirlar va yoshlar tomonidan Internetdan foydalangan holda qo'llaniladigan psixologik muammolarni engish usullarini empirik aniqlash, shuningdek ularni hal qilish uchun Internet taqdim etadigan resurslarni aniqlash edi.

Zamonaviy hayotni Internetsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Internetga cheksiz kirish ko'p vaqtни tejashga yordam beradi: siz har qanday ma'lumotni osongina topishingiz, virtual xarid qilishingiz va hatto uyingizdan chiqmasdan ham muloqot qilishingiz mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar tufayli biz dunyoning turli burchaklaridan kelgan do'stlar bilan munosabatlarni saqlab turishimiz, qarindoshlar, tanishlar yoki taniqli shaxslarning hayotini kuzatishimiz, bir vaqtning o'zida bir nechta odamlar bilan dialog-konferentsiyalarda muloqot qilishimiz mumkin.[1] O'smirlar va yoshlarning rivojlanishi virtual muhitda ularning ishtiroki vositachilik qiladi. An'anaviy sotsializatsiya jarayonlari bilan bir qatorda, kiber yoki raqamli sotsializatsiya "inson tomonidan onlayn kontekstda olingan ijtimoiy tajribani

o'zlashtirish va o'zlashtirish, ushbu tajribani aralash oflayn / onlayn haqiqatda takrorlash va uning raqamli shaxsini shakllantirish sifatida amalga oshiriladi. O'smirlarning etukligi, yoshlarning sub'ektiv hayot sifati, ularning keyingi rivojlanishi ko'p jihatdan muammolar, qiyinchiliklar, stress yuklari va asabiy vaziyatlarni engish qobiliyati bilan belgilanadi. R.Lazarusning fikriga ko'ra , psixologik moslashish jarayoni doimiy shakllanishi, tanlovi, o'z xatti-harakatlarini o'zgartirishdir. Bu o'smir yoki yosh eski odatiy usullardan foydalangan holda yangi talablarga bardosh bera olmaganida, o'zgarish zarurati paydo bo'lganda, qiyinchiliklarni ijodiy va konstruktiv tarzda yengish qobiliyati shakllanadi. Bunday usullar, jumladan, raqamli muhitda shakllana boshlaydi. Ushbu tadqiqotda biz turli xil qarama-qarshiliklar natijasida yuzaga kelgan, e'tirof etilgan va hal qilishni talab qiladigan hissiy tajriba sifatida tushunadigan psixologik muammolarni hal qilish uchun Internet muhitida shakllangan kurash strategiyalarini aniqlashimiz kerak. Shuning uchun, engishning ishchi ta'rifi sifatida biz R. S. Lazarus va S. Folkman tomonidan taklif qilingan, psixologik muammolarni engish haqidagi tushunchamizni aks ettirgan, ammo zamonaviy voqeliklar bilan to'ldirilgan yondashuvdan foydalandik: engish sub'ektning ichki va ichki muammolardan foydalanishdagi faoliyati sifatida muammolar va ortiqcha tajribalardan xalos bo'lish uchun tashqi resurslarga etibor beramiz.[5]

So'nggi o'n yilliklarda insonning virtual muhit bilan o'zaro ta'siri uning muammolarni hal qilish xususiyatlariga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar paydo bo'ldi . E. P. Belinskaya tadqiqotning ikkita dolzarb yo'nalishini aniqlaydi: birinchisi, virtual muhit engishning mumkin bo'lgan resursiga aylanadigan inson resurslari tizimidagi o'zgarishlarni o'rganish bilan bog'liq , ikkinchisi esa muammolar bilan kurashish jarayonlarini tahlil qilishga qaratilgan. axborot muhitining mumkin bo'lgan xavflari.[2] Kiberkommunikatsiyani engish uchun manba sifatida jalb qilishni o'rganishning yuqoridagi natijalari noaniq rasmni ko'rsatadi. Bir tomondan, ijtimoiy va hissiy qo'llab-quvvatlash sub'ektlarining soni va sifat xususiyatlarining mumkin bo'lgan kengayishi bilan bog'liq kommunikativ makonning topqirligi , boshqa tomondan, virtual aloqaning o'ziga xos xususiyatlari (atrof-muhit) tufayli yangi muammolarning paydo bo'lishi, respondentlarning yoshi va individual xususiyatlari. Bu bizning tadqiqotimizda ham (Gryadunova , Alekseeva 2020) va boshqa bir qator tadqiqotlarda (Belinskaya, Agadullina 2020; Juravlev, Kryukova, Sergienko 2008; Leung 2007; Mitchell , Lebow , Uribe) tasdiqlangan. va boshqalar al . 2011). Oxirgi tadqiqotlar Internet muhiti resurslaridan foydalangan holda kurashish imkoniyatlarini o'rganish uchun psixodiagnostika vositalarini yaratish zarurligini ko'rsatadi (van Ingen , Rayt 2016).[3]

Ushbu tadqiqot mavzusi o'smirlar va yoshlar tomonidan Internet resurslaridan foydalangan holda qo'llaniladigan psixologik muammolarni hal qilish usullari edi. Tadqiqot ob'ekti Peterburg maktab o'quvchilari va talabalari edi.

O'smirlar va yoshlar o'rtasidagi psixologik muammolarni hal qilishda Internet resurslaridan foydalanish usullarini aniqlash uchun fokus-guruhlarda qo'llaniladigan suhbat usuli qo'llanildi . Ishtirokchilarga savol berildi: "Agar sizni

xavotirga soladigan, xavotirga soladigan va internetga kirish imkoniga ega bo‘lgan biror narsa yuz bersa, unda nima qilgan bo‘lardingiz?’. [4]

Tanlov 396 kishidan iborat bo‘lib, ulardan: 292 nafari maktab o‘quvchilari va 104 nafari talaba yoshlardir.

Jins va yosh bo‘yicha muvozanatlangan o‘smir namunasining xususiyatlari: 180 ta qiz (62%) va 112 ta o‘g‘il (38%). Respondentlarning yoshi: 11-12 yoshdagi - 39 kishi, 13 yoshdagi - 37 kishi, 14 yoshdagi - 62 kishi, 15 yoshdagi - 88 kishi, 16 yoshdagi - 41 kishi, 17 yoshdagi - 25 kishi. Tadqiqotda Yangier shahridagi 8, 9, 11, 10-sonli o‘rta maktablar o‘quvchilari ishtirok etdi.

Talabalar namunasining xususiyatlari: 76 qiz (73%), 28 o‘g‘il (27%). Respondentlarning yoshi: 18-22 yosh. Tadqiqot ishtirokchilari Pedagogika fakultetidan (45 kishi), Kimyo texnologiya institutidan (26 kishi), Psixologiya yo‘nalishidan (12 kishi), Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishidan (13 kishi), Texnologik ta‘lim yo‘nalishidan (13 kishi) 2-kurs talabalari edi.

Jami 530 ta javob tahlil qilindi, ulardan 321 tasi o‘smirlar va 209 tasi o‘quvchilar javoblari (so‘rovda qatnashganlardan ko‘proq, chunki ularning ba‘zilarida yengishning bir necha usullari qayd etilgan). O‘smirlar va yoshlar tomonidan qo‘llaniladigan Internetni jalb qilishda psixologik muammolarni hal qilish strategiyalarining chastotali tahlili ma‘lumotlari 1 va 2-jadvallarda keltirilgan. Farqlarning ahamiyati nisbatan ko‘rsatkichlarni solishtirish uchun Fisher mezoni yordamida baholandi.

O‘smirlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovdan 104 ta sub‘ektning 321 ta javobi tahlil qilindi. Ularning aksariyati Internetdan psixologik muammolarni hal qilish uchun manba sifatida foydalanadilar. O‘smirlar hissiy jihatdan engish vositasi sifatida Internetdan ko‘proq foydalanadilar.

1-jadval. O‘smirlar va yoshlardagi psixologik muammolarni hal qilishda internet resurslaridan foydalanish (javoblar sonining %)

Respondentlar	Javoblar soni	Internet bilan kurashish (%)		kurashish turi (%)		
		foydalanish	foydalanmang	hissiy	muammoni - hal qiluvchi	Ijtimoiy yordam izlash
o‘smirlar	321	80.3	19.7	51,0	22.8	6.5
yoshlar	209	96.7	3.3	45.4	33.5	17.8
Farqlar sezilarli p < 0,05 da		F = 6,64 p = 0,01	F = 6,68 p = 0,01	F = 1,15 p = 0,26	F = 4,84 p = 0,01	F = 3,45 p = 0,01

2-jadval. O‘smirlar va yoshlar o‘rtasida internet bilan bog‘liq psixologik muammolarni hal qilish yo‘llari (javoblar sonining %)

Daraja Yengish turi	Internetni jalb qilish bilan kurashish usullari	O‘smirlar	Yoshlar	F	R
1 / Hissiy _	1. audio kontent (musiqa)	12.8	13.4	0,23	0,82
	2. vizual kontent (filmlar va boshqalar)	23.3	20.7	0,69	0,50
	3. o‘yinlar	4.7	2.4	1.38	0,17

	4. kitob o'qish	1.9	3.3	3.22	0,01
	5. tarmoqlarning chalg'itishi	5.6	3.3	1.28	0,21
	6. o'zingiz yaxshi ko'rgan yoki o'qiyotgan ishingiz bilan shug'ullanish	0	2.4	3.57	0,01
	7. muammodan chalg'itish (noaniq)	2.8	1.0	1.49	0,14
2/Muammolarni hal qiluvchi	1. muammoni hal qilish uchun ma'lumot izlash	18.0	16.3	0,46	0,65
	2. muammoga yechim izlash	1.3	6.7	3.45	0,01
	3. psixologik yordam izlash	0,9	6.2	3.45	0,01
	4. maslahat izlash	2.5	3.8	0,92	0,36
3/ Ijtimoiy yordam izlash	1. ijtimoiy tarmoqlar orqali yaqinlaringiz bilan muammoni muhokama qilish	6.5	17.8	3.92	0,01

Respondentlarning 61 nafari (20,9%) muammolarni yengish uchun internetdan foydalanmaydi, yengishning boshqa usullari ko'rsatilgan. Masalan: "Onam bilan gaplashardim", "Kutardim", "Men uy vazifamni qila boshlardim", "Uxlayman", "Ovqatlanardim". Ba'zida ma'lumotlarga ishonchsizlik va ushbu Internet maydoniga yaroqsizligi alohida ta'kidlanadi: "Internetda siz o'zingizni bezovta qiladigan narsalarni o'qishingiz mumkin", "muammolaringizni o'zingiz hal qilishingiz kerak", "qarindoshlaringizga yordam so'rashingiz", "Men faqat qarindoshlarim va shifokorlarga ishonaman".

Yoshlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovda 104 ta sub'yektdan 209 ta javob tahlil qilindi. Talabalarning aksariyati muammolarni hal qilish uchun Internetdan foydalanadilar. O'smirlarda bo'lgani kabi, ular Internetdan muammolarni hal qilish yoki ijtimoiy yordam izlash uchun emas, balki hissiy jihatdan engish uchun foydalanadilar hissiy kurash sifatida, maktab o'quvchilari kabi vizual (filmlar, seriallar, videolar) va eshitish (musiqa, audio kitoblar) ni afzal ko'rishadi.

Yoshlarning uchdan bir qismidan ko'prog'i hissiy va muammoga yo'naltirilgan kurash strategiyalari bilan bir qatorda, o'z javoblarida muammoni yaqin (do'stlar, tanishlar) bilan ijtimoiy tarmoqlar orqali muhokama qilish, tushunish, hamdardlik olish shaklida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlashdi.

Muammoni hal qilish strategiyalaridan foydalanish faolligi, ehtimol, raqamli kompetentsiyaning ortishi va tarmoqdagi tajriba, shuningdek, umuman hayotiy tajriba to'planishi bilan o'sib bormoqda, chunki bu talabalar guruhida ko'proq namoyon bo'ladi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga murojaat qilish ham yoshlar orasida sezilarli darajada keng tarqalgan. Yoshlar o'rtasida Internetda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni izlash nafaqat katta faollik, balki so'rovning aniqligi, maqsadlilik va muhim boshqasini tanlashda tanlanganligi bilan ham ajralib turadi.

Shu bilan birga, ba'zi o'smirlar va yoshlarning sezilarli darajada kichik qismi psixologik muammolarni engish uchun Internetdan foydalanish imkoniyatini inkor etib, o'zlarining kognitiv va xulq-atvor harakatlarining rolini, shuningdek, yaqinlari bilan bevosita shaxsiy muloqotning afzalliklarini ta'kidlaydilar. birlar.

Adabiyotlar

1. Айсина, Р. М., Нестерова, А. А. (2019) Киберсоциализация молодежи в информационно-коммуникационном пространстве современного мира: эффекты и риски. Социальная психология и общество, т. 10, № 4, с. 42-57.

2. Журавлев, А. Л., Крюкова, Т. Л., Сергиенко, Е. А. (ред.). (2008) *Совладающее поведение. Современное состояние и перспективы*. М.: Институт психологии РАН, 481 с.
3. Крюкова, Т. Л. (2010) *Психология совладающего поведения в разные годы жизни*. Кострома: КГУ им. Н. А. Некрасова, 296 с.
4. Никольская, И. М., Грановская, Р. М. (2006) *Психологическая защита у детей*. СПб.: Речь, 352 с.
5. Lazarus, R. S., Folkman, S. (1984) *Stress, appraisal and coping*. New York: Springer, 456 p.

BUYUK BRITANIYA VA O‘ZBEKISTONDA KIMYO FANINI O‘QITISHNING SOLISHTIRMA TAHLILI

Xasanova Nilufar Xaqnazarovna, Nizamova Saida Adilovna
Alfraganus Universty o‘qituvchisi; Turin PU akademik lisey o‘qituvchisi,
p.f.d. E-mail: nilufarxasanova@inbox.ru Tel: (33)3330555

COMPARATIVE ANALYSIS OF TEACHING CHEMISTRY IN GREAT BRITAIN AND UZBEKISTAN

Abstract. The article provides information about the British education system and the methodology of teaching chemistry. Specific features of the British education system, similarities with the Uzbekistan education system, advantages and disadvantages are shown. Studying the advantages of the British educational system and the teaching of chemistry, suggestions and recommendations were developed for their methodological improvement and introduction to the educational system of Uzbekistan.

Key words: Primary school, secondary school, additional education, private school, higher education.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПРЕПОДАВАНИЯ ХИМИИ В ВЕЛИКОБРИТАНИИ И УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В статье представлены сведения о британской системе образования и методике преподавания химии. Показаны особенности британской системы образования, сходство с системой образования Узбекистана, преимущества и недостатки. Изучая преимущества британской системы образования и преподавания химии, были разработаны предложения и рекомендации по их методическому совершенствованию и внедрению в систему образования Узбекистана.

Ключевые слова: Начальная школа, средняя школа, дополнительное образование, частная школа, высшее образование.

BRITANIYA DAVLATI HAMDA MAMLAKATIMIZDA KIMYO FANINI O‘QITISHNING SOLISHTIRMA TAHLILI

Annotasiya. Maqolada Buyuk Britaniya ta’lim tizimi va kimyo fanini o‘qitish metodikasi haqida ma’lumotlar berilgan. Buyuk Britaniya ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, O‘zbekiston ta’lim tizimi bilan o‘xshash jihatlari, afzallik va kamchiliklari ko‘rsatilgan. Britaniya ta’lim tizimi va kimyo fanini o‘qitishning afzallik tomonlarini o‘rganish ularni metodologik jihatdan takomillashtirish hamda

O‘zbekiston ta’lim tizimiga joriy qilish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich maktab, o‘rta maktab, qo‘shimcha ta’lim, xususiy maktab, oliy ta’lim .

Mustaqillik yillarida iqtisodiyot, sanoat, ijtimoiy hayotning jadal rivojlanishi natijasida , mamlakatimizda o‘rta ta’lim tizimini modernizasiya qilish, unga o‘qitishning zamonaviy shakl va pedagogik texnologiyalarini joriy etish, o‘qituvchilarni malakasini oshirish, yangi darsliklar, o‘quv adabiyotlar tayyorlash bo‘yicha qator ishlar qilindi.

O‘zbekiston ta’lim tizimini takomillashtirish uchun Buyuk Britaniya, Finlandiya, Britaniya, Italiya, Niderlandiya, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya va shu kabi boshqa davlatlarning etakchi ilmiy-ta’lim muassasalari o‘qitish tizimini o‘rganish va afzallik tomonlarini tadbiq etishni lozim deb topdik. O‘zbekiston uchun turli sohalaridagi o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustaqil takomillashtirishga, zarur holda yangi bilimlar va kasblarni o‘zlashtirishga qodir bo‘lgan yoshlar etishib chiqishi muhimroqdir.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarining deyarli barchasi o‘sib kelayotgan yoshlarga sifatli ta’lim berish birinchi darajali ahamiyat kasb etishi, uning bilish faoliyati pedagog-tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lib, o‘z ta’lim tizimlarini isloh qilish zarurligini anglab etganlar. Hozirgi zamon jamiyatida ta’lim tizimlarini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari quyidagilardir: insonni bilimning turli sohalarida rang-barang mustaqil faoliyatga jalb qilish orqali uning aqliy va ma’naviy

kamol topishini ta’minlash zarurati mavjud.

Xalqaro miqyosda kimyo fanini o‘qitish sifatini yaxshilash uchun yangi o‘qitish texnologiyalarini yaratish, uni ta’limga tatbiq etish orqali o‘quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga o‘rgatish, aqliy salohiyati, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirish va bu orqali ta’limda samaradorlikka erishishga yo‘naltirilgan samarali tadqiqotlar olib borilmoqda.

Buyuk Britaniyada - Angliya, Shimoliy Irlandiya, Uels, Shotlandiya – mingdan ortiq maktab, yuzga yaqin kollej va universitetlar mavjud bo‘lib, ularda yuqori sifatli kimyoviy ta’lim olish mumkin. Jumladan: umumiy kimyo, noorganik kimyo, organik kimyo.

Biz bu maqolani yoritishda Web of Science-da SCIE va SSCI-dan ma’lumotlar manbalaridan foydalandik. “Britaniya o‘qitish tizimi”, “Britaniyada o‘rta maktab”, “boshlang‘ch maktab”, “xalqaro o‘qitish tizimi” kabi atamalar qidirildi va maqolalarining sarlavhalari, tezislari va kalit so‘zlarini qidiruv so‘zlari sifatida tanladi. Britaniyadagi kimyo fanining o‘qitilishini o‘rganish jarayoni sifatida 2010 va 2023 yillar orasida nashr etilgan ma’lumotlar tanlab olindi va o‘rganildi. Britaniyada 7 , 8, 9, 10, 11 sinflar kesimida kimyo fanining o‘qitilishi alohida etibor berildi. Bunda mavzularni o‘rganish ketma ketligi, mavzularni o‘rganishning uzviyligi, o‘qitish metodikasi, innovatsion pedagogik texnologiyalarga alohida e’tibor berildi.

Buyuk Britaniyadagi ta’lim muassasalarida kimyo fanini o‘qitish an’anaviy ravishda jahon reytingining birinchi pog‘onasini egallaydi. Ulardagi

ta'lim tizimi o'quvchilarda tanqidiy va tahliliy fikrlashini rivojlantirish, intizomni shakllantirish va kelajakda ozlari tanlagan kasblari yo'nalishlarida muvofiqiyatli ishlarini davom ettirishga mo'ljallangan. Britaniya- ta'lim olish uchun eng mashhur mamlakatlardan biri bo'lib, kimyo fanini chuqur o'qitishga yo'naltirilgan davlatlar ro'yxatida turadi .

Britaniya maktab ta'lim tizimi to'rt bosqichdan iborat:

- Boshlang'ich maktab - 5-11 yosh;
- O'rta maktab - 11-16 yosh;
- Maktabdan keyingi ta'lim (qo'shimcha ta'lim) - 16-18 yosh;
- Oliy ta'lim .

O'quv yili sentyabrda boshlanadi va iyulda tugaydi. O'qish uchta semestr ga bo'linadi: sentyabrdan dekabrgacha kuzgi semester, yanvardan aprelgacha bahorgi semester va apreldan iyulgacha yozgi semester. Har bir semester taxminan 12 hafta davom etadi. Oktyabr, fevral va may oylarida sodir bo'ladigan har bir semesterni yarmida bo'ladigan qisqa haftalik ta'tillar ham mavjud. Quyidagi 1-jadvalda Buyuk Britaniyadagi ta'lim tizimi ko'rsatilgan

1-

jadval

O'quvchilarning yoshi	Maktab	O'qish davri	Dars vaqti
5-11 yosh	Boshlang'ich maktab	1-6 sinif	35-40 minut
11-16 yosh	O'rta maktab	7-11 sinif	40-45 minut
16-18 yosh	Maktabdan keyingi ta'lim	2 yil	45-50 minut

Buyuk Britaniyadagi ta'lim tizimi o'quvchining yoshi bilan chambarchas bog'liq. O'quvchi maktabga kirayotganda yoshiga qarab sinfga tayinlanadi. Boshlang'ich maktabga 5 yoshdan qabul qilinadi va 6 yil davom etadi. Maktabning dastlabki 6 yilida ingliz bolalari ingliz tili, matematika, tarix, geografiya, musiqa va san'at fanlarini o'rganadilar. Bu jarayon besh yil davom etadi. 11 yoshdan boshlab asosiy fanlar ro'yxatiga ingliz tili, matematika va tabiiy fanlar (kimyo, biologiya va fizika asoslari) qo'shiladi. Oquvchilar qolgan fanlarni o'z xohishlariga ko'ra va kelajakda unga qaysi fanlar kerak bo'lishiga qarab tanlaydilar. 14 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan maktab o'quvchilari GCSE imtihoniga tayyorgarlik ko'rishadi.

O'rta maktabning yana quyidagi turlari mavjud:

Selektiv maktablar (Selective Schools), bu erga eng yaxsh bilimga ega bo'lgan o'quvchilar saralanib tanlov asosida qabul qilinadi;

Gimnaziya (Grammar Schools) 11+(bu nima) milliy imtihon natijalariga ko'ra o'qishga qabul qilinadi;

O'quvchilar diniy maktablarda (Faith Schools), talim o'quv dasturda ko'rsatilgan fanlardan tashqari diniy fanlarni ham o'qiydilar.

Keltirilgan maktab turlarining har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Selektiv va gimnaziya maktab talabalari kengaytirilgan dastur bo'yicha, ixtisosligiga qarab bir qator fanlarni o'rganadilar. Diniy maktablar nafaqat ta'lim, balki cherkov xizmatlarida ishtirok etish ham o'rgatiladi .

Maktabdan keyingi ta'lim (GCSE)

Britaniya maktabini tugatgandan so'ng (16 yoshda) barcha talabalar umumiy o'rta ta'lim sertifikatini (GCSE) - o'rta ma'lumot to'g'risidagi guvohnomani olishlari kerak. Britaniya qonunchiligiga ko'ra, GCSE sertifikatiga ega bo'lgan maktab bitiruvchilari ishlashni boshlashlari, kasb-hunar kollejlariga o'qishga kirishlari yoki universitetga tayyorgarlik o'qishlari mumkin (masalan, A-level). O'quvchilar GCSE sertifikatini yoki o'rta ma'lumot to'g'risidagi guvohnoma bilan Britaniya universitetiga to'g'ridan-to'g'ri o'qishga kirishi mumkin emas. GCSE talabalari o'rtacha 9 ta fanni, shu jumladan majburiy va tanlov fanlarini o'rganadilar. Ko'pincha talab qilinadigan fanlar ro'yxatiga ingliz tili va adabiyoti, matematika, chet tili, san'at yoki informatika kiradi. Har bir ta'lim muassasasida ikki yil davomida o'rganiladigan ixtisosligiga ko'ra o'ziga xos tanlov fanlari ro'yxati tanlanadi.

Buyuk Britaniya oliy ta'lim tizimi: Bakalavr ; Magistr; Doktorantura

Britaniyada bakalavr dasturlari 3 yil, magistratura dasturlari odatda bir yil davom etadi. Doktorantura odatda 2 yildan ortiq davom etadi. O'qish oxirida talaba o'z ilmiy ishining natijalarini nashr etishi va dissertatsiya yozishi kerak. Dissertatsiya himoyasidan so'ng talabaga nufuzli fan nomzodi ilmiy darajasi beriladi.

Quyidagi jadvalda Angliya va O'zbekiston davlatlaridagi ta'lim tizimining solishtirma tahlili berilgan

2-jadval

Yo'nalishlar	O'zbekiston	Angliya
Kimyo fanini o'qitishi	7-11 sinf - o'rta maktab, 10-11 akademik lisey, kollej, OTM	7-11 sinf o'rta maktab Kolledj. Maktabdan keyingi ta'lim-2 yil, OTM
Fanga oid dasturlar	standart talablari asosida ishlab chiqiladi	maktab talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqariladi
Fanning nomi	umumiy kimyo, anorganik kimyo, organik kimyo	umumiy kimyo, anorganik kimyo, organik kimyo
Fanga ajratilgan soatlar	xaftasiga 2 soat	xaftasiga 2 soat
Darsliklar	har bir sinflar buyicha darsliklar mavjud	darslik va o'quv qo'llanmalar Internet materiallari asosida
Texnik ta'minot	laboratoriya xonalari bor, kimyoviy jixozlar va moddalar etishmovchiligi mavjud.	Har bir maktab bazasidan kelib chiqqan holda mavjud
Didaktik materiallar	darslik, o'quv qo'llanma, tarqatma materiallar, texnik vositalar, kompyuter taqdimotlari	Internet materiallari va unda foydalaniladigan platformalar

Baholash usullari	umumta'lim maktablarida chorak va yakuniy akademik litsey va kolleжда joriy, oraliq va yakuniy nazorat	Baholash shkalasi A, B, C, D va U. A "a'lo" degan ma'noni anglatadi va U "juda past"
Uyga vazifa	Og'zaki, yozma	Prezentatsiya ko'rinishda beriladi

Britaniyadada kimyo fanini o'qitishda atrof- muhitda sodir bo'ladigan hodisalar orqali tushuntirish hamda ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish; tadqiqotlarni baholash va rivojlantirish uchun amaliy kompetensiyalardan foydalaniladi. Britaniyada ta'lim asosan fanni chuqur o'rganishga, olingan bilimlarni kundalik hayotda qo'llay olishga, tadqiqot ishlari olib borishga yo'naltirilgan. Buning uchun o'quvchilarga mustaqil ishlash uchun loyiha ishlar beriladi. Loyiha ishini individual yoki kichik guruhlarda bajariladi. Loyiha ishini bajarishda muammo o'rtaga tashlanadi, muammoni hal qilish uchun o'quvchilar ma'lumot yig'shadi va o'z qo'llari bilan bajarishadi. O'quvchilarga kundalik hayotda ishlatiladigan buyumlarni dizayni, materialini ozgartirishlari taklifi beriladi. Bu usul kreativ fikrlash, ijodgorlik, izlanuvchanlik, yaratuvchanlikni shakllantiradi.

Britaniyada bilimlarni baholashning harf tizimi qabul qilingan. Baholash shkalasi A, B, C, D va U baholarini o'z ichiga oladi: A "a'lo" degan ma'noni anglatadi va U "juda past" degan ma'noni anglatadi. Bundan tashqari, rasmiy ravishda "a'lo plyus" bahosi mavjud, inglizcha versiyada - yulduzcha bilan bu A* - Britaniya bilimlarini baholash tizimidagi eng yuqori ball. Tirishqoqlik alohida baholanadi. Mehnatsevarlik uchun siz 1 dan 5 gacha baho olishingiz mumkin. Shunday qilib, semestr natijalariga ko'ra, ota-onalar quyidagi natijani ko'rishlari mumkin: bilim darajasi C, tirishqoqlik esa 5. Ya'ni bola juda ko'p harakat qildi va bor kuchini sarfladi, lekin "C" daraja uning kimyoni o'rganishdagi imkoniyatlari etarli emasligini ko'rish mumkin.

Britaniyada kimyo faninini o'qitish spiral shaklda bo'lib, soddadan murakkabga qarab o'zgarib boradi. 7 sinfda o'tilgan mavzular 8, 9, 10, 11 – siniflarda ham o'tiladi. Mavzular mazmun jihatdan murakkablashib boradi. O'quvchining yoshi, qabul qilish darajasi inobatga olingan holda mavzular yoritilib boriladi. Spiral usulda kimyoni o'qitilishining afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchi fanga atrof muhitni o'rganish orqali kirib keladi.
2. Mavzular soddalashtirilgan holda berilib boriladi.
3. Murakkab mavzularga oldindan ma'lumotlar berilib boriladi.
4. Har bir darsda mavzuga oid kichik laboratoriya ishlari namoish etiladi.
5. Har bir bobdan keyin kichik loyiha ishlari berib boriladi.

O'zbekistonda kimyo fanini o'qitishdagi kamchiliklar:

1. Darsliklardagi o'quv materiallarni o'zlashtirishda bilishga qiziqish, ishtiyoqni hosil qiladigan o'yin va mashqlar, art-texnologiyalar o'z aksini topmagan;

2. Mashg'ulotlarni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga asoslanib o'qitish yo'lga qo'yilmagan;

3. Kimyo fani me'yoriy hujjatlarida baholash mezonlarining faqat bitiruvchi kompetensiyasi uchun ishlangan;

4. Darslik, ishchi daftar va o'qituvchi kitoblari, multimedia ilovalari, didaktik materiallarning yetishmaydi;

5. Fanni o'qitishda ilg'or xorijiy rivojlangan davlatlari tajribasi hisobga olinmagan;

O'rganilgan ma'lumotlar asosida xulosa qilib quyidagilarni O'zbekiston ta'lim tizimida maktablarga kimyo fanini o'qitishda quyidagilarni joriy qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. O'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish;

2. O'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish;

3. Darslik va adabiyotlar sifatini yaxshilash;

4. Kimyo fani yo'nalishida fundamental va amaliy tadqiqotlarga asoslangan zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish;

5. Ta'limning barcha bosqichlarida xalqaro andozalarga to'liq javob beradigan axborot texnologiyalari joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oli ta'lim berdi tizimin yanada rebohlanting chorasi-samarali chora" gi PK-2909-sonli qarori. 2017 yil, aprel 20.

2. Fayzullayeva D. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. Bin uslubidagi majmua. T.: TDIU., "Iqtisodiyot"., 2017 y

3. Miraliev D. Bin uslubidagi majmua., T.: Ekonomika., 2016 y

4. Mamadjonov I. T. D., "Iqtisodiyot va texnologik innovatsiyalar" elektron fan jurnali. # 6, noyabr-dekabr, 2017 yil

5. Nizamova S.A. "Kimyoni o'qitish metodikasi". Darslik. Toshkent, "Muharrir" nashryoti -2023 yil. 278bet.

TO'GARAK MASHG'ULOTLARIDA O'QUVCHILARNI KAMOLIDDIN BEHZODNING SHARQONA TASVIRIY SAN'ATI BILAN TANISHTIRISHNING AHAMIYATI

¹Kayumov Erkin Kazakbayevich, ²Raximjonova Xusnida Odil qizi

¹Guliston davlat universiteti o'qituvchisi, ²Guliston davlat universiteti talabasi email: kayumoverkin@gmail.com, tel: +998 99 367 22 67

Annotatsiya: tezisda ilm-fan, san'at sohalarida iste'dodli yoshlarni izlab topish ularning ijodiy salohiyatini yurtimiz mustaqilligi va xalqimiz ma'naviyatini boyitishga yo'naltirish, g'amho'rlik qilish kabilar kun tartibiga qo'yilganligiga urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim va tarbiya, estetik tarbiya, madaniy meros, komil inson, badiiy meros, yuksak fazilat, tasviriy san'at, miniatyura san'ati, ijodiy to'garak.

Bugungi kunda respublikamizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub isloxotlar o'quvchilarni insonparvarlik, ona Vatanga muhabbat, jasorat, fidokorlik, vafo, go'zal hulq ruxida tarbiyalash vazifasini qo'yimoqda. Chunki bunday

xususiyatlar barkamol inson fazilatidir. Mamlakatimizdagi madaniy hayotning yuksalishi esa hozirgi kunda oliy ta'limda tayyorlanayotgan tasviriy san'at o'qituvchisi va to'garak rahbari mutaxassislarni tayyorlashda o'quv yurtlari oldiga o'ta dolzarb muammolarni qo'yimoqda. Bu muammolarni hal etish esa o'z navbatida hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan tasviriy san'at o'qituvchilarini va to'garak rahbarlarini tayyorlashni talab etadi.

Ajdodlarimiz tarixi bizdan qancha uzoq bo'lmasin va ularning diniy e'tiqodlari o'ziga xos bo'lganligidan qat'iy nazar biz bilan ularni bog'lab turadigan nozik ko'priklar bor. U ham bo'lsa, ular yaratgan ajoyib san'at namunalari, ularning ma'naviy qadriyatlari, umumiy dunyoqarashlarida insoniyat tafakkurining uzviy rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazib kelgan tushunchalari va bilimlaridir [1:45]. Shuning uchun ham zamonaviy tasviriy san'at o'qituvchilarni har tomonlama tarbiyalashda, shakllantirishimizda bunday o'tmish meros namunalariga murojat qilib turishimiz, ularni ta'lim jarayonida nafaqat o'tmish namunasi sifatida, balki uslubiy mukammal vositalar sifatida foydalanishimiz mumkin.

Tasviriy san'at tarixida xalqlarning aloqalarini bog'lab turgan Buyuk ipak yo'lining ham ta'siri katta bo'lgan. Xalqlar o'rtasidagi savdo-sotiq aloqalari, ulardagi har xil asbob-uskuna, qimmatbaho san'at namunalari orqali o'tishi natijasida tasviriy san'atning uyg'unlashuviga olib kelishi tabiiy bir hol edi. Buyuk ipak yo'li orqali xalqlar o'rtasidagi aloqa tasviriy san'atni nafaqat uyg'unlashuviga ta'siri bo'lib qolmasdan, bir-biridan andoza olib, boyib borishiga sababchi bo'lganini Kushonlar davrini o'rganish jarayonida guvoh bo'lamiz.

Tasviriy san'atning ilg'or namunalari qadimgi madaniy taraqqiy etgan o'lkalar Sug'diyona (Zarafshon va Qashqadaryo viloyatlari), Baqtriya (Surxondaryo, Janubiy-G'arbiy Tojikiston, Shimoliy Afg'oniston), Parfiya (Turkmanistonning Ashxobod viloyati, Shimoliy-g'arbiy Eron), Choch (Sirdaryoning o'rta havzasi, hozirgi Toshkent viloyati, Janubiy Qozog'iston) shuningdek Qadimgi Xorazm, Qadimgi Farg'ona xududlarida mavjud bo'lib kelganini ko'ramiz [3:5]. Tasviriy san'at borasida bebaho asarlarini har bir san'at o'qituvchisi bilishi lozim. Chunki O'zbekiston tasviriy san'at tarixi, uning ilg'or o'ziga xos an'alarini o'qituvchilar tayyorlashdagi tasviriy san'at ta'limini mazmunini boyitibgina qolmasdan, ilmiy pedagogik jihatdan to'g'ri talqin qilishning mohiyatini ochib beradi.

O'zbekiston hududiga mansub qadimgi rangtasvir san'ati o'ziga xos bebaho namunalarga ega. Afrosiyob rangtasvir san'ati, Beshiktepa rangtasvir san'ati, Varaxsha san'ati singari o'tmishdagi taniqli musavvirlarning ish tajribasi, bilimi, malakasi, shuningdek pedagogik mahoratiga e'tibor qaratish lozim. Bugungi tasviriy san'at o'qituvchilari salohiyatini shakllantirishda san'atimiz merosidan to'g'ri, unumli va ilmiy asosida foydalanish joizligini zamonning o'zi taqozo etmoqda.

Miniatyura san'atiga kelsak, bu san'at avvalo qog'oz bilan bog'liq. Arab olimi Ibn Nadimning yozishicha, 87 hijriy (melodiy 706) yilda dastlab Samarqandga kelganlarida qog'ozsozlik korxonalarini ko'rar ekan, hayratga tushganligi haqida yozib qoldirgan [4:19]. Bunday ishlab chiqarish ustaxonalari Xiva, Qo'qon,

Buxoro, Samarqand, Toshkent va boshqa joylarda mavjud bo'lgan. Xiva xoni Said Muhammad o'z saroyida bir qancha hattotlarni, mohir naqqoshlar va rassomlarni to'plagan ma'lum bo'lib, u kitobga ixlos qo'ygan kishi edi. Uning katta kutubxonasi bo'lib, shu kutubxonada qo'lyozmalar ko'chirilgan va bezatilgan edi. Bundan tashqari Buxoro xoni Amir Olimxon saroyida ham mashhur kutubxona bo'lib, unda juda ko'p miqdorda kitoblar to'plangan va hattotlar shug'ullanganlar.

Tasviriy san'atning tarbiyaviy vazifalarini yuksak mutaxassislik tayyorgarligiga ega bo'lgan o'qituvchi musavvirlar tomonidan amalga oshirilishi, tarbiyaning yanada mazmunli bo'lishiga turtki bo'ladi. Agar san'at turlari orqali estetik tarbiya olib borilmas ekan, bunday ta'lim sinadi va o'z ta'sirini yo'qotadi [5:67]. Bunday ta'lim-tarbiyaning mohiyatini ulug' mutaxassislar, olimlar, shoiru yozuvchilar, musavvir-pedagoglardan Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Bobur, Samarqandiy, Muzahhib, Xondamir, Behzod, Attor, Ahmad Yassaviy, Abu Nasr bin Arron, Ulug'bek, Abdulhay, Pir Said Ahmad va boshqalar juda yaxshi tushinishgan. Pir Said Ahmad va Abdulxay kabi rassomlar Samarqanda yashab ijod etgan va ularni Osiyo miniatyurachilari qatorida eslashimiz mumkin.

O'tmishdan qolgan va bizning zamonamizgacha etib kelgan tarixiy manba hamda obidalar ota-bobolarimizning juda qadim zamonlardan beri shu zaminda yashab, insoniyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shganliklaridan darak beradi. Ular asrlar davomida o'zlari to'plagan hayotiy tajribalarni turli o'yinlar, ertak va rivoyatlar, kuy va qo'shiqlar, bayram va marosimlar, maqol va nasihatlar, afsona va dostonlar, noma va bitiklar vositasida kelajak avlodlarga, ya'ni bizga me'ros qoldirishgan [2:11]. Bu ma'naviy boyliklar ajdodlarimiz madaniyatining qanchalik yuksak darajada ekanini ko'rsatadi. "Tarixiy-madaniy meros to'g'risida gap ketganida vorislik tamoyilini, uning milliy o'zlikni anglashdagi o'rnini alohida ta'kidlash lozim" [6:18]. Demak, Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosi deganda nafaqat ular tomonidan aytilgan fikr, yozilgan manba, balki ularning asarlariga oid materiallar ham badiiy ta'lim uchun tarixiy material sifatida qo'llanishi mumkin [7:27]. Zero, "Boburnoma"ga ishlangan miniatyuralar yuksak badiiy saviyada yaratilgan, yuqori darajadagi estetik qadriyatga daxldor manba sifatida dunyoning eng nufuzli muzeylarida saqlanishi bugungi kun o'quvchisi uchun nafaqat estetik zavq beruvchi manba, balki milliy g'urur tuyg'usini tarbiyalovchi vosita sifatida ham e'tiborlidir.

To'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni Kamoliddin Behzodning sharqona tasviriy san'at uslubi bilan tanishtirishning samarali yo'llari, pedagogik shart-sharoitlari ko'rsatib berildi [8:93]. Tadqiqot ishida ilgari surilgan nazariy qarashlar sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonini mazmunan boyitadi, ushbu jarayonni takomillashtiradi hamda sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalaridan sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini oshirish borasidagi adabiyotlar, qo'llanmalar hamda uslubiy ishlanmalarni yaratishda foydalanish mumkin.

Tasviriy san'atdan sinfdan tashqari ishlar umuman o'rta ta'lim tizimida katta va muhim o'rinni egallaydi. Ular tasviriy va amaliy san'at, me'morchilik kabi san'at turlari bo'yicha amalga oshiriladi [9:12]. Bu sinfdan tashqari ishlar to'garak uchrashuv, ko'rgazma, tanlov, kechalar kabi qator yo'nalishlarda o'rkaziladi va

ular o'quvchilarni badiiy-ijodiy extiyojlarini qondirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ulardagi individuallik va inte'dodni ro'yobga chiqarishga hizmat qiladi. shu bilan birga u yoshlarning badiiy estetik fikr doiralarini kengaytiradi hamda didini rivojlantiradi.

Tasviriy, amaliy san'at va me'morchilik tashkil etiladigan to'garaklar umumiy o'rta ta'lim maktablarining barcha sinflarini qamrab oladi. Ular kichik (1-4 sinflar), o'rta (5-7 sinflar), katta (8-9 sinflar) guruhlardan tashkil etiladi va rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, naqqoshlik, ganchkorlik, misgarlik, qashtachilik, yog'och o'ymakorligi, badiiy sopoldo'zlik, shuningdek, me'morchilik, san'atshunoslik to'garaklari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadriyatlar.T.:“Muharrir”, 2008 y.

2. N.Vohidova. Sharq mutafakkirlarining ta'limiy-axloqiy qarashlari. Oliy ta'lim. 2008 y. 8-son.

3. S.Bulatov. O'zbek xalq amaliy be'zak san'ati. T.:1991 y.

4. Sh.K.Shoyoqubov. Zamonaviy O'zbekiston miniatyurasi. T.: “O'zbekiston” nashriyoti 2006 y.

5. N.Jumaboyev. Sharq miniatyura san'atining estetik tarbiyadagi o'rni. “Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali. 1-son. 2022 y.

6. V.Qo'chqorov. Ma'naviyat va milliy o'zlikni anglash. T.: Akademiya, 2008 y.

7. O.Usmonov, A.Madrahimov. Kamoliddin Behzod. T.: 2000 y.

8. N.Jumaboyev. Sharq mutafakkirlarining ta'limiy-tarbiyaviy ilmiy merosini o'rganishning zaruriyati. “UzBridge” elektron ilmiy-ommabop jurnali. 1-son. 2022 y.

9. R.Hasanov. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. T.: 2004 y.

INTEGRATIV TA'LIM YONDASHUVI ASOSIDA PEDAGOGLARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Abduraimov Ikromjon Ravshanbekovich

***Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy
markazi “Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari” kafedrasikatta
o'qituvchisi,
mustaqil tadqiqotchi***

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish metodikasini takomillashtirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda uzluksiz kasbiy rivojlantirish o'rni tarix fani o'qituvchilarini integratsion yondashuvi asosida kompetensiyasini oshirishga qaratilgan bo'lib, XXI asr ko'nikmalariga javob bera oladigan, kreativ faoliyat ko'rsatuvchi, malakali mutaxassis kadrlarni shakllantirish maqsad qilib olingan.

Kalit so'zlar: XXI asr ko'nikmasi, kreativ, integrativ aloqadorlik, kontinental moslashuv, taqqoslash, modellashtirish, kompetensiya.

Abstract. *V dannoy state rol neprerывnogo professionalnogo razvitiya v povыshenii kachestva i effektivnosti obrazovaniya putem sovershenstvovaniya metodiki neprerывnogo professionalnogo razvitiya pedagogov napravlena na povыshenie kompetentnosti uchiteley istorii na osnove integrativnogo podxoda i sposobna reagirovat na navыki 21 veka selyu yavlyaetsya sozdanie kvalifitsirovannykh, kvalifitsirovannykh spetsialistov*

Klyuchevye slova: *Navыki XXI veka, tvorcheskoe, integrativnoe obuchenie, kontinentalnaya adaptatsiya, sravnenie, modelirovanie, kompetentnost*

KIRISH

Respublikamiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar, jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-siyosiy, ta'limiy-tarbiyaviy muammolarning yechimini topish, integrativ ta'lim asosida tashkil etilgan milliy o'quv dasturlarini, fanlarni yaxlit tizim asosida har tomonlama aloqadorlik va munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishni talab etmoqda.

Bu o'z navbatida XXI asr ko'nikmalariga javob bera oladigan, kreativ faoliyat ko'rsatuvchi, malakali mutaxassis kadrlarni, mustaqil fikr yurituvchi va kreativ faoliyat ko'rsatuvchi, shaxsini shakllantirishga imkon beradi.

Ta'lim oluvchilardan faqatgina tahlil qilish va sintezlashni talab qilish bilan chegaralanib qolmasdan, balki mavhumlashtirish, algoritmlashtirish, turkumlash, shartli belgilar yordamida ifodalash, sabab-oqibatli aloqadorlikni aniqlash, tahlil etish, tizimlashtirish, modellashtirish kabi yuksak darajadagi tafakkurni shakllantirishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Fanlararo integrativ ta'lim samaradorligini oshirishda integrativ kurslarni tuzish chegaralarning yo'qolib borishiga sabab bo'ladi.

Darsliklarning yaratilishida chiziqli integratsiyadan voz kechib spiralsimon integratsiyaga o'tishga e'tibor qaratish, ularni tartibga keltirish, ilmiy asosini yaratish lozim. Yangi rivojlanayotgan fan mazmunida turli falsafiy oqimlarda paydo bo'lgan g'oya va metodlar birlashuvi ehtimoli bor. Ta'lim falsafasi tomonidan nafaqat tabiiy moslashuv, balki kontinental moslashuv ham o'zlashtirilmoqda.

Integratsiyalashgan ta'lim-tarbiya, fanlararo aloqalarning ayrim jihatlari D.Konyars, Dj.Steven va G.Van Xorebeklarning konsepsiyasida pedagoglarni o'zlariga qulay bo'lgan turli o'qitish metod va metodikalariga tayangan holda turli tayanch yo'nalishlar ajratiladi. O'zaro fanlararo bog'lanishni ko'rsatadi.

Pedagog muammoni o'zidagi ijodiy qobiliyat, intellektual imkoniyat va hayotiy tajribani to'liq safarbar etgan holda hal etishni ilmiy-amaliy jihatdan isbot qilib berdilar. O'qituvchi oldiga qo'yilgan muammoni o'zidagi ijodiy qobiliyat, intellektual imkoniyat va hayotiy tajribani to'liq safarbar etgan holda hal etishni ilmiy-amaliy jihatini isbot qilib berdilar.

Misol uchun, Yan Amos Komenskiy grammatika va falsafa, falsafa va adabiyotning o'zaro bog'liqligini, Jon Lokkening tarix va geografiya fanining integratsiyasini ilgari surgan. Olimlardan T.Kun va V.S.Styopin bu boradagi ishlari natijasida tarix, falsafa, tabiat va madaniyat haqidagi fanlarni integratsiya asosida shakllantirish omili deb hisoblagan.

Chet elda ayrim pedagogika bilimlarning yaxlitligini ta'minlash uchun kompleks sub'ektlar yaratilgan. Masalan, AQShda "Ijtimoiy fanlar" (jumladan, tarix, xuquq, geografiya, shaxs va jamiyatshunoslikning fuqarolik tadqiqotlari elementlari) kompleks kursi paydo bo'lgan.

NATIJA

Tarix fani o'qituvchilarni malaka oshirish kursi jarayonidagi o'quv faoliyatini tahlil qilar ekanmiz ba'zan turli qiyinchiliklarga duch kelamiz.

Integratsion ta'lim yondashuvga asoslangan ilmiy tadqiqotlarda bir fanda qo'llaniladigan g'oya, usul, vositalar boshqa fanga olib o'tilishi mumkin.

Bunday olib o'tishlar gumanitar fanlar doirasida yoki boshqa guruhdagi fanlararo yondashuvda hosil bo'lishi mumkin. Masalan, sun'iy intellekt muammosi bilan bugungi kunda matematiklar, muhandislar, psixolog, faylasuflar, lingvistlar ishlamoqdalar.

Bu o'z navbatida muammoni chuqur va keng miqyosda o'rganish imkonini beradi. Yana bir misol: tarixchilar bo'lib o'tgan tarixiy jarayonlarni o'rganayotganda, o'sha davrdagi voqealar bo'lib o'tgan joyning landshafti, fauna, florasini, insonlarning hayot tarzi, oziq-ovqatlari, iqlim, mavjud texnologiyalar va boshqa ma'lumotlarga ega bo'lsa, ilmiy tadqiqot natijalari keng bo'ladi. Bunda tabiiy fanlardagi ma'lumot va metodlar qo'llaniladi. Chunki ma'lumotlarni ultrafiolet, ultraqizil nurlarda o'qish, ma'lumotlarni qayta tiklash uchun tabiiy fanlardagi murakkab texnik vositalar kerak bo'ladi.

Malaka oshirish kurslarida tinglovchilarni pedagogik muammolar bo'yicha yechimlarni topishda faol ishtirok etishi, tarix fani o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Pedagoglarning malaka oshirishdan keyingi faoliyati jaryonida o'quvchilar bilan ishlashda olingan bilimlarni bir tizimga solib, turli o'quv-ta'lim ish faoliyatida amaliyotda qo'llay olish imkonini beradi.

Tarix fanini o'qitilishi sifatini oshirishning asosiy jarayoni quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- mustaqil ishlash va ta'lim olish uslublarini o'rganish;
- og'zaki, nazariy o'qitish usullari bilan shug'ullanishdan voz kechish;
- o'qituvchilar faoliyatini rivojlantirish; ish usullarida o'qituvchi mahoratini hisobga olish;
- o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga e'tibor qaratish va hokazo.

Maktablar uchun nashr qilinadigan yangi avlod darsliklari o'rgangan materiallarni mustahkamlash, nazariya, tushunchalarni ijodiy o'zlashtirish va ularni aniq hayotiy vaziyatlarni hal qilishda qo'llash imkonini beradi. mustaqil ish, loyixa ishi, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, interfaol usullardan foydalanishi tarix fani o'qituvchilarini kompetensiyalarni rivojlanishiga olib keladi.

Bu vazifalarni amalga oshirish jarayonida umumta'lim maktablarida ta'lim samaradorligini oshirishda ko'p qirrali fanlararo aloqadorlik yordamida tarix fani o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish orqali malakasini oshirish yo'lga qo'yilsa, ularni har tomonlama rivojlantirish va sifat jihatidan yangi bosqichga olib

chiqiladi. Aynan shuning uchun ham fanlararo aloqalar asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirishga asoslangan kompleks yondashishning muhim sharti va natijasi bo'ladi.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirishda tarix fani o'qituvchilarini bugungi kunda tarix, geografiya, adabiyot, falsafa, mantiq, huquq, siyosatshunoslik, mintaqaviy vakolat masalalari va boshqalar bilan bog'liq mavzular integratsiyasi o'zlarining aloqa nuqtalariga ega.

MUHOKAMA

Pedagogika markazlarida ta'lim sifatini tubdan oshirishida professor-o'qituvchilarning intellektual-ijodiy - kreativ faoliyati ijtimoiy pedagogik ahamiyatga ega bo'lib, bu o'z navbatida tarix fani o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlanishlarini talab etadi.

Bu borada turli fanlararo integratsion jarayonlarda tarixiy ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish sinergetika (ta'limda yangicha yondashuvlarni, yangicha metodologik mezonlarni ishlab chiqish) evolyusionizm g'oyalari bilan tarixiy jarayonlarning ko'p variantlilikini mujassamlashtirgan holda tarixda an'anaviy yondashuvlarning cheklanganligini bartaraf etishga yordam beradi.

Shuning bilan birgalikda tarix fanlarini o'qitish jarayonlari va darsdan tashqari mashg'ulotlarda integratsion ta'lim berish orqali o'qituvchilar o'quvchilarda tarixiy bilimlar uzviyligini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini shakllantiruvchi samarali texnologiya va metodlar yordamida ta'lim sifatini oshirishga erishadi.

Shulardan kelib chiqib, tarixchi T.I.Goncharova "...mustaqil o'rganishsiz o'qitish yo'q va mustaqil o'qitishsiz o'rganish yo'q",³ degan xulosaga keladi. Shu bilan birga u o'zi ham darslarida bolalarni mustaqil ishlash, o'rganish va fikrlashga o'rgatish qoidalariga qat'iy amal qiladi. Uning darslarida turli usullar qo'llanilsada, asosiy e'tibor bolani "ishlatish"ga amaliy bilimlar berishga qaratilgan.

Tarix fani integratsiyasi o'qituvchilariga o'quv jarayonini fanlararo aloqadorlikning mavjudligini hisobga olib, loyihalashga, shu orqali o'zlashtirish, samaradorlikka erishishda nazariy, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish uchun xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tarix fanini o'qitish metodikasida fanlararo aloqalar va integratsion yondashuv pedagogikada mutlaqo yangi yo'nalish emas, hozirgi vaqtda o'qituvchilar o'rtasida idrok etilayotgan bilimlarning izchilligi va yaxlitligini shakllantirish alohida ahamiyatga ega ekanligi yurtimiz hamda xorij olimlari tomonidan etibor qaratilgan bo'lib, bugunda integratsion ta'lim asosida maktab o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishlariga katta etibor qaratish zarurati tug' ilmoqda.

³ «Исторические вечера в школе: Книга для учителя» (1992), разработала спецкурс «Светочи» -С . 82,

Bundan tashqari, malaka oshirish kurslarida integratsion ta'lim asosida tarix fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish orqali malakasini oshirish nafaqat o'z kasbi bilan bog'liq bajariladigan amaliy vazifalarga, balki ijtimoiy va amaliy tajribaga ega bo'lishiga imkon yaratadi.

Ushbu maqolada malaka oshirish kurslari jaryonida fanlararo integratsiyani yanada kengroq joriy qilish, tinglovchilarda pedagogik yechimlarni izlashda faol ishtirok etishi, tarix fani o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish va dunyodagi yaxlit tasavvurlarni shakllantirish, o'qitish sifatini yaxshilash, bilim va ko'nikmalarini tartibga solishning muhim bosqichi ekanligi ochib berilgan.

Bizningcha fanlararo integratsiyani doimo takomillashtirib va rivojlantirib borish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev huzurida 2019 yil 23 avgust kuni "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va jamiyatda o'qituvchi mavqeini oshirish" masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan videoselekt majlisi Bayoni. – 2019 yil 27 avgust. № 19750. "Halq so'zi" gazetasi 2019 yil 24 avgust.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 yildagi PF-5712-son Farmoni Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi

3. 2020 yil 24 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. -Xalq so'zi gazetasi. 2020 yil, 25 yanvar.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyundagi 422-son qarori 5-bandi

5. Yarmatov R.B. Bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish. pedagogika fanlari doktori (DSc) diss.. aftoref. T.: 2021. – 70 b.

6. Jitnikova L. M. Uchit detey zapominat. Posobie dlya vospitatelya detskogo sada. –Moskva: Prosveщenie, 1978.

7. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktablarida o'qitish metodlari. –T.: O'qituvchi, 1990. –229 b.

8. Mavlonova R.A. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Metodik qo'llanma. T: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti, 2005.

ICHKI ISHLAR TIZIMIDA ZAMONAVIY MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Arzikulov Dilshod Ne‘matovich

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi “Xizmat psixologiyasi va kasbiy madaniyati” kafedrasini professori, psixologiya fanlari doktori,
Rossiya Federatsiyasi Petrovskiy nomli Fan va san’at Akademiyasining
muhibir a’zosi <https://orcid.org/0009-0005-3082-2966>*

Xalq xo‘jaligining turli sohalarida mehnat qilayotgan yoshlarning psixologik tayyorgarligi va kasbiy madaniyati darajasini ko‘tarish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida kamol toptirish, ularni turli xil zararli oqimlarga kirib ketishining oldini olish maqsadida mustahkam ilmiy zamin yaratish zarur desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ma‘lumki, mamlakatiz prezidenti Shavkat Miramanovich Mirziyoev tomonidan 2024 yilni yurtimizda **“Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”**, deb e‘lon qilinishi jamiyatimizda jismonan va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, jamiyatning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan sog‘lom va mustahkam oilani shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush-tarzini qaror toptirish, ularni ichkilikbozlik va giyohvandlik illatlaridan va boshqa turli halokatli tahdidlar hamda biz uchun yot bo‘lgan diniy va ekstremistik ta’sirlardan, tuban “ommaviy madaniyat” hurujlaridan himoya qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta‘minlashda ularning mas‘uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5005-son⁴, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagi PQ-3216-sonli “Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev tomonidan 2019 yil 30 avgustdagi “Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarida ko‘rsatib o‘tilgan vazifalarni amaliyotga joriy etish maqsadida Ichki ishlar vazirligi Akadameiyasida o‘qitiladigan mutaxassislik va ixtisoslik fanlari qatorida psixologiya sohasiga oid fanlarni o‘qitish ham davr talabiga moslashtirilgan holda amaliyot bilan uzviy bog‘langan holda takomillashtirib borilmoqda.

Jumladan, kasbiy psixologiya fani ichki ishlar organlari uchun malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonida kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu fanining ichki ishlar organlari

⁴ "Xalq so‘zi", 2017 yil 11 aprel "O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami", 2017 yil 17 aprel, 15-son, 243-modda

faoliyatidagi ahamiyati jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi psixologik va sub'ektiv omillar rolini oshirish, xamda ularning shaxsiy psixologik imkoniyatlaridan samarali foydalana olish qobiliyatini rivojlantirish, bo'lg'usi ichki ishlar organlari xodimlarini mustaqil kasbiy faoliyatga psixologik jihatdan tayyorlashdan iborat.

Kasbiy psixologiya o'ziga xos fan bo'lib, yurisprudensiya va psixologiyaning o'ziga xos nozik qirralarini ichiga oladi, ya'ni bu fan muayyan huquq sohasi bilan psixologiya fanining o'zaro differentsiatsiyasi "kesishuvi" orqali yuzaga keladi. Huquq inson hulq-atvorining me'yoriy xatti-harakatlari bilan bog'liq jarayonlarni o'rganisa, psixologiya muayyan shaxs, uning jamiyatdagi xulq-atvori hamda hayot va mehnat faoliyatining o'ziga xos tomonlarini o'rganadi. Bundan ko'rinib turibdiki, har ikki fanning ob'ekti va sub'ekti inson, ya'ni shaxs hisoblanadi.

Ichki ishlar organi xodimlariga o'qitiladigan kasbiy psixologiya yuridik psixologiya tarkibida yuzaga kelgan bo'lib, aniq faoliyatni ya'ni ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatidagi psixologik jihatlarining o'ziga xos tomonlarini o'rganishga bag'ishlangan tarmoq hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda kasbiy psixologiya huquq doirasidagi munosabatlar, shaxsning psixik faoliyatini huquqiy boshqarish mexanizmlari va qonuniyatlarini o'rganuvchi fandir. Xususan, tergovchining guvoh, xolis, jabrlanuvchi va gumon qilinuvchilardan ko'rsatmalar olishi hamda ularni so'roq qilishi, profilaktika xodimlarining turli toifadagi fuqarolar va huquqbuzarlikka moyil bo'lgan shaxslar hamda muqaddam sudlangan shaxslar bilan munosabatga kirishishi va nihoyat, tezkor vakillarning turli toifadagi shaxslar bilan aloqa o'rnatishi, kerakli ma'lumotlarni olishi psixologik bilimlardan foydalanish ko'nikma va malakalari orqali amalga oshadi. Shu bois kasbiy psixologiyani haqli ravishda ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatining rivojlanish qonuniyatlari, turli toifadagi shaxslar bilan o'zaro munosabat jarayonlarida psixologik bilimlardan foydalana olish qobiliyatini shakllantirish yo'llarini o'rganuvchi soha desa bo'ladi.

IIO xodimlari uchun kasbiy psixologiya fanining metodologik asosini kasbiy psixologik bilimlar majmuasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining risolalari, Sharq mutafakkirlarining psixologiya fani to'g'risidagi qarashlari va nazariyalari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qonun va farmonlari, IIVning buyruq va ko'rsatmalari tashkil etadi.

Ichki ishlar tizimida tahsil olayotgan tinglovchilar o'rganadigan kasbiy psixologiya ilmiy-amaliy fan bo'lib, psixologiyaning qonuniyat va prinsiplarini o'rganish, ichki ishlar organlari xodimlari faoliyati samaradorligini oshirishga tavsiyalar ishlab chiqish bilan bir qatorda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Huquqiy normalarning shaxsga ta'sir etishi, bunda shaxs, guruh va jamoaning psixologik qonuniyatlarini o'rganish.

2. Ichki ishlar idoralari faoliyatining samaradorligini oshirishga ilmiy tavsiya ishlab chiqish, shaxsning ichki his – tuyg'ularini anglash, jinoyatni keltirib chiqaruvchi sub'ektiv va ob'ektiv sabablarini o'rganish va hokazo.

Ichki ishlar xodimlarining kasbiy psixologiya fanini o'rganishining o'ziga xos tomonlaridan biri ichki ishlar organlari xodimlariga jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilishga yordam berish, psixologik usullarni qo'llagan holda

yangidan yangi daliliy oshyolar orqali isbotlash jarayoniga yordam berishdan iborat. Psixologiya shaxsni jinoyat sodir etilgunga qadar qanday holatda bo'lganligi, jinoyat sodir etilganidan keyingi holati, va nihoyat, dastlabki tergov va u bilan bog'liq boshqa holatlarda shaxs o'zini qanday tutayotganligini aniqlashga yordam beradi.

Kasbiy psixologik bilimlar orqali ichki ishlar organlari xodimlari jinoyatlarning oldini olish, ochish, gumon qilinuvchi va jinoyat sodir etgan shaxslarga, shuningdek mahkumlarga ta'sir etishning bir qancha psixologik usullardan foydalanishni o'rganadi.

Shaxsga psixologik ta'sir etish usuli maxsus vakolatli shaxslar tomonidan qo'llaniladi. Mazkur usulni qo'llash jinoyat-protsessual qonun doirasida amalga oshirilib, undan maqsad – jinoyatlarni ochish, oldini olish, jinoyatlarning kelib chiqish sabablarini aniqlash, muqaddam jinoyat sodir etgan shaxslarni normal hayotga qaytarish va turmushga moslashtirishdan iborat. Mazkur usullarni qo'llashda psixologiyaning ilmiy metodlariga hamda kriminologik va pedagogik bilimlarga tayaniladi.

Ta'kidlash joizki, muayyan darajada empirik materiallar to'plash, ularni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilish, ma'lum ilmiy mezon asosida amaliy ma'lumotlarni tartibga keltirish, aniq xulosalarga kelish fan oldida turgan ulkan vazifalarni muvaffaqiyat bilan bajarish imkoniyatini yaratadi. Kasbiy psixologiya ichki ishlar organlari xodimlariga xizmat jarayonida turli mushkul vaziyatlardan oson, talafotsiz chiqib ketish yo'llarini o'rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, huquq bilan psixologiya o'zaro bog'liq fanlar bo'lib, ichki ishlar organlari xodimlarini mustaqil hayotga tayyorlash hamda kelgusi mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishida ulkan ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taminlash yurt taraqqiyoti va halq faravonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent : "O'zbekiston" NMIU, 2017.- 48 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlili, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 104 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 32 b.

5. *Karimov I. A.* Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat. T. 14. – T., 2006. 121. b.

INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM JARAYONIDA QO'LLASH

Yaxshiboyeva Baxtigul Ismatovna

Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi 11- maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Bugungi kunda mamlakatimizda zamonaviy ta'lim tizimi yangilanib, yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalar jadal rivojlanib bormoqda. Bu esa bugungi kunda biz ustozlarni o'z ustimizda ko'proq ishlashga chorlamoqda.

Ta'limda samaradorlikka erishishning bir necha omillari mavjud bo'lib, ular orasida o'qituvchilarning innovatsion faoliyati yetakchi o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham innovatsion jarayonlar ta'lim tizimining yangi bosqichiga aylanmoqda.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon sifatida o'quv- tarbiyaviy faoliyatga yangilik kiritadi. Bunda yangiliklarni sekinlik bilan bosqichma-bosqich kiritish, uni qanchalik foyda keltirishini oldidan o'ylab, so'ngra uni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Innovatsiyalarni o'ylamasdan pala-partishlik bilan kiritish ko'p hollarda zarar keltirishi mumkin.

Ta'lim-tarbiya jarayonida kutilayotgan natijalarga erishish yo'lida qo'llanilayotgan innovatsion pedagogik texnologiyalar avvalo o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini to'g'ri tashkil etishga yaqindan yordam beradi. Bunda o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari shakllanib, ularning ijodkorlik, izlanuvchanlik xususiyatlari rivojlanadi. Shundagina bu usul samarali va maqsadli hisoblanadi.

O'qituvchilarning innovatsion texnologiyalardan samarali va maqsadli foydalanishi o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga xizmat qiladi. Har bir dars, mavzu yoki o'quv fanining o'ziga xos o'qitish texnologiyasi bor, lekin bularning barchasining zamirida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar yotadi.

Innovatsion texnologiyalarning afzalliklari:

1. Eng qulay va sodda usul.
2. Esda qolishi kuchli.
3. Bilim boyligini oshiradi.
4. Vaqtdan yutamiz.
5. Dars qiziqarli o'tadi.
6. Darsning samaradorligini oshiradi.
7. O'quvchilarni o'z ustida ishlashga o'rgatadi.

Interfaol usullaridagi darslar o'quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni o'zaro faollikda hal etishga, o'zaro hamjihatlikda ish yuritishga, fikrni mantiqan yozma ravishda bayon etishga undaydi. Interfaol metodlarda ish yuritish, an'anaviy usullardan voz kechish degani emas, balki ta'lim mazmunini o'zaro faollikda hal eta olish demakdir.

Interfaol usulning asosiy maqsadi o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchining erkin fikr yuritishga zamin yaratishdir. O'quv jarayonida o'quvchining o'zi-o'ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi. O'quvchi uchun dars qiziqarli dars mazmuniga aylanadi. O'qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo'ladi. Har bir o'quvchining o'zi mustaqil fikr yurita olishga, izlanishga olib keladi. Interfaol usulda o'tilgan darslarda o'quvchi faqat ta'lim mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zining tanqidiy va mantiqiy fikrlarini ham rivojlantiradi.

Interfaol usullarda darsni tashkil etishda o'quvchi shaxsini rivojlantirish o'zini boshqarishdan boshlanishi kerak. Ya'ni bunda o'quvchi:

- o'zi mustaqil o'qishi asosida bilim olishi;
- o'zini-o'zi anglab tarbiya topishga;
- o'z bilimiga ishonch bilan qarashga;
- vaqtdan unumli foydalanishga;
- o'z mehnatini qadrlay olishi kerak.

Interfaollik asosida o'tilgan darsda o'quvchilar ko'rgan, bilgan, o'ylagan fikrlarini ochiqdan-ochiq bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchilarning har bir bildirgan fikrlari to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligidan qat'iy nazar tanqid qilinmaydi. O'quvchilar hamkorlikda ishlashda mavzu mazmunini bilish va o'zlashtirishda o'zlarining shaxsiy hissalarini qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zaro bilimlar, fikrlar almashish jarayoni sodir bo'ladi. Bunday holatlarda o'zaro samimiylikni ta'minlaydi, yangi bilimlarni o'zlashtirishga havas ortadi. Kutilayotgan natijaga erishish uchun darslar oldindan rejalashtiriladi. Fanning o'ziga xos jihatlari inobatga olinadi. Bunda o'qituvchi mukammal dars ishlanmasini tuzgandagina dars samaradorligiga erishadi.

Interfaol usulning asosiy maqsadi o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin fikr yaratishga muhit yaratishdir. U o'zining imkoniyatlaridan kelib chiqib ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi.

Interfaol usullar o'quv sifati va samaradorligini oshiradi. Bu darsda birorta o'quvchi ham chetda qolmaydi. Dars jarayonida o'quvchilar bir-birlarini qo'llab-quvvatlaydi, o'zaro do'stona samimiy munosabatlar vujudga keladi. Bu esa biz uchun juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Chunki, ta'limni – tarbiyadan, tarbiyani – ta'limdan ajratib bo'lmaydi.

O'QUVCHILARDA MUTOLAA VA KITOBXONLIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA, MAKTAB KUTUBXONACHILARNING ROLI

Shavkat Bazarov

Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi ARM bosh mutaxassisi

“Kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish buyuk maqsadlarimizga erishishning muhim kafolatidir.” Sh.Mirziyoev

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o'quvchilarda mutolaa va kitobxonlik madaniyatining foydalari haqida, kitobxonlar bilan qanday ishlash haqida, shuningdek viktorina – savol-javob o'yinlarini tayyorlash uchun ma'lumotlar berilgan.

Kalit soʻzlar: Mutolaa, kitobxon, kutubxon, oila, ota-ona, tarbiya, maktab, oʻqituvchi, oʻquvchi, koʻnikma.

Dunyoni faqat ilm bilan zabt etish mumkinligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Ilmni chuqur egallashning yoʻli esa bitta – kitob oʻqishdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mutolaa haqida fikr bildirib, jumladan, shunday degandi: “... hammamiz uchun ayni paytda juda muhim ahamiyatga ega boʻlgan masala, yaʼni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga boʻlgan muhabbatini, ularning maʼnaviy immunitetini yana-da oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi”.

Mutolaa madaniyati kishining manbaani toʻlaqonli tushunishi, undan zavq olishi, muallif fikri va gʻoyasini anglash hamda uni baholay olishi kabi xususiyatlarga ega bolishini taminlaydi. Kitob mutolaasi insonni bevosita amaliyotga kirishish, hayot bilan uygʻunlashish, manaviy foyda olishga yoʻnaltiradi. “Mutolaa” soʻzi arabcha oʻqish degan manoni anglatadi, bugungi kunda esa u kitob oʻqishdan koʻra kengroq tushuncha anglatadi.

Farzand tarbiyasidagi eng asosiy omillardan biri bu kitob mutolaasidir. “Kitob”, “kitobxonlik”, “kutubxon” soʻzlarining oʻzagi aslida arabchadan olingan va bir maqsadga, yani inson manaviyatini boyitishga xizmat qiladi. Yurtimizda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirish uchun amalga oshirilayotgan islohotlar ham bejizga emas, binobarin, kelajak avlodning kamoloti ilm olish, bilimli boʻlish bilan belgilanadi. Bu borada, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017-yilning 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targʻibot qilish boʻyicha komissiya tuzish toʻgʻrisida” gi farmoyishi eʼlon qilindi. Bu esa oʻz navbatida, yurtimizda kitobxonlik saviyasi oshishiga, yangidan-yangi sermazmun kitoblar chop etilishiga omil boʻluvchi muhim odimdir. Ana shunday imkoniyatlardan oqilona foydalanib, yangidan-yangi nashrdan chiqayotgan sermazmun asarlarni oʻqib borish yoshlarning ongi oʻsishi, tafakkuri teranlashib, oʻzining mustaqil fikriga ega boʻlishiga imkon beradi.

Kitob bilan tanishish, mutolaa qilish, insonga oʻzgacha zavq beradi. Kitobxon oʻquvchi mutolaa qilar ekan kitob bilan yaqinroq tanishadi, uning ilmiy-badiiy qimmatini haqida tasavvur hosil qila boshlaydi, fikrlaydi, mutolaa madaniyati yuksaladi. Yurtboshimizni kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga qaratilayotgan alohida eʼtibori tufayli umumtaʼlim maktablarida, barcha talim maskanlaridagi oʻtkazilayotgan “Kitobxonlar bayrami”, koʻrik tanlovlari, kitobxonlikni targʻib qilish orqali oʻquvchilarning maʼnaviy dunyosini boyitish, ularda mustaqil va tanqidiy fikirlash koʻnikmasi va malakalarini shakllantirish, maʼnaviy tahdidlarga nisbatan sogʻlom immunitetni rivojlantirishga munosib hissa qoʻshib kelmoqda. Taʼlim muassasalarini, barcha dam olish maskanlarida ochilayotgan zamonaviy kitob doʻkonlari va chekka qishloqlarda ochilayotgan kutubxonalar yosh avlodni manaviy va intellektual ehtiyojini qondirishda, kitobga oshno boʻlishda muhim oʻrin tutmoqda. Hozirgi kunda maktab kutubxonasida “Yosh kitobxonlar” toʻgaragi faoliyat yuritib kelmoqda. Toʻgarakka maktabning barcha oʻquvchilari jalb qilingan boʻlib, ular bilan birgalikda kitob taqdimotlari, turli zakovat oʻyinlari olib boriladi.

Kitoblar insoniyat fikri durdonalarini to'plab avlodlarga etkazadi. Haqiqatdan ham hech bir manbaa kitob kabi inson kamolotini yuksaltira olmaydi.

Har bir kitobxon o'z yosh toifasidan kelib chiqib badiiy asarlar yoki ilmiy asarlarni o'qishi, yoritilgan fikrlarni yanada teranroq anglab yetishiga imkon hosil bo'ladi. Buning uchun ota-ona, bog'cha, maktab hamkorligida bolaning qiziqishlari to'la qonli o'rganilishi kerak. Bir bolaga yeti mahalla ota-ona deganlaridek, farzand tarbiyasida, ularning manaviyatli madaniyatli bo'lib kamol topishida barcha birdek mas'ul hisoblanadi. Kitob o'qishni odat qilmagan oila – ma'naviy qashshoq oiladir deb bejizga aytishmagan. Shunday ekan faqat ota-ona emas balki kutubxona xodimlari ham o'z kasbining yetuk mutaxasisi bo'lishi, kitobxonlarga, ularning qiziqishlarini inobatga olgan holda to'g'ri kitob tanlab berishi kerak bo'ladi.

Ayrim vatandoshlarimiz “hozirgi yoshlarga jiddiy badiiy asarlarni tavsiya etgan bilan, ular bunday kitoblarni o'qimaydilar, chunki zamon o'zgardi”, deyishmoqda. To'g'ri, zamon o'zgardi. Ammo bizning o'zbekligimiz o'zgargani yo'q. Shunday paytda, yoshlarimizning kitobxonlik madaniyatini oshirish, ular ma'naviy ehtiyojini shakillantirish uchun nimanidir tavsiya etishni ba'zan unutayotganga o'xshaymiz. Yoshlar ma'naviy ehtiyojini shakillantirish uchun ularga ma'noli asarlar tavsiya etishimiz lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev o'z farmoyishida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish lozimligiga alohida urg'u bergan. Ho'sh, kitobxonlik madaniyati deganda nimani tushunamiz? Bular, fikrimizga quyidagilardan iborat: o'zining kasbiy-mutaxassislik hamda badiiy-ma'naviy barkamolligini oshirish uchun kitobni tanlay olish va o'zi uchun zarurini o'qish; kitob ustida ishlash malakasini obdon o'rganib olish va unga chuqur amal qila bilish; kitobni mustaqil o'qiy bilish; o'qigan kitobning asosiy mazmunini talqin qila bilish, uning fusunkor olamiga kira bilish; o'qiganlaridan hayotiy xulosalar chiqarish; kitobning kerakli, zarur joylarini yon daftarchaga ko'chirib olish, notanish bo'lgan so'zlarni esda saqlab qolishga intilish; muntazam ravishda o'qish ko'nikmasiga ega bo'lish; kitob bilan muomalada eng qadrdon do'stingga munosabatda bo'lganday e'tibor bilan qarash; kitobni yaroqsiz holiga keltirmaslik uchun undan to'g'ri foydalana bilish; kitobni shoshilmasdan, o'ylab, diqqat-e'tibor bilan o'qish malakasiga ega bo'lish, kutubxona kartotekalari bilan ishlay bilishni o'rganish; o'qigan kitobni do'stlar bilan o'rtoqlashish, yaxshi kitobni ularga tavsiya qilib, uni boshqalar ham o'qib chiqishiga erishish; har bir yaxshi kitobni ilm qal'asining kaliti deb bilib, uning boqiy umrini ta'minlash kerak bo'ladi.

O'quvchilarda mutolaa va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishda, badiiy adabiyotga qiziqishni yana ham oshirishda, kitobxonning estetik didini shakllantirishda, kutubxonachilarning roli alohida ahamiyatga ega. Agar bir asar tanlanib savol-javob o'yinlari maktab o'quvchilari orasida olib boriladigan bo'lsa, u maktab dasturi hamda maktabdan tashqari o'qish mashg'ulotlarining mavzusiga bog'lanishi zarur. Bu o'quvchilarning o'quv dasturi asosida yana ham kengroq bilim olishlarini ta'minlaydi, ularning mustaqil bilim olishlariga yordam beradi, o'quvchilarda o'qish ko'nikmasini, adabiyot tanlash, fikr-mulohaza yuritish ko'nikmasini tarbiyalaydi.

Viktorinalar – savol-javob o‘yinlari badiiy asarlarni targ‘ib qilishning eng qiziqarli shakli bo‘lib, undan kutubxonalar, yoshlar bilan ish olib boruvchi muassasalar foydalanadilar. Savol-javob o‘yinlari, ayniqsa maktab va bolalar kutubxonalari faoliyatida keng qo‘llaniladi. Bunday viktorinalar o‘rta maktabning o‘quv dasturiga bog‘liq holda tashkil etiladi. Ulardan ko‘zlangan maqsad yoshlarning bilim saviyasini oshirish, mustahkamlash, tanlangan mavzuga qiziqish uyg‘otishdan iborat. Viktorinalar mashhur yozuvchi va shoirlarning, san‘atkor va olimlarning yubileylari, muhim voqea va sanalar munosabati bilan tashkil qilinadi. Viktorinalar alohida bir shaxs – yozuvchi yoki shoirning hayoti va ijodi bo‘yicha yoki faqat bir asar bo‘yicha ham o‘tkazilishi mumkin. Viktorinalar qiziqarli, shu bilan birga juda murakkab tadbir hisoblanadi. Shuning uchun uni o‘tkazish alohida tayyorgarlikni, katta bilimni talab qiladi. Uni tashkil etgan va olib borayotgan shaxs shu mavzu bo‘yicha atroflicha bilimga ega bo‘lishi, mavzuga oid barcha qo‘shimcha adabiyotlar, ensiklopediya, lug‘atlar bilan tanish bo‘lishi kerak. Viktorina uchun 10-15 savol tanlanib, 30-40 daqiqaga mo‘ljallanadi. Uni tayyorlashda kitobxonlarning qiziqishi, bilim saviyasi e‘tiborga olinadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, o‘quvchilarda mutolaa va kitobxonlik madaniyati yuksaltirishda kitobxon avlodni tarbiyalashda maktab kutubxonachilari yetakchi rol o‘ynaydi. Jamiyatimizda kitobxonlik madaniyatini takomillashtirish borasida, albatta, pedagog-tarbiyachilarimiz bilan birga kutubxona xodimlarining ham to‘g‘ri ish yuritishi ko‘zlangan maqsadlarga erishishga munosib zamin yaratadi. Darhaqiqat, kitob juda ko‘plab sir-sinoatlarga boydir. Uning boyliklari hech ado bo‘lmaydi. Kitob insonga qanot bag‘ishlaydi. Kitob eng yaqin do‘stlardan biridir. Biz savollarga kitoblar orqali javoblar topamiz, kitoblar fikrlash uchun eng muhim ozuqadir. “Kitob seni hali sen ko‘rmagan dunyoga olib boradi, sen eshitmagan so‘zlarni aytadi” deydi Geytsen.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida” 4789-son, farmoyish.
2. Adabiy viktorinalar (savol javob o‘yinlari): Tayyorlash va o‘tkazish metodikasi / Tuzuvchi Z. Berdieva. -T.,1989.
3. G‘aniyeva D.A, Ratner R.I. “Ta’lim tizimidagi axborot-kutubxona jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish”.-T., Yangi asr avlodi, 2013.
4. G‘aniyeva D.A.“Ta’lim maqsadlarini amalga oshirishda axborot-resurs markazlarining roli” -T.:Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.

O‘QUVCHILARNI TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARNING O‘RNI

U.A.Qlichev

IV Sirdaryo akademik litsey, Huquqiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi boshlig‘i, tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarga ta’lim–tarbiya berish jarayonida milliy qadriyatlarining o‘rni ko‘rsatib berilgan.

Аннотация: в статье отражена роль национальных ценностей в процессе воспитания студентов.

Annotation: the article reflects the role of national values in the process of educating students.

Kalit soʻzlar: taʼlim, tarbiya, qadriyat, milliy, yosh avlod, inson, jamiyat.

Oʻquvchilarga taʼlim-tarbiya berishda qadriyatlar va ularning zamirida mujassam boʻlgan mehr-oqibat, tinch va osoyishta hayot, doʻstlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar, avvalo, oʻqituvchi ongiga singgan boʻlishi va shu asosida oʻquvchi ongiga singdirilishi, adolatli jamiyat barpo etish uchun barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadriyatlar taʼlim-tarbiya asosida oʻquvchilar ongiga singdiriladi. Oʻzbekiston taʼlim muassasalarida faoliyat koʻrsatayotgan oʻqituvchilarning pedagogik mahoratida qadriyatlar ularning maʼnaviy dunyosi keng ekanligini namoyish qiladi. Allomalarimizning taʼlim-tarbiyaga oid qarashlarida maʼnaviy qadriyatlarga boʻlgan eʼtibor ham asosiy oʻringa ega. Ajdodlarimiz qadimdan bebaho boyluk boʻlgan maʼrifat, taʼlim va tarbiyani inson kamolotining asosi deb bilganlar. Inson axloqi va harakati ilm-fanni oʻrganishga asoslansa kamolotga erishadi.

Oʻzbekistonda milliy madaniyatni asoslarini eʼtiborga olib taʼlim-tarbiya mazmunini va milliy mafkurani shakllantirib borish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bunga pedagogika, barcha millatlarning maqsad intilishini oʻzida mujassamlashtirgan. Yoshlar ongi milliy qadriyatlar bilan qanchalik koʻp uygʻunlashgan boʻlsa, ularning rivojlanishiga keng imkoniyat yaratadi. Qadriyatlar tizimi insoniyat tamaddunining taraqqiyoti bilan bogʻliqligi va umumbashariy ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Inson va uning qadr-qimmatini ardoqlanishini, barcha millat va elatlar tinch-totuvlik asosida oʻzaro hamkorlikda yashash, moddiy va maʼnaviy boyliklarni asrab-avaylash, ilm-fan rivojiga hissa qoʻshish, tinchlikni saqlash kabilarni oʻzida namoyon etadi.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan taʼlim tizimidagi islohotlarning muvaffaqiyati koʻp tomondan oʻqituvchi mehnati faoliyatining qadriyatlarga yoʻnaltirilganligiga bogʻliq boʻladi. Oʻqituvchi oʻzining qizgʻin mehnat faoliyati ishda qadriyatlarga boy ekanligini taʼlim-tarbiya jarayonida namoyish etadi. Oʻqituvchi mehnatining natijasi boʻlgan komil inson yuksak maʼnaviyatni yaratadi va qadriyatlarni asraydi.

Pedagogik faoliyatda qadriyatlar oʻqituvchining katta mehnati evaziga shakllanib boradi va quyidagi muammolar oʻqituvchi uchun bugungi kunda eng muhim ahamiyatga ega:

- uztoz-murabbiylar mehnatida jamiyatga xos qadriyatlarni oʻz maqsadlarining asosi deb qabul qilishi;

- oʻqituvchi mehnatida qadriyatlarning samarasini oʻquvchilarga uzatish istagining mavjudligi.

Oʻqituvchi mehnatining mohiyatida uning maʼnaviy saviyasini koʻrsatadigan intellektual ong va qadriyatlarga tayanadigan zamonaviy ilgʻor yutuqlardan oziqlanadigan milliy dunyoqarash boʻlishi kerak.

O‘zbek xalqining milliy xususiyatlari umuminsoniy qadriyatlar bilan ham bog‘lanib ketgan. Asrlar davomida xalqimiz umumbashariy qadriyatlar rivojiga katta hissa qo‘shgan. Turli millat vakillariga hurmat, ular bilan bahamjihat yashash, diniy bag‘rikenglik, o‘zga xalqlarning ilg‘or tajribalari va madaniyatini o‘rganish kabi xususiyatlar ham rivojlangan.

Milliy qadriyatlar nafaqat insonning shakllanishiga, balki, jamiyatda zamonaviy ta‘lim sifatiga, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi. Shuni aytish etish kerakki, O‘zbekistonda nafaqat o‘quvchilarning bilim olishi, kasb-hunar o‘rganib, jahon taraqqiyoti bilan teng bo‘la olishi barobarida inson kapitalini rivojlantirish uchun keng shart-sharoit yaratilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, milliy qadriyatlar mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elatlarning manfaatlarini himoya qiladi. Shu bilan birga, ajdodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma‘naviy boyliklarni asrab-avaylab, kelajak avlodga yetkazishni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev. Sh, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” - 4-jild, “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2020-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni.
3. A.Qodirov va boshqalar. Baxtli bola ma‘naviyati. “Muharrir”, T.:2018.
4. Quronov M. Milliy tarbiya. - T., “Ma‘naviyat”, 2007, 238-6.
5. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...T.: “Ma‘naviyat”, 2014.
6. Umarov B., Jabborov Sh. Globallashuv sharoitida ma‘naviy tarbiya muammolari. – T.: Akademiya, 2011.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINI AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MODELI

I.E.Suyunov

Sirdaryo PM Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi metodisti

Annotatsiya: *Bir necha yillar davomida pedagog-metodistlar dolzarb didaktik masalalarni aniq tasvirlashga va unga mos keladigan pedagogik texnologiyani ishlab chiqishga kam e‘tibor bergan edi. Biroq keyingi paytlarda asosan 1997 yildan buyon ular yangi pedagogik texnologiyalarni yaratish va amaliyotga joriy etishga majbur bo‘lib qoldi. O‘qituvchi bilim berishdan o‘quvchilarning bilimlarini mustaqil egallashlariga ko‘maklashishi zarur. U o‘quvchida ehtiyoj tug‘dirishiga, muhit yaratishga va unda javobgarchilikni sezishga yo‘nalish berishi kerak bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar: *kompetent, kognitiv, portfolio, kompetensiya, kasbiy malaka, muntazamlik, kommunikativ.*

Abstract: *For several years, pedagogues-methodologists paid little attention to the accurate description of actual didactic issues and the development of*


appropriate pedagogical technology. However, in recent times, mainly since 1997, they were forced to create and implement new pedagogical technologies. It is necessary for the teacher to help students to acquire knowledge independently. He will have to create a need in the student, create an environment and guide him to feel responsibility.

Key words: *competent, cognitive, portfolio, competence, professional qualification, regularity, communicative.*

Kompetenlik atamasi «samaradorlilik», «erishish», «muvaffaqiyatlilik», «tushunish», «natijalilik», «ega bo'lish», «sifat», «miqdor» so'zlari yordamida ta'riflanadi, shu bilan birga ko'pgina mualliflar uni tashxislashdagi qiyinchiliklarni qayd etgan. L. Spenser va M. Spenserlarning ta'kidlashicha, kompetensiyalarning shakllanishi ularni o'lchash va xususiyatlarini aniqlash qiyinchiligi bilan ortga suriladi.

Dj. Raven kompetentlikni biror bir ob'yekt yoki ob'yektlar sinfiga ko'ra biror sohaga tegishliligi bilan baholash kerak - deb hisoblaydi. Natijada ma'lum faoliyatning individual motivatsiyasi jadalligining bahosi hosil bo'ladi. U shaxs kompetentligini biror bir maqsadga erishish uchun faoliyat olib borishi kutilgan holdagina aniqlanishi ma'noga ega bo'ladi - deb tushuntiradi.

L. Spenser va M. Spenserlar kompetentlikning mezonlari sifatida yuqorida qayd etilgan elementlarni qarab chiqqanlar: shaxsning «Men- konsepsiyasi» tuzilmasidagi motivlar, psixofiziologik sifatlar, ko'rsatmalar, qadriyatlar, shuningdek, bilim va ko'nikmalar. Mualliflar kompetensiyaning boshqa komponentlariga qaraganda bilim va ko'nikmalarni baholash va rivojlantirish osonroq deb hisoblaydilar. Ular kompetensiya ta'rifining quyidagi sxemasini keltirgan (2.1-rasm):



2.1 -rasm. Kompetensiya ta'rifi (L.Spenser va M. Spenserlar fikri bo'yicha)/

Shu bilan birga, kompetensiyani o'rganishda qo'llaniladigan kompetentli xatti-harakat mezonlari quyidagicha ta'riflangan:

- eng yaxshi ijro – o'rtacha ijrodan standart chekinish deb ta'riflanadi, uning darajasiga ma'lum ishchi holatida o'ntadan bittasi erishishi mumkin;
- samarali ijro – odatda ishning eng kichik ma'qul darajasini bildiradi, undan past darajali ishchi esa, bu ish uchun kompetentsiz hisoblanadi.

G.A. Larionovanning tadqiqotlarida talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini tavsiflovchi kompetensiyalar to'plami amaliy tavsifdagi masala va topshiriqlar orqali aniqlanadi. Bu masalalarni yechishda o'quv fanlari bo'yicha egallangan bilimlar qo'llaniladi. Shu bilan birga, talabalarning bilim va ko'nikmalarini kasbiy faoliyatda qo'llashga tayyorgarlik darajasi kasbiy faoliyatning ma'lum turiga moyilligini baholashda ifodalanadi.

I.A. Zimnyaya taklif etgan shaxs kompetentligi tuzilmasiga ko'ra A.M. Knyazev, Ye.V. Zemsov va S.N. Paleskayalar tomonidan kompetentlik komponentlarini baholashning quyidagi mezonini ishlab chiqilgan (1.1-jadval):

Kompetentlikni baholash mezonlari

Kompetentlikning tarkibiy qismlari	Kompetentlikni baholash mezonlari
1. Tayyorgarlik	Maxsus xususiyatlar, axborotni qabul qilish va qayta ishlash xususiyatlari, o'rganish qobiliyati, tipologik xususiyatlar va boshqalar
2. Bilim	Kompetentlik, stereotiplar, bilim, kompetentlik bilan bog'liq bo'lgan o'rganishning ustunligi haqidagi tasavvurning mavjudligi
3. Tajriba	Kompetentlikka yaqin yoki aynan unga mos keladigan masala va topshiriqlarni bajarish
4. Munosabat	Kompetentlikni amalga oshirish yoki faoliyat kompetentligi bilan bog'liq holda o'ziga va boshqalarga nisbatan munosabatlarning shakllanishi
5. Muntazamlik	Kompetentlikka bog'liq amallarga «turtki»larni nazorat qilish qobiliyati, matonat, qat'iyat, sabrlilik, kompetentlikni amalga oshirish bilan bog'liq maqsadga erishishdagi to'siqlarni zabt etishga tayyorgarlik

Ushbu konsepsiya asosida M.D. Lapteva talaba-yoshlar uchun ijtimoiy o'zarota'sirlashuvda kompetentlik ko'rsatkichlarini ishlab chiqqan. Kompetentlikni namoyish qilishga tayyorgarlik darajasini quyidagi mezonlar bo'yicha aniqlash mumkin: o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini namoyon etish g'oyasi, kasbiy yo'l tanlash, turmush qurish, farzandli bo'lishga nisbatan qaror qabul qila olishga tayyorgarlik, o'z hayotiga javob berishga tayyorlik, hayot yo'lini mustaqil tanlash, kasb sohasida ko'nikishlar hosil qilishga tayyorlik va boshqalar.

Kompetentlik mazmuni haqida bilimlarga egalik quyidagi tavsiflarni o'zida aks ettiradi: fikr yuritishning dialektikligi, shaxsning kognitiv yetukligi, tajriba uchun ochiqlik, rasionallik, turli standart va nostandart holatlarda kompetentlikni namoyish etish tajribasini esa, ijtimoiy rollarni o'zlashtirish va bajarishdagi muvaffaqiyati, hatti-harakat va faoliyatning individual yo'llari va boshqalar. M.D. Lapteva fikriga ko'ra, kompetentlik mazmuni va uning tadbiqu ob'yektiga munosabat, kasbiy o'z-o'zini baholashning shaxsga tegishli jihati va ota-onalik munosabatlarining hissiyotlari orqali amalga oshiriladi. Kompetentlikning namoyon bo'lish natijalarining hissiyotli-idrokli regulyasiyasibaholash mezonlari sifatiga istiqbolli masalalarni qo'yish, ularni hal etish yo'llarini topishda qat'iyatlilik, talabgorlikning moslik darajasi, kasbiy potensialni o'zi baholashni, hissiy-shaxsiyatli avtonomlik va boshqalarga ega.

Ijtimoiy kompetentlikning yuqori darajasi o'zarota'sirga turli rollarda kirish va ularga mos harakat qilish, shu bilan birga destruktiv o'zaro ta'sirga yo'l qo'ymaslik qobiliyatini ko'zda tutadi. Hamkorlikdagi kompetentlik ko'rsatkichlari sifatida ishonch, tolerantlik, empatiya, inson huquqi va erkinligi haqidagi bilimlar, refleksiya, raqiblar o'zaro ta'siridagi malaka va ko'nikmalar xizmat qiladi.

Bo'lajak mutaxassislarni faoliyatga tayyorlashda N.S. Aulova, ularning quyidagi tayyorlik mezonlarini keltirgan:

- shaxsning refleksiv faolligi darajasi – hamkasblarga munosabat, shaxsiy ahamiyatli kasbiy sifatlarda ifodalangan ideal mutaxassis obrazini tanlash, o'z kasbiga mosligini baholash, refleksiv harakatlarning shakllanganligi;
- asosiy texnologik tayyorgarlik sifatida mazmunli-jarayonli, operatsional komponentning shakllanganlik darajasini, kasbiy faoliyatning vositalari, usullariva yo'llarini egallash;
- bilish faollik darajasi – o'zlashtirilgan kasbiy bilimlar tizimi, kasbiy masalalarni hal etish usullarini qo'llash ko'nikmasi;
- kasbning yuqori ijtimoiy belgilanganligida ishonchlilikningshakllanganligi;
- ularni o'z kasbiy faoliyatida amalga oshirish yo'llarini topishga intilish;
- bashorat qilishning faollik darajasi.

V.A. Serunyanning fikriga ko'ra, kompetentlik mezonlari faoliyatning ob'yektiv natijalari va tavsifini, shuningdek, sub'yektiv omillar, ya'ni motivlari va qiziqishlarini aks ettirishi kerak, ya'ni sub'yekt kompetentligi bir tomondan faoliyat maqsadi shaxsning motivlarining umumiy tuzilishiga qanchalik kirishi bilan, boshqa tomondan, u yoki bu natijaga erishish uchun faoliyat qandayamalga oshirilishi bilan baholanadi.

O.M. Bobiyenko kompetensiyalarni baholash usullari sifatida quyidagilarni taklif etadi: kuzatish, savolnomalar, natijalar papkasi (portfolio), yozma jurnal (kundalik), rag'batlantirish (ishbilarmonlikni o'rgatish), amaliytopshiriqlar (kasbiy malakalarni namoyish etish), videotasvirlar.

Qayd etilganlarni e'tiborga olgan holda faoliyat sub'yekti kompetentligini baholash mezonlarini ikki guruhga ajratish mumkin: tuzilmali (motiv, bilim, ko'nikma, qobiliyat); funksional-faoliyat jarayoni va natijasi tavsifi.

Pedagogika va psixologiyada «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalari bilan bir qatorda «asosiy kompetensiyalar», «malakalar», «asosiy malakalar», «kasbiy kompetentlik», «kasbiy muhim sifatlarni» kabi tushunchalar ham qo'llaniladi. Ammo, bu tushunchalarni tasniflashning yagona asosi va umumlashtirilgan ta'riflari mavjud emas.

Oliy ta'lim tizimida ko'zda tutilgan natijalar sifatida kompetensiyalarga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlarda asosiy urg'u «asosiy kompetensiyalar» va «asosiy malakalar» tushunchalariga berilgan.

Yevropa davlatlari kasbiy ta'limida quyidagi asosiy kompetensiyalar alohida ahamiyatga ega:

- a) ijtimoiy – o'ziga mas'uliyatni his etish, hamkorlikda qaror qabul qilish va unda ishtirok etish qobiliyati, turli etik madaniyat va dinlarga tolerantlik, shaxsiy qiziqishning korxon va jamiyat talablari bilan mosligi;
- b) kommunikativ – turli tillardagi yozma va og'zaki muloqot texnologiyalariga egalik, shu bilan birga kompyuter savodxonligi;
- c) ijtimoiy-axborotli – axborot texnologiyalariga ega bo'lish va ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan ijtimoiy axborotga tanqidiy munosabat;
- d) kognitiv – doimiy ravishda ta'lim olganlik darajasini oshirishga tayyorlik,

o‘z shaxsiy potensialini faollashtirish va amalga oshirishga ehtiyoj, ya’ni bilim va ko‘nikmalarni mustaqil egallash, o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyati;

e) madaniyatlararo kompetensiyalar;

f) mustaqil bilish faoliyati sohasidagi kompetentlik;

h) maxsus – kasbiy amallarni mustaqil bajarishga tayyorgarlik, o‘z mehnati natijalarini baholash.

Asosiy kasbiy kompetensiyalar mutaxassislarning ijtimoiy-kasbiy harakatchanligini aniqlaydi, turli ijtimoiy va kasbiy jamoalarga muvaffaqiyatli moslashish imkonini beradi. S.Ye. Shishovning fikriga ko‘ra, asosiy kompetensiyalar - insonning kasbiy faoliyati davomida o‘zining barcha bilim, ko‘nikma va malakalarini safarbar qilish, harakatlarning umumlashtirilgan usullarini qo‘llash qobiliyati hisoblanadi.

Asosiy kompetensiyalarning ko‘rinish jihatidan turli xilligi yuqorida qayd etilgan mualliflar ishlarida umumilmiy, ijtimoiy-iqtisodiy, axborot- kommunikativ va umumkasbiy bilimlar bilan taqdim etilgan.

Kasbiy ta’lim pedagogikasi va psixologiyasida «asosiy kompetensiyalar» tushunchasi bilan bir qatorda «malakalar», «asosiy malakalar» tushunchalar ham uchraydi.

E.F. Zeer va G.M. Romansevlarning fikriga ko‘ra, malaka – insonning ijtimoiy va kasbiy qobiliyatlariga qo‘yiladigan ijtimoiy va kasbiy malakaviy talablar majmuasi hisoblanadi. L.G. Semushina esa, malaka «past», «o‘rtacha» va «yuqori» darajada bo‘lganligi sababli mutaxassis tomonidan biror bir kasb yoki mutaxassislikning egallaganlik darajasini tavsiflaydi - deb ta’kidlaydi. E.F. Zeer «kasbiy malaka» tushunchasini quyidagicha ta’riflagan: kasbiy malaka – mutaxassisning kasbiy tayyorgarlik darajasi va turi, unda ma’lum ishni bajarish uchun zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarning mavjudligidan iborat.

Shunday qilib, malaka ham kompetensiyalar kabi asosiy va kasbiy bo‘lishi, shu bilan birga, kasbiy malakalarni ko‘pincha oddiy «malakalar» deb nomlash ham mumkin. Ilmiy adabiyotlarda asosiy malakalar deb quyidagilar hisoblanadi:

- individning kasbiy tayyorgarligi darajasidan tashqaridagi uning ekstrofunktsional bilimi, ko‘nikmalari, sifatleri va xususiyalari;

- aniq kasblar guruhlari sohasidagi ishni bajarish uchun zarur bo‘ladigan shaxsning umumkasbiy bilimlari, ko‘nikmalari va malakalari, shuningdek, qobiliyatlari va sifatleri;

- turli kasbiy jamoalarga moslashish va ularda samarali faoliyat uchun zarur madaniyatlararo va sohalararo bilimlar, malakalar va qobiliyatlar.

Asosiy malakalarning tuzilmali elementlari qatoriga shaxsning kasbiy yo‘naltirilganligi, kasbiy kompetentligi, kasbiy ahamiyatli sifatleri va psixofiziologik xususiyatlarini kiritish mumkin. Masalan, E.F. Zeer va E.E. Simanyuklar asosiy malakalar tarkibiga metakasbiy sifatleri, ya’ni mutaxassisning kasbiy va ijtimoiy faoliyatining samaradorligini ta’minlovchi shaxsning qobiliyatlari xususiyatlarini, ya’ni tashkilotchilik, mustaqillik, javobgarlik, ishonchlik, muammolarni rejalashtirish, muammoni hal qilishga qobiliyatlilik va boshqalarni kiritgan. «Asosiy malakalar» tushunchasining o‘zini esa, asosiy kompetensiyalar va metakasbiy sifatlardan iborat keng miqyosda

qo‘llaniladigan metakasbiy tizimlarlar sifatida ta’riflagan.

V.I. Baydenko kompetensiyadan farqli ravishda malaka mustahkam kasbiy maydon va algoritmlar bilan chegaralangan faoliyat ustuvorligini bildirishiga e’tibor qaratgan.

Yevropa hamjamiyati mamlakatlarida (masalan, Angliyada) «tayanch malaka» atamasi «bazaviy malaka», «asosiy malakalar» atamalarini bilan bir qatorda qo‘llaniladi va faoliyatning turli xil holatlari hamda ijtimoiy hayotda turli shakllarida namoyon bo‘luvchi shaxsiy va shaxslararo sifatlar kabi ta’riflanadi.

Asosiy (bazaviy) malakalar qatoriga quyidagilar kiradi:

- ijtimoiy qobiliyat, psixomotorli malakalar, o‘rganish qobiliyatlari, umummehnatli sifatlar, individual yo‘naltirilgan qobiliyatlar;
- asosiy (savodxonlik, hisob), hayotiy (o‘zini boshqarish, kasbiy va ijtimoiy o‘sish ko‘nikmalari), tayanch (kommunikatsiya), ishbilarmonlik, boshqaruvchanlik ko‘nikmalari, tahlil va rejalashtirishga qobiliyati;
- ijtimoiy - kasbiy malakalar, kasbiy kompetentlik, kasbiy-shaxsiy qobiliyatlar.

Ko‘pincha bu tushunchalarni farqlash asosi bo‘lib, ularning turli ko‘rinishdagi mazmuni xizmat qiladigan holatlar uchraydi. Bunday holatda kompetentlik - deganda mutaxassis kompetentligining asoslari bo‘lgan ma’lum kompetensiyalarga egalikni anglatuvchi shaxsning tavsiflanishi tushuniladi.

Bizning fikrimizcha, bunday tushunish soddalashgan hisoblanadi, chunki bu tushunchalar mazmunida muhim farqlar kuzatilmaydi va shundagina kompetentlik o‘zaro bog‘liq yoki bog‘liq bo‘lmagan kompetensiyalarning yetarlicha sonini o‘z ichiga olishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, oliy ta’lim muassasasi bitiruvchisining kompetentligini shakllantirish bo‘yicha ta’lim jarayonining maqsadini aniqlashni ham, loyihalashni ham qiyinlashtiradi.

Shunday qilib, kompetentlik tuzilmasini ta’riflashga ikkita turlicha yondoshuvlar mavjud: tushunchaning shajarali ahamiyati (kompetentlikning mazmuni va tabiatini ta’riflash) va tur jihatlari (kompetentlik tuzilmasidagi mutaxassis kompetensiyalari turlar).

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil yanvar // Mirziyoyev Sh. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4 jild. - O‘zbekiston, 2020. –B. 4-50.

2. Abdirazzakov A.A. Национальные духовные ценности и их место в самосознании нации: Автореф. дис. ... канд. филос. наук. -Т., 1995. 24-с.

3. Abdukarimov X. Kasbiy pedagogik faoliyat. Monografiya.-Т.: O‘qituvchi,2010.-160-b.

4. Abdullaeva M.X. Интеграция как средство обогащения интеллектуального и воспитательного потенциала занятий по гуманитарным дисциплинам // Формирование интеллектуального, духовно-нравственного и физического потенциала учащихся общеобразовательной школы Республики Узбекистан на современном этапе. – Ташкент: УзНИИПН им. Т.Н.Кары Ниязи, 2005. – 137-149-с.

5. Abdullaeva Sh.K. Технология преподавания общественных наук в учебных заведениях среднего специального профессионального образования (на примере учебной дисциплины «Основы духовности»): Автореф.дис. ... канд. пед.наук. – Т., 2001. – 18-с.

6. Abdullaev M., Hakimov E. Введение в этику (краткий курс). – Фергана: Фаргона, 2001. – 94-с.

7. Abdullaeva B.S. Развитие профессиональной позиции учителя в повышении квалификации. O‘zbekiston Respublikasi miqiyosida 2019 yil 6 mayda o‘tkazilgan respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 82-b.

8. Abdullajonov M.A. Формирование профессиональных качеств будущего учителя в процессе обучения в педвузах: Автореф.дисс. ...канд. пед.наук. – Т., 1991. – 21-с.

MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA PEDAGOGIKANI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

K.Eshkuvatov

Sirdaryo viloyati pedagogika markazi Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasidagi dotsenti

Faoliyat kursatayotgan pedagoglarni DTS talablari asosida qayta tayyorlash va malakasini oshirish ko‘p jixatdan pedagogika, psixologiya fanlarini o‘qitish samarasi bilan bog‘liq.

Pedagoglarni kayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida pedagogika mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni tavsiya etamiz.

1. Mashg‘ulotlarning kuv dasturlarini xar yili yangilash maqsadga muvofiq emas. Chunki bu pedagogika fani o‘qituvchilarini tinglovchi kurs va kurslararo o‘quv mashgulotlari dasturi xech bo‘lmaganda 4-5 istiqbolli, global muammolarini bu masalaga ijodiy yondoshuvlar uchun imkoniyat tariqasida qoldirish lozim.

2. Mashg‘ulotlarni tinglovchilarning tajribasi, kasb yunalishi va talab-istaklarini xisobga olib tabakallashtirish usulidan foydalanib tashkil etish, lozim deb xisoblaymiz. Kurslarga birinchi marta kelayotgan tinglovchilar uchun pedagogikaning metodologik, didaktik, adogetik va talim menejmentiga oid; ikkinchi va uchinchi marta kelayotgan tinglovchilar uchun “Pedagogik maxorat asoslari”; undan keyin kelgan tinglovchilar uchun “Pedagogikaning dolzarb muammolariga oid chuqurlashtirilgan maxsus kurslar” yoki ijodiy ishlarni ximoya qilish shakllarida uyushtirish mumkin.

3. Keyingi yillarda pedagogikadan o‘quv mashtulotlari dasturida xalq pedagogikasi, yangi pedagogik texnologiyalar masalalariga aloxida e‘tibor berilmoqda. Fikrimizcha, dunyo mamlakatlari tajribasiga tayanib bu muammolarni aloxida mashg‘ulot shaklida emas, balki mavzularning mazmuniga, kiritish usullariga singdirish orqali xal etilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

4. Maktablarda nopedagogik ixtisoslikdagi mutaxassislar xam ishlayotganligi sababli ularning pedagogik, uslubiy tayyorgarligiga e‘tibor berish lozim.

5. Viloyatlardagi pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari kafedralarida ishlayotgan yosh mutaxassislarni aspirantura, doktoranturalarga jalb etish, ilmiy-kasbiy maxoratlarini oshirish masalalariga

aloxida e'tibor berish vaqti keldi. Bunda mamlakatimizning yetuk universitet va pedagogika institutlari kafedralari bilan ilmiy, ijodiy xamkorlikni yo'lga qo'yishdan keng foydalanish lozim.

YOSHLARNING INTERNETDAN TO'G'RI FOYDALANMASLIGINI RUHIYATGA TA'SIRI

*Mirzavev Djamshid Turdaliyevich (PhD), Sheraliyev Sarvar Jumali o'g'li
Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri,
4-mavze. mail: mirzjamshid.003@gmail.com*

Annotatsiya: *Maqola yoshlarning internetdan to'g'ri foydalanmasligi oqibatida ularning ruhiyatiga salbiy ta'siri mavzusida bo'lib, unda interneting ruhiyatga ta'siri uni oqibatida kelib chiqadigan kasalliklar haqida yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *internet, ruhiyat, texnika, ommaviy axborot vositalari.*

Kun sayin jadal rivojlanib borayotgan axborot asrida zamonaviy texnika vositalaridan foydalanmaslikning yoki ularga murojaat etmaslikning hech bir iloji yo'q. Chunki, inson dunyoqarashining shakllanishida, ma'naviy olaming yanada kengayishida, ayniqsa kompyuter texnologiyasi asosiy vosita rolini bajarmoqda. Bu bir tomondan quvonarli holat. Mening fikrimcha, yoshlarga internetdan to'g'ri foydalanishni oiladan boshlash kerak. Bu mavzuda qalam tebratish, menimcha, juda dolzarb masala, chunki yoshlar jamiyatning harakatlantiruvchi asosiy kuchi va ertangu kun vorislaridir. Xo'sh, bugungi yoshlar o'z hayotini nima bilan bezamoqdalar. Ular nima uchun internetdan ko'p foydalanish kerak? – deb hisoblamoqdalar. Shu o'rinda men e'tiborni internetdan to'g'ri foydalanish yo'llariga va bu haqida ruxshunoslarning fikrlariga qaratmoqchiman.

Bugungi kunda, biz yoshlar, kata imkoniyatlardan xohlagancha foydalanib, o'qish yoki ish davomida vaqtimizdan ancha unumli foydalanmoqdamiz. Hozirgi kun nuqtai nazar bilan qaraydigan bo'lsak, allaqachon global tarmoqqa aylanib ulgurgan internet o'zining tezkorligi chegara bilmasligi bilan ommaviy axborot vositalari orasida eng muhim sohaga aylanib ulgurdi. Unda faoliyat yuritayotgan ijtimoiy tarmoqlar: Kun.uz, Daryo.uz kabi saytlar orqali har soatda yurtimiz va jahonga oid eng so'ngi yangiliklardan boxabar bo'lib turamiz. Ammo shiddat bilan yuksalib borayotgan fan-texnika asrida, internet va ijtimoiy tarmoqlarining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda uning yoshlar ma'naviyatiga, ularning yangiliklarga chanqoq ongiga salbiy ta'sirining ham guvohi bo'lyapmiz. Ruhshunoslarning ma'lumotlariga qaraganda, yoshlar buzg'unchi, destruktiv g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitet hali to'la shakllanmagani uchun o'qigan yoki ko'rgan ma'lumotlariga tez ishonishadi. Bunday hollarda yoshlarning ma'naviyatiga, ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan igromaniyani hech bir jihatdan oqlab bo'lmaydi. Kundalik hayotimizda har narsaning salbiy va ijobiy tomoni bo'lgani kabi zamonaviy texnika vositalaridan foydalanishda ham me'yorga amal qilmog'imiz zarur! Ayni davrda internet tarmoqlari yoshlar hayotini izdan chiqarib yuborishga qodir kuchli qurolga aylanib ulgurdi. Bu tarmoqlar yoshlar orasida qanchalik ko'p o'z o'rniga ega bo'lgan sari, ularning havfi ham ikki barobar

oishmoqda. Yosh avlodning deyarli 60-70 foizi global tarmoqning asiriga aylanib qolgan. Ular shu darajada internetga bog‘lanishdiki, xatto tongni u bilan qarshilab kunni u bilan kuzatayotganlarini ham sezmay qolishdi. Internet tarmoqlari yoshlarning dunyoqarashini, fikrini o‘zgartirib yubordi. Bu olamga g‘arq bo‘lgan yoshlarning deyarli ko‘pchiligida insoniylik, mehr oqibat tuyg‘ulari, muomala madaniyati kamayib bormoqda. Masalan jamoat transportida telefonidan ko‘zini uzmay kelayotgan bola u yerdagi axloq qoidalarini ham unutib qo‘ymoqda, yaqinlariga, ota onasiga ham internetga ajratganchalik ko‘p vaqt ajratmay qo‘yayotganini o‘zi ham sezmay qolmoqda. Internet keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Uydan ko‘chaga chiqmay turib global tarmoq orqali dunyo kutubxonalari bo‘ylab sayr qilib, kurrai zaminning narigi chekkasida joylashgan oliy ta‘lim muassasasining masofaviy (virtual) talabasi bo‘lish, hatto elektron xizmatlarni (matnlarni tarjima qilish, video va audiomahsulotlarni tayyorlab berish, kitob va risolalarni sahifalash va hokazo) shartnoma orqali bajarish, pul ishlab topish mumkin.

Xullas, internetning ijobiy jihatlari bisyor. Ijtimoiy tarmoqlar yoki messenjerlarning qulayligi-chi? Onlayn konferensiyalar o‘tkazish, onlayn malaka oshirish, yaqinlar va tanish-bilishlar bilan tez, arzon video yoki audiomuloqot qilish. Mana shu jihatlari bilan internet keyingi paytlarda jozibadorlikda televideniye, radio va boshqa axborot vositalarini ortda qoldirmoqda. Lekin internet ko‘plab foydali jihatlari bilan birga salbiy oqibatlarini ham namoyon qilmoqda. Umuman, internetga qaramlikning eng og‘ir jihati real olamni, insoniylik burchi va vazifalarini unutishdir. Inson haqiqiy hayotda yashashi, halol mehnat qilishi, ilm olishi, zimmasidagi vazifalarini sidqidildan bajarishi, elu yurtiga fidoyilik bilan xizmat qilishi, atrofdagilarga foyda keltirishi zarur. Internetda ko‘p vaqtini o‘tkazadigan insonning ruhiyatida mavhumlik va o‘z qobig‘iga o‘ralib olish holati kuzatiladi. Bu esa uni kelajakda “uchinchi kuchlar” tomonidan manqurtlashishi, zombilashtirilishi uchun zamiin yaratadi.

Bugungi kunda buzg‘unchi guruhlar yoshlar ongiga ta’sir qilishda asosan internetdan foydalanayotganlari bejiz emas. Internetning yana bir salbiy jihati - kishilardagi xudbinlik, manmanlik, zamonaviy tilda ifoda etganda, egosentrizm illatining kuchayishiga sabab bo‘lishidir. Bugungi dunyo yoshlari-son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Yoshlarda internet olamida o‘z o‘rnini to‘g‘ri belgilash va foydalanuvchilar bilan to‘g‘ri muomala qilish, virtual olamdagi axborotlarni to‘g‘ri tahlil qilish malakasini shakllantirish davr talabidir. Internet bu kabi yoshlar vaqtining ham eng katta dushmani hisoblanadi. Bir kun internetdan foydanlanmasak kunimiz qachalik unumli bo‘lganini sezamiz. Shunday ekan, internet asiriga aylanmasdan uning girdoblarida umrimizni zoye ketkazmasdam undan o‘zimizni himoya qilishimiz lozim. Har bir irodasi mustahkam yosh avlod vaqtini o‘zining eng qimmatbaho boyligiligini angalaydi va uni kinga va nimaga sarflashni juda yaxshi biladi. Ularda internetning turli xurujlariga qarshi kurashish immuniteti mavjud bo‘ladi. Bu bilan ijtimoiy tarmoqlardan umuman foydalanmaslik emas, balki undan me’yor bilan foydalanish kerak. Ular

hayotimizda birinchi o‘rinda emas, oxirgi o‘rinlardan joy olsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Zero bizga berilgan umrni samarali sarflash har birimizning o‘z qo‘limizda.

Qay biri o‘g‘ri vaqtmi yoki internet?

Internet bizning ikkinchi oilamiz, do‘stimiz va hatto o‘zimizga aylanib borayotgani isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Inson umrini bo‘lib chiqsak uxlashdan tortib qachon yuvinishimizgacha olimlar o‘rtacha umriga nisbatan bo‘lib hisoblab chiqishgan oldinlari bu statistikaga internet kiritilmagan edi endi esa bu kiritilishi aniq va ravshan, chunki inson hozirgi zamondan internetga ketkazadigan vaqti hattoki oila a‘zolari, do‘stlariga ajratadigan va ketkazadigan vaqtdan hech ham qolishmaydi va bu natija borgan sari oshib bormoqda. Lekin XXI asrda shunday o‘g‘ri dunyoga keldiki uni na qalin devorlar va na kuchli armiya ham to‘xtatib qololmaydigan bo‘ldi. Albatta bunga o‘zimiz sababchimiz. Bu o‘g‘ri internetdir!!! Agar unga imkon bersak bizning hayotimizni, umrimizni, umidlarimizni, erkimizi hatto hayollarimizni o‘g‘irlashi aniq shuning uchun biz ham juda ehtiyotkor va undanda aqilli bo‘lishimiz va u bizning umrimizni o‘g‘irlashiga yo‘l qo‘ymasligimiz zarur. Vaqt umr o‘g‘risi deyishadi u to‘xtamaydi tez yoki sekin, ha to‘g‘ri tushundingiz sekin vaqt har doim ham tez bo‘lmaydi uni tez yoki sekin qilish o‘zimizga bog‘liq shu kungacha bizning umrimiz vaqtga bog‘liq edi va endi internet ham bu safga qo‘shildi. Fikr jamlash yo bir joyda o‘tirib o‘ylab ko‘rish yo‘q hozir bizni bir joyga o‘tirib diqqatimizni fikrimizni bir joyga jamlashga yo‘l qo‘ymayotgan internet degan o‘g‘ri bor.

XULOSA.

Biz ongimizni jazolaylik inernetdan foydalanmaylik yo‘q foydalanmaslik yechim emas va u bizga kerak ham emas. Biz internet nazoratida emas u bizni nazoratimizda bo‘lishini ta‘minlaylik. Unga bog‘lanib qolmaylik, lekin unga bo‘lgan xohishimizni, talabimizni jilovlaylik. Shunday qilaylikki uni faqat bizga xizmat qilishga majbur qilaylik, biz unga emas. U juda ayyor bo‘lsa biz undanda ayyor bo‘laylik. Biz ham o‘g‘ri bo‘laylik qanday o‘g‘ri bo‘laylik deysizmi internetdan o‘zimizni kerakli bo‘lgan ma‘lumotlarni olaylik bilimimizni oshiraylik lekin uni bizni umrimizni o‘g‘irlashiga yo‘l qo‘ymaylik va bunga qattiq va jiddiy reaksiya bildiraylikki biz unga qanchalik irodali, shijoatli ekanimizni ko‘rsatib qo‘yaylik. Bir inson dunyoga kelibdiki uni o‘z vazifasi va maqsadi bor va bo‘lishi ham kerak. Hoxish va iroda bo‘lsa hamma narsa qo‘lingizdan keladi faqatgina diqqat, intizom va harakat bo‘lsa bas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirzayev Jamshid Turdalievich. “Social and psychological opportunities of information and psychological security in adolescents” International Conference on Developments in Education. Hosted from Bursa, Turkey. <https://econferencezone.org> July 15th 2022 45-48 p

<https://econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/1279>

2. Мирзаев, Д., & Наргулова, А. (2022). «Лечение интернет-зависимости. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы» Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и

перспективы 1(1), 498–500. извлечено от

<https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5217>

3. Мирзоев, Д. (2022). “Internet qaramligini shakllanishning sabablari, mexanizmlari va diagnostikasi.” Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), № 1 (2022) 500–503. извлечено от

<https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5218>.

4. Jamshid Turdaliyevich Mirzayev. Yoshlar ijtimoiy hulq-atvoriga internet muloqoti ta'sirining psixologik jihatlari. Tashkent Medical Academy Volume 4 | TMA Conference | 2023 Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions. Volume 4 | TMA Conference | 2023. May 6. 812-816 p. <https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlar-ijtimoiy-hulq-atvoriga-internet-muloqoti-ta-sirining-psixologik-jihatlari/viewer>

5. Mirzayev Jamshid Turdaliyevich. “Psychological aspects of influence of the internet - communication on the social behavior of the youth” / INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS. International scientific-online conference. 2023. Part 18. JUNE 3rd. 1295-1300 p.

<https://interonconf.org/index.php/neth/article/view/5386>

6. Mirzayev Djamshid Turdalievich/ PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INTERNET-COMMUNICATION IN SOCIAL SOCIETY OF YOUTH. The results of the study of Internet addiction on the method of Kimberly-Yang. NEUROQUANTOLOGY | October 2022 | VOLUME 20 | ISSUE 12 | PAGE 3409-3416| DOI: 10.14704/NQ.2022.20.12.NQ77350

<https://www.proquest.com/openview/c0c46eae7bf0e04fd82a955955a4dd/1?pq-origsite=gscholar&cbl=2035897>

7. Mirzayev Djamshid Turdalievich / Psychological aspects of the influence of internet communication on the social behavior of young / PEOPLE SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 3 ISSUE 4 APRIL 2024 ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ B volume 3 issue 4 – 359p <https://doi.org/10.5281/zenodo.11032109>

TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNI QO'LLASH

K.Eshkuvatov

Sirdaryo viloyati pedagogika markazi Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasida dotsenti

Innovatsiya – yangilik kiritish ma'nosini anglatadi. Albatta, kiritilayotgan yangilik bu tizimdan ko'zlangan natijalarning sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lishi shart. Bundan pedatogik innovatsiya pedagogik tizimni sifat jixatdan takomillashtirib, yuqori samaradorlikka olib boruvchi nazariy g'oyalar, jarayonlar va vositalar tizimidir degan xulosaga kelamiz.

Yuqoridagilardan malaka oshirish muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglarning kasbiy bilimlari, maxorati va o'z ishlariga e'tiqodi kabilarga

tayyorlanayotgan mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik darajasi bevosita bog'liq ekanligi kelib chiqadi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalarning malaka oshirish jarayonidagi imkoniyatlari haqida s o'z yuritmoqchi ekanmiz, avvalo bu iboraning mohiyati, mazmuni va maqsadi nimalardan iborat ekanligi haqida qisqacha to'xtalib o'tmokchimiz. Buning uchun ushbu iboraning tarkibiga kirgan quyidagi tushunchalariga izox berish lozim bo'ladi

1. Pedagogika — ta'lim-tarbiya ishini loyixalashtiruvchi, amalga oshiruvchi, natijalarini nazorat qilib yanada takomillashtirib boruvchi fandır.

2. Texnologiya (grekcha "texnos" - moxirlik sanati va "logos" urganaman), moxirlik san'atini o'rganaman degan ma'noni anglagadi.

Texnologiya bu ob'ekti ko'plab ishlab chiqarish nuqtai nazaridan olib qaralganda ob'ekta maqsadga muvofiq ta'sir etib, uniig xolati, xususiyati, shakli va sifatini o'zgartirishdir. Shunga ko'ra pedagogik texnologiya - talim-tarbiya ishida bosh sub'ekt xamda markaziy ob'ekt b o'lib xisoblangan taxsil oluvchilar xis-tuygulari, xarakterlari kabilarga maksadga muvofik ta'sir etib, ularda bilim, ish-xarakat usullari, shaxsiy jislat va fazilatlarini shakllantirish xamda rivojlantirish jarayonidir.

Taxsil oluvchilar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirilish darajasiga ko'ra bu jarayonning samaradorligi xaqida fikr yuritish mumkin. Pedagogik texnologiyaning samaradorligini baholashda sarflangan vaqt, mablag', vositalar va uning ishtirokchilari sarflagan zo'riqish kuchlari kabilar asosiy mezon sifatida karaladi.

Umuman olganda, pedagogik texnologiyalarnint samaradorligi bu tizimning ichki imkoniyatlaridan oqilona foydalangan xolda amalga oshiriladi va mos ravishda intensiv yoki ekstensiv deb karaladi. Ta'lim-tarbiya ishida o'z vaqt zo'riqish kuchlari va ko'shimcha mablag sarflamay samara olish intensiv yo'l deb ataladi. Shu o'rinda har qanday yangi pedagogik texnologiyalar xam samadorlikni oshirish imkoniyatigaeta emaslini yodda tutmoq lozim. Bizningcha, ilg'or pedagogik texnologiyalar eng avvalo bu tizimdagi quyidagi kamchiliklarni bartaraf etishda qaratilmoqi lozim: talim-tarbiya ishidagi taxsil beruvchi va taxsil oluvchilar orasidagi majburiy itoatkorlik munosabatlari o'rnini ongli intizom bilan almatirish; shu paytgacha amaliyotda xukm surgan "kiska tugashish usulini keng kulamdagi muntazam alokadorlik bilan almashtirish; pedagogik kadrlarni muntazam ravimda ijodiy faoliyat ko'rsatishlarini talab etish; axborotlar kulami shiddatli ortib borayotgan bir davrda yetarli va zarur bo'lgan talim mazmunini taxsil oluvchilar mulkiga aylantirisha imkon beruvchi omillardan keng kulamda foydalanish; didaktik va kasb ta'limining xususiy prinsiplari xamda konuniyatlarini amal kilish kabilar. Pedagogik tizimga yangiliklar kirigish muammosi juda muxim dolzarb bo'lib, mantiqiy taxlil kilish maxoratiii talik zali. Oxirgi o'n yillikda bu tizimga juda ko'p, kiritildi yangi konsepsiyalar, davlat standartlari, aternativ o'kuv reja va dasturlari, yanti turdagi ukuv muassasalari va shu kabilar.

Bizning fikrimizcha, malaka oshirish jarayonida kuyidagi ilg'or pedagogik texnologiyalarning mohiyatini ochib berish va ulardan foydalanish metodikasini uzlashtirish muhim hisoblanadi:

- o'quv materialini modul bloklari shakliga keltirib o'rganish;
- muammoli va dasturli talim elementlaridan foydalanish;
- axborot kulamini shiddatli kengayib borishini xisobga olgan xolda tayanch nuktalaridan foydalanish.
- didaktik o'yin va ishlab chiqarish mazmunidagi masalalar yechish;
- bir-birini to'diruvchi, kentaytiruvchi va chuqurlashtiruvchi o'zaro bog'lik fanlarni mujassamlantirib o'qitish kabilar.

Bir-biriga mazmunan yaqin maxsus fanlarni mujassamlashtirib o'rganishni tadkik etish natijasida quyidagi xulosaga keldik. Mazmunan bir-biriga yaqin, o'zaro aloqador ukuv fanlarini quyidagi yo'nalishlarda mujassamlashtirib o'rganish mumkin:

1. Bir-biriga yaqin fanlarni mazmunan mujassamlashtirib o'rganish.
2. Protsessual (bir necha o'qituvchilar faoliyatini) mujassamlashtirish.
3. O'quv kunlarini tashkiliy jixatdan mujassamlashtirish.

Mugaxassislikka oid maxsus o'quv predmetlarini mazmunan mujassamlashtirib o'rganish bo'yicha olib borgan tadqiqot ishlarining natijalari ushbu yo'l orqali 7-9 foiz samara olish va 15-20 foiz vaqtni tejash mumkinligidan dalolat bermoqda. Bundan xar tomonlama komil inson shaxsini tarkib topdirishdek muxim bo'lgan yagona maqsadga qaratilgan vazifaning yechimini topishda mujassamlashtirib o'qitish samarali omillardan biri ekanligi ma'lum bo'ladi

Malaka oshirish jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish quyidagilarga imkon beradi:

Bu texnologiyalarni ommaviy o'rganish, targib etish va amaliyotta joriy etish;

1. Ilg'or pedagogik texnologiyalar eng avvalo ijodiy izlanishlar natijasi bo'lganligi sababli nazariya bilan amaliyot bog'liqligini ta'minlash;
2. Bu texnologiyalarni ommaviy o'rganish, targ'ib etish va amaliyotga joriy etish;
3. Ilg'or pedagogik texnologiyalarning asl moxiyati, qo'llanish xollari, imkoniyatlari haqida batafsil mablumotlar berish;
4. Ilg'or pedagogik texnologiyalarnint ijobiy tomonlarini takomillashtirish va salbiy jixatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari haqida umumlashgan ekspert xulosalarini olish.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВЛИЯНИЯ ИНТЕРНЕТ-ОБЩЕНИЯ НА СОЦИАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ МОЛОДЕЖИ

Мирзаев Джамшид Турдалиевич

*Сырдарьинская область, Гулистанский государственный университет,
преподаватели кафедры педагогика и психологии Психология и
социальные науки факультета (Phd), mirzjamshid003@gmail.com
Telefon+998972777014*

Аннотация: Первые разработки Интернета были сделаны в 1969 году в США. Интернет, каким мы его знаем, появился в 1992 году. В 2020 году по состоянию на январь количество пользователей Интернета в мире превысило

4,5 миллиарда, а теперь наверняка будет еще больше. Данная статья основана на методологическом анализе нашей научной работы по теме «Психологические аспекты влияния интернет-общения на социальное поведение молодежи». Выбранные для нашего научного исследования (анкетный опрос по авторской методике, тест Кимберли Янга (адаптированный В.А. Лоскутовой); на основе общенаучного анализа наших методов. В выбранных нами объектах исследования, то есть в наших респондентах, мы видим результаты исследования по нашей авторской методике и «методике Кимберли-Янга» Исследования проводились в столице Республики Узбекистан и в Сырдарьинской области, Джизакских университетах.

Число пользователей социальных сетей во всем мире составляет 4,22 миллиарда, что на 53% больше населения мира, что на 13% больше, чем 490 миллионов за последние 12 месяцев. Масштаб воздействия идеологических и политических конфликтов расширяется и привлекает молодое поколение.[1]

Ключ слова: интернет-влияние, коммуникация, социализация, современная молодежь, интернет-зависимость, методология Кимберли-Янг

Введение:

Актуальность темы: Проблема интернет-зависимости изучается в образовательных и научных учреждениях мира с 1994 года. Сегодня это одна из «модных тем» в научной психологии. Данной проблеме посвящено множество исследований. Особое внимание уделяется научным исследованиям по выявлению влияния интернет-зависимости на психологические, социальные, культурные и нравственные качества личности, формированию у студенческой молодежи способностей рациональной работы в Интернете, усилению междисциплинарной интеграции, совершенствованию правовых, социально-психологических аспектов рационального пользования Интернетом.

Сегодня свободный Интернет значительно расширяется, он облегчает жизнь людей и экономит массу времени: с помощью компьютеров мы можем находить любую информацию, общаться, делать покупки, переводить деньги и делать миллионы других неотложных дел, не выходя из дома. даже действовать компьютерной мышкой со стула.[3]

Предметом исследования; является влияние интернет-общения на поведение молодежи.

Уровень изученности проблемы. В работах таких учёных государств Содружества Независимых Государств, как А.А.Аветисова, Ю.И.Алексеева, О.Н.Арестова, Л.Н.Бабинина, Э.П.Белинская, А.В.Гоголева, А.Э.Жичкина, Н.В.Коритникова, В.А.Лоскутова, М.И.Розенова, И.Н.Розина, Г.У.Солдатова, Э.Р.Фаустова, А.Ю.Егоров и другие исследователи, научно исследованы такие вопросы, как роль компьютера в жизни студентов, мотивы пользования Интернетом, социально-социально-психологические причины интернет-зависимости, социально-психологические особенности интернет-связей, поведение пользователей интернета в подростковом периоде, характерологические особенности студентов, зависимых к интернету,

профилактика аддиктивного поведения, интернет-зависимые личности и их психологическое здоровье, выявление социальных факторов шкалы интернет-зависимости в результате изучения взаимосвязи между интернет-зависимостью, возникающей в семейной среде, и социальной идентификацией.

Методы исследования. В процессе исследования использованы методы собеседования, наблюдения, а также адаптированный В.А.Лоскутовой тест Кимберли Янга «Интернет-зависимость», методика М.Рокича «Ориентация ценностей», тест Ричарда С.Лазаруса «Выявление копинг-стратегии», методика С.Райдоса «Уверенность в себе», разработанный на основе авторства социально-психологический опросник Изучение представлений о влиянии интернет-общения на поведение молодежи.

Основная часть

Эмпирическое исследование включает в себя два основных этапа:

- через опрос по нашей авторской методике извлечение результатов наших тестируемых (не группы) во 2-ю группу (из Интернета) активный пользователь и неактивный пользователь Интернета).

- У нашей молодежи высокий уровень интернет-зависимости внимательно изучить результаты отдельно, т.е. личностные характеристики. Анкета «Устойчивость в поведении» исследователя Р. Лазарусского (Р.Лазаря) для изучения изменений в их поведении.[4]

Из результатов исследования видно, что 42,5 % юношей и 49,15 % девушек полностью выбрали интернет-конкурс. Эти результаты показали, что девушки по сравнению с юношами больше используют Интернет как средство общения.

Мы использовали адаптированную В.А.Лоскутовой методику Кимберли Юнга, широко применяемую в научных исследованиях для выявления у студенческой молодёжи склонности к интернету и зависимости к нему. Полученные результаты приведены в таблице 1.

Таблица 1.

Показатели проявления склонности к интернет-зависимости

	Численность студентов	Уровень 1	Уровень 2		Уровень 3			
			Средние пользователи интернета 20 – 49 баллов		Пользователи, превратившие интернет в хобби 50-79 баллов		Интернет-зависимые пользователи 80-100 баллов	
			Всего	Численность	%	Численность	%	Численность
Участники	Юноши (160)	160	84	52,5	76	47,5	-	-
	Девушки (236)	236	112	47,45	124	52,54	-	-
	Всего (396)	396	196	49,49	200	50,50	-	-

Для изучения проявления ценностей в социальном поведении активных пользователей интернет-общения мы использовали методику М. Рокича «Ориентация ценностей». Чем больше времени человек проводит в сети, тем больше «любовь» (духовная и физическая близость с любимым человеком),

«продуктивная жизнь» (полноценная, эмоционально насыщенная жизнь), «рациональность, счастье других» (благополучие, развитие и улучшение других людей) для него считаются в определённой степени важными.

Анализ данных показал, что доминирующей терминальной ценностью для молодежи, переходящих к активному онлайн-общению, является любовь, а также наличие хороших и верных друзей. Между методами проведен корреляционный и факторный анализы. Полученные результаты подвергались психологическому анализу.

Результаты, полученные с помощью опросника «Копинг-поведение» (Способность в поведении к борьбе) Р.Лазаруса (Richard S. Lazarus), позволили выделить следующие специфические особенности копинг-стратегий активных пользователей Интернета.

Подводя итоги нашего исследования, мы видим, что в поведении молодых людей, активно использующих интернет-общение, формируются следующие новые характеристики.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Результаты исследования, проведенного по теме «Социально-психологические особенности личности студенческой молодежи, являющейся активными пользователями Интернета» позволили сформировать следующие выводы:

1. Для студенческой молодёжи, активно пользующейся Интернетом, свойственна важность таких ценностей, как счастье окружающих, правдивость, эмоциональная восприимчивость, социальный статус, обладание должностью.

2. Среди личностных качеств студенческой молодёжи, активно пользующейся интернетом, важными приоритетными компонентами являются вхождение в общение, социальная требовательность, адаптация, демонстративное поведение, прозрачность.

3. Среди социально-психологических и личностных качеств студенческой молодёжи, активно пользующейся Интернетом, важную значимость имеют социальное вхождение, чувствительность, не оказаться вне внимания, зависимость от мнения окружающих, а также такие психологические факторы, как конформизм, подражание, стремление к известности.

4. В результате влияния интернет-общения на социальное поведение студенческой молодёжи проявляются гендерные отличия уровневого выражения опасности интернет-зависимости и отражается социальная дифференциация пользователей интернета.

5. Наблюдается приоритетный характер вхождение в общение вследствие активной жизни, богатства эмоций, силы самореализации в онлайн-отношениях в соответствии с корреляционными связями у активных пользователей интернета между ценностями и социальным поведением.

Для того, чтобы человек почувствовал, что наступит день, когда он почувствует, что его компьютер утратил свою старую силу зависимости, и

чтобы это произошло, кто-то должен его поддержать, помочь ему, потому что для этого у него есть родственники и друзья. да?[2]

Литература

1. Mirzayev Jamshid Turdalievich. “Social and psychological opportunities of information and psychological security in adolescents” International Conference on Developments in Education. Hosted from Bursa, Turkey. <https://econferencezone.org> July 15th 2022 45-48 p

<https://econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/1279>

2. Мирзаев, Д., & Наргулова, А. (2022). «Лечение интернет-зависимости. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы» Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы 1(1), 498–500. извлечено от

<https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5217>

3. Мирзоев, Д. (2022). “Internet qaramligini shakllanishning sabablari, mexanizmlari va diagnostikasi.” Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), № 1 (2022) 500–503. извлечено от

<https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5218>.

4. Jamshid Turdalievich Mirzayev. Yoshlar ijtimoiy hulq-atvoriga internet muloqoti ta'sirining psixologik jihatlari. Tashkent Medical Academy Volume 4 | TMA Conference | 2023 Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions. Volume 4 | TMA Conference | 2023. May 6. 812-816 p. <https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlar-ijtimoiy-hulq-atvoriga-internet-muloqoti-ta-sirining-psixologik-jihatlari/viewer>

5. Mirzayev Jamshid Turdaliyevich. “Psychological aspects of influence of the internet - communication on the social behavior of the youth” / INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS. International scientific-online conference. 2023. Part 18. JUNE 3rd. 1295-1300 p.

<https://interonconf.org/index.php/neth/article/view/5386>

6. Mirzayev Djamshid Turdalievich/ PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INTERNET-COMMUNICATION IN SOCIAL SOCIETY OF YOUTH. The results of the study of Internet addiction on the method of Kimberly-Yang. NEUROQUANTOLOGY | October 2022 | VOLUME 20 | ISSUE 12 | PAGE 3409-3416| DOI: 10.14704/NQ.2022.20.12.NQ77350

<https://www.proquest.com/openview/c0c46eaeba7bf0e04fd82a955955a4dd/1?pq-origsite=gscholar&cbl=2035897>

7. Mirzayev Djamshid Turdalievich / Psychological aspects of the influence of internet communication on the social behavior of young / PEOPLE SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 3 ISSUE 4 APRIL 2024 ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ B volume 3 issue 4 – 359p

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11032109>

PEDAGOGIK MAHORAT-IJODKORLIKDIR

K.Eshkuvatov

Sirdaryo viloyati pedagogika markazi Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasida dotsenti

Pedagog faoliyati ijodiy jarayon bo'lib, uni ta'lim berishgina emas, balki bolalar bilan ijodkorlik muloqoti tarzida xam qarash mumkin. Biroq to'g'risini aytganda, bugungi maktab o'qituvchilarida ijodkorlik va maxorat yetarli darajada emas.

Ajoyib maktablar qurish, go'zal o'quv xonalari yaratish, ularni hozirgi zamon o'quv qurollari, asbob-uskunalar bilan jihozlash, yaxshi darsliklar bilan ta'minlash mumkin, ammo hali maktab degani emas. Agar maktabga o'z fani va o'quvchilarni jon dilidan yaxshi ko'radigan, ijodkor va mahoratli o'qituvchi ishlagina, hamma ishlar o'z-o'zidan jonlanib ketadi. Chunki ijodkorliksiz mahoratga erishib bo'lmaydi. Mahoratning asosi mehnat va ijodkorlikdir.

Pedagogik mahorat turli yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. O'qituvchining o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishdagi ijodkorligi, ularni amaliy faoliyat va kasbxunarga o'rgatish mahorati juda muhimdir. Pedagogik ijodkorliksiz pedagogik mag'orat yo'q. Pedagogik ijodkorlik fan emas, balki u san'atdir. Ta'lim-tarbiya natijasi pedagogik usulning to'g'ri tanlanishiga bog'liq bo'lib, birinchidchi, to'g'ri va samarali ta'lim-tarbiya usuli, ikkinchidan, ijodkorlik zarur.

O'qituvchi mehnati mashaqqatli bo'lib, bu yo'ldagi mashaqqatlarga har kim ham bardosh beravermaydi. Shu bois o'qituvchilar toifasi har xil bo'lishadi. Har bir o'qituvchining o'ziga xos dunyoqarashi, tajribasi, fanga bo'lgan munosabati, qiziqishi, havasi, o'z kasbiga hurmat-e'tibori, mehr-muxabbati mavjud. Pedagogik ideal o'qituvchining hayotdagi o'rni va vazifasini belgilaydi. Pedagogik ideal jarayonini harakatlantiruvchi kuchdir.

Pedagogik ideal o'qituvchining o'z vazifasini anglab yetishi, o'z oldida turgan masalani tushunishi va hal etishi, pedagogik jarayonda ishtirok etishida yaqqol namoyon bo'ladi. U o'qituvchining o'quvchilar, jamoa, ota-onalar bilan o'zaro munosabatlari xarakterini aniqlaydilar.

Hunarmand o'quvchiga faqat o'rgatsa, o'qituvchi-tarbiyachi esa unga o'z ideallarini singdiradi. Negaki, pedagogik ideal faqat tarbiya vositasi tarzidagina tushunilmaydi. Chunki u keng ma'noga ega. Pedagogik ideal butun pedagogic tizim, usul va uslublarning g'oyaviy yo'nalishlarini ham belgilaydi.

O'qituvchining pedagogik ideali murakkab va ko'p qirrali bo'lib, u o'ziga pedagogning dunyoqarashi, kasbiy, etnik, estetik va boshqa sifatlarini mujassamlashtiradi. Pedagogik idealda ifodalangan dunyoqarash o'qituvchi faoliyatining ijtimoiy-siyosiy yo'nalishini ta'minlaydi. O'quvchilar undan g'oyaviy yo'nalish oladilar. Masalan, o'qituvchining insonparvarlik va vatanparvarlik g'oyasi, diniy tarbiyasi va boshqalar o'quvchilar dunyoqarashini shakllanishida muhim ro'l o'ynaydi.

O'qituvchi ijodida pedagogik idealning etikaviy yo'nalishi katta ahamiyatga kasb etadi. Chunki unga o'qituvchin-tarbiyachining ahloqiy sifatleri tizimi mujassamlashtiradi. Pedagogik idealning etikaviy jihati har bir pedagogic faoliyat,

pedagogic tafakkur, pedagogik muloqotning asosi-zamini hisoblanadi va u pedagogning ahloqiy qiyofasini yaxshi yaxlitligicha ko'rsatib turadi.

Talaba biror o'quv yurtida o'qib yoki turli mavzudagi adabiyotlarni mutoala qilib, o'z-o'zidan bolalarni sevishga o'rganib qolmaydi. Bolalarni sevish qobiliyati uning boshqlar bilan o'zaro munosabatlari va ijtimoiy hayotda ishtrok etishi arayonid rivojlanadi. O'z tabiatiga ko'ra pedagogik mehnat, bolal bilan bo'ladigan kundalik muloqot insonga bo'lgan muhabatini chuqurlashtiradi va unga nisbatan ishonchni oshiradi.

O'qituvchi pedagogik idealining estetik yo'nalishini alohida ta'kidlab o'tish joizki, chunki o'qituvchi ham o'quvchi ham hamisha o'zi qilgan ishlardan qoniqishlari kerak. Har bir o'qituvchi o'zining ijtimoiy mas'uliyatni to'la xis etib, mahorat bilan ijodiy ishlashga harakat qilishi, o'zida doimo ijtimoiy imkoniyatlarni rivojlantirib borish darkor.

Pedagogik ijod hamisha hamkorlikni talab etadi. O'qituvchining hamkasblari, o'qituvchilar, ota-onalar va boshqalar bilan o'zaro hamkorligi pedagogik ijoddagi zaruriy shartlardan biridir.

Pedagogik ijodda murakkab jarayon o'quvchilar bilan jonli muloqot bo'lib, u pedagogning o'quvchilar bilan o'zaro muloqot usuli sifatida alohida bir ijtimoiy mezondir. Muloqot usuli o'qituvchiga o'quvchi va uning darsga bo'lgan munosabatlarni yo'lga qo'yishda ko'mak beradi. Muloqot tufayli sinfdagi kayfiyat, hissiy holat aniqlanadi. Do'stona munosabatlar o'rnatilib, o'zaro hurmat yuzaga keladi.

Bugungi kunda ta'limni faqat bilimlarni o'zlashtirish jarayoni tarzidagina qarab bo'lmaydi. Zamonaviy ta'lim inson fe'l-atvorining shakllanish jarayoni yoxud shaxsiyatining rivojlanishini belgilovchi omildir. Fe'l-atvor esa insonning taqdiri va baxtini belgilaydi.

Inson tomonidan to'plangan tajribalar davr o'tishi bilan ayrim sohalarda mutlaqo foydasiz bo'lib qoladi. Bu real holdir. Shuning uchun ham eski ta'lim usullarini zamonaviy yangi vaziyatlar inkor etadi. Odamlar o'tmishga qanchalik bog'langan bo'lmasinlar, yangi zamonga yangi insonlar, yangi kasb-korlar kerak. Ho'sh, yangi zamon insonlari qanday bo'lishlari lozim. Albatta, taraqqiyparvar! Ular o'z o'tmishiga bog'lanib qolmaydi. Muammolarga o'zicha ijodiy yondashib, mustaqil hal eta olishiga qodirdir. Taraqqiyparvarlar o'zgarish va o'zgartirishga o'zida kuch-quvvat, jur'at va ishonch topa oluvchi kishilardir.

Mutaxassislarning "xuddi shu yerda va hozir" nima sodir bo'layotganiga diqqat-e'tiborini to'liq jamlay bilish qobiliyati, ularning o'zgalarni tinglay olishga o'rganishi, vazifasi toqazo etayotgan shartlarni ko'ra olish, his etish va tushunish o'quvi o'ta muhimdir. Chunki "qarab turib ko'raslik, tinglab turib eshitmaslik" boshqa-yu tinglash, muammoli masalalarni ko'rish va tushunishga urinish boshqa. Tinglashga ehtiyoj- o'rganishga ehtiyoj-bilishga ishtiyoq, bilishga ishtiyoq o'rganishga muxabbatdir.

Har bir siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy tizimda ijodkor insonlarga ehtiyoj seziladi. Negaki, taraqqiyot natijasida texnika va texnologiya, dalillar, kashfiyotlar eskirib boraveradi. Ularning yangilarini esa ijodkor odamlar yaratishadi.

Ijod yo‘li boalarga o‘z shaxsiy biologiyasini kashf etish, o‘z mavjud “men”ini tushunish, o‘z-o‘zini faollashtirish, o‘zini “odam” qilib, insoniy tarzda tarbiyalash, hayotga o‘ziga xos yo‘l tanlashga yordam beradi. Bola tabiatini. Uning o‘ziga xosligini hurmat qiladigan, aytaylik, u tanbur chertayotganda qalbi titrab ketadigan o‘qituvchilar juda kam.

Bolalarni erkin ijod qilishga rag‘batlantirish ta‘limdagi qat‘iylik va andozashtirishdan holi bo‘lishi darkor. Ular yoshligida o‘z o‘qituvchilarga taqlid qilishadi. Shu bois o‘rgatuvchi murabbiy hushchaqchaq va o‘z -o‘zini faollashtirgan bo‘lishi kerak. Bunday o‘qituvchi-murabbiy bolaning ota-onasidan ko‘ra unga ko‘proq va samaraliroq ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchi boladagi o‘ziga xoslikni ma’lumot tarzda qabul qilishi va o‘zining barcha ta‘lim-tarbiya Ishida uning ana shu individualligiga asoslanishi kerak.

ТЕХНОЛОГИИ ЦИФРОВОГО ОБУЧЕНИЯ: ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ VR И AR

Ганиева Шахризод Нурмахамадовна

докторант Наманганского государственного университета

AR (Augmented reality) – технологии дополненной реальности. Они совмещают отображение действительности и элементы компьютерной графики [1]. Реальность может быть, как дополнена, так и замаскирована. Все изображения трехмерны, пользователь может активно влиять на процесс в режиме реального времени. Для данной технологии используются смартфоны, специальные очки или шлемы. Например, с помощью AR возможно увидеть диких животных в своей комнате, просто наведя смартфон (рисунок 1).



Рисунок 1 – Технология AR

VR (Virtual reality) – технологии виртуальной реальности. Их результат – полностью смоделированный опыт, который может быть похож на реальный мир, а может полностью отличаться от него [2]. Для погружения в

VR пользователь надевает шлем или очки, наушники и полностью погружается в новый мир, смоделированный разработчиками – возможно, это будет другая планета, город или игра. Пользователь в этой среде может перемещаться, а также взаимодействовать с другими виртуальными объектами при помощи специальных перчаток или контроллеров (рисунок 2).

Самое популярное оборудование для погружения в виртуальную реальность – шлемы и очки. Метод работы такой: на расположенный перед глазами дисплей выводится видео в формате 3D. Прикрепленные к корпусу гироскоп и акселерометр отслеживают повороты головы и передают данные в вычислительную систему, которая изменяет картинку на дисплее в зависимости от показаний датчиков.



Рисунок 2 – Технология VR

В итоге, пользователь имеет возможность «оглядеться» внутри виртуальной реальности и чувствовать себя в ней, как в настоящем мире (рисунок 3). Для того, чтобы изображение имело высокую четкость и всегда попадало в фокус, используются специальные пластиковые линзы.




Рисунок 3 – Шлем виртуальной реальности

Чтобы ощущения были реалистичнее, кроме датчиков также используют трекинг системы, например, Системы айтрекинга – данная система распознает движения зрачков глаз. Используются для медицинских и научных исследований. Моушн трекинг – система при помощи датчиков или

видеокамеры отслеживает движения пользователя и повторяет их в виртуальном мире.

Устройства с обратной связью – главная задача которых сделать так, чтобы человек мог ощутить все происходящее в виртуальном мире на себе. Например, вращающиеся кресла, вибрирующие джойстики и т.д. Самые простые и бюджетные устройства VR, с которыми мы взаимодействуем ежедневно – смартфоны. Последние модели высокопроизводительны, что позволяет им работать с 3D контентом, показывать изображения в высоком качестве. Также помогают датчики определения положения устройства в пространстве [3].

Дополненная и виртуальная реальность похожи, часто их совмещают, но есть главные отличия:

1. Генерируемые программой объекты в дополненной реальности накладываются на реальный мир, в отличие от виртуальной реальности, где все объекты создаются разработчиками.

2. AR накладывает на окружающий мир новый слой, с которым пользователи могут взаимодействовать и получать информацию от специальных программ и гаджетов. Одна из основных целей VR – имитация ситуаций, в которых может оказаться человек, с целью тренировки (например, симулятор полетов). А задача дополненной реальности - сделать окружающий мир пользователя более интересным и ярким.

Несмотря на отличия, в AR и VR используются одинаковые технологии. Обе технологии вносят разнообразие в жизнь человека и помогают в обучении. С каждым днем растет число сфер, где используются технологии AR и VR. Один из ярких примеров – медицина. Благодаря технологиям дополненной и виртуальной реальности сегодня развивается телемедицина, дистанционные операции и т.д.

Технологии VR и AR, которые в начале двухтысячных были не востребованы, на сегодняшний день стали одни из самых перспективных. А начало им положено было в 19 веке. Первое устройство, похожее на современные очки VR, разработал Чарльз Уинстон в 1837 году. Технология работы была проста: перед очками размещали два одинаковых изображения, но под разными углами, тогда мозг воспринимал это как объемную картинку (рисунок 4).



Рисунок 4 – Первые VR очки

Первый симулятор полетов был создан Эдвардом Линком в 1929 году. Link Trainer (рисунок 5) использовали для обучения в 1930-1950 годах, он имитировал тряску и турбулентность. Широко использовался во время Второй мировой войны почти всеми странами-участниками.



Рисунок 5 – Симулятор полетов Link Trainer

Sensorama – разработка Мортона Хейлинга в 1956 году – первый в мире 3Д дисплей для просмотра видео. При погружении, человек мог ощутить себя пилотом самолета или оказаться героем какого-либо фильма. Устройство издавало звуки и запахи, а место пользователя могло вибрировать для того, чтобы передать полные ощущения пользователю (рисунок 6).




Рисунок 6 – Sensorama

Первым массовым устройством в сфере VR 1961 года стал шлем Headsight (рисунок 7). В устройстве была встроена камера, благодаря которой оператор видел все, что происходит вокруг. Устройство широко использовалось в горячих точках военными журналистами, которые наблюдали за происходящим без угрозы для их жизни.



Рисунок 7 – Шлем Headsight

Первый шлем дополненной реальности создали в 1968 году в Массачусетском университете с названием «Дамоклов меч». Устройство транслировало стереоскопическое изображение, отслеживало перемещение в пространстве и накладывало компьютерную графику на окружающий мир (рисунок 8).



Рисунок 8 – «Дамоклов меч»

Технологии виртуальной и дополненной реальности сегодня достаточно плотно вошли в нашу жизнь. А появились они достаточно давно – в 19 веке. Первые изобретения – громоздкие машины, размером с комнату, сегодня заменили компактные и удобные шлемы и очки. При изобретении данных технологий создатели преследовали в первую очередь практические цели – помощь человеку, а не игровую деятельность. Самые распространенные на сегодня устройства, с которыми можно взаимодействовать с технологиями дополненной и виртуальной реальности – смартфоны. Смартфон есть практически у каждого школьника. Благодаря смартфону и технологиям дополненной и виртуальной реальности, детей можно обучать в игровой форме – так информация усваивается лучше.

Список литературы:

1. Андреева Е. В. Математические основы информатики. Элективный курс: Учебное пособие / Андреева Е. В., Босова Л. Л., Фалина И. Н – М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2005. – 328 с. – ISBN 978-5- 7510-0404-0
2. Брудный А. Двойники. Психология игры и виртуальная реальность / А. Брудный. - М.: Издательские решения, 2018. – 923 с. – ISBN 363-4- 8913- 2536-1
3. Развитие русскоязычного медиапространства: коммуникационные и этические проблемы. 2013.С. 117–122.

ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ VR И AR В ОБРАЗОВАНИИ: ПЛЮСЫ И МИНУСЫ

Ганиева Шахризод Нурмахамадовна

докторант Наманганского государственного университета

Одна из проблем, с которой сталкиваются преподаватели современной школы – вовлечение школьника в процесс обучения, детей сложно заинтересовать и долго удерживать внимание на уроке. Технологии виртуальной и дополненной реальности справляются с этой задачей.

Школьники увлечены занятием, когда это не монотонный рассказ, а прогулка по музею в виртуальной реальности [6].

Плюсы использования технологий VR и AR в образовании:

1. Наглядность. Используя данные технологии, можно с точностью показать, например, процесс деления ядра перед атомным взрывом. Или ученику запомнится, если он примет участие в Великой Отечественной войне. Технологии дополненной и виртуальной реальности дают не только информацию о каких-то событиях, они позволяют погрузиться в него.

2. Безопасность. Управление космическим кораблем, техника безопасности детей при землетрясении, атомный взрыв – можно погрузить школьника в любую ситуацию для изучения, без угрозы для жизни и здоровья.

3. Вовлечение. Технологии VR и AR позволяют в процессе менять ход событий, в легкой форме показывают решение сложных задач, это помогает учителю вовлечь и сосредоточить детей только на занятии, не отвлекаясь на посторонние вещи.

Безусловно, данные технологии имеют недостатки:

1. Дороговизна. Для работы учеников в классе с оборудованием AR и VR школе необходимо закупить большое количество комплектов дорогостоящего оборудования.

2. Количество информации. Для определенных дисциплин требуется много контента – уроков и заданий, которых пока нет в таком объеме.

Влияние виртуальной реальности на психическое и физическое здоровье мало изучено. С одной стороны, это связано с тем, что технология сравнительно новая; с другой стороны, она еще не сильно распространена, поэтому данных для исследований недостаточно [1].

Вывод: технологии VR и AR однозначно положительно повлияют на уровень образования и качество обучения в школе. Поэтому педагогам необходимы методические рекомендации по использованию данных технологий на уроках.

Самые распространенные на сегодня устройства, с которыми можно взаимодействовать с технологиями дополненной и виртуальной реальности – смартфоны. Смартфон есть практически у каждого школьника. Благодаря смартфону и технологиям дополненной и виртуальной реальности, детей можно обучать в игровой форме – так информация усваивается лучше. Сейчас технологии дополненной и виртуальной реальности только начинают использоваться в образовании. Но несмотря на это, уже достаточно много различных приложений – для изучения языка, точных наук, для проведения экспериментов, которые невозможно или очень сложно провести в условиях учебного класса.

Такие плюсы использования технологий дополненной и виртуальной реальности в образовании, как наглядность, безопасность и вовлечение перекрывают минусы – дороговизну и количество информации. Благодаря технологиям VR и AR у детей будут более глубокие знания предметов, школьники будут вовлекаться в процесс обучения и использовать технологии дополненной и виртуальной реальности для самостоятельного обучения. Однако, стоит помнить о том, что нагрузка должна быть дозирована, чтобы не вызывать чрезмерного напряжения детей [4].

Благодаря технологиям VR и AR у детей будут более глубокие знания предметов, школьники будут вовлекаться в процесс обучения и использовать технологии дополненной и виртуальной реальности для самостоятельного обучения.

Такие преимущества использования технологий VR и AR в обучении, как вовлечение, безопасность и наглядность, говорят о том, что данные технологии необходимо включать в школьный курс информатики.

Список литературы:

1. Кирюшин, Алексей Виртуальная реальность / Алексей Кирюшин. - М.: LAP Lambert Academic Publishing, 2018. - 248 с.
2. Яковлев Б. С. История, особенности и перспективы технологии дополненной реальности / Б. С. Яковлев, С. И. Пустов // Известия ТулГУ. Технические науки. 2013. Вып. 3. С. 479–484.
3. Яковлев Б. С. Классификация и перспективные направления использования технологии дополненной реальности /Б. С. Яковлев, С. И. Пустов // Известия ТулГУ. Технические науки. 2013. Вып. 3. С. 484–49
4. G'aniyeva, S. (2023). VIRTUAL REALLIKKA ASOSLANGAN TA'LIMIY RESURSLAR YARATISH MUAMMOSINI TADQIQ QILISH YO 'NALISHLARI. Engineering problems and innovations.
5. G'aniyeva, S. (2023). VIRTUAL REALLIKKA ASOSLANGAN TA'LIM RESURSLARI VA ULARNING TASNIFI. Engineering problems and innovations.

6. Ганиева, Ш., Хусанова, М., & Садирова, Х. (2023). ПРОТОКОЛЫ ОБНАРУЖЕНИЯ ВТОРЖЕНИЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СЕТЕВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ: АНАЛИЗ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ. Conference on Digital Innovation : "Modern Problems and Solutions". извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/codimpas/article/view/1191>

PEDAGOGLAR UCHUN AHAMIYATLI RAQAMLI KOMPETENSIYALAR TAHLILI

Otamurodov G'olibjon Ro'zimurodovich

A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi

e-mail: foniy_02_03@mail.ru, Tel: +998977329994

Annotatsiya: Jahonda kasbiy ta'limda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning qo'llanilishi tobora ommalashib bormoqda. O'zbekistonda o'rta maxsus ta'limda o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) foydalanishlari boshlang'ich kasbiy ko'nikmalar natijalarini yaxshilash uchun zarurdir, bu esa kasbiy ta'lim pedagog va ustalarini tayyorlashda yangicha yondashuvni talab qiladi. Jahon mehnat bozorining jadal o'sishi va raqamli texnologiyalarning ahamiyatining keskin o'zgarishini inobatga olingan holda, ushbu tahlil so'nggi 5 yil davomida chop etilgan ilmiy maqolalarga asoslanib, o'qituvchilarni raqamli davr talabiga javoban tayyorlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni o'rganadi.

Mazkur tahlil, bir qator nashriyorlar va ilmiy maqolalarda yoritilgan mavzuga oid takliflar va muammolarni, kasbiy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni integratsiyasi jarayoniga pedagogik kadrlarni tayyorlash borasida muhim tavsiyalarni taqdim etadi. Ilmiy maqolalarning sharhlari raqamli ko'nikmalarining ahamiyatini ta'kidlaydi va ularni ikki toifaga bo'ladi: *o'qitish uchun raqamli kompetensiya* va *shakllanayotgan professional raqamli kompetensiya* tushunchasi. Bu farq, o'qituvchilarning raqamli texnologiyalar asosida samarali ta'lim berishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni qanday rivojlantirishlari mumkinligini tushunish uchun juda muhimdir. Professional raqamli kompetensiyalarni belgilovchi yangi paradigma taklif etilmoqda. Bu paradigma nafaqat raqamli o'qitish uchun zarur bo'ladigan texnik ko'nikmalarni egallash, balki yangi kirib kelayotgan texnologiyalarni xam tanqidiy baholash va ularni tez o'zlashtirish qobiliyatlarini ham o'z ichiga oladi. Mazkur yondashuv o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini doimiy ravishda takomillashtirib borishlarida, hamda tez o'zgarib borayotgan ta'limning mohiyatiga moslashish uchun zarurdir.

Kalit so'zlar: *Professional ta'lim (PT), o'qituvchilar uchun raqamli kompetensiyalar, raqamli ko'nikmalar ramkasi, o'qituvchilarni AKT savodxonligi, professional raqamli kompetensiyalar.*

Kirish: Raqamli texnologiyalarni boshlang'ich kasbiy ko'nikmalar rivojlanishida qo'llash ikki omilga asoslanadi: birinchidan, ta'limni sezilarli darajada yaxshilash zarurati mavjud; YUNESKO texnologiya imkoniyatlaridan foydalanish orqali Barqaror Rivojlanish Maqsadlarining 4-vazifasi, ya'ni yuqori sifatli ta'lim maqsadiga erishishga yordam berishini ta'kidlaydi. Ikkinchidan,

talabalar texnologiyani tushunishi va uni ishlatishni bilishi kerak; YUNESKO maktablardagi raqamli texnologiyalar ta'lim jarayoni uchun beshta asosiy vazifalarini tasvirlaydi[1].

1. *Ta'lim resurslari vazifasi*: Texnologiya ta'lim jarayonida muhim resurs vazifasini bajaradi, o'rganish uchun zarur bo'lgan vositalar va materiallarni taqdim etadi.

2. *Bilimlarni uzatish vazifasi*: ta'lim berish va olish uchun vosita sifatida turli formatlardagi ma'lumotlar va o'quv materiallarini olish imkoniyatini yaratadi.

3. *Ko'nikmalarni rivojlantiruvchi vazifa*: Texnologiya talabalarda raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishda yordam beradi, ularni texnologik jihatdan rivojlangan dunyoga tayyorlaydi.

4. *Rejalashtirish va boshqaruv vositasi*: Raqamli texnologiyalar ta'limni rejalashtirish va boshqarishda ishlatiladi, ta'lim tizimlari va jarayonlarini boshqarishda yordam beradi.

5. *O'zlashtirish natijalarini yaxshilash*: Texnologiya ta'limni o'zlashtirish natijalarini yaxshilashga hissa qo'shadi, interaktiv va jozibador ta'lim muhitini va shaxsiylashtirilgan ta'limni imkoniyatini yaratadi.

O'zbekistonda boshlang'ich kasbiy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha sezilarli natijalarga erishilmoqda. Kasbiy ta'limda raqamli texnologiyalarning jadal integratsiyasi O'zbekiston kasbiy ta'limining global iqtisodiyot talablariga javoban moslashuvi uchun muhim ahamiyat kasb etadi [2]. Biroq, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarida bo'shliqlarning mavjudligi muammo sifatida talqin etiladi, chunki bunday muammoning mavjudligi talabalarni samarali va sifatli kasbiy tayyorlashda imkoniyatlarni cheklaydi. O'qituvchilarning yetarli raqamli ko'nikmalari bo'lmasligi nafaqat bitiruvchilarning ishga joylashuviga, balki ularning tez o'zgarib borayotgan global mehnat bozori talablariga moslashish qobiliyatiga ham ta'sir qiladi. Mazkur tahlil, boshlang'ich kasbiy ta'limda o'qituvchilarni tayyorlashda raqamli texnologiyalarni integratsiyasi bo'yicha ilmiy muhokamalarga hissa qo'shish uchun mo'ljallangan. Ushbu tadqiqotning natijalari tegishli qarorlar qabul qilishda, o'qituvchilar uchun kasbiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda va O'zbekistondagi boshlang'ich kasbiy ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Bu orqali boshlang'ich kasbiy ta'lim tizimi o'zlashtirish natijalarini global standartlar va jahon mehnat bozori talablariga muvofiqlashtirib, O'zbekistondagi yoshlarning ishga joylashuvchanligini va raqobatbardoshligini oshiradi.

Ushbu tahlilda 20dan ortiq ilmiy nashr o'rganilganda, kasbiy ta'lim o'qituvchilarining AKT bilim darajasi bilan talabalarning o'zlashtirish natijalari o'rtasida sezilarli ijobiy korrelyatsiya mavjudligi tasdiqlandi. Raqamli kompetensiyalar ayrim nashrlarda uchta toifaga bo'lingan: boshlang'ich raqamli kompetensiya, o'qitish uchun raqamli kompetensiyalar hamda professional raqamli kompetensiya.

Junfeng Diao va boshqalar [4] raqamli kompetensiyalarni quyidagi bosqichlarga bo'lishadi: kasbiy o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarning mosligi, ahamiyati va e'tirofi. Ya'ni boshlang'ich kasbiy ta'lim oqituvchisiga qanday raqamli texnologiyalarni o'qitish, va kasblarni oqitishga bu

texnologiyalarning qanday ahamiyati bor, va o'qituvchi egallagan raqamli kompetensiyalarni e'tirof etish orqali rag'batlantirish mexanizmlari muhimligini ta'riflaydi, *Louise Starkeyning (2020) tadqiqoti* raqamli kasbiy ta'lim va tegishli sohalarida tajribali 21 mutaxassisni fikrini qamragan. Ushbu tadqiqot uch darajada taqsimlangan raqamli kompetensiyalar modelini taklif qiladi: *1. asosiy raqamli ko'nikmalar; 2. O'qitish uchun asosiy raqamli ko'nikmalar; 3. Talabalarning kasbiy faoliyati uchun kerakli raqamli ko'nikmalar* [5]. Shuningdek, Rossiya tadqiqotchilari jamoasi [6] tomonidan ilgari surilgan fikr AKTlarning o'quv dasturining tuzilishi, mazmuni va ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlariga ta'sirini ko'rsatib, gumanitar fanlar o'qituvchilarining roli, bilimlari va kompetensiyalarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Tadqiqot o'qituvchilarning AKT bilan bog'liq yuqori sifatli ta'lim talablariga mos ravishda metodlarni va o'qitish texnologiyalarini o'rganish ehtiyojlariga moslashtirish zaruratini ta'kidlaydi. Tadqiqot natijalari o'qituvchilarning AKT darajasini baholash uchun diagnostik shkala ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Ushbu tadqiqotning amaliy ahamiyati o'qituvchilarning professional rivojlanishi va ularni rag'batlantirish maqsadida AKT vositachiligidagi ta'lim muhitida o'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Nurhabibah [7] tomonidan olib borilgan tadqiqot o'qituvchilarning AKTdan foydalanishda o'z-o'ziga bo'lgan ishonchsizligini aniqlagan, bu esa jins, yosh va ta'lim darajasiga qarab farqlanadi. Ya'ni, erkak o'qituvchilar ayol o'qituvchilarga qaraganda yuqori darajadagi AKT savodxonligini namoyish etishgan, va yosh o'qituvchilar (21-40 yosh) o'zlaridan katta yoshdagi hamkasblariga qaraganda yuqori AKT savodxonligiga ega ekanligini ko'rsatishgan. Tadqiqot shuningdek, yuqori ta'lim darajalari AKT integratsiyasi ko'nikmalarini yaxshilash bilan bog'liqligini ko'rsatib, o'qituvchilar uchun AKTda doimiy kasbiy rivojlanish zarurligini ta'kidlaydi. Jins, yosh va ta'lim darajasiga ko'ra AKT savodxonligidagi farqlar, barcha o'qituvchilar texnologiyani o'qitish usullarida samarali integratsiya qilishga teng darajada tayyor bo'lishlari uchun maqsadli/tegishli AKT treningi va ko'mak talab qiladi. Bu yondashuv professional ta'limda o'zlashtirish natijalarini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'riflagan.

Tondeur va boshqalar (2023) [8] tomonidan olib borilgan "Kelajak uchun oliy ta'lim o'qituvchilarining raqamli kompetensiyalari" nomli tadqiqodi, oliy ta'limda raqamli kompetensiyalar uchun soddalashtirilgan va amaliyotga yo'naltirilgan tuzilmani taklif qiladi. Ushbu tuzilma to'rt asosiy o'lchovni o'z ichiga oladi: *(1) O'qituvchilarning raqamli amaliyoti, (2) Talabalarni raqamli jamiyat uchun quvvatlash, (3) O'qituvchilarning raqamli savodxonligi, (4) O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi.* HeDiCom Framework mavjud raqamli kompetensiya ramkalarini taqqoslagan holda mutaxassislar va amaliyotchilarning fikrlariga asoslanib ishlab chiqilgan. Ushbu ramka oliy ta'lim o'qituvchilarining raqamli kompetensiyalari uchun aniqroq yo'riqnoma va kutiladigan natijalarga qaratilgan bo'lib, zamonaviy, texnologiyaga asoslangan ta'lim muhitiga qanday kompetensiyalarning zarurligini belgilaydi. COVID-19 pandemiyasi ta'sirida mohiyati oshgan onlayn va aralash o'qitish kontekstida ayniqsa muhimdir.

Quyidagi jadvalda kasbiy ta'limi rivojlangan davlatlarda o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalari darajasining o'zlashtirish natijalariga qiyosiy tahlili keltirilgan.

Davlat	Kasbiy ta'lim tizimi tavsifi	AKT integratsiyasi	Ishga joylashishga ta'siri	O'qituvchilarning raqamli kompetensiyalari
Germaniya	Shogirdlik va kasbiy ta'limni birlashtirgan dual tizim.	Raqamli vositalar va texnologiyalarga katta e'tibor.	Amaliy, sanoatga tegishli ko'nikmalar tufayli ish bilan ta'minlanganlik bilan mumkin bo'lgan ijobiy korrelyatsiya.	Raqamli vositalarni birlashtirish bo'yicha yuqori malaka, sanoatga tegishli amaliy ilovalarga e'tibor qaratish.
Italiya	Kasbiy ta'limda raqamli savodxonlikka e'tibor kuchaymoqda.	O'qituvchilar malakasini oshirish dasturlarining asosiy qismi.	Innovatsion o'qitish usullari va texnik ko'nikmalar orqali ish qobiliyatini oshirish.	Raqamli savodxonlikka katta e'tibor qaratilmoqda, o'qituvchilar zamonaviy o'qitish metodikasi bilan ta'minlangan.
Shveysariya	Amaliy ko'nikmalarga yuqori baho.	Sanoat standartidagi AKT vositalarini bilish.	Ko'nikmalarni ish joyida to'g'ridan-to'g'ri qo'llash, potentsial ishga joylashishni yaxshilash.	O'qitishni real dunyo talablariga moslashtirib, sanoat standartidagi AKT vositalari bo'yicha tajriba.
Finlyandiya	Innovatsion ta'lim tizimi.	AKT ko'nikmalari va raqamli vositalar bo'yicha keng qamrovli trening.	Talabalarga yo'naltirilgan ta'limga e'tibor berish, ish bilan ta'minlanishini oshiradi.	Talabalarga yo'naltirilgan va texnologiyaga boy ta'lim muhitini ta'minlovchi yuqori darajadagi AKT malakasi.
Koreya	Yuqori texnologik integratsiyalashgan .	Raqamli dizayn, ishlab chiqarish texnologiyalari bo'yicha ilg'or AKT ko'nikmalari.	IT va ishlab chiqarish sektorlari bilan kuchli uyg'unlik, ehtimol bandlikni oshiradi.	Raqamli dizayn va ishlab chiqarish texnologiyasi bo'yicha ilg'or ko'nikmalar, sanoat ehtiyojlariga mos keladi.


Xitoy	Jadal iqtisodiy o'sish AKT ko'nikmalarini talab qiladi.	Kasbiy sohalarda AKT qo'llanilishini chuqur tushunish.	Raqamli ko'nikmalar uchun o'qituvchilarni o'qitishga katta sarmoya kiritilishi, ehtimol bandlikni oshiradi.	O'qituvchilar malakasini oshirishga katta sarmoya kiritish bilan qo'llab-quvvatlanadigan AKT ilovalari bo'yicha chuqur bilim.
--------------	---	--	---	---

Jadval: Ayrim davlatlar misolida o'qituvchilarning raqamli kompetentligining boshlang'ich kasbiy ko'nikmalar natijalariga aloqasi.

Muhokama: O'zbekistonda kasbiy ta'lim bo'yicha YUNESKONing siyosat sharhi (*TVET Policy Review in Uzbekistan 2019*) har bir fuqaroga imkoniyat yaratish va ko'nikmalarni yaxshilash uchun AKT asosidagi masofaviy ta'lim texnikalaridan foydalanishni nazarda tutuvchi tizimli dasturlar zarurligini ta'kidlaydi [2]. Bu AKT integratsiyasiga urg'u berish, zamonaviy ish bozorida muhim bo'lgan raqamli savodxonlik va ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan global ta'lim trendiga mos kelishini ta'riflaydi.

Kasbiy tal'limda raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi o'zlashtirish natijalariga ijobiy ta'siri borligi isbotlangan. Bu ayniqsa O'zbekistonda, ta'limda o'zlashtirish natijalarini yaxshilashga intilayotgan bir paytda muhimdir. 2021 yilda O'zbekiston Ta'lim Sektori Tahlili natijaga yo'naltirilgan o'zlashtirishga e'tibor kuchaytirishni ta'kidlagan, va bunga albatta raqamli texnologiyalarni ta'limda samarali qo'llash orqali erishish mumkin. Jumladan, kasbiy tal'limda raqamli vositalar va resurslardan keng foydalanish orqali o'qituvchilar yanada jozibador, interaktiv va ehtiyojga yo'naltirilgan kasbiy ta'limni taklif etishlari mumkin, bu esa talabalar ko'rsatkichlarini yaxshilashga va kasbiy fanlarni chuqur tushunishga etaklaydi. O'qituvchilar nafaqat o'z kasbiy fanlari haqida bilimdon bo'lishlari kerak, balki ta'lim va o'qitishni yaxshilash uchun raqamli vositalardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim. Buning uchun, kasbiy tal'lim o'qituvchilari uchun Raqamli Kompetensiya Talablarini birlamchi qadam sifatida malakalar darajasiga va qo'llash maqsadiga qarab joriy etish muhim. Shuningdek, Raqamli kompetensiya tuzilmasiga asoslanib, o'qituvchilar uchun doimiy kasbiy rivojlanish dasturlarini yangilash, shuningdek raqamli resurslarga kirish va o'qituvchilarni rag'batlantiradigan qo'llab-quvvatlash tizimlarini takomillashtirish zarur. Bu esa o'z navbatida o'qituvchilarning nazariy va amaliy kasbiy ta'limda raqamli texnologiyani samarali qo'llashni ta'minlaydi.

Tahlil qilingan davlatlar tajribasi hamda ilmiy adabiyot sharhiga asoslanib, O'zbekistondagi kasbiy ta'lim o'qituvchilari uchun Raqamli Kompetensiyalarni rivojlantirishning turli bosqichlarida, ayniqsa Sun'iy Intellekt (SI) sohasida, quyidagi yo'naltiruvchi tamoyillarni hisobga olish tavsiya etiladi[10]:



Xulosa: O'zbekistondagi boshlang'ich kasbiy ta'lim o'qituvchilari uchun raqamli kompetensiyalarni qabul qilish kasbiy ta'lim va o'qitish sifatini oshirish tomon qo'yilgan muhim qadamdir. Ilmiy dalillar ushbu integratsiyaning o'zlashtirish ko'rsatkichlari ijobiy ta'sir ko'rsatganini asoslaydi. Albatta, inobatga olish kerak bo'lgan ayrim qiyinchiliklar xam mavjud. Jumladan, raqamli texnologiyaga infrastrukturalarining etishmasligi, o'qituvchilar va muassasalar orasida zamonaviy o'zgarishlarga qarshiliklar kuzatilishi mumkin. Biroq, bu qiyinchiliklar rivojlanish va innovatsiya uchun imkoniyatlar ham yaratadi. Ushbu qiyinchiliklarni hal qilish orqali, O'zbekistonda boshlang'ich kasbiy ta'limda zamonaviy, yuqori texnologiyalarga asoslangan mehnat bozori uchun sifatli kadrlarni tayyorlashda yanada yuqori natijalarga erishilishi tayin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNESCO. (2023). *Global Education Monitoring Report 2023*. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000385723>
2. UNESCO. (2019). *TVETpolicy review: Uzbekistan* <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000367976>]
3. <https://www.helvetas.org/en/switzerland/how-you-can-help/follow-us/blog/knowledge-and-learning/governing-vocational-training-in-Uzbekistan>
4. Han, X., Zhou, Q., Li, M., & Wang, Y. (Eds.). (2024). Handbook of Technical and Vocational Teacher Professional Development in the Digital Age. SpringerBriefs in Education. <https://doi.org/10.1007/978-981-99-5937-2>
5. Louise Starkey (2020). (n.d.). *A Review of Research Exploring Teacher Preparation for the Digital Age*, *Cambridge Journal of Education*, 50:1, 37- 56, DOI.
6. Ainoutdinova, I. N., Tregubova, T. M., Ng, J., & Kopnov, V. A. (2022). New roles and competencies of teachers in the ICT-mediated learning environment of Russian universities. (n.d.). *The Education and Science Journal*, 24(1), 191-221. DOI: 10.17853/1994-5639-2022-1-191-221.

7. Nurhabibah, A. Setiawan, H. Yanti, Y. Z. Miraj, & Yannuar. (2018). Analysis of ICT Literacy Competence among Vocational High School Teachers. (n.d.). *IOP Conference Series: Materials Science and Engineering*, 306(1), 012097. DOI:10.1088/1757-899X/306/1/012097.

8. Tondeur, J., Howard, S. K., Van Zanten, M., Gorissen, P., Van der Neut, I., Uerz, D., & Kral, M. (2023). The HeDiCom Framework: Higher Education Teachers' Digital Competencies for the Future. (2023). *Educational Technology Research and Development*, March 2023. <https://doi.org/10.1007/s11423-023-10193-5>.

9. UNESCO. (2022). ICT Competency Framework for Teachers (ICT CFT) Version 3. Retrieved from <https://www.unesco.org/en/AKT-competencies-skills/ict-cft>

10. UNESCO. (2022). Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. Retrieved from <https://www.unesco.org/en/articles/recommendation-ethics-artificial-intelligence>

RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Ergasheva Mahbuba Ne'mat qizi

Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi

Anotatsiya: Pedagogik texnologiya kafolatli ta'lim-tarbiya maqsadga erishish bilan axamiyatli va dolzarbdir. Shuning uchun maqsadning aniqligi, unga mos mazmun, maqsadga bosqichma-bosqich erishishda tarbiyalanuvchining va tarbiyachi faoliyatining uyg'unligi pedagogik texnologiyaning talabidir.

An'anaviy ta'lim-tarbiya tizimida ham maqsad pedagogning asosiy muammosi bo'lib kelgan. Chunki quruvchi oldindan nimani qurayotganini bilganidek, tarbiyachi ham kimni tarbiyalamoqchi, nimani shakllantirmoqchi ekanini bilishi shart. Ta'lim-tarbiyaning maqsadi-kishi shaxsining modeli sifatida qoida mavjud. Ammo pedagogik texnologiyada maqsad va unga erishish kafolatli butun pedagogik jarayon, texnologiya jarayonining mezoni, kalitidir. Avvalo jamiyat va davlat buyurtmasidan kelib chiqadigan ta'lim-tarbiyaning umumiy maqsadiga asoslaniladi. Bugungi kunda O'zbekistonda kadrlar tayyorlash Milliy dasturi ta'lim-tarbiya tizimini tubdan islox qilishdek tashkiliy tadbirlarda bevosita ta'lim-tarbiya vazifalarini qo'yadi.

Shuningdek, ta'lim mazmuni asosida maqsad qo'yish; pedagogik faoliyati asosida; o'quvchilarning qobiliyati, xissiy ta'sirlanishi asosida, ichki jarayon asosida, o'quvchini o'rganishh faoliyati asosida, maqsad qo'yish texnologiyasini tavsiya etadi.

Maqsadga bosqichma-bosqich erishilganiga qarab, u muvofiqlashtiriladi, maqsadga to'la erishish uchun o'ziga xos texnologik yo'l qo'llanadi, yangi-yangi o'quv maqsadlari qo'yiladi.

Demak, pedagogik texnologiyaning odatdagi didaktik maqsaddan farqi diagnostika asosida maqsad qo'yilishidir. Sinf, guruh yoki alohida o'quvchiga

qo'yilgan diagnoz qanchalik to'g'ri bo'lsa, qo'yilgan maqsad shunchalik to'la va oson bajariladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek pedagogik texnologiya maqsadga to'la erishish printsipli etakchilik qiladi. Shuning uchun M.V.Klarin maqsadga erishish texnologiya"sini alohida taxlil qiladi. Uni uchga bo'lib o'rganadi: etalon maqsadga "mezoni baxolash", "ta'limiy jarayon" va "maqsadga to'la erishish".

Maqsadga to'la erishish uchun natijani bosqichma-bosqich baxolash zarur bo'ladi. Bugungi kunda test nazoratini joriy etilishi, bu didaktik vazifani amalga oshirishga qo'l keladi. Ma'lumki, testda ta'lim maqsadi, erishiladigan mezon o'z aksini topadi. Shuning uchun har bir bosqichda test orqali natijani aniqlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ta'lim maqsadini testga tushirish muhim masaladir.

O'qitishda takrorlovchi bosqich texnologik jarayonda alohida o'rin tutadi. Takrorlashda: ta'limning umumiy maqsadi; umumiydan ma'lum aniq maqsad belgilanishi va har bir bosqichda o'quvchining o'zlashtirishi dajarasini aniqlash; shunga asosan ta'lim jarani muvofiqlashtiriladi, boshqariladi.

Ta'lim jarayonida takrorlash texnologiyasi.

Masalan, darsning tuzilishini texnologik jihatdan tahlil qilinadigan bo'lsa:

- A) o'quvchilar diqqatini tashkil etishh;
- B) didaktik maqsad haqida axborot berish;
- V) zaruriy bilim-malakalarni rag'batlantirish;
- G) ma'lum ta'sir etadigan o'quv materialini ko'rsatish;
- D) o'quvchilar javobini aks sadosini (reaktsiyasi) rag'batlantirish;
- E) o'zaro xamkorlikni ta'minlash;
- J) olingan mustaxkam bilim malakani rag'batlantirish;
- Z) o'quvchilar faoliyatini baholash; kabilar.

O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi qanchalik tezligini va mukammaligi bilan belgilanadi. Ularning o'zlashtirish bo'yicha qobiliyati uch guruhga bo'linadi:

Iqtidorli ,ular tez o'zlashtirishi mumkin-30%.

Oddiy o'rtacha o'quvchilar-50 %.

Qobiliyati past o'quvchilar-20 %.

Maqsad qo'yishda barcha o'quvchilarni o'zlashtirishi hisobga olinadi. To'la o'zlashtirishi maqsadi, uni amalga oshirish metodikasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Kirish qism-o'quvchilarni to'la o'zlashtirishga yo'naltirish;
2. Har bir o'quvchini to'la o'zlashtirishga erishish;
3. Har bir o'quvchini to'la o'zlashtirish darajasini baholash;
4. Har bir o'quvchi bahosini tashkil qilishh.

Keyin o'qituvchi har bir o'quvchini to'la o'zlashtirish imkoniyati bilan tanishtirad

Sinf to'la o'zlashtirish uchun yangi metodika bilan o'qitadi.

Har bir o'quvchi oxirida, fanni o'zlashtirib bo'lganda baholanadi.

O'quvchilar qiyosiy baholanmaydi, balki o'quv matni etalon, mezoni bilan baholanadi.

"Etalon darajasiga" erishgan o'quvchi "a'lo" baxo oladi.

A'lo baxolar cheklanmaydi.

Har bir o'quvchiga istagancha yordam ko'rsatadi.

Xar bir o'quvchi fanni o'zlashtirish jarayonida diagnostik kuzatiladi.

Agar o'quvchi ma'lum topshiriqdan qiynalsa boshqa yo'l qo'llaniladi.

Shunisi xarakterliki, pedagogik texnologiyaning printsipli kafolatli to'la o'zlashtirish ekan unda o'quv materialini bosqichma-bosqich o'zlashtirish, izchillik metodikasi asos bo'ladi. Aslida sharq, aniqrog'i, O'zbekiston maktablarida o'rta asrlardan boshlangan metodikadir. Tarixdan ma'lumki, fanning o'zlashtirishda izchillik va uzluksizlik printsipligiga asoslanilgan. Ya'ni har bir fan o'rganib bo'lingandan keyin musobaqa metodi orqali bilimlar tekshirilgan va to'la o'zlashtirgandan so'ng undan keyingi fanga (yoki bosqichga) o'tilgan.

Bir sinf (guruh)dagi talabaga o'zlashtirish darajasiga qarab har xil ta'lim mazmunida tahsil olgan. Pedagogik texnologiya tizimida AQSH tajribasida individual "brigada-andividual" ta'lim XX asrning 60-yillarida keng qo'llaniladi.

Har bir o'quvchining qobiliyatiga o'zlashtirish darajasiga qarab ta'lim maqsadi va metodikasi belgilanadi. Masalan bu tizimni quyidagicha amalga oshirish mumkin.

1. Har bir o'quvchi mazkur fan bo'yicha bilim rejasini test orqali tekshiriladi.

2. So'ngra ma'lum bo'lim bo'yicha tekshiriladi, qanday bilimga ega ekanligi aniqlanadi.

3. Natijaga asosan har bir o'quvchi uchun mazmun belgilanadi.

4. O'quvchi bo'lim-bo'limlarga bo'lib topshiriq oladi.

5. Qo'yilgan maqsad amalga oshirilgandan keyin yakuniy test topshiradi va fan bo'yicha baholanadi.

6. Agar maqsadga erishilmagan, yoki ma'lum qism o'rganilmagan bo'lsa takrorlanishiga qaytiladi.

To'la va yakka (brigada-individual) ta'lim 80 yillarda AQSHda joriy etila boshlagan. Bunda yakka o'quvchilar va kichik guruhlar bilan ishlash tizimi yaratilgan. Ya'ni o'quvchilar 4-5 kishilik guruhlariga bo'linadi, unda iqtidorlilar va qoloqlar, qizlar va boshqa etnik vakllar bir xil bo'limi maqsadga muvofiq. Har bir guruh berilgan topshiriqni tez bajarishiga e'tibor beriladi. Guruhdagi o'quvchilar bir-birini tekshiradi, yordam beradi. Haftani oxirida yakun yasaladi, baholanadi. O'zaro yordam va bir kishi hamma uchun printsipligiga amal qilinadi. Bu metodda o'zlashtirish darajasi oshishi bilan birga o'quvchilarni o'z-o'zini baholash malakasi ham rivojlanadi, o'quvchi o'rtasida do'stlik, o'rtoqlik darajasi ham oshadi.

Texnologik jarayon ishlab chiqarilgan texnologik hujjatlar asosida amalga oshiriladi, bu hujjatlarning asosiy tarkibiy qismi esa texnologik xaritalar hisoblanadi. Texnologik hujjatlar, qayta takrorlanadigan ishlab chiqarish siklining qancha mahsulot kerak bo'lsa, uni shuncha marta amalga oshirish imkonini beradi. Shunga o'xshash, pedagogik texnologiya doirasida qayta takrorlanadigan o'qitish siklini amalga oshirish uchun, uning yakunlovchi bosqichida pedagogik-texnologik xaritalar ishlab chiqiladi. Uning asosida o'qitish jarayonini bir necha marta tashkil etish mumkin, ya'ni qayta takrorlanadigan o'qitish siklini ro'yobga chiqarish mumkin. Pedagogik texnologik xaritalar, pedagogik texnologiyani ko'p nusxada

ko'paytirishga va o'quv yurtining qayerda joylashganligidan qat'iy nazar ko'zlangan o'qitish natijalariga erishishga imkoniyat yaratadi. Pedagogik texnologik xarakterlarning shakli va mazmuni – jadvalda keltirilgan.

Pedagogik texnologik xarita har bir mavzu modul uchun alohida tuziladi. Ularning majmuasi pedagog texnologik xaritalar albomini tashkil etadi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T: "SHarq" nashriyot matbaa kontserni, 1997.
2. N.N. Azizxo'jaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. Nizomiy nomidagi TDPU. 2006 y.
3. Madyarova S. A. va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009, 240 b.

MALAKA OSHIRISH JARAYONIGA INNOVATSION YONDASHUVNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Eshnazarova Farida Jo'raqulovna

JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash masalasining dolzarbligi hamda malaka oshirish jarayoniga innovatsion yondashuv masalalari bayon etilgan. Shuningdek, o'qituvchining kasbiy mahorati, malakasi, uning kasbiy mahoratini oshirish jihatlariga e'tibor berish muhimligi yuzasidan ma'lumotlar o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: malaka oshirish, qayta tayyorlash, jarayon, innovatsiya, tizim, taklif.

Аннотация: В данной статье описана актуальность подготовки кадров и их переподготовки, а также инновационный подход к процессу обучения. Также была высказана информация о важности обращения внимания на профессиональные навыки, квалификацию, аспекты повышения его профессионального мастерства.

Ключевые слова: обучение, переподготовка, процесс, инновация, система, предложение.

Abstract: This article describes the relevance of personnel training and their retraining, as well as the innovative approach to the training process. Also, the information about the importance of paying attention to the professional skills, qualifications, aspects of improving his professional skills has been expressed.

Key words: training, retraining, process, innovation, system, proposal.

Fan-texnika rivojlanayotgan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jadallashib borayotgan hozirgi davrda o'qituvchilik kasbi oldiga yangi vazifalar qo'yilmoqda. Pedagoglarning kasbiy saviyasini ana shu talablarga moslashtirishda pedagog kadrlar tayyorlashga e'tiborni kuchaytirish alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy ta'limga yangicha yondashuvlar, o'quv materiallari, dasturlari, metodlari, yondashuvlari va texnologiyalarini modernizatsiya qilish an'anaviy "kasbiylik"ni o'zgartirish va zamonaviy talablarga javob berishni taqozo

etadi. Buning uchun har bir o'qituvchi malaka oshirish kurslaridan o'tish, yangi bilimlarni egallash, o'z-o'zini rivojlantirish uchun sharoit yaratish kerak.

Pedagoglar malakasini oshirish - o'qituvchilarning pedagogik bilim va malakalarini rivojlantirishdir. Bu jarayonda o'qitish uslubini takomillashtirish, o'tilgan mavzular yuzasidan savol-javob qo'yish, o'z-o'ziga ishonchni qozonish, ta'limni o'qitishga jalb qilish, ta'sir o'tkazish, hamkorlik qilish o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini yaxshilaydi, yangi tendensiyalardan xabardor bo'lish imkonini yaratadi.

Zamonaviy kadrlar tayyorlash talablariga javob berish uchun ta'limning bosh yetakchisi bo'lgan o'qituvchining bir qator vazifalarni bajarishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

pedagogik jarayonning talablariga javob berish va kasbiy funksiyalarni bajarish uchun o'qituvchiga xos bo'lgan barcha ko'nikmalarga ega bo'lish;

pedagogik faoliyat davomida zarur ko'nikmalarni egallash, ulardan maqsadli foydalanish;

ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishish, bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagogik tafakkurga ega bo'lish;

o'qitish jarayoniga tadqiqotchi pozitsiyasidan yondashish, fanlararo integratsiyani ta'minlash va tajribaga asoslangan nazariy bilimlarni amalga oshirish;

o'z-o'zini tarbiyalash, kasbiy mahorat darajasini rivojlantirish, ijtimoiy obro'e'tiborni saqlab qolish.

Bunday vazifalarni muvaffaqiyatli uddalash har bir pedagogik xodimdan yuksak kasbiy mahorat, bilimdonlik va keng dunyoqarashni talab etadi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash - uzluksiz ta'lim tizimi turlaridan biri, xalq xo'jaligining barcha sohasida ishlovchi mutaxassislar va rahbar xodimlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirish jarayoni. Kadrlarning raqobatbardoshlik sifatleri hamda bilim va ko'nikmalarining zamon talablariga javob bera oladigan darajada bo'lishini ta'minlaydi. Malaka oshirish va qayta tayyorlash har bir xodimning o'z mutaxassisligi bo'yicha so'nggi fan yutuqlari, yangiliklari bilan tanishish, ularni o'zlashtirish, yangi amaliy ish usullari, ilg'or ish tajribalarini o'rganishdan iborat ilmiy nazariy hamda amaliy tayyorgarlik jarayoni hisoblanadi. Malaka oshirish va qayta tayyorlash davriyligi turli mutaxassislar hamda rahbar xodimlar uchun turlicha bo'lib, 2-5 yilda 1-marta, zarur hollarda bundan qisqa muddatlarda o'tkaziladi. Malaka oshirish va qayta tayyorlash universitetlarda, malaka oshirish institutlarida hamda professional qayta tayyorlash huquqiga ega bo'lgan o'quv markazlarida amalga oshiriladi. Mazkur jarayon ishlab chiqarishdan ajralgan, qisman ajralgan va ajralmagan holda bo'lishi mumkin. Uning shakli malaka oshirish ta'lim muassasasi tomonidan ta'lim dasturining murakkabligi e'tiborga olingan holda va buyurtmachining u bilan tuzilgan shartnomasi asosidagi ehtiyojlariga muvofiq ravishda belgilanadi. Malaka oshirish va qayta tayyorlash muddati turlicha bo'lib, har bir qo'yilgan maqsad hamda vazifalarga muvofiq belgilanadi. Malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasasi o'quv jarayonini maqsadli tashkil etish, ta'lim shakli, uslublari, texnologiyasini qo'llash

orqali tinglovchilarga ta'lim dasturlarini o'zlashtirishlari uchun zarur sharoitlar yaratadi. Mazkur dasturlar malaka oshirish ta'lim muassasalari tomonidan buyurtmachi ehtiyojlarini, shuningdek, qo'shimcha kasb ta'limi dasturlari mazmuni oldiga qo'yilgan davlat talablarini e'tiborga olgan holda ishlab chiqiladi, tasdiqlanadi va amalga oshiriladi. Mutaxassislarni professional malaka oshirish va qayta tayyorlash jarayoni yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanadi. Attestatsiyani o'tkazish tartibi ta'limni boshqarish bo'yicha tegishli davlat organlari tomonidan belgilanadi. O'quv rejasining barcha talablarini bajargan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan tinglovchilar malaka oshirish va qayta tayyorgarlikdan o'tganligi haqida belgilangan namunadagi diplom yoki sertifikat oladilar. [1].

Pedagoglar malakasini oshirish jarayonini erkinlashtirish uning majburiy shakllarini chegaralab, pedagogik jamoada va mustaqil ta'lim olish shakl va muddatlarini erkin tanlash yo'lidan borishni taqozo qiladi. O'qituvchining maktab va malaka oshirish jarayonidagi butun faoliyati yo'nalishi, o'z shaxsi va faoliyatini anglashi, o'zining refleksiyasiga qaratilgan bo'lishi lozim. Chunki pedagogik mehnat tahlil va nazoratsiz rivojlanmaydi. O'z faoliyatini muntazam tahlil qilish va boshqalar bilan taqqoslash ijod va tashabbusni rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Pedagoglar malakasini oshirish jarayonini erkinlashtirish uning hamma jihatlarini insonparvarlashtirish asosida bo'lishi lozim. Pedagoglarning malakasini oshirish uzluksiz ta'lim tizimining alohida bir bo'g'ini, nisbatan mustaqil pedagogik tizim hisoblanadi. U mustaqil pedagogik tizim sifatida o'z tuzilishi, maqsadi, mazmuni, o'qitish shakl va metodlari, sub'ektlari (o'qituvchi, tinglovchilar) hamda ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari, shuningdek, natijasi (tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malakalari hamda pedagogik mahoratining oshganligi) bilan xarakterlanadi. Pedagoglar malakasini oshirish modomiki o'z xususiyatlariga ega pedagogik tizim ekan u, eng avvalo, kattalar (ya'ni ta'limning ma'lum bosqichini tugallab, ma'lumoti haqida rasmiy hujjatga ega bo'lgan shaxs), jamiyatda ma'lum ijtimoiy mavqega ega, kasbli kishilarni o'qitish tizimi hisoblanadi.

Malaka oshirish tizimini yanada rivojlantirish hamda bugungi malaka oshirish tizimiga innovatsion yondashish asosida quyidagi takliflarni ko'rsatib o'tamiz:

-Malaka oshirish jarayonining monotonligidan voz kechish, pedagog xodimning uzluksiz malaka oshirishini amalga oshirish, shaxsiy malaka oshirish yo'nalishini mustahkamlash, shaxsiy yoki ta'lim muassasasi ehtiyojlariga asoslanish, pedagog xodim uchun maqbul variant va muddatlarini belgilash.

-Ta'lim muassasasida o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish. Bunda asosiy shart sifatida me'yoriy-xuquqiy, tashkiliy, pedagogik, psixologik, moliyaviy - xo'jalik imkoniyatlarini hisobga olishga erishilishi talab etiladi.

-O'qituvchining shaxsiy internet saytini yaratish va doimiy ma'lumotlar bilan to'ldirib borish chorasini topish lozim. Bu o'qituvchilar o'rtasida axborot almashinuviga sabab bo'ladi, shuningdek yosh o'qituvchilarga metodik yordam vazifasini ham o'taydi.

-Malaka oshirish va pedagog xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish hamda ularga malaka toifalari berish jarayonlarini integratsiyalashtirish zarur. Bunda, malaka oshirish va attestatsiyaga tayyorgarlik ko'rishda aynan bir xil faoliyatni takrorlash holatining oldi olinadi, ortiqcha vaqt sarfi kamayishi va iqtisodiy tejamkorlikka erishiladi.

-Malaka oshirish muassasasi pedagoglari tinglovchilar bilan ishlashda bir qator metodlardan foydalanishlari kerak. O'quv dasturlari, o'quv-metodik majmualar, didaktik materiallar kabi muayyan vositalardan foydalanish orqali o'qituvchilarda kasbiy rivojlanish mayllarini hosil qilish, kasbiy rivojlanish jarayonini modellashtirish, pedagoglarni kasbiy rivojlanish sari yo'naltirish kabilari talab etiladi. Jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish maqsadida o'qitishning texnik vositalari, ko'rgazmali qurollar, multimedialar qo'llaniladi.

-O'qituvchilarning malaka oshirishdan keyingi faoliyatida malaka oshirish tizimi bilan uzviylikni ta'minlash kerak. Bu orqali ularning kasbiy mahoratini doimiy oshirib borishga bo'lgan motivatsiya hosil bo'ladi. Bunda, pedagoglarning malakasini oshirish ta'lim muassasasidan tashqarida ham amalga oshirilib, u ilmiy-metodik xarakter kasb etadi. Bu jarayon uzluksiz davom etib, axborot resurs markazlari, masofaviy ta'lim vositalari, internet tarmog'i, turli darajadagi konferensiyalar orkali amalga oshirilishi mumkin.

-Malaka oshirish tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiyalardan maksimal darajada foydalanishni yo'lga qo'yish zarur. Tinglovchilarning axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, axborot resurslari, texnologiyalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida boshqarish tizimini takomillashtirishga imkon yaratish kerak.

-Malaka oshirish kursiga kelayotgan o'qituvchilar o'zlarining metodik jildlari (portfolio)ni tashkil etishlari kerak. Bu jildda mustaqil bilim olish rejasi, mustaqil bilim olish mavzulari hakida hisobotlar, o'qituvchilarning maqolalari, konferensiya va seminarlardagi chiqishlari, dars konspektlari jamlanib boriladi. O'qituvchilarning portfoliolari ularning pedagogik faoliyat tajribalarini to'plash va uni ob'ektiv baholash imkonini beradigan vosita hisoblanadi.

-Pedagoglar malakasini oshirish jarayoni tizimli, izchil, uzluksiz xarakter kasb etishi lozim. Bunda, birinchi navbatda, masofaviy ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish talab etiladi.

-Malaka oshirish muassasasi professor - o'qituvchilarining pedagogika, psixologiya, metodika va ilmiy-ommaviy adabiyotlarga hamda o'quv dasturlari, darsliklarning yangi avlodi, o'quv-metodik to'plamlar, videomateriallar, tavsiyalar va me'yoriy hujjatlarga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash va ularni qondirish.

Shuningdek pedagoglarni malakasini oshirishda, yuqorida qayd etilganlardan ajralmagan holda, psixologiya sohasidagi yangiliklar bilan tanishtirib borish, rahbarlik san'ati va mahoratining yangi qirralarini egallash, innovatsion yondashuv, pedagogik texnologiyalar asosida mashg'ulotlar tashkil etish, ularga amaliy va nazariy yordam ko'rsatish masalalariga e'tibor qaratilishi lozim. Ushbu vazifalarni amalga oshirish samarali bo'lishida tinglovchilarning shaxsiy faolligiga, ya'ni beriladigan topshiriqlarni ongli bajarish, mustaqil faoliyat, o'qishdagi uzviylik kabilarga ham e'tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston milliy ensklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent 2000 yil.
2. Karlibaeva G.E. Innovatsion ta’lim texnologiyalari sharoitida fizika o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish. Ped. fan. nomzodi. ... diss. – T.: 2012. – 130 b.
3. 2. Ximmataliev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi (texnika oliy ta’lim muassasalari “Kasb ta’limi” yunalishlari misolida): Ped. fan. dokt. ... diss. – T.: 2018. – 248 b.
4. 3. Gulboev A.T. Pedagogik tashxis vositasida o‘qituvchilar malakasini uzluksiz oshirish texnologiyasi. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – T.: 2008. -158 b.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILAR BILIMINI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA BAHOLASH USULLARI

Rasulova Sanobar Mamatkulovna

Qashqadaryo viloyati PYMO‘MM, «Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim» kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezis boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar bilimini zamonaviy yondashuvlar asosida baholash usullari asosida tashkil etishga oid tushunchalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Uzluksiz ta’lim, bilim, ko‘nikma, malaka, baholash, baholash tizimi.

Umumiy o‘rta ta’limning malaka talablari umumta’lim fanlari bo‘yicha ta’lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o‘quv yuklamalari hajmiga hamda ta’lim sifatiga qo‘yiladigan talablardan iborat bo‘lib, u quyidagilardan tashkil topadi:

bilim – o‘rganilgan ma’lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

ko‘nikma – o‘rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo‘llay olish;

malaka – o‘rganilgan bilim va shakllangan ko‘nikmalarni notanish vaziyatlarda qo‘llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;

kompetensiya – mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati.

Baholash – bu shaxs tomonidan amalga oshiriladigan baholash jarayoni, faoliyati. Bizning taxminiy va umuman har qanday faoliyatimiz baholashga bog‘liq. Baholashning aniqligi va to‘liqligi maqsad sari harakatning ratsionalligini belgilaydi.

Baholash tizimi – davlat ta’lim standarti bo‘yicha umumiy o‘rta ta’limning malaka talablarini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi darajasini hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasasining faoliyati samaradorligini aniqlaydigan mezonlar majmuidan iborat.

Baholash o‘quvchini sinfdan-sinfga o‘tkazish uchun asos bo‘ladi.

O‘quvchini keyingi sinfga o‘tkazish ijobiy baho olgan taqdirda amalga oshiriladi. Maktab pedagogika kengashi qarori bilan o‘quvchilar qoniqarsiz baholar bilan sinfdan-sinfga o‘tkazilishi mumkin.

O'quvchi uning ota-onasi yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslar yillik bahodan norozi bo'lsa, unga maktab pedagogika kengashi tomonidan tuziladigan tegishli fan komissiyasiga (ota-onalar yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslar ishtirokida, agar ular shuni xohlasalar) imtihon topshirish imkoni beriladi. Qayta imtihon topshirishga barcha ko'chirish sinflarida (bitiruv sinflari bundan mustasno) faqat joriy o'quv yilida o'qitilgan fanlar bo'yicha ruxsat beriladi.

O'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi baholashga oid bahsli vaziyatlar Maktab pedagogika kengashi a'zolaridan iborat tarkibda bahsli masalalar komissiyasi tomonidan hal etiladi.

Ko'pincha psixologik va ayniqsa pedagogik adabiyotlarda "baholash" va "baho" tushunchalari aniqlanadi. Shu bilan birga, ushbu tushunchalarni farqlash o'qituvchilarning baholash faoliyatining psixologik, pedagogik, didaktik va tarbiyaviy jihatlarini chuqurroq anglash uchun o'ta muhimdir.

Ma'lumki, baholash funksiyalari faqat tayyorgarlik darajasini tasdiqlash bilan cheklanmaydi. Baholash o'qituvchini o'rganish, ijobiy motivatsiya va shaxsga ta'sirini rag'batlantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Aynan ob'yektiv baholash ta'siri ostida maktab o'quvchilarida o'z-o'zini baholash, o'z yutuqlariga tanqidiy munosabat shakllanadi. Shuning uchun baholashning ahamiyati, uning funksiyalarining xilma-xilligi maktab o'quvchilarining ta'lim faoliyatining barcha jihatlarini aks ettiradigan va ularning identifikatsiyasini ta'minlaydigan ko'rsatkichlarni izlashni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bilim va ko'nikmalarni baholashning amaldagi tizimi uning diagnostik qiymati va ob'yektivligini oshirish uchun qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Baho (ball) baholash jarayoni, baholash faoliyati yoki harakati, ularning shartli ravishda rasmiy aks etishi natijasidir. Psixologik nuqtai nazardan, baholash va bahoni aniqlash, uning natijasi bilan muammoni hal qilish jarayonini aniqlash bilan baravar bo'ladi. Baholash asosida belgi uning rasmiy mantiqiy natijasi sifatida ko'rinishi mumkin.

Baholash odatda maktab o'quvchilarining mavjud bilimlari va ular ko'rsatgan bilim va ko'nikmalarga bog'liq. Bilim, ko'nikma va malakalarni birinchi navbatda o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham ularni takomillashtirish, chuqurlashtirish, oydinlashtirish yo'llarini belgilash uchun baholash kerak. O'quvchi tomonidan berilgan baho bu o'quvchi va o'qituvchining ishlash istiqbollari aks ettirishi muhimdir, bu har doim ham o'qituvchilarning o'zi tomonidan amalga oshirilmaydi, ular bu belgini o'quvchining faoliyatini baholash deb biladilar. Ko'pgina mamlakatlarda o'quvchilarning baholari ta'lim samaradorligini baholash uchun asos bo'lib, ta'lim sifatining muhim parametrlaridan biridir.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, o'qituvchining bahosi o'quvchi ichki ravishda rozi bo'lgandagina foydali tarbiyaviy samaraga olib keladi. Yaxshi ishlayotgan maktab o'quvchilari uchun o'zlarining baholari bilan o'qituvchi tomonidan berilgan baholarning tasodifligi 46% hollarda bo'ladi va yomon ishlaydiganlar orasida – 11% hollarda. Boshqa tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, o'qituvchi va o'quvchining o'z bahosi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik 50% hollarda

uchraydi. O'quvchilar o'qituvchilar talablarini tushunsalar, baholashning tarbiyaviy samarasi ancha yuqori bo'lishi aniq .

O'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini nazorat qilish natijalari uni baholashda ifodalanadi.

Baholash ta'limiy maqsadlarga qay darajada erishganligini namoyish qilish imkonini beradi. Baholash o'lchash jarayoni: bunda bilim, ko'nikma, kompetensiyalar o'lchanadi. Baholashning maqsadi nazorat qilish emas, balki boshqarish va rivojlantirishdir. Takomillashtirishga asoslangan baholash tizimi jarayonni monitoring qilish, qo'llab-quvvatlash va takomillashtirish uchun ma'suliyatini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli Qarori.

2. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. Toshkent, 2019-yil. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING HAYOTIY KO'NIKMALARINI DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI SHAKLLANTIRISH

Mamatkulova Nigora Sherbekovna

*Sirdaryo viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy
markazi "Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari"
kafedrasi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda didaktik o'yinlar va mantiqiy topshiriqlardan foydalanish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, didaktik o'yin, mantiqiy topshiriqlar, tasavvur, tafakkur samaradorlik.

Аннотация: В данной статье показаны способы использования дидактических игр и логических задач при формировании жизненных компетенций в начальных классах.

Ключевые слова: творчество, дидактическая игра, логические задачи, воображение, эффективность мышления.

Abstract: This article shows the ways of using didactic games and logical tasks in the formation of life competencies in primary classes.

Key words: creativity, didactic game, logical tasks, imagination, thinking efficiency.

Matematika olamni, dunyoni bilishning asosi bo'lib, tevarak-atrofimizdagi voqea va hodisalarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda juda katta ahamiyatga ega. Matematik bilimlarsiz ishlab chiqarish va fanning rivojlanishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham matematik madaniyat umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi va matematika jamiyatimizning barcha jabhalariga juda katta madaniy hissa qo'shadi.

Ma'lumki, matematika fani inson aqlini charxlaydi, diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan maqsadga erishish uchun qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzda tartib-intizomlilikka o'rgatadi va eng muhimi, mulohaza yuritish, muammolarni hal qilish, innovatsiyalarga chorlaydi hamda tafakkurni kengaytiradi. Muhtaram Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi".

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.


Boshlang'ich sinf o'quvchilarining hayotiy kompetensiyalarini shakllantirish davr talablardan biri. Bunday yoshlarni tarbiyalashda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining xizmati benihoya katta. Ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchisi darslarda o'quvchilarni ijodkorlikka o'rgatmog'i lozim. Matematika darslari qanchalik qiziqarli bo'lsa, o'quvchilarning o'ylash, hisoblash qobiliyatlari shuncha takomillashadi. O'qitishning samaradorligini oshirish va bolalarni kamol toptirish uchun eng oldin beriladigan masala mazmuniga birinchi navbatda e'tibor berilsa, unumli foyda beradi.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalar rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo'lishi uchun fanlarni mukammal egallashini taqozo etadi. Bu esa ta'lim tizimiga, jumladan, matematikani o'rgatishga ham xalqaro tajriba va andozalarni joriy etish orqali ta'minlanadi.

Matematik ta'limga kompetensiyaviy yondashuv kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko'rinishdagi malakalar o'quvchilar tomonidan egallanishini nazarda tutadi.

Mavzularni sodda, tushunarli tilda, hayotiy masalalar yordamida yoritilishi va fanlararo integrasiyani qo'llash o'quvchilarda matematik bilim, tasavvur, tafakkur, mantiqiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Ularning imkoniyatlari, yoshi, individual xususiyatlari, XXI asr ko'nikmalarini rivojlantiradi. Topshiriqlar soddadan murakkabga tomon rivojlanib boradi .

Agar e'tibor berib qaralsa, ya'ni masalada gap borayotgan fikr va predmet ustida diqqat bilan qaralsagina, ya'ni bola ko'z oldiga gavdalantirilsa ijobiy natijaga erishiladi. Oddiy ko'ringan masalalar yechimi hech qachon birdaniga chiqmaydi. U o'zida sirli jumboqni yashiradi. Buni yechish uchun o'quvchi ijodkor bo'lmog'i lozim. Mantiqiy topshiriqlar o'yinlar, didaktik materiallar bilan amaliy ishlar darsda katta o'rin egallaydi.



E'tibor beramiz: mashinaning qaysi detali noodatiy? G'ildiraklarning vazifasi nima? U vazifasini bajarish uchun qanday harakatlanadi? Kvadrat shaklidagi g'ildiraklar ham aylana shaklidagi g'ildiraklar kabi harakatlana oladimi?

Didaktik o'yin o'quvchi ta'lim-tarbiya olishi, uning har tomonlama rivojlanishi uchun muhim vosita bolib xizmat qiladi. Bolalarga har bir o'yinni orgatishda muayyan ta'limiy maqsadni nazarda tutish o'qituvchi diqqat markazida bo'lishi zarur. O'yin orqali o'quvchi o'tiladigan mavzu yuzasidan bilim oladi, konikma malakalarga erishadi. O'yinning eng muhim ahamiyati ham shundadir.

Didaktik oyinlarning tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, u oquvchilarni hamjihatlikka, intizomlikka sezgilikka, topqirlikka, e'tiborli bo'lishga, qatilylikka undaydi.

Kichik maktab yoshdagi bolalarni o'qitish jarayonida mantiqiy topshiriqlarni bajarishga o'rgatish natijasida o'quvchilarning biluv faoliyatlari oshadi, ularda topqirlik, sezgirlik, hushyorlik kabi sifatlar tarkib topadi.


Jumboqli topshiriqlar

Bo'sh joylarga qanday shakllar mos?



Shakllar ketma-ketligini aytamiz: uchburchak, kvadrat, to'rtburchak, yulduzcha; yana boshidan boshlangan: uchburchak, kvadrat... Ahamiyat beramiz: shakllar uchburchakdan boshlab yana takrorlanyapti. Demak, uchburchak va kvadrat shaklidan keyin to'rtburchak shakli chizilishi lozim. Shakllar ketma-ketligida yulduzcha oxirgi shakl. Yulduzcha shaklidan keyin shakllar ketma-ketligi yana takror boshlanadi. Demak, chiziqchalar o'rnida uchburchak va kvadrat shakli chizilishi lozim. Oxirgi chiziqchaga yulduzcha chizilishi lozim.

Pastdagi shakllar yuqoridagi qaysi shakllardan yasalgan?



O'yin kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatida asosiy o'rinni egallaydi. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, o'yin dunyoni va o'zligini anglashda, qiziqishlarini qondirishda asosiy vosita hisoblanadi. Didaktik o'yinlar bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillatish va o'yin orqali bilim berish maqsadida yaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Matematika 2-sinf. Metodik qo'llanma: o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma / L. O'. O'rinboyeva [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.

2. Matematika 1-sinf. Metodik qo'llanma: o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma / N.Sh. Ruzikulova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021

O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVASION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Sh.Abdufatayev, B.Jumaboyev

*Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi,
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi*

Jamiyatimiz rivojlanishining chuqur iqtisodiy va ij-timoiy o'zgarishlar ro'y byerayotgan hozirgi bosqichida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish sifatini oshirish yo'llari va vositalarini izlab topish zamonaviy pedagogikaning asosiy dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Tayanch so'zlar va tushunchalar: pedagogik texnologiya, multimedia, noan'anaviy ta'lim, kasbiy ta'lim, tezaurus, fassinasiya, mayevtika, mahorat darsi.

O'zbekistonda olib borilayotgan ta'lim islohoti bevosita uning demokratik, bozor munosabatlariga o'tish jarayoni bilan birga amalga oshmoqda. Mazkur jarayonlar mohiyatan pedagogik ta'lim tizimi kadrlar tayyorlash imkoniyatlarining tubdan yaxshilanishiga, jamiyatni og'ishmay rivojlanti-rish negizida umumjahon ta'lim muhitiga mos tarzda uzluksiz ta'lim tizimini yaratishga olib keladi. Shu sababli ham birinchi navbatda ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish va chuqurlashtirish, xususan, innovasion texnologiyalar yordamida ta'lim sifatini oshirish g'oyasi kun tartibiga ko'ndalang qilib qo'yilganligini ta'kidlash o'rinlidir. Bu mazmunga nafaqat bilim, ko'nikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil qiluvchi – ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, texnologiya fani orqali milliy qadriyatlarga, atrof-muhitga nisbatan munosabatlarni ham kiritish mumkin. Ta'limdagi innovatsiya jarayonlari xarakteri kiritilgan yangilikning xususiyatlari, pedagoglarning kasbiy imkoniyatlari, yangilik kiritish tashabbuskorlari va ishtirokchilarning innovasion faoliyatlari xususiyatlari bilan belgilanadi. V.A.Slastenin yuksak barka-mollikka, ijodiy faoliyatining davomiyligiga olib keladigan sub'yektiv va ob'yektiv omillarini asoslab berdi. Ob'yektiv omillarga olingan ta'limning sifati, sub'yektiv omillari esa insonning iste'dodi va qobiliyati, ishlab chiqarishdagi vazifalarni samarali hal qila olish mas'uliyati, mutaxassislikka yondashuvini kiritadi.

Yuksak kasbiy barkamollikka erishishning omillari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

- iste'dod nishonalari;
- uquvlilik;
- qobiliyat;
- iste'dod;

- oilaviy muhit;
- ta’lim muassasasi;
- shaxsiy xatti-harakati.

O‘qituvchining ijodiy individualligi quyidagilardan iborat:

- intellektual-ijodiy tashabbus;
- bilimlar kengligi va chuqurligi, intellektual qobiliyati;
- ziddiyatlarga nisbatan hushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv,
- yaratuvchilikka vujudan kurashchanlik qobiliyati;
- axborotlarga tashnalik, muammolardagi g‘ayriodatiylik va yangilikka

bo‘lgan his-

tuyg‘u, aqliy barkamollik, bilimga bo‘lgan chanqoqlik. V.A.Slastenin shaxsiy ijodkorlikni ro‘yobga chiqarishning asosiy vazifalari deb quyida-gilarni belgilaydi:

- ijtimoiy mohiyat kasb etgan madaniyatni boyitish;
- pedagogik jarayon va shaxs bilimlarini yangilab turish;
- samarali va ahamiyatli me‘yorlarni belgilaydigan yangi texnologiyalarni

topish;

– o‘z taqdirini o‘zi belgilash va o‘zini o‘zi namoyon qila olishi orqali shaxsiy rivojlanishni ta‘minlash.

Demak, ta’lim oluvchilarning bilim faoliyatlarini rag‘batlantiruvchi usul – faol ta’lim berish usuli hisoblanadi. Suhbat, bahs, o‘yin, keys-stadi, loyihalar usuli, muammoli usul, aqliy hujum va boshqalar eng ko‘p tarqalgan va alohida xususiyatga ega bo‘lgan ta’lim usullari-dir.

Shu tariqa o‘quvchilarning shaxsiy ijodkorligini shakllantirish kasbiy ko‘nikmalarining rivojlanishi va yangilanishining dinamik innovasion jarayoni sifatida tushuniladi. Respublikamizning barcha ta’lim jabhalarida bo‘lganidek texnologiya fani sohasida bu muammoning yechimini topish ustida anchagina izlanishlar olib borilgan. Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatlarini sohasida ijobiy natijalarga erishishga imkon beradigan faol ta’lim berish usullarini amalda tatbiq qilish ustida ijobiy ishlar qilingan. B.B.Boymetov o‘quv mashg‘ulotlarida asosan milliy naqshlarni chizishni taklif etgan bo‘lsa, R.K.Rajabov ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ustoz-shogird tizimida talabalar bilan individual ishlashga ko‘proq urg‘u beradi. S.F.Abdirasilov «pedagogik texnologiyaning ahamiyati avval o‘zlashtirgan nazariy bilimlar bilan yangi o‘z-lashtiriladigan bilimlar orasida mustahkam bog‘lanishlarining yuzaga kelishi bilan belgilanadi», deb ta’kidlaydi. K.M.Gulyamovning ilmiy tadqiqot ishi keyingi vaqtda innovasion texnologiyalarning ta’lim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq qilinishi, ta’lim mazmunini boyitish, uni takomillashtirish va o‘quvchilar bilimini o‘zlashtirishda jadallashtirish, hamkorlik hamda yakka tartibda ta’lim olish va ta’limni kompleks loyihalashtirish muammolarini yechish ga qaratilgan. Bu jarayonda shaxs o‘zining fikri, diqqat-e’tibori va ayni paytdagi hissiy kechinmalarini ish faoliyatining samarali bo‘lishi tomonga yo‘naltiradi. Sub’yekt-ob’yekt munosabati asosida qaytar aloqa o‘rnatiladi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, «ustoz-shogird» munosabatlari qaror topadi. Ma’lum bir muvaffaqiyatga eri-shish

esa yangi kuch, o'z iqtidoriga ishonishning omili bo'lib xizmat qiladi. Shaxs manfaati jamiyat manfaati bilan tobora uyg'unlashib boradi. Hozirgi kunda shubhasiz eskirgan pedagogik usullar yordamida yangicha sifatli ta'lim olish mumkin emas. Ta'lim jarayoni zamon bilan hamnafas yangi innovasion texnologiyalarni talab qilmoqda. Innovasion pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning o'z-o'zini boshqarishi va o'z-o'zini safarbar qilishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo'nalishlaridan biri o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish bo'lib, u o'quvchilarning o'quv ishlarini faollashtirish va kasbiy ixtisoslashuvining faollashuviga olib keladi. Hayotimizdagi yangi shart-sharoitlaridan kelib chiqib, o'quv jarayonida kompyuter vositalari va axborot texnologiyalardan foydalanishni axborot hajmining ko'payib ketganligi, kommunikabellik, jamiyatdagi ilmiy-texnik rivojlanish bilan izohlash mumkin. Pedagogik faoliyat bosqichma-bosqichligini nazarda tutadigan innovasion texnologiya bo'lajak mutaxassisni hayotiy o'quv faoliyatini mustaqil qura oladigan, unga tuzatishlar kirita oladigan faol, ijodkor shaxsni shakllantirishga qaratadigan zamonaviy innovatsiyalarni o'zlash tirish va ishlab chiqish jarayoni hisoblanadi. Pedagogik innovatsiya – ta'lim jarayoni sifatini oshirish va pedagogik amaliyotni sifat va son jihatdan o'zgartirishni maqsad qiladi. Zamonaviy ta'limni matn, grafika, vi-deo va multiplikatsiya va shu bilan kompyuterni o'quv jarayonida qo'llash imkonini oshiradigan multimedia texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Taklif qilinayotgan tasvirni ko'rish bilan birga talabaning ob-razli fikr lashi materialni yaxlit qabul qilishiga yordam beradi. Ularda nazariy va ko'rgazmali materiallarni o'zaro mujassamlashtirish imkoniyati paydo bo'ladi. Ko'rgazmali axborot ishlatilganda, tasavvur hosil bo'lishi og'zaki bayondan ko'ra o'rtacha 5-6 marotaba tezroq kechadi. Insonning ko'rgazmali axborotdan ta'sirlanishi, og'zaki axborotdan ko'ra ancha yuqori bo'ladi. Ko'pchilik hollarda u oxirgisini o'tkazib yuboradi. Ko'rgazmali axborotni qayta takrorlash oson va aniqroqdir. Odamning ko'rgazmali axborotga ishonchi og'zaki axborotdan ko'ra yuqori bo'ladi. Shuning uchun «yuz bor eshitgandan ko'ra, bir bor ko'rmoq afzalroqdir» deb bejiz aytilmagan. Tyexnologiya fani jarayonida mashg'ulot mavzusiga doir bilimlarni mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida innovasion ta'lim texnologiyalari (loyiha), interfaol metodlar grafik organay-zerlardan unumli foydalanish mumkin. O'quvchilarning intellekt darajasi, kasbiy layoqatini aniqlashga qaratilgan turli nostandart testlardan foydalanish kompyuter vositalari orqali amalga oshiriladi. Bunda testli vazifalar faqat so'zlar ifodasi emas, balki animatsiyali lavhalar ko'rinishida bo'ladi. Kompyuter tex-nologiyalarini qo'llab ishlash juda qiziqarli bo'lib, ular tomonidan bajonidil qabul qilinadi, o'quvchilar shaxsiy xislatlari tarbiyala-nadigan jiddiy ijodiy faoliyatlarga jalb qilinadi. Tasvirli badiiy bezaklar ijobiy ruhiy muhitni yaratib, asta-sekin o'quvchilarda muayyan madaniy-axloqiy xususiyatlar paydo bo'la boshlaydi, ularning dunyoqarashlari kengayadi. Kompyuterdagi axborot almashish tamoyillari an'anaviy darsni tashkil etishdan uni qayta qurish imkoniyatlarini tug'diradi. Darslar quyidagilarga asoslansa yanada sa-marali bo'ladi:

– tezaurus – tushunchalar tizimi o‘qituvchi va o‘quvchilarni bir xil ma’noli izohlar bilan ta’minlaydi;

– fassinasiya – namoyish etilayotgan materialning jozibadorligi o‘rganilayotgan mavzuga qiziqishni oshiradi;

– mayevtika – o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikda ijod qilish tamoyili, chuqur bilim olish, buyum yasash jarayonini idrok qilish va yaratilish jarayonini tushunib yetish va olingan axborotlarni amalda qo‘llay olish qobiliyatlarini shakllantiradi;

– mashg‘ulotni hikoya, ma’ruza taqdimotlari, yangi materialni reproduksiyalar ko‘rinishida namoyish qilish kabi multimedia chiqishlar bilan o‘tkazish;

– auditoriya, kutubxona yoki uydagi shaxsiy kompyuterdan foydalanib mashg‘ulotlarga tayyorlanish, uyga vazifani bajarish – axborotlar to‘plash, matn ustida ishlash, multimedialar yaratish;

– o‘quvchilarning sinfda, kichik guruh-larda bajaradigan vazifalari va mustaqil ishlarini kompyuterda bajarishni tashkil etish; bu ta’limga xususiy yondashishni yuqori darajada amalga oshirish imkonini beradi;

– ta’lim jarayonining optimal variantini tanlash, uning samaradorligini oshirish,

o‘qituvchi va o‘quvchilardagi ortiqcha yukni bartaraf etish; bu fanlararo o‘zaro bog‘liqlik.

Innovasion texnologiyalar yordamida amaliy san’at asarlarini kengroq va yaxlit idrok etish uchun imkon beradigan mashg‘ulotlarga ko‘proq diqqat qaratiladi. Kompyuterlar orqali amaliy san’at asarlarini tahlil qilish, muzeylar bo‘ylab virtual sayyohatlar uyush tirishda har xil ovoqli matnlar, musiqa, animasion bezaklardan foydalanish tasviriy san’at, adabiyot, musiqa va badiiy ijodkorlik, innovasion texnologiyalarning o‘zaro bog‘liqligini amalda sinash mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning faoliyatini jonlantirishga xizmat qiladi.

Ta’limning o‘zaro bog‘liqligi o‘quvchilarda bilim olish va san’atga qiziqishlarini oshiradi. Material mazmuni hamda yangicha ta’lim usullari ta’sirida o‘quvchida fikrlash, izlanish, yangiliklarni ocha olish, asoslash, tatbiq etish, kompyuterda bilim olish vositasi sifatida munosabatda bo‘lish ko‘nikmalari rivojlanadi, mustaqil ijodkorlik tajribasi oshadi. Yangi avlod multimedia texnologiyalari bilan faol shug‘ullanganda o‘quvchilardagi badiiy san’at asarlarini idrok qilish tezroq shakllanadi. Texnologiya fani mashg‘ulotlarida innovasion texnologiyalarning faol qo‘llanilishi o‘quvchilardagi badiiy san’at asarlarini idrok etish qobiliyatlarini shakllantirish, kompyuter dasturlari bilan ishlash faoliyatini rivojlantirish, bilim va ko‘nikmalarning ma’naviy ahamiyatini oshirishga yordam beradi.

Bugungi kunda kompyuter texnologiyasi ta’limning yangi mazmuni va shaxs rivojlanishiga muvofiq bilimlarni beradigan asosiy vosita hisoblanadi. Bu vosita o‘quvchida qiziqish bilan o‘qish, axborot manbalarini topish, yangi bilimlarni o‘zlashtirishda mustaqillik va

mas’uliyat hissini tarbiyalaydi, intellektual intizomni rivojlantiradi. Ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta’lim oluvchilarning mustahkam nazariy

bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish, ularning kasbiy mahoratga aylanishini ta'minlash maqsadida o'qitish jarayonida yangi pedagogik innovasion texnologiyalardan foydalanish davr taqozosi bo'lib, ijtimoiy zaruriyat sifa-tida kun sayin dolzarbligi oshib bormoqda. Ta'lim jarayoniga bu texnologiyalarni tatbiq etish kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan umumiy jarayon mazmunining sifat jihatdan o'zgarishini ta'minlaydi. Yangi pedagogik texnologiya nazariyasi g'oyalaridan foydalanish asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy buyurtmaning bajarilish holatining sifat ko'rsatkichiga ega bo'lishiga turtki bo'ladi. Ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi barkamol shaxs va malakali mutaxassislar faoliyatlarining rivojlanishi ijtimoiy taraqqiyot tezlashuviga olib keladi. Buni tushunib yetgan ko'plab pedagoglar texnologiya fani mashg'ulotlarida innovasion texnologiyalarni qo'llashda kompyuter vositalaridan unumli foydalanib kelishmoqda. Ular bu vositalar orqali mavzuga oid «mahorat darsi», jahon muzeylariga sayohat, buyuk

badiiy asarlar tahlillaridan iborat video-tasmalar namoyishi, grafik organayzyerlar, nostandart testlardan foydalanishadi.

Texnologiya fani mashg'ulotlarida foydalanish imkoniyatlari haqi-dagi shunday umumiy xulosaga kelindi:

1. Kompyuter o'qituvchi va o'quvchi muloqotini yaxshilashda ijobiy natijaga erishish

uchun qulay hamda keng imkoniyatlarga ega.

2. Ta'limda ko'rgazmali tushuntirish hamda reproduktiv usullarni qo'llashning yangi va sifatli darajaga ko'tarilishini ta'minlaydi.

3. Mashg'ulotlarda axborot-kommunikasion texnologiyalardan foydalanish ta'lim shakli, o'quvchilar bilim doirasini kengaytirishga xizmat qiladi, diqqatni jamlaydi, shaxsning ijodkorlik imkoniyatlarini oshiradi.

5. Proyektorlardan foydalanish matnlar bilan ishlash, o'rgatuvchi videoroliklar namoyish etishda qulaylik yaratadi, ko'rgazmalilikni oshiradi, vaqtni tejaydi.

6. Elektron ensiklopediyalar bilan tanishish, jahon muzey va ko'rgazma zallari bo'ylab virtual sayohatlar uyushtirish imkonini beradi.

7. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning internet orqali axborotlar izlash, topish, tanlash va olingan ma'lu-motni jamlash kabi mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

8. Testlardan foydalanish nafaqat vaqtdan yutish, materiallar sarfini kamaytirish, balki o'z bilimi va imkoniyatlarini ob'yektiv baholashga imkon beradi.

9. Mashg'ulotlarda kompyuter texnologiyalarini qo'llash o'quvchilarning texnologiya faniga qiziqishlari va ta'lim sifatining oshishiga olib keladi.

10. Tyexnologiya fani mashg'ulotlarida naqshlar, chizmalar, jadvallarni yorqin va qiziqarli shakllarda kuzatish, ob'yektlarni foto va videotasmalar vositasida ko'rish, u yoki bu mavzudagi materialni aniq idrok etish, tanlangan materialni qiziqarli shaklda tasvirlashga yordam beradi. Shunday qilib, mashg'ulotlarda va darsdan tashqari vaqtlarda innovasion texnologiyalardan

foydalanish vaqtini tejash, shaxsiy ijodkorlikni rivojlantirish, psixologik-pedagogik bilimlar asosida o'quv-tarbiyaviy faoliyatni to'g'ri tashkillashtirishga imkon yaratadi. Bundan tashqari, texnologiya fani darslarida innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanish:

- O'quvchilarning idrok qilish faoliyatini rivojlantiradi va o'quv jarayonini faollash-tiradi;

- qisqa vaqtda katta hajmdagi ishlar bajariladi;

- o'quvchilar nazariy bilimlarini tekshirish jarayonini tezlashtiradi;

- bilim va ko'nikmalarni mustahkamlaydi;

- darsdan tashqari vaqtlarda talabalarni faol ijodiy faoliyatga yo'naltirishga sabab bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: «Moliya», 2003.

2. Ananyev B.G. O problemax sovremennogo chelovekoznaniya. – SPb.: «Piter», 2001. –S. 272.

3. Vishnyakova N.F. Kreativnaya psixopedagogika. Psixologiya tvorcheskogo obucheniya. – Minsk: Izd. NIOB «Poli Big», 1995. –S. 129.

4. Gulyamov K.M. Kasb-hunar kollejarida xalq amaliy san'atini o'qitish metodi-kasi (naqqoshlik san'ati misolida). – T.: TDPU, 2012. –56-58-b;

5. Slastenin A.A. Professionalizm uchitelya kak yavleniye pedagogicheskoy kultury. «Pedagogicheskoye obrazovaniye i nauka», 2004, № 5.

6. Sultanov H.E. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda innovasion texnologiyalardan foydalanish. Zamonaviy ta'lim / sovremennoye obrazovaniye 2016, 11

INTEGRATSIYA TA'LIM JARAYONIGA YANGICHA YONDOSHUV SIFATIDA

*Olimjonova Sadoqat Axrorjon qizi
Namangan VPYMO'MM o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada integratsiyalashgan ta'lim jarayonida blok darslar tashkil etish mavzusida fikr va mulohazalar bildirilgan

Kalit so'zlar: Ta'lim, integratsiya, samaradorlik, qobiliyat, blok dars, uyg'unlik, yondoshuv.

Аннотация: В этой статье представлены идеи и отзывы об организации блочных уроков в интегрированном процессе обучения.

Ключевые слова: обучение, интеграция, эффективность, умение, блок-урок, гармония, подход.

Annotation: This article provides ideas and feedback on the organization of block lessons in the integrated learning process

Keywords: Learning, integration, efficiency, ability, block lesson, harmony, approach.

Hozirgi kunda ilm-fan taraqqiyotining jadal rivojlanib borishi o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini yana takomillashtirishni, dars mashg'ulotlariga yangicha talqin berib ta'lim samaradorligini yanada oshirishni taqozo etmoqda. SHuningdek, mamlakatimiz ta'lim tizimini rivojlantirish bu borasida jahon mamlakatlarining ilg'or g'oyalari, tarbiyaviy, ta'limiy nazariyalari, mutaxassislar tayyorlashning boy amaliyoti, hozirgi zamon texnikasi va texnologiyasidan foydalanish hamda milliy, hududiy xususiyatlarini hisobga olib, ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish, shu negizda yangisini ishlab chiqish va keng ko'lamda qo'llash bosh omil sanaladi.

Bu borada avvalo pedagog shaxsi va uning kasbiy maxoratini oshirish uchun olib borilayotgan ko'plab ilmiy - amaliy anjumanlar, seminarlar, tadbirlar uzluksiz davom etmoqda. Quvonarlisi shundaki mana shunday tadbirlarda qatnashishning o'zi shaxsan o'z faoliyatim bo'yicha zarur ma'lumotlar olishga va amaliyotda qo'llashim uchun katta yordam bermoqda. E'tirof etish joizki, pedagogika fanlari doktori, professor R. Jo'raevning "Sovremennyy urok. On kakoy doljen byt'" nomli ilmiy maqolasida ham olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, bugungi darslarning yutuq va kamchilikari haqida batafsil fikr yuritilgan bo'lib, dars mashg'ulotlarini yangicha tashkilashtirish, unga o'zgacha tus berish bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borilayotganligi va bu masala shu kunning eng dolzarb muammolardan biri ekanligi alohida ta'kidlangan.

Darxaqiqat jamiyatimiz hayotida ro'y berayotgan bugungi o'zgarishlar, yangiliklar ta'lim jarayoniga yangicha yondashishini talb etmoqda. Bu xususida ta'lim mazmunini ya'ni fanlarni integratsiyalash orqali bolik darslar loyihasini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish har tomonlama komil inson va mukammal yetuk malakali zamonaviy kasb egalarini tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

"Integratsiya" lotincha so'zdan olingan bo'lib, umumiy holda "tarqoq qisimlarni yaxlit bir butun holga keltirish, birlashtirish, uyg'unlashtirish" degan ma'noni anglatadi. Ammo integratsiya ta'lim tizimida o'qitishining interfaol usuli va predmetlararo bog'lanishidan farq qilmog'i lozim.

Integratsiya ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv sifatida, dars samaradorligini oshirish vositasi, fanlararo uyg'unlikning yangi sifat darajasiga ko'tarilgan shakli hisoblanadi. Integratsiya hayotdagi turli xil voqea va hodisalarni bir qolipdan turib baholash emas, balki ularni o'zaro aloqadorlikda, kompleks, yaxlit holda o'rganishga o'tish demakdir. Bunday mashg'ulotlarda turdosh fanlar uyg'unligi ta'minlanib integratsiyalashgan holatda bitta umummiliy mavzu asosida yaxlit muammolari vaziyat xosil qilinadi. Ta'kitlash joizki Integratsiyalashgan ta'lim jarayonida qaysi fanlar uyg'unligi ta'minlangan bo'lsa shu fanlar o'qituvchilari birgalikda hamkorlikda pedagogik faoliyatda ishtirok etadilar. Muayyan fanlarni dastur mazmuni asosida uyg'unlashtirishi natijasidagi Integratsiyalashgan ta'lim blok dars deyiladi. CHunki, bunday dars shiori fanlar mazmunini bloklashtirish orqali umumiy bitta mavzu asosida bir necha pedagoglar va o'quvchilar ishtirokida tashkil etiladi.

Bizga ma'lumki, ta'lim muassasalarida dars jadvali asosida ko'rsatilgan vaqtda har bir fan alohida o'qitiladi. Bunday predmetli ta'lim jarayonida fanlararo bog'liqlik, yaxlitlik, uyg'unlik to'la ta'minlangan deb aytish qiyin. SHuningdek

predmetli ta'lim jarayonida o'qituvchida o'z pedagogik faoliyatiga bir yoqlamalik, cheklanganlik, voqelikni faqat bir tomonlama taxlil qilish va xulosa chiqarish hollari kuzatadi. Ta'limda mukammallikka erishish uchun ta'lim mazmunini integratsiyalash, blok darslar loyixasi ustida ishlash, loyiha asosida o'qituvchi pedagoglarning ijodiy hamkorligini ta'minlanib, blok dars texnologiyasi yaratiladi. Blok dars loyhasini ishlab chiqishda har bir fan o'qituvchisiga aniqlangan vaqtni xisobga olishni e'tibordan chetda qoldirmasligi zarur. Ta'lim mazmunini Integratsiya xarakterga ega bo'lishi o'qituvchining bilimini, dunyoqarashini va kasbiy maxoratini oshiradi, vaqtini hamda aqliy kuchini tejashda muxim ahamiyat kasb etadi. O'quv kurslarini Integratsiyalash natijasida yangi uyg'unlashgan o'quv kursi vujudga keladi.

O'quv fanlarini Integratsiyalash o'qituvchining fikrlash qobiliyatini yanada rivojlantiradi, masalaga har tamonlama keng qamrovli yondoshuvni ta'minlash bilan birga unda o'ziga ishonch paydo bo'ladi, har qanday muammoli vaziyatlardan tadbirkorlik bilan chiqib keta olish malakasi hosil bo'ladi. SHuningdek, o'qituvchi o'zini o'rab turgan olamni har tomonlama uyg'un qabul qiladi, o'quv metodlarini rang – barang jihatlarini bir butunligicha anglash orqali pedagogik jarayonni yaxlit idrok etish ko'nikmasi shakllanadi, Integratsiyalashda fanlarning to'g'ri tanlashi ta'lim jarayonida ro'hiy qulaylikni vujudga keltiradi.

Hozirgi ilmiy – texnikaviy taraqqiyot davrida ta'limning tuzilishi shu qadar jadal suratlar bilan rivojlanar ekan, ta'limni takomillashtirish, uning sifat va samaradorligini oshirishda darsga yangicha talqin berib bloklashtirilgan darslarni tashkil etish ta'limga nostandart yondoshish o'qituvchining ham o'quvchining – talabani ham bilim tajribasini mahoratini va ijodkorligini tezkor fikrlashini har qanday vaziyatidan mohirona chiqib ketish qobiliyatini kafolatlaydi. O'qituvchini ham o'quvchini – talabini ham yashab turgan muhitga, hayot talablariga mos rivojlanishning ta'minlaydi.

Maktabda pedagoglirimiz masalan, uchta fanni geografiya, biologiya va fizika fanidan bitta umumiy mavzu tanlab, shu uchchala fanni bir vaqtda ma'lum ketma- ketlikda fanlarni bir-biriga bog'lab o'tishni tajriba qilib ko'rishlari mumkin. Hozirda blok darslar o'tish talabi qo'yilmasada, bunday darslarni tashkil etish va sinab ko'rish pedagogik mahoratni oshirishda katta samara beradi.

Kelajakda Integratsiyalashgan blok darslar o'zining mazmun mohiyati bilan ta'lim tizimida o'ziga xos afzalligi bilan XXI asrning intellektli yoshlarni har tamonlama mukammal shaxs va yetuk malakali mutaxassis sifatida tarbiyalab voyaga yetkazishda muhim ahamiyat etadi. Blok dars o'qituvchidan yuksak darajadagi kasbiy mahoratini talab etadi. SHuning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, androgogika va akemealogiya fanlarini ham nazariy, ham amaliy jihatdan puxta egallab, fasilitatorlik qobiliyatini rivojlantirishi zarur.

Bugungi ijtimoiy taraqqiyot, kasbiy erkinlik va kasbiy burch munosabati har bir shaxsdan ijodkorlik sifatlarining yuqori darajada shakllanishini talab etmoqda. SHaxsning aniq maqsadga yo'naltirilganligi uning ijodkorligi shakllanishining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Bu maqsad esa jamiyatdagi hayotiy ehtiyojlardan kelib chiqadi. Demak, ijodkorlik shaxsning aniq maqsad

sari ongli tarzda faoliyat yuritishining yuqori ko'rsatkichi bo'lib, mustaqil fikrlar, tasavvurlar, tushunchalar, kuzatishlar, diqqat va qobiliyatlar majmuidir

Фойдаланилган адабиётлар:

1. <http://www.istedod.uz> - "Iste'dod" jamg'armasi sayti.
2. <http://www.yedunet.uz> - maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti.
3. www.ziyonet.uz - Ziyonet ta'lim axborot tarmog'i.

**TA'LIM JARAYONIGA INNOVATSION YONDOSHISHDA KASBIY
KOMPETENTLIKNING ROLI**

Saboat Orifova Yakubovna

Namangan VPYMO'MM katta o'qituvchisi

Ta'lim sifatini ta'minlash - pedagogning kasbiy tayyorgarlik darajasi bilan birga uning belgilangan sifat mezonlariga javob berishida ko'rinadi. Ushbu vazifa bir qator qonunchilik va me'yoriy hujjatlarda, xususan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollardan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish misolida aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ko'rsatma va tamoyillar ko'inishida o'z aksini topgan.

Hozirgi davrda ta'lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarining kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish oliy ta'lim tizimini

modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi.

Innovatsion jarayonlarning kechishi: Bu o'z navbatida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari sifatida ma'ruza (muammoli ma'ruza, ma'ruza-seminar, virtual-texnologik ma'ruza, vizual ma'ruza, binar ma'ruza, kirish ma'ruzasi, ma'ruza-konferentsiya, axborotli ma'ruza, ma'ruza bahs-munozara, sharhlovchi ma'ruza, on-Line ma'ruza) trening, videotrening, vebinarlar, internet konferentsiyalar, innovatsion o'qitish metodlari sifatida esa muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o'yinlar, o'quv loyihalari, portfoliolar, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya

texnologiyalaridan foydalanish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etishdagi yana bir muhim komponent - o'qituvchi, uning kasbiy kompetentligi va innovatsion faolligi hisoblanadi.

Kompetentlik (lat. competens) – faoliyat talablariga mos kelish, yaroqlilik, layoqatlilik. Mutaxassisning kasbiy kompetentligi – uning kasbiy tayyorgarligi va kasbiy yetuklikligini baholovchi me'yor.

Kasbiy kompetentlik tushunchasiga nisbatan ilmiy doirada turli munosabatlar ilgari suriladi. U mehnat sub'ektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan, sub'ektning aniq faoliyatning o'ziga xos jihatlariga nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qo'llaniladi.

Masalan, tadqiqotchi olim E.F. Zeer kasbiy kompetentlikning funksional taraqqiyotini tadqiq qilish kasbiy kamolotga erishish chog'ida kompetentlikning turli ko'rinishlari integratsiyalashib borishini va ularning kasbiy muhim shaxs sifatleri bilan aloqasi kuchayib borishini ko'rsatdi. Xususan, kasbiy kompetentlikning asosiy darajalariga kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o'zini o'zi anglash, o'z kuchiga ishonish, o'zga insonlar tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni to'g'ri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi shaxs xususiyatlarini kiritadi. Yuqorida qayd etilgan fikrlarni tahlili pedagogning kasbiy kompetentligini shaxsiy, ijtimoiy, kreativ, metodik kompetentlik kabi qator o'ziga xos xususiyatlar majmuasi sifatida to'liq izohlanishiga imkon beradi.

Pedagoglarni qayta tayyorlash va ularni malaka oshirish markazida ko'p yillik tajribamdan va kuzatishlarimdan kelib chiqib, o'qituvchilar orasida o'qituvchi uchun zarur bo'lgan asosiy sifatlardan: muomila madaniyati, nutqiy qobiliyat, sabrlik, tashabbuskorlik kabi xususiyatlarning yetishmasligini sezman. O'quv mashg'ulotlarida pedagoglardagi ana shunday sifatlarni rivojlantirish maqsadida psixologik trening mashqlaridan foydalanish juda yaxshi natijalar bermoqda. Quyida ana shunday mashqlardan na'munalar beramiz.

Pedagoglarni qayta tayyorlash va ularni malaka oshirish markazida ko'p yillik tajribamdan va kuzatishlarimdan kelib chiqib, o'qituvchilar orasida o'qituvchi uchun zarur bo'lgan asosiy sifatlardan: muomila madaniyati, nutqiy qobiliyat, sabrlik, tashabbuskorlik kabi xususiyatlarning yetishmasligini sezman. O'quv mashg'ulotlarida pedagoglardagi ana shunday sifatlarni rivojlantirish maqsadida psixologik trening mashqlaridan foydalanish juda yaxshi natijalar bermoqda. Quyida ana shunday mashqlardan na'munalar beramiz.

1. Past baho mashqi.

Maqsad: O'quvchilarga ruhiy ta'sir ko'rsatish ko'nikmasini rivojlantirish

O'tkazish qoidasi: O'qituvchilar o'quvchilarga past baho qo'yishi kerak. Buni navbat bilan har bir o'qituvchi aytib chiqadi. Har bir o'qituvchining ovoz ohangi o'quvchiga qanday ta'sir qilishini barcha qatnashchilar bilan birga taxlil qilinadi.

2. Emotsiya

Maqsad: O'qituvchilarni boshqalarni ruhiy holatlarini his qilishga o'rgatish.

O'tkazish qoidasi: O'qituvchilar ikki kishidan sheriklarga ajratiladi va har bir juftlik bir-biriga qarab navbat bilan yuzlarini turli xil emotsional holatga soladilar. Ular bir-birlarini hozirgi holatini topishlari kerak

3. Bolalik bilan so'zlashuv.

Maqsad: Bolalarni xis tuyg'ularini tushunishga o'rgatish

O'tkazish qoidasi: Qatnashchilarga shunday deyiladi: Tasavvur qiling siz bolaligingizdagi uydasiz. Ich-ichingizdan muhim uchrashuvga tayyorlanyapsiz. Xonangizdan asta hovliga chiqing, tashqarida bir bolaga ro'paro' keldingiz, bu o'zingizni bolaligingiz. Unga savollar bering va javob olishga urinib ko'ring.

4. Mening qiyin o'quvchim

Maqsad: Kam tajribali o'qituvchilarga yordam berish.

O'tkazish qoidasi: O'qituvchilar o'zlarining eng qiyin o'quvchilari, ularning tashqi ko'rinishi, darslarda o'zini tutishi, u bilan qiyin vaziyatlar vujudgakekgani haqida gapiradilar. Fikrlar birgalikda muxokama qilinadi.

5. Ohang mashqi

Maqsad: O'quvchilarni rag'batlantirish bo'yicha tajriba oshirish

O'tkazish qoidasi: O'qituvchilar navbat bilan o'quvchilarga maqtab (kompliment) gapiradigan gaplarni turli xil ko'rinishda gapiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.O'rinova – p.f n dotsent Farg'ona. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari.

Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi uchun ma'ruzalar matni.

3. www.uzedu.uz

4. http www lib. psixology.ru

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA 4K MODELI ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Shodiyeva Matluba Jo'rayevna

*Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasi mudiri
Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent*

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda 4K modeli asosida o'qitish metodikasini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, boshlang'ich ta'limda 4K modeli asosida o'qitish jarayonning innovativ sikli sifatida maqsad, o'qitish va baholashning korrelyatsiyasi batafsil keltirilgan.

Kalit so'zlar: inson kapitali, XXI asr ko'nikmalari, 4K modeli, o'qitish metodikasi, o'qitish va baholashning korrelyatsiyasi, Blum taksonomiyasi.

Bugungi bilimga asoslangan iqtisodiyot davrida asosiy e'tibor yosh avlodga ta'lim tizimining barcha bosqichlarida sifatli va zamonaviy ta'lim-tarbiya berishga, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlarini o'rgatish, yosh avlodning ham jismonan, ham ma'nan sog'lom bo'lishlarida, ularning milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatli vatanparvar insonlar bo'lib ulg'ayishlarida kuchli ijtimoiy himoya, sifatli ta'lim, zamonaviy bilim va tajribalar muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bilimga asoslangan iqtisodiyot va inson kapitalini rivojlantirish fenomenining ustuvorligi davrida bo'lajak kadrlarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, bilimga asoslangan iqtisodiyot va inson kapitalini rivojlantirish fenomenining ustuvorligi davrida bo'lajak kadrlarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XXI asr ko'nikmalari – bu XXI asrda jamiyat va ish faoliyatida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar, qobiliyatlar va sifatlarni o'z ichiga oladigan ko'nikmalardir.

XXI asr ko'nikmalarining har biri uchta toifadan biriga bo'lingan: ta'limiy ko'nikmalar; savodxonlik ko'nikmalari; hayotiy ko'nikmalar.

Ta'limiy ko'nikmalar (*Learning Skills*).

Ta'limiy ko'nikmalar (4K) o'quvchilarga zamonaviy ish muhitiga moslashish va yaxshilash uchun zarur bo'lgan aqliy jarayonlar haqida o'rgatadi. XXI asrning 4K ko'nikmalari quyidagilardan iborat:

Tanqidiy fikrlash: muammolarga yechim topish.

Ijodkorlik: cheksiz fikrlash.

Hamkorlik: boshqalar bilan ishlash.

Muloqot: boshqalar bilan gaplashish, ular bilan munosabat va aloqaga kirisha olish.

Savodxonlik ko'nikmalari (*Literacy Skills*).

Savodxonlik ko'nikmalari (IMT) o'quvchilar faktlarni, ma'lumotlarni va texnologiyalarni qanday ajrata olishlariga qaratilgan. Ishonchli manbalar va faktik ma'lumotlarni aniqlashga katta e'tibor qaratilib, uni internetni to'ldirib borayotgan noto'g'ri ma'lumotlardan ajratib turadi. Savodxonlik ko'nikmalari IT/texnologiya, o'qish va axborot, media ko'nikmalaridan iborat.

Hayotiy ko'nikmalar (*Life Skills*).

Hayotiy ko'nikmalar (FLIPS) o'quvchilarning kundalik hayotining nomoddiy elementlarini ko'rib chiqadi. Bu nomoddiy elementlar ham shaxsiy, ham kasbiy fazilatlariga qaratilgan. Hayotiy ko'nikmalar moslashuvchanlik, liderlik, tashabbuskorlik, mahsuldorlik, ijtimoiy ko'nikmalarni tashkil qiladi.

Bu ko'nikmalarning barchasi yuqori darajadagi fikrlashga asoslangan. Bu ko'nikmalarni qanday qilib egallash va eng muhimi bu ko'nikmalarga erishilganligini qanday qilib baholash mumkin? Tadqiqotchi F.R.Abdullayevning fikricha, XXI asr ko'nikmalariga erishilganligini baholashni amalga oshirishda XXI asrda muvaffaqiyatga erishish uchun mavjud bo'lgan malaka standartlarini (21st Century Success Skills Standarts, 21CSSS) ko'rib chiqish lozim, chunki bu malaka standartlaridan baholash uchun mezonlarni aniqlashtirib olishda foydalanish mumkin [1; 11-b.].

Bu standartlar o'quvchilarning maktabdan kasbiy faoliyatga muvaffaqiyatli o'tishlari uchun zarur bo'lgan asosiy shaxsiy fazilatlar, bilim va ko'nikmalarga qaratilgan. XXI asrda muvaffaqiyatga erishish uchun beshta standart mavjud bo'lib, ular quyidagilar [1; 12-b.]:

1-standart: shaxsiy muvaffaqiyatning o'ziga xos xususiyatlari.

2-standart: muammolarni hal qilish uchun ma'lumotlarni tadqiq qilish.

3-standart: tanqidiy fikrlash va axborotlar tahlilining obyektivligi.

4-standart: muammolarni o'zaro bo'g'lash orqali ularni hal qilish.

5-standart: boshqalar bilan muloqot qilish va hamkorlikda ishlash.

Har bir standart o'quvchilarning muvaffaqiyatli deb topilishi uchun erishishi kerak bo'lgan asosiy maqsadlarni o'z ichiga oladi. Ushbu standartlar va maqsadlar XXI asr muvaffaqiyati ko'nikmalari imtihonida o'quvchilar bilishi kerak bo'lgan talablarning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'limda 4K modeli asosida o'qitish metodikasini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, mazkur jarayonning innovativ sikli bu – **maqsad, o'qitish va baholashning korrelyatsiyasidir.**

Bunda **maqsad** aniq belgilanishi va maqsadga erishilganlik darajasini natijani baholash orqali aniqlash mumkin bo'lib, bu o'qitish jarayonida amalga oshadi.

“4K” modeli asosida *o‘qitish*ning asosiy metodlari:

1. Muloqot.
2. Hamkorlik.
3. Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish.
4. Ijodkorlik va innovatsiya.

Bunda o‘quvchilarda tanqidiy, ijodiy fikrlash ko‘nikmalari, jamoada ishlay olish, muloqotga kirisha olish, insonlar bilan aloqa o‘rnata olish ko‘nikmalarini shakllantirishga doir o‘quv topshiriqlarini qo‘llash va ushbu topshiriqlar asosida *baholash* jarayonlarini tashkil etish o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat ko‘zlangan natijani erishish imkonini beradi.

Pedagogik kuzatuvlar boshlang‘ich ta‘limda 4K modeli asosida o‘qitish jarayonini loyihalashda Blum taksonomiyasi asosida baholash topshiriqlarini tuzishning samaradorligini ko‘rsatdi.



1-rasm. Blum taksonomiyasi asosida baholash topshiriqlarini tuzish

Mazkur jarayonda o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini muqobil, integratsiyalashgan, texnologik, samaradorlikka asoslangan baholash turlari orqali maqsadli va muvaffaqiyatli baholash ko‘zlangan natijalarga erishish imkonini beradi.

Alternative assessments (AA). Muqobil baholash – bu o‘quvchilarning muvaffaqiyatini o‘lchash uchun ko‘pincha ishlatiladigan an’anaviy yoki standartlashtirilgan testlardan farq qiladigan baholash. Ular XXI asr ko‘nikmalarining xilma-xilligi, murakkabligi va o‘ziga xosligini qamrab olish uchun mo‘ljallangan. Ular o‘quvchilarning qiziqishlari va kuchli tomonlariga asoslangan baholashlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Integrated assessments (IA). Integratsiyalashgan baholash – bu 21-asr ko‘nikmalarini o‘lchash uchun bir nechta usul yoki vositalarni birlashtiradigan yoki moslashtiradigan baholashdir. Ular yagona yoki alohida baholashning cheklovlari yoki biryoqlamalikni yengib o‘tishga yordam beradi va o‘quvchilarning 21-asr ko‘nikmalari qanchalik egallaganliklarining yanada kengroq va yaxlit tasvirini beradi.

Technology-enhanced assessments (TEA). Texnologik takomillashtirilgan baholash – bu 21-asr ko‘nikmalarini o‘lchash uchun raqamli vositalar va platformalardan foydalanadigan baholashdir.

Performance-based assessment (PBA). Samaradorlikka asoslangan baholash – bu o‘quvchilardan o‘zlarining 21-asr ko‘nikmalarini haqiqiy yoki simulyatsiya qilingan vaziyatlarda namoyish etishlarini talab qiladigan vazifalar yoki loyihalar.

Ular og‘zaki taqdimotlar, portfellar va insholardan tortib, simulyatsiyalar, o‘yinlar va raqamli artefaktlargacha bo‘lishi mumkin.

Bunday baholash o‘quvchilarga o‘zlarining tushunish, ijodkorlik va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini an’anaviy testlar qila olmaydigan usullarda ko‘rsatishga imkon beradi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, “4K” modeli asosida o‘qitishning strategik afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. O‘zaro maqsadlarni aniqlash. Samarali ish olib borish uchun avvalo maqsadlarni aniqlash va shaxsiy mas’uliyatni oshirish zarur. Topshiriqni bajarishdan oldin maqsad va vazifalar aniqlansa, vaqt rejalashtirish oson bo‘ladi. Natijada maqsadga erishiladi.

2. Vizual. Bu sinfda berilgan bilimlarni diagrammalar, jadvallar, rasmlar shaklda qayta ishlash, umumlashtirish uchun foydali usul. O‘quvchilar ma’lumotni vizual vositalar orqali qabul qilsalar, ular oldingi o‘rganilgan ma’lumotlarni ham, yangi ma’lumotlarni ham uzoq vaqt davomida saqlab qolish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

3. Jamoviy ishlash. Tadqiqotlarni hamkorlikda o‘rganish alohida o‘qitish kabi guruh interaktivligiga ta’sir qiladi. Interaktivlik va muzokaralar guruh o‘rganishida muhimdir. Guruh bo‘lib ishlash, o‘quvchilarni hamkorlikka va o‘z fikrni erkin bayon etishga chorlaydi.

4. Savollarga asoslangan o‘qitish. O‘quvchilarni ko‘p savol berishga undash samarali o‘qitish strategiyasi bo‘lib, u nafaqat o‘quvchilarni amaliy fikrlashga undaydi, balki ularni mustaqil fikrlashiga imkoniyat yaratadi. O‘quvchilarni savollar berishda har qanday muammoni hal qilish uchun bir birlari bilan ishlashga munozaralar o‘tkazishga, tahlil qilishga o‘rgatadi.

5. Texnologiyalar hamkorlikni osonlashtiradi. Hamkorlik insonlar orasidagi axborot almashish jarayonini osonlashtiradi, o‘rganish imkoniyatlarini oshiradi.

6. Muammolarni hal qilish va kritik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor berish. Muammolar turlarini tanishtirish, rejalashtirish, bir nechta perspektivani olish yoki yechimlarni yaratish mumkin. Muammolarni hal qilish uchun bosqichma-bosqich ishlash lozim.

XXI asr ko'nikmalarni o'qituvchilar, avvalo, mavzular asosida rivojlantirish, kutilayotgan o'zgarishlarni oldindan bashoratlash, yuzaga keladigan kasblar dunyosini anglash, shunga mos bilimlarni o'zlashtirish, o'quv-tarbiya jarayonida sifat ko'rsatkichlariga erishishga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayev F.R. (2023). O'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarining shakllanganligini baholash // *Pedagogik va psixologik tadqiqotlar*, 1(1), 10–17. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7548737>
2. Trilling, Bernie and Fadel, Charles: *21st Century Skills: Learning for Life in Our Times*, Jossey-Bass (publisher), 2009. ISBN 978-0-470-55362-6. Retrieved 2016-03-13
3. Shodiyeva M.J. Akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish: ped.fanl.dokt. diss... (DSc). – T.: 2022, – 386 b.
4. Международная конференция по образованию взрослых CONFINTEA VI [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.unesco.org/ru/confinteavi> (дата обращения: 14.09.2017).
5. <https://www.icevonline.com/blog/what-are-21st-century-skills>

OILA - JAMIYATNING AZALIY USTUNI

Akramova Feruza Akmalovna

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti, Umumiy psixologiya kafedrası, psixologiya fanlari doktori, professor

Ma'lumki, nikohga va yaqin qarindoshlikka asoslangan axloqiy mas'uliyat, o'zaro hurmat, tushunish va mehr-muhabbat umumiyliги bilan bog'langan kichik ijtimoiy guruhni oila deyiladi. Oila boshqa turdagi kichik guruhlardan o'zining bir qator jihatlari bilan ajralib turadi: oila ko'p muddatga, ya'ni bir necha o'n yillar va ko'p yillarga mavjud bo'ladi; oilada shaxslararo munosabatlarning bir necha turlari amalga oshadi, ya'ni milliy mafkuramizga oid ilk tushunchalar avvalo oila muhitida singadi va bu jarayon bobolar o'giti, ota ibрати, ona mehri orqali amalga oshadi; oiladagi barcha munosabatlar zaminida shaxs yoki yaxshi shakllanishi va komil inson darajasiga yetishi yoki tarbiyasi og'ir, xulqi buzuq odam bo'lib tarbiyalanishi mumkin. Hayotimizning yarmidan ko'pini qamrab oladigan, chinakam, to'laqonli insoniy baxtni in'om etadigan yoki, aksincha, har tomonlama ta'minlanganligimizga qaramasdan, bizning baxtimizni yarimta qiladigan ham oilaviy hayotdir.

Jahonda inson hayotida muhim o'rin tutuvchi oila-nikoh, oilaviy qadriyatlar, oiladagi ijtimoiy-psixologik muhit bilan nizolarning kelib chiqishi masalalari ilmiy jamoatchilik diqqat markazidagi eng dolzarb mavzulardandir.

Oila – nafaqat bir yurtning, balki umuminsoniyatning katta siyosati. Aytish kerakki – davlat siyosati. Nega deganda, bashariyatning tirikligi, uzluksizligi – oiladan!

Bordi-yu oila tuzuk bo'lmasa, tarbiyaga ham e'tibor berilmasa, qancha buyuk bo'lsa ham, bunday millat dunyoda uzoq yashay olmaydi. Buni

donishmandlar ko'p ta'kidlashgan: "Millatlar sharafini yuqori martabaga ko'taradigan narsa millionlar ila sanaladigan askarlar-u, dunyoda eng buyuk va zo'r bo'lgan kemalar emas, balki eng oz e'tibor beradiganimiz yo bo'lmasa, hech bir zamon e'tibor bermasdan qoladiganimiz – oiladir. Oila nizomsiz bo'lsa, uning yomon oqibati butun millatga ta'sir etadi va shu sababdan fazilat yeriga razolat, taraqqiyot o'rnini tubanlik negiz quradi... Agar bir millatga bunday hol ro'baro' kelsa, u millat kitobining so'nggi varag'i osiladi"

Haqiqatdan har bir inson dastavval, oilada o'rin topolmasa– jamiyatda o'rin topishi qiyin, oilada qadr topolmasa – jamiyatda qadrlanishi dargumon; oilada mehribonlik ko'rmasa, oilada mehrsiz ulg'aysa jamiyatda ham begonalarday yashaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining 47/237 Rezolyutsiyasi bilan 1993 yilda har yili 15 mayni «Xalqaro oila kuni» sifatida nishonlash ye'lon qilinganligi oilaning dunyo miqyosida beqiyos va boqiy ijtimoiy tuzilma ekanligi, oilaning barbod bo'lishi xolatlarining qayd yetilish darajasi ortib borayotgan sharoitda oila institutini mustahkamlash uchun oilaga psixologik xizmatni olib borish masalasini alohida amaliy, konstruktiv hamda yangicha yondashuv orqali yechimlarini topishni davr taqazo yetmoqda.

Qadim zamonlardan boshlab oila, undagi munosabatlar masalalari donishmand, olim, mutafakkirlari tomonidan o'rganilib kelinganligini va ularning qarashlarida bu masalalarning yoritilganligini kuzatamiz.

Sharqning buyuk allomalari hisoblangan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Mahmud Koshg'ariy, Kaykovus, Xotam Ibn Toy va boshqalar asarlarida oila va oilaviy munosabatlarga alohida e'tibor berilgan. Ular shaxs tarbiyasi va kamolotida oila, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo'yishgan, ayniqsa, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ota-ona va yaqin kishilarning yo'naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e'tibor berganlar. Ular faqat oiladagina rivojlanishi mumkin bo'lgan sifatlar - halollik, poklik, mardliq, mehribonlik, xaqgo'ylik kabi qator fazilatlarini barcha sifatlardan yuqori qo'yishlari bilan birga insondagi insoniy munosabatlarda namoyon bo'ladigan yuksak fazilatlar, avvalo, ota-onadan bolaga o'tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'siri kabi qimmatli fikrlarni o'z falsafiy-etik, psixologik qarashlarida ifodalab berganlar.

O'rta asrlarning buyuk olim-entsiklopedisti Abu Rayhon Beruniy "Minerologiya" asarida bir qator tushunchalarni yoshlarga o'rgatish orqali oila muhitiga tayyorlab borish, "ozodalik va orastalik olijanoblikning o'zagi" bo'lishi, insonning tashqi yoqimli qiyofasi bilan uning axloqiy qiyofasi o'rtasida bog'liqlik mavjudligi, "tishni yuvib, ko'z va qovoqlarni toza tutish, ularga surma qo'yish, sochni esa zarur bo'lganda bo'yab, tirnoqlarni olib turish va silliqlash" inson salomatligi va ruhiy pokligining asosi ekanligi, insonning tashqi yoqimli qiyofasi bilan uning axloqiy qiyofasi o'rtasidagi o'zaro uzviylikni uqtiradi. [3; 10-b.].

Oilaviy munosabatlar tizimi qonun-qoidalari alloma Abu Ali Ibn Sinoning oila

"Tadbiri manzil" asarida o'ziga xos tarzda bayon etilgan. Oila boshlig'i, deb yozadi u, ham nazariy, ham amaliy jihatdan oilada tarbiya masalalarini mukammal

o'zlashtirmog'i lozim. Yomon tarbiya nafaqat ushbu oila, balki qo'shnilarga, mahalla-kuyga ham yomon ta'sir qilishi mumkin. Ota-ona davlat boshlig'imi, yoki oddiy fuqaromi, u bola tarbiyasi borasida mas'uldir. Ibn Sinoning fikricha, tarbiyachi, ya'ni ota-ona "nafaqat so'z bilan, balki amalda ham bola ruhiga ta'sir ko'rsatmog'i lozim". [2; 44-b.].

Ibn Sino yigit kishini oilaga tayyorligi uning iqtisodiy yetukligi bilan belgilanishini asoslaydi: "Yosh yigit biror hunarni o'rgansa, uni hayotda tadbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta'minlaydigan bo'lsagina, otasi uni uylantirib qo'ymog'i lozim".

XI asrning buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Xojib "Qutadg'u bilig" – "Saodatga boshlovchi bilim" - kitobida oilaviy hayotga oid qarashlarini bayon etadi. Uning fikricha, farzand ko'rish va unga tarbiya berish ota-onaga juda katta mas'uliyat yuklaydiki, uning uddasidan chiqmoq, har bir ota-ona uchun ham farz, ham qarzdir. Yusuf Xos Xojib oilaviy tarbiyani bola axloqiy taraqqiyotining asosi, deb hisoblagan: "Agap bolaning xulqi yomon bo'lsa, bunda bolaning aybi yo'q, hamma ayb – otasida". [5; 163-b.].

"Yigit uylanmasdan avval kelinning kimligini, uning kelib chiqishi, xarakteri va xulq-atvorini bilishi kerak", - deydi u. Bu fikr va ko'rsatmalar ota-onalar uchun, ayniqsa, nikoh qurish yoshidagi yigit-qizlarni tarbiyalanishida muhim dasturdir.

Sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlarida qayd etilgan keltirilgan fikrlar yoshlarning yaxshi oila qurishi va baxtli yashashi uchun zarur dastrulamalar bo'la oladi.

Har bir oila ijtimoiy tizim struktura sifatida jamiyat oldida ma'lum bir funktsiyalarni bajaradi. Oilaning ijtimoiy funktsiyalari haqida gapirganda, bir tomondan jamiyatning oilaga ta'sirini, ikkinchi tomondan esa umumiy ijtimoiy tizimda oilaning o'rnini, oilaning hal qiladigan ijtimoiy (jamoatchilik) funktsiyalarini hisobga olish lozim. Bular: iqtisodiy, reproduktiv, boshqaruv, tarbiyaviy, ma'naviy, rekreativ, kommunikativ, regulyativ, felitsitologik va boshqalar).

Oilada bajariladigan bu muhim vazifalarning mohiyati va shaxsga ta'siri masalalari Sharq allomalaridan Yusuf Xos Hojib, Abu Ali Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Axmad Donish va boshqalar o'z asarlarida yozib qoldirganlar.

Albatta, oilaning ijtimoiy tizim sifatida jamiyat oldidagi asosiy funktsiyalarini ayrim manbalarda: naslni davom ettirish, tarbiyaviy, xo'jalik va o'zaro yordam funktsiyalari sifatida ko'rsatib o'tilgan, sotsiolog olimlar (U.M.Sverdlov, V.A.Ryasentsov, V.P.Klyuchnikov) esa inson zotini davom ettirish, bolalarni tarbiyalash va xo'jalik funktsiyalarini farqlaydi; S.D.Laptenok xo'jalik-maishiy, aholi sonini qayta tiklash, tarbiyaviy va oila a'zolari dam olishi - hordig'ini tashkil etish; N.G.Yurkevich - ma'naviy muloqot, seksual, bolalarni dunyoga keltirish, tarbiya jarayonidagi hamkorlik, uy xo'jaligini yuritish uchun zarur vositalarni ta'minlash, dam olishni tashkil qilish, o'zaro moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash; A.G.Xarchev - aholi sonini qayta tiklash, ijtimoiylashuv, xo'jalik, iste'mol va dam olishni tashkil qilish kabilarni farqlaydi. Mana yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, qator oilashunos mutaxassislar tomonidan

oilaning asosiy funksiyalari turlicha klassifikatsiya qilinmokda. Bu o'rinda oila funksiyalarini shunchaki sanab o'tish emas, balki ularni bir tomondan odamlarning moddiy, xo'jalik-maishiy va ikkinchi tomondan emotsional va ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarini qondiruvchi funksiyalarga farqlash muhim.

Shuni ham aytib o'tish joizki, hozirgi zamon oilasida emotsional va ijtimoiy-psixologik jarayonlarni qondirish funksiyasining ahamiyati ortib bormoqda. Hatto sof moddiy xarakterga ega bo'lgan funksiyalarda ham hissiylik ko'proq tus olib bormoqda. Hissiy, emotsional aloqalarning ahamiyati shahar oilalarida kuchliroq anglanmoqda. Qishloq oilalari esa uy hayvonlari va tomorqa yerlarining borligi evaziga shahar oilalariga qaraganda jamiyatning ishlab chiqaruvchi bo'g'iniligini, ishlab chiqaruvchilik funksiyasini ko'proq saqlab qolmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Абу Али Ибн Сино. Тадбири манзил. – Т.: 1957. – Б. 44.
2. Акрамова Ф.А. Ўзбекистонда oilaviy psixologik xizmatning ijtimoiy-psixologik muammolari: Монография. –Т.: «Lesson-press» нашриёти, 2021 й. – 178 б. [ISBN 978-9943-7024-5-5]
2. Акрамова Ф.А. Oilaviy psixologik xizmat: хориж тажрибасининг Ўзбекистон таълимидаги имкониятлари // Замоनावий таълим 2020 № 8, Б.94-101.
3. Akramova F.A. Oz'bekistonda oilaviy psixologik xizmatning asosiy muammolari // Maktab va hayot, 2020 № 6. В.7-9.
4. Акрамова Ф.А. Основные проблемы проведения психологической службы семьям // ТДПУ илмий ахборотлари 2021. № 2, Б. 89-93.
5. Акрамова Ф.А. Oilага хизмат кўрсатиш – oilа мустақкамлигини таъминловчи муҳим омил сифатида. // Pedagogika, № 4 2021. Б.22-26.
6. Акрамова Ф.А. Oilага психологик хизмат кўрсатиш долзарб муаммо сифатида. // Замоनावий таълим, 2021 № 11. В.64-71.(19.00.00. № 8).
7. Беруни Абу Райхан. Минерология. – Т.: «Фан», 1966. – Б. 10.
8. Oilа психологияси: Акад. лицей ва касб-хунар коллежлари ўқитувчилари учун ўқув кўл. / Ф.Б. Шоумаров ва бошқ. – Т.: «Шарқ», 2007. – 296 б.
9. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Т.: «Фан», 1972. – Б. 163.

MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARI BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARI NUTQINI O'STIRISH VOSITASI SIFATIDA

Artikova Nozima Muxiddin qizi

Guliston davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim uslubi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Multimedia – bugungi kunda axborot taqdim etishning yagona va zamonaviy shakli hisoblanadi. Ushbu maqolada multimedia vositalari orqali bolalar nutqini o'stirishning samarali yo'llari haqida ma'lumot va tavsiyalar berilgan.

Kalit soʻzlar: Multimedia vositalari, nutq oʻstirish, video, grafika, zamonaviy axborot texnologiyalari, interfaollik, soʻz, soʻz birikmasi, gap, elektron ensiklopediyalar internet.

Oʻzbekiston taʼlim-tarbiya jarayonida multimedia vositalarini qoʻllash tajribasi shakllanib bormoqda. Taraqqiy etib borayotgan zamonaviy texnika va texnologiyalar jamiyatimizda ijtimoiy rivojlanishning asosini belgilovchi anʼanaviy imkoniyatlar bilan bir qatorda insonlarning qobiliyati, tashabbuskorligini ishga ijodiy yondashish, intellektual faoliyati, mustaqil ravishda oʻz bilim va koʻnikmalarini takomillashtirishi kabi omillar tashkil etadi.

Multimedia vositalari (multimedia – koʻpvositalilik) – bu insonga oʻzi uchun tabiiy muhit: Tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqotda boʻlishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir.

Multimedia gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi:

- axborotning xilma-xil turlari: anʼanaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalar) turlarini bir dasturiy maxsulotda integratsiyalaydi. Bunda integratsiya axborotni roʻyxatdan oʻtkazish va aks ettirishning turli qurilmalari: mikrafon, audio-tizimlar, optik kompaktdisklar, televizor, videomagnitafon, videokamera, electron musiqiy asboblardan foydalanilgan holda kompyuter boshqaruvida bajariladi;

- muayyan vaqtdagi ish, oʻz tabiatiga koʻra statik boʻlgan matn va grafikadan farqli ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning maʼlum oraligʻida koʻrib chiqiladi. Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy protsessor tez harakatchanligi, maʼlumotlarni uzatish shinasining oʻtkazish qobiliyati, operativ va video-xotira katta sigʻimli tashqi xotira, hajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari boʻyicha almashuv tezligini taxmiman ikki baravar oshirilishi talab etiladi;

- „inson-kompyuter“ interaktiv muloqotining yangi darajasi, bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va har tomomlana axborotlarni oladiki, mazkur holat taʼlim, taʼlim jarayonida tasavvurlari kengayadi va nutqining yaxshilanishiga imkon beradi.

Maʼlumot taqdim etishning boshqa shakllaridan farqli ravishda multimediali taqdimot bir necha oʻn minglab sahifa matn, minglab rasm va tasvirlar, bir necha soatga choʻziladigan audio va video yozuvlar, animatsiya va uch oʻlchamli grafikalarini oʻz ichiga olgan boʻlishiga qaramay, koʻpaytirish xarajatlarining kamligini va saqlash muddatining uzoqligini taʼminlaydi.

Boshlangʻich sinflardan boshlab oʻquvchilar oʻz fikrini erkin, toʻgʻri ifodalashga oʻrgatish jamiyat uchun ham, psixologik va metodik jihatdan ham juda muhim boʻlib, hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Nutq-kishi faoliyatining turi, til vositalari (soʻz, soʻz birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq oʻzaro aloqa va xabar funksiyasini, oʻzaro fikrni his-hayajon bilan ifodalash va taʼsir etish vazifasini bajaradi. Oʻquvchi uchun nutq maktabda mavafaqiyatli taʼlim olish qurolidir.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1.Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki yoki yozma bayon qilishi va zaruriyatni yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2.Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi.

3.Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmasi, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvafaqiyatli o'stirish-nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

Professor S.Matchanov boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinishi lozimligini uqtiradi:

1.O'quvchilar nutqi mazmundor bo'lsin.

2.Nutqda mantiqiylik bo'lsin.

3.Nutq aniq bo'lsin.

4.Nutq til vositalariga boy bo'lsin.

5.Nutq tushunarli bo'lsin.

6.Nutq ifodali bo'lsin.

7.Nutq to'g'ri bo'lsin.

8.Nutq madaniyatli bo'lsin.

Quyi sinflarda o'quvchilarga o'qish, yozish, og'zaki va yozma nutqdan foydalanish kabi ko'nikmalar o'rgatiladi, bu esa aniq nutqiy ko'nikma va malakalarni, ya'ni nutqiy faoliyat turlarini shakllantirishdan iborat. M.R.Lvov tomonidan taqdim etilgan nutq faoliyatining to'rt asosiy turi mavjud:

1.Tinglash – tovushli nutqni tinglash va tushunish jarayoni. Bu tur quyidagi omillarga bog'liq: auditorning individual psixologik va shaxsiy imkoniyatlar,aqliy jarayonlarning rivojlanishi (xotira va e'tibor).

2. So'zlash – o'quvchilarning og'zaki nutqda o'z fikrlarini to'g'ri, ravon va mantiqiy ifodalay olishi, shuningdek, suhbatdoshga tushunarli bo'lgan so'z va iboralarni tanlay olish, fikr yuritish uchun ma'lum joylarda to'xtab turish, ular o'z fikrini to'g'ri va mantiqiy ifoda eta olishi.

3.O'qish – tezlik, o'qilgan narsalarni to'liq o'zlashtirish.

4.Harf – fikrning grafik koddagi ifodasidir.

U yoki bu darajada nutq faoliyatining barcha turlari darslarning katta qismi mazmuniga kiritilgan, busiz nutqni rivojlantirish jarayoni amalda mumkin emas. Shuning uchun har bir o'qituvchi u yoki bu tarzda o'quvchilar nutqini rivojlantirish bilan shug'ullanadi.

Boshlang'ich sinflarda zamonaviy yondashuvlar asosida multimedia vositalaridan foydalanib darslarni o'tish, hozirgi xorijiy tajriba asosidagi yangi avlod darsliklariga ham multimedia vositalaridan foydalanib o'quvchilar nutqini o'stirish usullari va shakllari kiritib borilsa samarali natijaga erishamiz.

Multimedia vositalarining eng muhim xususiyati interfaollik – axborot muhiti ishlashida foydalanuvchiga ta'sir o'tkaza olishga qodirligi hisoblanadi. So'ngi yillar davomida ko'plab multimediali dasturiy mahsulotlar yaratildi va

yaratilmoqda: ensiklopediyalar, o'rgatuvchi dasturlar, kompyuter taqdimotlari va boshqalar.

Elektron ensiklopediyalar orqali berilgan ma'lumotlarni boshlang'ich sinf o'quvchilariga namoyish qildirsak, ular berilgan ma'lumotlarni ham eshitib, ham ko'rib xotiralarida saqlaydilar va bu ma'lumotlarni ko'rish orqali tasavvurga ega bo'ladilar. Ko'rgan va eshitgan ma'lumotlarini ko'z oldiga keltirib, bu ma'lumotlarni takror aytib berishadi, boshqalarga ham aytib berishadi. Bunda ularning nutq madaniyati yanada takomillashadi. Keltirilgan nazariy ma'lumotlarni jamlagan holda shuni aytish mumkinki, bolalar nutqini o'stirishda multimedia vositalaridan foydalanishning ta'lim jarayonlariga joriy etilishi ikki jihatdan muhim sanaladi:

1. Pedagogik:

- o'qish, tushunish, tushuntirish, tahlil kabi o'quvchi xususiy kompetensiyalarini shakllantiradi;

- ular dars mobaynida o'qituvchi uchun „pedagogik yordamchi“ vazifasini bajaradi:

- past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning tafakkuridagi bo'shliqlarni ko'rgazmalilik va ko'rsatmalilik tamoyillariga asosan to'ldirib boradi;

- ular yordamida tayyorlangan turli lug'atlar o'quvchiga istalgan vaqtda yordam beradi;

2. Psixologik:

- tayyorlangan zamonaviy axborot texnologiyalari safiga kiruvchi multimedia vositalarini qo'llash bolalarning yosh xususiyatlariga to'g'ri keladi;

- dars davomida ularning diqqatini jalb qilishda ahamiyatli;

- bolalarning xarakter xususiyatiga ko'ra o'yin texnologiyalarini qo'llash o'rinli.

Zamonaviy ta'limning tarkibiy qismiga aylanib ulgurgan internet tarmog'i bilan ishlash malakasi ham pedagoglar uchun ahamiyatli. Dars jarayonida dars sifatini oshiruvchi jihozlar sifatida ko'p ko'zga tashlanayotgan kompyuter tizimlari, yangi metodlar, taqdimotlar multimedia vositalari o'quvchilar nutqini o'stiribgina qolmay, ularning tafakkuri va fikrlash qobiliyatini ham o'stirar ekan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Rasulova N.N. Bola gapirishni o'rganadi//Vestnik nauki i obrazovaniya, 2022y 154 b

2. Dilova N.G. O'quvchilar shaxsiy sifatleri – pedagogik hamkorlikning dastlabki tamoyili. 2021y. 558-566 betlar.

3. D.R. Babayeva “Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi” T.: “Barkamol avlod fayz” 2018y. Darslik. - 432 b

4. R.X. Alimov, O'.T. Xayitmatov, A.F. Xakimov, U.A. Otajanov. Axborot tizimlari va texnologiyalari. Toshkent 2013.

www.ieteouneil.gov.uz

znano.ru/media/multimedianing_tushunchalari

2-SHO‘BA. ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTERFAOL DARSLARNI TASHKIL ETISH

BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Kulaxmetova Mavlyuda Pulatovna

*Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va
maxsus ta‘lim metodikalari kafedراسi katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida didaktik O‘yin ularning eng sevimli mashg‘uloti bo‘lib, ular har qanday mashg‘ulotni o‘yin bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilishi va o‘yinlardan misollar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, ona tili, tinch o‘yinlar, harakatli o‘yinlar; aralash turdagi o‘yinlar. musobaqa o‘yinlari; sahna o‘yinlari.

Boshlang‘ich ta‘lim – shaxs shakllanishi davrining eng muhim bosqichi. Bu davr bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo‘lgani uchun ham nozik e‘tibor talab etadi. Ayni shu pallada bola o‘zida “o‘quvchi shaxsi”ni yaratadi, maktabga va ta‘lim olishga nisbatan qiziqishni, mehrni tuyadi, ilm yo‘lidagi kelgusi natijalar uchun kuch to‘plashni boshlaydi. Bu esa, zamonaviy pedagogika oldidagi doimiy va murakkab masala sifatida darsliklarning g‘oyaviy, tarbiyaviy va ma‘rifiy saviyasiga jiddiy yondashishni talab etadi.

Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o‘qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Bugungi kunda o‘quvchilarda zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishning asosiy maqsadi – yosh avlodni har tomonlama yetuk, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan barkamol insonlar etib shakllantirishdir.

Maktab ostonasiga ilk qadam qo‘yib boshlang‘ich sinfga qabul qilingan bolaning faoliyatida o‘yin asosiy o‘rinni egallaydi. O‘yin ularning eng sevimli mashg‘uloti bo‘lib, ular har qanday mashg‘ulotni o‘yin bilan uyg‘unlashtirishga harakat qiladilar.

Shunday ekan, o‘qituvchi o‘quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg‘uloti-o‘yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvoffiq foydalanish bilan talim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Ta‘lim jarayonida qo‘llaniladigan didaktik o‘yinlarni biz mazmuniga va amalga oshirish shakliga ko‘ra **ikki xil** tasnif qilamiz:

1. Mazmuniga ko‘ra.
2. Amalga oshirish shakliga ko‘ra.

1. **Mazmuniga ko‘ra** didaktik o‘yinlar quyidagi turlarga bo‘linadi: tinch o‘yinlar; harakatli o‘yinlar; aralash turdagi o‘yinlar.

2. **Shakliga ko‘ra** didaktik o‘yinlar quyidagi turlarga bo‘linadi: musobaqa o‘yinlari; sahna o‘yinlari.

Ona tili darslarida qo‘llash uchun tavsiya qilinayotgan didaktik o‘yinlardan foydalanishda qat‘iy chegara mavjud bo‘lmay, boshqa yuqori sinflarga ham moslashtirib foydalanish mumkin.

Tinch o‘yinlarga quyidagilarni kiritish mumkin: ”O‘zim tekshiraman”, ”Hikoya,” «U kim, bu nima?”, ”Topag‘on”, ”Noto‘g‘ri jumla”, ”Bo‘lishi mumkin emas”, ”Harflarni top”, ”O‘qib ko‘r-chi”, ”Davom ettir”, ”Safar”, ”Sirli so‘z”, ”Zanjir”, ”O‘yin – topishmoq”, ”Bu meniki”, ”Tez javob”, ”Rebus”, ”Krossvord» Pedagogik amaliyot jarayonida qo‘llanilgan ushbu o‘yinlarning ayrimlaridan misollar keltiramiz.

”**Hikoya**” o‘yinida, o‘qituvchi doskaga bir nechta so‘z yozib qo‘yadi. O‘quvchilar mustaqil ravishda shu so‘zlar ishtirokida hikoya tuzadilar.

Hikoya tuzish jarayonida o‘quvchilarning lug‘at boyligi ortishi bilan birgalikda, gaplarni to‘g‘ri tuzish, tovushlarni to‘g‘ri tashkil qilish va mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi.

O‘quvchilarning vaqt-vaqti bilan rag‘batlantirish ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini orttiradi. Bu o‘yindan ona tili darslarida yoki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda, to‘garaklarda foydalanish mumkin.









1-variant: Nafisa, soat, yomg‘ir, kitob.

2-variant: Olma, kasal, o‘rtoq, Abduvali.

3-variant: Mushuk, bobo, poliz, non, sichqon.

”**Davom ettir**” o‘yinida, o‘qituvchi hikoyani boshlab beradi. O‘quvchilar uni davom ettiradilar. Bunda o‘quvchilarda ijodkorlik qobiliyati rivojlanib, bayon yoki insho kabi ijodiy ishlar yozish malakasi rivojlanadi va so‘z boyligi ortadi. Bundan tashqari, ularda mustaqillik, o‘z kuchiga ishonch hissi rivojlanadi.

”**Davom ettir**” o‘yinida ona tili, o‘qish darslarida yoki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda foydalanish mumkin.

Ch	+			Ch	+		Chelak
D	+			D	+		Darcha
Ch	+			Ch	+		Chit
Ch	+			Ch	+		Choy

1-variant: “Umida barvaqt maktabga kelayotganida yo‘lda...”.

2-variant: “Havo ilib, qorlar erib boshladi...”.

3-variant: “Biz sinfimizdagi barcha o‘quvchilar, hayvonot bog‘iga bordik...”.

”**U nima qilyapti**” o‘yinida, o‘quvchilardan biri bolalar oldiga chiqib harakat qiladi. O‘quvchilar jamoasi birgalikda uning harakatlarini izohlab berishlari lozim. Bunday o‘yin va ona tili darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirish, ziyraklik va zeriktirmaslik uchun o‘tkaziladi.

”**Quruvchi**” o‘yini o‘quvchilarni guruhlariga bo‘lib, darsda o‘tilgan mavzuni yoki yangi mavzuni mustahkamlash qismida yoki darsdan tashqari vaqtda o‘tkazilishi mumkin. O‘qituvchi avvaldan darsga tayyorgarlik ko‘rib, qog‘ozdan yoki penoplast bo‘lakchalaridan “g‘ishtchalar” yasaydi va bu “g‘ishtchalarga” savol yozilgan qog‘ozchalarni yopishtirib chiqadi. “g‘ishtchalar” soni o‘quvchilar soniga teng yoki ko‘p bo‘lishi kerak, guruhlariga “minora” yoki “devor” qurishlari uchun joy ajratiladi. Har bir guruhdan bittadan bola chiqadi va “g‘ishtcha” ni olib

savolni o'qiydi. Agar savolga bolalar to'g'ri javob topsalar o'zlarining "maydoncha" lariga "g'isht" ni teradilar. Agar noto'g'ri javob bersalar, o'qituvchi "g'ishtcha" ni olib qo'yadi. O'yin shu tahlidda barcha o'quvchilar bittadan "gishtcha" olib bo'lgunlarga qadar davom etadi. "Qurilish maydonchasi" da eng ko'p g'isht tergan o'quvchilar guruhi g'olib hisoblanadi.

Aralash tipdagi o'yinlarga quyidagilar kiradi: "Nima yo'qolib qoldi", "Pochtachi", "Kun va tun", "Qarmoq", "Meni tushun", "Iztopar", "So'z o'yini", "Xat", "kinniki", "Izma-iz".

Ka			
Qu			
So			
Bu			

Ka			
Qu			
So			
Bu			

"Nima yo'qolib qoldi" o'yinida, stol ustida bir necha yoki alohida buyumlar sur'ati tushirilgan kartochkalar joylashtiriladi. O'quvchilar stol ustini yaxshilab kuzatib, narsalarni eslab qoladilar. Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga bildirmasdan ularning bittasini olib qo'yadi. O'quvchilar stol ustidan nima yo'qolib qolganini topishlari lozim. Bu o'yindan darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkin.

So'z o'yini: o'quvchilar guruhlarga yoki qatorlarga ajratiladi. Har bir guruh boshidagi o'quvchiga har xil harf yozilgan qog'oz tarqatiladi. O'yin boshlangunga qadar guruh ishtirokchilari qog'ozga qanday harf yozilganligini ko'rmasliklari lozim. O'qituvchi buyruq berishi bilanoq, boshlovchi o'quvchilar qog'ozni o'nglab qarab, unda yozilgan harfni ko'radilar va shu harf bilan boshlanadigan so'z topib turgan o'quvchiga uzatadilar. Guruh yoki qator oxiridagi o'quvchi oxiri tugagach, qog'ozni o'qituvchiga keltirib topshiradi. O'yinni birinchi bo'lib tugatgan va so'zlarni to'g'ri yozgan o'quvchilar guruhi g'olib sanaladi.

So'zni so'zga qo'shing

1)  +  = otquloq

2)  +  = _____

3)  +  = _____

4)  +  = _____

5)  +  = _____

So'zni so'zga qo'shing

1)  +  = asalari

2)  +  = _____

3)  +  = _____

4)  +  = _____

5)  +  = _____

Bu o'yindan dars jarayonida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ertaklarda foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytganda didaktik materiallar va o‘yinlardan har bir o‘qituvchi samarali va ijodiy foydalanishlari mumkin. Bu esa o‘qituvchilarning ta‘lim sohasida erishadigan yutuq va muvaffaqiyatlari uchun omil bo‘ladi, degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

6. Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
7. Azizxojayeva N.N., Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. –T. Adabiyot jamgarmasi. 2006.
8. “Boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning zamonaviy metodikasi” dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo‘llanmasi. – Toshkent, 2023.
9. Aydarova. U.B. O‘qish savodxonligi. 2-sinf uchun darslik. –Toshkent, Novda Edutainment, 2023.
10. Toirova. M.E. O‘qish savodxonligi. 4-sinf uchun darslik. –Toshkent, Novda Edutainment, 2023.

FIZIK KIMYO FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TA‘LIM USULLARIDAN FOYDALANISH

*Ergasheva Roziya Bahodir qizi,¹ Abdullayev Sirojiddin Sayfulla o‘g‘li¹
Namangan-Muhandislik qurilish instituti¹*

Annotatsiya: Maqolada oliy ta‘limni rivojlantirish tizimining maqsadi, vazifalari, tamoyillari va strategik yo‘nalishlari bayon qilingan. Shuningdek oliy ta‘limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, ta‘lim tizimidagi muammolar va ularni hal qilishda ta‘lim muassasalari hamda ilmiy-metodik ta‘minot tizimidagi tarqoqlik pedagogik ta‘limni klaster asosida rivojlantirish modeliga o‘tkazish zaruratini taqozo etishi hamda fizik-kimyo fanini o‘qitishda maruza, amaliy va laboratoriya dars jarayonlarini tashkil etish, fan dasturlari uslubiy ko‘rsatmalar tayyorlashda e‘tiborga olish lozim bo‘lgan ketma-ketlik haqida qisqa ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: oliy ta‘lim, tamoyil, mexanizm, ta‘lim sifati, amaliy, laboratoriya.

Kirish

Ta‘lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, zamonaviy talablar va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan yangi o‘quv rejalari, dasturlari va o‘quv-metodik adabiyotlarni ishlab chiqish va amaliyotga kiritish hamda o‘z hayotiy qiziqishlari, shuningdek, jamiyat va davlat manfaatlari yo‘lida ham ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qodir bo‘lgan har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish maqsadida turli pedagogik usullar ishlab chiqarilgan[.].

Shu usullarni inobatga olgan holatda talabalar bilim olishlarini osonlashtirish hamda bilim ko‘nikmalarni mustahkamlash maqsadida laboratoriya va amaliy darslarni bir biriga uzviy bog‘langan fan dasturlanini ishlab chiqishni maqsad qilib qo‘yildi.

Mamlakatimizda pedagogik oliy ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish borasida olib borilayotgan islohotlar, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi, 2018 yil 5 sentabrdagi PF-5538-son «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonlari, 2020 yil 27 fevraldagi «Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bo'lajak pedagoglarni tayyorlashning metodik tizimini rivojlantirish, umumta'lim fanlarini integratsiyalash, ilg'or o'qitish metodlari va texnologiyalarini tadbiq etish imkoniyatini yanada kengaytirmoqda. Oliy ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo'shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy qilish hozirgi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Muxokama bo'limi

Bilim va ilmning shakllanishi bevosita talim tizimiga bog'liq bo'lib, ta'lim tizimi samaradorligini o'qituvchi saviyasi, talaba ehtiyoji, o'quv adabiyotlari mazmuni hamda mustaqil talimni shakllantirishga qaratilgan infratuzilma bevosita ta'minlab beradi. Ilg'or kadrlarni tayyorlash, mustaqil fikrlaydigan mutaxassislarni yetishtirish o'quv dargohlarida yo'lga qo'yilgan yangi zamonaviy ta'lim berish jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Yuqoridagilar dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlarini tadbiq etish, yoshlarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish borasida ta'lim muassasalarini malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash yo'nalishlarida qator dolzarb masalalar mavjud.

Oliy ta'limning pedagogik ta'limni kadrlar ta'minotini takomillashtirish quyidagilar bilan bog'liq: Jamiyatning zamonaviy talablarini va ta'lim tizimini hisobga olgan holda mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini optimallashtirish bilan, pedagogik ta'limning barcha bosqichlarida va darajalarida professional malaka oshirish muddatini qisqartirish va innovatsion rejimda ishlashga tayyorgarlikni ta'minlash uchun ilg'or shaxsiy professional rivojlanish muhitini yaratish kerak bo'ladi.

Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishni asosiy yo'nalishlari bo'yicha qator ijobiy natijalar qo'lga kiritilgan. Xususan, pedagogik ta'lim klassifikatorlari takomillashtirilib, pedagogik ta'lim mazmuni yangilanib, ta'lim tizimi

mutaxassislarining kasbiy tayyorlanishi bo'yicha ta'limning axborot muhiti va ilmiy-metodik ta'minoti boyitib borilmoqda. Shunga asoslangan holda fizik kimyo fanini o'qitishni zamonaviy va yangi usullarini ishlab chiqish bo'yicha bir qator ishlarni amalga oshirildi. Fanni o'qitishda yangi uslubiy qo'llanma va uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqildi. Uslubiy qo'llanmada ma'ruza, amaliy va laboratoriya mavzularini bir biriga bog'liqligini taminlash uchun zanjir usulida mavzular bir biriga bog'landi. Yangi mavzular kiritildi, mavjud ba'zi mavzular joylashuvini o'zgartirildi. Natijada talabalarda fanni o'zlashtirishi anchayin osonlashdi hamda fanga bo'lgan ishtiyoq yanada oshdi.

Ma'ruza darsida o'tilgan mavzularni, laboratoriya darslarida tajribalarni bajarib olingan natijalarni tahlil qilinadi hamda amaliy darsda misol va masalalar yechish orqali mavzuni mustahkamlab boriladi. Ma'ruza darsida o'tilgan mavzu misol uchun; Kimyoviy termodinamika mavzusidan kelib chiqqan holda moddalarning issiqlik sig'imi, reaksiyaga kirishganda moddalar qanday issiqlik yutilgani yoki qanday issiqlik chiqqani, jarayonlarda qaytar va qaytmas bo'lishini darslarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanib tushuntirildi. Ma'ruza darsida o'tilgan termodinamika mavzusini laboratoriyada: Tuzlarning integral erish issiqligini aniqlash darsida tajriba ishlari bajariladi. Bunda tuzlarni suvda eritish orqali eritma harorati ko'tarilishi yoki tushishi mumkin. Bu tuzning tabiatidan kelib chiqadi. Bundan tashqari hosil bo'lgan eritma qaynash haroratini ortishi, muzlash haroratining pasayishini ham o'rganiladi. Tajribada olingan natijalar asosida amaliy darslarda "Kimyoviy termodinamikaga doir masalalar yechish" va "Ges qonuniga doir masalalar yechish" mavzularida misol hamda malalar yechish orqali yanada mustahkamlanadi. Ushbu mavzular ketma ketligida bitta mavzu bo'yicha talabalar olishi mumkin bo'lgan nazariy va amaliy mavzularni o'zlashtirib olishlari mumkin bo'ladi. Bundan tashqari mustaqil topshiriqlarda talabalarga ushbu mavzuga doir tajriba ishlarini o'zlari bajarib olingan natijalari bo'yicha hisob – kitob ishlarini video tasvirga olib o'qituvchilariga mustaqil ravishda topshirib borishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli qarori.
2. Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida 2018 yil 5 sentabrdagi PF-5538-son.
3. Sh. Yakubov, C. Maxsumova ilmiy maqola qanday yoziladi// metodik qo'llanma Toshkent yetakchi tashkilot 2024
4. M.Y. Abdurashidova S.S. Abdullayev N.S. Sarimsoqova Fizik kimyo fanini o'qitishning metodik rivojlantirish muammolari//zamonaviy dunyoda tabiiy fanlar nazariy va amaliy izlanishlar ilmiy masofaviy online konferensiya
5. <https://lex.uz/acts/-6438903>
6. www.arxiv.uz

**ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМ МУТАХАССИСЛАРИНИ КАСБГА
ЙЎНАЛТИРИШ, ШАХСИЙ ВА КАСБИЙ СИФАТЛАРНИ
ШАКЛЛАНТИРИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШДА
ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР**

*Райимкулов Акмал Акбаралиевич, Халмонов Умид Очилович
Тошкент кимё технологиялари институти Янгиер филиали
Таълим сифатини назорат қилиш бўлими бош мутахассиси,
мустақил изланувчи*

Аннотация: Масофавий таълим технологияларини таълим жараёнида қўллаш ва уни бошқариш ҳам муҳим ўрин тутади. Рақамли таълим технологияларидан фойдаланиб масофавий таълимни кучайтириш ўқув ресурсларига осон киришни таъминлайди ва таълим ташкилотига ўқитувчи билан қулай мулоқот қилиш имконияти. Тингловчилар таълим платформалари орқали ўқув воситалари ва технологияларидан фойдаланган ҳолда бошқариши мумкин.

Калит сўзлари: Масофавий таълим, профессионал таълим, замонавий инновация, ЮНЕСКО, компетенция.

Жаҳон миқёсида педагогика соҳасида профессионал таълим муассасаси педагогининг ижодий фикрлаши ва креативлигини ривожлантириш масалаларига қаратилган илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. Замонавий инновацияларни таълим жараёнига татбиқ этиш, педагог-тарбиячиларнинг креатив компетенцияларини шакллантириш ва ривожлантириш усулларини илмий асослаб бериш, педагогика коллежлари таълим тизими мазмунига мос креативлик компетенциясини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш ва ўқув материалларини бойитиш зарурияти юзага келмоқда.

Бутун дунё бўйлаб профессионал таълим жараёнида ахборот коммуникация технологияларидан фойдаланиш, профессионал таълимни модернизация қилиш, таълим дастурларини рақамлашган муҳит эҳтиёжларига мос равишда олиб бориш ва бўлажак мутахассисларнинг ахборот компетенцияларини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бирлашган миллатлар ташкилотининг таълим, фан ва маданият масалалари бўйича ташкилоти ЮНЕСКО томонидан 2018 йилда қабул қилинган медиа ҳамда ахборот саводхонлиги бўйича бешта қонунида медиа ва ахборот саводхонлиги бугунги кунда таълим олиш, яшаш ва ишлаш учун зарур бўлган компетенциялардан бири эканлиги алоҳида таъкидлаб ўтилган. Шундан келиб чиқиб, профессионал таълимда ўқувчиларнинг медиасаводхонлигини ривожлантириш орқали мустақил фаолиятини ташкил этиш муҳим аҳамият касб этмоқда.

Мамлакатимизда замон талаблари асосида профессионал таълим жараёнини ташкил этиш, жумладан, профессионал таълим тизимида ахборот коммуникация технологияларини жорий этиш орқали юқори малакали кадрлар тайёрлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. 2022-2026 йилларда

Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг еттига устувор йўналиши бўйича Тараққиёт стратегиясида “Касбий таълим билан тизимли равишда шуғулланиш масалаларини тўлиқ равишда Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлигига ўтказиш, касбга ўқитиш кўламини 2 баробарга ошириш, жами 1 миллион нафар ишсиз фуқароларни касб-ҳунарга ўқитиш” каби устувор вазифалар белгиланган. Бу борада профессионал таълимда бўлажак мутахассисларни касбий фаолиятига тайёрлаш, ўз мутахассислигига хос сифатларни ва мустақил фаолиятга тайёргарлик даражаларини баҳолаш методикасини ишлаб чиқиш ишлари олиб борилмоқда. Профессионал таълим жараёнига илғор техника ва технологияларнинг татбиқ этилиши ўқувчиларнинг медиасаводхонлигини ҳамда уларнинг мустақил фаолият олиб боришга амалий тайёргарлигини такомиллаштиришга кенг имконият яратади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 6 сентябрдаги “Профессионал таълим тизимини янада такомиллаштиришга доир кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5812-сонли, 2020 йил 2 мартдаги “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5953-сонли Фармонлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 февралдаги “Педагогик таълим соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4623-сонли Қарори, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 15 майдаги “Ўзбекистон Республикасида касбий малакалар, билим ва кўникмаларни ривожлантириш миллий тизими фаолиятини ташкил этиш чоралари тўғрисида”ги ВМ-287-сонли, 2020 йил 7 августдаги “Ўзбекистон Республикасида узлуксиз бошланғич, ўрта ва ўрта махсус профессионал таълим тизимини тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида”ги 466-сон Қарорлари ҳамда мазкур фаолиятга тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишда муайян даражада хизмат қилади ва ушбу меъёрий ҳужжатлар методологик асос ҳисобланади.

Профессионал таълим муаммолари, бўлажак мутахассисларни касбга йўналтириш, касбий фаолиятга тайёрлаш, касбга ўргатиш, уларда шахсий ва касбий сифатларни шакллантириш ва ривожлантиришнинг долзарб масалалари мамлакатимиз олимлари, жумладан, Р.Х.Джураев, Ш.Э.Қурбонов, А.Р.Ходжабаев, С.Ю.Ашурова, З.К.Исмаилова, Н.А.Муслимов, Қ.Т.Олимов, О.Т.Тўракулов, Ж.А.Ҳамидов, Д.О.Ҳимматалиев, О.А.Қўйсинов ишларида ёритиб берилган.

Педагог олимлардан О.Жамолiddинова, О.Мусурмонова, М.Уразова, Н.Эгамбердиева, Э.Юзликаева, Ш.Шарипов, Ш.Шодмоноваларнинг илмий изланишларида талабаларда креативлик қобилиятларини ривожлантиришнинг бўлажак мутахассисларни касбий-инновацион тайёргарлигини шакллантиришдаги ўзига хос жиҳатлари, креативлик сифатларини ривожлантиришга таъсир этувчи ижтимоий омиллар, шахснинг фаоллиги, шунингдек, талабаларда танқидий, креатив тафаккурни шакллантириш йўллари ва шакллари, мавжуд педагогик шарт-шароитлари,

дидактик таъминоти, шунингдек педагогик креативлик мазмуни ёритиб берилган.

“Креативлик компетенциясини ривожлантиришга оид илмий тадқиқот ишлари билан олимлардан А.Р.Арипджанова, Ш.Ҳ.Позилова, Г.И.Ибрагимова, П.Торренс, Г.Альтшуллер, М.Зиновкина, Гильфорд4, шуғулланишган ва фанда

креативлик атамасининг пайдо бўлишига асос солганлар.

Ўзбекистонда халқаро стандартлар асосида малакали мутахассислар тайёрлаш учун зарур шарт-шароитларни яратиш, профессионал таълим муассасасини жаҳоннинг етакчи илмий-таълим муассасалари билан яқин ҳамкорлик алоқалари ўрнатиши, ўқув жараёнига халқаро таълим стандартларига асосланган илғор педагогик технологиялар, ўқув дастурлари ва ўқув-услубий материалларини кенг жорий қилиш, ўқувчилар, илмий-педагогларни касбий компетентлиги таркибига кирувчи креатив компетенцияларини ривожлантириш, таълимда интерфаол усуллардан самарали фойдаланиш масалалари Таълимнинг халқаро стандарт таснифлагичи (МСКО) даражалари билан уйғунлашган мутлақо янги профессионал таълим муассасалари тармоғи ташкил этилди. Ана шу нуқта-назардан илғор хорижий тажрибалар асосида профессионал таълим мазмунини модернизациялаш, компетенцияларга асосланган инновацион технологияларни тадбиқ этиш имкониятини янада кенгайтирмоқда.

Профессионал таълим тизимида мустақил фаолиятни тартибга солиш ва ривожлантиришнинг *мотивацион, когнитив, амалий-фаолиятли ва ижодий* компонентлари ўқувчиларни касбга тайёрлашда, билимларни мустақил ўрганишларида мустақил ўқув-билиш фаолиятини ташкил этишнинг энг муҳим омили ҳисобланади. Айнан мустақил билим орттириш фаолияти ўқувчини мустақил ишлашга, ўқувчиларни ҳам назарий, ҳам амалий, ҳам мустақил ўқиб-ўрганиш нуқтаи назаридан мустақил ишларни бажаришга йўналтиради.

Бугунги креатив фикрни шакллантириш бўлажак ўрта махсус маълумотли мутахассиснинг кучли шахс сифатида камол топишида уни болаликдан креатив фикрловчи этиб шакллантиришга йўналтирилган тадқиқот ишларини олиб бориш ҳозирги куннинг муҳим вазифалари сифатида белгиланган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2022. Б.39.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 26 сентябрдаги «Педагог кадрларни тайёрлаш, халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3289-сон қарори. // «Халқ сўзи», 2017 йил 27 сентябрь.

3. Абдуқодиров А.А., Пардаёев А.Х. Масофали ўқитиш назарияси ва амалиёти. – Т.:Фан, 2009. 84 б.
4. Носиров А. Раҳбарнинг касбий компетентлиги, педагогик маҳорати ва бошқарув маданияти. / “Таълим менежменти” журнали. 2013 йил. № 6. 45-бет.
5. Ходжаев Б.Х. Умумий педагогика назарияси ва амалиёти дарслиги. - Т.: “Саноат-стандарт”, 2017. - 174-175 бетлар.
6. Шоймардонов Т.Т. Педагог кадрлар малакасини ошириши ва касбий фаолияти 3. мониторингини ташкил этишининг электрон тизими. Педагогика фанлари бўйича фалсафа докторлиги диссертацияси. – Т.: ТДПУ, 2017.

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ORQALI KASBIY IJODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

¹Jumaboyev Nabi Pardaboyevich, ²Ibodullayeva Zarifa Tojikulovna

¹Gulistan davlat universiteti katta o‘qituvchisi, ²Gulistan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: o‘quvchilarni fanga qiziqtirish hamda ularning kasbiy ijodiy faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlarning o‘rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ijodiy faoliyat, innovatsiya, pedagogik texnologiya.

Globalashuv, integratsiyalashuv jarayonlari fan va texnikani yuqori sur‘atlarda rivojlanishi uchun keng yo‘l ochib berdi. Bu jarayonlarga hamohang tarzda jamiyatning turli sohalarida, ayniqsa, ta‘lim tizimida ijobiy o‘garishlar kuzatilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ta‘lim tizimini tubdan isloh qilish, kommunikatsion vositalaridan keng foydalanish, hamda yoshlarning intellektual salohiyatlarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, ta‘lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda ma‘lum bir maqsad belgilab olinadi va bular hozirgi talab darajasida amalga oshiriladi. Demak, ta‘lim-tarbiya oldida loyihalash, ma‘lum pedagogik tizimning amalga oshiriladigan loyihasi, qurilishi pedagogik texnologiyadir. Shu nuqtai nazardan qaralganda “shaxsni shakllantirish” ham ma‘lum pedagogik tizimning loyihasidir. Ma‘lumki, bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta o‘zlashtirish uchun o‘quvchilarda tanqidiy tafakkur, mantiqiy xotira va ijodiy tasavvurni muntazam rivojlantirib borishda kasbiy ijodiy faoliyatini takomillashtirish muhim o‘rin tutadi lozim.

Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning kasbiy ijodiy faoliyatini rivojlantirishda o‘qituvchi juda muhim o‘rin egallaydi. Chunki u ta‘lim jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi subyekt sifatida o‘quvchilarning kasbiy ijodiy faoliyatini ham bevosita boshqarib boradi. Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning kasbiy ijodiy faoliyatini boshqarish va rivojlantirish juda ko‘p omillarga bog‘liq. Shunday muhim omillardan biri bu o‘z predmetini qiziqarli qilib etkaza olishdir. Zero,

qiziqish barcha psixik jarayonlar (idrok, diqqat, xotira, tafakkur, iroda)ning kechishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuni ham unutmazlik kerakki, innovatsion faoliyatini takomillashtirish jarayonida qiziqishlar shaxsning boshqa ichki tuzilmalari bilan murakkab o'zaro aloqaga kirishadi. Shunday ichki tuzilmalar sirasiga o'quvchining nazariy pozitsiyasi hamda kasbiy ijodiy faoliyatining o'quvchi uchun shaxsiy ahamiyati kabilarni kiritish mumkin. Mahoratli o'qituvchi o'z o'quvchilarida ijobiy qiziqishlarini shakllantirish uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak bo'ladi:

- ✓ O'quv predmetiga ijobiy munosabat o'quvchi faol bo'lganda, yangi bilimlarni mustaqil izlash va kashf qilish, muammoli topshiriqlarni hal etish jarayoniga jalb etilganda rivojlantirilishi mumkin;

- ✓ o'quv fani ham, xuddi boshqa fan turlari singari, xilma-xil bo'lsagina qiziqarli bo'ladi;

- ✓ o'qitilayotgan o'quv predmetiga qiziqish paydo bo'lishi uchun yaxlit holda va alohida olingan bo'limlarining kerakligi, muhimligi va maqsadlilikini tushunish alohida ahamiyatga ega;

- ✓ yangi o'quv materiali o'tilgan materiallar bilan qancha ko'proq aloqador bo'lsa, o'quvchi uchun u shunchalik qiziqarli bo'ladi;

- ✓ o'ta engil yoki o'ta murakkab o'quv materiali o'quvchida hech qanday qiziqish paydo qilmaydi. Ta'lim etarli darajada murakkab, ammo o'quvchining kuchi etadigan bo'lishi kerak;

- ✓ o'quvchining ishi qanchalik tez-tez tekshirilib, baholanib borilsa, uning uchun ishlash shunchalik qiziqarli bo'ladi;

- ✓ o'quv materialining yorqinligi, hissiyligi, o'qituvchining jonli va hissiy yorqin muloqoti o'quvchiga, uning o'quv predmetiga nisbatan munosabatiga juda katta kuch bilan ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchi faoliyati obyektining ichki tarkibi va o'ziga xosligi har bir alohida olingan holatlarda o'qituvchi ijodkorligining xususiyatini belgilaydi. Ijodkor shaxs sifatlari haqida fikr yuritgan E.G.Romitsona ularning ijodiy faoliyat jarayonida yuzaga kelishini ta'kidlaydi, shuningdek, har bir ijodiy bosqich insondan muhim shaxsiy sifatlarni namoyon etishni taqozo etadi. Agar o'quvchilar jamoasi, guruhi, alohida o'quvchi bilan ishlashda bir xil ta'sir metodlaridan foydalanilsa, ta'lim jarayonida nafaqat ijodkorlik, balki ijodga o'xshash narsa ham yo'qotiladi. O'qituvchi har doim o'quvchisining rivojlanish darajasi, uning xotirasi, diqqati, irodasi, maqsadga yo'nalganligi ustidan nazorat qilib boradi. Bunda nimaga asoslanadi? O'qituvchi o'z o'quvchisi - inson haqida shoshib yomon fikrga borishi yoki uni ayblashi mumkin emas. Uning bosh vazifasi – o'quvchini barcha ko'rinishlarida o'rganish va tushunishga harakat qilishdir. O'qituvchilik kasbi o'ylamasdan ish ko'rishni kechirmaydi. O'quvchi qalbiga chuqur kirib borish, uning ruhiyati va xarakterini anglab olish mahoratli o'qituvchiga xos bo'lgan xususiyatdir. Darsda o'quvchi o'quv predmeti va tevarak-atrofdagi voqeahodisalarni faol anglab boradi, shuningdek, o'quvchida o'qituvchiga nisbatan muayyan munosabat ham shakllanadi. Ba'zi voqealar uni tashvishlantirsa, ba'zilariga nisbatan u loqayd bo'ladi, nimadir unga yoqsa, nimadirga nisbatan befarq bo'ladi, ba'zi o'qituvchilarni yaxshi ko'rsa, ba'zilariga chidashga majbur.

Psixologlar ijobiy his-tuyg'ularni faoliyatga yo'llovchi va ruhlantiruvchi buyuk kuch deb hisoblaydilar.

Ta'limning innovatsion metodlari o'quvchilarning ulkan ta'limiy qudratidan foydalanish va faollashtirish, o'quv jarayoniga musobaqa elementlarini kiritish imkonini beradi. Ta'limning interfaol metodlari ta'limda yangiliklar sirasiga kiradi. K.Angelevskiy fikricha, "... barcha davlatlar ta'limga imkon qadar ko'p yangilik kiritishga intilmoqda... Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy... yondashuvni talab etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiyalardir... Novatorlikka qiziqish uyg'otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta'limning o'zi yangiliklarga boy bo'lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim". Darsda zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi asosida dars samaradorligini oshirish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, fikr-mulohazalar yuritish, munosabat bildirish, ko'nikmasini shakllantirish mumkin. Bunda o'quvchilar o'zlari faol ishtirok etgan holda yakka, juftlikda, kichik guruhlarda muammo va savollarga javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, baholaydi, yozadi, so'zga chiqadi, dalil hamda asoslar orqali quyilgan masalani yoritib berishga harakat qiladi.

Xulosa qilib aytganda shaxsiy qobiliyatlar va sifatlarni shakllantirishga qaratilgan zamonaviy o'qitish texnologiyalari va faol usullarni yaratish hamda ta'lim jarayoniga tadbiq etish, "Ta'lim to'g'risi"dagi qonunda ilgari surilgan asosiy g'oya bo'lib, uning asosini ta'lim sohasini o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos bo'lish, ilm-fan, texnika va texnologiyalar jadal rivojlanishi yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi, mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali kadrlar tayyorlashning ilmiy asoslangan milliy texnologiyasini yaratish tashkil etadi. Aytish joizki, ta'lim texnologiya, agar u hududga moslashtirilgan bo'lsa, boshqa barcha ta'lim (an'anaviy, interfaol va noan'anaviy) usullardan yuqori samaradorligi bilan ajralib, o'quv jarayonini sifatini pedagogning mahoratidan ozod qiladi va ta'lim-tarbiya jarayonini faqat yaxshi va a'lo darajada bo'lishini kafolatlashi bilan birga, uni qayta tiklash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N.Saydaxmedov, A.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. T.: 1999 y.
2. G.Hasanova, D.Haydarova. Xalq ta'limi jurnali 3-son. T.: 2014 y.
3. A.K.Маркова, Т.А.Матис, А.Б.Орлов. Формирование мотивации учения. М.: 1990 г.
4. Педагогические технологии: понятия, принципы и методы внедрения: Сб. материалов из Интернета./ Сост. С.Махкамова. Т.: 2003 г.
5. K.Xoshimov, S.Nishonova. Pedagogika tarixi. T.: 2005 y.
6. A.Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadriyatlar. T.: "Muharrir", 2008 y.
7. Xalq ta'limi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. T.:2017.

DARS MASHG‘ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING ASOSIY OMILLARI

*Yunusmetova Nasiba Satimbekovna, Bekmatova Umida, Pulatova Shoira
Narzullayevna*

SVPYMO‘MM Tarbiya fani metodisti SVPYMO‘MM Biologiya fani metodisti Guliston shahar 6-UO‘TM o‘qituvchisi

Bugungi kunda mamlakatimizda ma’naviyat va ma’rifatga, ta’lim-tarbiyaga, Yangi O‘zbekistonning barkamol avlodini shakllantirishga e’tibor nihoyatda kuchaydi. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida jamiyat ma’naviyatini yanada yuksaltirish hamda shu asosda ma’rifat va ta’lim-tarbiya sohasini rivojlantirish davlatimiz siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangani bejiz emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga 2022-yil 20-dekabrda Murojaatnomasida alohida ta’kidlanganidek, “Ta’lim sifatini oshirish — Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir”.

Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek: “Zakovat bor joyda ulug‘lik bo‘ladi, bilim bor joyda buyuklik bo‘ladi”.

Shuning uchun ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta’lim dargohlariga borib, o‘qituvchi va murabbiylar bilan ko‘proq muloqot qilib, o‘quv-tarbiya ishlari sifatini oshirish bo‘yicha ular qo‘ygan masalalarni birgalikda hal etishimiz kerak”.

Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligi, avvalo, boy tarixiy merosimizning tiklanishi, an’analarimizning saqlanishi va xalqimiz ma’naviyati yuksalishi bilan ilm-fan rivoji hamda ta’lim-tarbiya sifatiga uzviy bog‘liqligi shubhasiz. Jamiyat taraqqiyoti va unga uyg‘un bo‘lgan ma’naviy barkamol yoshlarni tarbiyalash jarayoni ana shu omillarning o‘zaro birligi va aloqadorligi asosida amalga oshishi insoniyat tarixida isbotlangan haqiqatdir.

Bugun O‘zbekistonda ushbu qonuniyatga og‘ishmay amal qilinmoqda. Xalq ma’naviyatini yuksaltirishga har tomonlama shakllangan, zamonaviy tafakkurli yosh avlodni kamolga yetkazishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Ta’kidlash joizki, hech qachon ma’naviyat va ma’rifat bilan ta’lim-tarbiya bir-birini inkor etmaydi, aksincha, bir-birini quvvatlab, o‘rnini to‘ldirib, o‘zaro ta’sirlanib, rivojlana boradi.

Bu jihatdan mamlakatimizda 2023-yilda sifatli ta’limga yuksak e’tibor qaratilayotgani va bu jarayonda ma’naviy rivojlanish asosida taraqqiyotni ta’minlashga harakat qilinayotgani bugungi hayot talabini aks ettiradi, albatta. Sifatli ta’lim-tarbiyaning mazkur jabhadagi muhim vazifasi yoshlarda o‘zlikni anglash tuyg‘usini tarbiyalash, ajdodlardan qolgan moddiy va ma’naviy merosning boshqalar oldida nechog‘liq ulkan ahamiyat kasb etishini anglatish, ular bilan faxrlanish va g‘ururlanish hissini kuchaytirishdan iborat.

Bunday ta’lim orqali avlodlarning ma’naviy robitasi mustahkamlanib, vorisiylik o‘z ifodasini topadi. Boy tarixiy merosni bilish va undan ibrat olib yashash, yosh avlodning har bir vakilini hayot qiyinchiliklari va turmush mashaqqatlariga chidamli qiladi. Kelajakka ishonchini mustahkamlaydi,

matonatini oshiradi hamda orzu-umidlari ro'yobi sari muhim ma'naviy dalda bo'lib xizmat qiladi. O'zlikni anglash o'tmishni bilishdan boshlanadi. O'zligini chuqur anglagan yoshlardagina milliy g'urur paydo bo'ladi.

Hozirgi globallashuv davrida sifatli ta'lim masalasi nafaqat muallimlar, professor-o'qituvchilar, olim va mutaxassislarni, balki keng jamoatchilikni, hatto har bir fuqaroni befarq qoldirmasligi kerak. Chunki xalqining farovonligi va vatani ravnaqidan ko'ngli tog'dek yuksaladigan, yurtining taqdirini o'z taqdiri deb bilgan har bir inson bobolarining boy tarixiy merosiga, ajdodlari xotirasiga cheksiz hurmat tuyg'usi bilan yashaydi. Tarixning har bir lahzasini va unda kechgan voqelikni, ezgu ishlarni yodida saqlaydi va muqaddas sanaydi.

Shu ma'noda, sifatli ta'limdan ko'zlangan eng asosiy maqsad — ajdodlarimizning nechog'liq buyuk shaxslar bo'lganini, ilm-fanning turli sohalaridagi kashfiyotlari orqali jahon taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shganini, mintaqamiz dunyo sivilizatsiyasining qadimiy yirik o'choqlaridan biri ekanini yoshlarga anglatish, ularning ushbu merosga sadoqatini yanada kuchaytirishdan iborat. Ayni paytda bu sa'y-harakatlar bobolarimizning g'ayrat-shijoati, yuksak aql-zakovati, tadbirkorligi va elparvarligi xalqimizga, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodga hamisha ibrat namunasi bo'lib qolishini anglatadi.

Eng zamonaviy ilmlar bilan qurollanmagan, bilim va tafakkur ufqi keng kishilarsiz Yangi O'zbekistonning kelajagini, jahon hamjamiyatidagi mustahkam o'rini tasavvur etib bo'lmaydi. Bugungi kunda bu ortiqcha izoh talab etmaydigan haqiqat ekani barchaga ayon. Shuning uchun ham barkamol avlodni tayyorlashning bosh vositasi bo'lgan sifatli ta'lim tizimini isloh etish jarayonida milliy tarbiyaning mazmuni va samarasini zamon talablari darajasiga ko'tarish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada yoshlarning taraqqiy topgan davlatlardagi o'quv markazlariga borib o'qishiga, professor-o'qituvchilarning xorijda malaka oshirishiga hamda ta'lim sohasi bilan bog'liq xorijiy mablag' va grantlarni mamlakatimizga jalb etishga katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Ta'kidlash joizki, sifatli ta'lim bir kunlik hodisa emas, muayyan vaqt talab qiladigan uzluksiz ijtimoiy va tarbiyaviy jarayon. Ya'ni u taraqqiyotning bir bosqichidan ikkinchisiga o'tayotgan mamlakatimizdagi yangilanish va uzluksiz o'zgarishning tarkibiy qismi sanaladi.

Shu ma'noda, sifatli ta'lim jamiyatdan, hozirgi davrda ro'y berayotgan jarayonlardan tashqarida sodir bo'ladigan oddiy hodisa emas. U o'zida bugungi hayotimizning barcha jabhasida ro'y berayotgan yangilanishlarning asosiy xususiyatlarini aks ettiradi. Demak, bu Yangi O'zbekistonni barpo etayotgan va uni har tomonlama mustahkamlashga harakat qilayotgan mamlakatimiz uchun tarixiy zarurat. Ya'ni u tasodifiy namoyon bo'ladigan o'tkinchi hodisa emas, balki yangilanish davrining zarurati, jamiyat ma'naviy hayoti va ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, yoshlarda yangicha tafakkurni shakllantirishdagi asosiy yo'nalishlardan biridir.

Sifatli ta'lim — alloma bobolarimiz orzu qilgan fozil odamlarning komil fazilatlarini shakllantiradigan va takomillashtiradigan jarayon. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bu g'oyat murakkab tizimli o'zgarishlar, ushbu soha kishilarining eskicha psixologiya asoratidan xalos bo'lishi bilan bog'liq bosqich hamdir. Ana

shu pallada tarbiyaviy muhitda, ta'lim-tarbiya tizimida va ular bilan bog'liq holda bu boradagi yondashuv hamda unga munosabatda ham yangi va tub o'zgarishlar ro'y berishi tabiiy.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga navbatdagi Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Najot — ta'limda, najot — tarbiyada, najot — bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi". Ma'rifatparvar jadid bobolarimizning bu so'zlari deputat va senatorlarimiz, siyosiy partiyalar, mahalliy kengashlar, butun davlat apparati, keng jamoatchilikning amaliy harakatiga aylanishi kerak".

Shunday ekan, sifatli ta'lim jarayonida ishtirok etayotgan barcha mulozimlar va tarbiyachilar, muallimlar va professor-o'qituvchilar bugungi globallashuv oqibatlarini va ayrim yoshlarimizning xilma-xil manbalar orqali kelayotgan turli yot g'oyalarni xolis axborot manbai sifatida qabul qilayotganlarini ham nazardan qochirmasligi lozim.

Yot mafkuralarni ko'r-ko'rona qabul qilishning qulay zamini — uyali aloqa vositalari va ijtimoiy tarmoqlarga tobelik, maishiy qulaylikka ortiqcha intilish, buyumparastlik va boqimandalik, milliy-ma'naviy qadriyatlarining ahamiyatini to'la anglay bilmaslikdir. Bugun dunyodagi globallashuv ta'sirida shakllanayotgan ana shunday murakkab vaziyatning mavjudligi barcha yoshlarimizda ma'naviy mafkuraviy immunitetni tarbiyalash ishlarini faollashtirish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etayotganidan dalolat beradi.

Ushbu jahada bugungi kunga xos sifatli ta'lim jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan, vatanparvar avlodlarni tarbiyalash imkonini beradi. Shu bilan birga, dunyo miqyosida ro'y berayotgan o'zgarishlar madaniy-ma'naviy soha rivojiga, milliy urf-odat va an'analarga jiddiy ta'sir etayotgan davrda bugungi globallashuv sharoiti, inson ongi va qalbi uchun kurash keskin tus olgan bir paytda sifatli ta'lim-tarbiyaning zamonaviy, ta'sirchan texnologiyalarini ishlab chiqish g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Chunki ayrim mamlakatlarning turli vositalar orqali o'z turmush tarzi, dunyoqarashi va qadriyatlarini targ'ib etishga intilayotgani boshqa xalqlarning milliy urf-odat hamda an'analarga putur yetkazayotganidan, asrlar davomida shakllanib, tajribada sinalgan tarbiya usullarining mintaqamizga yot turli andazalar bilan baholanayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Bu hol yoshlarning dunyoqarashi, hayotga munosabatining salbiy tomonga o'zgarishiga, milliy qadriyatlarimizning qadsizlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Sifatli ta'lim va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash taraqqiyotning bugungi bosqichigina emas, avvalo, mamlakatning uzoq istiqboldagi rivoji, strategik maqsad hamda vazifalarning amalga oshirishini belgilaydigan muhim omillardan biri ekani ham ayon bo'ladi. Joriy yilda islohotlar samarasini ta'minlash, erishilgan yutuqlarni yanada mustahkamlash bilan birga, ta'lim-tarbiya sohasini isloh etish, yoshlarimizni ham ma'nan, ham jismonan raqobatbardosh va zamonaviy bilimlarni puxta egallagan avlod, yuksak aql-zakovat sohibi etib voyaga

yetkazish nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etganining eng asosiy sabablaridan biridir.

Rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o‘rin egallayotgan mustaqil davlatimizda yosh, malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur vazifaning samarali bajarilishi ko‘p jihatdan ta‘lim-tarbiya mas‘uliyati zimmasiga yuklatilgan o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, pedagogik mahorati, ma‘naviy-axloqiy fazilatlariga bog‘liq. Shunday ekan, o‘qituvchi-tarbiyachining o‘zini tarbiyalash, ularning yuqori malaka va layoqatlarga, yuksak mahoratga ega bo‘lishlarini ta‘minlash davr talabidir.

Ma‘lumki, ta‘limni tashkil etishning asosiy shakllaridan biri sinf-dars tizimi bo‘lib, uning nazariy asosi va amaliy texnologiyasini XVII asrda chex pedagogi Ya.A.Komenskiy yaratdi.

Pedagogika inson faoliyati sohasi sifida jarayon sub‘ekt va ob‘ektlarini qamrab oladi. An‘anaviy pedagogika (Ya.A.Komenskiy, I.Gerbart, A.V.Disterveg, I.G.Pestalotsii) ta‘lim jarayonini katta yoshlilar, o‘qituvchining sub‘ekt sifatida o‘z tajribasini bola (o‘quvchi)ga ko‘chirish deb ta‘riflagan. Bunda o‘quvchi harakat yo‘nalgan ob‘ekt deb qabul qilingan. Ta‘lim tizimining asosiy maqsadi-bolani hayotga tayyorlash, uni o‘qitish mazmuni, metodlarini o‘qituvchi belgilaydi.

XX asrda psixologiya-pedagogika fani bu qarashlarni tubdan o‘zgartirdi. Bola shaxsini shakllantirishda turli ijtimoiy va psixologik omillarning roli aniqlandi. O‘qituvchi va rivojlanish jarayonida bola har xil ta‘sin va munosabatlar ishtirokchisi (sub‘ekt va ob‘ekti)ga aylanadi. Shunga ko‘ra, bugungi kunda pedagogika va metodikada darsga nisbatan ikki hil yondashuv mavjud.

Birinchi yondashuvga ko‘ra, dars-bu o‘qituvchining o‘quvchilarga bilim berish

va shu asosida ularda ko‘nikma, malaka, kompetensiya shakllantirish, ularni tarbiyalash jarayoni. O‘qituvchining asosiy vazifasi – “o‘quvchi chuqur va puxta bilim bilan qurollantirish, tushunib, o‘zlashtirib borish orqali shaxsning har tomonlama rivojlantirishni ta‘minlash”

Ikkinchi yondashuvga ko‘ra, dars – chegaralangan vaqt ichida belgilangan mavzu va maqsad asosida o‘qituvchi va o‘quvchilarning teng huquqli hamkorligiga asoslangan bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya hosil qilish jarayoni. O‘qituvchining asosiy vazifasi – o‘quvchilarda bilim olish ehtiyojini tarbiyalash.

Ko‘pchilik pedagog olimlar, metodistlar, amaliyotchilar zamonaviy dars deganda shaxsga yo‘naltirilgan darsni tushunadilar. I.S. Yakimanskayaning fikricha “Shaxsga yo‘naltirilgan darsning maqsadi o‘quvchilarning biluv faolligini namoyon etishlari uchun shart-sharoit yaratishdan iborat”. Bugungi kunda o‘qituvchi bilim berish bilan shug‘ullanmaydi, u bilim olish istagini tug‘diradi.

Ta‘lim jarayonining sub‘ekti –o‘quvchi,

Ob‘ekt-o‘quv mavzusi,

O‘qituvchi-o‘quvchi va mavzu o‘rtasidagi ko‘prikdir.

Maktabda samarali ta‘lim o‘quvchilarga yangi ko‘nikmalarni shakllantirish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini qo‘llash imkonini beradi. O‘qituvchilar maktab ta‘limini yanada qiziqarli qilish uchun texnologiyalar va multimedia, taqdimotlar

va ko'rgazmali vositalarning boy tanlovidan foydalangan holda maktabda o'qitishning shakl va usullarini modernizatsiya qilishlari kerak.

Maktabda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim ushbu faoliyatga yordam beradigan o'qituvchidan e'tiborni tortib oladi. O'quvchilar o'quv muhitining markazida bo'lgan holda bilimlarni egallaydilar, namoyish etadilar va amaliyotda qo'llaydilar.

Demak bir so'z bilan aytganda, bugungi kun o'qituvchisi oddiy o'qituvchi emas, balki kreativ pedagog bo'lishi kerak.

Kreativ o'qituvchi dars strukturasi to'g'ri tashkil etib, o'quvchilarda bugungi mavzuga bo'lgan qiziqishni kreativ metodlar orqali oshira oladi;

*Ochiq darslari o'zgacha va energiyaga boy tarzda o'tadi. Kuzatuvchi o'qituvchilar bu metodlarni qayerdan o'rganganini so'rashi aniq, chunki, o'quvchilarda mavzuni o'rganishga bo'lgan qiziqish yuqori darajaga yetadi. Bu albatta, kuzatuvchilarni hayratga soladi;

*Ota-onalardan samimiy xatlar kela boshlaydi. Kreativ o'qituvchida passiv va o'zlashtirishi sust o'quvchilarda fanga va bilim olishga intilishni oshiradigan metodlar bor. Bu natija beradi va sizga ota-onalarda quvonch hamda minnatdorchilik kayfiyati shakllanadi;

*Yuqori natijalar sari qadamlar. Attestatsiya va darsini ommalashtirishda Kreativ o'qituvchilar doim oldinda bo'lishadi. Shunday usullar borki, natijaviylikni bir necha barobar oshiradi. Yana shunday metodlar borki, o'z faningiz doirasida ommalashtirish qila olasiz;

*Kasbiy va shaxsiy hayotda doimiy rivojlanish. Onlayn kurslar, kitob va maqolalar, o'z fikrlash darajasidan yuqori insonlar bilan muloqot sizni rivojlantiradi. Kreativ o'qituvchilar esa qanday kursda o'qishni va qanday kitoblarni tanlab o'qishni juda yaxshi bilishadi.

Multimedia taqdimotlari. "Texnologiyaning sinf va o'quvchilarga ta'siri" (AQSh Ta'lim Departamenti qoshidagi Ta'lim bo'yicha tadqiqotlar va ishlanmalar bo'limi homiyligidagi tadqiqot loyihasi) ma'lumotlariga ko'ra, multimedia o'quvchilarga o'z bilimlarini faollashtirishda yordam beradi. Maktabdagi axborot texnologiyalari maktabda o'qish jarayonida o'quvchilarga eng samarali ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumotni vizual, audio yoki amaliy taqdimotlar orqali o'zlashtiradigan o'quvchilar texnologiya yoki multimediya orqali muvaffaqiyatli o'rganishlari mumkin. Masalan, o'quvchilar shahar rejasini tuzish yoki taqdimotlar yaratish va orzu qilgan shaharlarini muhokama qilish orqali shaharsozlik haqida bilib olishlari mumkin. O'qituvchilar darslarga qiziqish uyg'otish va odamlarni real dunyoda o'rganayotgan narsalar bilan tanishtirish uchun multimedia taqdimotidan foydalanishlari mumkin.

Darslarda rolli o'yinlar. Darslarda rolli o'yinlar yangi bilimlarni o'zlashtirishdan tashqari, o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Sinfni ikki-to'rt kishidan iborat guruhlariga ajrating va o'quvchilardan ijtimoiy ko'nikmalarga asoslangan skeytlarni namoyish qilishni so'rang. Tengdoshlarning bosimi, bezorilar bilan muomala qilish yoki yangi sinfdosh bilan uchrashish kabi vaziyatlarni o'ynash mumkin.

Darslardagi rolli o'yinlar ham o'quvchilarga adabiyotning nozik jihatlarini, personajlar yaratish san'atini tushunishga yordam beradi. Bolalar sinfda muhokama qilingan adabiy qahramonlar yordamida o'qituvchi tomonidan yaratilgan stsenariylarni namoyish qilishlari mumkin. Shunday qilib, bolalar ma'lum bir vaziyatda ba'zi belgilar o'zini qanday tutishi haqidagi talqinlarini namoyish etadilar.

Maktabda amaliy mashg'ulotlar. Darslarda o'qilgan kitoblardan sahna ko'rinishlarini tasvirlash uchun rasm chizish yoki maket qurish kabi amaliy mashg'ulotlar amaliy mashg'ulotlarga misol bo'la oladi. O'quvchilar loyihalardan foydalanishlari, savollarga javob berishlari va muammolarni hal qilishlari mumkin. Misol uchun, o'quvchi ma'lum sharoitlarda oziq-ovqatda mog'or paydo bo'lishi uchun qancha vaqt kerakligini aniqlash uchun o'zining ilmiy loyihasini yaratishi mumkin. O'qituvchilar o'quvchilarga o'tish bahosiga erishish uchun rioya qilishlari kerak bo'lgan ko'rsatmalar berishi mumkin.

Ko'nikmalarni rivojlantirish o'yinlari. Turli ko'nikmalar va ephilliklarni rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini mashq qilishlariga yordam beradi. O'quvchilar jumalardagi yangi so'zlar yordamida oddiy savollarga javob berishlari yoki o'yinni rivojlantirish uchun berilgan muammolarni hal qilishlari mumkin bo'lgan o'yin yaratish. O'qituvchilar sinfni jamoalarga bo'lish orqali stol o'yinlarini yaratishlari yoki interaktiv kompyuter o'yinlaridan foydalanishlari mumkin. To'g'ri javoblar uchun ball bering.

Sinf - bu har xil qobiliyat va harakterga ega bo'lgan dinamik muhitdir. Shuning uchun samarali o'qituvchi bo'lish - o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun o'qitishning ijodiy va innovatsion strategiyasini amalga oshirishni talab qiladi.

Didaktik o'yinlardan foydalanishning 10 ta afzal tomoni:

1. O'quvchilarni sezgir qiladi

O'yin o'ynash bolaning idrokini kuchaytirishga yordam beradi va shu bilan uning diqqatini oshiradi. O'yinlar tez harakat talab qiladigan muhim xususiyatlarga ega, shuning uchun bolalar diqqatli bo'lishlari kerak. O'yinlar bolalarning miyasini mashq qildiradi.

2. O'quvchilarni qat'iyatli va shijoatli qiladi

Sinfdagi o'yinlarda faol ishtirok etish bolalarga nima qilishdan qat'i nazar qat'iyatli bo'lishga imkon beradi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, u o'rganish, qatnashish va sinfdagi mashg'ulotlarga e'tibor berishda bolalarning umumiy motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

3. Til va muloqotni rivojlantirishga yordam beradi

Rivojlanayotgan bolaning miyasi ular duch kelgan har qanday yangi narsani tushunishga intiladi. Ular duch kelayotgan har bir yangi insondan ular muloqot va til ko'nikmalarini o'rganadi.

4. Muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi

Bolalarni sinf o'yinlariga jalb qilish ularni muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu bolalarga ijobiy ta'sir qiladi,

chunki ular ilg'or matematik yoki mantiqan fikrlash bilan shug'ullanishlari mumkin.

5. Majburiyatlar o'rnatish va hamkorlik qilishni o'rgatadi

Sinf o'yinlari bilan shug'ullanish bolalarga individual va guruh faoliyati bilan ishlash imkonini beradi. Shunday qilib, bu boshqa bolalar bilan aloqalarni o'rnatish va hamkorlik qilish uchun yo'l ochadi. Buning sababi, ular jamoa bo'lib ishlash usullarini o'rganadilar. Bu shuningdek, bolalarga navbat bilan qilish, boshqalarni tinglash, hurmatni kuchaytirish va adolatli o'yin o'ynash imkonini beradi.

6. O'ziga bo'lgan ishonch va hurmatni oshiradi

Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'quv usullariga o'yinlarni kiritish bolalarning g'ururi va his-tuyg'ularini bog'laydi.

7. Ajoyib ta'lim usullari bilan tanishtiradi

Ba'zida o'qish va yozish bolalar uchun juda zerikarli bo'lib tuyuladi, shuning uchun ular turli tadbirlarda qatnashishni afzal ko'radilar. O'yinli ta'lim berish usuli esa ularga ham o'rganishga ham darsdan zavq olishga yordam beradi.

8. Bolalarni bir nechta faoliyat bilan shug'ullanishga majbur qiladi.

Dubaydagi eng yaxshi xalqaro maktablar sinf o'yinlarida badiiy komponentlarni o'rnatadilar. Bu o'quvchilarga o'zlarining original g'oyalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Natijada, ular o'zlarini sezilarli darajada ijodiy tarzda ifoda etishlari mumkin. Boshqa tomondan, yangi ko'nikmalar bilan shug'ullanish ularning hayotining turli jabhalariga eshiklarni ochadi.

9. O'quvchilarga har qanday yangi muhitga moslashishga yordam beradi

Sinfdagi o'yinlar o'quvchilarga har qanday yangi muhitga moslashish strategiyasini ta'minlaydi, ayniqsa ular uzoq vaqt davomida sinfdan yoki msktabdan uzoqda bo'lgan vaqtida.

10. O'quvchilarni xatolaridan saboq olishga majbur qiladi

O'quvchilar uchun sinflaridagi o'yinlar xuddi hayotdan har qanday tushunchani o'rganishga o'xshaydi. O'yinlar g'alaba va yutqazish jarayoni bilan tuzilganligi sababli, ular o'quvchilarga ulardan o'rganish imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, bolalar noto'g'ri bo'lgan narsalar haqida bilib olishlari mumkin, shu bilan muammolarni hal qilish strategiyasini o'rganadilar.

Eski metodlardan voz kechish vaqti keldi. O'quvchi bo'lgan paytingizda keng foydalanilgan metodlardan o'qituvchi bo'lganimizda ham foydalanish orqali zamonaviy ta'limdan ortda qolishingiz hech gap emas.

* "Klaster", "Savol-javob", " Baliq skeleti", "Aqliy hujum" kabi bir qancha metodlardan ancha yillardan buyon foydalanamiz. Ushbu metodlar samarali albatta, ammo o'quvchilar allaqachon bir xillikdan zerikkan.

Eski metodlarning samarasi eski davr o'quvchilarida yaxshi ko'rinardi. Lekin biz XXI asr farzandlarini o'qitmoqdamiz. Shunday ekan darslarimizga yangi metodlarni kiritish vaqti keldi.

*Zamonaviy metodlarni esa, kreativ pedagog onlayn kursida o'rganing. Yangi metodlarni darslaringizda qo'llash orqali nafaqat o'quvchilaringiz ta'limida sezilarli o'zgarishlarni sezasiz, balki o'z ishingizdan qoniqish his qila boshlaysiz.

* Zamon bilan hamnafas bo'ling. Axir siz yuksak marralarni zabt etuvchi yoshlarni tarbiyalaysiz.

ADVANTAGES OF USING MODERN DATA TECHNOLOGIES FOR TEACHING ROAD ENGINEERING STUDENTS IN HIGHER EDUCATION

*Yusupjonov Mukhriddinjon Odiljon o'g'li, Narzullaev Xurshid Saydullaevich,
Jalolov Zafar Muhammadi o'g'li*

Termez Institute of engineering and Technology, Assistant Department of road engineering, Organization of interactive classes based on modern pedagogical technologies.

Abstract: This article discusses the benefits of using modern Information Technology in higher education.

Keywords: Higher education, Information Technology, Computer, lesson.

Introduction. According to the Ministry of Public Education, the total number of primary school students in our republic is 2,129,389. 111866 pedagogues have been teaching them. Nowadays, our state provides teachers with a creative approach to lessons, they are advanced in their work necessary measures have been developed and implemented in order to widely introduce pedagogical and information and communication technologies and to strengthen the foundation of students' initial knowledge acquisition, to increase their interest in mastering all subjects. The current era places great demands on teachers and students the main requirements are the efficiency of the lesson, its quality, the knowledge and skills of the students, the various educational activities in schools, their organization, and the acquisition of various knowledge and skills by the students through it. Today, the role of innovative technologies, technical tools, including modern computers, in the correct and effective organization of the educational process is incomparable. Multimedia, animation, graphics, slides and the use of video films helps to make the lesson process more interesting, and for this, the teacher should work on himself and say to each lesson "how can I introduce something new into today's lesson process and make the lesson interesting?" he should ask himself questions, that is, he should avoid traditional education and try to provide non-traditional education.

When organizing the lesson process with the help of modern information technologies, the teacher should first:

- the purpose of the lesson;
- ways to achieve the goal;
- methods of presenting educational materials;
- teaching methods;
- types of educational assignments;
- questions for discussion;
- ways of organizing discussions and debates;
- it is necessary to identify factors such as methods of interaction and communication.

Discussions. It should be noted that today, the minister of Higher Education, Science and innovation of the Republic of Uzbekistan, Zangotboy Sharipov, and the chairman of the Government of the Xinjiang-Uyghur Autonomous Region of the people's Republic of China, Erkin Tuniyaz signed an agreement to provide

scholarships for citizens of Uzbekistan to study in Chinese higher education institutions. The parties agreed to establish direct cooperation between higher education institutions and scientific institutions, support the exchange of experience in the field of Education, Scientific Research, Technology and management, mutual visits and the exchange of teachers and scientific staff. The creation of joint research groups, and the conduct of collaborative scientific research have also been an integral part of the agreement. According to the agreement, the Chinese side will provide a list of higher education institutions where citizens of the Republic of Uzbekistan can study in China by the end of November each year, as well as information on the terms and requirements of scholarship programs. The Ministry of Higher Education, Science and innovation of the Republic of Uzbekistan, on the other hand, provides a list of recommended students to study at universities in the Xinjiang-Uyghur Autonomous District of the people's Republic of China. The period of study for scholarship holders from among foreign citizens is determined by the receiving party in accordance with the requirements of the national education system. To study in China, candidates are required to have a certain level of knowledge of Chinese. It is also taken into account that, if necessary, language courses can be organized for students recommended for the scholarship. Under the primary agreement, scholarships are intended to cover tuition, fees and accommodation, insurance premiums (including health insurance), and part of the cost of living.

Conclusion. Today, the teacher is required to use advanced pedagogical and new information technologies in the educational process. Based on the above, based on our experiences, we present our thoughts on the ways of education by using interactive methods in the lessons. We think that it will provide practical help to our colleagues in increasing the effectiveness of training sessions. Also, he becomes one of the close assistants of students in fulfilling the responsible task of choosing their own direction and forming the skills of preparation for independent life. Below we give recommendations on the implementation of modern methods of teaching based on certain topics in the class section. You use it in a creative way and try to find an answer to the question of our first president: "What are we doing today to instill in our children a sense of pride, pride, and devotion to our motherland, which is sacred for every age", - we hope that you will contribute to achieving the intended goal by implementing modern methods of education and upbringing.

REFERENCES

1. Decision No. PQ-3931 of the President of the Republic of Uzbekistan dated September 5, 2018 "On measures to introduce new management principles into the public education system".
2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 29, 2019 "On approval of the concept of development of the public education system of the Republic of Uzbekistan until 2030".
3. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. Student personality creative activity pedagogical foundations of development. - T., Science, 2012

4. Yoldashev J.G., Usmanov S.A. Implementation of modern pedagogical technologies. – T: Science and Technology, 2008.

“SHAHAR KO‘CHALARIDA PIYODALAR XAVFSIZ HARAKATINI TASHKIL ETISH” MAVZUSIDA “CHARXPALAK TEXNOLOGIYASI” NI QO‘LLASH

G‘ulomov Umidjon Baxodir o‘g‘li, Sapayev Azamat Zakirjon o‘g‘li
Yo‘l muhandisligi kafedrasi o‘qituvchisi,
Termiz muhandislik texnologiya instituti talaba

Ushbu texnologiya talabalarni harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o‘rganayotgan predmeti asosida ko‘p, xilma-xil fikrlardan, ma‘lumotlardan kerakligini tanlab olishni o‘rgatishga, berilgan savollarga mustaqil ravishda to‘g‘ri javob berishga va o‘z-o‘zini baholashga qaratilgan[1].

Pedagogik texnologiya - o‘qituvchining kasbiy faoliyatini yangilaydigan va yakuniy rejalashtirilgan natijani kafolatlaydigan tartiblar majmuasidir. Pedagogik texnologiya pedagogik maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan barcha shaxsiy, instrumental va uslubiy vositalarning tizimi va ishlash tartibini anglatadi[2].

Texnologiyaning maqsadi: talabalarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o‘zlarini baxolash, yakka va guruxlarda ishlashga, boshqalar fikriga xurmat bilan qarashga, ko‘p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o‘rgatish.

Texnologiyaning qo‘llanishi: texnologiya o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida o‘kuv predmetining biron bir bo‘limi tugallanganda, o‘tilgan mavzularni talabalar tomonidan o‘zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash uchun mo‘ljallangan.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

- Talabalarni 5-6 tadan 4 ta kichik guruhlarga ajratiladi (1-2 daqiqa);
 - Tarqatma materiallarni guruh a‘zolariga tarqatish va talabalar mashg‘ulotni o‘tkazishga qo‘yilgan talablar bilan tanishtirish. Masalan: “*Shahar ko‘chasida joylashgan chorrahada piyodalarni xavfsiz harakatini tashkil etish*” mavzusida sxemasini tuzish. (2-3daqiqa);
 - Har bir guruh a‘zosi berilgan tarqatma materialning o‘ng burchagiga guruh raqamini yozadi, topshiriqni bajarishda esa turli rangdagi biror ruchkadan foydalanadilar. Masalan 1-guruh qora, 2-guruh qizil, 3-guruh yashil.
 - Mavzu bo‘yicha 3 ta topshiriqni talabalar muhokama qilib bajarilishi aytiladi. Har bir topshiriqdan keyin vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruh a‘zolariga «charxpalak aylanmasi» yo‘nalishida almashtirishi tushuntiriladi (2 daqiqa);
- 1- Topshiriq: chorraha sxemasiga “yo‘l belgilarini “ o‘rnatish (10-12 daqiqa)
 - 2- Topshiriq: chorraha sxemasiga “yo‘l belgi chizig‘ini” chizish (10-12 daqiqa), so‘ngra, yana yuqoridagi yo‘nalish kabi guruhlararo almashtiriladi.

3- Topshiriq: chorraha sxemasiga “yo‘l to‘sig‘ini” o‘rnatish (10-12 daqiqa), so‘ngra, yana yuqoridagi yo‘nalish kabi guruhlararo almashtiriladi.

- Materiallarni oxirgi almashishdan so‘ng har bir guruh o‘zlari ilk bor to‘ldirgan materialni oladilar;

- Guruh har bir guruh bajargan topshiriqlar javoblarini muhokama va taxlil qilib taqdimot tayyorlaydilar (10-15daqiqa);

- O‘qituvchi “Shahar ko‘chasida joylashgan chorrahada piyodalarni xavfsiz harakatini tashkil etish” bo‘yicha sxemasini talabalarga taqdim etadi.

- Guruh tug‘ri javob bilan belgilangan javoblar farqlarini aniqlaydilar va natijaga ko‘ra o‘zlarini quyidagi me‘zon asosida baholaydilar. Agarda javoblar, «To‘g‘ri javob»ning 55% dan kam bo‘lsa «qoniqarsiz» 55-70% to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, «qoniqarli», 71-85% to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, «yaxshi» va 86- 100% to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, «a‘lo» (2-3 daqiqa)

- So‘ngra talabalar tuzgan sxemalarini va o‘zlari baholagan ishni o‘qituvchiga topshiradilar (2 daqiqa). O‘qituvchi darsni yakunlaydi va talabalar olgan baholarni rasmiylashtiradi (2 daqiqa).

“Charxpalak texnologiyasi” ni quyidagi mavzularda qo‘llanilishi tavsifiya etiladi[3]:

- Shahar yo‘llarining kichik radiusli yo‘l bo‘laklarida;
- Shahar ko‘chalarining tik ko‘tarilish va tushish bo‘laklarida;
- Shahar ko‘cha va yo‘llaridagi bir va ko‘p sathli chorraha va tutashmalar hududida;
- Ko‘priklar, tonellar va yo‘l o‘tkazgichlar hududlarida;
- Aholi yashash manzillaridan o‘tgan yo‘l bo‘lak hududlarida;

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xushvaqto‘v T.S. ta‘lim texnologiyalaridan o‘quv jarayonida foydalanish nazariyasi va amaliyoti: O‘quv uslubiy qo‘llanma / Xushvaqto‘v T. va boshqalar ma‘sul muxarrir Yu.F. Maxmudov. -Toshkent: Yangi nashr, 2018.104 bet.

2. Аршинов В. И., Буданов В. Г. Развитие "педагогической технологии" и проблемы теории обучения. Москва: Вопросы философии. – 2017. – № 1 – С. 50–61.

3. Q.H. Azizov “Mahsus fanlarni o‘qitish metodikasi” O‘quv qo‘llanma. TADI. Toshkent 2019y 117b.

UMUMTA‘LIM MAKTABLARIDA TABIIY FANLAR (GEOGRAFIYA)NI O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI

Bekzod Boymatov

A.Avloniy Nomidagi Mti tayanch doktoranti TDIU professori, p.f.d.

M.A.Yuldashov taqrizi ostida

Annotasiya

Dunyoda ta‘lim jarayonlarida o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish, xalq ta‘limi tizimida tabiiy fanlarni integrasiyalab o‘qitish

mexanizmlarini yaratish, pedagogik va didaktik asoslarini aniqlash hamda amaliyotga tatbiq etish, metodologik yondashuv va zamonaviy usullar asosida loyihalash, amalga oshirish va takomillashtirishning ilmiy asoslangan tizimini yaratish, tabiiy fanlardan bilimlarni integrativ yondashuv asosida takomillashtirish orqali ta'lim samaradorligini rivojlantirish borasida ko'pgina ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu izlanishlar ta'lim jarayonlarida metodologik va integrativ yondashuv asosida foydalanish, o'quvchilarda tabiiy fanlardan bilimlarni shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Kalit so'zlar: Ta'lim tizimi, ta'lim samaradorligi, zamonaviy ta'lim, zamonaviy usullar, metod, metodologiya, ta'lim texnologiyalari, pedagogik texnologiyalar, innovasion texnologiyalar, mediatexnologiyalar asosida o'qitish.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizning yanada taraqqiy etishi, jahonning etakchi rivojlangan davlatlari qatoridan o'rin olishi ko'p jihatdan o'sib kelayotgan yosh-avlodlarga bog'liq. Shunday ekan, ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan har bir pedagog bugungi kun yoshlariga ta'lim va tarbiya berishdek mas'uliyatli vazifasini sidqidildan bajarishi, ta'lim jarayonlarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida sifatli va samarali tashkil etishi ustuvorlik kasb etmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilanishiga qaratilgan innovasion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta, chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga va innovasiyaga tayangan davlat yutadi. Innovasiya, bu- kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovasion g'oyalar, innovasion yondashuv asosida boshlashimiz kerak" [1] - deb ta'kidlagan edilar. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-conli[2], 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmon [3]larida ta'lim jarayonlarini zamon talablariga mos tashkil etish borasida asosiy vazifalar belgilab berilgan. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ko'plab adabiyotlarda Tabiiy fanlar (Science) tushunchasiga bir qancha ta'riflar berilgan. Jumladan, "Science"-atamasi ham keng, ham xalqaro fan sifatida mo'ljallangan takliflarni tavsiya etuvchi, zamonaviy ta'limga yo'naltirilgan hamda fanlararo integratsiyalarni amalga oshiruvchi ta'lim vositasi [4], O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 24-dekabrda 414-sonli buyrug'ga muvofiq umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2022-2023-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasini tasdiqlash [5].,

Respublikamizda umumta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'qitish metodologiyasini takomillashtirish muhim yo'nalishlardan biri sanaladi. Yurtimizda tabiiy fanlarni o'qitish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha o'quvchilarda tabiiy fanlarni o'qitish ko'nikmasini rivojlantirish, bilish va ijodiy fikrlashni shakllantirishga doir bir qancha tadqiqot ishlari yaratilgan. Jumladan o'lkamizda o'zbek olimlaridan "Oliy ta'lim talabalarining geografiya fanidan mediatexnologik bilimlarini rivojlantirish" bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar

F.Xamrayeva. “Maktab fizika ta’limida tabiiy fanlar integratsiyasini takomillashtirish” O.Dehqonova. “Hozirgi zamon tabiiy fanlar konsepsiyasi” I.H.Hamdammov kabilar zamonaviy pedagogik ta’limda tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar.

Ta’lim sohasiga “Science” tushunchasini olib kirish zarurati masalalarini ko‘rishimiz mumkin [6]. Olimning fikricha, tabiiy fanlarni o‘qitish metodologiyasi tushunchasini aniqlab olishda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mualliflarning fikricha, tabiiy fanlar (Science) ta’limning o‘quvchilarga bilim beruvchi va ta’lim samaradorligini oshirishini takomillashtiruvchi qismidir. Ularning nisbiyligi turli metodlardan foydalana olish mahoratini o‘z ichiga olsa, boshqa tomondan esa tabiiy fanlarning bosha fanlar bilan integratsiyasini tashkil etish tamoyillari haqidagi ta’lim mazmunini aniqlash mahorati tashhishtirish kabi bilimlar nazarda tutiladi [7]

Tabiiy fanlar(science) amalga kiritilishidan oldin xalqaro amaliyot-O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan xususiy va xorijiy maktablar tajribasi o‘rganildi. Yangi fan o‘quvchilarning olam va borliqqa nisbatan bilimlarini oshirishga yordam beradi. Kelajakda o‘quvchilar kimyo, fizika, biologiya kabi fanlar qiyin emasligini, balki ularning juda ham qiziqarli ekanligini anglab borishadi. Odatda, maktab o‘quvchilari bu fanlarni o‘zlashtirish juda ham qiyin deb tasavvur qilishadi, zero, bu fanlarning barchasi hayotimizga juda ham bog‘liq. Tabiiy fan (science) qaysidir fanlarning o‘rniga joriy etilayotgani yo‘q. Aksincha, u ta’lim sifatini oshirish uchun mavjud fanlarning integrativ tarzda o‘qitilishini ta’minlaydi. Fanlarning o‘zaro integratsiyasi o‘quvchilarda tabiatni butun bir borliq sifatida, olamning yagona manzarasini anglashlariga yo‘naltirmog‘i lozim. Shu bilan birga, o‘quvchilar inson faoliyatining tabiatga salbiy va ijobiy ta’siri, zamon va makon miqyosidagi global ekologik muammolarni va tabiat oldida javobgarlik hissini tushinishi, Shuningdek, sog‘lom turmush tarziga amal qilishlari hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini, tabiat va jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘sha oladigan kompetent shaxsni tarbiyalashni ko‘zda tutadi. Masalan, yomg‘ir yog‘ish jarayonini kuzatish orqali o‘quvchi uning tarkibini (biologiyaga oid tushunchalar), qanday hosil bo‘lishi (fizik xususiyatlari), qaysi fasllarda qayerlarda ko‘proq yog‘ishi (geografik xususiyati), yomg‘ir ta’sirida yerda qanday o‘zgarishlar bo‘lishi, o‘simliklar uchun foydasi haqida ma’lumotga ega bo‘ladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo‘llash uchun tabiiy fanlar o‘qituvchilari maxsus metodik bilim va ko‘nikmalarni egallashlari, pedagogik amaliyotda zarur bo‘ladigan metodik tayyorgarlikka ega bo‘lishlari lozim. Tabiiy fanlarni o‘qitishda foydalaniladigan lokal darajadagi texnologiyalar deyilganda darsning muayyan bir qismida uy vazifasini so‘rash, yangi o‘rganilgan mavzuni mustahkamlash bosqichida foydalaniladigan texnologiyalar tushiniladi. Ular jumlasiga “SWOT tahlili” “Keys”, “Insert”, “Klaster”, “Aqliy hujum”, Venn diagrammasi, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Atamalar zanjiri”, tezkor o‘yinlar, o‘yin mashqlarining turli shakllari va kiradi.

Tabiiy fanlar o‘qitish metodologiyasi. Ta’lim texnologiyalar asosida vujudga kelgan bo‘lib, uni yoritib berishda tabiiy fanlar (geografiya)ni o‘qitish tarixi, uning

yillarda davomida shakllanishi va turli ijtimoiy jamiyatlarda turli darajada o'rganilishi haqida chuqur izlanishlar olib borishni taqozo qiladi. Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi borasidagi dastlabki adabiyotlardan biri nemis olimi Oberlenderning tabiiy fanlarning bir qismi bo'lgan "Geografiya metodikasi" kitobi bo'lib, unda tabiiy fanlarni o'qitish usullari (metodlari) quyidagicha ajratilgan:

-Analitik usul-avval umumiy tarzda tabiiy fanlarni o'rganib, uning tarkibiy qismlarini taqqoslash;

-Sintetik usul-avval tabiiy jarayonlarni o'rganib, tabiiy fanlarni bir butunligini o'rganish;

-Konstruktiv usul-o'quvchilarga tabiiy komponentlar orqali tabiiy fanlar o'qitish shakllari bilan tanishtirish;

-O'zaro aloqali (assosiyalashgan) usul-o'rganilayotgan hodisalar orasidagi o'zaro aloqlarni ochib berishga asosiy e'tiborini qaratish;

-Guruhlashtiruvchi usul-bir xil tabiiy hodisalarni taqqoslashga qaratilgan usul.

Yuqoridagi ta'lim usullari orqali o'quvchilarda tabiiy fanlardan dunyoqarashni shakllanishiga keng yo'llar ochib beriladi. O'quvchilar sodda bilimlardan-murakkabiga, alohidalikdan-butunlikka, shuningdek inson va tabiat o'rtasida o'zaro bog'liqligini, tabiiy ob'ektlarni bir-biri bilan taqqoslashga, ayrim xususiyat va jihatlarini solishtirish va qiyoslashga imkoniyati bilan bu boradagi o'z tasavvurlarini shakllanishiga erishadilar. Xorijiy davlatlaridagi tabiiy fanlar (geografiya) ni o'qitishda o'ziga xosliklar mavjud bo'lib, tabiiy fanlar o'qitish usullari orqali ham farqlasa bo'ladi va quyidagi usullardan iborat:

-Evristik suhbat usuli-bu usulda asosiy e'tibor o'quvchilarni kichik tadqiqotlar orqali bilim olishga o'rgatishga qaratiladi. Turli hujjatlar va rasmlar asosida muammoli savollar o'quvchilar diqqatiga havola etiladi va natijada ular yordamida dastlabki kichik ilmiy izlanishlar olib boorish ko'nikmalari shakllanadi. Bunday usul ko'proq AQSh, Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya kabi davlatlarda keng qo'llaniladi;

-Tarqatmalar usuli-bu usulda turli chizmalar, jadvallar, xaritalar har xil xatoliklari bilan o'quvchilar tarqatiladi, ular esa yo'l qo'yilgan o'sha xatoliklarni mustaqil topishlari talab qilinadi. Natija esa ko'plab turli xil shu tarzda topshiriqlarni yechish orqali tabiiy fanlar darslariga qiziqishlarni oshirishga sababchi bo'ladi. Yana bu o'qitish usulida, matnlar orqali, ya'ni javoblarni to'g'ri noto'g'ri tarzda aralashtirib berish va ularni raqamlar bilan belgilab ajratish keng tarqalgan hisoblanadi;

-Statistik manbalar, kartografik qo'llanmalar va matematik modellashtirish kabi o'qitish usullari ham xorijiy davlatlarda keng tarqalgan va o'z navbatida o'quvchilar o'rtasida bahs-munozaralarga hamda ilmiy tortishuvlarga imkon yaratib beriladi. Tabiiy fanlar ta'limida olib boriladigan ilmiy ishlarda yana bir qancha usullardan foydalaniladi va ular quyidagi guruhlarga bo'linadi:

-Bilishning umumiy usuli-didaktik usul, ya'ni o'quv jarayoni va o'quvchilar ongining rivojlanishi hamda tarbiyasi bir-biri bilan aloqadiligiga qaraladi;

-Nazariy tekshirish usuli-asosan o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni qonuniyatlarini ochishga, umumlashtirishga yo'naltirilgan;

-Adabiyotlar bilan ishlash usuli. Tabiiy fanlar oid (mavzuga doir) nashr qilingan adabiyotlarni o‘rganish va umumlashtirish;

-Miqdoriy-tematik usuli. Asosan tabiiy fanlarga oid masalalar (jumladan turli haroratlarda havodagi suv miqdori, parallel yoyi uzunliklari va boshqalarda) yechishda qo‘llaniladi;

-Qiyoslash usuli. Ushbu usulda tabiiy ob‘ektlarni bir-biri bilan qiyoslashda foydalaniladi. Dunyo tabiiy hodisalarni quyoslash orqali maydon xatoligini tushuntirishda foydalanish mumkin;

Xulosa. Tabiiy fanlarda qo‘llanishi muvofiq bo‘lgan usullar va texnologiyalar, grafik organayzerlar juda ko‘pdir va ular bilan birgina maqolada batafsil tanishishni imkoni yo‘qdir. Shu bilan birga kelajakda tabiiy fanlar o‘qitish metodikasida yangidan-yangi o‘qitish usullari va texnologiyalari shakllanishi shubhasizdir. Umuman tabiiy fanlarning o‘qitishda foydalaniladigan usullardan dars samaradorligini oshirishda turli xil variantlarni qo‘llash o‘quvchilarning darslarga va tabiiy fanlarga bo‘lgan qiziqishlarni oshishiga zamin yaratadi. Tabiiy fanlar o‘qituvchining hamda tabiiy fanlarga qiziquvchi o‘quvchilarni doimiy o‘z ustida ishlash darajasiga olib chiqish va bu borada uni rabg‘atlantirish usullarni izlab topish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

2. Robert I.V. Teoreticheskie osnovi sozdaniya obrazovatelnix elektronix izdaniy / Tomsk: Izd-vo Tom. Un-ta, 2002. – 5,4

3. UNESCO (1999) Recommendations Addressed to the United Nations Educational Scientific and Cultural Organization UNESCO. In Education for the Media and the Digital Age Vienna pp 273-274.

4. Mamatova Ya., Sulaymanova S Uzbekistan mediata’lim taraqqiyoti yo‘lida. O‘quv qo‘llanma. -T.: Extremum-press, 2015. 60-64-b.

5. Qurboniyozov R. Geografiya ta’limi metodikasi.T., Universitet,1994.

6. Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent - 2005

7. B.E.Turayev, X.Isayev, G.O.Akbarova // Tabiiy fanlarning zamonaviy konsepsiyasi [matn] // o‘quv qo‘llanma. -T.: “Barkamol fayz media”, 2018.-164 bet.

8. Abdullayeva D (2021) Fanlarni o‘qitishda ta’lim metodlaridan foydalanish. Boshlang‘ich ta’limda innovatsiyalar.

9. www.ta’lim.uz, www.pedagog.uz, www.ziyonet.uz.

QURILISH TA’LIM YO‘NALISHI DARSLARINI ZAMONAVIY INTERFAOL METODLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH SAMARADORLIGI

*Jaloldinov Ahror Abdusattor o‘g‘li, Jaloldinov Nizomjon Abdusattor o‘g‘li
Namangan muhandislik-qurilish instituti tayanch doktorant,
Namangan muhandislik-qurilish instituti talabasi*

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ilg'or interfaol texnologiyalardan foydalangan holda dars jarayonlarini tashkil etish, yangi texnologiyalar asosida dars jaroyoni yanada samarali tashkil etish va ularni dars jarayonlaridagi samaradorligini baholash borasida so'z boradi. Maqolada "Baliq skeleti" metodiga alohida to'xtalib o'tilgan. Ushbu metod orqali dars jaroyonlaridagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirish samaradorligi borasida gap boradi.

Kalit so'zlar: ta'lim, interfaol, strategiya, sxema, axborot.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ СТРОИТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ

*основной докторант, сын Джалолдинова Ахрора Абдусаттора,
Наманганский инженерно-строительный институт, студент, сын
Джалолдинова Низомджона Абдусаттора, Наманганский инженерно-
строительный институт,*

Аннотация: В статье речь идет об организации урока с использованием современных передовых интерактивных технологий, более эффективной организации урока на основе новых технологий, оценке их эффективности в уроке. В статье рассматривается метод «Рыбий скелет». Благодаря этому методу речь идет об эффективности повышения показателей успеваемости в ходе урока.

Ключевые слова: образовательный, интерактивный, стратегия, схема, информация.


EFFECTIVENESS OF ORGANIZING CONSTRUCTION EDUCATION LESSONS BASED ON MODERN INTERACTIVE METHODS

*main doctoral student, son of Jaloldinov Akhror Abdusattor, Namangan
Engineering and Construction Institute student, son of Jaloldinov Nizomjon
Abdusattor, Namangan Engineering and Construction Institute,*

Abstract: The article is about organizing a lesson using modern advanced interactive technologies, more effectively organizing a lesson based on new technologies, and assessing their effectiveness in a lesson. The article discusses the "Fishbone" method. Thanks to this method, we are talking about the effectiveness of increasing performance indicators during the lesson.

Key words: educational, interactive, strategy, diagram, information.

KIRISH. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda - Konsepsiya) oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan [1].



Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li — bu mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda. Interfaol nmetodlar-ta'lim jarayonida talabalar hamda o'qituvchi o'rtasida

hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish, ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni samarali o'zlashtirish, ularda shaxsiy sifalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metod sanaladi.

TADQIQOT METODI VA METODOLOGIYASI.

O'qituvchi ta'lim jarayonida interfaol metodlar yordamida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Interfaol metodlarni qo'llash orqali o'qituvchi talabalarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Qurilish ta'lim yo'nalishlarida dars jarayonlarini sifatli tashkil etish va samaradorligini oshirish uchun interfaol metodlar asosiy manba hisoblanadi. Ushbu metodlar orqali ushbu ta'lim yo'nalishlarida o'zlashtirish ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshirishimiz mumkin.

Interfaol metodlardan foydalanish jarayonida talabalar:

- guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlash;
- tengdoshlari orasida o'z g'oyalarini erkin bayon qilish, bilimlarini hech qanday ruhiy to'siqlarsiz namoyish etish;
- muammoni hal qilishga ijodiy yondashish;
- guruh yoki jamoadoshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish;
- o'z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to'liq namoyon qila olish;
- fikrlash, fikrlarni umumlashtirish va ular orasidan eng muhimlarini saralash;
- o'z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash;
- o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish;
- turli vaziyatlarda harakatlanish va murakkab vaziyatlardan chiqa olish ko'nikmalarini o'zlashtirish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Interfaol metodlar: talabalarda bilimlami o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi;

- har bir talabani rag‘batlantiradi;
- har bir talabanning ruhiyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi;
- o‘quv materialining samarali o‘zlashtirilishi uchun qulay sharoit yaratadi;
- talabalarga ko‘p tomonlama ta‘sir ko‘rsatadi;
- talabalarda o‘rganilayotgan mavzular bo‘yicha fikr hamda munosabatni uyg‘otadi;

TADQIQOT NATIJASI. Demak, integratsiyalashgan ta‘limni joriy etishdan ko‘zlangan maqsad - bu ta‘lim, jamiyat, ish va dunyoni bir butun holda tasavvur etish va ular o‘rtasida barqaror aloqa o‘rnatishdan iborat hisoblanadi. “Baliq skeleti” metodi - talabalarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va yechish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qo‘llashda talabalarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma‘lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Undan foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi:

- 1) O‘qituvchi talabalar GO ni qo‘llash sharti bilan tanishtiradi;
- 2) talabalar kichik guruhlariga birlashtiriladi;
- 3) guruhlar topshiriqlarni bajaradi;
- 4) guruhlar o‘z yechimlarini jamoaga taqdim etadi;
- 5) jamoa guruhlarining yechimlari yuzasidan muhokama uyushtiradi.

Talabalar topshiriqlarni quyidagi tasvir asosida bajaradi.

Ushbu interfaol metod orqali qurilish ta‘lim yo‘nalishi talabalarining dars jarayonlarida qo‘llash orqali o‘zlashtirish ko‘rsatkichini sezilarli o‘garishlarini ko‘rishimiz mumkin. Qurilish ta‘lim yo‘nalishi qolgan yo‘nalishlarga nisbatan murakkab hisoblanadi, Dars jarayonlarida talabalarining dars jarayonlariga qiziqishlarini oshirish muhim hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, taraqqiyot tomon ildam odimlab borayotgan yurtimizda yosh avlodga bilim berish, ularning bilim darajasini xalqaro baholash standartlariga tenglashtirish uchun o‘qituvchining zimmasiga katta mas‘uliyat yuklanmoqda. Bu esa o‘qituvchilardan yanada bilimli, izlanuvchan hamda ta‘limga oid yeng so‘nggi yangiliklardan xabardor bo‘lishni talab etadi. Zamonaviy interfaol usullardan foydalangan holda dars jarayonini tashkil qiladigan bo‘lsak talabalarni darslarni yaxshi o‘zlashtirishi samaraliroq bo‘ladi. Yangicha interfaol metodlar talabalarni dars mashg‘ulotlariga qiziqish uyg‘otadi va dars jarayonlarida faolroq bo‘lishga chorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son **Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.**

2. Ziyomuhamedov M. Pedagogik texnologiya, nazariy va amaliy o‘quv mashg‘ulotlarni loyihalash tajribasidan metodik tavsiyonoma.-T.: “O‘zkitobsavdonashriyot” NMIU, 2023.

3. Asqarova O‘., Nishonov M., Kurbanova Z., Mo‘minova D. Pedagogika va psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasi.- Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekistob Milliy kutubxonasi nashriyoti, Toshkent-2023.

4. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. Fan va texnologiya. 2011.

5. <https://www.integer.uz/steam>

6. <http://exclusive.multibriefs.com>

7. <http://www.bmbf.de>

8. www.edu.uz

9. www.uzedu.uz

INFORMATIKA DARSLARIDA BULUTLI TEXNOLOGIYALARNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

Ashurova Sarvinoz Fayzullayevna

***Toshkent shahar Shayxontohur tumani 59-DIUM Informatika va axborot
texnologiyalari fani o‘qituvchisi***

Annotatsiya

Ushbu maqolada bulutli texnologiyalar yaratilishi, evalutsiya jarayoni va ular to‘g‘risida batafsil yoritilgan. Bundan tashqari bulutli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: axborot texnologiyalari, server xizmatlar, internet tarmog‘i, bulutli

texnologiya, bulutli hisoblash, shaxsiy kompyuter, infratuzilma.

KIRISH

O‘tgan oxirgi o‘n yillik davr mobaynida, telekommunikatsiya sohasi mehnat unumdorligining o‘shishini ta‘minlashda hamda yangi texnologiyalarni joriy etishda muhim o‘rinlarni zabt etib keldi. Elektron tijorat yoki Internet tarmog‘ining turli imkoniyatlaridan istalgancha miqdorda foydalanishning mutassil o‘shishiga va keng qamrovli joriy etilishiga, mazkur soha o‘ta muhim qirralarni — yangi iqtisodiyotni shakllanishiga va iqtisodiyot tarkibini rag‘batlantiruvchi vosita sifatida butkul o‘zgartirishlarni kiritishiga odimlanayotgani shubhasiz, muhim hodisaga aylanib bormoqda. Axborot texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda dasturiy ta‘minotni o‘rni juda ham katta ahamiyatga ega. Dastur to‘la qonligicha ishlashi uchun shaxsiy kompyuter minimal tizim talabiga javob berishi kerak. Internet modernizatsiyalashtirildi va server uskunalar ishlab chiqildi. Shu bilan birga shunday g‘oya yuzaga keldiki, dasturdan foydalanishda hisoblash tizimlarini birlashtirish va undan yagona manba sifatida foydalanish. 2008-yildan boshlab (Cloud technology) Bulutli texnologiyalar so‘zi dunyo miqyosida keng tarqaldi. Birinchi qarashda “Bulutli texnologiyalar” tushunarsiz ko‘rinsada: bu model o‘zida biror bir tizimdagi (serverlar, ilovalar, saqlash tizmlari va xizmatlar) dan tez, qulay, samarali foydalanish imkonini beradi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Bulutli texnologiyalar - bu model iste‘molchiga ATni servis sifatida internet orqali namoyon qiladi. Bulutli hisoblashlarning yuzaga kelishida “virtualizatsiya” texnologiyalarining ahamiyati juda katta hisoblanadi. Birinchi bo‘lib 1960-yilda virtualizatsiya texnologiyalari IBM taklif qilingan ammo qimmat meynfreym

kompyuter texnologiyalarini arzon x86 protsesorli kompyuter serverlariga o'tgandan so'ng virtualizatsiya termini ancha vaqtgacha esdan chiqarildi.

2000-yildan boshlab holat o'zgara boshladi, shu yillarga qadar WMware x86 razryadli virtualizatsiyada monopoliyani qo'lga kiritdi. 2005-yilda WMware kompaniyasi virtual mashinalarni DTdan foydalangan xolda bepul tadbiiq qildi. 2006-yilda Microsoft kompaniyasi "Microsoft virtual PC" Windows versiyasini ishga tushirildi. 2006-yilda Amazon kompaniyasi o'z qurilmalarida virtual serverlarni kengaytirish orqali "Amazon Elastic Compute Cloud" yuzaga keldi buning yana asosiy sabablaridan biri virtual serverlarni boshqa qurilmalarga (iste'molchilarga) ijaraga berish orqali bulutli texnologiyalarni kelib chiqishiga turtki bo'ldi. Boshqachasiga aytganda, bulutli hisoblash - ularning maqsadlari, vazifalari va loyihalarni erishish uchun apparat, dasturiy ta'minot, metodologiyasi va Internet xizmatlari kabi foydalanuvchiga mavjud vositalar turli hisoblanadi.

Muhokama. Endi bulutli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari haqida ko'rib chiqsak:

- bulutli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari to'g'risida aytadigan bo'lsa, eng avvalo iste'molchilar kompyuterlardan ishlash kuchi harakteristikalariga qaramaydi. Kompyuterlar yuqori kuchda ishlashi uchun, katta xotira va ko'p hajmli disklarga ega bo'lgan bo'lishlari shart emas. Chunki barcha ma'lumotlar va hamma dasturlar bulut serverlarida saqlanadi. Katta hajmga ega bo'lgan shaxsiy statsionar kompyuterlar, noutbuklar, netbuklar, orqali iste'molchilar bulutga kirishlari mumkin;

- iste'molchilar uchun kompyuterlarni ishlash sifati oshdi. Iste'molchilar kompyuter dasturlar, fayllarni masofadan turib ishga tushirishda kam yukli qilishlari uchun kam ilovalardan foydalanishlari kerak. Misol uchun, Panda Cloud Antivirus

- antivirus dasturi, veb servis sifatida foydalana olish mumkin. Panda Cloud Antivirus kuchli server ma'lumotlaridagi viruslarni masofadan turib skanerlash imkoni beradi. Bu dasturni is'temolchi kompyuterida ishga tushirish ishlash yoki ikki barobar;

- IT infratuzilmadan foydalanish samaratorligi oshadi va chiqimlar soni kamayadi. Agar kompaniya uchun server o'rtacha yuklanish baholashini oladigan bo'lsak u 13% ni tashkil etadi. Ba'zi hollarda kompaniya o'zining qo'shimcha resurslari kuchini ishlatishga to'g'ri keladi, lekin ba'zi hollarda hisoblash resurslari bo'sh turadi va ishlatilinmaydi. Bunda esa albatta pulning sarifi bekor bo'ladi. Agar kompaniya hisoblash resurslaridan masofadigi bulut serverlaridan foydalansa, bu holda kompaniya sarflari soni ikki marta kamayadi. Bundan kelib chiqqan holda nobarqaror iqtisodiy ishlab chiqarish moslashuvchanligi oshib boradi. O'zining ma'lumotlari bosha bir tashkilotlarda saqlashiga ishonchlilik qobilyati yo'qolganda kompaniyaning o'zi shaxsiy bulut yaratib, virtualizatsiya infratuzilmalarini barcha imkoniyatlaridan to'la qonchiligicha foydalansa bo'ladi; - xizmat ko'rsatishdagi va DT ni sotib olishdagi harajatlarni kamaytirish. Bulut hisoblash texnologiyalarini shaxsiy serverlarda qo'llanilishi kompaniya ko'lamida kichik xisoblanib, shuning uchun ularga xizmat ko'rsatish oson bo'ladi. Katta sonli fizik serverlardan voz kechish orqali DT ni sotib olishdagi muammolar kamayadi. Servis va ilovalar bulut

ichida bo‘lganligi uchun iste’molchilar DT sotib olishlari shart bo‘lmaydi; - hisoblash kuchi o‘sishi. Shaxsiy kompyuterlar bilan bulutli hisoblash resurslarini solishtirganda, bulutli hisoblash resurslari katta imkoniyatlarga ega.

Agar ma’lumotlar bulutda saqlanilayotgan bo‘lsa, bu ma’lumotlardan istalgan vaqtda iste’molchilar foydalanishlari mumkin faqatgina internet tarmog‘i mavjud bo‘lgandagina. Iste’molchilar uchun keng qamrovdagi qurilmalardan internetga kirish orqali foydalanishlari mumkin. Bulut mijozlari shaxsiy kompyuter, planshet, netbook, smartfon, notebooklardan foydalanishlari mumkin;

- tabiiy resurslardan foydalanishni kamaytirish. Bulutli hisoblash texnologiyalarida hisoblash kuchlarini tejash nafaqat elektroenergiya bo‘yicha balki fizik maydon va tabiiy resurslarni kamaytirish imkoniyati mavjud. Ma’lumotlarga ishlov berish markazi ma’lum bo‘lgan salqin hududlarda ham saqlash imkoniyati bor. Ma’lumotlardan foydalana oladigan qurilmalar hozirda juda ixcham hisoblanib, ishlab chiqarishda kamroq materiallar ketadi;

- ma’lumotlarni yoqolishiga bardoshligi. Bulutda saqlanilayotgan ma’lumotlar, o‘zlarining nusxalarini bir necha serverlarga joylashtiradi. Shuning uchun, bulutda saqlanilayotgan ma’lumotlarni yuqolishi ehtimoli juda ham kam albatta buni is’temolchining shaxsiy kompyuteri bilan solishtirganda.

Kamchiliklariga keladigan bo‘lsak, doimiy internet tarmog‘i bilan aloqada bo‘lishi lozim. Bulutli hisoblash texnologiyalaridan foydalanishda har vaqt tarmoq internetga ulangan bo‘lishi lozim. Bundan tashqari bir necha ilovalar mavjud bo‘lib, ular kompyuterlarga yuklanadi va ulardan uzoq muddatgacha ishlash imkoniyati bo‘ladi. Boshqa holatlarda esa har doimgidek oddiy hisoblanib, ulanish bo‘lmasa ish ham bo‘lmaydi. Ko‘pchilikning fikricha bu bulutli hisoblashlarning eng katta kamchiligi deb yuritishadi. Axborot texnologiyalari rivojlanishini hisobga olgan holda shuni aytishimiz mumkinki internet tarmog‘i hozirgi kunda har bir joyda mavjud. Shuning uchun bu muammoli qarashlar tez vaqtlar ichida umuman e’tibordan chiqadi;

- ishlash tezligi sekinligi. Ko‘pgina bulutli servislar to‘la qonligicha ishlashlari uchun normal internet ulanishni talab qiladi. Bu muammoni kelib chiqishini oldini olishda choralar ko‘rilyapti va bu muammo tez kunlarda zudlik bilan to‘g‘rilanishiga ishonch yuqori darajada;

- dasturlarni sekin ishlashi va to‘liq funktsional imkoniyatlarga ega bo‘lmagan holda. Bir necha dasturlar bulutli tizimlarda sekin ishlashlari mumkin lokal kompyuter tizimiga qaraganda. Bu uzoq masofadagi serverlarni yuklash qiyinchiliklari tufayli yuzaga kelishi mumkin;

- ma’lumotlar xavfsizligiga xavf borligi.

Iste’molchilar tomonidan bulut texnologiyalariga qo‘yilgan har bir ma’lumot xavfsizligi xavf ostida bo‘lishi mumkin. Lekin bunda birinchi masala provayderga is’temolchining ishonishi muhim o‘rinda turadi. Agar bulutli texnologiyalar provayderi ma’lumotlar almashishini ishonchli shifrlasa, zahira nusxalasa va bulutli texnologiyalar sohasi bozorida o‘ziga yarasha tajribaga ega bo‘lsa, bu holda xavfsizlik borasida muammolar tug‘ilmaydi. Fakt sifatida shuni aytish mumkinki, bulutda yo‘qolgan ma’lumotlarni qaytarish mumkin emas.

Xulosa. Bulutli texnologiyalardan foydalanib, kompyuter tizimi resurslari himoya ta'sir kamaytirish "jamo'a aql" innovatsion texnologiyalariga asoslangan. Antivirus serverlari dunyodagi millionlab foydalanuvchilarning Panda antivirus mahsulotlaridan olingan ma'lumotlardan har kuni paydo bo'lgan zararli dasturlarning yangi turlarini avtomatik ravishda aniqlash va tasniflash uchun foydalanish mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amirov D.M, Atajonov A.Y, Ibragimov D.A, Raximjonov Z.Y, Saidxo'jayev S.S. "Axborot - Kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati" BMTTD ning O'zbekistondagi vakolatxonasi, 2010.
2. Kruk B.I. Telekommunikatsion sistem seti. Sovremenne texnologi.M: Goryachaya liniya – Telekom 2003 yil.
3. <https://ziyonet.uz/ru>
4. <https://www.cambridge.org/>

MAKTABGACHA TA'LIMDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Agibaeva Nursulu Anarbekovna
17-DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalarning maktabgacha ta'limga qanday ta'sir qilishini, ularning bolalar rivojlanishidagi rolini, shuningdek, ularning afzalliklari va qiyinchiliklari to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin.

Kalit so'zlar. Zamonaviy texnologiya, interaktiv ta'lim, virtual texnologiyalar.

Zamonaviy dunyoda texnologiya hayotimizning barcha sohalariga, shu jumladan ta'limga kirib bormoqda. Hatto eng kichik yoshdagi bolalar ham, raqamli asrning faol ishtirokchilariga aylanishmoqda. Shu bilan birga, ta'lim, shu jumladan maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy tarbiyasi ham rivojlanmoqda.

Maktabgacha ta'lim har bir bolaning kelajakdagi muvaffaqiyati va farovonligi asoslarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar paydo bo'lishi bilan bu jarayon haqiqiy inqilobni boshdan kechirmoqda. Zamonaviy texnologiyalar zamonaviy jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylandi va ta'lim ham bundan mustasno emas. Maktabgacha ta'limda ular bolalarning o'rganishi va rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratib kelmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maxsus ishlab chiqilgan o'yinlar va ilovalar ajralmas o'quv vositasiga aylandi. Smartfonlar va planshetlar paydo bo'lishi bilan bolalar ta'lim dasturlari va o'yinlarining boy tanlovidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ular o'qish, matematika, mantiq va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradigan interaktiv topshiriqlarni taklif qilishadi. Bunday ilovalar odatda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va o'rganishga qiziqarli yondashuvni taklif qilgan holda jarayonni qiziqarli va motivatsion qiladi. Ular bolalarga o'yin orqali o'rganishga, hisoblash,

o‘qish, mantiq, tadqiqot va ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Audiokitoblar, musiqa, videolar va interaktiv elektron kitoblar bolalarning ta’limini boyitish uchun tengsiz manbalardir. Ular nafaqat tinglash va idrok etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, balki materialni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradigan ma’lumotlarni ilgari suradi.

Virtual texnologiyalar ham o‘z navbatida noyob o‘rganish imkoniyatlarini taqdim etadi. Ularning yordami bilan bolalar yangi dunyolar, tushunchalar va jarayonlarni interaktiv tarzda o‘rganishlari mumkin. Masalan, virtual ekskursiyalar geografiya va tarixni o‘rganishni, yangi tushunchalarni va fazoviy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi. Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) bolalarga interaktiv ta’lim muhitiga sho‘ng‘ish imkoniyatini beradi. Bu ularga atrofdagi dunyoni o‘rganish, yangi tushunchalarni o‘rganish va fazoviy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi.

Internetning rivojlanishi bilan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maxsus moslashtirilgan tarkibni taklif qiluvchi turli xil onlayn manbalar va ta’lim platformalari paydo bo‘ldi. Video darslar, mashqlar va interaktiv o‘yinlar bolalarga uyda yoki bolalar bog‘chasida qulay muhitda o‘rganish imkonini berib, o‘rganishni yanada qulay qildi.

Sinfda yoki uyda interaktiv doskalar va qurilmalardan foydalanish bolalarga mashg‘ulotlarda faol ishtirok etish imkonini beradi. Ular o‘qituvchi yoki ota-onalar bilan chizishlari, interaktiv o‘yinlar o‘ynashlari, muammolarni hal qilishlari mumkin, bu esa o‘quv jarayonini yanada dinamik va esda qolarli qiladi.

Zamonaviy texnologiyalar har bir bolaning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda shaxsiylashtirilgan o‘quv dasturlarini yaratishga imkon beradi. Bu bolalarning o‘z ustida ishlab rivojlanishiga imkon beradi.

Maktabgacha ta’limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bolalarda ijodkorlik va innovatsiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ular mavjud vositalar va dasturlardan foydalangan holda o‘zlarining loyihalari, animatsiyalari, multfilmlari, musiqalari va boshqalarni yaratishlari mumkin. Maktabgacha ta’limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari orasida o‘rganish motivatsiyasini oshirish, materialni o‘zlashtirishni yaxshilash, ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va raqamli savodxonlikni rivojlantirish kiradi.

Biroq, maktabgacha ta’limga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ham qiyinchiliklar va xavf-xatarlar bilan bog‘liq. Ular orasida telefonlarga qaramlik, ijtimoiy ko‘nikmalarni yo‘qotish xavfi, ma’lumotlarni himoya qilishning yetarli emasligi va kiberxavfsizlik bilan bog‘liq muammolar mavjud. O‘qituvchilar va ota-onalar maktabgacha ta’limda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish uchun birgalikda ishlashlari muhimdir. O‘qituvchilar tegishli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak, ota – onalar esa ularning sa’y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlashi va o‘quv jarayoniga jalb qilinishi kerak.

Zamonaviy texnologiyalarni maktabgacha ta’limga integratsiyalashuvi kelajakda ham davom etadi. Biroq, bu bolalarning ehtiyojlari va manfaatlarini

hisobga olgan holda ongli va mas'uliyatli tarzda amalga oshirilishi muhimdir. Ular erta bolalik ta'limi uchun yangi zamin yaratib, uni yanada qiziqarli, samarali va barcha bolalar uchun qulay qiladi. Biroq, ularning muvaffaqiyatli integratsiyasi ehtiyotkorlik bilan rejalashtirishni, ta'lim jamoalari, ota-onalar va umuman jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Oxir oqibat, zamonaviy texnologiyalardan to'g'ri foydalanish har bir bolaning sifatli ta'lim va farovon kelajagini ta'minlashga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki zamonaviy texnologiyalar maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalash uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Biroq, texnologiyadan oqilona va bolalarning yosh xususiyatlariga muvofiq foydalanish kerakligini yodda tutish zarur. Ota-onalar va o'qituvchilar bolalarning aqliy rivojlanishida maqbul natijalarga erishish uchun texnologiya va an'anaviy o'qitish usullari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlab, o'quv jarayonida faol ishtirok etishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Hailey, David, va Chris Dede. "Immersive interfaces for engagement and learning." *Science* 323, no. 5910 (2009): 66-69.
2. Karsenti, Thierry, va Lara Lepage. "La tablette électronique en classe: un nouvel outil technopédagogique? Une étude de cas en milieu défavorisé." *Revue des sciences de l'éducation* 40, no. 2 (2014): 308-328.
3. Ke, Fengfeng, va Yu (Aimee) Zhang. "Game-based learning research: Current status, future directions, and implications for educational practice." *Educational Technology Research and Development* 65, no. 3 (2017): 893-911.
4. Liu, Eric Zhi-Feng. "Digital games and learning: Research and theory." In *Handbook of research on educational communications and technology*, pp. 485-503. Springer, 2014.
5. Prensky, Marc. "Digital natives, digital immigrants part 1." *On the horizon* 9, no. 5 (2001): 1-6.
6. Squire, Kurt D., va Henry Jenkins. "Harnessing the power of games in education." *Insight* 3, no. 1 (2005): 5-33.
7. Wouters, Pieter, Herre van Oostendorp, Theo van der Spek, va Heleen de Vries. "A meta-analysis of the cognitive and motivational effects of serious games." *Journal of Educational Psychology* 105, no. 2 (2013): 249.

DARS JARAYONIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI VA ULARNI QO'LLASH TEXNIKASI

Agibayeva Shaxzoda Baxtiyor qizi

GulDU Interyer dizayn loyihalash yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz dars jarayonida interaktiv usullarning ahamiyatini, ularning afzalliklari va samarali amalga oshirish usullari to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin.

Kalit soʻzlar. Interfaol usullar, vizual, kinestetika, tanqidiy fikrlash.

Interfaol oʻqitish usullari samarali va qiziqarli darslarni yaratishda muhim rol oʻynaydi. Ular oʻquvchilarni jalb qilishga yordam beradi, oʻqishga boʻlgan qiziqishini ragʻbatlantiradi, tanqidiy fikrlash va muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi, ijobiy taʼlim muhitini yaratadi va oʻquvchilarga oʻrganilgan materialni yaxshiroq oʻzlashtirishga yordam beradi. Interfaol usullarni amalga oshirish oʻqituvchining ijodkorligi va moslashuvchanligini talab qiladi, ammo bu, albatta, kuch sarflashga arziydi, chunki bu taʼlimni oʻquv jarayonining barcha ishtirokchilari uchun yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Interfaol usullar darslarni oʻquvchilarning turli xil oʻquv uslublariga moslashtirishga imkon beradi. Baʼzilar vizual oʻrganishni, boshqalari audiolarni, va yana boshqalari kinestetika (jismoniy faollik va harakatdan faol foydalaniladigan oʻqitish) usullarini afzal koʻrishadi. Interaktiv usullar oʻqituvchiga ushbu farqlarni hisobga olish va darslarni hamma uchun qulay va samarali qilish imkonini beradi.

Oʻquv jarayonida interfaol usullardan foydalanish oʻquv samaradorligini sezilarli darajada oshirishi, oʻquvchilarni qiziqtirishi va materialni yaxshiroq tushunishiga yordam beradi. Oʻquv jarayonida interaktiv usullardan foydalanish bir qator muhim afzalliklarga ega va oʻrganish samaradorligiga sezilarli taʼsir koʻrsatishi mumkin:

1. Talabalarni faollashtirish: Interfaol usullar talabalarning darsda faol ishtirokini ragʻbatlantirishga yordam beradi. Interfaol usullarning asosiy afzalliklaridan biri bu oʻquvchilarni oʻquv jarayoniga jalb qilish qobiliyatidir. Maʼruzalarni passiv tinglash oʻrniga, ular munozaralarda, topshiriqlarda va turli xil oʻyinlar orqali darsda faol ishtirok etadilar, bu esa materialni chuqurroq oʻzlashtirishga yordam beradi.

2. Motivatsiyani oshirish: Oʻyin elementlari, guruh topshiriqlari, multimedia taqdimotlari va boshqa interaktiv texnikalar talabalar uchun darslarni yanada qiziqarli va esda qolarli qiladi, bu ularning oʻrganish motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

3. Muloqot va aloqa koʻnikmalarini rivojlantirish: Interfaol oʻqitish usullari oʻquvchilarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Guruhlarda ishlash, dars mavzusini muhokama qilish, munozaralar va taqdimotlar oʻtkazish ularga oʻz fikrlari va gʻoyalarini ifoda etishni, oʻz nuqtai nazarini ilgari surgan holda bahslashishga va boshqalarning fikrlarini tinglashni va hurmat qilishni oʻrganishga yordam beradi.

4. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Interfaol usullardan foydalanish oʻquvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Ular maʼlumotni tahlil qilishga, qaror qabul qilishga va oʻz nuqtai nazarlarini ishlab chiqishga majbur boʻladilar, bu ularga mustaqillik va ijodkorlik koʻnikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

5. Ijobiy taʼlim muhitini yaratish: Interfaol usullar sinfda ijobiy taʼlim muhitini yaratishga yordam beradi. Oʻquvchilar oʻzlarini yanada ishonchli va

qiziqroq his qilishadi, bu esa sinf muhitini yaxshilaydi va o'rganish motivatsiyasini oshiradi.

6. Materialni eslab qolish qobiliyatini oshirish: Darsda faol ishtirok etish va interfaol usullardan foydalanish tufayli talabalar o'rganilgan materialni yaxshiroq yodlaydilar. Buning sababi shundaki, faol faoliyat jarayonida olingan ma'lumotlar xotirada yanada ishonchli tarzda o'rnatiladi.

7. Ta'limni individuallashtirish: Interaktiv usullar o'qituvchiga har bir o'quvchining ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda o'rganishni individuallashtirishga imkon beradi. U har bir talaba o'z darajasida muvaffaqiyatga erishishi uchun turli xil mashg'ulotlar va o'qitish yondashuvlarini taklif qilishi mumkin.

8. Bilimlarni amalda qo'llash: Interfaol usullar ko'pincha talabalarga topshiriqlarni bajarish, ishlarni hal qilish va boshqa amaliy mashqlar orqali olgan bilimlarini amalda qo'llashga imkon beradi.

9. Ota-onalarning faol ishtirokini rag'batlantirish: Interfaol usullar, shuningdek, ota-onalarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishini o'z ichiga olishi mumkin. Ular munozaralarda, darsdan tashqari mashg'ulotlarda qatnashishlari va uyda bolalarga topshiriqlarni bajarishda yordam berishlari mumkin.

Muayyan texnikani tanlash o'quv maqsadlariga, mavzuning o'ziga xos xususiyatlariga va talabalarning individual ehtiyojlariga bog'liq.

Interfaol o'qitish usullari zamonaviy ta'limda muhim rol o'ynaydi, darslarni zerikarli ma'ruzalardan bilim dunyosi bo'ylab hayajonli sayohatlarga aylantiradi. Interfaol usullarni qo'llash usullari xilma-xil bo'lishi mumkin va mavzu sohasiga, talabalarning yoshiga, mavjud resurslarga va boshqa omillarga bog'liq. Ulardan ba'zilar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Guruh ishlari va jamoaviy loyihalar.
- Interfaol doskalar va onlayn platformalar kabi interaktiv texnologiyalardan foydalanish.
- Munozaralar va rolli o'yinlarni tashkil etish.
- Materialni mustahkamlash uchun o'yinlar va kvestlarni o'tkazish.
- Amaliy topshiriqlar, shu jumladan laboratoriya ishlari, tajribalar va loyihalar.
- Fikr-mulohaza, o'z-o'zini hurmat qilish va aks ettirish kabi faol o'rganish usullaridan foydalanish.

O'quv jarayonida interfaol usullardan foydalanish talabalarning faolligini sezilarli darajada oshirishi va o'rganishni osonlashtirishi mumkin. Quyida siz foydalanishingiz mumkin bo'lgan bir nechta texnikalar keltirilgan:

1. PowerPoint yoki Google Slides kabi taqdimot vositalaridan so'rovlar, testlar yoki fikr-mulohaza topshiriqlari kabi interfaol elementlardan foydalaning.

2. Talabalarga o'z bilimlarini amalda qo'llash imkonini beruvchi o'yin elementlarini o'quv jarayoniga kiritish ularning faolligini oshirishga va ma'lumotni yaxshiroq qabul qilishga yordam beradi.

3. Kichik guruhlarda ishlash o'quvchilarga materialni muhokama qilish, o'z nuqtai nazarini rivojlantirish va hamkorlik qilishni o'rganish imkonini beradi. Shuningdek, u muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Sinfni

guruhlarga ajrating va har bir guruhga hal qilish uchun topshiriq yoki muammo bering. Bu hamkorlik va fikr almashish ko'nikmalarini rag'batlantiradi.

4. O'quvchilarga material bilan faolroq muloqot qilish imkonini beruvchi interaktiv doskalar, planshetlar, onlayn platformalar, mobil ilovalar – bularning barchasidan interfaol darslar yaratishda foydalanish mumkin. Bu interfaol grafik va animatsiyalardan foydalangan holda materialni taqdim etishdan tortib, talabalar texnologiyadan foydalangan holda bajarishi mumkin bo'lgan vazifalargacha bo'lishi mumkin.

5. Savollar berish va talabalardan real vaqtda fikr-mulohazalarni olish uchun onlayn ovoz berish tizimlari yoki mobil ilovalardan foydalaning. Dolzarb mavzular bo'yicha munozaralar yoki munozarali masalalar bo'yicha muhokamalar tashkil etish o'quvchilarga argumentatsiyani rivojlantirish, o'z fikrlarini bildirishni va boshqalarning nuqtai nazarini tinglashni o'rganish imkonini beradi.

6. Talabalarga o'z fikrlarini muhokama qilish va murosaga kelish orqali muammo yoki muammolarni hal qilish uchun birgalikda ishlashga imkon bering.

7. Materialni oddiygina tushuntirish o'rniga, o'quvchilarga real vaqtda ishtirok etish va natijalarni ko'rish imkonini beruvchi namoyishlar, tajribalar yoki videolardan foydalaning.

8. Amaliy masalalarni yechish yoki vaziyatlarni tahlil qilish talabalarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash va tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

9. O'quvchilarning topshiriqlari va darslari yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirish muhimdir. Shuningdek, ularga muvaffaqiyatlarini o'z-o'zini baholash, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkoniyatini berish foydalidir.

10. Olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashni talab qiluvchi vazifalarni belgilash, masalan, loyihalar yaratish, insho yozish yoki muammolarni hal qilish.

Mumkin bo'lgan eng qiziqarli va samarali o'rganish tajribasini yaratish uchun dars maqsadlari, talaba ehtiyojlari va fan sohasiga qarab ushbu usullarning kombinatsiyasidan foydalanish zarur.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki dars jarayonida interfaol usullardan

foydalanish o'qitish jarayonini qiziqarli qilishga, o'quvchilarda kreativlikning rivojlanishiga, tanqidiy fikrlash, bahslashish, o'z fikrini ifodalay olish va bilimlarini amalda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Johnson, L., Adams, S., & Haywood, K. (2011). The NMC Horizon Report: 2011 K-12 Edition. The New Media Consortium.

2. Puentedura, R. R. (2006). Transformation, technology, and education. Retrieved from <http://hippasus.com/resources/tte/>

3. Bates, T. (2015). Teaching in a digital age: Guidelines for designing teaching and learning. Tony Bates Associates Ltd.

4. Hrastinski, S. (2019). Teaching and Learning Online: Volume 1: Foundations of Online Education. Independently Published.

5. Palloff, R. M., & Pratt, K. (2013). Lessons from the Virtual Classroom: The Realities of Online Teaching. John Wiley & Sons.

6. Salmon, G. (2013). E-tivities: The Key to Active Online Learning. Routledge.

TARIX FANI DARSLARINI SIFATLI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY METODLARI

Biybalayev Islombek Abdunazarovich

*Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy
markazi "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasi mudiri*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bir qancha milliy va xorijiy adabiyotlarni tahlil

etish orqali tarixiy fani darslarini qanday qilib yanada samarali tashkil qilish mumkinligini muhokama qilinadi. Tarix fani ta'limning barcha bosqichlarida o'z o'rniga ega bo'lgan mustaqil ijtimoiy fan sifatida barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Kalit so'zlar: samarali o'qitish, tarixni o'qitish, tarixni samarali o'qitish, tarixiy Empatiya

Abstract: This article discusses how to organize historical education more effectively by analyzing national and foreign literature. History as an independent social science, which has its place in all stages of education, is considered important in educating a harmoniously developed generation

Keywords: effective teaching, history teaching, effective history teaching, historical empathy.

KIRISH

Istiqlol yillarida mamalakatimiz tarixini xolisona o'rganish, xalqimizning qadimiy va boy tarixiga haqqoniy baho berish birlamchi vazifaga aylandi. O'zbek xalqining hayoti va taqdiriga keskin burilish yasagan mustaqillik soyasida ilm-fan, xususan milliy o'zlik va ma'naviy yuksalish asosi bo'lgan tarix fani ham o'ziga xos rivojlandi. O'zbekiston tarixini xolisona yoritishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning **"Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz"** asarida aytilganidek, "... jahondagi ilg'or tajribalarni chuqur o'rganish amalda joriy etishni oldimizda turgan keng ko'lamli vazifalarni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri, deb hisoblaymiz". Ma'naviyatning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan tarix fani so'ngi yillarda ilk bor o'zining qonuniy vazifasini bajarishga – xalqning o'zligini anglatishga xizmat qilishga kirishdi. "Tarixiy xotira tuyg'usi to'laonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yuqotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan holis va xaqqoniy o'rganilgan taqdiridagina chinakam tarix bo'ladi" Tarix fanini samarali tashkil etish haqida fikr yuritishdan oldin "samarali ta'lim" tushunchasini mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar fikrlarini tahlil etgan holda o'rganib chiqsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Samarali o'qitish - bu o'qituvchilarning turli xil o'qitish uslublarini birlashtirib yoki ularni alohida qo'llash orqali talabalarda mustaqil o'rganish qobiliyati, dars atmosferasini idrok etish, tushunish va va kerakli bilimlarni egallash darajasi yuqori bo'lgan ta'lim jarayoni hisoblanadi.

ASOSIY QISM

“Ta’lim” – bu bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta’lim jarayonida ma’lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta’lim tor ma’noda o‘qitish tushunchasini anglatadi, lekin u faqat turli tipdagi o‘quv yurtlarida o‘qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma’lumot berish jarayonini ham bildiradi.

“Sifat” — bu falsafada obyektning muhim belgilarini ifodalaydigan tushuncha. Sifat obyekt tarkibiy qismlarining o‘zaro turg‘un munosabatlarini aks ettiradi, bu munosabatlar bir obyektning ikkinchi obyektidan ajratib turadigan o‘ziga xos tomonlarini anglatadi. Shu bilan birga sifat bir turdagi obyektlarga xos umumiylikni ham ifodalaydi.

“Ta’lim” va “sifat” tushunchalarining mohiyatini uyg‘unlashtiradigan bo‘lsak, ta’lim sifati, bu uning xususiyatlari yaxlitligi, ta’lim oluvchi o‘qishi va shaxsiy rivojlanishi uchun xizmat qiladigan eng qulay usullar birikuvidan iborat jarayondir. An’anaviy tarix darslarini tashkil etishda o‘quvchi-yoshlarga ma’lumot uzatish jarayoni odatda darslik yoki boshqa ikkilamchi tayyor manbalarini o‘qish orqali amalga oshiriladi. Bu esa ta’lim oluvchilarga tayyor ma’lumotlarni eslab qolish va axborot sifatida qabul qilish ko‘nikmasinigina hosil qiladi xolos. Noan’anaviy interfaol, samarali tarix darslarida esa o‘tmish haqida ishonchli ta’riflar va tushuntirishlarga erishish uchun yuqorida aytib o‘tilgan ko‘nikmalar va tarix o‘qitish metodikasidan samarali foydalanish zarurligiga ishora beriladi.

Chunki tarix darslarida va tarixni tadqiq qilishda qo‘llaniladigan pedagogik va tarixiy tadqiqot usullari o‘quvchilarga o‘tmishni tushunish hamda tarixiy voqealarni tahlil qilishda qulayliklar beradi. Manbalarni o‘rganish va yozma dalillarni aniqlash, manbani yoki berilgan dalillarni tayyorlagan shaxs(lar) ning shaxsiy fikrlarini aniqlash va yozma yoki boshqa manbalarda keltirilgan fikrlarning asl ma’nosini o‘rganish jarayoni tarix o‘qitishning yana bir jihatlaridir. Bu esa tarixiy haqiqatni qanday o‘rganish mumkinligini o‘rgatish demakdir. Samarali tarix o‘qitish o‘quvchilarga tayyor tarixiy xulosa qilingan ma’lumotlar bilan birga manba va dalillarni ham taqdim etishni talab etadi. O‘quvchi yozma yoki og‘zaki tarixiy manbalarni tahlil etgan holda tarixiy bilim va tasavvur hosil qilishi pedagogik nuqtai nazarda g‘oyat samaralidir. Tarix darslarida ta’lim oluvchining xotirasini rag‘batlantiruvchi usullardan ko‘ra, uning mustaqil fikrlashini ta’minlaydigan usullardan foydalanish maqsadli hisoblanadi. Tarixiy bilimlarni tushunish va o‘tmishni anglash uchun dalillarni sinchiklab o‘rganish zarurdir. Ammo tarixni tashkil etuvchi elementlar nafaqat ular haqida balki, o‘tmish voqealari, bugungi kunda ma’lum bo‘lgan tajribalar majmuasi hamdir. Ba’zi tadqiqotchilar tarixiy tafakkur jarayonlaridan foydalangan holda tarixni o‘qitish amaliyotlari ko‘plab tarixiy muammolar va mavzularni tushunishda muhim hissa qo‘shishini ta’kidlaydilar.

Bugunning zamonaviy ta’lim holati ta’lim tushunchasini qayta ko‘rib chiqish va aniqlashtirishni, shaxsga yo‘naltirilgan pedagogikaning toifalari va tamoyillarini tahlil qilish jarayoniga kirishni talab qiladi. Pedagogik ongning yangi modeli asta-sekin o‘qituvchining ta’lim oluvchiga bevosita ta’sir etish

amaliyotidan voz kechadi va ta'lim oluvchining o'z rivojlanish imkoniyatlarini ta'minlash uchun barcha pedagogik makonning tuzilishini yanada samarali tashkil etishga imkon beradi. Shunday qilib, har bir o'qituvchi o'z darslarini qiziqarli va mazmunli bo'lishga harakat qiladi, bu esa ta'lim oluvchi o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Xususan, tarix darslarida faktlarni assimilyatsiya qilish emas, balki turli davrlarning qadriyatlarini rivojlantirish, o'tmish odamining o'rniga o'zini qo'yish, uning fikrlarini, harakatlarini tushunish qobiliyati orqali shaxsni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bularning barchasi tarixiy empatiya yordamida amalga oshirilishi mumkin. Tarix o'qituvchisining o'ziga xos vazifasi tarixiy tushunchalarni o'rgatish bilan birga uni kelajakga yetkazishni ta'minlashdir. Tarixni o'qitish samaradorligini ta'minlash uchun, tarix o'qituvchisidan ma'lum bilim darajasi va ba'zi o'qituvchilik qobiliyatlariga ega bo'lishi, tarixiy voqealarni, faktlarni, odamlarni, jarayonlarni va o'ziga xoslikni tushunish va tushuntirish uchun transformatsiya, sharhlash, baholash, tahlil va sintez qobiliyatlari va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi. Tarix o'qitish jarayonida boshqa ijtimoiy fanlar bilan o'zaro bog'liqligidan kelib chiqib materiallar tayyorlash, masalan geografiya, fuqarolik bilimlari, diniy madaniyat va axloqshunoslik fanlaridagi ma'lumotlardan foydalanish talabalarga nafaqat mavzularni yaxshiroq o'rganishga yordam beradi, balki umuman ijtimoiy voqeliklarni idrok etish va real hayotni tushunish imkoniyatini beradi.

Tarix darslarida badiiy adabiyot namunalaridan foydalanish ham tarixiy haqiqatni aniqlashtirishga, o'tmishning yorqin tasvirilarini yaratishga yordam beradi. Bundan tashqari, tarixiy voqealarni hikoya qilishda turli xil namoyishlarni qo'llash samarali hisoblanadi. Misol uchun, moddiy madaniyat obektlarining tasviriy ko'rinishlari, o'qitishning texnik (audio-vizual) vositalari shular jumlasidandir. Bularning barchasi o'quvchilarga tarixiy davrning muhitini tasavvur qilish, o'zini o'tmishda tarixiy hodisalar ichida his qilish tuyg'usini boshdan kechirish imkonini beradi.

XULOSA

Dars jarayonida tarixiy materiallar va manbalardan (tarixiy hujjatlar, tarixiy ashyolar, rasmlar, xaritalar) foydalanish juda muhim va foydalidir. Bundan tashqari, tarix darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internetdan foydalanish o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga hissa qo'shibgina qolmay, ularning tarixiy tafakkur va o'rganish darajalarini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – B.27.
2. I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 31
3. S.Toshev, (2020). "O'zbekistonning sovet mustamlakachiligi davri tarixini o'rganishda turk tilidagi manbalarni o'rni". "Tarixiy manbashunoslik, tarixnavislik, tarix tadqiqotlari metodlari va metodologiyasining dolzarb masalalari" (pp. 121-127).

4. E. Perrot, Effective Teaching. New York: Longman. (1982); B. Laar, R. Blatchford, D. Winkley, G. Badman, R. Howards, Effective Teaching. Oxford: National Primary Center. – P.108.

5. A. Harris, Teaching and Learning in the Effective School. Aldershot: Ashgate, 1999. –P.401.

6. R. Dunne, E.C. Wragg, a. g. e. s. 54 C. Kyriacou, a. g. e. s.4

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTERFAOL DARSLARNI TASHKIL ETISH

Mardiyev Javohir Ma'ruffjonovich

*Samarqand Abu Ali ibn Sino jamoat salomatligi texnikumi kasbiy
faoliyatining huquqiy asoslari va bioetika fani o'qituvchisi*

Zamonaviy texnologiya - bu o'quvchining ichki salohiyatini ochib berishga, kasbiy rivojlanish va professionallikning eng yuqori darajasiga erishishga yordam beradigan xususiyatlar va fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan vositalar to'plamidir.

Tadqiqot maqsadi: Darsning nazariy qismida yangi mavzu bo'yicha o'qituvchining axboroti, elektron o'quv kontentda videoma'ruza, elektron ko'rgazma yoki elektron darslikdan foydalanib yangi mavzu axborotlarini boyitish

Tadqiqot materiallari va me.todlari: Yangi pedagogik texnologiya ta'limining ma'lum maqsadga yo'naltirilgan shakli, usuli va vositalar mahsulidir. Aksariyat hollarda o'qituvchi dars jarayonida o'zi ishlaydi, o'quvchilar kuzatuvchi bo'lib qolaveradilar. Ta'limning bunday ko'rinishi ta'lim oluvchining aqliy tafakkurini o'stirmaydi, faolligini oshirmaydi, ta'lim jarayonidagi ijodiy faolligini so'ndiradi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Huquq o'qituvchilarini kasbiy motivatsiya va qiziqtirish metodlaridan biri bo'lgan, zamonaviy "TRIPLET" metodini "Huquq" o'quv predmetini o'qitishda qo'llanilish metodikasi ishlab chiqildim. Bu usul uch qadamdan iborat bo'lib,

Birinchi qadam – O'tilgan mavzulardan ta'lim oluvchi o'ziga qulay mavzuni tanlab oladi, tanlab olingan mavzuning qanchalik muhimligi tahlil qilinadi.

Ikkinchi qadam – Har bir o'quvchiga 10 daqiqadan vaqt beriladi har bir talaba mustaqil ravishda mavzudagi qonunlarni boblarga ajratib chiqadi, qonundagi mehnatga oid munosabatlarni amalga oshirishga oid yo'llarni belgilaydilar. Yaxshi baholangan g'oyalarni amalga oshirish yo'llari belgilanadi; eng yaxshi belgilangan yechim tanlanadi.

Uchunchi qadam - natijalarni tekshirish va nazorat qilish. Natijalarni oliy ta'limpsixologi va guruh rahbari individual va umumiy o'rganib chiqib, qayd etib borishi muhim.

Muammo quyidagicha: Hozirgi kundagi huquqchilar oldida turgan muammolar va tarixiy manbalaridan foydalanish zaruriyati haqida, muammoli ma'ruzadan so'ng guruhlar qo'yilgan muammoning yechimini izlab topishi va o'z loyihasini ishlab chiqishlari uchun muddat belgilandi.

Men “PATENT” interfaol uslubi “Huquq o‘qitish metodikasi” ta’lim yo‘nalishi guruhlarida quyidagicha qo‘lladim:

2- Metod. “PATENT” uslubi talabalarga o‘zgalar fikrini hurmat qilgan holda dalillash, ishontirish, asoslash, murosaga kelish va izlash qobiliyatlarini rivojlantirish; muammoli vaziyatlarni oldindan ko‘ra bilish, ularni hal qilish yo‘llarini izlab topish, munozara olib borish mahorati, o‘z fikrini boshqalarga o‘tkaza olish, ta’sir eta olishga o‘rgatish va bahslashish madaniyatini shakllantiradi.

“PATENT” uslubi natijasida: talabalar mashg‘ulot davomida nostandart vaziyatlarda o‘zini va jamoani boshqara olish, muammoli vaziyatlarni tushuna bilish va ularning yechimini aniqlashda o‘z uslublarini topa bilish, o‘z fikrini boshqalarga o‘tkaza olish, ta’sir eta olish usullariga hamda bahslashish madaniyatiga o‘rganadilar.

“PATENT” uslubini loyiha asosida kasbiy yo‘naltirilgan o‘qitishni tashkil etishda qo‘llanildi. O‘quv xonasiga talabalar kirib kelishar ekan, mashg‘ulotdan oldin maxsus stol ustiga o‘zbek tilida yozilgan P, A, T, E, N, T harflari talabalar soni bo‘yicha qo‘yilgan bo‘lib, talabalarning har biri o‘zi istagan harfni olib o‘z o‘rniga o‘tirishi mumkin bo‘ladi. Natijada guruhda P, A, T, E, N, T - harflilardan iborat beshta ta kichik guruh hosil bo‘ldi.

O‘qituvchi loyihani o‘tkazish tartibi bilan talabalarni tanishtiradi va guruhlarining har biri tanlangan mavzu yoki muammoning bir tomonini o‘rganishlarini aytib vaqt belgilandi.

Guruhlarining ishlari tayyor bo‘lgach, berilgan savol bo‘yicha o‘zlarining javob-loyiha ishlarini navbat bilan taqdimotini qiladilar.

Bu yerda, “PATENT” interfaol metodi talabalarda muammolarni aniqlash qobiliyati, kognitiv ko‘nikmalarni va malakalarni rivojlantirish, mavjud manbalardan va imkoniyatlardan foydalanish, muammoning yechimini topishni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

P (Hujjat) – Hujjatning nomi, muammoning belgisi-muammoning muhokamasi

vaqtida turli ziddiyatlarga, tushunmovchiliklarga keltiruvchi yopiq elementlarning yo‘nalishlarini hali ochilmagan yopiq qirralarini o‘zgartirish bilan bog‘liq texnologiyalarni, harakatlarni aniqlashdir.

A (Adolat) - sababi-muammoning kelib chiqishiga sabab bo‘ladigan yopiq qirralarni izlash, aniqlash.

T (Tergov) - natijasi-kutiladigan natijaga ega bo‘lishda muammoga olib kelgan yopiq qirralar o‘rnini bosuvchi yangi texnologiyalarni, harakatlarni, maqsadni, holatlarni belgilash.

E (Ekspert)- manbai-muammoning ochilmagan qirralarini o‘zgartirishga, uning yangi maqsadlarini texnologiya va harakatlarni hamda kutiladigan natijaga erishishga xizmat qiladigan vositalarini yoki muqobil materiallarni hamda qayerda? Qachon? Nima? Qanday? Nimaga? Kim? savollari asosida muammoni yechishning kerakli asosiy manbalarini topishdan iborat.

N (Namoyish) - samarasi-muammoning yechimi asosida aniq bir maqsad bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan mukammal natija orqali yuksak samaraga erishish, aniq maqsadli amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

T (Tendensiya) – Guruh o'quvchilari ta'lim beruvchi tomonidan rag'batlantiriladi. Bu usulning afzalligi talim beruvchi vaqtdan samarali foydalanadi. Jami 20 minut vaqt ketadi. Guruh navbatchisi ta'lim oluvchilarning baxolarini e'lon qiladi. O'smirlarning o'z olami va o'z qonuni bor.

Birinchi navbatda guruhlar loyiha mavzusini yoritadilar. Shundan so'ng loyihani bajarilganlik darajalari o'qituvchi tomonidan baholanib, loyihaning ikkinchi bosqichiga o'tiladi, ya'ni, guruhlar endi quyidagi ketma-ketlikda umumiy yechimga kelishlari kerak.

O'qituvchi talabalar bilan birgalikda guruhlar faoliyatiga baho beradi, mashg'ulotga yakun yasaydi, talabalarning loyiha haqidagi fikrlarini aniqlaydi.

Xulosa:

Interfaol usullar ta'lim oluvchining nutqini, ma'naviy dunyo qarashini, fanga bo'lgan muhabbatini, kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan muammolarni, bartaraf etishga yordam beradi. Men professional ta'limda o'quvchining psixologik xususiyatlarning rivojlanish darajasini tez va muvofaqiyatli amalga oshirish mumkinligini o'quv mashg'ulotlarida isbotlab berdim.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTERFAOL DARSLARNI TASHKIL ETISH

Esonova Dilfuza Abdurasulovna

*Samarqand Abu Ali ibn Sino jamoat salomatligi texnikumi tibbiy
biologiya va umumiy genetika fani o'qituvchisi*

Biz, ta'lim beruvchilar, ya'ni professional ta'limining bosh islohotchilari, zamonaviy ta'lim texnologiyasi talablari va erkin bozor iqtisodiyoti rivojlanishiga mos texnikumlarda ta'lim bermoqdamiz. **Tog'ni siljitish uchun, kichik toshlarni dumalatish kerak. (Xitoylik donishmand Konfutsiy)**

Tadqiqot maqsadi: Bugungi kun o'qituvchisi XXII asr qiyofasini o'zida to'la shakllantirgan, o'z sohasi emas, balki fanlararo bog'lanishni ta'minlash uchun butun bir sohaning bilimdon egasi, nutqi ravon, izchil, go'zal adabiy tilda so'zlovchi, so'zi bilan amali bir, fikri sog'lom, jamiyatda barkamol, e'tiqodi but, barkamol farzandlarni tarbiyalovchi mukammal inson bo'lmog'i lozim.

Tadqiqot materiallari va metodlari: Yangi pedagogik texnologiya ta'limining ma'lum maqsadga yo'naltirilgan shakli, usuli va vositalar mahsulidir. Aksariyat hollarda o'qituvchi dars jarayonida o'zi ishlaydi, o'quvchilar kuzatuvchi bo'lib qolaveradilar. Ta'limning bunday ko'rinishi ta'lim oluvchining aqliy tafakkurini o'stirmaydi, faolligini oshirmaydi, ta'lim jarayonidagi ijodiy faolligini so'ndiradi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Ta'limda pedagogik texnologiyalarning asosiy maqsadi esa o'qitish tizimida ta'lim oluvchini dars jarayonida markaziga olib chiqish, ta'lim oluvchilarni o'quv materiallarini

shunchaki yod olishlaridan, avtomatik tarzda takrorlashlaridan uzoqlashtirib, mustaqil va ijodiy faoliyatini rivojlantirish, darsning faol ishtirokchisiga aylantirishdir. Shundagina ta'lim oluvchilar muhim hayotiy yutuq va muammolar o'tiladigan mavzularning amaliyotga tadbig'i bo'yicha o'z fikriga ega bo'ladi, o'z nuqtai nazarini asoslab bera oladi.

Ta'lim oluvchilarning mavzularni o'zlashtirishini yanada osonlashtiradi degan umidda quyidagi interfaol usullarni yoritib beraman.

1. **“Kim chaqqon” usuli**
2. **“9000 ta chumchuq” usuli**
3. **Qiziqarli biologiya**
4. **“Ekologiya o'lkasiga sayoxat” usuli**
7. **“Kim aybdor” usuli**
8. **“Sud” darsi**
9. **“Yosh ixtirochi o'quvchi” yo'nalishi**

“Kim chaqqon” usuli

Bu usul ta'lim oluvchilarning diqqat e'tiborini biologiya faniga zudlik bilan tortadi. Ta'lim beruvchi guruhni 4 ta faslda tug'ilganiga qarab kichik guruhlarga bo'ladi. Ta'lim oluvchilar diqqatini jamlab, tug'ilgan faslini esga oladi. Vaqtdan samarali foydalanish uchun ta'lim beruvchi 3 raqamiga bo'linadigan va ikkinchi raqami 3 soni bilan tugaydigan sonlar kelganda (masalan 13, 23 va hakoza) ta'lim oluvchilarning sonni aytmadan qarsak chalishini tushuntiradi. Oxirgi o'quvchi 30 sonida qarsak chalganda guruhning davomati aniqlanib, o'qituvchi 4 minut vaqtdan yutadi. O'quvchilar o'zlarini yo'qlama qiladilar

4 ta kichik guruhga 4 xil vazifa beriladi, sababi bir-biriga halaqit bermaydilar.

1. **Bahor** fasli guruhning vazifasi: Yarusdagi o'simliklarning rasmni chizib, hayotiy shaklini toping?

2. **Yoz** fasli guruhining vazifasi: Oziq darajalarining nomlanishi va 3 xil misolni rasm orqali izoxlang?

3. **Kuz** fasli guruhining vazifasi: Ekolog olimlarning hissalarini rolli usulda tasvirlab bering?

4. **Qish** fasli guruhining vazifasi: Agar men ekolog olim bo'lsam..... erkin mavzuda ekologik muammolarning oldini olish haqida kashfiyotlar yaratib, ularni isbotlab beradilar.

“Kim aybdor” usuli

Bu usulda ta'lim oluvchilar o'z imkoniyatlarini bosh miyaga dam bergan holatda, 3-, 4- juftliklarda sinab ko'radilar. Dars mashg'uloti xonasida o'quvchilar 3 ta guruhga bo'linadilar. Har bir guruh o'z guruhini olimlar nomi bilan ataydi. Boshlovchi ta'lim beruvchi tomonidan tayinlanadi. Boshlovchi “tun” so'zini aytganda guruh o'quvchilari ko'zlarini yumadilar. Boshlovchi o'quvchilar orasidan 3 ta aybdorni tanlaydi va ularni guruhlarga almashtirib qo'yadi.. Boshlovchi “kun” deganda barcha o'quvchilar ko'zini ochadilar. Aybdorlar “tun” vaqtida xohlagan o'quvchilarning sovg'asini oladi. Boshlovchi esa biologiya fanidan savol beradi. Agar sovg'asini yo'qotgan o'quvchi to'g'ri javob bersa,

sovgʻasini “aybdor” qaytarib beradi, aks holda “aybdor” kim ekanligini topishi kerak. 4 minutdan keyin boshlovchidagi sovgʻalar sanaladi va gʻolib guruh eʻlon qilinadi.

Quyidagi savollardan foydalanish mumkin.

1. Yarusning birinchi qatorida qaysi oʻsimliklar oʻsadi. (Eman, shumtol)
 2. 5-iyun qanday kun? (Xalqaro atrof-muxitni himoya qilish kuni)
 3. Raqobatni oʻrgangan olimni toping? (Gauze)
 4. Miller oz tajribasida qanday tabiatli suvdan foydalandi? (Sovuq suvdan)
 5. Oziq darajalari nechta darajadan iborat? (uch-toʻrt darajadan)
 6. Hozirgi kunda qarindoshlik nikoxi va yomon illatlarga bogʻliq boʻlmagan mutatsiya qanday namoyon boʻlmoqda? (Ekologik inqiroz)
 7. Biologik xilma-xillikni saqlash kuni bu? (22 may)
 8. Ekosistema atamasini fanga kiritgan olim bu? (Tensli)
 9. Kallima va kalinaning farqi qanday? (Kapalak va buta)
 10. Xonadonlarda yashovchi chumolining nomini toping? (Firavn cnumolisi)
- 5-6 minut ichida usul toʻxtatiladi. Qaysi aybdorda koʻp sovgʻa qolsa, oʻsha kichik guruh magʻlub hisoblanadi.

“Yosh ixtirochi oʻquvchi” usuli

Bu usulda aʻlochi oʻquvchilarga uyga vazifa sifatida muammoli mavzu boʻlib beriladi. Oʻquvchilar qoʻshimcha adabiyotlardan, fan oʻqituvchilaridan maʼlumotlar toʻplab, maʼruza yozadi. Fan oʻqituvchisi esa tekshirib koʻradi, guruh oʻquvchilari ham oʻz fikrlarini bildiradilar. Maʼruza sinovdan oʻtgandan soʻng, maqola sifatida gazeta va jurnallarda oʻqituvchisi bilan hammuallifligida chop etilishi mumkin.

Oʻquvchilarning ekologik madaniyatini kuchaytirish uchun biologiya darslarida innovatsion texnologiya boʻyicha mashgʻulotlar oʻtkazilmoqda. “Oʻz oʻrningni top”, “Venn diagrammasi”, “XIM” usuli shular jumlasidandir. Men taʼlim oluvchilarda **“Ekologiya oʻlkasiga sayoxat”** usuli kuchli qiziqish uygʻotganligini aniqladim. Bu usulda koʻchalarga quyidagicha nom qoʻydim.

1.Ekologik taqvim koʻchasi

2.Ekologik hadislar koʻchasi

3.Ekologik omillar koʻchasi

4.”Qizil kitob” koʻchasi

5.Biotik munosabatlar koʻchasi

6. Biologik xilma xillikni saqlash koʻchasi

7.Yordam bermoqchimisiz?, yoki barqaror jamiyat koʻchasi

Taʼlim oluvchiga mashgʻulotning rejasi 1 kun oldin eʻlon qilinadi. Ekologiya koʻchasining nomlari rangli boʻyoq bilan qattiq qogʻozga yozilib, stollar ustiga qoʻyiladi. Biologiya oʻquv xonasiga 7 ta stol qoʻyilib, tabiat himoyachilari oʻtiradi. Tabiat himoyachilariga aʻlochi oʻquvchilardan tayinlanadi. 23 ta oʻquvchi ekologiya oʻlkasining koʻchalarini maʼruza daftarlariga yozib, har bir koʻchadan tabiat himoyachilari bergan savollarga javob berib, sayohat qiladilar va baho toʻplaydilar. Savollar oʻsha koʻchani nomidan kelib chiqqan holda boʻlishi shart. Masalan:

1. 22 may qanday kun? (Javob: Biologik xilma-xillikni asrash Xalqaro kuni)

2. Hadislar ko'chasi:(Javob: Qo'y boq, zero u barakadur!)

3.Abiotik omillardagi quyosh nurlarining to'liq uzunligini toping?
(Javob:0,3-10 mmk)

4.Samarqand viloyatidan nechta o'simlik turi "Qizil kitob"ga kiritilgan?
(Javob: 45 tur o'simlik kiritilgan)

5.Infuzoriya tufelkaning ichida yashovchi xlorellaning munosabati qanday munosabatga misol bo'ladi? (Javob: Simbioz munosabat)

6. 1958 yil dexqonlar Xitoyda chumchuqlarni qirib, qanday foyda ko'rdilar?
(Javob: Ghigirtkalar ko'payib, bug'doy donini tugatadi va 3 million kishi ochlikdan vafot etadilar.

7.Kollejning dorivor o'simliklaridan qaysi birining 15-20 marta savatchasi yig'ib olinib, oshqozon-ichak kasalliklarini davolashda ishlatiladi?
(Javob:Tirnoqgul)

8- stolda o'tirgan ekolog o'qituvchi baxolarni qo'shib, 7 soniga bo'lib o'rtacha ballni qo'yadi.

Bu usulning afzalligi talim beruvchi vaqtdan samarali foydalanadi. Jami 20 minut vaqt ketadi. Guruh navbatchisi ta'lim oluvchilarning baxolarini e'lon qiladi. Qaysi ko'chadagi tabiat himoyachisiga ta'lim oluvchilarning e'tirozi bo'lsa, savol bilan murojaat qilishi mumkin. Ta'lim oluvchilarda ekologik madaniyat va ekologik munosabatni kuchaytirish uchun biologiya mashg'ulotlarida **"Ekologiya o'lkasiga sayoxat"** usulining samarasi kuchliroq ekanligini aniqladim. O'smirlarning o'z olami va o'z qonuni bor. Bu xolatda rolli o'yinlar usuli ham ularning atrof muhitga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi.

"9000 ta chumchuq" rolli usul

Bu usul 22 may biologik xilma-xillikni saqlash kuniga bag'ishlanadi.

1957 yil Xitoylik dexqonlar mo'l ko'l hosilni ko'rib, donni chumchuqlardan asrash uchun bug'doyzorlarda shovqin chiqaradilar. Bizga ma'lumki, chumchuqlar 3-4 daqiqada oziqlanishi kerak va har 15 minutda yerga qo'nadi. Shovqindan cho'chigan chumchuqlar ozuqasiz qiynalib, nobud bo'la bosh-laydi. Xitoyda 9000 ta chumchuq nobud bo'ladi. 1958 yilda esa chigirtkalar ko'payib, bug'doy barglarini yeb qo'yadi, fotosintez jarayoni to'xtaydi. Natijada bug'doy o'simligi boshqoq hosil qilmaydi. Ocharchilik boshlanib, 3000 ta xitoylik vafot etadi.

Boshlovchi: Qadrli o'quvchilar va ustozlar! Mana bugun ekologik taqvimga mos keluvchi rolli o'yinni ko'rsatamiz.

Dehqon: Hoy, yaramas tekinxo'r chumchuqlar! Qani bug'doyzorni tark etingchi? Aks holda men hozir otib tashlayman.

Biolog konservator: Hosildan ayrilamiz. Otib tashlang, tamom vassalom.

Tabiat himoyachisi: Hech qachon. Ular tirik organizm, ularning ham yashashga haqqi bor, albatta.

Ekolog: Chumchuqlarni qirib tashlasak, oziq darajalari buziladi, vaholanki biologik xilma-xillik buzilmasligi kerak. Hashorotlar ko'payib ketadi va kasalliklar paydo bo'ladi.

Xulosa: Ularning ozuqasini kamaytirib, turlar sonini kamaytira olishimiz mumkin.

110-guruh bilan tayyorlangan “Sud darsi” .

“Sud darsi” rolli didaktik usul.

Rolli o‘yinning maqsadi: Muammoli vaziyatni yechish.

O‘yinning mazmuni: Ushbu o‘yinni o‘tkazishda tashkilotchi o‘qituvchi va kotib

navbatchidan tashqari, quyidagi rollarni bajaruvchi o‘quvchilar ham talab etiladilar. 1 ta o‘quvchi texnikum o‘quvchisi rovida, 2-o‘quvchi esa sudya rovida, 3-o‘quvchi esa tabiat himoyachisi rolini, 4-o‘quvchi esa ekolog, 5-o‘quvchi esa sudlanuvchi rolini bajaradilar. Bu usul interaktiv usul bo‘lib, o‘quvchilarni ekologik tarbiyasini kuchaytiradi.

Boshlovchi: Qadrli o‘quvchilar va ustozlar! Mana bugun ekologik tarbiyani kuchaytiruvchi sud darsini ro‘lli o‘yin usulida ko‘rsatamiz.

Boshlovchi: Turing sud kelyapti.

Kotib: Bugungi sud jarayoni quyidagilarni o‘z ichiga oladi. Nima uchun Qashqadaryo viloyatida X-xromosomaga bog‘liq autosom-domonant belgilarning abiotik omillar ta’siri natijasida nasllanish mexanizmi yuqori chastotani tashkil etmoqda.

Tadqiqotchi-Biolog konservator: Nima uchun?, hech qachon. Ular tirik organizm, ularning ham chiroyli bo‘lib, yashashga haqqi bor, albatta.

Ekolog-mutaxassis: Agar Umakay mahalladagi ishlab chiqarish korxonalarini kamaytirmasak, mutatsiyalar sonu yildan yilga oshib boraveradi. Tabiatning xilma-xilligi buzilmasligi kerak. Hashorotlar ko‘payib ketadi va kasalliklar paydo bo‘ladi. Gen va xromosom kasalliklarining fanga noma’lum bo‘lgan xillari oshib ketadi.

Sudlanuvchi: Men tadbirkorlik faoliyatimni noqonuniy davom ettirganim uchun sud hay’ati a’zolaridan kechirim so‘rayman. Afsusdaman! Go‘daklarning nogiron tug‘ilishiga sababchi bo‘lganligimdan bir umr vijdonim qiynalib yashayman.

Sudya: Hurmatli sud ishtirokchilari, sud ikki tomonning e’tiroz va da’volarini tinglagan holda, sud shunday xukm chiqaradi. Sudlanuvchi noqonuniy tadbirkorlik faoliyatini to‘xtatib, jabrdiyda oilalar uchun kompensatsiya har oy to‘lab turishga majbur.

Xulosa:

Interfaol usullar ta’lim oluvchilarning ichki salohiyatini ochib berishga, kasbiy rivojlanishga, o‘zgaralar fikrini hurmat qilishga, guruhda esa qulay hissiy fon va mikroiklim yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.T.G‘ofurov, K.N.Nishonboyev, J.X.Hamidov va boshqalar. Biologiya (Evolutsiya va ekologiya). Akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun darslik. T. «Sharq». 2023 yil.

2. J.Hamidov, B. Toshmuhamedov «Umumiy Biologiya» (Evolutsiya va Ekologiya asoslari) 10-sinf o‘quvchilari uchun darslik. «Sharq» nashriyoti Toshkent - 2014 yil. Aksiyadorlik kompaniyasi.

YOSHLAR DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHIDA TASHKILLASHTIRILGAN VA STIXIYALI TA'LIM-TARBIYANING O'RNI

Allayarov Doniyor Islom o'g'li

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti.

Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlar ta'lim-tarbiyasi, dunyoqarashi, tashkillashtirilgan va stixiyali ta'lim-tarbiyaning yoshlar hayotiga ta'siri, mutafakkirlarning tarbiya haqidagi qarashlari haqida keng ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'z. Ta'lim, tarbiya, yoshlik, shaxs, ma'naviyat, axloq, rivojlanish, inson, dunyoqarash, tajribalar.

The role of organized and spontaneous education in the formation of the worldview of young people.

Abstract. This article provides extensive information about youth education, worldview, the influence of organized and spontaneous education on the life of young people, and the views of thinkers on education.

Key word. Education, upbringing, youth, personality, spirituality, ethics, development, human, worldview, experiences.

Роль организованного и стихийного образования в формировании мировоззрения молодежи.

Абстрактный. В данной статье рассматривается образование молодежи, мировоззрение, влияние организованного и стихийного образования на жизнь молодежи. даются обширные сведения о взглядах мыслителей на образование.

Ключевое слово. Образование, воспитание, молодежь, личность, духовность, этика, развитие, человек, мировоззрение, переживания.

Yurtimiz mustaqilikka erishgandan so'ng xalqimiz tinch va osoyishta hayot kechirmoqda. Albatta bu ne'matga qancha shukur qilsak arziydi. Chunki ta'lim tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi.

Darhaqiqat, inson hayoti bir necha bosqichlarga bo'linadi. Bu bosqichlar ichida umrning yoshlik bosqichi alohida ahamiyatga egadir. Yoshlik insonning eng nozik davri hisoblanib, insonning quvvatga to'lgan va harakatchanligi ziyoda bo'lgan vaqtidir. Shu bilan birga bu davr insonning hayot yo'llarining chorrahasida turgan payti hamdir. Agar, o'sha chorrahada yaxshi yo'lga kirib olinsa, o'zi, oilasi, xalqi, vatani uchun juda katta yaxshilik sari yuzlangan bo'ladi. Agar, yo'q, mazkur chorrahada yomon yo'lga burilib ketsa, o'zi, oilasi, xalqi, vatani uchun ko'ngilsiz hodisalar sari qadam qo'ygan bo'ladi. Yoshlar har bir millatning kelajagidir. Bu esa yoshlarga jiddiy ahamiyat berilishi lozimligini bildiradi. Har bir shaxsning kim bo'lishligi yoshlik paytidan bilina boshlaydi. Yoshlik paytida shakllanib qolgan sifatlar insonga butun umri davomida hamroh bo'ladi. Shuning uchun jamiyatda yoshlarning odobli, aqlli, halol, tarbiyali inson bo'lishlari uchun harakat qilinadi.

Tarbiya - shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya haqida yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev shunday degan edi: „Farzandga mehr qo'yish, ularning qornini to'q, ustini but qilish o'z yo'li bilan, lekin bolalarning yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etadi” .

Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi. Hayot olamida, shubhasiz, tarbiya singari insoniyatga ta'sirli narsa yo'qdir. Shu sababdan qadimdan mashhur donishmandlar tarbiya to'g'risida qimmatli fikrlarni yozib qoldirganlar. Yoshlar tarbiyasi, ularni ilmi va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish barcha zamonlarda muhim vazifa hisoblangan. Mutafakkirlarimiz tomonidan yozib qoldirilgan bunday nodir asarlar o'sib kelayotgan yosh avlodni salbiy illatlardan asrab, axloqan pok, haqiqiy inson bo'lib yetishishlariga undagan.

Ajdodlarimiz asrlar davomida sevib mutolaa qilgan “Pandnoma”, “Siyosatnoma”, “Qobusnoma”, “Axloqi muhsiniy”, “Axloqi jaloliy”, “Axloqi nosiriy”, “Qonuni hikmat”, “Nigoriston”, “Bahr al-ulum”, “Kachko'li sultoniy”, “Jovidoni xirad”, “Bistu se hikmat”, “Hikoyoti dilpisand”, “Odob as-solihin”, “Turkiy Guliston yoxud axloq” singari asarlar shular jumlasidandir. Ushbu nodir asarlarda avval axloq-tarbiyaga oid biror so'z va tushunchani izohlab, keyin unga o'quvchi amal qilish uchun aqliy va axloqiy dalillar keltiradi. Umuman ularning mazmun-mundariyasi, ularda ilgari surilgan ilg'or g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Xitoy donishmandi Syun-Szi “Chaqaloqlar hamma yerda bir xil yig'lashadi. Katta bo'lganlarida esa turli qiliqlar qilishadi. Bu – tarbiyaning oqibati”, deb yozgan edi. Olmon faylasufi Immanuel Kant o'z asarida “Inson faqat tarbiya orqali inson bo'ladi, uning qandayligi tarbiyaning natijasidir”, degan fikrni bildiradi.

Tarbiya borasida Sa'diy Sheroziy shunday misralarni bitgan:

Minbarning poyida tursa ham eshak,

Tarbiya yuqmaydi, bo'lmaydi odam.

Tarbiya ko'rmayin ulg'aysa kishi.

Eshak bo'lib qolur yuzga kirsam ham.

Tarbiyaga e'tiborsizlikning oqibati nimalarga olib kelishini o'z vaqtida Abdulla Avloniy kuyunib „Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi pastkashlar, yomonlar, beboshlar, o'g'rilar, giyohvandlar va nashavandlar... kecha tarbiyalariga e'tibor berilmagan bolalardir”, deb yozib qoldiradi.

Adabiyotshunos olim Abdurauf Fitrat „Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xo'rlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq. Bolalar axloqiy tarbiyani muhitdan oladilar, boshqacha qilib

aytganda, bolalar suvga o'xshaydi, suv idishning shaklini olganidek, bolalar ham muhitning odob-axloqini qabul qiladilar”, deydi.

Bilamizki, taraqqiyotda ta'lim-tarbiyaning tasiri juda beqiyos. Yoshlarga yoshlikdan ta'lim-tarbiya beriladi, yaxshi-yomon o'rgatiladi va kelgusida bilimli, aqlli inson bo'lsin deya ta'lim beriladi. Ushbu yo'lda yoshlar oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirib bilim oladilar va o'z kasbiga ega bo'ladi. Lekin yoshlar hayotida maqsadli, ya'ni tashkillashtirilgan ta'limdan tashqari stixiyali ta'lim-tarbiyaning o'rni ham muhim hisoblanadi. Bu qanday ta'lim?

Stixiyali ta'lim-tarbiya – maxsus ta'limiy maqsadlarsiz, hech qanday dasturlarsiz, insonning jamiyatda boshqa kishilar bilan munosabatlari natijasida amalga oshadigan ta'lim-tarbiyadir. Bilamizki, hayotimizda boshimizdan kechirgan har qanday holat, yoki biz uchratgan va suhbat qurgan har bir insondan biz bir ma'noda ta'lim-tarbiya olamiz. Ya'ni har doim biron narsani o'rganamiz va xulosa chiqaramiz. Hozir shunday yoshlar borki, hech qanday oliy o'quv yurtida ta'lim olmagan, hatto o'rta ta'limni ham yaxshi tugatmagan, lekin juda tarbiyali va aqlli. Bu kabi yoshlar hayot qiyinchiliklarini ertaroq qabul qilishga majbur qolgan bir tomondan va ularni yengib o'tish uchun harakat qilgan, yoki ko'plab insonlar bilan suhbatlashib qandaydir bir tajriba olishigan. Hayotiy tajribalar yoshlarga o'zlarini tushunish, o'zlarini rivojlantirish, ijtimoiy munosabatlarda o'zlarini o'rganish va boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini oshirish imkoniyatini beradi. Bu tajribalar ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga yordam beradi, o'z hissiyotlarini tushunish va boshqalar bilan o'z o'ylarini ulashishni o'rgatadi.

Biz esa yoshlarimiz ma'naviyatini yuksak qilishimiz va kamolotga erishishlari yo'lida barcha sharoitlarni yaratib berishimiz lozim. Odam bolasiga beriladigan tarbiya, birinchi navbatda, ilmga, fanga asoslanishi, ta'limiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishi lozim. Agar tarbiya tartibsiz holda savodsizlarcha tashkil etilsa, tizimli va muntazam ravishda olib borilmasa, bunday „ tarbiya “ inson kelajagiga, shaxsning shakllanishiga faqat zarar keltiradi. Mana shu qoidalarga amal qilingandagina ta'lim-tarbiya o'zining asosiy maqsadiga erishishi - komil insonni voyaga yetkazishi mumkin. Bugungi yoshlar kechagi yoshlar emas, ularning ongi, dunyoqarashi, orzu-maqsadlari va talablari o'zgardi. Ular har qanday jarayonlarda faol qatnashib, o'z fikrini dadil aytyaptilar. Bugungi davlar ham yoshlar hayotini o'z holiga tashlab qo'ygan emas. Ular uchun barcha imkoniyat va shart-sharoit yaratishga, dard-u tashvishlarini eshitishga intilmoqda.

Xulosa qilib ayish mumkinki, mustahkam ma'naviy immunitetli, o'zining fikrlarini ravon aytoladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ota-ona, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb etadi. Biz farzandlarimizni ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat xazinasi bo'lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga yo'l qo'ymasligimiz lozim.

Foydalangan adabiyotlar

1. Z.T. Nishonova, N.G'. Kamilova, D.U. Abdullayeva, M.X. Xolnazarova. „ Rivojlanish psixologiyasi pedagogik psixologiya “ Toshkent-2017
2. N. Islomova, D. Andullayeva „ Ijtimoiy psixologiya “ Toshkent-2013

3. Z.K. Ismailova ,, Pedagogika “ Toshkent-2007
4. www.ziyonet.uz
5. www.psychology.com
6. www.aim.uz
7. www.google.com

ZULFIYA SHE’RIYATDA NEYTRALIZATSIYA HODISASI VA SINTAKTIK-STILISTIK VOSITALARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

To ‘ychiyeva Zulayho Hamraqulovna

GulDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

O‘quv va tarbiya jarayonida turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy uslublarning qo‘llanilishi talabalarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas’uliyatni his qilish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o‘qishga, fanga va o‘zi tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishlarini, shuningdek mashg‘ulotni olib boruvchiga nisbatan hurmatini kuchaytiradi.

Pedagogik texnologiya asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar ta’lim oluvchilarni muhim hayotiy yutuq va muammolariga o‘z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o‘z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Ta’lim berish jarayonida maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlanishi ishlarni olib borayotganlar ixtiyorida, chunki har ikkala tomon ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo‘lib, bunda ishlatiladigan texnologiya ta’lim oluvchining bilim saviyasi, guruh tabiati, va sharoitga qarab tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film (yoki tarqatma material, chizma va plakat, axborot texnologiyasi, turli adabiyotlar) kerak bo‘ladi. Bularning hammasi ushbu ishlarni tashkil etuvchilarga bog‘liq. Shu bilan birga mazkur jarayonni oldindan loyihalashtirish zarur. Bu jarayonda tashkillashtiruvchi o‘quv predmetining o‘ziga xos tomonini, shuningdek, hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak. Shundagina zarur kafolatlangan natijaga erishish mumkin.

Badiiy adabiyotning vazifasi inson qalbining, dilining “sirli”, “yashirin” nuqtalarini yoritishdan iborat bo‘lsa, badiiy til badiiy mahoratning uzviy bo‘lagidir. Til orqali yozuvchi asar qahramonlarining murakkab, o‘ziga xos xarakterli xususiyatlari, o‘y-mulohazalari, xishuygularini, shu jumladan, sharoit va muhitning inson ruhiyatiga ta’sirini tahlil qiladi.

Iste’dodli shoira Zulfiya mohir so‘z sa’natkori sifatida tasvir vositalaridan juda keng va mohirona foydalangan. Badiiy asarda qo‘llangan barcha so‘zlar ham tasvir vositalaridir. Ana shu so‘zlar vositasida yozuvchi asarning ma’nosi,

g'oyasini o'quvchiga yetkazib beradi, unda tasvirlanayotgan voqea-hodisaga o'quvchi munosabatini uyg'otadi⁵.

Adabiyotning badiiyligi ijodkorni voqelikni obrazli idrok etishi va ana shu obrazli idrok etilgan voqelikni so'zlar vositasida o'zgaralar hissiga, ruhiga va ongiga ta'sir ko'rsatadigan tarzda qayta yaratishdan, shakllantirishdan iborat murakkab ruhiy, aqliy va shuuriy hodisadir. Bu hodisada insonning besh sezgisi va oltinchi sezgi hisoblanmish ichki sezish orqali qabul qolingan har qanday axborat inson qalbidagi mavjud barqaror va beqaror tuyg'ularga ta'sir etib badiiy kechinma tug'diradi. Badiiy kechinma esa ijodkor ruhiy, aqliy faoliyati bilan sintezlashib muayyan obrazlarni shakllantiradi. Ana shu obrazli hosilani estetik qimmatga esa bo'lgan so'zlar vositasida tasvirlash adabiyotning badiiyligini tashkil qiladi⁶.

Zulfiya o'z she'rlarida badiiylilik, hayotiylikni yuzaga chiqarish uchun uslubiy vositalardan biri bo'lgan antitezadan ham unumli foydalangan.

Antiteza hodisasi bir necha asrlar davomida tilshunos olimlar diqqatini o'ziga jalb qilib kelgan. Lekin bu hodisa haqidagi fikrlar uning umumiy ma'nosini ko'rsatish bilan chegaralangan. Mashhur fransuz tilshunos olimi Sh. Ballining "Fransuzkaya stilistika" kitobing nashr etilishi hamda unda birinchi marta til va nutq birliklarining stilistik vosita sifatida ma'lum bir bergilangan funksiyasini bajarish haqidagi fikrlarning bayon etilishi stilistik figuralar, shu jumladan, antiteza hodisasining sintaktik- stilistik vosita sifatida alohia o'rganish masalasini kun tartibiga qo'ydi. Natijada til stilistikasiga oid ishlarning ayrimlarida antiteza hodisasi sintaktik- stilistik hodisalardan biri sifatida alohida tilga olinadigan bo'ldi⁷

Antiteza badiiy adabiyotga ma'lum bir stilistik vazifani bajarish uchun xizmat qiladigan murakkab stilistik vositadir. Fikrlar shuni ko'rsatadiki, eng qadimiy stilistik usullardan biri hisoblangan antiteza hozirgi zamon o'zbek adabiy tili nutq stillarida juda keng qo'llanadi. Antitezaning asosiy vazifasi kontrast hisoblanadi. Semantik kontrast asosida maxsus sintaktik strukturaga ega bo'lgan nutq birliklarining stilistik maqsadda qarama-qarshi qo'llanishi natijasida antiteza hodisasi yuzaga keladi⁸.

Antiteza badiiy adabiyotga va notiqlik san'atiga aktiv qo'llanadigan sintaktik-stilistik vosita hisoblanib, unda bir-biriga zid qo'yiladigan tushunchalar, fikrlar qarama-qarshi qo'yilishi natijasida nutqning ta'sirchanligi ortadi, bayon qilinayotgan fikrga nisbatan tinglovchining qiziqishi kuchayadi. Masalan:

Kunlar qancha shodlik,

Qancha noshoddik,

Qancha ish,

Kohishga etar ro'baro'.

Jahonga sig'magan sevinchga nordek

Kelib bir bahamni qilganda orzu,

Takdir to'siq bo'lsa,

Uni izlayman. (Izlayman.)

⁵ Qo'ng'urov R. Badiiy tasvirning leksik vositalari.

⁶ Sarimsoqov B. Badiiylilik asoslari va mezonlari. –T.: Fan, 2004. 121-bet.

⁷ O'zbek tili stilistikasi. –T.,1983. –B.190.

⁸ Mamajonov A. Qo'shma gap stilistikasi. –T.: Fan, 1990. 15-bet.

Antitezani yuzaga chiqarishda ishtirok etuvchi nutq birliklari antitezaning materiali hisoblanadi. Shu jihatdan olganda, antitezali qurilmalarning ma'lum bir sistemani tashkil etishi ham tabiiy bir holdir. Antitezani yuzaga chiqishida quyidagilar asosiy o'rin egallaydi:

Antonim so'zlar. Masalan: Bu hayotning hamma toza, chiroyli dami,

Aziz do'stim, mudom seni esga soladi.

Ko'zlar amri, yurak erki, jo'shqin his bilan

Kecha-kunduz jang qilmoqdan aqlim toladi.

Ham tabiat, ham do'st, ham raqib,

Barchasini qoldirib dog'da,

Ko'rishsak-u, yana tirilsa

O'sha o'lgan bo'sa dudog'da. (Sog'inganda.)

Ayrim leksik-grammatik shakllar. Antitezali qo'shma gaplarning ba'zi turlari kontekst talabi bilan ma'nosi bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladigan ayrim so'zlar va so'z shakllari yordamida hosil qilinadi.

Masalan:

Ikkimizga ma'lum bir qudrat

Yillar o'ta senga tortadi.

Unutayin deymanu, faqat

Dilda uning o'ti ortadi (Sog'inganda.)

Tasdiq va inkor shaklli so'zlar. Antitezali gaplarda tasiq va inkor formali so'zlar antiteza materiali bo'lib kelishi mumkin. Masalan:

Biz yig'ladik tepangda shu kun,

Keldingmi, deb ko'tarmading bosh.

Ayt-chi, sen-la baxtiyor onlar,

Ko'rganmiding ko'zimda bir yosh? (Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh.)

4. Antiteza materiali predikativ birliklardan bo'lishi mumkin. Masalan:

Sog'inganda izlab bir nishon,

Qabring tomon olar edim yo'l.

Keltirarding menga bir zamon,

Endi har chog' men eltaman gul. ? (Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh.)

Antitezali qo'shma gaplar nutq uslublaridan asosan ikkitasida: so'zlashuv va badiiy uslublarda keng qo'llaniladi. Antiteza usuli kitobxonga nutqda qarama-qarshi qo'yiladigan voqea-hodisa, predmetlar o'rtasidagi aloqani konkret izohlashga yordam beradi. Alohida olinganda bir-biriga zid bo'lmagan predmetlar, tushunchalar badiiy asarda kontekst talabi bilan o'zaro qarama-qarshi qo'yilishi mumkin. Masalan:

Tog'day bor deb bilgan yuragim

Qush boshicha qolmadi chog'i?

G'amni yengarman degan sarim

Yana ortar alami, dog'i. (Ne baloga etding muftalo.)

Mana shu o'rinda shoiraning mahorati yana bir karra namoyon bo'ladi. U alohida olinganda mazmunan zid bo'lmagan so'zlarni vaziyatga mos holda ustalik bilan qarama-qarshi qo'ygan: tog'day-qush boshicha. Lirik qahramonning o'sha paytdagi ahvolini yorqinroq tasvirlash uchun antitezadan unumli foydalangan.

Antiteza usuli bilan hosil qilingan sintaktik konstruksiyalarda qarama-qarshilik obyekti quyidagilardan iborat bo‘ladi:

shaxs sifati: O‘zing tashna etding, o‘zing suv tutding,

Qalbidagi sahrom, daryomsan, xalqim!

Seni seva-seva men boyib ketdim,

Dunyo ichra topgan dunyomsan, xalqim! (Xalqimga aytar so‘zlarim.)

predmet belgisi: Sevaman oltin kuz, sevaman jondan!

Tovusday bezangan daraxt, bog‘larni!

Yomg‘irli oqshoming, quyoshli tonging,

Xayolga cho‘mganim go‘zal onlarni!

shaxs yoki predmet harakati va holati. Masalan:

Mana qimmatligim, yana bahor kelib,

Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.

Qishning yoqasidan tutib so‘radi seni,

Ul ham yosh to‘kdi-yu, chekindi nari. (Bahor keldi seni so‘rog‘lab.)

Xuddi senday uzoq va senday yorqin,

Avji chaqnaganda so‘nadi u ham,

Bir yupanch: sevgimning osmonidan

O‘chmasdan yonasan, ey go‘zal hamdam! (Yulduz.)

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, antiteza uslubiy vosita sifatida badiiy matnda keng tarqalgan. Shoira Zulfiya o‘z she‘rlarida antiteza vositasidan keng foydalangan. Antonimlar, qarama-qarshi predikativ birliklar, ayrim leksik-semantik shakllar antitezani yuzaga chiqarishga yordam bergan. Ayrim olinganda o‘zaro ziddlik hosil qilmaydigan so‘z va birikmalar shoira badiiy tafakkuri yordamida antitezani hosil qilgan.

“Sinkveyn” texnologiyasi asosida Zulfiya ijodini o‘rganish samarali natija beradi. Bu texnologiyani qo‘llashda ikkita natijaga erishiladi. Birinchidan, o‘quvchilar shoira she‘rlarini sinchkovlik bilan o‘qishga, yodlashga, o‘rganishga rag‘batlantiradi, ularning she‘riyatga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Ikkinchidan, o‘quvchilarning so‘z bilan ishlash qobiliyatini oshiradi. Sinkveyn besh qatordan iborat bo‘ladi. Birinchi qatorda mavzu (kalit so‘z) beriladi. Ikkinchi qatorda unga bir yoki ikkita aniqlovchi tanlanadi. Uchinchi qator harakat-holat fe‘li bilan to‘ldiriladi. To‘rtinchi qatorda so‘z yoyiq gapga aylantiriladi. Beshinchi qatorda kalit so‘zning ma‘nodoshi keltiriladi.

“Ikki qismli kundalik” metodi Zulfiya she‘rlarini o‘rganishda samarali usullardan biri bo‘lib, o‘quvchilarni she‘rning mazmunini anglash, tahlil qilish va erkin fikrni bayon qilishga o‘rgatadi. O‘quvchilarga matn mazmunini o‘z shaxsiy tajribasi bilan chambarchas bog‘lash, o‘zining tabiiy qiziquvchanligini qondirish imkonini beradi. Ikki qismli kundalik uchun o‘quvchilar yozilmagan qog‘ozning o‘rtasidan tik chiziq o‘tkazib, uni ikkiga ajratishlari kerak. Qog‘ozning chap tomoniga matnning qaysi qismi ularga eng ko‘p taassurot qoldirganini qayd etishadi. O‘ng tomonida ular sharh berishlari kerak: ayni shu jumlaning yozishga ularga nima turtki bo‘ldi? Matnning o‘qirgan, o‘quvchilar vaqti-vaqti bilan to‘xtashlari va o‘zlarining qo‘shaloq kundaliklarida shunday belgilar qo‘yib borishlari kerak. “Ikki qismli kundalik” metodi asosida Zulfiyaning she‘rlarini o‘rganish o‘z samarasini beradi.

TA'LIM JARAYONIDA OPTIMAL USULLARNING QO'LLANILISHI VA MEZONLARI

Berikbayeva Dilnoza Turayevna

Guliston shahar 2- umumta'lim maktabi psixologi

Ta'lim maqsadining qo'yilishi o'quvchilarning yoshiga eng avvalo ularning aqliy va emotsioniyal yutukligiga ularning bilim darajasiga hamda fikrlash faoliyati soxasidagi mavjud tajribasiga bog'lik. Maqsadning qo'yilishi o'qituvchi tamonidan pedagogik-psixologik fanlari, uz fani xamda usha faning o'qitish metodikasining bilishni taqoza etadi. O'qitish maqsadining asosli ravishda belgilab qo'yilishida sinf o'quvchilarining, butun sinf va undagi ayrim o'quvchilarning yoshini va individual xususiyatlarini xisobga olish zarur. Shunday qilingandagina o'quv maqsadining to'g'ri belgilash mumkin. Dastur ham mazkur masalani xal qilishga yordam beradi, chunki unda material mazkur yoshdagi bolalar imkoniyatini xisobga olgan holda tanlangan buladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi uzining pedagogik-psixologik sohasidagi bilimlarini ta'lim soxasidagi amaliy foliyatga tadbik etishni o'rganib olishlari kerak.

Har bir o'qituvchi etarlicha psixologik bilimga ega bo'lishi (kasb psixologiyasini egallashi) lozim. Har qanday o'qituvchi bu ma'lum darajadagi metodistidir. Shuning

uchun psixolog va metodistning o'zaro bog'liqlik faoliyatga to'xtaymiz.

Psixologiya va metodika. Har bir o'qituvchi (lektor) o'qitilayotgan materialni osonroq soddaroq bayon qilishga harakat qiladi. So'ng, o'quvchi nazariy, bilimini mustahkamlashi lozim. Amaliy darslarda va uyda dars tayyorlab mustaqil ishlar bajarib, o'rganayotgan materialni yaxshiroq, chuqurroq tushunishi maqsad qilib qo'yiladi. Bunda o'rganilayotgan nazariy va amaliy materialni hayotda qo'llashni talab darajasida o'rgatish nazarda tutiladi. Agar bu keltirilgan usulni qismlarga bo'lsak, buning har bir bo'laki alohida murakkab faoliyat bo'lib, jami bir murakkab faoliyatni tashkil etadi. Bu faoliyatning o'ziga xos muammolari bor. Bu yerda o'quvchining darsliklar va adabiyotlar bilan ishlashi sinov ishlari kabi faoliyatlar o'quvchi va o'qituvchi orasida jami murakkab kompleks muloqotlarni vujudga keltiradi. Bu jarayon murakkab bo'lib, juda ko'p faktorlar bilan bog'langan. Natija ham, bu faktorlarni mohiyatini tushunish va shunga yarasha tadbirlar belgilashga bog'liq.

Sub'ektiv va ob'ektiv faktorlar yig'ilib, ta'lim va tarbiyani taqdirini hal qiladi. Insonning imkoniyatlari uning mantiqiy fikrlash darajasi, hamma vaqt o'zgarib turadi. Chunki bular psixologik faktorlar bilan bog'liqdir.

Pedagogik xulosa: ta'lim o'z oldiga muvoffaqiyatli o'zlashtirish maqsadini qo'yadi. Ta'lim o'quvchilarning fikrlashlari bilan bog'liq bo'lgan barcha psixologik faktorlarni inkor qila olmaydi. Demak, ta'lim o'z oldiga o'zi uchun qulay sharoit yaratish zarur. Ta'limda barcha yordam beruvchi va halaqit beruvchi faktorlar hisobga olinishi lozim.

Endi psixolog va metodistning ta'limga yondashuvi haqida bir necha fikr keltiraylik. Psixologlar insonni (fikrlashi) o'quv jarayonida fikrlash holatlari, operatsiyalari qiziqtirib, bu jarayonni mayda bo'laklarga bo'lib o'rganishadi (hakam singari).

Metodistlar esa bu tushuncha va operatsiyalarni bir butun «organizm» - sifatida qarashadi. Chunki ta'lim jarayonida bu bir butundir, ularni ajratib bo'lmaydi. Bu organizmni samarali ishlashini ta'minlash lozim.

Psixologlar ta'lim jarayonida murakkab fikrlarni sodda (elementar) bo'laklarga bo'lishadi. Har bir bo'lakni o'rganish qulay. Demak, dars jarayoni bo'laklarga bo'linadi.

Metodist esa shu darsni mayda bo'laklariga munosabatni o'ylashi kerak. O'quvchi masalani yechayotganda, nimalarni o'ylayapti, nimalar haqida fikr yuritayapti degan savollar uni qiziqtiradi.

Psixolog esa, o'quvchi aynan nimani o'ylayapti, qanday tahlil qilishi qiziqtiradi. Masalan o'quvchi masalani shartini o'qiydi. O'quvchi masala shartini qanday tushungani, qanday qabul qilgani qiziqtiradi. So'ng nima ish qiladi? Nimani o'ylaydi? Keyingi etaplarda masalani qanday ishlaydi? Masala yechishda analiz va sintez operatsiyalari qanday bajariladi? kabi savollarga javob izlaydi.

Metodist ta'lim jarayonidagi sodda jarayonlarni yoki o'z-o'zida ma'lum bo'lgan jarayonlarni ko'pincha hal bo'lgan, deb hisoblaydi yoki tashlaydi hisobga olmaydi. Amalda esa bu muhim va mashaqqatli mehnatni talab qiluvchi jarayonlardir. Tabiiyki bu ta'limda katta rol o'ynaydi. Psixolog esa bunday qilmaydi.

Shunday qilib, psixolog va metodist hamkorlikda ishlashi maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi shuning uchun etarli psixologik bilimga ega bo'lishi kerak. Vazifalarni o'quvchi bajara olishi, vaqt byudjeti, qo'llanmalardan foydalanila olishi, o'zlashtirish darajasi, vazifaning materialning rivojlanish darajasi, baholash mezoni, rag'batlantirish, mustaqil ishlar, motivatsiya muammolari, uyga berilgan vazifalarni so'rash, darsni mustahkamlash va hokazolar. Metodistning psixolog bilan hamkorligi albatta zarur.

Psixolog o'quvchiga o'z hatosini tuzatishni bilishga yordam beradi. Kelgusida bu xatoni takrorlamaslikka harakat qilishni ta'kidlaydi.

O'qitishni optimallashtirishning quyidagi ikki mezoni mavjud:

1. Hozirgi sharoitda o'quv jarayonini optimallashtirishning birinchi mezoni sifatida o'zlashtirish, tarbiyalash, va rivojlantirish jarayonida har bir o'quvchining real imkoniyati darajasidagi yutuqlarni qabul qilingan baholash normalariga muvofiq, qoniqarli bahodan kam bo'lmagan holda hisoblashni olish mumkin.

2. Mashg'ulotlarga va uyga vazifa uchun ajratilgan vaqt me'yoriga o'quvchi va o'qituvchi tomonidan qat'iy rioya qilinishi o'quv jarayonini optimallashtirishning ikkinchi mezoni sifatida qaraladi.

O'qitishning optimal usullari bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, turli olimlarning yondashuvlari natijasida o'qitishning asosiy optimal usullarini Aniqlashda quyidagi to'xtamga kelingan:

Dars berishni optimallashtirishning birinchi usuli o'quvchilarning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarini kompleks rejalashtirish va aniqlashtirish hisoblanadi.

Yuqorida bayon qilingan mezonlardan qo‘rinib turibdiki, agar barcha vazifalar kompleks tarzida ishlangan bo‘lsa, o‘quv faoliyati tez va muvaffaqiyatli o‘tadi. Agar o‘qituvchi dars jarayonida faqat ta‘limiy maqsadga ko‘proq e‘tibor berib, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadga e‘tibor bermasa u holda dars samaradorligi past bo‘ladi. Maqsadlar kompleks ishlab chiqilgan, barcha maqsad bir vaqtning o‘zida, qo‘shimcha vaqt ajratilmasdan hal etilishi zarur.

Yuqoridagi mezon va optimallashtirish usuli har qanday sharoitda bosh mohiyatni, bo‘g‘inni ajratish zarurligi haqidagi metodologiyaga suyanadi. Amaliyotdan ma‘lumki ko‘pchilik o‘qituvchilar darsning eng asosiy, bosh mohiyatiga (mazmuniga) e‘tibor bermaydi, uni ajratib ko‘rsatmaydi. Ko‘p vaqtlarini boshqa, ikkinchi darajali misollarga sarflaydi. Didaktika xuddi shu kamchilikni bartaraf qilishga yordam beradi. O‘qituvchi darsni rejalashtirishda yangi ilmiy ma‘lumot faqat ommaviy usulda ma‘lumot sifatida beribgina qolmay, shu ma‘lumotning asosiy, bosh mohiyatini tushuntirishi lozim, zarur bo‘lganda uni qo‘llashni, tahlil qilishni o‘rgatish kerak. Bu o‘quvchida o‘z fikrini bayon qilish, ratsionalizatorlik xarakteri, mulohaza yuritish, o‘z-o‘zini nazorat qila bilish hislatlarini uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.:2003, TDPU.

Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.: Moliya, 2003.

Xaydarov F.I. Xalilova N.I. Psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasi. –Toshkent, 2007.

Yo‘ldoshev J.G‘, Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. - T.: O‘qituvchi, 2004.

ZAMONAVIY TA‘LIMDA DARSLARNI TASHKIL ETISHDA GENDER YONDASHUVNING KO‘RINISHLARI VA USTUNLIKLARI

Axnazarova D.E.

Guldu v.b dotsenti, p.f.n.

Kirish. Bugungi kunda mamlakat akademik doiralarida ayollarning o‘rni va mavqeyini oshirish, yangi avlod yosh olimlarini tarbiyalash hamda istiqbolli loyihalarni rag‘batlantirish bo‘yicha muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda. Jamiyat hayotining turli jabhalarida gender tenglikni ta‘minlash, jumladan, ta‘lim va ilm-fan sohasida O‘zbekiston ichki siyosiy konsepsiyasining ustuvor yo‘nalishlari qatoriga kiradi.

Bu borada 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining 69-maqsadida: xotin-qizlarning ta‘lim va kasbiy ko‘nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotinqizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish vazifasi belgilab qo‘yilgan[1].

Zamonaviy o‘zbek jamiyati bugungi kunda demokratik rivojlanish tomon bormoqda. Demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri ayollar va erkaklarning barcha sohalarda teng huquqliligini e‘tirof etish bo‘lib, uni yoshlikdan shakllantirish zarur. Bunga ta‘limda gender yondashuvi tamoyillari yordam berishi

mumkin. Ta'lim mazmunini yangilash va umumta'lim maktablarini modernizatsiya qilish sharoitida shaxsga ta'lim berishda va uni tarbiyalashda gender yondashuvi muammosi dolzarb bo'lib bormoqda.

Gender ta'limi ko'plab muhim ijtimoiy muammolarni hal qilishga yordam beradi va uni rivojlantirish zarurati pedagogik jamoalarda tobora ko'proq muhokama qilinmoqda. Biroq ko'pgina davlatlarning maktab ta'limida gender yondashuvi hali ham kam uchraydi. G'arbda gender ta'limi va tarbiyasi bolalar bog'chasidayoq boshlanadi.

Asosiy qism. Odatda ta'lim tizimiga gender yondashuvini joriy etishda jamiyatda va o'qituvchilarning kasbiy muhitida noaniq munosabatlar, maktab o'qituvchilarining gender pedagogika sohasida maxsus bilimga ega emasligi maktab o'quv dasturlari va darsliklari ta'limning gender tamoyillarini hisobga olmasdan tuzilganligi kabi omillar to'sqinlik qilishi mumkin.

Shu bilan birga, olimlarning ta'kidlashicha, "Zamonaviy jamiyatda ma'lum bir kasblarda erkak yoki ayolga oid degan tushuncha mavjud"[2] bo'lib, hozirgi vaqtda mehnat bozori ishchilarni kasblar o'rtasida taqsimlashda yuqori darajadagi gender stereotiplar bilan ajralib turadi, bu "ayol" kasblar (styuardessalar, o'qituvchilar va boshqalar) va "erkak" kasblar (harbiy xizmatchilar, dasturchilar va boshqalar) mavjudligida namoyon bo'ladi.

V.V. Kozlov ta'kidlashicha, kasblarni taqsimlashda gender asimmetriyasi ishsizlikning ko'payishiga, ishga joylashish jarayonida qiyinchiliklarga olib keladi, ayollarning "erkak" kasblarini o'zlashtirish davrida psixologik to'siqlarga uchrashini keltirib chiqaradi va aksincha[3].

Shunday qilib, hozirgi vaqtda kasbiy o'zini o'zi aniqlashda gender yondashuvi nafaqat erkaklar va ayollar o'rtasidagi biologik yoki jismoniy farqlarni, balki madaniy va ijtimoiy jihatlarni ham hisobga oladi. Olimlarning o'spirinlar kasbiy manfaatlaridagi gender farqlari sohasiga oid izlanishlarida o'spirinlarning gender xususiyatlari ularning kasb tanlashlariga ta'sir etishi qayd etilgan.

Sergeyevaning o'smirlar ixtisoslashtirilgan ta'limni tanlashga motivatsion tayyorgarligining gender xususiyatlarini o'rganish bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida qizlar va o'g'il bolalarning kasb turlarini afzal ko'rishda o'ziga xos xususiyatlar mavjudligi aniqlandi. Jumladan, o'g'il bolalarning "inson-texnika" turdagi kasblarga, qizlarning esa "inson-san'at" turiga nisbatan kasbiy qiziqishlari yuqori bo'lar ekan[4].

O'smirlarning kasbiy manfaatlaridagi gender farqlari sohasida mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning kasbiy ta'limi sohasida yetarli miqdordagi izlanishlarga qaramay, yosh o'spirinlarda kasbiy qiziqishlarning gender jihati kam o'rganilgan ilmiy tadqiqot sohasi hisoblanadi.

O'smirlik shaxsiy rivojlanishning asosiy bosqichlaridan biri bo'lib, shaxsiyat inqirozi bilan birga keladi, uning doirasida hayotiy, kasbiy va ijtimoiy o'zini o'zi belgilash amalga oshiriladi. Bunday sharoitda qizlar va o'g'il bolalarda o'zining boshqa odamlar orasidagi mavqeyi haqida hayotiy qarashlar shakllanadi, o'zini o'zi anglash, psixosotsial o'zini o'zi belgilash va kasb tanlashga tayyorlik shakllanadi. Aynan shu yosh davrida gender xususiyatlarini hisobga olgan holda uch darajada qurilgan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar qayd etiladi: 1) ichki (o'zini

ma'lum bir jins vakili sifatida qabul qilish, o'ziga nisbatan munosabat); 2) shaxslararo munosabatlar (tengdoshlar tomonidan idrok etish, qaramaqarshi jinsdagi shaxslarga munosabat va boshqalar); 3) ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabat (qarama-qarshi jinsdagi shaxslar bilan aloqalarga munosabat va boshqalar)[5].

Yosh o'smirlar o'rtasida kasbiy qiziqishlarni o'rganish natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki[6], o'g'il bolalar o'rtasida tanlovlar soni bo'yicha "fizika-matematika" kabi kasbiy faoliyat yo'nalishi birinchi o'rinda turadi, qizlar orasida esa bunday kasbiy faoliyat yo'nalishi "kimyo va biologiya" sifatida eng katta tanlovni oldi. Bizning fikrimizcha, yosh o'spirinlarda kasbiy faoliyat sohalaridagi mavjud farqlar o'quvchilarning yoshi va individual xususiyatlariga, ularning individual moyilligiga, kasblarning xilma-xilligi haqidagi g'oyalarga, o'qitish va ta'limning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida yosh o'smirlarda kasbiy qiziqishlarni shakllantirish bo'yicha maqsadli ish olib borish va gender farqlarini hisobga olgan holda ularning kasbiy o'zini o'zi belgilashi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish zarurligini ko'rsatadi[7].

Xorijiy amaliyotda martaba va kasbga yo'naltirish sohasida Yevropa Ittifoqining ko'plab mamlakatlaridagi kasbiy yo'naltiruvchilardan tashkil topgan "hayot dizayni" xalqaro ijodiy uyushmasi faoliyat ko'rsatmoqda. Yoshlarning kasbiy o'zini o'zi belgilashini shakllantirishda yevropalik mutaxassislar "o'z-o'zini qurish nazariyasi" va "karyera qurish nazariyasi"ni hisobga olishni tavsiya qiladi[8]. A. Uottning ta'kidlashicha, professional qo'llab-quvvatlash ham shaxsga, ham butun jamiyatga xizmat qiladi[9]. Kasbiy o'zini o'zi belgilash jarayoni ko'plab o'zaro bog'liq tashqi va ichki omillarning natijasi bo'lib, ularning tizimiga gender yondashuv ham kiradi[10].

Kasbiy o'zini o'zi belgilashni shakllantirishda gender ahamiyatini o'rganish bo'yicha Saxa Respublikasida (Yakutiya) 464 nafar o'quvchi o'rtasida so'rov o'tkazildi. So'rov ishtirokchilarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha: 12-13 yosh – 27 kishi (12,5%), 14-15 yosh – 228 kishi (42%), 16-17 yosh – 179 kishi (31,6%) va 18-19 yosh – 30 kishi (13,9%). So'rov ishtirokchilarining gender tarkibiga kelsak, so'rov 135 nafar o'g'il bolalar hamda 329 nafar qizlar o'rtasida o'tkazildi.

Maktab o'quvchilarining kasb tanlashiga ta'sir ko'rsatgan omillar reytingida asosiy o'rinda ota-onalar va qarindoshlar (36%), ommaviy axborot vositalari (34%), Internet resurslari (32%), do'stlar va tanishlar (27%), o'qituvchilar (22%) va oxirgi o'rinlarda kitoblarni eslatib o'tishadi (20%). Shuningdek, kasbiy testlar (15%), bandlik xizmatlari mutaxassislari bilan mashg'ulotlar (5%) kabilar turadi.

Maktab o'quvchilarining kasb tanlashiga va bunda gender stereotiplarini kuchaytirishda jamiyatning ko'plab institutlari kabi ommaviy axborot vositalari va Internet resurslari ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ommaviy axborot vositalarida ayollar, asosan, harakat obyekt, qurbonlar va boshqalarga g'amxo'rlik ko'rsatadi, erkaklar esa ixtirochi, kuchli, aqlli va tashabbuskor sifatida tasvirlangan. Ommaviy axborot vositalari erkaklarning kuchi va muvaffaqiyatini ta'kidlayotganda, ayol ham, odatda, tashqi ko'rinishi jihatdan baholanadi. Shunday qilib, ommaviy axborot vositalari, jumladan, televideniye, radio, darsliklar, bolalar kitoblari,

jurnallar, filmlar va elektron aloqaning ko'plab shakllari erkaklar va ayollar haqidagi stereotiplarni saqlab qolar va tarqatar ekan.

Shuningdek, o'quvchilar E.A. Klimovning kasb turlari tasnifiga muvofiq turli kasb turlarini tanlash uchun mo'ljallangan "differensial diagnostika so'rovnomasi" (DDO) metodologiyasining savollariga javob berishdi. Olingan ma'lumotlar qizlar va o'g'il bolalar o'rtasida kelajakdagi kasb turlarini tanlashdagi farqlarni ko'rsatadi. Shunday qilib, yoshlar, asosan, "inson – texnologiya" (49 foiz), "inson – ishora tizimi" (21 foiz) va "inson – inson" (14 foiz) sohalaridan kasb tanlashadi. Qizlar "odam – belgilar tizimi" (28 foiz), "shaxs – badiiy obraz" (24 foiz) va "shaxs – shaxs" (23 foiz) sohalarini afzal ko'rishadi.

Kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha mutaxassislarning fikriga ko'ra, bu o'rta maktab o'quvchilarining kasblarni "erkak" va "ayol" deb tasniflashi bilan bog'liq, bu ularning kasbiy o'zini o'zi belgilashiga sezilarli ta'sir qiladi. O'g'il bolalar qizlar bilan solishtirganda, texnik kasblarga nisbatan aniqroq kasbiy yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Bu ko'plab ma'lumotlarga mos keladi, ya'ni bolalikdan boshlab to keksa yoshgacha erkaklar texnologiya bilan bog'liq kasblarni afzal ko'rishlarini ko'rsatadi.

"DDO" so'rovnomasi va metodologiyasining natijalariga ko'ra, o'rta maktab o'quvchilari o'rtasida gender masalalari bo'yicha ustuvor kasblar to'g'risida xulosalar chiqariladi. Ma'lum bo'lishicha, yigitlarning sevimli o'quv fanlari tarix (43%), informatika (31,2%), kimyo (31%), fizika (27%), matematika (26%), jismoniy tarbiya (24%) va ingliz tili (21 %).

Qizlarda esa sevimli maktab fanlari adabiyot (41%), tarix (33%), ijtimoiy fanlar (30%) va ingliz tili (27%). Shunday qilib, yigitlar aniq fanlar va tabiiy fanlar sikliga ko'proq qiziqishadi, qizlar esa gumanitar fanlarni afzal ko'rishar ekan.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, shuni xulosa qilish mumkinki, ikkala jinsdagi o'quvchilar kasb tanlashiga ta'sir qiluvchi eng muhim omillar shaxsiy xususiyatlar: qobiliyat va qiziqishlar bilan bir qatorda ota-onalar va qarindoshlar, do'stlar va tanishlarning maslahatlari ham muhim ahamiyatga ega ekan[11].

Xulosa qilib aytganda, o'g'il va qizlarni kasbga tayyorlash mahalliy emas, balki konseptual tabiatning o'zgarishi degan xulosaga kelindi, chunki u jamiyatning qiymat tizimini o'zgartirishni, yoshlarni kasbiy yo'naltirish jarayonida jinsiy roldan gender yondashuviga o'tishni talab qiladi.

Xulosa va takliflar:

– har bir maktab va kollej o'quvchilari, ota-onalar, o'qituvchilar, ish beruvchilar tomonidan ma'lum hamda tushunarli bo'lgan o'rnatilgan kasbiy ta'lim va yo'nalish dasturiga ega bo'lishi kerak;

– har bir o'quvchi va ularning ota-onalari gender stereotiplari asosida qaror qabul qilish xavfini kamaytirish uchun kelajakdagi ta'lim va mehnat bozori imkoniyatlari haqida sifatli ma'lumotlarga ega bo'lishi, mavjud ma'lumotlardan maksimal darajada foydalanishi uchun ularga ma'lumotli maslahatchi yordami kerak bo'ladi;

– turli bosqichlarda o'quvchilarning kasbiy yo'nalishga bo'lgan ehtiyojlari har xil bo'ladi, shu bois maslahat va yordam olish imkoniyati har bir o'quvchining ehtiyojlariga moslashtirilishi kerak bo'ladi, maktabning kasbga o'qitish dasturlari tenglik va xilma-xillik masalalarini o'z ichiga olishi lozim;

- har bir o'quvchi ish beruvchilardan ish, bandlik va ish joyida qadrlanadigan ko'nikmalar haqida ma'lumot olish uchun bir nechta imkoniyatlarga ega bo'lishi lozim. Bu ma'ruzachilar tashrifi, murabbiylik va korporativ sxemalarni o'z ichiga olgan bir qator boyitish tadbirlari orqali amalga oshirilishi mumkin;
- har bir o'quvchi mansab imkoniyatlarini o'rganish va o'z tarmoqlarini kengaytirish uchun ish safari, ish kuzatish yoki ish tajribasi orqali ish joyida birinchi kasbiy tajribaga ega bo'lishi kerak;
- barcha o'quvchilar o'zlari uchun mavjud bo'lgan ta'lim imkoniyatlarini to'liq tushunishlari lozim, bunga akademik va kasbiy yo'nalishlar, shuningdek, maktablar, kollejlari, universitetlar va ish joylarida o'qitish kiradi;
- har bir o'quvchi ichki (maktab xodimlari) yoki tashqi bo'lishi mumkin bo'lgan kasb bo'yicha maslahatchi bilan suhbat o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Ular tegishli darajada o'qitilishi kerak bo'lib, bu ularning shaxsiy ehtiyojlariga qarab turlicha uyushtirilishi lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29 yanvar 2022 yildagi “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
2. Ковалева И.А. Особенности гендерного аспекта в профессиональной карьере // Психологические науки: теория и практика: материалы Междунар. науч. конф. (г. Москва, февраль 2012 г.). URL <https://moluch.ru/conf/psy/archive/33/1916/> (дата обращения: 27.07.2018).
3. Козлов В.В. Гендерная психология. URL: <http://www.iprbookshop.ru/18948> (дата обращения: 27.07.2018).
4. Сергеева Е.Д. Гендерные особенности мотивационной готовности подростков к выбору профильного обучения // Сибирский педагогический журнал. 2008. – № 4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/gendernyeosobennos-timotivatsionnoy-gotovnosti-podrostkovk-vyboruprofilnogo-obucheniya> (дата обращения: 25.07.2018).
5. Филиппова С.А. Социально-психологические особенности гендерной идентичности в юношеском возрасте: дис... канд. психол. наук. – Москва, 2009. – 196 с.
6. Исследование гендерных особенностей профессиональных интересов у младших подростков в возрасте 13–14 лет проводилось на базе МАОУ «СОШ № 67 г. Челябинска» на этапе предпрофильной подготовки. Выборка испытуемых составила 45 человек, из них 24 мальчика и 21 девочка.
7. Барышникова Елена Викторовна, Гендерный аспект в исследовании профессиональных интересов у младших подростков. Балтийский гуманитарный журнал. 2018. – Т. 7. – № 3 (24).
8. Касаткина Н.Э., Пахомова Е.А., Руднева Е.Л. Формирование профессионального самоопределения обучающихся в условиях регионального рынка труда как фактор устойчивой занятости // Вестник

Кемеровского государственного университета культуры и искусств. 2015. – № 2 (31). – С. 181-188.

9. Фролова С.В., Чирковская Е.Г. Психологические особенности профессионального самоопределения старшеклассников: монография. – Москва, 2016. – 160 с.; Циркунова Н.И., Берашевич Я.Д. Гендерные особенности профессионального самоопределения старшеклассников // Право. Экономика. Психология. 2015. – № 2 (2). – С. 71–76.

10. Savickas M.L. Life Designing: A Paradigm for Career Construction in the 21st Century // Journal of Vocational Behavior. 2009. Vol. 75, – № 3. pp. 239-250. <https://doi.org/10.1016/j.jvb.2009.04.004>.

11. Watts A.G. Career Guidance Policy. An International Review // The Career Development Quarterly. 2005. Vol. 54, – №1. pp. 66–76.

12. <https://doi.org/10.1002/j.2161-0045.2005.tb00142.x>.

INTERFAOL O‘QITISH METODLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Bo‘riboyeva Dilraxon Norboy qizi, Xudoyberdiyeva Nigina O‘razali qizi
Guliston davlat universiteti “Amaliy san‘at va dizayn” kafedrası
o‘qituvchisi, TS va MG yo‘nalishi 73-21 guruh talabasi

Annatotsiya: Ushbu maqolada talabalarga interfaol o‘qitish metodlaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari doir ilmiy-metodik tavsiyalar berilgan. Maqolani ilmiy jihatdan yoritishda ayrim interfaol metolarni mazmuni mohiyati hamada ayrim interfaol metodlarni qo‘llanishi bo‘yicha ilmiy-metodik didaktik tavsiyalarimizni bayon etganmiz.

Kalit so‘zlar: kompetentlik, kasbiy kompetentlik, shaxsiy tajriba, texnologiyalar, amaliy faoliyat, rivojlantirish.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda jahon ta‘lim maydoniga kirishga yo‘naltirilgan yangi ta‘lim tizimi qaror topdi. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o‘quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda.

Interfaol o‘qitish metodlari [1, 85-b]- (Interfaol tushunchasi ingliz tildan “interact”(rus tilida interaktiv) so‘zidan olingan bo‘lib, ikki taraflama harkat qilmoq ma‘nosini anglatadi) bu ta‘lim shakllarini optimizatsiyasini o‘ziga maqsad qilib olgan inson va texnik resurslari va ularning o‘zaro ta‘sirini hisobga olgan holda o‘qitish jarayonini tashkil etish, qo‘llash va aniqlashning hamda bilimlarni o‘zlashtirishning uslublaridir. Interfaol o‘qitish metodlari paydo bo‘lgunga qadar ta‘lim tizimi doirasida ta‘lim jarayonini yetarli samarali loyihalash qoidasi ishlab chiqilmagan. Interfaol o‘qitish metodlarining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o‘quv maqsadlariga erishishda o‘quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, yuzalikda emas, balki rejalashtirilgan natija olish imkonini beruvchi konstruktiv, ko‘rsatmali sxemada o‘z ifodasini topadi. Maqsadga yo‘naltirilganlik, jarayon natijalarini tashxisli tekshirish, ta‘limni alohida o‘rgatuvchi qismlarga bo‘lib tashlash o‘quv

jarayonining qirralarini bugungi kunda ta'limni qayta ishlab chiqish sikli g'oyasiga birlashtirish imkonini beradi.

U asosan o'z ichiga quyidagilarni oladi.

- ta'limda umumiy maqsadning qo'yilishi;
- tuzilgan umumiy maqsaddan aniq maqsadga o'tish;
- pedagoglarning bilim darajalarini dastlabki baholash;
- bajariladigan o'quv ishlarni majmuasi;
- natijani baholash.

“O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da ko‘rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: “Innovatsiya (inglizcha innovation –kiritilgan yangilik, ixtiro)[2, 108-b] 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanishi”. Ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashish talabalarda yangi tajriba egallashga intilishni rivojlantirish, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash, kelajakka umid bilan qarash kabi xislatlarni tarbiyalaydi.

Bugungi milliy pedagogikaga «interfaol metodlar» nomi bilan kirib kelayotgan metodlar talaba-o'qituvchidan ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Qisqa vaqt mobaynida ma'lum nazariy bilimlarni talabaga etkazish, unda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma, malaka hosil qilish, shu bilan birga ularni nazorat qilish hamda baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat va chaqqonlikni talab qiladi. Bugungi kunda qator rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilayotgan «Aqliy hujum», «6x6x6», «Klaster», «Qarorlar shajarasi» singari metodlarning ayrimlaridan ijodiy qobiliyatni rivojlantirishdagi badiiy asar tahlilida ham foydalanish mumkin. Aslini olganda, bu metodlarning ta'limdagi mantiqiy metodlardan farqi uncha katta emas.

Masalan: O'qitishning to'rt pog'onali usuli [3, 159-b] bu usul AQSH da paydo bo'lib sanoat korxonalarida konverli ishlab chiqarish ko'paygan sari shunday o'rgatish usullari zarur bo'lib qoldiki, ishchilar bir xilda qaytariladigan qo'l ko'nikmalarini iloji boricha tez va mukammal ravishda o'rganib olishlari kerak edi. Bu usulda amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni to'rt pog'ona doirasida kechadi. Bu pog'onalarining nomi: «Tushuntirish», «Nima qilish kerakligini ko'rsatib berish», «Ko'rsatilgan tarzda qaytarish», «Mashq qilish». Ya'ni amaliyot o'qituvchisi talabalarga avval kichikroq bir ish bosqichini tushuntirib beradi, keyin nima qilish kerakligini qilib ko'rsatadi. So'ng talaba shu ish bosqichini ko'rsatilgan tarzda qaytarishi (imitatsiya qilishi) kerak. Talaba qaytarib qilayotgan paytida amaliyot

o'qituvchisi xatolarini to'g'rilab turadi (maqtaydi yoki tanqid qiladi).

To'rt pog'ona usuli doirasidagi harakatlar to'rt pog'ona deb quyidagi pog'onalar ataladi. Ular davomida bir amaliyot o'qituvchisi bir talaba harakat qiladi:

1-pog'ona: Amaliyot o'qituvchisi nima qilish kerakligini tushuntiradi. U talabalarga ma'lum bir ish bosqichi yoki bir ko'nikmani qo'llash uchun kerakli

barcha ma'lumotlarni beradi. Talabalar esa amaliyot o'qituvchisi og'zaki tushuntirishlarini tinglashadi.

2-pog'ona: Amaliyot o'qituvchisi tushuntirilgan ish bosqichi qanday qilinishi kerakligini qilib ko'rsatadi, talabalar esa qarab turishadi. Odatda amaliyot o'qituvchisi nima qilayotgani haqida talabalarga izohlar berib boradi. Ya'ni bu yerda

demonstratsiya (namoyish etish) tushunchasi ham ishlatilishi mumkin.

3-pog'ona: Amaliyot o'qituvchisi ko'rsatib bergan ish bosqichini ko'rsatilgan tarzda qaytaradilar. Amaliyot o'qituvchisi ular qilayotgan ish yuzasidan o'z fikrini bildirib, xatolarni to'g'rilab turadi.

4-pog'ona: Har bir talaba ish bosqichini ko'rsatilgan tarzda qaytarib, ko'rganidan va ish bosqichini to'g'ri bajarish bo'yicha amaliyot o'qituvchisining izohlarni tushunganidan keyin, bu ish bosqichi ko'p marotaba mashq qilinadi va kerakligicha, ya'ni maqbul natijaga erishilmagunicha takrorlanadi.

Bundan keyin amaliyot o'qituvchisi keyingi ish bosqichiga o'tadi. Bu bosqich ham 4 pog'onadan iborat. Bu 4 pog'ona usulining asosiy belgisi shuki :

amaliyot o'qituvchisi tomonidan boshqarilgan nazariy va amaliy ma'lumot berish davrlari (fazalari) eng boshida turadi so'ng esa talabalarning harakatlari bilan almashinadi;

talabalarning harakatlari amaliyot o'qituvchisi ko'rsatib bergan harakatlardoirasi bilan cheklangan;

talabalar individual o'rganishga (o'zlashtirishga) yo'naltiriladilar lekin mustaqil fikrlashga haqlari yo'q;

ish tashkillashtirishi (ish tartibi) odatda hech qanday yangicha yondashuvlarga yo'l qo'ymaydi.

Masalan, «Aqliy hujum» metodining maqsadi talabalarning mashg'ulot jarayonidagi faolligini oshirish, ularni erkin, ijodiy faoliyatga undash, ma'lum mavzu yuzasidan har xil masalaga ijodiy yondashuvni ta'minlashdan iborat. Bu metoddan foydalanilganda favqulodda, kutilmagan savol yoki topshiriq bilan talabaning ongiga, shu uriga "hujum" qilinadi va ular loqaydlikdan, muvozanatdan chiqariladi.

Talabalar o'z oldilariga qo'yilgan muayyan masala bo'yicha mulohaza yuritadilar. Masala atrofida ishlayotgan, kompozitsiya tayyorlayotgan har bir talaba tomonidan aytilgan g'oyalar rag'batlantirish, qayd etib borish, har bir ishtirokchining erkinligini ta'minlash, asar mualliflari tomonidan asoslanishini talab qilish talab qilinadi. Talabalar tomonidan bajarilgan ijodiy ishni alohida baholash, ularni tanqid qilish yoki g'oyalaridan kulish ta'qiqlanadi.

Aqliy hujum – o'quv muammolarini hal qilishda keng qo'llaniladigan metod. U qatnashchilarning tasavvurlari, bor bilimi va imkoniyatlaridan unumli foydalanishga yo'naltirilgan. Mazkur metod talaba oldiga qo'yilgan har qanday muammoli masalaga ko'p sonli echimlar topishga imkon yaratadi[4, 53-b].

Aqliy hujumdan foydalanilganda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

1. O'ylash jarayonida hech qanday baholashlarga yo'l qo'yilmaydi. Agar o'ylash jarayonidagi g'oyalar baholanadigan bo'lsa, qatnashchilar manfaatdorlik yo'lga

tushadilar va o'z fikr-g'oyalarini himoya qilishga berilib ketib, yangi fikr aytish, kashfiyotlar qilishni o'ylamay qo'yadilar.

2. Har bir talaba bitta masala yuzasidan o'ta xilma-xil mulohazalar topishga yo'naltiriladi. Talabalarda kutilmagan fikr, favqulodda g'oyalar tug'ilmasa, qatnashchilar o'z fikrlarini qayta qo'llashga, bir-birlarini takrorlashga majbur bo'ladilar.

3. G'oya va fikrlarning miqdori rag'batlantiriladi. Ma'lumki, miqdor odatda o'sib sifatga aylanadi. Tezkor izchillikda katta miqdordagi g'oyalar paydo bo'lganda ularni baholash mumkin. Qatnashchilarning o'z tasavvurlariga erk berishiga imkoniyat yaratilishi kerak. Bu erkinlik natijasida yaxshi, betakror va kuchli g'oyalar tug'iladi.

4. Har bir talaba o'z g'ozgalar g'oyasiga asoslanishi va ularni o'zgartirishi mumkin. Chunki fikrdan fikr tug'iladi. Oldin taklif etilgan g'oyalarni birlashtirish yoki o'zgartirish, ko'pincha, asos bo'lgan fikrdan kuchliroq, yaxshiroq g'oyalarni keltirib chiqaradi.

Aqliy hujumdan foydalanish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Talabalar erkin o'tiradigan qilib joylashtiriladi.
2. G'oya va fikrlarni yozish uchun darstaxta yoki varaqlar tayyorlab qo'yiladi.
3. Hal etilishi lozim bo'lgan muammo aniqlanadi.
4. Ish jarayoni belgilab olinadi: a) g'oyalar baholanmaydi; b) fikrlashga to'liq erk beriladi; v) g'oyalar ko'p va xo'p bo'lishiga (miqdorga) intilinadi; g) talabalar faoliyati «ilg'ab oling», «ilib oling», «g'oyalarga asoslaning», «qo'shing», «kengaytiring», o'zgartiring» singari chaqiriqlarga asosan uyushtiriladi;
5. Qo'yilgan muammo yuzasidan fikrlar so'raladi va yozib boriladi;
6. O'zgalarning fikrlaridan kulish, kinoyali sharhlar va mayna qilishlarga aslo yo'l qo'yilmaydi;
7. Varaqlar g'oya va fikrlar bilan to'lganda ular ko'rinarli erga osib qo'yiladi;
8. G'oyalar tugamaguncha ish davom ettirilaveriladi;
9. Shundan so'ng yangi, kuchli, asosli va original g'oyalar to'garak rahbari tomonidan rag'batlantiriladi, baholanadi.

Mashg'ulotlarda ko'rgazmali vositalardan foydalanganda quyidagi uslubiy talablarga rioya qilish kerak:

1. Ko'rgazmali qurol mashg'ulotdagi o'quv materialining mazmuniga mos kelishi kerak.
2. Mashg'ulotda foydalaniladigan barcha ko'rgazmali vositalarni bir vaqtning o'zida birvarakayiga foydalanish, ularni birdan namoyish qilib qo'yish yaramaydi. Chunki bu talabalar diqqat-e'tiborining chalg'ishiga olib kelishi mumkin.
3. Mashg'ulotni ko'rgazmali vositalar bilan haddan tashqari to'ldirib yubormaslik kerak.

Mashg'ulotlari o'quv rejasida, dars jadvali, ko'rsatilgan vaqti, dars xonasi belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ularning orasida «Ijodiy dars» nomi bilan ta'lim amaliyotiga kirib kelgan metod bevosita talabalarni ijodga undashi bilan ahamiyatli. Talabalarning mustaqil ravishda fikr yuritish, bilim olish va ijodkorlik qobiliyatini tarbiyalashga erishish

bugungi umuta'lim maktablarining asosiy vazifalaridan bo'lishi maqsadga muvofiq.

Xulosa o'rnida shularni ta'kidlashimiz lozimki talabalarning grafik savodxonligini rivojlantirishda interfaol o'qitish metodlaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari quyidagilardan iborat bo'ladi.

Birinchi, interfaol metodlar, o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim va tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda ma'lum darajada samardorlikka erishishini ta'minlaydi;

Ikkinchi, talabalarning grafik savodxonligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilishda talablarda krektivlik imkoniyatlarni rivojlantiradi; Uchinchi, mashg'ulotlar jarayonida talabalar jamoviy ishlash ko'nikmalarini rivojlanadi o'zaro bir-birini tinglash o'zidagi mavjud imkoniyati va qobiliyatlarning rivojlanishiga namoyon bo'lishga sabab bo'ladi;

To'rtinchi, interfaol metodlarni samardorligini amalga oshirishda ta'lim oluvchilarni hayotiy tajribalari yosh psixologik xususiyatlari, dunyoqarashlari inobatga olingsa, talablalarda yuqori darjaga nostadart fikrlash kasbiy mahorat, malaka bilimdonlik, sezgirlik va intuitsiyaga ega bo'lishga yo'naltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.O'.Muxamedov, M.H.Usmanboev, S.S.Rustamov., Ta'limni tashkil etishda interfaol metodlar: O'quv-uslubiy tavsiyalar -T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,2016.- 4 bet.
- 2.U.Inoyatova va boshqalar: Pedagogikadan 1000 savolga 1000 javob T.TDPU 2013 yil 127 b.
- 3.Benjamin Bulm et at., eds., taxonomy of Educatijnal objectives, Handbook J: Cognitive (New York: MK Kay, 1956)
- 4.Курьянов М.А. Таълимнинг фаол усуллари: метод. нафақа / М.А. Курьянов, В.С. Половтсев. - Тамбов: ФГБОУ ВПО "ТСТУ" нашриёти, 2011. - 80 п(Источник: [хттпс://деловелюди.ру/уз/рубашки/метод-мозгового-штурма-или-мозговой-атаки-сут-правила-и-этапй/](http://деловелюди.ру/уз/рубашки/метод-мозгового-штурма-или-мозговой-атаки-сут-правила-и-этапй/))
- 5.Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
- 6.Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015.

TA'LIM TASHKILOTLARIDA ZAMONAVIY TALABLAR ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

*Pirmanova Gavhar Nazarkulovna, Haydarova Nozigul Bahrom qizi
Navoiy davlat pedagogika institute Pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori(PhD) dotsent, Zarafshon shahar kasb-hunar maktabi
ingliz tili fani o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish orqali tashkil etishninh samarali usullari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Innovatsion, pedagogik, ilg'or, metod, mashg'ulot, fikrlash, dunyoqarash, darslik, o'quv qo'llanma, majmua.

Hozirgi kunda xorij tajribasini o'rganish, o'ranilgan adabiyotlarni amaliyotga tadbiq etish, zamon talab;ariga mos ravishda me'yoriy hujjatlar, metodik adabiyotlar hamda majmualar ishlab chiqish, ilg'or chet el tajribasi asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda sohaga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish vazifalari dolzarb masalalar sirasiha kiritilmoqda.

So'nggi yillarda ta'lim muassasalarida o'qitish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy pedagogik talablar va ilg'or xorijiy tajriba asosida yangi darsliklar va o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish, ularni tajribasino'vdan o'tkazish hamda ekspertiza qilishni tashkillashtirish borasida bir qancha ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, zamonaviy talablar va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan yangi o'quv rejalari, dasturlari va o'quv – metodik adabiyotlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga kiritish maqsadida O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 20-apreldagi PQ -128-son qarori bilan ilmiy metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish choralari belgilandi.

Ta'lim jarayonida fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo'layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o'quvchilarning bilimlarni ongli o'zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarni rivojlantirish va amaliy, ilmiy-metodik tayyorgarligini oshirishda muhim o'rin egallaydi. Bunday tayyorgarlik o'quvchilarini darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ishlab chiqarishda va umuman har qanday faoliyatda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini erkin qo'llash imkonini beradi. Hozirgi vaqtda pedagogik amaliyotda fanlararo bog'lanish asosida ta'lim jarayoni integratsiya yo'llarida izlanishlar davom etmoqda. Fanlararo bog'lanish, ya'ni integratsiya negizida o'quvchilarda fikrlash qobiliyatining har xil turlarini shakllantirish nazarda tutiladi, bu esa o'z navbatida bilim(anglash) jarayoni bilan chambarchas bo'g'liqdir.

Integratsiya (lot. Integratio – tiklash,to'ldirish, integer – butun) so'zidan o'zida bir qancha ma'nolarni birlashtiruvchi so'z bo'lib, shu ma'nolardan biri " ikki va undan ortiq fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni" dir. Bir-biriga yaqin, chegaradosh fanlar mazmuni o'quvchilarni ruhiy rivojlanishiga, ularda turli xil tafakkur va dunyoqarashni rivojlantirishga qaratilgan. Har bir o'quv predmetini o'rganish o'quvchining materialni anglash jarayonini, unda eslab qolishni, ta'sirchanlikni faollashtiruvchi, tafakkurni, intellectual va ijodiy qobiliyatni, nutq va tasavvurni rivojlantiruvchi ruhiy diqqatni yaratishga imkon beradi. Ayniqsa, chegaradosh fanlardan egallangan bilim bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tafakkurning turlarini rivojlantirishda, fanlardagi mavzular mazmunining farqli va o'xshashlik tomonlarini bilib olishda, bir fandan olgan bilim, malaka va ko'nikmani boshqa fanlarda qo'llash uchun imkoniyatlarni hosil qiladi.

Globalashuv jarayonida jamiyatda muallimning obro‘-e‘tibori va maqomini ko‘tarish, o‘quv dasturlari va metodikasini to‘liq qayta ko‘rib chiqish, maktabni ta‘limning keyingi bosqichlari bilan uzviy bog‘lash, o‘qituvchilarni ortiqcha qog‘ozbozlikdan xalos etib, o‘z ustida ko‘proq ishlashi uchun sharoit yaratish va shuni rag‘batlantirish, maktab infratuzilmasi va undagi ma‘naviy muhitni yaxshilash kabi masalalar keng muhokamaga qo‘yildi hamda yurtboshimiz tomonidan avvalo **maktablarda o‘quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko‘rib chiqish, o‘quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini ta’kidladi.**

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, ta‘lim muassasasida mustaqil faoliyat o‘quvchining rivojlanishida asosiy omil bo‘lib, uning kelgusi faoliyatida mustaqil ishlay olish xususiyatlarini tavsiflovchi bo‘lib xizmat qiladi. Darsdan tashqari mashg‘ulotlarning mazmuni mehnat xarakteriga bevosita emas, balki bilvosita ta’sir etib, mustaqil faoliyat uchun imkoniyat topa olishiga bog‘liq bo‘ladi. Mustaqil faoliyat o‘quvchining kelgusi faoliyati davomida o‘z yo‘lini belgilashning vositasi bo‘lib, o‘quvchi o‘z imkoniyatlarini baholay olishiga sabab bo‘ladi. Darsdan tashqari mustaqil ishlar o‘quvchilar bilimlarini o‘zlashtirishning faol usullariga yo‘naltirishni, o‘rganuvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishni, ularning ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda uzluksiz o‘qitishdan individuallashtirilgan tayyorgarlikka o‘tishni nazarda tutadi. O‘quvchilarning mustaqil ishi ularning o‘zini o‘zi rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini shakllantiradigan tarzda qurilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori, 20.05.2023-yildagi 209-son
- 2.Xodjaev B.X. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish yo‘llari. – T. : TDPU, 2008. – 65 b.

O‘QUVCHILARDA MUSTAQIL O‘QISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Shaxmurodova Diljahon Almardonovna

QVPYMO‘MM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim kafedrası v/b dotsenti

Annotatsiya. Ushbu tezis “O‘quvchilarda mustaqil o‘qish ko‘nikmasini shakllantirish metodikasi” mavzusida yozilgan bo‘lib, unda mustaqil o‘qishning ahamiyati va mustaqil o‘qishga o‘rgatish xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: mustaqil o‘qish, o‘quvchi, ko‘nikma, strategiya, mas’uliyat, refleksiya.

Аннотация: Данная дипломная работа написана на тему «Методика формирования навыков самостоятельного чтения у учащихся», и в ней рассматривается значение самостоятельного чтения и обучения самостоятельному чтению.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, студент, умение, стратегия, ответственность, рефлексия.

Annotation: This thesis is written on the topic "Methodology of formation of independent reading skills in students", and it discusses the importance of independent reading and teaching to independent reading.

Key words: independent study, student, skill, strategy, responsibility, reflection.

Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Bu davr maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradi. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Mustaqil o'qish ko'nikmalarini ham boshlang'ich ta'lim davridan boshlab shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki, bugungi kunda axborotlar juda ko'p va ularni o'rganish va ular ustida ishlashga o'rgatish uchun esa kichik maktab yoshidan boshlab o'quvchilarni mustaqil o'qishga o'rgatish zaruriy shartlardan biri sanaladi.

O'quvchilar sinf xonalarida o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar va qisman amaliy mashqlar bajaradilar. Sinfxonasidan tashqarida o'quvchi darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifasi sifatida berilgan topshiriqlarni bajaradi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib topshiriqlarni bajaradilar hamda mavzu bo'yicha testlar yechadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarni mustaqil o'qishga e'tibor qaratish lozim.

O'quvchilarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, o'quvchilarning mustaqil o'quv faolligini shakllantirishning yagona usuli, ularning mustaqil o'quv faoliyati bilan shug'ullanishlarini tashkil etish va boshqarish hisoblanadi. O'quvchilarda ijodiy tayyorgarlik jarayonida mustaqil ta'limni tashkil etish uzluksiz va uzviy amalga oshirilmog'i lozim. Bizningcha, bu yo'nalishda yuqori natijaga erishish ta'lim jarayonida, xususan ijodiy mashg'ulotlarda o'quvchilarda o'rganilgan o'quv materialini mustahkamlashga qiziqish hosil qilish, o'quv axborotlarni sig'imini darslik va qo'shimcha adabiyotlardan mustaqil holda o'qish asosida kengaytirishga ishtiyoq hosil qilishga asoslanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining har tomonlama yetuk, bilimli, mustaqil fikrlay oladigan, izlanuvchan bo'lib yetishishini ta'minlash, ularni o'z ustida ishlashga yo'naltiruvchi yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda maktabdagi har bir ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilarni hayotda muvaffaqiyatli shaxs bo'lishga tayyorlashni maqsad qilgan va XXI asr ko'nikmalari bilan ta'minlovchi yangi vazifani bajaradi. Biz bilamizki, XXI asr ko'nikmalari qatorida mustaqil o'qish ko'nikmalari ham kiradi. Ma'lumki, XXI asrdagi muhim ko'nikmalar o'quv faoliyatida kuchaytirilishi kerak bo'lgan maxsus ko'nikmalarni o'z ichiga oladi, ya'ni tanqidiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlar muammolarni hal qilish, metabillash, muloqot qobiliyatlari, hamkorlik, innovatsiyalar, ijodkorlik va axborot savodxonligi kabi yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlaridir.

Mustaqil ta'lim **deganda, o'quvchilarning** maqsadlar qo'yishlari, **o'zlarining akademik rivojlanishini** nazorat qilishlari va baholashlari, **o'zlarining ta'limga bo'lgan** motivatsiyasini boshqarishlari tushuniladi.

Mustaqil ta'lim olish jarayonida o'quvchilar

motivatsiya olishadi;

o'zlari uchun izlanishni o'rganishadi;

o'rganish jarayonini yaxshi boshqara olishadi;

uzoq muddatga mo'ljallangan **samaradorlikka erishiladi.**

O'quvchilar:

o'zlarining o'rganish jarayonida **faol bo'lishlari;**

o'rganishlari to'g'risida qarorlar qabul qila olishlari, maqsadlarni belgilashi; refleksiyaning amalga oshirishi, baholab borishi talab etiladi.

Mustaqil ta'limning asosiy tarkibiy qismi o'quv jarayoni uchun mas'uliyatni o'qituvchidan o'quvchiga o'tkazish hisoblanadi.

Bu o'quvchilar o'z o'rganishlari haqida tushunchaga ega bo'lishlari, o'rganishga rag'batlantirishlari va o'quv muhitini tuzishda o'qituvchilar bilan hamkorlik qilishlarini o'z ichiga oladi.

O'quvchilarni mustaqil ta'limga o'rgatishning 4 ta asosiy g'oyasi mavjud, ular quyidagilar:

Maqsadlar qo'yish

Strategiyalar (usullar, yo'llar)

Mas'uliyatlilik

Refleksiya

MAQSADLAR QO'YISH

O'quvchilardan nimaga erishmoqchi ekanliklarini so'rash;

O'quvchilarni maqsadlarini baham ko'rishga undash;

Ulardagi yutuqlarga muntazam ravishda munosabat bildirish;

Har bir darsda nimani o'tmoqchi ekanligingizni belgilang va o'quvchilardan bu ularga yaxshiroq bo'lishga yordam beradi deb o'ylashlarini so'rang.

Oldingi xatolarni shaxsiy o'quv maqsadlariga aylantirish.

STRATEGIYALAR (USULLAR, YO'LLAR)

O'quvchilarga foydalanish uchun turli strategiyalarni berish;

Ularga har bir strategiyani sinab ko'rishlariga ruxsat berish.

MAS'ULIYATLILIK

O'quvchilaringizga o'qish uchun do'stlar tayinlang.

Masalan, ular bir-birlariga ingliz tilida xabar yozishlari, qisqa video qo'ng'iroqlar qilishlari yoki bir-birlariga ovozli eslatmalarni qoldirishlari mumkin.

REFLEKSIYA

Har doim refleksiya mashqlarini o'tkazib turing.

O'quvchilarni qandaydir shaklda o'quv kundaligini yuritishga o'rgatish va shu asosida baholash hamda rag'batlantirish (masalan haftalik) juda muhimdir. Ular o'rganishning bu qismiga qanday yetib kelishganliklarini (jarayon haqida) o'ylab ko'rish kerak.

O'zbekistonning kelajagini buyuk davlat darajasiga ko'taradigan ijodkor shaxsni yaratishda boshlang'ich ta'lim poydevor vazifasini bajaradi. Bolaning ongi va

tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiq etilishi, ilg'or pedagogik tajribalardan mohirona foydalana olishi, shu bilan bir qatorda o'quvchilarda mustaqil o'qish ko'nikmalarini shakllantira olishi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent.: "O'zbekiston", 2021.
2. Shaxmurodova D. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini anglash va tushunish darajalarini baholashning metodikasini takomillashtirish: o'quv qo'llanma. – Qarshi.: "Big makro world" MCHJ. 2013. -130 b.
3. www.uzedu.uz – Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining rasmiy veb sayti
4. erp.maktab.uz – Xalq ta'limini boshqarish tizimi
5. www.ziyonet.uz – Axborot ta'lim portali

DIZAYN O'QITUVCHILARINING MALAKASI VA IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH

Xudoyberdiyev Dostonbek Rustambek o'g'li

Guliston davlat universiteti Amaliy san'at va dizayn kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'z-o'zini aks ettirish, o'qituvchilar jamoasida qo'llab-quvvatlash va o'zaro yordam muhitini yaratish, shuningdek, dizayn o'qituvchilarining o'z ishiga bo'lgan ishtiyoqi muhimligi ta'kidlangan. ***Dizayn o'qituvchilarining malakasi va ijodkorligi bo'lajak mutaxassislarni muvaffaqiyatli tayyorlashning asosiy omillariga aylanmoqda.*** Maqolada o'qituvchilarda ushbu fazilatlarni rivojlantirishning turli xil yondashuvlari ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: malaka, dizayn, o'qituvchilar, ijodkorlik, tovarlarning jozibadorligi, xizmatlarga talab, ishlab chiqarish

Dizayn ko'p qirrali tushuncha bo'lib, kontekstga qarab turli xil ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Keng ma'noda dizayn ob'ektlar, tizimlar, xizmatlar va jarayonlarni loyihalash jarayonini anglatadi. Tor ma'noda dizayn ko'pincha ushbu jarayonning natijasiga, ya'ni ob'ektning tashqi ko'rinishi va funktsional xususiyatlariga murojaat qilish uchun ishlatiladi.

Dizayn inson hayotida tobora muhim o'rin tutayotgan bugungi dunyoda **dizayn o'qituvchilarining malakasi va ijodkorligi** bo'lajak mutaxassislarni muvaffaqiyatli tayyorlashning **asosiy omillariga** aylanmoqda. Dizayn bugungi kunda inson hayotining barcha sohalarida **katta rol o'ynaydi**. U **bizni** hamma joyda o'rab oladi: kiyim va mebeldan tortib, gadjetlar va interfeyslarga. Stilistika hayotimizni yanada chiroyli va qiziqarli qiladi. Bu atrofimizdagi uyg'un va ilhomlantiruvchi muhitni yaratishga yordam beradi. Dizayn mahsulot va xizmatlarning funktsionalligini yaxshilaydi, ularni yanada qulay, amaliy va samarali qiladi. U ma'lumot va g'oyalarni etkazish uchun ishlatiladi, bir-birimizni

yaxshiroq tushunishga va atrofimizdagi dunyo bilan o'zaro munosabatda bo'lishga yordam beradi. Dizayn **iqtisodiyotda** muhim rol o'ynaydi . Bu mahsulot va xizmatlarning jozibadorligini **oshiradi** , **bu esa sotish** va **foydani oshiradi** . Stilistika ijtimoiy muammolarni hal qilish va hayot sifatini yaxshilash uchun ishlatilishi mumkin. Bu bizga dunyoni yanada adolatli, qulayroq va barqaror joyga aylantirishga yordam beradi.

Dizaynerlar eng chuqur nazariy asoslarni to'rt yildan olti yilgacha davom etadigan oliy o'quv yurtlarida olishlari mumkin. Bu erda umumiy ta'lim dasturlari mavjud emas va ko'pchilik kurslar amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Dizaynerlar tasviriy san'at bo'yicha ilmiy darajaga ega bo'lishlari kerakligi haqidagi afsona. Biroq, ish uchun chizish qobiliyati kerak bo'lishi mumkin. Eskizlar yordamida bo'lajak mutaxassislar o'z g'oyalarini mijozlarga vizual tarzda taqdim etishlari mumkin. Tez chiza oladigan dizaynerlar raqobatchilardan ustunlikka ega.

Kiyim eskizlari moda dizaynerlari uchun kiyim g'oyalarini tasavvur qilish uchun ajralmas vositadir. Agar dizaynerlar kiyimlarni loyihalashtirmoqchi bo'lsalar, unda ular shakllarni qanday chizishni o'rganishlari kerak. Ular uch o'lchamli inson hajmlarini tasvirlashlari uchun skeletizatsiyani mashq qilishlari kerak va keyin asta-sekin murakkabroq shakllarga o'tishlari kerak.

Landshaft dizaynida eskiz ish jarayonining bir qismidir. Bog'lar va bog'larni real tasvirlash uchun eskiz zarur. Qanchalik ko'p eskiz chizish bilan shug'ullansa, shunchalik rang-barang eskizlarni chizish mumkin bo'ladi, ular mijozlariga yoqadi.

Vakolatli o'qituvchilar dizaynni o'qitishda katta rol o'ynaydi. Ular o'quvchilarga nafaqat bilim beradi, balki ularni ijodiy fikrlashga, muammolarni yechishga, jamoa bo'lib ishlashga, qiyinchiliklarni yengishga o'rgatadi. O'qituvchilar o'quvchilarga dizayn nazariyasi bo'yicha kuchli poydevor beradi. Bu talabalarga dizayn tamoyillarini tushunish va ularni o'z ishlarida qo'llash imkonini beradi. O'qituvchilar talabalarga turli dizayn usullari va usullarini o'rgatadi. Bu talabalarga o'zlariga mos keladigan usullarni tanlash imkonini beradi. Mentorlar talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradilar. Bu talabalarga yangi g'oyalar yaratish va ularni amalga oshirish imkonini beradi. Ular talabalarni jamoa bo'lib ishlashga o'rgatadi. Bu talabalarga boshqalar bilan samarali muloqot qilish va maqsadlariga erishish imkonini beradi. O'qituvchilar talabalarga qiyinchiliklarni yengishga o'rgatadi. Bu esa o'quvchilarga to'siqlar oldida taslim bo'lmaslik va o'z ishini yakunlash imkonini beradi.

O'zbekistonda dizayn o'qituvchilari uchun malaka oshirish kurslarini taklif etuvchi ko'plab davlat va xususiy ta'lim muassasalari mavjud. Ushbu kurslarda o'qituvchilar yangi o'qitish uslublari va usullari bilan tanishishlari, dizayndagi zamonaviy tendentsiyalarni o'rganishlari va o'zlarining kasbiy darajasini oshirishlari mumkin. O'zbekistonda dizayn o'qituvchilari uchun malaka oshirish kurslarini taklif etuvchi mashhur ta'lim muassasalaridan ba'zilar quyidagilardir: Usta Shirin Murodov nomidagi Toshkent davlat rassomlik va dizayn instituti; O'zbekiston Milliy universiteti; Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi.

O'zbekistonda dizayn bo'yicha seminarlar, treninglar va mahorat darslari muntazam o'tkazib kelinmoqda. Ushbu tadbirlarda ishtirok etish o'qituvchilarga dizayn sohasidagi so'nggi yangiliklar va tendentsiyalardan xabardor bo'lish, hamkasblari bilan tajriba almashish va kasbiy saviyasini oshirish imkonini beradi. Dizayn bo'yicha seminarlar, treninglar va mahorat darslari haqida ma'lumotni ta'lim muassasalarining veb-saytlari, ijtimoiy tarmoqlar va ixtisoslashtirilgan nashrlarda topishingiz mumkin.

O'z-o'zini tarbiyalash ham har qanday mutaxassis uchun malaka oshirishning ajralmas qismidir. Dizayn o'qituvchilari doimiy ravishda professional adabiyotlarni, maqolalarni o'qishlari, video darslarni tomosha qilishlari, vebinarlarda qatnashishlari va onlayn kurslarda qatnashishlari kerak.

Dizaynerlikni yaxshilash ularning ijodiy qobiliyatlarini oshiruvchi omillar. Masalan, professional adabiyotlarni, maqolalarni o'qish, video darslarni tomosha qilish, vebinarlarda qatnashish va dizayn bo'yicha onlayn kurslarda qatnashish; dizayn tarixini, dizayndagi zamonaviy tendentsiyalarni va tendentsiyalarni o'rganish; ko'rgazmalar, muzeylar, teatrlar, konsertlar va boshqa madaniy tadbirlarda qatnashish; sayohat qilish va yangi madaniyatlarni o'rganish; boshqa ijodiy odamlar bilan muloqot qilish; ijodiy tanlovlar va loyihalarda ishtirok etish; dizayn sohasida o'z ishlaringizni yaratish; ijodkorlikni rivojlantirish uchun o'yinlar, topshiriqlar, aqliy hujum va boshqa interfaol o'qitish usullaridan foydalanish; talabalarni mustaqil ravishda axborot izlashga va muammolarni hal qilishga undash; sinfda o'quvchilar xato qilishdan va yangi g'oyalarni taklif qilishdan qo'rqmaydigan ishonch va qo'llab-quvvatlash muhitini yaratish; dizayn uchun kompyuter dasturlaridan foydalanish; ma'lumot va ilhom topish uchun onlayn resurslardan foydalanish;

Maqolani yakunlab, shuni aytishimiz mumkinki, dizayn o'qituvchilarining malakasi va ijodkorligini rivojlantirish sifatli ta'limni shakllantirish va mehnat bozorida mutaxassislar tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. O'z kasbiy o'sishi, yangi uslub va texnologiyalarni o'rganish, ilhom izlash va ijodiy salohiyatni rivojlantirish bo'yicha doimiy ish o'qituvchilarga o'z sohasining haqiqiy professional bo'lishga yordam beradi. Muvaffaqiyatlar bilan cheklanib qolmasdan, o'quvchilaringizni muvaffaqiyat yo'lida ilhomlantirishda va rag'batlantirishda davom etish uchun doimo o'z mahoratingizni rivojlantirish va takomillashtirib borish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Dizayn pedagogikasi" - tahrirlangan V.V. Ivanova, 2017 yil
2. "Dizaynni o'qitish metodikasi" - L.N. Prokofyev, 2015 yil
3. "Dizayn darslarida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish" - O.V. Afanasyeva, 2013 yil
4. "Dizayndagi ijodkorlik" - Jon Xesket, 2010 yil
5. "Dizayn fikrlash: murakkab muammolarni qanday hal qilish va innovatsion mahsulotlarni yaratish" - Tim Braun, 2009 yil

6. "Bo'lajak dizayn o'qituvchilarida ijodkorlikni rivojlantirish"
7. "Dizayn o'qituvchilarini tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondashuv"
8. "Dizayn o'qituvchilari orasida ijodkorlikni rivojlantirishning zamonaviy usullari"
9. "Talabalar ijodiyotini rivojlantirishda dizayn o'qituvchisining o'rni"
10. "Ko'proq ijodiy dizayn o'qituvchisi bo'lish uchun 5 ta maslahat"

O'ZBEKISTONDA INTERYER DIZAYNI USLUBLARINING XUSUSIYATLARI

*Xudoyberdiyev Dostonbek Rustambek o'g'li, Bobomurotov Jahongir
Guliston davlat universiteti Amaliy san'at va dizayn kafedrasida o'qituvchisi,
GulDU Dizayn yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya

O'zbekistondagi interyer dizayni o'ziga xos an'analar, sharqona hashamat va zamonaviy qulaylikning o'ziga xos uyg'unligidir. Bu mamlakatning boy madaniyati va tarixini aks ettirib, qulaylik, mehmondo'stlik va sharqona hashamat muhitini yaratadi. Ushbu maqolada asosiy elementlar, an'anaviy elementlar, to'qimachilik, dekoratsiya, mamlakatning xarakteristikasi muhokama qilinadi. Kalit so'zlar: dizayn, landshaft, atmosfera, qulaylik, bezak, milliy dizayn, ekodizayn, zamonaviy dizayn.

Bir necha yil oldin, interyer dizaynerlari xizmatlariga talab unchalik yuqori emas edi va ko'pchilik mijozlar o'z kvartiralarining dizaynini o'zlarining estetik g'oyalari va hunarmandlarining ixtiyoriga topshirishdi. Lasfera Design Studio asoschilaridan biri Eduardo Taigayning so'zlariga ko'ra, "Evro ta'mirlash" degan mash'um tushuncha shu davrda tug'ilgan :

"Ijodiy mehnat va intellektual mehnat ilgari unchalik qadrlanmagan. Dizayn loyihasi nima ekanligini va nima uchun uni to'lash haqida hech qanday tushuncha yo'q edi. Natijada, "Men allaqachon 500 ta shunday uy qurganman" degan so'zlar bilan o'z qarashlarini amalga oshiruvchi prorablar ishga qabul qilindi. Usta o'z ishini osonlashtirish uchun mutlaqo tushunarli tendentsiyaga amal qiladi - tasdiqlangan materiallarni sotib olish va allaqachon ma'lum bo'lgan texnikani muntazam ravishda takrorlash. Ammo bu butun sanoat sifatida dizaynning rivojlanishiga olib kelmaydi va mijozning haqiqiy ehtiyojlarini qoplamaydi. Shunday qilib, endi bizda bir-biridan farq qilmaydigan va ma'lum bir oilaning turmush tarzini aks ettirmaydigan juda ko'p sonli bir xil kvartiralar mavjud. Yaxshiyamki, tendentsiya o'zgara boshladi - endi dizayn xizmatlari unchalik qimmatga tushmaydi va yangi binodagi kvartiraning deyarli har bir xaridori buni sotib olishga qodir».⁹

Bundan tashqari, bilim ishining qiymatini tushunishning etishmasligi mavjud va mijozlar ko'pincha dizayn loyihasi uchun nima uchun ma'lum miqdorni to'lash kerakligini tushunmaydilar. Dizaynerlar, maxsus dasturda sehrli tugmachani bosib,

⁹Eduardning Tyugaya bayonoti

kelajakdagi kvartiraning tasvirini yaratishi mumkinligiga ishonishadi. Biroq, dizayn loyihasini ishlab chiqish bir oydan bir necha oygacha davom etadi, bir nechta ishchilarni jalb qilishni talab qiladi va bir necha bosqichlarga bo‘linadi.

O‘zbekistonda dizayn ko‘p asrlarga borib taqaladigan boy tarixga ega. To‘quvchilik, kulolchilik, yog‘och va metall o‘ymakorligi kabi hunarmandchilik an‘analari asrlar davomida o‘zbek dizayni estetikasini shakllantirgan. Sovet davrida O‘zbekistonda dizayn mafkuraviy chegaralar bilan chegaralangan edi. Biroq, ba‘zi dizaynerlar sharqona estetika va sovet modernizmi elementlarini o‘zida mujassam etgan noyob asarlar yaratishga muvaffaq bo‘lishdi. 1991-yilda mustaqillikka erishgach, O‘zbekistonda dizayn faol rivojlana boshladi. O‘ziga xoslik va madaniy tiklanish istagini aks ettiruvchi yangi tendentsiyalar va uslublar paydo bo‘la boshladi. Bugungi kunda O‘zbekistonda dizayn jadal rivojlanish davrini boshidan kechirmoqda. O‘zbekistonlik dizaynerlar xalqaro tanlov va ko‘rgazmalarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, o‘z iste’dodi va ijodi bilan e’tirof etilmoqda.

Ichki dizaynning bir necha turlari mavjud. O‘zbekistondagi milliy interyer dizayni o‘ziga xos an‘analar, sharqona hashamat va zamonaviy qulaylikning o‘ziga xos uyg‘unligidir. Bu mamlakatning boy madaniyati va tarixini aks ettirib, qulaylik va mehmondo‘stlik muhitini yaratadi. Milliy dizayn tabiiy materiallar, yorqin ranglar va bezaklardan foydalanish bilan ajralib turadi. Ushbu dizayndan foydalanish va ko‘p yorug‘lik qo‘shish orqali qulay muhit yaratiladi. Odatda interyerga o‘yilgan mebellar, qo‘lda ishlangan gilamlar, sopol idishlar, metall buyumlar va boshqalar qo‘shiladi. Agar dizayner o‘z uyida O‘zbekistonning buyumini yaratmoqchi bo‘lsa, u holda milliy interyer dizayni elementlaridan foydalanadi. Bu ushbu ajoyib mamlakatga bo‘lgan muhabbatni aks ettiruvchi noyob muhitni yaratadi.

O‘zbekistonda zamonaviy interyer dizayni boy madaniy meros elementlari va innovatsion yechimlarni o‘zida jamlagan holda jadal rivojlanmoqda. Bu o‘zbek madaniyatining o‘ziga xosligini saqlab qolgan holda qulaylik, funkcionallik va estetikaga intilishni aks ettiradi. Zamonaviy dizayn an‘anaviy elementlarni birlashtiradi: o‘yilgan mebeldan, qo‘lda ishlangan gilamlardan, sopol idishlardan, zamonaviy materiallar va texnologiyalardan foydalanish. Ushbu turdagi dizaynning maqsadi zamonaviy talablarga javob beradigan keng va amaliy joylarni yaratishdir. Yog‘och, tosh, to‘qimachilik kabi tabiiy materiallar ko‘proq ishlatiladi, tabiat bilan aloqani ta’kidlaydi. Zamonaviy dizayn, shuningdek, uy egalarining shaxsiyati va didini aks ettiruvchi noyob dizaynlarni yaratib, barcha mijozlarga individual yondashuvni topishga harakat qiladi. O‘zbekistonda zamonaviy interyer dizaynini yaratish orqali siz ushbu mamlakatga bo‘lgan muhabbatigizni aks ettiruvchi, fuqarolar didi va ehtiyojlariga javob beradigan o‘ziga xos makon yaratishingiz mumkin.

O‘zbekistonda ekologik toza interyer dizayni tobora ommalashib bormoqda, chunki odamlar atrof-muhitni asrash muhimligini anglab, sog‘lom va farovon yashash maydoni yaratishga intilmoqda. Eko-dizayn bunday foydalanish bilan tavsiflanadi yog‘och, tosh, paxta, zig‘ir, jun kabi tabiiy materiallar; bambuk, mantar, gil g‘isht, qayta ishlangan materiallar ishlatiladi. Tabiiy resurslarni asrash

maqsadida energiyani tejovchi texnologiyalar, suvni tejovchi qurilmalar , materiallarni qayta ishlashdan foydalaniladi. Eko-dizayn xonada qulay va sog‘lom muhit yaratishga imkon beradi va eko-dizayn ham go‘zal va qulay muhit yaratadi. Energiyani tejovchi texnologiyalar va suvni tejovchi qurilmalardan foydalanish resurslar sarfini kamaytirishi mumkin. Ekologik toza materiallar va texnologiyalardan foydalanish atrof-muhitga ta‘sirini minimallashtiradi. O‘zbekistonda eko interyer dizayni nafaqat moda yo‘nalishi, balki sog‘liq, qulaylik va atrof-muhitni asrash foydasiga ongli tanlovdir. Ekologik dizaynni yaratib, siz uyingizni nafaqat chiroyli, balki odamlar va atrof-muhit uchun ham foydali qilishingiz mumkin.

O‘zbekistonda landshaft dizayni sharqona bog‘dorchilik an‘analariga asoslangan boy tarixga ega. Usta bog‘bonlar asrlar davomida mahalliy materiallar, o‘simliklar va me‘moriy elementlardan foydalangan holda go‘zallik va uyg‘unlik vohalarini yaratib kelmoqda. Shovqinlar, favvoralar, suv havzalari esa o‘zbek landshaft dizaynida salqinlik va osoyishtalik muhitini yaratishda muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, O‘zbekistonning issiq iqlimida soya ham muhim ahamiyatga ega. Uni yaratish uchun daraxtlar, soyabonlar va pergolalar ishlatiladi. O‘zbekiston landshaft dizaynida har xil turdagi daraxt, buta, gul va o‘tlardan foydalaniladi. O‘rik, shaftoli, anor kabi mevali daraxtlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. **O‘zbekistonda landshaft dizayni nafaqat go‘zal bog‘, balki dam olish, hordiq chiqarish va tabiatdan zavqlanish mumkin bo‘lgan haqiqiy vohani yaratish imkonini beruvchi san’atdir.**

Bugungi kunga qadar interyer dizaynerlari o‘z kasblarida ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. O‘zbekistonda ko‘pchilik interyer dizayni muhimligini anglamaydi va buning uchun yuqori narx to‘lashga tayyor emas. Bu dizaynerlarning ko‘pincha kam baholanishiga va kam maosh uchun ishlashiga olib keladi. O‘zbekistonda interyer dizayni bozori hali rivojlanish bosqichida. Bu shuni anglatadiki, mijozlar soni cheklangan va dizaynerlar o‘rtasidagi raqobat juda yuqori. O‘zbekistonda malakali interyer dizaynerlari yetishmaydi. Bu ko‘p odamlar noprofessionallarga murojaat qilishga majbur bo‘lishiga olib keladi, bu esa sifatsiz natijalarga olib kelishi mumkin. Mamlakatda ichki dizayn uchun yuqori sifatli materiallardan foydalanish imkoniyati cheklangan. Buning natijasida dizaynerlar arzon va past sifatli materiallardan foydalanishlari kerak, bu esa ularning ish sifatini pasaytiradi. O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini boshlash va yuritishda ko‘plab byurokratik to‘siqlar mavjud. Bu ichki dizaynerlar uchun qiyinchilik tug‘dirishi va qo‘shimcha xarajatlarga olib kelishi mumkin. O‘zbekistonda ba‘zi odamlar interyer dizaynerlariga ishonmaydi va faqat pul ishlashni xohlaydi, deb hisoblaydi, bu esa odamlarning dizaynerlar bilan ishlashni istamasligiga va o‘zlari ta‘mirlash ishlarini bajarishga urinishlariga olib keladi, bu har doim ham yaxshi natijaga olib kelmaydi. Bundan tashqari, O‘zbekistondagi barcha interyer dizaynerlari dizayndagi yangi tendentsiyalarga amal qilmaydi. Bu ularning ishini eskirgan va mijozlar uchun qiziq bo‘lmasligiga olib kelishi mumkin. O‘zbekistonda interyer dizaynerlari xizmatlariga bo‘lgan talab mavsumiy xarakterga ega. Bu shuni anglatadiki, dizaynerlar yilning ba‘zi oylarida mijozlarni topishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

Bunday muammolarga qaramay, O‘zbekistonda interyer dizayni rivojlanmoqda. Tobora ko‘proq odamlar yaxshi dizayn muhimligini tushunadilar va buning uchun pul to‘lashga tayyor. O‘zbekistondagi interyer dizaynerlari o‘z malakalarini oshirishda davom etishlari, tendensiyalarga amal qilishlari va mijozlar ishonchini qozonish uchun harakat qilishlari kerak. Interer dizaynerlari ichki dizaynning ahamiyati haqida jamoatchilik orasida xabardorlikni yaratishi kerak. Buni maqolalar, ma‘ruzalar, mahorat darslari va ko‘rgazmalarda ishtirok etish orqali amalga oshirish mumkin. Odamlar interyer dizayni qiymatini qanchalik ko‘p tushunsa, dizaynerlarning mijozlari shunchalik ko‘p bo‘ladi. Dizaynerlar uchun doimiy ravishda o‘z kasbiy mahoratini oshirish muhimdir. Buni malaka oshirish kurslarida, master-klasslarda va vebinarlarda qatnashish orqali amalga oshirish mumkin. Dizaynerlar qanchalik malakali bo‘lsa, ularning xizmatlariga talab shunchalik yuqori bo‘ladi. Shuningdek, ular o‘z ishlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishlari kerak. Bu 3D modellashtirish dasturlari, virtual haqiqat va boshqa vositalardan foydalanishni o‘z ichiga olishi mumkin. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dizaynerlarga yanada sifatli va qiziqarli ishlarni yaratish imkonini beradi.

O‘zbekistondagi interyer dizayni o‘ziga xos an’analar zamonaviy tendentsiyalar bilan uyg‘unlashgan dunyoga qiziqarli sayohatdir. Tabiiy materiallardan foydalanish, yorqin ranglar, boy bezaklar, qulay burchaklarni mohirona yaratish va yorug‘likning ko‘pligi - bularning barchasi mehmondo‘stlik, qulaylik va sharqona hashamatning noyob muhitini yaratadi. O‘ymakor mebellar, qo‘lda to‘qilgan gilamlar, sopol idishlar va metall buyumlar kabi an’anaviy elementlar interyerga O‘zbekiston tarixi va madaniyatidan bir parcha olib kirgan. Boy ranglar, kontrastli kombinatsiyalar va gulli nashrlardan foydalanish bayramona kayfiyatni yaratadi va dizaynning o‘ziga xosligini ta’kidlaydi. Ko‘p darajali yoritish, tabiiy yorug‘likdan foydalanish va zaif yorug‘lik yordamida qulay muhit yaratish interyerni nafaqat chiroyli, balki funktsional qiladi. Boy bezatilgan to‘qimachilik, tabiiy matolardan foydalanish va yostiqlar, ko‘rpa-to‘shaklar va choyshablar bilan qulay aksanlar yaratish interyerga iliqlik va qulaylik qo‘shadi. An’anaviy dekor buyumlari, yopiq o‘simliklar va tematik burchaklarni yaratish interyerni yanada shaxsiylashtirishi va uy egalarining o‘ziga xosligini aks ettirishi mumkin. Ichki dizayndagi zamonaviy yo‘nalishlar o‘zbek uslubida ham o‘z aksini topgan. Oddiy shakllar, toza chiziqlar va zamonaviy materiallardan foydalanish o‘ziga xosligini saqlab, funktsional va zamonaviy interyer yaratish imkonini beradi. O‘zbekistondagi interyer dizayni nafaqat makon dizayni, balki bu mamlakatning boy madaniyati va tarixining ko‘zguvidir, bu ruhingiz va tanangizni dam oladigan shinam va go‘zal uyning yaratilishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O‘zbek ornamenti" L. I. Rempel .
2. “O‘zbekiston an’anaviy uy-joy fondi” H. A. Narziev .
3. N. S. Qodirovning “O‘zbekistonda interyer dizayni: an’analar va zamonaviylik sintezi” .
4. <https://in.pinterest.com/pin/uzbek-house--750201250404691614/> saytida "Interyerda o‘zbek uslubi: xususiyatlar va maslahatlar" .

5. <https://ru.pinterest.com/pin/398709373267168795/> saytida "Sharq lazzi: interyerda o'zbekcha uslub" .
6. "O'zbek interyeri: Sharq ruhi" <https://dekormyhome.ru/dizajn/oformlenie> veb-saytida .
7. Berikbaev A.A. Subject Training Disciplines as a Means of Forming Professional Competence in Future Teachers of Fine Arts Annals of R.S.C.B., ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 3, 2021, Pages. 8965 - 8989
8. Berikbaev A.A. 13.00.01 p.f.b.falsafa doktorlik dissertatsiya Tashkent. 2023 y.

OLIY O'QUV YURTLARIDA LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Mavlyanov Mo 'minjon Akramovich

Guliston davlat pedagogika instituti "Aniq va tabiiy" fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Bugungi kunda ta'limning barcha bosqichlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq etish borasida muayyan ishlar olib borilmoqda. Xususan oliy ta'lim muassasalarida laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlar, usullar va turli mutaxassisliklar bo'yicha kasbiy faoliyatda uchraydigan turli masalalarni tatbiq etish, laboratoriya mashg'ulotlarini sifatiga va natijakorligini oshiradi. Ushbu maqolada Oliy o'quv yurtlarida bugungi kunda fan sifatida barcha yo'nalishlarga o'tilayotgan "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda zamonaviy usullarni qo'llash ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar. MS Excel, Makros, Razrabotchik, Xorijiy tillar, Dictionary.

Bugungi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi hozirgi ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida va erkin demokratik jamiyatga moslashgan, ijtimoiy munosabatlarga kirisha oladigan, faol, ma'naviy yetuk va har tomonlama bilimdon komil insonni tarbiyalashdan iborat. Oliy o'quv muassasalarida laboratoriya laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda avvalo talabalar mavzular yuzasidan puxta nazariy bilimga ega bo'lishlari kerak. talabalar laboratoriya mashg'ulotida yangi materialni o'rganib, kuzatib, raqamli texnologiyalardan foydalanib, yakka holda yoki guruhda bajaradilar. "Xorijiy tillar" yo'nalishida "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish orqali talabalarda axborot texnologiyalarida ishlash ko'nikmalarini oshiradilar va kasbiy faoliyatdagi masalalarni hal etishda kompyuter texnologiyalarini foydalanish kompetentligi rivojlantiradi.

Bugungi kunda Axborot texnologiyasi kirib bormagan soha deyarli qolmadi, jamiyatning turli sohalarida faoliyat olib borayotgan soha vakillari kasbiy faoliyatlarida uchraydigan turli masalalarni hal etishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanib kelmoqdalar.

Raqamli texnologiyalar shunday sohaki, xar kuni rivojlanish va yangilik bo'lib turadi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish ish samaradorligini oshirish, va natijakorlikka olib keladi.

“Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llash” fanidan “Elektron jadval protsessorlarida ma’lumotlarni yig‘ish va ularni qayta ishlash” mavzusidagi laboratoriya mashg‘ulotlarini yo‘nalishga qarab tashkil etish o‘z navbatida talabalarda ham qiziqish uyg‘otadi va barcha talabalarni qamrab oladi. Quyida ushbu mashg‘ulotni “Xorijiy tillarni o‘qitish” yo‘nalishiga tashkil etishni ko‘rib chiqamiz.

Laboratoriya mashg‘uloti:

Mavzu: Elektron jadval protsessorlarida ma’lumotlarni yig‘ish va ularni qayta ishlash;

Kerakli jihoz va materiallar: Shaxsiy kompyuter va uning qo‘shimcha qurilmalari, ma’ruza matnlari, har xil adabiyotlar, ma’ruza daftarlari.

Topshiriq: Microsoft Excel dasturida macros yordamida berilgan matndagi yangi so‘zlarni tarjima qiladigan fayl yaratish.

Nazariy qism: Xorijiy tillarni o‘qishda yangi so‘zlarni yod olish muhim sanaladi bu mashg‘ulot davomida o‘quvchilarga yangi so‘zlarni yodlashda yordam beradigan fayl yaratish.

Ishning borishi:

Kompyuterni ishga tushiring.

MS Excel dasturini ishga tushiring.

Dasturda menyular qatoriga “Разработчик” menyusini chiqaring.

B4 dan F4 gacha belgilash kiritib oling va chegaralarni qo‘ying.

Лист1 ni quyidagi ko‘rinishga keltiring:


	A	B	C	D	E	F
4		Nz	Yangi so'zlar:	Yangi so'zlarning tarjimasini yozing	To'g'ri javob	natija
5		1				
6		2				
7		3				
8		4				
9		5				
10		6				
11		7				
12		8				
13		9				
14		10				
15		11				
16		12				
17		13				
18		14				
19		15				
20		16				
21		17				
22		18				
23		19				
24		20				

1-rasm

“Разработчик” menyusidan “Макрос” ni ishga tushuring.


“Разработчик” menyusidagi запись макроса tugmasini bosing:

1-rasm.



2-rasm

Hosil bo‘lgan oynaga quyidagi ma’lumotlarni kiriting.



3-rasm


B4 dan F4 gacha belgilash kiritib oling va chegaralarni qo'ying.
Лист1 ni quyidagi ko'rinishga keltiring:

	N ^o	Yangi so'zlar:	Yangi so'zlarning tarjimasini yozing	To'g'ri javob	natija
4					
5	1	Apple			
6	2	Black Friday		Qora shanba	
7	3	Bird		Qush	
8	4	Apricot		Olma	
9	5	Market		Bozor	
10	6	Vendor		Sotuvchi	
11	7	Buyer		Xaridor	
12	8	food		Maxsulot	
13	9	Discount		Chigirma	
14	10	sale		Sotish	
15	11	Expensive		raqobat	
16	12	Exchange		Arzon	
17	13	Competition		Raqoobar	
18	14	Securities		Qo'riqchi	
19	15	Bread products		Non maxsulotlari	
20	16	Online stores		onlayn	
21	17	Village market		do'konlar	
22	18	monopoly		monopoliya	
23	19	raw material		Yarim maxsulot	
24	20	finished product		tayyor maxsulot	
25					
26					

4-rasm

Yangi so'zlarni kiritgandan so'ng: F4 yacheykaga quyidagi funktsiyani kiritamiz:
=ЕСЛИ(D5=E5;"Perfect";"WRONG")

Yoki:



5-rasm

F5 yacheykadagi natijani barcha belgilangan yacheykaga tortamiz.

№	Yangi so'zlar:	Yangi so'zlarning tarjimasini yozing	To'g'ri javob	natija
1	Apple			Perfect
2	Black Friday			Perfect
3	Bird			Perfect
4	Apricot			Perfect
5	Market			Perfect
6	Vendor			Perfect
7	Buyer			Perfect
8	food			Perfect
9	Discount			Perfect
10	sale			Perfect
11	Expensive			Perfect
12	Exchange			Perfect
13	Competition			Perfect
14	Securities			Perfect
15	Bread products			Perfect
16	Online stores			Perfect
17	Village market			Perfect
18	monopoly			Perfect
19	raw material			Perfect
20	finished product			Perfect


6-rasm

To'g'ri javob qatorini ingliz tilida berilgan so'zlar bilan to'ldiramiz.

	A	B	C	D	E	
		№	Yangi so'zlar:	Yangi so'zlarning tarjimasini yozing	To'g'ri javob	na
4						
5		1	Apple		Olma	WRONG
6		2	Black Friday		Qora juma	WRONG
7		3	Bird		Qush	WRONG
8		4	Apricot		O'rik	WRONG
9		5	Market		Bozor	WRONG
10		6	Vendor		Sotuvchi	WRONG
11		7	Buyer		Xaridor	WRONG

7-rasm

Makrosni ishini to'ldiramiz.



8-rasm


Loyixani sinash uchun лист1 dagi "Yangi so'zlarni tarjimasini yozing" qatoriga so'zlarni kiritishdan oldin "tog'ri javob" va "natija" qatoridagi so'zlarni belgilab delete tugmasi yordamida so'zlarni o'chirib tashlaymiz.

Yangi so'zlar				
FIO yozing:		Mavlayanov Mo'minjon		
№	Yangi so'zlar:	Yangi so'zlarning tarjimasini yozing	To'g'ri javob	natija
1	Apple			
2	Black Friday			
3	Bird			
4	Apricot			
5	Market			
6	Vendor			
7	Buyer			
8	food			
9	Discount			
10	sale			
11	Expensive			
12	Exchange			
13	Competition			
14	Securities			
15	Bread products			
16	Online stores			
17	Village market			
18	monopoly			
19	raw material			
20	finished product			

9-rasm

“Yangi so‘zlarning tarjimasini yozing” qatoriga ingliz tilidagi so‘zlarning o‘zbekchadagi tarjimasini kiritamiz.

“Разработчик” menyusidan “Макросы” tugmasini bosib Dictionary tugmasi ustida “Выполнить” tugmasini bosib natijani tekshirib ko‘ramiz:



10 -rasm

Mashg'ulot so'ngida quyidagi natijaga erishamiz:

	Nº	Yangi so'zlar:	Yangi so'zlarning tarjimasini yozing	To'g'ri javob	natija
4					
5	1	Apple	Olma	Olma	Perfect
6	2	Black Friday	Olma	Qora shanba	Wrong
7	3	Bird	Jo'ja	Qush	Wrong
8	4	Apricot	O'rik	Olma	Wrong
9	5	Market	Bozor	Bozor	Perfect
10	6	Vendor	Sotuvchi	Sotuvchi	Perfect
11	7	Buyer	Xaridor	Xaridor	Perfect
12	8	food	Banan	Maxsulot	Wrong
13	9	Discount	Chegirma	Chigirma	Wrong
14	10	sale	Sotish	Sotish	Perfect
15	11	Expensive	Raqobat	raqobat	Perfect
16	12	Exchange	Arzon	Arzon	Perfect
17	13	Competition	Raqobat	Raqoobar	Wrong
18	14	Securities	Qimmatli qog'ozlar	Qo'riqchi	Wrong
19	15	Bread products	Non	Non maxsulotlari	Wrong
20	16	Online stores	Onlayn magazinlar	onlayn	Wrong
21	17	Village market	Qishloq	do'konlar	Wrong
22	18	monopoly	Monopoliya	monopoliya	Perfect
23	19	raw material	Xom ashyo	Yarim maxsulot	Wrong
24	20	finished product	tayyor maxsulot	tayyor maxsulot	Perfect

11 – rasm

XULOSA

Xulosa qilib aytganda laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda oliy ta'lim yo'nalishlaridagi kasbiy faoliyatda uchraydigan masalalarni hal etishga qaratilsa, bu avvalambor talabalarni o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir qiladi va raqamli texnologiyalar bilan ishlash kompetentligini oshirishga yordam beradi. Axborot texnologiyalarni kasbiy faoliyatga qo'llash fani barcha oliy ta'lim yo'nalishlarga dars sifatida o'tilishini hisobga olsak bu yanada o'z ahamiyatini oshiradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi. 2020-y.
2. Abdullayev M., Saidahrar, G., & Ayupov, R. Raqamli iqtisodiyot - kadrlar tayyorlashning dolzarb yo'nalishlari. 2020 y.
3. Tishlikov S., Saidov J., Normamatova *Informatika fanidan laboratoriya mashg'uloti* to'plami. Guliston 2018.
4. Eshonqulov D.T. Microsoft Excel dasturida laboratoriya ishlarini bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma. Samarqand 2007.

MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI KOMPYUTER GRAFIK DASTURLARI ORQALI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA

QARATILGAN METODLARNI TAKOMILLASHTIRISH

*Xamidov Dilshod Olimjon o'g'li, Olimov Muhammadjon Shuxratjon o'g'li
Guliston davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti Amaliy san'at va dizayn
kafedrasi o'qituvchisi. Guliston davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti
Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi.*

ANNOTATSIYA

Oliy ta'lim muassasalarida muhandislik grafikasi fanlari o'qitilayotgan ta'lim yo'nalishlariga ushbu fanlarni sifatli va samarali o'rganishlarida hamda amaliyotda qo'llay olishlarida kompyuter grafik dasturlari muhim ahamiyat kasb etadi.

KALIT SO'ZLAR: kompyuter grafikasi, vizuallashtirish, CAD, Texnik chizmachilik, AutoCAD, 3D modellash, fazoviy tasavvur.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida "Kompyuter grafikasi"ni o'qitish samaradorligiga bo'lgan e'tibor kompyuter texnologiyalari rivojlanishi va globallashtirishga muhim o'zgarishlar kiritish, ilg'or texnologiyalar taraqqiyotini belgilab berishdagi ahamiyatidan kelib chiqib yanada ortib bormoqda. Bugungi kunda jahonning ilg'or universitetlarida kompyuter grafikasi ta'limini vizuallashtirish, turli effektlar bilan ishlash va olingan natijalar barqaror taraqqiyot ta'limida CAD ustasi, vizualizator, animator kabi soha mutahassislarini tayyorlash uchun munosib sharoit yaratish, bo'lajak mutaxassislarning loyihalash qobiliyatlarini rivojlanishiga yo'naltirilgan vertual ta'lim resurslarini ishlab chiqish bilan bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida kompyuter dasturiy vositalari orqali fazoviy modellashtirish, vizuallashtirish, avtomatlashtirilgan dasturiy ta'minotni ta'lim amaliyotiga keng ko'lamda joriy etishga kata e'tibor berilmoqda, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham ustuvor vazifa etib belgilangan. Ta'lim sifati, kadrlarning raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha kompyuter grafikasi dasturlarining imkoniyatlaridan foydalanib talabalarning ijodiy faolligini rivojlantirish, «Kompyuter grafikasi» fanini uch o'lchamli modellashtirish metodikasi asosida o'qitishni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Takidlash joizki, OTMga kelgunga qadar talabalar «Kompyuter grafikasi» fani bo'yicha kerakli boshlang'ich bilim va ko'nikmalarga ega bo'lsalar, ularning grafika fanlarida zarur bo'lgan fazoviy tasavvurlari, chizmani o'qiy olish xususiyatlari shakllanadi. Bu esa, bunga oid kurslarni o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimidan boshlanishi maqsadga muvofiqligidan dalolat beradi. Qator tadqiqotchilarning bu boradagi ilmiy izlanishlari tufayli, amaliy tadbirga ta'lim jarayoniga katta samaralar bera oladigan ilmiy natijalarga erishilmoqda.

Tadqiqotchi K.A.Grebennikov tomonidan «Dizayn» mutaxassisligi bo'yicha o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimida umumkasbiy fanlarni o'qitishda kompyuter grafikasidan foydalanishning pedagogik va texnologik asoslarini ishlab chiqish muammosi o'rganilgan. Ushbu tadqiqot ishida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimida mutaxassis - dizaynerlarni kasbiy tayyorlashda kompyuter grafikasidan

foydalanishning pedagogik modeli yaratilgan va unda kompyuter grafikasining ahamiyati ochib berilgan.

YE.M. Tretyakova tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishida kasb-hunar kollejlarda qurilish mutaxassisligi uchun «Kompyuter grafikasi» fani mazmunini loyihalash va uni amalga oshirish texnologiyasi ishlab chiqilgan. Unda «Kompyuter grafikasi» maxsus kursi loyihalanib, u bo'yicha ishlab chiqilgan na'munaviy dastur asosida o'qitilgan talabalarning kompyuter texnologiyalarini foydalanishga oid bilim va ko'nikmalarini oshirish mumkinligi ilmiy asoslangan va tajribada isbotlangan.

Shuningdek, D.C Saidahmedova olib borgan ilmiy izlanishlarda kasb – hunar kollejlarida «Texnik chizmachilik» o'quv fanini kompyuter texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanib, o'qitishning nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Dissertant didaktik o'yinlardan foydalanish orqali o'quvchilar o'quv-bilish jarayonini faollashtirish metodikasi, uning pedagogik shart-sharoitlari yaratish va «Texnik chizmachilik» fanini o'qitishda kompyuter grafikasini qo'llash orqali dars samaradorligini oshirish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslab bergan. Muallif, kasb – hunar kollejlari o'quvchilari uchun interfaol metodlar, didaktik o'yinlar va kompyuter texnologiyalariga asoslangan holda «Texnik chizmachilik» nomli multimediali elektron o'quv qo'llanmasini ishlab chiqqan va uni an'anaviy usulda o'qitish bilan uyg'unlashtirib, o'qitish metodikasini takomillashtirgan, jumladan, o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirishga, chizmalarni to'g'ri va tez o'qishga, shuningdek ularda kuzatuvchanlik, topqirlik va ziyraklik kabi fazilatlarni shakllantirishga mo'ljallangan topshiriqlar, kompyuterda foydalaniladigan intellektual o'yin dasturlari tarzida («Krossvord», «Rebus», «Charxpalak» va «Labirint») ishlab chiqilgan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqot ishlarda, grafik ta'limda talabalarning bilish jarayonini faollashtirishning pedagogik shart – sharoitlari va tashkil etish metodikasi ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularda «Muhandislik va kompyuter grafikasi» fanini oliy ta'lim muassasalarida o'qitishda uch o'lchamli modellashtirish vositasidan foydalanish jabhalariga e'tibor qaratmaganlar. OTMlarda «Muhandislik va kompyuter grafikasi» fanini o'qitish jarayonini loyihalash bo'yicha qator olimlar ilmiy tadqiqot olib borganlar.

Jumladan, E.I. Ro'ziyevning ilmiy tadqiqot ishlarida «Grafika» integrativ kursini yaratgan va uni o'qitish metodikasini ishlab chiqqan. Unda «Kompyuter grafikasi» fanini o'qitish muammolari va uning boshqa fanlar bilan bog'liqligi, ushbu fanni olib boruvchi o'qituvchi ega bo'lishi zarur bo'lgan grafik talablarni bayon etgan. Tadqiqotda grafika fanlarini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha qisman to'xtalgan. «Kompyuter grafikasi» fanini o'qitishdan maqsad, tayyorlanayotgan kadrlarning raqobatbardoshligini ta'minlash, zamonaviy fan va texnika yutuqlaridan amalda foydalanib, ijobiy natijalarga erishishlariga sharoit yaratish va yangi soha mutaxassislarini intellektual salohiyatga ega bo'lgan holda tarbiyalashdan iboratdir. Buning uchun, zamon talabidagi fanlarni ta'lim jarayoniga zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo'llagan holda o'qitish zarurligini ko'rsatmoqda. Shunday ekan, professor-o'qituvchilar bugungi kun talabalariga zamonaviy bilim va ko'nikmalarni berishda ta'lim jarayoniga axborot

kommunikativ va pedagogik texnologiyalarni keng foydalanishdek mas'uliyatli va ayni paytda kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarni bajarishni o'z zimmlariga olishlari kerak. Bu esa, o'z navbatida professor-o'qituvchilardan o'z kasbining mohir ustasi, pedagogik qobiliyatlarni o'zlarida mujassam etadigan, kompyuter texnika va texnologiyalaridan foydalanishga oid yetarli bilim va malakalarga ega bo'lish, uzoqni ko'ra biladigan, bir so'z bilan aytganda, fidoiy bo'lish talab etiladi. Shuningdek "Muhandislik va kompyuter grafikasi" fani o'qitilayotgan barcha ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun yaratilayotgan fan dasturlarida ko'proq ularning fazoviy tasovvurlarini rivojlantirish uchun uch o'lchamli loyihlash imkonini beruvchi AutoCAD dasturidan foydalanishni ko'proq e'tibor qaratish zarur. Bu dasturni amaliy dars jarayonlarida hayotda ko'p uchraydigan yoki bo'lmasa bugungi kunda ularning mutaxassisliklaridan kelib chiqib, qo'llarida mavjud texnikalarning detallarini 3D modellarini dastur orqali chizdirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu orqali talabalarning fazoviy tasavvuri hamda ularning fikrlash yangidan-yangi texnikalarni yaratish ishtiyoqlari oshib borishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.Turayev, D.Xamidov. Muhandislik kompyuter grafikasi fanini o'qitishda uch o'lchamli modellashtirish vositasidan foydalanish metodikasi (autocad grafik dasturi misolida)-uslubiy qo'llanma-Toshkent 2021-y. 105 b
2. Rixsiboyev T. Kompyuter grafikasi. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi.- T., 2006, 168 b.
3. Rixsiboyev T. Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitish metodologiyasi –T., 2011.–144 b

BBB (BILARDIM, BILMOQCHIMAN, BILIB OLDIM) METODI ORQALI INTERFAOL DARSLARNI TASHKIL ETISHNING SAMARALI

USULLARI

Mashrapov Qaxramon Olimjonovich

NamMQI doktranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada interfaol metodlar hamda interfaol metodlardan biri bo'lgan BBB (bilardim, bilmoqchiman, bilib oldim) metodining afzallik tomonlari, samarali qo'llash usullari batafsil yoritilgan.

Abstract: this article describes in detail the advantages of interactive methods and the BBB (I knew, I want to know, I learned) method, which is one of the interactive methods, and how to use it effectively.

Kalit so'zlar: BBB, metod, o'quvchi, talaba, bilim, dars, kasb, yoshlar, interfaol, davlat.

Key words: BBB, method, reader, student, knowledge, lesson, profession, youth, interactive, state.

Bugun jahonda barcha sohalar shiddat bilan rivojlanayotganligi barchamizga sir emas. Davlatning rivojlanishida ta'lim tizimining o'rni beqiyosdir. Ta'limga etibor berilgan davlatda albatta har tomonlama rivojlanish bo'lishi muqarrardir.

Bugungi kunda prezidentimiz tomonidan ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Bunga misol tariqasida hukumatimiz tomonidan qabul qilingan yangi tahrirdagi 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli O'zbekiston Respublikasining Qonuni¹⁰, "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr PF-5847-sonli Farmonini¹¹ keltirishimiz mumkin. Bu qabul qilingan qonun hamda farmondan so'ng O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida katta o'zgarishlar bo'ldi desak hech ham adashmagan bo'lamiz.

Shu o'rinda Prezidentimizning quyidagi aytib o'tgan so'zlarini keltirishga qaror qildik "Prezident yoshlarga: Ajdodlardan ibrat olib, hayotda mo'jizalar yaratishga astoydil intilishingiz kerak"¹². Prezidentimizning bu so'zlarida katta ma'no ifodalangan. Davlatning har tomonlama rivojlanishida ta'limni o'rni beqiyosdir. Prezidentimiz tomonidan o'sib kelayotgan yosh avlodni bilimli, zukko, o'z kasbining ustasi qilib tayyorlashga katta e'tibor qaratilayotganligi barchamizni quvontiradi. Ta'lim (umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy ta'lim) tizimida dars mashg'ulotlarini tashkil etishning eskirib qolgan usullaridan voz kechilib, o'quvchi (talaba)larni kreaktiv fikrlashga undovchi zamonaviy o'qitish metodlaridan foydalanish tavsiya etilmoqda. Bulardan biri interfaol metodlardir. Interfaol metod bu o'zi nima? Bu ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metod bizga nima uchun kerak? Bu savolga javob shundan iboratki, fanlarni o'qitish jarayonida bu metodlardan foydalanish o'z xususiyatiga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarning fikrlash doirasini kengaytiradi. Hamda o'qituvchi tomonidan qo'yilgan muammoli savollar, muammoli vaziyatlarga o'quvchi – talabalar tomonidan to'g'ri yechimni topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi¹³.

Biz tavsiya qilayotgan interfaol metodlardan biri bo'lgan BBB (bilardim, bilmoqchiman, bilib oldim) metodi ham birqancha afzallik tomonlarga ega. Quyida bu metodning afzallik tomonlarini ko'rib chiqamiz:

Bu metodni yangi bilim beruvchi tipdagi dars mashg'ulotlarida foydalanish mumkin.

1-qadam: fanning yangi mavzusi e'lon qilinadi va o'quvchi (talaba)lar daftariga "Bilardim" deb yozib, yangi mavzu bo'yicha bilganlarini yozishlari taklif etiladi. Yozishlari uchun ma'lum vaqt beriladi. So'ngra taqdimot o'tkaziladi. Taqdimot davomida o'quvchi (talaba)lar yangi mavzu bo'yicha bilganlarini aytib beradilar. Taqdimot davomida fikrlarni guruhlar tomonidan qaytib takrorlamaslik qoidasiga qat'iy rioya qilinadi.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Ta'lim to'g'risida" - Toshkent sh., 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son

¹¹ O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr PF-5847-sonli Farmoni

¹² Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirzoyoyevning Yoshlar forumida so'zlagan nutqlari – 2020-yil 25-dekabr.

¹³ Абдуллаева Нафиса Основы развития продуктивного мышления учащихся Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития Москва - 2012. 326-327.

2-qadam: o‘quvchi (talaba)lar daftarlariga “Bilmoqchiman” deb yozib yangi mavzu bo‘yicha nimalarni bilishni xohlashlarini yozish taklif etiladi. Berilgan ma’lum vaqt so‘ng o‘qituvchi tomonidan muhokama qilinadi.

3-qadam: yangi mavzu bayonidan so‘ng o‘quvchi (talaba)lar daftarlariga “Bilib oldim” deb yozib, yangi dars mavzusi bo‘yicha tushunganlarini yozishlari taklif etiladi. Yozishlari uchun vaqt beriladi. Belgilangan vaqt yakunlangandan so‘ng taqdimot o‘tkaziladi. Bunda esa yangi mavzuni o‘quvchi (talaba)lar qanchalik tushunganliklarini bilib olish mumkin. Barcha qadamlarda o‘quvchi (talaba)lar bir-birini tinglash qoidasiga rioya qiladilar. Yoki bu usulda boshqa ko‘rinishda ham foydalanish mumkin. Ya’ni, dars mavzusi e’lon qilinganidan so‘ng o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga jadval ko‘rinishida topshiriq berilib jadvalni to‘ldirish tavsiya etiladi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Mavzu: Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi fanining maqsadi, vazifasi hamda boshqa fanlar bilan bog‘liqlik tomonlari.

B (bilaman)	B (bilishni xohlayman)	B (bilib oldim)

Yuqorida keltirilgan jadvalga har bir o‘quvchi (talaba) yangi mashg‘ulot bo‘yicha fikrlarini yozish tavsiya etiladi. Ma’lum muddatdan so‘ng umumiy xulosaga kelinadi. Bu interfaol metodning yana bir afzallik tomonlaridan biri dars davomida faqat o‘qituvchi emas balki o‘quvchi (talaba)ni ham faol bo‘lishga undaydi. Bu esa o‘quvchi (talaba)larni mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Ta’lim to‘g‘risida” - Toshkent sh., 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.
2. “O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr PF-5847-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirzoyoyevning Yoshlar forumida so‘zlagan nutqlari – 2020-yil 25-dekabr.
4. Абдуллаева Нафиса Основы развития продуктивного мышления учащихся Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития Москва - 2012. 326-327.
5. Z.K.Ismailova, P.M.Maxsudov, O.K.Ergashev “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” - Toshkent – 2020y.
6. N.X.Avliyaqulov, N.N.Musayeva Pedagogik texnologiya-Toshkent: Cho‘lpon NMIU, 2012.208 b.

7. F.F.Aniyazova, N.D.Abdolnizyazova “Tarix fanini o‘qitishda interfaol metod hamda didaktik o‘yinlardan foydalanishning ahamiyati” “Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi 1-sonli respublika ilmiy-onlayn konferensiyasi-2022y.
8. Internet saytlari:
9. <https://azkurs.org/pars>.
10. <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php>.

**TURIZM UCHUN INGLIZ TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY
INTERFAOL PEDAGOGIK METOD VA USLUBLARDAN
FOYDALANISH**

Quziyev Sarvarbek Ilmiddinovich

Ingliz filologiyasi kafedrasida o‘qituvchisi, Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya

Turizm - bu har qanday davrda o‘zgarishlarini isbotlagan va 21-asrda ham tez sur‘atlar bilan o‘rnatilgan davom etadigan xizmat ko‘rsatish sohasi bo‘lib, bu soha uchun xorijiy tillarda muloqot juda muhimdir. Biroq, asrimizning lingua frankasi bo‘lgan ingliz tilini o‘zlashtirish qiyin bo‘lib qolmoqda va ilm-fan va kasbiy fanlarga urg‘u berilganligi sababli, til o‘rganish ko‘pincha universitetlarda e‘tibordan chetda qolmoqda.

Ushbu maqolada biznes ingliz tilini rivojlantirishning bir necha bosqichlari va so‘nggi paytlarda turizm talabalariga ingliz tilini o‘rgatishning ba‘zi yangi yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. Mehnat bozorida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar tufayli talabalarning ehtiyojlari o‘zgaradi va turizm bo‘yicha talabalar uchun ingliz tilini o‘qitish pedagogikasida o‘zgarishlar yuz berdi. Umuman olganda, kasbga yo‘naltirilgan ingliz tili ham juda qiyin vazifadir, chunki u chet tilini o‘rgatish bilan bog‘liq qiyinchiliklarga ham, o‘sha chet tilining o‘zining maxsus lug‘atiga ega bo‘lgan boshqa tilga aylanishiga ham duch kelishi kerak. Bu bizning bitiruvchilarimizdan mehnat bozorida talab qilinadigan doimiy yangi muloqot ko‘nikmalarini o‘rganishlari kerakligini talab qiladi.

Kalit so‘zlar: mehnat bozori, globallashuv, turizm uchun ingliz tili, kompetensiya, turizm bo‘yicha talabalar, universitetlar

**USE OF MODERN INTERACTIVE PEDAGOGICAL METHODS AND
APPROACHES IN ENGLISH LANGUAGE LESSONS FOR TOURISM**

Kuziev Sarvarbek Ilmiddinovich

Teacher of the English philology department, Fergana State University

Abstract

Tourism is a service industry that has proven to be stable in any era and continues to grow rapidly even in the 21st century, for which communication in foreign languages is very important. However, English, the lingua franca of our century, remains difficult to master, and because of the emphasis on science and professional subjects, language learning is often neglected in universities.

This article examines several stages in the development of business English and some recent approaches to teaching English to tourism students. Due to the changes taking place in the labor market, the needs of students have changed and there have been changes in the pedagogy of teaching English for tourism students. In general, professional English is also a very difficult task, because it faces both the difficulties of teaching a foreign language and the transformation of that foreign language into another language with its own special vocabulary. need This requires our graduates to constantly learn new communication skills that are in demand in the job market.

Keywords: labor market, globalization, English for tourism, competence, tourism students, universities

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИНТЕРАКТИВНЫХ
ПЕДАГОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ И ПОДХОДОВ НА УРОКАХ
АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА ДЛЯ ТУРИЗМА**

Кузиев Сарварбек Ильмиддинович

*Преподаватель кафедры английская филология, Ферганский
государственный университет*

Аннотация

Туризм – это сфера услуг, зарекомендовавшая себя стабильно в любую эпоху и продолжающая быстро развиваться даже в XXI веке, для которой очень важно общение на иностранных языках. Однако английский язык, лингва франка нашего века, по-прежнему трудно освоить, а из-за акцента на науке и профессиональных предметах изучением языка в университетах часто пренебрегают.

В данной статье рассматриваются несколько этапов развития делового английского языка и некоторые современные подходы к преподаванию английского языка студентам-туристам. В связи с изменениями, происходящими на рынке труда, изменились потребности студентов и произошли изменения в педагогике преподавания английского языка студентам-туристам. В целом профессиональный английский тоже является очень сложной задачей, поскольку сталкивается как с трудностями преподавания иностранного языка, так и с трансформацией этого иностранного языка в другой язык со своей специальной лексикой. Это требует от наших выпускников постоянного освоения новых коммуникативных навыков, востребованных на рынке труда.

Ключевые слова: рынок труда, глобализация, английский язык для туризма, компетентность, студенты-туристы, университеты.

1. Kirish

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, xalqaro assotsiatsiyalarning 85 foizi ingliz tilidan rasmiy foydalanishini, jahon kino bozorining 85 foizi ingliz tilida, dunyodagi ilmiy maqolalarning 85 foizi ingliz tilida yozilgan, dunyoda elektron saqlanadigan ma'lumotlarning 80 foizi hozirda ingliz tilida hamda dunyodagi tilshunoslik jurnallarining 70 foizi faqat ingliz tilida nashr etilishini aniqlaganidan beri ingliz tili XXI asrning lingua francasiga aylandi deyish ayni haqiqatdir.

Butun dunyo bo‘ylab ishbilarmonlik muzokaralari odatda ingliz tilida olib borilganligi sababli, ushbu tildan foydalanish xalqaro kompaniyalar orqali biznes muhitini xalqarolashtirish kontekstida tobora kengayib bormoqda. Xorijiy mamlakatlarga tashrif buyurgan xalqaro sayyohlar bilan muloqot qilishda ingliz tilini puxta egallashi turizm sohasida ishlayotgan xodimlar uchun zarur. Bu sayyohlar bilan muloqot qilish va madaniy farqlarni tushunish va ushbu xalqaro kontekstda xodimlarning ish imkoniyatlarini oshirish uchun vositadir. Turizm uchun ingliz tili kasbga yo‘naltirilgan ingliz tili sohasi sifatida qaraladi va akademik maqsadlarda sohaviy ingliz va umumiy ingliz tillarini birlashtiradi. Ya‘ni, u aeroportlarda, turizm va sayyohlik firmalarida, bozorlarda va mehmonxonalarda turli madaniyat vakillari o‘rtasidagi muloqot va o‘zaro munosabatlar uchun zarur bo‘lgan tilni o‘rgatish bilan shug‘ullanadi. Ingliz tilini bilish turizm sohasiga odamlarni yollashning asosiy mezonlaridan biri bo‘lib, ingliz tilini yaxshi bilishi sayyohlarni jalb qilish uchun muhimdir. Shuning uchun ham butun dunyoda turizm oliy ta‘lim muassasalarida ingliz tili asosiy fan sifatida o‘qitilmoqda. Lekin bu oson ish emas, chunki biz chet tilini o‘rgatish va o‘sha chet tilini o‘zining ixtisoslashgan so‘z boyligi orqali o‘z-o‘zidan boshqa tilga aylanib qolishi bilan bog‘liq muammolarga duch kelishimiz kerak, chunki talaba ingliz tilini bilish darajasini oshirishi kerak. Shu bilan birga, u biznes bilan bog‘liq lug‘at va mazmun bilan tanishishi kerak. Universitetlarda kasbga yo‘naltirilgan ingliz tilini o‘rgatish jarayoniga shubha tug‘diradigan boshqa faktlar ham mavjud: turli lingvistik kompetentsiyalarga ega bo‘lgan katta sinflar, kitoblar va materiallarning mavjud emasligi, talabalar motivatsiyasining etishmasligi va boshqalar. Yechim til ko‘nikmalarini egallash va ingliz tilini o‘rganishni birlashtirishdir. ingliz tilini o‘rgatishda kommunikativ yondashuvni hech qachon e‘tiborsiz qoldirmagan holda biznes mazmunini adekvat nisbatda o‘rgatish. Vaqtning cheklanganligi va ba‘zi talabalarimizning ingliz tilini bilish darajasi cheklanganligi biznes aloqalarini o‘qitishni qiyin vazifaga aylantiradi, chunki bunday kurs yuqori darajadagi tilni bilishni talab qiladi. Talabalarining til bilish darajasi va kursning til talabi o‘rtasidagi nomuvofiqlik bizning bitiruvchilarimizning turizm sohasidagi muloqotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun tegishli o‘qitish strategiyalari bilan hal qilinishi kerak. Birinchi qadam o‘quvchilarimizning muloqot ehtiyojlarini tahlil qilish va keyin usul va materiallarni mos ravishda tartibga solishdir.

Turizm uchun ingliz tili kurslari tegishli bo‘lgan maxsus maqsadlar uchun ingliz tilining turli mualliflari o‘rtasida o‘quvchining ehtiyojlari va ma‘lum bir kasbiy sohada faoliyat yurituvchi talabalar bilan mashg‘ulotlarda mavzuga oid matnlardan foydalanish kerakmi yoki yo‘qligi haqida uzoq vaqt munozaralar bo‘lib kelgan. 1980-yillarning boshida Xatchinson va Uoters shunday ta‘kidladilar: "Mavzuga oid maxsus ESP materiallari uchun hech qanday asos yo‘q", chunki ular ma‘lum bir tilning o‘ziga diqqatni jalb qilishdan ko‘ra, tilning asosiy kompetensiyalariga va ularni eng yaxshi qanday egallashga e‘tibor qaratishni tushunishgan.”[1]

Mounftord ta‘kidlaganidek, "o‘quv materiallarining dolzarbligi va maqsadga muvofiqligi, talabaning o‘z ta‘lim sohasiga yoki ishiga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantiruvchi maqsad sifatida ko‘rsatadigan biron bir dalil mavjud bo‘lishidan qat‘i nazar, maqsadli vaziyat tilidan kelib chiqishi kerak." (Mounford 1988: 83)[4]

Kasbga yo'naltirilgan ingliz tilida nashr etilgan materiallar ma'lum mezonlarni hisobga olishi kerak: o'ziga xoslik, muvofiqlik, haqiqiylik, moslashuvchanlik, sifat yoki vaqt va xarajat, biz ular Hutchinson & Waters tomonidan berilgan ikkita asosiy yo'nalish o'rtasida murosas bo'lishi kerak deb hisoblaymiz (ko'nikmalar va ta'lim strategiyalari bir tomondan muvaffaqiyatli ta'lim natijasi uchun muhim) va boshqa

tomonidan Pickett (asosiy leksika o'qitish jarayonida muhim rol o'ynaydi).

Ko'rinib turibdiki, leksika biznes ingliz tili kurslari haqida hamma narsani aks ettirmaydi, lekin bu maxsus leksikasiz kursning samaradorligi, albatta, pasayadi.

Shu nuqtai nazardan, kasbiy ingliz tili leksikasi faqat ma'lum bir sohada joylashgan texnik atamalar bilan cheklanmaydi, u umumiy ingliz tilidagi kabi funktsiyali so'zlarni ham o'z ichiga oladi: ya'ni umumiy ingliz tilida uchraydigan, lekin turli xil umumiy texnik ma'nolarga ega bo'lgan,

Shunday bo'lsa-da, bugungi kunda kasbiy ingliz tili bo'yicha trenerlar tomonidan darsda qo'llaniladigan yangi formula - yaxshi o'qitish tajribasi va autentik matnlari biznes aloqalarida qanday ishlashini haqiqiy tushunishni anglatadi, biznes ingliz tilini o'qitishda katta yaxshilanishdir.

An'anaga ko'ra, kasbiy ingliz tili darslari o'qituvchilarga yo'naltirilgan bo'lib, o'qituvchilar lug'at va grammatik tuzilmani tushuntirib berishlari kerak. Shu bilan birga, tavsiflovchi grammatikaga e'tibor qaratish o'quvchilarning tilni o'zlashtirishiga to'sqinlik qilmasligi lozim. O'qituvchiga yo'naltirilgan tizimlar ostida talabalar passiv tarzda o'rganmoqdalar va tildan foydalanish uchun kamroq imkoniyatlar mavjud, bu esa ularning haqiqiy kommunikativ dunyoda zarur bo'lgan til kompetensiyasini rivojlantirishni keskin kamaydi, agar yo'q bo'lsa, nazariy yoki mavhum o'qitish samarasiz bo'lib, o'quvchilarda salbiy munosabatni keltirib chiqarishi mumkin. Grammatikani o'rgatish va xatolarni tuzatish ifodaning aniqligi yoki ravonligini oshirishga olib kelmasligi haqida ko'plab dalillar mavjud. 90-yillarning oxirlarida pedagogikaning an'anaviy darsliklardan mehnat bozorida bitiruvchilarimizdan talab qilinadigan yangi ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan materiallarga o'tish tobora yaqqol namoyon bo'ldi, chunki bu yondashuv ularning bitiruvdan keyin mehnat bozoridagi muvaffaqiyatlariga ko'proq hissa qo'shadi.

2. Turizm bo'yicha talabalar uchun ingliz tili

Hozirgi kunda ingliz tili talabalarga turistik mehnat bozoriga moslashish uchun zarur bilim va ko'nikmalarni egallashga yordam berish uchun o'rgatilmoqda va IT va boshqa sohalardan kirib boradigan kommunikativ ko'nikmalar va yangi iqtisodiy atamalarga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. qoplangan. Ishonamizki, bunday yondashuv ikkita muhim oqibatlariga olib keladi: talabalarimiz uchun mamlakatimizda ham, xorijda ham, hozirgi globallashuv va doimiy o'zgaruvchan muhitda mehnat bozorida keng imkoniyatlar va ingliz tili darsining yanada qiyin va foydali turi. Vazifalarni bajarish zamonaviy ta'limni amalga oshirish uchun yaxshi yondashuvdir. Amaliy til qobiliyatlarini topshiriqlarni bajarish orqali egallash yo'lini o'qituvchining grammatik tuzilmalar haqidagi ko'rsatmalari va lug'atni tushuntirish bilan almashtirib bo'lmaydi.

O'qitiladigan ingliz tili kurslari quyidagilarga qaratilgan: turizm va mehmondo'stlik bo'yicha bilim komponenti, ularning kelajakdagi ish joylarida qo'llaniladigan tildan xabardorligini oshirish; bitiruvchilarning turizm sohasida ishlashlari uchun asosiy talab sifatida ingliz tilida so'zlash ko'nikmalarini va og'zaki ravonligini oshirish bilan bog'liq nutq komponenti; turizm ish joylari uchun zarur bo'lgan yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan yozuv komponenti; va turistlar tilini qanday tarjima qilishni bilishlariga yordam beradigan tarjima komponenti. Maxsus maqsadlar uchun ingliz tilining keng dunyosida turizm ingliz tili eng jozibali tillardan biridir, chunki biz hayotimiz davomida ko'p marotaba sayyoh bo'lamiz va shuning uchun o'qituvchilar sifatida o'zimizning haqiqiy tajribamiz va fikrlarimizni keltira olamiz. til xonasi. Biroq, turizmning ingliz tilini o'rgatish murakkab ishdir.[9]

Universitetlarimizda turizm yo'nalishi bo'yicha bakalavriat talabalariga ingliz tilini o'qitishda qo'llanilgan darsliklar, o'quv topshiriqlari va imtihonlarni o'rganadigan bo'lsak, har bir fakultet/oliy institut turli xil darsliklardan, asosan o'qituvchilarning turli manbalardan to'plagan va ikkalasi ham mavjud bo'lgan materiallardan foydalanishini ko'ramiz.[7] Turizm uchun ingliz tili va umumiy maqsadlar uchun ingliz tili materiallari. Barcha darsliklarda ingliz tilidagi tinglash va nutq faoliyati, shuningdek, yozish, grammatika, o'qish va lug'at faoliyatiga ham urg'u berilgan. O'qituvchilar o'qish qobiliyatlari, grammatika tuzilmalari va turizm va mehmondo'stlik terminologiyasiga e'tibor berishadi va yaqinda ularning nutq yoki tinglash qobiliyatlarini yaxshilashga qaratilgan har qanday o'qitish shakllariga qiziqish bor.[6]

Shuningdek, talabalarga ingliz tilini o'rganish bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradigan va kelajakdagi martabalari uchun saralashda yordam beradigan turli xil ingliz tilini o'rganish tadbirlari mavjud, jumladan: guruh muhokamasi, rol o'ynash va xat yozish. Afsuski, ilgari o'qishda ingliz tilida og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratilmagan va bu bizning muassasalarda turizm yo'nalishi bo'yicha bakalavriat talabalarini ingliz tiliga tayyorlashdagi kamchiliklardan biridir. Shu sababli, hozirgi vaqtda turizm uchun ingliz tilini o'rgatish, ehtimol, mavzuga asoslangan yo'nalish orqali yaxshiroq erishiladi, bu to'g'ri ishlansa, talabalar til bilimi va ko'nikmalarini oshirishi mumkin bo'lgan mazmunli asosni ta'minlashning ikki tomonlama rolini bajaradi. til saboqlarini o'quvchilarning turizm bo'yicha kengroq tajribasiga birlashtiradi. Bu ular allaqachon ko'rgan til elementlarining juda aniq takrorlanishini oldini oladi. Bundan tashqari, mavzuga asoslangan yondashuv ko'rib chiqilgan til elementlari tanlangan sohada haqiqatan ham zarur bo'lishini kafolatlaydi.[8]

Shu sababli, barcha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi muloqot ko'nikmalari turizm ish joylari uchun eng zarur va shuning uchun talabalarning ingliz tili kurslarida tinglash va gapirish qobiliyatlariga e'tibor qaratish lozim. Bundan tashqari, ushbu kurslar talabalarning og'zaki muloqot ko'nikmalarini oshirishi mumkin bo'lgan texnologiyaga asoslangan tadbirlardan maksimal darajada foydalanishi kerak. Labordaning ikkita tadqiqoti (2003, 2009), masalan, kompyuterlardan foydalanish talabalarning tildan foydalanishini oshirish orqali

chet tillarini o'rganishga yordam berishini va ular turizm talabalariga ingliz tilida og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishini ko'rsatdi.

3. Xulosa:

Iqtisodiy globallashuv jarayonida ishbilarmonlik nutqi savdo, savdo, investitsiyalar, menejment, moliya, marketing, turizm va boshqalarga qaratilgan barcha iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarda tildan foydalanishdir. muammo o'qitishning yangi yondashuvi yoki usulini qabul qilishda ekanligi ko'rinib turibdi.[7]. Biroq, o'qitish muammolarini biron bir alohida yondashuvga murojaat qilish orqali hal qilib bo'lmaydi. Chjan biznes ingliz tilini o'rgatish bo'yicha uch tomonlama o'quv dasturini taklif qiladi, u uchta tarkibiy qismdan iborat: fan bilimlari, biznes amaliyoti va til ko'nikmalari Business English, bu shunchaki til ko'nikmalarini o'rgatish va fan sohalari bo'yicha diskret bilimlarni o'rgatish o'miga biznes tajribasini rivojlantirishga qaratilgan. ESP adabiyotida tez-tez targ'ib qilinadi.[8]

Dunyoda iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy globallashuvning kuchayishi tufayli biznes ingliz tiliga o'qituvchilar va tadqiqotchilar katta e'tibor qaratmoqda. Ishbilarmon ingliz tilini o'rgatishning o'ziga xos muammolari bo'lsa-da, tadqiqotdagi yechimlar va o'qitish innovatsiyalari o'quvchilarning qiziqishini uyg'otish va ularning til ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligini isbotladi. Ularning barchasi muhim rol o'ynaydi, chunki ingliz tilida yaxshi muloqot qilish ko'nikmalari turizm bo'yicha bitiruvchilarimiz uchun juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barnes, E. 2016. The minority body: A theory of disability. Oxford University pp.17-42. Polechoński,
2. J. and Tomik, R., (2019) 'Can tourism in immersive virtual reality can replace real travel?'. Folia Turistica 2019; 52, pp. 11-30.
3. Beck, J., Rainoldi, M. and Egger, R., (2019) 'Virtual reality in tourism: a state-of-the-art review'.
4. Tourism Review, 74(3), pp.586-612.
5. Quziyev, S. (2022). Sarvar TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA CHET TILINI O'QITISH JARAYONIDA TIBBIYOT ATAMALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA CHET TILINI O'QITISH JARAYONIDA TIBBIYOT ATAMALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Журнал иностранных языков и лингвистики, 4(4).
6. Ilmiddinovich, Q. S. (2023). CHET TILLARNI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODLARINI TAKKOMILLASHTIRISH ASSOSLARI. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 2(18), 14-19.
7. Quziyev, S. (2023). MAXSUS ATAMALARNI O'QITISHNING NAZARIY METODIK ASOSLARI. Молодые ученые, 1(3), 92-95.
8. Kuziyev, S. (2023, May). DISTINCTIVE ADVANTAGES OF LEARNING AND TEACHING SPECIFIC DICTIONARIES IN FOREIGN LANGUAGE CLASSES OF NON-PHILOLOGY HIGHER EDUCATION

- INSTITUTIONS. In International Conference on Business Management and Humanities (Vol. 1, No. 1, pp. 127-129).
9. Quziyev, S. (2023). CHET TILINI O'QITISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI. *Наука и инновация*, 1(7), 120-124.
 10. Ilmiddinovich, Q. S. (2023). NOLIGVISTIK FAKULTETLARDA KASBGA YO'NALTIRILGAN CHET TILINI O'QITISHNING XUSUSIYATLARI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(30), 83-93.
 11. Kuziev, S. I. (2022). MODERN METHODS OF TEACHING ENGLISH LANGUAGE AT MEDICAL UNIVERSITIES. *Academic research in educational sciences*, 3(11), 242-245.

O'QUVCHILARDA NUTQIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

*Ro'ziqulov Shohruh Ilhom o'g'li, Abdumavlonova O'g'loy Abdurahmon qizi
Guliston davlat universiteti stajyor-o'qituvchisi Guliston davlat universiteti
3-bosqich talabasi*

Annotatsiya

Hozirgi kunda ta'lim tizimida nutqiy kompetensiyani shakllantirish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Yangi ona tili darslarida nutqiy kompetensiyani rivojlantiruvchi ta'lim vazifalarini yaratishda integratsiya masalasi til ta'limida muhim ahamiyatga ega bo'lgan mavzudir. Nutq malakasi samarali muloqotda hal qiluvchi rol o'ynaydi va u o'quv rejasini tuzishda va o'qitish amaliyotida ehtiyotkorlik bilan e'tiborni talab qiladi. Mazkur maqolada nutqiy kompetensiyani tashkil etuvchi asosiy elementlari haqida bilish, og'zaki va yozma savodxonlikni o'stirish, ijodiy, ilmiy va kreativ fikrlash hamda o'quvchilarning tafakkur qilish qobiliyatini shakllantirish omillari bo'yicha tilshunos, metodist olimlar hamda psixologlarning ilmiy qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ona tili ta'limi, nutqiy kompetensiya, og'zaki va yozma savodxonlik, ilg'or texnologiyalar, kreativ yondashuv.

Annotation. Currently, a number of activities are being carried out in the educational system to develop speech competence. The issue of integration in the creation of educational tasks that develop speech competence in the lessons of the new mother tongue is an important topic in language education. Speaking skills play a crucial role in effective communication and require careful attention in curriculum design and teaching practice. This article analyzes the scientific views of linguists, Methodist scientists, and psychologists on the factors that make up the main elements of speech competence, the development of oral and written literacy, creative, scientific and creative thinking, and the factors that form students' thinking ability.

Key words. mother tongue education, speech competence, oral and written literacy, advanced technologies, creative approach.

Har qaysi mamlakatda ta'lim tizimi va turlarini yanada takomillashtirish eng muhim va dolzarb masalalardan biri bo'lib qolaveradi. Shu nuqtayi nazardan,

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning: “Agar mendan sizni nima qiynaydi, deb so‘rasangiz, farzandlarimizning ta‘limi va tarbiyasi deb javob beraman”, deya aytgan e‘tiroflari, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan har bir islohot zamirida o‘z o‘ziga kelayotgan yosh avlodning kelajagi, mukammal bilim sohiblari bo‘lib kamol topishlari va yorqin istiqboli masalasi yotganligini ko‘rsatadi[]].

Hozirgi kunda ona tili maktabda grammatik ilm sifatida o‘rgatiladi, unda tilshunoslikka oid tushunchalar o‘rgatib boriladi.

Tilning amaliy tarafi, xususan, fikrni to‘g‘ri va samarali ifodalash, so‘zlardan kerakli o‘rinda samarali foydalanish, matnni to‘g‘ri tushunish kabi ko‘nikmalarga darslar davomida e‘tibor qaratilmaydi.

Filologiya fanlari doktori Aziz Jo‘rayev qayd etib o‘tganidek, umumiy o‘rta ta‘limdagi ona tili va hozirgi o‘zbek adabiy tili kurslari doirasida tilga oid qonun-qoidalar asosan badiiy adabiyotdan keltirilgan misollar bilan tushuntiriladi. Vaholanki, til faqat badiiy uslubdan iborat emas. Tilning badiiy bo‘lmagan uslublari inson kundalik hayotida ko‘proq zarur bo‘lsa-da, qolgan uslublarni maktabdagi ta‘lim davomida e‘tibordan chetda qoladi.

O‘quvchi maktab davrida diktantdan tashqari amalga oshiradigan yozma ishlar, asosan, bayon va insho shaklida bo‘ladi. Ularni baholashda o‘quvchi matnining badiiyligi asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Yozma matn yaratish ko‘nikmasi ham faqat badiiy matn doirasida cheklanib qoladi.

Insonning til malakasi og‘zaki nutqni tushunish, yozma nutqni tushunish, fikrini og‘zaki va yozma ifodalash orqali shakllanishi ilmiy jihatdan isbotlangan. Biroq ona tili o‘qitishda bu to‘rt xil malakaga yetarli darajada e‘tibor qaratilmaydi. Bugungi kunda o‘zbek tilini ona tili sifatida qo‘llanish doirasida kuzatilayotgan kamchiliklar ona tili ta‘limida tildan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishga urg‘u berilmaganligi bilan bog‘liqdir. Shuning uchun ham ona tilidan savodxonlik darajasini oshirish bo‘yicha malaka oshirish kurslari dasturlari va o‘quv materiallarini ishlab chiqishda nutqiy kompetensiyani qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Kompetensiya - u yoki bu soha bo‘yicha bilimdonlikdir. Kompetensiya (lot. “compete” - erishyapman, munosibman, loyiqman) - fan bo‘yicha egallangan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo‘llay olishdir[3].

Kompetensiya - bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir. U bilim mahsuli bo‘lib, mutaxassis tomonidan uni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir. Kompetensiyaning bilimdan farqi shundaki, vazifani amaliy bajarmasdan turib, uni aniqlab ham, baholab ham bo‘lmaydi. Malaka kompetentlikning muhim mezoni bo‘lib, u turli holatlarda, shu qatori muammoli vaziyatlarda ham bir necha bor qo‘llash natijasida namoyon bo‘ladi [5].

Zamonaviy yondashuvlar o‘qitish jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘zaro integratsiyalash orqali o‘quvchilarda tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Ma‘lumki, o‘quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar ikki turga ajratiladi: tayanch va

fanga oid kompetensiyalar. Ayrim manbalarda esa kompetensiyalarning quyidagi 3 turi tasniflangan:

1. Tayanch kompetensiyalar;
2. Umumiy (predmetli) kompetensiyalar;
3. Xususiy kompetensiyalar.

O'quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetensiyalar tayanch kompetensiya, faqat o'quv fani orqali shakllantiriladigan kompetensiyalar xususiy kompetensiyalar deyiladi [4].

Nutqiy kompetensiya til ta'limining quyidagi 4 komponentini rivojlantirishni nazarda tutadi:

1. Tinglab tushunish (eshitilgan va eshittirilgan nutqni, tinglangan matndagi asosiy axborotni, dolzarb mavzulardagi radio va teledasturlarni tushunish);
2. Gapirish (monologik, dialogik og'zaki nutq turlarida o'z shaxsiy qarashlari va fikrlarini bildirish, mavzu doirasida taqdimot qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish);
3. O'qish: mavzuga oid materiallarni, adabiy-badiiy matnlarni, ommabop materiallarni (gazeta, hikoya, shaxsiy va elektron xatlarni) o'qish;
4. Yozish (diktant, bayon, insho yoza olish, ijodiy matnlar tuza olish, rasmiy ish qog'ozlarini yuritishni bilish) [4].

Masalan, hozirgi yangi o'quv darsliklarida o'quvchilarning nutqiy kompetentligini oshirish maqsadida matnlar orqali sinab ko'rilmoqda. Misol uchun yangi 6-sinf ona tili o'quv darsligida "Shifoxona" mavzusida "Amir" nomli matn keltirilgan va matnning so'nggida savollar berilgan. O'quvchi ushbu matnni qanday tushunib yetganligini aniqlash maqsadida savollarga javob beradi va oxirida qanday xulosa chiqarganligini bildirib o'tadi. O'quvchi bunda o'qib tushunish ko'nikmasini qanday shakllanganligi yuzaga chiqadi[2]. Yana bir misol tariqasida 10-sinf ona tili darsligiga ham to'xtalamiz. Ushbu darslikda "Muhabbat o'zi nima?" mavzusida "Muhabbat nima?" matni keltirilgan. Bunda o'quvchidan matnni o'qishdan oldin shu mavzu yuzasidan savollar berib o'tilgan. Undan so'ng matnni o'qib chiqish tavsiya etilgan. O'quvchidan matnni qanday tushunganligini bilish uchun quyida 2 xil yo'l keltirilgan. Birinchisi, matn asosida quyidagi fikrlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlash, ikkinchisi, matn asosida tuzilgan testlarning javoblarini aniqlash topshiriqlari berilgan.¹⁴[1]

O'quvchilar nutqiy kompetensiyalarining shakllantirish omillari quyidagi mezonlar orqali namoyon bo'ladi:

- o'qituvchi nutqini, video va audiomatnlarni (multimedia ilovalari) va topshiriqlarni tinglab tushuna oladi;
- rasmlar asosida va o'qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida o'zlashtirgan yangi so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi;
- mashq matnidagi so'zlarni qo'shib o'qiy oladi, gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o'qiy oladi, harflar birikmasi ishtirok etgan so'zlarni o'qiy oladi;

¹⁴ Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik.T-2022. 8-10-betlar

•soʻzda nechta tovush boʻlsa, shuncha boʻgʻin boʻlishini, bir unli tovush boʻgʻin hosil qilishini, yaʼni o-na, u-ka, a-ka kabi boʻgʻinga boʻla oladi, harflar birikmalari ishtirok etgan soʻzlarni boʻgʻinga boʻla oladi;

•x va h tovushli soʻzlarni toʻgʻri yoza oladi;

•bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi;

•mashʼal, maʼqul, taʼlim, jurʼat, taʼzim kabi tutuq belgili soʻzlarni boʻgʻinga boʻlib yoza oladi;

•lugʻat, izohli, eshituv, yoddan yozuv, rasmlil diktant yoza oladi hamda gaplarni rasmlar tartibida koʻchira oladi [5].

Kompetensiyaga hech qachon toʻgʻridan toʻgʻri tashxis qoʻyish va baholash mumkin emas, balki har doim uning samaradorligi nuqtayi nazaridan bilvosita anglash mumkin. Zamonaviy taʼlimdagi kompetensiyaga asoslangan yondashuv – olingan bilimlarni qoʻllash qobiliyatiga eʼtiborni qaratish usulidir. Ona tilidan savodxonlik darajasini oshirish boʻyicha nutqiy kompetensiyaning bir boʻlmish kommunikativ yondashuvni qoʻllash maqsadga muvofiqdir.

Kommunikativ yondashuvning mohiyati real vaziyatda nutqni tushunish, oʻz fikrini toʻgʻri ifodalashga oʻrgatishdir. Shuning uchun har bir mavzu uchun alohida vaziyat beriladi va shu vaziyatda nutq vositasida masalani hal qilish talab qilinadi.

Til qobiliyatini inson hayotining farovonligini taʼminlashga xizmat qiladigan boshqa qobiliyatlardan ayri tasavvur qilib boʻlmaydi. Shuning uchun ham uni rivojlantirishda inson hayotida uchraydigan vaziyatlardan foydalanish muhim.

Bu, birinchidan, oʻrganuvchida dars jarayoniga nisbatan qiziqish va ragʻbatni kuchaytiradi;

ikkinchidan, unda foydalanilgan nutq vaziyatning ichida boʻlgani uchun insonning xotirasida yaxshiroq saqlanadi.

Grammatik qoidani avval berib keyin mashq bajarish usuli shuncha vaqtdan beri ona tilini oʻqitishda qoʻllab kelingan. Uning asosiy kamchiligi amaliyotga yetarli darajada bogʻlanmaganligidir. Mazkur usulda mavzuni oʻqigan bola nazariy jihatdan shunday ekanligini biladi, ammo shu qoida qaysi vaziyatlarda qoʻllanishi haqida tasavvurga ega boʻlmaydi.

Kommunikativ yondashuvda esa tilning muloqot vositasi sifatidagi vazifasi birinchi oʻringa qoʻyiladi. Maʼlum vaziyatda qanday gapirish toʻgʻri boʻladi, yaʼni qanday ifoda yordamida fikrni bexato yetkazish mumkin – shu masalani hal qilish orqali til qonuniyatlarini tushuntiradi.

Oʻrganuvchiga ana shu bexato shakl asosida tilga oid qanday qoida borligi shu qoidaning bir necha xil vaziyatda aks etishi orqali tushuntiriladi.

Ogʻzaki nutqni rivojlantirish tilning qolgan shakllarini rivojlantirish uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Yozma nutq bilan koʻp ishlash ogʻzaki nutqni oʻz-oʻzidan rivojlanib qolishiga olib kelmaydi, chunki yozma nutq va ogʻzaki nutq mazmun jihatidan bir nuqtaga birlashsa-da, ularning amalga oshish jarayoni inson ongida boshqa-boshqa mexanizmning ishlashi orqali taʼminlanadi. Shuning uchun ularning har biriga alohida eʼtibor berish zarur[3].

Xulosa. Yurt taraqqiyoti yoshlarning kelgusida qanday shaxs boʻlib kamol topishiga uzviy bogʻliqdir. Farzandlarimizning kelajagi poydevori boʻlmish

boshlang'ich ta'lim tizimini yanada isloh qilish esa bu boradagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktablari zimmasiga ta'lim-tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish vazifasi yuklatilgan. Bu jarayonni amalga oshirishda esa, avvalo o'qituvchi o'zining egallab turgan lavozimi darajasida kasbiy kompetentlikka ega bo'lmog'i lozim. Shundagina u pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli tashkil eta oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. T-2022 8-10-betlar
2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. T-2022 28-29-betlar
3. Azimova I. "ona tili bo'yicha savodxonlik kurslarida kommunikativ yondashuvni qo'llash" "Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti" mavzusidagi IV an'anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani T-2020 130-136-betlar
4. Qorayev S.B., Tirkashev N.I. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning asosiy jihatlari. "Academic Research in Educational Sciences", Volume 3/ISSUE 1/2022.
5. Sattarova N.U. The emergence of the competence approach in the educational system and its importance today. "Science and innovation", 2023

DARS DAVOMIDA INTERFAOL METODLARNI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Rajabova Xurshida Hakimovna

QVPYMO'MM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada ta'lim jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarning asosiy mazmuni, dars jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlarning turlari, mohiyati va ta'lim jarayonini sifat darajasini oshirish uchun foydalaniladigan uslublar ularni qo'llash texnologiyasi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Interfaol metod, ta'lim texnologiyasi, ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchi, ta'lim metodlari, ta'lim, pedagogik texnologiya.

Аннотация

В статье рассмотрено основное содержание педагогических технологий, используемых в образовательном процессе, виды и сущность интерактивных методов, используемых на уроке, методы, используемые для повышения качества учебного процесса и технология их применения.

Ключевые слова: Интерактивный метод, образовательная технология, учитель, обучающийся, методы обучения, образование, педагогическая технология.

Abstract

The main content of the pedagogical technologies used in the educational process, the types and essence of the interactive methods used in the lesson, the methods used to increase the quality of the educational process and the technology of their application are mentioned in the article.

Key words: Interactive method, educational technology, teacher, learner, educational methods, education, pedagogical technology.

Mamlakatimizda rivojlantirish davrida ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayon maktab davridayoq yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Maktab darsliklarimizda kiritilayotgan yangiliklar asosida darsni tashkil etishda yangi texnologiyalardan foydalanib darsni tashkil qilishga erishilmoqda. Buunga asosan bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining amalga qo'llashda hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. O'qituvchining yangi mavzuga tayyorgarlik ko'rishida metodlar va metodik usullarni tanlash – bu ularning o'zaro almashinuvini vaqt va didaktik maqsad bo'yicha muvozanatlashtirish demakdir. To'g'ri qo'llanilgan metodlar ob'ektiv voqelikka oid bilimlarni chuqurlashtiradi va yaxlit hamda darsning ilmiy- nazariy darajasini oshiradi. Ketma-ket saralangan o'qitish metodlari ma'lum darajada bilish va darsga qiziqishini rivojlantirishga, mustaqil faoliyatda faollashtirishga olib keladi.

Pedagogik texnologiya o'quvchilarda ma'lum ijtimoiy tajriba elementlarini shakllantirish uchun loyihalangani; Demak, pedagogik texnologiya aniqlashtirilgan maqsadlar asosida loyihalashtirilgan, muayyan ketma ketlikda, tartibda amalga oshiriladigan, ta'lim tarbiya samaradorligini oshirishga va yakuniy natijaga erishishni kafolatlaydigan pedagogik muolajalarni amalga oshirish jarayonidir. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, pedagogik texnologiya tushunchasi bilan metod, metodika tushunchalari bir birdan farqlanadi. Pedagogik texnologiya – ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan samarali ta'lim tarbiya muolajalarini amalga oshirish, o'qituvchi va oquvchilar o'zaro muloqotini o'ziga xos tashkil etish jarayoni bo'lsa, metod, jumladan interfaol ta'lim uslublari ham ta'lim tarbiyani amalga oshirish yo'llari, vositalari, usullari yig'indisidir. Pedagogik texnologiya jaryonida bunday usullardan bir nechitasi qo'llanilishi mumkin. Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga kafolatli erishishda o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. O'quv

jarayoni pedagogik texnologiya asosida tashkil etishning rejalashtirishda pedagogdan yuksak malaka talab etadi, materiallar tayyor bo'lgach, pedagog asosan tashkiliy va konsultativ vazifalarni bajaradi. Umumiy ko'rinishda pedagogik texnologiya tarkibiga quyidagilar kiradi: fanning identifikasiyalashgan o'quv maqsadlarini ishlab chiqish; o'quv maqsadli shajarasi; o'quv maqsadlarini nazorat topshiriqlariga aylantirish; maqsadga erishish usullari; erishilgan o'quv maqsadlarini baholash. Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, o'quvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'la qamrab olishi kerak.

Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta'lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin. Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi

Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim" va b. ∞ Interfaol ta'lim strategiyalari: "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor" va boshqalar.

Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategic yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

Interfaol grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va boshqalar. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q

O'quv jarayonida o'quvchining o'zi o'ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi. O'quvchi uchun dars qiziqarli o'qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi. O'qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo'ladi. Har bir o'quvchining o'zi mustaqil fikr yurita olishiga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi. Interfaol usulda o'tilgan darslarda o'quvchi faqat ta'lim mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zining tanqidiy va mantiqiy fikrlarini ham rivojlantiradi.

Ta'lim va tarbiya uyg'unligi o'zaro bog'liqligida, voqelikda, ayniqsa pedagogik voqelikdagi qonuniyatlarni o'rganish hamda uning amaliy jihatlarini tarkib toptirishda namoyon bo'ladi. Shu bois aytish mumkinki, ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Ular o'zaro uzviy bog'langan pedagogik hodisalardir. Pedagogikada tarbiyalovchi ta'lim, rivojlantiruvchi tarbiya degan ibora ko'p ishlatiladi. Buning mohiyati shundan iboratki har qanday ta'lim oluvchilarda axloqiy, estetik, jismoniy, mehnat ko'nikmalarini, ilmiy dunyoqarash asoslarini tarbiyalash barobarinda, ularda aqliy qobiliyat, diqqat, xotira, tasavvur ijodiy tafakkurni rivojlantiradi va shaxsni har tomonlama kamol topgan inson bo'lishini ta'minlaydi.

Innovatsion usullarda dars o'tish jarayonini, ya'ni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni boshlang'ich ta'lim davridan boshlab tashkillashtirish ta'lim tizimida yuqori samara beradi. Bu degani, boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning poydevori hisoblanadi. Ana shu poydevorni mustahkam tarzda bunyod etish kelgusi davrlardagi ta'lim jarayonlarining o'tilishida ham qulayli yaratgan bo'ladi. O'z-o'zidan kelib chiqadiki, boshlang'ich ta'limdan boshlab tashkil etilgan pedagogik texnologiyalar ta'limning keyingi davrlarida tshkil etilishida birinchi bosqich vazifasini o'taydi.

Tabiiy fan bo'yicha barcha mavzular kompleks tarbiya masalalarini aks ettiradi. O'quvchilarga bilimni bayon qilish metodlari ham tarbiyavi ahamiyatga ega, o'quvchilarning barcha faoliyatlari bilimlarr o'zlashtirish jarayoni bilan bog'liqdir. Shu munosabat bilan tabiatshunoslikni o'qitish o'qituvcluchun tarbiyaviy ishlarda katta imkoniyatlar beradi. Tabiatshunoslikni o'qitishda og'zaki, ko'rgazmali, amaliy va boshq metodlardan foydalaniladi. Bolalarning ijodiy faolligi, individus qobiliyatlarini ochishga qaratilgan metodlar tobora ko'proq qo'llanilmoqda. Tabiatshunoslik bo'yicha mashg'ulotlami sinfdan va maktabda: tashqari tadbirlar: ochiq havodagi o'yinlar, o'lkashunosli ekskursiyalari, yurishlar bilan chambarchas bog'lamoq zarur.

Xulosa qilib aytganda, yangi metodlar ustida ishlash o'qituvchini o'z ustida ishlashga, izlanishlar qilishga undaydi. O'z navbatida bunday qiziqarli metodlar asosida fanni kuzatgan o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish samaradorligi oshadi. Darslarni qiziqish bilan tinglaydi va diqqati bo'linmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.–T.TDPU, 2003.
2. S.Pirnafasova veb sahifasi. Interfaol metodlar.
3. Ochilov M. Pedagogik texnologiyalar. - Qarshi: Nasaf, 2000.
- 4.B.T.Jurayev "Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi" Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy o'quv yurtlarining 5110900-pedagogika va psixologiya sirtqi ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.
- 5.J.Yo'ldoshev, S.Usmonov, —Pedagogik texnologiya asoslaril, T., 2004. 2. J.Yo'ldoshev, —Ta'lim yangilanish yo'lida, T., 2000
6. . Avlayev O.U., Jo'rayeva S.N., Mirzayeva S.P. "Ta'lim metodlari" o'quv-uslubiy qo'llanma, "Navro'z" nashriyoti, Toshkent – 2017.

FIZIKA DARSLARIDA TO'LIQ MEXANIK ENERGIYANING TATBIQI

Xojiyev B.I, Ulug'berdiyeva N.A, Xo'jayev A.A, Amonov A.A

NavDPI akademik litseyi

Agar "Energiya" so'zining ta'rifini internet tarmoqlaridan izlasak, biz materiyaning o'zaro ta'siri shakllari haqida qandaydir biror ma'lumot topamiz.

Hozircha energiya ish qilish uchun ishlatiladigan zaxira ekanligiga rozi bo'laylik.

Energiya turli xil bo'ladi: mexanik, elektr, ichki, tortishish va boshqalar. U Joul (J) da o'lchanadi va ko'pincha E harfi bilan belgilanadi.

Mexanik energiya - bu jismning harakati yoki uning pozitsiyasi, mexanik ishlarni bajarish qobiliyati bilan bog'liq energiya.

Bu kinetik va potentsial energiyaning kombinatsiyasi. Kinetik energiya - bu harakat energiyasi. Potensial - harakatni kutish.

Tasavvur qiling-a, siz rezinani olib, uni cho'zdingiz va qo'yib yubordingiz. Cho'zilgan joydan elastik tasma siz ruxsat berganingizdan so'ng, oddiygina "uchib ketadi". Bu jarayonda kuchlanish momentida rezina potentsial energiyaga, parvoz paytida esa kinetik energiyaga ega.

Yana bir misol: chang'ichi tog'dan sirg'anib tushmoqda. Eng boshida - tepada - u maksimal potentsial energiyaga ega, chunki u harakatni kutish rejimida va tog'ning pastki qismida u aniq harakat qilmoqda (harakatni kutmaydi) va kinetik energiya ega bo'ldi.

Yana bir bor: kinetik energiya - bu harakat energiyasi. Harakatni eng aniq tavsiflovchi miqdor tezlikdir. Shunga ko'ra, tezlik, albatta, kinetik energiya formulasida mavjud bo'lishi kerak.

To'liq mexanik energiya- jismlar tizimining biror paytdagi kinetik va potentsial energiyalari yig'indisiga teng :

$$E_T = E_k + E_p$$

To'la mexanik energiya saqlanadi, ya'ni vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydi. Tabiatda bir turdagi energiyaning boshqasiga aylanishi ro'y berib turadi. Masalan, mexanik energiyadan issiqlik energiyasiga, mexanik energiyadan elektr energiyaga va hokazo. Energiyaning saqlanish va aylanish qonuni tabiatning asosiy qonunlaridan bo'lib, nafaqat makroskopik, balki mikro jismlar tizimi uchun ham o'rinlidir. Energiya hech qachon yo'qolmaydi ham, paydo ham bo'lmaydi. U faqat bir turdan boshqasiga aylanishi mumkin. Yopiq tizimda to'la energiya saqlanadi. Bunga energiyaning saqlanish qonuni deyiladi.

Fizikada makon va zamonda ro'y beradigan barcha jarayonlarni ma'lum tartibga solib turadigan umumiy qonunlari mavjud bo'lib, ular saqlanish qonunlari deyiladi.

Materiyaning harakati makon va zamonda ro'y beradi. Fizikadagi umumiy qonunlar ham makon va zamonga tayangan, ya'ni ularning biror xossasiga asoslangan bo'ladi. Bu xossalar: makonning, ya'ni fazoning bir jinsliliigi va izotoplighi, zamonning, ya'ni vaqtning esa bir jinsliliigidir.

Energiyaning saqlanish qonuni.

O'zaro ta'sirlashib, yopiq tizim hosil qiluvchi jismlarning to'liq mexanik energiyasi tizim jismlarining har qanday harakatida o'zgarmay qolaveradi

$$E_T = \frac{m_1 v_1^2}{2} + \frac{m_2 v_2^2}{2} = \frac{m_1 v_1'^2}{2} + \frac{m_2 v_2'^2}{2} = const.$$

To'liq mexanik energiyaning saqlanish qonunlariga doir masalalarning tatbiqini ko'ramiz:

1-masala. AB silliq sim radiusi R aylana yoyi ko'rinishida bukilgan

(1-rasmdagidek). Simga kichik halqacha kiritilgan. Unga qanday minimal tezlik

berilganda, A nuqtadan chiqib havoda biroz yurib B nuqtaga yana simga ilakishib harakat qiladi. α burchak berilgan.

Berilgan: R, α .

Topish kerak: $\vartheta_{\min} = ?$

Yechish: Halqa uchun energiyaning saqlanish qonuni:

$$\frac{m\vartheta_{\min}^2}{2} = \frac{m\vartheta_0^2}{2} + mgh \quad (1)$$

2-rasmdan h balandlikni topamiz.

$$h = R(1 + \cos\alpha) \quad (2)$$

AB oraliq, $S = 2R\sin\alpha$

Ikkinchi tomondan S halqaning uchish uzoqligi:

$$S = \frac{\vartheta_0^2 \sin 2\alpha}{g} = 2R\sin\alpha \rightarrow \vartheta_0^2 = \frac{gR}{\cos\alpha} \quad (3)$$

Bularni hisobga olib ϑ_{\min} tezlikni topamiz

$$\vartheta_{\min} = \sqrt{\vartheta_0^2 + 2gh} = \sqrt{gR \left(\frac{1}{\cos\alpha} + 2(1 + \cos\alpha) \right)}.$$

2-masala. Yengil prujina stolga vertikal o'rnatilgan (2-rasm). Unga stoldan h balandlikdan m massali po'lat sharcha tashlandi. Sharchaning maksimal impulsini toping. Prujinaning bikrligi k uning cho'zilmagandagi uzunligi l .

Berilgan: h, m, k, l .

Topish kerak: $P_{\max} = ?$

Yechish: Impulsning maksimal qiymati:

$$P_{\max} = m\vartheta_{\max}$$

Tizim (3-rasm) 1-holatdan 2-holatga o'tishdagi ko'rinishi:

$$mg(h - l + x) = \frac{m\vartheta^2}{2} + \frac{kx^2}{2}.$$

Tezlik maksimal bo'lishi uchun sharcha muvozanat vaziyatida bo'lishi kerak:

$$mg - kx = 0 \quad \text{yoki} \quad mg = kx$$

Yuqoridagi tenglamalarni birgalikda yechamiz;

$$mgh - mgl + \frac{m^2 g^2}{k} = \frac{m\vartheta^2}{2} + \frac{m^2 g^2}{2k}$$

$$g(h - l) + \frac{m \cdot g^2}{2k} = \frac{\vartheta^2}{2}$$

$$\vartheta_{\max} = \sqrt{2g(h - l) + \frac{m \cdot g^2}{k}}$$

$$P_{\max} = m \sqrt{2g \cdot (h - l) + \frac{m \cdot g^2}{k}}.$$




Xulosa: Biz bu mavzuda to'liq mexanik energiyaning saqlanish qonuniga doir masalalarni yechish tatbiq qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Fizika kursi" A.Qosimov va boshqalar Toshkent "O'zbekiston" 1994 yil
2. "Elektrodinamika" akademik litseylar uchun B.I. Hojiyev va boshqalar Toshkent

"IJOD NASHR" nashriyoti 2023 yil

3. "Kvant" jurnali Moskva 2011 yil



ADVANTAGES OF MODERN PEDAGOGICAL INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION

Uzaqova Sevara Akram qizi

Uzbekistan State University of World Languages, 1st year student of foreign language and literature

Abstract

The article highlights the benefits of actively including innovative pedagogical technologies in the educational process and which technologies can help effectively increase the effectiveness of education. One of the main aspects highlighted is the need to adapt lessons organized on the basis of innovative pedagogical technologies to meet the needs of students and turn them from passive listeners into active participants in their educational process. This change is aimed at developing students' thinking, consciousness, and worldview by involving them in interactive and interesting activities that arouse their interest and desire to master the learning material. Educators can effectively involve students in the learning process and help them achieve their educational goals by arousing interest, desire, and interest in students. In general, the article is written about innovative pedagogical technologies and their potential to create a dynamic and interesting learning environment that encourages active participation and motivation of students and ultimately increases the effectiveness of education.

Key words:

Technology, remote access, problem-solving skills, 3D printers, interactive whiteboards, Artificial intelligence.

Introduction:

These days, modern technology has become an integral part of education, with millions of students around the world using it every day. Technology has the power to capture students' imaginations and make learning more fun and interactive. It also plays a crucial role in saving teachers' time by simplifying many tasks, providing access to many educational resources, and facilitating communication between teachers, students, and parents. The widespread use of technology in education has changed traditional teaching methods and opened up new opportunities for personalized learning experiences. From interactive whiteboards and educational apps to online learning platforms and virtual reality simulations, technology offers a wide range of tools to suit different learning styles and preferences. Using modern technology in the classroom not only enhances the learning experience of students, but also equips them with important digital skills that are increasingly important in today's interconnected world. By harnessing the power of technology, educators can create dynamic and innovative learning environments that inspire curiosity, creativity, and lifelong learning.

Technology can benefit education in many ways. From helping students learn in new and exciting ways, developing communication and team-working skills or improving accessibility, teachers can use technology to adapt learning to

each student's needs. @Rocco_Avantis (https://twitter.com/Rocco_Avantis) - Educational Specialist, Avantis Education. Here are some of the advantages of incorporating educational technology in the classroom for students and schools:

It establishes stimulating learning settings:

Research indicates that technology positively affects student engagement. It can assist teachers in developing dynamic, captivating, and unforgettable classes. It goes without saying that increased engagement increases student motivation and improves the quality of instruction for both teachers and students.

Prepares students for the future:

Students can enhance those vital digital skills—which are essential in today's world—through digital learning. Even though today's students are accustomed to using devices like computers and smartphones, utilizing them in the classroom from K–12 will introduce them to a wider range of useful applications. As we've already discussed, technology plays a significant role in our lives and is here to stay.

Remote access:

Gone are the days of groups of students crowding around an A4 worksheet, now students can communicate and interact with their peers from anywhere in the world!

Fosters creativity and problem-solving skills:

Students' imaginations can be let loose with the aid of classroom technology! For example, a study by Gallup showed that 85% of teachers who focus on creative learning and use technology in transformative ways see their students more engaged in independent problem-solving.

Save time for educators:

Most teachers, if asked, would probably respond that time is their most valuable resource. There's never enough time to get everything done that needs to get done! However, integrating technology into the classroom can help teachers reclaim some valuable time. It can be as simple as saving documents and lesson plans in Google Drive, taking attendance with nothing but a few clicks, or reporting on results.

Teachers can incorporate thousands of different technology into their classrooms and schools. Here some are some examples of the technologies used in education:

Interactive whiteboards:

Different learning methods can be combined into one experience with interactive whiteboards. Pupils can interact with the board through touch, hearing, and sight. This gives educators fresh, creative approaches to teaching the same content. As a result, pupils retain more information and learn more effectively.

Mobile devices, tablets and laptops:

There are various advantages for both teachers and students when using digital devices in the classroom. Because digital devices are so portable, students may carry their course materials with them everywhere they go. Students who must

study while on the road or who must travel great miles for school will find this to be especially helpful.

3D Printers:

Engaging the interactive nature of 3D printing in the classroom, teachers may create engaging lesson plans that benefit greatly from this technology. Across a wide range of courses, including maths, physics, engineering, geography, science, and art, 3D printers are a fantastic tool for improving learning.

Artificial Intelligence:

The education sector is not an exception to the artificial intelligence (AI) that has spread quickly throughout many industries. Effective lesson plans are produced by AI-powered lesson planning, which makes use of data analysis and machine learning algorithms. Both teachers and students could gain from this creative approach, which has the potential to raise educational standards.

Conclusion:

In conclusion, educators can use a plethora of technologies in their classrooms, including 3D printers, mobile devices, interactive whiteboards, and artificial intelligence. This technologies in education can be used to create engaging learning environments, prepare students for the future, provide remote access, encourage creativity and problem-solving abilities, and save teachers' time. Moreover, the benefits of integrating technology into education include more student flexibility due to access to a multitude of resources, a customized learning environment, and a peer-supportive atmosphere that encourages cooperation.

References

- <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/1599/1404>
- Tatlakova D.N. Technology modelling and creating an electronic textbooks for the course “ Mother Tongue”/ /Young Scientist.- 2016
- <https://www.classvr.com/blog/use-of-technology-in-education-a-complete-guide/>
- Simuforosa, M. (2013). The impact of modern technology on the educational attainment of adolescents.
- Dr Kulwinder Pal, Educational Technology
- Bulman, G., & Fairlie, R. W. (2016). TECHNOLOGY AND EDUCATION: COMPUTERS, SOFTWARE, AND THE INTERNET. NBER WORKING PAPER SERIES, 1-67.
- <https://teachflow.ai/the-benefits-of-ai-powered-lesson-planning/>
- <https://www.falmouth.ac.uk/news/advantages-technology-education>
- (<https://ediverse.com/explore-individually-or-together>).
- (<https://news.gallup.com/opinion/gallup/245600/teachers-promote-creativity-educational-results.aspx>)
- (<https://www.jotform.com/blog/teachers-saving-time-with-tech-tools/>)

CHET TILINI O‘QITISHDA YANGI PEDAGOGIK VA INFOROMATSION TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

Nargiza Olimovna Xalilova

*Navoiy viloyati Zarafshon shahar Kasb – hunar maktabi “Ijtimoiy – gumanitar
va iqtisodiy fanlar” kafedراسi ingliz tili katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada chet tilini zamonaviy o'qitish tizim, hamkorlikda o'qitish va axborot texnologiyalari, internet tizimidan foydalanish, loyiha metodikasini ko'llashlari va uning samarali natijalari haqida so'z yuritiladi. Shu bilan birga chet tilini o'rganishda axborot kommunikatsion texnologiyasining imkoniyatidan mustaqil foydalanish yo'llari muhokama qilinadi.

Tayanch so'zlar: zamonaviy, hamkorlik, axborot texnologiya, internet, loyiha, metod, qo'llash, so'z, samarali natija, mustaqil foydalanish.

Summary

This article says about the modern system of teaching foreign language, teaching in collaboration, using modern technologies, Internet sources, using project of methodology and its effective results. Also there are discussed the ways of independent usage of information technologies and sources of communication in teaching foreign language.

Key words: modern, collaboration, information technology, internet, project, method, usage, word, effective result, independent usage.

Mamlakatimiz mustaqillika erishganidan so'ng ko'pgina soxalarda katta o'zgarishlarga erishilib kelinmoqda. Boshqa soxalar bilan bir qatorda ta'lim soxasida erishilayotgan yutuqlar ham buning namunasidir. O'zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lini tanlagan va amalga oshirib kelmoqda. Mamlakatimiz taraqqiyotining muxim sharti kadrlarni tayyorlash tizimining mukkamal bo'lishi, zamonaviy iqtisod, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalar asosida rivojlanishi xisoblanadi.

Texnika o'rta – maxsus kasb – hunar maktabi va akadem litseylarida ta'lim xorijiy tillarni o'qitish muammolari chuqur o'rganilib kelinmoqda. Har bir sanoat sohasiga mos ravishda, ushbu sohaga yo'nalgan holda metodlardan foydalanish zarur. Texnika oliy o'quv yurtlarida ingliz tilini o'qitishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali maqsadga erishish mumkin. Zamonaviy o'qitish tizimi hamkorlikda o'qitish va axborot texnologiyalari, internet tizimidan foydalanib, loyiha metodikasidan ko'llashni talab etadi.

Bu metodika talabalarda shaxsning o'zligini namoyon etish, o'qitishga yo'nalganlik bilan yondashish, xar bir shaxs xususiyatlarini, o'qishda egallaydigan o'zlashtirish darajalarini, iqtidorlarini va hokazolarni hisobga olgan holda ta'limni individuallashtirish va samaraliligini oshirishga yordam beradi.

Ma'lumki, chet tilini o'qitishdan maqsad talabalarda chet tilini amaliy tarzda o'zlashtirish va ularda kommunikativ madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat. Bunda o'qituvchining vazifasi talabalarda chet tilini o'rganish jarayonida tilni puxta egallashlari va ularning ijodiy tafakkur faoliyatini faollashtirishdan iborat. Talim jarayonining samaradorligi ko'p jixatdan ishtirokchilarning faolligini, aniq maqsad sari intilishlari va intizomli bulishlariga bog'liq. O'quv mashg'ulotlarini o'tkazishga tayorgarlik ko'rish xamda uni tashkil etish uchun sarflanadigan kuch va vaqt xajm jixatdan ananaviy talimni tashkil etish uchun sarflangan kuch va vaqtga nisbatan ancha ko'p bo'ladi. Texnologik vositalardan so'z bilan tushuntirish samarali bo'lmagan amaliy xarakatlarni

ko'rgazmali tarzda namoish etish zarurati yuzaga kelganda foydalaniladi bu esa chet tilini o'rganishda juda kulay vositadir. Pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos jihatlari yana shundan iboratki, unda o'quv maqsadlarga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Ta'lim-tarbiya maqsadi va vazifalarini shunday belgilash kerakki, unda umumiy jamiyat o'quv maqsadlari va har bir bosqichlarining aniq maqsadi va vazifalari mushtarak bog'liqligini ta'minlashi lozim. Hozirgi yangilanish davrida ta'lim jarayonini takomillashtirishni amalga oshirishda zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalarini qo'llanilishi o'qituvchining faoliyatini o'quv jarayonida uning mazmunini va funksiyasini keskin o'zgartirib yuboradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar xorijiy tillarni o'qitishda dars o'tish uslubini kengaytirib, unutilayotgan darsning sifatini oshirib boradi. Shundagina ta'lim jarayonining samaradorligiga erishish mumkin.

O'qituvchi o'z talabalarining dars jarayonidagi ilmiy – amaliy faoliyatini samarali tashkil qilish avvaldan rejalashtirilgan, aniq bir maqsadga- mustaqil matn yaratishga yo'naltirish uchun har bir dars puxta rejalashtirilishi, darsni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilishi, lozim bo'lsa, yangi mashq namunalarini tanlab, qo'shimcha mashg'ulot sifatida rejaga kiritishi, darsni guruhlararo musobaqa ruhida olib borishi nihoyatda foydalidir. O'qituvchi doimiy ravishda talabalarni o'rganilgan mavzu yuzasidan o'z fikrlarini aytishga undashi, ular tamonidan kiritilgan taklif va mulohazalarni, o'z iste'dodini namoyish qilishga bo'lgan urinishlarini ijobiy tushunishi, bunday ijodkorlik, kashfiyotchilik harakatlarini muttasil rag'batlantirib borishi, ularga sharoit va imkoniyatlar yaratib berishi zarur bo'ladi.

Xorijiy tilni o'rgatishda amaliy mashg'ulotlarda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda. Yangi pedagogik usullardan foydalanish nafaqat talabalarga, balki o'qituvchiga ham ta'lim berish jarayonini engillashtirib bermoqda. Har bir usul belgilangan muayyan maqsadni echishda o'z yo'lnida ishlatilsa, u shubhasiz faoldir. Pedagogik texnologiyalar talabalar faolligining yuqori darajasini ta'minlash asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratilgan. Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir o'quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish o'quvchi uchun qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo'llanilganda o'quvchilar o'qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar. O'quvchilar yangi bilimlarni ilmiy izlanish, tadqiqotchilik, tajribasinoqlar o'tkazish asosida o'zlashtiradilar. Ilm orqali bilim olish tamoyiliga amal qilinadi. Ta'lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlariga bo'lingan holda ishlashadi. O'quv topshiriqlari alohida bir o'quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a'zolariga beriladi. Mikrogruphlarning har bir a'zosi topshiriqni bajarishda o'z hissasini qo'shishga harakat qiladi. Bu holat o'quvchilarda jamoa tuyg'usini shakllantiradi va ularning tashabbuskorligini orttiradi. Ta'lim jarayonini tashkil etishning asosiy shakli darsdir. Hozirgi paytda darsning xilma-xil noan'anaviy shakllari joriy etilmoqda. Bunday darslar o'quvchining ijodiy qobiliyatini o'stirish, aqliy salohiyatini kuchaytirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va har bir

yangilikni tez va to'la qabul qila olish ko'nikma va malakalarini tarkib toptiradi. Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg'otadi, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim, ko'nikma va malakalar amaliy faoliyatda tatbiq etiladi, o'zlashtirish sifati oshadi. Buning uchun o'qituvchi mahoratli bo'lishi va mavzularning mazmuniga qarab darsni to'g'ri rejalashtirishi, mashg'ulot davomida barcha o'quvchilarni faol va ongli ishlashlariga erishmog'i lozim.

Kompyuter texnikasining keng rivojlanishi va uning funksional imkoniyatlarining kengayishi kompyuterlardan o'quv jarayonining barcha bosqichlarida foydalanishga imkon beradi. Kompyuter dasturlari talabalarga alohida yondashish imkonini beradi. Kompyuterdan foydalanish keng imkoniyatlar ochib beradi, ya'ni kompyuter axborotni har xil shaklda qabul qilish va uzatish, katta hajmdagi axborotlarni eslab qolish, saqlash, tizimlashtirish, saralash, kerakli axborotni tez topish, shuningdek, har qanday turdagi axborotni (matnli, chizmalı va boshq.) tez va aniq o'zgartirish qobiliyatiga ega. Kompyuterlardan xorijiy tillarini o'qitishda xam foydalanishda katta imkoniyatlar mavjud. Kompyuter yordamida o'qitish nuqtali nazaridan ko'rgazmalilik tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi. Agar an'anaviy xolda ko'rgazmalilik bu tasviriy tarkib, o'quvchining predmet va hodisalarni qandaydir shaklda ko'rish ehtiyojini ta'minlash bo'lsa, kompyuter yordamida o'qitishda ko'rgazmalilik real hayotda eng sezgi va aniq moslamalar bilan har doim ham ko'rib bo'lmaydigan tomonlarni ko'rish imkoniyatini beradi. Shuni nazardan chetda qoldirmaslik lozimki, kompyuter nafaqat o'qish, balki eshitish, video ko'rish, shuningdek turli xil tugmachalarni bosish yoki sichqonchani boshqarish yordamida sodir bo'layotgan voqealarga faol ta'sir ko'rsatishga imkoniyat yaratadi.

To'g'ri tashkil etilgan nutk va chet tilida virtual mulokot o'kituvchiga o'rganilayotgan Fan yoki bulimda yoritilayotgan bilim asoslari orasidan eng muximlariga etiborni jalb etish imkonini beradi. Auditoriya bilan bevosita aloqani tashkil etish talabalarning chet tilidan o'quv materialini o'zlashtirishi mumkin bo'ladi. Shuningdek, chet tilida talabalarning uzaro munosabatlari va ular tomonidan berilayotgan savollarning xam inobatga olinishi talim jarayonining samaradorligini taminlashda uziga xos axamiyat kasb etadi. Ingliz tilini o'qitishda pedagogik texnologiyaning asosiy moxiyati talimda talabalarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'lik o'zlashtirishga erishishdir. Talimda berilayotgan bilimlarni talabalarning aksariyat ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi pedagogik texnologiyani joriy etishning asosiy maksadi xisoblanadi. Ushbu texnologiya asosida dars o'tishda eng asosiy talab talabaning xayotiy tajribasi avval o'zlashtirgan bilimlari va qiziqishlari asosida bilim berishni ko'zda tutadi. Talabalarning til buyicha o'rganilayotgan bilimlarni esga tushirish jonlantirish yangi bilimlarni o'zlashtirishga asos bo'ladi. Bilimlar va tayyorgarlikni aniklash talabani faollashtirish va bilim o'zlashtirishga ijobiy motivni keltirib chiqaradi. Mavzuni o'rganishga kirishishdan erkin suxbat, munozara, akliy xujum va boshka shakllardan jonlantirish mumkin. Informatsion texnologiyalar samarasini belgilaydigan didaktik materiallardan keng foydalanish zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy belgilaridan biridir. Ta'lim jarayoni uning sifati va

axamiyati talabning bilimni oshirishga yordam beradigan usul va vositalar o'qituvchining ko'nikma va malakalari yangi pedagogik texnologiya va informatsion texnologiyalar zamonaviy talimning asosiy belgilaridan biri bo'lib, ularning amalga oshirish orqali yuqori samaraga erishiladi. Xorijiy tillarni talabalarga o'qitishda o'quv jarayoni uchun axborotli vositalardan foydalanish darajasi ikki omil bilan aniqlanadi.

1. O'quv jarayoni uchun informatsion vositalar beradigan mavzular yuzasidan didaktik materiallarni ishlab chikish.

2. Ingliz tili o'qituvchilari o'z amaliy faoliyatlarida texnik vositalar didaktik materiallardan metodik jixatdan to'g'ri foydalana olish tayyorgarligini tekshirish.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ta'lim jarayoni, uning sifati va axamiyati, talabning bilimni oshirishga yordam beradigan usul va vositalar, o'qituvchining ko'nikma va malakalari, yangi pedagogik texnologiya va informatsion texnologiyalar zamonaviy ta'limning asosiy belgilari bo'lib, ularni amalga oshirish orqali yuqori samaraga erishiladi. O'rta – maxsus kasb – hunar maktab va akadem litseylarida pedagogik texnologiyalar va informatsion texnologiyalarni birga ko'llansa etishib chikayotgan mutaxassislar bilimi darajasini oshirishga xizmat kiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1) Karimov I.A. "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori", 1997yil.
- 2) Doklad o chelovecheskom razvitii. "O'zbekiston", 1999.
- 3) Sayidahmedova N. "Yangi pedagogik texnologiyalar" "Moliya" Toshkent 2003 yil.

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'QUV-TARBIYA JARAYONIDAGI ROLI

Xolmatova Guzal Islomovna

Qashqadaryo viloyati PYMO'MM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Anotatsiya

Zamonaviy an'anaviy o'qitish- o'qitishning texnik vositalarini qo'llab, didaxografiyadan foydalanishdan iborat bo'ladi. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarda, o'quvchi shaxsi pedagogik jarayon markaziga qo'yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

Ko'zlangan maqsadga erishish uchun uzluksiz ta'lim tizimi tubdan isloh qilinmoqda. Ta'lim jarayoniga tabaqalashtirilgan yondashuv, o'quvchilarni turli kasb-xunar kollejlari, akademik litseylarda taxsil olishlarini ta'minlash zamonaviy pedagogika fani oldiga yuksak vazifalarni qo'ymoqda. Masalan, ushbu o'quv muassasalari uchun davlat ta'lim standartiga muvofiq keluvchi o'quv dasturlarini va darsliklar, o'quv qo'llanmalarini yaratish bugungi kun talablariga javob bermog'i lozim. Har biri turli variantlarda bo'lsagina, maqsadga to'g'ri xizmat qila oladi.

O'quv –tarbiya jarayonlarini tashkil etishda ham an'anaviy usullardan farqli o'laroq, yangicha pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirish va ta'lim jarayonida qo'llash zamon talabidir. Milliy dasturda bu masalaga alohida e'tibor berilgan.

Ilgaridan loyihalashtirilgan ta'lim – tarbiya jarayonining pedagogik texnologiyasi o'zida metod va usullar tizimini, ta'limning metodik usullarini, o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatish imkoniyatlari va vositalarini, o'quvchilarning ijobiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirish maqsadini, yakuniy natijalarga erishishni kafolatlaydi.

Yangi pedagogik texnologiyalarni tuzishda an'anaviy ta'lim va tarbiya metod va

usullaridan qanday foydalanish mumkin. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning "Yangi uyni qurmasdan eskisini buzmaylik" iborasi ta'lim tizimiga ham bevosita taalluqlidir. O'quvchilar bilan an'anaviy o'qitish usulida bevosita aloqa, og'zaki so'rov, yozma ishlar olish, insho olish, mustaqil ishlar, rasm chizish, chizmachilik, amaliy ishlarni qog'oz, yog'och, yung, metall, plastmassa materiallaridan tayyorlash, she'r, monologlarni og'zaki bayon etish va boshqalarni albatta, ta'lim texnologiyasi metod va usullari bilan qo'shib foydalanamiz. Chunki har qanday interfaol usulini olib qarasaq, ("Munozara", "Klaster", "Ajurli arra" yoki "Kichik guruhlar"da ishlash), hammasi an'anaviy ta'lim metod va usullarini qo'llashni talab etadi. Bu fikrimizning isbotini o'quv qo'llanmaning uchinchi qismida guvoh bo'lasiz.

Hozirgacha o'qituvchi – pedagoglarimiz tomonidan foydalanib kelingan va hozir ham darsda foydalanishga aksariyat o'qituvchilar qo'llayotgan an'anaviy metod va usullar haqida qisman to'xtalamiz:

O'quv jarayonining sifati ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida o'qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Metod va usullar o'quvchilar tomonidan bilimlarni ongli va chuqur o'zlashtirishiga, ularda mustaqillik va ijodiy faollikning rivojlanishiga yordam beradi. O'qitish metod va usullarini tanlashda o'qitiladigan fanning xarakteri, bolalar va talabalarning yoshlik xususiyatlari, tayyorgarlik darajasi va boshqalar hisobga olinadi.

Ta'lim metodlari va usullarini tanlash o'qituvchi tomonidan darsda hal qilinishi mo'ljallangan masalaga bog'liq bo'ladi. Ya'ni yangi materialni bayon etishda bir xil metod va usul qo'llanilsa, uni mustahkamlashda boshqa xil usul, mavzuni umumlashtirishda yana boshqa xil metodlar qo'llaniladi. Darsning turli bosqichlarida puxta o'ylangan va samarali usullar va metodlarni tanlash juda muhimdir.

Shunday qilib, o'qitish metodi o'qituvchi va o'quvchilar nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan yo'lidir.

An'anaviy o'qitish metodlarini bilish manba'lari bo'yicha quyidagi uch guruhga bo'linadi:

Og'zaki metodlar (bilimlarni so'z bilan bayon qilish, suhbat, darslik ma'lumotnoma va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash).

Ko'rsatmali metodlar (rasmlar, namoyishlar, kuzatishlar).

Amaliy metodlar (mashqlar, laboratoriyadagi, maktab tajriba yer uchastkasidagi amaliy ishlar).

Har bir o'qitish metodining o'z vazifasi bor. O'qitish metodlarining rag'batlantiruvchi (motivlashgan), ta'limiy, tarbiyaviy va kamol toptiruvchi umumpedagogik vazifalarni bajaradi.

Biz o'qitish metodlarini sanash orqali o'qitish metodlaridan I. Yangi bilimlar berish metodi haqida to'xtalmoqdamiz. Bu metod o'z vazifasiga ko'ra tushuntirish, hikoya, maktab ma'ruzasi kabi metodlar yig'indisidir. Quyida shu metodlarning har birini alohida ko'rib chiqamiz.

Tushuntirish ayrim tushunchalar, voqealar, harakat prinsiplarini og'zaki talqin etishdir. Bu metodni qo'llash uchun avvalo o'qituvchi yangi materialni o'tishda o'qitadigan o'quv predmetining ilmiy mazmunini chuqur bilishi, dars uchun zarur materialni tanlay olishi va tushuntirishning samaradorligini belgilashi kerak. Darsni qiziqarli, mazmunli bo'lishini, o'quvchi va talabalarning psixologik yosh xususiyatlarini yaxshi bilishi, tushuntirishda diqqatini jalb eta olishi, o'qituvchining nutqi yorqin, tushunarli bo'lishi zarur.

Og'zaki bayon qilish metodining keyingi usuli bu hikoyadir. Hikoya – xabar shaklidagi yangi materialni yoritish usuli bo'lib, undan hamma sinflarda foydalansa bo'ladi. Hikoya metodini qo'llashda uning g'oyaviy yo'nalishini ta'minlash, yetarli miqdordagi yorqin va ishonarli misollar, dalillar, to'g'ri, tekshirilgan ma'lumotlar berish, asosiy fikr va muhim jihatlar bayon qilinishi, hikoya tushunarli, sodda tilda aytilishi, o'quv materiali yorqin ifodalanishi kerak.

Maktab ma'ruzalaridan asosan yuqori sinflarda foydalaniladi. Chunki ular hikoyaga nisbatan uzoqroq davom etadi. Ma'ruza – bilimni so'z bilan ifodalash uslublaridan biri sifatida beriladigan bilimlarni og'zaki bayon qilishni ko'zda tutib, o'z hajmining kattaligi, mantiqan qurilishi, obrazli isbotlash va umumlashtirishning murakkabligi bilan hikoyadan ajralib turadi.

Ma'ruza davomida beriladigan bilimni og'zaki bayon qilish, uzoq vaqt davomida o'quvchi – talabalarning diqqatini tutib turish hamda ularning fikrlashini faollashtirish, dalillash, isbotlash, tasniflash, ta'riflar berish, tizimga keltirish, umumlashtirish kabi pedagogik usullardan foydalaniladi. Ma'ruzalarga asosan talaba va kollej, akademik litsey o'quvchilari jalb qilinadi. Umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarini oliy o'quv yurtiga o'qishga tayyorlash maqsadida ayrim fanlardan ma'ruzalar tashkil qilinadi. Ma'ruza rejasini aniq o'ylab, uni texnologiyalashtirish zarur. Reja bandlarining barchasida, ularning har birining maqsad, yakun va xulosalarini izchil bayon qilishda mantiqiy uyg'unlik bo'lmog'i kerak. Ma'ruza shunday sur'atda o'qiladiki, talaba, o'quvchi ma'ruzaning muhim joylarini yozaolsinlar. Shuning uchun ham o'qituvchi ma'ruzaning yozib olinadigan joylarini aniq ajratishi, zarur bo'lsa yozib olishlarini yengillashtirish uchun takrorlashi lozim. Ma'ruza zerikarli bo'lmasligi uchun talabalarning fikrini faollashtirish maqsadida ma'ruza davomida muammoli vaziyatlarni shakllantirish yaxshi pedagogik samara beradi.

Suhbat ta'limning keng tarqalgan usuli bo'lib, darsning istalgan bosqichida qo'llanishi mumkin. Suhbatning bir necha xili mavjud bo'lib, ular yangi bilimlar berishda, bilimlarni mustahkamlashda, olingan bilimlarni tekshirishda, o'tilgan materialni takrorlashda qo'llanilishi mumkin.

Suhbat uslubi atroflicha o'ylangan savollar yordamida o'qituvchi bilan talabalar orasidagi suhbatni ko'zda tutib, u o'quvchi yoki talabaning fikrlash tizimini, yangi tushunchalar va qonuniyatlarni o'zlashtirishga olib keladi.

Suhbat uslubini qo'llaganda savollarni qo'yish (yo'naltiruvchi, qo'shimcha, asosiy va h.k.z) talabalarning javob va mulohazalarini muhokama qilish, suhbatdan chiqqan xulosalarni muhokama qilib, javoblarni tuzatish usullaridan foydalaniladi. O'qituvchi mavzuni muhokama qilish uchun imkon beruvchi yordamchi, yo'naltiruvchi savollardan foydalanishi mumkin. Shunday suhbatlar tashkil qilish mumkinki, talabalar ilgari o'zlashtirgan bilimlarini eslaydilar, ularni tartibga soladilar, umumlashtiradilar, xulosa chiqaradilar. Bunday suhbatlar asosan tushuntirish xarakteriga ega bo'lib, oldin o'zlashtirgan bilimlarga suyanadi.

Talabalar xotirasini faollashtirishni nazarda tutadi.

Suhbat uslubiga tarkibiy qism bo'lib kiruvchi usullardan foydalanishda o'qituvchining pedagogik nazokati yetakchi o'rin egallaydi.

Ayniqsa, yangi bilimlar berishda evristik suhbatdan foydalanish talabalarni og'zaki savollar orqali mavzuni muhokama qilish uchun qo'llaniladi. Bunday suhbat davomida savollar qisqa va aniq bo'lishi, talabaning fikrini uyg'otishi, o'ylashga, tahlil qilishga, taqqoslashga majbur etishi, yangi hodisalarni ongli ravishda tushunishga undashi kerak.

II. Ta'limning ko'rgazmali metodini shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin:

ko'rgazmali usul;

namoyish etish usuli.

Ko'rgazmali usul talabalarga namoyish etiladigan qo'llanmalar – xarita, plakat, doskadagi chizma va rasmlar, buyuk mutafakkirlarning surati va boshqalarni ko'zda tutadi.

Namoyish qilish uslubiga odatda, tajriba asboblari, tajribalarning o'zi, shuningdek, diafilm, kinofilm ko'rsatishlarni ham kiritish mumkin. Bu uslubni qo'llashda quyidagi usullardan foydalaniladi. Namoyish etishni qo'llashda ko'rinishni to'liq ta'minlash, ko'rilgan voqea va hodisalarni, natijalarni muhokama qilish zarur.

Keyingi yillarda pedagogika amaliyotida ko'rgazmali usul bir qator yangi vositalar bilan boyidi.

Darsda o'quv kinofilmlarini qo'llash ta'lim amaliyotida odatdagi hodisa bo'lib qoldi. Asosiy o'quv kinofilmlarining ro'yxati, har bir fanning o'quv dasturiga kiritilgan. Umumta'lim maktabi, kasb – hunar kolleji va litsey, hatto oliy o'quv yurtlari uchun hamma fanlarga taalluqli bo'lgan ko'plab kinofilmlar yaratildi. (Namoyish qilish uslubiga misol tariqasida biz tomonimizdan tayyorlangan "Tabiatshunoslik darslarida ovozli o'quv kinofilmlaridan va diafilmlaridan foydalanish" o'quv qo'llanmasini ko'rsatish mumkin. Toshkent, "O'qituvchi", 1979 yil. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun o'quv qo'llanma).

Ta'limning ko'rgazmali uslublaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular so'z bilan ifodalash uslubi bilan u yoki bu darajada uygunlashib ketadi.

III. O‘qitishning amaliy metodlariga mashqlar, laboratoriya ishlari, maktab tajriba uchastkasidagi ishlar kiradi.

Mashqlar deganda talaba va o‘quvchilar bilimini mustahkamlash hamda amaliy faoliyatda ularni qo‘llanish malakalarini hosil qilish uchun topshiriqlarni ko‘p marta bajarishi tushuniladi. Har bir mashqni bajarish xarakteriga ko‘ra og‘zaki, yozma, grafik va o‘quv – mehnat mashqlariga ajratish mumkin.

Amaliy ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirishga mo‘ljallangan o‘quv mashqlarini o‘tkazishdan oldin ular mashq o‘tkazilishi lozim bo‘lgan mavzu haqida to‘liq bilimga ega bo‘lishlari kerak.

O‘qitishning amaliy metodlarining yana bir muhim turi – laboratoriya ishlaridir. Laboratoriya ishi deb, shunday mashg‘ulot turiga aytiladiki, bunda o‘quvchi, talaba o‘qituvchi rahbarligida yoki mustaqil ravishda maxsus asbob – uskunalarda turli tajribalar, kuzatishlar va o‘lchashlar o‘tkazadilar. Bunday mashg‘ulotlar tabiiyot, umumtexnikaviy fanlarni va maxsus texnologiyani o‘rganishda qo‘llaniladi. Laboratoriya ishlari maxsus jihozlangan kabinetlarda, laboratoriyalarda, zarur asbob – uskunalarga ega bo‘lgan sharoitda o‘tkazilishi mumkin.

Laboratoriya ishlarini bajarish vaqtida talabalar o‘rganilayotgan obyektни kuzatadilar, ularni miqdoriy va sifat xarakteristikalarini aniqlaydilar. Laboratoriya ishlari nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Albatta, ilg‘or pedagogik texnologiyalar bizning fanimizga endigina kirib kelmoqda. Aslida esa ta‘limga texnologik yondashuv masalasi rivojlangan demokratik xorijiy davlatlard bundan 30-yillar muqaddam paydo bo‘lgan va ular bu sohada katta yutuqlarni qo‘lga kiritgan.

Bugungi kunda biz pedagogika sohasidagi ilg‘or texnologiyalarni kengroq va chuqurroq o‘zlashtirishimiz, ularni o‘z mintaqamizga mos holda qayta ishlab chiqishimiz kerak bo‘ladi. Pedagogik texnologiya tushunchasiga hozirgi kunda turlicha ta‘riflar berilmoqda. Muhimi shuki, pedagogik texnologiya ko‘zlagan maqsadga kafolatlangan natija sifatida erishishni ifodalovchi jarayondir.

Adabiyotlar

1. Karimov. “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. T.,1997.
2. Yo‘ldoshev.J.G‘.Yangi pedagogik texnologiya yo‘nalishlari, muammolari, echimlari //Xalq ta‘limi, 1999, №4. B.4-11.
3. Saidaxmedov N. «Yangi pedagogik texnologiyalar mohiyati”. “Xalq ta‘limi” jurnali. 1999,1-son
4. Farberman. B.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. T.,2001
5. Ochilov M.Yangi pedagogik texnologiyalar. “Nasaf” nashriyoti. 1999.
6. Sayidaxmedov. N. Yangi pedagogik texnologiyalar. T.,”Moliya”, 2003. 171 b.
7. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T., 2003.
8. CHoriev A. Yangi pedagogik texnologiyalar. Ma‘ruzalar matni, Qarshi 2000.
9. 9.T.G‘afforova va boshqalar. Ta‘limning ilg‘or texnologiyalari. Qarshi 2003. 112 b.

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA ZAMONAVIY USULLARDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Rajabova Xurshida Hakimovna

***QVPYMO‘MM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim kafedrası
o‘qituvchisi***

Annotatsiya

Boshlang‘ich ta‘limni zamonaviy usullar yordamida rivojlantirib borishda boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchi va o‘quvchilarining o‘rni haqida yoritib berishdan iborat. Bu maqolada berilgan fikrlar asosida bolani tarbiyalash maqsad qilingan.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy ta‘limda o‘qitish metodlari va usullaridan foydalanib o‘qitish, boshlang‘ich ta‘lim, tendensiya, ta‘lim tizimi, tafakkur, o‘qituvchi, o‘quvchi, ko‘nikma, ong, tarbiya, ona tili, matematika.

Аннотация: в развитии начального образования с помощью современных

методов необходимо пролить свет на роль учителей начальных классов и учащихся.

Ключевые слова: Обучение с использованием методов и методов обучения в современном образовании, начальное образование, направление, образовательная система, мышление, учитель, ученик, умение, сознание, образование, родной язык, математика.

Annotation: in the development of primary education with the help of modern methods, it is necessary to shed light on the role of primary education teachers and students.

Key words: Teaching using teaching methods and methods in modern education, primary education, trend, educational system, thinking, teacher, student, skill, consciousness, education, mother tongue, mathematics.

Zamonaviy boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi o‘quv - bilim jarayonining rahbari hisoblanadi. Shu sababdan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi jarayonga to‘g‘ri rahbarlik qilish uchun, chuqur bilimga ega bo‘lishi kerak. Shu bilan birga yuksak kasb mahoratiga ega bo‘lishi lozim. Ega bo‘lgan bilim, ko‘nikma malakalarini darslarda faol foydalanishi lozim. O‘qituvchi ko‘p jihatdan o‘quvchiga o‘rnakdir. Shuning uchun ham u birinchi navbatda bolani o‘ziga jalb eta olishi kerak. Yangilanayotgan boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi o‘qituvchining shaxsiy sifatleri, kasb mahorati va bilim darajasini diagnostika qilish asoslarini ishlab chiqishi lozim. Tekshirish natijalari asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash va ta‘lim amaliyotiga joriy etilishi kechiktirilib bo‘lmaydigan vazifalardan biridir. Boshlang‘ich maktab yoshidagi o‘quvchilarning ta‘lim faoliyatini yaxshilashning eng samarali shakli – bu o‘qituvchining bilimliliigi va mahoratida. Shu sababli avvalo ta‘lim sifatini yaxshilashning yo‘li birinchi navbatda kasbini sevuvchi hamda mahoratli o‘qituvchi tayyorlashda. O‘qituvchi mahoratli bo‘lsa, albatta o‘quvchilar bilimli va har tomonlama yetuk bo‘ladi. Buning uchun avvalo o‘qituvchining o‘zi har tomonlama barkamol bo‘lishi talab etiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “ Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida shunday so‘zlarni ta‘kidlab o‘tgan “ Jonajon Vatanimiz – O‘zbekistonni eng rivojlangan davlatlar, qatoriga olib chiqish sharaflil va ayni paytda nihoyatda

mas'uliyatli vazifa" . Biz rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishimiz uchun ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratilyapdi. Buning dadili sifatida O'zbekiston hududining har bir viloyatida "Prezident maktablari" qurilayotgani.

Zamonaviy boshlang'ich ta'lim uchun istiqbolli, ustuvor yo'nalishlardan biri bu shaxsning umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosida rivojlantirishdan iboratdir. O'quvchilarda har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan tarbiya jarayonidir. Bugungi kunda o'zida ta'lim va tarbiya elementlarini mujassamlashtirgan boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil etish dolzarb mavzulardan biridir. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni o'qitish va ulardan milliy hamda umuminsoniy tarbiya elementlarini singdirish yo'li amaliy jihatdan tadbiq qilinishi lozim. Bunda o'quv materialini shaklida berilgan ta'limiy matnlarda o'quvchilarda turli shakllarda axloqiy – ma'naviy tarbiya va milliy nafosat meyorlarini, diniy hamda umuminsoniy qadriyatlarni singdirish nazarda tutiladi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida ona tili va matematika ta'limining ahamiyati

beqiyosdir.

Bugungi zamon o'qituvchi va o'quvchi oldiga katta talablar qo'yimoqda, bu talablarning asosiysi-darsning samaradorligi, sifatligi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga maktablardagi turli xil o'quv mashg'ulotlari, ularni tashkil qilinishi va u orqali o'quvchilarni turli bilim va ko'nikmalarni egallab olishidir. Bugungi kun talabidagi darsni tashkil qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni beqiyosdir. Chunki, ular orqali multimedia, animation, grafika, diafilm, video filmlardan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli bo'lishiga yordam beradi.

Davr ta'lim sohasiga, jumladan, boshlang'ich ta'lim oldiga ijtimoiy hayotning hozirgi talablariga javob beradigan, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish vazifasi hamda ta'lim va tarbiya elementlarini mujassamlashtirgan boshlang'ich ta'lim jarayonini alohida mas'uliyatga egaligi sir emas. "Avesto" hozirgi o'zbek millati, uning etnik ongi va o'ziga xosligining ildizlarini vujudga keltirgan davr (VII asrgacha) uchun qoidalar va qonunlarning to'plami hisoblangan. Mazkur davr o'zbeklarining milliy harakterini shakllantirgan."Avesto"da ta'lim va tarbiya quyidagilarni o'z ichiga olgan: diniy va axloqiy tarbiya; jismoniy tarbiya; o'qish va yozishga o'rgatish. Bu davrda o'qitish jarayonida hamkorlik qoidalariga alohida e'tibor berilgan, ko'rgazmali qurollardan, hikoya qilish va suhbat usullaridan keng foydalanilgan. Darsda o'quvchilarning o'tilgan mashg'ulotni shovqinsiz takrorlash talab qilingan. Bolalarda ilk yoshlikdan mehnatsevarlik va pedagogika ko'nikmasini shakllantirishga e'tibor berilgan hamda maishiy mehnat turlariga o'rgatilgan. Kishilar ongiga ma'lumotlilik orqali yaxshiroq kun kechirish g'oyalari singdirilgan. Bu esa o'z navbatida "maktab" va muallim mavqeini yanada mustahkamlagan.

Ta'limning asosiy vazifasi ham o'quvchilarning kun sayin oshib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan foydalanishga o'rgatishdan iborat. Shubhasiz, bunday avlodni voyaga yetkazish mamlakatimizda ustuvor soha etib belgilandi hamda pedagoglarning oldiga qo'yilgan asosiy va sharafli vazifalardan biri etib belgilandi.

Ta'kidlash joizki, bunday sharaflil va mas'uliyatli vazifani bajarish, ya'ni fundamentni mustahkam qo'yish boshlang'ich sinf zimmasiga yuklatildi. Ta'lim tizimining har bir bosqichi kabi boshlang'ich ta'lim DTS ta'lim mazmuni negizini o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini hamda o'quvchilar tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni o'zida ifodalaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini DTS talablari darajasida yetuk mutaxassis qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda, ayniqsa, birinchi sinfda o'quvchilarga o'qitishda o'quvchining yoshi, fiziologik, texnikaviy axborot olish kerak. Ta'limda o'yin texnologiyalaridan yordam, eng samarali ishlab chiqarishdan biridir. O'yin yordamchi tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlashi kengayib boradi. Olimlar ta'limga o'yin orqali yordam berish, deb hisoblagan. Nafaqat osonlashtirish, balki bu fanga yordamini olishib, bolani bilim olishga undaydi. O'yin tarzidagi darslarning og'zaki nutqini bolalarga yordam beradi. Birinchi sinf o'quvchilari rasmi yoki videoli turli ko'rishlarni juda yaxshi ko'rishadi. Turli xil rangli rasmlar orqali, hujjat nutqlarini o'stirishda o'yinlardan muntazam turish lozim. Ayrim o'quvchilar so'zning grafik, ayrimlari esa tovushli obrazni qabul qilishda qiyinchilikka duchorlar.

Biz qo'llayotgan zamonaviy metodlarni zamonaviy axborot vositalari bilan uyg'unlashtirsak bugungi kun talabiga to'liq javob bergan bo'ladi. Oddiy qog'ozda tarqatmali materiallar bilan ishlagandan ko'ra, ana shu materiallarni ekranda ko'rsatib, topshiriqlarni bajartirsak, o'quvchilarda axborot texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalari paydo bo'ladi. Bu esa ularning kelajakdagi faoliyatlari uchun katta poydevor vazifasini o'taydi. Shu bilan birgalikda ularda yakka va kichik guruhlarda ishlash, do'stlari bilan jamoa tarzida harakat qilish kompetensiyalari paydo bo'ladi. Dars qiziqarli, sifatli va unumli o'tadi, ko'proq bilim egallashga imkoniyat paydo bo'ladi. Real voqealarga asoslangan mavzuga doir videolar qo'yib berish orqali o'quvchilarning tezroq dunyoni anglashlariga keng yo'l ochiladi. Kompyuterning o'yin imkoniyatlaridan didaktik o'yinlar bilan birgalikda foydalanish dars jarayonini yanada osonlashtiradi. Darsda olingan bilim, ko'nikma va malakalarning katta qismi hali kichik yoshdagi o'quvchilar tomonidan sinfdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanilmaydi, ularning amaliy qiymati yo'qoladi va kuch sezilarli darajada kamayadi. Olingan bilim va ko'nikmalarni o'yin kompyuteri muhitida qo'llash ularni o'zlashtirishga va egallashga, motivatsiyaga olib keladi. Yosh o'quvchilarning yuqori hissiylik darajasi o'quv jarayonining qat'iy doirasi bilan sezilarli darajada cheklanadi. Kompyuterdagi mashg'ulotlar yuqori hissiy taranglikni qisman bartaraf etishga va o'quv jarayonini jonlantirishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlashlarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lash hamda darsga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Ismatova.Sh.B. “Boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish afzalliklari”.- “ Science and education” scientific Journal,2020. www.openscience.uz.
3. “Tarbiya” majmua.
4. Umarova.M.R.” Boshlang‘ich ta’limda AKTdan foydalanish ahamiyati”. –” Talqin va tadqiqotlar” ilmiy jurnali,2022.

O‘QUVCHILARDA KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY PSIXOLOGIK ASOSLARI

O‘razalieva Feruza Norqul qizi, Nazarova Shoxista Azzamkulovna

Sirdaryo tuman 31-maktab psixologi, Sirdaryo tumani 21- maktabi psixologi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘smirlar tomonidan kasb tanlash muammolari, kasb tanlash yo‘llari va usullari muhokama qilingan. Shuningdek, o‘quvchilarni kasbhunarga yo‘naltirishning nazariy psixologik asoslari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Kasb-hunar, o‘smir, nazariya, ehtiyoj, motiv, layoqat, qiziqish, qobiliyat.

Kasb tanlash jarayoni ijtimoiy ahamiyat kasb etsa-da, lekin uning ortida jismoniy individual (yakkahol) shaxs turadi. Holbuki shunday ekan, har bir kasb tanlovchi shaxsiyatiga individual munosabatni amalga oshirish zarur. Buning uchun kasb tanlovchining yosh va jins xususiyatlariga binoan kasb maorifini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bunda birinchi navbatda shaxsning kasbiy ehtiyoji, motivi, layoqati, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish darkor. Aks holda umumiy xususiyatli yo‘llanma, ko‘rsatma ijobiy natijaga olib kelmaydi, chunki individuallik o‘ziga xos talablarni taqozo etadi. Hatto oddiy kasb maorifi ham turlicha yondashuvni talab qiladi, binobarin, uni qondirmasdan turib, tub maqsadga erishib bo‘lmaydi. Yoshlarning kasb egalari bo‘lishlarida kasbiy motivlarning ahamiyati o‘rinlidir. Kasbiy motiv va motivasiya muammosi xorij psixologlari tomonidan keng doirada tadqiq qilingan bo‘lib, jumladan, kasbiy motivlar borasida YE.A.Klimov, V.A.Kruteskiy, A.N.Vasilkova, E.Disi, V.Vrum, M.V.Dmitriy va boshqalarnikiritishimiz mumkin.

Shaxsning ish faoliyati bilan bog‘liq motivasiyalarni 3 guruhga ajratish mumkin; birinchisi - mehnat faoliyati motivlari, ikkinchisi kasb tanlash motivlari va uchinchisi-ish joyini tanlash motivlari. Aniq faoliyat esa barchasini jamlangan holda izohlanadi, ya’ni, bunda mehnat faoliyati motivlari, kasb tanlash motivlarining shakllanishi, shuningdek, qolgan ikkita motiv orqali esa ish joyini tanlash motivlari ham yuzaga keladi. Mehnat faoliyati motivlari xilma-xil bo‘lib, ular o‘ziga xos omillar bilan belgilanadi. Birinchi guruh omillariga jamoaviy xarakterning uyg‘onishi bilan bog‘liqlari kiritilib, bunda jamoaga foyda tegishini anglash, boshqa insonlarga yordam berish istagi, mehnat faoliyatida ijtimoiy

ustanovkaning zarurligi va boshqalarga nisbatan tobelikni hohlamaslik kabi motivlar hisoblanadi. Ikkinchi guruh omillari o'zi va oilasi uchun moddiy mablag'ning orttirilishi, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishi uchun pul ishlab topish motivlaridir. Uchinchi guruhga o'zini o'zi faollashtirish, rivojlantirish, o'zini namoyon qilish ehtiyojlarining qondirilishi va boshqalar kiradi. Ma'lumki, insonlar tabiatdan biror-bir faoliyat bilan shug'ullanmasdan turolmaydilar. Inson nafaqat iste'molchi balki yaratuvchi bo'lib, yaratish jarayonida u ijoddan ilhom oladi. Bu guruhga mansub motiv jamiyat tomonidan ehtiyojlarning qondirilishi va boshqalarning hurmatini qozonish bilan bog'liq. Maktab o'quvchilarining mehnat tarbiyasi ham shu motiv bilan bog'liq ravishda shakllantiriladi. Mehnat faoliyatining umumiy motivlari yuqorida aytib o'tilganidek, aniq kasblar doirasida amalga oshadi. Kasb tanlash anchagina qiyin va motivasion jarayondir. Axir shaxsning to'g'ri kasb tanlashi ko'pincha insonning hayotdan qoniqishga ham sabab bo'ladi. Insonning qaysi faoliyatini tanlashi ko'proq tashqi omillar haqidagi qarorning qabul qilinishi jarayoni haqida to'xtalishi muhimdir. Bu asosan tashqi holat baholariga, o'zining imkoniyat va qobiliyatlariga, kasb tanlashdagi qiziqish va moyilliklariga bog'liqdir.

Tashqi holatini baholash, ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillar, o'zida ishlab topiladigan pul miqdori, imtiyoz, taklif etilayotgan korxonalar, muassasaning yashash joyiga yaqin bo'lishi, transport aloqalarining qulayligi, ish joyi estetikasi va ishlab chiqarishning zararli tomonlari, jamoadagi psixologik iqlim, maqtov va tartibga chaqirish kabilarni qamrab oladi. O'z imkoniyatlarini baholash sog'lomligi, ishga yaroqliligi, kasbi bo'yicha muhim sifatlarga egaligi, bilim darajasi, stresslarsiz ishga moyilligi, yuqori shovqinli ishda talab etilgan temp va xotirjam ritm bilan ishlay olish imkoniyati kabilarni o'z ichiga oladi. Qiziqishlarga mos ravishda tanlangan ish joyini baholash, ayni vaqtda ishlayotgan muassasasi, korxonadagi imkoniyat to'siqlari, ishni boshqarish, kasbiy o'sish, tashabbusning paydo bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Ongli ravishda kasb tanlash uchun o'quvchilarning bir qator kasblarni yetarlicha bilishi, bilganda ham ularning kishini o'ziga jalb qiladigan tomonlarini emas, balki qiyinchiliklarini ham yaxshi bilishi, o'zining shaxsiy sifatlariga ko'ra tanlangan kasbini muvaffaqiyatli egallay olishi va keyingi ish jarayonida o'z malakasini takomillashtirishi talab qilinadi. Hozirgi vaqtga qadar kasbga yo'naltirish ishlari yetarlicha yuqori saviyada olib borilmadi, ko'pincha rasmiy tusda bo'ldi. Natijada maktabni tamomlaganlarning kasb tanlashi tasodifiy bo'ladi. Yoshlarning ko'pchiligi u yoki bu kasbni nimadan iborat ekanligini aniq tasavvuf kilmas edi. Hunar-texnika bilim yurtlarining besh mingga yaqin o'quvchilari bilan savol-javob kilinganda shu narsa aniqlandiki, ularning faqat 5% i kasbini maktabning tavsiyasiga binoan, 30% i o'rtoqlarining maslahatiga ko'ra, 15% i ro'znoma, radio, televideniye orqali berilgan e'lonlarga, ko'shnilar, tanish-bilishlarning maslahatlariga muvofiq 15% i ota-onalarning maslahati, 12% i hunar-texnika bilim yurtlari xodimlarining tavsiyalari bo'yicha tanlanganlar. Albatta, bu ma'lumotlar xar davrda va xar xil mintakalarda obyektiv xolda turlicha, ammo shu narsa ravshanki, o'quvchilarning aksariyat ko'pchilik kasblarni tasodifiy ravishda tanlaydilar. «Siz nima uchun shu kasbni tanladingiz?, - degan savolga 41,1% o'quvchi:» Bu haqda o'ylab ko'rganim yo'q», - deb javob bergan.

Kasbni anglamay turib, tasodifiy anglash shunda namoyon bo'ladiki, o'kishning dastlabki paytlarida o'quvchi qandaydir qiziqish bilan karaydi. Keyinchalik esa bu qiziqish sunib boradi. Hunar-texnika bilim yurtida birinchi yil o'qiyotgan o'quvchilardan so'raganda ularning 14,9% i, ikkinchi yil o'qiyotganlardan so'ralganda esa 10,7% i tanlagan kasbidan mamnunligini aytgan. Hozirgi vaqtda yoshlarni kasbga yo'naltirish masalalari bilan davlat, jamoat va yoshlar tashkilotlari, sanoat korxonalari shug'ullanadilar. Biroq bu ishda maktab asosiy o'rin egallaydi. Hozirgi kunda bozor munosabatlarini va uzluksiz ta'limga o'tish munosabati bilan maktab yoshlarni ongli ravishda kasb tanlashga, jamiyat uchun foydali va zarur bo'lgan muayyan mehnat faoliyatiga tayyorlashda yana ham katta rol o'ynaydi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ularning xar biriga aloxida-aloxida yondashishni talab etadi bunda shaxsning temperamenti, irodasi, dikkati, belgilangan maksadga erishishda kat'iylik, tashabbuskorlik, uyushkoklik, intizomlik, topgairilgan ishni bajarishga ma'suliyat bilan munosabatda bo'lish kabi fazilatlarini e'tiborga olish zarur. Bundan tashqari, kasbga yo'naltirish davomida kasbni tanlash sabablarini; kasbning ijtimoiy ahamiyati, qiziqish va xavas, kasbga tayyorgarlik, oila an'analari, ota-onalar, pedagoglar, o'rtoqlarining maslahatini hisobga olish lozim. O'quvchilarni uzok vaqt o'rganish natijasida sinf rahbarlari ularning xar biriga tavsifnoma tuzadilar. Bunday tavsifnoma kasb tanlash va o'quvchiga u yoki bu kasbni tanlagani taklif qilish uchun asos bo'ladi.

Kasbga layokatlikni tanlash maxsus komissiya tomonidan amalga oshiriladi. Unga o'qituvchilar, psixologlar, ishlab chiqarishdagi muxandis yoki boshka mutaxassislar, sotsiologlar, vrachlar kiradi. Ular xar bir o'quvchiga qanday kasb tanlash kerakligini aytadilar va buning sababini asoslab beradilar. Masalan, xolerik temperamentli bola yaxshi andoza yasovchi usta slesar bo'la olmaydi, chunki unga mikronning o'ndan bir ulitigacha aniqlikka erisha borib, uzok vaqt o'lov asboblarni ishlash qiyinlik qiladi, yoki melanxolik tez javob berishni talab qiladigan mashinalarni boshkarishni muvaffaqiyatli egallab ololmaydi. Sezgi a'zolarida biron-bir nuqsoni bo'lgan bolalarga bu kasblarni tavsiya qilib bo'lmaydi. Masalan, ba'zi rang-tuslarni farq kila olmaydigan (daltonik) bolani xar qanday transport turini boshkarishga ko'yib bo'lmaydi. Ko'rishida shunday kamchiligi bo'lganlar metallurg bo'lib ishlashi mumkin emas. Vestibo'lyar apparati buzilgan o'quvchilar uchuvchi, dengizchi, yuqori inshootlar montajchisi bo'la olmaydilar. Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarining bugungi qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota – ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan ongli yashaydigan komil insonlar etib voya yetkazish – ta'lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim – tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi. Yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash - g'oyat muhim vazifadir. Shu boisdan yoshlarning kasb tanlash muammosi o'rta umumta'lim maktabi ishida katta o'rin tutadi.

Xulosa: «Kim bo'lsam ekan?» degan savol har bir yigit va qiz uchun eng asosiy muammolardan biridir. Odamning shundan keyingi butun hayoti ana shu muammoni hal qilishga bog'liq. Kasbni to'g'ri tanlash mehnatda va ijtimoiy faoliyatda eng yuksak ko'rsatkichlarga erishishga yordam beradi, mehnat jarayonida va uning natijalaridan qoniqish esa ijodkorlikni eng ko'p namoyon etish, eng yaxshi hissiy kayfiyatda bo'lish, tanho bir kishining ham, umuman jamiyatning ham barcha hayotiy rejalarini bir muncha to'la amalga oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'oziev E.G'. O'quvchilarning umumlashtirish usullariga o'rgatish va ularning aqliy taraqqiyoti. T., 1983 y.

2. Практикум по психодиагностике, Дифференциальная психометрика. (Под ред. В.В.Столина, А.Г.Шмелева. М: Изд-во М., Ун-та, 1984 г. 154

3. Практическая психология образования: Учебник для студентов высших и средних учебных заведений. Под ред. И.В.Дубровиной. - 2- е издание. - М.: ТЦ «Сфера», 1998.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARINING O'ZIGA XOSLIGI

O'razalieva Feruza Norqul qizi, Nazarova Shoxista Azzamkulovna

Sirdaryo tuman 31-maktab psixologi, Sirdaryo tumani 21- maktabi psixologi

Annotatsiya. Hozirgi kunda ijtimoiy amaliyotda muloqot va shaxslararo munosabatlar muammosi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Muloqot va uning asosiy xususiyatlari, samarali muloqotning psixologik aspektlari, muloqotga o'rgatishga oid psixologik mashqlar, samarali muloqotning psixologik vositalarini o'rganish ishbilarmonlik faoliyatida asosiy o'rinni egallamoqda. Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatni o'zlashtirish va o'z ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Kalit so'zlar: ijtimoiy noverbal signal, kommunikativlik, interksionizm, kichik maktab yoshi, maktab ta'limi, psixodiagnostika, intellekt.

Shaxsning barkamolligi ko'p jihatdan uning aqliy rivojlanishi va ma'naviy jihatdan shakllanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Bugungi kunda inson muammosi aniq va gumanitar fanlarning umumiy tadqiqot obektiga aylanib bormoqdaki, bevosita psixologiya fani bu borada nazariy va amaliy ta'limotlarning inson ruxiy kechinmalarini o'rganishda zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanilmoqda. Amerikalik olim Megrabyanning ma'lumotlariga ko'ra, birinchi uchrashuvda biz boshqalardan kelayotgan noverbal signallarga 55%ga ishonamiz, ulardan ta'sirlanamiz; 38% – paralingvitsik va 7%gina nutqning bevosita mazmuniga ishonamiz. Shuning uchun xam obrazli tarzda —Kiyimga qarab kutib olinadi, aqlga qarab kuzatiladi deyiladi. Keyingi uchrashuvlarda bu mutonosiblik, tabiiy, o'zgaradi.

Ijtimoiy munosabatlar insonlarning siyosiy munosabatlaridan tortib, uning shaxslararo munosabatlari xususiyatlarini o'z ichiga olgan murakkab jarayondir. Bu jarayonni turli nazariy oqim vakillari o'zlaricha o'rganishlari ma'lum. Masalan, interksionizm vakillari uni shaxslararo o'zaro ta'sirning turlicha namoyon bo'lishi

shaklida tushunsalar, ijtimoiy almashinuv nazariyasi tarafdorlari – odamlarning birbirlariga nisbatan talablari, kutishlari va manfaatdorliklarining o‘zaro almashinuvi jarayoni sifatida tasavvur qiladilar. Kichik maktab yoshi davriga 6-10 yoshli boshlang‘ich (I-IV) sinflarning o‘quvchilari kiradi. Bola maktab ta’limiga bog‘chada tarbiyalanayotganida tayyorlanadi. Bunda u maktabda o‘quvchilarga quyiladigan har xil talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o‘rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor bo‘ladi. Ta’limga psixologik tayyorlik deganda, bolaning obhektiv va subhektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi. U maktab ta’limiga avval psixologik jihatdan tayyorlanadi, binobarin, uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada rivojlanadi, shu yoshdagi bola idrokining o‘tkirliги, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o‘zining qiziquvchanligi, dilkashligi, xayrixohligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta’limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo‘ladi. Bola diqqatining xususiyatlari rolli va syujetli o‘yinlarda, rasm chizish va qurish-yasash mashg‘ulotlarida, loy hamda plastilindan o‘yinchoqlar tayyorlashda, o‘zgalar nutqini idrok qilish va tushunishda, matematik amallarni yechishda, hikoya tinglash va tuzishda ko‘rinadi. Muloqot jarayonida muloqotdoshlarning tasavvurlari, qiziqishlari, his-tuyg‘ulari, ko‘nikmalari, voqelik natijasini oldindan sezish, payqash, ta’sir o‘tkazish uslubi tarkib topishi mumkin. Muloqot tashqi ta’sirlar, namunalar asosida o‘zini-o‘zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatini ruyobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari yetaklaydi. A. V. Zaporjets, M. I. Lisina tadqiqotlarida ko‘rsatilishicha, bolaning dastlabki ijtimoiy ehtiyojlaridan biri - bu muloqotga nisbatan ehtiyojdir. A.V.Zaporjets va M. I. Lisinalar tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, bolalarning kattalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji 7 yoshgacha bir nechta bosqichlar tarzida rivojlanib boradi:

- 1) e’tibor va hayrixohlikka ehtiyoj paydo bo‘ladi;
- 2) kattalar bilan hamqorlik qilish ehtiyoji tug‘iladi;
- 3) avvalgi barcha ehtiyojlarga kattalar tomonidan hurmat qilish ehtiyoji tug‘iladi;
- 4) maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada atrofdagilar bilan o‘zaro bir-birini tushunish ehtiyoji vujudga keladi.

Fransuz psixologi P.Jane(1857-1947) psixik rivojlanishning biologik va ijtimoiy munosabatlar muammosi bilan shug‘ullandi. Uning nazariyasiga binoan inson psixikasi ijtimoiy munosabatlarga bog‘liq, zotan jamiyat va tabiat o‘rtasidagi turli aloqalar sistemasining shakllanishi insonning o‘shini belgilaydi, u aloqa deb, xatti-harakatni tushunadi. Bu esa kishining atrof muhitga shaxsiy munosabatidan boshqa narsa emas, albatta. P.Janening fikricha, eng qimmatli, ahamiyatli, ijtimoiy harakat hamkorlikdagi faoliyatda o‘z ifodasini topadi, shaxslararo tashqi munosabatlar rivojlanishning prinsipi hisoblanadi.

P.Jane o‘z tadqiqotlarida psixikaning to‘rt darajasi: a) motor reaksiyasiyaining o‘shisi; b) perseptiv harakatning o‘shisi; v) shaxsiy-ijtimoiy harakatning o‘shisi(o‘zining harakatini boshqa kishilarga moslashtirish); g) intellektual sodda

xatti-harakatning o'sishi(nutq va tafakkurning rivojlanishi) mavjud ekanliginn asoslagan.

AQShlik psixolog Dj.Bruner(1915) shaxsning tarkib topishi bilan ta'lim o'rtasida ikki yoqlama aloqa mavjudligini aytib, insonning kamolot sari intilishi bilim olish samaradorligini oshirsa, o'qitishning takomillashuvi uning ijtimoiylashuvi jarayonini tezlashtiradi, deb uqtirgan.Bugungi kunda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'z atrof-muhitidagilar bilan muloqotga kirishishlari yordamida o'zlarini jamiyatga moslab boradilar.O'quvchilarning bilim doirasi kengaygani sayin ular qat'iy hukmlardan taxminiy hukmlarga ko'cha boshlaydilar, yahni narsa va hodisalarniyag turli xususiyatlarga egaligini, voqelik atigi bir harakatdan, bir sababdan emas, balki ko'p sabablardan paydo bo'lishligini anglash bosqichiga ko'taradilar. Taxminiy hukmlar ikkinchi sinfdan boshlab namoyon bo'ladi. O'quvchilar «Nega bugun falonchi darsda ko'rinmaydi, balki kasal bo'lib qolgandir, uxlab qolgandir, dars tayyorlay olmay, uyalganidan kelmagandir?» - deb gumonsirab, taxminiy mulohazalar yurita boshlaydilar, natijada taxminiy hukm chiqara boshlaydilar.

Uchinchi sinfdan boshlab turli vaziyatlarni, holatlarni aniq dalillar bilan isbotlab berishga o'tadilar. Buning sababi bolalarning bilimi kundan-kunga osha borishi, ma'lum tizim hosil qilishidir. Ular bu paytda o'z hukmining chin yoki chin emasligini anglab yetadilar, bevosita muhokama qilish, dadil keltirish, isbotlashning shartlariga asoslanib fikr yuritish jarayoniga o'ta boshlaydilar. Bolalar narsa va hodisalarning paydo bo'lish sabablarini aniqlashda muammo, masala va savollar qo'yishdan tashqari, ularni hal qilishga, yechishga ham odatlanadilar. Biroq, ularning hukmi moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning ichki qonuniyatlarini, obhektiv bog'lanishlari va munosabatlarini to'liq ifodalay olmaydi. Uchinchi sinfdan boshlab o'quvchilarda tushuncha va hukmlar rivojlanishi bilan birga turli narsa va hodisalar haqida yuritilgan muhokamalar asosida xulosa chiqarish ham o'zgarib boradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida induktiv va deduktiv xulosa chiqarish alohida ahamiyat kasb etadi. Xulosa chiqarish avval bevosita idrok qilinayotgan narsalar asosida vujudga keladi. U bevosita kuzatish idrok qilish jarayonida narsa va hodisalarning munosabatini, bog'lanishini aks ettiradigan xulosa chiqarish bo'lib, bolaning tafakkurida asosiy o'rin egallaydi. Chunki bunda yaqqolobrazli tafakkurga tayanib-xulosa chiqariladi. Keiynchalik mavhum shart-sharoitlardan vujudga keladigan xulosa chiqarish turi paydo bo'ladi va u ko'rsatmalilik, sxemalar, chizmalar, tanish misol va masalalar, hodisalarga asoslanishda ko'rinadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun sabab-natija munosabatlarini ifodalovchi narsa va hodisalarni tahriflash juda murakkabdir. M.N.Shardakovning tajribasida uchinchi sinf o'quvchnlari jismlarning kengayishi isitishga bog'likligini anglab yetmaganlar va barcha jismlar issikdan kengayadi, deb xulosa chiqara olmaganlar. Lekin alohida olingan jismlarning issikdan kengayishi hodisasini tushuntirib aytganlar, demaq jismlardagi umumiylikni, o'xshashlik belgilarini topa olmaganlar. Umumiy xulosani ko'ra eksperimentator yordamida chiqarganlar. Ta'lim jarayonida tafakkurning analitik-sintetik faoliyati muhim rol o'ynaydi. O'quvchi tahlil qilish jarayonida yaxlit munosabatni yoki narsani bo'laklarga ajratib, ularning uzviy

bog‘lanishini, aniqlaydi, sintezda esa buning aksini bajaradi, yahni bo‘laklarning yaxlit buyumga bog‘lanishini aniqlaydi. O‘quvchilar tahlil va sintezni, taqqoslashni tahlil qilish orqali narsa va hodisalarning muhim belgilarini tasodifiy belgilaridan ajratishni o‘rganadilar va shu tarifa o‘zlarining mavhumlashtirish faoliyatlarini takomillashtiradilar. Bolalarning bilimlar tizimini o‘zlashtirishda tushunchalarni, qonuniyatlarni nomuhim belgisiga binoan o‘rganishlari tez-tez uchrab turadi va bu hol o‘quv materiallarini o‘zlashtirishni qiyinlashtiradi. Shuning uchun o‘quvchilarga tushunchani to‘g‘ri umumlashtirish usullarini o‘rgatish lozim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining umumlashtirish faoliyatini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan tadqiqotlardan mahlumki, yil oxiriga borib, bolalarning o‘zlari mustaqil ravishda narsalarni muhim belgilariga asosan umumlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ularda mahalliy tushunchalar, atamalar, tushunchalar miqdori keskin kamayadi. O‘quvchilarning muloqotchanlik qobiliyatlarini o‘rganishga qaratilgan bir qancha psixodiagnostik, proyektiv metodikalar mavjud. Bevosita kommunikativ bilimdonlikni aniqlash uchun —Muloqotga kirishuvchanlik darajasi,

— Muloqot, — Tinglashni bilasizmi?,

—Fikrni bayon eta olish kabi qator metodikalar qo‘llaniladi. Muloqot jarayonida odam o‘zini qanchalik nazorat qila olishi M. Snaydning maxsus testi ishlatiladi. Ijtimoiy-psixologik bilimdonlik bevosita odam tomonidan o‘zini o‘zi bilish – autopsixologik bilimdonlik bilan xam bog‘liq. Bu odamdagi shunday malakalarki, ular uni o‘z sifatlarini diognostika qila olish – o‘z-o‘zini diagonotsika, o‘z-o‘zini tuzata olish (o‘zini korreksiya), o‘z-o‘zini takomillashtira olish, o‘ziga o‘zi motivasiya bera olish, xar qanday ma‘lumotdan samarali foydalana olish, psixolingvitsik bilimdonlikni nazarda tutadi. Proyektiv metodikalardan “Oila” rasmi bola shaxsining psixologik portretidir. Bu testni 3 yoshdan 10 yoshgacha bo‘lgan bolalarda qo‘llash mumkin. Psixologlar bu testdan bolaning oiladagi «Men»ini o‘rganish maqsadida foydalanadilar. Bu testni o‘tkazish pedagogik va psixologik amaliyotda qulay va ommabop. Bu testni o‘qituvchilar, maktab psixologlari va ota – onalar o‘tkazishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash, tahlil qilishning turli usullarini qo‘llashdek o‘ziga xos xususiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalardan va o‘smirlar tafakkuridan keskin farq qiladi. Bolalar tafakkurida yaqqol obrazlarga suyanib mulohaza yuritish, yahni yaqqol tafakkur mavhum tafakkurdan mahlum darajada ustun turadi va ularning tafakkuri yosh xususiyatiga mutlaqo mosligini ko‘rsatadi. Ta‘lim jarayonida tafakkur operatsiyalarini, mustaqil fikrlashni o‘rgatish kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni kamol toptirishning garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziev E. Psixologiya. T., —O‘qituvchi, 1994
2. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisi psixologiya. T., 1998
3. Karimova V. Mustaqil fikrlash. T., —Sharqll, 2000
4. Z Nishonova. Bolalar psixologiyasi va uni ukitish metodikasi T. 2006
5. Ziyonet.uz

O'SMIR YOSHLARDA SALBIY XULQ-ATVOR PAYDO BO'LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xaydarova Sayyora Chinaliyevna

Guliston Davlat universiteti Psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlilik davriga xos bo'lgan salbiy xulq-atvor ko'rinishlari, ularning kelib chiqishi sabablari, rivojlanish shart-sharoitlari, namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: o'smirlilik, ontogeniz, deviant, xulq-atvor, xarakter aksentuatsiyasi, bolalar va o'smirlar.

O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o'zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlari va o'qituvchilariga ko'rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo'li bilan ham osongina ko'rish mumkin.

O'smirlilik davri o'zining taqlidchanligi, muhim nuqtai nazarning shakillanmagani, hissiyotga beriluvchanligi, mardligi, tantiligi bilan farqlanadi. Bu o'smirlarga xos xususiyatdir. Shuning uchun tashqi ta'sirlarga beriluvchan o'smir o'g'il-qizlarga alohida e'tibor berish talab qilinadi.

O'smirda psixik jarayonlar keskin o'zgarishi bilan aqliy xususiyatida ham burilishlar sodir bo'ladi. Bu o'zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar tug'iladi. Bular avvalo ta'lim jarayonida ro'y beradi: yangi axborot, ma'lumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va uslublari o'smirni qoniqtirmay qo'yadi. Ko'pgina o'smirlarda o'zidan qonikmaslik holati kuzatiladi. Shuningdek, o'zi hakidagi mavjud fikrlarining bugun unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga to'g'ri kelmayotganligi o'smirni asabiylashishiga olib keladi. Bu esa o'smirda o'zi haqida salbiy fikr va qo'rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Ana shunga o'xshash o'zgarishlar ko'pincha o'smir ruhiyatiga o'z ta'sirini o'tkazadi. U tajangroq, ba'zida huda-behudaga injiqlik qiladigan, serzarda, gap ko'tarmas bo'lib qoladi.

O'smirlilik davrida etakchi faoliyat- bu o'qish, muloqot hamda mehnat faoliyatidir. O'smirlilik davri muloqotining asosiy vazifasi bu – do'stlik, o'rtoqlikdagi elementar qoidalarni aniqlash va egallashdir.

O'smirda psixik jarayonlarning keskin o'zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatlarda, o'quvchi bilan o'qituvchi muloqotida, kattalar bilan o'smirlarning muomalasida qat'iy o'zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar paydo bo'ladi, bular avvalo ta'lim jarayonida ro'y beradi, yangi axborotlar, ma'lumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va usullari o'smirni qoniqtirmay qo'yadi. Butun a'zolarida keskin fiziologik o'zgarishlar sodir bo'ladi. Unda o'pka, yurak, jigar, taloq, buyrak hajmlari kattalashadi. Bundan tashqari gavda tuzilishi ham o'zgaradi.

Kattalarning o'smir yoshidagilarga ta'sir ko'rsatishi, tarbiya berishi uchun eng qulay sharoit bu- mehnat bilan shug'ullanishidir. Agar kichik yoshdagi bolalar yordamchi bo'lish rollaridan qoniqsalar, o'smirlar, ayniqsa katta o'smirlar kattalar bilan teng ravishda faoliyat ko'rsatayotganlaridan, lozim bo'lganda ularning o'rinlariga ham ishlay olishlaridan qoniqadilar. Endi o'smirlar o'yin faoliyatiga

kamroq vaqtlarini ajratgan xolda ko'prok jiddiy ishlar bilan shug'ullana boshlaydilar va ularning bilish jarayonlari jadal rivojlana boshlaydi.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarda, xususan o'smirlarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish, shaxslararo munosabatlarga kirishishda empatiya hissini rivojlantirish, shaxs sifatida o'zini to'g'ri baholash, jamiyatda o'z o'rnini topishida yordam berish hamda axloqiy ko'nikmalar shakllantirilishining psixologik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masalalar hisoblanadi.

O'zbekistonlik psixologlardan E.G'. G'oziyev, N.G'. Kamilova, G.Q. To'laganova, B.M. Umarov kabi olimlarning izlanishlarida bolalik va o'smirlik davridagi psixik xususiyatlarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, ularda asosiy e'tibor deviant xulq-atvor, xarakter aksentuatsiyasi, bolalar va o'smirlar suitsidi, o'z-o'ziga baho berish va nazorat qilish muammolariga qaratiladi. Inson onogenizida o'smirlik balog'atga yetish davri bo'lib, yangi xislar, sezgilar va jinsiy xayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan xam xarakterlanadi. O'z davrida L.S.Vigotskiy bunday holatni psixik rivojlanishdagi krizis deb nomlagan. O'smirlik yoshida ularning xulq-atvoriga xos bo'lgan alohida xususiyatlarni asosan jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlab bo'lmaydi. Jinsiy yetilish o'smir xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta'sir ko'rsatib, bu ta'sir bevosita emas, balki ko'proq bilvositadir. O'smirlik davriga ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik, yig'loqilik, kabi xususiyatlar xos. O'smirlar va bolalar psixikasining yosh davrlarida o'ziga xos xususiyati mavjud bo'lib adabiyotlarda emotsional yetuk emaslik, kattalar avtoritetiga bo'ysunish, ishonuvchanlik, jinsga oid munosabatlar haqida xabardorligi va hayotiy tajribasining yetarli darajada emasligi, boshqa insonlarni mavjud harakatlarini oldindan ayta olish va murakkab vaziyatlarda tanqidiy hamda to'liq baholay olmaslik kabi sifatlar namoyon bo'ladi.

Bolalar kattalar singari bir maromda rivojlanmaydi, shuningdek, ijobiy va salbiy psixologik xususiyalar, nisbatan barqaror va tinch osoyishta kechadigan davrlar mavjud. Kattalarga nisbatan xulq-atvoridagi ijobiy va salbiy munosabatning paydo bo'lishi, negativizm singari nohush xulq-atvor alomatlari o'z-o'zidan kelib chiqadigan bevosita jinsiy yetilish tufayli poydo bo'ladigan belgilar bo'lmay, balki ular bilvosita ta'sir ko'rsatadigan, o'smir yashaydigan ijtimoiy shart-sharoitlar vositasi orqali, uning tengdoshlari, turli jamoalardagi mavqei tufayli, kattalar bilan munosabati, maktab va oilasidagi o'rni munosabatlari sababli yuzaga keladigan xarakter belgilaridir.

Mana shu ijtimoiy sharoitlarni o'zgartirish yo'li bilan o'smirlarning xulq-atvoriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatish mumkin. Ular tashqi ta'sirlarga va xissiyotlarga juda beriluvchan bo'ladilar. Shuningdek ularga mardlik, jasurlik, tantiqlik kabi psixologik sifatlar ham xosdir. Tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik o'smirda shaxsiy fikrni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, lekin bu shaxsiy fikr aksariyat hollarda asoslanmagan bo'ladi. Shuning uchun ham ular ota-onalarning, atrofdagi kattalarning shuningdek, ustozlarning to'g'ri yo'lni ko'rsatishlariga qaramay o'z fikrlarini o'tkazishga harakat qiladilar. Juda ko'p o'smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qoladilar. Bugungi kunda internet

materiallarini tushunish yoki anglamasdan undan foydalanishga harakat qilishadi. Bu holatda chekuvchi, ichuvchi singari yangi rolda o'zini normal, qulay his qiladi. Bunday holatlarga tushgan o'smir juda tashvishga tushadi va unda krizis holati yuzaga keladi. Bu krizis o'smirning ma'naviy o'sishi psixikasidagi o'zgarishlariga ham bog'liqdir. Bu davrda bolaning ijtimoiy mavqei o'zgaradi, o'zining yaqinlari, do'stlari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlar yuzaga keladi. Lekin eng katta o'zgarish uning ichki dunyosida yuzaga keladi. Ko'pgina o'smir yoshi davridagi maktab o'quvchilarida o'zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. Shuningdek, o'zi xaqidagi mavjud fikrlarining bugun unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga to'ri kelmayotganligi o'smirni asabiylashishiga olib keladi. Bu esa o'smirda o'zi xaqida salbiy fikr va qo'rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Bunday o'smirdagi o'zgarishlarni uchun atrofdagilar, kattalar, shuningdek ota-onasiga qarshi chiqayotganligini anglay olmayotganligi tashvishga soladi.

Maxsus ijtimoiy psixologik adabiyotlarda hayotga chidamli, irodali iborasi mavjud. Bu iboraga taalluqli bo'lgan salbiy-xulq atvor larning paydo bo'lishi o'smir davridagi bolalardagi og'ir iztirob noqobiloila, spirtli ichimliklarni iste'mol qiluvchi ota-onalar, shavqatsiz kaltaklash, tabiiy ofat, kambag'allik, oiladardagi ajrim xolatlari kabilar ularni psixik rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi.

Bu borada o'smirlarning ota-onasi, kattalar bilan qiladigan muloqoti asosan ularning katta bo'lganlik hissi asosida tuzilganligi sababli qo'llab -quvvatlashlariga ehtiyoj sezadilar. Ota onalar bilan faoliyat o'smirda kattalarni yaxshiroq tushinishlari uchun yordam beradi. O'smir o'zida bo'layotgan o'zgarishlar, uni tashvishga solayotgan muammolar xaqida kattalar bilan bo'lishishga katta ehtiyoj sezadi, lekin buni xech qachon birinchi bo'lib o'zi boshlamaydi. O'smir o'ziga nisbatan yosh bolalardek qilinadigan muomila -munosabatiga qattiq norozilik bildiradi. O'smirlar muloqoti nihoyasida o'zgaruvchanligi bilan xarakterlanadi.

Qayd etib o'tilgan yo'nalganlik albatta kattalarning ham muloqot va munosabatda mavjud, lekin ular kattalarnikidan o'z emotsionalligi bilan farqlanadi. Tengdoshlari, shuningdek sinfdoshlari guruhida o'smir o'zining kelishuvchanlik xususiyati bilan namoyon bo'ladi. O'smir yoshidagi o'quvchilarda «Biz» hissining shakllanishiga yordam beradi va uning ichki holatini mustaxkamlaydi. O'smir yoshdagi bola uchun do'st tanlash juda katta axamiyatga ega. O'smirlik davrida do'st juda qadimli hisoblanadi. Do'stlar doimiy ravishda ruhan, qalban yaqin bo'lishga ehtiyoj sezadilar. Bu ehtiyoj o'smir do'stlarning so'rashishi va ko'rinishlarida (qo'l berib, quchalab ko'rinish) birga o'tirish va birga yurishga harakat qilishlarida ko'rinadi. Ko'pgina ana shunday juda yaqin munosabatlar, umumta'lim maktabi o'smir yoshi o'quvchilarining shaxs bo'lib shakllanishdagi, birgalikdagi harakatlarini o'zi inson qalbida va xotirasida birumrga saqlanib qoladi.

Ko'pgina bunday oilalarda tarbiyalanayotgan o'smirlar hayotda mustaqil holda harakat qilishlari, o'z rejalarini amalga oshirishlari, qiyin ma'suliyatning o'z bo'ynilariga olishlari birmuncha qiyinroq. Ular ko'pincha intellektual xarakterdagi muammolarni ham qiyinchilik bilan yengadilar. Kattalarning bu davrdagi eng asosiy vazifalari o'smirning muammosini to'g'ri anglashi va erkin to'g'ri yashashiga yordam berishidir. Shuning uchun tashqi ta'sirlarga beriluvchan o'smir yosh qiz va o'g'il bolalarga alohida e'tibor qaratish zarur. Buning uchun ular bilan

ishlashda g'oyaviy -siyosiy vatanparvarlik xissining shakllanishiga, mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritishga o'z-o'zini boshqarish, anglash, baholash va nazorat qilishlariga imkon yaratish zarur. Ko'pincha o'qituvchilar o'smirlardagi salbiy xulq-atvor illatlarini tanqid qiladilar, o'smirlarga psixologik yondoshishda metodologik kamchilikka yo'l qo'yadi. Bu salbiy sifatlarning oldini olish chora va tadbirlarini ishlab chiqa olmaydi, o'smirlarda uchraydigan salbiy sifatlarni yo'qotish va yangi ijobiy xulq-atvor sifatlarini asta-sekin tarkib toptirish mumkin. O'smirlarning mustaqil faoliyatiga keng imkon berilishi, faoliyati takomillashib, psixikasi xar tomonlama rivojlanib borgan

O'smirlardagi salbiy xulq-atvorni korreksiya qilish maqsadida umumta'lim maktablarida turli ijtimoiy, motivatsion psixologik trening mashg'ulotlar va olib borilsa amaliy-psixologik maslaxatlar korreksion texnikalar va salbiy hulq-atvorni bosqichma bosqich o'zgartirish mumkin ya'ni, shaxsning o'zini-o'zi va o'z his-tuyg'ularini anglash, o'z shaxsini qayta baholash, hissiyotlar ustida ishlash, salbiy xulq-atvorni anglash, shaxslararo munosabatdagi qiyinchiliklar, kognitiv jarayonlarni rivojlantirish, barkamollikka intilish, ota-ona va pedagoglar bilan ishlash kabi mashg'ulotlar majmui qo'llanildi.

Ijtimoiy, motivatsion psixologik treninglar majmuini xalq ta'lim muassasalari amaliyotiga tatbiq etilishi orqali bola shaxsining pedagogik va psixologik jihatdan mukammal rivojlanishiga yordam beradi. Jumladan, maktab amaliyotchi psixologining ish rejasiga kiritilgan "Ijtimoiy psixologik muammolari mavjud bo'lgan o'quvchilarning salbiy burilish va og'ishlarining oldini olish"ga qaratilgan psixologik profilaktika, "Xulqida og'uvchanligi mavjud va moyilligi aniqlangan o'quvchilari bilan korreksiyalash ishlarini tashkil qilish" hamda "bolalar va o'smirlarning salbiy burilishi va og'ishlarining oldini olishda maktab pedagogik jamoasi va ota-onalarning hamkorligini takomillashtirish" kabi vazifalarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Karimova V. "Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot". T.1999 yil.
2. Karakulova U.A "O'smirlar xulq atvori shakllanishiga oilaviy munosabatlarning o'rni" O'zbekistonda psixologiyani rivojlantirish muammolari: nazariya va amaliyot uyg'unligi jurnal T. 2021 yil.
3. Nishonova Z.T. va b. "Rivojlanish psixologiyasi.pedagogik psixologiya".
4. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. T. 2018 yil.
5. Tadjieva S.X., Sabirova D.G'. "Tanglik vaziyatida qolgan bolaga psixologik yordam ko'rsatish". T.: RBIMM
6. G'oziyev E. G' "Psixologiya". T. 2008 yil.
7. G'oziev E.G'. "Ontogenez psixologiyasi. Noshir taxriri ostida T. 2020 yil.

DARS JARAYONIDA INTERFAOL METODLARNI QO'LLASH

Berikbayev Alisher Alikulovich, Agibayeva Shaxzoda

Guliston davlat universiteti Amaliy san'at va dizayn kafedrasi mudiri, Phd doctor, GulDU Dizayn yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ta'lim ishlarini tashkillashtirish (o'quv yili, dars, bilimlarni joriy va yillik baholashlar, o'quv kunining davomiyligi, qat'iy o'quv jadvali, maktab tartibi) ishlarida jiddiy o'zgarishlar olib kirdi. «Buyuk didaktika» asarida ta'lim har doim oldinga siljishini uning natijasi aldamasligi va ta'lim va ta'lim metodini san'at darajasiga ko'tarishni ta'kidlab, bu asarda arifmetikaning boshlang'ich ta'limiga katta e'tibor berdi. I.G.Pestalotsti (1746-1827), 1803 yilda «Son haqida ko'rsatmali o'qitish» kitobida matematika didaktikasini pedagogikadan alohida ajratish ko'rsatilgan edi. I.G.Pestalotsti ta'lim metodlarini tanlashda tabiatning o'zgarish qonunlariga asoslanishini ta'kidlagan edi. Shuning uchun metodlarni va ularga mos vositalarni tanlashda insonning ichki tabiati va tabiiy aqliy qobiliyatini hisobga olishni tavsiya qilgan edi.

A.Disterveg faqat ikkita: 1) axborot beruvchi, 2) rivojlanuvchi ta'lim metodlari borligini ko'rsatadi. «Metodlarini tanlanishi o'qituvchini shaxsiyati bilan bog'liq» degan metodlarga oid ikkita qoidani izohlaydi. Tashqi tomondan qaraganda faqat ikkita ta'lim metodi bor. Birinchisi, talabalarga fan bayon qilinadi, axborot beriladi. Ikkinchisi esa, talabalarni fanni yaratishga majbur qiladi. Fanni yaratish bilan birgalikda dogmatik (kur – kurona) va rivojlanuvchi (evristik) ta'lim metodlari ham yaratiladi.

K.D.Ushinskiy ta'lim va tarbiya metodlarini ongli tanlashga katta e'tibor berdi. Tarbiya bu ma'lum maqsadga ko'ra ongli faoliyat bo'lib, amalga oshirilishda unga mos vositalar tanlanishi maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaydi. Ta'limda pedagogik chora-tadbirlar va metodlar turli ekanligini bunga e'tibor bermaslik, ta'limda bir tomonlama yondashishga olib kelishi haqida muhim fikrlarni keltiradi. Bunday faktlar pedagogika tarixida juda ko'p. Ta'lim va tarbiya sohasida muammolarni echilishi uchun to'la shart-sharoit yaratilishi ham katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ta'lim va tarbiya sohasidagi (o'rta va oliy ta'limda ham) ba'zi g'oyalarni amalga oshmay qolaverdi. Bu muammolarni chuqur tahlil qilish va o'rganish o'qituvchilar uchun ham foydali bo'lib, o'z faoliyatlarida bundan unumli foydalanishlari, eski yoki yangi g'oyalarni amalga oshirishda hissa qo'shishlari mutahassislar bilan birga bu g'oyalarni ta'lim va tarbiyaga joriy qilish ustida ilmiy - metodik ishlarni davom ettirishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. An'anaviy metodikada ta'lim oldiga qo'yilgan maqsadni amalga oshirish yoki undan kutilgan natijani olish kafolati yo'q. Bu didaktika oldidagi jiddiy muammolar borligini ko'rsatadi. Ya'ni maqsadiga ko'ra mazmunni tanlashdan, mazmunga mos metodlarni tanlash va so'ngra bunga mos vositalarni tanlash mexanizm yo'lga qo'yilmagan.

Talabalar tomonidan faktik material to'plash tadqiqot metodining zaruriy qismlaridandir. Mustaqil ravishda tajribalar o'tkazish talabaning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shunday faktlar mavjudki, ularni dars jarayonida, ayniqsa, yaratuvchilik va estetik fanlari darslarida kuzatib bo'lmaydi. Agar o'qituvchi talabalar ixtiyoriga shunday dalillarni tavsiya etib, ularni taqqoslash, tizimga solish, umumlashtirishni topshirsa, bu bilan uning qiyinlik darajasi kamaymaydi.

Talabalarning ijodiy imkoniyatlarini aniqlash uchun o'quv ishlarining asosiy usullarini yasash va kompozitsion o'zlashtirish imkoniyatlari darajasiga qarab

aniq belgilash zarur. Tadqiqot metodini qo'llaganda talaba bilimlarni o'zlashtirish jarayonida foydalanishi mumkin bo'lgan asosiy usullarni qo'llay bilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. bunday usullarga: tahlil, sabab-oqibat orasidagi aloqadorlikni belgilash, taqqoslash, birlashtirish, o'z farazlarini keltirish, isbotlash, rivojlantirish kiradi. Mazkur metodning tahlil va sabab-oqibat orasidagi aloqadorlikni belgilash usuli dizaynerlik va ijodkorlik ta'limda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ijodiy jarayonda, bilmaslikdan bilishga o'tish yo'lidagi qiyinchiliklarga yo'liqqan talabalarning analiz-sintez faoliyatida ruhiy holatning ahamiyati ko'zda tutishi kerak.

Taqqoslash, qiyoslash metodi ham talabalarni mustaqil mulohaza yuritishga o'rgatishda keng qo'llaniladi. Yangi o'zlashtiriladigan bilimlarni o'zining kompozitsion tasavvurlari bilan taqqoslash usuli o'z navbatida yangi tushunchalar mustaqil ravishda tadqiq qilish belgilarini qamrab oladi.

Induktiv metod. Talaba tafakkuri mustaqilligini ta'minlashda induktiv, deduktiv metodlarning ham o'ziga hos ahamiyati bor. Talaba-o'quvchida tafakkurning induktiv-deduktiv usullarini shakllantirmay turib mustaqil mulohaza yuritishga o'rgatishda muvaffaqiyatlarga umid qilish mumkin emas. Induktiv yoki deduktiv metodlarni qo'llash o'rganilayotgan o'quv materialining mantig'ini ajratishda-xususiydan umumiyga yoki umumiydan xususiyga o'tishda ahamiyat kasb etadi.

Yu.K.Babanskiy induktiv metodni qo'llashda o'qituvchi avval faktlarni keltiradi, tajribani, ko'rgazma materialini namoyish etadi, topshiriqlarni bajarishni tashkil etadi, talabalarni asta-sekinlik bilan tushunchalarni aniqlashga, qonuniyatlarning shakllanishiga, umumlantirishga olib boradi. Demak induktiv metod orqali interer dizayn yo'nalishlariga bog'lasak umumiy ma'lumotlarni tasavvur qilish va estetik interer xona jixozlarini tasvirlash va uni qurishni nazarda tutsak bo'lar ekan. Induktiv metodning zaif tomlari shundan iboratki, unda yangi mavzuni o'zlashtirishda deduktivga nisbatan ko'proq vaqt talab qilinadi. Bunday metod kam deganda talabaning abstrakt tafakkurini o'stiradi.

Deduktiv metod. Interer loyixalashda talabalarni mustaqil mulohaza yuritishga odatlantirishda deduktsiya metodining ham o'ziga yarasha samara berishi ayon. Yuqori kurslarda induktsiya metodidan foydalanib, kurslar yuqorilab borgani sari asta-sekinlik bilan deduktsiyaga o'tish o'rinliroq bo'ladi. Chunki ta'lim jarayonida induktiv metod qo'llanilganda o'qituvchi-talaba faoliyati samaraliroq bo'ladi.

Ta'limning deduktiv metodini qo'llaganda o'qituvchi va talabalarning faoliyati quyidagi harakterda bo'ladi: o'qituvchi avval qoida yoki qonunning umumiy harakterini ma'lum qiladi, asta-sekinlik bilan uning xususiy jihatlariga o'tadi, so'ng ma'lum masalalarni echishga kirishadi. Talabalar avval umumiy holatni o'zlashtiradilar, so'ng ulardan kelib chiqadigan xususiy holatlarni o'rganadilar. Ochiqlaydigan bo'lsak Berilgan topshiriqlarni abstrak tasavvurlar orqali rivojlantirib deduktiv mustaqil rivojlantirish zarurligini anglashimiz mumkin. Ushbu jarayonida ham ko'rgazmalilik tamoyilidan foydalanishi maqsadga muvofiq emas. O'qituvchi talabalarga yo'nalish berishi, yo'l-yo'riqlarni taqdim etishi maqsadiga ko'proq muvofiq keladi. Ko'rsatilgan yo'ldan

talabalarning o‘zlari umumiylikdan xususiy jihatlarni ajratishi, ularni farqlashi, asoslashi va xulosalar chiqarishi lozim bo‘ladi.

Ushbu metodlar aynan induktiv va deduktiv metodlar o‘quv materiallariga yasash va qurishga o‘tish imkonini beradi, talabaning mustaqil tafakkurni o‘stiradi, rivojlantiradi.

Ta‘lim jarayonidan qo‘yilayotgan asosiy oliy maqsad, belgilangan natijaga erishish va ta‘lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish. Bunda turli zamonaviy, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalar bilan bir qatorda interfaol metodlardan foydalanish o‘zining bir qancha ijobiy xususiyatlariga ko‘ra maqsadga muvofiq ekanligi ma‘lum ekanligi tajribalar asosida isbotlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаева М. Касбий фанлар орқали талабаларда ижодкорлик кўникмаларини шакллантириш. //Ж. Педагогик таълим, 2004.
2. Азизхўжаева Н.Н. “Ўқитувчи тайёрлашнинг педагогик технологияси” –Т.: ТДПУ, 2000.
3. Голиш Л.В.,Файзуллаева Д.М. “Педагогик технологияларнинг лойҳалаштириш ва режалаштириш” – Т.: ТДИУ, 2010. – 149б.
4. Berikbayev A.A.NamDU axborotnomasi 2022 3-son 649 b
5. Berikbayev A.A.“Тасвирий санъат ва мухандислик графикаси, компьютер графикаси ва дизайн фанларини интеграциялашни муаммо ва ечимлари” мавзусида Халқаро миқёсида илмий-техник анжуманининг Маърузалар тўплами 34б

DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA OILAVIY NIZOLARNING TA’SIRI

Xaydarova Sayyora Chinaliyevna

Guliston Davlat universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada o‘smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishiga oilaviy nizolarning ta’siri haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: xulq-atvor, oilaviy tarbiya, o‘smirlar, oilaviy muammolar, nizolar, huquqbuzarlik, affektiv soha, disfunktsional oila, emotsional holat.

Hozirgi kunda nikoh va oila munosabatlari, oila institutini mustahkamlash turli soha mutaxassislari: yuristlari, demograflar, iqtisodchilar, sotsiologlar va psixologlar tomonidan jadal o‘rganilayotgan bo‘lsa-da, oilaviy muammolar, nizolar va oilada o‘zaro ziddiyatlar ortib bormoqda. Shuning uchun bu borada ko‘plab amaliy ishlar olib borilishi, sohaga oid xizmatlarni yanada takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalasiga aylangan. Xususan, bugungi kundagi ajralishlar sonining ortishi, oilaviy muammolarning barvaqt aniqlanmasligi, oldini olish chora-tadbirlarining qo‘llanilmasligi oilaviy nizolar kuchayishiga sabab bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, oilada tarbiyaning salbiy omillarini ham esdan chiqarmaslik kerak. Bular:

- kattalarning noqonuniy xatti-harakatlari;
- ota-onalar ma'naviyatining qashshoqligi;
- normal psixologik iqlimning yetishmasligi;
- moddiy qadriyatlarning ustunligi va boshqalar.

Oiladagi salbiy, beshafqat muhit, ma'lum turdagi o'smirlardagi qo'pollik, yovvoyilik, sovuq munosabat kabi illatlarni paydo bo'lishiga zamin yaratadi, ular atrof-dagilarga nisbatan qarama-qarshi ruhda harakatlanib, tajovuzkorona buzg'unchilik sifatlarini namoyon qilishadi.

Bola baxtli, mustahkam va sog'lom oilada muloqot qilsa, u odatda o'ziga va atrof-muhitga ishongan, atrof-dagi madaniyat me'yorlarini adolatli va o'z-o'zidan ravshan deb qabul qiladigan odobli shaxs sifatida shakllanadi. Bola o'z kelajagiga ma'lum bir tarzda yo'naltiriladi. Agar oilaviy hayot qandaydir darajada qoniqarsiz bo'lsa, bolalarda ko'pincha tarbiyadagi bo'shliqlar, me'yorlarni o'zlashtirmaslik va deviant xatti-harakatlar rivojlanadi. O'smirlar o'rtasidagi huquqbuzarlik bo'yicha ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, deviant xulq-atvorga ega bo'lgan yoshlarning aksariyati disfunktsional oilalarda tarbiyalangan. Bu sohada amerikalik tadqiqotchilar ijtimoiy psixologiya belgilovchi beshta asosiy omil aniqlandi oilaviy hayot disfunktsional sifatida:

- o'ta qattiq otalik intizomi (qo'pollik, isrofgarchilik, tushunmovchilik);
- onalik nazoratining yetarli emasligi (beparvolik);
- otalik mehrining yetishmasligi;
- onalik mehrining yetarli emasligi (sovuqlik, dushmanlik);
- oilada hamjihatlikning yo'qligi (janjal, dushmanlik, o'zaro dushmanlik). Bu

omillarning barchasi bolaning oilada ijtimoiylashuv jarayoniga va pirovardida deviant xulq-atvorga ega shaxsni tarbiyalashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Adler shaxsiyatni shakllantirishning muhim omili sifatida oila tuzilishini aniqlaydi, bola va unga mos keladigan ta'lim turlarining o'zgarishi deviant xatti-harakatlarning paydo bo'lishiga sezilarli va ko'pincha hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

V.V.Korolev o'smir yoshidagi huquqbuzarlikning psixologik holatlarini o'rganish davomida ularga xos bo'lgan quyidagi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni aniqlagan: odob-axloq, namunali xulq tajribalarining yo'qligi, do'stlik, sevgi, jasurlik kabi ijtimoiy qadriyatlarni qabul qilmasligi, ular haqidagi to'pori tushunchalar, o'z-o'zini o'ta past yoki juda yuqori baholash, huquqiy va ma'naviy qadriyatlarni noto'g'ri tushunish va ularga teskari munosabatda bo'lish, tashqi barcha ta'sirlarga beriluvchan bo'lish.

I.A.Semikashevaning izlanishlari bo'yicha bunday guruhga kiruvchi o'smirlar ota-onaga o'xshash xislatlarga ega bo'lib, alohida insonlarni emas, o'zi mansub guruhni hurmat qiladi. Bunday o'smirlar o'z xarakterlariga ko'ra mas'uliyat sezmaydi, biroq tengdoshlari orasida hamma qatori harakatlanadi.

S.A.Kulakovning ta'kidlashicha, bunday xulqli o'smirlar ko'pchiligi psixoterapevtlarning mijozidir, ularga aniq tashxis qo'yish mushkil, ammo ularning ko'pgina xislatlari me'yoriy jihatdan buzilgan. Affektiv sohada - ular hissiy bo'shanglik, depressiya va hayajonga tez beriladilar. Talab qilish sohasida erkinlik,

himoyalanganlikka bo'lgan ehtiyojini yopib qo'yilishi, referent guruhiga xos bo'lishi, kognitiv sohada esa xulosa qilishni rad etish kuzatiladi.

B.N. Almazov disfunktsional oilalarning turlarini alohida ajratib ko'rsatdi: ta'lim resurslari yetishmayotgan oilalar, nizoli oilalar, axloqiy jihatdan noto'g'ri, pedagogik jihatdan qobiliyatsiz oilalarga.

L.S. Alekseeva va G.P. Bochkarev; disfunktsional, emotsional va zararli axloqiy muhitga ega oila turlarini ajratib ko'rsatdi.

A. Lichko va K. Leonhard ota-onalar bilan munosabatlarning buzilishi bilan xarakter va xatti-harakatlarning og'ishlarining eng ko'p uchraydigan ko'rinishlarini aniqladilar:

- giper himoya qilish (haddan tashqari qo'riqlash va nazorat);
- haddan ortiq g'amho'rlk (bolaning barcha ehtiyojlarini qondirish, uni barcha qiyinchiliklardan himoya qilish istagi);
- hissiy rad etish.

E.G. Eidemiller bolada og'ishish shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan, oiladagi quyidagi patologik rollarini aniqlaydi:

- ota-ona hissiyotlari doirasining kengayishi;
- o'zining nomaqbul fazilatlarini bolaga o'tkazish;
- ota-onalarning tarbiyasi muammolari;
- bolani yo'qotish fobiyasi.

Ota-onalarning aksariyat qismi farzandlarining noto'g'ri tarbiyasi kelgusida noxush oqibatlarga olib kelishini tushunmaydilar. Psixologik tadqiqot natijalariga ko'ra, bugungi kunda farzand tarbiyasi va yoshlardagi agressiv xulq-atvor normalarining namoyon bo'lishida oilalardagi psixologik muhitning nosog'lomligi, ota-onalarning farzand tarbiyasini "ikkinchi o'ringa" qo'yayotganligi va noto'liq oilalar sonining ortib borayotganligi sabab bo'lmoqda. Bu esa ta'lim muassasalari va mahallalarda yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash borasidagi nafaqat yoshlar balkim ularning ota-onalari bilan ham pedagogik bilimlar targ'ibotini olib borishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, oila tarbiyaning boshlang'ich o'chog'idir. Oiladagi muhit bolalar xulq-atvorida o'z aksini topadi. Doimiy nizoli vaziyat hukm surgan oilada, psixologik muhit buziladi va o'smirlar e'tiborsizlik kuchayadi. Natijada esa o'smir xulqida og'ishishlar yuzaga kela boshlaydi. Bunday vaziyat uzoq muddat davom etadigan bolsa, jiddiy deviatziyalarga olib kelishi mumkin. Nizoli oilada o'smirlar doim e'tiborsiz va qarovsiz qoladi, oilaviy muloqotga muhtojlik sezadi, u o'z galar panoh izlaydi, boshqa turli mashg'ulotlar topadi, xatto jinoyatchilikka qo'l urishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziyev E. G. "Psixologiya". T. 2008 yil.
2. G'oziev E.G. "Ontogenez psixologiyasi. Noshir taxriri ostida T. 2020 yil.
3. Karakulova U.A. "O'smirlar xulq atvori shakllanishiga oilaviy munosabatlarning o'rni" O'zbekistonda psixologiyani rivojlantirish muammolari: nazariya va amaliyot uyg'unligi jurnal T. 2021 yil.

4. Karakulova U.A “Axborot savodxonligi va axborot izlash xulq-atvoridagi psixologik omillar”. Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik konferensiya. Oktyabr 2022 yil
5. Менделевич В.Д. Психология девиантного поведения. М.:2016 yil
6. Shoumarov G‘, Umarov B, Akramova F. Yoshlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilining oldini olish bo‘yicha psixologik maslahatlar. Toshkent.:2015 yil

ВОЗДЕЙСТВИЕ НЕСТАНДАРТНЫХ ФОРМ ОБУЧЕНИЯ НА НАУЧНО-ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ

Бабажанова Ф.Ф

Старший преподаватель Гулистанского государственного университета

Аннотация

В статье описываются как внедрение прогрессивных педагогических технологий и интерактивных методов в нашу страну в определённой мере воздействует на рост продуктивного мышления и на формирование научно-творческих способностей студентов.

Ключевые слова: интерактивное обучение, остроумие, интуиция, продуктивное, творческое, креативное мышление, научно-творческие способности.

Каждый момент в нашей жизни отражается как минимум в четырех аспектах нашей жизни: внутреннее индивидуальное, внешнее индивидуальное, внутреннее коллективное и внешнее коллективное. Но чаще всего мы осознаём привычные (любимые) один-два аспекта, как будто глядим сквозь призму некоего измерения. Особенно ярко это проявляется в стрессовых ситуациях.

В большинстве случаев это не мешает нам, а даже приносит определенные, соответствующие нашему нынешнему образу жизни успехи. Так, человек, воспринимающий мир через призму отношений, создает необычайно крепкие связи с другими. Тот, кто, прежде всего, настроен на действие, успевает сделать чрезвычайно много, и достигает хороших результатов. Но когда появляются задачи, которые не решаются привычными способами, обычные, типичные для этого человека фильтры восприятия не дают возможности увидеть иные перспективы, выйти за их пределы, воспринять картину ясно и целостно во всех взаимосвязях и взаимозависимостях. И это еще полдела! Парциальные изменения, с фокусом на привычных, замечаемых аспектах, во-первых, даются крайне тяжело, болезненны и энергозатратны и, во-вторых, оказываются неустойчивыми.

Именно тогда, когда задачи требуют актуальных изменений образа жизни, перемены стратегий восприятия и поведения, разного рода парциальное влияние обучение, направленное на расширение знаний и получение умений, изменения в структуре и далее будет давать лишь кратковременный результат, добавлять разочарования и ощущения усталости. Как говорит Кен Уилбер:

«Повредите один квадрант, и все четыре начнут истекать кровью».

Интерактивное обучение – это специальная форма организации познавательной деятельности. Она имеет в виду вполне конкретные и прогнозируемые цели. Одна из таких целей состоит в создании комфортных условий обучения, при которых учащийся чувствует свою успешность, свою интеллектуальную состоятельность, что делает продуктивным сам процесс обучения.

В системе образования в Узбекистане большое значение придаётся овладению учащимися не только широкими знаниями и профессиональными навыками, но и обязательному изучению иностранных языков как важнейшему условию активного общения со своими сверстниками из зарубежных стран, широкому познанию всего того, что происходит в современном мире, овладения огромным мировым интеллектуальным богатством.

Известны всему миру своими выдающимися открытиями в области математики, астрономии, геодезии, минералогии, фармакологии и медицины такие наши великие предки, как Мухаммад Аль Хорезми, Абу Райхон Беруни, Абу Али ибн Сино – Авиценна, Мирзо Улугбек и многие другие.

Как известно, что с именем Хорезми связано изобретение понятия алгоритма, десятичной системы и понятия нуль. Абу Райхон Беруни, который еще за 500 лет до открытия американского континента предсказал существование, именно существование этого континента.

Абу Али ибн Сино – Авиценна, который знаменит тем, что еще в те времена, в XI веке впервые проводил хирургические операции. Самое главное – его труд «Канон врачебной науки» 500 лет изучался в самых известных европейских вузах как учебник для всех студентов.

Мирзо Улугбек – астроном, который еще в XV веке построил в Самарканде обсерваторию и создал звездную карту мира. Думаю, мы по праву можем сегодня говорить о них как о людях, которые внесли огромный вклад в мировую цивилизацию. Когда мы говорим о наших великих предках, о людях, которые в течение многих-многих столетий занимались просвещением, наукой, то хочется еще и еще раз сказать, обращаясь к нашей молодежи: да, мы должны гордиться нашими гениальными предками. Но очень важно при этом задаться вопросом, что мы сегодня делаем для того, чтобы быть достойными их последователями?

Развитие интеллекта тесно связано с развитием творческих способностей, предполагающих не просто усвоение информации, а проявление интеллектуальной инициативы и создание чего-то нового. Интеллектуальный важнейший компонент творчества – преобладание так называемого дивергентного мышления, которое предполагает, что на один и тот же вопрос может быть множество одинаково правильных и равноправных ответов (в отличие от конвергентного мышления, ориентирующего на однозначное решение, снимающего проблему как таковую).

Значимость восприятия для творческого процесса подчеркивается и при рассмотрении восприятия в качестве источника получения и хранения

информации. Для создания нового необходимо опираться на нечто известное, иметь в памяти достаточно обширный материал, чтобы свободно им оперировать. Более того, у подростка в изобразительной деятельности восприятие носит зрительную установку.

И важной задачей в этом возрасте мы считаем использование своих творческих способностей, умений и склонностей для решения важных проблем своего региона. Учащиеся в этот период испытывают потребность в своей реализации, поэтому хорошим способом почувствовать ее является реализация их творческих и интеллектуальных способностей в решении проблем своего региона.

Научно-творческие способности студентов формируются и развиваются в процессе получения профессионального образования и, следовательно, находятся в зависимости от направленности личности преподавателя, а именно от его уровня притязаний, мотивации, установок, а также системы отношений к миру вещей и людей, от психологических свойств личности, относящихся к регуляции социального поведения человека в процессе деятельности.

В формировании самостоятельности, креативности, социальной ответственности студентов, в проявлении научно-творческих способностей студентов, как и в художественном, важное место отводится таким понятиям, как остроумие и интуиция.

Остроумие — это творческая мысль, тесно связанная с чувствами и заключающаяся в неожиданном сопоставлении на первый взгляд несопоставимых явлений, во внезапном нахождении чего-то общего в таких фактах, которые отстоят далеко друг от друга по существу.

Интуиция — это некое полуинстинктивное сознание и вместе с тем стоящее выше обычного сознания, являющее собой по своей познавательной силе по существу сверхсознание. Она, как бы в одно мгновение, пробегая по частям, по малейшим деталям объекта, схватывает суть целого. Интуиция не составляет особого пути познания, идущего в обход ощущениям, представлениям и мышлению. Она составляет качественно особый вид умозаключения, когда отдельные звенья логической цепи проносятся в сознании более или менее бессознательно, а предельно ясно осознается именно итог мысли — истина».

Одним из важнейших новообразований интеллектуальной сферы в студенческом возрасте становится развитие теоретического мышления. Обычно обучающийся при получении знаний задаётся вопросу «почему?», его мыслительная деятельность более активна и самостоятельна; он более критично относится как к преподавателям, так и к содержанию получаемых знаний.

В заключении можно сказать, что у педагогов с высоким уровнем притязаний, направленным на дело, отличающихся такими личностными характеристиками, как упорство, ответственность, независимость в суждениях и поведении, творческим подходом к решению задач, внимательностью к мнению и интересам других людей, терпимостью в

социальных контактах, студенты обладают более выраженным творческим потенциалом, чем у педагогов с низким уровнем притязаний, с направленностью на отношения (коммуникативный аспект), конформностью, консерватизмом, нежеланием считаться с мнением других.

Используемая литература

1. Мухина В.С. Психология детства и отрочества. Учебник для студентов психолого-педагогических факультетов вузов. - М.: Институт практической психологии, 1998 г.
2. Пиаже Ж. Избранные психологические труды. М.: МПА, 1995 г.
3. Данилова М. Марина Данилова, Яна Мельвиль, Александр Савкин. Интегральный коучинг. Как научить и научиться /— М.: Манн, Иванов и Фербер, 2020.

MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARNI RUHIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA PSIXOLOGIK O'YIN MASHQLARIDAN FOYDALANISH

Olimjonova Sadoqat Axrorjon qizi

Namangan VPYMO'MM o'qituvchisi

Agar bizning o'qitishimiz asosan ongni shakllantirishga qaratilgan bo'lsa, taqlidiy xulq atvor hissiyot bilan bog'liq bo'lsa, bunda "yuksak ong" o'yin tufayli mashq qilinadi va shakllanadi.

P.V.Simonov

Taniqli metodolog olim G. P. SHchedrovskiyning ta'kidlashicha, o'yin – bu bolalar rivojlanishini boshqarish uchun jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan yoki vujudga keltirilgan bolalar hayotining alohida shaklidir; bu jihatdan qaraganda, uning ijodkori alohida odamlar emas, balki umuman jamiyat bo'lsa ham, o'yinning vujudga kelishi va rivojlanish jarayoni "ommaviy", "tabiiy-tarixiy" bo'lsa ham alohida pedagogik ijoddir, unda tabiiy tarixiy qonuniyat alohida kishilarning xilma-xil faoliyati orqali o'ziga "o'ziga yo'l ochgan".

O'yin dastavval – faoliyat mahsuli, uning vosistasida odam voqelikni qayta quradi, dunyoni o'zgartiradi. Bolaning dunyoga ta'sir ko'rsatishga bo'lgan ehtiyojining namoyon bo'lishi ilk bor o'yinda shakllanadi.

O'yinning mohiyati shundan iboratki, unda natija emas, balki jarayonning o'zi muhimdir. Bola o'ynaydigan vaziyatlar tasavvur etilgan bo'lsa ham ular boshidan kechiradigan tuyg'ular realdir.

O'yinning bu o'ziga xos xususiyati o'zida katta tarbiyaviy imkoniyatlarini mujassamlashtirgan, chunki o'yin mazmunini boshqarib, o'yin syujetiga muayyan rollarni kiritib, pedagog shu tariqa o'ynayotgan bolalarning muayyan ijobiy tuyg'ularini programmalashtirishi mumkin. Birinchidan, odam uchun ijobiy tuyg'ularni boshidan kechirish tajribasining o'zi muhimdir, ikkinchidan, kechinmalar orqaligina faoliyat ijobiy munosabatni tarbiyalashi mumkin. O'yin noo'yin faoliyatiga munosabatni shakllantirishning boy imkoniyatlariga ega.

S.L.Rubinshteyning ta'kidlashicha, bola u yoki bu rolni o'ynar ekan, u shunchaki soxtalik bilan begona shaxsga ko'chmaydi; rolga kirar ekan, u o'z shaxsini

kengaytiradi, boyitadi, chuqurlashtiradi.

Har doim bolalarning o'yinidagi markaziy jihat ular uchun eng muhim bo'lgan narsa, ya'ni boladagi mavjud ehtiyojlarga javob beradigan mazmun bo'lib chiqadi. SHu sababli bir xil mazmun turli yoshdagi bolalarga turli mohiyat kasb etadi. SHuni alohida ta'kidlash kerakki, bolalarning o'yini natijasida ular faoliyatining shunday mahsulotlari qoladiki, ularning mazmuni eng ko'p tarzda o'qish ehtiyoji bilan bog'liqlikdan yaqqol dalolat beradi.

Demak, agar o'yin harakatlari o'z mazmuniga ko'ra bola uchun ahamiyatli bo'lmasa, u o'yinga, o'yin holatiga kirmasligi, rolni hech qanday his – tuyg'usiz, shunchaki bajarishi mumkin. Ijod jarayoniga bo'lganidek, o'yinga ham odamni zo'rlik bilan uning irodasiga qarshi qo'yib bo'lmaydi.

Kam o'ynaydigan bola o'z rivojida orqada qoladi, chunki L. S. Vigotskiyning ifodasi bo'yicha o'yinda "bola o'zining o'rta yoshidan kattaroq, o'zining odatdagi xulq-atvoridan yuqoriroqdadir; u o'yinda o'zidan bir bosh yuqoriroqdir. Bola o'yinda o'zining odatdagi xulq-atvor darajasidan yuqoriroqqa sakrashga uringandek bo'ladi. Amalda bola o'yin faoliyati orqali harakat qiladi".

L. S. Vigotskiy o'yinning quyidagi aqlga sig'maydigan tomonlarini ajratib ko'rsatadi:

1. Bola eng kam qarshilikka uchraydigan yo'ldan boradi (qoniqish hosil qiladi), lekin eng katta qarshilik yo'ldan harkat qilishga o'rganadi. O'yin – iroda va mahorat maktabidir.

2. Odatda bola o'zi hohlagan narsadan voz kechishda ham qoidaga bo'ysunishni xis etadi, bu yerda esa qoidaga bo'ysunish eng ko'p darajada qoniqish hosil qilish sari olib boradigan yo'ldir. O'yin bolaga istakning yangi shaklini beradi, ya'ni istakni o'yindagi roli va uning qoidalari bilan qiyoslaydi. O'yinda bola eng yuqori natijalarga erishish mumkinki, bu natijalar ertaga uning real o'rtacha darajasi, uning axloqiga aylanadi.

Pedagogika va psixoterapiyada bolalar o'yin jarayonida xususan rolli o'yinlardan odamovilik, potologik tortinchoqlik, nutq sustligi va hatto duduqlanish kabi illatlarga yo'liqqan ayrim bolalar uchun tuzatish vositasi sifatida foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Demak, maktabgacha tarbiya yoshidagi o'quvchilarni o'quv faoliyatiga tayyorlashda o'yinlardan foydalanish juda yaxshi samara beradi. Undan bolalarni bilish jarayonlari: sezgi, diqqat, idrok, xotira, tafakkur, nutqini, shuningdek irodaviy sifatlarini, individual psixologik xususiyatlarini rivojlantirishga erishish mumkin.

Quyida ana shunday o'yin mashg'ulotlaridan na'munalar beriladi.

Timsoh va qurbaqalar

Maqsad. Bolalarda epchillik, chaqqonlik va vaziyatni to'g'ri taxlil qilish malakalarini rivojlantirish.

O'tkazish qoidasi. Bolalardan biri timsoh bo'ladi. U bir chetda ko'zini yumib turadi. Qolganlar qurbaqa bo'lib, xovuzda o'ynab, sayr qilib yurishadi. Timsox

ko‘zini ochib oyoqlarini tapirlata boshlaganda, qurbaqalar tezlik bilan berkinishlari kerak. Berkinishga ulgurmagan qurbaqalar timsoxga yem bo‘lishadi.

Qarsaklar

Maqsad. Diqqat va tafakkurni rivojlantirish.

O‘tkazish qoidasi. Hamma aylana bo‘ylab turadi. Boshlovchi bir marta qarsak chaladi. O‘ng tomonga qarab qarsak davom etadi. Boshlovchi o‘rnidan turib xohlagan joyiga borib o‘tirishi mumkin. Navbat boshlovchiga kelganda, boshlovchi qarsagidan so‘ng qarsak chalish qarama – qarshi tomonga davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Anikeeva. Jamoada ruhiy muhit. Toshkent. 1994y
2. Maktab va hayot. jurnali. 2015y 3 son.

ЭЛЕКТРОННАЯ ТЕТРАДЬ—ЭФФЕКТИВНЫЙ ПОМОЩНИК УЧИТЕЛЯ В РАБОТЕ С УЧАЩИМИСЯ

Тешаева Нигора

*Учитель Зарафшанской профессиональной школы. Узбекистан
г.Зарафшан*

Как говорил Платон : «Важнейшая движущая сила обучения –интерес» Активизация познавательной деятельности обучающихся является одной из приоритетных задач современного образования. Исследования педагогов показывают, что в процессе приобретения учащимся знаний, умений, навыков важное место занимает их познавательной активность, умение учителя активно руководить ею. [1, с.35]

Активность как самостоятельной, так и коллективной деятельности учащихся возможна лишь при наличии стимулов. Поэтому активизации особое место отводится мотивации учебно-познавательной деятельности. Главным в начале активной деятельности должно быть желание учащегося решить проблему, познать что – либо, доказать, оспорить. Принципы активизации учебно-познавательной деятельности учащихся, также как и выбор методов обучения, должны определяться с учетом особенностей учебного процесса. Помимо принципов и методов, существуют также и факторы, которые пробуждают учащихся к активности, их можно назвать еще и как мотивы или стимулы учителя, чтобы главным мотивом активизации учащихся. [2, с.59]

Что сегодня интересует ученика? Конечно же, это компьютер и современные технологии. Так почему бы нам не использовать это на своих уроках? С помощью компьютера обучения можно сделать еще более понятным и интересным.

Большинство представителей юного возраста воспринимают компьютер как неотъемлемую часть своего досуга, а изучения компьютера, как средства для собственного самообразования, поиска, обработки, передачи информации, изучение устройств и принципов работы компьютера, отходят на второй план у большинства обучающихся. Социальная среда позволяет в большей степени каждому обучающемуся работать с компьютером, как в школе, так и дома. И встает актуальный вопрос: как ученик проводит свое

время за компьютером: использует его как средство для самообразования или как средства для развлечения? Чтобы решить этот вопрос, необходимо данную деятельность направить в русло познания и творчества.

Наиболее эффективными, на мой взгляд, являются нестандартные формы

уроков, в частности, с использованием электронных тетрадей с помощью компьютера.

Что такое электронная тетрадь и как с ней работать?

Электронная тетрадь — это компьютерная программа, содержащая интересные задания различных типов и уровней сложности с самопроверкой.

Скорее всего, мы уже пользовались печатными тетрадями для учащихся, где они могли записывать ответы, соединять, закрашивать и выполнять другие действия, работая над заданиями. В электронной тетради у ученика намного больше возможностей и всё более ярко, красиво и точно. Учёт работы поможет учителю автоматически проверять все ответы и оценить результативность ученика.

С какими сложностями сталкивается в практической части урока?

- Создание или подбор разнообразных заданий
- Использование бумажной распечатки и других раздаточных материалов
- Желание учеников мгновенно получить оценку своей работы
- Необходимость проверки некоторых работ после уроков

Электронная тетрадь поможет нам провести практическую работу более эффективно. Это персональный учитель возле каждого ученика во время практической работы. Мы получим продуктивные интересные уроки, наше свободное время, репутацию современного учителя, возможность работать творчески, дисциплину на уроке, экономию ваших сил и энергии, наглядное и понятное обучение. Каждый ученик работает в удобном для себя темпе. Компьютер по первому желанию ученика мгновенно проверяет решения. Ведётся учёт и оценка результативности выполненной работы. Программа проверяет верно или неверно выполнено задание.

Электронная тетрадь выполняет следующие функции: учебно-информационную, развивающую, контролирующую, навигационную и стимулирующую. [3, с. 41]

Кому будет полезна эта электронная тетрадь?

Учителю- Представим, что практическая работа на наших уроках может проходить так... У нас уже все готовые интересные упражнения, и мы не тратим на подготовку к уроку много времени. На уроке дисциплина, потому что каждый работает в своём темпе, и мгновенно получает обратную связь от программы, и не тянет руку для того, чтобы вы скорее проверили его работу.

Родителю- Электронная тетрадь может быть использована родителями для дополнительных занятий с ребёнком. Она избавит от необходимости самостоятельно подбирать учебный материал для таких занятий, поможет качественно и увлекательно организовать их. К тому же занятия, построенные на материале электронной тетради, не потребуют от взрослых

больших затрат усилий и времени. А дети будут заниматься с удовольствием, поскольку задания, собранные в тетради, красочно иллюстрированы и носят занимательный характер. Результатом занятий по данному электронному пособию станут стабильные знания ребёнка, развитие интереса к предмету, желания учиться.


Ученику- Каждый ученик благодаря простому интерфейсу программы сможет работать с электронной тетрадью самостоятельно. Она позволяет ученику обучаться на практике, не требуя внимания учителя. Сама программа отвечает на его вопросы и показывает что правильно, а что неправильно. Многие задания в качестве исходных данных содержат случайные числа, что позволяет выполнить задание несколько раз, но уже с другим условием. При этом ведётся учёт и статистика по выполненным заданиям и допущенным ошибкам, что позволит ученику получить полноценную обратную связь и самостоятельно исправить допущенные ошибки.

Рассмотрим их возможности применительно к урокам химии. Преимущество электронной тетради заключается в том, что работать на уроке в ней может одновременно учитель и ученик (ученики), которым предоставлен


к ней доступ.

Например: Химия для 8 – класса.


В компьютере откроется папка 8-класс и всё необходимое для проведения уроков находится в следующих папках



В папке **Уроки** содержит список всех уроков



Откроем любую тему: **40. Реакции обмена** Здесь мы найдём видеоурок, презентацию, план-конспект, тесты(в программе MyTestX и в текстовом варианте) к данному уроку.



Литература:

1. Горбунова А. И. «Методы приёма активизации мыслительной деятельности учащихся.» М. : Просвещение, 1989
2. Замов Л. В. «Наглядность и активизация учащихся в обучении» Ростов- на –Дону: Легион, 2008
3. Дзюбеков А. А. Новые информационные технологии в образовании. – М., 2007.

КИТОБХОНЛИК МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ

Шоймуродов Тоҳир Зоминович, Ибодуллаева Зарифа

Гулистон давлат университети “Санъат” факультети Амалий саъат ва дизайн кафедраси ўқитувчиси, ГулДУ 1-курс “Санъат” факультети Амалий саъат бадиий кулолчилик йуналиши

Мамлакатимизда ёш авлодни баркамол қилиб тарбиялаш, уларнинг ҳаётга мустақил кадам қўйишлари учун барча зарур шароитларни яратишга қаратилган тизимли ишлар амалга оширилмоқда. Чунки бугунги ёшлар ҳар томонлама билимли бўлиши билан бир қаторда давр талабига жавоб берадиган жаҳон миқёсида маънавий рақобатбардош баркамол шахс бўлиб етишишларидан иборатдир.

Шунинг учун ҳам бугунги кунда таълим жараёнида педагогик технологиялардан фойдаланишга алоҳида эътибор берилаётганлигининг асосий сабаби қуйидагилардир: Биринчидан, педагогик технологиялардан фойдаланиш шахсни ривожлантирувчи таълимни амалга ошириш имкониятининг кенглигида. «Таълим тўғрисида»ги Қонун ва «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури»да ривожлантирувчи таълимни амалга ошириш масаласига алоҳида эътибор қаратилганлигида. Иккинчидан, педагогик технологиялар ўқув-тарбия жараёнига тизимли фаолият ёндашувини кенг жорий этиш имкониятини беришида. Учинчидан, педагогик технология ўқитувчини таълим-тарбия жараёнининг максадларидан бошлаб, ташхис тизимини тузиш ва бу жараён кечишини назорат қилишгача бўлган технологик занжирни олдиндан лойиҳалаштириб олишга ундашида. Тўртинчидан, педагогик технология янги воситалар ва ахборот технологияларнинг усулларини қўллашга асосланганлиги сабабли, уларнинг қўлланилиши «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» талабларини амалга оширишни таъминлашидадир. Ўқув-тарбия жараёнида педагогик технологияларни тўғри жорий этилиши ўқитувчининг бу жараёнда асосий ташкилотчи ёки маслаҳатчи сифатида фаолият юритишига олиб келади. Бу эса, ўқувчидан кўпроқ мустақил ишлаш, ижод қилиш ва ирода каби

сифатларни талаб этади. Ҳар қандай педагогик технологиянинг ўқув-тарбия жараёнида қўлланилиши шахсий табиатдан келиб чиққан ҳолда, ўқувчини ким ўқитаётганлиги ва ўқитувчи кимни ўқитаётганига боғлиқ. Педагогик технология асосида ўтказилган машғулотлар ёшларнинг муҳим ҳаётий ютуқ ва муаммоларига ўз муносабатларини билдиришларига интилишларини қондириб, уларни фикрлашга, ўз нуқтаи назарларини асослашга имконият яратади. Ҳозирги даврда содир бўлаётган инновацион жараёнларда таълим тизими олдидаги муаммоларни ҳал этиш учун, янги ахборотни ўзлаштирадиган ва ўзлаштирган билимларини ўзлари томонидан баҳолашга қодир бўлган, зарур қарорлар қабул қиладиган, мустақил ва эркин фикрлайдиган шахслар керак. Шунинг учун ҳам, таълим муассасаларининг ўқув-тарбиявий жараёнида замонавий ўқитиш услублари, яъни интерфаол услублар, инновацион технологияларнинг ўрни ва аҳамияти бекиёсдир. Педагогик технология ва уларнинг таълимда қўлланишига оид билимлар, тажриба ўқувчиларни билимли ва етук малакага эга бўлишларини таъминлайди.

Президентимиз Ш.М.Мирзиёев ижтимоий, маънавий-маърифий соҳалардаги ишларни янги тизим асосида йўлга қўйиш бўйича 5 та муҳим ташаббусни илгари сурган эди. Шундан, тўртинчи ташаббус ёшлар маънавиятини юксалтириш, улар ўртасида китобхонликни кенг тарғиб қилиш бўйича тизимли ишларни ташкил этишга йўналтирилган.

Бугунги кунда тўртинчи ташаббусга яъни ёшлар маънавиятини юксалтириш, улар ўртасида китобхонликни кенг тарғиб қилиш бўйича жамиятимизда китобхонликни ривожлантириш, айниқса, ёшлар ўртасида мутолаа маданиятини ривожлантиришга давлат томонидан алоҳида эътибор берилиб, кўплаб самарали ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, Президентимизнинг 2017 йил 12 январдаги «Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида»ги фармойиши, 2017 йил 13 сентябрдаги «Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида»ги ва 2018 йил 12 майдаги «Буюк алломалар, адиб ва мутафаккирларимиз ижодий меросини кенг ўрганиш ва тарғиб қилиш мақсадида ёшлар ўртасида китобхонлик танловларини ташкил этиш тўғрисида»ги қарорлари асосида мамлакатимизда китобхонлик маданиятини ривожлантиришга қаратилган бир қатор ташкилий-амалий чора-тадбирлар амалга оширилиши жамиятда китобга бўлган муносабатнинг ижобий томонга ўзгаришига замин яратди.

Зеро, китоб умр йўллари эритувчи сўнмас нур, инсон ҳаётига мазмун бахш этувчи саодат манбаи, унга ҳар қандай вазиятда ҳам ҳамроҳ бўлувчи содиқ дўст. Инсоннинг маънавий камолотини таъминлашда китоб сингари кучли қудратга эга восита йўқ. Шу боис азал-азалдан маърифат пешволари, аҳли донишлар бутун инсониятни китоб ўқишга, ундан илму одоб сирларини ўрганишга, чорлаб келишган.

Китоб мутолааси эса кишида шундай чин инсоний фазилатларни шакллантириб, уни ҳаётда ўз ўрнини топишга, жамиятнинг чинакам аъзосига айланишида, дунёқарабини кенгайтиришда беқиёс аҳамиятга эга. Зеро, буюк бобокалонимиз, сўз мулкининг султони Алишер Навоий ҳазратлари таъкидлаганларидек китоб – беминнат устоз, билим ва маънавий юксалишга эришишнинг энг асосий манбаидир.

Шу боис, олий ўқув юртларида китобхонлик маданиятини ривожлантириш борасидаги ишлар олий таълим юртлари раҳбариятининг доимий эътиборида бўлиб келаётганини таъкидлаб ўтиш жоиз. Чунки, бугун мамлакатимизда олий ўқув юртларининг ҳар бир талабаси «Халқ манфаатларига хизмат қилиш»ни муқаддас бурч деб биладиган ижтимоий йўналтирилган профессионал тузилмага айлантиришга қаратилган кенг кўламли ислоҳотларни амалга оширмоқдалар. Бугунги кунда ҳар қачонгидан ҳам долзарб аҳамият касб этган талабаларнинг касбий малакасини, ҳуқуқий билимларини ошириш, уларнинг маънавий дунёқарабини юксалтириш, ёшлар билан маънавий-тарбиявий ишларни янада кучайтириш каби вазифаларни бажаришда китоб энг яқин кўмакчи бўлиши шубҳасиз.

Бугун шиддат ила ривожланаётган замон билан ҳамнафас бўламан, деган ҳар бир ёш, жумладан, олий ўқув юртлари талабалари ҳам доимо ўз устида ишлаши, билим ва кўникмаларини тинимсиз ошириши зарур. Бунинг учун эса кун тартибида китоб мутолаасига ҳам вақт ажратиши, кундалик даврий нашрларни, интернет тармоғидаги янгиликларни кузатиб бориши лозим. Зеро, ёшлар доим халқимизнинг кўз ўнгида, аҳоли орасида жамоат ишларида актив қатнашади, табиийки, улар эртага келажак эгалари. Агар улар давлат органларида фаолият олиб борсалар, ҳар куни ўзига турли масалаларда мурожаат қилган фуқароларга қонуний ва асосли жавоб беришига тўғри келади.

Ўзингиз ўйланг, китоб ўқимаган, дунёқараши тор, нотиклик маҳорати бўлмаган ходим юқорида таъкидланган вазифаларни сифатли бажара оладими? Бирор-бир муаммо юзасидан ёрдам сўраб келган фуқарога қонуний йўл-йўриқ кўрсата оладими? Албатта, йўқ. Шу нуқтаи назардан қараганда, бугун ҳар бир ёш талаба жамиятда ҳуқуқий маданият тарғиботчисига айланиши, бунинг биринчи шарти сифатида, аввало, ўзи китобга ошно бўлиши лозим.

Китоб ўқиган инсон, қайси соҳада ишламасин, тўғри фикрлаш, оқу қорани ажратиш, мураккаб вазиятларда оқилона қарор қабул қилиш кўникмасига эга бўлади. Бундан ташқари, нутқи равон бўлади, одамларни ўз ортидан эргаштира олади. Булар эса ёшлар учун энг керакли сифатлар ҳисобланади.

Шу боис ҳам бугун ёшлар орасида китобхонлик маданиятини ривожлантириш, уларнинг ўз устида ишлаши учун зарур шароит яратиш борасида кўпгина ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, олий ўқув юртларида амалга оширилган ислоҳотлар жараёнида олий ўқув юртларига қарашли талабалар турар жойларида кутубхона ахборот-ресурс маркази ташкил этилди.

Ўтган давр мобайнида ёшлар ўртасида китобхонлик маданиятини юксалтириш, маънавий-маърифий ва ҳуқуқий билимларини ошириш мақсадида кутубхоналар замонавий жиҳозлар ҳамда электрон кутубхона учун компьютер тўпламлари билан таъминланди. Олий ўқув юрти қошидаги кутубхоналар янги ҳуқуқий, тарихий-сиёсий, бадиий, илмий-оммабоп ва бошқа жанрлардаги адабиётлар ва электрон ресурслар билан бойитилди. Электрон кутубхона Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси базасига ҳамда интернет тармоғига уланган бўлиб, ёшлар шу ердан туриб, улардаги ноёб китоблар, диссертация ва авторефератлар ҳамда дунёнинг кўплаб давлатларида чиқадиган даврий нашрлар билан танишиш имконига эга.

Ахборот-ресурс маркази фақатгина фойдаланувчиларга ахборот-кутубхона хизмати кўрсатиб қолмасдан, бу ерда турли янги асарлар тақдимотига бағишланган маънавий-маърифий тадбирлар, ёзувчи ва шоирлар билан учрашувлар ҳам ўтказиб келинмоқда.

Бундан ташқари, ёшлар ўртасида китобхонлик маданиятини юксалтириш, янги чоп этилган китобларни тарғиб қилиш мақсадида олий ўқув юртларининг барча факультетларида китоб ярмаркаларини ўтказиш йўлга қўйилган. Ушбу ярмаркаларда республикадаги етакчи нашриётлар ва китоб савдоси билан шуғулланувчи ташкилотлар ўзларининг янги чоп этилган турли жанрдаги китоблари билан иштирок этмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, юксак интеллектуал салоҳиятга, ўз мустақил дунёқарашига эга, ташаббускор, жисмонан соғлом ва маънан етук бўлган ҳақиқий ватанпарвар ёшларгина бугун тизимда амалга оширилаётган ислохотларнинг ҳал қилувчи кучи, халқимизнинг ҳақиқий маънодаги ҳимоячиси ҳисобланади. Ёшларда юқоридаги ижобий сифатларнинг шаклланишида эса уларнинг китобга ошно бўлиши, нафақат ўз касбий фаолиятига оид, балки турли жанрдаги китобларни ўқиб, ўз билими ва дунёқарашини кенгайтириб бориши муҳим аҳамият касб этади.

Адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. 2020 йил 2 мартдаги ПФ-5953-сон Фармони билан тасдиқланган.
2. Мирзиёев Ш.М. «Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида»ги фармойиши. 2017 йил 12 январь.
3. Мирзиёев Ш.М. «Буюк алломалар, адиб ва мутафаккирларимиз ижодий меросини кенг ўрганиш ва тарғиб қилиш мақсадида ёшлар ўртасида китобхонлик танловларини ташкил этиш тўғрисида»ги қарори. 2018 йил 12 май.
4. Р.Ишмухамедов, М.Юлдашев. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар (таълим тизими ходимлари, уқитувчилар, тарбиячи ва мураббийлар, методистлар учун ўқув қўлланма) - Т.: 2013.

SONLARGA OID MASALALAR VA ULARNI YECHISH USULLARI

Daminov Otabek Abdualimovich, O'talova Ozoda Amirullo qizi

Guliston davlat pedagogika instituti O'IBDO'. Guliston davlat pedagogika instituti talabasi. e-mail: odaminov@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada maktabda sonlarga doir masalalarni oson va tez hisoblash hamda qiziqarli yechish usullari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: son, raqam, hisoblash, maktab, o'quvchi, matematika

Har bir fan o'ziga xos alohida bir olam. Bu olamning ichiga chuqurroq kirib borgan sari uning mo'jizalarga duch kelamiz, ochilmagan qirralarni kashf etib boramiz.

Har bir sohani ayniqsa texnikani, tevarak - atrofimizni o'rab turgan borliqni matematikasiz, hisob –kitoblarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Inson misol va masalalar ustida bosh qotirar ekan nafaqat qog'ozda, balki kundalik hayotda duch keladigan katta-kichik muammolarning yechimini topishga, qiyinchiliklarni yengishga, turli vaziyatlarda osonlik bilan chiqib ketishga o'rganadi.

Matematika insoniyat tarixida turli hayotiy masalalarni yechishda azaldan qo'llanib kelingan. Insonning amaliy ehtiyojlari bilan bog'liq sodda hisoblashlar va o'lchashlar bajarilgan. Matematika bilan shug'ullanish orqali mantiqiy fikrlash, to'g'ri mulohaza yuritish, ijodkorlik kabi qobiliyatlar rivojlanadi.

Bugungi kunda matematikaning amaliy ahamiyati shundaki, u mexanika, fizika, kimyo kabi fanlardan tashqari iqtisod, meditsina, ijtimoiy va dunyoviy fanlarga ham jadal kirib bormoqda. [2]

Umumiy o'rta talim maktablarida matematika fani o'qitilishida o'quvchilarni fanga qiziqtirishda turli xil usullardan foydalanib dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish o'zining ijobiy samarasini beradi. Bunda ayniqsa, turli xil mantiqiy fikrlashga undaydigan, hisoblashga oid nostandart misol va masalalarni yechish o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada ortishiga ijobiy tasir etadi.

Ushbu maqolamizda biz o'z tajribalarimiz asosida tuzulgan matematik tugarak hamda matematik kechalarda foydalanishingiz mumkin bo'lgan, o'quvchilarni fanga, o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradigan misollardan keltirib o'tmoqchimiz. Bunda Pifagorning "Har bir sonni o'ziga yarasha ajoyibligi bor" degan fikriga naqadar ishonch hosil qilish mumkin.

I. Ayirmani topa olish:

Bir necha o'quvchilarga uch xonali son va shu sonni teskari tartibda yozishni buyiring. Ularning kattasidan kichigini ayirib hosil bo'lgan ayirmani birlar xonasidagi raqamni aytishni so'rang.

Ayirmada qanday son ekanligini aytib beraman.

Masalan o'qituvchi 673 sonini yozdi uni teskarisi 376 hamda $673 > 376$ ekan.

$$\begin{array}{r} \text{Demak} \\ 673 \\ - 376 \\ \hline **7 \end{array};$$

Sizning javobingiz 297.

Bu qanday aniqlandi shartni to'g'ri bajarsa. Har doim o'nlar xonasidagi raqam 9, bizlar xonasidagi raqam bilan yuzlar xonasidagi raqamlar yig'indisi 9 bo'ladi.

Agarda o'quvchi 475 va uni teskari tartibda yozilgan son 574 bo'lsa u holda $574 > 475$ ligidan

$$\begin{array}{r} 574 \\ -475 \\ \hline **9 \end{array}$$

Birlar xonasidagi son 9 ekanligini aytilsa, ayirma javobi 99 ekanligini topishiz mumkin.

II. Hech narsa so'ramay sonni topish.

Uch xonali son o'ylang (lekin u sonning birlar va yuzlar xonasidagi raqamlari ayirmasi 2 dan kichik bo'lmasin) bu sonni teskari tartibda yozish katta sondan kichigini ayiring, hosil bo'lgan ayirmaning teskari tartibda yozing va ularni qo'shing javobi tayor. Javob 1089, masalan:

$$\begin{array}{r} -764 \\ -467 \\ \hline 297 \end{array}; \quad \begin{array}{r} +297 \\ +792 \\ \hline 1089 \end{array}; \quad \text{yoki} \quad \begin{array}{r} -863 \\ -368 \\ \hline 495 \end{array}; \quad \begin{array}{r} -495 \\ -594 \\ \hline 1089 \end{array}$$

III. 11^2 , 111^2 , 1111^2 , ..., 111111111^2 , sonlarini kvadratlarini aniqlash.

$$11^2 = 121$$

$$111^2 = 12321$$

$$1111^2 = 1234321$$

.....

$$111111111^2 = 12345678987654321$$

IV. 5 raqami bilan tugaydigan ikki xonali sonlarni kvadrati.

$$15^2 = 225$$

$$25^2 = 625$$

$$35^2 = 1225$$

Demak birlar va o'nlar xonasidagi sonlar 25 ekan yuzlar va minglar xonasidagi sonni aniqlash uchun kvadrat ko'tarilayotgan sonni o'nlar xonasidagi raqami bilan 1 ta ortirilgan songa ko'paytirilganiga teng bo'lar ekan.

$$65^2 = m$$

Aniqlash uchun o'nlar xonasidagi 6 bilan $6 + 1$ ko'paytiramiz 42 sonini orqasiga 25 ni yozib quyamiz.

Demak

$$65^2 = 4225$$

V. Ikki xonali sonlarni kvadratlarini osonlik bilan topish.

$$1^2 = 1 \text{ hamda } 2^2 = 4 \text{ orsidagi farq } 3 = 2 * 1 + 1$$

$$2^2 = 4 \text{ hamda } 3^2 = 9 \text{ orsidagi farq } 5 = 2 * 2 + 1$$

$$3^2 = 9 \text{ hamda } 4^2 = 16 \text{ orsidagi farq } 7 = 2 * 3 + 1$$

$$4^2 = 16 \text{ hamda } 5^2 = 25 \text{ orsidagi farq } 9 = 2 * 4 + 1$$

$$5^2 = 25 \text{ hamda } 6^2 = 36 \text{ orsidagi farq } 11 = 2 * 5 + 1$$

$$6^2 = 36 \text{ hamda } 7^2 = 49 \text{ orsidagi farq } 13 = 2 * 6 + 1$$

Aytaylik $25^2 = 625$ hamda $26^2 = 625 + (2 * 25 + 1) = 625 + 51 = 676$ ya'ni ular orasidagi farq $51 = 2 * 25 + 1$ bo'ladi ekan.

Misollar

1) 79^2 ni aniqlaylik.

$80^2 = 6400$ ekanligini bilamiz. Ular orasidagi farqni aniqlaymiz. $2 * 79 + 1 = 159$ ekan buni bo'ladi ekan. Bundan $79^2 = 6400 - 159 = 6241$ topish mumkin.

2) 62^2 ni aniqlaylik.

$60^2 = 3600$ ekanligini bilgan holda. Bundan $62^2 = 3600 + (2 * 60 + 1) + (2 * 61 + 1) = 3600 + 244 = 3844$ ekanligini topish mumkin.

3) 77^2 ni aniqlaylik.

$75^2 = 5625$ ekanligini bilgan holda. Bundan $77^2 = 5625 + (2 * 75 + 1) + (2 * 76 + 1) = 5625 + 304 = 5929$ ekanligini topish mumkin.

VI. Sonlarni khpaytirishdagi ajoyibotlar.

a) 99 sonini 0 bilan tugamaydigan ikki xonali sonlarga ko'paytirish.

$99 * 37$ ga ko'paytirish. Birlar xonasidagi 9 va 7 ni ko'paytirib hosil bo'lgan ko'paytmadagi 63 sonni o'nlar xonasidagi raqamni 6 yuzlar xonasidagi 3 ni birlar xonasiga yozamiz/

$$99 * 37 = * 6 * 3$$

O'nlar xonasidagi 9 va 3 ni ayirib 6 ni on'lar xonasiga yozamiz. $99 * 37 = * 663$ minglar xonasidagi sonni aniqlash uchun o'nlar xonasidagi sonni 9 ga to'ldiramiz.yani 3

Demak: $99 * 37 = 3663$.

Aytaylik 1) $99 * 37$ ko'paytmani topaylik.

$$9 * 9 = 81$$

$$99 * 59 = * 8 * 1$$

$$9 - 5 = 4$$

$$99 * 59 = * 841$$

$$9 - 4 = 5$$

$$99 * 59 = 5841$$

2) $99 * 26$ ko'paytmani topaylik.

$$\overline{99} * \overline{26} = \overline{2574}$$

99 sonini 0 bilan tugaydigan ikki xonali sonlarga ko'paytirish. $99 * 80$ ko'paytiraylik buning uchun.

$9 * 8 = 72$ ni $99 * 80 = 7 * 2 * \text{birlar xonasini } 0 \text{ yozib yuzlar xonasini } 9 \text{ ni yozish kifoya. Yani } 99 * 80 = 7920$.

Misol. $99 * 40$ ga ko'paytirish.

$9 * 4 = 32$., $99 * 40 = 3 * 2 * \text{birlar xonasidagi } 0 \text{ ni yuzlar xonasidagi } 9 \text{ ni yozamiz/}$

$$99 * 40 = 3920$$

Xulosa a va b holatga ham birlar va yuzlar xonasidagi sonlar yigin'disi 9, o'nlar va minglar xonasidagi sonlar yi'indisi 9 bo'lar ekan.

Katta ikki xonali sonlarni ko'paytirishning sodda usullari

Misol-1:

$92 * 96$ ko'paytirish.

1) $100 - 92 = 8$; $100 - 96 = 4$;

$8 + 4 = 12$; $100 - 12 = 88$.

$88 * 100 = 8800$;

2) $8 * 4 = 32$.

Demak $92 * 96 = 8800 + 32 = 8832$.

Misol-2.:

$97 * 84$ ko'paytirish.

1) $100 - 97 = 3$; $100 - 84 = 16$;

$3 + 16 = 19$; $100 - 19 = 81$.

$81 * 100 = 8100$;

2) $3 * 16 = 48$.

Demak $97 * 84 = 8100 + 48 = 8848$.

Misol-3:

$82 * 79$ ko'paytirish.

1) $100 - 82 = 18$; $100 - 79 = 21$;

$18 + 21 = 39$; $100 - 39 = 61$.

$61 * 100 = 6100$;

2) $18 * 21 = 378$.

Demak $82 * 79 = 6100 + 378 = 6478$.

VII. Ikki xonali sonlarni ko'paytirishdagi ajoyibotlar.

a) Misol-1:

$24 * 27$ ko'paytirish.

1) $4 * 7 = 28$; $24 * 27 = **8$; 2 si dilda ,

2) $2 * 7 + 4 * 2 + 2(dildagi) = 14 + 8 + 2 = \bar{2}4$; 2 si dilda

$24 * 27 = *48$.

3) $2 * 2 + 2(dildagi) = 6$;

Demak $24 * 27 = 648$.

Misol-1:

$67 * 39$ ko'paytirish.

1) $7 * 9 = 6\bar{3}$; $67 * 39 = ***3$; 6 si dilda ,

2) $6 * 9 + 7 * 3 + 6(dildagi) = 54 + 21 + 6 = 8\bar{1}$; 8 si dilda

$67 * 39 = **13$.

3) $6 * 3 + 8(dildagi) = 18 + 8 = 26$;

Demak $67 * 39 = 2613$.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida matematik hisob kitoblar bilan shug'ullanishiga to'g'ri keladi. Shunday ekan, maktabda o'quvchilarga matematikaning boshqa fan sohalarini bilan bog'liqligini ham ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq. Buning uchun o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini oshirib borish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Yuqoridagi kabi sonlar va ular ustidagi arifmetik hisoblardagi ajoyibotlarni fan

tugaraklarida, matematik devoriy gazeta hamda matematik kechalarda foydalanish orqali o‘quvchilarni matematikaga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘uxati:

1. Barakayev M. va bosh. “Matematika o‘qitish metodikasi” – T. 2019-yil.
2. S.I.Fonina, Matematika va go‘zallik, o‘quv qo‘llanma, Toshkent, 1973.
3. Tolipov O‘., Ro‘ziyeva D. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”, Innovatsiya-ziyo, T., 2019-yil.

3-SHO‘BA. PEDAGOG KOMPETENTLIGI VA KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLARI

XALQ O‘YINLARINING O‘QUVCHILAR AXLOQIY TARBIYASIDAGI O‘RNI

Kulaxmetova Mavlyuda Pulatovna

*Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va
maxsus ta‘lim metodikalari kafedrası katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘yin individual psixologik xususiyatlar kompleksi bilan bogliqligi. kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni o‘yin jarayonidan individuallashtirish mazkur muammoni hal qilishning majburiy omili ekanligi keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, o‘zbek xalq o‘yinlari, mazmuni, shakl, metodlari, jarayon hayotiyliigi.

Boshlang‘ich ta‘lim – shaxs shakllanishi davrining eng muhim bosqichi. Bu davr bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo‘lgani uchun ham nozik e‘tibor talab etadi. Ayni shu pallada bola o‘zida “o‘quvchi shaxsi”ni yaratadi, maktabga va ta‘lim olishga nisbatan qiziqishni, mehrni tuyadi, ilm yo‘lidagi kelgusi natijalar uchun kuch to‘plashni boshlaydi. Bu esa, zamonaviy pedagogika oldidagi doimiy va murakkab masala sifatida darsliklarning g‘oyaviy, tarbiyaviy va ma‘rifiy saviyasiga jiddiy yondashishni talab etadi.

Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o‘qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Bugungi kunda o‘quvchilarda zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishning asosiy maqsadi – yosh avlodni har tomonlama yetuk, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan barkamol insonlar etib shakllantirishdir.

Maktab ostonasiga ilk qadam qo‘yib boshlang‘ich sinfga qabul qilingan bolaning faoliyatida o‘yin asosiy o‘rinni egallaydi. O‘yin ularning eng sevimli mashg‘uloti bo‘lib, ular har qanday mashg‘ulotni o‘yin bilan uyg‘unlashtirishga harakat qiladilar.

O‘yin individual psixologik xususiyatlar kompleksi bilan bogliq va shulardan kelib chiqqan. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni o‘yin jarayonidan individuallashtirish mazkur muammoni hal qilishning majburiy omilidir.

O‘quvchilarni yuksak saviyada tarbiyalash uchun zarur eng muhim psixologik-pedagogik omillar:

- o‘quvchilar o‘yinning mohiyatini uning bosqichlari va natijalarini to‘liq tushunib olishi;
- navbatdagi o‘yin faoliyatiga ijobiy munosabat;
- o‘yin uchun zarur bilimlar, ko‘nikma va malakalarni safarbar etish;
- o‘yingacha, o‘yin jarayonida va undan keyin ham o‘qituvchining hamma talablarini bajarish.

O‘yinning eng muhim psixologik siri shundaki, uni albatta ichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning muhim qiziqishlari asosida va ularni qanoatlantirish

maqsadi bilan tashkil etish lozim. Binobarin, o'yinda mazkur o'quvchilarning o'zlari

muallif va ijrochi hisoblanadi, ya'ni ularning o'zlari ijod qiladilar va ishlaydilar.

O'yin bolalik va o'smirlilikning ko'p qismi mobaynida yetakchi faoliyat bo'lib qoladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'zlariga tavsiya etilgan o'yinlar orqali bolalarni Vatanga muhabbati, qahramonligi, mehnatga ijtimoiy munosabati, o'zaro yordami, boshqalarga gamxo'rliqi asosini tashkil etadigan eng muhim axloqiy normalarini bilib oladi. Shuning uchun mazkur muammoni hal qilishning eng ma'qul psixologik-pedagogik sharti quyidagilardan iboratdir:

- dolzarb mazmuniga ega bo'lgan, muayyan maqsadga qaratilgan har xil mavzudagi o'zbek xalq o'yinlari kompleksini tanlash;
- o'yin faoliyatiga hissiy tayyorlash va hamdardlik qilish;
- pedagogika kichik maktab yoshidagi o'quvchilarini o'zbek xalq o'yinlariga qiziqitira olishi, ularda qatnashishining ajoyib natijalarini tushuntira bilishi;
- o'zbek xalq o'yinlariga rahbarlik mazmuni, shakl va metodlarining birligi;
- o'yin jarayonining hayotiyliigi va amaliyligi;
- o'quvchining mazmunini asta-sekin murakkablashtirish.

Shuni ta'kidlash kerakki, 1-2-3 sinflardagi o'quvchilarga tavsiya etiladigan o'yinlarni keskin farqlash, ajratish oson emas. Chunki bitta o'yinda barcha o'quvchilar qatnashishi mumkin. Shu bilan birga o'zbek xalq o'yinlarini sinflar bo'yicha tahlili quyidagicha:

1- sinf:

«Elchiga quvib yet», «Buyoqfurush», «Uloq», «Olomon poyga», «Poyga», «Oq terakmi- ko'k terak», «Qoch bolam, qush keldi», «Qovoq pishdimi?», «Cho'pon», «Ot o'yin», «O'z shahringni top», «Hindular», «Do'stlik poch-tasi».

2- sinf:

«Chavandoz», «Kurash», «Minora quruvchilar», «Oqsoq bo'ri va qo'ylar», «Botir echki», «Cho'pon va echkilar», «Bezak to'qish», «O'ynoqi tuya», «Baqa bilan laylak», «O'z juftingni top», «Bizning shaharlar», «Bayroqni qo'riqlash», «Afrikaga sayohat».

3- sinf:

«Dorbozlar», «Ot ustida kurash», «Hosil bayrami», «Gullar bayrami», «Bog'bon va gullar», «O'rtoqlarimizga sovg'alar», «Oltin tarvuz», «Bahs», «Qal'ani qamal qilish», «Xushyor soqchi», «Hosilni yig'ish», «Festivalda».

Mana shu o'yinlar mazmunining tafsilotlari yosh avlodni tarbiyalash manfaatlariga nihoyatda mosdir. O'zbek xalq o'yinlari muayyan tizim sifatida xalq o'yinlarining turli vazifalarini o'z ichiga oladi, ularni o'zaro bog'laydi, bu hol ularning tarbiyaviy imkoniyatini ancha kengaytiradi.

Dramalashgan o'yinlar:

Ular uchun o'zbek xalq ertagi va afsonalari asos qilib olingan. O'yinning vazifasi ertak va afsonalarni ijro etishdan iborat. O'yinning qoidalari o'yin

haratatlari rivojining izchilligini belgilaydi. Quyi sinf o'quvchilari rolni ijro etishda turli voqealarni ifodalab, vatanparvarlik ruhida tarbiyalanadi

Kulgili o'yinlar:

Xarakter va fe'l atvorni ziyraklik bilan ochib tashlashga, kishilardagi salbiy sifatlar ustidan kulishga asoslangan. Bu o'yinlar o'zbek xalqi madaniyatini aks ettiradi. Ularda askiyachilik katta o'rin tutadi.

Ertak o'yinlar:

Xalqning afsonalariga asoslanadi.

Yuqoridagi o'yinlarni tashkil qilishda quyidagilarni ham hisobga olish zarur:

- O'quvchilar jamoasini har tomonlama o'rganish. Ularning qiziqishi va mayillarini hisobga olish va shulardan to'la qoniqish, o'yin vaqtida foydalanishni rejalashtirish;

- O'quvchilarni o'yinning maqsadi, vazifasi, bosqichlari va borishi hamda xususiyatlar bilan tanishtirish. Bolalarning o'yinda ishtirok etish darajasini baholash va ragbatlantirish;

- O'quvchilarni navbatdagi o'yinga ma'naviy tayyorlashning muhim elementlari. O'zbek xalq o'yinlarining maqsad va vazifalarini tushuntirish bilan birga uni ifodalovchi kinofilm, o'quvchi shaxsiga qanday ta'sir qilishini tushuntirish, uning umuman o'zbek xalq o'yinini, shuningdek, uning bosqichlarini hamda qanday sharoitlarda o'tishini tushuntirish.

O'quvchilarni navbatdagi o'yinga ma'naviy tayyorlashning muhim elementlari: O'zbek xalq o'yinining kichik yoshli o'quvchilarning o'yin faoliyati, axloqiy, vatanparvarlik, halollik, soflik qabi xislatlarini shallanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalq milliy o'yinlari jarayonida bolalar o'zlashtirishi zarur bo'lgan so'z, tushuncha va tasavvurlar doirasini ham oldindan belgilab olish zarur. Chunki milliy o'yinlarimizning ko'pchiligi bolalarga yangi-yangi so'zlar, tushunchalarni o'zlashtirib borish imkonini beradi.

O'qituvchi esa o'yin davomida qo'llaniladigan ana shu so'zlarni bolalar tomonidan to'g'ri, aniq, ifodali talaffuz qilinishini ta'minlash kerak.

Xulosa qilib aytganda o'yin juda cho'zilib ketmasligi lozim. Aks holda bolalar charchab yoki zerikib qolishlari mumkin. O'qituvchi buni payqashi va o'yinni to'xtatib yoki bo'lmasa boshqacha yo'nalishga burib yuborishi mumkin.

xalq o'yinlardan har bir o'qituvchi samarali va ijodiy foydalanishlari mumkin. Bu esa o'qituvchilarning ta'lim sohasida erishadigan yutuq va muvaffaqiyatlari uchun omil bo'ladi, degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

11. Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

12. Azizxojayeva N.N., Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. –T. Adabiyot jamgarmasi. 2006.

13. "Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy metodikasi" dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo'llanmasi. – Toshkent, 2023.

14. Aydarova. U.B. O'qish savodhonligi. 2-sinf uchun darslik. –Toshkent, Novda Edutainment, 2023.

15. Toirova. M.E. O‘qish savodxonligi. 4-sinf uchun darsliq. –Toshkent, Novda Edutainment, 2023.

SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA OTA-ONA VA BOLALAR MUNOSABATLARI TAHLILI

To‘rabayeva Farangiz Abdumajid qizi
Guliston davlat universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sharqning buyuk allomalari o‘z asarlarida o‘doh-ahloq masalalari, oilaviy munosabatlar va ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘zlarining pedagogik, psixologik, ahloqiy, falsafiy jihatlaridan yoritib berilgan.

Kalit so‘zlari: Tib qonunlari, Chaqaloqlik davri. bolalik davri, bilim olish davri, komil inson.

XI asrning buyuk mutafakkirlari qomusiy olim tibbiyot fanining asoschisi Abu Ali inb Sino o‘zining “Tib qonunlari”, “Tadbiri manzil” asarlarida oilaviy munosabatlar va bola tarbiyasi masalalarga alohida e‘tibor beradi. Alloma bola tarbiyasida ota-onalarga qat‘iy talablar qo‘yadi. Uning fikricha, “bolani tarbiyalash oila, ota-onaning asosiy vazifasidir”. O‘z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo‘lgan ota-ona tarbiyasini berish mumkin. Ahloqiy tarbiyaga eng muhim vositalar bolaning nafsoniyatiga, g‘ururiga tegmagan holda yakkama-yakka suhbatga bo‘lishi, unga nasihat qilish qilishdir.”¹⁵ Allomaning bu borada qarashlar hozir kunda ham o‘z tasdig‘ini topmoqda.

Abu Ali ibn Sino o‘zining “Tib qonunlari” asarida bolaning tug‘ilganidan voyaga yetmaganiga qadar olib boriladigan tarbiya jarayoni, uni 3 boqsichga bo‘ladi:

1-bosqich. Chaqaloqlik davri.

2-bosqich. Bolalik davri. (6 yoshga qadar davom etadi).

3-bosqich. Bilim olish davri. (6 yoshdan 11-yoshga qadar davom etadi).

Allomaning bu boladagi qarashlari asarning tarbiya bobida berilgan: “Hamma vaqt bolaning istagan narsasini muhayyo qiliga va istmaganini uzoqlashishga tayyor turish kerak.

Bunda ikki manffat bor. Bir bolaning nafsi (ruhi) uchun bo‘lib, u yoshlikdan yaxshi xulqi bo‘lib o‘sadi va keyinchalik bu unga ajralmas malaka bo‘lib qoladi. Ikkinchisi uning badani uchundir, chunki yomon hulq turli mijoz buzilishlaridan bo‘ladi. Shuningdek, agar yomon hulq odamtga kirib qolsa, u mijoz buzilishini keltirib chiqaradi”. Allomaning fikricha bolalik davrida bolaning barcha ehtiyojlari qondirilmasa, u jismonan ham ruhan ham nosog‘lom bo‘lib voyaga yetishiga sabab bo‘ladi.

XI asrning buyuk mutafakkiri va shoiri Yusuf Hos Hojib o‘zining “Qutadg‘u – bilig”, “Saodatga boshlovchi bilim” asarida o‘zining obod ahloq, bola tarbiyasiga doim falsafiy qarashlari bayon etiladi.

Shoirning fikricha farzand ko‘rish va uning tarbiya berish ham bir inson uning buyuk baxtidir. Ularsiz hayotning mazmuni yo‘q:

¹ А.Зуннунов, М.Хайдаралиев, Б.Тўхтаев, Н.Хотамов “Педагогика тарихи” 53-бет. Т-2000

“Otaning bolaga mehnati singan bola,
Ota bolani nazoratda tutsa, u yaxshi ezgu bo‘ladi.
Otasi va onasining yuzi yorug‘ bo‘ladi.
Agar bola nazoratsiz bo‘lsa, u yaramas behudakor bo‘ladi.
Ota bolani dono va idroli qilib, tarbiyalanmoqchi bo‘lsa,
Uni doim nazoratda tutishi kerak.
Bolani kishi nima deydi eshitgin yoshi yetilgan,
Yoshi yetgan va boshidan o‘tkazgan kishi,
Kimning o‘g‘li-qizi erka bo‘lsa,
Unga shu kishining o‘zi mungli bo‘lib yig‘laydi.
Ota bolani kechikligidan bebosh qilib qo‘ysa
Bolada gunoh yo‘q, barcha jafo otaning o‘zida,
O‘g‘il-qizning hulq-atvori yaramas bo‘lsa,
Bu yaramas ishni ota qilgan bo‘ladi. Undan boshqa emas.”¹⁶

Shoirning fikricha bolani hulq-atvori yomon bo‘lsa, bunda bolani aybi yo‘q. Bunda faqatgina ota-onalarni bola tarbiyasiga e‘tibor berishga da‘vat etar ekan, jamiyat farzandlar hulq atvoriga qaratib ota-onalariga baho berishni aytib o‘tadi.

Komil insonni shakllantirishda maktabda, oilada, sog‘lom ma‘naviy muhit barqaror bo‘lishiga erishishi muhim ahamiyatga ega. Chunki, sog‘lom muhit natijasidagina ahloqiy fazilatlar tarkib topadi.

O‘tmishning ulug‘ allomalarining axloq haqidagi ko‘plab fiqr-mulohazalari bugungi kunda ham muhim tarbiyaviy ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Jumladan, qomusiy omil Al-Farobiy axloqiy fazilatlar haqida gapirar ekan, uning xislatlari haqida quyidagi fikrlarni bildiradi:

1. Bunday odamning barcha a‘zolari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo‘lishi kerakki, u bu a‘zolari bilan bajarmoqchi bo‘lgan barcha ishlarni osonlik bilan amalga oshira olsin.

2. Ovqatlanishda, ichimlik iste‘mol etishda ochko‘z bo‘lmaslik, tabiati qimor o‘yinlarini o‘ynashdan uzoq bo‘lsin va ular keltiradigan xursandchilikdan jirkanadigan bo‘lsin.

3. Haqiqatni va haqiqat tarafdorlarni sevadigan bo‘lsin, yolg‘on va yolg‘onchilarga nafrat bilan qaraydigan bo‘lsin.

4. G‘ururi va vijdonini qadrlaydigan bo‘lsin, uning ruhi o‘z tabiati bilan past ishlardan yuqori va olijanob ishlarga ishlatiladigan bo‘lsin.

5. Dirham, dinor vash u kabi turmush buyumlariga jirkanish bilan qarasin.

6. O‘z tabiati bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kurashuvchilarga, adolatsizlikka, jabr zulm o‘tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bo‘lsin.

7. Adolatli bo‘lsin, ammo qaysar bo‘lmasin. . .

“Tarbiya ikki negizga – axloq va oqillikka tayanmog‘i lozim. Birinchisi yaxshi fazilatni ustirsa, ikkinchisi o‘zgalor illatidan himoya qiladi. Demak, tarbiya ham axloqqa, ham insoniy munosabatlarga asrlar osha xalq tajribasida sinovdan o‘tib, o‘zining umrboqiyiligini isbotlagan qadriyatlarga, an‘ana va urf-odatlarga bog‘lansagina kuzatilgan natijaga olib keladi».

¹⁶ Юсуф Ҳос Ҳожиб “Кутадғу билиг” 233-бет. Т-1971 й

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurauf Fitrat "Oila" T.: "Ma'naviyat" 2000. 112-bet.
2. Abu Rayxon Beruniy "Hikmatlar" T.: 1973. 174-bet.
3. Abu Nosr Farobiy "Fozil odamlar shahri" T.: 1993. 224-bet.
4. Adizova T.M. "Zamonaviy o'zbek oilalarida o'smir bolalar shaxsi shakllanishi" T.: Xalq ta'limi 1998. №3son
5. Akramova F.A. "Oilada muomalani tashkil etish psixologiyasi" T.: "Shams ASA" 2006. 90-bet.

ILMIY-IJODIY QOBILIYATLAR DIAGNOSTIKASIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O'RNI

F. Babajanova, Bobojonova N

GulDU katta o'qituvchisi, 16-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Ta'lim tizimida psixologik xizmatning tashkil etilishi tarbiyalanuvchi, ta'lim oluvchi, talabning individual-psixologik xususiyatlarni o'rganish bilan, shaxsning har tomonlama kamol topishi, uning ham ma'naviy, ham aqliy rivojlanishi, o'zligini anglashi va qobiliyatlarini namoyon etishi uchun tegishli ta'limiy-tarbiyaviy hamda ma'naviy-ruhiy sharoitlar yaratishni nazarda tutadi. Shunga asosan, barcha ta'lim muassasalarida amaliy psixologlarga tegishli shart-sharoitlar yaratib berish kerak bo'ladi. Chunki har bir amaliy psixologning oldiga qo'yilgan aniq maqsad va vazifalari mavjud.

Har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud. Agar shu ichki quvvatning to'liq yuzaga chiqishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar yaratilsa, tafakkur har xil qotib qolgan eski tushuncha va aqidalardan xalos bo'ladi va har qaysi inson Alloh taolo ato etgan noyob qobiliyat va iste'dodini avvalo o'zi uchun, oilasining, millati va xalqining, davlatining farovonligi, baxt-saodati, manfaati uchun to'liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga erishadiki, uning sur'at va samarasini hatto tasavvur qilish ham oson emas.

Har bir bola tarbiyasiga aloqador bo'lgan shaxsni o'ylantirmasdan, to'liqlantirmasdan qo'ymaydi. Jamiyatimizda, ta'lim-tarbiya tizimida alohida o'rin tutayotgan amaliy psixologlar xizmati, tashxis markazlari barpo etilishi bejiz emas. Yosh avlodni to'g'ri yo'lga yo'naltirish, hayotda o'z o'rnini topishlari, o'z qobiliyatlari, qiziqishlari asosida kasb-hunarga ega bo'lishlari, jamiyatimizga foyda keltiruvchi shaxs bo'lib yetishishlari uchun yordam sifatida ushbu tashxis markazlari va amaliy psixologik xizmat yuzaga kelgan.

Xalq ta'lim tizimidagi psixologik xizmatning maqsadi - shaxsning har tomonlama mukammal psixologik taraqqiyotini ta'minlovchi oqilona, zarur shart-sharoitlar, omillar, qulay vaziyat va muhit yaratishdan iboratdir. Psixologik xizmatda tadqiqot va ta'sir o'tkazishning ob'ekti maktabgacha yoshdagi bolalar, umumiy o'rta ta'lim ta'lim oluvchilari, maxsus o'quv yurti va oliy maktab talabalari, o'qituvchilari, ota-onalar bo'lib hisoblanadi. Tadqiqot ob'ektiga kirgan kishilarni yakka tartibda, guruh yoki jamoaviy shaklda o'rganish mumkin.

Jahon psixologiyasi fanining boy tajribasida amaliy psixologlar tayyorlash bo'yicha nazariy va amaliy ahamiyatga molik ijobiy, tadbqiqiy ma'lumotlar muayyan darajada umumlashtirilgan. AQSh, Angliya va boshqa shu kabi

rivojlangan mamlakatlarda tashkiliy psixologiya sohasi yuzasidan bir talay izlanishlar amalga oshirilgan. Ushbu soha alohida yo‘nalish sifatida vujudga kelsada, lekin aslida u amaliy psixologiyaning ko‘lami kengaytirilgan bir ko‘rinishini aks ettirish xususiyati bilan boshqalardan muayyan tarzda tafovutlanib turadi, xolos. Davlatimiz mustaqillikka erishgandan buyon ta‘lim sohasida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar qatorida xalq ta‘limi tizimida amaliy psixolog shtati yuzaga kelgani va uning aniq maqsadi, vazifalari ham yaqqol ko‘rsatilib berilgani hozirgi vaqtda hech kimga sir emas.

Iste‘dodli va iqtidorli yoshlarni topish, ularni qo‘llab - quvvatlash hamda ularni qobiliyatlarini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishning respublika sistemasini ishlab chiqish kerak...»(2) degan so‘zlarini o‘qir ekanmiz xalq ta‘lim tizimida amaliy psixologga bo‘lgan talab naqadar dolzarb muammo ekanligiga amin bo‘lamiz.

Ma‘lumki, psixologik xizmat psixoprofilaktika, psixologik maorif va ma‘rifat, psixodiagnostika, psixik rivojlanish va psixokorreksiya, psixologik konsultatsiyalardan tashkil topgan bo‘lib, psixoprofilaktik ishlarining asosiy mazmuni ushbularga qaratildi:

Shaxsning qobiliyati, mayli, moyilligi, iqtidori, psixologik fazilatlar va xususiyatlari to‘laqonli darjada namoyon bo‘lishini ta‘minlash maqsadida ularning aqliy taraqqiyotini aniqlash uchun psixologik konsiliumlar tashkil etish;

Ta‘lim oluvchilar jamoasi a‘zolari o‘rtasidagi ruhiy zo‘riqish va toliqishni kamaytirish, yo‘qotish, ularning oldini olish uchun zarur chora va tadbirlar qo‘llash, muallimlarning kasbiy faoliyati uchun muhim kommunikativ malakalarni tarkib toptirishga ko‘maklashish;

Ta‘lim oluvchilar, talabalar, xodimlar, muallimlar o‘rtasida sodir bo‘luvchi har xil nizolarning psixologik ildizini o‘rganish, shaxslararo munosabatlarning asl mohiyatini namoyon qilish, ularni keltirib chiqaruvchi motivlarni tahlil qilish, favqulotdagi vaziyatni yengillashtirish va ularni tamoman bartaraf qilish yo‘llari yuzasidan maslahatlar berish kabilardir.

Ta‘lim muassasalari psixologining vazifalari diagnostika va korreksion ishlar bo‘lib, psixologik ishlar majmuasi ta‘lim oluvchilarni maktab, kollej va litseylarda o‘qitish davomida psixologik-pedagogik jihatdan chuqurroq o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning individual xususiyatlarini, ta‘lim va tarbiyasidagi nuqsonlarning sababini aniqlashga mo‘ljallangandir. Diagnostik ishlar guruhiy yoki yakka tartibda (individual tarzda) o‘tkaziladi. Bu asnoda amaliy psixolog quyidagi vazifalarni bajaradi:

Yosh davr taraqqiyotining muayyan mezonlariga muvofiqligini aniqlash maqsadida psixolog bolalar, ta‘lim oluvchilar, maxsus maktab va bilim yurti tinglovchilarini, oliy o‘quv yurti talabalarini psixologik tekshiruvdan o‘tkazadi, ularni kamolot darajasini belgilaydi...

Psixolog ta‘lim oluvchilar va talabalarning psixologik xususiyatlari, ularning qiziqish, mayli, ilk iqtidorliligi kabilarni o‘rganadi, ularga yakkaxol (individual) munosabat va yondashishini yo‘lga qo‘yadi, mutaxassis va yetuk shaxs sifatida shakllanishiga muayyan yordam ko‘rsatadi, trening (maxsus mashq) o‘tkazadi...

Psixologik xizmatning mazkur yo‘nalishi psixologdan inson shaxsi va individualligini tarkib toptirish jarayoniga faol ta‘sir o‘tkazishni taqazo qiladi. Xalq ta‘lim tizimidagi psixologning vazifasi psixologik xizmatni muayyan qoida, mezonga asoslanib tashkil qilishdan iborat bo‘lib, yosh davr xususiyatlariga binoan (bolalar, ta‘lim oluvchilar, talabalar) psixikaning rivojlanishi, shaxsning shakllanish qonuniyatlarini amaliyotga tatbiq etish, ta‘lim oluvchilar jamoasiga bolalar, ta‘lim oluvchilar va talabalar ta‘lim – tarbiyasini individuallashtirishda yordamlashish, ularning qobiliyati, maylining darajasiga qarab o‘qituvchilarga korreksion (tuzatish) ishlarini amalga oshirishda ko‘rsatmalar berish. Amaliy psixologning asosiy vazifasi konsultativ ishlardan iborat bo‘lib, u quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

Bolalar, ta‘lim oluvchilar, talabalar va ta‘lim-tarbiya ishi bilan shug‘ullanuvchi barcha shaxslarga, jumladan ma‘muriyat (direktor, rektor, mudira), o‘qituvchilar, murabbiylar, ota-onalar, ijtimoiy hamda jamoatchilik tashkilotlari xodimlariga aniq maslaxatlar berish.

Ta‘lim, tarbiya, taraqqiyot, kasb tanlash va turmush qurish, o‘zaro munosabat, muomala va muloqot sirlari, tengdoshlar va voyaga yetganlar munosabati, maslak, dunyoqarash, qobiliyat, iqtidor, axloq, diyonat, iymon, vatanparvarlik muammolari yuzasidan yakka tartibda, guruh va jamoa tarzida konsultatsiyalar uyushtirish.

Psixolog ta‘lim-tarbiya rejasini tuzishda, tarbiyaviy tadbirlar ishlab chiqishda, o‘quv dasturi va qo‘llanmalar yaratishda faol ishtirok etishi, bosh maqsad bo‘lgan shaxsning intellektual qobiliyati, umuminsoniy fazilati, bilim olish ko‘nikmalari va malakalari, mutaxassislik xislatlarini shakllantirishdek muqaddas ishga o‘zini munosib ulushini qo‘shishdan iborat sharafli vazifani bajaradi.

Hozirgi vaqtda ayrim maktablarda shunday achinarli hollar ro‘y bermoqdaki maktab amaliy psixologlari o‘z vazifalarini to‘liq anglab yeta olmayaptilar. Ular ayni ilk o‘spirinlik davrida, bolaning 15-16 yoshlarida kasbga qiziqishi kuchayishini, o‘z kelajagi haqida jiddiy o‘ylay boshlashini, unda ma‘lum bir fanlardan qobiliyatning namoyon bo‘lib boshlashi bilan qiziqmayaptilar. Shunday hollar ro‘y berayaptiki maktab psixologlari tashkiliy ishlar bilan o‘z vazifalarini bir oz chalkashtirib qo‘ymoqdalar.

Xalq ta‘limida amaliy psixologga juda katta majburiyat yuklanayapti. U o‘zi faoliyat yuritayotgan maktab, bilim yurti, ta‘lim – tarbiya muassasalarida har bir ta‘lim oluvchi haqida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lishi, uning oilaviy sharoiti, yoshi, psixik xususiyatlari, qiziqishlarini, bo‘sh vaqtlarida nima bilan shug‘ullanishi, unda o‘quv jarayonida qaysi fanlardan qobiliyati, iqtidori namoyon bo‘layotganligi, ichki kechinmalari haqida ma‘lum bir metodlar, anketa hulosalari asosida ma‘lumotlarga ega bo‘lishi zarur. Xuddi shu ma‘lumotlarga asoslangan holda individual ish rejasi bo‘yicha ishlashi kerak bo‘ladi.

Demak, shaxsning bilimdonligi uning atrof-muhit, tabiat va jamiyatda ro‘y berayotgan murakkab hodisalarni, kishilar o‘rtasidagi munosabatlarni anglash, baholash, o‘zi haqida tasavvurga ega bo‘lish negizida hayotda, kundalik turmush va ongli faoliyatda namunali ishlarni bajarish, insoniy fazilatlarga amal qilishni taqazo etadi. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasi oldida turgan eng muhim vazifa ham – kelajagimiz bunyodkorlarida aynan shunday sifatlar majmuini shakllantirishdir.

Zamonamiz yoshlari orasida o'z shaxsiy hayotlari to'g'risida jiddiy rejalarga ega bo'lganlari talaygina, ammo ota-ona qarmog'ida yashashga moslashib qolgan, o'z fikri, maqsadi bo'lmagan yoshlar ham yo'q emas. Shuning uchun amaliy psixologiya bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar xuddi ana shu yoshlar bo'lagiga ko'mak bermog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.G'.G'oziev «Tashkiliy psixologiya» - Toshkent-1999 y. 9-17 b.
2. Babajanova Fotima Farmanovna. SYSTEM OF IMPROVING PSYCHOLOGICAL PREPARATION OF STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY. International Engineering Journal For Research & Development Teacher of the Department "Psychology" E-ISSN: 2349-0721
<https://internationalbulletins.com/intjour/index.php/ibet/article/view/790>
3. Babajanova Fotima Farmanovna. The early juvernile age is the sensitive perlod for displaying scientific and creative abilities. Austrian Journal of Humanities and Social Sciences. Scientific journal № 3–4 2015 (March–April)
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/sposoby-emotsionalnogo-vozdeystviya-na-proyavlenie-nauchno-tvorcheskih-sposobnostey-lichnosti-v-yunosheskom-vozraste>

BOSHLANG'ICH SINIF INGLIZ TILI DARSLARIDA ENERJAYZERLARDAN FOYDALANISHNING TA'LIMY VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

Kalandarova Mavjuda Obidjonovna

*Guliston shahar Xalima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi ingliz tili
o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ingliz tili darslarida enerjayzerlar o'tkazishning ahamiyati, ya'ni o'quvchilarning psixo-fiziologik holati va fanni o'zlashtirishdagi o'rni haqida fikrlar bildirilgan holda, enerjayzer namunalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, ingliz tili, enerjayzer, fan, mavzu, jismoniy mashq.

Boshlang'ich maktablarda gigienaga oid ta'lim va tarbiya berishda o'quvchilarni sog'liqni saqlash to'g'risidagi dastlabki bilim, zarur gigienik malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish asosiy maqsad qilib qo'yiladi.

“Enerjayzer” inglizcha so'zdan olingan bo'lib, kuch va energiyamni qayta tiklayman ma'nosini bildiradi. Dars jarayonida: enerjayzerlardan foydalanish asosida bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish bilan bir qatorda, jismoniy va fiziologik rivojlanishlariga ham ahamiyat berib boriladi.

Bardamlashtiruvchi mashqlarning dars va uning mavzusiga bog'liqligi ham bolalarning charchog'ini chiqarish bilan bir qatorda dars mazmunini to'ldirib boradi.

O‘yinlar va bardamlashtiruvchi mashqlar - kichik treninglar, psixologik testlar, harakatli o‘yinlar, qo‘shiq va she‘rlar mazmuniga ko‘ra harakatlar qilish asosida amalga oshiriladi.

Inson hayoti davomida uch faoliyat turidan foydalanadi: o‘yin, o‘qish, mehnat. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining asosiy faoliyat turi o‘qish bo‘lishiga qaramay, bir faoliyatdan to‘la ikkinchisiga o‘tish bolada qiyinchilik tug‘diradi. Shu sababli dars jarayonida turli ta‘limiy o‘yinlar qo‘llangan holda darslar tashkil etiladi. Bular bilan bir qatorda o‘quvchini tetiklashtiruvchi mashqlar, dam olish daqiqalari o‘tkazish bolaning ruhiy, jismoniy toliqishini oldini olib, darsga bo‘lgan diqqatini jamlashga olib keladi. O‘tazilayotgan dam olish mashqlari, avvalo, dars mavzusiga, qolaversa, fanga mos bo‘lsa, yanada maqsadga muvofiq bo‘ladi. Quyida boshlang‘ich sinf ingliz tili darslarida qo‘llashni tavsiya etadigan enerjyazerlardan namunalar keltirib o‘tamiz.

“Ismim tarixi” enerjyazeri

Ishtirokchilar juftliklarga bo‘linadilar va bir-birlariga o‘z ismlari “tarixi” (ma‘nosi, kim qo‘ygani, o‘z ismiga munosabati va h.k.)ni aytib beradilar. Intervyu bir daqiqa daqiqagacha davom etadi. Suhbatdan so‘ng har bir ishtirokchi o‘z sherigini ingliz tilida tanishtiradi.

“Men va boshqalar” enerjyazeri

Bu o‘yinda guruh doira shaklida o‘tiradi va har bir ishtirokchi o‘z ismini va yo‘qtirgan rangni ingliz tilida aytadi. Masalan: Gulnoza-blue; 2-ishtirokchi o‘zidan oldingining so‘zlarini takrorlaydi va o‘zining ismi va rang aytadi- Gulnoza-blue, Malika-green, 3-ishtirokchi o‘zidan oldingilarning va o‘zining ismi va rang aytadi – Gulnoza-blue, Malika-green, Maftuna-yellow. O‘yin shu tariqa davom etadi va oxirgi ishtirokchi hammanikini aytib so‘ng o‘zinikini aytadi. Agarda ishtirokchi sifatni topishda qiynalsa, o‘qituvchi ishtirokchilardan yordam berishni taklif etadi.

Eslatma: bu o‘yin davomida bolalarning soni 10 tadan oshmasligi lozim.

“Sovg‘a” enerjyazeri. O‘qituvchi guruh ishtirokchilari uchun avvaldan tayyorlangan sovg‘ani chiroyli tarzda qog‘ozga yoki qutiga o‘raydi. Ushbu sovg‘a davra o‘rtasiga qo‘yiladi va ishtirokchilarga ingliz tilida yo‘naltiruvchi savollar orqali sovg‘a tariqasida qanday narsa o‘ralganligini topish taklif etiladi. Ishtirokchilardan kim birinchi bo‘lib ushbu sovg‘aning nomini ingliz tilida aytsa, sovg‘a o‘sha ishtirokchiga taqdim etiladi. Shunday sovg‘alardan to‘rtta tayyorlanadi va to‘rtta g‘olib ishtirokchi sovg‘a oladi. Masalan, sovg‘a tariqasida kitob o‘raladi va quyidagi yo‘naltiruvchi so‘zlar aytiladi: bu sovg‘amiz to‘rtburchak, rangli, ma‘lumot beruvchi, bolalar rivojlanishiga ko‘maklashuvchi, qiziqarli, biror mavzuga tegishli, bilim o‘chog‘i va h.k

“So‘z voleyboli” enerjyazeri. Ishtirokchilar davra bo‘lib turadilar.

O‘qituvchi davra o‘rtasida turib, biror ishtirokchiga ko‘ptokni otib, mavzuga oid so‘zni o‘zbek tilida aytadi, ko‘ptokni olgan ishtirokchi ingliz tilida aytishi lozim bo‘ladi. Masalan, olma -apple, nok- pear, banan-banana, orange -apelsin.....

“Konfet” enerjyazeri. Ishtirokchilarga konfetga ingliz tilida ta‘rif berish vazifasi topshiriladi. Ishtirokchilarning ta‘riflari flipchartga o‘qituvchi tomonidan yozib boriladi. So‘ng ishtirokchilarga turli rangdagi, shakldagi, mazali, tarkibli konfetlar tarqatiladi va mazasini ko‘rishlari so‘raladi. Ishtirokchilar konfetni

tamaddi qilganlaridan so'ng, yana bir bor o'qituvchi ularga murojaat etib, "Konfetga yana bir bor ta'rif bering" – deydi. Ishtirokchilar ya'na ingliz tilida ta'rif beradilar. Shunda o'qituvchi bolalar ham o'zlari mazasini ko'rib, his qilib, biror narsani ushlab, taqqoslab, yurgizib, ko'proq bilimga ega bo'lishlarini ta'kidlaydi. Inson har qanday narsani o'zidan o'tkazgandagina ushbu narsa unda mustahkam iz qoldirishini o'qituvchi eslatib o'tadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, o'quvchining charchashini va diqqatini jamlay olmayotganligini his etgan holda enerjayer, bardamlashtiruvchi mashqlar o'tkazish darkor. Bu asosda o'quvchining charchoq hissi tark etib diqqati maromiga keladi va berilayotgan bilimni olish imkoniyati kengayadi. Bardamlashtiruvchi mashqlarni 1-sinflarda ikki marta ham o'tkazilish mumkin, chunki bolalardagi holat buni taqozo etadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan enerjayerlar o'quvchining harakatlarini mujassamlashtirish bilan bir qatorda olgan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish imkonini ham beradi.

O'quvchilarning bilim olish darajalarini kengaytirish maqsadida bardamlashtiruvchi mashqlar o'tkazishni turli usullarda tashkil etish o'qituvchi mahoratiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. T. 2006.
2. Raximqulov Q.D. "Harakatli o'yinlar o'qitish metodikasi". T-2002.
3. www.multimedia.uz - O'zbekiston
4. Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi sayti.

DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA OILAVIY NIZOLARNING TA'SIRI

Xaydarova Sayyora Chinaliyevna

Guliston Davlat universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada o'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishiga oilaviy nizolarning ta'siri haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: xulq-atvor, oilaviy tarbiya, o'smirlar, oilaviy muammolar, nizolar, huquqbuzarlik, affektiv soha, disfunktsional oila, emotsional holat.

Hozirgi kunda nikoh va oila munosabatlari, oila institutini mustahkamlash turli soha mutaxassislari: yuristlari, demograflar, iqtisodchilar, sotsiologlar va psixologlar tomonidan jadal o'rganilayotgan bo'lsa-da, oilaviy muammolar, nizolar va oilada o'zaro ziddiyatlar ortib bormoqda. Shuning uchun bu borada ko'plab amaliy ishlar olib borilishi, sohaga oid xizmatlarni yanada takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalasiga aylangan. Xususan, bugungi kundagi ajralishlar sonining ortishi, oilaviy muammolarning barvaqt aniqlanmasligi, oldini olish chora-tadbirlarining qo'llanilmasligi oilaviy nizolar kuchayishiga sabab bo'lmoqda.

Shu bilan birga, oilada tarbiyaning salbiy omillarini ham esdan chiqarmaslik kerak. Bular:

- kattalarning noqonuniy xatti-harakatlari;
- ota-onalar ma'naviyatining qashshoqligi;
- normal psixologik iqlimning yetishmasligi;
- moddiy qadriyatlarning ustunligi va boshqalar.

Oiladagi salbiy, beshafqat muhit, ma'lum turdagi o'smirlardagi qo'pollik, yovvoyilik, sovuq munosabat kabi illatlarni paydo bo'lishiga zamin yaratadi, ular atrof-dagilarga nisbatan qarama-qarshi ruhda harakatlanib, tajovuzkorona buzg'unchilik sifatlarini namoyon qilishadi.

Bola baxtli, mustahkam va sog'lom oilada muloqot qilsa, u odatda o'ziga va atrof-muhitga ishongan, atrof-dagi madaniyat me'yorlarini adolatli va o'z-o'zidan ravshan deb qabul qiladigan odobli shaxs sifatida shakllanadi. Bola o'z kelajagiga ma'lum bir tarzda yo'naltiriladi. Agar oilaviy hayot qandaydir darajada qoniqarsiz bo'lsa, bolalarda ko'pincha tarbiyadagi bo'shliqlar, me'yorlarni o'zlashtirmaslik va deviant xatti-harakatlar rivojlanadi. O'smirlar o'rtasidagi huquqbuzarlik bo'yicha ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, deviant xulq-atvorga ega bo'lgan yoshlarning aksariyati disfunktsional oilalarda tarbiyalangan. Bu sohada amerikalik tadqiqotchilar ijtimoiy psixologiya belgilovchi beshta asosiy omil aniqlandi oilaviy hayot disfunktsional sifatida:

- o'ta qattiq otalik intizomi (qo'pollik, isrofgarchilik, tushunmovchilik);
- onalik nazoratining yetarli emasligi (beparvolik);
- otalik mehrining yetishmasligi;
- onalik mehrining yetarli emasligi (sovuqlik, dushmanlik);
- oilada hamjihatlikning yo'qligi (janjal, dushmanlik, o'zaro dushmanlik). Bu

omillarning barchasi bolaning oilada ijtimoiylashuv jarayoniga va pirovardida deviant xulq-atvorga ega shaxsni tarbiyalashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Adler shaxsiyatni shakllantirishning muhim omili sifatida oila tuzilishini aniqlaydi, bola va unga mos keladigan ta'lim turlarining o'zgarishi deviant xatti-harakatlarning paydo bo'lishiga sezilarli va ko'pincha hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

V.V.Korolev o'smir yoshidagi huquqbuzarlikning psixologik holatlarini o'rganish davomida ularga xos bo'lgan quyidagi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni aniqlagan: odob-axloq, namunali xulq tajribalarining yo'qligi, do'stlik, sevgi, jasurlik kabi ijtimoiy qadriyatlarni qabul qilmasligi, ular haqidagi to'pori tushunchalar, o'z-o'zini o'ta past yoki juda yuqori baholash, huquqiy va ma'naviy qadriyatlarni noto'g'ri tushunish va ularga teskari munosabatda bo'lish, tashqi barcha ta'sirlarga beriluvchan bo'lish.

I.A.Semikashevaning izlanishlari bo'yicha bunday guruhga kiruvchi o'smirlar ota-onaga o'xshash xislatlarga ega bo'lib, alohida insonlarni emas, o'zi mansub guruhni hurmat qiladi. Bunday o'smirlar o'z xarakterlariga ko'ra mas'uliyat sezmaydi, biroq tengdoshlari orasida hamma qatori harakatlanadi.

S.A.Kulakovning ta'kidlashicha, bunday xulqli o'smirlar ko'pchiligi psixoterapevtlarning mijozidir, ularga aniq tashxis qo'yish mushkil, ammo ularning ko'pgina xislatlari me'yoriy jihatdan buzilgan. Affektiv sohada - ular hissiy bo'shanglik, depressiya va hayajonga tez beriladilar. Talab qilish sohasida erkinlik,

himoyalanganlikka bo'lgan ehtiyojini yopib qo'yilishi, referent guruhiga xos bo'lishi, kognitiv sohada esa xulosa qilishni rad etish kuzatiladi.

B.N. Almazov disfunktsional oilalarning turlarini alohida ajratib ko'rsatdi: ta'lim resurslari yetishmayotgan oilalar, nizoli oilalar, axloqiy jihatdan noto'g'ri, pedagogik jihatdan qobiliyatsiz oilalarga.

L.S. Alekseeva va G.P. Bochkarev; disfunktsional, emotsional va zararli axloqiy muhitga ega oila turlarini ajratib ko'rsatdi.

A. Lichko va K. Leonhard ota-onalar bilan munosabatlarning buzilishi bilan xarakter va xatti-harakatlarning og'ishlarining eng ko'p uchraydigan ko'rinishlarini aniqladilar:

- giper himoya qilish (haddan tashqari qo'riqlash va nazorat);
- haddan ortiq g'amho'rlk (bolaning barcha ehtiyojlarini qondirish, uni barcha qiyinchiliklardan himoya qilish istagi);
- hissiy rad etish.

E.G. Eidemiller bolada og'ishish shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan, oiladagi quyidagi patologik rollarini aniqlaydi:

- ota-ona hissiyotlari doirasining kengayishi;
- o'zining nomaqbul fazilatlarini bolaga o'tkazish;
- ota-onalarning tarbiyasi muammolari;
- bolani yo'qotish fobiyasi.

Ota-onalarning aksariyat qismi farzandlarining noto'g'ri tarbiyasi kelgusida noxush oqibatlarga olib kelishini tushunmaydilar. Psixologik tadqiqot natijalariga ko'ra, bugungi kunda farzand tarbiyasi va yoshlardagi agressiv xulq-atvor normalarining namoyon bo'lishida oilalardagi psixologik muhitning nosog'lomligi, ota-onalarning farzand tarbiyasini "ikkinchi o'ringa" qo'yayotganligi va noto'liq oilalar sonining ortib borayotganligi sabab bo'lmoqda. Bu esa ta'lim muassasalari va mahallalarda yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash borasidagi nafaqat yoshlar balkim ularning ota-onalari bilan ham pedagogik bilimlar targ'ibotini olib borishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, oila tarbiyaning boshlang'ich o'chog'idir. Oiladagi muhit bolalar xulq-atvorida o'z aksini topadi. Doimiy nizoli vaziyat hukm surgan oilada, psixologik muhit buziladi va o'smirlar e'tiborsizlik kuchayadi. Natijada esa o'smir xulqida og'ishishlar yuzaga kela boshlaydi. Bunday vaziyat uzoq muddat davom etadigan bolsa, jiddiy deviatziyalarga olib kelishi mumkin. Nizoli oilada o'smirlar doim e'tiborsiz va qarovsiz qoladi, oilaviy muloqotga muhtojlik sezadi, u o'z galar panoh izlaydi, boshqa turli mashg'ulotlar topadi, xatto jinoyatchilikka qo'l urishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

7. G'oziyev E. G. "Psixologiya". T. 2008 yil.
8. G'oziev E.G. "Ontogenez psixologiyasi. Noshir taxriri ostida T. 2020 yil.
9. Karakulova U.A "O'smirlar xulq atvori shakllanishiga oilaviy munosabatlarning o'rni" O'zbekistonda psixologiyani rivojlantirish muammolari: nazariya va amaliyot uyg'unligi jurnal T. 2021 yil.

10. Karakulova U.A “Axborot savodxonligi va axborot izlash xulq-atvoridagi psixologik omillar”. Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik konferensiya. Oktyabr 2022 yil
11. Менделевич В.Д. Психология девиантного поведения. М.:2016 yil
12. Shoumarov G‘, Umarov B, Akramova F. Yoshlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilining oldini olish bo‘yicha psixologik maslahatlar. Toshkent.:2015 yil

«BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI KREATIV FIKRLASHGA O‘RGATISH USULLARI»

Asadullayeva Marg‘uba Hamidullayevna

*Fan va texnologiyalar universiteti “Boshlang‘ich ta‘lim” sirtqi
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini aniqlash va kreativ fikrlash motivatsiyalarini rivojlantirishning o‘ziga xos usullari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, boshlang‘ich sinf oquvchilarida zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni ega bo‘lishlari va hayotga tatbiq eta olishlarida ulardagi kreativ fikrlash motivatsiyalarining o‘rni va ahamiyati haqida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Kreativlik, axborot, qobiliyat, ijodkorlik, ko‘nikma, yaratuvchanlik, ped texnologiya, samaradorlik.

Ta‘limning asosiy vazifalari shaxsni ilmiy bilimlar, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Ta‘lim inson faoliyatining bir turi sifatida bir necha ma‘noni bildiradi. Ya‘ni ta‘lim oluvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilish ularda dunyoqarash, fikr va e‘tiqodlarni shakllantirish hamda ularning qobiliyatlarini o‘stirishdir. Ta‘lim orqali yosh avlodga insoniyat tajribasi orqali to‘plangan bilimlar beriladi, zaruriy ko‘nikma va malakalar hamda e‘tiqodlar shakllanadi. Ta‘lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo‘lib, u ikki tomonlama xarakterga ega, ya‘ni unda ikki tomon o‘qituvchi va o‘quvchi faol ishtirok etadi. O‘qituvchi aniq maqsadni ko‘zlab reja va dastur asosida bilim, malaka va ko‘nikmalarni singdiradi, o‘quvchi esa uni faol o‘zlashtirib oladi. Bildirish, bilish murakkab, qiyin, ziddiyatli jarayondir. Bu jarayonda inson psixikasiga tegishli sezgi, idrok tasavvur va tafakkur kabijarayonlar faol ishtirok etadi va muhim rol o‘ynaydi. Ta‘lim berish yoshlarga bilim berish. Ularda ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, ya‘ni haqiqatni ocha olishga qodir bo‘lgan jiddiy mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir.

Bugungi jadal rivojlanayotgan zamonaviy globallashtirish va axborotlashuv davrida ta‘limni yanada rivojlantirish va takomillashtirishni dars jarayonida innovatsiyalarning turli shakllaridan tatbiq etmasdan turib amaiga oshirish mumkin emas. Innovatsion ta‘lim ta‘limda birinchi navbatda, ijodiy qobiliyatlar, o‘z-o‘zini rivojlantirish va kreativ fikrlash ehg muhim motivatsiyalardan hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy imkoniyatlarini aniqlashda, ularning kreativ fikrlash motivatsiyalarini rivojlantirishda ta‘lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativlik—lotincha so‘z bo‘lib, “ijod” yoki “yo‘q narsadan yaratish” kabi ma‘nolarni anglatadi. Kreativlik –shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni, yangi g‘oyalarni aks ettirishi kerak. Kreativlik tushunchasi o‘zida xilma-xillik, qiziquvchanlikni, tafakkur va noan‘naviylikni aks ettiradi. Bugungi kun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida ijodkorlik va kreativlik bo‘lishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu jixati uning

ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda ham ushbu sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik fikrlash qobiliyati va ijodkorlik xususiyati uning ta'lim jarayonidagi muloqotida, tafakkurida, his-tuyg'ularida va muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, ehg avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlashdir. Darhaqiqat, har tomonlama fikrlash o'quvchilardan berilgan turli topshiriq, masala va vazifalarni bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Ya'ni topshiriqni bajarish, masalani yechishda o'quvchi yechimning bir necha variantlarini izlaydi, so'ngra ular orasidan eng maqbul birgina to'g'ri yechimga to'xtaladi. Oqituvchining ham dars jarayoniga kreativ yondashuvi o'quvchilarning darsda berilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari, qo'llay olishlari uchun muhim omil sanaladi. O'qituvchining kreativligi darsda ikki holatni kafolatlaydi:

- Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni, darsda "bir xillik" dan zerikkan o'quvchilar e'tiborini dars jarayoniga jab etish va qiziqtirish

- O'quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyatni aniqlash va rivojlantirish, rag'batlantirish uchun imkoniyat yaratadi.

Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi. O'qish darslarni tashkil e'tishda va o'quvchilarning darsda faolligi, qiziqishlarini oshirishda quyidagilarni hisobga olishni tavsiya qilaman:

- Yangi g'oyalar qabul qiling, bir xillikdan qoching, bu darsni boshlashingizdan tortib, o'tilgan mavzuni mustahkamlashda, yangi mavzuni bayon qilishingizda o'z aksini topsin. O'quvchi uchun yangilik bo'lsin. Bu o'quvchida a'lo kayfiyatni va darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Sinf xonasi o'quvchiga yoqadigan bo'lishi kerak. Sinf xonasining o'quvchiga yoqadigan qilib bezatilishi uning o'zini erkin va qulay his qilishiga yordam beradi.

- Darsni audio va videolardan foydalanib o'tish kerak.

- Darsni hayotga bog'lab o'tish kerak. Oquvchi faqat sinfdan o'tirishi kerak emas, vaqti bilan tashqariga olib chiqib dars o'tish ham yaxshi samara beradi. O'quvchi o'zi hayotida ana shu o'rganganlarini qo'llaydi.

- Darslarda sahna ko'rinishlardan foydalanish kerak. O'quvchi keng doirada o'zini tutishni o'rganadi.

- Mavzuni o'rgatishda rasmlardan foydalaning. Masalan, bitta hikoya uchun 5 ta rasm. O'quvchi hikoyaning mazmuniga qarab rasmlarni o'rniga qo'yadi.

- Darslarda topishmoq o'yinlardan foydalaning. O'rganish jarayoni xursandchilik bilan o'tadi. O'quvchini qiyinchiliklarni yengishga tayyorlaydi.

- Ijodkorligini oshirish uchun o'quvchi mavzuga mos ko'rgazmalarni ko'rib tursin, mavzudagi voqea-hodisani tasavvur qila olsin. Bu o'quvchining mavzuga

bo'lgan qiziqishini oshiradi.

- O'quvchining diqqatini jalb qilishda ko'rgazmalardan keng foydalanish kerak. Masalan, prezidentasiya qilib ko'rsatish. Darsda o'quvchida oxirgi taassurotni qoldirish bu juda muhim.

- Darsni ertak sifatida olib borish, qiziqarli hikoyaga bog'lab o'tish, o'quvchining yoqtirgan filmiga bog'lab o'tish ham o'quvchining darsga qiziqishini oshiradi.

- Darsda o'quvchilarni turli xil g'oyalarga undang. O'quvchi fikrini erkin aytsin. Bunda guruhlarbilan ishlash metodidan foydalanish yaxshi natija beradi.

- Toqatli bo'lish kerak. Bu o'quvchiga darrov baho berib qo'yishdan saqlaydi. Yana kechirimlilik, mehribonlik, mas'uliyat va o'quvchini eshita olish-bu o'quvchini fanni sevishi va yaxshi o'zlashtirishga yordam beruvchi omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, har bir kreator va ijodkor boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini o'z vaqtida aniqlashi va doimo rivojlantirib borishi shart va zarur. Hozirgi kundagi muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusning asosiy maqsadi ham o'quvchi va yoshlarning o'ziga xos kreativ qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga va ularning bo'sh vaqtini mazmunli, samarali tashkil etishga qaratilgan. Ozod va obod Vatanimizning ertangi kelajagi bugungi o'quvchi yoshlarning qo'lida ekan, buni biz o'qituvchi pedagoglar doimo yodda tutishimiz va o'z kasbimizga sidqidildan yondashishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb – hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori hujjatlari. 2017-yil
2. Pedagogika. O'. Asqarova va boshqalar. 7-bob. "Fan", 2004-yil
3. Xalq ta'limi jurnali . 55-bet. 2018-yil. 3-son
4. Matematika . 1-sinf. 2019-yil
5. "Kreativ pedagogika asoslari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent-2016

STUDYING THE PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INTERNET ADDICTION IN THE SOCIAL BEHAVIOR OF YOUNG PEOPLE

Mirzavev Djamshid Turdaliyevich

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze

Email: mirzjamshid.003@gmail.com

ИЗУЧЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ИНТЕРНЕТ-ЗАВИСИМОСТИ В СОЦИАЛЬНОМ ПОВЕДЕНИИ МОЛОДЕЖИ
YOSHLAR IJTIMOIIY XULQ-ATVORIDAGA INTRNETGA MOYILLIKNI
PSIXOLOGIK JIHATLARINI O'RGANISH

Abstract: the article examines the influence of Internet social networks on modern society. It is noted that the penetration of Internet social networks into the life of society presupposes their influence on socialization, education of young people, integrates them into the socio-normative system. Internet addiction as a

concept has three different meanings. The article presents the results of the study of Internet addiction as a dependent behavior within the framework of deviant behavior. That is why the dysfunctions of the social networks of the Internet can be considered as a potential space of deviation, especially in relation to the younger generation.

Keywords: Internet influence, communication, socialization, modern youth, informational vampirism.

Аннотация. В статье рассматривается влияние социальных сетей Интернета на современное общество. Отмечается, что проникновение социальных сетей Интернета в жизнь общества предполагает их влияние на социализацию, воспитание молодежи, интегрирует их в социально-нормативную систему. Интернет-зависимость как понятие имеет три разных значения. В статье представлены результаты исследования интернет-зависимости как зависимого поведения в рамках девиантного поведения. Вот почему дисфункции социальных сетей Интернета можно рассматривать как потенциальное пространство девиации, особенно по отношению к молодому поколению.

Ключевые слова: интернет-влияние, коммуникация, социализация, современная молодежь, информационный вампиризм.

Annotatsiya. Maqolada Internetning ijtimoiy tarmoqlarining zamonaviy jamiyatga ta'siri ko'rib chiqiladi. Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat hayotiga kirib borishi ularning ijtimoiylashuv, yoshlarni tarbiyalashga ta'siri, ularni ijtimoiyme'yoriy tizimga integratsiyalashuvini nazarda tutadi. Internet tushunchasi sifatida qaramlik uch xil ma'noga ega. Maqolada deviant xatti-harakatlarning bir qismi sifatida internetga qaramlikni o'rganish natijalari keltirilgan. Shuning uchun Internetning ijtimoiy tarmoqlaridagi disfunktsiyani, ayniqsa, yosh avlodga nisbatan potentsial deviatsiya maydoni deb hisoblash mumkin.

Kalit so'zlar: Internet ta'siri, aloqa, ijtimoiylashuv, zamonaviy yoshlar, axborot vampirizmi.

Jahonda bugungi kunda ijtimoiy ta'sirlarning jadal ravishda rivojlanishi, fan va texnologiyalar taraqqiyoti, axborotlar oqimining ortib borishi, inson omili bilan bog'liq fanlar oldiga yangi vazifalar qo'yimoqda. Ayniqsa, jadal sur'atlar bilan rivojlangan davlatlarda yuzaga kelayotgan ijtimoiy-psixologik tanglik holatlari rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. XX asrning eng katta kashfiyotlaridan biri bu - xalqaro tarmoq, ya'ni internet bo'ldi. Bu tarmoq qisqa yillarda televideniye, radio, gazeta va jurnallarni orqada qoldirdi. [4]

Kompyuter texnologiyalari insoniyat uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib, uni haqiqiy dunyodan "uzadi". Bu "psixologik nazorat qila olmaslik" deb ataladi yangi ma'lumotlar bilan to'yinganlik hissi, ya'ni kompyuterga qaramlik. Bunga vaqt ketadi bir necha yil ichida giyohvandlik xulq-atvorining an'anaviy shakllari va Internetga qaramlikni rivojlantirish Internetga qaramlar Internetdan foydalanish boshlanganidan 6 oy o'tgach paydo bo'ladi, bu ko'rsatkich 25% ni tashkil qiladi keyingi 6 oy - 58%, 1 yildan keyin - 17%. . Bunday tadqiqotlar oldini olish imkoniyatini oshiradi kompyuterga qaramlikning shakllanishi. [5]

Axborot psixologik xavfsizligi nafaqat psixologiyada o'rganiladi shuningdek, pedagogika, sotsiologiya, falsafa, axloqshunoslik, dabiyatshunoslik, ilohiyot fanlarida turlicha talqinlarda o'rganiladi. Axborot va psixologik xavfsizlikni shakllantiruvchi muqaddas kitobimiz Qur'ondagi hadis ilmiga, tarixiy manbalarda "Avesto"ga, qadimgi yozmalarga yodgorliklari asoslanadi, ajdodlarimiz Kaykovus, Y.H.Hojib, A.Yassaviy, A.Forobiy, A.Beruniy, A.Navoiy, H. Koshifiy, B. Naqshband, uning qalamiga mansub ilmiy-falsafiy asarlari o'z aksini topgan uning ta'limotlarida ayniqsa, ochiq axborot tizimlari, axborotlar sharoitida psixologik xavfsizlik xorijda va mamlakatimizda turli asoslarda o'rganilgan yondashuvlar bor. G'arb psixologlari L.Terman, R.Veys, E.Tead, G.Roland, Y.Bergess, M.Odema, P.Boennan etnik munosabatlarning psixologik talqinini ochib berdi, K.Yang, A.Goldberg, M. Griffist, R. Devis, J. Groxol, K. Surrat, P. Shumaxer, J.Moreichen-Martinslar g'arbda bu haqda to'xtalib shaxs ma'lumotlarining psixologik xavfsizligiga shaxsiy yondashdi, "Internetga qaramlik" tushunchasini tushuntirishgan. [1]

Bugungi kunda bepul Internet juda ko'paymoqda bu odamlar hayotini osonlashtiradi va ko'p vaqtni tejashga yordam beradi: kompyuterlar orqali biz har qanday ma'lumotni topamiz, muloqot qilamiz, xarid qilamiz, pul o'tkazamiz va millionlab boshqa favqulodda ishlarni qilamiz, uydan chiqmasdan va hatto stuldan turib kompyuter sichqonchasi bilan amallaymiz. Bizning zamonamizning boshqa o'zgarish atributlari ham kompyuterga qaramlikni shakllantirishga olib keladi:

- hayotning tobora tezlashib borayotgan tezligi;
- har kuni har birimiz uchun moslashuvchan va o'z-o'zini tashkil etish qobiliyatimizdan oshib ketadigan juda tajovuzkor ma'lumotlarning oqimlari;
- turmush sharoitini o'zgartirish va qadriyatlar tizimini devalvatsiya qilish, kasb-hunarga yo'naltirish va muvaffaqiyatga erishish;
- bolalar va ota-ona munosabatlarining buzilish xolati va oila inqirozi;

Ko'pgina tadqiqotchilar kompyuter qaramligining quyidagi asosiy turlarini ta'kidlashadi:

- obsesif Internet-bemaqsad (internetda doimiy ma'lumot izlash);
- virtual aloqa;
- onlayn savdo va onlayn qimor uchun ehtiros;
- cyberspex(pornografik saytlarga qaramlik);
- kompyuter tarmoq o'yinlari.

Ehtimol, kompyuter va internetga qaramlikning rivojlanishiga hissa qo'shadigan asosiy sabablar quyidagilardir:

- yangi his-tuyg'ularni, yangi identifikatsiyalarni qidirish;
- hissiy stress va tashvishlarni bartaraf etish;
- do'stlar, qo'llab-quvvatlash, muloqot qilish, ayniqsa, yolg'iz odamlar va aloqalarni o'rnatishda qiyinchiliklarga duch keladiganlar [3]

Kompyuter Internetga qaramlikni davolashning psixoterapevtik usuli.

Mo'jizaviy tabletkalar, gipnoz yoki boshqa narsalar haqida nima deyishlaridan qat'i nazar Kompyuterga qaramlikni davolashning yarim fantastik usullari - ularga ishonmang! Agar agar hamma narsa oddiy bo'lsa, giyohvandlar, ichkilikbozlar, patologik qimorbozlar va Chekuvchilar kamroq bo'lar edi.

Tuzatishning eng samarali usuli Kompyuterga qaramlik - bu psixoterapiya. Giyohvandlikni engishingiz mumkin individual va guruh psixoterapiyasidan foydalaning.[2]

Shuning uchun axborot va kommunikatsiyalardan samarali foydalanish mos ravishda texnologiyalari tizimi ishlab chiqish zarur, Internet tarmoqlari zamonaviy talablar bilan va yoshlarga yordam berish odamlar kerakli ma'lumotlarni oladi, yaratadi olish uchun zarur shart-sharoitlar dunyoviy fanlarni o'rganishda xizmat qiladi. [6]

Xulosa

Fikrimiz so'ngida shuni aytib o'tishimiz mumkinki internet muloqoti juda katta tasir maydoniga ega ekanligi hozirgi kunda dolzarb muommolardan biri ekanligini ko'rishimiz mumkin. Internet muloqotidan meyorida foydalanmaslik salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin hatoki sog'ligimizga ham jiddiy tasir etishi mumkin. Qachonki biz internetga bog'lanib qolishdan o'zimizni saqlay olsak shundagina uni foydali vosita sifatida qabul qilishimiz mumki bo'ladi. Atrofimizdagi yaqinlarimizga ham buni tushintirib o'tishimiz foydali bo'lar edi.

Adabiyotlar

1. Mirzayev Jamshid Turdalievich. "Social and psychological opportunities of information and psychological security in adolescents" International Conference on Developments in Education. Hosted from Bursa, Turkey. <https://econferencezone.org> July 15th 2022 45-48 p

<https://econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/1279>

2. Мирзаев, Д., & Наргулова, А. (2022). «Лечение интернет-зависимости. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы» Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы 1(1), 498–500. извлечено от

<https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5217>

3. Мирзоев, Д. (2022). "Internet qaramligini shakllanishning sabablari, mexanizmlari va diagnostikasi." Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), № 1 (2022) 500–503. извлечено от

<https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5218>.

4. Jamshid Turdaliyevich Mirzayev. Yoshlar ijtimoiy hulq-atvoriga internet muloqoti ta'sirining psixologik jihatlari. Tashkent Medical Academy Volume 4 | TMA Conference | 2023 Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions. Volume 4 | TMA Conference | 2023. May 6. 812-816 p. <https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlar-ijtimoiy-hulq-atvoriga-internet-muloqoti-ta-sirining-psixologik-jihatlari/viewer>

5. Mirzayev Jamshid Turdaliyevich. "Psychological aspects of influence of the internet - communication on the social behavior of the youth" / INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS. International scientific-online conference. 2023. Part 18. JUNE 3rd. 1295-1300 p.

<https://interonconf.org/index.php/neth/article/view/5386>

6. Mirzayev Djamshid Turdalievich/ PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INTERNET-COMMUNICATION IN SOCIAL SOCIETY OF YOUTH. The results of the study of Internet addiction on the method of Kimberly-Yang. NEUROQUANTOLOGY | October 2022 | VOLUME 20 | ISSUE 12 | PAGE 3409-3416| DOI: 10.14704/NQ.2022.20.12.NQ77350

<https://www.proquest.com/openview/c0c46eaeba7bf0e04fd82a955955a4dd/1?pq-origsite=gscholar&cbl=2035897>

INTERNET VA IJTIMOY TARMOQLARNING INSON RUHIYATIGA TA'SIRI

Toshtemirova Mohinabonu Bahodir qizi

GulDU Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada internet va ijtimoiy tarmoqlarning inson ruhiyatiga ijobiy va salbiy ta'sirlari to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoq, internet, stress, ijtimoiy aloqa, axborot.

Bugungi globallashuv jarayonida internet hammaning uzog'ini yaqin, og'irini yengil qiluvchi bo'lib rivojlanib kelmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning ko'payishi bizning dunyo bilan muloqot qilish, ishlash va o'zaro munosabatlarimizni tubdan o'zgartirdi. Biroq, ushbu raqamli platformalar ko'plab afzalliklari bilan bir qatorda inson psixikasi uchun son-sanoqsiz salbiy oqibatlarga olib keldi. Stress va xavotirning yuqori darajasidan ijtimoiy aloqalarning eroziyasiga va zararli xatti-harakatlarning kuchayishiga olib kelmoqda.

Stress va xavotirni kuchaytirish. Bildirishnomalar, elektron pochta xabarlar va ijtimoiy media yangilanishlarining doimiy to'siqlari foydalanuvchilar orasida stress va tashvish darajasini oshirishga olib keladigan giper-ulanish madaniyatini yaratdi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli qurilmalar va platformalardan tinimsiz foydalanish uyqu rejimini buzilishi, kortizol darajasini oshirishi va bezovtalik alomatlarini kuchaytirishi mumkin. Yetishmovchilik va ishonchsizlik tuyg'usiga hissa qo'shadi va psixologik bezovtalikni yanada kuchaytiradi.

Ijtimoiy aloqalarning eroziyasi. Paradoksal ravishda, ijtimoiy tarmoqlar ijtimoiy aloqalarni kuchaytirishga va'da berishsa-da, ular ko'pincha mazmunli munosabatlarning eroziyasiga olib keladi. Onlayn o'zaro ta'sirlarning keng tarqalishi yuzma-yuz muloqot va haqiqiy insoniy aloqaning pasayishiga olib keldi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanish yolg'izlik, izolyatsiya va begonalashish tuyg'ulariga olib kelishi mumkin, chunki shaxslar virtual munosabatlarni hayotdagi o'zaro ta'sirlardan ustun qo'yadilar. Onlayn o'zaro ta'sirlarning yuzaki tabiati va o'zini boshqalarning hayoti bilan taqqoslash tendensiyasi ijtimoiy yetishmovchilik va uzilish tuyg'ularini kuchaytiradi.

Zararli xatti-harakatlarni kuchaytirish. Internet va ijtimoiy tarmoqlar tomonidan taqdim etilgan anonimlik va mavjudlik kiberhujum, onlayn ta'qiblar kabi zararli xatti-harakatlarning ko'payishiga yordam berdi. Xususan, kiberhujum qurbonlarning ruhiy salomatligi va farovonligi uchun halokatli oqibatlarga olib keladigan keng tarqalgan tahdid sifatida paydo bo'ldi.

Haqiqatning buzilishi. Onlayn kontentning tanlangan tabiati va noto'g'ri ma'lumotlarning tarqalishi haqiqat haqidagi tasavvurlarni buzib ko'rsatdi, bu esa kognitiv buzilishlar va real bo'lmagan soxta axborotlarning tarqalishiga olib keldi. Ijtimoiy media platformalari ko'pincha haqiqatning buzilgan versiyasini taqdim etadi, bu yerda odamlar o'zlarining kurashlari va nomukammalliklarini yashirgan holda faqat hayotlarining muhim voqealarini namoyish etadilar. Bu kabi tarmoqdan foydalanuvchilar o'z hayotlarini ijtimoiy tarmoqlardagi ideallashtirilgan tasvirlar bilan solishtirganda, yetishmovchilik, hasad va o'ziga shubha hislarini kuchayishiga olib kelmoqda.

Internet va ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy hayotning ajralmas qismiga aylanib, dunyo bilan bog'lanish, o'rganish va muloqot qilish tarzimizni o'zgartirdi. Ularning ruhiy salomatlikka salbiy ta'siri haqida xavotirlar ko'p bo'lsa-da, ushbu raqamli platformalarning inson ruhiyatiga son-sanoqsiz ijobiy ta'sirini tan olish juda muhimdir. Ijtimoiy aloqalarni osonlashtirish va jamoatchilikni qo'llab-quvvatlashdan tortib, axborot va resurslarga kirishni ta'minlashgacha, internet va ijtimoiy tarmoqlar shaxsiy o'sish va farovonlik uchun juda ko'p imkoniyatlarni taqdim etadi.

Ijtimoiy aloqalarni osonlashtirish. Ijtimoiy tarmoqlarning eng muhim afzalliklaridan biri bu ularning ijtimoiy aloqalarni osonlashtirish va tegishlilik tuyg'usini rivojlantirish qobiliyatidir. Facebook, Twitter va Instagram kabi platformalar geografik chegaralardan qat'i nazar, odamlarga do'stlari, oilasi va hamfikrlari bilan bog'lanish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, internetda kuchli ijtimoiy aloqalarni saqlab qolish yolg'izlik va izolyatsiya tuyg'ularini kamaytirishi, umumiy psixologik farovonlikni oshirishi mumkin. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar odamlarga tajriba almashish, qo'llab-quvvatlash va mazmunli munosabatlarni rivojlantirish uchun platformalar taqdim etadi, bu esa ko'proq chidamlilik va hissiy qo'llab-quvvatlashga hissa qo'shadi.

Axborot va resurslarga kirish. Internet axborot va resurslarning keng ombori bo'lib xizmat qiladi, bu shaxslarga deyarli har qanday mavzu bo'yicha bilim va tajribaga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Onlayn kurslar va o'quv videolaridan tortib forumlar va munozarali guruhlariga qadar internet o'rganish va shaxsiy rivojlanish uchun mislsiz imkoniyatlarni taqdim etadi. Ruhiy salomatlik manbalari, o'z-o'ziga yordam berish strategiyalari va qo'llab-quvvatlash tarmoqlari to'g'risidagi ma'lumotlarga kirish odamlarga ruhiy farovonligini nazorat qilish va kerak bo'lganda yordam so'rash imkonini beradi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar sog'liqni saqlash ma'lumotlarini tarqatish, ruhiy salomatlik muammolari to'g'risida xabardorlikni oshirish va yordam so'rash bilan bog'liq stigmani kamaytirish uchun platformalarni taqdim etadi.

Aloqa va hamkorlikni kuchaytirish. Raqamli aloqa vositalari va ijtimoiy tarmoqlar bizning muloqot va hamkorlik tarzimizni o'zgartiradi, innovatsiyalar va ijodkorlikni rivojlantirdi. Slack, Microsoft Teams va Google ish maydoni kabi platformalar jismoniy joylashuvdan qat'i nazar, shaxslar va jamoalar o'rtasida uzluksiz hamkorlikni ta'minlaydi. Virtual uchrashuvlar, tezkor xabar almashish va hujjatlarni birgalikda tahrirlash real vaqtda muloqot va fikr almashishni osonlashtiradi, samaradorlikni oshiradi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar,

malaka oshirish va bilim almashish uchun platformalar bo‘lib xizmat qiladi, yangi imkoniyatlar va martaba ko‘tarilishi uchun eshiklarni ochadi.

Qo‘llab-quvvatlovchi jamoalarni qurish. Ijtimoiy tarmoqlar umumiy manfaatlar, shaxsiyatlar va tajribalar atrofida qo‘llab-quvvatlovchi jamoalarni qurish uchun markazga aylandi. Onlayn forumlar, qo‘llab-quvvatlash guruhlar va targ‘ibot tashkilotlari shaxslarga shu kabi muammolarga duch kelgan boshqalar bilan bog‘lanish, tajriba almashish va o‘zaro yordam taklif qilish uchun joy ajratadi. Ushbu jamoalar tasdiqlash, hamdardlik va rag‘batlantirishda, ayniqsa guruhlar va ijtimoiy tarmoqqa duch kelgan shaxslar uchun muhim rol o‘ynaydi. Ruhiy salomatlik muammolari, surunkali kasalliklar yoki shaxsiy kurashlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘ladimi, bunda onlayn hamjamiyatlar bebaho yordam va birdamlikni taklif qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki: Internet va ijtimoiy tarmoqlar, shubhasiz, bizning muloqot tarzimizni o‘zgartirgan bo‘lsa-da, ularning inson ruhiyatiga salbiy ta‘sirini e‘tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning ruhiy salomatlikka salbiy ta‘siri haqidagi xavotirlar asosli bo‘lsa-da, ularning inson ruhiyatiga qo‘shgan muhim ijobiy hissalarini tan olish juda muhimdir. Raqamli platformalar ijtimoiy aloqalarni osonlashtirish va ma‘lumotlarga kirishni ta‘minlashdan tortib, aloqani kuchaytirish va qo‘llab-quvvatlovchi jamoalarni barpo etishgacha shaxsiy o‘sish, chidamlilik va farovonlik uchun ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etib kelmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardan to‘g‘ri foydalanib o‘zimizga kerakli bo‘lgan turli ma‘lumotlarni qisqa muddatlarda topishimiz mumkin. Shunday ekan biz avvalo internetdan to‘g‘ri foydalanishni o‘rganishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sherry Turkle, "Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other" (2011)
2. Nicholas Carr, "The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains" (2010)
3. Sherry Turkle, "Reclaiming Conversation: The Power of Talk in a Digital Age" (2015).
4. Jean M. Twenge, "iGen: Why Today’s Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy--and Completely Unprepared for Adulthood--and What That Means for the Rest of Us" (2017)
5. Mary Aiken, "The Cyber Effect: A Pioneering Cyberpsychologist Explains How Human Behavior Changes Online" (2016)
6. Vannucci, A., Flannery, K. M., & Ohannessian, C. M. (2017). Social media use and anxiety in emerging adults. *Journal of Affective Disorders*, 207, 163-166.
7. Frison, E., & Eggermont, S. (2016). Browsing, posting, and liking on Instagram: The reciprocal relationships between different types of Instagram use and adolescents’ depressed mood. *Cyberpsychology, Behavior, and Social Networking*, 19(6), 336-342.

8. Hunt, M. G., Marx, R., Lipson, C., & Young, J. (2018). No more FOMO: Limiting social media decreases loneliness and depression. *Journal of Social and Clinical Psychology, 37*(10), 751-768.

9. Rosen, L. D., Whaling, K., Rab, S., Carrier, L. M., & Cheever, N. A. (2013). Is Facebook creating "iDisorders"? The link between clinical symptoms of psychiatric disorders and technology use, attitudes and anxiety. *Computers in Human Behavior, 29*(3), 1243-1254.

10. Boyd, D. (2014). *It's complicated: The social lives of networked teens*. Yale University Press.

TA'LIMDA KOMPETENTLIKKA ASOSLANGAN SAMARALI YONDASHUV – KASBIY RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA

Shukurova U.U, Jurayeva Y

*Guliston davlat pedagogika institute "Pedagogika" kafedrası dotsent
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), 13-23-gurux talabasi*

Ta'lim tizimi oldida o'z yechimini topishi lozim bo'lgan muammolar qatorida iqtisodiy globallashuv jarayoni natijasida vujudga kelayotgan o'zgarishlarni, fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarish amaliyotiga intensiv tarzda tadbir etilishi oqibatida Oliy ta'lim muassasasining bitiruvchisi va Ishlab chiqarishdagi texnologiyalar orasida kuzatilayotgan tafovutlarni bartaraf etish ham turadi. Shu sababli, mamlakatimizda ta'lim va ishlab chiqarish orasidagi munosabatlarda talaba ilm-fan natijalarini amaliyotga va amaliyot natijalarini ilm-fan bilan o'rganuvchisi sanalib, uning yangiliklarga bo'lgan munosabati jamiyatning rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omil sanaladi. Bu o'z navbatida ularda innovatsion kompetensiyalarni shakllantirishni taqozo etadi.

Kompetensiya nazariyasidan ma'lumki, talabalarda innovatsion kompetensiyani asosiy komponentlarini shakllantirish uchun, birinchi navbatda umumiy bo'lgan tushunchalarning mazmun-mohiyatini o'rgatish taqozo etiladi. Ikkinchi navbatda, tushunchalarni o'rinli qo'llash va mazmunining qamrovini inobatga olishni o'rgatish shart bo'ladi. Shu bilan birgalikda o'zi egallayotgan sohaga oid yangiliklarni yaratib ularni takomillashtirib borish lozim. Bu holat o'z navbatida «kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish», «kasbiy rivojlanishni ta'minlash», «innovatsion faoliyat yuritish», «kasbiy tafakkur» kabi tushunchalarni talqinini amalga oshirishni talab etadi.

Ta'limda kompetentlikka asoslangan yondashuv samarali natijalar berishini inobatga olsak, bazaviy komponentlarni belgilab, ta'limiy manbalarni tayyorlashda unga e'tibor qaratish taklif etiladi. Ta'lim sohasi ham bundan mustasno emas. YUqori darajadagi kompetentlik, harakatchanlik, o'z-o'zini rivojlantirish usullarini o'zlashtirish – bu zamonaviy talabaga xos bo'lishi lozim bo'lgan fazilatlar ro'yxatidan juda uzoqdadir.

Kompetentlikka asoslangan yondashuv talabaning kasbiy ta'limini yangilash sharoitida pedagogika fani tomonidan tan olingan usullardan biridir. SHuning uchun, bizning fikrimizcha, «kasbiy kompetensiya» tushunchasini har tomonlama o'rganib chiqish muhimdir. Bu tushunchaning etalonli talqini yaratilmagan. Lekin pedagogika va psixologiya fanlari doirasida ish olib borgan tadqiqotchilarning bir guruhi kasbiy-pedagogik kompetensiya muammosi ustida tadqiqotlar olib borishgan. Olima N.Kuzmina kompetentlikni talabaning faoliyatida samaradorlikka erishish yo'li deb hisoblaydi. SHu tariqa, «kasbiy kompetensiya» tushunchasi kasbiy faoliyat sub'ektlarining real mehnat voqelikda kasbiy qurol-aslahalarni maqsadli qo'llay olish qobiliyati sifatida amal qiladi. Bu tarzdagi nazariy munosabat akademik E.A.Klimovning konsepsiyasidagi «Inson-Inson», «Inson-Texnika» tizimiga taalluqli bo'lgan kasblarni xarakteristikasi, ya'ni kasbni egallovchi sub'ektni individual xususiyatlarini mos tushishi bilan izohlanadi. Bunda innovatsion faoliyatga yo'naltirishda, oliy ta'lim muassasalari psixologlari kasbiy layoqat masalasiga e'tibor qaratishlari tavsiya etiladi.

E.F.Zeerni fikriga ko'ra kasb bilan shug'ullangan har bir shaxs aniq kompetensiyalarga ega bo'lishi, ya'ni kasbiy muhim fazilatlar sohibi bo'lish bilan bir qatorda, faoliyat sub'ektini o'zini ham shakllantirishni, ya'ni egallagan kompetensiyaning asosiy komponentlarini mehnat amaliyotiga qo'llay olishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetensiya, bazaviy komponentlarning asosida shakllanib, kasbiy ta'lim amaliyotida o'zlashtiriladigan bilim, kasbiy tajriba (laboratoriya ishlarini bajarish davomida) va individual-shaxsiy qobiliyatlarga ega bo'lish bilan bog'liqdir. Bu, o'z navbatida kasb sub'ekti kasbiy jihatdan o'zini doimiy ravishda rivojlantirishga intilib, o'zi faoliyat yuritadigan sohada ijodiy munosabatda bo'lib, ongli harakatlarni amalga oshirishi talab etiladi. Ushbu fazilatlar B.S.Gershunskiyning tadqiqotlarida ilgari surilgan qarashlarga ko'ra, professional (kasbiy) ta'lim tarkibi va mazmuniga kiritilishi lozim. Bizningcha, B.S.Gershunskiyning qarashlari uzluksiz kasbiy ta'lim konsepsiyasi nuqtai nazarida o'rinli sanalib, ta'lim sub'ekti egallayotgan kasb egasiga qo'yiladigan shaxsiy talablar majmuasini o'zida ifoda etishi lozim. Bu o'z navbatida ta'lim va ishlab chiqarish orasidagi ijtimoiy masofani yaqinlashtirishni taqozo etadi.

L.M.Mitina tomonidan ishlab chiqilgan talabaning kasbiy rivojlanish konsepsiyasi talabaning kasbiy rivojlanish bosqichlarini uning shaxsini psixologik qayta qurish bosqichi sifatida belgilaydi: o'z taqdirini o'zi belgilashi, o'zini namoyon etishi, o'zini anglashi. Bunda, kasbiy rivojlanish nuqtai nazari bo'yicha etalon bo'lishi mumkin bo'lgan mezon ta'lim va ishlab chiqarishning yaqin aloqadorligini o'zida ifodalashi lozim. SHunda, talabalarning kasbiy maqsadlari sohani egallash bilan birga, akme darajaga erishishga yo'naltirilgan bo'ladi. Kasbiy ta'lim jarayonida shaxsiy va kasbiy qadriyatlarni anglash darajasi dinamik tarzda o'zgarib, bazaviy komponentlarning asosida, ularning yaxlitlashuvi jarayonida kompetensiyalar vujudga keladi. SHu nuqtai nazaridan talabaning kasbiy kompetensiyasining motivatsion va qadriyatli sanalgan xususiy tarkiblari shakllanadi, rivojlanadi. Muallif o'zini-o'zi anglash va aks ettirishni tashkil etish orqali talabani innovatsion faoliyatga tayyorlash orqali kasbiy rivojlanishiga sun'iy va texnik ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ta'kidlaydi.

V.A.Slastenin va L.S.Подымоvalar kasbiy innovatsion kompetensiya tarkibidagi ikkita asosiy komponentni belgilab, bunda mehnat (kasbiy) faoliyatni amalga oshirishga nazariy tayyorlikka – kasbiy bilimga va kasbiy ko'nikma va malakaga ega bo'lishni ko'rsatib o'tganlar. Birinchi komponentni umumiy madaniy, umumiy ilmiy, maxsus va psixologik-pedagogik bilimlar yig'indisiga egalik qilish deb ko'rsatgan. Ikkinchi komponentni esa, turli xil faoliyat turlaridan (prognostik, loyihaviy, konstruktiv, tashkiliy, kommunikativ, reflektiv va b.) iboratligini ko'rsatib o'tgan. Bu faoliyat turlariga muvofiq talabalar tomonidan o'zlashtirilgan ushbu faoliyat usullari bo'lgan kasbiy mahorat tizimi shakllanadi. Olim quyidagi o'zaro bog'liq qobiliyatlarni aniqlaydi: gnostik, prognostik, loyihaviy, konstruktiv, tashkiliy, kommunikativ, reflektiv, tahliliy. Ushbu ko'nikmalar tegishli kasbiy faoliyat davomida shakllanib, (V.A.Adolf) shaxsiy sifatlarni ham qamrab oladi deb ko'rsatgan. Kasbiy faoliyatning o'ziga xos

xususiyatlaridan kelib chiqib, u kompetensiyaning quyidagi tarkibiy qismlarini ajratgan: motivatsion, maqsadni belgilovchi, shaxsiy va mazmuniy-tezkor.

Talabalarning kasbiy kompetensiyasi, kasbiy amaliyot davomida vujudga keladigan muammolarni ongli ravishda (kasbiy ong darajasida) hal qilib, talaba novatorlikni namoyon etsagina, kasbiy rivojlanish hisoblanadi.

A.K.Markova kasbiy-pedagogik kompetensiyani talaba shaxsiyatining kasbiy faoliyatning yuqori natijasini ta'minlovchi xususiyati sifatida belgilaydi. Bunda kasbiy kompetentlikni bazaviy komponentlarini psixologik tavsifi asosida uni bir nechta turlarga ajratish mumkin. Bular: maxsus-kasbiy kompetensiya bu mehnat faoliyati davomida predmetlardan foydalanish jarayonida predmetlarga nisbatan kasbiy reaksiya bildirish, ijtimoiy-kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish, ya'ni mehnat funksiyalari jarayonida kasbiy muloqot qoidalariga amal qilish kasbdoshlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish mehnat faoliyatida o'zining bilim ko'nikma va malakalarini namoyon qilish; o'zining shaxsiy va kasbiy rivojlanish taktikasiga va shaxsiy-kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish; kasb yoki hunarni o'zlashtirish davomida o'zini kasbiy jihatdan anglash (kasbiy ong darajasida) va individual rivojlanish (kasbiy taffakkur darajasidagi Men ko'rinishida) usuli (takti, yo'sini)ga egalik qilish, kasbiy va shaxsiy o'sishga tayyor turish.

Ushbu kompetensiya turlari talabalarning o'zlari tomonidan ham, tashqi ta'sirlarning ta'siri, xususan, uzluksiz ta'limning maxsus tashkil etilgan jarayoni orqali yaxshilanishiga, takomillashuviga yordam beradi. Bizningcha, talabalarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish jarayonida ularning kasbiy kompetensiya haqidagi tushunchalarini hisobga olish zarur. Negaki, oliy ta'limda faoliyat yuritishi natijasida talabaning nafaqat kasbiy bilimi va ko'nikmasi, balki shaxsiy rivojlanishi ham kuzatilib, bunda shaxs fundamental asos sanaladi.

Kasb bo'yicha talabaning innovatsion faoliyatga ko'nikmalarini shakllantirish boshqa guruhdoshlari bilan o'zaro aloqani o'z ichiga olgan o'quv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari orqali amalga oshiriladi;

funksional-faoliyatli yondashuv asosida kompetensiya innovatsion faoliyatni amalga oshirishga, kasbiy funksiyalarni bajarishga nazariy va amaliy tayyorlikning birligi sifatida qaraladi;

Xulosa qilib aytganda kasbiy kompetentlikni, innovatsion faoliyatga yo'nalganlik jihatida universal yondashuv yoki mutaxassisning bazaviy malakalari bilan bog'lash mumkin. Bu harakatlarning zamirida shaxsning ijtimoiy va professional faolligi, ifodalangan bo'ladi. Aynan ta'lim muhitida talaba o'zini namoyon qilish qobiliyatiga, o'zini-o'zi yangidan yaratishga – kasbiy «Men»ga ega bo'lishga, kasbiy ta'lim kontekstida mustaqil ta'lim olishga hamda o'zini o'zi innovatsion faoliyatga tayyorlash imkoniga ega bo'ladi. Shu tariqa, talabalarni innovatsion faoliyatga yo'nalganlik deganda, oliy ta'lim tizimida tahsil olish jarayonida ular tomonidan egallayotgan kasbiy sohani ongli harakatlar ketma-ketligi asosida o'zaro aloqador bo'lgan o'quv vazifalarni bajarish asosida ijtimoiy-madaniy ahamiyatdorlik amallarni bajarishga o'rgatishni tushunish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Зееп Э.Ф., СЫМАНЮК Э.Э. КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД К МОДЕРНИЗАЦИИ

профессионального образования // Высшее образование в России. – 2005. – № 4.

2. Кузьмина Н.В. Основы вузовской педагогики. – Л: ЛГУ, 1972.

3. Маркова А.К. Психологические критерии и ступени профессионализма учителя // Педагогика, 1995. № 6.

4. Адольф В.А. Профессиональная компетентность современного учителя. Монография. - Красноярск, 1998.

5. Сластенин В.А. Деятельностное содержание профессионально-личностного развития педагога // Педагогическая наука и образование, 2006. №4

О‘QITUVCHI KASBINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Usmonqulova Feruza Eshbekovna

Sayxunobod tuman 27-umumta’lim maktabi psixologi

Tayanch so‘zlar: O‘qituvchilik, tarbiya, qobiliyat.

Anotatsiya: O‘qituvchilik inson jamiyati tarixi boshlangandan e’tiboran davom etib, shu bilan birga hamma vaqt jamiyat va jamoatchilik tomonidan e’tiborga loyiq e’zozlab kelingan kasbdir.

Taniqli o‘zbek pedagogi Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” deb yozgan edi. Bilim qaytarish va takrorlash mevasidir. Abu Rayhon Beruniy bilimga eltuvchi yagona yo‘l bu –faoliyatdir, B.Shou o‘z shogirdlarida mehnatdan zavqlanish xislatlarini uyg‘ota bilgan muallim sharaflarga loyiq, J.Juber bilganlarimizning cheki bor, bilmagan narsalarimizning esa had-chegarasi yo‘q, P.Laplas inson dunyoni qanchalik bilsa, o‘zligini ham shunchalik anglaydi, I.Gyote o‘qituvchi kasbiy faoliyati jarayonida yuksak darajadagi pedagogik mahorat, kommunikativ layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo‘l- va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, takt) qoidalarini chuqur o‘zlashtirib borishi shart. O‘qituvchi faoliyatida muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o‘qituvchi-pedagogik mahoratga ega bo‘lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf qilib katta natijaga erishadi, o‘z ishining natijasi bilan yangiliklar yaratadi. Ijodkorlik hamisha uning hamrohi bo‘ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, istedodli kishigina loyiq bo‘ladi va pedagogik mahoratga erishadi. Pedagogik psixologiyada o‘qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning tutgan o‘rnini ilmiy izohlab berishga oid samarali tadqiqotlar olib borilgan. Pedagogik qobiliyat ham o‘z navbatida bir qancha turlarga bo‘linadi. Dunyo olimlari pedagogik qobiliyatni o‘zlarining nazariyalariga asoslanib, turlicha guruhlarga ajratib chiqishgan. Masalan: F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatni quyidagi turlarga ajratishni taklif qilgan.

1. Didaktik qobiliyatlar 2. Akademik qobiliyatlar 3. Pertseptiv qobiliyatlar 4. Kommunikativ qobiliyatlar 5. Tashkilotchilik qobiliyati 6. Avtoritar qobiliyatlar 7. Kommunikativ qobiliyatlar 8. Pedagogik xayolot 9. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati. Hozirgi vaqtda o‘quvchilarni pedagog o‘ziga e’tiborini torta olishi uchun yuqoridagi qobiliyatlardan tashqari ma’suliyat bilan o‘z ishiga yondasha olishi lozim. Ma’lumki, pedagogik faoliyat – kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablaridan eng muhimi

o'qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog'liq xislatlariga qaratilgan. O'qituvchining eng muhim shaxsiy xislatlari quyidagilardir: - O'qituvchining o'z Vataniga sodiqligi, bolalarni sevishi, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash istagi, o'z yurti, ona tili, o'z xalqining tarixi va uning madaniyatini sevishi, ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajad his etishi; - Olijanoblighi, aql-farosatli, ma'naviy pok; - O'zini qo'lga ola bilishi, sabr-toqattli, bardam, matonatlilikidir. Jamiyatning o'qituvchilik kasbiga qo'yadigan asosiy talablari quyidagichadir: - Keng bilim saviyasiga ega bo'lishi, turli bilimlardan xabardor bo'lishi; - Yosh pedagogik psixiologiya, ijtimoiy psixiologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda maktab gigiyenasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi; - O'zi dars beradigan fan bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi, sohasida jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi; - Ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi; - O'z ishiga ijodiy yondashishi' - Bolalarni bilishi, uning ichki dunyosini tushuna olishi lozim. Har bir o'qituvchi ana shu talablarga eng yuqori darajada mos keladigan bo'lishi uchun intilishi kerak. O'qituvchiga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, turli xillardagi ijtimoiy kutishlar, pedagogning individualligi, uning, shu tariqa talablarga javob berishga subyektiv tayyorgarligi muayyan o'qituvchining pedagogik faoliyatga naqadar tayyorgarligidan dalolat beradi. Shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va o'qituvchilar o'rtasida hurmat tuyg'ularini shakllantirish, bolalar fikriga e'tibor qilish, ularga mehribonlarcha munosabatda bo'lish lozim.

O'qituvchi o'quvchi shaxsiga tarbiya obykti sifatida emas, balki xuddi o'zi kabi subyekt deb qarashi lozim.

Umuman, ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni demokratiyalashtirish va insonparvarlashtirish uning mohiyat va mazmunini erkin shaxsni tarbiyalash maqsadini amalga oshirishni nazarda tutadi.

XULOSA Shunday qilib, xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, pedagoglarning pedagogik mahoratida shaxsiy faoliyat tizimini ishlab chiqish muhimdir. Hayot — kashfiyotlar olami. Tajriba, uslub, fikrlar rang-barang. U samarali mehnat natijasida isbot va dalillar orqali talabalar qalbiga ko'chadi. Ularning tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar, talabalar muallimning faxri, kelajagidir. Shu bois ularning niyati o'quvchilarni, talabalarni mustaqil yurt quruvchilari, muhandislari, ilmu ma'rifat fidoyilari safida ko'rishdir. Har bir pedagogning o'z faoliyat tizimini ishlab chiqishi va unga qat'iy amal qilishi uning ta'lim sohasidagi muvaffaqiyatlarining muhim omillaridan biridir. Pedagog bir xil metodlarda dars o'tish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Aksincha, u o'qitish metodlarini takomillashtirish ustida tinimsiz ishlashi zarur. Xalqimizning kelajagi mustaqil O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan pedagogga, uning saviyasiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O'zbekiston, 2020.

2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O'zbekiston, 2017.

3. Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pedagogik psixologiya». — T.: TDPU. 2009.
4. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibayeva R.N. Mustaqil fikrlash. — T.: Sharq. 2000.
5. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. — T.: Fan. 2003.
6. Халперн Д. Психология критического мышления. Питер. 2000.
7. G‘oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
8. Югай А.Х., Мираширова Н.А. “Общая психология” – Ташкент 2014.

SHAXSIY RIVOJLANISHNI PSIXOLOGIK QO‘LLAB-QUVVATLASH

Xudoyqulova Zarifa Ummatqulovna, Taniqulova Go‘zal Sherali qizi

Pedagogika va Psixologiya kafedrası o‘qituvchisi, Pedagogika va Psixologiya yo‘nalishi talabasi

Annatatsiya: Oliy va o‘rta ta‘lim muassasasida o‘qitish jarayonida talaba shaxsini rivojlantirishni psixologik qo‘llab-quvvatlash insonning o‘z sohasi bo‘yicha professional sifatida shakllanishini belgilaydigan zaruriy elementdir. Ushbu masalaga sifatli yondashish talabalarining ish faoliyatini yaxshilashga imkon beradi, bundan tashqari, u xarakterning shakllanishiga va shaxslararo muloqotning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan kommunikativ fazilatlarning rivojlanishiga ta‘sir qiladi.

Shuni aytishim mumkinki ta‘lim tizimining zarur elementi sifatida o‘quvchi shaxsini rivojlantirish uchun psixologik yordam muhimdir. Afsuski, zamonaviy ta‘lim jarayonida bu masalaga yetarlicha e‘tibor berilmayapti. Ushbu maqolada oliy ta‘lim muassasasida o‘qish davrida talaba shaxsini rivojlantirishga psixologik yordam ko‘rsatish xususiyatlari, shuningdek, talaba shaxsining rivojlanishiga ta‘sir qiluvchi omillar tahlil qilinadi. Talaba shaxsining rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatuvchi turli omillarni tahlil qilish asosida o‘quvchilarning muayyan malakalarini oshirishning samarali usullari belgilab berildi. Tadqiqot Guliston shahridagi “Guliston davlat universiteti talabalari ishtirokida o‘tkazildi”. So‘rov usuli, intervyu va anketalar, kuzatish, testlar qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida talabalar shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadigan omillarni, shuningdek, guruhlarda psixologik holatni yaxshilash yo‘llari ko‘rsatildi. Guruhlardagi psixologik noqulaylikning asosiy sababi talabalar tomonidan kommunikativ to‘siq deb nomlandi, uning bartaraf etilishi guruhlarda psixologik mikroiklimning yaxshilanishiga yordam berdi.

Kalit so‘zlar: *psixologik yordam, o‘quvchi shaxsi, psixologik yordam usullari*

Inson o‘z hayotida uzoq yo‘lni bosib o‘tadi, shu jumladan shaxsiyat va ko‘nikmalarning shakllanishiga o‘ziga xos ta‘sir ko‘rsatadigan muayyan bosqichlardir. Har bir bosqich individualdir va keyingi bosqich uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Muhim bosqichlardan biri ta‘lim muassasasida oliy yoki o‘rta kasb-hunar ta‘limni olish bosqichidir.

Fikrimcha, bu bosqichda inson ko‘pincha o‘z qadriyatlarini qayta baholaydi, rivojlanishning keyingi yo‘nalishini belgilaydi, inson ongida uning kelajagi modellashtiriladi. Afsuski, yurtimizda talabalar shaxsini rivojlantirishni psixologik qo‘llab-quvvatlash kichik rol o‘ynaydi, garchi G‘arb mamlakatlarida shaxs

shakllanishining barcha bosqichlarida rivojlanishni psixologik qo'llab-quvvatlash ajralmas element hisoblansada. Ta'lim muassasasida o'qishning birinchi yilida yuzaga kelgan og'ishlarni kelajakda bartaraf etish qiyin, shuning uchun o'qishning birinchi yilida talaba shaxsini rivojlantirish uchun psixologik yordam juda muhimdir.


Talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini psixologik qo'llab-quvvatlash xususiyatlari G.V. Akopova, B.A. Vyatkina, A.A. Derkach, D.N. Zavalishina, E.A. Klimova, B.C Merlin, Yu.P. Povarenkova, Yu.V. Suxovershina, E.P. Shmatova, M.R. Shukina va boshqalar asarlarida o'rganilgan. O'rganilayotgan mavzuning asosiy elementlaridan biri samarali mehnat va boshqa faoliyatga qodir har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishni ta'minlash maqsadida o'quvchilar psixologiyasiga

ta'sir ko'rsatish metodikasini shakllantirish hisoblanadi.[1,2]

Maktabdan universitet ta'limiga o'tish inson hayotining barcha sohalarida jiddiy o'zgarishlarni anglatadi. Ota-onaning doimiy nazorati va yordamiga odatlangan bola birdaniga "kattalar" hayotining boshida yolg'iz qolishadi. Bunday o'tish ko'plab bolalar uchun psixologik jihatdan qiyin, buning natijasida ta'lim muassasasida o'qishning birinchi yilida o'quvchi shaxsining rivojlanishida inqiroz paydo bo'ladi. Yangi yashash sharoitlari, yangi o'quv muhiti, yangi aloqa aloqalarini shakllantirish zarurati, katta hajmdagi ma'lumotlar va boshqa omillar ko'plab talabalar uchun engib o'tish qiyin bo'lgan psixologik to'siqni yaratadi. Ushbu bosqichda talabalarni faol psixologik qo'llab-quvvatlash ham o'qishda, ham hayotda keyingi muvaffaqiyatlarning kalitidir. Psixologiya olamida qo'llab-quvvatlash insonning shaxsiyatini rivojlantirishga ijobiy yordam berish, hissiy darajada qo'llab-quvvatlash istagini anglatadi. Psixologik qo'llab-quvvatlash natijasida shaxs rivojlanadi, avtonom mavjudlik qobiliyati va o'z hayotini erkin qurish qobiliyati yaratiladi. Kerakli yordam miqdori talabalar darajasiga va o'qish davriga qarab belgilanadi. O'qishning birinchi yilidagi talabalarga kelsak, psixologik yordam doimiy maqomga ega bo'lishi kerak, chunki bu bosqichda talabalar tez-tez inqirozlarga duch kelishadi. Shu bilan birga, shaxsni har tomonlama rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash uchun shaxsning rivojlanishini psixologik qo'llab-quvvatlash turli shakllarda amalga oshirilishi kerak. Shu munosabat bilan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi va shaxslararo muloqotda kommunikativ to'siqlarni bartaraf etishga bag'ishlangan treninglar (ham individual, ham guruh), maslahatlar, ma'ruzalar, rolli o'yinlar, madaniy tadbirlar o'tkazilishi mumkin. Shaxsni rivojlantirish uchun psixologik yordam ko'rsatishda bunday yordamning obsesif xususiyatini istisno qilish ayniqsa muhimdir. Psixologik qo'llab-quvvatlashning butun jarayoni erkin tarzda davom etishi kerak, chunki bunday yordam stereotiplar tufayli ko'plab talabalar tomonidan noto'g'ri tushunilishi mumkin va ular tomonidan qabul qilinmaydi.[3,4,5]

Maqsadmiz oliy o'quv yurtida o'qish jarayonidagi qiyin davrlarni va ushbu inqirozlardan "og'riqsiz" o'tishga yordam beradigan omillarni aniqlash uchun tadqiqot o'tkazishdir. Tadqiqotda Guliston davlat universitetining Yangier shahridagi Pedagogika fakultetining "Psixologiya" yo'nalishidan 80 nafar talabalari ishtirok etdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 60 ta talaba shaxsiy rivojlanish

inqirozlari o‘qishning birinchi, uchinchi va oxirgi yillarida sodir bo‘lganligini tushuntirdi, 20 ta talaba inqirozlar ikkinchi va oxirgi o‘quv yilida paydo bo‘lgan degan natija chiqdi.



Bizning fikriga ko‘ra, o‘qishning birinchi yilida shaxsiy rivojlanish inqirozlarining paydo bo‘lishining asosiy sababi “eski hayot tajribasi” va ko‘p hollarda ko‘plab sohalarida tub o‘zgarishlarni talab qiladigan yangi hayot sharoitlari o‘rtasidagi ziddiyatdir. Qoida tariqasida, o‘smirlik davrida olingan kichik hayotiy tajriba shaxsiyatning “ramkasini” shakllantiradi, qadriyatlar va qiziqishlarni belgilaydi, ma’lum bir dunyoqarashni yaratadi. S.V. Bobrishovning so‘zlariga ko‘ra, yaxlit shaxsda “sub’ektiv dunyo” hech qanday jiddiy ichki qayta qurishni talab qilmaydigan ajralmas birlik vazifasini bajaradi. Agar biron sababga ko‘ra u rozi bo‘lmasa, uni tashkil etuvchi bilim, ehtiyoj va manfaatlar odamni o‘zini nomuvofiq va ziddiyatli tutishga undaydi. Bunday holda, har bir shaxsning o‘z hayotiy faoliyatini barqarorlashtirishga bo‘lgan ob’ektiv istagi tufayli, substruktiv tarkibiy qismlarning o‘zaro ziddiyatlarining keskinlashuvi ham o‘zaro, ham tashqi, “ob’ektiv” dunyo bilan o‘zaro bog‘liqlikda bo‘ladi. Bularning barchasi shaxsning ichki rejasini jiddiy qayta qurishga olib keladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, inqirozlarni ijobiy hal qilish va talabalar shaxsini yanada rivojlantirishga yordam beradigan omillar orasida muloqot to‘siqlarini bartaraf etadigan va ijtimoiy keskinlik darajasini pasaytiradigan qo‘shma madaniy tadbirlar, taklif etilgan mehmonlar - ilm-fanning turli sohalaridagi hokimiyat vakillari bilan muloqot qilish, bu o‘qish va yuqori natijalarga erishishga undaydi, psixologlar ishtirokidagi guruh treninglari yangi turmush sharoitlariga yaxshiroq moslashish imkonini beradi. Talabalar fikricha, insonning rivojlanishiga, psixologik barqarorligiga ta’sir etuvchi omillar orasida din alohida o‘rin tutadi. Aksariyat talabalar dinni birinchi o‘ringa qo‘yishadi va bu din insonga maqsad sari - jamiyatga foydali bo‘lish sari harakat qilish imkonini berishi bilan izohlanadi. Maqsadni belgilash shaxsning rivojlanishiga va maqsad sari dinamik harakatga yordam beradi. Bundan tashqari, kundalik ibodat insonning psixologik holatini tuzatishga, psixologik noqulaylikni bartaraf etishga va “dindor shaxs” ni shakllantirishga yordam beradi, bu, albatta, shaxsiy rivojlanishda maksimal darajaga erishishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Tadqiqotimiz ichida “Pedagogika” fakultetida 30 nafar birinchi kurs talabalari ishtirokida yana bir tadqiqot o‘tkazildi. (Yangier). Tadqiqot o‘quvchilarning o‘qishning boshlang‘ich davridagi psixologik holatidagi o‘zgarishlar dinamikasini,

shuningdek, muloqot va boshqa qobiliyatlarini aniqlash maqsadida o'tkazildi. Olingan natijalar trening jarayonida qo'llanilgan turli moslashuv vositalari tomonidan berilgan ijobiy dinamika haqida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Bunda, A.F.Fidler tomonidan ishlab chiqilgan jamoadagi psixologik muhitni baholash metodologiyasidan foydalanildi. Talabalardan talabalar guruhidagi eng aniq belgilarni jadvalda belgilash taklif qilindi. Tadqiqot natijasi shuni ko'rsatdiki, mashg'ulotlarning birinchi oyida guruhlardagi atmosfera "sovuqonlik", "zerikish" kabi belgilar bilan aniqlangan. Ikkinchi semestr oxirida o'tkazilgan tadqiqot natijasi ko'plab belgilarda ijobiy tendentsiya bo'ldi, xususan, bunday "issiqlik-sovuqlik" belgilari o'rtacha 2-3 ballga "iliqlik" belgisiga siljish edi. "O'yin-kulgi-zerikish" belgilari asosida 4-5 ballga "o'yin-kulgi" atributiga siljish kuzatildi. Xuddi shunday ijobiy o'zgarishlar arzimagan bo'lsa-da, "do'stlik", "o'zaro yordam", "ishtiyoq" kabi belgilarda kuzatildi.

V.M.Zavyalovning usuli bo'yicha talabalar guruhlarining mikroiklimini baholash uchun yana bir tadqiqot o'tkazildi. Talabalardan qutbli mulohazalar printsipiga ko'ra tuzilgan kartalarni tegishli narsalarni tanlash orqali to'ldirish taklif qilindi. Treningning birinchi oyida talabalarning uch guruhida ham ahamiyatsiz darajada qulay psixologik mikroiklim aniqlandi. Birinchi guruh 8 ball to'pladi, ikkinchisi - 6, uchinchi - 4. O'qishning birinchi yili oxirida mikroiklimning yaxshilanishi qayd etildi. Psixologik iqlimning ahamiyatsiz qulayligi o'rta-past qulaylik darajasiga o'zgardi. Birinchi guruh 15 ball, ikkinchi guruh 17, uchinchi guruh 17 ball to'pladi.

Muallifning fikricha, guruhlarda psixologik muhit rivojlanishining ijobiy dinamikasiga asos bo'lgan omillar, eng avvalo, ilmiy-ma'rifiy tadbirlar (konferensiyalar, kongresslar, talabalar ishtirokidagi teledasturlar va boshqalar) bo'lgan. Ta'lim tashkiloti negizida o'tkaziladigan, shuningdek ta'lim tashkiloti ma'muriyati tomonidan taklif etilgan davlat organlari vakillari bilan uchrashuvlar. Iqlimni yaxshilashda, shunga qaramay, bizning fikrimizcha ta'lim muhitida qulay mikroiklim yaratish uchun respublikaning etakchi psixologlari bilan uchrashuvlar hal qiluvchi rol o'ynagan, bu tadqiqot natijalari bilan tasdiqlangan. Shunday qilib, qiyosiy tahlil usuli psixologik treninglarning o'quvchilarning o'zlashtirishi va guruhlar ichidagi umumiy kayfiyatiga ta'siri haqida xulosa chiqarish imkonini berdi. O'qish uchun tanlangan guruhlarda birinchi semestrda qoniqarsiz baholar ustunlik qildi. Respondentlarning fikriga ko'ra, tadqiqotlardagi salbiy natijalarga birinchi navbatda aloqa to'siqlari va qiyin psixologik mikroiklim sabab bo'lgan. Ikkinchi semestrda asosan ijobiy baholar bilan talabalar faoliyatida sezilarli yaxshilanishlar kuzatildi. Talabalar o'rtasida o'tkazilgan so'rov shuni ko'rsatdiki, ta'lim tashkiloti ma'muriyati tomonidan madaniy tadbirlar, davlat organlari vakillari bilan uchrashuvlar va psixologik tayyorgarlik orqali ko'rsatilayotgan ko'mak tufayli muloqotdagi to'siqlar ko'p jihatdan bartaraf etilgan, guruhlarda muloqot yuqori darajaga ko'tarilgan va motivatsiya paydo bo'lgan.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, shuni aytishimiz mumkinki, birinchi navbatda, har bir ta'lim tashkilotiga psixologik yordam xizmati kerak degan xulosaga keladi. Shu bilan birga, har bir ta'lim muassasasiga bittadan psixolog bo'lishi yetarli emas. Masalan, Rossiya Federatsiyasi Ta'lim vazirligi tomonidan

1995 yil 29 martda tasdiqlangan “Rossiya Federatsiyasida amaliy ta’lim psixologiyasi xizmati to‘g‘risida” gi Nizomda 500 talaba uchun kamida 1 psixolog talab qilinadi. Bizda bu ko‘rsatgich bundan ham yuqori bo‘lishi mumkin.

Bunay muamolarga uchramaslik uchun 300 nafar talaba o‘quvchilar bilan yaqindan hamkorlik qiladigan 1 nafar psixologga ega bo‘lishi zarur. Talabalarning ko‘pligi talabalarni psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yuqori sifatli ishlarni amalga oshirishga imkon bermasligi mumkin.

Bundan tashqari, talabalar muhitida psixologik noqulaylik darajasini pasaytiradigan, muloqotdagi to‘siqlarni bartaraf etadigan va o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradigan ilmiy, amaliy va madaniy tadbirlarni faol o‘tkazish kerak.

Adabiyotlar

1. Акопов Г.В., Архипова И.В. Диагностика профессионального сознания. Самара: ООО «Порто-принт», 2016. 45 с.

2. Климов Е.А. Развитие личности //«Энциклопедия профессионального образования» / Под ред. С.Я. Батышева. М.: Ассоциация «Профессиональное образование» РАО, 1999. Т. 3. С. 22 - 23.

3. Этуотер Иствуд, Даффи Карен Гроувер. Психология для жизнепостроения. Упорядочение образа мыслей, развитие и поведение человека наших дней: пер. с англ. Г.Ю. Любимовой и О.Н. Родиной / Под ред. Е.А. Климова. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2003.

4. Суховершина Ю.В. Психологическое сопровождение личностно-профессионального развития студента службой практической психологии вуза. Курск, 2006.

TA’LIM JARAYONINING PSIXOLOGIK MAZMUNI

Usmonqulova Feruza Eshbekovna

Sayxunobod tuman 27-umumta’lim maktabi psixologi

Tayanch so‘zlar. Ta’lim va ta’lim jarayonida bolaning rivojlanishi muammosi, yosh davrlari va pedagogik psixologiya, ta’lim va rivojlanish muammosiga doir qator nazariyalar, ta’lim motivatsiyasi.

ANNOTATSIYA

Ta’lim jarayoni alohida tashkil etiladigan hamda boshqariladigan faoliyat bo‘lib, u bolalarning o‘quv faoliyatlarini tashkil etadi va ularni boshqaradi.

Ta’lim motivatsiyasi bolalarning o‘quv materialni yaxshiroq o‘zlashtirishiga shaxsiy qiziqishini anglatadi. O‘qituvchi (tarbiyachi) ning faqat moddiy qiziqishlarini qondirish, yoki ishsiz qolmaslik, qisqarishga tushmaslik uchungina ta’lim berishi, muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, bunda pedagogik faoliyatda yaxshi natijalarga erishish mumkin emas. Ta’lim mahsuldorligini oshirishdagi dastlabki vazifa uni chuqur va ko‘p motivatsiyali jarayonga aylantirishdir. O‘qituvchi bolalarni o‘qitish jarayonida o‘z hayotining asosiy mazmuni va maqsadini ko‘ra boshlaganida ta’lim samarali bo‘ladi.

1. Aqliy xatti-harakatlar, bilim, ko'nikma va malakalarni bosqichmabosqich rivojlantirish nazariyasi (P.Y.Galperin).

P.Y.Galperin nazariyasi bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish jarayoni olti bosqichni boshidan kechirib, ularga:

1. *Motivatsiya.*
2. *Tushuntirish.*
3. *Moddiy formadagi xatti-harakatlarni bajarish.*
4. *Baland ovozda xatti-harakatlar va vazifalarni bajarish.*
5. *Bajariladigan xatti-harakatlarni ichki rejada ovoz chiqarmay bajarish.*
6. *Faoliyatni fikran bajarish kiradi.*

Ushbu nazariyada ta'limning uchta asosiy turi ajratiladi:

- **birinchi turda** - xatti-harakatlarni o'zlashtirish xatolar bilan kechadi, berilayotgan material yetarli darajada anglanilmaydi, ta'lim oluvchi ta'limning asl mohiyatini tushunib yetmaydi;

- **ikkinchi turda** - materialni nisbatan dadil va to'la tushunilishi va material bilan bog'liq tushunchalarni ajratilishi bilan xarakterlanadi;

- **uchinchi tur** - tez, samarador va bexato xatti-harakatlarni o'zlashtirilishini ta'minlab beradi.

V.V.Davidov nazariyasi. Ushbu nazariya mazmunini kichik maktab yoshidagi bolalarning ilmiy tushunchalarni o'zlashtirishi tashkil qiladi. Ushbu nazariyaga ko'ra ta'lim jarayonida bolalar tomonidan nazariy tushunchalar tizimi o'zlashtirilishi lozim bo'lib, bu o'z o'rnida xususiyan umumiy bilimlarga o'tilishni ta'minlaydi.

3. Qator nazariyalar muammoli ta'lim bilan bog'liq bo'lib, **L.V.Zankov va A.M.Matyushkin** tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ta'limda muammoli darslarni tashkil etishga qaratilgan.

Ta'limning psixologik asoslari muammosi ko'pgina masalalarni qamrab oladi. Ta'limning muvaffaqiyati qator psixologik omillarga bog'liq bo'ladi. Asosiy omillardan biri bolaning o'qishga bo'lgan munosabatidir. Bu munosabat bolaning diqqati, his-tuyg'ulari, qiziqishlari va irodasida, shuningdek, shaxsning tutgan yo'lida namoyon bo'ladi.

Ta'lim jarayoni avvalo bolalar diqqatini rivojlantirishni talab etadi. Darslarda ko'rgazmali qurollardan, axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish ta'lim oluvchining diqqatini rivojlantiradigan omillardan hisoblanadi. Ta'lim jarayonida ta'lim beruvchining vazifasi darsda bolalarning faolligini yuzaga keltirishgina emas, balki bolalarning darsda o'tiladigan materialni idrok etishga tayyor turishlarini kuzatish hamdir. Dars jarayonida bolalarning diqqati o'zgarib turadi. O'qitish jarayonida bu qonuniyatlarni nazarda tutish, bolalar diqqatini materialning asosiy jihatlariga hamda o'zlashtirilgan materialni takrorlashga jalb etish kerak.

Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan beriladigan ko'rsatmalarga ham bog'liq. O'qituvchining roli shundan iboratki, u bolalarda tegishli ustanovkani hosil qilishi, nimani vaqtincha, nimani umrbod esda olib qolish kerakligini, nimani esda olib qolmasdan, faqat tushunib olish

kifoya qilishini, nimani soʻzma-soʻz esda olib qolish kerakligini, nimaning maʼnosini oʻz soʻzlari bilan aytib berish uchun esda olib qolish zarurligini tushuntirib oʻtishi lozim. Kuzatishlar shuni koʻrsatadiki, oʻqituvchi tomonidan bunday koʻrsatmalar berilmaganda, bolalarda koʻpincha bilish va oʻrganishga nisbatan notoʻgʻri tasavvurlar vujudga keladi.

Oʻqitishning emotsionalligi taʼlimning muvaffaqiyatlilikini taʼminlovchi omillardan biridir. Taʼlim berish jarayoni emotsional jarayon. Agar bolalarga berilayotgan axborot ularda hech qanday his-tuygʻu uygʻotmasa, bunday maʼlumotni bolalar yaxshilab esda olib qolmaydilar. Bolalarning ijobiy psixik holatlari, yaʼni ularning muayyan bir paytdagi kechinmalari haqida ham borishi kerak, albatta. Ulardagi quvonchli, optimistik kayfiyat oʻquv faoliyatini juda samarali qiladi. Bolalar emotsional ruhdagi materialni yaxshiroq oʻzlashtirib oladilar.

Oʻtkazilgan tajribalar hech qanday his-tuygʻu uygʻotmaydigan materialga qaraganda, emotsional ruhdagi materialni bolalar yaxshiroq eslab qolishlarini koʻrsatadi. Oʻqituvchi oʻquv jarayonining emotsional tomoni haqida ham qaygʻurishi kerak. Bu muammo juda muhim ahamiyatga ega. Chunki, birinchidan, taʼlimning mazmuni nihoyatda murakkablashib, hajmi esa gʻoyat kattalashib ketgan. Uning muvaffaqiyatli oʻzlashtirilishiga erishish uchun bolalarning oʻquv faoliyatini kuchaytirish lozim. Ijobiy tuygʻular oʻquv mehnatining samaradorligiga kuchli taʼsir etadi. Hafsala bilan bajarilgan faoliyat yuzasidan begʻaraz munozara paydo boʻladi, bahslashiladi, befarq qaralgan yoki salbiy munosabatda boʻlingan ishga esa, hech qanday hafsala boʻlmaydi. Jamiyatimizdagi mehnat - haqiqiy ijod, quvonch manbai. Oʻqituvchi bolalarida oʻquv mehnatiga ijobiy munosabatni uygʻotib, mehnatning haqiqiy ijodga, quvonch manbaiga aylanishiga koʻmaklashishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: OPI, 2003.
2. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
3. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: Znaniye, 1996.
4. Muslimov N.A. Boʻlajak kasb taʼlimi pedagoglarini kasbiy shakllantirish / Monografiya. – T.: Fan, 2004.
5. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb taʼlimi pedagog-larining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.
6. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., Toʻrayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015.

BOʻLAJAK BOSHLANGʻICH SINIF OʻQITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOSINING PEDAGOGIK ASOSLARI

Qodirqulov Nodirbek Xamroqul oʻgʻli

*Sirdaryo viloyati pedagogika markazi metodik xizmat koʻrsatish boʻlimi
boshligʻi. e-pochta: qodirqulovnodirbek380@gmail.com*

Annontatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarini o'quvchilarni intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish mavzusining mohiyati va metodika tayyorgarlik tushunchasining mazmuni, o'qituvchini metodik jihatdan mahoratli bo'lib yetishishida zarur bo'luvchi omillar va pedagogik zaruriy shart-sharoitlar haqida kerakli manbalar nazariy jihatdan o'rganilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, metodika, intellektual, salohiyat, rivojlanish, mustaqil fikr, muammo.

Аннотация: В данной статье сущность темы совершенствования методической подготовки будущих учителей начальных классов для интеллектуального развития учащихся и содержание понятия методической подготовки, факторы, необходимые учителю для становления методической грамотности и необходимые педагогические условия необходимые ресурсы изучаются теоретически.

Ключевые слова: высшее образование, методология, интеллектуал, потенциал, развитие, самостоятельное мышление, проблем.

Abstract: In this article, the essence of the topic of improving the methodological preparation of future elementary school teachers for the intellectual development of students and the content of the concept of methodological preparation, the necessary factors and pedagogical prerequisites for the teacher to become methodologically skilled. necessary resources about the conditions are studied theoretically.

Keywords: higher education, methodology, intellectual, potential, development, independent thought, problem.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining intellektual fikrlay olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, o'zini-o'zi anglash salohiyatini shakllantirishi, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga o'rgatishi, boshqalar fikrlarini tushunishini, shaxsiy fikrlarini og'zaki va yozma bayon eta olish hislatlarini shakllantirishga erishishi lozim. "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish davlat siyosati ma'no-mazmuni va uning dolzarbligidan kelib chiqib, unga quyidagicha izoh keltirish mumkin, yangi ta'lim tizimi, barkamol avlod kadrlarni tayyorlashdagi o'zgarishlar va yangicha yondashuvlar, zamonaviy kasb sohasining paydo bo'lgani hamda uning mamlakatimiz sharoiti bilan bog'liqligidir, ta'lim tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot natijasida muayyan davrdan boshlab inson faoliyatining alohida mustaqil sohasiga aylanib, jamiyatning ijtimoiy tajribasini keyingi bosqichga uzatadi, ta'lim inson shaxsining intellektual-ma'naviy qirralarini shakllantirish, uning jamiyat ishlab chiqarish va ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashga qaratilgan harakatlar yig'indisi bo'lib, ma'rifat hamda bilim berishni anglatadi; to'rtinchidan, fan jamiyatining ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, tabiat va jamiyat hayotini aks ettiruvchi ijtimoiy ong shaklidir. Ta'lim sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishda moddiy omillar bilan bir qatorda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni o'quvchilarni intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni o'quvchilarni intellektual

rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish bugungi kun davr talablariga muvofiq kelajak avlod kadrlarini tayyorlashni davrning o'zi taqozo etmoqda. Shu bilan birga, olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish masalalariga G.A.Berdaliyeva, A.Sadikova, M.Toshpulatova, Yu.Jabborova, N.Muxitdinova, Z.T.Nishonova, G.Mamatova, A.K.Markova, N.V.Matyash, Ye.M.Pavlyutenkov va boshqalar alohida to'xtalib o'tgan. G.A.Berdaliyeva o'z ilmiy ishlarida boshlang'ich sinf o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish, ta'lim vositalarini rivojlantirish, psixologik tafakkurni rivojlantirish borasida o'quvchilar bilimni oshirishga oid ishlarni tahlil qilgan [4]. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida metodik tayyorgarlikni takomillashtirishda zamon talablaridan kelib chiqib yondashish muhimdir. O'quv jarayonidagi didaktik vaziyatlar (o'qituvchining odobini belgilovchi, uning o'ziga bahosi, aqliy qiziqishlari darajasini ifodalovchi, o'qituvchining yondoshishi, o'z mehnatining ma'nosini anglash bilan bevosita bog'liq uning o'quvchiga, hamkasblariga, o'ziga munosabatlarini doimiy tizimi), o'qituvchilarning o'z fanlari haqida chuqur bilimga egaligi kabi ko'nikmalar shakllantirilishi zarur. Har bir pedagogning motivatsion sohani rivojlantirishi ya'ni maqsad qo'ya olishi, qiziqishlarini to'g'ri taqsimlay olishi, shaxsiy motivlarini qamrab oluvchi psixologik sifatlar majmui malakaga aylantirilishi lozim. D.T.Asikov boshlang'ich sinf o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini "mustaqil va mas'uliyatli ishlashga imkon beruvchi psixik holat, inson mehnatining natijalaridan iborat bo'lgan, insonning ma'lum mehnat vazifalarini bajarish qobiliyati va ko'nikmasi" sifatida e'tirof etadi. G.L.Lukankin bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini metodik tayyorlash amaliy yo'naltirilgan bo'lishi kerakligi haqida fikrni qo'llab quvvatlaydi. Bunda olim boshlang'ich sinf o'qituvchisini tayyorlash masalasini hal etishda talabalar o'qiydigan fanlar sonini oshirish yo'lidan emas, balki ta'lim va bo'lajak o'qituvchining mustaqil ishlarini samarali tashkil etishni individuallashtirish yo'lidan borish kerakligini, ya'ni ommaviy, yalpi ta'limdan individual yondashuvni kuchaytirish zarurligini qayd qiladi Sh. S. Sharipovning o'z ilmiy ishlarida kreativ axborot muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash muhim ekanligini va metodik tayyorlangan o'qituvchilar innovatsion rivojlangan bo'ladi va ta'lim siyosatining yangi yo'nalishlariga ham moslashuvchan bo'lishini ta'kidlab o'tadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligiga talablar o'zgarishi ikkita asosiy ta'lim paradigmasi: xususan, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvda namoyon bo'luvchi insonparvarlik va ta'limning ijtimoiylashuvi bilan belgilash mumkin. N.X.Qodirovning fikricha, "bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning matematik metodik tayyorgarligi – matematikada ilmiy izlanishning metodologiyasi va tarixi, gumanitar yo'naltirilgan boshlang'ich matematika ta'lim komponenti sifatida o'quvchilarda izlanuvchan matematik faoliyati shakllanishini nazarda tutgan" Boshlang'ich sinf o'quvchilarida zaruriy ko'nikmalarni shakllantirish, boshlang'ich ta'lim sifat samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish, o'qitishning zamonaviy vositalarini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq" Bugungi kunda innovatsion axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga

integratsiya qilishga qiziqish ortib bormoqda. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishda avvalambor, o'quvchilarni intellektual rivojlantirish matematika fani bilan ko'proq bog'liqligini inobatga olgan holda, bo'lajak o'qituvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirish ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Xususan, boshlang'ich ta'lim fanlarini amaliy o'rgatish, muntazam va izchil o'rgatish, namunalar va maxsus mashqlar asosida o'rgatish, turli xatolarning oldini olish va ularni to'g'rilash orqali bajarish kabi o'z ustida ishlovchi amaliy vazifalarni bajarish orqali singdirib borish muhim xisoblanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishning vazifalari Boshlang'ich sinf o'qituvchilari xar bir o'quvchilarni psixologiyasini bilishi zarur, chunki asosiy ob'ekt bu o'quvchi. O'qituvchi darsga kirganda bu o'quvchi bilan qanday gaplashish zarurligini, qaysi metoddan foydalanib ta'lim berish yo'lini, ta'limni qanday berganimizda o'quvchi yengil qabul qila oladi degan bir nechta savollarga javob olish uchun xam bo'lajak o'qituvchilar bola psixologiyasini bilishi lozim. Chunki, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'yinqaroq bo'ladi, bu vaziyatda boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars o'tish metodikasini tanlaganda turli xil o'yinlarni tanlashi, o'yin qandaydir ta'lim berishi lozim, shuning uchun ham ta'limiy o'yinlardan foydalanib darsni tashkil qilishb, o'quvchilarni darsga qiziqtirishi lozim. Hozirgi vaqtda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari metodik tayyorgarligini takomillashtirishda, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z o'rnida foydalanish bilan bir qatorda xalqaro baholash dasturlari bilan ham chambarchas bog'liq. Bu, ayniqsa, matematika fanini o'qitish jarayonida innovatsion ta'lim jarayonini tashkil etuvchi o'quvchi va o'qituvchi shaxsiga o'quv faoliyati sub'ekti sifatida yondashish o'qituvchi va o'quvchining ta'lim jarayoniga ijodiy yondashuvini o'stirib, rivojlantirib borish, o'qituvchilarning fanlarni o'qitishni takomillashtirilgan an'anaviy va noan'anaviy shakl, metod va vositalaridan foydalanish ko'nikmasi va malakasini oshirish; dars loyihasining har bir bosqichi ustida ishlashni o'rgatish, o'quvchilarning fanlarni amaliy o'zlashtirishlari uchun berilgan topshiriqlarini bajarish, ta'limiy metodni rivojlantirish; o'quvchilar faoliyatini, o'zlashtirish darajasini doimiy o'rganib borish, natijalarini tahlil qilish, yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish choralarini belgilay olishni singdirib borish yondashuv sifatida xalqaro baholash dasturi asosida o'qitishga asoslangan metodikaning shakl, vositalaridan foydalanishda namoyon bo'lmoqda. Xulosa qilib aytganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish jamiyat rivojining zaruriy sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF- 5712-sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF5847-son Farmoni

3. 2020 yil 7 maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-4708- sonli Farmoni
4. Abdullayeva B.S va b Boshlang‘ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish-Toshkent.: OOO “Jahon print”,2011,146- b.
5. Abduraimov Sh.S. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash sifatini ta’minlashda tarmoqlararo amaliy integratsiya. Monografiya. –Toshkent: Navro‘z, 2014. – 120 b
6. Jumayev M.E., „Matematika o‘qitish metodikasidan praktikum“- Toshkent.: O‘qituvchi, 2004, 328 bet.
7. Луканкин Г.Л. Высшая математика для экономистов. Курс лекций. 2009г
8. Маркова А.К., Матис Т.А. Формирование мотивации учения. М.: изд-во «Педагогика». 1990. С.34-56
9. Sharipov Sh.S. O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minlashning nazariyasi va amaliyoti: Pedag. fan. d-ri. ... diss. avtoref. –T.: 2012. –B. 46

UZLUKSIZ TA’LIMDA BOSHQARUV JARAYONINI TASHKIL QILISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH

Yunusmetoa Nasiba Satimbekovna, Bektemirov Sirojiddin Rustamovich
SVPYMO‘MM Tarbiya fani metodisti, Guliston shahar 11-UO‘TM
direktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada Uzluksiz ta’lim tizimida tashkil etiluvchi pedagogik jarayonda subyektlarning ichla imkoniyatlarini harakatga keltiruvchi, tushunchalarini mustaqil ravishda rivojlantirishga ko‘maklashuvchi, pedagogikaning "tarbiya"- "o‘zini-o‘zi tarbiya", "ma’lumot"- "mustaqil ma’lumot", "ta’lim"- "mustaqil ta’lim", "rivojlanish" va "tarbiyaviy munosabatlar" tushunchalari bir-birini to‘ldiruvchi hamda bir-birini ta’minlovchisi sifatida shaxsning rivojlanishi hamda shaxsiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi.[5] Shunday ekan, shaxsning rivojlanishida uning mustaqil faoliyati, ya’ni mustaqil ta’lim va mustaqil ma’lumotlar olishi hamda o‘zini-o‘zi tarbiyalashi muhim ahamiyatga ega ekanligini hamda uzluksiz ta’lim tizimining pedagogik jarayonlarida ta’lim oluvchi shaxsini rivojlantirishning asosi sifatida ta’lim - mustaqil ta’lim, tarbiya - o‘zini-o‘zi tarbiya, ma’lumot - mustaqil ma’lumot, rivojlanish va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni yaxlit pedagogik jarayonning tarkibiy qismlari sifatida ajratib ko‘rsatish mumkin.[4]

Kalit so‘zlar:Uzluksiz ta’lim,boshqaruv jarayoni,pedagogika ,ta’lim oluvchi,ma’lumotlar,dars,pedagogik jarayonlar,psixologik xususiyatlar.

Uzluksiz ta’lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarning asosiy komponenti sifatida ta’lim oluvchi shaxsining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi ta’lim - mustaqil ta’lim, tarbiya - o‘zini-o‘zi tarbiya, ma’lumot - mustaqil ma’lumot, rivojlanish va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari bilan bir qatorda, oila, mahalla, ta’lim muassasasi va tengdoshlari o‘rtasida vujudga keluvchi o‘zaro ta’sir jarayonini ham inobatga olish zarur.

O‘zaro ta’sir - bu inson faolligining ko‘rinishi sifatida, muloqotning interfaol shakli va individ faoliyatining ma’lum bir turi sifatida mustaqil ahamiyat kasb etuvchi jarayon. O‘zaro ta’sir jarayonida muloqot vujudga keladi va bunda inson o‘zini-o‘zi anglaydi, o‘z ehtiyojini, shaxsiy hayotiy tushunchalarini, faolligini namoyon etadi. Buning uchun inson o‘zining qaysi tizimga va qaysi jamiyatga xosligini anglashi zarur. O‘zaro ta’sir jarayonida ishtirok etayotgan inson nafaqat o‘zini va shaxsiy xususiyatlarini, balki aniq holatni, vaziyatni ham o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadi, bunda o‘zaro ta’sir ko‘rsatuvchi subyektlarning rivojlanishi amalga oshadi, shuningdek, o‘zaro ta’sir jarayoni ham rivojlanadi. A.A. Bodalyovning fikricha, insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir inson psixologiyasi va shaxsiy xususiyatlarini rivojlanishining eng asosiy omili bo‘lib, mazkur jarayon ishtirokchilarining o‘zaro teng harakatlari shaxslararo aloqalarning vujudga kelish sharti hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, uzluksiz ta’lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarning komponenti sifatida quyidagilarni inobatga olish zarur:

- subyektning faolligi va tashabbuskorligining rivojlanishi; shaxsning psixologik xususiyatlarining o‘zgarishi;
- ma’naviy va madaniy tushunchalarning rivojlanishi; [3]
- o‘zini-o‘zi anglash va o‘zini-o‘zi baholash ko‘nikmalarining rivojlanishi;
- kasbiy kompetentlilik darajasini ortishi;
- hamkorlikdagi faoliyatni vujudga kelishi va unda axborotlar almashinuvi natijasida kasbiy faoliyatga psixologik moslashuvni vujudga kelishi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslangan holda uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim oluvchilar uchun tashkil etiladigan ma’ruza, seminar, amaliy mashg‘ulot, to‘garak mashg‘ulotlari, ekskursiya, davra suhbatlari, uchrashuvlar, fanlar bo‘yicha tashkil etiladigan musobaqa va tanlovlari, san’at festivallari, konferensiya va boshqa turli yo‘nalishlardagi tadbirlar (pedagogik tahlil, o‘zaro dars kuzatish, ustoz-shogird tizimi, maslahatlar)ni, o‘quvchi, talaba va o‘qituvchilarning o‘zlari tomonidan amalga oshiriladigan mustaqil ta’lim, o‘zini-o‘zi tarbiya, mustaqil ma’lumot, mustaqil ishlarni, shuningdek shaxslararo munosabatlar jarayonida bevosita vujudga keluvchi tarbiyaviy munosabatlar jarayonini hamda pedagogik tajriba-sinov va pedagogik amaliyot jarayonlarini uzluksiz ta’lim tizimida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar deb aytishimiz mumkin. Mazkur jarayonlarning maqsadi, yo‘nalishi, mazmun-mohiyati va ahamiyatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak ularning o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligini, ya’ni ularda uzluksiz ta’lim tizimiga xos xususiyatlar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin, chunki pedagogik jarayonlar deb atalayotgan soddadan murakkabga qarab davom etayotgan jarayonlarning ixtiyoriy birining o‘zgarishi ikkinchisi, uchinchisi va boshqalarining o‘zgarishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Bizning fikrimizcha, pedagogik tizim umumiy maqsadlar yo‘nalishida, funksional vazifalarni amalga oshirish va boshqarishda tashqi muhit bilan o‘zaro ta’sir ko‘rsatuvchi, alohida xususiyatlarga ega bo‘lgan o‘zaro bog‘liq qismlarning yaxlit holda vujudga kelishidir. Pedagogik tizimning tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o‘zaro ta’sir etish xususiyatlariga ega ekanligini inobatga olib,

uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi pedagogik tizimni tashkil etadi deb aytishimiz mumkin.

Shunday qilib, pedagogik tizim ta'lim muassasasining maqsadi, vazifasi, ta'lim muassasasi tomonidan tanlangan model, strategiyalari orqali tavsiflanadi. Pedagogik tizim belgilangan maqsad yo'nalishida, uzluksiz ta'lim tizim subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirish, funksional vazifalarini amalga oshirish va boshqarishda tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi, alohida xususiyatlarga ega bo'lgan o'zaro bog'liq qismlarning yaxlit holda vujudga kelishidir.

Demak, uzluksiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlarni o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini inobatga olgan holda yaxlit pedagogik tizim deb hisoblasak, ularni tashkil etish va boshqarish ham tizimli xususiyatga ega bo'lishi kerak. Pedagogik tizimning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishga tizimli yondashuvning mazmun va mohiyatini quyidagi tamoyillar asosida ko'rsatishimiz mumkin:[2]

- uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayon ishtirokchilari mazkur jarayon subyektlari sifatida faoliyat ko'rsatishi, ya'ni pedagogik jarayonlarda subyekt-subyekt munosabatlarining qaror topishi;

- uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayon subyektlari faoliyatining maqsadga yo'naltirilganligi, izchilligi va o'zaro bog'liqligi;

- majmuaviylilik - pedagogik jarayonlar o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan komponentlar majmui ekanligi;

- integrativlik - harakatlanish va rivojlanishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi omillarning o'zaro birligi;

- o'zaro bog'liqlik - uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlar alohida bir tizim sifatida va yuqori tartibli yaxlit pedagogik tizimning tashkil etuvchi komponenti sifatida mavjudligi;

- kommunikativlik - pedagogik tizimning tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o'zaro ta'sir etish xususiyatlariga ega ekanligi.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi muammolarning ko'pqirraliligi va murakkabligi, nafaqat pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishni sifat jihatdan o'zgartirishni nazarda tutadi, balki uning mazmunini takomillashtirish zaruriyatini ham belgilaydi.

Uzluksiz ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishga qaratilgan, oldindan loyihalashtirilgan hamda mavjud imkoniyatlar va ilmiy-pedagogik salohiyat darajasida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar asosiy (ta'lim-tarbiyaviy) va yordamchi (ta'minlovchi va shart-sharoitlar yaratuvchi) jarayonlarni o'z ichiga oladi. Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarni rivojlantirish asosiy (ta'lim-tarbiyaviy) va yordamchi (ta'minlovchi va shart-sharoitlar yaratuvchi) jarayonlar ishtirokchilarining faoliyatlari bilan bog'liq holda, ilmiy-pedagogik salohiyatni boyitish, imkoniyatlarni kengaytirish asosida yanada yangi sifatlarga, yuqori va samarali natijalarga erishishga yo'naltirilgan va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, ulardan foydalanishda samaradorlikka erishish va rivojlantirish uchun

odatda belgilangan mezonlarni almashtirish, asosiy va yordamchi jarayonlarni yoki mazkur jarayonlar ishtirokchilarining faoliyatini takomillashtirish zarur bo'ladi.[1]

Xulosa:

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlar bir butun organizm sifatida ichki o'zgarishlarga asosan rivojlanadi va o'zaro aloqalar tizimi barqarorlashadi. Turli xil muammolarni hal etish zamonaviy usullar yordamida maqsadga erishishdagi vazifalar amalga oshiriladi, natijalar zamon talablariga moslashadi va pedagogik tizim samaradorligi ta'minlanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarning umumiy modelini o'zgartirishda o'qituvchilar va ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari, boshlang'ich tushunchalari va ishonchlariga asoslanish kerak, chunki yangilangan model zamonaviy talablar darajasida ta'lim oluvchilarning o'zgaruvchan ta'lim-tarbiyaviy, ma'naviy ehtiyojlarini qondira olishi, ilg'or pedagogik tajribalarni qo'llash hamda ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berishi zarur. Uzluksiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlarning umumiy modelini o'zgartirish asosida mazkur jarayon ishtirokchilari uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish ularning faoliyatini rivojlantirish va pedagogik jarayonda subyekt-subyekt munosabatlarini qaror toptirish uchun quyidagi asosiy tamoyillarni inobatga olish lozim:

- uzluksiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlarni samarali rivojlantirish yo'llari taxminiy belgilanganda ularning rivojlanishidagi muvaffaqiyatlar subyektlarning qobiliyatlariga, pedagoglarning qulay vaziyatlarni ko'ra olishi va ularni qo'ldan chiqarmasligiga bog'liqligi;

- tizimli obyekt sifatida uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun uni tashkil etuvchi barcha komponentlarning rivojlanish sur'atlarini, subyektlar munosabatlari va faoliyati integratsiyasini ta'minlash hamda muvofiqlashtirishning zarurligi;

- uzluksiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlarning rivojlanishidagi muvaffaqiyatlar mavjud omillarga asoslangan holda rahbar va o'qituvchilarning kelajakni ko'ra olish hamda rivojlanish imkoniyatlarini oldindan aniqlay olish mahoratlariga bog'liqligi;

murakkab tuzilishga ega bo'lgan pedagogik jarayonlarning rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojlar va imkoniyatlarni, subyektlarning qobiliyatlari va boshlang'ich tushunchalarini aniqlamasdan uzluksiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlarning rivojlantirish kuchli, majburiy va keng qamrovli ta'sir ko'rsatish usullari asosida uzluksiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlash imkoniyatining mavjud emasligi;

- tashkil etuvchi qismlar va bo'g'inlar bo'yicha aniq belgilangan tartibda (lokal)

ta'sir ko'rsatish uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiluvchi va boshqariluvchi pedagogik jarayonlarning samarali rivojlanishida yaxshi natijalarga erishishga asos sifatida xizmat qilishi. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarning umumiy modelini o'zgartirishda ularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini inobatga

olish, ya'ni ularning har birining samaradorligi ikkinchi bir tizim jarayoni samaradorligiga ta'sir ko'rsatishiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Mazkur zaruriyatlar uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Musurmanov R. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va boshqarish. Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. - 142 b. [1]

2. Mirqosimov M. Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1995. - 159 b. [2]

3. Turg'unov S.T., Daniyarov B.X. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta'lim muassasasi rahbarlarining funksional vazifalari: (o'quv qo'llanma) - Toshkent "Sano-Standart", 2011. - 162 b. [3]

4. Turg'unov S.T. va boshqalar. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. Toshkent "Sano-Standart", 2012. - 100 b. [4]

5. www.ziyonet.uz [5]

O'QUVCHILARNI INSONPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Qodirqulov Nodirbek Xamroqul o'g'li

Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi metodik xizmat bo'limi boshlig'i

O'zbek xalq og'zaki ijodi orqali axloq-odobga oid insonning ma'naviy dunyosini aks ettiradi. Ularda ijtimoiy va maishiy hayotning turli sohalari qamrab olingan, xalqning asrlar davomida to'plangan, tildan-tilga, dildan-dilga ko'chib kelayotgan insoniy qadriyatlar ibratli satrlarda ifodalangan.

Xalq og'zaki ijodi qadim zamonlardan buyon shakillanib kelmoqda ushbu atama "og'zaki adabiyot" "og'zaki ijod" "xalq og'zaki poetik ijodi" degan nomlar bilan ham yuritilgan. Xalq og'zaki ijodi kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalashda ularning xulq atvorlariga, muomla madaniyatiga kattalarga hurmat munosabatida bo'lishini va shaxs bo'lib yetishishida muhim rol o'ynaydi. Xalq og'zaki ijodi orqali ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan madaniy va marifiy boyliklarimizni yosh avlodga singdirishimiz ular qalbida insoniylik ajdodlarga faxir-iftixor tuyg'ularini shakillantirish qalbida ularga muhabbat tuyg'usini uyg'otish zarur.

Qadimgi yunon faylasufi Aflotun ham bola tarbiyasi jarayondagi barcha zarur ishlarni ta'lim bilan birga olib borish lozimligini takidlab o'tgan. G'arb faylasuflari farzand tarbiyasini jamiyat maanfatlari bilan bog'liq deb hissoylaganlar, lekin sharqda mutafakkirlar bola tarbiyasi bilan asosan ota-onasi, maktab va jamoa hamkorlikda shug'ullanishi kerak degan xulosaga kelganlar.

Yoshlarning mardlik vatanga sadoqat ruxida tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalari xususiyatlariga, ong va tushunchalarning rivojlanish darajasiga mosligi, ularda hosil bo'lib boshlagan axloqiy sifatlarning mohiyatlariga uzviy bog'langan bo'ladi. Tez aytishlar, maqollar, ertaklar mazmuniga qarab yoshlarni tarbiyalashni

turli yo‘nalishlarini, aqliy, axloqiy, estetik, mehnatsevarlik va boshqa xususiyatlarni tarkib toptirishga qaratilgan bo‘ladi.

Inson komolotining biror sohasi yo‘qki, uning tez aytish, maqollar, ertakla tasir etmagan bo‘lsa ayrim matreallar yoshlarni tarbiyalashni qonun-qoidalari, metodlarini aks ettirish bilan ajralib turadi. Shunday imkoniyatlarga ega bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi yoshlarni ta‘limning asosiy mazmuni tarkibiga kiritilgan holda organib kelinadi.

Folklorshunos olimlar M.I. Afzalov, M. Murodov, G. Jahongirov, Z. Husainova, T. Obidovalar tadqiqotlarda xalq og‘zaki ijodi janr xususiyatlari, badiiy qiymati paydo bo‘lishi va taraqqiyoti haqidagi qarashlar katta ilmiy ahamiyatga ega ekanligini tan olish zarur. Insonning barkamolligi uning ma‘naviya qadriyatlari xalq og‘zaki ijodi yoshlarda milliy va umuminsoniy fazilalarni tarkib toptirishda, kundalik faoliyatlarda doim amalga oshirib borishlari uchun eng qulay vositadur. Malumki xalq og‘zaki ijodi yoshlar hayotida alohida o‘rin tutadi. Xalq og‘zaki ijodi yoshlarga samarali tarbiyaviy tasir qilib, ma‘naviy va axloqiy shakllanishlarda katta yordam ko‘rsatadi. Maqollar, topishmoqlar yoshlarni ma‘naviy kamolotini yuksaltirishda ma‘lum darajada hissa qo‘shadi. O‘quvchi yoshlarga ko‘proq axloq va odobga oid ertak, hikoyalar aytib berish va uning mazmunini ochib berish orqali yoshlarda vatanga muxabbat va vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirishimiz mumkin. Ko‘p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o‘rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma‘naviy muhitni ta‘minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Samaradorligini oshirishni va malakali kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimini yaratishni taqozo etmoqda. Xalqimizga azal-azaldan xos bo‘lgan ma‘rifatparvarlik, bag‘rikenglik, mehrmuruvvat, bunyodkorlik kabi ezgu fazilatlar va qadriyatlarimizni keng targ‘ib qilish, jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhit barqarorligini ta‘minlashda diniy ma‘rifiy soha vakillarining o‘rni va ishtirokini oshirish, yosh avlodni milliy ma‘naviy qadriyatlarimizga mos ravishda tarbiyalash, ular ongida kichik maktab yoshidan boshlab Hadis ilmi saboqlari asosida insoniy fazilatlarni shakllantirish, ularni vatanparvarlik kabi tushunchalarni singdirish muhim vazifa hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev o‘zlarining Yangi yil munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan tabrigi «Inson qadrini ulug‘lash - yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta‘minlash demakdir. Bu borada jamiyatimiz asosi bo‘lgan mahalla hal qiluvchi o‘rin tutadi», deb ta‘kidlaganlar. Inson va jamiyatning mavjudligini ta‘minlaydigan qadriyatlar milliy tarbiya tufayli, ajdodlardan asta-sekin tadrijiy ravishda avlodlarga o‘tadi. Milliy tarbiya atamasi keng va tor ma‘nolarda ishlatiladi. Keng ma‘noda, u inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma‘rifiy hayotda faol ishtirokini ta‘minlashga qaratilgan barcha ma‘naviy ta‘sir, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig‘indisini anglatadi. Bunday tushunishda milliy tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g‘oyalari, adabiyot, san‘at, kino, radio, TV, OAV va boshqalarni ham o‘z ichiga oladi.

Shuningdek, keng ma'nodagi milliy tarbiya tarkibiga bu sohada ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi. Tor ma'noda, milliy tarbiya muayyan shaxsning ma'naviy rivoji, dunyoqarashi, axloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradilar. Bizga ma'lumki, har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki, ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki ma'naviy-axloqiy sifatлари qaror topishi ham tezlashadi. Ana shu sababdan ham ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilganlar. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlagani kabi, "Ta'lim tarbiya-ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni, xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Shu bois bu sohada yuzaki, rasmiy yondashuvlarga, puxta o'ylanmagan ishlarga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Maktab, tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi asosiy qonunimizda belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo'llabquvvatlashini talab qiladigan umummilliy masaladir. Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir» degan chuqur ma'noli so'zlarini eslayman. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xalq og'zaki ijodi bu so'z san'atidur jumladan xalq og'zaki ijodi qo'shiq,ertak,doston,maqol,topishmoq masal, matal, afsona,latifa,lof,askiya,rivoyat hikmat kabi janirlarni o'z ichiga oladi.Xalq o'zaki ijodining tarkibiy qismi sifatida "Bolalar folklori" atamasi ham mavjud.O'quvchilarni milliy qadriyatlarimiz, ko'p asirlik ananalarimiz ,urf-odatlarimiz,xalqimizning ijtimoiy- madaniy kelib chiqish tarixini uqtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda,yoshlarni xalq-og'zaki ijodi orqali milliy ruhda tarbiyalash,milliy qadriyatlarimiz,ma'naviy merosimizni o'quvchilarga xalq og'zaki ijodining janirlari orqali tushuntirib berish lozim. Bizning maqsadimiz xalq og'zaki ijodi orqali yoshlarni ma'naviy yetuk barkamol shaxs qilib tarbiyalash.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Mirziyoyev. Sh.M. " Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" O'zbekiston Toshkent-2016y
- 2.Bulatov.M.D. "Xalq og'zaki ijodi" O'zbekiston Samarqand-1998y
- 3.Usmonov.Q.H. "O'zbekiston tarixida xalq ijodining o'rni" Toshkent-2009y
- 4.Umarova.Z.A. "Xalq ijodiyoti" Toshkent-2000y

5. Boboyev, A. M. "Sogʻlom tumush tazining xayotimizdagi oʻrni Buxoro 1997y

YOSHLARDA VATANGA DAHLDORLIK HISSINI MUSTAHKAMLASHDA – ISLOM QADRIYATLARINING AHAMIYATI

Bozorov Muhammad Alijon oʻgʻli

***Oʻzbekiston Milliy universiteti Falsafa va mantiq kafedrası 2-kurs
magistranti***

Annotatsiya: Ushbu maqolada sharq davlatlarida tarbiyaga beriladigan etibor, barkamol avlodni tarbiyalashda nimalarga eʼtibor berish lozimligi, va yoshlarning vatan oldida oʻz dahildorligini oshirish qadimdan islom madaniyati bilan chambarchas bogʻliqligi haqida muallifning fikrlari bilan birgalikda sharq allomalarining qarashlari bayon etilgan.

Kalit soʻzlar: Abu Rayhon Beruniy, insonparvarlik, Ibn Sino, Ahmad Fargʻoniy, barkamol avlod, Xorazmiy, Ahmad Yassaviy, Xoja Bahovuddin Naqshband, Imom Buxoriy, qadriyat, barkamol inson, Vatan.

Mustaqillik tufayli oʻz taqdirini oʻzi belgilash baxtini qoʻlga kiritgan Oʻzbekiston Respublikasi oʻzining istiqboldagi ijtimoiy taraqqiyot yoʻlini tanladi. Zero mamlakatimiz Prezidenti taʼkidlaganlaridek, "Bizning havas qilsa arziydigan tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulugʻ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, Xudo xohlasa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham albatta boʻladi"¹⁷.

Mamlakatimizda adolatli demokratik jamiyat bunyod etishni bosh maqsad qilib belgilandi va bu maqsad sari izchil qadam qoʻymoqda. Qisqa vaqt ichida Oʻzbekistonda erkin bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan demokratik davlatning konstitutsion asoslarini yaratishga muvaffaq boʻlindi. Shuningdek, tarixiy, milliy va axloqiy qadriyat xamda anʼanalarning, muqaddas dinimizning jamiyatni maʼnaviy yuksalishidagi oʻrni va axamiyati qayta tiklandi, tinchlik, barqarorlik, millatlararo totuvlik keyingi yillarda erishilgan eng katta yutuqdir. Zero, yangi ming yillik arafasida butun maʼrifatli dunyo uz taraqqiyot istiqbollari, strategiyasini belgilab olmoqda edi.

"Bizning vazifamiz esa toʻplangan tajriba va ilgʻor xalqaro amaliyotga suyangan holda, oʻzimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qatʼiy amalga oshirishdan iborat. Shu borada yaqin va oʻrta muddatga belgilangan marralarga erishish uchun qatʼiyat bilan harakat qilishimiz zarur. Shu maqsadda 2017-2021 yillarda Oʻzbekistonni yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasini ishlab chiqish yakunlandi"¹⁸.

Jamiyatdagi ijtimoiy-maʼnaviy asoslarni shakllantirilish jarayonida ilk islom qadriyatlarining va yurtimizdan yetishib chiqqan islom allomalarining tutgan oʻrni

¹⁷ Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "Oʻzbekiston", 2017. – B. 482.

¹⁸ Mirziyoyev. Sh. Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: "Oʻzbekiston", 2016. – B. 20

va roli benihoya kattadir. Bunda biz, birinchi yurtboshimiz Islom Karimov aytib o‘tganidek: “Mana shu qutlug‘ zaminimizda tug‘ulib voyaga yetgan, muborak nomlarini bugun islom dunyosi cheksiz ehtirom bilan tilga oladigan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Axmad Yassaviy, Abduxoliq G‘ijduvoni, Zamaxshariy kabi buyuk alomalarimizni nazarda tutamiz. Ma’naviy

hayotimizni mana shu ulug‘ nomlar bilan bog‘laymiz”¹⁹.

Islom Karimov bu ajdodlarimizning muqaddas merosidan butun xalqimizni, jumladan yoshlarimizni ham bahramand qilishga, ularni mana shunday ma’naviy madaniyat muhitida kamol topishlariga, islomning insonparvarlik falsafasidagi shu buyuk g‘oyalarni yoshlar qalbidan joy qoldirishga sharoit yaratilayotganini ta’kidlagan.

Darhaqiqat, o‘zbek xalqining ma’naviy kamoloti rivojida islom qadriyatlarining hamda din arboblari ma’naviy merosining tutgan o‘rni beqiyosdir. Bu fikrning isboti uchun Islom Karimovning Oliy Majlis 1-majlisida qilgan ma’ruzasida bayon etib o‘tgan quyidagi g‘oyalarni qayd qilib, to‘la ishonch hosil qilishimiz mumkin. Unda shunday deyilgan edi: “Islom dini – bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma’rifat ekanligini unutmaylik. U quruq aqidalar yig‘indisi emas. Ana shu ma’rifatni kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladilar va yaxshi o‘g‘itlariga amal qiladilar”²⁰. Zero, “O‘zbekistonimizning ko‘p asrlik tarixi va keyingi rivojlanish davri, o‘z davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlashga qaratilgan taraqqiyoti bu haqiqatni yana bir bor yaqqol tasdiqlab berdi. Ana shu bunyodkorlik jarayonining qudratli va hal qiluvchi kuchi, hech shubhasiz, ko‘pmillatli xalqimizdir”²¹.

Bu teran, g‘oyat chuqur fikrlarda ma’naviy poklanishni unutmazlik, bu yo‘ldagi taraqqiyotimizga g‘ov bo‘ladigan riyokorlikdan tezroq foriq bo‘laylik mazmundagi da’vatlarini olg‘a surib, bunga erishishda din, xususan islom dini muhim rol o‘ynagani va o‘ynashi mumkinligini isbotlab yana quyidagi fikrlarni ilgari surgan: “Ko‘hna tariximizning qaysi davrini eslamaylik, din har doim odamlarni o‘z-o‘zini idora etishga, yaxshi xislatlarini ko‘paytirib, yomonlikdan xalos bo‘lishga chaqirgan. Har bir alohida insonga oila, jamoa, mintaqa, umumxalq rahnamo bo‘lgan. Uni og‘ir-og‘ir sinovlarga bardosh berishdan yorug‘ kunlarga intilib yashashga da’vat qilgan, ishontirgan. Bunday da’vat o‘z navbatida odamlarga kuch-quvvat bag‘ishlagan, irodasini mustahkam qilgan, bir-biriga mehru oqibatini oshirgan”²².

Davlatimiz birinchi rahbari din odamlarni ezgu maqsadlarga erishish yo‘lida birlashishga, hamjihat bo‘lishga undayotganligini, xalqimiz hayot faoliyatida muhim o‘rin egallagan “otang bolasi bo‘lma odam bolasi bo‘l” degan naqlning

¹⁹ Karimov I.A. Alloh qalbimizda, yuragimizda. “O‘zbekiston ovozi” gazetasi. 1999-yil, 6-mart.

²⁰ Karimov I.A. O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: “O‘zbekiston”, 1995. – B. 54.

²¹ Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. – B. 5.

²² Karimov I.A. O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: “O‘zbekiston”, 1995. – B. 54

hayotchanligida ham diniy aqida va hulq-odobning xizmati borligini ta'kidlab, quyidagi mantiqiy xulosani chiqargan edi: "Demak, din xalq ma'naviyatning, ma'rifatining yuksalishiga katta hissa qo'shib kelgan ekan, bugungi davlatchiligimiz haqida so'z yuritganda, rejalar tuzganda dinni, eng avvalo ham milliy, ham umuminsoniy qadriyat sifatida e'tiborda tutishimiz kerak"²³.

Shu narsa ayonki, o'zbek xalqi ma'naviy madaniyati rivoji tarixida islom dini

ham diniy, ham umumbashariy qadriyat sifatida ilmlarning, vatanga dahldorlik hissining mushtarakligini targ'ib qilgan.

Xalqimizning ma'naviy madaniyatini shakllantirishda ilk islom qadriyatidan foydalanishning ahamiyati shundaki, buyuk allomalarimizning hayoti, ilmiy merosi, ular yashagan davr fani va madaniyatiga oid tarixiy manbalarni o'rganish, ularni keng targ'ib etish, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish, ularda milliy g'urur, ajdodlar merosiga hurmat, Vatanga muhabbat tuyg'ularini tarbiyalash, sharqona odob-axloq an'anlariga sadoqatni mustahkamlashda Imom al-Buxoriy va boshqa ulug' mutafakkirlarning ma'naviy merosidan samarali foydalanish zarur. Ya'ni, o'zbek xalqi ma'naviy madaniyatini shakllantirishda, islom qadriyatlarining tutgan o'rnida allomalarimizning xizmatlari benazir va beqiyosdir.

Bugungi jamiyatimiz ma'naviy asoslarini mustahkamlashda boy sharqona falsafaga, islomning ezgu g'oyalariga tayanadi. Shuning uchun ham, jamiyatimizda tinchlik, farovonlikka erishish, birodarlik ezgulik, adolat, fuqarolik jamiyatidagi o'zaro tenglik, hurfiylik, ma'naviy barkamollik aynan shu qarashlar bilan sug'orilmoqda.

Zero, mutafakkirlarimizning ilmiy meroslari nafaqat milliy qarashlarimizning tarixiy-nazariy ildizlarini tashkil etadi, balki ularning ilmiy merosi hozirgi davrda fuqarolik jamiyati qurish sohasidagi islohotlarda paydo bo'layotgan ko'plab muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. "Bugungi kunda biz oldimizga qo'ygan dunyodagi rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga kirish vazifasini ilm fan namoyandalari, zaxmatkash olimlarimiz, ijodkor ziyolilarimizning faoliyatisiz tasavvur eta olmaymiz"²⁴. Zero, sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi jamiyatni o'rganish va uni takomillashtirishning uslubiyoti hamdir. Buni ayniqsa, Yevropa olimlari fuqarolik jamiyatini yaratishda sharq mutafakkirlarining ilmiy merosidan unumli foydalanayotganliklaridan ham bilishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi mehr-oqibat, insonparvarlikka asoslanadi. Mafkura haqida gap ketganda, avvalo insonni ezgulik yo'lida tarbiyalash uning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqati va mehnat qobiliyatini yuksaltirish nazarda tutiladi. Bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukmronlik qilmoqda va manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun misli ko'rilmagan yangi imkoniyatlar va kutilmagan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Milliy o'ziga

²³ O'sha manba. – B. 55.

²⁴ Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – B. 66.

hoslik va ma'naviy qadriyatlarga tahdid ko'payib bormoqda. Insonlar, ayniqsa, yoshlar ongiga egotsentrizm, ishga, oilaga beparvo munosabat va iste'molchilik kayfiyati tobora chuqur singib bormoqda. Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiberjinoyatchilik, odam savdosi va giyohvand moddalar savdosi kabi tahdidlar ko'paymoqda. Bunday tahlikali vaziyatda ehtiyotkorlik va hushyorlikni saqlash, mamlakat tinchligi va manfaatlarini hisobga olib, strategik taraqqiyot yo'nalishini belgilab olgan xolda ish tutish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Qarang: Xamidjon Xomidiy. Tasavvuf allomalari. – Toshkent.: “Sharq”, 2004.
2. Pardayeva M. A. Navoiy asarlarida komil inson g'oyasi. dis.f.f.n.- Toshkent.: 2017.
3. Komilov N. Tasavvuf. Beshinchi kitob. – Toshkent.: “O'zbekiston”, 2009.
4. Abu Xomid G'azzoliy. Kimyoi saodat. -Toshkent.: “Movaronnahr”, 1998.

UMUMTA'LIM MAKTABI O'QUVCHILARIDA KASB-HUNAR TANLASHGA OID MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Qodirova Nilufar Adusattor qizi

Namangan davlat universiteti doktoranti, tel: (998) 93 050 20 40

million93.@com

Annotatsiya. O'quvchilarning kasb –hunar tanlashga oid mustaqil fikrlashni shakllantirish va ularni ongli ravishda mustaqil kasb tanlashga tayyorlash jarayoni mazmunini takomillashtirishdan iborat.

Kalit so'zlar. Kasb-hunar, mustaqil fikrlash, qobiliyat, tafakkur, kasbiy ustanovka, ijodiy fikrlash, o'quvchi shaxsi.

Аннотация: Он заключается в совершенствовании содержания процесса формирования самостоятельного мышления студентов о выборе профессии и подготовке их к осознанному выбору самостоятельной профессии.

Ключевые слова: Профессия, самостоятельное мышление, способности, мышление, профессиональное становление, творческое мышление, личность студента.

Annotation: It consists in improving the content of the process of forming students' independent thinking about choosing a profession and preparing them to consciously choose an independent profession.

Key words: Profession, independent thinking, ability, thinking, professional establishment, creative thinking, personality of the student.

Umumiy o'rta ta'lim tizimi o'quvchi shaxsini shakllantirish va uning kasb-hunar tanlashida muhim davr hisoblanadi. Shu ma'noda aytish joizki, “Umumiy o'rta ta'lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik

qobilyati va amaliy tajriba ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Kasbni to'g'ri tanlash inson hayotida muhim qadam bo'lib, yosh avlodning butun umridagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan kasbning qanchalik to'g'ri tanlashiga bog'liq. Kasb to'g'ri tanlanganda uar o'z qobilyatlari va qiziqishlarini yaxshiroq ro'yobga chiqarishlari hamda jamiyatga ko'proq naf keltirishlari mumkin.

Kasbni to'g'ri tanlash har bir maktab o'quvchisining qiziqishishiga, mayliga, qobilyatiga va imkoniyatlariga, uning sog'lig'i, o'zlashtirishi va hissiyotiga mos bo'lishiga lozim. Ushbu sifatlar o'quvchining turli faoliyati davomida qaror topadi va namoyon bo'ladi. "Kim bo'lsam ekan?" degan savol har bir o'quvchi uchun asosiy muammolardan biridir. Odamning shundan keying butun hayoti ana shu muammoni hal qilishga bog'liq.

Kasbni to'g'ri tanlash mehnatda va ijtimoiy faoliyatda yuksak ko'rsatgichlarga

erishishga yordam beradi, mehnat jarayoni va uning natijalaridan qoniqish ijodkorlikni

ko'p jihatdan namoyon etish, yaxshi hissiy kayfiyatda bo'lish tanho bir kishining ham, umuman jamiyatning ham barcha hayotiy rejalari birmuncha to'la amalga oshirish imkonini beradi. O'quvchining kasb-hunarni noto'g'ri tanlashi esa kata moddiy ma'naviy zarar yetkazadi. Basharti o'smir o'z imkoniyatiga mos bo'lmagan kasb tanlasa o' o'z ishini hech qachon kasb talab qilgandek bajarmaydi.

Agar o'quvchining tanlagan kasbiga qiziqishi mustahkam bo'lsa, u kelajakda o'z kasbining mohir ustasiga aylanadi va kasbi orqasidan farovon turmush kechiradi yoki o'quvchi kasblar tasniflagichidagi kasb-hunarlar to'g'risida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lmagan holda kasbiy motivatsiyasiz tashqi omillar ta'sirida kasb tanlasa o'z taqdiriga ham jamiyatga ham kata ziyon keltiradi. Olib borilgan izlanishlar va tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchining kasb tanlash jarayoniga bir qator tashqi omillar kuchli ta'sir o'tkazmoqda. Ushbu holatlar o'quvchida kasbiy tafakkurning shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Yosh avlodda kasbiy tafakkurni shakllantirish muhim psixologik-pedagogik vazifa hisoblanganligi bois o'quvchilarning kasb tanlash muammosi umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagogik faoliyatida muhim ahamiyatga ega.

Maktab o'quvchilarining kasb tanlashi ongli zaruriyat bo'lishi hamda jamiyat manfaatlari va talablariga mos tushishi, yoshlarning kamolot yo'lidagi shaxsiy muddaolarini qondirishi lozim. Buning uchun yuksak darajada kasbiy tafakkurga ega bo'lishi: turli kasblarning insonga qo'yadigan talablarini puxta bo'lishi jamiyatning o'zi tanlagan mutaxassislikka nisbatan ehtiyojini oldindan ko'ra olishi va o'zining shaxsiy xususiyatlarini, qobilyati va istaklarini to'g'ri baholashi va anglab yetishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab, uzluksiz ta'lim tizimida tub islohotlar o'tkazish orqali uni rivojlantirishga alohida e'tibor berila boshlandi. Ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini, ta'limning texnik vositalarini tatbiq etish tizim samaradorligini ta'minlashdagi muhim omil sifatida e'tirof etildi. Ushbu islohotlar umumiy o'rta ta'lim tizimida "o'quvchilarning fanlar assoslari

bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlashni shakllantirishga" ga xizmat qiladi.

Fikrlash – inson aqliy faoliyatning yuksak shakli; ob'ektiv vaeslikning ongda aks ettirish jaroyoni. Tafakkur atroflar-muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqealikni bilish quroli, shuningdek inson faoliyatini amalga oshirishning , asosiy sharti sanaladi. ispolzovanie ison kompanii amalgaxiniy sharti. Sezgilari, g'oyalar va tasavvurlarga ko'ra, voqelik to'liq va aniq aks ettiriladi. Buni psixoliada minitsa chasovi deb ataladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqealikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Buni psixologiyada tafakkur jarayoni deb ataladi. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ularning shaxsining ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi. Inson tafakkuri orqali voqelik umumlashirib, bavosita (bilvosita) aks ettiradi, narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar, munosabatlar, xususiyatlarni anglab yetadi. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, bu jarayonda mehnat ta'limi alohida ahamiyat kasb etadi.

References.

1. Давлетшин М.Г, С.Тўтчиева "Умумкасбий психология". Ўқув кўлланма.Т.2002.
 2. Gafforov Ya.X. Methods for developing a system of teaching history and increasing the effectiveness of history teaching. Индия. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research. 2020, 108.
 3. Баркамол авлод орзуси. Т. “Шарқ”, 1999 йил.
 4. Тошпўлатов Т. Ўқувчиларнинг мустақило ишларини ташкил этиш-таълимини демократлаштиришнинг асосидир. Халқ таълими. 6-сон. 2005 йил
 4. Шоназаров Қ. Бўлажак тарих ўқитувчиларини мактаб ўқувчиларининг тарихий тафаккурини шакллантиришга тайёрлаш: Педагогика фанлари номзоди.. дис. Т., 2002.
 5. Нишоновна З. Мустақил фикрлаш ижодиёт сари қўйилган қадам. Т. “Халқ таълими” журнали. 2006 й.
 6. Гаффоров.Я.Х. Мактаб ислоҳати ва ўқитиш методларини такомиллаштириш. Science and education. Sgientific Journal. 2020, 482.
 7. Gafforov Ya.X. Important aspects of environmental education in the education system. EPRA International Journal. of research & development. India. 2020. 97.
 8. Gafforov Ya.X. Toshtemirova. S. Ways to increase the effectiveness of education in an integrated environment. International Journal of Current Research and Review. India. 2020.
- Мамурова Ф.Т., Абдуллаева Н.К., Маллабоев Н. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА «ОЦЕНКА» ПРИ ОЦЕНКЕ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ // Теоретические и прикладные науки. - 2019. - №. 11. - С. 80-83.

STUDYING THE PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INTERNET ADDICTION IN THE SOCIAL BEHAVIOR OF YOUNG PEOPLE

Mirzavev Djamshid Turdaliyevich

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze

Email: mirzjamshid.003@gmail.com

Изучение психологических аспектов интернет-зависимости в социальном поведении молодежи

Yoshlar ijtimoiy xulq-atvoridaga intrnetga moyillikni psixologik jihatlarini o'rganish

Abstract: the article examines the influence of Internet social networks on modern society. It is noted that the penetration of Internet social networks into the life of society presupposes their influence on socialization, education of young people, integrates them into the socio-normative system. Internet addiction as a concept has three different meanings. The article presents the results of the study of Internet addiction as a dependent behavior within the framework of deviant behavior. That is why the dysfunctions of the social networks of the Internet can be considered as a potential space of deviation, especially in relation to the younger generation.

Keywords: Internet influence, communication, socialization, modern youth, informational vampirism.

Аннотация. В статье рассматривается влияние социальных сетей Интернета на современное общество. Отмечается, что проникновение социальных сетей Интернета в жизнь общества предполагает их влияние на социализацию, воспитание молодежи, интегрирует их в социально-нормативную систему. Интернет-зависимость как понятие имеет три разных значения. В статье представлены результаты исследования интернет-зависимости как зависимого поведения в рамках девиантного поведения. Вот почему дисфункции социальных сетей Интернета можно рассматривать как потенциальное пространство девиации, особенно по отношению к молодому поколению.

Ключевые слова: интернет-влияние, коммуникация, социализация, современная молодежь, информационный вампиризм.

Annotatsiya. Maqolada Internetning ijtimoiy tarmoqlarining zamonaviy jamiyatga ta'siri ko'rib chiqiladi. Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat hayotiga kirib borishi ularning ijtimoiylashuv, yoshlarni tarbiyalashga ta'siri, ularni ijtimoiyme'yoriy tizimga integratsiyalashuvini nazarda tutadi. Internet tushunchasi sifatida qaramlik uch xil ma'noga ega. Maqolada deviant xatti-harakatlarning bir qismi sifatida internetga qaramlikni o'rganish natijalari keltirilgan. Shuning uchun Internetning ijtimoiy tarmoqlaridagi disfunktsiyani, ayniqsa, yosh avlodga nisbatan potentsial deviatsiya maydoni deb hisoblash mumkin.

Kalit so'zlar: Internet ta'siri, aloqa, ijtimoiylashuv, zamonaviy yoshlar, axborot vampirizmi.

Jahonda bugungi kunda ijtimoiy ta'sirlarning jadal ravishda rivojlanishi, fan va texnologiyalar taraqqiyoti, axborotlar oqimining ortib borishi, inson omili bilan bog'liq fanlar oldiga yangi vazifalar qo'yimoqda. Ayniqsa, jadal sur'atlar bilan

rivojlangan davlatlarda yuzaga kelayotgan ijtimoiy-psixologik tanglik holatlari rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. XX asrning eng katta kashfiyotlaridan biri bu - xalqaro tarmoq, ya'ni internet bo'ldi. Bu tarmoq qisqa yillarda televideniye, radio, gazeta va jurnallarni orqada qoldirdi. [4]

Kompyuter texnologiyalari insoniyat uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib, uni haqiqiy dunyodan "uzadi". Bu "psixologik nazorat qila olmaslik" deb ataladi yangi ma'lumotlar bilan to'yinganlik hissi, ya'ni kompyuterga qaramlik. Bunga vaqt ketadi bir necha yil ichida giyohvandlik xulq-atvorining an'anaviy shakllari va Internetga qaramlikni rivojlantirish Internetga qaramlar Internetdan foydalanish boshlanganidan 6 oy o'tgach paydo bo'ladi, bu ko'rsatkich 25% ni tashkil qiladi keyingi 6 oy - 58%, 1 yildan keyin - 17%. . Bunday tadqiqotlar oldini olish imkoniyatini oshiradi kompyuterga qaramlikning shakllanishi. [5]

Axborot psixologik xavfsizligi nafaqat psixologiyada o'rganiladi shuningdek, pedagogika, sotsiologiya, falsafa, axloqshunoslik, dabiyatshunoslik, ilohiyot fanlarida turlicha talqinlarda o'rganiladi. Axborot va psixologik xavfsizlikni shakllantiruvchi muqaddas kitobimiz Qur'ondagi hadis ilmiga, tarixiy manbalarda "Avesto"ga, qadimgi yozmalarga yodgorliklari asoslanadi, ajdodlarimiz Kaykovus, Y.H.Hojib, A.Yassaviy, A.Forobiy, A.Beruniy, A.Navoiy, H. Koshifiy, B. Naqshband, uning qalamiga mansub ilmiy-falsafiy asarlari o'z aksini topgan uning ta'limotlarida ayniqsa, ochiq axborot tizimlari, axborotlar sharoitida psixologik xavfsizlik xorijda va mamlakatimizda turli asoslarda o'rganilgan yondashuvlar bor. G'arb psixologlari L.Terman, R.Veys, E.Tead, G.Roland, Y.Bergess, M.Odema, P.Boennan etnik munosabatlarning psixologik talqinini ochib berdi, K.Yang, A.Goldberg, M. Griffist, R. Devis, J. Groxol, K. Surrat, P. Shumaxer, J.Moreichen-Martinslar g'arbda bu haqda to'xtalib shaxs ma'lumotlarining psixologik xavfsizligiga shaxsiy yondashdi, "Internetga qaramlik" tushunchasini tushuntirishgan. [1]

Bugungi kunda bepul Internet juda ko'paymoqda bu odamlar hayotini osonlashtiradi va ko'p vaqtni tejashga yordam beradi: kompyuterlar orqali biz har qanday ma'lumotni topamiz, muloqot qilamiz, xarid qilamiz, pul o'tkazamiz va millionlab boshqa favqulodda ishlarni qilamiz, uydan chiqmasdan va hatto stuldan turib kompyuter sichqonchasi bilan amallaymiz. Bizning zamonamizning boshqa o'zgarmas atributlari ham kompyuterga qaramlikni shakllantirishga olib keladi:

- hayotning tobora tezlashib borayotgan tezligi;
- har kuni har birimiz uchun moslashuvchan va o'z-o'zini tashkil etish qobiliyatimizdan oshib ketadigan juda tajovuzkor ma'lumotlarning oqimlari;
- turmush sharoitini o'zgartirish va qadriyatlar tizimini devalvatsiya qilish, kasb-hunarga yo'naltirish va muvaffaqiyatga erishish;
- bolalar va ota-ona munosabatlarining buzilish xolati va oila inqirozi;

Ko'pgina tadqiqotchilar kompyuter qaramligining quyidagi asosiy turlarini ta'kidlashadi:

- obsesif Internet-bemaqsad (internetda doimiy ma'lumot izlash);
- virtual aloqa;
- onlayn savdo va onlayn qimor uchun ehtiros;

- cyberspex(pornografik saytlarga qaramlik);
- kompyuter tarmoq o‘yinlari.

Ehtimol, kompyuter va internetga qaramlikning rivojlanishiga hissa qo‘shadigan asosiy sabablar quyidagilardir:

- yangi his-tuyg‘ularni, yangi identifikatsiyalarni qidirish;
- hissiy stress va tashvishlarni bartaraf etish;
- do‘stlar, qo‘llab-quvvatlash, muloqot qilish, ayniqsa, yolg‘iz odamlar va aloqalarni o‘rnatishda qiyinchiliklarga duch keladiganlar [3]

Kompyuter Internetga qaramlikni davolashning psixoterapevtik usuli.

Mo‘jizaviy tabletkalar, gipnoz yoki boshqa narsalar haqida nima deyishlaridan qat’i nazar Kompyuterga qaramlikni davolashning yarim fantastik usullari - ularga ishonmang! Agar agar hamma narsa oddiy bo‘lsa, giyohvandlar, ichkilikbozlar, patologik qimorbozlar va Chekuvchilar kamroq bo‘lar edi. Tuzatishning eng samarali usuli Kompyuterga qaramlik - bu psixoterapiya. Giyohvandlikni engishingiz mumkin individual va guruh psixoterapiyasidan foydalaning.[2]

Shuning uchun axborot va kommunikatsiyalardan samarali foydalanish mos ravishda texnologiyalari tizimi ishlab chiqish zarur, Internet tarmoqlari zamonaviy talablar bilan va yoshlarga yordam berish odamlar kerakli ma’lumotlarni oladi, yaratadi olish uchun zarur shart-sharoitlar dunyoviy fanlarni o‘rganishda xizmat qiladi.

[6]

Xulosa

Fikrimiz so‘ngida shuni aytib o‘tishimiz mumkinki internet muloqoti juda katta tasir maydoniga ega ekanligi hozirgi kunda dolzarb muommalardan biri ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Internet muloqotidan meyorida foydalanmaslik salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin hatoki sog‘ligimizga ham jiddiy tasir etishi mumkin. Qachonki biz internetga bog‘lanib qolishdan o‘zimizni saqlay olsak shundagina uni foydali vosita sifatida qabul qilishimiz mumki bo‘ladi. Atrofimizdagi yaqinlarimizga ham buni tushintirib o‘tishimiz foydali bo‘lar edi.

Adabiyotlar

1. Mirzayev Jamshid Turdalievich. “Social and psychological opportunities of information and psychological security in adolescents” International Conference on Developments in Education. Hosted from Bursa, Turkey. <https://econferencezone.org> July 15th 2022 45-48 p

<https://econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/1279>

2. Мирзаев, Д., & Наргулова, А. (2022). «Лечение интернет-зависимости. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы» Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы 1(1), 498–500. извлечено от

<https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5217>

3. Мирзоев, Д. (2022). “Internet qaramligini shakllanishning sabablari, mexanizmlari va diagnostikasi.” Современные инновационные исследования

актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), № 1 (2022) 500–503. извлечено от

<https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5218>.

4. Jamshid Turdaliyevich Mirzayev. Yoshlar ijtimoiy hulq-atvoriga internet muloqoti ta'sirining psixologik jihatlari. Tashkent Medical Academy Volume 4 | TMA Conference | 2023 Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions. Volume 4 | TMA Conference | 2023. May 6. 812-816 p. <https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlar-ijtimoiy-hulq-atvoriga-internet-muloqoti-ta-sirining-psixologik-jihatlari/viewer>

5. Mirzayev Jamshid Turdaliyevich. "Psychological aspects of influence of the internet - communication on the social behavior of the youth" / INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS. International scientific-online conference. 2023. Part 18. JUNE 3rd. 1295-1300 p.

<https://interonconf.org/index.php/neth/article/view/5386>

6. Mirzayev Djamshid Turdaliyevich/ PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INTERNET-COMMUNICATION IN SOCIAL SOCIETY OF YOUTH. The results of the study of Internet addiction on the method of Kimberly-Yang. NEUROQUANTOLOGY | October 2022 | VOLUME 20 | ISSUE 12 | PAGE 3409-3416| DOI: 10.14704/NQ.2022.20.12.NQ77350

TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KONSTRUKTIV YONDOSHUVI

Amirullayeva Barno Abdulhaqovna

A. Avloniy nomidagi milliy tadqiqot institute ilmiy izlanuvchisi

Annotatsiya. Konstruktiv ta'lim konstruktivistik o'rganish ta'lim nazariyasiga asoslanadi. Ushbu nazariy asos shuni ko'rsatadiki, o'rganish ta'lim oluvchining o'zida mavjud bilimlarga asoslanadi. Bunda konstruktivistlar o'rganuvchi passiv ravishda bilim olishga harakat qilgandan ko'ra o'quv jarayonida faol ishtirok etganda o'rganish samaraliroq bo'lishini ta'kidlaydilar. Ta'limga bunday yondoshuvda o'qituvchi tayyor bilimni berishdan ko'ra ta'lim oluvchining muhokamada faol ishtirok etish, amaliy mashg'ulotlar, hayotiy kontekstlarda muammolarni hal qilish, ilmiy izlanish va tadqiqotlar o'tkazishga undash orqali o'quvchini yangi bilimlarni kashf qilishga o'rgatadi.

Kalit so'zlar. Konstruktivizm, konstruktiv yondoshuv, o'quvchilarni faollashtirish, kattalar ta'limi, uzluksiz kasbiy rivojlanish.

Аннотация. Конструктивное образование основано на конструктивистской теории обучения. Эта теоретическая основа предполагает, что обучение основано на собственных знаниях учащегося. При этом конструктивисты подчеркивают, что обучение более эффективно, когда учащийся активно участвует в процессе обучения, чем когда он пассивно пытается получить знания.

Ключевые слова. Конструктивизм, конструктивный подход, студенческая активизация, образование взрослых, непрерывное профессиональное развитие.

Annotation. Constructive education is based on constructivist learning theory. This theoretical framework assumes that learning is based on the learner's own knowledge. At the same time, constructivists emphasize that learning is more effective when the student actively participates in the learning process than when he passively tries to acquire knowledge.

Keywords. Constructivism, constructive approach, student activation, adult education, continuous professional development.

Ta'limda konstruktiv yondoshuv ta'lim muhitini - o'qituvchi, o'quvchi, o'quv jarayonlari va o'quv dasturi vazifalarini o'zgartirish imkoniyatiga ega. Dunyo bo'yicha ta'lim tizimi o'quvchilarga XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish uchun zamonaviy texnologiyalar va raqamli texnologiyalardan foydalanmoqda. YuNESKO ning 1998 yilgi Jahon ta'lim hisoboti "O'zgaruvchan dunyoda o'qituvchi va o'qitish" da an'anaviy o'qitish va o'qitishda konstruktiv yondoshuvning tub oqibatlarini tavsiflaydi. U o'qitish jarayonining o'zgarishini, o'qituvchilar va o'quvchilar uchun ta'lim jarayonida ishtirok etish usullarini bashorat qiladi. Rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar bilan o'qituvchilik kasbi o'qituvchiga yo'naltirilgan o'quv muhitidan o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim muhitiga rivojlanmoqda. Ta'limni o'rgatishda konstruktiv yondoshuvdan to'liq foydalanishlari uchun zamonaviy ta'lim texnologiyalari, vositalari va usullaridan samarali foydalanishlari kerak. Tegishli pedagogik ta'lim muassasalari va ular tomonidan yaratiladigan o'quv dasturlari bu yo'nalishda tayyorlov va malaka oshirish o'qituvchilariga rahbarlikni ta'minlashi shart.

Hein konstruktivizmni inson o'z tajribasidan bilimlarni qurishni qanday o'rganish falsafasi deb ta'riflagan [1]. Bilimni qurish jarayonida kishi o'ziga savol berish va javoblarni topish, shu javoblarni baholash kabi bir qator bosqichlardan o'tadi. Yangi o'quv dasturining talablari va yuqorida aytib o'tilgan ta'riflardan kelib chiqqan holda, tabiiy fanlar (Science)ni o'qitish amaliyotida konstruktiv yondashuvni tatbiq etish bo'yicha tadqiqot o'tkazilishi kerak.

Konstruktiv yondoshuv asoschilaridan biri Jon Dyui "Ta'lim bu yodlab gapirib berish emas, balki faol va konstruktiv jarayon" ekanligini ta'kidlab odamlarga haqiqiy tajriba va tafakkur orqali o'rganishni taklif qiladi [2]. Konstruktivizm asosan o'rganishning faol va interaktiv ko'rinishidir. Konstruktivizm shuni ko'rsatadiki, o'quvchining atrof olamni tushunishi boshqa birovning taqdimoti emas, balki o'zining faol qurilishi natijasidir. Konstruktivistlar bilimni voqelikning individual konstruktsiyalarining natijasi deb hisoblaydi.

Konstruktivistik ta'limdan foydalanishning asosiy maqsadlaridan biri ta'lim oluvchilarga o'z bilim va ko'nikmalarini faol ishtirok etish, izlanishlar olib borish orqali qanday o'rganishni o'rgatishdir.

Audrey Greyning fikriga ko'ra, konstruktivistik sinfning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ✓ o'quvchilar faol ishtirok etadilar
- ✓ muhit demokratik

- ✓ mashgʻulotlar interfaol va oʻquvchilarga qaratilgan
- ✓ oʻqituvchi oʻquv jarayonini osonlashtiradi, bunda oʻquvchilarni masʻuliyatli va mustaqil boʻlishga undaydi

Bundan tashqari, konstruktivistik sinfda oʻquvchilar asosan guruhlarda ishlaydi, oʻrganish va bilim interaktiv va dinamikdir. Ijtimoiy va muloqot koʻnikmalariga, shuningdek, hamkorlik va fikr almashishga katta eʼtibor qaratiladi [3]. Anʼanaviy sinflarda hamma uchun umumiy yondoshuv mavjud. Oʻrganish takrorlash va mustahkamlash orqali amalga oshiriladi. Bunda tartib qoidaga qatʼiy rioya qilinadi, sinf dastur va reja asosida boshqariladi. Konstruktivistik sinflarda esa oʻquvchilarni ragʻbatlantirishga yoʻnaltirilgan tadbirlar quyidagilardir:

- ✓ Tajribalar: oʻquvchilar individual ravishda tajriba oʻtkazadilar, soʻngra natijalarni muhokama qilish uchun yigʻiladilar.
- ✓ Tadqiqot loyihalari: oʻquvchilar mavzuni tadqiq qiladilar va oʻz xulosalarini sinfga namoyish qiladilar.
- ✓ Turli ekskursiyalar. Bu oʻquvchilarga sinfda muhokama qilingan tushunchalar va gʻoyalarni hayotiy kontekstda tadbiq qilish va koʻrish imkonini beradi.
- ✓ Videofilmlar. Ular vizual kontekstni taʼminlaydi va shu bilan oʻrganishni osonlashtiradi.
- ✓ Sinf va guruh muhokamalari. Ushbu usul yuqorida tavsiflangan barcha usullarda qoʻllaniladi. Bu konstruktivistik taʼlim usullarining eng muhim farqlaridan biridir[2].

Konstruktivistik sinfda oʻqituvchining roli anʼanaviy sinfga qaraganda oʻzgaradi. Shunday qilib, oʻqituvchining asosiy eʼtibori oʻquvchilarga yoʻnalish berish orqali ularning oʻz xulosalarini ishlab chiqishga olib kelishdir. Devid Jonassen konstruktiv taʼlim muhitida oʻquvchilarni ragʻbatlantirish uchun oʻqituvchilarning uchta asosiy rolini aniqladi:

- Modellashtirish
- Fasilitator
- Iskala [3]

Konstruktiv taʼlimda baholash ham oʻzgaradi. Anʼanaviy taʼlimga koʻra, sinflarda baholash testlarga asoslanadi. Ushbu uslubda oʻquvchi toʻgʻri javoblarni ishlab chiqishi muhimdir. Biroq, konstruktiv taʼlimda bilim olish jarayoni muhim deb qaraladi. Shunday qilib, baholash nafaqat testlarga, balki oʻquvchini kuzatish, oʻquvchining ishi va oʻquvchining fikrlariga ham asoslanadi [1]. Baʼzi baholash strategiyalari quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

• **Ogʻzaki muhokamalar.** Oʻqituvchi oʻquvchilarga “asosiy” savolini taqdim etadi va mavzu boʻyicha ochiq muhokamaga imkon beradi.

• **BBB jadvali.** Bu usul maʼlum bir mavzu boʻyicha butun oʻquv kursida qoʻllanilishi mumkin, lekin ayni paytda yaxshi baholash usuli hisoblanadi, chunki u oʻqituvchiga oʻqish davomida oʻquvchining muvaffaqiyatini koʻrsatadi.

• **Aql xaritasi.** Ushbu mashgʻulotda oʻquvchilar mavzuga oid tushuncha va gʻoyalarni sanab oʻtadilar va tasniflaydilar.

• **Amaliy faoliyat.** Bular o‘quvchilarni o‘z muhitini yoki ma’lum bir o‘quv vositasini boshqarishga undaydi. O‘qituvchilar jarayonda o‘quvchilarni kuzatish orqali baholab boradilar.

Konstruktiv ta’lim yondoshuvi yosh bolalar uchun ta’lim dasturlarida uzoq vaqtdan beri qo‘llanilgan, ammo kattalar ta’limida qo‘llanilishi bo‘yicha tadqiqotlar kam. Inson rivojlanishi bilan ularning tajribalar haqida mantiqiy fikrlash qobiliyatida sifat jihatidan o‘zgarishlar ro‘y beradi, ammo o‘rganish sodir bo‘ladigan jarayonlar, kognitiv moslashuv va ijtimoiy vositachilik uzluksiz yoki butun hayot davomida bir xil bo‘lib qoladi deb ishoniladi.

Kattalar uchun konstruktivistik yondoshuvga asoslangan o‘quv muhiti o‘quvchilar uchun tadqiqot o‘tkazish, kashfiyotlar orqali yangi material va oldingi tajriba o‘rtasida mazmunli aloqa o‘rnatish imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi. Buning eng oddiy usullaridan biri o‘quvchilarni tanqidiy fikrlash undovchi ochiq savollar berishdir. Bu esa o‘quvchilarni ma’lumotlarni o‘z tajribalari bilan qanday bog‘lanishi haqida o‘ylashga majbur qiladi. Ushbu savollar samara berishi uchun o‘qituvchilar o‘quvchilar uchun foydali bo‘lgan muhitni yaratish va tarkibni o‘qitishga e’tibor qaratishlari juda muhimdir. Bain bu strategiyalarni kattalar ta’limida qo‘llash o‘qituvchilarning konstruktiv yondoshuv asosida o‘quv muhitini yaratishda muhim element sifatida ta’kidlagan. Chunki o‘qituvchining o‘zi ushbu ta’lim yondoshuviga tayyor bo‘lmasa qilingan barcha harakatlar samarasizdir. Bu esa o‘z navbatida ta’limda konstruktiv yondoshuvni amalga oshirishda o‘qituvchining o‘zini ushbu faoliyatga tayyorlash, ularni uzluksiz kasbiy rivojlanishida ushbu yondoshuvni singdirishni taqozo etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Hein G. E. (1991). *Constructivist Learning Theory: The Museum and the Needs of People*. Retrieved from <http://www.exploratorium.edu/ifi/resources/research/constructivistlearning.html>.
2. Susan Melony Hanson, Science teaching efficacy beliefs of 5th and 8th grade science teachers, A dissertation submitted to the graduate school of the University of southern Mississippi in partial fulfillment of the requirements for the degree of doctor of philosophy, may 2011.
3. Kim J. (2016). Development of a global lifelong learning index for future education. *Asia Pacific Education Review* 17 (3), 439-463. DOI:10.1007/s12564-016-9445-6.

DARSLIK – TA’LIMINING ASOSIY VOSITASI

Murodova Shaxodat Shamurzayevna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining tayanch doktoranti m.shahodat1983@gmail.com +998974250124

Annotatsiya: *Ushbu maqolada darslik ta’limining asosiy vositasi, uning fanni puxta egallashdagi ahamiyati, ta’lim oluvchilarning kompetentligini rivojlantirishdagi o‘rni haqida qisqacha fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim, darslik, DTS talablari, ko‘rsatmalar, rasm, topshiriqlar.*

Аннотация: В статье кратко рассматривается основной инструмент обучения учебникам, его значение в овладении наукой, роль в развитии компетентности педагогов.

Ключевые слова: образование, учебники, требования СОС, инструкция, картинки, задания.

Annotation: This article focuses briefly on the main tool of textbook education, its importance in mastering science, and its role in developing the competence of teachers.

Keywords: Education, Textbooks, CES Requirements, Instructions, Pictures, assignments.

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha 2017-2021-yillarda tasdiqlangan Harakatlar strategiyasi eng muhim dasturiy hujjat hisoblanib, bu hujjat asosida ta‘lim tizimiga oid qator istohotlar amalga oshirildi.

2017-yil sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”** gi PQ-3304-son Qarori qabul qilindi va bu Qaror asosida O‘zbekiston respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi faoliyati takomillashtirildi.

Mazkur qarorning oltinchi bandi **“mazmun va sifat jihatidan xalqaro talablarga javob beradigan, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda yangilangan o‘quv reja va dasturlarga muvofiq ishlab chiqilgan o‘quv va o‘quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodi yaratilishi va nashr etilishni tashkil qilish”** to‘g‘risida bo‘lib, zamon talablariga javob beradigan o‘quv adabiyotlarini yaratish ta‘lim sifatini oshirishning muhim bo‘g‘ini ekanligini ham ko‘rsatadi. O‘quv adabiyotlari orasida darslik juda muhim ahamiyatga egadir. Zero, darslik bilim beruvchi eng zarur vositalardan biridir. U vositasida bilim, ko‘nikma hamda malakalar egallanadi, rivojlantiriladi, yangi bilimlar hosil qilinadi.

Darslik-muayyan fan bo‘yicha ta‘lim maqsadi, o‘quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni beruvchi manba.²⁵

Darslik – DTS talablari bo‘yicha, DTSga muvofiq tuzilgan ta‘limning asosiy vositasi sanaladi. Darslik barqaror va qulay tarkibiy tuzilmaga ega bo‘lishi lozim. U barqarorligiga binoan mustahkam asosga ega, muqobilligiga binoan esa yangi bilimlarni zudlik bilan kiritish imkoniyatini aks ettiradi. Darslik ta‘lim oluvchilarning mashg‘ulot davomida foal ishtirok etishini, mavzuni to‘liq o‘zlashtirilishini ta‘minlashi lozim. Ana shu maqsadlardan kelib chiqqan holda darsliklar quyidagi bir qator vazifalarni bajaradi:

1) motivatsion vazifasi – ta‘lim oluvchilarni fanni o‘zlashtirishga

²⁵ Toxtaxodjayeve M., X., Nisonova S., Hasanboyeva J., Usmonboyeva., Madiyorova S., Qoldibekova A., Nisonova N., Sayidahmeddov N. Pedagogika. Toshkent: 2010. 380-bet.

yo‘naltiradi, ularda o‘quv mashg‘ulotiga qiziqishni uyg‘otadi;

2) axborot vazifasi – ta‘lim oluvchilarga axborotni yetkazib, yangi ma‘lumotlar yordamida ularning bilimlarini oshiradi;

3) nazorat tuzatish vazifasi – ta‘lim jarayoni, ularning natijalarini tekshirish, ta‘lim oluvchilarda o‘zini nazorat qilish, ya‘ni baholash layoqatini shakllantiradi, kerakli ko‘nikma hamda malakalarni rivojlantirish uchun mashqlarni tavsiya etadi;

4) muvofiqlashtirish vazifasi – ma‘lum bir mavzuni o‘rgatishda ta‘lim vositalaridan ko‘rgazmali materiallar, xaritalar va shu kabilarni jalb etadi;

5) rivojlantiruvchi-tarbiyalovchi vazifasi – darslik mazmunining ta‘lim oluvchilarga ma‘naviy ta‘sir etishi, ijodiy fikrlash, faol ishlash singari xususiyatlarni shallantiradi;

6) o‘qitish vazifasi – bilimlarni mustaqil egallash, umumlashtirish, muhimlarini ajratish va ulardan samarali foydalanish singari ko‘nikma hamda malakalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.


Shuningdek, darslik ta‘lim oluvchilarning dunyoqarashini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Topshiriqlar vositasida yangiliklar kashf qilishga undaydi. Yangi fikrlarni bildirish, g‘oyalarni ilgari surishga turtki beradi. Darslik va undagi topshiriqlarning sifat va mazmuni asosida yuqori darajada bilimlar egallanib, ko‘nikma, malakalar hosil qilinishi bilan birga kashfiyotchilik qobiliyati ham rivojlantiriladi. Shaxsning ma‘naviyati shakllanadi, axloqiy qarashlari ko‘tariladi.

Darslikning ham asosiy vositalari bo‘lib, ular har bir mavzuga doir nazariy ma‘lumotlar, tayanch iboralar, topshiriqlar, rasm va jadval, diagrammalardir. Darslikda berilgan topshiriqlarni turli xil va ko‘rsatmali qilib berishda rasm, jadval, diagrammalardan ham unumli foydalaniladi. Hozirda amalda foydalanilayotgan maktab darsliklarida bu kabi vositalardan o‘rinli va maqsadli foydalanilgan. Xususan, 2023-yil Victoria Ellis, Sarah Lawrey, Doung Dickinson muallifligida nashr etilgan 5-,6-,7-,8-,9-sinf informatika va axborot texnologiyalari darsliklarida buni yaqqol ko‘rish mumkin.


Masala

Tasvirlarni tahrirlash
Hujjatga qanday qilib rasm qo'shishni bilib oldingiz. Endi bu rasmni biroz boshqacha ko'rinishga keltirish uchun bir-ikkita usulda tahrirlashni o'rganasiz.

Hoshiya qo'shish
Tasvirni ko'proq ajratib ko'rsatish uchun unga hoshiya qo'shish mumkin. Rasmga hoshiya qo'shish uchun avval sichqoncha ko'rsatkichini uning ustiga olib borish va sichqonchani chap tugmasini bosish orqali rasmni tanlash kerak.



Tasvirni tanlaganingizda **Format** menyusini paydo bo'lganini ko'rasiz. **Format** menyusidan **Picture Border** tugmasini topishingiz mumkin. **Picture Border** tugmasini tanlash orqali ochiladigan ro'yxat oynasi paydo bo'ladi.



Maslahat
Rasm tanlanganini bilasiz, chunki uning chetida hoshiya paydo bo'ladi.

Kalit so'z
Format: biror ma'lumotni tartibga solish yoki taqdim etish usuli.

Ushbu tasvirlar 2023-yil Victoria Ellis, Sarah Lawrey, Doung Dickinson muallifligida nashr etilgan 6-sinf informatika va axborot texnologiyalari darsligining 21-sahifasida berilgan bo'lib, undagi rasmlar ham mavzuni tushuntirishga, ham mavzu yuzasidan ma'lum tasavvur hosil qilib amaliy ishlashga xizmat qiladi. Jadval, diagramma va shu kabi darslikni to'ldiruvchi vositalar haqida ham xuddi shunday fikrlarni aytish mumkin. Bu kabi vositalar yordamida nafaqat bilimlar ifodalanadi, balki ma'lum bir topshiriq ham berilishi mumkin. Jumladan,

Diagrammalar bilan ishlash

1.1-mashg'ulot
Quyidagi tasvirga qarang.



Bu tasvirdagi obyektlarni qanday tartiblash mumkin?
Buning bir usuli — hayvonlarni turiga ko'ra tartiblash. Mazkur holatda rasmdagi hayvonlar quyidagi guruhlariga ajratiladi: jirafa, sher va pingvin.

Maslahat
Bu mashg'ulotning bir nechta to'g'ri javobi bor.

Ushbu topshiriq ham 2023-yil Victoria Ellis, Sarah Lawrey, Doung Dickinson muallifligida nashr etilgan 6-sinf informatika va axborot texnologiyalari darsligining 45-sahifasida berilgan bo'lib, unda hayvonlarni guruhlariga ajratish orqali tasvirdagi obyektlarni tasvirlash vazifasi qo'yilgan. Bu vazifani bajargan ta'lim oluvchilar diagrammalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

*Darsliklar o'quvchilarga bilim va ma'lumotlarni berishda boshqa vositalarga nisbatan ko'proq ustunliklarga ega. Darsliklarda fanning mazmunini aks ettiruvchi nazariy bilim bilan birga vazifa va topshiriqlarning mavjudligi ham diqqatga loyiq.*²⁶

Darhaqiqat, darsliklarda beriladigan topshiriqlar boshqa vositalarga nisbatan ta'lim oluvchilarning ko'zlangan kompetentliklarini egallash hamda rivojlantirishda ko'proq xizmat qiladi. O'quv topshiriqlarining yordami bilan nazariy bilimlar o'zlashtiriladi, ko'nikmalar hosil qilinadi, malakalar yuqori darajaga ko'tariladi. Hatto, o'quv topshiriqlari yangilik yaratish uchun ham imkon yaratadi. Shu xususiyatlarni inobatga olgan holda darsliklarda beriladigan o'quv topshiriqlariga quyidagi talablarni qo'yish mumkin:

-o'quv topshiriqlari nazariy bilimlarni egallashga yordam berishi kerak;

- bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilishi lozim;

-ko'nikmalarni shakllantirishga, malakalarni rivojlantirishga ko'maklashishi darkor;

-kreativ fikrlashga yo'naltirishi lozim;

-ma'lum bir reja ustida ishlashga o'rgatishi kerak.

-yaratuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi muhim va b.

O'quv topshiriqlari matnli, jadval, rasmi holda ham beriladi. Ular qanday shaklda va qaysi turda bo'lmasin asosiy maqsad ta'lim oluvchilarning kompetensiyalarni yuqori darajada egallashlariga erishishdir.

Darsliklar ta'limning asosiy vositalaridan biri sanalar ekan, uni va uning tarkibiy qismlaridan bo'lgan o'quv topshiriqlarini takomillashtirishga alohida ahamiyat berish darkor. Ayniqsa, o'quv topshiriqlarining mukammal bo'lishiga erishish lozim. Bunda ularning nimaga, qanday maqsadda xizmat qilishini inobatga olish, pragmatik xususiyatlarini e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Zotan, darslikning ham, undagi barcha vositalarning, xususan, o'quv topshiriqlarining ham maqsadi sifatli ta'lim berishdir.

Xullas, darslik ta'limning muhim ustuni. Uni takomillashtirish sifatli bilim berishni ta'minlash hamdir. Darsliklarni har tomonlama mukammal holda bo'lishi ta'lim oluvchilarning kompetentligi yuqori darajada rivojlanishiga sabab bo'ladi deyish mumkin. Darsliklarni takomillashtirish, ularning sifat va mazmuniga alohida ahamiyat berish bugunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Qonun,

qaror,

farmonlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: Sharq nashriyot matbaa-konserni, 1997.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" gi PQ-3304-son Qarori. 2017-yil sentabr.

²⁶ Muratova F.Sh. Ona tili darsliklarida topshiriqlar metodikasini takomillashtirish. Toshkent:2023. Magistrlik dissertatsiya. 26-bet.

3. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI // O‘ZA axborot agentligi. 2017-yil 7-fevral.

Ilmiy risola, darslik va o‘quv qo‘llanmalar

4. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Alqarov I., Usmanov N., Pedagogika. Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. darslik 436 bet.

5. Toxtaxodjayeva M., Nishonova S., Hasanboyeva J., Usmonboyeva M., Madiyarova S., Qoldibekova A., Nishonova N., Sayidahmedov N., Pedagogika. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010. Darslik. 400-bet.

6. Victoria Ellis, Sarah Lawrey, Doung Dickinson. Informatika va axborot texnologiyalari. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Toshkent: 2021. 240 bet.

7. Yo‘ldoshev U.Y., Boqiyev R. R., Zokirov F. M., Informatika o‘qitish metodikasi. Toshkent: Talqin, 2005. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari uchun qo‘llanma. 50 bet.

Ilmiy maqolalar

8. Muratova F.Sh. Ona tili darsliklarida topshiriqlar metodikasining takomillashuvi. “Ona tili ta‘limida o‘qitish va baholash muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent: 2023. 4 bet.

Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlari

9. Muratova F.Sh. Ona tili darsliklarida topshiriqlar metodikasini takomillashtirish. Toshkent: 2023. 118 bet.

Foydalanilgan internet saytlari

10. uz.m.wikipedia.org.

11. fayllar.org.

ONA TILI TA‘LIMIDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV

Mamaraximov Sirojiddin Murtazayevich, Kulibayeva Gulshoda Baxtiyor qizi

Guliston davlat universiteti stajyor-o‘qituvchisi

mamaraximov90@umail.uz Guliston davlat universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili darslarini tashkil etish hamda til o‘qitishdagi yondashuvlar, ushbu jarayonda foydalaniladigan metodlar, kommunikativ yondashuv masalalari atroflicha yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Ona tili darsliklari, metodlar, Milliy dastur, kommunikativ yondashuv, topshiriq va mashqlar.

Annotatation. This article covers the organization of mother tongue classes and the methods and communication issues used in this process.

Key words. Mother tongue textbooks, methods, national program, communicative approach, tasks and exercises.

Boshqa fanlar qatori maktablarda ona tili darslarini to‘laqonli hamda samarali tashkil etish, ayni texnologiyalar rivojlangan bir vaqtda yosh-avlod e‘tiborini fanlararo bog‘liqlikka jalb qilish asosiy masaladir.

Maktablarda ona tili darslari mutaxassislar tomonidan o‘quvchilarga

yetarlicha tushuntiriladi, to'g'ri yo'nalishlar beriladi. Odatda, o'quvchidan nazariy qoidalar so'ralsa, javob bera oladi, lekin amalda qo'llay olmaydi. Eski ona tili darsliklarining sakson foizini nazariy qoidalar hamda o'quvchining yozma nutqini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar tashkil etadi. Ona tili darsliklarini boshqa til darsliklari bilan, misol uchun, ingliz tili darsliklari bilan taqqoslasak, orasida anchayin ko'zga ko'rinadigan farqlar mavjud. Ingliz tilidagi barcha qo'llanma va darsliklar qiziqarli suratlar, mavzuga oid faktlar turli usuldagi metodlar bilan to'ldirilgan va bu, hech shubhasiz, bir xillikdan qochgan holda o'quvchilarni qiziqitira oladi. Bu metodlar yordamida o'quvchilarga biron-bir ma'lumotni yetkazib berish osonlashadi, amalda ko'rsatiladi.

Ta'limiy darslarda metodlardan foydalanishning ta'sir va samarasi katta. Oxirgi bir necha yillar davomida ona tili darslarini yanada takomillashtirish maqsadida o'quv dasturi va rejalarni o'zgartirish, yangidan yangi metodlarni qo'shish kabi bir necha jarayonlarga e'tibor qaratildi. Bu kabi o'zgartirishlarning asosini kommunikativ yondashuv tashkil qilishi lozim. Shu o'rinda o'zi kommunikativ yondashuv nima va u biz uchun nimaga kerak, – degan savollar tug'ilishi tabiiy. “ Kommunikatsiya “ – lotincha so'zdan olingan bo'lib, “ communicatio ” – “ umumlashtiraman, bog'layman “ degan ma'noni anglatadi.

Kommunikativ yondashuvning mohiyati real vaziyatda nutqni tushunish, o'z fikrini to'g'ri ifodalashga o'rgatishdir. Shuning uchun har bir mavzu uchun alohida vaziyat beriladi va shu vaziyatda nutq vositasida masalani hal qilish talab qilinadi.²⁷

Kommunikativ yondashuvga ko'ra, nutq muayyan nutqiy maqsadni ro'yobga chiqarish, kimgadir axborot berib, kimdandir axborot olish, kim bilandir fikr almashish asosida harakatga keltiriladi. Shuningdek, bu yondashuvning talabiga ko'ra, maktab o'quvchilari ona tilini muomala - aralashuv vositasi sifatida mukammal o'rganishlari lozim.

Hayotimizda ro'y bergan, berayotgan, kelalakda ro'y berishi mumkin bo'lgan voqea-hodisalarni hayotga bog'lab mavzular sifatida o'quvchiga taqdim etsak, ularda o'rganishga bo'lgan qiziqish nafaqat ona tili darslariga, balki boshqa fanlarga ham ortadi. Xuddi shunday yo'sinni o'ziga asos qilib olgan, yangi Milliy o'quv dastur asosida o'quvchilarga taqdim etilgan, yangilangan 6-7-10-sinf ona tili darsliklari nashrdan chiqarilib hozirgi kunda tajriba-sinovdan o'tkazilmoqda. Yangilangan darsliklarning asosiy maqsadi o'quvchi-yoshlarda og'zaki nutqni rivojlantirish va o'sha o'rganilgan narsalarini hayotga tatbiq etishdan iborat. So'z boyligini oshirish bilan bog'liq turli mashq va topshiriqlarga urg'u berilgan. Bundan tashqari, avval amalda bo'lgan darsliklar nazariyaga hamda yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa, mazkur darsliklar esa o'zida 4ta nutqiy kompetensiyaviy malakalarni: **o'qib tushinish, tinglab tushinish, yozma va og'zaki nutq** jamlaganligi bilan ham alohida ajralib turadi. Misol uchun, 10-sinf

²⁷ I.Azimova. *Ona tili bo'yicha savodxonlik kurslarida kommunikativ yondashuvni qo'llash*. Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti nomli respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami.134-bet

yangilangan darslikdagi nazariy ma'lumotlari olmoshlarning nutqiy qo'llanishiga oid 10-mavzu oladigan bo'lsak:

1-topshiriq. XURSHID DAVRONning "Prussiyalik onalar allasi" she'rini o'qish. (Yonida o'quvchlari she'r bilan tanishishdan avval ozroq tassavvurga ega bo'lishlari uchun she'rga aloqador rasmlar o'z aksini topgan). 1-mashqda qiyoslash uchun o'quvchiga savollar berilib, javobi she'riy satrlar bilan izohlash so'ralmoqda.

2-mashq. Hayotda har bir kasbning o'z o'rni borligini mantiqiy aoslash va misollar keltirish. (Mashqlardan so'ng esa, olmoshlarning qo'llanilishiga doir qisqacha qoida mavjud). 3-mashqda "Sizmi yoki sen" deb nomlangan matn berilgan. (Qoida asosida). Matn olmoshlarning qo'llanilishiga diqqat qilish, o'qib-tushinish hamda fikrlash doirasini kengaytirish ya'ni o'quvchilarga tarbiyaviy nimadir yetkazib berishga qaratilgan. Uyga vazifa sifatida esa "Mening hayotdagi vazifam" nomli esse yozib kelish berilgan.

Umuman olganda, professional pedagoglarimiz an'anaviylikdan qochib, ya'ni o'qituvchi va o'quvchi hamkorlikdagi ta'limiga asoslangan tarzda, zamonaviy ruhda, kommunikatsiya usulini qo'llagan holda darslar tashkil etilishi lozim. Buning uchun turli metodlardan foydalaniladi. Misol uchun, "Aqliy hujum", "4K modeli", "FSMU", "SINKVEYN" va shu kabi bir necha metodlar. Bu metodlarning barchasi o'quvchini tezkorlikka chorlaydi, bilim darajasini tekshiradi, nutqiy faoliyatini o'stirishga yordam beradi, o'quvchining qiziqishi va e'tiborini orttiradi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim sifatini oshirish uchun ta'lim mashg'ulotlari davomida eng so'nggi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, turlicha metodlardan foydalanish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'ulomov A. va boshq., O'zbek tilini o'qitish metodikasi – Toshkent: 2012.
2. Hamroyev A.R. Po'lotova Y.A., Ona tilini o'qitish metodikasi, – Toshkent: 2021.
3. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik, – Toshkent: 2022.

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOG KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna

Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti Umumiy pedagogika kafedrası professori, p.f.d

Tayanch iboralar: ijtimoiy faol ma'naviyat, madaniyat innovatsion texnologiya, interfaol yondashuv.

Ключевые слова: социально активная духовность, культура, инновационные технологии, интерактивный подход.

Key words: socially active spirituality, culture, innovative technologies, interactive approach.

Ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarning keng o'zlashtirilishi, talaba-yoshlarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvning joriy etilishi hamda ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarning yaratilishi, ta'lim-tarbiya jarayonining didaktik jihatdan ta'minlanishi ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirishga asos bo'lmoqda. Bu o'z navbatida ta'lim muassasasi rahbarlari zimmasiga ta'lim, fan, texnika va texnologiyalarning jahon miqyosidagi yutuqlarini, yangiliklarni tatbiq etgan holda pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etish va uni loyihalash yo'nalishlari, shuningdek, boshqaruv faoliyatlarida vujudga kelayotgan noan'anaviy muammolarni ijobiy hal etish borasida turli yangi vazifalarni yuklaydi.

Ta'lim muassasasida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va uni boshqarish hamda jamoada qulay ta'limiy muhitni shakllantirishi uchun boshqaruvning turli xil zamonaviy usullarini bilishi va ularga asoslanishi, rivojlantiruvchi g'oyalar yo'nalishini aniqlay olishi, ilg'or tajribalarni va fan-texnika yutuqlarini muntazam o'rganib borishi, ularni o'z faoliyatida tatbiq etishi, boshqaruv jarayonida innovatsion faoliyatni tashkil eta olishi zarur hisoblanadi.

Ilmiy-tadqiqotlarda keltirilishicha, ta'lim jarayonini tashkil etish

va boshqarish jarayonida pedagog tomonidan o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi quyidagi vazifalar bajarilishi zarur:

belgilangan maqsadga erishish uchun vazifalar belgilash va belgilangan vazifalarni bajarish yo'nalishida tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish; amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash; qaror qabul qilish;

vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra tanlash ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish;

o'qitishning texnik vositalaridan unumli foydalanish, ta'lim jarayonini

uzluksizligini ta'minlash; ilg'or pedagogik tajribalar va zamonaviy

axborotlar texnologiyalaridan foydalanilishini ta'minlash;

DTS talablarini amaliyotda qo'llash va uning monitoringini olib borishni tashkil etish;

o'quvchilar o'rtasida anketa so'rovlari va suhbat o'tkazish asosida axborotlar to'plash va tahlil qilish; o'quvchilarni innovatsion faoliyat atijalariga qiziqishini shakllantirish va rag'batlantirish asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish.

Mazkur keltirilgan tom ma'nodagi fikrlarda pedagogning bilimi, ko'nikma va malakalari, qobiliyati va fazilatlarini, fidoiyligi va shaxsiy sifatleri bo'yicha tabiiy holda mavjud talablar o'z ifodasini topgan deb aytishimiz mumkin. Pedagogning bilimi, ko'nikma va malakalari darajasini baholash mezonida baholashning alohida ko'rsatkichlari sifatida quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

1. Kvalifikatsiya – bu pedagogika sohasidagi bilim, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari hamda pedagogik va psixologik xususiyatlar, ijtimoiy me'yor va talablarni bilishi.

2. Kasbiy mahorat – bu mavjud yagona pedagogik talablar asosida, o'quvchilarning imkoniyatlarini o'rganib, ularni hisobga olgan holda, guruh

jamoasini shakllantirish, uning faoliyatini muvofiqlashtirish, guruh oldida turgan vazifalarni bajarishda mavjud muammolarni va masalalarni

hal etish yo'llarini ko'rsatish; o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish asosida pedagogik xodimlar bilan ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, tanqid va o'z-o'zini tanqid zaruriyatini hisobga olgan holda ularning xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish, tartib-intizomni va uyushqoqlikni saqlashdan iborat.

3. Faoliyat unumdorligi – bu ta'lim oluvchilarning davlat ta'lim standartlari asosidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda aytish mumkinki, pedagoglar ta'lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlarga asoslanishi, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi, ixtiyoriy vaziyatlarda o'zini-o'zi nazorat qila olishi, shuningdek, ta'lim muassasasida hukm suruvchi tarbiyaviy munosabatlarni e'tiborga olgan holda faoliyat olib borishi, turli xil masalalarni va muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me'yoriy mezonlarga asoslanishi zarur bo'lib, bular pedagogning ta'lim jarayonini boshqarishdagi kompetentligini ifodalaydi.

Kompetentlik pedagogning ma'naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyati, ya'ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyatini tasvirlaydi. V.P.Toporovskiyning fikricha, kompetentlik pedagogning boshqaruv yo'nalishidagi tushunchalari darajasi, uning individual qobiliyatlari va malakasi, o'zini-o'zi rivojlantirishga va uzluksiz mustaqil ta'lim olishga bo'lgan moyilligi, intilishlari, shuningdek, zamonaviy talablar asosida ta'lim jarayonini boshqarish imkoniyatlari orqali aniqlanadi.

Pedagog kasbiy kompetentligining quyidagi asosiy komponentlarini ajratib ko'rsatish mumkin: o'z faoliyati samaradorligini tahlil qilish va ob'ektiv baholashga xizmat qiluvchi reflektiv ko'nikmalar; o'z faoliyati va o'zaro munosabatlar jarayonidagi xatti-harakatlarining natijalarini hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayoniga tayyorgarligini his etishni ifodalovchi oldindan ko'rish ko'nikmalari; ta'lim–tarbiya jarayonlarida vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarda sub'ektlar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmasi; hamkorlikda faoliyat ko'rsatish va vaziyatlarga ko'ra pedagogik uslublaridan oqilona foydalanish ko'nikmasi.

Demak, pedagogning kasbiy kompetentligi ularning ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalari darajasi, tashkilotchilik, tadqiqotchilik, boshqaruvchilik, pedagogik qobiliyati va ko'nikmasi, o'zini-o'zi rivojlantirishga va uzluksiz mustaqil

ta'lim olishga bo'lgan moyilligi, ta'lim jarayoni faoliyatini tashkil etish, boshqarish va takomillashtirish imkoniyatlari orqali aniqlanadi deb aytishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Semina Ye.A. (2010). Kompetentnostnaya model vьpusknika pedagogicheskogo vuza - budущego uchitelya matematiki. Almanax sovremennoy nauki i obrazovaniya. - № 5 (36). - S. 133-135.

2. Столяренко А.М. Общая педагогика. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006. - 25 с.

3. Фалсафа: комуший лугат (Тузувчи ва масъул муҳаррир .Назаров). - Т.: Шарқ, 2004. -173-174 б.
4. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. (2013). Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti.
5. Muslimov N.A. Pedagogik faoliyatga tizimli yondashuv muammolari // Kasb-hunar ta'limi. – 2004. - № 3. – B.24.
6. Mitina L.M. (2004). Psixologiya truda i professionalnogo razvitiya uchitelya. - M.: Akademiya. - 320 s.
7. Raxmanova M.Q. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy faollikni rivojlantirish. Monografiya // «Bookmany print» nashriyoti, 2022, - 106 b.
8. Raxmanova M.Q. Talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish. Ped. fan. dokd... diss. – T., 2023. – 220 b.
9. Raxmanova M.Q. Kasbiy ta'lim jarayonida talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda interfaol ta'limning nazariy-amaliy jihatlari // Mug'allim h m yzliksiz bilimlendirio'. 2022. –№3/3, – B. 39-43.
10. Raxmanova M.Q. Kasbiy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish funksiyalari / “Ta'lim tizimida fan innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari” Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. Jizzax. (2021-yil, 20-noyabr).- B.- 782-786.
11. Raxmanova M.Q. Kasbiy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish mazmuni / “Ta'lim tizimida fan innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari” Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. Jizzax. (2021-yil, 20-noyabr).- B.- 782-786.

UMUMTA'LIM MAKTAB RAHBARLARI BOSHQARISH FAOLIYATIDA TAYM-MENEJMENT TEXNOLOGIYALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Bekniyazov Bayrambay Saparbaevich

NDPI o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada vaqtni samarali taqsimlash nuqtai nazaridan ta'lim tashkiloti rahbari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini, ta'lim tashkiloti rahbari faoliyatida vaqtni boshqarish kontseptsiyasini shakllantirish rejalashtirishning mohiyatidan biri sifatida tavsiflanadi. Vaqtni boshqarish vositalari, vaqtni boshqarish texnologiyalari va ta'lim tashkilotini boshqarish sohasida ushbu texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflaydi.

Kal't so'zlar: vaqt, ta'lim tashkiloti, menedjer, taym-menejment, vaqtni boshqarish.

Ta'lim tashkilotlar faoliyatida taym-menejment texnologiyalaridan markazlashgan holda foydalanish tendentsiyasi so'nggi paytlarda sezilarli darajada oshdi. Bu ehtiyoj ta'lim sohasida o'zgarishlarning o'sib borayotgan sur'atlari ta'lim tashkiloti xodimlariga ayrim vakolatlarni o'tkazishni, ularning mustaqil qarorlar qabul qilishini, o'z faoliyatini mustaqil tashkil etishni va rejalashtirishni talab qilishi bilan bog'liq. Ushbu hodisa pedagogik faoliyat uchun eng katta

ahamiyatga ega, chunki bevosita ta'lim tashkiloti ma'muriyatiga yo'llangan ko'plab tashqi so'rovlar (masalan, boshqaruv organlari, ota-onalar, o'quvchilar va boshqalar so'rovlari) yuqori organlarga murojaat qilmasdan cheklangan vaqt resurslari sharoitida rahbariyatdan ushbu muammolarni mustaqil ravishda hal qilishni talab qiladi.

Ta'lim tashkilotlari rahbarlari uchun ularning boshqarish faoliyatidagi tizimli o'zgarishlar - yangi o'quv kurslari, dasturlari, ta'lim standartlari, talablar, texnologiyalar va boshqalarni joriy etish odatiy holga aylanmoqda. Shu munosabat bilan ta'lim tashkiloti ma'muriyati doimiy ravishda hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalar soni va hajmini oshirishi kerak, muassasani jadal va uzluksiz rivojlantirishga qaratilgan turli loyihalarni amalga oshirish uchun doimiy ravishda vaqt zaxirasini topish kerak.

Taym-menejment - bu menejment fanining dinamik rivojlanayotgan sohasi bo'lib, vaqtni samarali boshqarish usullari va tamoyillarini aniqlash bilan shug'ullanadi. Vaqtni boshqarish - bu samaradorlikni oshiradigan muayyan tadbirlarga sarflangan vaqt miqdorini ongli ravishda nazorat qilishni o'rgatish jarayonidir [1;13]. Shu munosabat bilan, ta'lim tashkiloti rahbari faoliyatida vaqtni boshqarish juda dolzarb bo'lib qoladi, chunki ish hajmi judayam ko'p va vaqt resurslari etarli emas.

Doimiy har xil vaziyatga tayyor turish – ta'lim tashkiloti rahbarning asosiy xususiyatidir. Muntazam mas'uliyat hissiga qo'shimcha ravishda, tez aralashuv va vaqtni talab qiladigan kutilmagan vaziyatlar doimo yuzaga keladi. Shuning uchun, barcha muammolarni hal qilish va barcha vazifalarni vaqtida bajarish uchun vaqt topish, ta'lim rahbarlari ish kunini aniq rejalashtirish juda muhimdir. Ta'lim rahbari, ko'pincha vaqt etishmasligi, ortiqcha ish yuki muammosiga duch keladi, chunki ko'p vazifalar to'planib qolganda, hatto tajribali rahbar ham qaror qabul qilishda birinchi navbatda nima qilish kerakligini tushunolmaydi, chunki hamma vazifalar bir qarashda muhim va shoshilinch ko'rinadi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun ta'lim rahbarlari vaqtni to'g'ri va samarali taqsimlashni o'rganishi zarur. Taym-menejment kabi soha ta'lim menejerlari uchun dolzarbdir u xodimlarni qanday qilib samarali boshqarishni va ish vaqtingizning 50% gacha tejashni o'rgatadi.

Ko'pgina tadqiqotlarga ko'ra, ta'lim tashkiloti rahbari doimiy ravishda vaqt etishmasligi sababli, ular ish kunini ko'paytirishga, ish joyining vaqt chegaralarini kengaytirishga va shu bilan boshqa faoliyat sohalariga ta'sir qilishiga to'g'ri kelishi aniqlandi. Oxir oqibat, ta'lim menejerida o'z-o'zini rivojlantirish va malaka oshirish, dam olish va sog'liq, shaxsiy hayot va shaxsiy rivojlanish uchun vaqt va kuch qolmaydi. Ta'lim rahbari doimiy ravishda «shoshilinch ishlar» bilan band bo'lib, voqealarning o'z-o'zidan ketishiga berilib, o'z vaqtini boshqara olmaydi, lekin vaziyatga bog'liq bo'lganligi sababli, u tez orada muhim masalalarni ikkinchi darajali narsalardan ajratish qobiliyatini yo'qotadi [2; 248]. Shu sababli muhim masalalar ko'pincha chetga suriladi, bu esa o'z navbatida ko'plab yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Shubhasiz, vaqt komponenti - rejalashtirishdan ajralmasdir. Rejalashtirish ta'lim tashkilotini boshqaruvining asosiy funktsiyasi bo'lib, menejerning samaradorligini ta'minlaydi. Rejalashtirish funktsiyasi

noaniqlikni yo‘q qiladi, diqqatni asosiy vazifalarga qaratadi va boshqaruv nazoratini osonlashtiradi. Ta’lim tashkilotining ta’lim-tarbiyaviy ishlarini aniq rejalashtirish uning muvaffaqiyatli faoliyatining muhim shartidir, chunki u diqqatni jamlashni ta’minlaydi, o‘qituvchilar va o‘quvchilar jamoasining natijali ishlashi uchun sharoit yaratadi, vaqtdan va boshqa imkoniyatlardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi.

Ta’lim tashkiloti faoliyatini rejalashtirishda rahbar tashqi va ichki ma’lumotlarni hisobga oladi. Tashqi muhitdan olingan ma’lumotlar davlat va idoraviy organlarning ta’lim vazifalari va maktab faoliyati masalalari, shuningdek, o‘sib kelayotgan avlodga ta’lim va tarbiya mazmuni to‘g‘risidagi ko‘rsatmalarini o‘z ichiga oladi. Ichki ma’lumotlarda ta’lim tashkilotining oldingi faoliyati, erishgan yutuqlari, pedagogik kadrlar faoliyatidagi kamchiliklar va qiyinchiliklar va boshqalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar mavjud.

Vaqt doirasiga qarab, ta’lim tashkilotida rejalashtirish strategik (uzoq muddatli reja), taktik (yillik ish rejasi) va tezkor bo‘lishi mumkin.

Zamonaviy ta’lim menejeri faoliyatida rejalashtirishning mohiyati faqat ta’lim tashkiloti faoliyatini rejalashtirishga asoslanmaydi. Shaxsiy vaqt va ishni rejalashtirish maktab direktori ishining muhim jihati hisoblanadi. Aniq reja takrorlashning oldini oladi, qaysi vaqt va masalalarga e’tibor qaratish kerakligini oldindan aniqlash imkonini beradi va o‘qituvchilarning ishi va shaxsiy vaqtini boshqarishga yordam beradi. Ta’lim menejering shaxsiy rejasi «hisobot uchun» emas, balki haqiqiy bo‘lishi kerak. Ushbu reja o‘zingiz uchun, o‘z vaqtingizni tejash uchun tuzilgan. Buni siz boshqarayotgan tashkilotning umumiy ish rejasi bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Shaxsiy rejangiz o‘z faoliyatingizning vazifalari va ustuvorliklariga muvofiq tuzilishi kerak. Bunday holda, siz vakolatlarni topshirish va bo‘ysunuvchilar o‘rtasida topshiriqlarni to‘g‘ri taqsimlash zarurligini yodda tutishingiz kerak. Shaxsiy ishni rejalashtirish vazifasi kuchlarni asosiy yo‘nalishlarga to‘plashdir. Ta’lim tashkiloti rahbarining rejasi pedagogik jamoa rahbarining kelajakdagi maqsadli faoliyatining haqiqiy aksidir. Vaqtni boshqarish haqida gapirayotganimiz sababli, vaqtni boshqarish kontekstidagi har qanday rejalashtirish belgilangan vazifalarni hal qilish uchun vaqt resurslarini optimal taqsimlash bilan bog‘liq. Albatta, rejalashtirish asosi yillik rejadir, chunki har qanday ta’lim tashkilotining faoliyati bolalarni o‘qitish va tarbiyalash maqsadlariga muvofiq tashkilot faoliyatining yo‘nalishlarini tavsiflovchi yillik reja asosida amalga oshiriladi. Yillik ish rejasining asosiy vazifasi ta’lim tashkiloti oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarni o‘z vaqtida belgilashdan iborat.

Yillik rejada belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun maktab direktori tomonidan vaqtni boshqarish texnologiyalaridan foydalanish eng samarali hisoblanadi. Ushbu texnologiyalarga quyidagilar kiradi:

- Xronometraj – oddiy yozma qayd qilish orqali shaxsiy vaqt sarfini hisobga olish, tahlil qilish va qaror qabul qilish uchun material bilan ta’minlash hamda fikrlash samaradorligini oshirish vositasi bo‘lib xizmat qilish [3; 70].

- vakolatlarni topshirish - bu boshqaruv vositasi bo‘lib, unda rahbar o‘z vakolatlarning bir qismini harakat maqsadini ko‘rsatuvchi bo‘ysunuvchiga beradi,

lekin maqsadga erishish dasturini taqdim etmaydi. Vazifaning bir qismi sifatida, bo'ysunuvchining o'zi harakatlar algoritmi orqali o'ylaydi, tashabbus ko'rsatadi, qaror qabul qiladi - u hamma narsani mustaqil ravishda, eslatmalarsiz bajaradi va bajarilishi haqida hisobot beradi.

- Prognozlash - ta'lim jarayonida favqulodda vaziyatlarning oldini olishga, vaqtni oqilona taqsimlashga, ishbilarmonlik muhitini tayyorlashga va eng qiyin paytlarda ham saqlab qolishga yordam beradi.

- vaqtni birlashtirish – bu jiddiy tahliliy ishlarni bajarish uchun shartdir. Jiddiy ishlarni alohida vaqt oralig'iga bo'lish tavsiya etilmaydi, aksincha, hamma narsani chetga surib, faqat ushbu ishni amalga oshirishga qaratish kerak.

Axborot oqimlarini optimallashtirish - har qanday zaruriy ma'lumotlar o'z maqsadiga imkon qadar tezroq yetib borishini anglatadi. Qoida tariqasida, maktabdagi barcha ma'lumotlar direktorning o'zi tomonidan olinadi, qayta ko'rib chiqiladi, o'rganiladi va bo'ysunuvchilar o'rtasida qayta taqsimlanadi.

Direktorning ish joyini tashkil etish yordamchi omil hisoblanadi, ammo shunga qaramay, faoliyat va vaqtni tejashga katta ta'sir ko'rsatadi. Ish stolida faqat boshqaruv muammolarini hal qilish uchun tez-tez yoki doimiy ravishda ishlatiladigan narsalar va vositalar bo'lishi kerak.

Axborot hajmining doimiy o'sishi va o'quvchilar va o'qituvchilarga talab ortib borayotgan sharoitda maktabni samarali boshqarish uchun nafaqat rahbar, balki unga bo'ysunuvchilar uchun ham vaqtni boshqarish va o'zini o'zi boshqarish usullarini o'zlashtirish zarur. [4; 23]. Ta'lim tashkilotini samarali boshqarish maqsadni to'g'ri belgilash, vakolatlarni topshirish, ustuvor vazifalarni aniqlash va ularni hal qilish algoritmini yaratish qobiliyatiga asoslanadi.

Shunday qilib, ta'lim tashkiloti rahbari faoliyatida vaqtni boshqarish kompetentsiyani va texnologiyalaridan foydalanish ta'lim muassasasini boshqarish tizimining samaradorligini oshiradi. Vaqtni boshqarish nafaqat vaqtdan foydalanish samaradorligini oshirish vositasi sifatida (bu klassik yondashuvga xos), balki ta'lim tashkilotini rivojlantirish vositasi sifatida ham qo'llanilishi mumkin. Vaqtni boshqarish texnologiyalaridan maktab direktori ham, maktab ma'muriyati ham ish vaqtdan foydalanish samaradorligini oshirish va boshqaruvning turli darajalarida ta'lim tashkiloti oldida turgan vazifalarning ortib borayotgan hajmi ustidan nazoratni oshirish uchun ishlatilishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Архангельский Г. А. Организация времени. От личной эффективности к развитию фирмы / Г. А. Архангельский. СПб.: Питер, 2008. 448 с.

2. Власова Д.А. Тайм-менеджмент как способ повышения личной эффективности работников// Научное сообщество студентов: Междисциплинарные исследования: сб. ст. по мат. III междунар. студ. науч.-практ. конф. № 3.

3. Архангельский Г.А. Корпоративный тайм-менеджмент [Электронный ресурс]: энциклопедия решений / Г.А. Архангельский. Электрон. текстовые данные. М.: Альпина Паблишер, 2017. 212 с.

4. Адамс Б. Время. Секреты управления / Б. Адамс. М.: АСТ: астрель, 2011. 304 с.

BOLA SHAXSINI HAR TOMONLAMA KAMOL TOPTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI

*Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna, Begmatov Najmiddin Jahongir o'g'li
ChDPU professori, p.f.d.(DSc), 1-kurs talabasi*

Har tomonlama yetuk va sog'lom yosh avlodni shakllantirish va tarbiyalash masalasi bugungi kunda mustaqil davlatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Chunki har qanday mustaqil davlatning kelajagi va ravnaqi o'sib kelayotgan yosh avlodning dunyoqarashiga, oilaviy, ijtimoiy va tabiiy muhitiga uzviy bog'liqdir. Agar bola o'z layoqatiga mos sharoitda o'sib, zarur faoliyat bilan shug'ullansa, layoqat erta ko'rinib, rivojlanishi, aks holda yo'q bo'lib ketishi mumkin. Shuning uchun pedagogik layoqatning namoyon bo'lishi va qobiliyat sifatida rivojlanishi to'la-to'kis hayot sharoitiga va tarbiyaga bog'liq. Shu bilan birga, inson kamolotida mikromuhit – oila sharoiti ham katta ta'sir kuchiga ega. Chunki bola ko'z ochib ota-onasini, qarindosh-urug'ini ko'radi. Uning intensiv - jismoniy va psixologik rivojlanadigan davri oila ta'sirida shakllanadi.

Xalqimizda “Qush uyasida ko'rganini qiladi” degan naql bekorga aytilmagan. Oilaning hayot tarzi, undagi bola tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadigan tarbiyaviy muhit uning kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bola kamolotida ijtimoiy muxit ham muhimdir. Chunki ishlab chiqarish munosabatlari va ularni tartibga solib turadigan ijtimoiy qonun-qoidalar kishiga alohida ta'sir qiladi. Ijtimoiy aloqalar, ya'ni insonlararo o'zaro munosabat natijasida odam bolasi hayotga va mehnatga tayyorlanadi, kerakli tajriba va bilimlarni egallaydi.

Mutafakkir Abu Nasr Forobiy (873-950) “Fozil odamlar shahri” asarida yosh avlodning “ezgulik, adolat, bilimdonlik kabi fazilatlarini shakllantirish” va ularni “yovuzlik, nodonlik, bilimsizlik kabi jaholat illatlaridan asrash” masalasini tahlil qilgan. Uning fikricha, “odamlar tarbiya natijasiga ko'ra fozil (etuk) yoki johil kimsalarga aylanadi”. Olim fozil odamlar yashaydigan jamiyatni hozirgi “fuqarolik jamiyati” tushunchasining muqobili bo'lgan “fozil jamiyat” deb ataydi.

Abu Nasr Forobiy inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmasligi, buning uchun atrofida bilganlari bilan aloqada bo'lishi, ularning ko'maklariga muhtojligini ta'kidlash orqali ijtimoiy munosabatlar ahamiyatini ochib berishga harakat qiladi. Insoniy sifatlarni shaxsga singdirishda ikki yo'l mavjudligini ta'kidlaydi: “Amaliy fazilatlar va amaliy san'at, kasb-hunarlar va ularni bajarishga odatlanish”. Bu odat ikki yo'l bilan hosil qilinadi. Bulardan birinchisi – qanoatbaxsh, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so'zlar yordamida hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g'ayrat, qasd-intilish harakatga aylantiriladi.

Ikkinchisi – majbur etish yo'li. Bu usul gapga ko'nmovchi qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalklarga nisbatan qo'llaniladi. Chunki ular o'z istaklari tufayli so'z bilan g'ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni o'rganishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo'ladi. Kasb-hunarlarini va juz'iy san'atlarni egallashga intilish bo'lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak.

Chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad ularni fazilat egasi qilish va san'at ahllariga (madaniyatli kishilarga) aylantirishdir”.

Tarbiya muhiti inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan hisoblanadi. Tarbiyaning xususiyati shundaki, u aniq maqsadni ko'zlab, insonda ijobiy fazilatlarni tarkib toptirish yo'lida tarbiyachi rahbarligida muntazam amalga oshirib boriladi.

Ammo tarbiya ta'sirining kuchi va uning natijasi irsiyat va muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanadi.

Inson kamoloti irsiyat yo'li bilan orttirilgan va tabiiy layoqatlar bilan belgilanib qolmay, balki butun hayoti davrida uni qurshab olgan voqelik ta'sirida orttirgan xususiyat va sifatlar bilan ham belgilanadi.

Shubhasiz tarbiya odamning ko'zi, sochi, terisining rangiga, uning badani tuzilishiga ta'sir eta olmaydi, lekin jismoniy taraqqiyotga ta'sir etishi mumkin. Chunki maxsus tashkil etilgan jismoniy mashqlar orqali bolaning salomatligi mustahkamlanadi va chiniqtiriladi. Insonning tabiiy qobiliyati faqat tarbiya orqali, uni ma'lum bir faoliyat turiga jalb qilish orqali rivojlanishi mumkin.

Ma'lumki, bola layoqatini rivojlantirish, uni qobiliyatga aylantirish va hayotga mos holda o'stirish uchun mehnatsevarlik va ishchanlik kerak. Mehnatsevarlik va muttasil o'tirib ishlash kabi fazilatlar faqat tarbiya natijasida orttiriladigan fazilatlardir. Garchand inson kamolotiga ta'sir etadigan omillar bir qancha bo'lsa ham, lekin maxsus tarbiya muassasalarida tarbiyachi rahbarligida amalga oshiriladigan tarbiya jarayoni yetakchi hisoblanadi. Chunki, birinchidan, tarbiya ta'sirida turli fazilatlar o'zlashtiriladi va bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikmalar, malakalar ham maxsus uyushtirilgan tarbiya orqali hosil qilinadi. Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklarni ham o'zgartirib, shaxsni kamolga yetkazish mumkin. Masalan, ko'rlar, gunglar ham o'qitilib, sog'lom kishilar qatori hayotga tayyorlanadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish yoki bartaraf qilish mumkin.

Shu tufayli, u shaxsning kamolga yetishini tezlashtiruvchi rol o'ynaydi. Inson kamol topishida maktabning ahamiyati katta. Bolalar maktabga qadam qo'yar ekan, ular o'quv mehnati bilan band bo'ladilar. Bolalar maktabda fan asoslarini egallash bilan birga, ularda sekin-asta ilmiy dunyoqarash shakllanib boradi. O'qituvchi-tarbiyachilarning rahbarligida insonga xos bo'lgan yuksak fazilatlarni egallaydilar. Tarbiyaviy ishlarni reja asosida tashkil etish, bolani tarbiyalashda oilaga har vaqt yordam ko'rsatadi. Tarbiyachi o'z tarbiyalanuvchisining oilaviy sharoitidan xabardor bo'lishi, pedagogik maslahat, yordamga muhtoj bo'lgan oilalarga yordam berishi muhim. Tarbiyachi uchun bola bo'sh vaqtini kimlar bilan va nimalar bilan mashg'ul bo'lib o'tkazayotgani ahamiyatsiz emas. Chunki o'z holiga tashlab qo'yilgan bola ko'channing salbiy ta'siriga berilib ketishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, inson faqat faoliyatda rivojlanadi, undan tashqarida rivojlanish yo'q. Bola juda yoshligidan boshlaboq kattalar yordamida tashqi muhit bilan turli xil aloqada bo'ladi. Maktab yoshida bu aloqalar o'qish va shu bilan bog'liq bo'lgan boshqa faoliyat bilan bog'lanadi va bular rivojlanish uchun manba sanaladi.

Umuman, pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat bola shaxsining aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy va irodaviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Rahbarlik qilinmagan faoliyat esa bir yoqlama yoki salbiy ta'sir etishi mumkin.

Shunday qilib, inson taraqqiyotining ilmiy konsepsiyasi inson kamolotiga ta'sir etadigan omillarni tahlil etib, inson kamoloti va uning shaxsini shakllantirishni yagona va bir butun jarayon ekanligini ta'kidlaydi. Bu jarayonda insonning faolligiga katta o'rin beriladi. Tarbiyachi tomonidan qo'yiladigan maqsad aniq bo'lsa va bu maqsadga erishish uchun odam astoydil harakat qilsa, kutilgan natijaga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 222 b.
2. Mavrulov A. Ma'naviy barkamol inson tarbiyasi. – T.: O'zbekiston, 2008. – 80 b.
3. Mardonov Sh., Egamberdieva N. Sharq allomalari merosi – pedagog mutaxassislar tayyorlash asosi // Xalq ta'limi. – T., 2004. – № 2. – B. 25-27.
4. Qahharova M. Jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhit: muammo va yechimlar. Falsafa fan. dok. ...diss. – T., 2012. – 157 b.
5. Qurbonboev M. Talabalar ma'naviy-ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari (jamoalar asosida). Ped. fan. nomz. ...diss. – T., 1998. – 155 b.
6. Tojiboeva X.M. O'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik tizimi. Falsafa fan. dok. ... diss. avtoref. – T., 2018. – 22 b.
7. Raxmanova M.Q. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy faollikni rivojlantirish. Monografiya // «Bookmany print» nashriyoti, 2022, - 106 b.
8. Raxmanova M.Q. Talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish. Ped. fan. dokd... diss. – T., 2023. – 220 b.
9. Raxmanova M.Q. Kasbiy ta'lim jarayonida talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda interfaol ta'limning nazariy-amaliy jihatlari // Mug'allim ham yzliksiz bilimlendirio'. 2022. – №3/3, – B. 39-43.
10. Raxmanova M.Q. Kasbiy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish funksiyalari / “Ta'lim tizimida fan innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari” Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. Jizzax. (2021-yil, 20-noyabr).- B.- 782-786.
11. Raxmanova M.Q. Kasbiy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish mazmuni / “Ta'lim tizimida fan innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari” Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. Jizzax. (2021-yil, 20-noyabr).- B.- 782-786.

TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHINING IJODKORLIGI VA FAOLLIGI

*Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna, Mardonov Jaxongir Sherbek o'g'li
ChDPU professori, p.f.d.(DSc), 1-kurs talabasi*

Dunyoda o'qituvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish, ularning ijtimoiy tashabbuskorligini, ijodkorligini qo'llab-quvvatlashga doir yangi pedagogik vositalarni ishlab chiqish, ijtimoiy-madaniy va kommunikativ faoliyatni samarali tashkil etish malakalarini rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ijtimoiy faollikni rivojlantirishning asosiy omillari sifatida talabalarda axloqiy-estetik dunyoqarash va siyosiy ijtimoiylashuvni qaror toptirish alohida e'tirof qaratilmoqda. Shuningdek, ijtimoiy faollikning pedagogik mexanizmlari sifatida talabalar axloqiy, kasbiy va kommunikativ tayyorgarligining ma'naviy-madaniy asoslari, taraqqiyot g'oyalariga ongli munosabati, texnokratik fikrlashini rivojlantirish muhim o'rin tutadi.

Respublikamiz hukumati tomonidan oliy va xalq ta'limi sohasiga qo'yilayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Ya'ni iqtisodiy sharoitda ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadga yetishish, talaba-yoshlarning xilma-xil faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Xalqimizning kelajagi, Mustaqil O'zbekistonning istiqloli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarliga, fidoiyligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Shu munosabat bilan o'qituvchilar mahoratini oshirish, ularning falsafiy jihatdan keng fikrlovchi, yuksak mulohazali bo'lishlariga e'tibor berilmoqda. Shuni aytish kerakki, o'qituvchilik sharaflilik, lekin juda murakkab kasbdir. Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'zi yetarli emas. Chunki, pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun-qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g'oyalar bayon etiladi.

O'quvchilarning yosh individual xususiyatlarini e'tiborga olish ta'kidlanadi. Lekin, oliy va o'rta maxsus ta'lim hayoti, amaliy jarayoni esa xilma-xildir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa o'qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi. Shuning uchun ham ta'lim muassasalarida ishlaydigan o'qituvchi o'z faoliyatida qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon, milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni dunyoviy, diniy bilimlarni mukammal egallagan, ma'naviy barkamol, O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan, e'tiqodli, psixologik, pedagogik bilimli va mahoratli bulishi muhimdir.

Mahoratli ijodkorlik o'qituvchi talabalar ruhiyatini, bilim va kamolat darajasini hisobga oladi. Ba'zi o'qituvchilarga darslikdaga o'quv materiali oddiy, tushunarli va qandaydir alohida izohli talab etmaydigandek tuyuladi. Bunday o'qituvchilar talabalarni emas, balki o'zlarini nazarda tutadilar. qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'zini talabaning o'rniga qo'ya oladi. U fanning ilmiy-nazariy asoslarini talabalarga tushuntirish maqsadida ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishning xarakter va shaklini alohida o'ylab chiqadi.

Mahoratli ijodkor o'qituvchi dars materialini bayon etish jarayonida talabalarning qanday o'zlashtirayotganlarini kuzatuvchanlik asosida payqab oladi va zarur hollarda bayon qilish usulini o'zgartiradi. Shuningdek, o'qituvchi talabalarni

savodli o'zlashtirishlari uchun zamin tayyorlab, ularni dam olishdan ishga o'tishlari, bo'shashini, lanjlik, layoqatliklarini barham berish uchun minimal darajada foydalanish uchun vaqt ajratish zarurligini hisobga oladi. U tegishli vaziyat yuzaga kelgunga qadar ish boshlamaydi.

O'qituvchining odobi, madaniyati yuksak bo'lsagina, talabalarga nisbatan mehribon, saxovatli bo'la oladi. O'qituvchi umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rganib, ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq, etishi lozim. Shu bilan birga milliy o'ziga xosligimizni, asrlar sinovidan o'tgan an'analarimizni, hamisha iymon-e'tiqod bilan yashash kabi hayotiy tamoyillarimizni ham saqlab, ham yuksaltirib borishi va ularni talabalar qalbiga singdirish zarur. O'qituvchi faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakteriga ega. Ma'lumki, inson oldida biror muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi. O'qituvchi faoliyati ana shunday xususiyatga ega. Pedagogik ijodkorlarning asosiy mohiyati faoliyatining maqsadi va xarakteri bilan bog'lik. Pedagogik faoliyat talaba shaxsini, uning dunyoqarashi, e'tiqodi, ongi, xulq-atvorini shakllantirishdek umumiy maqsadga bo'ysungan son-sanoqsiz masalalarni yechish jarayonidir. O'qituvchi faoliyatidagi ijodkorlik ana shu masalalarni yechish usullarida, ularni hal qila olish yo'llarini qidirib topa olishida ifodalanadi.

O'qituvchi tinimsiz harakatda, izlanishda bo'lsagina o'quvchilarga bilim berib, ularni yetuk insonlar bo'lib yetishishlarida muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi darsni tashkil qilar ekan, o'quvchilar o'quv faoliyatini aktivlashtiruvchi ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning muqobil rejalarini amalga oshirishni ko'zda tutmog'i lozim. Darsga bir muncha tarbiyaviy talablar qo'yiladi. Har dars ma'lum darajada g'oyaviy yo'nalgan aniq tarbiyaviy vazifalarni bajarishi, olingan ilmiy bilimlar asosida dunyoqarashni, yuqori axloqiy fazilatlarini, estetik didni shakllantirib, ta'limning hayot bilan mustaqil aloqalarini ta'minlashi zarur. O'quvchilarda bilimga qiziqishni, bilimlarni mustaqil egallash ko'nikmalarini qaror toptirish ijodiy tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlash, ularning tasavvurlari chuqurligi tarbiyaviy talablardan hisoblanadi. Darsga qo'yiladigan tashkiliy talablar: mavzu (kalendar) asosida dars o'tkazishning ishlab chiqilgan aniq rejasi mavjud bo'lishi, dars o'z vaqtida tugashi kerak. Darsning mantiqiy izchilligi, tugallanmaganligi va darsning boshidan to oxirigacha o'quvchilar ongli intizomi ta'minlamog'i lozim. Darsni tashkil etishda turli-tuman vositalardan, o'quv – texnik, kompyuter, statsionar va dinamik ko'rgazmali qurollardan foydalanishi ko'zda tutiladi. Darsning tarkibiy tuzilishi o'rganilayotgan materialning mazmuniga, darsda foydalaniladigan ta'limning usul va uslublariga, o'quvchilarning tayyorlanish hamda rivojlanish darajasiga, o'quv jarayonida darsning o'rniga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. Pedagogik faoliyatga tizimli yondashuv muammolari // Kasb-hunar ta'limi. – 2004. - № 3. – B.24.
3. Baxranov Sh. Shaxs milliy o'zligini anglash qonuniyatlari. – Samarqand: Zarafshon, 2015. – 136 b.
2. Gappirov B.T. Talabalarda axloqiy o'z-o'zini anglashning o'quv jarayonidagi dinamik taraqqiyoti: Psix.fanl.nomz. ... diss. – T.: 2013. – 133 b.

3.Raxmanova M.Q. Kasbiy ta'lim jarayonida talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda interfaol ta'limning nazariy-amaliy jihatlari // Mug'allim h m yzliksiz bilimlendirio'. 2022. –№3/3, – B. 39-43.

4.Raxmanova M.Q. Kasbiy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish funksiyalari / "Ta'lim tizimida fan innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. Jizzax. (2021-yil, 20-noyabr).- B.- 782-786.

5.Raxmanova M.Q. Kasbiy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish mazmuni / "Ta'lim tizimida fan innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. Jizzax. (2021-yil, 20-noyabr).- B.- 782-786.

TECHNOLOGY OF CONDUCTING LESSONS ON THE BASIS OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES FOR STUDENTS STUDYING IN HIGHER EDUCATION

Yusupjonov Mukhriddinjon Odiljon o'g'li, Jalolov Zafar Muhammadi o'g'li, Jurayev Isroil Shavkat o'g'li

Termez Institute of engineering and Technology, Assistant Department of road engineering, tel: 93 639-09-69, Organization of interactive classes based on modern pedagogical technologies.

Abstract. Artificial intelligence (AI) plays an increasingly important role in modern education, including the field of foreign language teaching. The use of AI in English language teaching provides unique opportunities for creating personalized and effective educational programs. One of the main advantages of using AI in English language teaching is the ability to create personalized learning materials. AI-based platforms can analyze students' language proficiency levels and students' learning goals to create materials that meet students' individual needs and challenges. **Keywords:** AI, create, higher education, Information Technology, Computer, lesson, AI-powered, language.

Introduction. AI can be utilized to create interactive and engaging language learning experiences for students. Through the use of AI-powered language learning platforms, students are involved in real conversations with virtual language tutors, get immediate feedback on the grammar and pronunciation, and have access to personalized study materials on the basis of their personal learning needs. Additionally, AI can analyze students' performance data to identify areas of improvement and tailor learning activities to address specific language learning goals. Furthermore, the use of natural language processing technology can be facilitated by AI due to the integration of authentic language use in class. Students will be engaged in authentic language materials study such as news articles, social media posts, and online discussions, which can enhance their language proficiency and cultural understanding. There is the relationship between AI and English teaching as follow:

1. In the English language learning context, AI has the power to considerably change the atmosphere in the classroom. One of the most noticeable changes that AI brings to the English lesson is the personalized learning experience it offers. AI-

powered language learning platforms can adapt to each student's individual needs and pace of learning, providing targeted feedback and recommendations for improvement. This personalized approach can create a more positive and supportive atmosphere in the classroom, as students feel more engaged and motivated to learn when they receive personalized assistance. Furthermore, AI can also enhance the atmosphere in the English lesson by providing realtime language translation and pronunciation assistance. This can be especially advantageous for non-native speakers, for it lets them socialize fruitfully and boldly in class. For the support of pronunciation and translation AI could generate atmosphere of inclusion, for it assists to link language barriers and encourages better understanding amongst students.

Discussions. Interest rates play a crucial role in economics, particularly in the realm of finance and investment. The interest rate is the cost of borrowing money or the return on investment. It affects the behavior of both consumers and producers, influencing decisions about saving, spending, and investment. Consumers are the individuals or households that purchase goods and services for personal use. Their behavior and preferences play a significant role in shaping the economy. Finally, scarcity is the fundamental economic problem of having seemingly unlimited human wants in a world of limited resources. It is the driving force behind all economic decision-making. In conclusion, economics is a complex field that encompasses a wide range of topics, from individual consumer behavior to the overall performance of the economy. Understanding the principles of economics can help individuals and societies make more informed decisions about how to allocate resources and achieve their goals”.

Innovation - is theoretically grounded, focused and practice - oriented innovation. The objectives of the innovative education are:

- Ensuring a high level of intellectual and personal and spiritual development of the student;
- Creation of conditions for mastering the skills they scientific way of thinking;
- Teaching methodology innovations in socio-economic and professional spheres.

Nowadays required to prepare a new professional quality, society needs not just a competent worker, and the expert, capable to self-oriented creative approach to business, with high culture of thinking, multilateral development people. Many teachers of special subjects now ask, what should be a lesson for modern students with the knowledge of the maximum of what they are given.

Conclusion. In this regard, the following conclusions and highlight a number of advantages such a lesson in comparison with the ordinary:

- Improves the absorption of new material, as a result of the predominance of Visual thinking students easily perceive the information thus supplied;
- In the course of the students formed spatial and logical thinking;
- Naturally achieved by optimization of the pace of work of students;
- It is possible with the help of computer animation in the classroom to create a problematic situation, resulting in a lesson assumes the character of educational

games, and most of the students increases the motivation of educational activity. Integration of conventional lessons with a computer allows the teacher to shift part of their work on a PC, while making the learning process more interesting, diverse and intense. In particular, it is faster recording process definitions, objectives, and other important parts of the material, because the teacher does not have to repeat the text several times (he brought it to the screen), the student does not have to wait until it is again required him to fragment. All this shows that the lesson using computer presentations has a higher efficiency compared to a conventional lesson.

REFERENCES

1. Decision No. PQ-3931 of the President of the Republic of Uzbekistan dated September 5, 2018 "On measures to introduce new management principles into the public education system".
2. I. Jurayev. Innovation technologies. T., 2006 y.
3. S. Axmadjanov. Pedagogical. Text. T., 2007 y
4. Bakhrom, B. (2022). Information technologies in physical culture and sports. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(10), 288-292.
5. Rasulova, A., & Karimov, U. (2022). Socio-Pedagogical aspects of the formation of reading culture and skills. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(4), 114-118.
6. Egamberdieva, T., & Alimjonova, M. (2020). PEDAGOGICAL NECESSITY OF DEVELOPMENT OF INTERCULTURAL COMMUNICATION IN STUDENTS IN THE CONDITIONS OF GLOBALISATION OF EDUCATION. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(6), 277-283.

O'QUVCHILARNING O'ZLASHTIRISHIDA HISSIY MUNOSABATLAR TANQISLIGINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Oqmurzayev Dilshod Jo 'raqul o 'g 'li

O'zbekiston milliy universiteti magistratura bosqich talabasi

Annotatsiya. Maktab davrida o'quvchida o'zining ruhiy dunyosini, shaxsiy fazilatlarini, intellektual salohiyatini, qobiliyatini, hamda, imkoniyatini aniqlashga intilish kuchayadi. Ularda o'z hissiyotlarini, ichki kechinmalarini tushunishlariga, yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni to'g'ri yo'l orqali bartaraf etishlariga yordam berish muhimdir. Mazkur maqolada ham o'quvchilarning o'zlashtirishida hissiy munosabatlar tanqisligining psixologik xususiyatlari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: Hissiyot, bilim, o'zlashtirish, o'qituvchi, munosabatlar, imkoniyat, psixologik xususiyatlar, o'quvchi, faoliyat.

Har bir o'quvchi qaysidir omil sabab stressga tushishi va unda muntazam ravishda asab zo'riqishi bo'lishi mumkin. Ba'zi kishilar atrofdagilarga baqirib bu holatdan oson chiqib ketadilar. Shunday kishilar borki, o'zlarining tarbiyasi kuchliligi va madaniyatligi bilan hammasini ichlariga yutadilar va bu bilan salomatliklariga zarar qiladilar. Tibbiy nuqtai nazardan bunday vaziyatlarda janjal ko'tarish mumkin va kerak, etika nuqtai nazaridan esa teskarisi.

Bundan kelib chiqadiki, inson o'zi vaziyatga qarab to'g'ri qaror qabul qilishi lozim.

His-tuyg'ularni tiyish odatda turli kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. G'azab, hasadgo'ylik ovqat hazm qilish a'zolarini jarohatlaydi, g'am-alam esa qandli diabet kasalligini keltirib chiqaradi. Agar inson biron narsadan doimo qo'rquvda yashasa uning qalqonsimon bez funksiyalari ishdan chiqadi. Asabiy zo'riqish, salbiy hayajonlar gipertoniya, yurak faoliyatining buzilishi va infarktga olib kelishi mumkin.

Ayniqsa, o'smirlik davrida o'quvchida o'zining ruhiy dunyosini, shaxsiy fazilatlarini, intellektual salohiyatini, qobiliyatini, hamda, imkoniyatini aniqlashga intilish kuchayadi. Ularda o'z hissiyotlarini, ichki kechinmalarini tushunishlariga, yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni to'g'ri yo'l orqali bartaraf etishlariga yordam berish muhimdir. O'smirlik davri murakkab davr bo'lishi bilan birga ham o'qish, ham mehnat faoliyati uchun kerakli bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zida aks ettirish va namoyon etish davri hisoblanadi. O'quv faoliyati jarayonida va shaxslararo munosabatlarda zo'riqish va stresslarning kuzatilishi muqarrar hodisadir. Shuning uchun o'smirlarda stressga barqarorlikni shakllantirish va uzoq muddatga saqlab qolish o'ta muhim masaladir.

Har qanday faoliyatni amalga oshirishda inson u yoki bu darajadagi jismoniy va psixologik zo'riqishlarga duch keladi. Faoliyat maqsadi, motivlari, shaxs ustanovkalari va individual psixologik xususiyatlariga mos xolda mazkur zo'riqishlar turlicha ko'rinish va shakllarda namoyon bo'ladi. Xususan, o'quvchilarning o'quv faoliyatida ham turli ko'rinishdagi buzilishlar yuzaga keladi:

Diqqat ko'rsatkichlariga xos buzilishlar, eng avvalo, katta yarim sharlar po'stloqqismida hissiyzo'riqishni vujudga keltirgan omil ta'sirida markaz atrofida vujudga kelgan dominant bilan bog'liq. Bunda, muhim ob'ektlar ustida diqqatning to'planishi qiyinlashadi, tez chalg'ish kuzatiladi. Ongning doimo hissiy zo'riqishni vujudga keltirgan sabablarni tahlil qilish bilan bandligi, undan chiqish yo'llarini axtarish xotira ko'lamini toraytiradi, zarur materialni qayta esga tushurishni qiyinlashtiradi. Shuningdek, hissiy zo'riqishlar paytida ikkita yarim sharning o'zaro ta'sirining o'zgarishi ham mumkin, ya'ni «emotsional» - o'ng yarim shar «mantiqiy» - chap yarim shardan ustun bo'ladi. Aqliy faoliyatning susayishi stressni vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan vaziyatdan chiqish yo'llarini topish imkoniyatini cheklaydi. Stress va hissiy zo'riqishlar intellektual faoliyatda ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Diqqat – to'planishi qiyinlashadi, tez chalg'iydi, ko'lami torayadi. Tafakkur – mantiqiylik buziladi, fikrlash tarqoq, qaror qabul qilish qiyinlashadi, ijodiy imkoniyatlar pasayadi aqtida puls chastotasining ortishi yoki uning bir maromda bo'lmasligi, qon bosimining ko'tarilishi, oshqozon – ichak trakti ishining buzilishi, terining qarshilik ko'rsatish quvvatining pasayishi va boshqalar kuzatiladi. U o'zini tashqaridan ko'ra olmaydi va unga nima bo'layotganini tushunmaydi. Shuning uchun unga qarama-qarshilik va ayblov emas, balki qo'llab-quvvatlash va e'tibor kerak. Bu omilning paydo bo'lishining oldini olish, zaiflashtirish yoki bartaraf

etish uchun profilaktika choralarini ko'rish kerak. An'anaviy tarzda aytishimiz mumkinki, charchash juda yuqumli va xodimlar orasida tez tarqalishi mumkin. Kuchlanishga moyil bo'lganlar kinik, negativist va pessimistlarga aylanadi va ular boshqa odamlar bilan ish joyida o'zaro munosabatda bo'lib, tezda butun jamoani "tuyganlik" to'plamiga aylantirishi mumkin. Shu sababli kasbiy hissiy charchashning oldini olish ta'lim muassasasi rahbarining boshqaruv faoliyatida muhim yo'nalishga aylanishi kerak. Bu obyektiv o'zgarishlar o'z navbatida turli sub'ektiv kechinmalarda yurak va boshqa a'zodagi og'riq, nafas olishga qiynalish, mushaklarning zo'riqishi, ovqat hazm qilish tizimida noxush hisslarning paydo bo'lishi va boshqalarda namoyon bo'ladi. O'smirlardagi hissiy zo'riqishning ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganishga bag'ishlangan mazkur ishimiz yuzasidan olingan natijalar hamda xulosalar asosida ushbu tavsiyalarni berishni zarur deb hisoblaymiz:

- o'quvchi yoshlar uchun shaxslararo munosabatlar mohiyati, shaxs shakllanishiga ta'sirini ko'rsatib berishga oid maxsus suhbat va munozaralarni tashkil etish va malakali mutaxassislar bilan uchrashuvlar o'tkazish;

- o'quvchi yoshlarga stress, zo'riqish vaziyatlarida psixologik autotrening mashqlarini bajarishni o'rgatish;

- o'quvchi yoshlarga ota-onalar, o'qituvchilar, ustozlar, katta yoshdagilar bilan munosabat o'rnatishda vazmin, bosiq va mulohazali bo'lish zarurligini uqtirib borish;

- joylarda psixologik maslahatxonalar tashkil etish. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, o'smir yoshlarni turli psixologik zo'riqishlardan asrash, ta'lim jarayonida psixologik xizmatni to'g'ri yo'lga qo'yish orqali har tomonlama yetuk, jahon standartlariga to'la javob bera oladigan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash maqsadiga erishish imkonini bergan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akramova F.A. Ijtimoiy psixologiya. –T.: 2004.
2. Дружинин В.Н. Экспериментальная психология. 2-е изд., перераб.и доп. СПб: Изд-во «Питер», 2000. – С. 320
3. Gamezo M.V., Petrova Ye.A., Orpova L.M. Vozrovnaya i pedagogicheskaya psixologiya. –M.: 2003.
4. Ziyocom.uz
5. Oyina.uz

TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH METODLARI

N.N.Abdullajonova

TATU Fatg'ona filiali, assistent

Tanqidiy fikrlash kuzatish, tajriba, mulohaza yuritish, fikrlash yoki muloqot natijasida olingan ma'lumotlarni faol va mohirona kontseptsiyalash, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholashni o'z ichiga oladi. Bu chuqurroq o'rganish,

taxminlarni shubha ostiga qo'yish va dalillarni baholash uchun chuqurroq darajada tushunish haqidagi bilimlardir.

Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyot, harakat va murakkab g'oyalarni va qiyin vaziyatlar bilan shug'ullanish istagini talab qiladi. Ushbu ko'nikmalarni o'zlashtirgan holda, odamlar yanada samarali muammolarni hal qiluvchi, qaror qabul qiluvchi va umrbod o'rganuvchilarga aylanishi mumkin.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asosli qarorlar qabul qilish, muammolarni samarali hal qilish va murakkab muammolarni tushunish uchun juda muhimdir. Tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirishning ba'zi usullari:

Savol berish: Axborot, taxminlar va xulosalar haqida o'rganuvchi savollarni berishni rag'batlantiring. "Biz buni qanday bilamiz?" kabi savollar. yoki "Bu da'voni qanday dalillar tasdiqlaydi?" tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.

Argumentlarni tahlil qilish: dalillarni asoslar va xulosalarga bo'ling. Dalillarning mustahkamligini, mulohazalarning asoslilikini baholang va har qanday mantiqiy xatolarni aniqlang.

Faol tinglash: turli nuqtai nazarlarni to'liq tushunish uchun diqqat bilan tinglashni mashq qiling. Tushunishni ta'minlash va chuqurroq mulohaza yuritish uchun boshqalarning nuqtai nazarini ifodalash orqali munozaralarda qatnashing.

Dalillarni baholash: Dalillarning ahamiyatini va uning ishonchliligi, dolzarbligi va ishonchliligini qanday baholashni o'rgating. Bir nechta manbalarni va o'zaro bog'liq ma'lumotlarni qidirishni rag'batlantiring.

Muammolarni hal qilish: muammolarni aniqlash, tahlil qilish va hal qilishni talab qiladigan faoliyat bilan shug'ullaning. Muqobil yechimlar va mumkin bo'lgan oqibatlarini ko'rib chiqish uchun aqliy hujumni rag'batlantiring.

Qaror qabul qilish: Maqsadlarni aniqlash, ma'lumot to'plash, variantlarni tortish va potentsial natijalar va ularning oqibatlarini ko'rib chiqishni o'z ichiga olgan qaror qabul qilish jarayonlarini o'rgating.

Sokratik so'rov: o'quvchilarni g'oyalarni chuqurroq tushunishga va tanqidiy tekshirishga olib keladigan bir qator savollarga yo'naltirish uchun Sokratik usuldan foydalaning.

Mulohaza: Insonlar o'zlarining fikrlash jarayonlari, noto'g'ri va taxminlarini tahlil qiladigan aks ettiruvchi amaliyotlarni rag'batlantiring. Jurnal yoki guruh muhokamalari bunga yordam beradi.

Munozara: Ishtirokchilar dalillar va mantiqiy mulohazalar yordamida pozitsiyalarni himoya qiladigan yoki rad etadigan tuzilgan munozaralarda qatnashing. Munozaralar tanqidiy tahlil, argumentatsiya va qarama-qarshi fikrlarni hisobga olish qobiliyatini rag'batlantiradi.

Turli nuqtai nazarlar: o'quvchilarni turli nuqtai nazarlar, madaniyatlar va mafkuralar bilan tanishtirish. O'z taxminlariga qarshi chiqish va istiqbollarni kengaytirish uchun empatiya va turli nuqtai nazarlarni tushunishni rag'batlantiring.

Metakognitiv: o'z fikrlash jarayonlari haqida o'ylash kabi metakognitiv strategiyalarni o'rgating. O'quvchilarni fikrlash strategiyalarini kuzatish, baholash va kerak bo'lganda tuzatishga undash.

Ijodiy fikrlash: Aqliy hujum, aql xaritasi va lateral fikrlash kabi ijodiy muammolarni hal qilish usullarini rag‘batlantiring. Ijodiy yondashuvlar ko‘pincha innovatsion echimlarga olib kelishi va an’anaviy fikrlashga qarshi turishi mumkin.

Qiziqishni rivojlantirish: o‘rganishga qiziqishga asoslangan yondashuvni rivojlantiring. Izlanishni, tajriba o‘tkazishni va belgilangan me‘yorlar va e‘tiqodlarni shubha ostiga qo‘yishga tayyorlikni rag‘batlantirish.

Uzluksiz ta‘lim: umrbod ta‘lim va yangi g‘oyalar va istiqbollarga ochiq bo‘lish

muhimligini ta’kidlang. Turli materiallarni o‘qishni, seminarlar yoki seminarlarda qatnashishni va yangi tajribalarni izlashni rag‘batlantirish.

Ushbu usullarni ta‘lim va o‘quv muhitiga kiritish orqali odamlar vaqt o‘tishi bilan o‘zlarining tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishlari va yaxshilashlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

NN Abdullajonova, FF TATU, SO Isaqova, FF TATU, G‘OYALARNI RIVOJLANTIRISHDA INFOGRAFIKANING RO‘LI, Reserch and publication conference, part-I, 2023, 91-94

NN Abdullajonova, FF TATU, SO Isaqova, FF TATU, MASSMEDIA VA MULTIMEDIA TA‘LIM OMILLARI SIFATIDA, Reserch and publication conference, part-I, 2023, 88-90

NM Jo‘rayev, NN Abdullajonova Kontent marketingi ma‘lumotlardan foydalanishning o‘ziga hos hususiyatlari, Journal of technical research and development 1 (1), 151-157

N Jo‘rayeva, N Abdullajonova, YANGI POCHTA ALOQASI XIZMATLARI. Journal of technical research and development 1 (3), 140-145

N Jo‘rayeva, N Abdullajonova XIZMAT TURLARI BO‘YICHA BOZOR SEGMENTATSIYASI VA UNING HOLATI. Journal of technical research and development 1 (3), 135-139

OLIY TA‘LIM DARSLIKLARIDAN FOYDALANILGAN HOLDA UMUMTA‘LIM MAKTABLARIDA “TABIIY FANLAR YO‘NALISHIDA” VARIATIV SINFLARNI O‘QITISH TIZIMINI TASHKIL ETISH

Abdurasulov Akbar Shavkat o‘g‘li, Bazarova Ruzigul Shakarovna, Sidiqova Maxfuza Aliqulovna, Qahhorova Nilufar O‘ktam qizi

GulDPI “Aniq va tabiiy fanlar” kafedrası stajyor o‘qituvchisi, GulDU katta o‘qituvchisi, GulDPI “Aniq va tabiiy fanlar” kafedrası kotibasi, GulDPI “Biologiya” yo‘nalishi 1-kurs talabasi.

Anatatsiya: Ushbu maqolada oliy ta‘lim darsliklaridan foydalangan holda maktablarda tashkil etilgan variativ sinflarni “Tabiiy fanlar yo‘nalish”ida integratsiyasi yoritilgan. Variativ sinf o‘quvchilari o‘rganayotgan bilimlariga qo‘shimcha sifatida oliy ta‘lim darsliklarida yozilgan qiziqarli ma‘lumotlar berish. Bu esa o‘quvchi yoshlarni fanga bo‘lgan qiziqishini yanada ortiradi. Real hayotiy jarayonlarni osonlikcha tushunishga yordam beradi.

Abstract: This article highlights the integration of variable classes organized in schools using higher education textbooks in the “Natural Science Direction”. Provide interesting information written in higher education textbooks as an addition to the knowledge of students in elective classes. This increases the interest of students in science. This makes it easy to understand real life processes.

Аннотация: В данной статье освещена интеграция вариативных занятий, организованных в школах с использованием учебников высшего образования по «Направлению естествознания». Предоставить интересную информацию, написанную в учебниках высшего образования, как дополнение к знаниям учащихся вариативных классов. Это повышает интерес студенческой молодежи к науке. Это помогает легко понять процессы реальной жизни.

Kalitlar so‘zlar: okulirovka, kopulirovka, ablaktirovka, geterofilliya, loyiha ishi, botqoq rosyankasi, nepentis.

Key words: Oculation, copulation, ablation, heterophily, design work, swamp dew, nepentis.


Ключевые слова: окуляция, совокупление, абляция, гетерофилия, проектная работа, болотная роса, непентис.

Umumta’lim maktablarida 1-sinf dan to 11-sinf ni bitirgunicha 20 tadan ortiq fanlar o‘quvchi yoshlarga mahoratli pedagoglarimiz tomonidan o‘qitilib kelinmoqda. Bu bilimlar albatta samarasiz ketmaydi, o‘quvchi yoshlar bu bilimlarni amalda o‘z hayoti davomida foydalanadi. 2019-2020 o‘quv yilining uchinchi choragidan boshlab, tajriba sifatida 10-11-sinflarda fanlar ixtiyoriy tanlov asosida o‘qitila boshlandi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 2020-2021 o‘quv yilida ham variativ o‘quv rejalarini tajriba-sinovdan o‘tkazish ishlari davom ettirildi. Shu bilan birga, tanlov yo‘nalishlari soni oshirildi. Tanlov yo‘nalishlari orasida “Tabiiy fanlar yo‘nalishi” alohida e’tiborga sazovor hisoblanadi. Chunki, tibbiyot, farmaseftika, biologiya, psixologiya, biotexnologiya, agronomiya va boshqa sohalarni asosida biologiya yotadi. Biologiya fani maktablarimizda o‘qitiladi. Biologiya fani bir qancha fanlarga tarmoqlanadi: botanika, zoologiya, anatomiya, genetika, sistematika va hakozi. Maktablarda ushbu yo‘nalishlari uchun nazariy bilimlarni o‘quvchi yoshlar oladi. Biz bu imkoniyatdan samarali foydalana olishimiz mumkin. Albatta bu maqola mazmuni ham aynan shu uchun. “Tabiiy fanlar yo‘nalishi” da o‘quvchi yoshlar uchun biologiya darsliklarini o‘qishda dunyo qarashini kengaytirish maqsadida, oliy ta’lim darsliklari bilan integratsiyalashgan o‘quv qo‘llanmalardan foydalanish yanada samara beradi. Oliy ta’lim imtihonlari uchun tayyorlanayotgan o‘quvchilar biologiya darsliklarida yozilgan ma’lumotlarni yodlab oladi. Yodlab olganligi yaxshi albatta lekin, yodlash qobiliyati past, fikrlash doirasi tor bo‘lib qolgan qolgan o‘quvchilarga dunyo qarashini kengaytiradigan va qo‘shimcha qiziqarli ma’lumotlar bilan boyitilgan o‘quv qo‘llanma asosida o‘qitish variativ sinflarga bo‘lgan ishonchni oshiradi.

Yuqorida aytilgan oliy ta’lim va maktab darsliklarida integratsiyalangan o‘quv qo‘llanma qanday bo‘lishi kerak ekanligini bir qancha misollar keltiramiz:

1. Yangi 7-sinf biologiya maktab darsligida “Loyiha ishida” payvandlashga oid ma’lumot berilgan. Olma, olxo‘ri, nok kabi mevali daraxtlarni ko‘paytirishda

payvandlash usulidan foydalaniladi. Urug‘dan o‘stirilgan o‘simlik – payvandtagga foydali belgilarga ega bo‘lgan o‘simlik– payvandustning bir qismi ko‘chirib o‘tkaziladi, degan ma‘lumotlar berilgan. Bu ma‘lumotlar kam chunki o‘quvchilar buni ustozlari bilan o‘zlari mustaqil qo‘llab o‘rganishadi.



1-rasm.

Ushbu ma‘lumotni oliy ta‘lim darsligidagi ma‘lumot asosida integratsiyalaymiz. Payvandlashning bir qancha usullari mavjud bo‘lib hamma usullari ham o‘simlikning navini yaxshilash va undan yuqori hosil olishga qaratilgan. Ulardan eng muhimlari quyidagilardir: A – kurtaklar yordamida payvandlash – okulirovka. B – qalamchalar yordamida payvandlash – kopulirovka. C – yaqinlashtirish yordamida payvandlash – ablaktirovka. Yaqinlashtirish yordamida payvandlash (ablaktirovka). Bunda yonma-yon ikki daraxt shoxlari yaqinlashtirilib, ularning birikkan joylari kesiladi, bir-birlariga mustahkam biriktirib quyiladi. Bu ma‘lumotlar albatta o‘quvchi yoshlarni yangicha bilim olishga va kundalik hayotida uyidagi bog‘da yoki maktab bog‘ida payvandlashning unga tanish bo‘lgan va yangicha usullari sinab ko‘radi.



Payvandlash usullari:

A - ablaktirovka (yaqinlashtirib bog'lash); *B* - kopulirovka (qalamcha payvand); *C* - okulirovka (kurtak payvand); 1-payvandust; 2-payvandtag.

2-rasm. Payvandlash usullari:

A - ablaktirovka (yaqinlashtirib bog'lash); *B* - kopulirovka (qalamcha payvand);

C - okulirovka (kurtak payvand); 1-payvandust; 2-payvandtag.

2. Yangi 7-sinf biologiya maktab darsligida “**Harakatlanish**” mavzusida hasharotxo‘r o‘simliklarda hasharotlarni tutishga moslashgan shakli o‘zgargan barglarining harakati ham nastiyaning bir ko‘rinishi sifatida yozilgan. Bu to‘g‘ri ma’lumot albatta.




Hasharotxo‘r o‘simliklarda barglar nastik harakati

3-rasm.

Suvda yoki botqoqlik yerlarda o‘sadigan o‘simliklarning barglari hasharotlarni tutib olib, uni hazm qilishga moslashgan. Shuning uchun ham ular **hasharotxo‘r o‘simliklar** deb ataladi. **Botqoq rosyankasi, venerina, pashshaxo‘rda** barglariga hasharot qo‘nishi bilan tukchalar ta’sirlanadi va ular yoyilib hasharotni ushlab oladi. Barg bezlari esa o‘zidan yopishqoq suyuqlik fermentlar ajratadi va shu suyuqlik yordamida hasharotning organik moddalari o‘simlikka so‘riladi. **Nepentis** o‘simligida esa barg bandining bir qismi ko‘zachaga, barg plastinkasi esa qopqoqchaga aylangan bo‘lib, hasharotlar shu

ko‘zachaga tushishi bilan qopqoqcha yopiladi, ushlangan hasharotlar hazm bo‘ladi. Shunday qilib, o‘simliklarning barglari fotosintez bilan birgalikda o‘simlikni **azotli organik** moddalarga bo‘lgan talabini qondirib turadi.




Barg metamorfozasi:

1 – jungalak, 2 – tikon, 3 – pashsha tutadigan barg, 4 – ko‘zachaga bargli nepentes.


4-rasm.

3. 9-sinf biologiya darsligining 59-§. O‘zgaruvchanlik mavzusida: Nilufar gul va suv yong‘og‘ida suv osti va ustidagi barglari har xil shaklga ega: nilufarning suv ostidagi bargi ingichka lansetsimon, suv ustidagi barglari voronkasimon, suv yong‘og‘ida esa suv osti barglari patsimon qirqilgan, suv usti barglari esa yaxlit bo‘ladi.



55- rasm.

Suv nilufarining umumiy ko‘rinishi.



56- rasm.

Suzib yuruvchi suv yong‘og‘i o‘simligining umumiy ko‘rinishi.

5-rasm.

Oliy ta‘lim darsliklarida yana bir qancha misollarni ko‘rsatish mumkin. Barg o‘simliklarda o‘zgaruvchan organdir, shuning uchun bir o‘simlikning o‘zida har xil shakldagi va kattalikdagi barglarni uchratish mumkin. O‘simliklarda uchraydigan ana shunday hodisaga **har xil barglilik** yoki **geterofiliya** (grekcha —**geteros**-har xil, —**fillon**-barg) deb ataladi. Bunday hodisani **tut daraxtida, anjirda, suv ayiqtovonida** kuzatamiz. Tut daraxtining bitta novdasida butun hamda bo‘lakli barglarni uchratish mumkin.



Geterofilliya:

A-suv ayiqtovoni; B-o'qbarg; C-bug'u shoxi paporotnigi: 1-suv ustidagi barg; 2-suv ostidagi barg; 3-spora va fotosintez qiluvchi barg; 4-to'liq barg

6-rasm.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, oliy ta'lim adabiyotlaridan foydalanish o'quvchi yoshlarni fikrlash qobiliyatini yanada takomillashtiradi. Faqat bir qancha muammoli vaziyatlar vujudga keladi. Sababi, oliy ta'lim va maktab darsliklarining integratsiyalashgan adabiyot yoki qo'llanmasi hali nashr etilmagan. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan talaba va o'quvchilar uchun mo'ljallangan adabiyotlar alohida alohida tavsiya etiladi. Bu to'g'ri albatta, o'quvchilar yoshi va talabalar yoshida ham farq bor. Lekin variativ sinflarda bunday integratsiyasini tashkil etsa bo'ladi. Bu maqolani yozishdan ham maqsad, yanada bilimli yoshlarni ko'paytirish. Maktabni tamomlab oliy ta'lim talabasi bo'lgan, aksariyat yoshlar bilim olishdan to'xtab qoladi. Bahona sifatida esa oliy ta'lim adabiyotlaridagi unga umuman begona bo'lgan yangicha atamalar va ma'lumotlarni ko'rsatadi. Agar biz shu muammoni integratsiyalangan yangicha adabiyotlar va qo'llanmalar yaratishimiz orqali bartaraf etsak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K. Saparov, I. Azimov, M. Umaraliyeva. Biologiya 7-sinf uchun darslik Toshkent – 2022 yil.
2. Zikiryayev, A. To'xtayev, I. Azimov, N. Sonin 9-sinf Biologiya 5-nashr Toshkent 2019 yil.
3. B.S. Islomov, M.A. Hasanov Botanika 2020 yil.
4. G.S. Tursinboyeva, G.M. Duschanova, A.T. Abdullayeva, J.S. Sadinov Botanika o'simliklar morfologiyasi va anatomiyasi. Toshkent 2018 yil.

ZULFIYA SHE'RIYATIDA O'ZLASHMA SO'ZLARNING QO'LLANISHINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*To'ychiyeva Zulayho Hamraqulovna
GulDU o'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi*

Ta'lim berish jarayonida maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlanishi ishlarni olib borayotganlar ixtiyorida, chunki har ikkala tomon ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda ishlatiladigan texnologiya ta'lim oluvchining bilim saviyasi, guruh tabiati, va sharoitga qarab tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film (yoki tarqatma material, chizma va plakat, axborot texnologiyasi, turli adabiyotlar) kerak bo'ladi. Bularning hammasi ushbu ishlarni tashkil etuvchilarga bog'liq. Shu bilan birga mazkur jarayonni oldindan loyihalashtirish zarur. Bu jarayonda tashkillashtiruvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, shuningdek, hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak. Shundagina zarur kafolatlangan natijaga erishish mumkin.

Bugungi jadal globallashuv jarayonlarida axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivoji misli ko'rilmagan ko'lamlari qamragan bir davrda bir birtildan boshqasiga so'z o'tmasligini tasavvur etishning o'zi mushkul. Turli davlatlar bilan xilma-xil sohalarda "olish-berish" munosabatda bo'lar ekan, u davlatlardagi tillar ham mazkur munosabatdan aslo chetda qolmaydi. Tillar ham o'zaro "olish-berish" muomalasidan qochib qutula olmaydi. Bu bugungi dunyoning inkor etib bo'lmaydigan lisoni-mantiqiy haqiqatlaridan biridir. Boshqa tildan so'z olganda, albatta, muayyan me'yor saqlanishi shart, bu me'yor tilning yaxlid so'z zahirasisini me'yoridan chiqarib yubormaslik uchun xizmat qiladi. Boshqa tildan me'yorni saqlagan holda olinadigan so'z oluvchi tilning fonetik qonuniyatlarini moslashtirilishi maqsadga muvofiq.

Boshqa bir qator tillar, masalan arab tili o'zga tildan so'z olganda uni, albatta, o'z qonuniyatlari ostiga kiritadi, natijada uning xorijiy so'zligi bilinmay ketadi. Masalan, o'zbek tilidagi "qonun" so'zi arabchadan o'zlashtirilgan va bu so'zning fonetik tarkibi shundayligicha o'zbek tili fonetik qonuniyatlariga mos keladi. Ammo, bu so'z sof arabcha emas, u yunon tilidagi "canon" so'zining arab tili fonetikasiga moslab, ya'ni qonun shaklida o'zlashtirilgan ko'rinishidir.

Tilshunoslikda "olinma so'z" va "o'zlashtirma so'z" terminlari parallel ishlatilmoqda. "Tilimizga kirib o'zlashib bo'lgan har qanday xorijiy so'z yoki terminga o'zbekcha muqobil izlash shart emas. Masalan, futbol, voleybol, tennis, menejer, boks, lizing, innovatsiya, internet, kompyuter menejment, monitoring kabi so'zlar o'zbekchaga kirib bo'ldi. Hatto, faol so'zlar sirasidan joy olib ulgirdi. Turk tilshunoslari futbolni "oyoq to'pi" tarzida nomlashni tavsiya qiladilar. Tabiiyki, bunday jon yo'l biron bir tilning taraqqiyoti uchun hech narsa bermaydi".

Muhtaram yurtboshimzning quyidagi so'zlari tilshunoslarga alohida ma'suliyat yuklaydi. "Biz ajdodlardan, avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish nufuzini

yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqsa fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot teznologiyalari, bank moliya tizimi kabi o'ta muhim sohalarda ona tilimizning qo'llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug'atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalari ishlab chiqish, bir so'z bilan aytganda o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish, milliy o'zlikni vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz".

"O'zbek xalqi tarixiy taraqqiyotining turli bosqichlarida o'zbek tiliga turli tillardan ko'plab so'zlar kirib kelgan. O'zlashtirilgan so'zlar ko'p hollarda turli semantik o'zgarishlarga yuz tutadi. Semantik o'zgarishlar sifat jihatdan quyidagi ko'rinishlarga ega:

1. Semantik kengayish;
2. Semantik torayish;
3. Semantik uzoqlashuv va zidlashuv.

O'zlashma so'zlarning semantik tuzilishidagi kengayish hodisasi asosan so'z beruvchi tilidagi konkret ma'nolarni ifodalash so'zning so'z o'zlashtiruvchi tilida umumiy, abstrakt ma'nolarni ifodalashga bo'lgan tadrijiy rivojlanishdan kelib chiqadi. Semantik tuzilishning kengayishi quyidagicha hosil bo'ladi: a) semantik tuzilishning oddiy kengayishi b) semantik tuzilishning yordamchi fe'llar ko'magida kengayishi v) o'zlashma so'zlar asosida yangi leksik birliklar yasalishi yo'li bilan semantik tuzilishining kengayishi g) nom ko'chish yo'li bilan semantik tuzilishning kengayishi.

Semantik torayish hodisasi so'zning so'z beruvchi tildagi polisemantik holatidan so'z o'zlashtiruvchi tildagi monosemantik holatiga bo'lgan tadrijiy tarqqiyotidan kelib chiqadi. Semantik uzoqlashuv hodisasining o'zi uch xil. a) semantik tuzilishidagi qisman o'zgarish b) semantik tuzilishdagi uzoqlashuv (bu hodisa so'zning aktiv va passiv tillardagi ma'nolari o'rtasidagi aloqadorlik butunlay yo'qolib ketadi) v) semantik tuzilishdagi zidlashuv (u hodisa so'zning passiv tildagi ma'nolari aktiv tildagi ma'nolariga zid kelib qoladi)".

Fikr til orqali reallashadi. So'z ma'sulyati har qanday ijodkor uchun birinchi talab hisoblanadi. O'zbek milliy she'riyati asrlar davomida saqallanib, yangilanib borayotgan hodisa hisoblanadi. Uning til xususiyatiga haqida tilshunoslik ilmida tadqiqotlar ko'p, ammo adabiyotshunoslik ilmida badiiy til va til badiiyati haqida maxsus qo'llanmalar deyarli yo'q. B.Sarimsoqovning ("Badiiylik asoslari va mezonlari" Toshkent. 2004-yil. – 117-bet) kitobi qisman shu masalani o'rganishga qaratilgan. "Har qanday badiiy til umumxalq tilining imkoniyatlari asosida u yoki bu ijodkorning ana shu imkoniyatlaridan foydalana olish mahorati tufayli vujudga keladi. Bunday imkoniyatlar tilda bo'lib, quyida biz ulardan ayrimlariga to'xtalamiz:

So'z ma'nolarining ko'chishi tildagi eski va yangi so'zlardan o'rinli foydalanish, turli saholarga oid atamalarni qo'llash, tovushlar tovlanishini hosil qilish, ibora va maqol-matallardan sayqallanish, so'z birikmasi yoki gapning kutilmagan shakllarini qo'llash" kabi muhim xususiyatlarni sanab o'tadi: inversiya va takror ham shunday xususiyatlar sirasiga kiradi. Har qanday poetik nutq, avvalo so'zlashuv tilidan gap qurilishi jihatidan farqlanadi.

Zulfiya she'riyatida o'zbekcha sifat turkumidagi so'zlar qatorida ayrim fors-tojik tiliga xos forscha sifatlarga tegishli so'zlar ham qo'llangan. Ma'lumki hozirgi o'zbek tilida boshqa so'z turkumlari singari, sifatlarga doir so'zlar ham yangi so'zlar hisobiga boyib bormoqda. Asarda ham shu hodisaga e'tibor berishimiz mumkin. Chunki o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlaridan boshqa yangi so'zlarni ko'paytiruvchi boshqa tillardan, xususan fors-tojik tilidan kirib kelgan sifat ma'nosini anglatuvchi so'z va qo'shimchalar ham mavjud. Ma'lumki, o'zbek tilida o'z qatlamga oid bo'lgan so'zlardan tashqari o'zlashma, ya'ni boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarimiz ham katta bir qismni tashkil qiladi.

Zulfiya o'z ijodida ham bu boylikdan mohirlik bilan foydalangan. Masalan, maftun (a.) – ishq tushgan ma'nosini anglatadi.

Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,
O'rik gullarining eding maftuni.

Har uyg'ongan kurtak, hayot bergan kabi
Ko'zlaringga surtib o'parding uni.

Sarsari (f-t) - daydi, sanqi

Mana qimmatligim, yana bahor kelib,
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.

Qishning yoqasidan tutib so'radi seni,
Ul ham yosh to'kdi-yu, chekildi nari.

Darag (a) - xabar

Topmay sabri tugab bo'ron bo'ldi-yu,
Jarliklarga olib ketdi boshini.

Farhod tog'laridan daraging izlab,
Soylarga qulatdi tog'ning toshini.

jilo

So'ngra jilo bo'lib kirdi yotog'imga,
Hulkar va Omonning o'pdi yuzidan.
Singib yosh kuydirgan zafar yonog'imga
Sekin xabar berdi menga o'zidan.

Qani o'sha kuychi, xayolchan yigit?
Nechun ko'zingda yosh, turib qolding lol.

Nechun qora libos, sochlaringda oq,
Nechun bu ko'klamda sen parishonxol?»

Qanday javob aytay, loldir tillarim,
Baridan tutdim-u, ketdim qoshingga.

U ham gaming bilan kezdi aftoda,
Boqib turolmayin qabring toshiga.

Alamdan tutoqib daraxtga ko'chdi,
Kurtakni uyg'otib so'yladi g'amnok.

Sening yoding bilan elib beqaror,
Gullar g'unchasini etdi chok-chok.

Shoira o'z she'rlarida bunday forscha so'z va qo'shimchalarni o'z joyida qo'llab, she'r mazmunini o'z joyiga qo'ya olgan. Forscha so'z va qo'shimchalar yordamida qo'llangan so'zlar quyidagicha keltirilgan: Affiksasiya usuli bilan:

Ma'lumki bu usul bilan sifat yasalişida ko'pincha ot, fe'l va ba'zan ravish shaklida kelishi mumkin. O'zbekcha turkumlardan boshqa forscha-tojikcha turkumlarga tegishli affiks va affiksoidlardan yasalgan sifatlar mavjud. Asardagi forscha so'zlar yordamida yasalgan sifatlar: a) jo'shidan (qaynamoq) fe'lining hozirgi zamon negizi sho'sh (qayna) so'zidan quyidagi sifat ma'nosini anglatuvchi so'zlar yasalgan: -Anhor to'lib oqar suv (9-bet) –Ezgu hissingizda jo'shganim (81-bet) –Mudom jo'shqin umrim hukmida yurgan (100-bet) Yuqoridagi misralarda jo'shib, jo'shganim, jo'shqin kabi so'zlarda forscha jo'sh (qayna) so'zi –ib, gin-qin kabi o'zbekcha qo'shimchalarni qabul qilib ravishdosh, sifat ma'nolarini anglatib kelgan. Shoir ayrim misralarda "jo'sh" so'zi o'rnida qayna o'zbekcha ma'nosini ham qo'llaganini ko'ramiz. –Balki yangi hislar qaynashidan lol (181-bet)

Dostonlar tarkibida jo'shadi (11-54-bet) fe'l ma'nosida ham ishlatilgan. Jo'shqin (100-174-178-209-betlar) so'zi esa sifat ma'nosida qo'llangan. Doshtan (ega bo'lmoq, bor bo'lmoq) fe'lining hozirgi zamon negizi –dor affiksoidi yordamida ham sifat turkumiga tegishli so'zlar yasalgan. Bu qo'shimcha asosan forscha ba'zan o'zbekcha so'zlar tarkibida kelib sifat turkumiga tegishli so'zlar yasalgan. Forscha so'zlar rangdor (12-20-202-betlar), o'zbekcha so'zlar uydor (197-bet), bo'ydor, quydor (118-bet), tog'dor (189-bet), arabcha so'zlar nurdor (97-bet), minnatdor (154-bet), vafodor (187-bet), forscha so'zlar, jarangdor (157-bet), guldor (189-bet), sardor (264-bet). Shoiraning o'zbekcha so'zlar bilan qo'llangan holati ko'p asarlarda qo'llanmagan. Yuqorida qayd etilgan o'zbekcha so'zlar qo'llangan ayrim (kuydor, uydor) kabi so'zlar lug'atlarda o'z aksini topmagan. ForschaQforscha qolipida serob (5,-45,-148-182-betlar) suvli ko'p, suvli joy, serrang, serjilo (186-bet), serbaxt (113-bet), serhavas (134-bet), serparvoz (207-bet) kabi so'zlarda qo'llangan. ForschaQo'zbekcha sersuv (199-bet), serqaviq (199-bet), serto'lqin (100-bet) kabi so'zlarda qo'llanib –li ekvalenti sifatida o'zbekcha so'zlar tarkibida qo'llangan. –Mexrim daryosidan, serobman bu kun (15-kun)

Forscha - arabcha qolipida serhasham (85-bet), serviqor (86-93-bet) serhuzur (151-bet), serg'ayrat (168-bet), serzavq (196-201-betlar) kabi so'zlarda ham –li affiksi ma'nosida qo'llanganini ko'ramiz. Faqatgina forschaQtojikcha so'zlardagina ser so'zi –dor, -pur, -xush, kabi affikslar bilan o'rin almashtirilishi mumkin. Masalan: xushbaxt (135-201-betlar), xushbo'y (140-bet), xushro'y (161-bet) xushxol (135-149-betlar) xushnud (153-156-161-betlar) da qo'llanib ayrim so'zlardagina o'zbekcha –li affiksi bilan joy almashtirish mumkin. Ko'p joylarda so'zning o'zi qanday holda qo'llansa ushbu holatda forscha qo'llanganini ko'ramiz. Asarda kammahsul bo'lsada ayrim forscha affikslar –gin, -nok, -ak, -in kabi qo'shimchalar yordamida sifatga tegishli so'zlar ham qo'llangan. Bu qo'shimchalar asosan forscha so'zlar tarkibida qo'llangan. Masalan: g'amgin (126-bet), g'amnok (20-29-bet), gulgun (12-163-betlar) rangin, mushkin (89-bet), xurkax, kunjah kabi so'zlarni shoir o'z she'rlarida qo'llagan.

Yuqoridagi baytda rasidan (yetmoq) fe'lining hozirgi zamon negizi ras (yet) ga "o" affiksini qo'shish orqali hozirgi zamon sifatdoshi "raso" yetadigan, noraso – yetmaydigan ma'nosida kelib o'zbek tilida sifat ma'nosini anglatib kelgan. Shoiraning ranglarning sinonim ma'nolariga ham e'tibor bergan. U forscha,

arabcha, o'zbekcha so'zlar qo'llagan. Rang ma'nosini bildiruvchi so'zlardan to'liq foydalangan. U o'z she'riyatida bu ranglarni bir-biri bilan qiyoslab ifodalagan Sariq rangni bildiruvchi quyidagi so'zlarni qo'llagan. –goh chaqnoq shodligim, goh achchiq zardam (40-bet) –avval ko'k, so'ng zafar xazon tusida (58-bet) – qatag'on yillarning dardaga zardin (175-b) Ushbu misralarda dazard, sariq, zafar, xazon so'zlari sariq rangni bildiruvchi so'zlar sifatida qo'llangan. Ko'k va yashil ranglarni aks ettiruvchi ko'k, sabr, zangir, yashil kabi sinonim ma'noli so'zlar ham asarda bir necha joylarda qo'llangan. –Zangor ko'kni birdan sipqorib (61-bet) – Daho varrak tiniq, zangori fazo (85-bet) –Bedazor, polizda sabzi bir chiroy (187-bet).

Misralarda zangor, sangori, sabr so'zlari yashil rang ma'nosida ishlatilgan. Lekin zangori fazo kabi izofiy birikmalarda "Ko'k"rang ma'nosini ham anglatib kelgan. Hozirgi o'zbek tilida ham sabr so'zi yashil rang bilan bir qatorda ko'k rang ma'nosida ham kelishi mumkin. Masalan: sabzavot so'zi yashillar o'rniga ko'katlar deb tarjima qilinadi. Shoira o'z she'rlarida o'zbekcha yashil, yam-yashil kabi so'zlarda ham juda ko'p joylarda foydalangan. – o'zbek tuprog'ining bir kaft yam-yashil (199-bet) – o'ngda yashillanib o'sar nihol bog' (197-bet) Yuqoridagi forscha zangor, zangori, sabr kabi so'zlar o'zbek tilidagi yashil so'zi bilan sinonim ma'noda qo'llanishi mumkin. Ash'orda sifat darajasini forscha va o'zbekcha qo'shimchalar ham qo'llangan. Masalan: kamtar, kamtarin. –bu kekxa daraxtga kamroq to'yishdi. (117-b) – yomon emas, ahmad, mohir, kamtarin (180-b)

Shoira o'zbekcha so'zlar bilan bir qatorda forscha so'zlarni o'z she'riyatida joy-joyida ishlatganki bu so'zlarning fors, tojik tilining ayrim xususiyatlarini yaxshi bilishdan dalolat beradi.

"Sinkveyn" texnologiyasi asosida Zulfiya ijodini o'rganish samarali natija beradi. Bu texnologiyani qo'llashda ikkita natijaga erishiladi. Birinchidan, o'quvchilar shoira she'rlarini sinchkovlik bilan o'qishga, yodlashga, o'rganishga rag'batlantiradi, ularning she'riyatga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Ikkinchidan, o'quvchilarning so'z bilan ishlash qobiliyatini oshiradi. Sinkveyn besh qatordan iborat bo'ladi. Birinchi qatorda mavzu (kalit so'z) beriladi. Ikkinchi qatorda unga bir yoki ikkita aniqlovchi tanlanadi. Uchinchi qator harakat-holat fe'li bilan to'ldiriladi. To'rtinchi qatorda so'z yoyiq gapga aylantiriladi. Beshinchi qatorda kalit so'zning ma'nodoshi keltiriladi.

"Ikki qismli kundalik" metodi Zulfiya she'rlarini o'rganishda samarali usullardan biri bo'lib, o'quvchilarni she'ning mazmunini anglash, tahlil qilish va erkin fikrni bayon qilishga o'rgatadi. O'quvchilarga matn mazmunini o'z shaxsiy tajribasi bilan chambarchas bog'lash, o'zining tabiiy qiziquvchanligini qondirish imkonini beradi. Ikki qismli kundalik uchun o'quvchilar yozilmagan qog'ozning o'rtasidan tik chiziq o'tkazib, uni ikkiga ajratishlari kerak. Qog'ozning chap tomoniga matnning qaysi qismi ularga eng ko'p taassurot qoldirganini qayd etishadi. O'ng tomonida ular sharh berishlari kerak: ayni shu jumlani yozishga ularga nima turtki bo'ldi? Matnni o'qirgan, o'quvchilar vaqti-vaqti bilan to'xtashlari va o'zlarining qo'shaloq kundaliklarida shunday belgilar qo'yib

borishlari kerak. “Ikki qismli kundalik” metodi asosida Zulfiyaning she’rlarini o‘rganish o‘z samarasini beradi.

O‘QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHDA OPTIMALLASHTIRISHNING O‘RNI

Berikbayev Alisher Alikulovich, Noraliyeva Sevinch

***Guliston davlat universiteti Amaliy san’at va dizayn kafedrasi mudiri,
v.b.dotsent. e-mail:berikbaevalisher@gmail.com, GulDU Dizayn yo‘nalishi 1-
bosqich talabasi***

Ayni kunlarda ta’limda yangilanish jarayoni jadal davom etmoqda. Agar ta’lim tizimidagi qilinayotgan ishlar ko‘lamiga nazar solsak, asosan ikki yo‘nalishdagi ishlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bunda vertikal yo‘nalishda qabul qilingan hujjatlar, dasturlar davr talabiga mos holda davom etmoqda desak yanglishmaymiz. Respublikamizda ta’lim islohoti amalga oshdi. Biroq, gorizonta yo‘nalishdagi ishlar, jumladan, ta’lim mazmunidagi uzluksizlikni ta’minlash, o‘qituvchi faoliyatini zamonaviy pedagogik ta’lim tizimiga mos rivojlantirish o‘quv dargohlari moddiy-texnika bazasini yaratish, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga mos bo‘lgan ta’lim xizmatlarini yo‘lga qo‘yish, o‘quvchi va talabalarning ehtiyojlariga mos keladigan ta’lim shakllarini yaratish kabi o‘z echimini kutayotgan dolzarb muammolar kun tartibida turibdi.

Bizni o‘rab turgan borliqni tushunish va uni o‘rganishdagi yondashuvlar (metodlar) keskin o‘zgarimoqda. Avval fanlarni o‘rganishda differentsial yondashuv bilan chegaralanilgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda har qanday fanni o‘rganishda boshka fanlardan ham zarur bilimlarni o‘zlashtirish talab qilinadi. Ya’ni fanlarning sintezlashuvi (birlashuvi) jarayoni sodir bo‘lmoqda. Zamonaviy ilmiy bilish metodologiyasida real holatlarni o‘rganishning yangi metodlari ishlab chiqilmoqda. Biz o‘rgangan va rioya qilayotgan an’anaviy metodika o‘z vazifasini bajara olmay qolganligi yaqqol sezilmoqda. Buning sabablari turlicha. Jumladan, metodika fani tayanadigan pedagogika, psixologiya va falsafa milliy g‘oya va milliy mafkura nazariyasini yaratish boshlang‘ich pozitsiyada turibdi.

Jahon andozalariga mos o‘quvchiga ta’lim va tarbiya berishda bugungi o‘qituvchi qanday talablarga javob berishi zarur? kabi savolga javob berishdan avval ta’lim tizimidagi vertikal va gorizonta yo‘nalishda qilingan va qilinayotgan barcha vazifalar ko‘lamini chuqur tasavvur qila olish lozim. Echimini kutayotgan barcha muammolarni bosqichma-bosqich hal etish yo‘llarini izlab topish lozim bo‘ladi.

Pedagogikada ta’limni «ta’lim olayotganlar bilan ta’lim berayotganlarni o‘rtasidagi aktiv o‘zaro ta’sir kursatish» jarayoni sifatida qaraladi. Bu jarayon o‘quvchilarni fan asoslari bilan tanishtirish, ularda mahorat va malakalar xosil qilish, ilmiy dunyokarashni shakllantirish, o‘qishda, mulokat va mexnat foliyatini va aqliy faoliyatini rivojlantirishga karatilgan buladi. Bu esa o‘z navbatida o‘qitishni optimallashtirish jarayonida o‘z aksini topadi

Ta’lim jarayonini optimallashtirish umumta’lim maktab o‘quvchilarning o‘quv foliyatini ilmiy asosda tashkil qilishning muxim printsipi xisoblanadi. Bugungi kunning asosiy talabi o‘kitishning optimal metodlarini, shakl

va vositalarini tanlash soxasida o'qituvchining imkoniyatlarini kengaytirish, pedagogika fani erishgan yutuklarni amaliy ishlarga dadilrok joriy etishdan iborat. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli xal kilish uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilari maktabda o'z kasblariga doir ishlarga tayyorgarlik ko'rish jarayoniga eng avvalo yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'lim metodlari va vositalari, shakllari to'grisidagi bilimlarini, o'qitishning interfaol usullari mukammal egallagan bo'lishlari zarur. Ular o'quvchilarni o'quv material ustida aktiv ravishda mustakil ishlay olishga o'rgatadigan bo'lishlari, o'quvchilarni mexnat faoliyati xamda xulkatvor madaniyatiga o'rgatishni bilishlari kerak.

Fanni o'qitish. Bu xar kanday o'quv yurtida o'qitishni to'g'ri tashkil etish uchun zarur bulgan birinchi xususiyatidir.

Zamonaviy o'kituvchi (muallim) o'z fanini, uni o'qitish metodikasini, dasturini, maksadi va xar bir sinfda amalga oshiriladigan ta'limning vazifasini yaxshi bilmogi kerak. Fanni va uning metodikasini bilish pedagog uchun o'z fanini yaxshi o'qitib, o'z ishida muvaffakiyotlarga erishishning zarur shartidir. Lekin bu xali xammasi emas. O'qituvchi fanning mazmunini o'zlashtirib olishning psixologik konuniyatlarini, shuningdek, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, ularning o'quv faoliyati motivlarini, ularning kiziqish va kobiliyatlarini rivojlantiruvchi rag'batlantiruvchi omillar va shart – sharoitlarni yaxshi bilmog'i kerak

Dars-o'qitishning asosiy shakli. Darsni ko'rgazmali vositalarisiz, kursatma vositalarini qo'llanib o'tiladigan darsga, xamda o'qitishning texnikaviy vositalaridan foydalangan xolda o'tkaziladigan darsga ajratish mumkin. Lekin darslar qay xilda tashkil etilmasin, baribir ularni o'qituvchisiz o'tkazib bo'lmaydi.

O'qituvchining o'qituvchilar bilan bevosita jonli mulokotga kirishishi bolalarning bilish soxasidagi aktivligini xamda ularning o'quv faoliyatidagi mustakilligini rag'barlantiradi, ulardagi xis tuygu va xarakterini shakllantiradi. Birok xozirgi zamoni ta'lim sistemasini yangi pedagogik texnologiyalardan, axborot texnologiyalaridan foydalanmasdan tasavvur kilib bg'lmaydi. Jamiyat mana shu texnologiyalarni o'qituvchi ixtiyoriga beradi va u bu vositalardan bolalarni o'qitish va tarbiyalash maqsadida moxirlik bilan foydalanmogi kerak.

O'qitish- bu xar doim muloqotga kirishish bo'lib, unda tamonlar o'z rollarini almashtirib turadilar. O'qitish jarayonida doimo teskari aloka mavjud bo'lib. Ta'limda kadamba – kadam davom etadigan mana shu teskari alokani (bunda material ma'no jixatdan katta bo'lmagan birliklarga ajratiladi va ular xar birini o'quvchining to'g'ri tushinishi(tekshirib chikiladi), mudati kechiktirilgan teskari aloka (bunda materiallarning ma'no jixatidan tugal bulgan kattagina kismi bayon etiladi xamda uning kay darajada uzlashtirilganligi nazorat kilinadi), prognoz qilinadigan, kelishilmaydigan yoki karshilik bildiruvchi teskari aloka (o'quv axborotiga asosiy materialni noto'g'ri tushinilishning oldini oladigan qo'shimcha material bayon etiladi), kognitiv teskari aloka (bunda o'quvchi mantiqqa xamda o'quv material faktlariga tayangan xolda darsni o'zi qay darajada to'g'ri tushinganligini mustaqil ravishda tekshirib ko'radi) deb ataladigan aloka turlariga ajratib o'rganiladi. Ko'rsatib o'tilgan teskari aloqa tiplari ko'pincha Yonma –yon keladi xamda o'qituvchining sinfda olib boradigan ishlaridan biri ikkinchisini

to'ldirib turadi. Chunonchi, tajribali o'qituvchi o'z darsiga nisbatan o'quvchilarning bildiradigan reaksiyasini xam, ular maskur dars materialini tushinishda yo'l quyishi mumkin bo'lgan eng tipik xatolarni xam oldindan ko'ra biladi. Uning ishida prognoz kilinadigan teskari aloka boshka turdagi alokalar bilan birga keladi. Bundan ko'ra murakkabrok bo'lgan masalalarni bayon etish vaqtida muddati kechiktirilgan teskari aloka shaklida asta- sekin amalga oshiriladigan teskari alokaga o'tiladi. Uyga vazifani muxokoma kilayotganda o'qituvchi o'quvchiga uning o'zi kandy kilib kognitiv teskari alokani tashkil etishi mumkinligi yuzasidan maslaxatlar beradi.

U yoki bu xildagi teskari alokadan foydalanish o'quvchilarning yoki xususiyatlariga bog'lik bo'ladi. O'quvchilar uchun birin-ketin amalga oshiriladigan teskari aloqaga o'tilgani ma'qul, o'smirlik yoshida esa kognitiv teskari aloqa shaklining rivojlantirilishi va shunga tayanib ish olib borilishi muhimdir. Audiovizual materiallar asosida (o'quv, telekursatuvlari, kinofilmlar) dars o'tilganda prognoz qilinadigan teskari aloqa etakchilik kiladi va u kognitiv aloqa bilan mahkam bog'liq holda keladi.

Sinfda yoppasiga ish olib borilayotganda teskari aloka (ya'ni o'quvchilar berayotgan javoblari o'qituvchi tomonidan kuzatiladi va to'g'irlab tuzatilib boriladi)dokada javob berayotgan o'quvchi bilan bog'lik buladi. Qolgan o'quvchilar o'z o'rtoqlarining javobidan xamda bu javobga o'qituvchi tamonidan kiritilgan tuzatishdan xulosa chikarib, materialni to'g'ri tushunish etalonini xosil kiladilar. Shuning uchun o'quvchilarni savol- javob vaktida faol ishlashga o'rgatish muximdir. Dars paytda o'tiladigan material va sinfnig uziga xos xususiyatlarini xisobga olib, shunga muvofik tipdagi teskari aloka shakllarining tashkil etilishi-o'qitishni optimallashtirishning shartlaridan biridir. O'qitishni optimalashtirishda qo'lay shakllardan yana biri o'kitishni individual va gurux tarzida olib borish sanaladi.

Individual o'qitish vaktida o'qituvchi bitta o'quvchi bilan, gurux tarzida o'qitishda esa u sinfga birlashtirilgan va akademik gurux bilan ishlaydi. Butun sinf yoki gurux bilan yoppasiga ish olib borar ekan xar bir o'quvchiga induvidal tarzda yondoshish masalasini o'ylab ko'rishi kerak. Buni o'quvchilar psixologiyasini bilmasdan turib amalga oshirib bulmaydi. O'quv jarayonini optimallashtirish masalalari ta'limning markaziy masalalardan biri xisoblanadi.

Optimallashtirish o'qitishning shunday metodi va vositalaridan foydalanishni nazarda tutadiki, bunda mazkur darsda material chuqur va mustaxkam o'zlashtirib olinadi. Bular qiska vakt ichida amalga oshirilib, o'quvchilarning psixik jixatdan rivojlanishini rag'batlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berikbaev A.A. Subject Training Disciplines as a Means of Forming Professional Competence in Future Teachers of Fine Arts Annals of R.S.C.B., ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 3, 2021, Pages. 8965 - 8989
2. Berikbaev A.A. 13.00.01 p.f.b.falsafa doktorlik dissertatsiya Tashkent. 2023 y.

BO‘LAJAK MUTAXASSIS O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA AYRIM QARASHLAR

Berikbayev Alisher Alikulovich

*Guliston davlat universiteti Amaliy san’at va dizayn kafedrasi mudiri, Phd
doktor e-mail:berikbaevalisher@gmail.com*

Annotatsiya: Bo‘lajak mutaxassis o‘qituvchining jamiyat hayotidagi o‘rni beqiyosdir. Unda “kasbiy kompetentlik” tushunchasining mohiyati, pedagogga xos kompetentlik sifatleri, pedagogik kasbiy xamkorlikning o‘qituvchi faoliyatidagi ahamiyati, o‘rni va rolga doir masalalar va olimlarning ayrim qarashlari haqida fikrlar yuritilgan. Ular hozirgi zamon kishisini milliylik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Tayanch so‘zlar: kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kompetentsiya, pedagogik kasbiy hamkorlik, mezon, tasviriy, loyihavi, ilmiy-tadqiqot, kompetensiyalar, refleksiv, motivatsion, kognitiv, amaliy.

Ta’limning yangi modeli ishga tushgach, insonning hayotdagi o‘z o‘rnini topish jarayoni tezlashadi. Insonning hayotdagi munosib o‘rnini topishi uni turmushidan, taqdiridan, vatanidan rozi bo‘lib yashashi, umr bo‘yi bunyodkorlik faoliyati bilan mashg‘ul bo‘lishiga olib keladi. Ta’limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin Shaxsni shakllanishiga olib kelishi oqibatida insonlarning ongli turmush kechirishlari jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Ta’limning yangi modeli jamiyatimizning potentsial kuchlarini ro‘yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Insondagi mavjud muayyan darajadagi intellektual salohiyatning ichki quvvatini to‘liq yuzaga chiqishi uchun barcha shart sharoit yaratilishi oqibatida tafakkurning har xil eski, qotib qolgan tushuncha va aqidalaridan xalos qiladi. Oldimizda turgan buyuk maqsadlarimizga erishishda jamiyatimizning har bir a‘zosi o‘zining noyob qobiliyati va iste’dodini avvalo o‘zi uchun, oilasi, millati, halqi va davlatining faravonligi, baxt –saodati, manfaati uchun to‘liq baxshida etsagina bunday jamiyat kuchli taraqqiyotga erishadi.

Fanda yangi ma’lumotlar (bilimlar) oqimi tez ko‘paymoqda. Ilm olish bilan uni qo‘llash orsidagi fursat yo‘qolib bormoqda. Bo‘lajak mutaxassis o‘qituvchining kasbiy kompetentligi - bu sub’ektning pedagogikning badiiy-ijodiy faoliyatini ongli va sifatli amalga oshirishga, tahsil oluvchilarning badiiy ta’limini samarali tashkil qilishga, tayyorligini ta’minlaydigan integral-shaxsiy ma’lumoti hisoblanadi.

Bizning ta’rifimizda “pedagogik faoliyat”, “kasbiy faoliyat”, kabi tushunchalar uchraydi. Ularni batafsilroq ko‘rib shiqamiz. Kasbiy ta’lim qomusida pedagogik faoliyatning quyidagi ta’rifi berilgan. Bu pedagogning tahsil oluvchilarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish bo‘yicha kasbiy faoliyati sohasidir. Tajribali o‘qituvchining o‘ziga xos pedagogik uslubi, pedagogik texnikasi (usullari) va pedagogik faoliyatiga ijodiy yondashuvi uning pedagogik faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlaridir.

Bo'lajak mutaxassis o'qituvchiining pedagogik faoliyati deganda ta'lim jarayoniga baho berish va uni tahlil qilish, o'zini o'rab turgan voqeylikni va badiiy obrazlarni har qanday badiiy materiallar orqali bera olish, hamda grafik diagramma va tasvir chiza olish, tahsil oluvchilarda ijodiy faoliyatga, ijtimoiy hayotga va sotsiologiya va hok.ga qiziqishni singdirish bo'yicha kasbiy va axloqiy bilimlar, malakalarni o'z ichiga oladigan kasbiy faoliyat turini nazarda tutadi. Bu yerda faoliyatni badiiylashtirishga alohida urg'u berish kerak.

Badiiylilik - san'atda nafasatga go'zallikka teng keladigan san'at asari sifatining mezonidir. Shu ma'noda ular yuksak san'at durdonasi xisoblanadi. Badiiylilikni keyroq tafsiflasak. Bu badiiy film, badiiy asar va hokozolarni aytish mumkin... . Albatta badiiylilik so'zi ishlatilganda nafislik va estetika yonma-yon bo'ladi.

Estetik tarbiya shaxsni ham, davlatni ham jahon ma'naviy madaniyati bilan integratsiya qilishda madaniy an'analarni saqlash va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bo'lajak mutaxassis o'qituvchining kasbiy kompetentligi tushunchasining mazmunini ko'rib shiqamiz.

Olim V.A.Adolf o'qituvchining kasbiy kompetentligi quyidagi komponentlardan iborat deb hisoblaydi: rag'bat motivatsion, maqsadni belgilash va mazmun-operatsion[4]. Ushbu fikriga ko'ra, o'qituvchining kasbiy kompetentligi mazmuni kognitiv, motivasion va faoliyat komponentlarining majmui birlashmasidir.

A.R.Xayrullin tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy kompetentligining mazmuni quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi deb hisoblaydi: motivatsion, instrumental-ijrochilik va badiiy-ijodiy.

Bo'lajak mutaxassis o'qituvchining kasbiy kompetentligi mazmunida olima L.L.Malinskaya quyidagi komponentlarni ajratadi: "kasbiy badiiy-pedagogik yo'naltirilganlik, (rag'batlar motivlar, ideallar, ehtiyojlar, badiiy-ijodiy faoliyatga intilish, bolalarga bo'lgan muhabbat (ularni yaxshi ko'rish)); kasbiy kompetensiyalar (estetik-pedagogik faoliyat sohasi: pedagogika, psixologiyada kompetensiyalar); badiiy-ijodiy faoliyatga rahbarlik qilish qobiliyati, badiiy faoliyatning texnologik metodlarini egallash; shaxsning kasbiy jihatdan ahamiyatli fazilatlari (badiiy-obrazli fikrlash, tasavvur, badiiy obrazni yaratish qobiliyati, ijodiy faollik, o'zini tartibga solish qobiliyati, kasbiy mobillik harakatlanuvchanlik, mahsuldorlik, tashkilotchilik qobiliyatlari, demokratiklik, talabchanlik, qat'iyat, ishga layoqatlilik, kommunikativlik (muloqot qila olish malakasi), konstruktivlik)).

Tadqiqotchi olim S.I.Mokrousovning nuqtai nazariga ko'ra bo'lajak mutaxassis o'qituvchining kasbiy kompetentligi tarkibiga quyidagilar kiradi: universal kompetensiyalar: axborot, ijtimoiy-kommunikativ; umumkasbiy (pedagogik): proektiv, prognostik bachorat qilish, tashkilotchilik, kognitiv bilish kompetensiyalari; maxsus kasbiy (kasbga xos): metodik, tahliliy analitik, tasviriy, madaniyatshunoslik kompetensiyalar[4.114].

Biz bo'lajak mutaxassis o'qituvchining kasbiy kompetentligi mazmuni umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi deb hisoblaymiz.

Umummadaniy kompetensiyalar (zakovat intellektual, ijtimoiy-madaniy, axborot

va kommunikativ) ko'plab (keng doiradagi) kasblar uchun zarur bo'lib, umumta'lim fanlarni o'rganish jarayonida shakllanadi.

Kasbiy kompetensiyalar (pedagogik, loyihaviy (loyihalashtirish), ilmiy-tadqiqot, tasviriy, refleksiv) umumkasbiy fanlar va kasbiy fanlarni o'qitish, o'rganish jarayonida shakllanadi, pedagogik va badiiy faoliyatni ongli va sifatlil amalga oshirishni ta'minlaydi.

Kasbiy kompetensiyalar bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisida kasbiy kompetentlik mavjudligi haqida baho berish imkonini beruvchi asosiy ko'rsatkichdir.

Biz bo'lajak mutaxassis o'qituvchining kasbiy kompetentligi mazmuni bo'yicha: pedagogik, loyihaviy, ilmiy-tadqiqot, tasviriy, refleksiv kabi yetakchi kasbiy kompetensiyalarni aniqladik.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining pedagogik kompetensiyasi maktab o'quvchilarini fanning mazmunini o'qitish va ularga estetik ta'lim-tarbiya berishda pedagogik vazifalar va muammolarni hal qila olish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Bo'lajak mutaxassis kadrlarning kasbiy kompetentligining loyihaviy kompetensiyasiga uning badiiy va pedagogik faoliyatda loyihani mustaqil ishlab chiqish va amalga oshirishga, maktab o'quvchilarining loyiha faoliyatini tashkil etishga qobiliyati va tayyorligi kiradi.

Bo'lajak mutaxassis kadrlarning kasbiy kompetentligining ilmiy-tadqiqot kompetensiyasiga maktab o'quvchilarining tasviriy san'atga o'qitish va ularga estetik ta'lim-tarbiya berishda, tadqiqot faoliyatini tashkil qila olish qobiliyatida, muammolarni ko'ra bilish, ularni farazlar gipotezalarni ilgari surish va asoslash asosida yechishda, tajribalarni bajarish, empirik ma'lumotlarni statistik jihatdan qayta ishlash, xulosalarni asoslay olish, tadqiqot natijalarini taqdim etish (prezentasiya qilish) tahsil oluvchilarning o'quv-tadqiqot faoliyatini tashkil qilishga oid tadqiqotchilik bilimlari va malakalari tizimini egallaganlikda namoyon bo'ladi.

Mutaxassis o'qituvchining refleksiv kompetentligiga unga o'zini mustaqil rivojlantirish, kasbiy o'sish, ijodiy yondashuv va kasbiy-pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlovchi refleksiyani eng samarali va yetarli darajada amalga oshirish imkonini beradi. V.A.Adolf, N.B.Kozlova[6.86], .L.Malinskaya, S.I.Mokrousov, A.R.Xayrullin kabi olimlarning g'oyalariga muvofiq, biz ajratib ko'rsatilgan kasbiy kompetentliklar (pedagogik, tasviriy, loyihaviy, ilmiy-tadqiqot, refleksiv) strukturasi quyidagi komponentlarni belgiladik: motivasion, kognitiv, amaliy.

Bo'lajak mutaxassis kadrlarning kasbiy kompetentligining pedagogik kompetensiyasi strukturasi quyidagi komponentlar kiradi: 1) motivasion (ijtimoiy ahamiyatli rag'batlar motivlar, kasbiy faoliyatga bo'lgan ehtiyoj); 2) kognitiv (pedagogika, turli yoshdagi maktab o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalash texnologiyasi, tasviriy san'atga o'qitish nazariyasi va metodikasi, maktab o'quvchilarini badiiy tarbiyalash va boshq. ga oid bilimlar tizimi); 3) amaliy (zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarining, maqsadlarni belgilash, mazmunini tanlash, tashkil qilish, o'quv jarayoni natijalarini hamda

maktab o'quvchilarining badiiy faoliyatini baholay olish malakalari va boshq. majmui).

Bo'lajak mutaxassis kadrlarning kasbiy kompetentligining tasviriy kompetensiyasi quyidagi komponentlarning mavjudligini taqozo etadi: 1) motivasion (ijtimoiy ahamiyatli rag'batlar motivlar, badiiy faoliyatni amalga oshirishga bo'lgan ehtiyoj va boshq.); 2) kognitiv (rangtasvir, qalamtasvir, haykaltaroshlik, chizmachilik, kompozitsiya, perspektiva, amaliy san'at, xalq hunarmandchiligi, maktabda badiiy bezash, kompyuter grafikasi va hokazolarga oid nazariy asoslari haqidagi bilimlar tizimi.); 3) amaliy (guash, akvarel, moybo'yoq bilan chizish, ko'mir, sangina va boshqa badiiy materiallar bilan ishlash, kompyuter grafikasi dasturlari bilan ishlash, san'at asarlari, amaliy va tasviriy san'at vositalari (lepka, o'ymakorlik, bezak yozuvlari, badiiy shriftlar va boshq.), kompyuter grafikasi tasvirlarini yaratish, mahsulotlarni va ularni ko'rgazma-tomoshada namoyish etish va boshq. malakalari va ko'nikmalari majmui).

Bo'lajak mutaxassis o'qituvchining loyihaviy kompetensiyasiga quyidagilar kiradi: 1) motivasion (loyihalarni yaratishda o'zini ijodiy ifoda etish ehtiyoji, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining loyiha faoliyatini tashkil etishga qiziqish kabi loyiha faoliyatini amalga oshirishga bo'lgan ehtiyojlar, rag'batlar motivlar, qiziqishlar majmui va boshqalar.); 2) kognitiv (tasviriy va amaliy san'ati, xalq hunarmandchiligi, maktabda badiiy bezash loyihalarini ishlab chiqish texnologiyasi sohasida mahsulotlar loyihasini tuzishga; maktab o'quvchilarining loyiha faoliyatini tashkil etish nazariyasi va metodikasiga oid bilimlar tizimi va boshq.); 3) amaliy (tasviriy va amaliy san'at va hunarmandchilik sohasidagi mahsulotlarni loyihalashtirish malakalari va ko'nikmalari majmui; maktabda badiiy bezash loyihalarini ishlab chiqish, maktab o'quvchilarining loyiha faoliyatini tashkil etish malakalari va boshq.).

Bo'lajak mutaxassis kadrlarning kasbiy kompetentligining ilmiy-tadqiqot kompetensiyasiga quyidagilar kiradi: 1) motivasion (maktab o'quvchilarining badiiy ta'lim sohasidagi ilmiy-pedagogik tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyoj va boshq.); 2) kognitiv (ilmiy-pedagogik tadqiqot metodologiyasi va metodlari haqidagi bilimlar tizimi va boshq.); 3) amaliy (bolalarga badiiy ta'lim (tarbiya) berish sohasidagi tadqiqot natijalarini rejalashtirish, axborot to'plash va unga ishlov berish, tashkil qilish, rasmiylashtirish malakalari majmui; tahsil oluvchilarning o'quv-tadqiqot faoliyatini tashkil qilish malakalari va boshq.).

Bo'lajak mutaxassis o'qituvchining reflektiv kompetensiyasi quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: 1) motivasion (badiiy-pedagogik faoliyatda refleksiyaning qo'llash ehtiyoji va boshq.); 2) kognitiv (refleksiyaning mohiyati va uni kasbiy faoliyatda tashkil qilishga oid bilimlar tizimi va boshq.); 3) amaliy (o'z kasbiy faoliyati jarayoni va natijalarini tanqidiy baholash, unga islohlarni tuzatishlar kiritish malakalari va ko'nikmalari majmui, o'zini takomillashtirish, kasbiy o'sish zarurligini anglash va boshq.).

Keyingi bosqichida, biz bo'lajak mutaxassis o'qituvchining kasbiy kompetentlikni rivojlantirish mezonlari va ko'rsatkishlarini aniqladik.

Mezon (kriteriy - yunonsha sriterion - baholash hukm qilish uchun o'lchov, andoza)-tizim rivojlanishi, faoliyatning muvaffaqiyatli umumlashtirilgan ko'rsatkichi, tasniflash uchun asos. Mezon kuzatilayotgan ob'ektning asosiy (kalit) belgisi, xususiyati bo'lib, uning asosida baholash amalga oshiriladi[7,42]. Mezon – belgi xususiyat bo'lib, uning asosida biror narsa baholanadi, aniqlanadi yoki tasniflanadi; biror hodisani o'lchash, unga baho berish o'lchovidir.[7]

Pedagogika lug'atda "ko'rsatkich" tushunchasi "hodisa yoki voqea bo'lib, unga ko'ra biror jarayonning borishiga baho berish (o'lchash) mumkin bo'ladi" deb talqin qilinadi[8,159].

Yuqorida aniqlangan struktura asosida Bo'lajak bo'lajak mutaxassis o'qituvchining kasbiy kompetentlikni rivojlantirish mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqladik:

-motivasion mezon, uning ko'rsatkichlari (Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy faoliyatga, estetik faoliyatni amalga oshirish uchun ijobiy rag'batlantirilganlik motivatsiya; loyihalarni yaratishda, maktab o'quvchilarining ijodkorlik sohasidagi ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda, tasviriy va pedagogik faoliyatda refleksiyaning amalga oshirishda o'zini ijodiy ifodalashga bo'lgan ehtiyoj; o'quvchilarning loyiha faoliyatini tashkil qilishga barqaror qiziqish);

- kognitiv (bilish) mezoni, uning ko'rsatkichlari (pedagogika, Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi, qalamtasvir, rangtasvir, haykaltaroshlik, chizmachilik, kompozitsiya, amaliy san'at, haykaltaroshlik, maktabda badiiy bezash, kompyuter grafikasi; tasviriy va amaliy san'at, ilmiy-pedagogik tadqiqot metodologiyasi va metodlari to'g'risida; refleksiya, uni kasbiy faoliyatda tashkil qilishga oid bilimlar);

- amaliy mezon, uning ko'rsatkichlari (pedagogik, tasviriy, loyihalash, tadqiqot, refleksiv malakalar va ko'nikmalar).

Ilmiy adabiyotlarni o'rganib kuzatishda, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikning rivojlanganlikning uch darajasini aniqlash imkonini berdi (yuqori, o'rta, past).

Bo'lajak mutaxassis kadrlarning kasbiy kompetentligining rivojlanganligining yuqori (optimal) darajasi kasbiy faoliyatni eng samarali amalga oshirish imkonini beradi. Bu daraja pedagogik faoliyat sohasidagi rag'batlar motivlari, ehtiyojlari, qiziqishlari barqaror bo'lgan; kasbiy bilimlari to'liq va har tomonlama (ko'p qirrali) bo'lgan, shakllangan va amalda qo'llaniladigan ko'nikma va malakalarga ega

bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida mavjud bo'ldi [8].

Bo'lajak mutaxassis kadrlarning kasbiy kompetentligining o'rtacha (yetarli) darajasi kasbiy faoliyatni sifatli amalga oshirish uchun yetarli hisoblanadi. Ushbu daraja pedagogika sohasidagi motivlari, ehtiyojlari, qiziqishlari ko'p hollarda namoyon bo'ladigan, kasbiy bilimlari etarli darajada to'liq va nisbatan ko'p qirrali bo'lmagan, ko'nikma va malakalari shakllangan, ko'pincha (ko'p hollarda) amaliyotda qo'llaydigan talabalarda qayd etildi.

Umumiy qisqacha qilib aytganda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentligining past (yetarli bo'lmagan) darajasi kasbiy faoliyatni

amalga oshirish uchun yetarli emas. Bu daraja pedagogik va tasviriy faoliyat sohasidagi ragʻbatlari motivlari, ehtiyojlari, qiziqishlari barqaror boʻlmagan; kasbiy bilimlari toʻliq boʻlmagan, koʻnikma va malakalar etarli darajada rivojlanmagan mutaxassislariga xos namoyon boʻldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

4. Юзликаев Ф.Р. Теория и практика интенсификации дидактической подготовки будущего учителя в системе высшего педагогического образования (на материале педагогических дисциплин): Дис. ... докт. пед.наук.– Т., 2005. – 303 с.

5. Адолф В. А. Теоретические основы формирования профессиональной компетентности учителя: Дис... докт.пед.наук: 13.00.01 В. А. Adolf.M., 1998.-357

6. Мокроусов С.И. Развитие профессиональной компетентности учителей изобразительного искусства в процессе обучения компьютерному моделированию : Дисс. ... канд.пед.наук: 13.00.02 / С. И. Мокроусов. - Екатеринбург, 2010. - 179 с.

7. Пидкасистый П.И. Подготовка студентов к творческой педагогической деятельности П.И.Пидкасистый, Н.А.Воробьева. - М.: Педагогическое общество России, 2007. - 192 с.

8. Полонский В.М. Словарь по образованию и педагогике В.М.Полонский. - М.: Высш. шк., 2004. - 512 с. https://www.studmed.ru/polonskiy-v-m-slovar-po-obrazovaniyu-i-pedagogike_e64ac474acb.html

9. Berikbaev A.A. Subject Training Disciplines as a Means of Forming Professional Competence in Future Teachers of Fine Arts Annals of R.S.C.B., ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 3, 2021, Pages. 8965 - 8989

10. Berikbaev A.A. 13.00.01 p.f.b.falsafa doktorlik dissertatsiya Tashkent. 2023 y.

FIZIKA VA ASTRONOMIYA FANLARIDA LABORATORIYA MASHGʻULOTLARINI VIRTUAL SIMULYATSIYALAR YORDAMIDA BAJARISH USULLARI

Jumaniyazov A.U

SVPYMOʻMM fizika va astronomiya fani metodisti, Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi oʻqituvchisi

Annotatsiya: Taʼlim jarayonida laboratoriya mashgʻulotlarini virtual simulyatsiyalar tajribalarining yangi bilimlar manbai, fizikaviy nazariyalarning fundamental asoslari, oʻqitish usuli, oʻrganilayotgan hodisalarni vizuallashtirish – illustratsiya qilish, oʻquvchilarning fizikaviy tafakkurini rivojlantirish, amaliy malaka va koʻnikmalarni rivojlantirish vositalari ekanligi maqolada yoritib berishga harakat qilingan.

Kalit soʻzlar: Virtual tajribalari, eksperimental tajriba, simulyatsiyalar, fizikaviy qonuniyat, jarayon, fizikaviy tushuncha, dars, fizik hodisa.

Fizika eksperimental fandır. Fizika fani va fizika oʻquv predmeti oʻrtasida chambarchas bogʻliqlik mavjud boʻlganligi sababli, fizikani oʻqitish jarayoni

tajribaga asoslangan bir nechta fundamental qoidalar asosida o'quvchilar uchun yangi fizik tushunchalar va nazariyalarni izchil shakllantirishdan iborat. Bu jarayon davomida tajriba asosida asosiy fizik qonunlarni o'rnatishning induktiv tabiati va o'quvchilar uchun qulay bo'lgan matematik apparatdan foydalanib, shu yo'l bilan o'rnatilgan qonunlardan xulosalar chiqarishning deduktiv xarakteri o'z aksini topadi.

Fizikadan o'quv jarayonida virtual simulyatsiyalardan foydalanish bizga quyidagilarga imkon beradi:

- o'rganilayotgan hodisalarni pedagogik jihatdan o'zgartiriladigan shaklda ko'rsatish va shu bilan ularni o'rganish uchun zarur eksperimental bazani yaratish;
- fanda o'rnatilgan qonun va qonuniyatlarni o'quvchilar uchun qulay shaklda ko'rsatish va ularning mazmunini o'quvchilarga tushunarli qilish;
- o'qitishning ko'rgazmaliligini oshirish;
- o'quvchilarni fizik hodisalarni o'rganishning eksperimental usuli bilan tanishtirish;
- o'quvchilarning fizika fanini o'rganishga qiziqishini oshirish;
- bilim va eksperimental ko'nikmalarni shakllantirish.

Yuqoridagilar bilan bog'liq holda o'quv eksperimenti ikki turga bo'linadi: ko'rgazmali (namoyish) va laboratoriya.

Laboratoriya tajribasining tuzilishi

Laboratoriya eksperimentini o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining xarakterini to'liq aks ettiruvchi tashkiliy xususiyatlariga ko'ra tasniflash qulay. Ushbu tasnifga ko'ra o'quv laboratoriya tajribasining to'rt turi mavjud:

- frontal laboratoriya ishi;
- ustaxonalar;
- uyda kuzatishlar va tajribalar;
- eksperimental vazifalar.

Ko'rgazmali eksperiment o'qitish usuli sifatida illustrativ usullarga mansub. Ko'rgazmali eksperimentda asosiy boshlovchi o'qituvchi bo'lib, u nafaqat o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil qiladi, balki tajribalar namoyishini ham o'tkazadi. Ko'rgazmali eksperimentning sezilarli kamchiligi bor - o'quvchilar qurilmalar bilan ishlamaydilar (garchi ularning ba'zilar ko'rgazmalar tayyorlashda ishtirok etishlari mumkin).

Maktab fizika kursining har bir mavzusidan majburiy ko'rgazmalar ro'yxati dasturda mavjud. U, birinchi navbatda, zamonaviy fizikaning eksperimental bazasini tashkil etuvchi tajribalarni o'z ichiga oladi, ular fundamental deb ataladi, bular, birinchi navbatda, Galiley, Kavendish, Shtern, Ersted, Faraday, Gers, Stoletov va boshqalar. Ulardan ba'zilar maktab sharoitida yetarlicha ishonchlilik bilan namoyish etilishi mumkin, boshqalari esa murakkab va qimmatbaho jihozlarni talab qiladi (Lebedev, Milliken, Rezerford tajribalari) va shuning uchun ularni faqat kino, televizor yoki kompyuter texnologiyalari yordamida modellashtirish mumkin.

Bu tajribalarni sahnalashtirish imkon qadar aniq, tushuntirish esa o'ylangan bo'lishi va tajribaning nafaqat fizik mohiyatini, balki uning fizika fanlari tizimidagi o'rni ham aks ettirishi kerak.

O'rganilgan fizik hodisalar va nazariyalarni texnika, texnologiya va kundalik hayotda qo'llanilishini ko'rsatish. Bunday tajribalarni namoyish qilish nafaqat fizika va texnika o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatish, balki o'quvchilarni zamonaviy texnologik jamiyat sharoitida hayotga tayyorlash uchun ham zarurdir. Texnik va texnologik xarakterdagi obyektlar bilan tanishish fizikani o'rganish motivatsiyasini shakllantirishga yordam beradi, o'quvchilarning ilgari o'rganilgan jismoniy hodisalar haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish va tizimlashtirishga imkon beradi.

Jismoniy hodisalar va nazariyalarga kognitiv qiziqishni qo'zg'atish va faollashtirish uchun. Samarali ko'rgazmali eksperiment o'quvchilarning faol kognitiv faoliyatiga turtki bo'lishi mumkin, ayniqsa muammoli xarakterga ega bo'lsa. (masalan, po'lat ignaning suv yuzasida suzishini namoyish qilish suyuqlikning sirt qatlamining xususiyatlarini o'rganish uchun asos bo'lishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatni yaratadi).

Virtual simulyatsiyalar orqali dars mashg'ulotlarini tashkil etishning boshqa uslubiy talablari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilar tajriba o'tkazishga tayyor bo'lishlari shart emas. Eksperiment g'oyasi, uning borishi va olingan natijalar o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi kerak. Shu maqsadda o'qituvchi o'rnatish sxemasini, uning barcha tarkibiy qismlarini tushuntirishi, o'lchov vositalariga yoki kuzatilgan ta'sir sodir bo'lgan elementlarga e'tibor berishi kerak.

2. Iloji bo'lsa, tajribalar bir nechta usullarda o'tkazilishi kerak (ayniqsa, bu o'quv materialini chuqurroq o'zlashtirishga hissa qo'shsa).

3. Darsdagi virtual simulyatsiyalar soni juda ko'p bo'lmasligi kerak. Virtual simulyatsiyalar o'quv materialini o'rganishga hissa qo'shishi va darsdagi asosiy maqsaddan chalg'itmasligi kerak.

4. Agar uskuna imkon bersa, ko'rgazmali tajribalar miqdoriy nisbatlarni o'rnatish bilan amalga oshirilishi kerak.

5. O'quv materialini o'rgatish jarayonida ko'rgazmali blok o'quvchilar oldida yig'ilishi kerak. Faqat juda murakkab uskunalar ishlatilsa, o'rnatishni oldindan yig'ish mumkin (shuning uchun tayyor stendlardan foydalanmaslik kerak).

6. O'rnatish imkon qadar ishonchli bo'lishi kerak.

7. O'rnatish muvaffaqiyatsiz bo'lsa, nosozlikni topish va tezda bartaraf etish va ijobiy natijaga erishish uchun tajribani takrorlash kerak. Agar berilgan sharoitda buning iloji bo'lmasa, o'quvchilarga rad etish sababini tushuntirish kerak va keyingi darsda namoyishni takrorlashni unutmaslik lozim.

8. Maktab sharoiti uchun mavjud bo'lgan ko'rgazmali eksperiment tegishli kino kliplar yoki kompyuter animatsiyalari namoyishi bilan almashtirilmasligi kerak.

Namoyish texnikasi ikkita talabga javob berishi kerak:

- namoyish qilish usuli iloji boricha ilmiy usulga mos kelishi va ishonchli natijalar berishi kerak;

- namoyish davomida o'rnatishning kutilgan va muhim tarkibiy qismlarining maksimal ko'rinishiga erishish kerak.

Adabiyotlar:

1. Bugayev A.I. Metodika prepodavaniya fiziki. Teoreticheskie osnovi. - M.:

Prosveshenie, 1981.- 288-s.

2. Xoroshavin S.A. Fizicheskiy eksperiment v sredney shkole.-M.: Prosveshenie, 1988. – 175-s.

3. Niyazxonova B.E. Dars jarayonida internet axborot resurslaridan foydalanishning tashkiliy-uslubiy jihatlari.

4. Xabibullayev P. va boshqalar. Fizika. 8-sinf uchun darslik. -T.: "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2009. -160-b.

5. Baxramov A. va Yuldasheva M. Fizika. 8-sinf. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. -T.: "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2010. -128-b.

6. Xabibullayev P. va boshqalar. Fizika. 9-sinf uchun darslik. -T.: "G‘ofur Gulom", 2010.-160-b.

7. Baxramov A., Yuldasheva M. Fizika. 9-sinf. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. -T.: "G‘ofur Gulom", 2010. -128-b.

8. Orifjanov U. va boshqalar. Fizikadan savol va masalalar to‘plami. -T.: "Turon Iqbol", 2007. -126-b.

O‘QUVCHILARDA ERTAK VA HIKOYA O‘QISH USTIDA ISHLASHNING METODIK ASOSLARI

Azizova Dilnoz Yo‘ldashevna

Qashqadaryo viloyati PYMO‘MM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Xalq og‘zaki ijodida hikoya mazmunan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o‘qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta‘sirchanligi, o‘tkirliigi, ma‘nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir.

Kalit so‘zlar: Interfaol, didaktik, texnologiya, zamonaviy pedagogik texnologiyalar . Ertakning pedagogik qimmatini, to‘g‘rilik, halollik.

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo‘lib, unda kishi hayotidagi ma‘lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. Hikoya ko‘pincha kishi hayotida bo‘lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroq hayotiydir.

Hikoya mazmunan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarni qahramonning xatti-harakati, tashqi ko‘rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko‘proq qiziqtiradi. Shuning uchun, bolalarni badiiy asar turi bo‘lgan hikoya bilan tanishtirish, uning sujetini tushuntirishga bog‘lab olib boriladi.

Boshlang‘ich sinflarda hikoyani o‘qishga bag‘ishlangan izohli lug‘at darslarida o‘qilgan hikoya mazmunini ochish, lug‘at ustida ishlash, o‘qilgan tekstni qayta hikoyalash asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. Bunda savollar qatnashuvchi shaxsning xatti-harakatini va xarakterini tahlil qilishga qaratilgan bo‘ladi. So‘roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda faktlar, mulohazalar, xulosalarni

taqqoslash, voqea-hodisalar, xatti-harakat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi.

Hikoyani o'qish darsida o'quvchilar ma'nosini tushunmaydigan so'z va iboralar ma'nosini tushuntirish ham muhim, aks holda ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar. Buning uchun, so'z ma'nosini tushuntirishga ko'p vaqt sarflamay, asar mazmunini tushinishda eng zarur bo'lgan so'zni qisqa izoh berish bilan tushuntiriladi.

Hikoyani o'qishda hikoya mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish markaziy o'rin egallaydi. Hikoya o'qilgach, o'quvchilar o'ylashi, o'z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish talab etiladi. O'qilgan asar yuzasidan beriladigan daslabki savollardan maqsad, g'oya bolalarga yoqqan-yoqmagani, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta'sir etgani, bolalar kim yoki nima haqida hikoya qilib berishni istashini bilishdan iborat. Shundan keyingina hikoya syujeti, voqeaning yo'nalishini ochishga, sharoitni, personajlar xarakterini tushinishga, nihoyat, asarning asosiy g'oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi.

Badiiy asarni tahlil qilishda syujetni to'liq tushuntirishga berilib ketib, qatnashuvchilarga xarakteristika, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Savollarni, odatda, o'qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o'quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishini jonlantiradi. Asar mazmunini yaxshi tushunish, o'z fikrini izchil bayon qilish malakasini egallash, mazmun va voqealar orasidagi bog'lanishni to'liq esda saqlab qolishda o'quvchilarga yordam beradi.

Hikoyani o'quvchilar yaxshi o'zlashtirishlari, unda ilgari surilgan g'oyani bilib olishlari uchun tekst bilan ishlash jarayonida tanlab o'qish, savollarga javob berish, hikoya qismiga o'zlari savol tuzishi, so'z bilan va grafik rasm chizish, reja tuzish, qayta hikoyalashning barcha turlaridan, ifodali o'qishga tayyorlanish kabi ish turlaridan foydalaniladi.

Ertak tahlili ustida amaliy ishlar

Ertak xalq og'zaki ijodida eng keng tarqalgan janr bo'lib, ularda kishilar hayotida uchraydigan oddiy hodisalar va fantastik sarguzashtlar hikoya qilinadi. Ertaklarning ko'pida real hayot tasviri fantastik elementlar bilan qo'shib ketadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ertak bilan amaliy tanishtiriladi.

Ertakning o'tkir maroqli syujeti, voqea rivojidadagi favqulodda, ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgu kuchning - yaxshilikning doimo g'alaba qilishi, bolalarni o'ziga tortadi.

Ertakda qabul qilingan hikoya qilish formasi, bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifodali vositalarining jonliligi bolalar uchun juda qiziqarlidir. Ertakda qatnashuvchilar ko'pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo'lgan yovuz, baxil, ochko'z obrazlarga bo'linadi.

Ertakning pedagogik qimmatini shundan iboratki, bolalar unda to'g'rilik, halollik g'alaba qilganidan, kambag'al kishilar qiyinchilikdan qutulganidan, ya'ni yaxshilik, ezgulik ro'yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doim shunday bo'lishini istaydilar.

Ertak bolalarda personajlarning xatti-harakatini muhokama qilib baholash ko'nikmasini o'stiradi. O'quvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida qahramonlardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? Nima uchun? ... nima uchun jazolandi (yoki rag'batlantirildi)? Nima uchun ertakdagi ba'zi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari ham yordam beradi, ba'zilaridan esa, aksincha, yuz o'giradi? kabi savollarga javob berish uchun o'ylaydilar, ertak qahramonlarining xatti-harakatini muhokama qilib, uni baholashga o'rganadilar. Masalan, «Ur to'qmoq» ertagidagi asosiy fikr yaxshilikka-yaxshilik qaytishi, yovuzlik qoralanishini ifodalashdan iborat bo'lsa, «Donishmand» ertagida ahillikka undashdan iborat.

Ertakda xalq o'z hayotini o'zi hikoya qiladi, shuning uchun o'quvchilar ertakni o'qish bilan ma'lum davrdagi xalq hayotini, o'ylari va orzu-istaklarini bilib oladilar. Ertak o'quvchilar nutqini o'stirishda ham katta ahamiyatga ega. Ertak matnida bog'lanishli nutqni o'stirish uchun zarur material beradi. Kichik yoshdagi o'quvchilar ertakni juda qiziqib, obrazli ifodalarni va tasviriy vositalarni, shuningdek, ertakning o'ziga xos sintaktik qurilishini, gap tuzilishini shakllangan holda jonli aytib beradilar.

Boshlang'ich sinflarda hayvonlar haqidagi ertaklar ko'proq o'qitiladi. Anvar Obidjonning «Bo'ringning tabib bo'lgani haqida ertak», «Ko'zacha bilan Tulki», «Olapar, Mosh, Musicha» kabi ertaklar aniq-hayotiy hikoyalar tarzida o'qitiladi va tahlil qilinadi. Matn bilan ishlashda tanlab o'qish, savollarga javob berish, o'quvchilarning o'zlari savol tuzib, javob berishlari, so'z bilan grafik rasm chizish, reja tuzish, qayta hikoyalash, ertak aytish kabi turlaridan foydalaniladi. Bu ertaklarda hayvonlarning odatlari tahlil qilinadi, ammo ularni kishilar xarakteriga taqqoslash tavsiya qilinmaydi.

Maktab tajribasidan ma'lumki, kichik yoshdagi o'quvchilar ertakdagi hayvonlar gapirmasligini, tulki va turna bir-birinikiga mehmonga bormasligini yaxshi biladilar, ammo ertaklar dunyosini hayotiy hikoya kabi qabul qiladilar. Ertakni o'qib, tahlil qilganda, barcha ishlar uning mazmunini yaxshi idrok etishga, syujet rivojini, qatnashuvchi personajlarning xatti-harakati, o'zaro munosabatlarini to'g'ri tasavvur etishga yo'naltiriladi. Ertak ustida ishlashning oxirgi bosqichida «Ertakda sizga juda yoqqan joyini o'qing. Nima uchun yoqqanini ayting. Hayotingizda mana shu ertakdagiga o'xshash voqealar bo'lganmi?» kabi savol-topshiriqlar yordamida o'quvchilarning ertak xulosasini tushunishlariga erishiladi.

Ertak o'quvchilar uchun ertakligicha qolishi va bolalar hayotidagi hodisalarga avtordek yondashishga o'rganishlari uchun shuning o'zi bilan kifoyalanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari hayvonlar haqidagi ertaklardan tashqari, «Davlat», «Tuz haqqi», «Ovchi, Ko'kcha va Dono», «Ilm afzal» kabi ertaklarni ham o'qiydilar.

O'quvchilarni bunday ertaklarni o'qishga tayyorlash ilmiy-ommabop maqolalarni o'qishga tayyorlash kabi bo'ladi (kuzatish, ekskursiya, predmet

darslari), ertakni o‘qish va tahlil qilish badiiy hikoya tarzida uyushtiriladi. Bolalar o‘qituvchi rahbarligida ertakda qatnashuvchilarning xulq-atvori, ayrim xatti-harakatlarini baholaydilar, ularning bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini aytadilar va shular asosida ayrim obrazlar haqida xulosalar chiqaradilar, ertak rejasini tuzadilar, ertak qismlarini rollarga bo‘lib o‘qiydilar.

O‘quvchilar, 4-sinfda o‘qiydigan «Davlat» ertagini olaylik, bu ertak oddiy turmushga tegishli elementlarni tasvirlovchi ertakdir. Ertakda fantastika bo‘lganligi uchun o‘quvchilarni ertakni o‘qishga tahminiy tayyorlashni talab qiladi.

Ertakni o‘qishga tayyorlash uchun ota-bobolarimiz atrofni, tabiatni, borliq dunyoni qanday tasavvur etishlari haqida suhbat o‘tkaziladi. Bunday suhbat ertakdagi badiiy obrazlarni, ularning o‘zaro munosabatlarini, xulq-atvorlari, xarakterlarini to‘g‘ri tushunishga yordam beradi. Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o‘qishgagina emas, balki uni aytib berishga o‘rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og‘zaki nutqni o‘stiradi, bolalar nutqini yangi so‘z va iboralar bilan boyitadi, ona tiliga muhabbatni tarbiyalaydi.

1-sinfdayoq ertak tilidan erkin foydalanishga o‘rgatish uchun ertak bilan birinchi tanishtirishda uni (agar ertak hajmi katta bo‘lmasa) o‘qituvchi aytib berishi mumkin.

Yuqoridagilarni hisobga olganda, ertakni izohli o‘qish darsining ko‘rinishi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- 1) o‘quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash;
- 2) o‘qituvchining ertakni ifodali o‘qishi, yod aytib berishi;
- 3) ertakni o‘quvchilar qanchalik idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o‘tkazish;
- 4) ertakni qismlarga bo‘lib o‘qish va tahlil qilish; undan ayrim tasviriy vositalar, sinonim so‘zlarni topish, ayrim so‘zlar ma’nosini tushuntirish;
- 5) ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichda o‘qish);
- 6) ertakni aytish;
- 7) umumlashtiruvchi suhbat (ertak g‘oyasini ochish);
- 8) ma’lum vazifa bilan ertakni qayta o‘qish;
- 9) vazifani tekshirish va yakunlash (Nima uchun ertakni qiziqib o‘qidik?);
- 10) uyda boshqalarni ham qiziqtiradigan qilib ertakni o‘qib (yoki aytib) berishga tayyorlanish.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta’limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo‘lib, ular zamonaviy o‘qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o‘zaro bog‘liq holda va sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari jarayonida hal qilinadi. Bolalar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning xatti-harakati, xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab yetadilar. O‘qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakatlari qayerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so‘zlab berishga, voqealarning izchil bayon qilinishiga va o‘zaro bog‘liqlikni yoritishga yo‘naltirilishi lozim. O‘quvchi o‘qilgan asar mazmunini o‘qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham

foydalanadi: ayrim faktlarni o‘zaro bog‘laydi (sintezlaydi), bir—biriga taqqoslaydi, ular yuzasidan muhokama yuritadilar va xulosa chiqaradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumaboyev M. “Bolalar adabiyoti” , “O‘qituvchi”, 2004.
2. Oripov O., Obidova M. Ifodali o‘qish. Qo‘llanma. “O‘qituvchi”, 2002.
3. Ubayxo‘jayeva R. A. O‘quvchilarning ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish. 2009. - 40 b.

DARSLARNI SHARQ ALLOMALARI QARASHLARIDAN FOYDALANIB TASHKIL ETISH

Azizova Dilnoz Yo‘ldashevna

Qashqadaryo viloyati PYMO‘MM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Sharq mutafakkirlari o‘z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o‘rin bergan. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug‘ilganda mavjud bo‘lgan bo‘lsa, aqliy bilimi, ma‘naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-odatları, ma‘lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta‘sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi.

Kalit so‘zlar: Sharq allomalari ,Abu nasr Forobiy , Yusuf Xos Hojib, Abu Ali ibn Sino.

Respublikamizda iqtisodiy va demokratik jarayonlarni rivojlantirish, fuqarolarning, ayniqsa jamiyatimizni buguni va kelajagini hal etuvchi yoshlarni iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy - madaniy, ijtimoiy, ilmiy faolligini oshirish eng avvalo ularning ta‘lim - tarbiyasiga bog‘liqdir. Respublikamizning kelajagiga g‘oyaviy asos bo‘ladigan milliy mafkurani shakllantirish va yosh avlodlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloq g‘oyalariga sadoqat ruhida ma‘naviyatli qilib tarbiyalashimiz hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri deb hisoblaymiz. Jamiyatimizning har tomonlama ravnaq topishi va islohotlarning muvaffaqiyati bo‘lajak kadrlarning, ayniqsa yosh avlodning aqliy, axloqiy, huquqiy bilimi, tarbiyasi, jismoniy sog‘lomligi, estetik madaniyati va ma‘naviyatining yuksak darajada shakllanganligiga bog‘liq. Respublikamiz yoshlarining har tomonlama kamolga erishishi, ma‘naviyatli barkamol shaxs sifatida shakllanishi va ularning jamiyatda faol ishtiroklari bevosita, ularga beriladigan maqsadli va to‘g‘ri g‘oyaviy ta‘lim - tarbiyaga asoslanadi.

Demak, inson o‘z hayoti va faoliyatini mazmunli o‘tkazish uchun avvalo o‘zini o‘rab turgan borliqni bilishi, yuksak aql va tajriba egasi bo‘lishi lozim. Chunki inson aqli va uning hayotida muxim o‘rin tutishi, aql-idrok tufayligina inson donolik, teran fikr, rostgo‘ylik, to‘g‘rilik, uzoqni ko‘ra bilish, nafsning ko‘yiga tushmaslik kabi hususiyatlarni amalga oshirishi mumkin. Xalqimizning —Aql insonning ko‘rki,

Aql suvdan tiniq, oynaday ravshanl kabi naqlar bejiz aytilmagan. Shuning uchun ham aql inson uchun g‘oyat oliy ne‘matdir. Aql bilan ilm-ma‘rifat egallanadi, kasb hosil qilinadi, dunyo sirlari o‘rganiladi.

—Aql- yurak ichidagi nur, bu nur bilan haq yoki nohaq bilib olinadil,

—Aql- jonning hayoti, jon esa jasadning hayoti, tan esa jasadning hayoti!!, —Kishining nafi aqldan ustun bo'lsa, undan odamning hayvondan farqi yo'q.

Aql kishining o'z irodasi, qalbi va fikri asosida dunyoviy, hayotiy haqiqatlarni anglash va ularga o'z faoliyatida ma'naviy-insoniy nuqtai-nazardan amal qilishdir.

Aql insonlarning piri komili, murshidi, yagonasidir. Rux ishlovi, aql boshlovchidir. Inson aqli ila din va e'tiqodni mahkam qaladi, shariat hukmlariga bo'ysunadi. Insonlarning do'sti uning aqlidir. Dushmani esa uning nodonligidir.

«Alloh eng g'azab qilgan kishi ahmoqdir. Chunki u eng aziz narsadan maxrumdir». Olimlarning fikricha, aql ikki turli bo'ladi.. Insonni hayvondan ajratib turadigan tug'ma aqli tabiiy va kasbiy bu tabiiydir. Inson tabiatdagi aqlni o'tkirlash va o'stirish faoliyati bu kasbiydir. Bu esa aqlni ishlatish, tajriba va ilm olish bilan xosil bo'ladi. U aqlni rivojlantirish uchun ham xar bir kishi xayotdan tajriba orttirish va ilm ma'rifat o'rganishi zarur, xar kimki, aqlga oshno bo'lsa, u jamiki ayblardan poklanadi, xaqiqatni, anglab, kamolotga yetadi.

Abu nasr Forobiy yozadi: —Aqlli deb shunday kishini aytamizki, unda o'tkir zexn, idrok bo'lishi bilan birga u fazilatli ham bo'lsin. Bunday kishi o'zining butun qobiliyati va idrokini yaxshi ishlarni amalga oshirishga, yomon ishlardan o'zini saqlashga va tortishga qaratgan bo'lmog'i lozim. Shunday odamnigina aqlli va butun fikr yurituvchi deb atash mumkinl.

Bolalarning aqlli bo'lishida oila, maktab, keng jamoatchilikning ta'siri kattadir. Aqlli bolalar qaerda bo'lmasinlar doimo extiyotkorlik bilan bilim va tarbiyali ekanligini namoyish etadilar. Ularni ko'rgan, suxbatida bo'lgan kishilar aqliga tahsin qilib rahmat aytadilar. Shu o'rinda 1447 yili Taft shahrida 5-6 yoshli Alisherning mashxur olim, tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan bo'lgan uchrashuvini misol sifatida keltirish maqsadida muvofiqdir.

Bola mo'ysafidning savollari burro javob berar edi. Uning o'zini tutishi, odobi mo'ysafidga yoqib tushdi.

-Men chaqirganimda o'rtoqlaring qochib ketdi. Sen esa xuzurimga kelding, so'roqlaringga yaxshi javob berding. Shuning uchun senga raxmat, umring uzoq bo'sin, boshing omon bo'lsin. Olim, fozil, bo'lib, yaxshi obro'ga erishgaysan, - mo'ysafid uni duo qildi.

Bundan ko'rinib turibdiki, aqlli bolalar hamma joyda kamolu-ta'zim bilan salom beradilar. Odob bilan munosabatda bo'ladilar.

Haqiqatdan ham, aqlni ishlatgan kishi hayotida faqat ezguliklar qiladi va ezgulik ko'radi.

Bizning bu boradagi eng asosiy vazifamiz yoshlarni ma'naviy barkamol, elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan, yurt istiqboli uchun qayg'uradigan komil insonlarni tarbiyalashimiz, ularni kamol zarur. Zebo, «Ilm, ma'rifat biz uchun bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q yo'qolmaydi ham. Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina oldimizga qo'ygan maqsadimizga erisha olamiz».

Sharq allomalari qarashlaridan foydalanish aytganlaridek, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi. Shuning uchun ham komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz.

Darhaqiqat ilm-ma'rifalilik kuch-quvvat manbai, qalbga nur, o'ziga ziyo bag'ishlaydigan buyuk ne'matdir. Shu sababli ham inson hayotda qunt bilan ilmni o'rganishi tufayli aql-zakovati yuksaladi, baxtli hayot uchun kurashadi.

Bizga ma'lumki, inson hayoti uchun muhim bo'lgan ilm hikmatlarini o'rganishda ota-bobolarimizning faoliyati va ularning yoshlarga ko'rsatgan g'amxo'rliklari beqiyosdir.

Xalqimiz orasidagi quyidagi o'g'itlar insonlarni ilm-ma'rifatga davat etuvchi buyuk kuchdir.

Inson uchun aql, eshik ochuvchi, axloqiy yo'l ko'rsatuvchidir. Yetuk axloq va odob insonning ziynati, donolarning fazilatidir. Aqlli kishi ahloqli bo'lsagina, xalqiga, mamlakatiga, yoru do'stlariga naf keltiradi. Alisher Navoiy o'zining aqli, ibratli axloqi, odobi bilan mamlakatiga, xalqiga hech qachon so'nmaydigan buyuk meros qoldiradi. U o'zi hayot bo'lgan davrlardayoq, aqli va axloqi bilan xalqiga, mamlakatiga ko'p foyda keltirgan.

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o'rin bergan. Xususan, Abu Nasr Forbiy inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug'ilganda mavjud bo'lgan bo'lsa, aqliy bilimi, ma'naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatleri, xarakteri, dini, urf-odatleri, ma'lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta'sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi.

Abu Nasr Forobiyning e'tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o'zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi. Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: «Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri bilan solishtirib ko'radi, o'z bilimlarining chinligini aniqlaydi»². Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o'zlashtirilib borishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: «Ilmlar ko'pdir. Ular zamoni iqqolli bo'lib, turli fikr va xotiralar ularga qo'shib borsa, ko'payadi. Odamlarning ilmlarga rag'bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o'sha iqqolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi».

Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida bilim tushunchasiga sharh berish bilan birga bilimning chuqur o'zlashtirilishi donishmandlik ekanligini alohida qayd etadi: «Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishidir. Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo'ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo'ladigan narsadir. Bordiyu, bu dalillar ochiq-oydin bo'lsayu, isbotlar chinakamiga bo'lsa, u holda bunga hikmat – donishmanlik deyildi».

Ibn sinoning aql va aqliy tarbiyaning tabiiy va psixologik asoslarini aniqlashga xarakat qiladi. Uning fikricha, hayot, hayotiy quvvat uch shaklda: o'simlik, xayvonot va inson shaklida namoyon bo'ladi.

Ibn Sino bolaning ilm-fan yoki xunar egallashga intilishida o'qituvchining unga bilim, xunar o'rgatishi zarurligini uqtiradi.

Ilm fanga intilish insonning eng oliy ma'naviy yuksaklikka ko'taradi, jamiyat ravnaqining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi

Uning fikricha, ta'lim-tarbiya, avvalo, aqliy tarbiyani, yoshlarga ilm-fan o'rgatishni, jismoniy tarbiyani, axloqiy tarbiyani, nafosat tarbiyasini hamda yoshlarni ma'lum hunarga o'rgatish masalalarini o'z ichiga oladi. Axloqiy tarbiya inson uchun nixoyatda muhim ahamiyatga ega.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Saodatga boshlovchi bilim») asari ta'bir joiz bo'lsa, bilimning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, inson kamolotini ta'minlashdagi roli, yozuvliklarni bartaraf etuvchi vosita ekanligi to'g'risidagi qomus sanaladi. Allomaning fikricha, bilimli bo'lish ezgu ishlar tantanasini ta'minlovchi garov bo'lib, uning yordamida hatto osmon sari yo'l ochiladi:

Hamma ezguliklar bilim nafi tufaylidur,
Bilim tufayli, go'yo ko'kka yo'l topiladi.

Ushbu fikrlarni ifoda etganda alloma naqadar haq edi. Zero, oradan to'qqiz-o'n asr vaqt o'tgach, inson nafaqat osmonga ucha oldi, balki koinotni ham zabt etishga muvaffaq bo'ldi. Demak, yaxshi xulqning asosi bo'lgan odob Alisher Navoiyning talqinida barcha insoniy xislatlarning bosh bo'g'ini sanaladi. g'anoat, sabr, tavoze, ishq, vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat, hilm (yumshoq ko'ngillik) kabi ijobiy fazilatlarining odobli, axloqli kishilar qiyofasidagina namoyon bo'lishiga urg'u berib o'tadi. Mutafakkir insonga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy xislatlar xususidagi fikrlarini ularning har biriga to'laqonli ta'rif berish asosida davom ettiradi.

Chunonchi, —qanoat – buloqdir – suvi olgan bilan qurimaydi.

Demak, o'qituvchi dars jarayonini yaxshi tashkil qilishi uchun nafaqat bilimli, balki pedagogik mahorat va pedagogik texnikani yaxshi egallagan bo'lishi lozim. U o'quvchiga qachon va qanday ta'sir o'tkazishni bilishi, shu bilan birga ozroq kuch sarflab, ko'proq natijaga erishish yo'llarini izlashi lozim.

O'quvchilarni bunday o'qitish orqali ulardagi fikrlash jarayonining boyishi aqliy tafakkurning o'sishini bitiruv malakaviy ishimizning amaliy qismini bajarish mobaynida amin bo'ldik

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdumannotov A. Navoiy farzand odobi haqida. Boshlang'ich ta'lim, 1996.

№3, 38-b.

2. Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar adiblar) Mas'ul muharrir: M.Xayrullayev. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1999 y., 400 b.

3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. -T.: O'qituvchi, 1992 22-55 betlar.

CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNING GRAFIK KOMPETENTLIGINI OSHIRISHNING SAMARALI USULLAR

*Xalikov A'zam Abdusalomovich, Bo'riboeva Dilraboixon Norboy qizi
TDPI o'qituvchisi, Guliston davlat universiteti "Amaliy san'at va dizayn"
kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada kompetensiyaning mazmun-mohiyati, kompetentlikka bo'lgan zaruratni yuzaga keltiruvchi sabablar, chizmachilik fani o'qituvchilarining grafik kompetentligini oshirish va ularning ta'lim tizimiga samarali ta'siri haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, pedagog, interfaol metod, malaka, ko'nikma.

Jahon amaliyotida chizmachilik o'qituvchisining grafik kompetentligini rivojlantirishda grafik bilimlar, ob'ektlarning funksional va konstruktiv o'ziga xosligini bilishga asoslangan ko'nikma va malakalar (kompetensiyalar)ni samarali qo'llash, grafik kasbiy yo'nalganlik va faoliyat tajribasi, grafik axborot texnologiyalari bo'yicha erkin ijodkorlik muhitini yaratish, muvaffaqiyatli kasbiy-pedagogik faoliyat, uning ahamiyati va muayyan masalalarga munosabat, chizmachilik o'qituvchisi yo'l qo'yadigan xatolarning oldini olishga qaratilgan korrekktiv mashqlar tizimi alohida ahamiyatga ega. Shu jihatdan oliy ta'lim muassasalarida tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishida o'qituvchilar tayyorlaydigan davlat talim standartlari, malaka talablari, o'quv dasturlarida konstruktorlik va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida grafik kompetentlikni rivojlantirishning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Muhandislik grafikasi ta'limi yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchilarda grafik kompetentlikni rivojlantirishni bilim olishga qiziqish va qobiliyatni, texnologik tayyorgarlikni takomillashtirishga qaratilgan omil sifatida qarash lozim. Muammoni hal etishning muhim omili sifatida muhandislik grafikasi ta'limi yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchilardan pedagogik takomillashish, kasbiy bilimlarni chuqurlashtirish va malakasini oshirish talab etiladi.

Pedagogik va psixologik adabiyotlarda "kompetentlik" (lot. "compete", ingl. "competens" (competents)-qobiliyat, kompetentli, kompetentlar) tushunchasi shunday talqin etiladi: biror narsani muhokama qilmoq, bilimlarni egallash; biror masala haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish; yaxshi ma'lumot berilgan masalalar sohasi; muayyan sohaga tegishli, qobiliyatli, bilimdon va yaxshi o'zlashtiruvchi [6].

Pedagogik lug'atda "kompetentlik" tushunchasiga "muayyan faoliyat sohasida tayyorlik darajasi, to'g'ri va ijobiy natija beruvchi qarorlarga erishish uchun bilim, malakalar va ko'nikmaga ega bo'lgan" deb ta'rif beriladi [7].

Kompetentlik – shaxsning bilimlarda, ilmiy va amaliy faoliyatning tegishli sohasida kasbiy darajada yondashish va samarali tarzda yeshish imkonini beruvchi zarur bilimlar va sifatlari majmui hisoblanadi.[8].

J.Ravenning fikriga ko‘ra, kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlari: muayyan turdagi kompetentlik uchun zarur bo‘lgan motivatsiya, qadriyat yo‘nalishlari va ish sifatlari; insonning jamiyat tarkibidagi ahamiyatiga nisbatan his-tuyg‘ulari va munosabati; ijtimoiy munosabatlar va uning tartibi nimani anglatishini tushunish [9] kabilardan iborat. A.K.Markova professionalizm konsepsiyasini ishlab chiqib, bilim, ko‘nikma, holat, shaxsiy xususiyatlar kabi kompetentlik tarkibini belgilaydi. Bunda holat deganda xulq atvorni belgilovchi munosabatlar tizimi tushuniladi [10].

Talabalarning grafik kompetentligini rivojlantirishda o‘quv mashg‘ulotlari, ayniqsa, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda ta’lim metodlarini tog‘ri tanlash, metodikani puxta o‘zlashtirish muhim ahamiyatga ega. Muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishda ta’lim metodlarini tanlashda quyidagilarga e’tibor qaratildi: o‘qitishning umumiy maqsadlari; alohida o‘quv fanining o‘ziga xos jixatlari va xususiyatlari; o‘quv fanini o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad, vazifalar hamda har bir alohida maxsulot uchun mo‘ljallangan o‘quv materialining mazmuni; o‘quv materialini o‘rganish uchun ajratilgan vaqt hajmi; talabalarning tayyorgarlik darajasi, psixologik va fiziologik ko‘rsatkichlari; o‘qitish jarayonining texnik va texnologik jixozlar (o‘quv jixozlari, ko‘rsatmali qurollar, texnik, kompyuter va boshqa moddiy vositalar) bilan ta’minlanganligi; pedagogning tayyorgarligi va shaxsiy sifatlari darajasi.

Pedagogik tajriba-sinov jarayonida o‘qitishning interfaol metodlaridan maqsadli foydalanish mumkin Modelni joriy etishda muhandislik grafikasi ta’lim jarayonida “kichik guruhlarda ishlash” kabi interfaol metodni qo‘llash asosida samarali natijalarga erishish imkoni mavjud.

“Kichik guruhlard ishlash” metodi- ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

”Kichik guruhlarda ishlash” metodini qo‘llashda bevosita fan o‘qituvchisi yoki “Maxorat darsi”ni olib borayotgan moderator bilan birgalikda chizma (tasvir)ning ayni bir vaqtda xosil qilinishini ta’minlash orqali talabalarda grafik va konstruktorlik ishlarini bajarish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishni nazarda tutildi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi talabalarda chizmachilik fani asoslarini chukur o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirish, o‘quv-bilish faolligini oshirish, axborot (O‘quv ma’lumoti)ni tezkor qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

Kichik guruhlarda ishlash metodini qo‘llash asosida talabalarda grafik ijodkorlik malakalari rivojlantirildi, jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirildi.

Muhandislik grafikasi ta’lim jarayonida “kichik guruhlarda ishlash” interfaol metodlarni qo‘llash samarali natijalarga erishishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. – “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”
2. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T., 2003.
3. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
4. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015.
5. Muslimov Sh.N “Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish” dissertatsiyasi-Toshkent, 2020
6. Хасанбоев Ж. ва б. Педагогика фанидан изоҳли луғат. –Т.: “Фан ва технология” 2009. 672 б
7. Педагогический словарь : учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / В. И. Загвязинский, А. Ф. Закирова, Т. А. Строкова и др. ; Под ред. В. И. Загвязинского, А. Ф. Закировой. - М. : Издательский центр «Академия», 2008. - 352 с
8. Полонский В. М. Словарь по образованию и педагогике / В. М. Полонский. - М. : Высш. шк., 2004. - 512 с.
9. Фрумин И.Д. Компетентностный подход как естественный этап обновления содержания образования. – Красноярск: 2003. – 33-57 с
10. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.: Знание, 1996. – 308 с.

**TO‘GARAK MASHG‘ULOTLARIDA O‘QUVCHILARNI KAMOLIDDIN
BEHZODNING SHARQONA TASVIRIY SAN‘ATI BILAN
TANISHTIRISHNING AHAMIYATI**

Kayumov Erkin Kazakbayevich, Raximjonova Xusnida Odil qizi
Gulistan davlat universiteti o‘qituvchisi, Gulistan davlat universiteti talabasi
email: kayumoverkin@gmail.com, tel: +998 99 367 22 67

Annotatsiya: tezida ilm-fan, san‘at sohalarida iste‘dodli yoshlarni izlab topish ularning ijodiy salohiyatini yurtimiz mustaqilligi va xalqimiz ma‘naviyatini boyitishga yo‘naltirish, g‘amho‘rlik qilish kabilar kun tartibiga qo‘yilganligiga urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim va tarbiya, estetik tarbiya, madaniy meros, komil inson, badiiy meros, yuksak fazilat, tasviriy san‘at, miniatyura san‘ati, ijodiy to‘garak.

Bugungi kunda respublikamizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar o‘quvchilarni insonparvarlik, ona Vatanga muhabbat, jasorat, fidokorlik, vafo, go‘zal hulq ruxida tarbiyalash vazifasini qo‘ymoqda. Chunki bunday xususiyatlar barkamol inson fazilatidir. Mamlakatimizdagi madaniy hayotning yuksalishi esa hozirgi kunda oliy ta’limda tayyorlanayotgan tasviriy san‘at o‘qituvchisi va to‘garak rahbari mutaxassislarni tayyorlashda o‘quv yurtlari oldiga o‘ta dolzarb muammolarni qo‘ymoqda. Bu muammolarni hal etish esa o‘z

navbatida xozirgi zamon talablariga javob bera oladigan tasviriy san'at o'qituvchilarini va to'garak raxbarlarini tayyorlashni talab etadi.

Ajdodlarimiz tarixi bizdan qancha uzoq bo'lmasin va ularning diniy e'tiqodlari o'ziga xos bo'lganligidan qat'iy nazar biz bilan ularni bog'lab turadigan nozik ko'priklar bor. U ham bo'lsa, ular yaratgan ajoyib san'at namunalari, ularning ma'naviy qadriyatlari, umumiy dunyoqarashlarida insoniyat tafakkurining uzviy rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazib kelgan tushunchalari va bilimlaridir [1:45]. Shuning uchun ham zamonaviy tasviriy san'at o'qituvchilarni har tomonlama tarbiyalashda, shakllantirishimizda bunday o'tmish meros namunalariga murojat qilib turishimiz, ularni ta'lim jarayonida nafaqat o'tmish namunasi sifatida, balki uslubiy mukammal vositalar sifatida foydalanishimiz mumkin.

Tasviriy san'at tarixida xalqlarning aloqalarini bog'lab turgan Buyuk ipak yo'lining ham ta'siri katta bo'lgan. Xalqlar o'rtasidagi savdo-sotiq aloqalari, ulardagi har xil asbob-uskuna, qimmatbaho san'at namunalari orqali o'tishi natijasida tasviriy san'atning uyg'unlashuviga olib kelishi tabiiy bir hol edi. Buyuk ipak yo'li orqali xalqlar o'rtasidagi aloqa tasviriy san'atni nafaqat uyg'unlashuviga ta'siri bo'lib qolmasdan, bir-biridan andoza olib, boyib borishiga sababchi bo'lganini Kushonlar davrini o'rganish jarayonida guvoh bo'lamiz.

Tasviriy san'atning ilg'or namunalari qadimgi madaniy taraqqiy etgan o'lkalar Sug'diyona (Zarafshon va Qashqadaryo viloyatlari), Baqtriya (Surxondaryo, Janubiy-G'arbiy Tojikiston, Shimoliy Afg'oniston), Parfiya (Turkmanistonning Ashxobod viloyati, Shimoliy-g'arbiy Eron), Choch (Sirdaryoning o'rta havzasi, hozirgi Toshkent viloyati, Janubiy Qozog'iston) shuningdek Qadimgi Xorazm, Qadimgi Farg'ona xududlarida mavjud bo'lib kelganini ko'ramiz [3:5]. Tasviriy san'at borasida bebaho asarlarini har bir san'at o'qituvchisi bilishi lozim. Chunki O'zbekiston tasviriy san'at tarixi, uning ilg'or o'ziga xos an'alarini o'qituvchilar tayyorlashdagi tasviriy san'at ta'limini mazmunini boyitibgina qolmasdan, ilmiy pedagogik jihatdan to'g'ri talqin qilishning mohiyatini ochib beradi.

O'zbekiston hududiga mansub qadimgi rangtasvir san'ati o'ziga xos bebaho namunalarga ega. Afrosiyob rangtasvir san'ati, Beshiktepa rangtasvir san'ati, Varaxsha san'ati singari o'tmishdagi taniqli musavvirlarning ish tajribasi, bilimi, malakasi, shuningdek pedagogik mahoratiga e'tibor qaratish lozim. Bugungi tasviriy san'at o'qituvchilari salohiyatini shakllantirishda san'atimiz merosidan to'g'ri, unumli va ilmiy asosida foydalanish joizligini zamonning o'zi taqozo etmoqda.

Miniatyura san'atiga kelsak, bu san'at avvalo qog'oz bilan bog'liq. Arab olimi Ibn Nadimning yozishicha, 87 hijriy (melodiy 706) yilda dastlab Samarqandga kelganlarida qog'ozsozlik korxonalarini ko'rar ekan, hayratga tushganligi haqida yozib qoldirgan [4:19]. Bunday ishlab chiqarish ustaxonalari Xiva, Qo'qon, Buxoro, Samarqand, Toshkent va boshqa joylarda mavjud bo'lgan. Xiva xoni Said Muhammad o'z saroyida bir qancha hattotlarni, mohir naqqoshlar va rassomlarni to'plagan ma'lum bo'lib, u kitobga ixlos qo'ygan kishi edi. Uning katta kutubxonasi bo'lib, shu kutubxonada qo'lyozmalar ko'chirilar va bezatilar edi.

Bundan tashqari Buxoro xoni Amir Olimxon saroyida ham mashhur kutubxona bo‘lib, unda juda ko‘p miqdorda kitoblar to‘plangan va hattotlar shug‘ullanganlar.

Tasviriy san‘atning tarbiyaviy vazifalarini yuksak mutaxassislik tayyorgarligiga ega bo‘lgan o‘qituvchi musavvirlar tomonidan amalga oshirilishi, tarbiyaning yanada mazmunli bo‘lishiga turtki bo‘ladi. Agar san‘at turlari orqali estetik tarbiya olib borilmas ekan, bunday ta‘lim sinadi va o‘z ta‘sirini yo‘qotadi [5:67]. Bunday ta‘lim-tarbiyaning mohiyatini ulug‘ mutaxassislar, olimlar, shoiru yozuvchilar, musavvir-pedagoglardan Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Bobur, Samarqandiy, Muzahhib, Xondamir, Behzod, Attor, Ahmad Yassaviy, Abu Nasr bin Arron, Ulug‘bek, Abdulhay, Pir Said Ahmad va boshqalar juda yaxshi tushinishgan. Pir Said Ahmad va Abdulxay kabi rassomlar Samarqanda yashab ijod etgan va ularni

Osiyo miniatyurachilari qatorida eslashimiz mumkin.

O‘tmishdan qolgan va bizning zamonamizgacha etib kelgan tarixiy manba hamda obidalar ota-bobolarimizning juda qadim zamonlardan beri shu zaminda yashab, insoniyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shganliklaridan darak beradi. Ular asrlar davomida o‘zlari to‘plagan hayotiy tajribalarni turli o‘yinlar, ertak va rivoyatlar, kuy va qo‘shiqlar, bayram va marosimlar, maqol va nasihatlar, afsona va dostonlar, noma va bitiklar vositasida kelajak avlodlarga, ya‘ni bizga me‘ros qoldirishgan [2:11]. Bu ma‘naviy boyliklar ajdodlarimiz madaniyatining qanchalik yuksak darajada ekanini ko‘rsatadi. “Tarixiy-madaniy meros to‘g‘risida gap ketganida vorislik tamoyilini, uning milliy o‘zlikni anglashdagi o‘rnini alohida ta‘kidlash lozim” [6:18]. Demak, Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosi deganda nafaqat ular tomonidan aytilgan fikr, yozilgan manba, balki ularning asarlariga oid materiallar ham badiiy ta‘lim uchun tarixiy material sifatida qo‘llanishi mumkin [7:27]. Zero, “Boburnoma”ga ishlangan miniatyuralar yuksak badiiy saviyada yaratilgan, yuqori darajadagi estetik qadriyatga daxldor manba sifatida dunyoning eng nufuzli muzeylarida saqlanishi bugungi kun o‘quvchisi uchun nafaqat estetik zavq beruvchi manba, balki milliy g‘urur tuyg‘usini tarbiyalovchi vosita sifatida ham e‘tiborlidir.

To‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni Kamoliddin Behzodning sharqona tasviriy san‘at uslubi bilan tanishtirishning samarali yo‘llari, pedagogik shart-sharoitlari ko‘rsatib berildi [8:93]. Tadqiqot ishida ilgari surilgan nazariy qarashlar sinfdan va maktabdan tashqari ta‘lim-tarbiya jarayonini mazmunan boyitadi, ushbu jarayonni takomillashtiradi hamda sinfdan va maktabdan tashqari ta‘lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalaridan sinfdan va maktabdan tashqari ta‘lim samaradorligini oshirish borasidagi adabiyotlar, qo‘llanmalar hamda uslubiy ishlanmalarni yaratishda foydalanish mumkin.

Tasviriy san‘atdan sinfdan tashqari ishlar umuman o‘rta ta‘lim tizimida katta va muhim o‘rinni egallaydi. Ular tasviriy va amaliy san‘at, me‘morchilik kabi san‘at turlari bo‘yicha amalga oshiriladi [9:12]. Bu sinfdan tashqari ishlar to‘garak uchrashuv, ko‘rgazma, tanlov, kechalar kabi qator yo‘nalishlarda o‘rkaziladi va ular o‘quvchilarni badiiy-ijodiy extiyojlarini qondirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ulardagi individuallik va inte‘dodni ro‘yobga chiqarishga hizmat

qiladi. shu bilan birga u yoshlarning badiiy estetik fikr doiralarini kengaytiradi hamda didini rivojlantiradi.

Tasviriy, amaliy san'at va me'morchilik tashkil etiladigan to'garaklar umumiy o'rta ta'lim maktablarining barcha sinflarini qamrab oladi. Ular kichik (1-4 sinflar), o'rta (5-7 sinflar), katta (8-9 sinflar) guruhlardan tashkil etiladi va rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, naqqoshlik, ganchkorlik, misgarlik, qashtachilik, yog'och o'ymakorligi, badiiy sopoldo'zlik, shuningdek, me'morchilik, san'atshunoslik to'garaklari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadriyatlar.T.:“Muharrir”, 2008 y.
2. N.Vohidova. Sharq mutafakkirlarining ta'limiy-axloqiy qarashlari. Oliy ta'lim. 2008 y. 8-son.
3. S.Bulatov. O'zbek xalq amaliy be'zak san'ati. T.:1991 y.
4. Sh.K.Shoyoqubov. Zamonaviy O'zbekiston miniatyurasi. T.: “O'zbekiston” nashriyoti 2006 y.
5. N.Jumaboyev. Sharq miniatyura san'atining estetik tarbiyadagi o'rni. “Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali. 1-son. 2022 y.
6. V.Qo'chqorov. Ma'naviyat va milliy o'zlikni anglash. T.: Akademiya, 2008 y.
7. O.Usmonov, A.Madrahimov. Kamoliddin Behzod. T.: 2000 y.
8. N.Jumaboyev. Sharq mutafakkirlarining ta'limiy-tarbiyaviy ilmiy merosini o'rganishning zaruriyati. “UzBridge” elektron ilmiy-ommabop jurnali. 1-son. 2022 y.
9. R.Hasanov. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. T.: 2004 y.

O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA TASVIRIY SAN'AT FANINING AHAMIYATI

Alkarova Feruza Nazarbayevna

p.f.f.d.(PhD), yetakchi ilmiy xodim

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasviriy san'at fanining o'quvchi shaxsini rivojlanishidagi ahamiyati, o'quvchilarning kreativ va ijodiy fikrlashini rivojlantirishdagi o'rni, hozirgi tez o'zgaruvchan, raqamlashgan dunyoda o'quvchilarni tasviriy san'atga qiziqtirishning dolzarb muammolari haqida bayon qilingan.

Tayanch so'z va tushunchalar: tasviriy san'at, grafika, rangtasvir, kompetensiya, qobiliyat, ijodiy fikrlash.

Аннотация. В данной статье рассмотрено значение изобразительного искусства в развитии личности школьника, роль в развитии креативного и творческого мышления учащихся, актуальные проблемы привлечения

учащихся к изобразительному искусству в современном быстроменяющемся, цифровом мире.

Ключевые слова и понятия: изобразительное искусство, графика, живопись, компетентность, способности, творческое мышление.

Abstract. This article discusses the importance of fine arts in the development of a student's personality, its role in the development of creative and imaginative thinking of schoolchildrens, current problems of attracting students to the fine arts in today's rapidly changing, digital world.

Key words and concepts: fine arts, graphics, painting, competence, abilities, creative thinking.

Yurtimizda ma'naviy, estetik va badiiy an'analarni avlod-dan-avlodga yetkazish, o'quvchilarni san'at asarlarini idrok etishga, tushunishga o'rgatish orqali ularda yuksak badiiy madaniyat, estetik did, sog'lom dunyoqarashni shakllantirish ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bolaning rivojlanish bosqichlariga qarab aytish mumkinki, hali fikrini to'liq bayon eta olmaydigan yoshdagi bolalar ham rasm chizadilar, demakki nimanidir tasavvur qiladilar.

XX asrning eng mashhur rassomlaridan biri Ispaniyalik Pablo Pikasso "Har bir bola rassomdir. Muammo shundaki, uning bolalikdan keyin rassom bo'lib qolishi qiyin" deb aytgan. Tasviriy san'at bolalarga o'z his-tuyg'ularini ifoda etish, ijodkorlik va tasavvurni rivojlantirish, harakat ko'nikmalarini yaxshilash, dunyoga yangicha nazar bilan qarashga o'rganish imkonini bergani bilan bolalarning ta'lim-tarbiyasida muhim o'rin tutadi.

Maktab o'quvchilari tasviriy san'at darslarida borliqdagi va san'at asarlaridagi go'zalliklarni ko'ra olish, qadrlash va muhofaza qilishni o'rganib boradilar. Mashg'ulotlar davomida miyaning ijodiy fikrlash uchun mas'ul bo'lgan o'ng yarim shari faol ishlaydi. Tasviriy san'at darslari maktab o'quvchilarini xalq an'analari bilan tanishtirishning samarali vositasidir, chunki ular atrofdagi dunyoning go'zalligini ko'rish va tushunish qobiliyatini uyg'otadi, his-tuyg'ular madaniyatini rivojlantirishga hissa qo'shadi, badiiy va ijodiy qobiliyatlarni, tasavvur va fantaziyani rivojlantirishga yordam beradi.

Nemis pedagog rassomi P.Shmitning "Tasviriy san'at mashg'uloti aql gimnastikasi" degan fikri juda o'rinlidir. Geometrik modellardan foydalangan holda hayotdan chizish usulini batafsil ishlab chiqqan va o'rta maktablarga olib kirgan Shmidning fikricha, rasm chizish nafaqat qo'lning mexanik mashqi, balki u aql gimnastikasi bo'lib, kuzatish, umumiy shakl tuyg'usi, tasavvur ham amalga oshiriladi.

Rasm chizish bolalarning eng sevimli mashg'ulotlaridan biridir. Mutaxassislar bolalar chizgan rasmlarini grafik nutq deb atashadi. Bolalar uchun atrofdagi dunyo haqidagi his-tuyg'ularini, taassurotlarini va fikrlarini plastik, vizual shaklda yetkazish osonroq va erkinroqdir. Grafik til unchalik standartlashtirilmagan, plastik tasvirlar o'z-o'zidan shakllanadi. Har bir bola tabiatan rassomdir. Rasm chizish ularga zavq bag'ishlaydi. L.V.Vygotskiyning so'zlariga ko'ra, rasm chizish "bolalikdagi ijodkorlikning ilg'or shakli".

Mashhur olim B.P.Yusov “tasviriy san’at darslari ijodiy laboratoriya bo‘lib, bola bo‘yoqlar va boshqa badiiy materiallar bilan o‘ynab, ularning xususiyatlari va imkoniyatlarini o‘rganadi, yaratadi, dunyoning barcha qirralarini kashf etadi va rivojlanadi. San’atni o‘rgatishning asosini badiiy tasvir tushunchasi tashkil qiladi, shuning uchun tasviriy san’at darslari bolalarda voqelikka estetik munosabatni shakllantirish, ularda tevarak-atrofdagi hodisalarda go‘zallikni ko‘ra bilish va o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib, go‘zallikni hayotga olib kirish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan” .

Tasviriy san’at fanini o‘qitishning maqsadi o‘quvchilarda tasviriy savodxonlikni rivojlantirish, badiiy tafakkurni yuksaltirish, estetik va emotsional sezgirlikni o‘stirish orqali ijtimoiy hayotda zarur bo‘lgan bilimlarni egallash, ulardan kundalik hayotida foydalanishga o‘rgatishdan iboratdir.

Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi tasviriy san’at va chizmachilik fanlari uchun umumiy qilib ishlab chiqilgan, lekin dasturning amaliy fanlar blokida bu fanlarga alohida ta’rif berilgan va har bir fanga alohida dastur tuzilgan.

Umumiy o‘rta ta’limning tasviriy san’at va chizmachilik fani Milliy o‘quv dasturida amaliy fanlar tavsifi va predmetlar integratsiyasi, amaliy fanlar bo‘yicha bitiruvchilarga qo‘yiladigan talablar, amaliy fanlar orqali o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar (estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi, o‘z-o‘zini rivojlantirish va asrash kompetensiyasi, amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi), tasviriy san’at fanining o‘qitish konsepsiyasi, tasviriy san’at fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim bitiruvchilariga qo‘yiladigan talablar, umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilariga tasviriy san’at fanidan qo‘yiladigan talablar va tasviriy san’at fanining o‘quv dasturi keltirilgan.

Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida o‘quvchi narsalarni e’tibor bilan kuzatishga va ularni idrok etishga o‘rganib, unda o‘z diqqat e’tiborini bir nuqtaga qaratish malakasi shakllanadi. Bu jarayon bolaning ixtiyoriy diqqati barqaror bo‘lishini ham ta’minlaydi. Shuningdek, tasviriy san’at mashg‘uloti o‘quvchilarni e’tibor va zehn bilan faoliyat ko‘rsatishga undab, ularning barcha his-tuyg‘ularini jamlagan holda, o‘zida bo‘lgan nazariy va amaliy bilimlarni ishga solgan holda amaliy topshiriqni bajarishga o‘rgatadi. Butun vujudi, aql-idroki, tasavvur-tafakkuri bilan faoliyat ko‘rsatishga olib keladi. Tasviriy san’atni yaxshi tushungan o‘quvchi teran fikrlaydi, proporsiyani, hajmni va perspektivani yaxshi anglaydi. Uning xayolot dunyosi boy, dunyoqarashi keng bo‘ladi. Demakki, biron bir loyiha ustida gap ketganda ham, u kutilayotgan natijani tasavvurida gavdalantira oladi, yani rasm chizishga qobiliyatli inson har qanday sohada kuchli mutaxassis bo‘la oladi deyish mumkin.

Shu o‘rinda, N.Rostovsevning “Tarix shohidkim, jahonga mashhur geograflar, tarixchi, adabiyotchi, shoir, yozuvchilar, konstruktor va boshqa soha allomalari rasm chizishni juda yaxshi bilganlar” degan so‘zlari o‘rinli bo‘ladi.

Tasviriy san’atning tarbiyadagi roli haqida so‘z ketganda aytishimiz mumkinki, bu fan o‘quvchilarga mukammal, har tomonlama tarbiya berish imkoniyatiga ega bo‘lgan asosiy o‘quv fanlaridan hisoblanadi. Chunki, tasviriy san’at darslarida o‘quvchilar, avvalo, qunt bilan tinglashga va amaliy ishlarni sabr-toqat bilan, ish joyini va o‘quv qurollarini ozoda saqlagan holda bajarishga

o'rgatiladi. Bajariladigan ishning ham did va nafosat bilan bajarilishi talab etiladi. Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarni go'zallikka chorlab, ularni estetik jihatdan ham tarbiyalaydi. Tasviriy san'at darslarida o'qituvchi tasvirlanadigan naturaga, san'at asarlariga va tabiat hodisalariga ijodkor rassom ko'zi bilan ta'rif berib, o'quvchilarda borliqqa, tabiatga, insonlarga, inson mehnatiga va san'atga bo'lgan mehru-muhabbatni uyg'otadi, ularning har narsada go'zallik va nafislikni ko'ra olish qobiliyatlarini shakllantiradi va rivojlantiradi. Agar o'qituvchi darsda rasmi chiziladigan natura, obyekt, kompozitsiya tahlilini yuqori saviyada, ilmiy asosda mohirlik bilan yetkaza olsa, bu darsda o'quvchilar rasm chizish bo'yicha bilim olibgina qolmay, san'atdan, amaliy ish jarayonidan, mehnatdan zavq olishni o'rganadilar.

Tasviriy san'at bolalar tarbiyasida muhim o'rin tutadi, ularning hissiy, ijodiy va madaniy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bolalarning san'atga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirish va ularga ijodiy o'zini o'zi anglash imkoniyatlarini yaratish, ularda dunyoga va o'ziga nisbatan uyg'un munosabatni rivojlantirish, shuningdek, zamon talablariga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun tasviriy san'at fani o'qituvchisining o'zi ham yetarlicha kasbiy ko'nikmalarga, pedagogik mahoratga, psixologik bilimlarga va, albatta, AKT savodxonligiga ega bo'lishi lozim.

Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga, kasbiy mahoratga, boy tajribaga ega tasviriy san'at fani o'qituvchisigina o'z fani orqali bolalarning nafosatga bo'lgan qiziqishini orttirib, ularda ijodiy fikrlash, tafakkur qilish, ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantira oladi va bu bilan u bola iste'dodini yuzaga chiqarishga o'zining munosib hissasini qo'sha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. - М.: 1967. – 96 с.
2. Савенкова Л.Г. Борис Петрович Юсов выдающийся современный ученый: педагог, мыслитель, исследователь. - М.: «Humanity space International almanac», VOL. 1, No 1, 2012.
3. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'atni o'rgatish metodikasi. - T.: «FAN», 2004.
4. Sultanov H.E. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish (tasviriy san'at darslari misolida). // «Zamonaviy ta'lim / Современное образование». - T.: 2016, № 4.
5. Rostovsev N.N. O'rta maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi tarixi. 2 jildli. 1-jild. – M.: «Arap», 2000.
6. <https://roysutton.co.uk/uz/Pikasso-iqtiboslari/>

TARIX DARSLARINI INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANIB O'TISHGA OID TEXNOLOGIK XARITA VA DARS ISHLANMALARINI TUZISH BO'YICHA TAVSIYALAR

Samadov J.R

SVPYMO'MM tarix fani metodisti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix darslarida interfaol metodlardan foydalanib o‘tilgan bir soatlik dars ishlanmasi haqida. Barkamol shaxs hamisha o‘z Vatani kamolotini rivojlantiradi, uning ravnaqi yo‘lida umrini baxshida etishni o‘z burchi deb biladi. Barkamol avlod tushunchasi tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, o‘z davrining komil insoni hisoblanadi. Demak, sog‘lom yoshlar har qachon, har yerda o‘z fikriga, sog‘lom mulohazasiga ega bo‘ladi, xalq va davlat manfaatini himoya qiladi. Uning aql-zakovati, intellekti, teran dunyoqarashi orqali o‘z maqsadiga erishish yo‘llarini qidirib topadi.

Kalit so‘zlar: intellekt, pedagogik texnologiyalar, blits, Dukchi eshon, keys-stadi, evristik, konseptual jadval.

“O‘zbekiston Respublikasining ustuvor siyosati, ta’lim tizimi ish mazmunini demokratlashtirish, XXI asr yoshlarini har tomonlama rivojlangan, yetuk, dunyoviy fikr yuritadigan, bilimli, barkamol shaxslarni jahon ta’lim standartlariga mos ravishda tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir”. Yurtimiz kelajagi, xalqimiz, mamlakatimizning intellektual salohiyatiga, aql-zakovatiga, milliy ta’lim-tarbiya tizimini jahon andozalari asosida takomillashtirish, ta’lim tizimini yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilishga, kadrlar tayyorlashga bevosita bog‘liq. Yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan barkamol tashkilotchi va zukko kadrlarga ega bo‘lishi uchun, avvalo, ta’lim-tarbiya tizimini tubdan o‘zgartirish, uni hozirgi davr talabi darajasiga ko‘tarish zarur va muhimligini hayot taqozo etyapti. Mustaqillik yillarida ta’lim tizimiga ko‘plab tushuncha va atamalar, yangicha qarashlar kirib keldi. Bugungi kunda ta’limning zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkillashtirish va takomillashtirish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bizga ma’lumki, pedagogik texnologiyalarning asosini interfaol metodlarga asoslangan yondashuvlar tashkil etadi. Ta’lim tizimida, ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish – ta’lim samaradorligini oshiradigan innovatsion usuldir. Yoshlarni yangicha ishlashga va tafakkur yuritishga o‘rgatish davr talabi ekanligi birinchi Prezidentimiz tomonidan asoslab berilgan edi. So‘nggi yillarda barcha ta’lim muassasalarida o‘qitish jarayonida interfaol usullardan foydalanish masalasi dolzarb etib ko‘rsatilmoqda. Bu esa interfaol ta’lim asosida tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarni mazmun-mohiyatini to‘liq tushunib yetishga va ularni samarali, qiziqarli, sifatli bo‘lishini ta’minlashga olib keladi. Ushbu metodik tavsiyanomada pedagogik texnologiyalarning ta’rifi, tarkibiy tuzilishlari, interfaol ta’limning tasnifi, uslub, metod, mashq, o‘yin tushunchalari va ularning mohiyati yoritib beriladi. Interfaol usullardagi darslar o‘quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi. Bunday yondashuvlar tarix fanlari o‘qituvchilari uchun muhimdir. Hozirda yangicha metodlarni yoki innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish haqida to‘xtalganda interfaol usullar bilan birga texnika vositalarining qo‘llanilishi tushuniladi. Interfaollik – bu o‘zaro ikki kishi faolligi, ya’ni, bunda o‘quv-jarayoni o‘zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter yordamida) yoki o‘quvchining o‘zaro muloqotiga asosan kechadi. Interfaollik o‘zaro faollik, harakat, ta’sirchanlik, o‘quvchi va o‘qituvchi muloqotlarida sodir bo‘ladi. Interfaol

usulning bosh maqsadi: o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin fikr yuritishiga muhit yaratishidir. U o'zini intellektual salohiyatini namoyon etadi va o'quv sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Interfaollik asosida darsni tashkil etish shunday kechadiki, bu jarayonda birorta ham o'quvchi chetda qolmaydi, ya'ni ular ko'rgan, bilgan, o'ylagan fikrlarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'quvchilar hamkorlikda ishlashda mavzu mazmunini bilish, o'zlashtirishda o'zlarining shaxsiy hissasini qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zaro bilimlar, g'oyalar, fikrlarni almashish jarayoni sodir bo'ladi. Bunday holatlar o'zaro samimiyligni ta'minlaydi, yangi bilimlar olish, o'zlashtirishga havas ortadi, shu jarayonda bir-birlarini qo'llab-quvvatlash, o'zaro do'stona munosabatlar vujudga keladi. O'ylaymizki, ushbu metodik tavsiyanoma tarix fani o'qituvchilarining darslarni samarali olib borishlarida uslubiy yordam beradi. Tayyorgarlik bosqichi (chaqiriq). O'qituvchi mashg'ulot boshlanishida tinglovchilar fikrini o'tiladigan materialga to'playdigan topshiriq beradi. 3-5 daqiqa davomida mavzu bo'yicha o'quvchilarga oldindan ma'lum bo'lgan bilimlarni tahlil qilib, ularni ro'yxat ko'rinishida yozishni taklif qiladi. Muddat o'tgandan keyin o'qituvchi o'quvchilardan o'z g'oyalari bilan o'rtoqlashishni so'raydi va ularni ixcham shaklda doskaga yozib chiqadi. O'quvchilar yordamida to'plangan g'oyalarni kategoriyalarga bo'lish mumkin. Shundan so'ng, o'qituvchi 10-20 daqiqa davomida ma'ruzaning 1-qismini o'qiydi (anglash).

Ma'ruzaning birinchi qismidan so'ng, o'qituvchi o'quvchilarga o'zlarining g'oyalarini ma'ruzadan eshitganlari bilan taqqoslashni so'raydi (fikrlash). Keyingi tayyorgarlik faoliyati (chaqiriq). Endi o'qituvchi o'quvchilarga juftlikda ishlab, ularning oldingi bilimlarini aniqlash va bu bilan ma'ruzaning keyingi qismini eshitish maqsadini belgilovchi qisqa topshiriqlar beradi. Ma'ruzaning davomi - anglash va fikrlashni o'z ichiga olgan sikl qaytarish.

Yakuniy topshiriq (fikrlash). Bu topshiriq turli shakllarda berilishi mumkin. Masalan, 10 daqiqali esse; 5 daqiqali esse; ma'ruzada keltirilgan eng muhim jihatlariga tegishli ochiq savolga javob berishlarini so'rash.

Aqliy hujum.

Aqliy hujum strategiyasi universal uslub bo'lib, uning vazifasi yangi g'oyalarni yaratishdir. Aqliy hujum muammoni hal qilayotgan kishilarning ko'proq aql bovar qilmaydigan va xatto fantastik g'oyalarni yaratishga undaydi. G'oyalar qancha ko'p bo'lsa, ularning hech bo'lmaganda bittasi ayni muddao bo'lishi mumkin. Bu strategiyani qo'llashda o'qituvchi yozuv taxtasiga savolni yozadi va o'quvchilardan berilgan fikrlarini (javoblari) yozib boradi. Auditoriyada aytilgan barcha g'oyalarni yozuv taxtasida yozish paytida o'qituvchi g'oyalarga izoh bermaydi, fikrlar savolga bog'liq holda aytiladi. Asosiy qoidalardan biri, har qanday g'oyani aytish mumkin, fikr hech qanday cheklovlarsiz iloji boricha qattiqroq aytilishi lozim.

Aqliy hujumni ma'ruzalarda - yakka tartibda yoki juftlikda, amaliy mashg'ulotlarda esa 5-8 kishidan iborat kichik guruhlarda ham o'tkazish mumkin. Ushbu strategiya mashg'ulotlarda o'quvchilar faolligini oshirishga, charchoqni yo'qotishga, g'oyani izlashga sharoit yaratadi. Tayanch so'zlar bo'yicha chaqiriq.

U yoki bu mavzu bo'yicha bilimlarni tiklash usullaridan biri "Tayanch so'zlar" bo'yicha chaqiriq pedagogik strategiya hisoblanadi. Uni amalga oshirish uchun o'quvchilarga 4-6 tayanch so'zlar beriladi. O'quvchilar shu so'zlar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishning o'z variantlarini taklif etishadi. Bu mantiqiy bog'lanish 4 daqiqali esseda yoritilishi mumkin. O'ylang (Juftlikda ishleng), Fikr almashing. Bu ancha jadallik bilan bajariladigan birgalikdagi faoliyat bo'lib, o'quvchilarni axborot ustida fikrlashga va o'z fikrlarini sheriklar yordamida - aniq shaklga kiritishga yo'naltiradi. O'qituvchi odatda "ochiq", uzoq fikrlashga undaydigan savolni oldindan tayyorlab qo'yadi va ayrim o'quvchilardan qisqa javoblar yozishni so'raydi. So'ngra, o'quvchilar juftliklarga bo'linib, bir-birlari bilan o'z mulohazalarini o'rtoqlashadilar va ikkala fikrni o'z ichiga olgan yagona javobni tayyorlashga urinadilar va nihoyat, o'qituvchi bir necha juftlikdan (vaqt etishiga bog'liq holda) o'ttiz soniya ichida auditoriyaga o'z ishini qisqacha yakunini bayon etib berishni so'raydi.

"Keys-stadi" metodining o'ziga xos xususiyatlari:

- Izlanishga doir faoliyatning mavjud bo'lishi.
- Jamoaviy va guruhlarda o'qitish.
- Individul, guruhli va jamoaviy ish shakllari integratsiyasi.
- Xilma-xil o'quv loyihalarini ishlab chiqish.
- Muvaffaqiyatga erishish uchun talabalarning o'quv-bilish faoliyatini

rag'batlantirish

Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilar savollar bo'yicha faoliyatni qamrab oladi:

- Kim? (Who?),
- Qachon? (When?),
- Qaerda? (Where?),
- Nima uchun? (Why?),
- Qanday?/ Qanaqa? (How?),
- Nima? (natija) (What?).

Evristik ta'lim metodi: Evristik degan so'zning ma'nosi savol javobga asosan "topaman" demakdir. Evristik metod bilan o'qitish maktablarda asosan XIX asr boshlaridan boshlab qo'llanila boshladi.

Mashg'ulotlar qiziqarli bo'lishi uchun, bu mashg'ulotlardagi har bir masala yoki topshiriq so'zma so'z quruq yodlash uchun emas balki ularning oliy faoliyatlarini ishga soladigan xarakteri bo'lishi kerak. Amerikalik olim D.Poya evristik ta'lim metodi to'g'risida shunday degan edi. Evristikani maqsadi yangiliklarga olib boruvchi metod va qoidalarni izlash demakdir. U evristik metod mohiyatini quyidagidek izchillikda tuzilgan reja orqali amalga oshirishni tavsiya qiladi:

- Masalaning qo'yilishini tushunish;
- Masalaning yechish rejasini tuzish;
- Tuzilgan rejani amalga oshirish;
- Orqaga nazar tashlash (hosil qilingan yechimni tekshirish).
- Bu rejani amalga oshirish jarayonida o'qituvchilar quyidagi savollarga

javob topadilar:

- Masalada nima noma'lum?
- Masalada nimalar ma'lum?
- Masalaning sharti nimalardan iborat?
- Ilgari shunga o'xshagan masalalar yechilganmi?
- Agar shunga o'xshagan masalalar yechilgan bo'lsa, undan foydalanib

qo'yilayotgan masalani yecha oladimi?

Albatta yuqoridagi reja sxema o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi, ammo bu reja-sxema o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantiruvchi birdan bir yo'l bo'la olmaydi.

Tadqiqot metodi: Tadqiqot usuli o'zlashtirish darajasining eng yuqori cho'qqisi hisoblanadi. Bu usul bilan dars o'tilganda o'quvchilar olgan bilimlari asosida hali o'rganilmagan masala ustida yakka yoki birgalashib izlanish olib borishadi, masala yechimiga doir keltirilgan taxminni izlab topilgan dalillar asosida to'g'ri yoki noto'g'riligini tekshirishadi, natijada yangi bilimlar o'zlashtiriladi.

Bosqichlari:

- darsda hammaga qiziqish uyg'otadigan biror obyektning xossasini aniqlash yoki u haqidagi muammoni qo'yish;
- uni o'rganish, tadqiq qilish uchun ma'lumotlar to'plash;
- muammo yoki masalaning yechishga oid taxminlar, bashoratlar qilish;
- har bir bashoratning qanchalik to'g'riligini to'plangan ma'lumotlar asosida tahlil qilish va isbotlash;
- xulosa chiqarish;
- sinf oldida taqdimot qilish.

1. Aqliy hujum yordamida taqqoslashning asosiy parametrlarini aniqlashdir.
2. Keys-stadi metodining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash.
3. Evristik ta'lim metodidan to'g'ri foydalana olish.
4. Tadqiqot metodining afzalliklarini o'rganish.

Bu ko'rinishdagi interfaol ish o'quvchilarning faol ishtirokida bajarilib, analitik fikrlash ko'nikmalarni hosil bo'lishiga yordam beradi.

Konseptual jadval - materialni uyushtirishning samarali usullardan hisoblanadi. Ikkita va undan ko'p jihatlar yoki savollarni taqqoslash taqazo etilganda ushbu usul ayniqsa foydali bo'ladi. Jadval quyidagicha tuziladi: jadvalning vertikal ustunlarida taqqoslanadigan narsalar, gorizontol qatorlarda esa ushbu taqqoslanadigan narsalarning turli xususiyat va xossalari yozib chiqiladi. Bu usuldan ma'ruzani o'qish jarayonida, seminar mashg'ulotlar o'tkazishda hamda mustaqil ta'lim jarayonida keng foydalanish mumkin.

a. XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda Rossiya imperiyasi o'rnatgan mustamlakachilik siyosati mahalliy aholini siyosiy huquqlardan mahrum etdi, milliy, diniy qadriyatlarini tahqirladi

b. 1898-yildagi qo'zg'olon mahalliy xalqlarning mustamlaka jabr-zulmiga qarshi qaratilmagan edi.

c. Dukchi eshon mutaassib dindorlardan emas edi.

d. Mahalliy aholining mustamlakachilik jabr-zulmlariga qarshi norozilik harakatlarining oshkora qo'zg'olon ko'rinishida boshlanib ketishiga 1898-yil 27-

may kuni Muhammad Ali o'z odamlari orqali atrofdagi qishloqlarga xabar tarqatib, qo'zg'olon boshlash vaqti kelganligini e'lon qilishi sabab bo'ldi.

e. Dukchi eshon boshchiligidagi qo'zg'olonchilar uchga bo'linib, ularning biriga Ziyovuddin maxsum boshchilik qildi.

f. Qo'zg'olonga Dukchi eshon nomini olgan Muhammad Ali (1846-1898) rahbarlik qildi.

g. Andijondagi 1898-yil qo'zg'olonidan keyin podsho Nikolay II Turkiston general-gubernatori general-leytenant A.Vrevskiyni lavozimidan chetlatdi.

h. N.Korolkov 1898-yil 20-may kuni qo'zg'olon ko'tarilishining oldini olmaganligi uchun Farg'ona viloyat harbiy gubernatori va bir qancha amaldorlarni lavozimidan bo'shatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" 1997-yil 29-avgust.

2. Ilalov I.N. Tarixiy tadqiqot metodlari va metodologiyasi. Ma'ruzalar matni. Samarqand. 2009.

3. N.Saidahmedov "Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya" T-2002-yil.

4. J.G'.Yo'ldoshev, F.Yo'ldosheva, G.Yo'ldosheva "Interfaol ta'lim -sifat kafolati" Toshkent-2008-yil.

5. Mahmudxo'ja Behbudiy. "Tanlangan asarlar". Toshkent. "Ma'naviyat" 1999-y.

Internet saytlari:

1. <https://zarnews.uz/uz/post/milliy-matbuot-fidoyisi>

2. <https://www.oyina.uz>

3. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri>.

INKLUZIV TA'LIM JARAYONIDA OILA, JAMOATCHILIKNI O'RNI

Muqaddas Sobirova Sharipovna

Namangan viloyati Chust tumani 54-maktab psixologi Tel: 99 607 24 81

email: Chust5dok.sobirova1985@gmail.com

O'zbekiston Respublikasida nogiron bolalar bilan bo'g'liq tahlil vadastlabki baholash ishlari 1996-yilda boshlangan. Hozirgi kunda O'zbekistonda 250000ga yaqin turli ko'rinishdagi nogiron bolalar (16 yoshgacha) ta'lim olish ehtiyojiga ega.

Inkluziv ta'limning asosiy maqsadi – yordamga muhtoj bo'lgan bolalarga samarali bilim olish uchun sharoit yaratishdir.

Mahsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitish maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi ya'ni, resurs o'qituvchi faoliyatini talab etadi. Maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchining muhim vazifalariga nogiron bolalar uchun kerak bo'lgan qo'llanmalar, jihoz bilan ta'minlash, homiy toppish, otalarni maktabga yordam berishga jalb etish, o'quvchilar bilan yakka tartibda individual ishlash va boshqalar kiradi. Ijtimoiy, psixologik va sog'liqni saqlash xizmatlarini muvofiqlashtirish kabi ishlarni amalga oshirishdan iborat. Ushbu ta'lim tizimida bolalarni nuqsonlarini aniqlash ularni muolaja realibitasiya qilish, korreksion- pedagogik omillarni amalga oshirish bo'yisha tegishli mutaxassislar

(maxsus resurs pedagoglar, psixologlar,) muntazam ravishda maktab pedagoglariga yordam berishlari, inkluziv ta'lim nogironlarini ijtimoiy tengdoshlari bilan bir qator ta'lim olishini ta'minlaydi. Muntazam ta'lim jarayoni imkoniyati cheklangan bolalarning shaxshiy xususiyatlariga ko'ra yakka tartib da korreksion metod va moslashtirilgan o'quv reja , dasturlar va boshqa omillardan foydalanib , atrovdagi jamoatchilik bilan birgalikda o'qitishni turli shakllarini tashkil qilish, hamda maxsus yordamchi apparaturalar, linza , lupa , nogironlar aravachalari) turli xil texnik vositalar maxsus ko'rgazmali qurollarni qo'llash asosida amalga oshirilishi nazarda tutiladi. Alohida yordamga muxtoj bolalarni ayrimlarini umumta'lim muassasalarida o'qitish ushuni shart –sharoitlar yaratish lozim . Nogironlikni erta tashxiz qo'yish , mutaxassislar tayorlash , korreksion yordamni amalga oshirish uchun realitatsiya markaz tarmog'ini ko'paytirish, barcha bolalar ushuni sharoitlarta'lim sharoitini yaratish. Inkluziv ta'lim asosan umumta'lim maktablarining odiy sinflarda va o'quvchilarni yashash joyiga yaqin bo'lgan maktablarga olib boriladi, ta'limning rasmiy va norasmiy turlarini tashkil etishning ilg'or tajribalarini rivojlantiriladi .

Inkluziv ta'limga jalb etish global muammolardan biri xisoblanadi. Inkluziv ta'limning asosiy qismi bolalarga bilim olish uchun do'stona munosabat va o'qishga imkon beruvchi muhitni yaratishdir. Maxsus ehtiyojli bolalarning hayotga ilk yoshdan ya'ni 6yoshgacha e'tibor berilsa, ancha yuqori samaraga erishish mumkin. Imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim tarbiyaga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga mos bo'lgan siyosatni ishlab chiqish, inkluziv ta'limni qo'lab quvatlashning asosidir.

Inkluziv ta'limni qo'lab quvatlashda quyidagi masalalarni hal etish lozim:

- Jamiyatda ijobiy munosabatni ishlab chiqish .

- Jamiyatda insonlar orasida nogiron bolalar haqida bilimlarni yetishmasligi oqibatida maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolmoqda . Bundan tashqari nogiron bolalarning qobiliyatlari, huquqlari va ehtiyojlari muntazam ravishda qadrlanmasa, bolalarda o'ziga va qobiliyatlarga nisbatan salbiy munosabat shakllanib boradi.

- Inkluziv ta'limni muhitini rivojlantirish.

Inkluziv ta'limning asosiy qismi – bolalarga bilib olish uchun do'stona munosabat va o'qishga imkon beruvchi muhitni yaratish lozim. Bolalar maktabda bexatar, qiyinchiliklarsiz etib boorish imkoniga ega bo'lishlari lozim. Bundan tashqari , amaldagi umumtalim uslubiyatiga bolani moslashtirishdan ko'ra , dars jadvalini sharoitini, uslubiyatini va o'quv qurollarini o'zgartirish kerak bo'ladi. Bunday o'zgarishlar nafaqat maxsus ehtiyojli bolalar. Balki normal rivojlanishdagi bolalar uchun ham ta'lim sifatini yaxshilaydi. Qisqa qilib aytganda bolaning hayotga ertaroq , e'tibor berilsa, natijasi bolaning keying rivojlanishida samarali ko'rsatadi. Ijobiy namuna bo'la oladigan insonlar obrazini yaratish . Bolada o'ziga ishonch va o'zini qadrlash hissini rivojlantirishda kattalarning qiyofasi juda muhim . Lekin juda ko'p maxsus ehtiyojli bo'lalar o'sib , ulg'ayayotgan bir paytda o'zlariga o'xshagan maxsus ehtiyojli kata odamlarni

uchratmaydilar va katta bo'lish qanday bo'lishni tasavvur ham qila olmaydidilar. Shuning ushun ham ular bilan doimiy ishtirok etib lari kerak .

Mos siyosatini ishlab chiqishga ko'maklashish.

Inkluziv ta'lim tizimini qo'llab –quvatlashda siyosat asosiy ro'l o'ynaydi . Siyosat tomonidan inkluziv ta'limning qo'llab –quvatlashi bu ta'lim tizimini samarasini va rivojini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biri ,ya'ni ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan bo'g'liq,muhim vazifalar va tizimdagi holat xususidagi masalasidir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng , barcha sohalarda bo'lgani kabi ,bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimida ham chuqur islohotlar va o'zgarishlar sodir bo'ldi . O'zbekistonning huquqiy davlat sifatida rivojlanish jarayonida Prezidentimiz har bir fuqoroning manfaatini himoyalashda uning jinsi ,millati, irqi, yoshidan qat'iy nazar qonun ustivorligini ta'minlash ni asosiy omili sifatida belgilangan. Bugun yurtimizdagi har bir bolaga davlatimizning barcha haq huquqlaridan foydalangan fuqoro sifatida qaralishi takidlab o'tilishi lozim. Xalq ta'limi vazirligi tomonidan bajarilayotgan islohotlarga davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan „bola huuqlari to'g'risidagi Konvensiya “ tamoyillari asos qilib olingan.

-kamsitmaslik masalalari, yashash va rivojlanish , bolaning shaxsiy manfaati, bolaning dunyo qarashi kabi jihatlar o'z ichiga qamrab oladi.

Inkluziv ta'lim nafaqat nafaqat ta'lim borasida , balki bolalarning ma'naviy va

jismoniy o'sislari , vositalarni iqtisod qilish borasida ham samarali roqdir. Olib borilgan kuzatishlar asosida biz quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik.

*Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitishni tashkillashtirish;

*o'qituvchi –defektologlar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlarni yo'lga qo'yish;

*Bolalar uchun ta'lim sharoitini yaratish vata'lim samaradorligini oshirish;

*Nogiron bolalar oilasi bilan maktabning uzviy aloqa o'rnatish;

*Ta'lim muassasalari uchun kadrlar yetishtirish;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1 . “Ta'lim hamma uchun milliy dasturini joriy qilish masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konfrensiya materiyallari. Toshkent 2005 yil.

2. Sodiqova G.A. Nurkeldiyeva D.A., Rivojlanish orqada qolgan bolalar diagnostikasi

3. “Maktablarni olqishlab inkluziv maktablardagi nogiron o'quvchilar”. YuNESKO -1999-yil.

QO‘QON XONI ABDURAHIMBIY DAVRIDA BUXORO VA QO‘QON XONLIKLARI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARDA USTRUSHONA TARKIBIGA KIRGAN HUDUDLARNING O‘RNI VA RO‘LI

O.Begiyev

Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchisi

Annotation. It talks about the processes that took place in the 18th century in the Ustrushona region, which has an important place in the history of Uzbekistan. An attempt was made to shed light on the political and social processes that took place in this region. The inhabitants of Ustrushona were particularly important because they were engaged in agriculture and animal husbandry as their main occupation in the ancient and early Middle Ages. Kokan Khan Abdurahimbi also gained this territory with good understanding.

Key words: Ustrushona, Khojand, Oratepa, Istaravshan, Yom, Aqbotabi, Khudoyorkhonzoda, Muhammad Hakimkhan Tora, Abdurahimbi.

Анатация. Рассказывается о процессах, происходивших в XVIII веке в Уструшонском крае, занимающем важное место в истории Узбекистана. Была предпринята попытка пролить свет на политические и социальные процессы, происходившие в этом регионе. Значение Уструшоны было связано с тем, что жители Уструшоны занимались земледелием и животноводством как своим основным занятием в древнем и раннем средневековье. Кокан-хан Абдурахимби также с добрым пониманием получил эту территорию.

Ключевые слова: Уструшона, Ходжент, Оратепа, Истаравшан, Йом, Акботаби, Худоёрханзода, Мухаммад Хакимхан Тора, Абдурахимби.

Anatatsiya. O‘zbekiston Tarixida muhim o‘rin tutgan Ustrushona hududida XVIII asrlarda kechgan jarayonlar haqida so‘z boradi. Ushbu mintaqada kechgan siyosiy va ijtimoiy jarayonlar o‘zaro bo‘g‘liqlikda yoritishga harakat qilindi. Ustrushona aholisi qadimgi va ilk o‘rta asrlarda asosiy mashg‘ulot sifatida dehqonchilik va chorvachilik bilan birday shug‘unlanganligi bois ahamiyati alohida bo‘lgan. Qo‘qon xonni Abdurahimbiy ham yaxshi anglagan holda ushbu hududni qo‘lga kiritgan.

Kalit so‘zlar: Ustrushona, Xo‘jand, O‘ratepa, Istaravshan, Yom, Oqbo‘tabiy, Xudoyorxonzoada, Muhammad Hakimxon To‘ra, Abdurahimbiy.

Mustaqiligimizga erishganimizdan so‘ng biz tariximizga doir har bir voqealarni asl holicha o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldik. Sobiq sovet davrida tariximizga haqqoniylik bilan yondashilmadi sovet tizimiga mos qilib o‘zbek fuqarolariga o‘rgatilgan bo‘lsada, ota – bobolarimiz o‘zligini, o‘z tarixini unutmasdan bizgacha qoldirishga harakat qildilar. Zero tarix bugun va kelajakning ko‘zgusi. Mustaqil hayotimizda buyuk maqsadlar sari intilishimiz uchun sharoyitlarning yaratilganligi hamda buyuk kelajak uchun madaniy – ma’naviy merosga ega bo‘lishimiz darkor. Bugungi kunda ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tarix ilmini o‘rganishga xalqimizning moddiy va ma’naviy merosini boyitishga qaratilgan sayi harakatlarni amalga oshirmoqda. Xususan, 2021-yil 19-yanvar kuni «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish» ga

bag'ishlangan videoselektorda " Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz zarur: milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur...»degan edi. Mana shu haqiqatdan kelib chiqib tarixiy davrda yashab o'tgan ajdodlarimizdan qolgan manbalarni atroflicha o'rganib kelajak avlodga yetkazishdir. Shuningdek davlatimizning har bir go'shasi ming yillik tarixga ega ekanligini hisobga olgan holda tarixiy mintaqalarni to'liq va batavsil yoritish hamdir. Mustaqillikdan so'ng olib borilgan ko'plab tadqiqotlar natijasida yurtimizning dunyo sivilizatsiyasidagi o'rni mustahkamlanib bormoqda. Biz alohida to'xtalib o'tmoqchi bo'lganimiz Ustrushona va uning tarkibiga kirgan hududlarning Vatanimiz tarixida tutgan ulkan o'rnini yoritish. Ayni biz so'z yuritmoqchi bo'lgan XVI-XIX asrlarda xonliklar o'rtasidagi munosabatlarning tarangligi, bu munosabatlarda Zomin, Jizzax, Xovos, Mirzacho'l, O'ratepa, Xo'jand kabi tarixiy o'lkalarning o'rnini o'rganishdir. «Anjum at-tavorix» asarining muallifi Xudoyorxonzoda (Qo'qon xoni Xudoyorxonning o'g'li Muhammadamin yoki Ibn Yaminlardan biri bo'lgan) orqali yetib kelgan ma'lumotlar bizga qiziqqan savollarimizga atroflicha javob beradi. Abdurahimxon davri:asarda 1722 yil 1 yanvar xonlik taxtiga kelgan. Otasi qoldirgan qonuqlarni davom ettirib shu yo'l bilan qo'shin tartibi va ishiga, harbiy asbob va jihozlar bilan lashkarni ta'minlashga yanada ko'proq ahamiyat berdi. Hokimiyatga kelganidan ikki yil o'tgach, katta qo'shin bilan O'ratepa itoatida bo'lgan Xo'jand va Istaravshan tomonga qo'shin tortdi. Uchinchi kuni tongda Xo'jandga kelib, arqon va narvonlar bilan bahodirlar shaharga kirdilar. Oqbo'tabek kechasi bilan pari yuzli Xo'jandlik qizlar bilan majlisu bazm qilib, xurshid yuzli soqilar qo'lidan qizil sharob ichib, hushdan ketguncha mast, g'aflat uyqusida yotar edi. Ho'qand lashkarining muqaddimasi yetib kelib uni asirga oldilar va Abdurahimxonning nusratasar nazaridan olib o'tdilar. Xon uni barcha ko'chu ko'ronlari bilan O'zgand qal'asiga yubordi. Uch yil o'tib u o'z tabiiy ajali bilan u yerda vafot etdi. Xon ukasi Shodibekni kuchli lashkar bilan shu viloyatda qoldirib qaytdi.Boshqa asarlar bilan farq qiladi.Chunonchi, voqea yoritilgan asarlarni ikki guruhga ajratishimiz mumkin. Birinchi guruh asarlarda, Abdurahimbiy Xo'jandni egallagan vaqtda Oqbo'tabiyni qatl ettirgan deb yozilgan bo'lsa, ikkinchi guruhdagi asarlarda, u asir olinib, O'zganga surgun qilinganligi va u yerda uch yildan so'ng o'z ajali bilan vafot etganligini haqidagi ma'lumotlarni ko'ramiz.

Baxor kirgani bilan O'ratepa va Samaraqand yurishi boshlandi. O'ratepaning voliysi Muhammadrahimbek, yuz qabilasi" ning boshlig'i o'zida qarshilik ko'rsatish tobi yo'qligini fahmlab, bir kechada O'ratepa qal'asining g'arbiy darvozasi(qayer?)dan chiqib Hisor tarafiga Shodmonbek va Muhammadaminbeklar qoshiga qochib ketdi(nima sababdan qochdi qanday oralari buzildi). Fozilbek ibn Sodiqbek u yerda hokim etib qo'yildi. Xon bu yerdan Samarqand tomoniga yurish qildi. O'sha vaqtda Abdurahimxon Ho'qandiy qamaldan keyin Samarqandni qo'lga kiritgach, lashkaridan bir guruhini ajratib olib, ilg'or yetib Kattaqo'rg'onni ham zabt etdi. Bu joylarni o'z

tasarrufiga kirgizib, endi Buxoro sari yurish qilmoqchi ediki. 1731-1732 yili quyidagi shartlar bilan sulh imzolandi. Samarqand va Kattaqo‘urg‘on barcha tobioti bilan Abdurahimxon Farg‘oniyga o‘tadi. 1146/1733 yili quyosh javzo burjida (21 mayda javzo kirgan) bo‘lganida Abdurahimxon Toshkand va Turkistonni bosib olish uchun katta qo‘shin bilan harakatga tushdi. Ul zamon Toshkand va uning tobiotida Bahodirxon hukmron edi. Xon Xo‘jandga yetib kelganida mizoji o‘zgarib ketib, tobi qochti (boshqa manbalarda Samarqand). Badan xarorati ko‘tarildi. Tabiblar qancha urinmasin davo topolmadilar, urinishlaridan foyda bo‘lmadi. Voqealar sharxiga doir asarlardagi ma‘lumotlarni uch guruhga ajratishimiz mumkin. Birinchi guruh asarlarda yozilishicha, Abdurahimbiy Samarqanddan Qo‘qonga qaytishda kasallik tufayli Xo‘jandda vafot etadi. Bunga uning Shohizindaga otda chiqishi sabab bo‘ladi. Bu ma‘lumotni Muhammad Hakimxonning “Muntaxab at-tavorix”, Mirzo Olim Mushrifning “Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin”, Muhammad Umar Umidiyning “Tarixchai Turoniy” asarlarida kuzatamiz. Ikkinchi guruh asarlarida yozilishicha, Abdurahimbiy Samarqanddan Qo‘qonga qaytishda Shohizindaga otda chiqishi sabab bo‘lib, kasallikka chalinadi. Bundan foydalangan ukasi Abdulkarimbiy Xo‘jandga yetganida uni o‘ldirtiradi. Bu ma‘lumotni Mirzo Olim Mushrifning “Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin”, Muhammad Umar Umidiyning “Tarixchai Turoniy” asarlarida kuzatamiz. Uchunchi guruh asarlarida yozilishicha, Samarqanddan chiqqan Abdurahimbiy Qo‘qonga yetib boradi. Lekin, Buxoro xonining Samarqandni qayta egallaganini eshitgach, Qo‘qonga yurish qilsa yo‘lini to‘shish maqsadida, qarshi yo‘lga tushadi va Xo‘jandga kelganida kasallik tufayli vafot etadi. Bu ma‘lumotni Muhammad Niyoz Xo‘qandiyning “Ibrat ul-xavoqin”, Muhammad Fozilbekning “Mukammali tarixi Farg‘ona” va Mahdum Hojining “Tarixi Turkiston” asarida kuzatamiz. To‘rtinchi guruh asarida yozilishicha, Abdurahimbiy Samarqandni egallab Qo‘qonga qaytadi va keyingi yil boshida Bahodirxon boshqaruvidagi Toshkent va Turkistonni egallash uchun yo‘lga tushadi. Lekin, Xo‘jandga kelganida vafot etadi. Bu ma‘lumotni Xudoyorxon zodaning “Anjum at-tavorix” asarida ko‘ramiz.

E’tiborlisi, birinchi darajali manbalardagi bunday farqlar, Qo‘qon xonligi tarixiga doir qilingan tadqiqotlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymagan. Chunonchi, V. Nalivkin’, V.M.Ploskix, Y.Qosimov, Sh. Vohidov, B.M.Babajonov, Scott C.Levi kabi tarxchilarning asarlarida bu holni kuzatamiz. Lekin, ushbu asarlarda masalga batafsil to‘xtalib o‘tilmagan.

Masalaga oydinlik kiritish uchun barcha asarlardagi voqeaga doir ma‘lumotlarni atroflicha ko‘rib chiqish lozim. Chunonchi, Tarixchi Muhammad Hakimxon To‘ra tarixiy-biografik va memuar “Muntaxab at-tavorix” asarida Rahimxonning vafoti voqeasini quyidagicha tariflaydi: “Rahimxon katta obro‘ bilan Samarqand sari ravona bo‘ldi. Bu shaharga kirib kelgach, tabiyatida og‘ir bir xastalik paydo bo‘ldi. Ayrimlar aytishicha, u xazrat Qusam ibn Abbos – Alloh undan rozi bo‘lsin - zinalardan otda chiqib borib, shu beadabligi tufayli bunday kasalga muhtalo bo‘lgan. Xullas taniga shu kasallik yopishgach, xon o‘zining noibi sifatida Annaquli dodxoh va mulla Bechorani Samarqandda qoldirib, o‘zi Xo‘qand sari qaytdi. Xo‘jandga kelib tushgach, kasali battar og‘irlashdi va zamona tabiblari

qanchalik davosiga iloj qilmasinlar, hech bir foyda qilmadi. Shu zayl bu dunyo saroyidan borliq kuch-ko‘lonini yig‘ishtirib, ohirat sari yuz tutdi. Murdasini Xo‘qandga elitib, shu shaharga dafn qildilar. Hukumati davri o‘n ikki yil va umri muddati o‘ttiz uch yil bo‘ldi”.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Наливкинъ В. Краткая история Кокандскаво ханства. Казань. 1886. С - 57.
2. Плоских В.М. Киргизы и кокандское ханство. Фрунзе. “Илим”, 1977. С - 71
3. Vohidov Sh. Qo‘qon xonligida tarixnavislik (genezisi, funksiyalari, namoyondalari, asarlari). T.: “Akademnashr”, 2010 y. 12 -13 b.
4. Бабаджанов Б.М. Кокандское ханство: власть, политика, религия. Токио – Ташкент. 2010 г. С - 106-107.
5. Scott C.Levi .Khoqand the rise and fall of. University of Pittsburgh Press. 2017 years. Pp 31.
6. Muhammad Hakimxon To‘ra . Muntahab at – tavorix. (Xo‘qand va Buxoro tarixi, sayohat vaxotiralar) Fors –tojik tilidan tarjimon Shodmon Vohidov. T.: “Yangi asr avlodi”, 2010. 231 b.

QO‘QON XONI OLIMXON DAVRIDA BUXORO VA QO‘QON XONLIKLARI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARDA USTRUSHONA TARKIBIGA KIRGAN HUDUDLARNING O‘RNI VA RO‘LI

Xoliqulov Shohruh, Shaymatov Rustam

IV Sirdaryo akademiy litseyi tarix fani o‘qituvchilari

Annotation. It talks about the processes that took place in the 18th century in the Ustrushona region, which has an important place in the history of Uzbekistan. An attempt was made to shed light on the political and social processes that took place in this region. The importance of Ustrushona was due to the fact that the inhabitants of Ustrushona were engaged in agriculture and animal husbandry as their main occupation in the ancient and early Middle Ages. Alim Khan, knowing Kokan Khan well, captured this area.

Key words: Ustrushona, Khojand, Oratepa, Istaravshan, Yom, Aqbotabi, Khudoyorkhonzoda, Muhammad Hakimkhan Tora, Olimkhan.

Анатация. Рассказывается о процессах, происходивших в XVIII веке в Уструшонском крае, занимающем важное место в истории Узбекистана. Была предпринята попытка пролить свет на политические и социальные процессы, происходившие в этом регионе. Значение Уструшоны было связано с тем, что жители Уструшоны занимались земледелием и животноводством как своим основным занятием в древнем и раннем средневековье. Кокан-хан Олим Хан также с добрым пониманием получил эту территорию.

Ключевые слова: Уструшона, Ходжент, Оратапа, Истаравшан, Йом, Акботаби, Худоёрханзода, Мухаммад Хакимхан Тора, Олим Хан.

Anatatsiya. O‘zbekiston Tarixida muhim o‘rin tutgan Ustrushona hududida XVIII asrlarda kechgan jarayonlar haqida so‘z boradi. Ushbu mintaqada kechgan

siyosiy va ijtimoiy jarayonlar o‘zaro bog‘liqlikda yoritishga harakat qilindi. Ustrushona aholisi qadimgi va ilk o‘rta asrlarda asosiy mashg‘ulot sifatida dehqonchilik va chorvachilik bilan birday shug‘unlanganligi bois ahamiyati alohida bo‘lgan. Qo‘qon xonni Olimxon ham yaxshi anglagan holda ushbu hududni qo‘lga kiritgan.

Kalit so‘zlar: Ustrushona, Xo‘jand, O‘ratepa, Istaravshan, Yom, Oqbo‘tabiy, Xudoyorxonzoada, Muhammad Hakimxon To‘ra, Olimxon.

Mustaqiligimizga erishganimizdan so‘ng biz tariximizga doir har bir voqealarni asl holaticha o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldik. Tarixni o‘rganish esa tarixiy manbalarni tadqiq etish bilan bog‘liqdir. Tarixiy manbalarning katta qismini qo‘lyozma asarlar tashkil etib, ularning tadqiq etilishi yurtimiz tarixini haqqoniy aks ettirishga imkon beradi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov 1998-yil 26-iyunda bir guruh tarixchi olimlar bilan bo‘lgan uchrashuvda xalqning bebaho milliy boyligi hisoblangan minglab qo‘lyozmalarni ilmiy asosda o‘rganishga da‘vat etib: “Hech qaysi bir xalq o‘tmishini o‘rganmay, o‘zining zamon va makondagi o‘rnini aniq belgilab olmasdan, nasl-nasabini, kimligini bilmasdan turib rivojlanishi mumkin emasligini ta’kidlaydi”. Shuningdek, I.A Karimov ushbu uchrashuvda davlatchilik tarixini o‘rganish va qayta tiklash davlat siyosati darajasidagi muhim vazifalardan biri ekanligini quyidagicha bayon etgan edi: «Davlatchilik bugungi kunda o‘ta siyosiy masala bo‘lib turibdi. O‘zbek tarixchilarining bugungi kundagi asosiy vazifasidir. Asosiy maqsad asoslangan tarixini yaratishdir» . - degan edi. Zero, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev aytganlariday: “Biz ajdodlarimizning yorqin xotirasini asrab-avaylab, qalbimizda, yuragimizda abadiy saqlaymiz”. Chunonchi, buning uchun boy tariximiz guvohi, manbalarni chuqur o‘rganmog‘imiz lozim. Darhaqiqat, tarix ilmining rivojlanishi ko‘p jihatdan yozma manbalarning o‘rganilishi va ularning ilmiy muomalaga kiritilishi bilan bog‘liqdir. Malumki, Olimxon Qo‘qon taxtiga o‘tirgach, boshqa sohalar singari qo‘shinda ham islohat o‘tkazadi. “Anjum at-tavorix” asarida yozilishicha, Olimxon tog‘lik Qorateginlik, Darvozlik va Badahshonliklardan iborat o‘n ming kishilik qo‘shin to‘playdi. Ularni “galabahodir” deb nomlab, Mirihazara, Sada kabi, qo‘shin tarkibida lavozimlarni joriy qiladi. Shu tariqa shu vaqtdan boshlab Qo‘qondagi umumiy qo‘shin ikkiga ajraladi. Biri, Ko‘xistoniyatlardan iborat “sipohi jadid” va ikkinchisi, “sipohi qadimiya”. Olimxonning qo‘shin sohasidagi bunday islohati haqida “Ibrat ul-havoqin” asarida ham batafsil to‘xtalib, o‘tiladi. Tojir Xo‘jandiy ham buni tasdiqlagan holda, Olimxonning qo‘shin islohatiga doir boshqa asarlarda uchramaydigan ma’lumot keltiradi: “Misilsiz hashamatli xonning himmat va saxovatlaridan biri shu ediki, ipak matoli kiyim (kimxob) qirq ellik tillo, yungdan to‘qilgan burama salla sakson tillodan yuz tillo bo‘lgan zamonda ham, yaxshi otlar, yungdan to‘qilgan burama salalar-u ipak matoli kiyimlarni o‘z askarlariga mehribonlik bilan ulashardi” Xo‘jandiyning bu bergan ma’lumotlaridan Olimxonning qo‘shinni tashkil etishga alohida e’tibor qaratganligi yana bir bor o‘z tasdig‘ini topadi.

Tojir Xo‘jandiy Olimxonning harbiy yurishlariga ham to‘xtalib o‘tadi. U Olimxonning Xo‘jandga qilgan yurishi haqida shunday ma’lumot keltiradi: “U dongdor amirning nomdorligidan biri shu bo‘lganki, yetti yil davomida

Firdavsmonand Xo‘jand ustiga lashkar tortib, qarama-qarshi ikki tomon orasida ko‘p janglar bo‘ladi. O‘sha vaqtda itoatsiz fuqorolar qattiq jang va jadal bilan qarshilik qilishdiki, har yili xon oy uzangisida (boshida) bu viloyatning g‘allasini shu darajada nobud qildiki, oqibatda hech narsa qolmaydi. Shu darajada janglar va qatillar bo‘ldiki, farishtalar falak tomidan ofarin va taxsin aytadilar. Ohir oqibat, yettinchi yili, kuchili g‘ayrat va shijoat bilan, bir urinishda Xo‘jand viloyati ma‘murasini o‘z taxt tasarrufiga oldi. Bu jangu-jadal yetti yil bo‘lib, bu viloyat fuqarolari tarxon bo‘lishib, umuman soliq olinmaydigan bo‘ldi. O‘z ahdida shu darajada qattiq turdiki, bu qo‘rqmas fuqarolardan sakkiz yil hech nima talab qilinmadi.

Shu o‘rinda masalaga chuqurroq yondashilsa, muallif Xo‘jand nomini tilga olganida unga nisbatan Firdavsmonand tarifini qo‘llaydi. Asarda, boshqa qismlarda ham Xo‘jand, boshqa ulug‘lovchi nomlar bilan uchraydi. Masalaga e‘tiborini qaratgan O‘. Sultonov bunga sabab sifatda uning Xo‘jand viloyatida tug‘ilganligini ko‘rsatadi. Bu muallifning Xo‘jand viloyatining Olimxon davridagi holati haqida bergan ma‘lumotlarining ahamiyatini oshiradi.

Muallif asarida Olimxonning Xo‘jandni qachon va kimdan tortib olganligi haqida ma‘lumot keltirmaydi. Bu esa bizdan ushbu voqea haqida Qo‘qon xonligi tarixiga doir boshqa asarlarni ham ko‘rib chiqishni talab etadi. Chunonchi, “Tarixi Turkiston” asarida Olimxonning Xo‘jandni 1805-yilga kelib egallashga muvaffaq bo‘lganligi keltiriladi. Muhammad Hakimxon To‘raning ma‘lumotlariga tayanadigan bo‘lsak, bu vaqtda Xo‘jandda Bekmurodbiy hokim edi. Ya‘ni uning yozishicha, 1805/1806-yilda Fozilbiyning avlodi O‘ratepa hokimi Bobo parvonachini jiyani Xo‘jand hokimi bo‘lgan Bekmurodbek o‘ldiradi va Xo‘jandni Buxoro amirligiga tobe etgan holda boshqara boshlaydi, lekin, hukumronligi atigi olti oy davom etadi. Ya‘ni, o‘sha yilning o‘zida ichki siyosiy beqarorlikka barham bergan Olimxon Xo‘jandga hujum qiladi. Shaxriston oson egallangani uchun Behmurodbiy besh kun davomida arkda qarshilik qiladi. lekin, foydasi bo‘lmagach sulh tuzib, Xo‘jandni tashlab O‘ratepaga qaytadi. Shu tariqa Xo‘jand Qo‘qonga to‘liq qo‘shib olinadi. Agar Olimxonning 1798-yilda taxtga o‘tganligini va bu voqealarning 1805-1806-yillarda bo‘lib o‘tganligini, bu yillarda bir necha bor Olimxonning Xo‘jandga yurish qilganligini inobatga olsak oraliqdagi vaqt yetti yilni tashkil etadi.

Tojir Xo‘jandiy Olimxonning Chust va Namanganga ham yurish qilganligi haqida ma‘lumot keltirib o‘tadi. Biroq, tavsilotlari haqida batafsil to‘xtalmaydi. Olimxonning Chustga yurishi bo‘yicha boshqa asarlarda batafsil ma‘lumotlar keltiriladi. Lekin, Chust yurishi sabablari biroz chigal. Muhammad Hakimxon To‘raning yozishicha, Xonxo‘janing o‘limi aslida Olimxon tomonidan uyushtirilgan bo‘lib, bundan xabar topgan Norbo‘tabiyning kuyovi Chust hokimi Buzurgxo‘ja isyon ko‘taradi. Olimxonning isyonni bostirish uchun yuborgan dastlabki qo‘shinini Xo‘jabod mavzeyida tor-mor qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” T. 7. – Toshkent. O‘zbekiston. 1999

2. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston”, 2017
3. Niyoz Muhammad Xo‘qandiy. Ibratul Xavoqin (Tarixi Shohruxiy). Tojik tilidan tarjimon, o‘zbek tilidan tabdil, kirish va izohlar muallifi t.f.d. professor Vohidov Sh. T.: “Turon zamin ziyo”, 2014 y
4. Xudoyorxonzoda. Anjum at-tavorix (Tarix yulduzlari). T.: “Fan va texnologiya”, 2014. Fors-tojik tilidan tarjimon Shodmon Vohidov. 160 b.
5. Mirzo Olim Mahdum Hoji. Tarixi Turkiston. T.: “Yangi asr avlodi”, 2009. 61 b.
6. Niyoz Muhammad Xo‘qandiy. Ibratul Xavoqin (Tarixi Shohruxiy). Tojik tilidan tarjimon, o‘zbek tilidan tabdil, kirish va izohlar muallifi t.f.d. professor Vohidov Sh. T.: “Turon zamin ziyo”, 2014 y. 65 b.
7. Muhammad Umar Umidiy . Tarixchai Turoniy. Tabdil muallifi – Sh. Vohidov. T.: 2012. 28 b.
8. Tojir Xo‘jandiy “G‘aroyibi sipoh(qo‘shin ajoyibotlari)” . O‘z.F.A. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sh.I.fondi qo‘lyozmasi. № 5408.- 5a-varoq.
9. Mirzo Olim Mahdum Hoji. Tarixi Turkiston. T.: “Yangi asr avlodi”, 2009. 8, 174 b.
10. Muhammad Hakimxon To‘ra . Muntahab at – tavorix. (Xo‘qand va Buxoro tarixi, sayohat vaxotiralar) Fors –tojik tilidan tarjimon Shodmon Vohidov. T.: “Yangi asr avlodi”, 2010. 283 b.
11. Xudoyorxonzoda. Anjum at-tavorix (Tarix yulduzlari). T.: “Fan va texnologiya”, 2014. Fors-tojik tilidan tarjimon Shodmon Vohidov. 170 b.

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ORQALI KASBIY IJODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Jumaboyev Nabi Pardaboyevich, Ibodullayeva Zarifa Tojikulovna
Gulistan davlat universiteti katta o‘qituvchisi, Gulistan davlat universiteti
talabasi email: nabijumabouev@gmail.com, tel.+998996421785

Annotatsiya: o‘quvchilarni fanga qiziqtirish hamda ularning kasbiy ijodiy faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlarning o‘rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ijodiy faoliyat, innovatsiya, pedagogik texnologiya.

Globalashuv, integratsiyalashuv jarayonlari fan va texnikani yuqori sur‘atlarda rivojlanishi uchun keng yo‘l ochib berdi. Bu jarayonlarga hamohang tarzda jamiyatning turli sohalarida, ayniqsa, ta’lim tizimida ijobiy o‘garishlar kuzatilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, kommunikatsion vositalaridan keng foydalanish, hamda yoshlarning intellektual salohiyatlarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda ma’lum bir maqsad belgilab olinadi va bular hozirgi talab darajasida amalga oshiriladi. Demak, ta’lim-tarbiya oldida loyihalash, ma’lum pedagogik tizimning amalga oshiriladigan loyihasi, qurilishi pedagogik texnologiyadir. Shu nuqtai nazardan qaralganda “shaxsni shakllantirish” ham ma’lum pedagogik tizimning loyihasidir. Ma’lumki, bo‘lajak o‘qituvchilar

tomonidan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni puxta o'zlashtirish uchun o'quvchilarda tanqidiy tafakkur, mantiqiy xotira va ijodiy tasavvurni muntazam rivojlantirib borishda kasbiy ijodiy faoliyatini takomillashtirish muhim o'rin tutadi lozim.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning kasbiy ijodiy faoliyatini rivojlantirishda o'qituvchi juda muhim o'rin egallaydi. Chunki u ta'lim jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi subyekt sifatida o'quvchilarning kasbiy ijodiy faoliyatini ham bevosita boshqarib boradi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning kasbiy ijodiy faoliyatini boshqarish va rivojlantirish juda ko'p omillarga bog'liq. Shunday muhim omillardan biri bu o'z predmetini qiziqarli qilib etkaza olishdir. Zero, qiziqish barcha psixik jarayonlar (idrok, diqqat, xotira, tafakkur, iroda)ning kechishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuni ham unutmaslik kerakki, innovatsion faoliyatini takomillashtirish jarayonida qiziqishlar shaxsning boshqa ichki tuzilmalari bilan murakkab o'zaro aloqaga kirishadi. Shunday ichki tuzilmalar sirasiga o'quvchining nazariy pozitsiyasi hamda kasbiy ijodiy faoliyatining o'quvchi uchun shaxsiy ahamiyati kabilarni kiritish mumkin. Mahoratli o'qituvchi o'z o'quvchilarida ijobiy qiziqishlarini shakllantirish uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak bo'ladi:

- O'quv predmetiga ijobiy munosabat o'quvchi faol bo'lganda, yangi bilimlarni mustaqil izlash va kashf qilish, muammoli topshiriqlarni hal etish jarayoniga jalb etilganda rivojlantirilishi mumkin;

- o'quv fani ham, xuddi boshqa fan turlari singari, xilma-xil bo'lsagina qiziqarli bo'ladi;

- o'qitilayotgan o'quv predmetiga qiziqish paydo bo'lishi uchun yaxlit holda va alohida olingan bo'limlarining kerakligi, muhimligi va maqsadlilikini tushunish alohida ahamiyatga ega;

- yangi o'quv materialini o'tilgan materiallar bilan qancha ko'proq aloqador bo'lsa, o'quvchi uchun u shunchalik qiziqarli bo'ladi;

- o'ta engil yoki o'ta murakkab o'quv materialini o'quvchida hech qanday qiziqish paydo qilmaydi. Ta'lim etarli darajada murakkab, ammo o'quvchining kuchi etadigan bo'lishi kerak;

- o'quvchining ishi qanchalik tez-tez tekshirilib, baholanib borilsa, uning uchun ishlash shunchalik qiziqarli bo'ladi;

- o'quv materialining yorqinligi, hissiyligi, o'qituvchining jonli va hissiy yorqin muloqoti o'quvchiga, uning o'quv predmetiga nisbatan munosabatiga juda

katta kuch bilan ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchi faoliyati obyektining ichki tarkibi va o'ziga xosligi har bir alohida olingan holatlarda o'qituvchi ijodkorligining xususiyatini belgilaydi. Ijodkor shaxs sifatлари haqida fikr yuritgan E.G.Romitsona ularning ijodiy faoliyat jarayonida yuzaga kelishini ta'kidlaydi, shuningdek, har bir ijodiy bosqich insondan muhim shaxsiy sifatlarni namoyon etishni taqozo etadi. Agar o'quvchilar jamoasi, guruhi, alohida o'quvchi bilan ishlashda bir xil ta'sir metodlaridan foydalanilsa, ta'lim jarayonida nafaqat ijodkorlik, balki ijodga o'xshash narsa ham yo'qotiladi. O'qituvchi har doim o'quvchisining rivojlanish darajasi, uning xotirasi, diqqati,

irodasi, maqsadga yo'nalganligi ustidan nazorat qilib boradi. Bunda nimaga asoslanadi? O'qituvchi o'z o'quvchisi - inson haqida shoshib yomon fikrga borishi yoki uni ayblashi mumkin emas. Uning bosh vazifasi – o'quvchini barcha ko'rinishlarida o'rganish va tushunishga harakat qilishdir. O'qituvchilik kasbi o'ylamasdan ish ko'rishni kechirmaydi. O'quvchi qalbiga chuqur kirib borish, uning ruhiyati va xarakterini anglab olish mahoratli o'qituvchiga xos bo'lgan xususiyatdir. Darsda o'quvchi o'quv predmeti va tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarni faol anglab boradi, shuningdek, o'quvchida o'qituvchiga nisbatan muayyan munosabat ham shakllanadi. Ba'zi voqealar uni tashvishlantirsa, ba'zilariga nisbatan u loqayd bo'ladi, nimadir unga yoqsa, nimadirga nisbatan befarq bo'ladi, ba'zi o'qituvchilarni yaxshi ko'rsa, ba'zilariga chidashga majbur. Psixologlar ijobiy his-tuyg'ularni faoliyatga yo'llovchi va ruhlantiruvchi buyuk kuch deb hisoblaydilar.

Ta'limning innovatsion metodlari o'quvchilarning ulkan ta'limiy qudratidan foydalanish va faollashtirish, o'quv jarayoniga musobaqa elementlarini kiritish imkonini beradi. Ta'limning interfaol metodlari ta'limda yangiliklar sirasiga kiradi. K.Angelevskiy fikricha, "... barcha davlatlar ta'limga imkon qadar ko'p yangilik kiritishga intilmoqda... Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy... yondashuvni talab etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiyalardir... Novatorlikka qiziqish uyg'otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta'limning o'zi yangiliklarga boy bo'lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim". Darsda zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi asosida dars samaradorligini oshirish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, fikr-mulohazalar yuritish, munosabat bildirish, ko'nikmasini shakllantirish mumkin. Bunda o'quvchilar o'zlari faol ishtirok etgan holda yakka, juftlikda, kichik guruhlarda muammo va savollarga javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, baholaydi, yozadi, so'zga chiqadi, dalil hamda asoslar orqali quyilgan masalani yoritib berishga harakat qiladi.

Xulosa qilib aytganda shaxsiy qobiliyatlar va sifatlarni shakllantirishga qaratilgan zamonaviy o'qitish texnologiyalari va faol usullarni yaratish hamda ta'lim jarayoniga tadbiq etish, "Ta'lim to'g'risi"dagi qonunda ilgari surilgan asosiy g'oya bo'lib, uning asosini ta'lim sohasini o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos bo'lish, ilm-fan, texnika va texnologiyalar jadal rivojlanishi yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi, mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali kadrlar tayyorlashning ilmiy asoslangan milliy texnologiyasini yaratish tashkil etadi. Aytish joizki, ta'lim texnologiya, agar u hududga moslashtirilgan bo'lsa, boshqa barcha ta'lim (an'anaviy, interfaol va noan'anaviy) usullardan yuqori samaradorligi bilan ajralib, o'quv jarayonini sifatini pedagogning mahoratidan ozod qiladi va ta'lim-tarbiya jarayonini faqat yaxshi va a'lo darajada bo'lishini kafolatlashi bilan birga, uni qayta tiklash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N.Saydaxmedov, A.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. T.: 1999 y.
2. G.Hasanova, D.Haydarova. Xalq ta'limi jurnali 3-son. T.: 2014 y.
3. A.K.Marqova, T.A.Matis, A.B.Orlov. Формирование мотивации учения. М.: 1990 г.
4. Педагогические технологии: понятия, принципы и методы внедрения: Сб. материалов из Интернета./ Сост. С.Махкамова. Т.: 2003 г.
5. K.Xoshimov, S.Nishonova. Pedagogika tarixi. T.: 2005 y.
6. A.Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadriyatlar. T.: "Muharrir", 2008 y.
7. Xalq ta'limi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. T.:2017.

TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARI TAYYORLASH TIZIMIDA, CHIZMATASVIR FANINING AHAMIYATI

B.A.Usmanov

Guliston davlat universiteti o'qituvchi. botirusmanov3@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san'at o'qituvchilari tayyorlash tizimida, ularning chizmatasvir fani to'g'risidagi ilmiy, nazariy va amaliy bilimlarini takomillashtirish, fanining maqsad va vazifalari, uning tasviriy san'atdagi tutgan o'rni va ahamiyati to'g'risida fikrlar yuritilgan.

Tayanch so'zlar: tasviriy san'at, chizmatasvir, ashyo, o'qituvchi, ijodkor, janr, rassom, kompozitsiya.

“Yoshlar, o'zlarini ilm-fan, tasviriy san'atda sinamoqchi bo'lsalar, avvalo, rasm chizishni mukammal bilmoqlari lozimdir”.

Leonardo da Vinchi

Chizmatasvir - tasviriy san'at turlarining asosi hisoblanadi. Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarning “Chizmatasvir” fani to'g'risidagi ilmiy, nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirishdan iborat. Ijodkor – rassom tasviriy san'at turining qaysi birida ijod qilishidan qat'i nazar, chizmatasvirga asoslangan holda ish tutadi. U o'zining kuzatishlarini, biror asar kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda turli chizgilar bilan ifodalaydi.

Ushbu bajarilgan chizmatasvirlari, rejadagi kompozitsiya asarlarini yaratishda rassomga ayni yordamchi manba bo'lib xizmat qiladi. Shundan keyingina bu san'at asari ranglar jilosi orqali tomoshabinga estetik huzur baxsh etadi. Boshqacha qilib aytganda, hech bir rassom o'z asarini chizmatasvirsiz yetuk holga keltira olmaydi. Chizmatasvir boshqa san'at turlari orasida mustaqil ravishda tugallangan dastgohli san'at asari sifatida ham bo'lishi mumkin. Tush, sangina, pastel, qalam va boshqa zamonaviy o'quv qurollari va texnikalari bilan bajarilgan ko'plab mashxur san'at asarlari jahonning turli san'at muzeyi va ko'rgazmalaridan joy olgan. 1-rasm.

1-rasm. Rembrant. “Tegirmon” ofort.. 14.5 x 20.5, Reyksmuzeum rassomlik muzeyi, Amsterdam. 1641 yil

Chizmatasvir mashg'ulotlarida kuzatish, buyumlarni to'g'ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo'l, ong va sezgi organlarini shakllantirishda nafaqat rassomga, balki boshqa tegishli kasb sohasidagi kishilar uchun ham zarur.

Rassom Rembrant va uning ijodi haqida ma'lumot olish uchun QR kodni skanerlang.

Chizmatasvir fani, boshqa mutaxassislik fanlari qatorida bo'lajak rassomlarni tayyorlashda asosiy mezon desak xato qilmagan bo'lamiz. Chizmatasvir mashg'ulot darslari tasviriy san'at sohasidagi o'rta maxsus kasb-hunar san'at maktablari o'quvchilariga nazariy va asosan, amaliy mashg'ulotlar orqali olib boriladi. Amaliy mashg'ulotlar qatorida nazariy bilimlar ham bo'lajak rassomlarga ularning keyingi o'qish va ijodiy faoliyatlarida judayam muhimdir.

Borliqni haqqoniy tasvirlash ko'nikmalarini shakllantirishda, yoshlarga badiiy ma'lumot beriladigan mashg'ulotlar benihoya muhim bo'lib, ularning umumiy dunyoqarashlarini o'stirishda katta ahamiyatga ega. Ularga bu mashg'ulotlar ijodiy rasm chizish san'ati, naturadagi shakllarni haqqoniy obrazlarda tasvirlash mahoratini rivojlantiradi.

Yoshlarga atrofdagi jismlarning hajmini haqqoniy tasvirlash, rasm chizishni o'rganish bilan birga, shakllar, ularning konstruktiv tuzilishi, buyumlarning nisbatlari, perspektiva qonunlarini nazariy jihatdan o'rganishlaridan tashqari, ularning ijodiy ishlarga nisbatan estetik didlarini shakllantirishda ham juda muhim.

Rasm chizish asoslari, narsaning o'ziga qarab bosqichma-bosqich tarzda tasvirlash prinsipida qurilgan. Yosh rassomlarni buyuk ijodkorlar rassomlarning hayoti va ijodiy faoliyatlari bilan tanishtirish, ularning asarlarini chuqur o'rganilib, ulardan nusxalar olish muhim ahamiyatga ega.

Badiiy o'quv dargohlaridagi chizmatasvir mashg'ulotlari mutaxassislik o'quv fanlarining asosi sifatida, bo'lajak yosh rassom o'quvchilarga quyidagi asosiy qonunlarni o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi:

- 1). Kompozitsiya asoslari.
- 2). Chiziqli konstruktiv tuzilish.
- 3). Buyumlarning nisbatlari.
- 4). Perspektiva qonunlari.
- 5). Harakat.
- 6). Bajarilayotgan tasvirdagi yorug' va soyalarning qonuniyatlari.
- 7). Plastik anatomiya.
- 8). Tasvirni metodik ketma-ketlikda to'g'ri bajarish. (2 -rasm). [A.Egamov, B.Boymetov, X.Aminov. "Chizmatasvir", "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent-2007, 9-bet]

2-rasm.

Xulosa qiladigan bo'lsak, bu ko'nikma va malakalar yosh rassomning o'quv dargohida bilim olish davomida o'quv mashqlarini bajarish orqali rivojlanadi va takomillashib boradi. Ushbu bilimlar bo'lajak yosh rassomning o'quv dargohini tugatgandan so'ng, ijodiy ish jarayonida ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Egamov, B.Boymetov, X.Aminov. "Chizmatasvir", "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent-2007, 9-bet

2. Xudayberganov R.A. Kompozitsiya. (Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llama). — T.: — 2007.
3. Toshmuhamedov M. Chizmatasvir. (Oliy o'quv yurti 1-2 kurs, "rangtasvir" yo'nalishi uchun o'quv qo'lanma).

CHIZMATASVIRDA VOQELIKNI HAQQONiy TASVIRLASH

B.A.Usmanov, M.M.Mavlonova

Guliston davlat universiteti o'qituvchi botirusmanov3@gmail.com

Guliston davlat universiteti 69-23 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola chizmatasvir fanining maqsad va vazifalari, uning tasviriy san'atdagi tutgan o'rni va ahamiyati, fan orqali tasviriy san'at asosini va voqelikni haqqoniy tasvirlash xususida yoritilgan.

Tayanch so'zlar: tasviriy san'at, chizmatasvir, ashyo, natura (qiyofachi), ijodkor, talaba, rassom, kompozitsiya, natyurmort.

Badiiy ta'limga ixtisoslashgan o'quv maskanlarida o'rganilayotgan maxsus fanlar orasida chizmatasvirga alohida e'tibor berilayotganligi bejizga emas, chunki bo'lajak rassom-o'quvchi (talaba), eng avvalo, chizmatasvir orqali tasviriy san'at asosini va voqelikni haqqoniy tasvirlash mahoratini egallaydi. Ijodkor rassomda mahorat, yuksak kasbiy va umumiy madaniyat bo'lmasa, mukammal realistlik asarlar yarata olmaydi. Talaba o'quv chizmatasvirini ishlarkan, natura (qiyofachi)ni o'rganish bo'yicha vazifani to'g'ri hal etishida to'siq bo'luvchi qiyinchiliklarga duch keladi. Bunday to'siqni yengib o'tishda yordam berish, talaba (o'quvchi)larni chizmatasvirida ishlash uchun keng tarqalgan ashyolari bilan tanishtirish, ulardan to'g'ri foydalanishga o'rgatish masalalari o'quv qo'llanmaning asosiy maqsadidir.

O'quv chizmatasvirini ishlashda ham sodda, ham nisbatan biroz murakkab bo'lgan usullar hamda turli ashyolardan foydalaniladi. Uzoq va qisqa muddatli o'quv natyurmort qo'yilmalari, ustaxonada natura (qo'yilma)ning o'ziga qarab bajariladigan xomaki nusxalar hamda TMI(talabaning mustaqil ishi) o'quvchiga turli ashyolar bilan ishlash usullarini o'rganish uchun keng imkon beradi. Chizmatasvir bo'yicha turli topshiriqni samarali bajarishda, to'g'ri tanlangan ashyo munosib sharoit yaratadi. Dastlabki kurslarda talabalar o'quv chizmatasvirlarni avval grafitli qalam bilan bajargan ma'qul. Ko'mir, sangina, sous singari murakkabroq bo'lgan quruq ashyolarga o'tishdan oldin oddiy qalam bilan ishlash kerak bo'ladi. Umuman, chizmatasvir uchun ashyo tanlashda dastlabki bosqichlarda, topshiriqning xususiyati, talabaning tayyorgarlik darajasini hisobga olish zarur bo'ladi. Ustaxona (OTM auditoriyasi)da takroriy bajariladigan xomaki chizmalar, talabaning mustaqil ishlari (TMI, uy vazifalari)da chizmatasvirga oid ashyolarining xususiyatlarini o'rganish uchun imkoniyatlar ochadi. Xomaki nusxalar bajarish orqali talabaning badiiy tasavvuri oshiriladi, uning o'ziga xos bo'lgan ishlash yo'llari ochib boriladi. Talaba o'ziga ma'qul bo'lgan ish uslubini, xomaki nusxalar ishlash asnosida hosil qilib boraveradi.

“Chizmatasvir ishlash uslubi faqat o‘quv natyurmort qo‘yilmalari, xomaki nusxalar va uy vazifalarini ishlash chog‘idagina hosil bo‘lmaydi. Bunda qadimgi rassomlarning grafik asarlarini oqilona o‘rganish va ulardan nusxa ko‘chirish ishlari ham katta foyda berishi mumkin. Hozirgi davrgacha yetib kelgan chizmatasvir ishlash usullarining turlari Italiya Uyg‘onish davrida vujudga kelgan. O‘sha davrlardayoq chizmatasvirda bistr, tush, turli siyohlar, akvarel, belila; quruq ashyolardan - qalay, kumush va boshqa metall o‘zaklar, grafit, italyancha qalam, sangina, ko‘mir, bo‘r, pastel; o‘quv qurollardan — mo‘yqalam, g‘oz pati, qamish, turli ranglardagi qog‘ozlar keng qo‘llanilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bularning barchasi chizmatasvir ishlash va badiiy uslublarning boyishiga olib keldi. Uyg‘onish davrida vujudga kelgan chizmatasvir ishlash uslubi keyingi avlod rassomlari ijodiga kuchli ta‘sir qildi, ko‘pgina san‘at maktablariga asos bo‘lib qoldi, ular esa aynan shu ashyolardan foydalanib, o‘zlarining badiiy va chizmatasvir ishlash uslublarini yaratdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.Egamov, B.Boymetov, X.Aminov. “Chizmatasvir”, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent-2007, 9-bet
2. X.Aminov. “Chizmatasvir”, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent-2007, 4-bet

O‘QUVCHILARNI KRITIKAGA O‘RGATISH

Uralov Azamat Begnarovich

Sirdaryo viloyati pedagogika markazi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Mavzu doirasidagi bir termin 4K medilidir. 4K – XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirib beradi. 4K ning tarkibiy qismlari 4 ta “k” dan iborat bo‘lib, kommunikativlik, kollabaratsiya, kreativlik va kritikani qamrab oladi. Fikr (mavzu) doirasiga kirivchi kritika haqida bir oz to‘xtalamiz.

Kritik (tanqidiy) fikrlash. Ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o‘rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtayi nazarini shakllantiradi. Yangi innovatsion yondashuvni O‘zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o‘rganilgan. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta‘limi ilg‘or mamlakatlar o‘quvchilarda 4K tamoyilini o‘z ichiga olgan XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga asosiy e‘tibor qaratildi.

Kreativ fikrlashning afzal tomonlaridan yana biri o‘quvchiga yodlatish usuli bilan emas, izlanish va kashfiyotchilik qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash orqali asosiy bilimni egallashga erishishdir. PISA – 2022 tadqiqotlari faqatgina 15 yoshli o‘quvchilarning kreativ fikrlash jarayoniga ko‘proq e‘tibor qaratildi. Bu xalqaro tadqiqot faqatgina ijodkor o‘quvchilarni ajratmasdan, balki o‘quvchilarning fikrlashini orttirish hamda fikrini ifodalashda va bu kabi qobiliyatlarini o‘qitish jarayoni maktab faoliyati yoki ta‘limning boshqa xususiyatlari bilan qanchalik uzviylikini baholadi. PISA tadqiqotlarining oldidagi asosiy ishi ta‘lim sohasi va pedagogikada katta natijalarga erisha oladigan kreativ fikrlash ko‘nikmasiga

tegishli xalqaro darajadagi ma'lumotlar berishdan iborat. Shuni takidlash kerakki, kreativ fikrlash ko'nikmasi ta'lim olish jarayonida shakllanishi, uning o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini o'qitish jarayonida kreativ fikrlashining imkoniyatlari aniq natijalarga olib keladi. Bu jarayonda o'quvchilarning o'zlashtirishidan kelib chiqqan holda, beriladigan topshiriqlar maktabda o'qitiladigan fanlar bilan uzviy bog'langan bo'lishi, amaliy hamda test topshiriqlari sinfda yoki sinfdan tashqari bajariladigan topshiriqlarga yaqin oddiy va sodda bo'lishi kerak. Testlarda mulohaza qilish, baholash uchun zarur topshiriqlar bilan ishlash jarayonida beriladigan ma'lumotlar o'quvchini kreativ fikrlashini rivojlantirish darajasida bo'ladi.

Yozma ifodalash. Maktab va maktabdan tashqari muhitda yozma ifodalash kreativ ifodalashning tabiiy usulidir. Bu orqali o'quvchilarda kognitiv, nutq, muloqat qila olish va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishga erishiladi. Haqiqiy kreativ yozuvchi yozgan yozma ifoda tushinishga oson, tavsilotga boy va eng muhimi mantiqiy bog'liqlikka tayanadi. Kitobxondan esa tasavvur qilish va tushinishgina talab etiladi. Yozma ifodani yaratayotgan yozuvchi yozuvida kechayotgan voqea jarayonlarning mazmun mohiyatiga hattoki o'z g'alar kechinmalari va matnlariga javobgar bo'ladi. Kreativ yozuvchi yaratgan kreativ yozmalar orqali kitobxon borliqni anglash umumiy qilib aytganda, hissiy va intellektual qobiliyatlarga ega bo'ladi. Yozma kreativlik o'quvchiga hayotni to'raligicha anglash, hamda ijtimoiy muhit bilan muloqat qilish kabi yutuqlarni beradi. Ona tili darslarida bu jihatlarni shakllantirib borish vazifasi aynan sizga yuklatiladi.

Bizga ma'lumki, kreativ fikrlash o'quvchida mantiqiy va tanqidiy fikrlashga asos bo'ladi. Ta'lim jarayonida kreativ fikrlash imkoniyati va uning namoyon bo'lishi quyidagicha: Maktablar kreativ fikrlash konikmasi, aqliy ko'nikmalar, bilim sohasining tayyorligi (ma'lum sohaga tegishli bilim va tajriba), yangi goyalar va tajribalarga nisbatan ochiqlik, boshqalar bilan ishlash konikmasi yoki boshqalar fikri bilan kelishish (hamkorlik, kollabaratsiya), qiyinchilikka duch kelganda o'z maqsadiga erishishga harakat qilish, insonning ijodkorlikka nisbatan qobiliyatiga ishonish (maqsadga yo'naltirilganlik va ishonch) shu bilan birga, topshiriqni bajarishga ragbatlantirilganlikni o'zlashtirish uchun oquvchilarning ichki imkoniyatlarining turli jihatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Sinfda kreativ fikrlashni bunday o'ziga xos tarzda namoyon etuvchi omillar bir-biriga o'zaro chambarchas bog'langan bo'ladi. Kreativ fikrlashni ijtimoiy jihatdan rag'batlantiruvchi omillar umumiy madaniy tartiblar yoki qonuniyatlar yordamida o'z-o'zidan shakllanib boradi. Ta'lim olish jarayonida o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini ragbatlantirilishi ularning yaratuvchanlik qobiliyatlariga bo'lgan ishonchini, o'zini o'zi boshqarish xususiyatlarida va faoliyatlarida, jumladan, qat'iylik va sabr-matonatda samaradorlikni oshirishga qaratilgan bo'lib, bu o'z navbatida, oquvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillar qayidagi tarzda shakllanishi va mustahkamlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ichki ijodiy samaradorlik insonni biror vazifani ijodkorona amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi uchun kerakli ishonchga nisbatan aytiladi. Maqsadga yo'nalganlik va kreativlik borasida o'z-o'ziga ishonch bir-biri bilan chambarchas bog'langan

bo‘lib, ayrim tadqiqotchilar insondagi ichki ijodiy samaradorlikning qiyinchilikka qaramasdan harakat qilishi va nihoyat oldiga qo‘ygan vazifani to‘liq bajarishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaydi. Insondagi bunday qat‘iy ishonch, o‘z navbatida, insonda mavjud bo‘lgan tirishqoqlik, kayfiyat va bajarilishi kerak bo‘lgan vazifaning ijtimoiy holatiga bog‘liq bo‘ladi.

Mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya tizimiga e‘tibor berilib, o‘quvchi yoshlarimizning jahon andozalariga mos ravishda zamonaviy bilim va kasb-hunarli bo‘lishi, jismonan va ma‘nan yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi, ularning qobiliyat va iste‘dodini yuzaga chiqarish ularning qalbida vatanparvarlik, insoniylik, kasbiga fidoiylik tuyg‘ularini rivojlantirish kabi ulkan ishlar rejalashtirilib, ketma-ketlikda amalga oshirilmoqda.

Dunyoning turli mintaqalarida kreativ tushinchalar insoniyat madaniyatining ravnaq topishiga, tabiiy, falsafa san‘at va gumanitar fanlarning rivojlanishiga asos bo‘ldi. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy fikrlashdan farq qiladi. Kreativ fikrlash bilim va tajribaga asoslangan haqiqiy kompetensiya bo‘lib, insonlarning keskin va murakkab vaziyatlarda kutilgan natijalarga erishishga sharoit yaratadi. Ta‘limning vazifasi o‘quvchilarni kelajakda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zaruriy kompetensiyalar bilan ta‘minlashdan iborat. Bular sababli ular globallashuv jarayonida tez o‘zgarib borayotgan, savodxonlik va raqamlash ilgari surilgan va hozirgi zamon talablariga ega moslashuvchan ishchilarni dunyoga moslashishiga yordam beradi. Kreativ fikrlashni o‘quvchi yoshlar egallashi natijasida ularda dolzarb muammolarni yechish uchun yangi texnologiyalardan foydalanib, hali yaratilmagan sektorlarda ishlash, shu qatorda mashina bajara olmaydigan ishlarni bajarish va global muammolarni yechish qobiliyatlari rivojlanadi. Maktablarda ham o‘quvchilarni kreativ fikrlashga bo‘lgan ehtiyoji maktab bozori talabidan kelib chiqqan holda ortmoqda. Maktablarning jamiyat hayotidagi ahamiyati shundan iboratki: o‘quvchilarni jamiyatning bir qismi ekanligini his qilgan holda, jamiyat ravnaqi uchun o‘z hissalarini qo‘shish va uning oldidagi burchlarini bajarish kabi tuyg‘ularni ularda oshirishdir. Xalqaro tadqiqotlar esa o‘quvchilarda kreativ fikrlashini oshirish orqali ularning, tajribalar, hodisalar va shu qatorda vaziyatlarni yangicha uslubda yondashishini ta‘minlaydi, bilim olishiga yordam beradi. O‘quvchining fikrlashi, qiziquvchanligini tezlashtirish va rag‘batni oshirish uchun uning ijodkorlik imkoniyatlari shuningdek yangicha qirralarini ochib beradigan yangi uslubdagi texnologiya va o‘rganish shakllari shakllantirilishi kerak. Bu kabi rivojlanish uslublari ta‘lim olishi sust o‘quvchilarni o‘z fikrini ifodalash hamda qiziqishlarini ortishiga yordam beradi. Kreativ fikrlash ham boshqa qobiliyatlardек maqsadli va amaliy bo‘lishi mumkin. Bazi o‘qituvchilar nazarida o‘quvchini kreativ fikrlashini oshirish o‘quv dasturidan tashqari boshqa faoliyat turiga jalb qilishdek ko‘rinadi. Aslini olganda esa, o‘quvchilar mavjud hamma fanlar kesimida kreativ fikrlay olish qobiliyatlari hisobga olinadi. Kreativ fikrlashning avzal tomonlaridan yana biri o‘quvchiga yotlatish usuli bilan emas, izlanish va kashfiyotchilik qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash orqali asosiy bilimni egallashga erishiladi.

O‘quvchilarning fikrlash jarayonlarini baholab borish, samarali va mahsuldor g‘oyalar topishga yordam beradi. Bu jarayonlarda yangi g‘oyalar topiladi yoki

mavjud g'oyalarni qaytadan shakllanadi. Takrorlash va baholash jarayonlari kreativ fikrlashning asosi bo'la oladi. Tashqi tomondan boshqa shaxslar beradigan g'oyalardagi kamchilik va qulayliklarni aniqlay olish qobiliyati tufayli hosil qilingan ko'nikma jamoa bo'lib ishlashning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida kreativ fikrlash imkoniyati va uning namoyon bo'lishi quyidagicha Maktablar kreativ fikrlash konikmasi, aqliy ko'nikmalar, bilim sohasining tayyorligi – bilim va tajriba, yangi goyalar va tajribalarga nisbatan ochiqlik, boshqalar bilan ishlash ko'nikmasi yoki boshqalar fikri bilan kelishish (hamkorlik), qiyinchilikka duch kelganda o'z maqsadiga erishishga harakat qilish, insonning ijodkorlikka nisbatan qobiliyatiga ishonish shu bilan birga, topshiriqni bajarishga rag'batlantirilganlikni o'zlashtirish uchun o'quvchilarning ichki imkoniyatlarining turli jihatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Sinfda kreativ fikrlashni bunday o'ziga xos tarzda namoyon etuvchi omillar bir-biriga o'zaro chambarchas bog'langan bo'ladi. Kreativ fikrlashni ijtimoiy jihatdan rag'batlantiruvchi omillar umumiy madaniy tartiblar yoki qonuniyatlar yordamida o'z-o'zidan shakllanadi, ta'lim olish jarayonida o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rag'batlantirilishi ularning yaratuvchanlik qobiliyatlariga bo'lgan ishonchini, o'zini o'zi boshqarish xususiyatlarida va faoliyatlarida, jumladan qat'iylik va sabr-matonatda, samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Bu o'z navbatida, o'quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillar quyidagi tarzda shakllanishi va mustahkamlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ichki ijodiy samaradorlik insonni biror vazifani ijodkorona amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi uchun kerakli ishonchga nisbatan aytiladi. Shu sababli o'quvchilarda kreativ fikrlashga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada his etilmaydi.

Kreativ fikrlovchi o'quvchilarni tavsiflovchi shaxsiy xususiyatlarni aniqlashga doir juda ko'p adabiyotlar mavjud. Kreativ o'quvchilarning shaxsiyati haqida xulq-atvorini o'rganuvchi empirik tadqiqotlarda, odatda anketa vositalaridan foydalaniladi va ijodkorlikni nisbatan barqaror shaxsiyat fazilati sifatida ishlatadi. Ko'pchilik kreativ o'quvchilar fikrlashga va shuning bilan birgalikda, "ochiqlikka" ishtiyoqmand ekanini: ya'ni ularda ham "tajribaga ochiqlik" ham "bilim olishga ochiqlik" (garchi ikkala variant ham kattaroq "ochiqlik" faktorini o'z ichiga olgandek ko'rinib ham) mavjud ekanligini ko'rsatadi. O'quvchilar boshqalarning fikr-mulohazalarini hurmat qilishni, birgalikda ishlash ko'nikmasini hosil qilishni va jamoaviy harakatlanishni o'rganishlari kerak. Topshiriq motivatsiyasi – kreativ fikrlashga asoslangan topshiriq esa o'quvchini dunyoqarashini yanada oshiradi. Turli noanaviy fikrlarga ega bo'lgan har qanday o'quvchining kelajakda o'rin topib ketish ehtimoli yuqori bo'ladi. Quyida ayrim mantiqiy fikrlashga doir masalalar berib ko'ramiz:

1. Savatda 5 ta olma bor. 5 kishiga olmalarni taqsimlab 1 ta olmani savatda qoldirish uchun nima qilish kerak? Bir kishiga olmani savati bilan berish kerak.

2. Bo'sh savatga nechta olma sig'adi? Bitta.

3. 3 nafar shaxmat o'yinchisi bir partiyadan o'yin o'tkazdi. Har bir o'yinchi 2 soatdan vaqt sarfladi. O'yin qancha vaqt davom etgan? 3 soat.

4. O'rindiqda 5 bola o'tirgan edi. Ulardan 2 tasi uyiga ketishga qaror qildi. O'rindiqda nechta bola qoldi? 5 ta.

5. Tasavvur qiling dengizda qayiqda ketyapsiz. Birdan qayiq teshilib qayiqqa suv kira boshladi. Cho‘kish arafasidasiz, kamiga akulalar hujumi yaqinlashmoqda. Nima qilishingiz kerak? Tasavvurni to‘xtatish kerak.

6. Qaysi so‘zni tog‘ri talaffuz qilsangiz noto‘g‘ri bo‘ladi, notog‘ri talaffuz qilsangiz to‘g‘ri bo‘ladi? Notog‘ri.

Xulosa. Ta‘lim sohasida olib borilgan bir qator izlanishlar orqali bilim va ko‘nikmalarning hosil qilinishi ehtimolini oshiradigan o‘qitish yoki o‘rganishning turli usullariga tayanib aytish mumkinki, kreativ fikrlash bilim va ko‘nikmalarni hosil qilishga imkon beruvchi jamoaviy muhitda birgalikda ishlash orqali rivojlantiriladi. Boshqacha aytganda, maktablar bilim va ko‘nikmalarni hosil qiluvchi tashkilot sifatida faoliyat ko‘rsatib, unda o‘quvchilar yangidan yangi g‘oyalar bilan sug‘orilgan ijodiy va muntazam faoliyat turi bilan faol shugullanadi. Qachonki bilim hosil qilish jarayoni ta‘lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lgan maqsadli faoliyatga, ya‘ni kundalik faoliyat turiga aylansa, o‘quvchi yangidan yangi fikr-mulohazalarini doimiy rivojlantirib boradigan amaliy faoliyatlar bilan jamiyat rivojiga o‘z hissasini qoshadi. Dunyoga savol to‘la hayrat kozi bilan qarash, deganda o‘quvchining dunyoni anglashga urinish jarayoni tushuniladi va bu o‘quvchilarni turli hodisalar borasida o‘zlarining fikr-mulohazalarini ilgari surishlariga turtki bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘ofurjanova Nilufar Bo‘lajak o‘qituvchilarning xalqaro baholash dasturlari standartlarida qayd etilgan kompetensiyalarni rivojlantirish mavzusiga bag‘ishlanga maqolasi.

2. G‘ulomov A., Qodirov M. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi darslik – T, 2012.

3. Mahmudov N., Sobirov A., Mannopova D. 6-sinf ona tili darsligi - T, 2020.

4. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh.

5. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Nosir, 2009.

5. Sanoyeva Muxtabar Nabiyevna “Matn ustida ishlash metodikasi” darslik-T., 2023.

6. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Adabiyot jamg‘armasi, 2006.

7. Uralov A., Qambarov M. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: MIF MSH, 2024.

OLIY TA‘LIM TASHKILOTLARI TALABALARINING HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH JARAYONINI INDIVIDUALLASHTIRISH MASALALARI

D.M.Xolnazarova, Raximshikova M.K

Guliston davlat universiteti, dotsent, Falsafa fanlari nomzodi, dotsent,

M.Auevov nomidagi Janubiy Qozog‘iston universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta‘lim tashkilotlari talabalarining huquqiy madaniyatni rivojlantirish jarayonini individuallashtirish, talabalarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishda ularning individual psixologik xususiyatlari, ya‘ni diqqat, e‘tibor va xotirasini rivojlantirish jarayoni borasida so‘z yuritiladi.

Kalit soʻzlar: individuallashtirish, muammoli maʼruza, xotira, diqqat, eʼtibor, individual yondashuv.

Oliy taʼlim tashkilotlarida oʻquv mashgʻulotlarini tashkil etish shakllari maʼruzalar, amaliy mashgʻulotlar, seminarlar, laboratoriya ishlari oʻqituvchining talabalar bilan oʻzaro aloqa qilish va talabalar faoliyatini boshqarish usullari sifatida olib boriladi. Bugungi kunda maʼruzalar oʻqituvchining odatdagi monologi tarzida oʻtishi lozim degan maʼnoni anglatmaydi. Ishlab chiqilayotgan taʼlimning metodik tizimi innovatsion xususiyatga ega ekanligini inobatga logan holda maʼruza materialini ifodalashning yangi usullariga murojaat etiladi.

Muammoli maʼruza shaklida, yangi nazariy material muammoli vazifa tarzida ifodalanadi. Uning shartida aniqlash va yechish talab etiladigan ziddiyatlar mavjud boʻladi. Maʼruza–vizuallashtirish – bunday maʼruzani oʻqish tayyorlangan materiallarni keng sharhlashdan iborat boʻlib, ular:

- mavjud bilimlarni tizimga solishni taʼminlashi;
- yangi axborotni oʻzlashtirishni taʼminlashi;
- muammoli vaziyatlarni yaratish va yechishni taʼminlashi;
- vizuallashtirishning turli usullarini namoyish etishi lozim.

Taʼlimni axborotlashtirish sharoitida amaliy mashgʻulotlarning turlari orasida laboratoriya ishlari va praktikumlar tarzidagi mashgʻulotlar ayniqsa keng qoʻllaniladi. AKT vositalaridan foydalanib oʻtkaziladigan amaliy mashgʻulotlar tarzidagi oʻquv mashgʻulotlari taʼlim oluvchi va taʼlim beruvchi oʻzaro aloqa qilishi uchun qulay imkoniyat yaratadi: taʼlim oluvchi olinaetgan axborotdan passiv foydalanuvchidan taʼlim jaraenining faol ishtirokchisiga aylanadi, taʼlim beruvchi esa murabbiydan maslahatchiga aylanadi [1].

Taʼlimning mustaqil taʼlim shaklida esa talabalarning individual ishlashlarini, pedagogik qobiliyatlarini namoyon qilishlarini, huquqiy madaniyatni rivojlantirishning individual xususiyatlarini shakllantiradi. Talabalar mustaqil taʼlimda asosan huquqiy axborot-qidiruv tizimlariga murojaat qilgan holda matnli hujjatlar bilan ishlaydi. U matnning muhim qismlarini, huquqiy jixatdan fikrlash va aniqlash uchun tahlil qilishiga toʻgʻri keladi. Muhim qismlar deganda hujjatning vaziyatga huquqiy tavsif berish uchun imkoniyat yaratadigan qismlari tushuniladi.

Talabalarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishda ularning individual psixologik xususiyatlari, yaʼni diqqat, eʼtibor va xotirasini rivojlantirishga ahamiyat beriladi. Mustaqil taʼlim orqali talabalarning huquqiy ong va tasavvurlari takomillashib boradi va bu ularda huquqiy madaniyatni rivojlanishiga zamin boʻladi.

Oliy taʼlim tashkilotlari talabalarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishda ularning psixologik hususiyatlarini inobatga olish alohida ahamiyatga ega. Talabalarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishni individuallashtirish - asosiy yoʻnalish boʻlib, har bir shaxs uchun jamiyat uchun zarur boʻlgan huquqiy madaniyat darajasiga mos keladigan va shaxsning yoshga bogʻliq xususiyatlarini, imkoniyatlarini, ehtiyojlarini, qobiliyatlarini hisobga olgan holda individual taʼlim yoʻlini qurishni oʻz ichiga oladi.

I.P.Podlasiyning taʼkidlashicha, pedagogikaning eng muhim printsiipi - bu individual yondashuv, uning fikriga koʻra, u shaxsning oʻziga xos xususiyatlarini

va yashash sharoitlarini chuqur bilishga asoslangan va shaxsning rivojlanishini boshqarishdan iborat [2]. Demak, pedagogik ta'sirning to'g'ri tanlangan shakllari va usullarining individual xususiyatlariga moslashuvini, asosiy tarkibiy vazifalarini har

bir o'quvchiga moslashtirmaslik kerakligini ko'rib chiqish kerak.

I.S.Yakimanskaya individual yondashuv asosiy psixologik va pedagogik prinsip sifatida ko'rib chiqilishi kerak, unga ko'ra har bir o'quvchining individualizmini mashg'ulotda shaxsLashtirish mumkin. Aynan shu o'ziga xoslik uning psixofiziologik tuzilishi va o'ziga xosligining o'ziga xos belgilari sifatida qaraladi deb ta'kidlaydi [3]. Demak, huquqiy madaniyatni rivojlantirish jarayonini individuallashtirish bu pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo'lib, xar bir talabaning individual jixatlarini xisobga olgan holda yondashish oliy ta'lim tashkilotlari talabalarida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlanishiga olib keladi.

I.S.Yakimanskaya [3]ning fikricha, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida talabalar sub'ekt sifatida o'zlarining shaxsiy tajribalari va huquqiy bilimdonliklarini namoyon eta olishlari kerak. Bunday tajriba umumiy va shaxsiy xarakterga ega bo'lgan tajriba sifatida alohida qimmatga ega. Shuning uchun ham shaxsga yo'naltirilgan oliy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarining to'plagan tajribalari huquqiy bilimlar va tushunchalar bilan boyitilishi kerak.

Individual yondashuvning mohiyati o'qituvchining har bir o'quvchiga bo'lgan munosabati, o'ziga xos shaxs va o'ziga xos rivojlanishining sub'ekti sifatida qarashidir [39]. Shuning uchun, individual yondashuv shaxsga yo'naltirilgan bo'lib, talaba shaxsining huquqiy ongini tarkib topishiga qaratilgandir. Huquqiy madaniyat huquqiy ong darajasini tavsiflaydi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida professor-o'qituvchilar va talabalar o'zaro tenglik prinsipiga amal qilishlari kerak. Ta'lim jarayoni sub'ektlari orasidagi o'zaro tenglik g'oyasi dastlab I.A.Kolesnikova [4] tomonidan ilgari surilgan. Professor-o'qituvchilar talabalar bilan ularning shaxsiy fikrlash doirasini hisobga olgan holda muloqot va hamkorlik o'rnatishlari kerak. I.A.Kolesnikova [4] ta'kidlaganidek, bo'lajak o'qituvchilar o'z faoliyatini o'quvchilarni tarbiyalash nuqtai nazaridan yondashgan holda tashkil etishga e'tibor bermaydilar. Ular o'quv predmeti doirasida insonparvarlikka asoslangan ta'lim-tarbiya berishga intilishlari kerak.

Demak, professor-o'qituvchilarning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etishga oid pedagogik faoliyati huquqiy fanlarni o'qitish jarayonida alohida ahamiyatga ega. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etuvchi professor-o'qituvchilarning o'zlari, birinchi navbatda, huquqiy bilimlar bilan to'liq qurollangan bo'lishlari kerak. Shundagina shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida talabalarining kasbiy-shaxsiy takomillashishlari uchun qulay imkoniyat yaratiladi. Natijada talabalarining kasbiy mahoratlari, tajribalari, huquqiy bilimdonlik darajalari ortadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Юнусова М.С. Замонавий ҳуқуқий ахборот қидирув тизимларининг таълим жараёнига татбиқи.: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати, Т-2019.
2. Подласый И.П. Педагогика: новый курс. – М.: Наука, 1996. – 576.
3. Якиманская И.С. Личностно-ориентированное обучение современной школе. // – М.: Педагогика, 1996. – 96с.
4. Колесникова И.А. Как приблизить подготовку учителей к потребностям школы// Педагогика. – 1992. - № 5-6. – С. 71-74.
5. Холназарова, М. Х. (2015). Формирование творческих способностей личности в процессе социализации. *Austrian Journal of Humanities and Social Sciences*, 1(3-4), 109-111.
6. Гафуров, Б. А., & Холназарова, Д. М. (2016). Отражение социальной и религиозной политики Бабура в его завещании. *Наука и образование сегодня*, (4 (5)), 59-60.
7. Нишонов, З. У., Камилова, Н. Ф., Абдуллаева, Д. У., & Холназарова, М. Х. (2017). Ривожланиш психологияси. *Педагогик психология-Тошкент-2017-йил*.
8. Холназарова, М., & Алибаева, Д. (2021). БОШҚАРУВ ҚАРОРЛАРИНИ ҚАБУЛ ҚИЛИШ ВА РАҲБАР ШАХСИНИНГ ИНДИВИДУАЛ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(Special issue), 209-212.
9. Холназарова, Д. М. (2022). ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИ ТАЛАБАЛАРИДА ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(12), 225-232.
10. Kholnazarova, M. (2023). THE DEVELOPMENT STAGES OF TEACHING KUBROVIA IN PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL INTERPRETATION. *Science and innovation*, 2(C11), 86-92.
11. Kholnazarova, D. (2022). THE ROLE OF THE EDUCATION SYSTEM IN THE DEVELOPMENT OF LEGAL CULTURE IN STUDENTS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 10(1).
12. Kholnazarova, M. X., & qizi Khudaiberdieva, D. K. (2023). OBSESSIVE–COMPULSIVE DISORDER HISTORY AND FACTORS. *ILM FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY METODLARNING QO‘LLANILISHI*, 3(8), 44-47.
13. Kholnazarova, M. X., & Mukhlibayev, M. K. Age and pedagogical psychology. Textbook. Tashkent-2014.
14. Nishanova, Z. T., Kamilova, N. G., Abdullayeva, D. U., & Kh, M. Kholnazarova “Developmental psychology. Pedagogical psychology.
15. Mamatmuratovna, K. D., & Gapparovich, T. S. (2021, April). SYSTEM OF PREPARATION OF YOUNG PEOPLE FOR SPIRITUAL, LEGAL AND LEGAL EDUCATION. In *Archive of Conferences* (Vol. 23, No. 1, pp. 168-171).
16. Kholbotaevna, K. M. (2023). Development of Cognitive Processes in Early Childhood. *International Journal of Formal Education*, 2(11), 372-379.

17. Kholbutaevna, K. M. (2021). Features of personality psychology. *Psychology*, 58, 6165-6169.

18. Xolnazarova, D., & Ungarova, I. (2024). YANGI O 'ZBEKISTONDA AHOLI IJTIMOIIY HIMOYASINING USTUVOR YO 'NALISHLARI. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(4), 45-47.

19. Xolnazarova, D. M. (2022). METHODS OF DEVELOPING LEGAL CULTURE IN STUDENTS. *Conferencea*, 126-134.

20. Kholnazarova, D. (2022). THE ROLE OF THE EDUCATION SYSTEM IN THE DEVELOPMENT OF LEGAL CULTURE IN STUDENTS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 10(1).

KOMIL INSON IQTIDORINI ANIQLASH VA TARBIYALASHDA PSIXOLOGNK MEZONLAR

Saparov Murod Yuldashovich, Raxmonova Sevinch

***O'zDJTU "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi (PhD),
O'zDJTU talabasi***

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tashabbuslari bilan quyidagi masalaga alohida urg'u berib o'tilgan "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqiyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"[1:16].

Qadimdan xalqimizdan buyuk siymolarning etishib chiqqanligiga e'tibor berib qaraydigan bo'lsak, ota-bobolarimiz zehni, iste'dodli, qobiliyatli bolalarni umumiybilim olayotgan bolalardan alohida ajratib ta'lim –tarbiya berganliklari diqqatga sazovor. Sharq pedagogikasi tarixiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, quyidagilarni ko'rishimiz mumkin. Bolani 6-7 yoshi orasida mahalla mudarrisiga topshirishgan. Mahalla mudarrisining (bizni tilimizda eski maktab) asosiy vazifasi bolani "xat savodini chiqarish" (alifbo bilan tanishtirish), "qo'shish ayrish"ni o'rgatish hamda "haftiyak"ni yodlatishdan iborat bo'lgan. Qaysi bir o'quvchining zehni namoyon bo'lib, ilmga chanqoqligi sezilsa, uni o'sha tumanda joylashgan madrasaga bilimni boyitishga jo'natilgan. Ana shu erda kichik madrasa tolibi sifatida "Qur'on", "hadis" va dunyoviy bilimlardan tahsil olgan tolibi ilm o'zining qobiliyatini namoyon eta olsa, katta madrasa sari yo'naltirishgan. Madrasada bilimlarni o'zlashtirishda iste'dodini namoyon eta olgan ilmi toliblarni davlat miqiyosidagi madrasalarga bilimlariini takomillashtirish maqsadida yo'naltirganlar.

Taniqli ma'rifatparvar Abdurauf Fitrat aytgandek, "Agar bir mamlakat aholisi axloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi" [2:8]. Har bir jarayon tarbiyaga bog'liq holda olib boriladi. Chunki azal azaldan tarbiya masalasiga Sharq allomalari tomonidan alohida e'tibor qaratib kelingan.

Davlatimiz rahbariyati asosiy e'tiborini yosh avlodning tarbiyasiga qaratib kelayotganiga sababi buyuk davlatimizni va xalqimizni kelajagi ishonchli qo'llarda bo'lishi lozim.

Xalqimizni buyukligi shubhasiz, irsiy zahirasining sog'lomligi, ma'naviy yetukligi XXI-asrga kelib ham yoshlarimiz orasidan Ibin Sino, Al Beruniy, Al Xorazimiy, Imom Buxoriy kabi benazir vatandoshlarimizga munosib izdoshlar etishib chiqib dunyoni lol qoldirishiga shubha yo'q.

Qadimdan xalqimiz qobiliyatli, zehinli, layoqatli va istedadli yoshlarga alohida e'tibor qaratgan, ularni har tomonlama kamol topishlariga imkon yaratib kelingan. Shu e'tibor asnosida xadishunoslik, tibbiyot, matematika, astronomiya, arxetektura, muxandislik kabi yuzlab sohalarda erishilgan yutuqlar oldida dunyo axli hamon lol qolib kelmoqda.

Yoshlarni ma'lum sohada katta yutuqlarga erishishi uchun e'tibor bilan bir qatorda kattalar munosabatida latiflik bo'lishi lozimligi milliy pedagogikamizda aloxida ta'kidlangan. Munosabatlardagi latiflik yoshlarni yashirin imkoniyatlarini layoqatga, layoqatni esa o'z navbatida qobiliyatli faoliyatga undash orqali iqqidorni namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi.

Etuk istedadli kadrlar tayyorlashning istiqbolli yo'nalishlaridan biri - o'sib kelayotgan yosh avlod orasidan qobiliyatli bolalarni saralash, ularni zamonaviy maktablarda iqtidorli bolalar uchun yaratilgan dasturlar asosida o'qitish, ularga keng imkoniyatlar yaratish va qisqa muddatda turli sohalari uchun malakali mutaxassislarni etishtirishdir.

Taniqli olim, professor E.G'.G'oziev ham "Shaxs kamolot va komillik darajasiga erishishda aql, zexn va qobiliyatlarni hamohang tarzda muvofiqlashtirish lozim va muhim", - deb ta'kidlab o'tgan[3:152].

Ma'lumki, insoniyat o'zining ijtimoiy taraqqiyot jarayoni davomida iqtidori, qobiliyati yoki ijodiy izlanishi mahsuli bo'lgan g'oya ham mulk ekanligini aniq va ravshan anglab etdi. Intellektual mulk deb ataladigan bu boylik turli sohalarning turlicha ko'rinishlarida o'z ifodasini topmasin, u jamiyat taraqqiyotining rivojiga shaxs tomonidan qo'shilayotgan asosiy omil, ma'naviy va moddiy boylikdir. Shaxs va jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishga qodir asosiy boylik egasi - intellektual mulk sohibi, qobiliyatli iqtidor sohibi, rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lgan har tomonlama mukammal etuk shaxs o'zining noyob iste'dodiga xos tafakkuri bilan zamondan ilgarilab turli kashfiyotlar yaratishi mumkin.

Shu sababli bugungi kunda axloqan sof, mantiqiy tafakkuri kuchli, aqliy qobiliyati yuqori bo'lgan o'quvchilarga e'tiborni kuchaytirish, ularni maxsus o'qitish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir. Kelajak avlod va jamiyat taqdirini aynan shunday iste'dodli, zukko farzandlar belgilaydi. Shunday ekan, ta'lim muassasalari o'quvchilari orasidan asosli ravishda iqtidorlilarini tanlab, ularni layoqati, qobiliyati va qiziqish yo'nalishlariga qarab u yoki bu sohaga, kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirish umumiy o'rta ta'lim tizimi psixolog mutaxassislarining oldida turgan eng asosiy vazifalardan biridir.

Bu ayniqsa, umumta'lim maktablarida o'qish jarayonida boshqa bolalardan o'zining u yoki bu shaxsiy sifatlari bilan ajralib turadigan bolalarda yaqqol ko'rinadi. Maktab psixologi iqtidorli bolalarni saralash, ular bilan ishlash,

qiziqishlari, qobiliyatlarini o'rganish, iqtidorlikni rivojlantirishga psixologik yondoshuvni to'g'ri belgilashi lozim.

O'rta ta'lim tizimida iqtidorli bolalarni saralash va ularning bilim olishlarini to'g'ri tashkil etishda echimini topishi kerak bo'lgan muammolar hali talaygina. Bu muammolarni bartaraf etish uchun eng avvalo har bir pedagog, ota-ona va tarbiyachi boladagi iste'dodni ko'ra bilishi va uni his eta olishi lozim. Ular "iste'dodli" yoki "iqtidorli" bolaning individual psixologik va fiziologik xususiyatlari haqida umumiy ma'lumotga yoki tasavvurga ega bo'lishlari shart.

Shu o'rinda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida bilim olayotgan iqtidorli bolalar bilan olib borilishi lozim bo'lgan ishlar haqida qisqacha to'xtalib, ularga xos

bo'lgan xususiyatlarni qisman bo'lsa-da ko'rsatib o'tishni lozim deb topdik.

Zamonamizning zabardast psixologlaridan psixologiya fanlari doktori professor B. R. Qodirov ta'kidlashicha; "Iqdi – er, dor – bor, ya'ni iqtidor so'zini tarjimai "Eri bor", "Erdor" bo'ladi. O'tgan asrning o'n ettinchi yilida amalga oshirilgan inqilob natijasida "tadbirkor", "mulkdor" kabi atamalar bilan bir qatorda "iqtidor" atamasi ham laxjamizdan o'chirib tashlandi.[4:2]

Mustaqillik sharofati bilan tilimizga davlat tili maqomi berilgandan so'ng ko'pgina umumbashariyat tomonidan qabul qilingan atamalarga o'zbekona to'n kiydirila boshlandi. Misol uchun "tayyoragoh", "ovoznigor", "nohiya" va xokazolar qatorida "iqtidor" atamasi ham qayta kirib keldi.

Iqtidorli deb – "yashirin" va "namoyon", o'ziga xos imkoniyati bor, ilg'or fikrini izohlay oladigan odamga aytiladi. Iqtidor bugungi kunda ilmiy kategoriya sifatida ham talqin etila boshlandi. Iqtidor qobiliyatdan darak beruvchi shaxsni o'ziga xos xususiyati xisoblanadi.

Qobiliyat – zaxiraviy imkoniyatlari asosida hosil bo'lgan imkoniyat majmuasi. Qobiliyat shaxsni zahiraviy imkoniyatlari sifatida bosh miyada saqlanib turaveradi, ma'lum bir zarurat yoki vaziyat ta'sirida kutilmaganda yuzaga chiqishi mumkin, lekin u tug'ma bo'lmaydi. Turli vaziyatlarga nisbatan to'g'ri qarorlarni qabul qilish va muvaffaqiyatga erishishda shaxsning qobiliyati namoyon bo'ladi.

Layoqat deb – shaxs faoliyatiga bo'lgan moyillik (qiziqish) faoliyati (intilish) ga aytiladi. Misol tariqasida; o'g'il bola mashinaga qiziqani uchun uni buzishi va yana qayta ta'mirlashi jarayoni faoliyatga yo'nalganlik, moyillik deb sharxlanishi mumkin. Demak, moyillik layoqatni undovchi motiv vazifasini o'taydi. Aynan qobiliyat layoqatni yuzaga keltirishini psixologlar alohida ta'kidlab kelishgan. Hunarmand usta shogirdlari faoliyatini kuzatishi asnosida layoqatligini tanlab oladi. Usta tanlov jarayonida shogirdlikka da'vogarlarini faoliyati orqali kasbxunarga bo'lgan layoqati, qiziqishi, iqtidori va qobiliyatiga baho beradi.

Maktab psixologi iqtidorli bolalarni imkoniyatini aniqlash uchun asosan psixologiyada keng qo'lanib kelinayotgan kuzatish va suhbat usullaridan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Har ikkala usulni amalda qo'llash jarayonida aniq maqsadni belgilab olib, bolaning ruhiy xolatiga ta'sir etmagan xolda kasb etikasiga amal qilishi lozim bo'ladi. Buning uchun yashirin kuzatish usulidan shunday foydalanish lozimki bola kuzatilayotganini sezmasin. Suhbat usuli dialog yo'nalishini qo'llash jarayonida psixolog imkon darajasida biror bolaga urg'u

berayotganini namoyon etmasligi shart. Kuzatish va suxbat usulidan olingan natija va xulosalarni o'quvchiga ko'pchilik oldida bayon qilish psixologni kasbiy etikasiga zid hisoblanadi.

Maktab psixologi iqtidorli o'quvchilar bilan alohida subatlashish jarayonida avvalom bor bolani qiziqishi qay darajada ekanligini aniqlab so'ng iqtidori darajasida kasb haqida suhbatni tashkil etishi mumkin. Bunda kasb etikasi va etketini buzmasligi darkor.

Iqtidorli o'quvchilarni ota-onalari bilan ishlash jarayonida psixolog avvalo ota-ona haqida to'liq ma'lumot to'plab olgan bo'lishi kerak. Iqtidorli o'quvchi xaqida ma'lumot berish va u haqida suxbatlashishdan oldin olib borgan kuzatishi va suhbat natijasi bilan tanishtirishi hamda to'plagan ma'lumotini ilmiy asosda bayon qilishi asnosida o'quvchini layoqati, qiziqishi hamda kelajakda namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan iqtidori va qobiliyati haqida batafsil to'xtalishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston".T. 2016y.
2. Fitrat A. Oila.–T.: "Ma'naviyat", 1998y.
3. E.G'.G'oziev "Ontogenez psixologiyasi" Toshkent 2000y.
4. B.R.Qodirov "Qobiliyatlar silsilasi" ilmiy maqola.

HADIS TUSHUNCHASI VA UNING ISLOM OLAMIDAGI O'RNI

Matlyuba Xolnazarova

Guliston davlat universiteti professori

Arabcha hadis so'zi "tarix yoki zamonaviy davrga oid xabar, hikoya, suhbat: diniy yoki dunyoviy" degan ma'noni anglatadi. Sifat sifatida ishlatilsa, "yangi" ma'nosini bildiradi.

Qur'on kitobida hadis so'zining qo'llanilishi

Qur'onda "hadis" so'zi 23 marta ishlatilgan.

Ushbu so'zning bir nechta ma'nolarda ishlatilishiga misollar:

a) diniy xabar, xabar yoki Qur'on ma'nosida:

Alloh taolo aytadi: نزل أحسن الحديث كتابا

"Alloh taolo rivoyat qilish uchun eng yaxshi narsani berdi bu – Muqaddas Kitob".

b) dunyoviy yoki umumiy xarakterdagi "hikoya" ma'nosida:

Alloh taolo aytadi:

فاعرض عنهم حتى يخوضوا في حديث غيره

"Bizning oyatlarimizni yolg'on so'zlovchilarni uchratsangiz, to ular boshqa gap boshlamaguncha ularni (va qaytib kelmang) qoldiring".

c) "tarixiy hikoya" ma'nosida:

Alloh taolo aytadi: وهل أتك حديث موسى

"Sizga Muso (alayhissalom)ning hikoyasi yetib keldimi?".

d) maxfiy hikoya yoki suhbat ma'nosida:

«Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ayollaridan birining siriga iymon keltirdilar».

واذ أسر النبي إلى بعض أزواجه حديثاً Xulosa qilishimiz mumkinki, bu soʻz Qurʼonda diniy yoki dunyoviy, uzoq oʻtmish yoki hozirgi zamondan boʻlgan voqea, suhbat yoki xabar maʼnosida qoʻllangan.

Bu soʻzni Paygʻambarimiz Qurʼondagi kabi maʼnoda ishlatgan. Mana bir nechta misollar:

a) diniy xarakterdagi xabar:

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytadilar: أحسن الحديث كتاب الله

“Eng yaxshi hadis Allohning kitobidir”.

b) dunyoviy yoki umumiy xarakterdagi xabar yoki hikoya:

Rasululloh aytadilar: الأئمة استمع إلى د

“Kimki odamlarning hadislarini (suhbatlarini) eshitishni istamagan holda eshitishga va undan uzoqlashishga harakat qilsa, oxiratda uning qulogʻiga issiq mis quyiladi”.

c) tarixiy hikoya:

Paygʻambar aytadilar: حدثوا عن بني اسرائيل

“Banu Isroildan bir hadis (qissa) rivoyat qilishingiz mumkin”6.

d) umumiy hikoya, sir yoki suhbat:

Paygʻambar aytadilar:

"Agar kimdir suhbatlashayotganda, chapga va keyin oʻngga qarasa, uning soʻzlari sirdir(hisoblanadi)".

Yuqoridagi misollardan kelib chiqqan holda, hadis soʻzi oʻz maʼnosida “qissa” yoki “xabar” tushunchalarini oʻz ichiga olganligi maʼlum boʻldi.

Islomning ilk davrlarida bu qissalar va Paygʻambar (hadis) kalomi boshqa xabar turlaridan ustun boʻlgan. Shu tariqa bu soʻz deyarli faqat “Paygʻambardan rivoyat” yoki “Paygʻambar aytganlari” maʼnosida qoʻllanila boshlandi.

Muhaddislar (hadisni toʻplovchi va tanqid qiluvchi shaxs)ga koʻra, hadis atamasi turli xil xabarni bildirishi mumkin ekan: Paygʻambarning soʻzlari, xatti-harakatlari haqida, soʻzsiz rozilik (boshqa odamlarning harakatlari yoki soʻzlarini soʻzsiz maʼqullash) haqida, shuningdek, uning sifatlari haqida “siffat” (jihatlari), yaʼni tashqi koʻrinishi haqida. Shunga qaramay, paygʻambarning koʻrinishi qonunlar manbai sifatida fiqh olimlari tomonidan qoʻllanilmaydi.

Demak, hadis adabiyoti deganda Paygʻambarimiz hayoti va u zot tomonidan maʼqullangan hikoyalardan iborat boʻlgan adabiyot tushuniladi. Biroq, bu atama koʻpincha sahobalar, shuningdek, paygʻambarning vorislari haqidagi hikoyalarni qamrab oluvchi kengroq maʼnoda ishlatilgan.

Baʼzan xabar, asar kabi baʼzi boshqa soʻzlar ham xuddi shu maʼnoda qoʻllangan. Aksariyat olimlar bu uch atama – hadis, xabar va asorni sinonim sifatida ishlatadilar. Biroq, asosan, Xuroson mintaqasidan boʻlgan baʼzi olimlar xabar va asar oʻrtasida farqni aniqlaganlar. Ular “xabar”ni hadis maʼnosida qoʻllashgan, asar atamasi esa sahobalarning gaplari va qarorlari bilan chegaralangan.

Ammo yana bir kalit soʻz borki, garchi maʼno jihatdan hadis atamasidan biroz farq qilsa-da, shunga qaramay, asosan sinonim sifatida ishlatiladi. Bu sunnat atamasi. Sunnat, arab lugʻatshunoslarining fikricha, “yoʻl, yoʻnalish, hayotda harakat qilish yoki oʻzini tutish qoidasi, usuli yoki uslubi.

Qur'onda sunnat so'zi va uning ko'plik shakli 16 marta ishlatilgan. Bu barcha holatlarda u to'g'ri yo'lni, turmush tarzini va xatti-harakat chizig'ini belgilash ma'nosida qo'llaniladi.

Arab adabiyotida, ayniqsa, ilk hadis kitoblarida u turli ma'nolarda qo'llangan, masalan:

- 1) shariat normasi ma'nosida, diniy amaliyotga asoslangan, amalga oshirish uchun ixtiyoriy, ya'ni. farz yoki vojibsiz (majburiyatsiz);
- 2) islom ta'limoti ma'nosida;
- 3) payg'ambarning xulq-atvori namunasi sifatida.

Ba'zan sunnat so'ziga arabcha aniq artikl (al-) qo'shib, Payg'ambar sunnatini bildirgan. Ikkinchi asr oxirida u payg'ambar o'rnatgan yoki uning xulq-atvor me'yorlaridan kelib chiqqan me'yornlarni ifodalash uchun deyarli faqat qonunchilik kitoblarida qo'llanila boshlandi.

Sunnat hayot tarzini anglatgani bois, Payg'ambar sunnatlari Payg'ambarning hayot yo'llarini bildiradi, hadis esa Payg'ambarimiz hayotining tavsifini anglatadi, garchi ular orasida bir oz farq bo'lsa ham - bu ikki atama deyarli bir-birining o'rnida ishlatilgan.

Odamlar xato qilishga moyil. Payg'ambarimiz hayoti va xulq-atvorini xabar qilishda, hikoya qilishda va yozib olishda, hatto eng samimiy Payg'ambarimiz bilan bog'liq bo'lgan materiallarni ataylab soxtalashtirgan ba'zi nopok kimsalarni hisobga olinmasa ham, olimlar tomonidan xatolarga yo'l qo'yilgan. Binobarin, hadis ilmi payg'ambarga nisbat berilgan har bir alohida gapga katta e'tibor berib, rivojlandi.

Nega bu mashaqqatli ish kerak edi? Ko'plab buyuk hukmdorlar va rahbarlar bo'lgan, ammo Payg'ambarga aytilgan haqiqiy va yolg'on so'zlarni farqlashning hech qanday usuli ishlab chiqilmagan. Haqiqiy yolg'ondan qanday ajratish mumkinligi haqidagi savolga Payg'ambar sunnatining musulmonlar orasidagi o'ziga xos ma'lum dalillarning butun tizimi - isnod javob beradi.

Ullamolar bir ovozdan Qur'onning mavqei barcha musulmonlar uchun birinchi majburiy qabul qilingan dalil, degan fikrda. Payg'ambarning o'rni faqat Qur'ondan keyin keladi va shubhasiz dalil bo'lib xizmat qiladi, chunki Payg'ambarning hokimiyat sub'ekti sifatidagi vakolatlari jamoat qarori bilan o'rnatilmaydi: uning kuchi Ilohiy iroda bilan ifodalanadi. Alloh taolo payg'ambarning mavqeini quyidagicha tavsiflaydi:

a) Qur'on sharhlovchisi.

Payg'ambar Alloh tomonidan tayinlangan Qur'onning sharhlovchisidir.

Alloh taolo aytadi: *يتفكرون و أنزلنا إليك الذكر لتبين للناس ما نزل إليهم ولعلمهم*

«Odamlarga nozil qilingan narsani tushuntirib berishing uchun senga zikr nozil qildik».

Masalan, Qur'onning ko'plab oyatlarida Alloh namoz o'qishni buyurgan, ammo namozning o'zi haqida batafsil ma'lumot bermagan. Payg'ambarning vazifasi namoz o'qish tartibini amalda va nutqda ko'rsatish edi.

b) Payg'ambar qonun chiqaruvchidir.

Alloh taolo payg'ambarning qonun chiqaruvchi hokimiyatini tilga olib, gapiradi:

ويحل لهم الطيبات ويحرم عليهم الخبائث ويضع عنهم إصرهم والأغلال التي كانت عليهم

“Ularni maqbul ishlarga buyuradi va yomonlikdan qaytaradi, yaxshi narsalarni halol va yomon narsalarni harom, og‘irlik va kishanlardan xalos qiladi”.

Bu oyatda payg‘ambarga qonun chiqarish vakolati berilganini ko‘ramiz. Shunday qilib, u qonun chiqaruvchi faoliyat yuritadi. Payg‘ambar alayhissalom keyinchalik Qur‘onda o‘z ummatlarining doimiy odatlari sifatida eslatib o‘tilgan ba‘zi narsalarni, masalan azon odati, Qur‘onda "mavjud amal" sifatida eslatib o‘tiladi. Bu misol Payg‘ambarning qonun chiqaruvchi kuchini va uning harakatlari Alloh

tomonidan ruxsat etilganligini tasdiqlaydi.

v) Payg‘ambar musulmon jamiyati uchun xulq-atvor namunasi.

Qur‘onda Payg‘ambarimiz hayotidan misollar keltirilgan.

لقد كان لكم في رسول الله أسوة حسنة لمن كان يرجو الله واليوم الآخر و ذكر الله كثيرا

“Rasululloh sollallohu alayhi vasallamda sizlar uchun Allohga va oxirat kuniga umid bog‘laydigan va Allohni ko‘p zikr qiluvchilar uchun ajoyib ibrat bor edi”.

Payg‘ambar alayhissalomni jamoaga o‘rnak deb bilsak, musulmonlar hamma narsada undan o‘rnak olishlari kerak, ayniqsa, Alloh taolo ularga shunday buyurgan. Bu uch hilqat payg‘ambar shaxsida jamlanganda musulmon jamiyati har bir ishda Payg‘ambarga ergashishi shart, degan muqarrar xulosaga keladi. Alloh taolo bu masalani muhokama uchun ochiq qoldirmadi. Payg‘ambarga hamma narsada itoat qilishni ochiqchasiga buyurdi.

d) Payg‘ambar - itoat qilinishi kerak bo‘lgan kishi.

Alloh taolo aytadi: وما ارسلنا من رسول إلا ليطاع بإذن الله

“Biz payg‘ambarlarni faqat Allohning izni bilan itoat qilishlari uchun yubordik”.

Keyin aytadi: قل أطيعوا الله والرسول فإن تولوا فإن الله لا يحب الكافرين

Ayting: «Allohga va Rasuliga itoat qilinglar». Agar yuz o‘girsalar, bas, Alloh kofirlarni sevmas” 3:32

Yoki u aytadi: وأطيعوا الله والرسول لعلمكم ترحمون “Alloh va Payg‘ambarga qaranglar, shoyadki afv qilinsangiz”.

Yana bir iqtibos: يا أيها الذين آمنوا أطيعوا الله وأطيعوا الرسول وأولى الأمر منكم فإن تنازعتم في شئ فردوه إلى الله

يا أيها الذين آمنوا أطيعوا “Ey iymon keltirganlar! Allohga itoat qiling, Rasulga va o‘zlaringizdan bo‘lgan hokimiyatga itoat qiling. Agar biror narsa haqida ixtilof qilsangiz, Allohga va qiyomat kuniga iymon keltirsangiz, uning hukmini Alloh va Rasuliga topshiring. Yaxshi yakun uchun qulayroq bo‘ladi.”

Bu oyatlar nuqtai nazaridan ma‘lum bo‘ladiki, Alloh taoloning amrlari ham, Payg‘ambarning ishonchli amrlari ham musulmon uchun majburiydir. U ikkalasiga teng itoat qilishi kerak. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning butun hayotlari barcha musulmonlar uchun ibratli namuna bo‘lib, unga amal qilishlari lozim. Musulmon kishi payg‘ambarning amrlarini bajarishdan ikkilanmasligi kerak.

Alloh taolo aytadi:

لا يؤمنون حتى يحكموك فيما شجر بينهم ثم لا يجدوا في انفسهم حرجا مما قضيت ويسئلوا تسليما
فلا وربك

“Yo‘q, Robbingga qasamki! "Ular o‘z oralarida chigal bo‘lgan har bir narsada sizni hakam qilib saylamagunlaricha, sizning qaroringizdan qalblarida cheklanishni

to‘xtatmaguncha va to‘liq bo‘ysunmagunlaricha ishonmaydilar."

Musulmon ummati payg‘ambarlik risolatining boshidanoq Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning obro‘-e‘tiboriga bo‘ysunib, uning barcha og‘zaki buyruqlari, amallari, so‘zsiz gaplarini hayot aqidasi, farz omili va amal qilinishi lozim bo‘lgan namuna sifatida qabul qilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abu Dovud. Sunan. 4 jildda. MM. Abdul Hamida. 2-nashr. Qohira, 1369/1950.
2. Abu Dovud. Makkaga maktublar /tahrir. M. Sabbag, Bayrut, 1395 yil.
3. Abu Nuaym, Ahmad ibn Abdulloh al-Isbahoniy. Hilyotul-avliyya, Hanji. Qohira, 1932 yil.
4. Az-Zurqoniy, Muhammad b. Abdul Boqiy. Sharh Muvatta: Qohira.1421.

ИЖТИМОЙ ТАРМОҚЛАРДАН ТЎҒРИ ФОЙДАЛАНИШДА ОТА-ОНАНИНГ ЎРНИ

*Максумкулова Гулнора Курбоновна, Шайдуллаев Мақсуд Рустамович
ТошДТУ Машинасозлик факультети тьютори, 87-23 гуруҳ
талабаси*

Бугунги ҳаётимиз ва келажагимиз учун қобилиятлари ҳар томонлама ривожланган, ақлан етук ва баркамол, маънавий, ахлоқий жиҳатдан камолга етган, ташаббускор, истеъдоди ва тафаккур қувватини Ватани ва миллати манфаати ҳамда тараққиётга хизмат қилдиришни ўзи учун олий мақсад деб ҳисоблайдиган фидойи инсонлар жуда ҳам зарур. Бунинг учун эса, болаларларни шу руҳда тарбияламоғимиз лозим. Шу нуқтаи-назардан қараганда бу соҳада катта аҳамиятга молик бўлган намуна кўрсатиш масаласи энг муҳим ҳисобланади.

Ўтган асрнинг 90-йилларида истиқлолга эришган давлатлар мустақил тараққиёт йўлини яратиш билан бир вақтда тобора авж нуктасига кўтарилаётган глобаллашув жараёнлари талабларига мослашишга мажбур эдилар. Глобаллашув ҳодисасига шу қадар кўп таъриф берилганки, улар қанчалик хилма-хил бўлмасин, барчасида бир катта ҳақиқат – глобаллашув – умумлашув, яхлитлашув, ўзаро алоқадорлик ва ҳамкорлик эканлиги у ёки бу кўринишда, шакл-шамойилда таъкидланади, такрорланади. Яна бир ҳақиқат – глобаллашув, кенг маънода олиб қаралганда, кўпроқ ахборот глобаллашувида ўз ифодасини топмоқда.

Бугунги тараққиёт асрида маиший техника воситалари ривож топди. Жумладан мобил телефонлар, компьютерлар омманинг фикрига ва фаолиятига муҳим таъсир ўтказувчи омилларга айланди. Ҳаммага маълумки глобал тармоқдан ҳам ижобий, ҳам салбий ишларда фойдаланиш мумкин.

Инсонлар бу тармоқдан ўзларига зарур бўлган маълумотларни олиб улардан унумли фойдаланишаётгани яхши ҳолат. Аммо бу тармоқда фойдали маълумотлар билан бирга турли хилдаги фахш ишларни ўзида мужассам этган ва ёшларни экстремистик оқимларга даъват қилувчи сайтлар ҳам мавжуд. Шу нуқтаи назардан олиб қараганда, ота-оналарнинг ўзлари интернет тармоқларида тарқалаётган ҳар бир янгиликдан бохабар бўлиб боришлари, фарзандларига ҳам нимадан фойдаланиш кераклигини тушунтириб боришлари керак. Бола учун илк бор оддий бўлиб кўринган ҳар қандай қонунбузарлик, маълум бир вақтдан сўнг салбий оқибатларга олиб келиши мумкин. Буни ҳар бир ота-она чуқур англаб етиши ва буни фарзандларига тушунтириши шарт.

Болаларга тинч замоннинг кадрига етишлари учун бугунги кунда, дунёнинг қайсидир бир бурчагида ўсмирлар, ёшлар урушнинг касофатидан қурбон бўлаётганини, қанчадан-қанча болалар қорни нонга туймаётганлигини айтиб туриш даркор. Ва ҳар доим фарзандини интернетдан фойдаланиш борасида назоратсиз қолдирмаслиги даркор. Чунки назорат қилинмаган болалар, интернет кафеларда, шахсий компьютерларида турли хилдаги жангари компьютер ўйинлари билан машғул бўладилар. Зарари шундаки, бу ўйинларда кўрсатилаётган хунрезликлардан қайтарувчи биронта қонун йўқ. Компьютер ўйинларидаги вахшийликларни кўрган боланинг қалби қотиб, қалбида бузғунчилик ва вайронагарчиликни ўзи ҳам қилгиси келиб қолиши мумкин. Айниқса энди тили чиқаётган, ёш болаларнинг олдида телефонда ҳар хил ўйинларни ўйнаш умуман мумкин бўлмаган ҳолат. Чунки куш уясида кўрганини қилади. Шунинг учун болага телефондаги ўйинлардан фойдаланганда – нобоб ўйинни кичик геймерга мосроқ бўлган бошқа бирор ўйин билан алмаштириш керак. Яъни бунда сиз болакайга қизиқарли саргузаштларга бой бўлган квест ёки стратегик компьютер ўйинларини тақдим этишингиз мумкин.

Мутахассислар тадқиқотлар натижасида компьютер ўйинларининг зарарларини қуйидагича келтиришади:

- кишининг вақтини ўғирлайди;
- унда жаҳлдорлик ва жиззакилик иллатларини шакллантиради;
- тасавури, хаёлот оламининг қашшоқлашишига сабаб бўлади;
- шапкўрликдан тортиб неврологик хасталикларгача барча касалликларни келтириб чиқаради.

Тиббиётда ҳар қандай касалнинг олдини олиш учун, энг аввало, инсон организмида ушбу касалликка қарши иммунитет ҳосил қилиш кераклиги айтилади. “Оммавий маданият”, турли хил ахборот хуружи ва маънавий таҳдидларга қарши эса ёш-авлоднинг онгида мафкуравий иммунитетни шакллантириш орқали курашишимиз лозим.

Ҳақиқатан ҳам камол топаётган ёш авлод онги ва шуурида маънавиятни шакллантиришда оила, мактабгача болалар муассасалари, умумий ўрта таълим мактаблари, ўрта махсус ўқув юртлири, маҳалла-қўй, шунингдек, жамоат ташкилотлари, кичкинтойларга бағишланган газета ва журналлар бир-биридан кам бўлмаган даражада ўзининг ижобий таъсирини кўрсатади.

Абу Ҳомид Ғаззолий ҳазратлари «Билгил! Бола тарбияси энг муҳим ишлардандир. Фарзанд ота-онага омонат. Бола қалби пок, нозик, содда ва ҳар қандай нақш ва суратдан ҳоли гавҳардир. Унга қандай нақш солинса, шунга кўра шаклланади, эгган томонга эгилади. Агар бола яхшиликка ўрганиб, яхшилик ичида вояга етса, дунё ва охират саодатини топади. Агар бола эътиборсиз ташлаб қўйилса, ёмонлик ичида ўсса, бадбахтликка юз тутуди ва ҳалок бўлади. Бунда гуноҳ юки шу кўйга солганларнинг, ота-онанинг зиммасига юкланади», деб огоҳлантиргани бежиз эмас.

Бугунги кунда ахборот оқимининг жадал ривожланиши, турли-туман фильмлар ва сериалларнинг кўплиги ҳам бола тарбиясида ҳам салбий ҳам ижобий роль уйнайди. Шунинг учун ота-оналар болалар кўрадиган ҳар бир кўрсатув ҳақида хабардор бўлишлари билан бирга уларга қандай теледастурларни кўришларини ҳам айтиб боришлари зарур. Чунки ҳозирги вақтда болалар учун жуда кўп мазмунга бой, уларнинг ақлий қобилиятини, фикрлашини, узгаларга ҳурмат ҳиссини ошишини шу билан бирга олижаноб, мард, ватанпарвар бўлиб етишишлари учун теледастурлар, тарихий кинолар, мультфильмлар намойиш қилинмоқда. Бу ўринда ҳам ота-оналарнинг шахсий намунаси фарзанд шахсини таркиб топтиришда муҳим аҳамиятга эга. Чунки болалар ҳам биринчидан, ота-онаси кўрган теледастурларни кўради ва ундаги образларга тақлид қилиб, уларга ўхшашга ҳаракат қилади, яъни лекин буни кўпинча тушуниб етмасдан қилади, иккинчидан образларнинг ташқи кўринишига ва қилиқларига тақлид қилади, чунки у шахснинг намоён бўлишини таҳлил қилишини ва шахсни барқарор хислатларини англаб етишга қодир эмас.

Ота-оналарга фарзандини олижаноб, ватанпарвар, ўзга миллат вакилларини ҳурмат қилиш боробарида масъулиятли қилиб тарбиялашларида аждодларимиз амалга оширган ишларни ёдга солиш ҳам муҳим деб уйлайман.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, болаларни мустаҳкам маънавий иммунитетли, ўзининг фикрларини равон айта оладиган, юқори марраларга эришувчан авлодни тарбиялаш учун ота-она, оила муҳити жуда катта аҳамият касб этади. Ҳеч кимга сир эмас, инсоннинг қалби ва онгини эгаллаш, айниқса, ёшларнинг маънавий дунёсини заҳарлашга қаратилган турли хавф-хатарлар ҳам кучайиб бораётган бугунги кунда ўзининг кимлигини, қандай бебаҳо мерос ворислари эканини теран англаб, она юртга муҳаббат ва садоқат ҳисси билан яшайдиган, имон-этиқоди мустаҳкам ёш авлодгина муқаддас заминимизни ёт ва бегона таъсирлардан, бало-қазолардан сақлашга, Ватанимизни ҳар томонлама раванқ топтиришга қодир бўлади. Фарзандларимизга шундай тарбия берайлики, улар ўз ота-боболарига, ўз тарихи, Ватани, она тилига, миллати, динига ва анъналарига содиқ бўлиб камол топишсин.

Адабиётлар:

1. Р.Мавлонова, О.Тўраева, К.Холиқбердиев. Педагогика. –Т., “Ўқитувчи”, 2002.

2. Д.Муитов. Ахборот асрида ёшларнинг дунёқараши.. -Т.: “Маънавият”. 2013
3. Д.А.Абдурахимова. Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг маънавий ахлоқий тарбияси асослари. –Т., 2016.

UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA IJODKORLIKNING AHAMIYATI

Saboat Orifova Yakubovna

Namangan VXYaMO'MM katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talabalarda mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish va yetuk malakali kadrlar tayyorlash masalalari bo'yicha mulohazalar bildirilgan*

Kalit so'zlar: uzluksiz ta'lim, kasb, ijodkorlik, texnologiya, mutaxassis, shakllanish, xususiyat.

Ma'lumki, hozirgi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimini rivojlantirish bu borasida jahon mamlakatlarining ilg'or g'oyalari, tarbiyaviy, ta'limiy nazariyalari, mutaxassislar tayyorlashning boy amaliyoti, hozirgi zamon texnikasi va texnologiyasidan foydalanish hamda milliy, hududiy xususiyatlarini hisobga olib, ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish, shu negizda yangisini ishlab chiqish va keng ko'lamda qo'llash bosh omil sanaladi.

Mutaxassislarning kasbiy shakllanish muammosining psixologik jihatlarini tadqiq etish mobaynida kasb tanlash, o'qish motivlari, kasbiy motivlarning paydo bo'lishi, uning yosh davrlari xususiyati bilan bog'liq dinamikasiga doir muammolar ham o'zining yetarlicha pedagogik yechimini kutayotganligi aniqlandi. Bu esa kasbiy kompetentlikka erishishda bo'lajak mutaxassisning shaxsiy sifatleri birlamchi ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi.

Bugungi ijtimoiy taraqqiyot, kasbiy erkinlik va kasbiy burch munosabati har bir shaxsdan ijodkorlik sifatlarining yuqori darajada shakllanishini talab etmoqda. SHaxsning aniq maqsadga yo'naltirilganligi uning ijodkorligi shakllanishining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Bu maqsad esa jamiyatdagi hayotiy ehtiyojlardan kelib chiqadi. Demak, ijodkorlik shaxsning aniq maqsad sari ongli tarzda faoliyat yuritishining yuqori ko'rsatkichi bo'lib, mustaqil fikrlar, tasavvurlar, tushunchalar, kuzatishlar, diqqat va qobiliyatlar majmuidir.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiyalash sharoitida kasb-hunar ta'limi muhim ijtimoiy institutlardan biri sifatida ta'limiy, tarbiyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy vazifalarni amalga oshirmoqda. Ularning muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlash uchun kasb-hunar ta'limi muassasalari talabalarida ijodiy va mustaqil fikrlash, kasbiy yetuklikka intiluvchanlik va yuksak ma'naviyatni shakllantirishni ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi lozim.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida ijodkor talaba shaxsini uzviy rivojlantirish bugungi kunda juda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Ijodkorlik shaxsda mustaqil fikrlash sifatleri namoyon bo'lishining eng asosiy va faol shakli hisoblanib, uni quyidagi belgilariga ko'ra tasniflash mumkin: ijod turi (texnik, texnologik, tashkilotchilik, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, pedagogik, didaktik, kasbiy, aralash); ijod darajasi (mono ijod,

mul'ati ijod, mega ijod); ijod qamrovi (ixtisoslik, mutaxassislik, bilim sohasi, tarmoqlararo, milliy, mintaqaviy, mintaqalararo, xalqaro); ijodning davomiyligi (qisqa muddatli, o'rta muddatli, uzoq muddatli); ijodning shakli (innovatsion, ilmiy-tadqiqotchilik, ta'limiy, investitsion, aralash); umumiy jihatlariga ko'ra (yangi g'oyalarni hayotga tatbiq etish; printsipial jihatdan yangi yechimlarni ilgari surish; yangilikni amaliy qo'llash); yaratilgan ijod mahsulining ma'nosi va murakkabligiga ko'ra (ratsionalizatorlik taklifi; ixtiro; kashfiyot).

Talabalar ijodkorlik faoliyatini tashkil qilish mustaqil fikrlashni rivojlantirish, bilim egallashtirish, bilim egallashdagi intiluvchanlik, ilmiy

dunyoqarashni shakllantirish, o'zlashtirilgan bilimlarni ta'lim va amaliy faoliyatda mustaqil qo'llay olishga o'rgatishda namoyon bo'ladi.

Talaba shaxsini kasbiy-ijodiy rivojlantirishga qaratilgan yondashuv va uni amalga oshirish texnologiyalari o'quv jarayonida individual ta'lim traektoriyasini amalga oshirishga qaratilishi, shu bilan birga u muayyan darajadagi umumiylik va universallikka ega bo'lishi lozim. Bunga erishish uchun shaxsni kasbiy-ijodiy rivojlantirish texnologiyasi kreativ va korreksion xarakterga ega bo'lishi lozim, deb hisoblaymiz.

Shaxsni kasbiy-ijodiy rivojlantirishga o'rgatish texnologiyasi talabalarning o'quv-kasbiy faoliyatini boshqarish jarayonini loyihalashda talabalarning individual xususiyatlari, ularning motivlari hamda qiziqishlarini, pedagogning metodi va mahoratini, ta'lim muassasasi ixtisosini e'tiborga oladigan darajada moslashuvchan bo'lishini nazarda tutishi va uni qo'llash boshqa pedagoglar tomonidan turli shart-sharoitlarda qo'llash uchun yetarlicha umumlashgan bo'lishi kerak.

Talaba shaxsini kreativ taraqqiy ettirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni loyihalashda sub'ektning faolligi va mustaqilligini ta'minlash, mavjud g'oyalardan eng maqbulini tanlashga o'rgatish, muammoli vaziyatlarni yaratish, ushbu vaziyatlardan zarurini erkin tanlash ko'nikma va malakalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Uzluksiz ta'lim tizimida tizimlilik va izchillik printsiplari muhim ahamiyat kasb etadi. Bilim olishdagi tizimlilik va izchillik nazariya va amaliyotning birligi, Davlat ta'lim standartlari, ularga mos ravishda o'quv dasturlarini yaratish va ta'lim-tarbiya jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etish bilan ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.expert.psychology.ru
2. www.psychology.all.ru
3. www.psychology.net.ru

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Расулова Санобар Маматкуловна

*старший преподаватель дошкольного, начального и специального
образования Кашикардинской области НЦПУНМ*

Аннотация: В данной статье даны рассуждения о роли, значении, о дидактических играх на уроках математики.

Ключевые слова: роль, игра, дидактика, учёба.

Игра имеет важное значение в жизни детей младшего школьного возраста. С.А.Шацкий, высоко оценивая значение игры, писал: “Игра, эта жизненная лаборатория детства, дающая тот аромат, ту атмосферу молодой жизни, без которой эта пора её была бы бесполезна для человечества. В игре, этой специальной обработке жизненного материала, есть самое здоровое ядро разумной школы детства.”

Дидактическая игра (игра обучающая) – это вид деятельности, занимаясь которой, дети учатся. Дидактическая игра, как и каждая игра, представляет собой самостоятельный вид деятельности, которой занимаются дети: она может быть индивидуальной или коллективной. Данная игра является ценным средством воспитания действенной активности детей, она активизирует психические процессы, вызывает у учащихся живой интерес к процессу познания. В ней охотно дети преодолевают значительные трудности, тренируют свои силы, развивают способности и умения. Она помогает сделать любой учебный материал увлекательным, вызывает у учеников глубокое удовлетворение, создаёт радостное рабочее настроение, облегчает процесс усвоения знаний. В дидактических играх ребёнок наблюдает, сравнивает, сопоставляет, классифицирует предметы по тем или иным признакам, производит доступный ему анализ и синтез, делает обобщения.

Игра ценна только в том случае, когда она содействует лучшему пониманию математической сущности вопроса, уточнению и формированию математических знаний учащихся. Дидактические игры и игровые упражнения стимулируют общение между учениками и преподавателем, отдельными учениками, поскольку в процессе проведения этих игр взаимоотношения между детьми начинают носить более непринуждённый и эмоциональный характер.

Использование дидактических игр оправдано только тогда, когда они тесно связаны с темой урока, органически сочетаются с учебным материалом, соответствующим дидактическим целям урока.

Математическая рыбалка.

Дидактическая цель. Закрепление приемов сложения и вычитания умножения и деления. Средства обучения. Рисунки 10 рыбок, удочка с магнитом.

Содержание игры. Рыбки, на обратной стороне которых записаны примеры, размещаются в «ёмкости-море». Учитель поочередно вызывает детей к доске, они «ловят» рыбку, с помощью удочки с магнитом, читают пример, решают, называют ответ. Все ученики находят ответ и показывают карточку с цифрой учителю.

Лучший космонавт.

Дидактическая цель. Формирование навыков сложения и вычитания. **Содержание игры.** Учитель на доске рисует 10 ракет с номерами от 1 до 10.

Вызываются сразу 11 учеников. Вокруг стола, где разложены карточки с примерами, дети идут, взявшись за руки, и декламируют: «Ждут нас быстрые ракеты На такую полетим! Для прогулок по планетам. Но в игре один секрет: На какую захотим, Опоздавшим места нет». Как только сказано последнее слово, учитель выдает каждому ученику карточки с примерами, шифрующими номер ракеты, на которой полетит космонавт. Дети решают примеры, определяя номер своей ракеты, и пишут пример под соответствующим номером ракеты.

Составь круговые примеры.

Дидактическая цель. Составление примеров, у которых первый компонент равен ответу предыдущего примера.

Содержание игры. Учащиеся составляют примеры с ответом, равным первому компоненту следующего примера. Например, на доске даны следующие записи: $7-5=2$ $2+6=8$ $8+2=10$ $10-8=2$ Учащиеся составляют цепочку примеров по заданному правилу. Игру можно проводить в любом классе, усложняя задания.

Почтальон.

Дидактическая цель. Закрепление приемов умножения и деления (табличные случаи). Средства обучения. Рисунки домиков, карточки с примерами. Содержание игры. Учитель вызывает к доске учеников, они выбирают карточку с примером, решают, указывают номер дома, квартиры, куда отправлено письмо.

Математическая эстафета.

Дидактическая цель. Обучение навыкам быстрого счёта.

Содержание игры. Класс разбивается на команды. Для каждой команды учитель пишет примеры. Одновременно от каждой команды к доске вызывается по одному ученику. Их задача состоит в том, чтобы правильно и быстро решить соответствующий пример и передать эстафету своему товарищу. Игра продолжается до тех пор, пока ученики каждой команды решат все примеры. Побеждает та команда, которая раньше других правильно решит примеры

Молчанка.

Дидактическая цель. Закрепление навыков устного счёта.

Содержание игры. На доске или карточке записаны числа по кругу, а в центре знак действия. Учитель молча показывает на два числа и на кого-то из учащихся. Тот должен выполнить с ними определённое действие и назвать ответ. Остальные сигнализируют о правильности решения.

Поезд.

Дидактическая цель. Закрепление навыков устного счёта.

Содержание игры. На доску прикреплены вагоны с числами и знаками действий. Дети молча считают и называют ответ в конце последнего вагона.

Кто пришёл в гости?

Дидактическая цель. Формирование навыков сложения и вычитания.

Содержание игры. На доску прикреплены выражения сверху вниз, на обратной стороне которых разрезная картинка с изображением какого-то

героя. Дети начиная сверху находят значения выражений и, если решили правильно, переворачивают карточки. В результате получается целая картинка героя, который пришёл сегодня на урок к ребятам.

Игры с применением ИТК.

«Мальчики – Девочки»

Цель: Развитие внимания, быстроты мыслительных операций, памяти.

Описание: По щелчку на экране появляются кружки разного цвета с примерами.

Задание: Если кружок синего цвета, то ответ хором называют мальчики, если красного – девочки. Выигрывают, те кто меньше допустил ошибок. Если кружок другого цвета, в классе тишина.

«Математическая тучка»

Цель: Развитие внимания, зрительного восприятия, закрепление учебного материала с помощью игровой мотивации.

Описание: На экране изображение тучки и капельки с числом.

Задание: Дети по вызову учителя выходят к доске и подбирают к тучке пару капельку с таким же числом. Нужно навести курсор на нужную капельку и щёлкнуть.

Литература:

1. Ферчева Виктория Викторовна учитель начальных классов МОУ Непецинской СОШ. Использование дидактических игр на уроках математики в начальной школе. Опубликовано 28.05.2020.

2. Перова М.Н. Дидактические игры и упражнения по математике. М., 1996.

OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI TALABALARINING TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR MUAMMOLI TA'LIMNING TURLARI VA ASOSIY FUNKSIYALARI

Elmurodova Dilnoza Shuhrat qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga doir muammoli ta'limning turlari va asosiy funksiyalari keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, muammoli ta'lim, o'quv va kognitiv faoliyat, muammoli vaziyat, mustaqil tahlil qilish, ijodiy qobiliyat, o'z-o'zini boshqarish.

Muammoli o'qitish yetarli darajada bo'lishi uchun – yaxlit o'quv-tarbiya jarayoni uzviy bo'lishi kerak. Ta'lim muammolarini psixologik tasniflash quyidagi ko'rsatkichlarga asoslanadi: 1) noma'lum va qiyinchilik tug'diradigan xususiyati; 2) muammoni yechish usuli; 3) masaladagi ma'lum va noma'lumning mazmuni va munosabati.

Ilmiy manbalar va pedagogik tajribalar muammoli ta'lim – bu ta'lim oluvchilarning o'quv va kognitiv faoliyati, muammo yuzaga kelganda o'qituvchining talqinini idrok etish, muammoli vaziyatni mustaqil tahlil qilish, tavsiyalar, taxminlar, ularni asoslash va ishlab chiqish orqali muammolarni shakllantirish, ularni hal qilish orqali bilim va faoliyat usullarini o'zlashtirish,

dalillar, shuningdek, yechimning to'g'riligini tekshirishga qaratilganligini ko'rsatdi.

Ko'rinadiki, muammoli ta'lim – muammolarni shakllantirish, muammoli vaziyatlarni tashkil etish, muammolarni yechish uchun talabalarni yo'naltirish, muammolarni yechishda zarur yordam ko'rsatish va yechimlarni sinab ko'rish, olingan bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash jarayoniga rahbarlik qilish kabi harakatlar majmuasidir. Muammoli ta'limning mazmuni turli darajada murakkablikdagi muammoli vazifa va vaziyatlar tizimidan iborat bo'lib, uni hal qilish jarayonida talabalar yangi bilim va harakat usullarini o'zlashtiradilar, shu orqali quyidagi ijodiy qobiliyatlar yuzaga keladi: samarali fikrlash, tasavvur, kognitiv motivatsiya, intellektual his-tuyg'ular.

Muammoli ta'lim jarayonida o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni hal qilish orqali talabalarning faol mustaqil faoliyatini o'z ichiga olgan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish natijasida kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish, fikrlash qobiliyatining rivojlanishi sodir bo'ladi.

"Muammoli ta'lim" tushunchasiga berilgan mavjud ta'riflarni umumlashtirish bizga quyidagi mualliflik ta'rifini ishlab chiqish imkonini berdi: muammoli ta'lim – bu talabalar (individual, jamoaviy, hamkorlik, mustaqil, tanqidiy, ijodiy, o'z-o'zini boshqarish) faoliyatini tashkil etish usuli bo'lib, o'qituvchi tomonidan mavzuning muammoli ta'lim mazmuni bilan faol o'zaro ta'siri, muammoli vaziyatlarda nazariy va amaliy muammolarni hal qilish orqali ma'lumot olishga asoslanadi, shuningdek, fikrlash va ijodiy fikrlashni o'rganish, bilimlarni assimilyatsiya qilish, ilmiy bilimlarning obyektiv qarama-qarshiliklari va ularni hal qilish usullari orqali tashkil qilinadi.

Pedagogik tajribalar ko'rsatadiki, muammoli ta'limning bosh maqsadi – muammoni to'liq tushunib yetishga erishish va uni hal eta olishga o'rgatish, shuningdek:

talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bilimlardan foydalanishda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va o'quv materialini o'zlashtirish darajasini oshirish;

talabalarni faktlar, dalillar, bilimlarga tayangan holda fikrlashga, mulohaza yuritishga, asoslangan xulosalar chiqarishga, mustaqil asoslantirilgan, dalillangan qarorlar qabul qilishga o'rgatish;

ilmiy bilimlar natijalarini o'zlashtirish, shuningdek, bilish usullarini o'zlashtirish;

talabaning intellektual, motivatsion sohalarini shakllantirish va rivojlantirish;

talabalar tomonidan bilimlar tizimi va aqliy amaliy faoliyat usullarini egallashi, tanqidiy tafakkurini shakllantirish;

talabalarning akme darajasiga (yuqori rivojlanish darajasiga) erishish, mustaqil fikrlash, mustaqillik, mustaqil bilim olish, mustaqil faoliyat yuritish, o'z-o'zini rivojlantirish;

talabalarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish;

kollabratsiya-kooperatsiya (jamoalar bo'lib ishlash, ijtimoiy hamkorlik), kommunikatsiya (o'zaro aloqa va munosabatga kirisha olish), kreativlik (ijodkorlik qobiliyati), kritik (tanqidiy fikrlash) ko'nikmalarini rivojlantirish;

talabalar o'rtasida tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish.

Muammoli ta'limning mohiyati – ta'lim jarayonida o'qituvchi tafakkurning rivojlanish qonuniyatlari haqidagi bilimlarga tayangan holda maxsus pedagogik vositalar yordamida o'quv jarayonida o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlari va bilish ehtiyojlarini shakllantirish ustida ish olib boradi.

Yuqorida qayd etilganlarga asoslanib, muammoli ta'limning funksiyalari aniqlashtirildi:

1) talabalarning bilimlar tizimi va aqliy amaliy faoliyat usullarini o'zlashtirishi;

2) o'quvchilarning bilim faolligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

3) ijodiy bilimlarni egallash ko'nikmalarini rivojlantirish;

4) bilimlarni ijodiy qo'llash ko'nikmalarini va ta'lim muammolarini hal qilish qobiliyatini rivojlantirish;

5) ijodiy faoliyatda tajribani shakllantirish va to'plash.

Mutaxassislar muammoli ta'limning quyidagi uch turini aniqlashtirgan [5]: bilimlarni muammoli taqdim etish; bilimlarni taqdim etishning alohida bosqichlarida talabalarni izlanishga jalb qilish; tadqiqot usuli.

Adabiyotlarning nazariy tahliliga tayangan holda [1; 2; 3; 4; 5; 6], taqdim etilayotgan materialning mazmunini hisobga olgan holda muammoli ta'limning ikki turini ajratish mumkin:

1. Ilmiy kashfiyot, tajribaning tarixi, kelib chiqishini o'z ichiga olgan materialning muammoli taqdimoti;

2. Zamonaviy ilmiy bilimlarga asoslangan muammoni taqdim etish.

Mualliflar tomonidan qayd etilgan muammoli ta'lim turlarini umumlashtirish natijasida muammoli ta'limning uchta asosiy turini umumlashtirdik:

Muammo. O'qituvchi talabalarga ular javobini bilmagan muammo yoki savolni taqdim etadi, bunda, ular asosiy bilimga yoki uni mustaqil ravishda topish qobiliyatiga ega. Bunday muammoli vaziyatlar talabalarning yoshiga tushunarli bo'lishi, ularning tajribasiga javob berishi va haqiqiy materialga asoslangan bo'lishi kerak.

Nazariy tadqiqot. Talabalar nazariy ta'lim muammosini hal qiladilar va shu orqali ular uchun yangi bo'lgan qoidani kashf etadilar. Aytishimiz mumkinki, talabalar xuddi shu tajriba usulidan foydalanib, kashfiyotchilar, ma'lum bir muammoni hal qilishga uringan tadqiqotchilar kabi faoliyat olib boradilar.

Amaliy yechim topish. Talabalar ma'lum bilimlarni yangi vaziyatda qo'llash yo'llarini izlaydilar. Bu odatda amaliy mashg'ulotlarda amaliy vazifalarni hal qilish shaklida sodir bo'ladi.

Yuqoridagi barcha tavsiflar muammoli ta'limning ikki – umumiy va maxsus guruhlar mavjudligini ko'rsatdi, shundan kelib chiqib, muammoli ta'lim quyidagi umumiy funksiyalarni amalga oshiradi:

talabalarning bilimlar tizimi, intellektual (aqliy) va amaliy faoliyat usullarini o'zlashtirishi;

talabalarning aql-zakovatini, ya'ni, ularning kognitiv mustaqilligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

talabalarning dialektik-materialistik tafakkurini shakllantirish;

har tomonlama va barkamol shaxsni shakllantirish.

Maxsus funksiyalar quyidagilarda aks etishi aniqlandi:

ijodiy bilimlarni egallash ko'nikmalarini rivojlantirish (mantiqiy texnikalar tizimidan yoki ijodiy faoliyatning individual usullaridan foydalanish);

bilimlarni ijodiy qo'llash (o'zlashtirilgan bilimlarni yangi vaziyatda qo'llash) va ta'lim muammolarini hal qilish qobiliyatini rivojlantirish;

ijodiy faoliyatda tajribani shakllantirish va to'plash (ilmiy tadqiqot usullarini o'zlashtirish, amaliy muammolarni hal qilish va voqelikni badiiy aks ettirish);

o'quv motivlarini, ijtimoiy, axloqiy va kognitiv ehtiyojlarni shakllantirish.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, muammoli ta'lim talabalarning bilish faolligi hamda ijodiy mustaqilligini oshiradi. Muammoli ta'limning mohiyati muammoli vaziyatlarni yaratish (tashkil etish) va talabalar bilan hamkorlikda hal etishdan iborat. Bunda talabalar mustaqil ishlashi (fikr yuritishi, masalalarni hal etishi va b.), o'qituvchi esa fasilitator – yo'naltiruvchi bo'lishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. M.A. Pease, D. Kuhn. Experimental analysis of the effective components of problem-based learning. *Sci Educ*, 95 (1) (2011), pp. 57-86

2. Elaine H.J. Yew, Karen Goh. Problem-Based Learning: An Overview of its Process and Impact on Learning. *Health Professions Education*. Volume 2, Issue 2, December 2016, Pages 75-79.

3. Halpern, Diane F. (2006), „The Nature and Nurture of Critical Thinking“, in Sternberg, Robert J; Roediger Iii, Henry L; Halpern, Diane F (muh.), *Critical Thinking in Psychology*, Cambridge University Press, 1–14-bet, doi:10.1017/cbo9780511804632.002, ISBN 9780511804632

4. Дмитренко Т.А. Профессионально-ориентированные технологии обучения в системе высшего педагогического образования: дисс. ... док. пед. наук. 2004. – с. 442.

5. Скаткин М.Н. В творческом поиске // Педагогический поиск / Сост. И.Н.Баженова. – 2-е изд., с испр. и доп. – М.: Педагогика, 1990. – С.3-8.

6. Шайхуллин Тимур Акзамович. Реализация технологии проблемного обучения в высшей школе (на примере преподавания арабского языка и страноведения). 13.00.01 — общая педагогика, история педагогики и образования. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата педагогических наук. Казань -2006. – с. 20.

4-SHO‘BA. TA‘LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARNING AHAMIYATI

PEDAGOGLARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR

Berdaliyeva Gulasal Abduqunduzovna

Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI mustaqil tadqiqotchisi, (PhD), dotsent

Annotatsiya: Bugungi kunda xalqaro munosabatlarning rivojlanish jarayoni shuni yaqqol ko‘rsatadiki, hamkorlikning asosiy shakli sifatida sheriklikni o‘rnatish hamda malaka oshirish tizimlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganish juda dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Abstract: Today, the development process of international relations clearly shows that the establishment of partnership as the main form of cooperation and the study of foreign experience in the modernization of the personnel training system is becoming a very urgent task.

Kalit so‘zlar: O‘qituvchilar, malaka, ta‘lim, Finlyandiya, jamoa, kadrlar.

Key words: Teachers, qualification, education, Finland, team, personnel.

Dunyoning barcha mamlakatlarining o‘zaro aloqasi va o‘zaro bog‘liqligi kengayib va chuqurlashib borayotgan bir sharoitda, O‘zbekistondagi pedagog kadrlarning malakasini oshirish tizimini rivojlanishini jahon ta‘lim makonini rivojlantirish jarayonlaridan ajralgan holda o‘rganib bo‘lmaydi. Ko‘pgina xorijiy mamlakatlarda BMT, YuNESKO, OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) muvofiqlashtiruvda professor-o‘qituvchilar malakasini oshirish sohasida qiyosiy pedagogika bo‘yicha aniq maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda uzluksiz malaka oshirish ta‘lim tashkiloti faoliyatini takomillashtirishning asosiy sharti hisoblanadi va shuning uchun rahbarning vazifasi shu rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlarni ta‘minlashdir. Ammo o‘qituvchining kasbiy mahorati nimani anglatishini tushunish turli mamlakatlarda bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi ekan, uni ta‘minlash usullari ham farq qiladi.

Malaka oshirish Yevropaning deyarli barcha mamlakatlari va mintaqalarida o‘qituvchilarning majburiyati deb hisoblanadi. Biroq, hamma joyda ham ushbu mas‘uliyatni belgilaydigan me‘yoriy-huquqiy baza mavjud emas. Masalan, Fransiya, Islandiya, Gollandiya va Shvesiyada kasbiy malaka oshirish o‘qituvchilarning vazifasi deb e‘lon qilingan, ammo amalda ular bundan bo‘yin tovlashlari mumkin. Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Ispaniya va Luksemburgda muttasil malaka oshirish ixtiyoriydir, ammo ta‘qib etilmasada, u lavozim va ish haqiga ta‘sir qiladi. Luksemburg va Ispaniyada ma‘lum bir o‘qish kursiga ro‘yxatdan o‘tgan o‘qituvchilar qo‘shimcha ish haqi oladilar. Qolgan uchta mamlakatda o‘qituvchilar turli shakllar va o‘quv dasturlari uchun kreditlar to‘plashadi va bu ularni yangi lavozimga tayinlashda hisobga olinadi. Kipr, Gresiya va Italiyada uzluksiz kasbiy rivojlanish faqat boshlang‘ich maktab

o'qituvchilarining mas'uliyati hisoblanadi.

AQShdagi o'qituvchi kadrlar malakasini oshirish tizimini rivojlantirish jarayonlari tahlili shuni ko'rsatdiki, ushbu mamlakat siyosiy va ishbilarmon dunyosi rahbarlari, boshqa mamlakatlarga qaraganda oldinroq, uzoq muddatli iqtisodiy farovonlikning zaruriy sharti sifatida o'qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning samarali tizimi ekanligini anglab yetdilar.

Biroq, AQShda malaka oshirish tizimining bosqichma-bosqich rivojlanishi bir tekis va oson bo'lmagan. Bu turli xil bosqichlarni o'z ichiga olgan o'zgarishlarga to'la jarayon edi. Ular orasida shartli ravishda uchta bosqichni ajratish mumkin: 40-yillardan 60-yillarga qadar, 20-asrning 60-80-yillari va 80-yillardan hozirgi kungacha. Malaka oshirish tizimini rivojlantirishning har bir bosqichi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari, jamiyatning maktabga bo'lgan talablari bilan tavsiflanadi.

Muammoning tarixiy-pedagogik umumlashtirilishi zamonaviy Amerika maktabi hayotini tavsiflovchi yangiliklar va o'qituvchilar malakasini oshirish mazmuni o'rtasidagi o'rganilayotgan yondashuvlarda aks etayotgan aloqalarni qayd etish imkonini beradi. Yaqqol ko'rinib turgan farqlariga qaramay, ularning barchasi nafaqat zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mohirona egallagan, balki yuqori shaxsiy fazilatlarga ega bo'lgan va maktab muhitini o'zgartirishda ongli ravishda ishtirok etadigan ustoz o'qituvchini tayyorlashga qaratilgan.

Malaka oshirish tizimida olib borilgan tadqiqotlar asosida amerikalik mutaxassislar (A.Brolli, Ch. Knopper) quyidagi xulosalarga kelishdi: malaka oshirish tizimidagi asosiy bo'g'in o'qituvchi; o'qituvchini bir tomonlama alohida fani bo'yicha tayyorlash istiqbolga ega emas; zamonaviy o'qituvchi pedagogik va ijtimoiy-psixologik bilimlarni mukammal egallagan bo'lishi lozim. Ushbu tavsiyalar o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini tubdan takomillashtirish uchun bir qator amaliy choralarni ko'rish imkonini berdi.

Angliyada maktab samaradorligini boshqarishning markazlashgan (school effectiveness) tizimidan mavjud ulgurmasliklarni har bir maktabda bartaraf etishga intiluvchi maktabni takomillashtirishning markazlashtirilmagan (school improvement) tizimiga o'tishi bilan xususiy ta'lim xizmatini taqdim etuvchilar paydo bo'lib, maktab jamoalariga o'zlarining rivojlantirish bo'yicha xizmatlarini taklif qilishmoqda. To'g'ri, ko'pincha ular eng qiyin muammolarni tezda hal qilishga va'da berishadi va bolalar qanday va nimani o'rganishlarini o'ylash uchun vaqt qoldirmaydilar. Biroq, jamoaviy kasbiy rivojlanish, albatta, maktabni takomillashtirish dasturining muvaffaqiyati uchun zaruriy shartdir. Bu haqda Maykl Fullan [22] asarlarida ko'p qayd qilingan. Angliya tajribasini tahlil qilib, u butun jamoaning kasbiy rivojlanishi maktabning o'zida amalga oshirilsa, individual mashg'ulotlarga qaraganda ancha samaraliroq bo'lishini ta'kidlaydi.

Angliya va Uelsdagi o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishining ko'p qismi ish joylarida amalga oshiriladi. Bunda nafaqat maktab faoliyatini yaxshilashga qaratilgan keng qamrovli sa'y-harakatlar, balki o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalarning ushbu jarayonga har bir sinf va o'quvchini rivojlantirishga yo'naltirilgan turli xil nuqtai-nazarlarni jalb qilish, bilim va ko'nikmalarini

almashish bo'yicha kasbiy hamkorligi nazarda tutiladi. Bunday dasturlar o'qituvchilarning muvaffaqiyatli rivojlanishi yuz berishi mumkin bo'lgan sharoitlar haqidagi nazariyalar tufayli paydo bo'lgan. Ularga ko'ra o'qituvchining rivojlanishi muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin - agarda ular:

- o'zlari dars beradigan muhit va sharoitlarda o'qitish jarayoniga hamda o'quvchilarning natijalariga e'tibor qaratish;

- uzoq vaqt davomida o'rganish va tajriba o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lish, shu bilan birga hamkasblari, o'quvchilari va ularning ota-onalaridan amalga oshirilgan yangiliklar to'g'risida fikr-mulohazalar olish;

- maktab ichkarisida ham, tashqarisida ham mutaxassislardan ko'mak olish imkoniga ega bo'lish, shuningdek zamonaviy tadqiqotlar natijalari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lsalar.

TALIS tomonidan so'rov o'tkazilgan mamlakatlarning yarmida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga sarflaydigan vaqtning quyi chegarasi belgilanmagan ekan. Bunday talablar mavjud bo'lgan mamlakatlarda – Avstraliyaning ayrim shtatlari, Avstriya, Belgiya, Finlyandiya, Vengriya, Niderlandiya, Shotlandiya, Shveysariya, Shvesiya va AQShning ba'zi shtatlaridagi fransuz jamoalarida – eng kam muddat, odatda, yiliga besh kun. Ammo soatlik muddatlar ham mavjud: Avstriyada malaka oshrish kursining eng kam davomiyligi yiliga 15 soatni, Shvesiyada – 104 soatni tashkil qiladi. Angliya va Uelsda vaqt me'yorlari yaqinda joriy etildi. Endi har bir o'qituvchi o'z malakasini oshirishga yiliga kamida 5 kun ajratishga majbur va maktab 18 kunga qadar bunday malaka oshirishni moliyalashtirishi mumkin. Chexiyada o'qituvchiga kasbiy rivojlanishini tashkil etish uchun yiliga 12 kunlik mustaqil ish haqi to'lanadi. Italiyada maktablarning dars jadvallari o'zgartirishga moslashuvchanligi sababli, malaka oshirish mashg'ulotlari odatda o'qituvchilarning bo'sh vaqtlarida amalga oshiriladi. Ko'pincha bu intensiv o'quvlar jamoaviy tavsifda bo'lib, bir necha kun davom etadi. Bundan tashqari, o'qituvchining shartnomasida u boshqa mashg'ulotlarda qatnashish uchun darslardan ozod bo'lgan 5 ta o'quv kunini ajratishi mumkinligi aytilgan. Litva, Finlyandiya va Sloveniyada o'qituvchiga qonuniy ravishda yiliga 5 kunlik o'qish vaqtida maoshi saqlab qolinadi. Ruminiya, Belgiya va Luksemburgda har hafta bo'lib o'tadigan metodik mashg'ulotlarda shug'ullangan vaqti uchun o'qituvchiga ish haqi to'lanaveradi. Portugaliyada o'qituvchiga 3 kundan 8 kungacha majburiy kasbiy rivojlanishdan tashqari o'z ixtiyori bilan shug'ullangan 10 soatgacha mashg'ulotlar ham ish beruvchi tomonidan to'lanadi.

Angliyada “O'qituvchilar malakasini oshirish agentligi” “Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish agentligi”ga aylantirilgan, uning zimmasiga kasbiy standartlarning yangi nus'halarini yaratish va ta'lim siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlarini aks ettiruvchi malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish vazifasi qo'yilgan.

Yevropa mamlakatlarining aksariyatida o'qituvchilar uchun uzluksiz ta'lim dasturlari bepul. Vengriyada bunday dasturlar narxining 80 foizini davlat, 20 foizini maktablar va o'qituvchilarning o'zlari qoplaydilar. Masalan, Finlyandiyada, hukumat bunday dasturlarga yiliga 220-250 million yevro sarf qilsa-da, maktablar xizmat safari va o'qituvchilarni almashtirish xarajatlarini o'zlari to'laydilar. Shu

sababli, fin o'qituvchilari tez-tez o'qish maqsadida grant olish uchun davlat va xususiy jamg'armalarga murojaat qilishadi. Chexiya, Gollandiya, Angliya va Litvada kasbiy rivojlanish uchun mablag to'liq maktablarga o'tkaziladi va rivojlanish imkoniyatlarini kimga va qanday taqdim etishni maktablarning o'zlari hal qilishadi.

Iqtisodiy taraqqiyot va rivojlanish tashkilotiga a'zo aksariyat mamlakatlarda intiluvchan o'qituvchilar uchun boshlang'ich tayyorgarlik dasturlari mavjud. Yigirma to'rtta mamlakatdan o'ntasi ushbu dasturlarda qatnashishni majburiy etib belgilagan. Bular Avstraliya, Angliya, Shimoliy Irlandiya, Uels, Fransiya, Isroil, Italiya, Yaponiya. Janubiy Koreya va Shveysariya. Shotlandiyada bunday dasturlarda qatnashish ixtiyoriy, Kvebek (Kanada), Daniya, Gollandiya va Shvesiyada maktab ushbu dasturlarda ishtirok etishni mustqil hal qiladi. Isroil, Yaponiya, Shimoliy Irlandiya va Shveysariyada kasbiy o'qitish dasturlari o'qituvchilar malakasini oshirish institutlari va maktablar tomonidan birgalikda olib boriladi. Dasturlarning davomiyligi yetti-sakkiz oydan (Koreya va Gresiya) ikki yilgacha (Kvebek, Shveysariya va AQShning ayrim shtatlari) o'zgarib turadi. Bunday dasturlarni tashkil qilishga murabbiy-o'qituvchilar (mentorlar) va maktab rahbarlari jalb qilinadi.

Shvesiyada bo'lgani kabi o'qituvchilarning katta guruhlarini ommaviy qayta tayyorlash g'oyalari sobiq ittifoq mamlakatlarida ham mashhurdir. Masalan, Qozog'istonda 2020 yilgacha barcha o'qituvchilarni ommaviy qayta tayyorlashni amalga oshirish vazifa etib belgilangan va asosan Yevropa Ittifoqi tomonidan belgilab qo'yilgan 10 ta ustuvor rivojlanish yo'nalishlari tanlab olingan.

Rossiyalik o'qituvchilarni sertifikatlashda malaka oshirish hisobga olinsa-da, bu maoshning oshishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilmaydi, Qozog'iston va Gruziyada malaka oshirganlik uchun maoshga ustamalar ko'zda tutilgan. Haqiqiy imtiyozlarning yo'qligi Rossiya o'qituvchilarining malaka oshirishga bo'lgan motivatsiyasiga salbiy ta'sir qiladi, deb hisoblaydilar.

Germaniyada o'qituvchilarni malakasini oshirish har bir federal yerida mavjud bo'lgan malaka oshirish institutlari negizida amalga oshiriladi. Bunday mintaqaviy tuzilma mazkur institutlarning faoliyatini muvofiqlashtirish imkoniyatini beruvchi aniq maqsadlarni amalga oshirish va teskari aloqani ta'minlaydi. Hududlarga malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha mustaqillikni berilishi juda muhim tamoyil bo'lib, unga ko'ra har bir maktab har yili tuman ma'muriyatiga malaka oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini taqdim etadi.

Finlyandiyada o'qituvchilar tadqiqot usullari va o'qitish amaliyoti bo'yicha yaxshi tayyorgarlikka egalar. Demak, ular zamonaviy tashxis ko'nikmalariga ega mutaxassislar bo'lib, jamoaviy tarzda o'qitilayotgan fan va o'quvchilarning talablariga javob beradigan mashg'ulotlar o'tkazish uchun birgalikda harakat qilishadi.

Finlyandiyada ish beruvchilar (maktab direktorlari yoki hududiy qo'mitalar) har yili o'qituvchilar uchun malaka oshirishni tashkil qilish uchun mas'uldirlar.

Finlyandiyada maktab rahbarlari uchun ixtisoslashtirilgan malaka oshirish tizimi mavjud emas, chunki ushbu lavozimga nomzodlarni tanlash direktorlarning o'zlarini kerakli kasbiy fazilatlariga ega ekanliklarini isbotlagan shaxslar bo'lishini

ko'zda tutadi. Agar kerak bo'lsa, direktorlar munitsipalitetlar tomonidan tashkil etilgan kurslarda maslahat amaliyotidan o'tadilar yoki menejment, kadrlar menejmenti, jamoadagi iqlimni psixologik qo'llab-quvvatlash va zamonaviy menejmentning boshqa jihatlari bo'yicha turli seminarlarda o'qitiladi. Finlyandiyada hamkorlar va maktab rahbarlari kasbiy jamoalarining juda rivojlangan tizimi, shuningdek, innovatsion tajriba almashishning rivojlangan tizimi mavjud.

Singapurda o'qitish sifatini va o'qituvchilarning malakasini oshirishni baholashning izchil va keng qamrovli tizimi joriy qilingan.

Janubiy Koreyada o'qituvchilarni tayyorlash muhimligini hisobga olib, 1960 yillarning o'rtalarida boshlang'ich va o'rta maktab o'qituvchilari uchun malaka oshirish markazlarini ochish to'g'risida qonun qabul qilindi. 1992 yilda 17 ta universitet qoshida o'rta maktab o'qituvchilarining malakasini oshirish institutlari ochildi. Shu kabi boshlang'ich maktab o'qituvchilari malakasini oshirish institutlari 11 ta davlat o'qituvchilar malakasini oshirish kollejlari ochildi [38].

Yaponiyada o'qituvchilarni rivojlantirish tizimi (INSET) ikki toifaga bo'linadi, biri majburiy, ikkinchisi ixtiyoriy. Ixtiyoriy ravishda qo'shimcha mashg'ulotlar, o'z navbatida, maktab ichidagi va tashqi ta'limga bo'linadi. Majburiy malaka oshirish odatda har bir prefekturada joylashgan o'qituvchilar malakasini oshirish markazlarida amalga oshiriladi [38].

Respublikamizda malaka oshirish tizimi (MOT) o'tgan asrning 30-yillarida shakllana boshlagan. Mazkur tizimning rivojlanishi tarixi haqida tadqiqotlarda nisbatan kam ma'lumotlar keltirilgan. Mamlakatimiz olimlari J.G.Yo'ldoshev va H.Q.Yo'ldoshevlarning, shuningdek, MDH olimlarining (N.A. Lukina, E.M. Nikitin, P.V. Xudominskiy) tadqiqotlari asosida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimining mamlakatimizda yo'lga qo'yilishi va rivojlanishi tarixi haqida mulohazalar yuritish mumkin.

Mamlakatimizda o'qituvchilar malakasini oshirish tizimini shakllantirishni davriylashtirishning turli xil variantlari mavjud. Shakllanish va davriylashtirishning eng batafsil tahlili J.G.Yuldoshev, H.Q.Yuldoshev, N.A. Lukina, E.M. Nikitin va P.V. Xudominskiy asarlarida keltirilgan.

1917 yildan yigirmanchi asrning 80-yillariga qadar xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish tizimini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha birinchi tarixiy-pedagogik ish P.V.Xudominskiy muallifligida bajarilgan. U malaka oshirishning davlat tizimini shakllantirishning sobiq ittifoqda, jumladan, O'zbekistonda xalq ta'limi rivojlanish bosqichlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan muayyan davrlarini belgilab beradi. O'qituvchilarni tayyorlash tizimini rivojlantirish tendensiyalari E.M. Nikitinning asarlarida ham yoritilgan. U tomonidan berilgan davriylashtirish nafaqat umumiy ta'lim maktabining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan malaka oshirish tizimini shakllantirishning tarixiy bosqichlarini, balki mamlakat hayotidagi bunday voqealarning ta'sirini ham hisobga oladi, masalan, mamlakatni kollektivlashtirish, iqtisodiyotni sanoatlashtirish va boshqalar. Ushbu davriylashtirish muammosiga N.A.Lukinning tadqiqotlarida ham e'tibor qaratilgan.

Shunday qilib, 40-yillarning oxiriga kelib, umuman olganda, o'qituvchilarning malakasini oshirish davlat muassasalari tarmog'i shakllandi, uning tashkiliy asoslari va uslubi xizmatning tuzilmasi belgilandi.

50-yillarning boshlariga kelib o'qituvchilarni tayyorlashning davlat tizimi rivojlandi. Ayni paytda ushbu tizim faoliyatining tizim tarkibiy qismlarining (muassasalari, tashkiliy shakllari, mazmuni) doimiy miqdoriy o'sishi va sifat o'zgarishi; ular orasidagi aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash; mamlakatda ta'limni rivojlantirish va o'qituvchilar tarkibining malakasini oshirish bo'yicha ko'rsatma va me'yoriy hujjatlarda belgilangan davlat buyurtmasini bajarish kabi o'ziga xos xususiyatlarining barqaror ko'rinishi mavjud.

Shunday qilib, 1917 yildan 1950 yilgacha bo'lgan davrda malaka oshirish tizimining bosqichma-bosqich rivojlanishi va barqarorlashuvi yuz berdi: tizim tarkibiy qismlarining doimiy ravishda miqdoriy o'sishi va sifat o'zgarishi (muassasalar tarmog'i, tashkiliy shakllari, mazmuni); ular orasidagi aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash; mamlakatda ta'limni rivojlantirish va o'qituvchilar tarkibining malakasini oshirish bo'yicha ko'rsatma va me'yoriy hujjatlarda belgilangan davlat buyurtmasini bajarish. O'shandan beri mamlakatimizda professor-o'qituvchilar tarkibining tashkiliy tuzilishi va malakasini oshirish shakllari o'zgarishsiz qolmoqda.

1960 yillarning oxiridan 1980 yillarning boshlariga qadar) umumta'lim o'rta ta'lim ta'lim tizimiga o'tish ta'lim tizimi barcha bo'g'inlarning ish sifatini har tomonlama rivojlantirish va takomillashtirish g'oyasi asosida amalga oshirildi, chunki o'rta maktablar ilmiy-texnika inqilobi va bitiruvchilarni hayotga tayyorlash talablariga javob bera olmasligi aniq bo'lib qoldi. Umumta'lim maktabining politexnikalashtirish yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimiga oliy o'quv yurtlaridan yuqori malakali ilmiy kadrlar va eng yaxshi o'qituvchilarni jalb qilish zarurligini keltirib chiqardi, bu esa kadrlarni ommaviy qayta tayyorlash bo'yicha o'qituvchilar malakasini oshirish institutlari faoliyati ko'lamini kengaytirdi.

Aynan ana shu davrda mamlakatimizning yana qator hududlarida – Sirdaryo (1964 y.), Namangan (1967 y.) va Jizzax (1974 y.) viloyatlarida o'qituvchilar malakasini oshirish institutlari tashkil etildi.

Keyingi bosqichda, yigirmanchi asrning 80-yillari o'rtalarida tadqiqotchilar malaka oshirish tizimining vazifalari va funksiyalarining kengayishiga, to'plangan ilg'or pedagogik tajribaning umumiy konsepsiyasini o'zlashtirish zarurligiga e'tibor berishdi. Ta'lim tizimiga o'quv jarayonini optimallashtirish va intensivlashtirish vazifasi qo'yildi. Bu malaka oshirish tizimini texnologik darajadagi muammolarni hal qilishga yo'naltirdi.

Malaka oshirish tizimi pedagoglar va rahbarlar tomonidan yangi ma'lumot, bilim, ko'nikma va malakalarni olishning bosh manbasi hisoblanadi, shuning uchun ham, aynan mazkur tizim, ma'lum ma'noda, ta'lim tizimi xodimlarining sohada amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlariga tayyorligi uchun mas'ul va shu bois alohida e'tiborga loyiq.

Mamlakatimizda ushbu tizimning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun barcha sharoitlar yaratilgani ta'lim sohasida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16

fevraldagi «Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi 25-son Qarori mazkur hujjatlar orasida alohida ahamiyatga ega .

H.Q.Yo‘ldoshevning fikricha, malaka oshirish tizimini quyidagilar asosida tashkil etish maqsadga muvofiq:

- malaka oshirish ta‘limida yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullarni aniqlash va amaliyotga joriy etish;

- pedagoglarni malaka oshirish institutlariga masofadan bog‘lash orqali ta‘lim mazmunini takomillashtirish, fanlardagi va o‘qitishning yangi metodlari bo‘yicha yangiliklar berib borish;

- kursdan kursgacha davrda tuman(shahar) metodika kabinetlari tomonidan o‘qituvchilarning uzluksiz malaka oshirish tizimini takomillashtirish;

- malaka oshirish institutlari kafedra va bo‘limlari professor-o‘qituvchilari hamda taklif etilayotgan ma‘ruzachilar o‘quv dasturlari, ma‘ruzalarining mazmuni, ilmiy-metodik yo‘naltirilganligini tubdan qayta ko‘rib chiqish va ularni AKT vositalari orqali uzatish imkoniyatlarini tashkil etish.

S.T.Turg‘unovning ta‘kidlashicha, malaka oshirish jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni inobatga olish zarur:

- mazkur jarayon tadqiqiy va tahliliy yo‘nalishga ega bo‘lishi;

- bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini ishlab chiqishda mutaxassis shaxsi modelini hisobga olish;

- ta‘lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish;

- o‘qituvchilar bilan tinglovchilarning o‘zaro ijodiy hamkorligini ta‘minlovchi refleksiv ta‘limiy muhitni vujudga keltirish;

- sub‘ekt-sub‘ekt munosabatlarini rivojlantirish;

- ta‘lim jarayoni ishtirokchilarining shaxsiy imkoniyatlarini takomillashtirish uchun zaruriy psixologik muhitni vujudga keltirish;

- o‘qitish metodlari va shakllarini, topshiriqlarni tinglovchilar tomonidan tanlab olinishi uchun shart-sharoit yaratish;

- o‘qitishning tabaqalashtirilgan metod va shakllari uchun zaruriy shart-sharoit yaratish.

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida **2017 yildan boshlangan islohotlar** ta‘lim tizimida, jumladan xalq ta‘limi xodimlarini malakasini oshirish tizimida ham yangilanish davrini boshlab berdi.

Xulosa

Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning bevosita rahbarliklari ostida mamlakatimiz ta‘lim tizimida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar malakatimizda qaror topgan uzluksiz ta‘lim tizimining barcha bo‘g‘imlarini shu jumladan umumiy o‘rta ta‘lim tizimini ham qamrab olib, tizimda yillar davomida to‘planib qolgan muammolarni bartaraf etish barobarida maktab ta‘limini jahon andozalari talablariga olib chiqishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Muhtaram prezidentimiz tomonidan qabul qilingan qator qaror va farmonlar umumiy o‘rta ta‘lim tizimini rivojlantirish, o‘qituvchi va murabbiylarning nufuzini ko‘tarish, maktablarda ta‘lim sifatini oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ta‘limga mutasaddi

bo‘lgan barcha vazirlik, idoralar davlat va jamiyat boshqaruv organlari, qo‘yingki respublikamizda istiqomat qilayotgan barcha befarq bo‘lmagan insonlarni kelajagimiz bo‘lgan bolalarimizga munosib ta‘lim tarbiyani berishga jalb qilmoqda.

Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari pedagog kadrlarni malakasini oshirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalar tahlil qilindi. Xususan, AQSh, Angliya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Finlyandiya va boshqa ko‘plab iqtisodiy va ta‘lim tizimi rivojlangan mamlakatlarning malaka oshirish tizimi o‘rganildi va mamlakatimizdagi malaka oshirish tizimi bilan qiyosiy tahlil qilindi. Bundan tashqari mamlakatimizda pedagog kadrlarni malakasini oshirish bo‘yicha bir necha bosqichda tarixiy aspektlari keltirib o‘tildi. Mamlakatimizda malaka oshirish bo‘yicha mavjud muammolar aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev J.F. Xorijda ta‘lim (metodik qo‘llanma) - Toshkent: 1995- yil
2. Ikromov A.B., Mxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Ta‘lim, ilmfan (metodik qo‘llanma. Kasb mahorati jurnali -2004-yil. 2 son.
3. G.Anorqulkova, A. Karimov.Xorijiy mamlakatlar ta‘lim tizimining o‘ziga xos yo‘nalishi uslub va tahlili. Xalq ta‘limi ilmiy metodik jurnali. 2017-yil. 3-son.
4. A.Nosirov. Fransiyada talim sifati qanday nazorat qilinadi? -, , Boshlang‘ich ta‘lim“ jurnali. 2019- yil. 12- son.
5. R.Ilashova. Amerika maktablarida.- , , Boshlang‘ich ta‘lim” jurnali. 2019-yil.

O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATI VA KASBIY RIVOJLANISHIGA YANGI QARASHLAR

Gaffarov Azizjon Muhammadsaidovich

A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

O'qituvchilarning kasbiy mahoratiga bo'lgan an'anaviy munosabat ularni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish amaliyotida o'z aksini topgan va u o'qituvchilarning maxsus tayanch kasbiy ma'lumotga ega bo'lishlarini nazarda tutadi. Mazkur ma'lumot ularga mavjud o'quv dasturlari va materiallarni mohirona qo'llash imkonini beradi. Vaqt o'tishi bilan dastur yoki materiallar o'zgaradi va o'qituvchilar notanish talablar va vazifalarga duch keladilar. Ular mazkur yangi dastur va materiallar bilan ishlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmaganliklari bois, tabiiyki, kamchiliklarni bartaraf etish uchun tegishli o'quvlarni o'tkazish zarurati tug'iladi. Bunday modelni P. Jekson "yetishmovchilik modeli" deb atagan. Uning mohiyati shundaki, o'qituvchilarga ularda yetishmayotgan bilim va ko'nikmalarni berilishi zarurati aynan muayyan vaziyatda dolzarblik kasb etadi.

Ushbu model uzoq vaqtdan buyon qator mamlakatlarda, shu jumladan, bizning mamlakatimizda ham amal qiladi. Unga ko'ra o'qituvchining kasbiy mahorati bosqichma-bosqich – bir yetishmovchilikni bartaraf etishdan ikkinchisini bartaraf etishga tomon, bir malaka oshirish kursidan keyingisiga tomon o'sib boradi. Albatta, kundalik "o'qitish tajribasi" va yangi faoliyatni o'zlashtirish qobiliyati o'qituvchi kasbiy mahoratining eng muhim tarkibiy qismi ekanligini amalda hamma tan oladi. Biroq, ushbu tan olish o'qituvchilar malakasini oshirishning umumiy amaliyotida juda cheklangan tarzda aks etadi.

O'qituvchilar bilan ishlaydigan ko'plab "ilg'or" tuzilmalarda "ijodiy guruhlar", "tarmoq tuzilmalari" yaratilganiga qaramay, ularning umumiy ko'rinishdagi o'rni deyarli sezilmaydi.

O'qituvchining kasbiy rivojlanishiga yangi nuqtai nazarni shakllantirishga uzluksiz ta'lim konsepsiyasi va amaliyotining rivojlanishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida o'qituvchining bilimlarni o'zlashtirish va berishdagi yangi roli, bilimlar haqidagi yangi tasavvurlar kabi ta'sir etuvchi omillarni keltirish mumkin.

Uzluksiz ta'lim konsepsiyasi va amaliyotining rivojlanishi mazkur tushunchaning turli talqinlari muhokamasi bilan bog'liq kechdi:

uzluksiz ta'lim butun hayot davomidagi ta'lim sifatida;

uzluksiz ta'lim kattalar ta'limi sifatida;

uzluksiz ta'lim doimiy kasbiy ta'lim sifatida.

Eng keng ma'noda, ushbu atama butun hayot davomida ta'limni (**LLL — lifelong learning**) belgilash uchun ishlatiladi.

Uzluksiz ta'limning boshqa talqini avval olingan ma'lumot, kattalarning o'ziga xos ehtiyojlari, shuningdek, ta'limiy faoliyat tajribasi va amaliy ko'nikmalariga ega bo'lgan kattalarni o'qitish texnologiyalariga e'tiborni qaratgan kattalar ta'limini nazarda tutadi.

Uzluksiz kasbiy ta'lim nuqtai-nazaridan qaralganda, bilimlarning funksional xususiyati hamda bilim va ko'nikmalarning uzluksiz yangilanishi zaruriyati

ta'kidlanadi.

Shu bilan birga, amalda kasbiy ta'lim va hayot davomida ta'limni davom ettirish haqidagi tasavvurlar uyg'unlashib bordi. Rivojlangan mamlakatlarda bu ilgari qo'llanib kelingan "malaka oshirish" (*in-service training*) va "kasbiy ta'lim" (*on the job training*) o'rniga o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi konsepsiyasining (*continuous professional development — CPD*) paydo bo'lishiga olib keldi. Bu qayd etilgan ikki tushunchadan ko'ra ancha kengroq tushuncha. Bu mutlaqo boshqacha yondashuvdir, chunki «o'qitish (tayyorlash, trening) sub'ekti o'qituvchi yoki murabbiyning o'zi bo'lib, kasbiy rivojlantirish sub'ekti – rivojlanayotgan shaxsning o'zidir». Bunda malaka oshirish tizimining roli tubdan o'zgaradi. Shaxsning o'zini-o'zi rivojlantirishi uchun shart-sharoitlarni yaratish – uning asosiy vazifasiga aylanmoqda.

Uzluksiz ta'limda "mentoring" g'oyasi, ya'ni mutaxassisga ish joyida, tajribali hamkasblar yoki ekspertlar tomonidan maslahat berish amaliyoti tobora keng tarqalmoqda. Ushbu g'oya an'anaviy "ustoz-shogird" atamasiga yaqin bo'lsa-da, kasbiy mahoratni rivojlantirish borasidagi yanada tizimlashgan birgalikdagi faoliyatni nazarda tutadi.

Bunda asosiy e'tibor mutaxassislarni o'zlarining ish joyida mehnat faoliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda "takomillashtirish"ga qaratiladi. Shu bilan birga, kelajakda ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishning manbalaridan foydalanish imkoniyatlari ham nazarda tutiladi.

Yevropa ittifoqi Komissiyasining pedagogik ta'limni takomillashtirish bo'yicha takliflari mazkur yondashuvni yaqqol namoyish qiladi. Unga ko'ra:

- dastlabki uch yil ichida kasbiy faoliyatga olib kirish dasturlari;
- ko'proq tajribaga ega bo'lgan hamkasblarning maslahat berishi;
- o'qituvchilarni ishlayotgan maktablarining rivojlanish maqsadlaridan kelib chiqib ularning malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojlari muhokamasi va malaka oshirish dasturlari;
- keyinchalik norasmiy va informal o'quvlar orqali olingan kompetensiyalarni tan olish sharti bilan uzluksiz kasbiy rivojlanish uchun shart-sharoitlarni yaratish;
- uzluksiz kasbiy rivojlanish imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyatining mavjudligi.

Uzluksiz ta'lim olish g'oyalarini ishlab chiqish kasbiy rivojlanishning norasmiy va informal mexanizmlari roliga e'tiborning kuchayishiga olib keldi. S.Sugru tomonidan tavsiya etilgan o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi tizimi umum e'tirofqa sazovor bo'ldi. U o'qituvchilar uchun rasmiy, norasmiy va informal ta'limini qamrab oladi.

Bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda har bir o'qituvchini ushbu kasbiy rivojlanish mexanizmlariga doimiy asosda jalb qilish masalasi hal qilinmoqda.

Mamlakatimizda o'qituvchilar uzluksiz kasbiy rivojlanishining zamonaviy konsepsiyasi soha mutaxassislarning nazariy va amaliy izlanishlarida yetarli darajada o'z aksini topmagan. Aniqrog'i, faqat rasmiy va norasmiy ta'lim tizimida o'qituvchilarning malakasini oshirishga doir kichik hajmdagi ishlar haqida

mulohazalar yuritilishi mumkin.

Amalda o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun malaka oshirish ta'limi xizmatlari bozorida tanlash imkoniyati cheklangan. Ularning tanlov imkoniyatlari an'anaviy malaka oshirish muassasalarining "hamma uchun bir o'lchovda"gi malaka oshirish kurslari bo'yicha takliflari bilan chegaralanadi. To'g'ri, vaqti-vaqti bilan ilg'or maktablarni hech bo'lmaganda qo'shni maktablarning o'qituvchilari uchun uzluksiz kasbiy rivojlantirish markazlariga aylantirishga qaratilgan tashabbuslar ilgari suriladi. Afsuski, bunday tashabbuslar o'quv natijalarini sertifikatlash muammosiga borib taqaladi va o'qituvchilar malakasini oshirish xizmatlari bozoriga yangi ishtirokchilarning kirib kelishiga yordam berolmaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda pedagoglar malakasini oshirishning norasmiy va informal mexanizmlari o'qituvchilarning yaxshi tashkillashtirilgan uyushma(hamjamiyat)lari orqali amalga oshiriladi. O'zbekistonda o'qituvchilarning juda kamchiligi bunday hamjamiyatlar – uyushmalar va klublar tarkibiga a'zo. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tufayli yaratilayotgan foydali axborotlar ko'lami, metodika kabinetlari kabi an'anaviy konservativ tuzilmalarni ham mahalliy o'qituvchilarning uyushmalarini tuzishga undamoqda. Biroq, bunday tajribalarni keng joriy qilish uchun zarur me'yoriy asoslar yetarlicha yaratilgan emas.

Pedagogning kasbiy mahoratiga zamonaviy qarashlar, albatta, ta'limning yangi maqsadlari va axborotlashgan jamiyatidagi yangi ijtimoiy-madaniy vaziyat bilan bog'liq. Bu, o'z navbatida, muqarrar ravishda o'qituvchi rolining tubdan o'zgarishiga olib keladi.

Haqiqatan ham, agar maktab oldida turgan vazifalar ichida asosiy e'tibor tayanch kompetensiyalarni (shu jumladan, mustaqil ta'lim olish qobiliyatini) shakllantirishga qaratilayotgan ekan, bu jarayonni ta'minlash ko'nikmasi pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismiga aylanmog'i lozim.

O'quv materiallari, dasturlari, manbalari, texnologiyalarining xilma-xilligi va ko'payib borayotgani pedagog kasbiy mahoratiga bo'lgan an'anaviy talablarning o'zgarishiga olib kelmoqda. Agar ilgari o'qituvchi bitta o'quv uslubiy majmuani o'zlashtirishi kerak bo'lsa, bugungi kunda ko'plab manbalardan bahramand bo'lishi, o'z faoliyati davomida yuzaga kelgan muayyan vaziyatga munosib tanlovni amalga oshirish malakasiga ega bo'lishi talab qilinadi.

Mamlakatimiz maktablarida 11 yillik ta'lim tizimiga o'tilishi bitiruvchilarning kompetensiyalarini, ya'ni ta'lim natijalarini tashqi baholash imkoniyatini yaratadi. Bitiruvchilarning oliy ta'lim muassasalariga kirishi yoki mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli boshlashi maktabda olgan bilimlari sifatini baholash imkoniyatini beradi. Bu esa ana shu bitiruvchini o'qitgan har bir maktab o'qituvchisining kasbiy faoliyatini bilvosita baholanishiga olib keladi. Demak, o'qituvchidan o'quvchilarda aniq natijalarni kafolatlovchi o'qitishni amalga oshirish talab qilinadi. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchidan o'zi ustida doimiy ravishda ishlashni, ya'ni o'zining mustaqil ta'limi bilan shug'ullanishni talab qiladi.

O'qituvchining kasbiy mahorati to'g'risidagi tasavvurlarni keskin o'zgartirib yuborgan asosiy holat, uning yagona bilim manbai sifatidagi maqomidan mahrum

bo‘lishidir. Axborot inqilobi, o‘qituvchini sezilarli darajada quolsizlantirib, unga bilimlarni o‘zidan o‘tkazib o‘quvchiga yetkazuvchisi o‘rniga bilim va kompetensiyalarni yaratish va olishni tashkillashtiruvchi rolini yuklatilishiga olib keldi.

Bir tomondan, u har doim, o‘zining sohasidagi eng zamonaviy bilimlarni izlashi, boshqa tomondan u mazkur urinishlarning chegaralanganligini tushunishi va o‘quvchilarni o‘zi yaxshi tanish bo‘lmagan sohalarga yo‘naltirishi lozim bo‘ladi.

O‘qituvchining rolidagi bu o‘zgarishlar, kasbiy rivojlanishning asosiy mohiyatini belgilashda muayyan qiyinchiliklarni tug‘dirishi mumkin. Pedagog o‘z kasbiy rivojlanishini bilimlar va notanish materiallar bilan ishlash ko‘nikmalarini o‘zlashtirishga yo‘naltira boshlaydi. Mazkur kompetensiyalarni ma’ruza-seminar tartibida shakllantirish mumkin emas. Aynan ana shu yerda «bajarish orqali o‘rganish» (learning by doing), shu jumladan, kasbiy tarmoqlardagi hamkorlik orqali ta’lim olish boshlanadi.

O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish sohasi uchun bilimlarni boshqarish haqidagi tushunchalar ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur jarayon biznesda keng rivojlangan, lekin amalda ta’lim sohasidan tashqarida qolgan. Faqat oxirgi yillarda ta’limning bilimlar bazalari yaratilmoqda hamda ular bir vaqtning o‘zida o‘qituvchilar tomonidan to‘ldirilmoqda va foydalanilmoqda. Ushbu bazalar o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishining tabiiy muhitiga aylanmoqda. Albatta, mazkur bilimlar bazalarining g‘oyatda katta hajmda ekanligi ular bilan ishlashda ma’lum qiyinchiliklarni tug‘diradi, biroq o‘qituvchilarda ulardan muayyan muammolarni hal qilishda foydalanish bo‘yicha alohida kompetensiyalarni shakllanishiga turtki bo‘ladi.

An’anaviy o‘qitish	Hayot davomida o‘qitish
<p>O‘qituvchi bilim manbai. O‘quvchilar o‘qituvchilardan bilim olishadi. O‘quvchilar yakka tartibda alohida ishlaydilar. Testlar o‘quvchilar tomonidan muayyan malakalarni o‘zlashtirilmaguncha ularning ilgari harakatlanishlarini to‘xtatib turish va ta’lim olishning keyingi bosqichlariga o‘tishni cheklash maqsadida o‘tkaziladi. Barcha o‘quvchilar bir xil faoliyat bilan shug‘ullanishadi. O‘qituvchilar dastlabki kasbiy ma’lumotni oladilar va ularning keyingi ta’limlari ixtisoslashgan malaka oshirish doirasida amalga oshiriladi. “Yaxshi” o‘quvchilarni aniqlab olinadi va ularning o‘qishni davom ettirishlariga ruxsat beriladi. O‘qituvchilar bilim</p>	<p>O‘qituvchilar bilimlar manbaiga yo‘naltiradilar. Odamlar amaliy faoliyat vositasida o‘qitiladi. Odamlar guruhlarda va bir-birlaridan o‘rganadilar. Baholash ta’lim strategiyasini aniqlash yo‘nalishlarini tanlash uchun ishlatiladi. O‘qituvchilar o‘quv dasturlarini ishlab chiqadilar. O‘qituvchilarning o‘zlari butun hayotlari davomida o‘quvchilardir.</p>

manbalariga murojaat qilishadi.	
---------------------------------	--

Kasbiy rivojlanish tizimini taraqqiy etishiga Yaponiyalik tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan rasmiylashtirilgan (aniq), rasmiylashtirilmagan va yashirin bilimlarni farqlash tamoyili katta ta'sir ko'rsatdi. Ular tomonidan bilimlarning yaratilishi sikli modeli taklif qilinib, unga ko'ra bilimlar yashirin holatdan rasmiylashtirilmagan holatga, so'ngra rasmiylashtirilgan holatga o'tadi. Bu modelga ko'ra bir shaxsning bilimi tashkilotning bilim boyligiga aylanadi. Ba'zi mutaxassislarning fikriga ko'ra mazkur o'tish, o'qituvchi kasbiy rivojlanishining mag'zini tashkil etishi kerak.

Yuqorida qayd etilgan model bilan bir qatorda o'qituvchilarni kasbiy rivojlanishiga doir nazariyada D.Shonning reflektiv amaliyot (qayta mushohada) modeli keng tarqalgan. Uning mazmuni, shaxs tomonidan o'z boshidan kechirgan qiyinchiliklarini mushohada qilish asosida ta'lim olishning yangi usullarini ishlab chiqishdir.

Ushbu model o'qituvchilarning kasbiy rivojlanish tizimida keng tarqalgan. Buning sababi shundaki, o'qituvchilar o'z ishlarida bir-muncha yakka holda faoliyat yurgizadilar va mazkur faoliyatga tashqaridan nazar tashlash va baholash o'rniga qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun "hayoliy ko'zgu"dan foydalanishga majbur bo'ladilar.

Bu ikkala model norasmiy bilimlarni tayanch va boshlanish nuqtasi sifatida ajratib, rasmiy va norasmiy bilimlarning o'zaro ta'sirini siklli tavsifda ekanligini ta'kidlaydi. Biroq, ular o'rtasida farqlanish ham mavjud: "yaponiya" modelida guruh ichidagi norasmiy jarayon (tajriba almashuvi) muhim ahamiyat kasb etgani holda, Shon modelida asosiy urg'u alohida mutaxassisga beriladi.

Shunday qilib, bugungi kunda o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishning asosiy muammolari ta'lim tarmoqlari, o'qituvchilarning norasmiy bilimlari va ularni almashishdagi to'siqlarning o'ziga xos xususiyati haqidagi savollarga javob topish bilan bog'liq muammolardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli Qarori <http://lex.uz/docs/-4327235>
 2. Maxmutazimova Yu.R. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalari. O'quv qo'llanma – Toshkent.: Tamaddun, 2022. 148b
 3. Jalilova S.X. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi Toshkent 2017. "Faylasuflar" nashriyoti – 496b
- Djurayeva B.R., Tojiboeva X.M., Nazirova G.M. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendentsiyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent 2016. "O'zPFITI" nashriyoti - 110b

ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ ТАДҚИҚОТЧИЛИК ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Гаибназарова Феруза Пардабаевна
ГулДУ «Биология» кафедраси доценти
feruz.bio@yandex.ru

Аннотация: мақолада ижодий лойиҳалар, ўқитувчиларнинг ижодий имкониятлари, лойиҳалаш фаолияти турлари ва ишланмалари ёритиб берилган.

Калит сўзлар: илмий-тадқиқот, ўқитувчи, лойиҳалаш, фаолият, ижодий, метод, компетенция, рефлексив, коммуникатив, педагогик технология.

Сўнгги йилларда республикамиз халқ таълими муассасаларида илмий-тадқиқот фаолиятини фаоллаштириш масаласи алоҳида долзарб вазифа сифатида қаралмоқда. Ушбу мақсадга эришиш ўқитувчилар нафақат билим ва кўникмаларни, илмий-тадқиқот сифати ва компетентлигини шакллантириш, балки, фаол ҳаётий позицияни эгаллаш, ҳаёт давомида шахсий мотивларни амалга ошириш, ўз-ўзини ривожлантириш

ва такомиллаштиришга доир кенг кўламдаги ижтимоий-иқтисодий вазифалар комплексини ҳал этишни тақозо этади.

Ўқитувчиларнинг тадқиқотчилик фаолиятини ривожлантиришда анъанавий ва муаммоли таълим технологиялари таҳлилини кўриб чиқамиз

Лойиҳалаш фаолиятини ижодий лойиҳалар асосида ташкил этиш ўқитувчиларга юқори даражадаги эркинликни таъминлайди. Улар аввалдан аниқланган ва ишлаб чиқилган тузилишга эга эмас. Ўқитувчи фақат лойиҳанинг умумий параметрларини аниқлайди ва берилган вазифаларни ҳал қилишнинг мақбул усулларини кўрсатади.

Ижодий лойиҳалар ўқитувчиларнинг ижодий имкониятларини юқори даражада таъминлаш ва уларнинг илмий-тадқиқот фаолиятини рағбатлантиришга имкон беради.

Илмий-тадқиқот лойиҳалари иштирокчилар учун мақсади долзарб ва аҳамиятли аниқ белгиланган, пухта ўйланган ва асосли тузилишга эгаллиги, натижаларни қайта ишлаш ва расмийлаштиришда илмий методлардан фойдаланилганлиги билан ажралиб туради. Шу билан бирга, диққат марказида ўқитувчиларни тадқиқот мазмуни ва методлари билан таништириш тамойили қўйилади.

Тадқиқот лойиҳаларининг мавзуси замонавий фан учун энг долзарб бўлган ҳамда ўқитувчиларнинг тадқиқотчилик компетенцияларини ривожлантириш учун хизмат қилиши лозим.

Умуман олганда, лойиҳалаш фаолияти қуйидагиларга ёрдам беради:

ўқитувчиларда касбий йўналтирилган фаолиятга мотивацион ва кадрли муносабатни, ижодий фаоллик ва тасаввур шакллантириш;

ўқитувчиларнинг ўз-ўзини баҳолаш, ривожлантириш ва ифодалашга йўналтирилган рефлексив-баҳолаш қобилиятларини ривожлантириш;

ўқитувчиларни муаммоларни ижодий ҳал этишга йўналтириш;

лойихалар устида ишлаш доирасида ўқитувчиларни изланиш-тадқиқот фаолиятига йўллаш;

жамоада тажриба орттириш;

коммуникатив кўникмаларни, мослашувчанликни ва ижодий мулоқот услубини шакллантириш.

Шунингдек, ёш олимларни ижодий имкониятларини очиш ва ривожлантиришга йўналтирилган бошқа педагогик технологияларни таъкидлаш мумкин: ролли ва сюжетли ўйинлар, педагогик ишлаб чиқариш, ўқув тадқиқотлари сифатида ўқитиш технологияси, жамоавий ҳамфикрлик технологияси, эвристик ўқитиш технологиялари.

Тадқиқотчилик ишларини босқичма-босқич ташкил этиш кўроқ лаборатория машғулотида кузатилади.

Аудиторияда илмий-тадқиқот ишларини топшириқлар кўрсатмаларга мувофиқ ташкил этиб, ўқитувчи дарснинг маълум топшириқларини барча ўқитувчилар бажариши учун мўлжалласа, табақалаштирилган ёндашувни амалга ошириш имконияти нуқтаи назаридан бошқа қисми эса фақат иқтидорли ўқитувчилар бажариши учун ишлаб чиқилади.

Лаборатория ишларини бир нечта кўринишда ташкиллаштириш мумкин.

1. Янги материални ўрганиш жараёнида ташкил этилган мустақил иш тадқиқот хусусиятига эга бўлади, янги билимларни эгаллаш манбаи бўлиб хизмат қилади.

Мисол: Мавзу “Шакли ўзгарган новдалар”. Дарс бошида вазифа қўйилади - илдизпоя, тугунак ва пиёзбошнинг шакли ўзгарган новда эканлигини исботлаш. Ўқитувчилар лаборатория машғулотини инструктор карточкадан фойдаланган ҳолда бажаради, хулосалар чиқаради.

Ўзлаштирилган материални мустаҳкамлаш мақсадида ўтказиладиган лаборатория ишлари ўсимликлар ва ҳайвонлар тўғрисида олган билимларни мустаҳкамлаш, таниш материал учун кўрсатма бўлиши ва ўқитувчининг ҳикоясини тасдиқлаши мумкин.

Мисол: дарснинг мавзуси: «Моллюскалари синфи». Моллюскаларнинг ташқи ва ички тузилишини ўрганиш бўйича лаборатория иши (Тирик объектлар ёки ҳўл препаратлар билан ишлаш) .

Ўқув жараёнига қўйиладиган замонавий талабларни ҳисобга олган ҳолда, биология дарсларида ўқитувчиларни кашфиётчилар ўрнига қўйиш, ишларни ташкил этишнинг биринчи вариантыга ўқув-тарбиявий муносабатлар нуқтаи назаридан энг самарали сифатида устунлик бериш мумкин.

Табиий тарқатма материаллардан фойдаланган ҳолда ўқитувчиларнинг тадқиқотлари турли йўллар билан ташкил этилиши мумкин.

Баъзи бир ишларни аудиториядан ташқари ёки қисман аудиторияда ва қисман ундан ташқарида бажариш мумкин, бу эса “Ёш тадқиқотчи», «Яшил лаборатория» тўғараги машғулотида, «Лойихали фаолият» факультатив курсида ва экскурсиялар пайтида тадқиқот ишларини давом эттиришга имкон беради.

Ўқитувчиларнинг тадқиқотчилик фаолиятини ривожлантиришга педагогик вазиятлар ёрдам беради. Ўқув жараёнида мен ўқитувчи ўз фикрини ҳимоя қилиши, уни ҳимоя қилишда кўрсатмалар, далиллар келтириши, ўқитувчини ўқитувчига, ўртоқларига саволлар беришга ундайдиган билим ва тажриба орттириш усулларидадан фойдаланиши, тушунмаган қисмларини аниқлаштириши ва билимларни чуқур англаши керак бўлган вазиятлардан фойдаланаман. Бундай ҳолатлар курсдошларининг жавобларини қайта кўриб чиқиш, тажриба билан боғлиқ ишлар ва янгиликларни фаол излашдир.

Амалиёт шуни кўрсатадики, муаммоли, изланиш, тадқиқотчилик, эвристик ўқитиш методлари элементларидан фойдаланиш ўқув жараёнини самаралироқ қилади. Ўқитувчиларнинг тадқиқотчилик қобилияти ва фаолиятини ривожлантиришда маълум мақсадларга эришишга ёрдам беради: ўқитувчиларнинг билим олишга қизиқишини ошириш, уларни янада яхши натижаларга эришишга йўналтиради.

Органлар тизимининг ва умуман организмнинг ишлаш ва бошқариш механизмларини ўрганаётганда биологик тажрибалар лаборатория ишлари ва мустақил кузатиш шаклида фан тарихи ва замонавий илм-фан маълумотларидан кенг қўлланилади. Ўқитувчилар аудиториядан ташқари ўқитувчи раҳбарлигида бир қатор тадқиқотлар ўтказиши ва дарс натижаларини ҳисобот қилиши ва намойиш қилиши мумкин (масалан, аквариум баликларида шартли рефлексларнинг ривожланиши, баъзи умуртқали ҳайвонларнинг ҳаракатланиш фаолиятини ўрганиш). Ўқитувчиларнинг реферат ёзиши ҳам агар унинг амалий қисмида натижа бўлса тадқиқот иши ҳисобланади. Масалан, “Антропоген омиллар ва уларнинг биосферага таъсири” мавзусида реферат тайёрлашда ўқитувчиларга экологик тадқиқот ўтказиш учун топшириқли-карточкаларни таклиф қиламан. Шунингдек, ўқув ва қўшимча адабиётлар билан ишлашда, матнни таҳлил қилишда тадқиқот усулидан фойдаланаман.

Тадқиқот кўникмаларини нафақат аудиторияда, балки аудиториядан ташқари ишларда ҳам шакллантириш зарур, бу фанга қизиқувчи ўқитувчиларни ўқув дастури доирасида чекланиб қолмасликларига имкон беради. Аудиториядан ташқари ишларда кузатиш ва тажрибаларни ўтказиш билан боғлиқ вазифалардан фойдаланиш ўқитувчиларда тадқиқотчиликка мойиллигини ривожлантиради.

Ўқитувчиларнинг тадқиқотчилик ўқув-билиш фаолияти уларнинг ижодий фаолият тажрибасини шакллантириш учун катта имкониятларга эга, чунки у нафақат намуналар асосида бажариладиган ҳаракатларни ўзлаштиришни, балки мустақил изланиш ва янги субъектив аҳамиятга эга бўлган билимларни яратишни ҳам ўз ичига олади. Бундай тажриба ўқитишда ўқитувчиларга шахсга йўналтирилган ёндашув асосида шаклланади, уни амалга ошириш усулларида бири бу ўқитишда лойиҳа методидан фойдаланишдир. Лойиҳа методи - бу шахснинг ижодий ўзини ўзи англашига йўналтирилган таълим жараёнини ташкил этишнинг мослашувчан моделини намоён этади.

Лойиҳани ташкил этишга қўйиладиган асосий талаблар:

лойиха ўқитувчилар ташаббуси билан яратилган бўлиб, улар учун ва яқин атрофдагилари учун мазмунли бўлиши керак;

лойиха ёрдамида ҳал қилинадиган муаммо ва кутилган натижалар амалий (эҳтимол илмий) аҳамиятга эга бўлиши керак;

ўқитувчиларнинг лойихадаги ишлари мустақил ва тадқиқот характериға эга; лойиха олдиндан режалаштирилган ва ишлаб чиқилган, аниқ мақсад

ва вазифалардан келиб чиққан ҳолда, уни амалга ошириш жараёнида ўзгаришларға йўл қўйилади. Лойиха методи ўқитувчиларға, бир томондан, мустақил равишда янги билимлар ва фаолият усулларини ўзлаштириши, бошқа томондан, илгари олинган билим ва кўникмаларни амалда қўллаши учун шароит яратишға имкон беради.

Ўқув лойихаси замонавий фаолият турини ўз ичига олади. Унинг асосий вазифаларидан бири бу ўқитувчиларнинг ўзаро ва ўқитувчи билан алоқаси жараёнида фанлараро алоқаларни амалга ошириш ва қандайдир таълим маҳсулотини яратишдир. Шундай қилиб, ўқитувчиларнинг доимий равишда ўз-ўзини тарбиялаши, интеллектуал ва ижодий ривожланиши учун шароитлар яратилади.

Ўқитувчи фаолияти нафақат билимға бўлган эҳтиёжни қондириш, балки ўқитувчи шахсини ривожлантиришға бўлган барча эҳтиёжлар доирасини ташкил этади: ўзини тасдиқлаш, ўзини намоён қилиш, ўзини ўзи белгилаш, ўзини ўзи англаш. Ўқитувчи ўзини жамиятға мослаштиради, биринчи ижтимоий синовлардан ўтади, яъни ўзини такомиллаштиради.

Менинг амалиётимда мен лойиха бўйича бир неча босқичларни ўз ичига олган ишлар кетма-кетлигидан фойдаланаман: тайёргарлик, режалаштириш, тадқиқот этиш, натижалар ва хулосаларни шакллантириш, лойихани ҳимоя қилиш, натижаларни баҳолаш ва лойихалаш фаолияти жараёни.

Масалан, «Нафас олиш» мавзуси «Нафас олиш тизими касалликлари, уларнинг олдини олиш» дарси билан яқунланади. Дарс давомида ўқитувчилар

«Чекувчи ва чекмайдиганларда нафас олиш тизимининг функционал имкониятларини ўрганиш» илмий-тадқиқот лойихасига жалб қилинган. Бунинг учун ишлайдиган гипотеза илгари сурилади: “Чекиш ўспиринларда нафас олиш тизимининг ишиға таъсир қиладими?” ва тадқиқотни ўтказиш методикаси ўрганилади. Тадқиқотда иккита ўспирин иштирок этди: бири чекувчи, бошқаси чекмайди. Дарсда биз олинган маълумотларни таҳлил қиламиз ва ўқитувчиларнинг ижодий гуруҳи дарсдан ташқари вақтда лойихани расмийлаштириш билан шуғулланади.

Ўқитувчиларни тадқиқотчилик фаолиятиға йўналтириш босқичма-босқич амалга оширилади. Дастлаб, «Табиатни уйға таклиф этамиз», «Пиёз – яшил дўст», «Аптека дераза олдида» ва бошқ. Ўқитувчилар хона ўсимликларининг инсон ҳаётидаги аҳамияти билан танишади. «Тошкент худуди ландшафти», ўқитувчиларға манзарали ўсимликларни истироҳат боғларида, университет худудида, ўқув-дала амалиётида бир йиллик ва кўп йиллик турларини аниқлаш имкониятини беради. Шунингдек, атроф-

муҳитни кўкаламзорлаштириш, экологик вазиятни яхшилаш бўйича лойиҳа, лаборатория, кузатиш ва тажрибалар, ўқитувчилар тадқиқотчилик фаолиятини ривожлантиришда муҳим аҳамият касб этади.

Дастлабки босқичда ўқитувчиларнинг тадқиқотчилик фаолиятига тайёрлигини шакллантиришнинг педагогик шарт-шароитлари муаммоли ўрганиш технологиялари ҳисобланади, чунки тадқиқот фаолияти ижодий (маҳсулдор) характерга эга ва унинг мақсадга мувофиқ шаклланиши ўқув-билиш фаолияти излаш жараёнида содир бўлади. Бу, ўз навбатида, муаммоларни ўрганишнинг етакчи фаолияти саналади. Муаммоли таълимнинг асосий вазифаларидакн бири бу назарий фикрлаш жараёнларнинг ривожланиши (таҳлил, синтез, умумлаштириш, аниқлаштириш, мавҳумлаштириш, таққослаш, ўхшашлик) ва бу жараёнлар илмий-тадқиқот фаолиятини кўникмаларининг асосий таркибий қисми ҳисобланади.

Ўқитишнинг асосий муаммоси бу муаммоли вазиятни яратиш, мазкур вазиятни ҳал этиш жараёнида ўқитувчилар илмий билиш мантиқи ва илмий тадқиқот методологияси ҳақидаги ғояларини шакллантириши, бу эса ўқитувчиларнинг илмий-тадқиқот фаолиятига йўналтирилганлик, фаолиятлилик ва мотиватсион таркибий қисмларини шакллантиришга ёрдам беради.

Адабиётлар рўйхати

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 19 июлдаги 559-сон «Ёшларни илм-фан соҳасига жалб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» қарори // [https:// lex.uz / docs/ 4494504](https://lex.uz/docs/4494504)

Акаров И.Б. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларида тадқиқотчилик кўникмаларини шакллантириш босқичлари. // “Касб-ҳунар таълими” илмий-методик журнали Т. 2016 й. 1-сон. Б. 30-35.

Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълимда замонавий ахборот технологияларини жорий этишнинг илмий-назарий асослари. Монография. – Тошкент: Фан, 2007. – 160 б.

Ибодова М.Н.. Биологиядан ўқувчиларнинг мустақил ишларини ахборот ресурслари воситасида такомиллаштириш методикаси (академик лицейлар мисолида). Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертациясиавтореферати. –Тошкент. 2019. 52-бет.

Ибрагимова Г.Н. Интерфаол ўқитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш. / Монография. -Т. “Фан ва технологиялар“ 2016 й. - 77 б.

F.Umarova, A.Ubbiyeva, F.Gaibnazarova, N.Jo‘rayev “O‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim.”Umumta’lim maktablari o‘qituvchilari uchun o‘quv modullari. 2- modul, 2-nashr. Т., “Bekinmashoq-plyus”.2013

TALABALARNI INNOVATSION FAOLIYATGA YO‘NALTIRISHDA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARNING AHAMIYATI

Shukurova U.U, Iskandarova S

*Guliston davlat pedagogika instituti Pedagogika” kafedrasida dotsenti
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), GulDPI talabasi*

Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda innovatsion faoliyatga oid ilmiy izlanishlarga alohida e’tibor qaratilib, texnika va texnologiyalarga kiritilgan yangicha yondashuvlar asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish orqali ulkan yutuqlarni ta’minlaydigan institut sifatida qarash, ya’ni innovatsion siyosatni amalga oshirish muhim masalalardan ekanligini amaliyot ko‘rsatmoqda. Bu borada ta’lim va ishlab chiqarish uzviylikini o‘rnatish jarayonida yangiliklarni izlab topish va kiritish, innovatsion faoliyatga psixologik tayyor turish yondashuvini shakllantirish yo‘nalishlarda keng ko‘lamli ilmiy tadqiqot ishlari dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Talabalarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirish davlat darajasidagi vazifalar qatoriga kirib, O‘zbekiston Respublikasining «Innovatsion faoliyat to‘g‘risida»gi qonunining 3-moddasida «innovatsiya - fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo‘llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta’minlaydigan yangi ishlanma» ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Ta’lim jarayonida g‘oyalar va loyihalarni eksperimental maydonga chiqarish hamda olingan natijalarni joriy etish ta’lim tizimida innovatsiyalarning shakllanishini ta’minlab beradi. Bu tushunchaning birlamchi ma’nosi bir tizimga ayrim yangi elementlarni kiritish ma’nosini anglatganki, S.K.Nartova-Bochaver bu jarayonni barqaror me’yor va namunalarning translyasiyasi natijasida vujudga kelishini ko‘rsatib o‘tgan. Fikrimizcha, bu jarayonda mavjud yaxlitlik tarzida tizim yoki majmuaviy birlashma ifodalanishi mumkin. SHuning uchun uni takomillashtirish yoki zamonaviylashtirishda yangi, oldin mavjud bo‘lmagan boshqa bir funksional tarkib yoki element kiritilsagina innovatsion xulq-atvor ifodalanishi mumkin.

K.Rodjersning fikricha, agarda insonga tug‘ma salohiyatlarni to‘liq ifodalash uchun sharoit yaratib bersak, u optimal va samarali tarzda rivojlanadi. Bu tarzda konstruktiv tug‘ma salohiyatning rivojlanishi insonga o‘z kompetensiyalarini va professionalizmini, shu bilan birga ijtimoiy etukligini, mas’uliyatligini va ijodga intilishini ta’minlaydi.

Bu masalani nazariy ahamiyatidan ko‘ra, amaliy jihati shaxs, ishlab chiqarish jarayoni va jamiyat ravnaqi uchun alohida mazmun kasb etib, R.W.Rycroft va D.E.Kashlarning ta’kidlashicha, innovatsiyani tavsiflovchi sanaladi. Bunda yangilikning innovatsion jihatdan uchta darajasi muhim sanalishi ko‘rsatib o‘tilgan:

takomillashgan (incremental innovations);

radikal texnik o‘zgarishlar (radical innovations);

tizimli innovatsiyalar (technology system changes).

Talabalarni innovatsion faoliyatga yo‘nalganligini faol darajada ta’minlash

asosida, ularda innovatsion kompetensiyaning tarkibiy qismlari shakllanadi. Talabalarni innovatsion kompetensiyasi tushunchasi asosida, istiqbolda mehnat (faoliyat) qilish uchun ongli harakatlar asosida bajaradigan amallar ketma-ketligini ta'minlovchi bazaviy-kasbiy komponentlarning (bilim, ko'nikma, tajriba, shaxsiy fazilatlar va boshqalarni) majmuasi tushuniladi. Talabalarning innovatsion faoliyat natijalari ularda shaxsiy javobgarlik, uni doimiy ravishda takomillashtirish zaruratini taqozo etadiki, T.B.Zagorulya uni shaxsning kreativ sifatlari tarzida ko'rsatib o'tgan. Ko'rinib turibdiki, shaxsiylik innovatsion faoliyatda turli ko'rinishlarda ishtirok etmoqda.

Innovatsiya nazariy jihatdan, ongli faoliyat asosida bo'lishi zarurligi sababli, innovatsion kompetensiya elementlarini faoliyatning ayrim izchil elementlarining asosi sifatida quyidagicha ko'rib chiqish mumkin:

shaxsning o'z ehtiyojini anglashi;

shaxsda motivlarning shakllanishi;

innovatsion faoliyatni amalga oshirish usullarining tanlab olinishi;

o'tkaziladigan tadbirlarni rejali asosda belgilash.

Ehtiyojni qondirish usulini tanlashda faoliyat sub'ekti uning qiymat yo'nalishlari va ijtimoiy g'oyalariga tayanadi.

Faoliyatni rejalashtirish uchun talaba o'zi tanlagan kasbiy faoliyatni amalga oshiradigan qonunlarni va bu holda sodir bo'ladigan jarayonlarni bilishi kerak. Amallarni bajarishda esa ma'lum bir innovatsion maqsadga erishish uchun operatsiyalarni ongli ravishda tanlash imkoniyatini va ushbu harakatni to'g'ri amalga oshirishni aniqlaydigan bilimlar majmuisiz bo'lishi lozim. Innovatsion faoliyat amaliyotni bajarish uchun talabaga ma'lum mahorat kerak. Shuning uchun, ushbu nuqtai nazardan, har qanday innovatsion kompetensiyaning majburiy elementlarini

quyidagicha ifodalash mumkin:

innovatsion faoliyat uchun ijobiy motivatsiya;

innovatsion faoliyat mazmuni va natijasiga qiymat-semantik munosabatlar;

tegishli innovatsion faoliyatni amalga oshirish yo'lini tanlash asosida bilim;

mavjud bilimlar asosida innovatsion faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar.

Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotda belgilangan vazifalarimizdan kelib chiqib aniqlagan yondoshuvlarimiz asosida quyidagi ta'rifni belgiladik:

Talabalarning innovatsion kompetensiyasi bu talabalar innovatsion faoliyatining sifatini belgilaydigan ajralmas tarkib, bu kasbiy va shaxsiy tavsifnomadir.

Ekzistensializm da inson hayotning ma'nosini topish, egallash, murakkab dunyo qurshovida inson degan xilqatning rolini topish, hayot yo'lini tanlash davomida muammolarni hal qilish jarayonida «bo'ladi». Falsafaning ushbu yo'nalish vakili J.P.Sartrning fikriga ko'ra, inson o'zini – o'zi belgilash va hayot strategiyasini amalga oshirish jarayonida o'zi uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga olganda shaxsga aylanadi. E.Frommning falsafiy konsepsiyasiga muvofiq, jamiyatda shaxsning o'z-o'zini belgilashi shaxsning shakllanish jarayoni bilan bog'liq bo'lib shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish jarayonida sodir bo'ladi.

Tizimli tafakkur metodologiyasining vakili S.V.Popov «rivojlanish» atamasi «rivojlantirish»dan ko‘ra samaraliroq deb hisoblaydi. Vaziyat o‘zgarishi bilan o‘zini namoyon qiladigan bo‘lish jarayoni tabiiy jarayonlar va sun‘iy ta’sirlardan kelib chiqadi: «bo‘lish tarixiy doirada birgalikda tashkil etilgan jarayonning tabiiy va sun‘iy tarkibiy qismlarining kombinatsiyasini o‘z ichiga oladi».

Turli xil tabiat omillari ta’sirida o‘zgartiruvchi yangi bilimlar, g‘oyalar, qadriyatlarni egallaydi. Olib borilgan tadqiqotlarimiz shuni anglatadiki, agar talaba ta’lim amaliyotining transformatori vazifasini bajarib tegishli ta’lim maydonini yaratib, o‘z ta’limida maqsadga muvofiq ravishda shug‘ullansa kafolatlangan natijaga albatta erishadi. V.G.Maralov talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorgarligini rivojlanish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshirishini ko‘rsatib o‘tgan:

o‘zini mutaxassis sifatida anglash (kasbiy tafakkur);

o‘zini bilimdonligi va shaxsiy-kasbiy sifatlarini anglash (kasbiy «Men»);

o‘zini kasbiy fazilatlarini egallanganlik darajasiga ko‘ra tasdiqlash (kasbiy identifikatsiya);

o‘zini kasbiy mahorati, fazilatlari, qobiliyatlarini rivojlantirishni ongli ravishda boshqarish jarayoni takomillashtirish (kasbiy-professional qadriyat);

o‘z-o‘zini anglash (u nimaga qodir bo‘lsa, shunday bo‘lish qobiliyati – kasbiy loyqlik).

E.F.Zeer innovatsion faoliyat shakllanishini «ijtimoiy ta’sirlar va o‘z faoliyati ta’sirida shaxsning maqsadga muvofiq ravishda progressiv ravishda o‘zgarib turadigan doimiy jarayoni» deb ta’riflaydi. Shaxsni – talaba shaxsini shakllantirish jarayoniga ta’sir qiluvchi tashqi omillar, muallifning fikriga ko‘ra, insonning atrof-muhitdagi faoliyati orqali atrofdagilar bilan o‘zaro aloqasi orqali shaxsning shakllanishini belgilaydigan yashash sharoitlari, tashqi ta’sirlardir. Bu o‘z navbatida talabalarining innovatsion faoliyatga tayyorgarligi va professional (kasbiy) shakllanishiga ichki va tashqi omillar ta’sir ko‘rsatishini bildiradi. SHuning uchun innovatsion faoliyatga yo‘naltirishda har bir xususiy-psixologik tarkibni funksional ta’siriga e’tibor qaratish lozim.

E.F.Zeerning ta’kidlashicha, kasbiy rivojlanish bilimdonlikdan, maqsadni belgilashdan, amaliy va diagnostik fikrlashdan, bashorat va tahlil qilishdan hamda fikr yurgizishdan tashkil topadi. Muallifning fikriga ko‘ra, kasbiy rivojlanish bilan birga olib boriladigan mashg‘ulotlar ish faoliyati asosida qurilishi kerak. E.F.Zeer tomonidan kasbiy rivojlanishning bir qator bosqichlari (kasbiy tasavvur, kasbiy tafakkur va b.) belgilanganki, ulardan talabalarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirishda foydalanish mumkin. Jumladan, kasbiy ongini shakllantirish orqali, kasbiy qadriyatlarni, kasbiy bilim, kasbiy qobiliyat va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirib, o‘zlashtirish tizimini takomillashtirish, kasbiylashtirish tufayli, kasbiy (mehnat) muhitga (kasbiy texnika, qurol-aslaha va b.) moslashish va boshqalar. Bularning barchasining zahirida kasbiy ongini shakllantirish va kasbiy jihatdan o‘zini o‘zi belgilash ifodalangan.

Agarda, kasbiy tajribalarni egallash orqali, kasbiy mahoratni egallasa (dinamik jarayon sifatida) bo‘lajak mutaxassisni kasbiy faoliyatini samaradorligiga erishish ta’minlanadi.

Bizning tadqiqotimiz talabalarni innovatsion faoliyatga yoʻnalganligining ijtimoiy-psixologik jihatlarini oʻrganish sohasiga tegishlidir. SHu sababli ham bunda talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonlarini tadqiq etish muhim sanaladi. V.A.Adolf, insonning har qanday faoliyati muammolarni hal qilishni oʻz ichiga oladi, shuning uchun talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda uning turiga xos boʻlgan muammolarni hal qilish asosida mutaxassisning innovatsion rivojlanish darajasini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, mutaxassisning kasbiy rivojlanish koʻrsatkichlari nafaqat natijani, balki butun «uzluksiz taʼlimning turli bosqichlarida mutaxassis boʻlish jarayoni»ni baholash uchun ishlatilishi kerak. Bu shuni anglatadiki, taʼlim va kasbiy vazifalar uzluksiz taʼlimning har qanday bosqichida bajarishga qulay boʻlishi kerak. Agarda, innovatsion faoliyatga yoʻnaltirish uchun ularni modellashtirish, qiyosiy tahlillarni amalga oshirishga oʻrgatsak, yangilikka boʻlgan qiziqishlarini oʻstirsak (shakllantirsak) ularning faoliyatini samaradorligi taʼminlanadi.

Xulosa qilib aytganda oliy taʼlim tizimida talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda milliy va mintaqaviy mehnat bozorini talab va ehtiyojlarini inobatga olib, yangi oʻquv modullarni tashkil etish tavsiya etiladi. Birlamchi darajada fakultetlar kesimida «Innovatsion faoliyat» gʻolibi koʻrik tanlovini toʻrtinchi kurs talabarlari uchun oʻtkazishni yoʻlga qoʻyib, mamlakatimiz oliy taʼlim muassasalari talabalarini ishtirokini taʼminlash tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ўзбекистон Республикасининг «Иновацион фаолият тўғрисида»ги Қонуни. / Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.07.2020 й., 03/20/630/1101-сон.

2.Нартова-Бочавер С.К. «Copingbehavior» в системе понятий психологии личности // Психологический журнал. 1997. Т. 18. № 5. - С.20 - 30.

3.Herskovits M.J. Les basis del antrologieculturelle. – Paris, 1967.

4.Роджерс К. Взгляд на психотерапию. Становление человека: Пер.с англ. /

Общ. ред. и предисл. Исениной Е. И. – М.: Издательская группа «Прогресс» , « Универс», 1994. – 480 с.

5.Подымова Л.С. Психолого-педагогическая инноватика: личностный аспект. – М.:Московский пед. государственный университет, 2012. – 207 с.

6.Загоруля Т.Б. Развитие креативных свойств личности студентов средствами инновационной дидактики // Научное мнение, 2015. № 9– 2.

7.Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Смысл, 2004.

8.Фельдштейн Д.И. Приоритетные направления развития психологических исследований в области образования и самообразования современного человека // Вопросы психологии 2003, №6.

9.Франкл В. Человек в поисках смысла. Пер. с англ. / Общ. ред. Л.Я. Гозмана и Д. А.Леонтьева. - М.: Прогресс, 1990. С. 99-110.

10.Фромм Э. Анатомия человеческой деструктивности. Переводиавторское вступление П.С. Гуревич. - М.,1994. 447 с.

KONFLIKTLARNING YUZAGA KELISHI VA ULARNI HAL QILISH YO‘LLARI

Ahmadov O‘ktamjon Zokirjon o‘g‘li

TAFU Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada nizolarning yuzaga kelishi va ularni hal qilishning samarali strategiyalari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Konflikt, empatiya, aqliy hujum.

Qarama-qarshiliklar turli manfaatlar, qarashlar va qadriyatlardan kelib chiqadigan

odamlarning o‘zaro bir-birlariga ta’sirining muqarrar qismidir. Shaxsiy munosabatlarda, ish joylarida, jamoalarda yoki global sahnada mojarolar uyg‘unlikni buzishi va taraqqiyotga to‘sqinlik qilishi mumkin. Biroq, faol va empatik yondashuv bilan mojarolar o‘shish va ijobiy o‘zgarishlar uchun imkoniyat bo‘lishi mumkin.

Konflikt o‘zaro qarama – qarshi bo‘lgan ziddiyatli manfaatlar va munosabatlarning to‘qnashuvidir. Konfliktlar ko‘pincha vaziyatlarning turli nuqtayi-nazarlari va talqinlaridan kelib chiqadi. Shaxslar yoki guruhlar masalalar bo‘yicha qarama-qarshi qarashlarga ega bo‘lishi mumkin, bu esa kelishmovchilik va keskinliklarga olib keladi. Noto‘g‘ri muloqot yoki samarali muloqotning yetishmasligi arziyas muammolarni to‘liq nizolarga olib kelishi mumkin. Yomon tinglash qobiliyatlari, tushunarsiz xabarlar va tushunmovchiliklar keskinlikni kuchaytirishi mumkin. Agar odamlar o‘z ehtiyojlari, umidlari yoki huquqlari qondirilmayotganini his qilsalar, nizolar paydo bo‘lishi mumkin. Shaxsiy munosabatlarda yoki professional muhitda bajarilmagan umidlar va umidsizliklar nizolarga olib kelishi mumkin.

Konfliktlarning ijobiy va salbiy tomonlari bor. Pedagogikada konfliktlarini salbiy tomonlari o‘quvchilar bilimni baholashda jiddiy xatolardan yana biri turli guruhlariga sub’ektiv yondashishdir. Bu o‘quvchi tomonidan ayni bir javob uchun ayni bir ish uchun turli o‘quvchilarni baholashda tafovutlarda aks etadi. Bunday vaziyatga e’tibor qilish zarur. Doskada past o‘zlashtiradigan o‘quvchi javob bermoqda, ishonchsiz, o‘rinsiz gapirmoqda. Bunday holatda o‘qituvchining munosabati qanday bo‘ladi u o‘quvchi gapini shartta bo‘lib, unga “ikki” qo‘yadi va joyiga o‘tkazadi: “Sen” hech qachon odam bo‘lmaysan, “Senga o‘rgatsa ham befoyda ekan” deb izza qiladi. Endi boshqa vaziyatni ko‘raylik. Doska oldida yaxshi o‘zlashtiruvchi o‘quvchi bugun darsga tayyor emas, ishonchsiz holda javob beryapti o‘qituvchi uni ancha suyaydi. Bu vaziyatlarda konfliktni salbiy tomonlari yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Konfliktning ijobiy tomonlari pedagog ta’lim jarayonida aqliy hujum metodikalaridan foydalanadi. Aqliy hujum metodikasida muammoli vaziyatli savollar guruhga tashlanadi, muammolarni mavzu yuzasidan har bir talaba o‘z fikrlarini bildiradi. Ziddiyatlar, mojarolar to‘qnashuv qarama-qarshiliklar tufayli talabalar fikrlari yanada kengayib boradi.

Munosabatlar yoki tashkilotlardagi quvvat nomutanosibliigi nizolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bir tomon o‘zini ko‘proq kuch yoki nazoratga ega deb hisoblasa, bu boshqa tomonning noroziligi va qarshiliklariga olib keladi. G‘azab,

qoʻrquv yoki ishonchsizlik kabi his-tuygʻular mojarolarni kuchaytirishi, mulohazani xiralashtirishi va impulsiv yoki mantiqsiz xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin.

Tuygʻularni tushunish va boshqarish mojarolarni hal qilish uchun juda muhimdir. Konfliktlarni samarali hal qilish uchun quyidagi strategiyalardan foydalanish mumkin:

1. Ochiq va halol muloqot muhitini targʻib qiling, bu yerda barcha tomonlar eshitilgan va tushunilgandek his qilishadi. Asosiy tashvishlarni hal qilish uchun faol tinglashni, empatiyani va hurmatli muloqotni ragʻbatlantiring.

2. Aybni yuklashga eʼtibor berish oʻrniga, oʻzaro manfaatli yechimlarni topishga ustuvor ahamiyat bering. Aqliy hujum, vositachilik yoki muzokaralar kabi muammolarni birgalikda hal qilish usullari farqlarni yarashtirishga va konsensusga erishishga yordam beradi.

3. Barcha ishtirokchilarning istiqbollari, ehtiyojlari va motivlarini tushunishga vaqt ajrating. Empatiya va istiqbolni oʻylab koʻrish ajralishlarni bartaraf etishga va hamdardlik va tushunishni rivojlantirishga yordam beradi.

4. Kelajakdagi mojarolarning oldini olish uchun chegaralar, umidlar va masʼuliyatni aniq belgilang. Muloqot va qarorlar qabul qilish uchun aniq koʻrsatmalar va protokollarni belgilash shaffoflik va javobgarlikni oshirishi mumkin.

5. Murosa, yechimni qabul qilish yoki umumiy xulosa chiqarish kabi nizolarni hal qilishning turli usullari bilan tanishing. Mojaroning oʻziga xos konteksti va dinamikasiga yondashuvni moslashtiring.

6. Mojarolarni oʻrganish va rivojlanish imkoniyatlari sifatida koʻring. Mojaroning asosiy sabablari va dinamikasi haqida fikr yuriting va kelajakda shunga oʻxshash muammolarni oldini olish yoʻllarini belgilang.

7. Mojarolar ayniqsa murakkab yoki ildiz otgan hollarda, vositachi yoki maslahatchi kabi neytral uchinchi tomonning yordamiga murojaat qilishni oʻylab koʻring. Xolis vositachi hal qilish jarayoniga rahbarlik qilish, tushunish va kelishuvga erishishga yordam berishi mumkin.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki: Toʻqnashuvlar odamlarning oʻzaro taʼsirining muqarrar tomonidir, ammo ular halokatli boʻlishi shart emas. Mojarolarning asosiy sabablarini tushunish va samarali hal qilish strategiyalarini qoʻllash orqali shaxslar, guruhlar va tashkilotlar nizolarni konstruktiv muloqot, hamkorlik va rivojlanish imkoniyatlariga aylantirishi mumkin. Mojarolarni hal qilishni mahorat va fikrlash tarzi sifatida qabul qilish kuchliroq munosabatlar, sogʻlom jamoalar va tinchroq dunyoga hissa qoʻshishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Deutsch, M. (1973). *The Resolution of Conflict: Constructive and Destructive Processes*. Yale University Press.

2. Fisher, R., Ury, W., & Patton, B. (2011). *Getting to Yes: Negotiating Agreement Without Giving In*. Penguin Books.

3. Pruitt, D. G., & Kim, S. H. (2004). *Social Conflict: Escalation, Stalemate, and Settlement*. McGraw-Hill.

4. Kriesberg, L. (2007). *Constructive Conflicts: From Escalation to*

Resolution. Rowman & Littlefield Publishers.

5. Folger, J. P., Poole, M. S., & Stutman, R. K. (2013). Working Through Conflict: Strategies for Relationships, Groups, and Organizations. Routledge.

6. Hocker, J. L., & Wilmot, W. W. (2013). Interpersonal Conflict. McGraw-Hill Higher Education.

7. Rahim, M. A. (2011). Managing Conflict in Organizations. Transaction Publishers.

8. Cloke, K., & Goldsmith, J. (2011). Resolving Conflicts at Work: Ten Strategies for Everyone on the Job. John Wiley & Sons.

9. Akerlof, G. A., & Shiller, R. J. (2015). Phishing for Phools: The Economics of Manipulation and Deception. Princeton University Press.

10. Lederach, J. P. (2003). The Little Book of Conflict Transformation. Good Books.

TASK-BASED LANGUAGE TEACHING SPEAKING

Ergasheva Feruza Davlatali qizi

Tashkent State Pedagogical University PhD Student

Email: ergashevaferuza022@gmail.com Tel: +998994796935

Annotatsiya. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki TBLT(topshiriqqa asoslangan tilni o'rgatish) metodikasi ESL(ingliz tilini ikkichi til sifatida o'rganuvchilar) talabalari uchun nutq va ravonlik ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali usul hisoblanadi. Ushbu maqolada ingliz tilini o'qituvchilarining TBLT ni nutq va ravonlik ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida sinflarda foydalanish kerakligiga maslahat beradi, bu esa uning samarali rivojlanish potentsialini hisobga oladi. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari darsliklarni ishlab chiqaruvchilarga ta'sir qilishda yordam beradi va talabalar uchun grammatik va nutq qobiliyatlarini rivojlantirish uchun TBLT ni qo'llashni taklif qiladi.

Kalit so'zlar: esl kontekst, ravonlik, nutq qobiliyatlari, topshiriq, topshiriqqa asoslangan tilni o'rgatish.

АННОТАЦИЯ. Результаты исследования подтверждают, что методика обучения на основе задач (TBLT) эффективно развивает у студентов навыки говорения и беглость речи на английском как втором языке. Этот подход мотивирует студентов и увеличивает их уверенность. Поэтому исследование рекомендует использовать TBLT(обучение языку на основе задания) для обучения говорению в классах английского языка, что может значительно улучшить результаты. Также результаты исследования важны для разработчиков учебных программ, которым предлагается включить этот метод в учебники для развития грамматических и речевых навыков у студентов.

Ключевые слова: ESL контекст, беглость, разговорные навыки, задание, обучение языку на основе задания.

Abstract. The study highlights the effectiveness of TBLT(task-based language teaching) in teaching English as a Second Language (ESL) students, highlighting its potential to boost motivation and confidence. It recommends its adoption by

educators and curriculum designers, suggesting its inclusion in textbooks to enhance students' language skills, including grammatical and speaking proficiency.

Key words: ESL context, fluency, speaking skills, task, task-based language teaching.

INTRODUCTION

Task-Based Language Teaching (TBLT) posits that effective language acquisition occurs when learning environments mimic real-life situations, engaging students in authentic task-based activities (Tawil, 2018). Tasks are fundamental in TBLT as they facilitate interaction and communication. Students practice their oral communication skills via a variety of activities, including pair/group projects that are completed in small groups or pairs.

In information gap assignments, students are encouraged to communicate in order to fill in any gaps in their knowledge that may exist when one student has information that the other student does not.

Whether an assignment calls for structured or unstructured discussion determines its classification as open or closed.

In the opinion and reasoning gap assignment, students are asked to share their opinions and perspectives on a certain subject.

In this group activity, students work together to solve a predetermined problem.

Social dialog tasks (role plays and interviews): students play different roles in a variety of situations.

Willis (1996) introduced a framework in the 1990s, which gained widespread attention among ELT practitioners and curriculum developers. Her idea highlights how the natural environment of a task is crucial for fostering language progress and how fluency may be achieved via task-appropriate language usage.

RESULTS AND DISCUSSION

TBLT is deeply rooted in language learning theory, highlighting the utilization of tasks to provide diverse contexts for language acquisition and activate learners' language processes. It encompasses all language skills, including vocabulary, promoting the use of the target language through holistic task-based learning.

Task-Based Language Teaching (TBLT) has evolved from Communicative Language Teaching (CLT) and emphasizes both form and communication in language instruction (Larsen-Freeman & Anderson, 2011; Qian, 2013). Rooted in the theory of communicative language teaching, TBLT aims to enhance learners' communicative competence by fostering language interaction (Widdowson & Allwright, 1984). It facilitates meaning negotiation and enhances communicative competence in a second language by allowing learners the freedom to use language forms flexibly, with tasks designed to be adaptable and results aiding teachers in assessing outcomes (Qian, 2013). TBLT places learners at the forefront of all language teaching aspects, making it a learner-centered approach to language instruction (Richards & Schmidt, 2010).

Research indicates that TBLT is effective in developing speaking skills and fluency in both English as a Foreign Language (EFL) and English as a Second Language (ESL) contexts (Albino, 2017; Boonkit, 2010; Murad, 2009; Alam, 2013; Buriro & Hayat, 2010). Numerous studies have highlighted TBLT as an alternative approach to traditional methods, offering solutions to the challenges of English language teaching (Boonkit, 2010; Buriro & Hayat, 2010; Kasap, 2005; Murad, 2009; Masuram & Sripada, 2020; Nget et al., 2020; Safitri et al., 2020; Tawil, 2018). TBLT naturally incorporates all four language skills, stimulates learners' intuition, encourages interaction in authentic contexts, and fosters interest, resulting in language competency (Ellis, 2003; Nunan, 2004). It prioritizes a learner-centered approach that particularly enhances speaking skills, including fluency, and facilitates the development of learners' interlanguage through opportunities for effective language use in both oral and written forms (Costillo & Ponce, 2018).

Several prominent research studies have utilized Willis' (1996) framework for implementing TBLT in classrooms (Boonkit, 2010; Kasap, 2005; Murad, 2009; Torkey, 2006). Language focus, grading cycle, and pre-assignment make up the system. During the pre-assignment phase, the teacher provides clear topic introductions, directions to encourage students to think about the task, and, in some cases, terminology and phrases to help with comprehension. Task, planning, and reporting are the three parts that make up the assignment cycle phase. Students work in pairs or small groups to accomplish tasks using the linguistic resources provided. In the preparation stage, students practice their speeches, and in the reporting stage, they give public presentations of their work. As they work towards completing the task, students should familiarize themselves with its goals and expected achievements. Last but not least, in "language focus," we put everything into practice and analyze the results. During the analysis phase, both teachers and students focus on identifying and evaluating important language features, such as vocabulary and structures, in order to foster growth. Students work on their confidence and proficiency in the target language via a range of activities and exercises throughout the practice phase.

Lesson plans were designed based on Willis' (1996) framework for teaching speaking skills through TBLT. The researcher developed these plans using available literature and validated them with the input of three experts in the teaching field to ensure content validity. Rating scale rubrics, adopted from Torkey's (2006) study, were utilized to assess grammatical competence (grammar, pronunciation, and vocabulary) and fluency, excluding other elements assessing pragmatic and discourse competence, which were not the focus of the present study. There was a continuum from extremely poor (1) to outstanding (5) in the grading system rubrics for speaking abilities. The communicative competence paradigm was used to develop the rubrics, with grammatical competence being the main focus. The pilot tests served to verify the instruments; they effectively identified and evaluated students' speaking skills, including fluency and grammatical competence, via the use of rating scale rubrics in a role-playing environment.

CONCLUSION

This study's findings provide credence to the idea that schools should use Task-Based Language Teaching (TBLT) programs to help students improve their public speaking abilities. In addition to keeping students' attention, TBLT helps them become more fluent and competent speakers. Furthermore, in order to support students' growth and boost their confidence as learners, it is essential for teachers to have enough training and provide timely feedback on student work. Textbooks and other instructional materials may be enhanced by curriculum designers by including Task-Based Language Teaching (TBLT) stages. Incorporating a variety of assignments and hands-on activities into these resources may help students and teachers develop confidence and a love of learning.

This study's results and limitations suggest that future research should look at how well Task-Based Language Teaching (TBLT) works to improve undergraduates' fluency and speaking skills. Beyond the investigation of grammatical competence, this may include studying the impact of TBLT on the development of competence in conversation, sociolinguistics, and strategy. Insights into the general efficacy of Task-Based Language Teaching (TBLT) across a range of language abilities and contexts should be greatly enhanced by such studies.

REFERENCES

1. Celce-Murcia, M. (2001). Language Teaching Approaches: An Overview. In M. Celce-Murcia (Ed.), *Teaching English as a Second or Foreign Language* (3rd Ed.).
2. Boston: Heinle & Heinle Publishers. Costillo, C., & Ponce, E., (2018). Task-Based Language Teaching and Research in EFL Classrooms: An Interview with Dr. Parveh Tavakoli. *MEXTESOL journal*, 42
3. Creswell, J. W. (2012). *Educational Research: Planning, conducting, and evaluating quantitative and qualitative research*. Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall. EI-hadi, A. (2019).
4. Using TASK Based Learning to develop EFL Speaking Skills of the Humanistic Studies' Students of Al- Azhar University. *Journal of Faculty of Education*, 117(2).
5. Khayrullayeva, R. L. (2021). Ways and functions of students speech development. *ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(12), 389-393.
6. Жуманова, Ф. У., Мирзарахмонова, Ш. М. (2021). Дуал таълим ва унинг имкониятлари. Бошқарув ва Этика Қоидалари онлайн илмий журнали, 1(6), 122- 124.

XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARINI O'RGANISH ORQALI METODBIRLASHMA FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA

Yunusmetoa Nasiba Satimbekovna, Davranova Gulsara

*SVPYMO'MM Tarbiya fani metodisti, Maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi*

**o'quvchilarning bilim hamda ko'nikmalarini baholash bo'limi bosh
metodisti**

Ta'lim samaradorligini oshirish barcha zamonlarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sanalib kelingan.

Metodbirlashmalar o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining buyrug'i va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek, umumta'lim maktabining ustavi va ushbu nizomga amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi Davlat siyosati, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilarining XXI asr ko'nikmalari: kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, muammolarga tanqidiy va kreativ yondashuv, AKT va media savodxonlik, o'zini-o'zi rivojlantirish va uzluksiz kasbiy rivijlanish masalalari, pedagog mas'uliyati va moslashuvchanligi, inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari, fandagi yangiliklar, fanni o'qitishning dolzarb masalalari, o'qituvchilar kompetentsiyalarini baholash usullari va vositalari o'z ichiga olib, ular bo'yicha tegishli yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

XXI asr statistik bilimlar zamoni tugab borishi munosabati bilan bugungi pedagoglarda quyidagi ko'nikmalarga ehtiyoj ortmoqda :

1. Critical thinking skills (tanqidiy fikrlash) - har qanday haqiqatni shubha ostiga olish va uni har tomonlama o'rganish orqali muammoga yechim topa oladigan odamlar liderlarga aylanib boraveradi. Sun'iy intellekt har qanday shablon fikrlaydigan insonlar o'rnini osonlikcha egallaydi.

2. Social skills (jamiyat va ijtimoiy ko'nikmalar) - insonlar ijtimoiy mavjudotlar hisoblanishadi, har qanday ijtimoiy fanlar o'rnini sun'iy intellekt boshqara olmaydi, jamiyatlar ijtimoiylashuvga juda kuchli ehtiyoj sezadi. Ibtidoiy davrda odamlar yemish topish uchun ma'lum bir ijtimoiy guruhga birlashgani kabi bu safar ham ijtimoiylashish birinchi o'ringa chiqib qoladi.

3. Psychological skills (psixologik bilimlar) sun'iy intellekt psixologik muammolarni hal qila olmaydi, u faqatgina yo'l ko'rsatishi mumkin. Odam oddiy ishlarni bajarish uchun odamga ehtiyoji qolmagach hissiy muammolarga duch keladi. Odamning o'zi yolg'izlanib qolishni boshlaydi va psixologlarga bo'lgan talab ortib ketadi.

Shunday ekan mana shu uch bilimni rivojlantirish kerak.

Mamlakatimizda klaster yondashuvi asosida metodik birlashma faoliyatining mazmun-mohiyati va xususiyatlarini aniqlashtirish, faoliyati samaradorligini oshirish masalasi maxsus o'rganilmagan bo'lsa-da, muammoga yondosh bo'lishgan yo'nalishlar, xususan, ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash shart-sharoitlari, mexanizmlari, ta'lim jarayonni yaxshilash, o'quvchilar bilimni shakllantirishning pedagogik asoslari M.Vaxobov, U.Begumqulov, O.Musurmonova, M.Mahmudov, S.Nishonova, M.Yuldashev, B.A'zamovalarning; globallashuv sharoiti va bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlashda klaster modelining imkoniyatlari va samaradorligi G'.I.Muhamedov, U.N.Xo'jamqulov,

Sh.Q.Mardonov, Sh.Botirova, S.A.Toshtemirova, D.Qarshieva, X.Sultonov, Q.Mahmudovlarning tadqiqotlarida yoritilgan.

“Xalq ta’limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Xalq ta’limi vazirining 2022-yil 5-dekabrda 372-sonli buyrug‘i qabul qilindi va umumiy o‘rta ta’lim maktabining Metodbirlashmalar to‘g‘risidagi nizomi tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 21-iyundagi PQ-290-son qarori, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 22-sentabrdagi “Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlari faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 351-sonli buyrug‘i, shuningdek, maktab ta’limiga ilg‘or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan zamonaviy darsliklarni hamda baholash tartibini amaliyotga joriy etishda pedagog xodimlarga uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatib borishni tizimli tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 5-yanvardagi 8-sonli buyrug‘i qabul qilindi.

Ushbu buyruqqa asosan Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida Pedagogik kengash faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2016-yil 30-maydagi 6-Mh-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining pedagogik kengashi to‘g‘risidagi namunaviy nizomga muvofiq tashkil etilishi inobatga olingan.

Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari hamda Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlariga ikki oy muddatda umumta’lim maktablarida uzluksiz metodik yordam ko‘rsatish maqsadida tuman (shahar)larda jamoatchilik asosida “Mentorlar guruhi”ni tashkil etilishi, samarali faoliyat olib borgan mentorlarni tarmoq mukofotlari bilan taqdirlashga tavsiya etish, metodik xizmat ko‘rsatish tartibining mazmun-mohiyatini pedagoglar orasida keng targ‘ib qilish vazifalari yuklatildi.

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari ikki oy muddatda Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi xodimlarining ta’lim muassasalarida qo‘shimcha pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishiga imkoniyat yaratish maqsadida Markazning ichki mehnat tartib-qoidalariga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishi nazarda tutilgan.

Metodbirlashma - bu umumiy o‘rta ta’lim maktablarida uzluksiz metodik xizmat tizimining bir bo‘g‘ini hisoblanib, o‘qituvchilarga metodik xizmatni amalga oshiradigan, ularning innovatsiya, tajriba-sinov ishlari va ta’lim-tarbiya jarayonlarini rivojlantirish ishlarini muvofiqlashtiradigan jamoaviy organ hisoblanadi. Maktab ta’limiga ilg‘or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan zamonaviy darsliklarni hamda baholash tartibini amaliyotga joriy etishda pedagog xodimlarga uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatib borishni tizimli tashkil etish. Shu sababli o‘quv tarbiya jarayoni sifatini yanada yaxshilash, fan o‘qituvchilariga metodik yordamni tashkil etish, tegishli o‘quv fanlarni o‘qitish uslublarini takomillashtirish va o‘qitish sifatini oshirishga ko‘maklashish. Pedagoglarni yangi

metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida maktab ta'lim jarayonining markaziy o'rinlaridan biri sifatida metodbirlashma faoliyatining o'ziga xos jihatlari J.M.Boloshenko, A.E.Melnikova, R.I.Penkova, M.I.Rojkova, V.P.Sozonova; metodbirlashmalar shakllanish jarayoni va ularga qo'yilayotgan zamonaviy talablar, mazkur faoliyatning davr va jamiyat talablari bilan aloqadorligi masalasi F.A.Bobkov, A.V.Ivanov, N.K.Goncharov; o'quvchilar jamoasini shakllantirish va boshqarishdagi o'rni N.P.Anikeeva, G.V.Vinnikova, H.A.Izmailova, I.P.Ivanov, L.A.Karimova, T.Ye.Konnikova, L.I.Novikova, N.L.Selivanova, S.D.Polyakov; maktab ta'lim tizimi va metodbirlashma faoliyati mazmuni V.V.Andreeva; maktab o'quvchilarining ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatini rivojlantirishda metodbirlashmalarning o'rni va roli V.A.Karakovskiy, L.I.Novikova, O.S.Gazman, N.N.Mixaylova, E.N.Stepanov, N.Ye.IIqurkova, o'quvchilar jamoasi bilan ishlashni samarali rejalashtirish shakllari, metodbirlashmaning kasbiy ahamiyatga ega sifatlarini aniqlash ishlari N.I.Boldirev, N.L.Selivanova, V.R.Yasniskaya, N.Ye.Shurkovlar tomonidan tadqiq etilgan. Xorijlik olimlardan J.Sachs, A.Toom, T.Astin, L.Stamm, P.Lang, V.Klark, Sloan, Daltonlarning tadqiqotlarida metodbirlashmalar va ta'lim ish shakllarining o'zgaruvchanligi, o'qituvchi-malakasini rivojlantirish psixologik-pedagogik jihatlari, o'qituvchilarning pedagogik mahoratini shakllantirish masalalari o'z ifodasini topgan. Metodbirlashma faoliyatining o'ziga xos jihatlari, klaster yondashuvi asosida metodbirlashma faoliyatini muvofiqlashtirish, ta'lim samaradorligini oshirishda metodbirlashma o'rni va ahamiyatini ilmiy nuqtai nazardan o'rganish zarurati tug'ildi.

N.L.Antonova, A.V. Merenkov, N.G. Popovalarning Rossiyadagi professional o'qituvchilar uyushmalarining yetakchilik salohiyati: o'rta maktab rahbarlarni shakllantirish (Leadership Potential of Professional Teacher Associations in Russia: Formation of Middle Leaders) mavzusidagi Journal of language and Education 5(3):70-82 sentabr-2019) nomli maqolasida 2017–2018 yillarda o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalarini yoritib bergan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy maktabda o'qituvchilarning uslubiy birlashmalari faoliyatining xususiyatlari aniqlandi, ular maktab ta'limini rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, keng ko'lamlı funksiyalarni (uslubiy, kommunikativ, axborot, tartibga solish) amalga oshiradigan ta'lim tizimini shakllantirishga yordam beradi). Ushbu maqsadga erishish uchun o'qituvchilar bilan yarim tizimli suhbat bo'yicha qo'llanma ishlab chiqildi, jumladan 15 ta savol.

Jami 110 nafar o'qituvchi, jumladan, boshlang'ich sinf o'qituvchilari ishtirokida so'rov o'tkazildi; 15% erkaklar, 85% ayollar edi. Ish tajribasiga ko'ra, respondentlar quyidagicha taqsimlangan: 64% 10 yildan ortiq pedagogik tajribaga ega; respondentlarning 13% - 5 yildan 10 yilgacha; 15% o'qituvchilar - 2 yildan 5 yilgacha; o'qituvchilarning 8% - ikki yilgacha.

O'tkazgan so'rov o'qituvchilar maktab uslubiy birlashmalarining deyarli barcha turlaridan iborat: 15% ingliz tili, 14% matematika, 12% tabiiy fanlar, 11% rus tili va adabiyoti o'qituvchilari, 10% boshlang'ich maktablarda ishlaydi, 9,5%

informatika o'qituvchilari. va matematika, 9% - tarix va ijtimoiy fanlar, 8% - jismoniy tarbiya fanlarini qamrab olgan. Qolgan respondentlar ikkinchi chet tili va jahon badiiy madaniyatini o'rganish bilan bog'liq fanlarni o'rgatuvchi o'qituvchilarning kichik birlashmalariga tegishli. Assotsiatsiyalar 4 dan 10 gacha o'qituvchilarni o'z ichiga olgan.

Ta'lim tashkilotlari ma'muriyati ma'naviy va moddiy yordam ko'rsatuvchi ijtimoiy nazorat funksiyasini bajaradi. Uslubiy birlashmalarda o'qituvchilarning o'zaro hamkorligi pedagogik innovatsiyalarni yaratish va sinovdan o'tkazishda tashabbuskorlikning namoyon bo'lishi uchun shart-sharoitlarni shakllantirishga, turli yoshdagi, ish stajiga va ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar o'rtasida hamkorlikni rag'batlantirishga asoslanadi. Pedagoglarning faoliyati uslubiy birlashma a'zolari tomonidan ularning kasbiy faoliyatdagi yutuqlari ko'rsatkichi sifatida ko'rib chiqiladi.

Maktab ta'limida metodbirlashmalar maktabning asosiy tarkibiy bo'linmasi bo'lib, tajribali o'qituvchilarning (mutaxassislar, o'qituvchilar) kasbiy birlashmasi hisoblanadi. Ular nechta bir biriga yaqin bo'lgan fanlarni birlashtiradi. Ta'lim darajasi yoki ta'lim yo'nalishida o'quv, uslubiy, eksperimental, sinfdan tashqari ishlar, ta'lim sohalarida innovatsion, loyihaviy va tadqiqot faoliyatlarini o'rganadi.

Rossiyaning Kostroma shahridagi 26-umumta'lim maktabni o'n hafta davomida kuzatish jarayonida metodbirlashmalar faoliyatidagi qator muammolar aniqlandi, metodbirlashmalar faoliyatiga o'zgartirishlar kiritish rejasi va kutilayotgan natijalar belgilandi

Uslubiy birlashmalar faoliyatida kuzatuvlardan so'ng ayrim muammolar va yetarlicha innovatsiyalar yo'qligi aniqlandi, bu esa bitiruvchilarni tayyorlash sifati va saviyasini, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini to'liq oshirish imkonini bermayapti.

Bunday asosiy muammolarga quyidagilar kiradi:

1. O'qituvchilar faoliyatning hisobot davri uchun o'z-o'zini tahlilini o'tkazish muammosi;
2. O'quvchilarning maktab fanlarini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshirishga qaratilgan jonli tadbir sifatida fan haftaligini tashkil etish muammosi;
3. Olimpiadalarga o'quvchilarni har tomonlama tayyorlashni tashkil etish muammosi;
4. Tashabbuskorlikning yo'qligi pedagogik mahorat ko'rik-tanlovlarida ishtirok etish va tarqatish bo'yicha professor-o'qituvchilardan tajribasizligi;
5. Yosh mutaxassislar uchun metodik yordamning yo'qligi;
6. Kompyuter bilan ishlashda malakasizlik va o'qituvchilar uchun boshqa multimedia qurilmalar mavjud emasligi;
7. Darslarga o'zaro kuzatish, tahlil qilish va metodik birlashma yig'ilishida o'rganilmasligi.

O'rganish natijasida metodbirlashma faoliyatlarini jonlantirish maqsadida 4 ta komponent ishlab chiqildi.

1. Maqsadli komponent (metodbirlashmalar faoliyatining sifat va samaradorlikni oshirish)

2.Sub'ekt komponenti (metodbirlashmalarning usul va shakllari)

3.Protsessual komponent (pedagog kadrlarning individual ish rejasini ishlab chiqish va nazorat qilish, turli tanlovlar va olimpiadalarga o'quvchilarni tayyorlashda metodik mahsulotlar bilan ta'minlash, pedagoglarni moddiy va nomoddiy rag'batlantirish, pedagoglarni AKTni bilish darajalarini oshirish, ustoz-shogird an'anasini yo'lga qo'yish)

4.Natijaviy komponent (o'quv jarayonlarining samaradorligini oshirish maqsadida kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlash, o'quvchilarning maxsus bilimlarga yo'naltirishda kognitiv bilimlarini aniqlash, fanga qiziqtirish, o'rganish jarayonining tezligini oshirish maqsadida AKTlarini dars jarayonlarida samarali qo'llash, pedagoglarning ishlash samaradorligi oshirishda, turli ko'rik-tanlovlarda qatnashishlarida motivatsiyalar berib borish, ustoz-shogird an'ansi orqali yosh pedagog kadrlarni ish jarayonida moslashuvchanligini oshirib borish).²⁸

Angliyada metodbirlashma rahbari o'quv yili natijalariga ko'ra monitoring ishlab chiqadi. Pedagogning fundamental bilimi, pedagogik mahorati, dunyoqarashi, maktabdagi siyosati, amaliyoti, kitob tekshiruvi, bolalar bilan gaplashishi va hokazolari sinab ko'riladi. O'quvchilardan olingan so'rovnomalar asosida rivojlanish, progressiya aniqlikmi? Nima uchun? O'quvchilar o'rtasida bo'shliqlar yoki o'xshashliklar bormi? Bu o'rganishlar natijasida pedagogning qanday o'z ustida ishlashi, o'qitishi va natijalar yaxlit ko'rinadi. O'rganishlar, taqqoslash natijalariga ko'ra keyingi o'quv yili uchun qaysi o'qituvchi bilan qanday metodik yordam berilish kerakli bo'yicha reja va dasturlarini belgilab olinadi.

Yevropa Komissiyasining "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish" rasmiy bayonotida ta'kidlanganidek, maktab o'qituvchilari bugun tez o'zgarib borayotgan dunyo va bu dunyoga kirib kelayotgan o'quvchilar o'rtasida vositachi bo'lib xizmat qilishadi. O'qituvchilar tufayli yoshlar o'zlari uchun va fuqarolik uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishadi;

Hozirgi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida pedagog kadrlar yetishmasligi muammosi mavjud. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktab o'qituvchilariga bo'lgan ehtiyoj yaqin kelajakda ham davom etadi.

Masalan, G'arbiy Yevropadagi tajribali o'qituvchilarning aksariyati maktabni nafaqa yoshiga yetganida tark etadi. Ammo o'qituvchilik faoliyatiga kirayotganlar ko'pincha o'zlarining kasbi boshidayoq qo'llab-quvvatlanmay qolib ketishadi va shu sababli o'rtacha har o'ntadan bitta o'qituvchi kasbiy mahorati shakllanmasidan ta'lim tizimini tashlab ketishadi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining Ta'lim vazirlari 2009- yil sentyabr oyida Geteborgda o'qituvchilar va maktab rahbarlarining kasbiy rivojlanishi bo'yicha

²⁸ Кашина, И. О. Организация работы методических объединений в общеобразовательной школе / И. О. Кашина. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2019. — № 44 (282). — С. 341-344. — URL: <https://moluch.ru/archive/282/63600/>

o'tkazilgan yig'ilishda Pedagog xodimlarga bo'lgan talablarning ortib borayotganligini hisobga olgan holda o'qituvchilarga pedagogik faoliyatida, ayniqsa boshlang'ich davrida qo'llab-quvvatlashni ta'minlash xulosasiga kelishdilar. Yangi mutaxassislikka ega bo'lgan pedagoglar kasbiy mahoratini shakllantirishida o'zlarining dastlabki faoliyatining bir necha yillarida muhim, samarali qo'llab-quvvatlash va rahbar bilan ta'minlandi.

Dastlabki faoliyatida kasbiga moslashish jarayoni kamida bir yil davom etadi va shu sababli quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- murabbiylar (mentorlar) va boshqa hamkasblar tomonidan qo'llab - quvvatlanish;

- ish haqini yo'qotmasdan , ish yuklamasini qisqartirish;
- zarur yordam resurslariga ega bo ' lish;
- majburiy umumiy va xususiy dasturlarda qatnashish;
- nazariy bilimlarni amaliyotda muntazam ravishda qo'llash.

Yangi o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida duch keladigan muammolari quyidagilardir:

- Vaqt yetishmasligi
- qo'llab-quvvatlanmaslik va qayta aloqaning yoqligi;
- o'z imkoniyatlariga yuqori baho berishi;
- ish va shaxsiy hayot o'rtasida muvozanatni saqlay olmasligi.

Shu sababli quyidagi xulosalarga kelindi :

1. Individual qo'llab-quvvatlash. Qo'llab-quvvatlangan yosh mutaxassislar odatda qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli yengishadi, O'zlariga bo'lgan ishonchlari oshadi va ishdan bo'sh ehtimoli kamayadi.

2. Murabbiy (mentor) tomonidan qo'llab-quvvatlash. O'quv yurtida qabul qilingan qoidalar (shu jumladan, "yozilmagan" qoidalar) va normalar bilan tanishtiradi. Muammolar doimo bo'lishi, ularga duch kelishi bu tabiiy holat ekanligi, doim tayyor turishi, kelib chiqish sabablari va uning oqibatlarini tahlil qilib, yechish yollarini izlashida yordam beradi.

Ish yuklamasini kamaytirish. Yangi o'qituvchilarga ko'proq darslarga tayyorgarlik ko'rish uchun vaqt va kuch sarflash kerak bo'ladi. Vaqtning yetishmaslik holati tajribasizlik va qobiliyatsizlikka olib kelishi mumkin. Ish yuklamasini qisqartirish (ish haqi saqlangan holatda) yosh o'qituvchiga katta yordam beradi va samaradorlik juda yuqori bo'ladi.

Ijtimoiy yordam. Qator xususiy va umumiy dasturlar yangi o'qituvchilarga nafaqat fan o'qituvchilari kasbiy uyushmasining, balki o'quvchilar va pedagog xodimlar bilan bir qatorda maktab hamjamiyatining to'liq a'zosi bo'lishga yordam beradi. Bu jarayonda ota-onalar, hamkasblar, stejkxolderlar (manfaatdor shaxs, ishtirokchi, ish ishtirokchisi, loyihadagi roli - tizimga yoki uning xususiyatlariga nisbatan ularning ehtiyojlari va umidlarini qondiradigan huquqlar, ulushlar, da'volar yoki manfaatlarga ega bo'lgan shaxs yoki tashkilot) bilan muloqot, tezkor fikr almashish, hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlaydi.

Mahoratli qo‘llab-quvvatlash. Ish faoliyatini endi boshlayotgan boshlang‘ich o‘qituvchilariga nafaqat ularning kasbiy malakasini oshirish, balki metodbirlashma faoliyatida “Mahorat darslari”ni tashkil etish, turli loyihalarda ishtirok etish kompetensiyalarini shakllantiradi²⁹.

MDH davlatlarida ham “Ustoz-shogird” tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Metodbirlashmalarda “Ekspert birlashma guruhlar” mavjud bo‘lib, ular pedagoglarning ish faoliyatlarini o‘rganib (o‘quvchilardan test, og‘zaki nazoratlar, ota-onalarning, o‘quvchilarning fikrlari tahlili, darslarni, tabdirlarni kuztish), xulosalar beriladi. Berilgan xulosalar orqali “yordam xaritasi” ishlab chiqiladi va shu asnoda yosh pedagoglarga ustozlar biriktiriladi.³⁰

Yevropa davlatlarida Universitetda o‘qish - bu yosh odamga katta aqliy va neyro-emotsional yuk tushadigan muhim faoliyat turi. Imtihon sessiyasi arafasida ko‘p miqdordagi o‘quv ma‘lumotlari va to‘g‘ri dam olish va axborot oqimlarini sifatli qayta ishlash uchun vaqt yetishmasligi asosiy stress omillari hisoblanadi.

O‘quv amaliyotida Aleksandrov A.G., Lukyanenko P.I.ning nuqtai nazarida odatda, ruhiy stressning ikki turi ajralib turadi:

1) haddan tashqari zo‘riqish holatlari (sinovlar, imtihonlar, olimpiadalar va boshqalar),

2) o‘quv faoliyati sub’ektlari o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sir jarayonlari va ular bilan bog‘liq kichik va katta kundalik ziddiyatli vaziyatlar. Bundan tashqari, mikro- va makro-stress mexanizmlari bir xil bo‘lib, stress omillariga individual sezgirlik juda yuqori. Shuningdek ish faoliyatini boshlagan yosh pedagoglar yangi ish boshlash jarayonida stress holatining oldini olish o‘quv va boshqa dasturlarni amalga oshirishga psixologik tayyorgarlik, barqaror sifat va ko‘nikmalarni shakllantirish “Ekspertlarning yordam berish tizimi” rahbarlari tomonidan ularning xatti-harakatlarini mohirona boshqarish orqali amalga oshiriladi.³¹

Qiyosiy tahlil etilganligi:

T/r	Amaldagi holat (O‘zbekistonda)	Amaldagi holat (Xorijda)	Taklif
1.	Metodbirlashma rahbarlarini moddiy qo‘llab – quvvatlash maqsadida 10% ustamalar belgilangan.	Rossiya davlatida metodbirlashma rahbarlariga ustama nazarda belgilash tutilmagan.	Pedagogning Metodbirlashmadagi faoliyatini ish faoliyatiga ko‘ra tabaqalashtirish. Moddiy qo‘llab-quvvatlashni oshirish

²⁹Яковлева Элина Николаевна, Красилова Ирина Евгеньевна The Education and science journal. 2016. № 5 (134)

³⁰Гогоинова Наталия Александровна. Мастер-класс для педагогов "Приёмы конструктивного взаимодействия в системе "Наставник-Ученик"

³¹ А.Ф. Амиров, Ю.Е. Коньшина, А.Э. Гайсина, И.Ф. Халитова Оценка уровня тревожности и педагогические меры повышения стрессоустойчивости студентов младших курсов

- | | | | |
|----|--|--|--|
| 2. | “Ustoz-shogird” tizimi yo‘lga qo‘yilgan | MDH davlatlarida ham “Ustoz-shogird” tizimi yo‘lga qo‘yilgan | “Ustoz-shogird” tizimi bo‘yicha alohida dastur ishlab chiqish |
| 3. | “Ekspert birlashma guruhleri“ mavjud emas | MDH davlatlarda metodbirlashmalarda “ekspert birlashma guruhleri“ mavjud | Metodbirlashma qoshida “Ekspert guruhi”ni tashkil etish |
| 4. | “Shaxsga qaratilgan yordam” (moddiy yordam) mavjud emas | Geteborgda (Shvedsiya) yangi ish boshlagan pedagog kadrlarga metodik yordam berish bilan birga qo‘llab quvvatlash maqsadida “Shaxsga qaratilgan yordam” (moddiy yordam) beriladi. | Yosh pedagoglarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida, ularning pedagogik mahoratlari tahlili natijasiga ko‘ra turli kurslarda o‘qitish tizimini yo‘lga qo‘yish, moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashni oshirish |
| 5. | Metodbirlashmalar loyihalar ustida ishlamaydi | Shotlandiyada metod loyiha rahbarlari mavjud bo‘lib, Steyqxolderlar (manfaatdor shaxs, ishtirokchi, ish ishtirokchisi, loyihadagi roli - tizimga yoki uning xususiyatlariga nisbatan ularning ehtiyojlari va umidlarini qondiradigan huquqlar, ulushlar, da‘volar yoki manfaatlariga ega bo‘lgan shaxs yoki tashkilot) bilan hamkorlik ishlarini olib boradilar. | Pedagoglar loyihalar ustida ishlashlarini yo‘lga qo‘yish va bu jarayonga turli soha vakillari bilan hamkorlik ishlarini tizimli yo‘lga qo‘yish. Bu jarayon o‘quvchilarni professional ta‘limga yo‘naltirishga asos bo‘ladi |
| 6. | Metodbirlashma pedagoglarni metodik jihatdan yordam berish, ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan | Yevropa davlatlarida “Ekspertlarning yordam berish tizimi” ga pedagoglarni xavotir | Yosh pedagoglar maktabga, shovqinga moslasha olmay maktabni tashlab ketishlarini oldini olish |

va stresslar darajasini kamaytirish ishlari yuklatilgan maqsadida metodbirlashmalariga yosh pedagoglarni ruhiy jihatdan moslashtirish kurslarini tashkil etish tizimini yo‘lga qo‘yish.

Xulosa. Yangi O‘zbekiston Respublikasida so‘ngi yillarda amalga oshirilgan talimiy islohatlar malakali kadrlarni tayyorlash tizimini tubdan qayta shakllantirishni taqozo etadi. Ayni vaqtda talim jarayonini tashkil etish, mutaxassislarining chuqur kasbiy bilim va malakaga ega bo‘lishlarini taminlovchi ilg‘or, texnologik harakterdagi yondashuv qaror topmoqda.

Talimni rivojlantirish tizimining yangi yo‘li bu xalqning boy, o‘ziga xos madaniy-tarixiy an‘analariga, umuminsoniy qadriyatlarga, milliy va jahon pedagogika fani yutuqlariga, ma‘naviy va madaniy qadriyatlariga murojaat etgan holda pedagog kadrlar malakasini oshirish o‘quv muassasalarida tajriba orttirish, doimiy harakatdagi malaka oshirish tizimini yaratish, xorijiy mamlakatlarning ta‘lim muassasalarida tajriba almashish, ijodiy faoliyatni olib borish, ularning turli ilmiy anjumanlarda ishtirok etishlarini ta‘minlash, mustaqil o‘qib bilim orttirish jarayonlari, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning yuqorida bayon qilingan asosiy turlarini va shakllari uzluksiz ta‘lim tizimining barcha turlari uchun umumiy hisoblanishini e‘tirof etish zarur. Shu bilan birga ta‘limning har bir turi alohida holda ularga kadrlar tayyorlashning xususiyati bilan bog‘liq ravishda pedagog kadrlar malakasini oshirishning boshqa shakllariga ham ega bo‘lishi mumkin.

«Гўрўғли» дostonлари ўзбек вариантларининг узига хос хусусиятлари

Мирзаев Жонмирза Нематович

Методик хизмат курсатиш булими тожик тили ва адабиёти фани методисти

«Гўрўғли» туркум дostonларининг тарқалиш географияси Ўрта Осиё, Кавказ, яқин Шарқ мамлакатлари каби жуда катта ҳудудни қамраб олади. Асрлар оша оғиздан –оғизга ўтиб келаётган бу эпик ижод наъмунасининг ўзбек, озарбойжон, турк, туркман, қорақалпоқ, татар, қозоқ, тожик, арман каби версиялари анчайин машҳур бўлиб, бугунги кунда ҳам бахшилар томонидан севиб куйланиб келинмоқда.

«Гўрўғли» дostonлари бош қаҳрамон Гўрўғли султоннинг ҳаёти билан боғлиқ воқеаларни ўз ичига қамраб олган жуда катта туркумлиқни ташкил этади. Жаҳон эпик ижодиётида маълум бир тарихий давр, ўхшаш воқелиқ, бир хил макон ва замонни, яъни бош қаҳрамоннинг ватани, яқинлари, авлодлари ҳақидаги сюжтени ўз ичига қамраб олган дostonлар туркумлиқ деб номланади. Ўзбек дostonчилик анъаналарида «Алпомиш», «Рустамхон» каби туркум дostonлар мавжуд. Бироқ буларнинг орасида «Гўрўғли» туркуми ҳам алоҳида ажралиб туради.

«Гўрўғли» дostonи туркий халқлар орасида ҳам хорижда ҳам анчайин кенг ўрганилган. Булар орасида Б.А. Карриев (Туркменистон), Партав Ноил Баратов,

Шукри Элчин, Соим Сока ўғли, Фикрат Туркман, Исо Ўзкан, Ожал Ўғуз, Метин Экичи (Туркия), Хусайн Тамхасиб, Мирали Сайидов, Холид Корогли (Ожарбайжон), Ходи Зарифов, Тўра Мирзаев, Шомирза Турдимов (Ўзбекистон) А.Маргулон (Қозоқистон) ҳамда А.Ходзико, В. Жирмунский, Карл Райхл каби хорижлик олимларнинг хизматларини алоҳида таъкидлаб ўтиш зарур.

«Гўрўғли» достонининг ўрганилиши ана шундай ўзининг узоқ тарихига эга. Республикамиз мустақиллика эришгандан кейин бутунлай янгича мазмун ва моҳият кашф этди. «Гўрўғли» туркум достонлари нашри йўлга қўйилди. Мазкур достон юзасидан қатор илмий тадқиқотлар юзага келди. У бугунги кунда ҳам ўрганилишда давом этмоқда. Зеро бошқа достонлар каби «Гўрўғли» достони туркий халқлар эпик ижодининг нодир намуналаридан бири сифатида жаҳон маданиятида ўзининг муносиб ўрнига эга бўлиб қолаверади.

Ўзбеклар орасида «Гўрўғли»нинг юздан ортиқ вариантлари мавжуд. Бундай улкан мерос бошқа ҳеч бир халқда учрамайди. Булар орасида Фозил Йўлдош ўғли, Эргаш Жуманбулбул, Пўлкан шоир, Раҳматулла Юсуф каби бахшиларнинг вариантлари алоҳида ажралиб туради. Бу достонларни қуйидаги уч катта гуруҳга ажралади:

1. Гўрўғлининг туғилиши;
2. Гўрўғлининг уйланиши;
3. Гўрўғлининг ғойиб бўлиши билан боғлиқ воқеаларни ўз ичига қамраб олган достонлар.

Бу достонларнинг ҳар бирини алоҳида мустақил достон сифатида баҳолаш ҳам мумкин.

Фольклоршунос олим Тўра Мирзаев вариантларнинг пайдо бўлишидаги объектив сабаб аввало халқ оғзаки ижодининг табиати билан боғлиқ эканлигини таъкидласа, субъектив сабаби тарихий воқелик эканини урғулайди.

«Гўрўғли» достонининг ўзбек вариантлари қиёсланса, сюжет ва мотивда ўхшашлик мавжудлигини, улар ўртасидаги тафовут у қадар катта эмаслигини кўрамиз. Улар ўртасидаги фарқ услубда, ижрода ва анъанага бўлган турлича ёндошувда эканини кузатамиз. Бир асарни бундай вариантларга қиёслаб ўрганиш фольклоршунослик учун ўта муҳим фактик материалларни беради. Маълум сабабларга кўра бир вариантда унутилган ёки қисқача баён этилган ўринларни тиклаш, тўлдириш имконини яратади.

Пўлкан ижодига назар ташлайдиган бўлсак у асосан «Гўрўғли» туркумлигидаги достонларни қуйлаганини кўрамиз. «Гўрўғлининг туғилиши», «Зайдиной», «Юнус Пари», «Мисқол Пари», «Гулнор пари», «Авазхон», «Авазхоннинг уйланиши», «Ҳасанхон», «Темирхон подшо», «Бўтакўз», «Авазни излаш», «Ҳиломон» каби ўнлаб ўнлаб достонларни мисол келтириш мумкин.

Буларнинг орасида Пўлкан қуйлаган «Гўрўғлининг туғилиши» достони юксак бадиияти, образларнинг мувафакқиятли талқини, мифологик мотивларнинг қадимийлиги билан ажралиб туради.

Бошқа достонлардаги каби, «Гўрўғлининг туғилиши» достонида ҳам қаҳрамон – алпнинг илоҳий туғилиши мотивида бир томондан, унинг илоҳлар билан боғлиқлиги эътироф этилса, иккинчи томондан у ўз шажарасининг

давомчиси сифатида тасвирланади. Гўрўғли бир томондан Равшаннинг ўғли, синчи Тўлибой ва ҳукмдор Қовиштихоннинг авлоди. Иккинчи томондан у Хўжайи Хизрга фарзанд ҳисобланади. Худди «Алпомиш» достонидаги каби, «Гўрўғли» туркум достонларида ҳам Хизр аждодлар культуни ўзида тамсил этган бадиий образдир.

Кўпчилик олимлар илоҳий туғилиш мотивига эпик қаҳрамоннинг хислатларини бўртириб кўрсатувчи восита сифатида қарашади. Бироқ бу қаҳрамоннинг эпосдаги функциясига киради. Мотивнинг мифологик асосларини бу ҳол изоҳлай олмайди. Чунки, эпосда функция ва генезис бошқа-бошқа масала. Илоҳий туғилиш мотиви архаик эпосга хос бўлиб, у эпос қонуниятларини, унинг структурал тузилиши, эпос ва миф муносабатини ўрганишда муҳим аҳамиятга эга.

Гўрўғлининг гўрда туғилиб, кейин яна ғорга кириб ғойиб бўлиши, баҳорни тамсил этувчи эчки ёхуд байтал сутини эмиб катта бўлиши, ўзининг асосий рақиби, қаҳратон қишнинг рамзи бўлган Райҳон араб билан олиб борган курашлари аждодларимизнинг қиш ва баҳор мужодаласи ҳақидаги қарашларининг бадиий ифодасидир. Буни бизга аждодларимиз бахшиларнинг рамзий тили орқали баён этиб кетган. Рамзлар тилини тушунсак, унга калит тополсак достон мазмунини янада теранроқ англаб етамиз. Озарбайжонлик олим Мерали Сейидов ҳам Хизр образини бекорга яшиллик, ўсимликлар култи, ўлиб тирилувчи табиат билан боғлаши ҳам бежиз эмас. Озарбайжонлик олим Мерали Сейидов ҳам Хизр образини бекорга яшиллик, ўсимликлар култи, ўлиб тирилувчи табиат билан боғлаши ҳам бежиз эмас.

Қаҳрамон ҳаёти билан боғлиқ кейинги воқеалар Пўлканнинг бошқа достонлардан ўрин олади. Биз биламизки, кўпгин бахшилар «Гўрўғли» туркумлигидаги достонларнинг ё туғилиши билан, ёки уйланиши ёхуд асраб олган фразандалари- Авазхон, Ҳасанхон, Равшанхон билан боғлиқ достонларни куйлашган. Бироқ, Пўлкан шоир ва Раҳматулла Юсуф ўғли ижодига назар ташлайдиган бўлсак, улар «Гўрўғли» туркумлигидаги барча достонларни бирдай севиб куйлашган.

Кичик бир мақолада «Гўрўғли» достонларининг барча ўзек вариантлари ҳақида сўз юритиш имкони йўқ, албатта. Биз улардан энг муҳим ҳисобланган икки вариант ҳақидаги айрим фикрларни ўртага ташладик холос. Юқоридаги фикр-мулоҳозаларни умумлаштириб куйидаги хулосага келиш мумкин:

1. «Гўрўғли» достонининг ўзбек вариантлари ўзининг мукаммалиги, оригиналиги ва юксак бадиияти билан муҳим аҳамиятга эга. Бу вариантлар тадқиқи мазкур достон аввал Кавказда яратилиб, кейинчалик Ўрта Осиёга тарқалган, унинг яратилиш тарихи XV1 асрдан кейинги воқеалар билан боғлиқ деган деган қарашлар илмий асосига эга эмаслигини исботлайди. Бизнинг назаримизда ҳар бир вариант ва версия ўзича мустақил бир асар, бу олтойликларнинг ҳам, ўзбек, қозоқларнинг ҳам, туркман, озарбайжонлик, туркияликларнинг ҳам ўз достони, олтойдан то Европага қадар худудга сочилиб кетган барча туркий халқларнинг ўртоқ бир достони деб қараш лозим бўлади. Албатта, эпик ижод қонуниятига кўра, достонда ҳар бир тарихий даврнинг таъсирини кўришимиз мумкин. Бироқ, бу таъсирлар достоннинг юза қатламини

ташқил этади, холос. Ундаги асосий мотивларнинг юзага келиши эса халқимизнинг жуда қадимий, ибтидоий тасаввурлар билан чамбарчас боғлиқдир.

2. «Гўрўғли» исми билан боғлиқ турлича қарашлар юзаки қараганда бир-бирини инкор этаётгандек туюлсада, аслида бир-бирини тўлдирувчи маънолар эканини кўришимиз мумкин. Бу номнинг гўр-қабр; кун, кўр-куёш; қир-тепалик, юксаклик, тоғ; қир-эр; қир- жир, яъни эпик ижодкор деган маъноларни бериши бунинг исботидир.

3. «Гўрўғли» туркум достонларининг барча версия ва вариантлари бир жойга тўплаш ва имкони бўлса, уларни нашр этиш лозим. Зеро, қайсидир бир версияда тушиб қолган ёки аксинча мустаҳкам ўрин олмаган қадимий унсурнинг иккинчи бир вариант ва версиядан жой олганини кўрамиз. Ҳеч бўлмаганда бу версия ва вариантларнинг сюжет кўрсатгичини қилиб чиқиш лозим. Ана шундан сўнггина «Гўрўғли» достонининг юзага келиши ва унинг мазмун-моҳияти ҳақида бир тўхтамга келиш имкони бўлади.

4. «Гўрўғли» туркум достонларини қадимги битиклар, тарихий асарлар, мавсум ва маросим фольклори, бошқа эпик ижод намуналари билан қиёсий ўрганганимиздагина унинг мазмун моҳиятини янада тўлароқ англаб етишимиз мумкин.

5. «Гўрўғли» достони юзасидан олиб борилган барча илмий тадқиқотларни бир жойга жамлаш ва «Гўрўғли» достони юзасидан ўлкан бир қомус ҳозирлаш лозим. Ушбу курултойнинг ташқил этилиши мазкур йўналишдаги дастлабки қадам бўлиши мумкин.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати

1. Мирзаев Тўра. Пўлкан хақида сўз /Пўлкан шоир. –Тошкент., 1976.-Б.6
Мирзаев Тўра. Пўлкан хақида сўз /Пўлкан шоир. –Тошкент., 1976.5-6 бетлар.
2. Гўрўғлининг туғулиши. Достон. Айтувчи Пўлкан шоир.Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти. –Тошкент, 1967. 7-бет.
- 3.Гўрўғлининг туғулиши. Достон. Айтувчи Пўлкан шоир.Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти. –Тошкент, 1967. 14-бет.
- 4.Ирқ битиги –Таъбирнома / Қадимги Ҳикматлар.-Тошкент, 1987. 48-бет.
- 5.Mirzayev Tore. «Destalar sahi».Aktaran Selami Fedakar. Milli Folklor.S.38. 1998.
- 6.Муродов М. Пўлкан шоир репуртуарида «Гўрўғли» достонларининг ўрни // Пўлкан шоир. –Тошкент:Фан, 1976.–Б.25–33.
- 7.Каримов Б. Гўрўғлининг туғилиши ҳақида // Пўлкан шоир. –Тошкент:Фан, 1976.–Б.21-24.

TABAQALASHTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI LOYIHALASHTIRISH PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Sharipova Sevara Erkin qizi

*Guliston davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi*

Jamiyatimiz o'zining har bir a'zosi uchun shunday faoliyat turini yaratish kerakki, bunda uning faoliyati maksimal darajada bo'lishi hamda har bir inson eng katta darajada bu qobiliyatlarni rivojlantirishga uchun ta'lim muhiti mavjud bo'lsin. Ana shu muhitda jamiyatning har bir a'zosi imkoniyatlaridan maksimal darajada oqilona foydalanish muammosini to'g'ri hal qilinadi. Qobiliyatni namoyon qilish va rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish ular kasbiy faoliyatga tayyorlaydigan oliy ta'lim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 19 mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020 yil 7 avgustda ma'qullangan ta'lim to'g'risidagi qonunda tabaqalashtirilgan o'quv dasturlarini tuzish va amalda ulardan foydalanish doir ko'rsatmalar belgilab berilgan bo'lib, ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarini tabaqalashtirib o'qitish orqali shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishi ta'minlanadi. Ta'lim sohasining muhim vazifasi ilm-fan va o'z ixtisosligi bo'yicha yangi bilimlarni egallagan yoshlarni tarbiyalashdan iborat[1].

Bugungi kunda ta'limning barcha shakllarida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kuchayib bormoqda. Ta'lim sifatining yuqori darajada bo'lishiga bevosita ta'sir etuvchi omillar bo'yicha mutaxassislarining tomonidan turlicha yondashuvlar mavjud. Bilim oluvchilarning saviyasi, pedagoglarning bilimi va mahorati, ularning kompetentligi va kreativligi, ta'lim jarayonining moddiy-texnik ta'minoti, jarayon monitoringining to'g'ri tashkil etilishi, natijalarning tahlili va shu kabi ko'pgina omillar oliy ta'lim muassasasining rivojlanish strategiyasining o'quv va ilmiy jarayonlar bilan bog'liq qismlarida albatta o'z aksini topadi. Ayniqsa, o'quv dasturlarining zamonaviy talablar asosida bo'lishiga erishish, real mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlashga yo'naltirilganligi, onlayn ta'limni amalga oshirishga sharoitlar yaratish, ilmiy faoliyatga yoshlardagi ehtiyojni kuchaytirish, oliy malakali ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, kasbiy ta'limga yo'naltirish kabilarga bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida ham muhim vazifa sifatida qaralmoqda[2]. Har bir bo'lajak mutaxassis ta'lim tizimini isloh qilishning zarurligini tushunib yetishi va uning amaliyotda ta'lim muassasalari innovatsion jarayonlariga qo'shilishdagi ahamiyatini anglab yetishi hamda yaratish imkoni mavjud bo'lgan innovatsion maydonda o'zini ko'rish va eng muhimi, yangiliklarni o'zlashtirishdan iborat individual ta'lim texnologiyasini qurish jarayoni lozim.

V.V.Pechenkovning fikricha, jamoa holatda o'qitish jarayonida bolaning yangi qirralari ochilmay umumiy bo'layotgan muomala natijasida o'zini chetga torta boshlaydi[3].

Tabaqalashtirib o'qitishda bolaning iqtidori rivojlanadi. Maxsus adabiyotlarda bu murakablik quyidagi masalalar bilan izohlanadi:

- o'quv jarayoniga bevosita bog'liq bo'lmaslik (bunday munosabat tabaqalashtirilib o'qitish davomida talabalar uchun mutaxassislik bilan bog'lik bo'lmagan holatda kelib chiqadi);

•talaba qiziqishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib (berilayotgan topshiriqlarning murakkablik darajasi, mantiqiy o'ylashga majbur etuvchi masalalar berilishi yoki o'z ustida ishlashga undovchi topshiriqlarning berilishi);

•tabaqalashtirib o'qitishda o'quv jarayonini bitta qolip asosida olib bormaslik (dars mashg'ulotlarida talabalarning qizishlarini hisobga olgan holda beriladigan topshiriqlar turini va mazmunini takomillashtirib borish);

•tabaqalashtirib o'qitishda jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishining o'zaro muvofiq kelishi (tabaqalashtirib o'qitishda talabalarning iqtidorini rivojlantiradi va dars mashg'ulotlari davomida talabalarning charchashiga yo'l qo'ymaslik).

Olib borgan tadqiqotlarimiz davomida tabaqalashtirib o'qitishda talabalarni tanlashda quyidagilarga ahamiyat berish zarurligi aniqlandi:

•talabalarning qiziqishlarini o'rganish ularni qiziqtirgan mavzularni muammolarni o'rganish;

•dars mashg'ulotida o'qituvchining kasbiy mahorati va beradigan bilimi zarurligini inobatga olish;

•talabalarning tashabbuskorligini, kreativligini ko'ra olish, bu narsa talabalarni dars vaqtida zeriktirmaydi, ular uchun yangi imkoniyatlar ochadi;

•dars beruvchi o'qituvchilarda maxsus ta'lim dasturlari bilan ishlash ko'nikmasi paydo bo'ladi. Ular maxsus yaratilgan dasturlar asosida ishlaydi. Bu jarayonda talabalarning ham maxsus dasturlar bilan ishlay olish ko'nikmalari ham rivojlantiriladi.

Tabaqalashtirib o'qitishda amaliyot davrida biz quyidagi bosqichlarda olib bordik.

•o'tiladigan fan materiallarini talabalarning ehtiyojlari asosida tayyorlash;

•talabalarning bo'sh vaqtlarini hisobga olish va darsga qatnashishga erishishini ta'minlash;

•mashg'ulotlar davomida talabalarning fanlarni o'zlashtirganlik darajasini o'rganish kuzatish maqsadida fan olimpiadalari va talabalar tanlovini tashkil etish;

• o'quv jarayoni natijalarining monitoringini qilib borish.

Differensial yondashuvni amalga oshirish davomida murakkablashib boruvchi dasturlarni amaliyotga joriy etib boriladi. Buning uchun

• tarbiyaviy maqsadlar;

• ta'lim mazmuni;

• ta'lim olishning vosita va usullari;

• ta'lim jarayonini tashkil etish shakllari;

• ta'lim jarayoni ta'lim, tarbiya va inson kapitali;

• ta'lim jarayonining sub'ektlari;

• ta'lim muhiti;

• ta'lim natijasi (insonning ta'lim darajasi)[4].

Tabaqalashtirib o'qitishning yaxlit modeli sifatida o'quv jarayonini tashkil etish (o'quv dasturlari, o'quv tizimlari, ta'lim va tarbiya shakllari, sertifikatlash tizimi) va o'quv jarayoni dasturlari (o'quv dasturlari, qo'shimcha ta'lim dasturlari va o'quv dasturlari)ni biz tomonimizdan taklif etildi. Olib borilgan tadqiqotimizda talabalarni

quyidagicha tabaqalashtirib o'qitishni taklif etamiz.

- talabalarning qobiliyatlar bo'yicha;
- o'zini qobiliyatsizliklar deb hisoblovchi talabalar;
- talabalarning qiziqishlar bo'yicha;
- talabalarning kasbiy layoqatini rivojlantirish bo'yicha saralab olindi.


Qobiliyatlar bo'yicha tabaqalashtirilgan ta'limda talabalar quyida keltirilgan bilimlarning biri bo'yicha guruhlariga taqsimlanadi.


- talabalarning umumiy qobiliyatlar bo'yicha
- talabalarning xususiy faoliyatlari bo'yicha.

N.S.Leytesning fikricha iqtidorli shaxsning o'zining quyidagi xususiyatlari bilan boshqalardan farqlanadi:

- o'ta ziyraklik, ishlash uchun har doim tayyor bo'ladi;
- mehnatsevar, mehnat qilishga ehtiyoj;
- tafakkurning tezligi, aqliy jarayonlarning tezligi, aqlning batartibligi, tahlil va umumlashtirish imkoniyati yuqoriligi, aqliy faoliyatning yuqori natijadorligi;
- aqliy faoliyatni doim rag'batlantiruvchi bilimga bo'lgan qiziqishlar doirasining kengligi faqat pedagog tomonidan bir qator xususiyatlar faoliyatini maqsadga qaratilgan jarayonda shakllantirishi mumkin. Bundan ko'rinadiki, talant va qobiliyat faqatgina biologik ya'ni tug'ma bo'lib qolmay, balki ular ma'lum sharoitlarda shakllanadi[5].

Biz umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim berish jarayonida boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitishda o'quvchilarning fiziologik va ijtimoiy holati, o'quv fanlarini o'zlashtira olish qobiliyatlarini hisobga olish boshlang'ich ta'lim tizimida o'quv fanlarini o'zlashtirish sifati va samaradorligini oshirishning asosiy omillarni aniqladik. Boshlang'ich ta'lim tizimini tabaqalashtirilgan tartibda tashkil qilishda, o'quvchi shaxsiga individual va differensiyal yondashish, o'quv jarayoniga differensiyallashtirilgan o'quv-metodik ishlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish orqali erishish mumkinligini kuzatdik. Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilariga ularning individual xususiyatlari, fiziologik va ijtimoiy holatlarini hisobga olmasdan matematikadan ta'lim va tarbiya berish orqali pedagogik nuqtai nazardan belgilangan didaktik o'quv maqsadiga erishib bo'lmaydi. Talabalarning berilgan topshiqnlarni mustaqil o'rganishi ham tabaqalashtirilgan ta'limning muhim komponenti hisoblanadi (1 -rasmda keltirilgan).





1-rasm. Mustaqil ish tabaqalashtirib o‘qitishda yetakchi metodi

Talabalarda namoyon bo‘lgan qobiliyatlarni hisobga olgan holda qobiliyatlari rivojlanish ular qiziqan o‘quv fanlarini chuqur o‘rganish talab etiladi. Bunda o‘qitiladigan o‘quv predmetlari uchun malaka talablari o‘rganilishi kerak. Shunda talabalarining layoqatlarini namoyon qilish va rivojlantirish uchun optimal rejim yaratish bo‘yicha jamiyatimizning ehtiyoji oliy ta’limda tabaqalashtirish zaruratini vujudga keltiradi. Demak, ijtimoiy nuqtai nazardan, ta’limni tabaqalashtirishning vazifalaridan biri har bir talabaning maqsadi va qobiliyatlarini namoyon qilish va maksimal rivojlantirishdan iborat. Bunda esa muhimi ta’limning umumiy darajasi mutaxassis yo‘nalishidan kelib chiqib tayyorlanadi va loyihalar yaratishga harakat qiladi, har bir talaba ta’lim o‘z "traektoriyasi" ni tanlaydi, kognitiv qiziqishlarni rivojlanadi.

Ta’limni tabaqalashtirishning zarurati bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir fuqarosining qiziqishini qondirish vazifasidan ham kelib chiqadi. Shaxs qay darajada jamiyatga bergan mehnatining miqdori va sifati uchun javobgar bo‘lsa, jamiyat ham insonning, jamiyat manfaatlariga zid bo‘lmagan qiziqishlarini qondirishga mas’uldir. Shaxsni har tomonlama barkamol rivojlanishi fidoyi, ijodkor, mehnatsevar, ijtimoiy faol, ma’naviy-axloqiy va jismoniy rivojlangan insonni shakllantirishga ko‘maklashadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.- Toshkent."O‘zbekiston" nashriyoti, 2021.464-bet.

2. Raximov Z.T. Ta’lim jarayonida talabalar o‘quv bilish kompetentligini rivojlantirish. - "Zamonaviy ta’lim" ilmiy-amaliy ommabop jurnal, 2020 №3 (88). 4-b.

3. V.V.Pechenkov. Tayna individualnosti: artefakt evolyusii ili smysl bytiya cheloveka? .Librokom 2010.173-str.

4. Jigalik, M.A. Differensirovanny podxod k razvitiyu poznavatelnoy aktivnosti starshix doshkolnikov sredstvami naglyadnogo modelirovaniya Tekst.: Avtoref. diss. . k.p.n. / M.A. Jigalik. — Velikiy Novgorod, 2008.-22 s.

5. Leytes N. S. Vozrastnaya odaryonnost shkolnikov. — M.: «Academia», 2001.

YO‘L XO‘JALIGI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA O‘QITISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH


Amanov Zokir Choriyevich, Jumayev Samandar

Termiz muhandislik-texnologiya instituti, Yo‘l muhandisligi kafedrasii assistenti, talaba

Annotatsiya: Ilmiy va amaliy pedagogikada ta‘lim metodlari katta ahamiyat kasb etmoqda. Ta‘lim oluvchilarning ichki va tashqi faolligini oshirish uchun turli xil metodlardan foydalaniladi. Faollik metodi sirasiga seminar darslari ham kiradi. U uch bosqichda tashkil etiladi: seminar bo‘yicha o‘qituvchining ma‘ruzasi, ta‘lim oluvchilar tomonidan seminar mavzusi bo‘yicha mustaqil ravishda uy vazifalarining tayyorlanib kelinishi tushuniladi.

Kalit so‘zlar: ta‘lim, soha, inovatsiya, o‘quv, strategiya, jarayon.

Kirish. Ta‘lim innovatsiyalari – ta‘lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar. Ta‘lim innovatsiyalari “innovasion ta‘lim” deb ham nomlanadi. “Innovasion ta‘lim” tushunchasi birinchi bor 1979 yilda “Rim”da qo‘llanilgan.



1.2.-rasm. Ta‘lim innovatsiyalarining asosiy turlari.


1. **Interfaol metodlar:** “Keys-stadi” (yoki “O‘quv keyslar”), “Blis-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Munosabat”, Reja, “Suhabat”

2. **Gafik organayzerlar:** “Baliq skleti”, “BBB”, “Konseptual jadval”, “Venn diagramasi”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday” va h.k.



3. **Strategiyalar:** “Aqliy hujum”, “Bumernag”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotasiya”, “T-jadval”, “Yumaloqlangan qor” va h.k.

Avlodlarning rivojlanish sur’ati oldingilardan ko‘ra ancha yuqori bo‘lganligi sababli, o‘qitishning an’anaviy tizimi, rivojlanishga to‘sqinlik qila boshladi. Bunday sharoitlarda taraqqiyot, faqat har bir shaxsning mavjud imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish asosida amalga oshirilishi mumkin. Axborotning hajmi, xilma-xilligi, egallashga moyilligi va vositalarining yetarliligi samarali individual va mustaqil o‘qitishni tashkil etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratadi. O‘qitishni jadallashtirish maqsadida, pedagogning o‘quvchiga bo‘lgan munosabati «sardor»likdan, uning «sherigi»ga aylanishi zarur.



Интерактив o‘qitish texnologiyasi. Interaktiv o‘qitish - talaba o‘zida oldin mujassamlashgan tajribadan foydalangan holda, o‘quv jarayonida faol ishtirok etadi, mashg‘ulot davomida shaxsan rol o‘ynab, yangi tajribalar orttiradi, olgan tajribalari asosida darsni tahlil qilib, o‘ziga kerakli muhim materiallarni oladi hamda o‘zining kundalik faoliyati bilan bog‘laydi. Interaktivlik, bu o‘zaro munosabatda bo‘lmoq, dialog rejimida o‘qimoq ma’nosini bildiradi. Shu sababli interaktiv o‘qitish-dialogli o‘qitish

demakdir.


Dialog an’anaviy o‘qitish uslublarida ham mavjud, jumladan “o‘qituvchi-o‘quvchi”, “o‘qituvchi-o‘quvchilar guruhi” ko‘rinishida. Interaktiv o‘qitishda esa dialog “o‘quvchi-o‘quvchi”, o‘quvchi-o‘quvchilar guruhi”, “o‘quvchi-auditoriya”, “o‘quvchilar guruhi-auditoriya”, “o‘quvchi-kompyuter” kabi ko‘rinishlarda ham bo‘ladi. O‘quvchi ma’ruzada faqat “passiv” tinglovchi sifatida emas, balki “aktiv” ishtirokchi sifatida qatnashadi.

O‘qitishning interaktiv uslublari.

O‘qitishning interaktiv uslublari deyilganda birinchi navbatda talabaning o‘quv jarayonini faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan innovasion pedagogik uslublar majmui va texnik vositalar tizimi tushuniladi.

“VENN” DIAGRAMMASI.

► VEN diagrammasi- 2 va 3 jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo‘yish uchun qo‘llaniladi.




- Bu tizimli fikrlash, solishtirish, taqqolash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.



2 – rasm. Venn diagrammasi texnologiyasi.

Keys-stadi usul³². Keys-stadi inglizcha *case* - anik vaziyat, *study* - ta'lim so'zlarining birikishidan hosil qilingan bo'lib, aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta'lim metodidir. (6)



3-rasm. Keys-stadi usulini amalga oshirish bosqichlari.



Vaziyatni o'rganish, tahlil qilish. Bunda mavzuning ayrim masalalariga bog'liq aniq hayotiy vaziyatlar o'rtaga tashlanadi. Talabalardan ushbu vaziyatdan qanday chiqish yo'llari ustida o'ylash va o'z fikrlarini bayon etish so'raladi. Masalan, "Elektr xavfsizligi" mavzusi o'tilayotganda, shunday vaziyat o'rtaga tashlanishi mumkin: "Komyuterda

ishlayotgan operator elektr tokidan jarohatlanishi mumkin. Bunga nimalar sabab bo'lishi mumkin?". Muhokama yakunida o'qituvchi vaziyatni savol bilan umumlashtiradi. Masalan, "Biz nima haqida bilib oldik?", "Biz qanday xulosaga kelishimiz mumkin?", "Hayotda Siz shunday vaziyatga tushmasligingiz uchun nima qilishingiz kerak?". (6)

Kichik guruhlarda ishlash. Talabalarni bir necha guruhga bo'lib, ularga mavzuga oid aniq bir masala yoki vazifa ustida ishlash topshiriladi. Ularga ma'lum vaqt beriladi, keyin berilgan vaqt tugagach har bir guruhning ushbu mavzu bo'yicha qarori, fikrlari tinglanadi.

Kichik guruhlar uslubida mashg'ulot olib borilganda quyidagilarga erishiladi:

- har bir talabani faol ishtiroki ta'minlanadi va ularning faoliyatini nazorat qilish va baholash imkoniyati ortadi;
- muammoni tez hal etish usuli ta'minlanadi.

Talabalar qisqa vaqt ichida ko'plab yangi g'oyalar ijodkori bo'lishadi;

- mashg'ulotning istalgan vaqtida talabalarning qiziqishini ortdirish va butun katta guruh bo'yicha muhokama qilish imkoniyati ta'minlanadi;
- ayrim talabalar o'zlarining mavzuga oid ushbu muammo bo'yicha shaxsiy fikrlarini o'qituvchiga aytishdan tortinishadi, kichik guruhlarda esa ular guruhdoshlari bilan erkin fikr almashishadi, ya'ni mashg'ulotda faol ishtirok etishadi.



Aqliy hujum.

Uslubning mohiyati: Talabalar mavzuga oid muammoli savol yoki masala bilan tanishtiriladi. Masala bo'yicha talabalar o'z g'oya va fikrlarini bildirishlari uchun aniq vaqt ajratiladi, masalan - 10 minut. 10 minut ichida bildirilgan barcha g'oyalar va fikrlar yozib boriladi. G'oya qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi. Alohida faol talabalarning yetakchilik qilishlariga, ya'ni faqat bir necha talaba fikr bildirishlariga yo'l qo'yilmaydi. Vaqt tugagach talabalarga ekranda yozilgan barcha fikrlarni o'qib, mushohada qilishlariga vaqt ajratiladi. Keyin o'qituvchi yordamida barcha g'oyalar guruhlariga bo'linadi va ular tahlil qilinib, eng maqbul variant tanlab olinadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 29 b.
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 485 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 martdagi "Buxoro-Miskin temir yo'l liniyasini qurish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2827-son Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 11-son, 155-modda
5. Turbin I.V. i dr. Iзыскания i proektirovanie jeleznyx dorog Uchebnik dlya vuzov j.d. transporta pod red. M.: Transport, 1989. - 479 s.
6. Turbin, I.V. Проблемы оптимизации направления трассы новых железных дорог // Dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni doktora texn. nauk. M., 1974.
7. Volkov B.A., Turbin I.V., Svinsov E.S., Lobanova N.S. Ekonomicheskie ызыскания i osnovы proektirovaniya jeleznyx dorog // Uchebnik dlya vuzov j.-d. transporta pod red. Volkova B.A. M.: Marshrut, 2005.-405 s.

AVTOMOBIL YO'LLARINI QURISH FANIDAN CHET EL AVTOMOBIL YO'LLARINI QURISH USULLARINI TAHLIL QILISH

Odinayev Rustam Qurbonaliyevich, Aliqulova Madina Ural qizi

Yo'l muhandisligi kafedrasida o'qituvchisi, Termiz muhandislik texnologiya instituti, talaba

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet el avtomobil yo'llarini qurish texnologiyasi o'rganib chiqildi, xorijiy tajribaalardan foydalanib yo'llarni sifatini oshirish maqsad qilib olingan.

Kalit so'zlar: Avtoyo'l, texnologiya, yo'l, qurish

Kirish. Hozirgi vaqtda avtomobil yo‘llarini qurish dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelmoqda. Bunda sifatli yo‘l qurish chet el texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini va hududiy avtomobil yo‘llarini loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta‘mirlash sohasida davlat-xususiy sheriklik tamoyillarini joriy etish rejalashtirilmoqda.



Avtomobil yo‘llarini qurish va ulardan foydalanish sohasida ishlarni tashkil etishning ilg‘or xorijiy uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi prezident qarori qabul qilindi. Qaror bilan avtomobil yo‘llarini qurish va ulardan foydalanish sohasidagi ustuvor vazifalar belgilandi. Shuningdek, endilikda yo‘l qurilishini rivojlantirish Strategiyasini ishlab chiqishda ishtirok etish uchun yetakchi xorijiy konsalting kompaniyalari jalb etiladi. Xususan, Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mita 30 dekabrgacha Germaniya tajribasini o‘rgangan holda xorijiy konsultant ishtirokini ta‘minlaydi. Ushbu Rivojlantirish strategiyasi avtomobil yo‘llari sohasiga zamonaviy standartlar va texnologiyalarni joriy etish, 2020–2040 yillarda yo‘llarni qurish va rekonstruksiya qilish dasturlarini ishlab chiqishga yo‘naltiriladi. Hukumat avtomobil yo‘llari sohasida zamonaviy qurilish materiallarini ishlab chiqarish bo‘yicha qo‘shma korxonalarini tashkil etish, avtomobil yo‘llari va sun‘iy inshootlarini loyihalashda nemis kompaniyalari — «OBERMEYER Panen+Beraten GmbH», «Lahmeyer International GmbH», «Lomb Ingenieuresellschaft mbH», «INROS LACKNER SE» va boshqalar bilan hamkorlik o‘rnatish uchun ishchi guruh tashkil etadi. Qaror bilan Avtomobil yo‘llari davlat qo‘mitasiga 2019 yil 10 fevralgacha avtomobil yo‘llarini qurish va ta‘mirlash sohasi mutaxassislarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash mazkazini tashkil etish bo‘yicha taklif ishlab chiqish vazifasi yuklandi. Moliya vazirligi avtomobil yo‘llari sohasida davlat-xususiy sheriklik tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlarini ko‘radi. 2019 yildan boshlab yo‘l xo‘jaligida loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish, shuningdek, ularni qabul qilib olishda hajm va sifat ko‘rsatkichlarini hisobga olishni ko‘zda

tutadigan tartib bosqichma-bosqich joriy etish «Yo‘l xaritasi» doirasida 2019 yilda O‘zbekistonning Xalqaro muhandislarkonsultantlar federatsiyasiga (FIDIC) kirishi bo‘yicha takliflar ishlab chiqilishi belgilangan. Chet el avtomobil yo‘llarini qurish usullarida quyidagilar muhim kasb etadi:

- Yo‘l poyi qurilishida sifat nazoratini tashkil etish masalalari;
- Yo‘l poyini qurish texnologiyalarini takomillashtirish masalalari;
- Gruntlarni mustaxkamlashda innovatsion materiallardan foydalanish;
- Mahalliy materiallardan asos qurish texnologiyalari;
- O‘tuvchi turdagi yo‘l qoplamalarini qurish texnologiyalari va ularning o‘ziga xosligi;
- Chaqiqto‘sh va qum aralashmasini bitum bilan joyida aralashtirib yotqizish usulida yo‘l qoplamasini qurish texnologiyasi va uning o‘ziga xos tomonlari;
- Yo‘l qoplamasiga ustki yuza ishlov berishning zamonaviy texnologiyalari;
- Sementbeton qoplamalari choklarini qurish texnologiyalari va innovatsion materiallari;
- Avtomobil yo‘llarini qurishda atrof muhit muhofazasini tashkil etish;
- Yo‘l poyi ustki yuzasini va yon bag‘rini pardo‘zlashda sifat nazorati;
- Yo‘l poyi yon bag‘rini mustaxkamlashning ilg‘or usullari;
- Sho‘rlangan gruntlar va sho‘rxoq gruntlardan yo‘l poyini qurish texnologik jarayonlari va ularning o‘ziga xos tomonlari;
- Sovuq haroratli kunlarda yo‘l poyini qurishning o‘ziga xos tomonlari;
- Chaqiq toshli, qum- shag‘alli materiallardan tashkil topgan asos qatlamlarini qurishda ishlar sifatini nazorat qilish;
- Zamonaviy zichlash mashinalari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari;
- Sovuq asfaltbetondan qoplama qurish texnologiyalarining o‘ziga xosligi;
- O‘zbekiston tabiiy-iqlim sharoitida sementbeton qoplamalarini qurishning o‘ziga xos tomonlari;
- Avtomobil yo‘li qurilishi sifatini baholashning yo‘l to‘shamasini qurishda zamonaviy va innovatsion materiallarni qo‘llash masalalari;
- Suv o‘tkazmaydigan va kapillyar to‘su‘vchi qatlamni qurishning texnologiyasi;
- O‘zbekiston respublikasi hududiy sharoitidan kelib chiqib yo‘l to‘shamasi konstruksiyalarini tanlash tamoyillari;
- Yo‘l poyini qurishda etakchi mexanizmlarni tanlash asoslari;
- Avtomobil yo‘llarini qurishda mashina-mexanizmlar otryadini shakllantirish o‘ziga xos xususiyatlari.

Xulosa shundan iboratki, avtomobil yo‘llarining qurilishida xorijiy tajribani tahlil qilar ekanmiz, biz innovatsion texnologiyalardan foydalanish, pullik yo‘llarni joriy etish va davlat xususiy sheriklikdan foydalanish kabi jihatlarga e‘tibor qaratdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Highway Construction: A Practical Guide to Modern Methods of Roadbuilding and the Development of Better Ways of Communication (Classic Reprint) Hardcover – August 24, 2018 by Austin T. Byrne (Author)

2. Highway Planning, Survey, and Design (Solved Practical Problems in Transportation Engineering, Publisher : CRC Press; 1st edition (April 13, 2022)
3. Language : English Paperback : 520 page
4. AVTOMOBIL YO‘LLARINING TRANSPORT-EKSPLUATATSION KO‘RSATKICHLARI I.S.Sodiqov 2019 y 220b
5. В.В.Ушаков, В.М.Олховикова. Строительство автомобильных дорог. М. Кнорус. 2018.576 с.
6. Sh.A.Axmedov va boshqalar. Avtomobil yo‘llari qurilishini tashkil qilish va uning texnologiyasi asoslari. TAYI. “IQTISOD MOLIIYA”. 2014. 300 b.
7. Sh.A.Axmedov. Yo‘l xo‘jaligining ishlab chiqarish korxonalarini va bazalari. T.: TAYI, 2016. 115 b.
8. B.Mallick, T. El-Korchi. Pavement Engineering: Principles and Practice, Second Edition. Taylor and Francis Group. 2013. 666 p

YO‘L XO‘JALIGI INNOVATSION FAOLIYATINI IVOJLANTIRISH MAVZUSINI O‘QITISHDA O‘QUV MODULI ISHLANMASI

*Amanov Zokir Choriyevich, Yusupjonov Muxriddinjon Odiljon o‘g‘li, G‘ulomov
Umidjon Baxodir o‘g‘li*

***Termiz muhandislik-texnologiya instituti, Yo‘l muhandisligi kafedrasini
assistenti***

Annotatsiya: Talabalarga “Yo‘l xo‘jaligi innovatsion faoliyatini rivojlantirish” mavzusini yoritishda o‘qitish texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi, zamonaviy o‘qitishdagi ilg‘or innovatsiyalardan foydalanish va ularni rivojlantirishni asosiy maqsadi.

Kalit so‘zlar: texnologiya, material, modul, ta‘lim, metodik, savol.

Kirish. O‘qituvchi bir nechta o‘qitish texnologiyalarini rivojlantirishda va joriy qilish haqida mavzusidagi savollarni ko‘rgazmali materiallar va turli xil metodik usullar asosida sharhlab beradilar, talabalar mavzu bo‘yicha umumiy tushunchaga ega bo‘ladilar. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amalda qo‘llash orqali -o‘qituvchining haqiqiy o‘qituvchilik faoliyatiga o‘tishi, ya‘ni u bolani o‘qitishi emas, o‘quvchilarning bilimlarni o‘rganish, o‘zlashtirish bo‘yicha qiyin mehnatiga rahbarlik qilish, ularga qulay, oson, maqsadga tez yetkazadigan va samarali yo‘l-yo‘riqlar, usullarni to‘g‘ri tanlab ko‘rsatish va amalda samarali qo‘llash orqali o‘z pedagogik mahoratini hamda o‘quvchilarning bilimlari sifati va tarbiyalanganlik darajasini muntazam oshirib borishga erishishdan iborat. Modul lotincha so‘zni anglatadi va qism (blok) degan ma‘noni anglatadi. O‘qitish texnologiyasida modulli ta‘lim texnologiyalarini o‘qitishda foydalaniladigan mavzu mantiqiy va talabalarning talabalardan mustaqil ravishda o‘rganishlari uchun o‘quv topshiriqlariga bo‘linadi. Ushbu treninglar asosida savol-javob o‘tkaziladi va har bir modul oxirida xulosa chiqariladi. Ushbu darslarda o‘quvchilarning bilim faoliyati modullar qatorida tashkil etiladi. Har bir modulning rivojlanishi yo‘q qilinadi, ya‘ni. bir darsda tashkil etishni ta‘minlaydigan talabalarning o‘quv faoliyati talabalarning mavzu bo‘yicha o‘rganishiga muvofiq o‘quv faoliyati elementlaridan iborat. Agar darsdagi mavzu 4 moduldan iborat bo‘lsa, talabalar mos ravishda 4 ta o‘quv faoliyatidan iborat. Shuni ta‘kidlash

kerakki, dars oxirida ularning faoliyatini tahlil qilish va o‘z qadr-qimmatini amalga oshirish modul dasturining oxiri bo‘ladi.

Tahlil va natijalar.

Amaliy dars ishlanmasi

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	O‘qituvchi	talaba
1-bosqich. Mavzuga kirish. (20 minut)	1.1 Dars mavzusini e‘lon qiladi, o‘quv mashg‘ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi	Mavzu nomini yozib oladilar
	1.2. Har bir talabaga mavzu bo‘yicha tarqatma materiallarni tarqatadi	Tarqatmalardan foydalanadi
	1.3. Mavzu bo‘yicha ma‘ruza mashg‘ulotining tayanch iboralari va ma‘ruza rejasiga izoh beradi. Mavzu yuzasidan keys–stadi usulida ma‘lum bo‘lgan tushunchalarni faollashtiradi	O‘UM ga qaraydilar. o‘z fikrini erkin namoyon etadi
2-bosqich. Asosiy (50 minut)	2.1. O‘quv mashg‘ulotining birinchi savoli bo‘yicha ma‘ruza qiladi. “Uo‘l xo‘jaligi innovatsion faoliyatini rivojlantirish” mavzusini ukitishda o‘qitish texnologiyalaridan foydalanishning rivojlantirish tushuncha ta‘rifini yoritib berishni slaydlar orqali tahlil qiladi. Talabalarni mulohazaga tortish maqsadida ularga savollar bilan murojaat qiladi	Yozadilar. Tinglaydilar. Savollarni muhokama qilib, ularga javob beradi.
	2.2. An’anaviy va zamonaviy usullardan (axborot texnologiyalari) foydalanib zamonaviy loyixalash texnologiyalarininazariy asoslarini yoritib beradi.	Tinglaydilar. Slaydga e‘tibor qaratadi, yozib boradi.
	2.3. Mavzu yuzasidan uchinchi savolni tushuntirishda fanning boshka predmetlar bilan bog‘liqligi va tarkibini fikrlarni tinglab, qo‘shimcha qiladi.	Har bir tayanch tushuncha va iboralarni muhokama qiladilar.
	2.4 Mavzu yuzasidan to‘rtinchi savolni tushuntirishda fanning boshka predmetlar bilan bog‘liqligi va tarkibini fikrlarni tinglab, qo‘shimcha qiladi. Shu tariqa uchinchi savolni umumlashtirib, xulosalaydi	Har bir tayanch tushuncha va iboralarni muhokama qiladilar.
3-bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut)	3.1. Mavzuda qilingan har bir savol qanday hal qilinganligi to‘g‘risida umumiy yakuniy xulosa beradi	Eshitadi.
	3.2. Talabalarning bilim va ko‘nikmalari baholanadi. Mavzu yuzasidan keys -stadi usulida ma‘lum bo‘lgan tushunchalarni faollashtiradi	o‘zini qiziqtirgan savollar beradi
	3.3. Kelgusi mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rishbo‘yicha topshiriqlar va foydalaniladigan adabiyotlar tavsiya etiladi	Eshitadi va O‘UM ga qaraydilar

Xulosa. Modul dasturlari talabalarni o‘qitish, o‘qitish va rivojlantirish, modulni yakunlash natijasida kelib chiqadigan modul dasturining didaktik maqsadlari dastur modul dasturining bir qismini birlashtiradi. Modul dasturlarini yaratishda o‘qituvchi quyidagilarga e‘tibor qaratishi kerak: modul dasturi uchun taqdim etilgan didaktik maqsadni aniq qamrab olish. An’anaviy ta‘limda o‘qituvchi

darsda o‘quv, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni, ya’ni talabalarga ma’lum tushunchalarni shakllantirish, ilmiy dunyoqarashni kengaytirishni yuklaydi. Modul dasturining didaktik maqsadi talabalarga darsning yuqorida ko‘rsatilgan maqsadlariga muvofiq beriladi. Shuni ta’kidlash kerakki, agar maqsad aniq bo‘lsa, choralar qo‘llaniladi va unga erishish osonroq bo‘ladi. Talabalarning modul dasturi yordamida o‘quv materialini ushbu mavzuni ishlab chiqish uchun belgilangan dasturda amalga oshirilishi kerak. Muvaffaqiyatli uchun muhim sharti modul dasturini qo‘llash shundan iboratki, talabalar o‘quv faoliyatining ta’lim elementlarini to‘g‘ri tanlaydilar, chunki talabalar modul dasturi bilan ishlashda ushbu ta’lim elementlarini boshqaradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.X. Khabibullayev M.O. Yusupjonov, Sh.O. Azimjonov “ENSURING CONSTRUCTION QUALITY IN THE CONSTRUCTION OF ASPHALT CONCRETE PAVEMENTS” Euro Asia Conferences. Euro Science: International Conference on Social and Humanitarian Research, Hosted from Cologne, Germany. April 25rd-26th 2021. <http://euroasiaconference.com>. Pages: 119-122.
2. Sejpal K..Modular method of teaching //International journal for reseach in Education. -2013.- V.2.- P. 169-171.
3. Okhunov, M., & Minamatov, Y. (2021). Application of Innovative Projects in Information Systems. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 167-168.
4. Kamiljanovna, M. L. (2021). Analysis of the Results of the Study of the Thermoelectric Part of the Source Sensor. Middle European Scientific Bulletin, 19, 191- 196.
5. Mamadalieva, L. K., & Minamatov, Y. E. (2021). High Efficiency of a Photoelectric Converter in a Combined Design with a Thermoelectric Converter. Middle European Scientific Bulletin, 19, 178-186.

AVTOMOBIL YO‘LLARINI EKSPLOATATSIYA QILISH FANIDAN YO‘L XO‘JALIGINI BOSHQARISHNI TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA TABIRLARI

Odinayev Rustam Qurbonaliyevich, Aliqulova Madina Ural qizi
***Yo‘l muhandisligi kafedrasi o‘qituvchi, Termiz muhandislik texnologiya
instituti talabasi***

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yo‘l qurish ishlarining sifati ko‘rib chiqildi, yo‘l xo‘jaligini yanada takomillashtirishda muhim masalalarni tahlil qilish maqsad qilib olindi.*

Kalit so‘zlar: *Avtoyo‘l, yo‘l xo‘jaligi, me‘yoriy talablar, yo‘l qurilishi*

Kirish: Yo‘l-qurilish ishlarining sifati – amaldagi me‘yorlar talablariga qat’iy rioya etish va qurilish loyihalarini sifatli amalga oshirishdir. Muhim nuqta – yo‘lda va uning bazasida mumkin bo‘lgan maksimal yuklarni aniqlash. Zero, yo‘l qurilishi katta moliyaviy va jismoniy xarajatlarni talab qiluvchi murakkab ko‘p bosqichli jarayondir.

Birinchi vazifa ishonchli pudratchi tanlashdir. Yana muhim vazifardan quyidagilar:

yo‘l xo‘jaligida mablag‘larni boshqarish, moliyalashtirish va sarflashning samarali tizimini amalga oshirish;

mavjud yo‘l tarmog‘ini saqlab turish bo‘yicha ishlarni birinchi navbatda amalga oshirgan holda yo‘l tarmog‘i xavfsizligini ta‘minlash;

eskirgan yo‘l qoplamasi va boshqa yo‘l inshootlari tiklanishini ta‘minlaydigan hajmlarda ta‘mirlash ishlarini olib borish;

yo‘l harakati xavfsizligini oshirish, transport-yo‘l majmuasining atrof muhitga salbiy ta‘sirini kamaytirish; iqtisodiyot va aholining ehtiyojlaridan kelib chiqib, avtoyo‘llar tarmog‘ini takomillashtirish va kengaytirish hamda davlatning strategik vazifalarini haletish;

qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun yo‘l industriyasi moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

davlat yo‘l siyosatining va yo‘l qurilishi rivojlanishini tartibga solishning asosisifatida yo‘l xo‘jaligining normativ-huquqiy va texnik bazasini yanada takomillashtirish;

an‘anaviy avtoyo‘l yo‘laklarini rivojlantirish, zamonaviy avtotransport vositalari yuqori darajada qulay va xavfsiz harakatlanishini ta‘minlash uchun mavjud yo‘llarni modernizatsiyalash orqali ularning texnik darajasini oshirish, yirik shaharlarga kirishda avtomagistrallarining eng serqatnov uchastkalarini rekonstruksiya qilish va aholi punktlaridagi tranzit oqimlarini bartaraf etish va atrof muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirish maqsadida aholi punktlarini aylanib o‘tadigan yo‘llar qurish;

xalqaro transport yo‘laklari tarkibidagi eng yirik markazlar o‘rtasidagi aloqani ta‘minlash va ularni Yevropa hamda Osiyo xalqaro avtomobil yo‘llari tizimiga birlashtirish uchun ko‘p bo‘lakli avtomagistrallar va tez yurish imkonini beradigan yo‘llar tarmog‘ini shakllantirish hamda rivojlantirish, muhim transport tugunlariga, dengiz portlariga, terminallar va transport infratuzilmasining boshqa obektlariga kirishni ta‘minlash orqali mamlakat transport tizimi uyg‘un rivojlanishiga ko‘maklashish;

avtotransport ortiqcha yo‘l bosishiga barham berish va tuman markazlari hamda yirik aholi punktlari o‘rtasida eng yaqin marshrutlar bo‘yicha aloqani ta‘minlash uchun mintaqaviy avtomobil yo‘llari tarmog‘i shakllanishini yakunlash,

mintaqaviy yo‘l tarmog‘ining yuzaga kelgan tuzilmasini to‘ldiradigan yangi xordali va bog‘lovchi yo‘llar qurish; Mutaxassislarining malakali jamoasi va maxsus texnikaga ega. Mutaxassis tomonidan taqdim etilgan pudratchi vazifani bajarish uchun tadbirlar ro‘yxatini tuzadi va ishlarning narxini hisoblab chiqadi.

Yo‘l qurilish ishlarida yuqori unumdorlik va ko‘p qirrali zamonaviy uskunalardan foydalanish ishlarni tez va sifatli bajarish imkonini beradi. YO‘l qurilish uskunalari odatda ijara asosida qo‘llaniladi. Bu sizga har doim xizmat ko‘rsatish va yuqori malakali operatorlar va mashinistlar bilan ishlash imkonini berdi. Avtomobil yo‘liga yo‘l belgilarini joylashtirish, ularning narxi nisbatan past. Eng avvalo, avtomobil yo‘lida harakatlanishning yuqori xavfsizligi va undan foydalanish qulayligi ta‘minlangan, hududning gidrogeologik sharoitlarini tahlil

qilish muhim ahamiyatga ega. YO‘llarni qurish jarayonida qurilishning texnologik jarayonini ta‘minlashimkoniyatlarini O‘rganish kerak. Shuningdek, assortimentda va kerakli miqdorda kerakli qurilish materiallari. Magistral yo‘l bo‘ylab qurilish materiallari karerlarini ishlatish yoki tashkil etish imkoniyatlarini O‘rganish maqsadga muvofiqdir. Yaxshi qurilgan yo‘l talab qilinadigan standartlarga javob berishi kerak. Chunki bu nafaqat haydovchilar, balki piyodalar uchun ham xavfsizlik va qulaylik garovidir. Har qanday qurilish yoki rekonstruksiyaning birinchi bosqichi loyihalash bo‘lib, undan so‘ng yo‘l qurilishi rejasi ishlab chiqiladi. YO‘lning yuqori qatlami eng katta aşınma va yirtiqqa duchor bo‘ladi, chunki u O‘tayotgan avtomobillarning katta massasidan kunlik bosimga duchor bo‘ladi. Shu sababli, yo‘lning ishonchliligi va mustahkamligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri qurilish ishlari qanchalik professional tarzda amalga oshirilganligi va qanday materiallardan foydalanilganiga bog‘liq. Yo‘l xo‘jaligini takomillashtirish mamlakatning iqtisodiyotini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Sifatli yo‘l qurish mamlakatning yo‘l xo‘jaligini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir.

TA‘LIM SIFATINI TA‘MINLASH BORASIDAGI ILG‘OR XORIJIY TAJIRIBALAR (Fransiya ta‘lim tizimi misolida)

*Jaloldinov Ahror Abdusattor o‘g‘li, Jaloldinov Nizomjon Abdusattor o‘g‘li
Namangan muhandislik-qurilish instituti, tayanch doktorant,
Email:axrorjaloldinov0797@gmail.com, Namangan muhandislik-qurilish
instituti, talaba, Email:jaloldinovnizomjon@gmail.com,*

Annotatsiya. Maqolada Fransiya ta‘limining shakllanishi, mohiyati hamda ushbu ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish zaruriyati, xalqaro aloqalar, zamonaviy tajribalar asosida dars jarayonlarini tashkil etish borasida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ta‘lim, tayyorlov, dastur, mutaxassislik, ta‘lim texnologiyasi.

ПЕРЕДОВОЙ ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

(Что касается французской системы образования).

Абстрактный. В статье говорится о становлении и природе французского образования и необходимости использования этих образовательных технологий, международных отношениях, организации учебных процессов на основе современного опыта.

Ключевые слова: образование, подготовка, программа, специализация, образовательная технология.

BEST FOREIGN EXPERIENCE IN ENSURING QUALITY OF EDUCATION

(Regarding the French education system).

Abstract: The article talks about the formation and nature of French education and the need to use these educational technologies, international relations, and the organization of educational processes based on modern experience.

Key words: education, training, program, specialization, educational technology.

KIRISH. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi

(keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son «Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan. [1]

Respublikamizdagi oliy (o‘rta maxsus kasb-hunar maktab) ta’limi tizimi ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari bo‘yicha yangi bilimlar tizimi bilan qurollantirishni uzluksiz tashkil etish davr talabidir. Shuning uchun ham bugungi kunda yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda o‘qitishning hozirgi zamon tizimlari va yangi pedagogik texnologiyalari asosida hamda xorijiy ilg‘or tajribalardan foydalanib amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

TADQIQOT METODI VA METODOLOGIYASI.

Fransiya jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Uning ta’lim tizimlari ham qadimiy va boy tarixga ega. Bu mamlakatda “Ta’lim haqidagi” qonun dastlab 1955-yilda qabul qilinib 1975-yilda unga qator o‘zgartirishlar kiritilgan.

Fransiya davlatining hozirgi davrda amal qilinayotgan “Ta’lim haqidagi qonun”i 1989-yil 10-iyulda qabul qilingan bo‘lib, uning o‘zgartirilishiga ta’lim strategiyasida ro‘y bergan o‘zgarishlar mamlakatning ichki tashqi siyosatida islohotlar yuzaga kelgan Iqtisodiy sharoitlar chet el pedagogikasidagi ilg‘or texnologiyalarning mamlakat ta’lim tizimlariga kirib kelishi o‘quv predmetlarining integratsiyalari va boshqalar sabab bo‘ldi.

Fransiyada ta’limning asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta’minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o‘quvchilarni tadbirkorlikka ishbilarmonlik va omilkorlikka o‘rgatish shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir. Bu yerda:

1. Davlat maktablari;
2. Xususiy maktablar;
3. Oraliq maktablar mavjud.

O‘qitiladigan predmetlar ichida fransuz tili va adabiyoti o‘qish va yozuv alohida ahamiyatga molik bo‘lib hisoblanadi. Ular uchun dars vaqtining 30% ajratiladi. O‘rtacha haftalik soatlar 26 soatdan iborat darsning davomiyligiga esa 60 minut. O‘quv yili 5 chorakka bo‘linadi. Fransuz maktablari boshlang‘ich sinflarda o‘qish ertalabki va tushdan keyin esa matematika va boshqa predmetlardan saboq oladilar.

Matematika ona tili va adabiyoti baza predmeti tarix, geografiya, mehnat, jismoniy tarbiya predmetlari esa rivojlantiruvchi predmetlar hisoblanadi.

Fransiya ta’limida bolalarning go‘daklik chog‘idanoq maktabda o‘qitish uchun tayyor holda olib kelish g‘oyat muhim masala hisoblanadi. Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan: kichik guruh (2- 4 yosh), o‘rta guruh (4-5 yosh), katta guruh (5-6 yosh). Maktabga tayyorlov guruhi (5-6 yosh)

bo'lib, ularga Fransiyada 100% shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.

Fransiya boshlang'ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang'ich maktab bepul va majburiy. Uning vazifasi o'qish, yozish hisoblash malakasini berishdir. O'quv mashg'ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. [2]

Maktabda ovqatlanish pullik lekin juda arzonlashtirilgan narxlarda. Boshlang'ich sinflarda o'qish uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tayyorlov bosqichi;
2. Elementar kurs (bu bosqich ikki yil davom etadi);
3. Chuqurlashtirilgan bosqich.

Tayyorlov bosqichi - 1 yilga mo'ljallangan. Bunda bolalar hisoblashga o'qish va yozishga, kuylashga, o'ylashga, tabiat manzaralarini tomosha qilishga va undan bahra olishga jismoniy mashqlar bilan mashg'ul bo'lishga maktabning turli sport tadbirlarida ishtirok etishga musiqa va mehnatga o'rgatiladi.

-Navbatdagi bosqich — elementar kurs bo'lib bu bosqichda o'qish 2 yil davom etadi. Bunda o'quvchilarning tayyorlov siklida predmetlar bo'yicha olingan bilimlarni yanada takomillashtiriladi.

-Boshlang'ich maktabning 3 - bosqichi — chuqurlashtirish bosqichidir. Bunda o'quvchilarning tayyorlov va elementar bosqichdagi bilimlari yanada chuqurlashtiriladi. Fransuz maktablarining boshlang'ich bosqichida "Grajdanlik ta'limi" "Nafosat ta'limi" ham o'qitiladi. Nafosat ta'limiga musiqa tasviriy san'at sport kiritilgan. O'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash ularni rag'batlantirish shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ta'limda uzluksiz va vorislikni ta'minlab berish boshlang'ich sinf o'quvchilariga ko'yilgan bosh talabdir. [3]

O'quv dasturining mazmunini bevosita o'qituvchining o'zi belgilaydi. Bir so'z bilan aytganda o'qituvchi bolalar bilimiga to'la mas'ul ekan uning uslub tanlashiga mustaqil harakat qilishiga ham to'la erkinliklar beriladi.

TADQIQOT NATIJASI. Demak, integratsiyalashgan ta'limni joriy etishdan ko'zlangan maqsad - bu ta'lim, jamiyat, ish va dunyoni bir butun holda tasavvur yetish va ular o'rtasida barqaror aloqa o'rnatishdan iborat hisoblanadi. Hozirgi kunda ilg'or xorijiy tajribalar asosida talim tizimini tashkil yetish bo'yicha yurtimizda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston va Fransiya o'rtasida o'zaro hurmat va ishonch asosiga qurilgan diplomatik munosabatlar qaror topgan. Bugungi kunga kelib ikki mamlakatning aloqalari strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgan. Fan-ta'lim sohasidagi hamkorlik ham faollashmoqda. Bo'layotgan o'zgarishlar tufayli odamlarning Fransiya to'g'risidagi qarashlari o'zgarimoqda. Lekin ayni damda mamlakatlar o'rtasidagi do'stona aloqalar tufayli yoshlarimizning Fransiyada tahsil olishi va malaka oshirishi uchun katta imkoniyatlar yaratildi.

Fransiyada oliy ma'lumot va ixtisos beruvchi oliy texnologik institutlar mingdan ortiq. Ular odatda sanoat maishiy xizmat ko'rsatish informatika mutaxassisliklariga ixtisoslashgan. O'qish muddati 2 yil bo'lib sakkiz haftalik ishlab chiqarish amaliyotini ham ko'zda tutadi.

Sirtqi ta'lim shaxobchalari juda keng bo'lib u 500 turdagi o'rta oliy professional ma'lumot berishni tavsiya eta oladi. [4]

Fransiyada maktab rahbarligi lavozimiga erishmoq uchun ta'limga rahbarlik qilishdan saboq beruvchi maxsus markazlarda o'qiydilar. Bunday markazlarda ular rahbarlik qilish, maktab iqtisodiyotini boshqarish, ta'limdagi yuridik masalalar qonunchilik ota-onalar bilan ishlash, madaniy oqartuv ishlarini tashkil etish, jamoada yaxshi psixologik muhitni barpo etish kabi jihatlarni o'rganadi o'qish yakunlangach suhbatdan test imtihonlaridan o'tadilar.

U yerdagi tarbiyaviy muhit har qanday insonning namunali xulqini shakllantirishga yordam beradi. Biz yoshlarni kuzatamiz va Fransiyadagi vakillarimiz esa ularni kutib olishadi. Bir oylik moslashuv jarayonida ular bilan birga bo'lib, barcha shart-sharoitlarni tushuntirib o'tishadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, taraqqiyot tomon ildam odimlab borayotgan yurtimizda yosh avlodga bilim berish, ularning bilim darajasini xalqaro baholash standartlariga tenglashtirish uchun o'qituvchining zimmasiga katta mas'uliyat yuklanmoqda. Bu esa o'qituvchilardan yanada bilimli, izlanuvchan hamda ta'limga oid yeng so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lishni talab etadi. Shuningdek darslarda ilg'or xorij tajribalaridan foydalanish hamda mavzularni o'zaro integratsiyalashgan holda o'qitish masalalari dolzarb hisoblanadi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Fransiyada ta'lim tizimi ham shaklan, ham mazmunan yuksak uyg'unlik kasb etgan. Ibrat olsa, o'rganish arziydigai jihatlari ko'p. E'tiborli yana bir tomoni – Fransiyada faqat milliy an'analar bilan cheklanib qolmay, jahondagi Amerika, Yaponiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarning ilg'or pedagogik ish tyajribalari ham ijodiy o'zlashtirilgan. Bunday tajriba yangilanish jarayonini kechirayotgan mustaqil Respublikamiz ta'lim tizimini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishda qo'l kelishi shubhasiz. Hamma gap masalaga mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda ijodiy yondashishda, tashabbuskorlik va tashkilotchilik ko'rsatib ish yuritishdadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son **Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.**
2. Asqarova O'., Nishonov M., Kurbanova Z., Mo'minova D. Pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi.- Alisher Navoiy nomidagi O'zbekistob Milliy kutubxonasi nashriyoti, Toshkent-2023.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).- T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2009 -160 b..
4. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. Fan va texnologiya. 2011.
5. <https://www.ziyonet.uz>
6. <http://unliblary.com>
7. <http://www.google.com>
8. www.edu.uz

O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

*Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna, Nishonov Dilshod Rustam o'g'li
ChDPU Pedagogika fakulteti, Umumiy pedagogika kafedrasi v.b., professori p.
f.d.,(DSc), 1-kurs talabasi*

Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish, dunyoqarash va fikrlash darajasini kengaytirish bugungi kun o'qituvchisi uchun eng muhim jihat sanaladi. Dars jarayonlarida ijodiy qobiliyatni rivojlantirish masalasiga imkon qadar, mazmunga mos ravishda xarakter qilinadi. Ammo, darsdan tashqari mashg'ulotlar bu jarayonda maqbul yo'l sanaladi. Darsdan keyingi mashg'ulotlarga jalb qilingan o'quvchi bo'sh vaqtdan unumli foydalanadi va bilimlarini boyitadi va uni yanada mustahkamlaydi. Ayniqsa uning turli kasb - xunar sirlarini ham o'rganishga ham imkoniyati bo'ladi. Shunday sharoitda maktablarda faoliyat yuritayotgan to'garaklarning o'rni alohida ta'kidlash lozim.

Fan to'garaklarida darsliklardagi mavzular to'ldiriladi, mustahkamlanadi bu jarayonlarda bolaning bilimlari chuqurlashtirilib, kelgusida munosib kasb tanlashga yordam beradi. Yuqori sinflar uchun o'zlari sevgan kasblar bo'yicha to'garakka jalb qilish yaxshi natijalar beradi. Ayniqsa kichik sinflarda tillar bo'yicha to'garaklarning samaradorligi yaxshi natijalar beradi. Ayniqsa, "nutq o'stirish", "she'riyat shaydolari" kabi to'garaklar og'zaki va yozma nutq, fikrni erkin bayon qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. Yuqori sinflarga borganda nutqi ravon bola fan, xunar va sport to'garaklarida o'zini ijobiy tomondan ko'rsatishi tabiiydir.

Maktablarda nafaqat fan to'garaklari balki xunarlariga yo'naltirilgan mashg'ulotlarning ham olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa qizlarga bichish-tikishni, to'qishni, zardo'zlik, kashtachilik, to'ppido'zlik, munchoqlar yasash kabi xunarlar yaxshi samara bersa, o'g'il bolalar uchun duradgorlik, sandiqdo'zlik, radiotexnika, beshikchilik, turli xil mebelsozlik kabi to'garaklar yaxshi natija beradi. Bunday xayrli va o'ta muhim ishda maktab rahbariyati, to'garak rahbari bilan bir qatorda mahalla fuqarolar yig'inlari faollari va xunarmand ota - onalar ham o'z ko'maklarini berishlari lozim. Ayniqsa o'qituvchi qizlar o'rtasida o'tkazilayotgan "orasta qizlar", "Zulfiya izdoshlari", "Zumradoylar" kabi tadbirlar, yigitlar o'rtasidagi "Vatan himoyachilari", "o'ktam yigitlar", "balli yigitlar" tadbirlari ham bolalar o'rtasida ijodkorlik, kasbga intilish kabi xislatlarni rivojlantiradi. Yosh avlodni jismonan sog'lom, yuksak intellektual salohiyatli, barkamol shaxs etib tarbiyalashda juda ko'p omillardan foydalanmoq lozim bo'ladi. Bu jarayonda ayniqsa oila, mahalla, maktab hamkorligining o'rni doimo muhim bo'lib kelgan. Shuning uchun maktab o'qituvchilari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratish, bu jarayonlarning ko'makchisi hisoblanadi. O'qituvchilar, fan to'garaklari rahbarlari o'rtasidagi raqobat muhiti ularni o'z ustilarida yanada samarali ishlashiga izlanishga sabab bo'ladi. Ularning mehnatlari esa o'quvchilarning erishayotgan natijalariga ko'ra baholashlari lozim bo'ladi. Har o'quv yili yakunida, o'qituvchilarning qilgan ishlari yuzasidan monitoring o'tkaziladi. Qaysi bir o'qituvchining, o'quvchisi

ko'proq natijalarga erishganligi tahlil qilib boriladi. Tahlillar, kuzatuvlar natijalariga ko'ra ular rag'batlantirilishi lozim bo'ladi. Ta'lim jarayonida sog'lom raqobat muhiti o'qituvchi va o'quvchilarni ham faollikka ijodkorlikka undovchi omil sanaladi. Har tomonlama chuqur va keng, intellektual salohiyatga ega bo'lgan yoshlar vatanimiz kelajagini ta'minlovchi vorislar ekan, ularning barcha xarakterlariga, o'y-hayollariga, orzulariga qanot bo'lish bugungi kun o'qituvchisining bosh vazifasi hisoblanadi. O'quvchilarning maktabdan tashqari bo'sh vaqtlari samarali tashkil etish, turli xil fan, kasb, xunar to'garaklari ishlarini samarali tashkil etish o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, takomillashtirishga yordam beradigan eng maqbul vositalardan hisoblanadi. Bu vositalarga o'z vaqtida e'tiborli bo'lish, o'qituvchilar imkoniyatlariga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

Almetov N.SH. O'quv-tarbiya jarayonida xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish //O'qit.uchun.qo'll. – Chimkent, Jan.KozMITI, 2013. – 90 b.

2. Muslimov N.A. Pedagogik faoliyatga tizimli yondashuv muammolari // Kasb-hunar ta'limi. – 2004. - № 3. – B.24.

3. Gappirov B.T. Talabalarda axloqiy o'z-o'zini anglashning o'quv jarayonidagi dinamik taraqqiyoti: Psix.fanl.nomz. ... diss. – T.: 2013. – 133 b.

4. Raxmanova M.Q. Kasbiy ta'lim jarayonida talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda interfaol ta'limning nazariy-amaliy jihatlari // Mug'allim ham yzliksiz bilimlendirio'. 2022. –№3/3, – B. 39-43.

5.Raxmanova M.Q. Kasbiy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish funksiyalari / "Ta'lim tizimida fan innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. Jizzax. (2021-yil, 20-noyabr).- B.- 782-786.

6.Raxmanova M.Q. Kasbiy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish mazmuni / "Ta'lim tizimida fan innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. Jizzax. (2021-yil, 20-noyabr).- B.- 782-786.

RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLARDA OLIY TA'LIM TIZIMI VA JAHON OLIY TA'LIM MUASSASALARINING 2024-YILGI XALQARO REYTINGDAGI O'RNINI BO'YICHA TAHLILLAR

N.N.Umarov, G.R.Murodova

Navoiy davlat pedagogika instituti dekan o'rinbosari. Navoiy davlat pedagogika instituti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimidagi tajribasi, oliy ta'limda erishgan muvaffaqiyatlari hamda xalqaro oliy ta'lim muassasalarining 2024-yildagi jahon reytingidagi o'rnini va istiqbol rejaları tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Xalqaro integratsiya, Metriz, Lisans, Anglo-amerikacha model, Fransuzcha model, Elitar o'quv yurtlari, Grande Ecole, Ecole Normale.

Global integratsiyalashgan hozirgi vaqtda mamlakatda ta'lim darajasi qancha yuqori bo'lsa, u mamlakatning iqtisodiyoti shuncha samarali rivojlanishi, ishsizlik darajasi past va umrning uzoqlik darajasi shuncha yuqori bo'lishi shakshubhasiz bir hol sifatida qaraladi. Bundan tashqari, aholi bilim darajasining yuqoriligi jamiyat hayotining boshqa sohalariga, masalan, davlat boshqaruvining sifatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston ta'lim sohasida bozor islohotlarini amalga oshirib, xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi bilan integratsiya jarayonlarini aniq maqsadlarga muvofiq ravishda olib bormoqda. Hamdo'stlik mamlakatlaridan Rossiya, Belorusiya, Qozog'iston, Ozarbayjon, xorijiy davlatlardan AQSH, Finlandiya, Singapur, Buyuk Britaniya, Italiya, Germaniya va boshqa nufuzli davlatlar bilan oliy ta'lim sohasida hamkorlik aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. Xorijiy davlatlar oliygohlarining Respublikamizda filiallari ochilishi va ularda xalqaro standartlarga mos ravishda o'quv dasturlarining tuzilganligi, ta'lim sifatining yuqori darajada ekanligi, ta'lim-tarbiya jarayonining uzluksizligi hamda eng ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida olib borilishi ushbu oliygohlar bitiruvchilarining mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishini ta'minlaydi.

Jahondagi ko'plab mamlakatlarda oliy o'quv yurtlari o'rta umumiy ta'lim tizimidan keyingi, navbatdagi ta'lim bosqichi hisoblanadi. Oliy ta'lim maktablarining ko'pchiligida o'qish muddati 2 yil yoki undan ko'proq bo'lib, uch siklda yoki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich ta'limi 3-4 yil (yoki ko'proq) davom etadi va bitiruvchilarga bakalavr diplomi beriladi (AQSH, Angliya, Yaponiya, Avstarliyada).

Fransiyada birinchi bosqich oliy maktabni bitiruvchilarga metriza Belgiyada lisans unvoni beriladi. Ikkinchi bosqich oliy ta'lim maktablariga birinchi siklni tugatgan bitiruvchilarning 10-25 foizi qabul qilinadi. Bu davrda tanlangan yo'nalish bo'yicha ixtisoslashtirilgan umumiy fundamental bilimlar o'qitiladi (Angliya, Ispaniya, AQSH). Germaniya, Fransiya, Belgiya kabi mamlakatlarda esa ikkinchi bosqich oliy ta'lim maktablari talabalari ancha mukammal va muayyan maqsadga yo'naltirilgan bilimlarni egallaydilar. Lekin hali ular tor profildagi yuqori malakali mutaxassis unvonini olish uchun ikkinchi sikldagi o'qishlarini yana ixtisoslashtirilgan kurslarda 1-2 yil davom ettirishlari mumkin. Muayyan ixtisosliklar bo'yicha maxsus imtihonlar 3 yillik amaliy ish faoliyatidan keyin ham topshirilishi mumkin. Oliy maktablarining ikkinchi bosqichida o'qish 1-2 yil davom etadi. Bu siklni bitirgan talabalarga magistr unvoni beriladi (AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Avstraliya).

Fransiya va Belgiyada magistr unvoni ma'lum mutaxassisliklari chuqur o'rgatiluvchi kurslarning bitiruvchilariga ham beriladi. Magistrlik ta'limining o'ziga xos xususiyatlaridan biri o'quv dasturlarini individuallashtirilganligidir. Bunda o'quv dasturlari talabalar va ularning ilmiy rahbarlari tomonidan tuziladi va kafedralar, dekanatlar tomonidan tasdiqlanadi. Magistraturani bitirgan yoshlar doktoranturaga kirishga huquqiga ega bo'ladilar. Oliy ta'limning uchinchi bosqichi bu - doktoranturadir. Bunga asosan ikkinchi bosqich oliy ta'lim maktablarini muvafaqqiyatli bitirgan talabalar qabul qilinadi. O'qish muddati mutaxassislik turiga ko'ra 1-3 yil. Doktoranturaga birinchi sikl oliy ta'lim maktablarini

bitirganlar ham kirishi mumkin. Lekin bu holda o'qish muddati 3-5 yilgacha uzaytiriladi.

Birinchi sikl oliy ta'lim qoidalariga binoan mutaxassislik bo'yicha umumiy bilimlar berishga yo'naltirilgan. Ta'limni alohida ixtisoslarga bo'lib tashkil qilish, odatda, 3-kursdan boshlanadi. Tor mutaxassislar bo'yicha kadrlar tayyorlash faqat uchinchi sikldagina amalga oshiriladi. Ko'p bosqichli oliy ta'lim tizimining bunday o'ziga xos xususiyatlari anglo-amerikacha va fransuzcha modellarda jahon bo'yicha keng tarqalgan. Oliy ta'limning anglo-amerikacha tizimi AQSH, Buyuk Britaniya, Hindiston, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Yaponiya, Isroil va boshqa mamlakatlarda mavjud. Birinchi sikl oliy o'quv yurtlaridagi o'qish muddati turli mamlakatlarda turlicha. Masalan, AQSHda 4 yil, Buyuk Britaniyada 3 yil. Magistrlik darajasini olish uchun yana 2 yil o'qish lozim (ayrim ixtisosliklar bo'yicha 1-1,5 yil). AQSHdagi qator muhandislik oliy maktablarida bakalavrluk diplomini 5 yillik tizimdan keyin olish mumkin. Tibbiyot sohasida birinchi doktorlik diplomini (stomatologiya, veterinariya sohalari bo'yicha) olish uchun esa 8 yillik ta'lim joriy qilingan. Yaponiyada esa bakalavrluk darajasini 4 yillik ta'limdan so'ng olish mumkin (tibbiyot mutaxassisliklari esa bundan mustasno), magistrlik darajasiga teng diplomni olish uchun yana 2 yillik ta'lim dasturini o'tash lozim.

Oliy ta'limning fransuz modeli Fransiyadan tashqari Belgiya, Shvetsariya, Norvegiya va boshqa mamlakatlarda joriy qilingan. Bu tizim talabalarning sinchiklab tanlash asosida qabul qilishni ko'zda tutadi. Talabalar dastlabki 1-3 yilda umumiy dasturlar orqali ta'lim olish bilan bir qatorda bo'lajak tor ixtisosliklarni tanlashda faol ishtirok etadilar.

Ko'p bosqichli fransuz oliy ta'lim modelining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Fransuz universitetlarida ta'limning dastlabki ikki yilida qator mutaxassisliklar uchun yagona o'quv dasturlari mavjud.

2. Universitetning 2-kursini tugatib, tegishli guvohnoma olgan talaba shu universitetning 3-kursini o'zi tanlagan mutaxassislik bo'yicha o'qishni davom ettirishi yoki boshqa universitetga o'tishi va yoki o'qishni elitar o'quv yurtlari (Grande Ecole-katta maktab, Ecole Normale-oddiy maktab)da davom ettirishi mumkin.

3. Universitetning 3-kursini bitirgan talabalar "lisans" diplomini oladilar. Bunday diplomni olgan talabalar o'qishlarini 4-kursda davom ettirish yoki o'qishni tashlab o'z mutaxassisliklari bo'yicha amaliy ish bilan shug'ullanish huquqlariga egadirlar. 4-kursni tamomlagan talabalar esa "metriz" diplomini oladilar. "Metriz" diplomi uning egasiga to'liq oliy ma'lumot olganligidan dalolat beradi.

4. Fransuz oliy ta'lim tizimidagi ikkinchi sikl ta'limning maxsus atamasi, nomi ham yo'q. ikkinchi sikl deyilganda odatda 4 yillik birinchi sikl oliy ta'limidan so'ng keladigan navbatdagi bosqich tushuniladi xolos. Fransuzcha oliy ta'lim modelining ikkinchi sikli 1-2 yillik ta'limni o'z ichiga olib, uni bitiruvchilar tanlagan mutaxassisliklari bo'yicha chuqur bilimlarni o'rganganliklari haqida maxsus ixtisos diplomini oladilar.

5. Ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlarida ma'lum soha mutaxassislik diplomini beruvchi yoki doktoranturaga kirish huquqini beruvchi 1 yillik qayta tayyorlov

kurslarining keng tarmog'i faoliyat ko'rsatadi.

Hozirgi kunda xorijiy mamlakatlarning oliy ta'lim sohasidagi olib borayotgan davlat siyosatlarini asosan xususiy oliy o'quv yurtlarini tashkil qilish bilan xarakterlanadi. Xususiy oliy o'quv yurtlarini tashkil qilish, ularni rivojlantirish borasidagi amaliy ishlar davlatlar tomonidan qo'llab quvvatlanmoqda, chunki bu sohaga davlat va mahalliy byudjet ko'magidan tashqari, yirik xususiy sarmoyalarni ham jalb qilish imkonini beradi. Bunday yondashuv ayniqsa AQSH, Yaponiya va Fransiyada ko'zga yaqqol tashlanadi. Ularning mavjudligi davlat tasarrufidagi oliy o'quv yurtlari obrusiga putur yetkazmaydi. Yuqoridagi barcha mamlakatlardagi xususiy oliy o'quv yurtlar moliyaviy jihatdan davlat tomonidan qo'llab quvvatlanadi.

Oliy ta'limga oid yangiliklar va muammolar haqida maxsus xabar beradigan "The Times Higher Education" Britaniya jurnali tomonidan 2024-yilgi jahon oliy ta'lim muassasalari reytingi e'lon qilindi. Ushbu reyting 108 mamlakat va mintaqadagi 1906 ta universitetni o'z ichiga oladi. Reyting besh yo'nalish bo'yicha muassasa faoliyatini o'lchaydigan 18 ta sinchkovlik bilan sozlangan samaradorlik ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi. Xususan, o'qitish, tadqiqot muhiti, tadqiqot sifati, sanoat va xalqaro istiqbol shular jumlasidandir. Bu yilgi reyting 16,5 million tadqiqot nashrlari bo'yicha 134 milliondan ortiq iqtiboslarni tahlil qildi va butun dunyo bo'ylab 68 402 olimning so'roviga javoblarini o'z ichiga oldi.

Oksford universiteti ketma-ket sakkizinchi yil reytingda birinchi o'rinni egallab turibdi, biroq kuchli beshlikdagi boshqalar o'z saflarida siljishlar kuzatgan. Stenford universiteti ikkinchi o'ringa ko'tarilib, Garvard universitetini to'rtinchi o'ringa tushirdi. Massachusetts texnologiya instituti (MIT) bu yil ikki pog'onaga ko'tarilib, uchinchi o'rinni egalladi. Kembrij universiteti o'tgan yili uchinchi o'rinni egallaganidan keyin beshinchi o'ringa tushib ketdi. Eng yuqori yangi kirish Italiyaning Muqaddas yurak katolik universiteti bo'lib, 301-350 qavsda joylashgan. Biroq bu yil reytingga ilk bor qo'shilgan muassasalarning aksariyati Osiyoda joylashgan. Demak, bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki Osiyoda ham jahon standartlariga yuqori darajada javob beruvchi oliygohlar soni oshib bormoqda.

AQSH 169 ta institut bilan eng ko'p vakillik qilingan davlat bo'lib, shuningdek, eng yaxshi 200 ta (56) ichida eng ko'p vakillik qilingan davlatdir. Oliy o'quv yurtlarida ilmiy izlanishlar olib borish bo'yicha AQSh jahon mamlakatlari orasida yetakshi o'rinlardan birini egallaydi. Bu mamlakatda ilmiy izlanishlar uchun ajratilgan mablag'ning 48% davlat tomonidan, 50 % firma, konsern, sindikatlardan undiriladi, qolganlarini oliy o'quv yurtlarining mablag'lari tashkil qiladi.

91 ta institutga ega Hindiston hozirda Xitoy (86) ortda qoldirib, eng ko'p vakillik qiladigan to'rtinchi davlat bo'ldi. Stenford universiteti o'qitish ustunini boshqaradi, Oksford va Kembrij universitetlari tadqiqot muhiti bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Yangi nomi o'zgartirilgan iqtiboslar ustuni bo'lgan tadqiqot sifati

ustuni birinchi o'rinda MITni ko'radi. 1904 ta reytingga ega bo'lgan muassasalardan tashqari yana 769 ta universitet "muxbir" maqomiga ega, ya'ni ular ma'lumotlarni taqdim etgan, lekin unvon olish uchun muvofiqlik mezonlariga javob bermagan va yakuniy jadvalda muxbir sifatida ko'rsatilishiga rozi bo'lgan. Bir qarashda, ro'yxatning yuqori qismi o'tgan yilga nisbatan unchalik o'zgarmagan. Oksford universiteti birinchi o'rinni saqlab qolgan, AQSh esa eng yaxshi 10 o'rinning yettitasini egallagan. Ammo yaqinroq tekshirilganda, Jahon universitetlari reytingining yuqori bo'g'ini shuni ko'rsatadiki, Xitoyning eng yaxshi institutlari birinchi o'ntalikka kirishga har qachongidan ham yaqinlashmoqda. Tsinghua universiteti va Pekin universiteti mos ravishda 12 va 14-o'rinlarni egallash uchun bir necha pog'ona ko'tarilgan. Jahon universitetlari reytingining 400 taligiga kiruvchi Xitoy ta'lim muassasalari soni 2021-yilda atigi 15 ta bo'lsa, 2024-yilda 30 taga yetdi.

Ushbu tendentsiya bilim iqtisodiyoti kuchining G'arbdan Sharqqa siljishidan dalolat beradi. Bu kelajakda ko'proq xalqaro talabalarni Xitoyda o'qishga undaydi. Xitoy universitetlarining jahon reytingidagi o'rinlari tobora yaxshilanishi ularning reyting ko'rsatkichlari bilan yaxshi tanishligi, hukumatning sektorni rivojlantirish uchun mo'ljallangan katta darajadagi mablag'lari hamda sektorning xalqarolashtirish, ta'lim islohotlari va tadqiqot innovatsiyalariga sodiqligi bilan bog'liq bo'lishi tahlil qilinmoqda. Yangi reytingga kiritilgan muassasalar orasida 20 tasi Hindistondan, ya'ni uning ishtiroki 2024 yilgi reytingdagi boshqa mamlakatlarnikiga qaraganda ko'proq oshdi. Mamlakatning yetakchi muassasasi - Hindiston fan instituti 2017-yildan beri birinchi marta yana kuchli 250 talikka kirdi. Biroq, bu eng yaxshi 500 talikka kirgan yagona universitet. Bu reyting 2016 yilda 400 dan ortiq institutlarni qamrab olganidan beri mamlakatdagi eng yomon ko'rsatkichdir. O'rtacha hisobda Hindiston universitetlari reytingda 14 pog'onaga pasaygan, bunga asosan tadqiqot sifati bo'yicha uslubiy o'zgarishlar sabab bo'lgan. Turkiya va Pokiston ham bu yil juda ko'p institutlarni qo'shmoqda (mos ravishda 14 va 11), ya'ni Osiyo 200 talik ichida umumiy vakillik va vakillik bo'yicha yetakchiligini oshirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.J.Mutalipova, B.X.Xodjayev "Qiyosiy pedagogika" darslik, Toshkent 2015-yil.
2. A.A.Ikramov, G.N.Davranova, A.A.Ikramova "Qiyosiy pedagogika" o'quv qo'llanma, Buxoro 2022-yil.
3. www.timeshighereducation.com

TA'LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNING AHAMIYATI

*Abdullayeva Fotima Baxtiyor qizi¹, Turabekova Dilorom Baxtiyarovna²
GulDU, Biotexnologiya yo'nalishi talabasi¹. GulDU, Oziq-ovqat texnologiyalari
kafedrasida katta o'qituvchisi².*

Anotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim tizimi, tajribasi va zamonaviy ta'lim dasturlari qisqacha tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy davlatlarning metodikasi, ularning tahlili, qo'llashdagi afzalliklari va ta'lim tizimidagi yutuqlar bayon etilgan.

Kalit soʻzlar: taʼlim, tajriba, globallashtirish, taraqqiyot, pedagog, innovatsiya, loyiha, interfaol metod.

Abstract: This article briefly analyzes the education system, experience and modern educational programs. The methods of foreign countries, their analysis, advantages in application and achievements in the education system are also described.

Key words: education, experience, globalization, development, pedagogue, innovation, project, interactive method.

Аннотация: В данной статье кратко анализируется система образования, опыт и современные образовательные программы. Также описаны методики зарубежных стран, их анализ, преимущества в применении и достижения в системе образования.

Ключевые слова: образование, опыт, глобализация, развитие, педагог, инновации, проект, интерактивный метод.

Taʼlim samaradorligini belgilashda eng optimal qarorlar qabul qilish yuqori taʼlim sifatiga erishishni talab etadi. Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 5-maydagi PQ-3697 sonli “Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” qarori va 2018-yil 7-maydagi PQ-3698 sonli “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarorida fan, taʼlim va ishlab chiqarish oʻrtasidagi integratsiyani kuchaytirish lozimligi keltirilib, hozirgi kunda oliy taʼlim muassasalari amaliyotida jahon tajribasini joriy etish oʻta muhimligini taʼkidlaganlar.

Qadimdan bizda bilim olish qadrlangan. Bilimdon kishilar esa el-yurt ardogʻida boʻlganlar. Shuning uchun ham bilim olish va olingan bilimni mamlakatimiz xizmati yoʻlida xizmat qildirish oliy insoniylik burchimizdir. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishni muhim shartlaridan biri chet el taʼlimi va pedagogikasi tajribalari oʻrganishdir. Xalqaro tajribalarini sinchkovlik va qunt bilan oʻrganish orqali taʼlim tarbiyada qotib qolgan, oʻz dolzarbligini yoʻqotib borayotgan ish shakllari, uslublaridan xalos boʻlish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda, qoʻshimcha boy manbalarga ega boʻlamiz.

Taʼlimning global istiqbollari- bu dunyoning turli burchaklarida oʻqitish tizimini qay koʻrinishda ketayotganini oʻrganib, oʻz yurtimizda qoʻllashdir. Bu bizga turli oʻqitish tizimini va uning taʼlim olishga qanday taʼsir qilishini tushunishga yordam beradi. Taʼlim tizimida, jumladan, oliy taʼlimda amalga oshirilgan islohotlar natijasida yuz bergan oʻzgarishlar ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va maʼnaviy jihatdan katta tarixiy ahamiyatga ega. Amalga oshirilgan islohotlar nafaqat mamlakatimizda ijobiy oʻzgarishlarga olib keladi, balki xalqaro maydonda ham mamlakatimiz nufuzini yangi bosqichga olib chiqdi. Mamlakatimizda pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi yoʻlga qoʻyilgan. Bu borada xalqaro tajribalar ham oʻrganilmoqda. Professor oʻqituvchilarimiz Buyuk Britaniya, Germaniya, Avstriya, Italiya, Fransiya, Chexiya, Slovakiya, Gretsiya, Ispaniya, Belgiya, Niderlandiya kabi davlatlarda

ta'lim olib, malaka oshirib kelmoqdalar. Yevropa Ittifoqi komissiyasining «Erasmus+», «Texnik yordam dasturlari» kabi loyihalari oliy ta'lim tizimni modernizatsiyalash, yanada takomillashtirishda qo'l kelmoqda. Bu esa o'z navbatida ta'limni yanada rivojlantirish, xorijiy tajribalarni qo'llash imkonini kengaytiradi. Bugungi kunda har qaysi xalq, davlat va jamiyatning taraqqiyot darajasi, avvalambor uning inson kapitaliga, inson rivojida qaratilayotgan e'tibori, bu yo'ldagi say harakatlari bilan o'lchanadi. Ilg'or mamlakatlar ichida Yaponiya ta'limi o'ziga xos yetakchi o'rinni egallaydi. Yaponiyada ta'lim sifati yuqori va butun dunyoda tan olingan. QS xalqaro reytingi Yaponiyaning beshta universitetini dunyodagi eng yaxshi 100 ta universitetlar ro'yxatiga kiritdi. Bu yerda dunyoning 170 ta davlatidan 140 000 dan ortiq xalqaro talabalar tahsil oladi. Yaponiya innovatsiyalar va texnologiyalar sohasida taniqli yetakchi bo'lib, talabalarga nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi. Jumladan, Yaponiya ta'limida "iqtidorli o'quvchi" tushunchasi yo'q. Chunki har bir o'quvchi alohida iqtidor sohibidir. Shu boisdan talabalarni iqtidorini yanada rivojlantirish, keng ko'lamli xorijiy tajribalar asosida bilim berish katta ma'suliyat yuklaydi. Shu boisdan AQSH, Fransiya, Germaniya, Yaponiya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarning ilg'or pedagogik ish tajribalari ham ijodiy o'rganilib, samarli ravishda yurtimizda qo'llanib kelmoqda. Bunday tajribalar Respublikamiz ta'lim tizimini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishda qo'l kelishi shubhasiz. Shu boisdan, ana'naviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish- ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayonini oqilona tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va talabalarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Talabalar Finlyandiya, Yaponiya va Amerika Qo'shma Shtatlari kabi mamlakatlar ta'lim tizimlarini, jumladan, o'quv dasturlari, o'qitish usullari va baholash amaliyotlarini qanday tuzilganligini bilishlari mumkin. Jumladan, Finlyandiya oliy ta'limni e'tibori ilmiy tadqiqotlarga qaratiladigan universitetlarda yoki ko'proq amaliyotga asoslangan amaliy fanlar universitetlarga qaratilgan. Finlyandiya ta'lim tizimidagi islohotlarning yana bir muhim jihati 1970-yillardan boshlab boshlang'ich maktab o'qituvchilarini tayyorlash kollej va seminariyalardan, universitetlarning qayta tashkil etilgan ta'lim fakultetlariga ko'chirilgan. Shuningdek, maktab o'qituvchilari magistr darajasiga ega bo'lishi shartligi belgilab qo'yilgan. Hozir boshlang'ich maktabda dars berish uchun o'qituvchi ta'lim sohasida magistr darajasiga, o'rta maktabda dars berish uchun esa dars berayotgan fani bo'yicha magistr darajasiga ega bo'lishi lozim bo'ladi. Oliy va OTMdand keyingi ta'lim bakalavriat, magistratura, litsensitura (litsensiat-magistr va fan doktorligi o'rtasidagi oraliq bosqich) va doktoranturaga bo'linadi. Shu kabi tizimlarni tahlil qilish orqali ta'limda turli yondashuvlarning kuchli va zaif tomonlarini bilib olishimiz va o'zimizning ta'lim sharoitlarimizga

takomillashtirishning potensial yo‘nalishlarini aniqlashimiz mumkin bo‘ladi. Ushbu o‘rganish orqali talabalar mamlakatlar qanday hamkorlik qilishlari va ta‘lim sohasidagi ilg‘or tajribalarni almashish borasida orttirilgan bilimlarga ega bo‘lishlari mumkin bo‘ladi. Umuman olganda, ta‘limning global istiqbollari talabalarga butun dunyo bo‘ylab ta‘lim tizimlarining xilma-xilligi va o‘zaro bog‘liqligi haqida keng qamrovli tushuncha beradi. Ushbu istiqbollarni o‘rganish orqali talabalar ta‘lim sohasidagi intiluvchan o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va siyosatchilar sifatida bilim va ko‘nikma olishlari mumkin bo‘ladi.

Xulosa: Umuman olganda, o‘qitish strategiyasida xorijiy tajribalarni yurtimizda qo‘llash orqali talabalarni yanada inklyuziv va samarali ta‘lim muhitini yaratishimiz mumkin. Bunda barcha talabalar o‘zlarining akademik savodxonligini, xorijiy tajribalar asosida o‘rganilgan bilimlarini o‘z ish faoliyatida qo‘llash orqali yuqori natijalarga erishishlari mumkin. Ta‘lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta‘lim oluvchilarning mustahkam nazariy bilim, faoliyat, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ularni kasbiy mahoratga aylanishini ta‘minlash maqsadida o‘quv tarbiya jarayonida interfaol metodlardan foydalanish davr taqozosi hamda ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo‘yilmoqda. Hozirgi kunda o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish, uning mazmun mohiyatini bilish, uni ta‘lim jarayoniga tadbiq qilish va metodikasini yaratish juda muhimdir. Pedagogik kadrlarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashda ularning metodik tayyorgarligini shakllantirish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish mazkur jarayonning samaradorligini orttirishga zamin tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anorqulkova G., Karimov A. Xorijiy mamlakatlar ta‘lim tizimining o‘ziga xos yo‘nalishi uslub va tahlili. Xalq ta‘limi ilmiy metodik jurnali. 2017-yil. 3-son. 527-533
2. Qurbonaliyeva D. Ta‘limdagi ilg‘or xorijiy tajribalar. XXI asrda innovatsion texnologiyalar, fan va ta‘lim taraqqiyotidagi dolzarb muammolar jurnali. 2023-yil. 4-son, 160-162 b.
3. Dexqonova S. X. Ta‘lim jarayoni samaradorligini oshirish. Talqin va tadqiqotlar respublika ilmiy-uslubiy jurnali 2021. 19-21 b.
4. Soataliyeva N. I., Rejapov X.X. Yaponiya oliy ta‘lim tizimi xususiyatlari. Innovative development in the global science. Iyul. 2022. 28-32 b
5. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Moliya.
6. Yo‘ldoshev J.F. Xorijda ta‘lim (metodik qo‘llanma) - Toshkent: 1995- yil.

JIGITLER PSIXOLOGIYASI

Allayarov Doniyor Islom o‘g‘li

Ajiniyoz atindagi NMPI, Uliwma pedagogika hám psixologiya kafedrası oqitiwshisi

Annotatsiya: Bul maqalada "jigitler psixologiyasi" teması kórsetilgen. Maqalada jigitlerdiń individual-psixologiyalıq, social-psixologiyalıq hám jınıslıq psixologiyalıq qásiyetleri hám de olardıń jeke hám kásiplik rawajlanıw qásiyetleri ashıp berilgen. Jigitler psixologiyası tarawı ushın zárúrli bolǵan temprament túrleri, xarakter aksentuatsiyaları, qábiletler, mútajlikler, motivlar, shańaraq, doslıq,

shiriklik, jámaát ortalıǵı sıyaqlı máseleler kórsetilgen. Temanıń aktuallıǵı hám áhmiyeti tiykarlangan.

Tayanış sózler: Jigitler psixologiyasi, Temprament, Xarakter aksentuatsiyalari, Qábiletler, Mútajlikler hám motivlar, Shańaraq, Doslıq hám shiriklik, Jámaát.

Jigitler psixologiyasi - jaslardıń rawajlanıw hám qalıplesiw processinde psixologiyalıq qásiyetlerin úyrenetuǵın fan bolıp tabıladı. Bul másele júdá zárúrli áhmiyetke iye boladı, sebebi jigitlik dáwiri shaxstıń keleshektegi turmısı hám iskerligi ushın tiykarǵı tiykar boladı. Jigitlik dáwiri shaxstıń intellektuallıq, fizikalıq, psixik jáne social rawajlanıwındaǵı eń zárúrli dáwir esaplanadı. Jigitlerdiń individual -psixologiyalıq qásiyetlerine tómendegiler kiredi:

Temprament túrleri hám olardıń jigitler xarakteri qalıplestiriwi:

Temprament - shaxstıń tug'ma, biologiyalıq tiykarǵa iye bolǵan psixofiziologikalıq qásiyetleri bolıp, bul ayırıqshalıqlar jigitlerdiń xarakter, qızıǵıwshılıq, turpayı hám iskerligine tikkeley tásir kórsetedi. Tiykarǵı temprament túrleri tómendegiler:

1. Xolerik temprament - aktiv, impulsiv, tez charchaydı, emosional tárepten tez ózgeriwshen.

2. Melankholik temprament - introver, ishkerindegi keshinmalari menen jasaydı, tez tásirlenedi, iqtıyatlı.

3. Sangvinik temprament - aktiv, jańa zatlarǵa qızıǵıwshı, optimist, kommunikabel.

4. Flegmatik temprament - arqayın, aste háreket etedi, ózgerislerge turaqlı, emotsional tárepten turaqlı.

Bul temprament túrleriniń jigitler xarakter hám turpayına táhiri sezilerli boladı.

Xarakter aksentuatsiyalari hám olardıń jigitler ózligine táhiri:

Xarakter aksentuatsiyasi - xarakterdiń ayırım tárepleri hádden tıs rawajlangan jaǵdayı. Jigitlerde ushraytuǵın tiykarǵı xarakter aksentuatsiyalari:

1. Cikloitik - sezim-sezimleri tez ózgeredi, optimal jaǵdaydan tez shetke shıǵadı.

2. Demonstrativ - itibarǵa intıladı, ótirik gápiradi, ózin jaqsı kórsetiwge háreket etedi.

3. Pedagogikalıq - basqalarǵa tásir ótkeriwdi, olardı ózgeriw-reformalawdı qáleytuǵın.

4. Gipertimik - kóterińki keypiyette jasaydı, jańa ideyalarǵa bay, kóp aktiv.

Xarakter aksentuatsiyalarining jigitler jeke jáne social rawajlanıwına kórsetetuǵın táhiri sezilerli bolıwı múmkin.

Jigitlerdiń qábiletleri hám olardıń rawajlanıwı: Jigitlik dáwirinde insan potencialınıń hár túrli formaları - intellektuallıq, dóretiwshilik, kommunikativ, shólkemlestiriwshilik hám basqa qábiletler aktiv rawajlanadı. Bul qábiletlerdiń tabıslı rawajlanıwı jigitlerdiń keleshektegi iskerligine, jeke hám kásiplik ósiwine úlken tásir kórsetedi. Jigitler ushın qábiletlerdi anıqlap, olardı izbe-iz rawajlandırıw zárúrli áhmiyetke iye.

Jigitlerdiń mıtajlikleri, motivları, qádiriyatları hám mápleri: Jigitlik dáwiri shaxstıń mıtajlikler, motivlar, qádiriyatlar hám mápler sistemasınıń qáiplesiw hám rawajlanıw dáwiri esaplanadı. Bul dáwirde jigitlerdiń fizikalıq, psixik, social, ruwxıy mıtajlikleri aktiv kórinetuǵın boladı, olardı qandırıw jolları qıdırıladı.

Jigitler ushın zárúrli bolǵan qádiriyatlar - shańaraq, doslıq, muhabbat - muhabbat, kásiplik tabıs, ǵárezsizlik, erkinlik, kepillik berilgenlik hám basqalar. Bul qádiriyatlardıń rawajlanıwı jigitlerdiń jeke jáne social jetikligin belgileydi.[3]

Jigitlerdiń motivları hám mápleri - bilim alıw, kásiplik kámal tabıw, jámiyette óz ornın tabıw, jańalıq jaratıw, keleshekti joybarlaw hám ámelge asırıw sıyaqlı táreplerden ibarat. Bul motivlar jigitlerdi aktiv turmıslıq pozitsiya tutıwǵa, ǵárezsiz qarar qabıllawǵa odaydı.

Jigitlerdiń social -psixologiyalıq qásiyetlerine tómendegiler kiredi: Jigitlerdiń shańaraq ortalıǵında qáiplesiwi hám shańaraqtıń jigitler rawajlanıwındaǵı roli:

Shańaraq - jigitlerdiń qáiplesiwi hám rawajlanıwda megha rolnı oynaydı. Shańaraq ortalıǵında jigitler ózleriniń tiykarǵı social -psixologiyalıq qásiyetlerin, pikirlew tárizi, minez-qulıq úlgilerin, turmıslıq qarawların, qádiriyatların qáiplestirip baradılar.

Saw shańaraq ortalıǵı jigitlerdiń fizikalıq, intellektuallıq, etikalıq hám ruwxıy tárepten jetilisiwine unamlı tásir kórsetedi. Shańaraqqa tiyisli ortalıq jigitlerge úlken-kishilerge húrmet-itibar kórsetiwdi, shańaraq aǵzalarınń huqıq - minnetlemelerin ańǵarıwdı, birgelikte oylap jumıs tutıwdı uyretdi.

Shańaraqta jigitler shańaraqqa tiyisli qádiriyatlar, dástúrler, úrp-ádetlerdi, milliy ideologik qarawları ózlestirediler. Sonıń menen birge, shańaraq jigitler ushın social -psixologiyalıq qorǵaw, qollap-quwatlaw hám qawipsizlik dereki bolıp xızmet etedi.

Jigitlerdiń doslıq hám sheriklik munasábetlerinde ózin kórinetuǵın etiw: Jigitlik dáwiri doslıq munasábetleriniń rawajlanıwı ushın júdá qolay esaplanadı. Doslıq jigitler ushın óz-ara húrmet, isenim, sadıqlıq, qorǵaw hám qollap-quwatlaw, erkin pikir almaslaw, jámáát bolıp jumıs tutıw sıyaqlı sapalardı qáiplestiriwde zárúrli áhmiyetke iye. Jigitler ortasındaǵı sheriklik munasábetleri de úlken áhmiyetke iye. Bunday sheriklik jigitlerdiń birgelikte pikirlew, mashqalalardı sheshiw, maqsetlerge erisiw, dóretiwshilik iskerlik aparıw, sın kózqarastan hám dóretiwshilik pikirlewdi rawajlandırıw imkaniyatın beredi.

Jigitler doslıq hám sheriklik munasábetlerinde ózleriniń bir qatar social -psixologiyalıq qásiyetlerin - kommunikativlik, liderlik, isbilermenlik, juwapkerlik, awızbirshilik, óz-ara járdem kórsetiw sıyaqlılardı kórinetuǵın etediler.

Jigitlerdiń jámáát hám gruppaa aǵzası retindegi turpayı: Jigitlik dáwiri túrli jámáát hám gruppalarǵa aǵza bolıw, olardıń turmısında aktiv qatnas etiw dáwiri esaplanadı. Jigitler oqıw gruppaları, jámáátler, háreketler hám basqa birlespelerdiń aǵzası retinde qatnasadı. Jáamáát hám gruppaa ortalıǵı jigitler ushın óz-ózin kórsetiw, óz-ózin ańǵarıw, jetekshilik hám básikishilik sapaların kórinetuǵın etiw, jámáát máplerin ańǵarıw hám olardı qorǵaw, gruppaa qararların qabıllaw, óz-ara sheriklikti rawajlandırıw imkaniyatın beredi. Jáamáát hám gruppaa aǵzası retinde jigitler óz turpayında juwapkerlik, jámáátviylik, ıntızamlılıq, iskerlik,

járdemsevarlik, óz-ara húrmet sıyaqlı sapalardı kórinetuđın etediler. Bul olar jeke rawajlanıw jáne social aktivligin asırıwǵa járdem beredi. Bunnan tısqari, jigitlerdiń jınıslıq psixologiyalıq qásiyetleri de úlken áhmiyetke iye. Bul jasda jınıslıq etuk-etpegenlik, jınıslıq munasábetler, genderli identifikaciya sıyaqlı máseleler júzege keledi.

Jigitlerdiń jeke hám kásiplik rawajlanıwı.

Jigitlik dáwiri shaxstıń óz-ózin ańǵarıw hám óz-ózin bahalaw processinde eń zárúrli basqısh esaplanadı. Bul dáwirde jigitler óz múmkinshiliklerin, poziciyasın ańǵarıwǵa, keleshekтеgi turmısı ushın joybarlaw hám óz baǵdarın belgilewge háreket etediler.

Jigitlerdiń kásiplik jónelis hám qızıǵıwshılıqların qáiplestiriw - olardıń keleshekтеgi kásiplik iskerligi ushın júdá zárúrli áhmiyetke iye boladı. Bul process jigitler bilim, kónlikpe hám qábiletlerin kórinetuđın etiw, kásiplik múmkinshiliklerdi ańǵarıw, kásiplik jobalardı dúziw hám ámelge asırıw sıyaqlı kóplegen komponentlerden ibarat.

Jigitlerdiń dóretiwshilik hám intellektuallıq potencialın rawajlandırıw olardıń ulıwma jeke rawajlanıwınıń ústin turatuđın baǵdarlarınan biri esaplanadı. Jigitler bul dáwirde dóretiwshilik izertlewler, intellektuallıq iskerlik, ilimiy izertlewler aparıwǵa beyim boladılar.[5]

Juwmaq etip aytqanda, Jigitler psixologiyasi salasında ámelge asırılıwı kerek bolǵan tiykarǵı jónelisler - jigitlerdiń jeke hám kásiplik rawajlanıwın qollap-quwatlaw, olardıń jınıslıq, shańaraqqa tiyisli jáne social munasábetlerin muwapıqlastırıw, intellektuallıq, dóretiwshilik hám sport potencialın rawajlandırıw, jámiyetke maslastırıwda shańaraq, tálim hám jámiyetshilik kúshlerin birlestirib islew, jigitler ushın social, ekonomikalıq hám huqıqiy kepilliklerdi támiyinlew sıyaqlılardan ibarat. Bul máselelerdi sheshiw jigitlerdiń jeke hám kásiplik kámalıǵe, sonıń menen birge, jámiettiń turaqlı rawajlanıwına xızmet etedi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Qosimova S. N. Jigitler psixologiyasi.-T.: " Ózbekstan", 2016.
2. Abdullayeva Sh. Q., valiyeva Z. T. Jigitler psixologiyasi.-T.: " Jańa ásir áwladı", 2011.
3. Sultanov E. Y. Oq jay jaslar psixologiyasi.-T.: " Oqıtıwshı", 2017.
4. Nıshanova Z. T. Jaslar psixologiyasi.-T.: " Pán hám texnologiya", 2013.
5. Qurbonov R. X. Shańaraq psixologiyasi.-T.: " Jańa ásir áwladı", 2015.
6. www.google.com

TA'LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNING AHAMIYATI

Anarbayeva Muqaddas Ibadullayevna

Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani 10 -maktab

Annotatsiya: Maqolada Finlandiya ta'lim tizimi tuzilmasi, tajribasi va zamonaviy ta'lim dasturlari qisqacha tahlil qilingan. Shuningdek ta'lim tizimidagi yutuqlari, ta'lim standartlari monitoring qilingan. O'zbekistondagi ta'lim tizimi bilan taqqoslangan.

Kalit soʻzlar: mamlakat, taʼlim, xorijiy tajriba, taʼlim inspeksiyasi, tuzilma, xalqaro baholash.

Bugun globallashuv jarayonlari shiddatli rivojlanib borayotgan davrda barcha jabhalarda boʻlgani kabi yoshlar siyosatini amalga oshirish, ular bilan ishlash sohasida ham yangicha qarashlar, munosabatlar tizimini ishlab chiqish hamda xorijiy davlatlarning ilgʻor texnologiyalaridan foydalanish taqozo etilmoqda. Zero, ushbu tajribalarni tahlil qilish, ulardan mamlakatimiz amaliyotida unumli foydalanish yoʻllarini oʻrganish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin. Vatanimiz taʼlimi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirdi va kechirmoqda. Ulardan koʻzda tutilgan maqsad maktab faoliyatini demokratlashtirish uning, insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosida oʻquv tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Yangilangan taʼlim toʻla maʼnoda yangicha tafakkur, sogʻlom fikr demakdir. Davlatimiz intellektual salohiyati yuqori kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yoʻnaltirilgan davlat siyosatini yuritib kelmoqda. Bunda albatta taʼlim sohasidagi innovatsiyalarga katta eʼtibor qaratilmoqda.

Buni 2020 yil 23 sentaybrda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonunida ham koʻrishimiz mumkin. Qonunda “Taʼlim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat taʼlimni modernizatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladi hamda yangi taʼlim texnologiyalari va resurslarini ishlab chiqishga, ularni sinovdan oʻtkazishga hamda taʼlim jarayoniga joriy etishga qaratilgan” ligi taʼkidlanadi.

Taʼlim samaradorligini oshirish, shaxsning taʼlim markazida boʻlishini va oʻquvchi va talabalarning mustaqil bilim olishlarini taʼminlash uchun taʼlim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik koʻrgan va oʻz sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol uslublarini biladigan, ulardan oʻquv-tarbiyaviy mashgʻulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan oʻqituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan oʻqituvchilari pedagogik texnologiyalar, interfaol usullarni bilishi va olgan bilimlarini oʻquv-tarbiyaviy mashgʻulotlarda qoʻllashga oʻrganishlari lozim. Bugun mamlakatimizda taʼlim sifatini baholashda yangicha monitoring qilish xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash va qiyoslashga asoslangan tizim shakllanmoqda. Taʼlim sifatini baholash boʻyicha xalqaro tajribalarni oʻrganish, mavjud tizim bilan qiyosiy tahlil qilish, tegishli yoʻnalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, taʼlim sifatini baholash boʻyicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi. Shunga muvofiq. Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirining 2017-yil 16-sentabrdagi “2017-2018 oʻquv yilida taʼlim sifati monitoring tizimini yanada takomillashtirish va tashkil etish toʻgʻrisida”gi 299-sonli buyrugʻining 3-band 2-xatboshida: Monitoring jarayonini tashkil etish, nazorat materiallari va turlarini ishlab chiqishda ilgʻor xalqaro tajribalar (PISA, TIMSS va h.k.) ni oʻrgangan holda

milliy monitoring tizimini takomillashtirish va uning natijalari asosida o'quv-metodik jarayonni yanada rivojlantirish choralari ko'rish haqida aytib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida Finlyandiyaning ta'lim sohasidagi ijobiy tajribasini mamlakatimiz ta'lim tizimiga hamda Milliy o'quv dasturiga joriy qilish vazifasi belgilangan edi.

Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan finlyandiyalik ekspertlar va rasmiy doira vakillari bilan qator ishlar amalga oshirilmoqda 2023- yilning 21-aprel kuni Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Finlyandiyaning Ta'lim va madaniyat vazirligi hamda Milliy ta'lim agentligi hamkorligida "Finlyandiya ta'lim dasturlarini o'rganish: ta'lim dasturlari va o'quv materiallari" mavzusiga bag'ishlangan onlayn seminar tashkil etildi. Maktablarda dars soatlarining taqsimoti haftasiga 1-2-sinflar uchun eng kamida 19 soat qilib belgilangan bo'lsa, 9-sinflar uchun esa ushbu ko'rsatkich 30 soatni tashkil etadi. Maktablar o'quv rejasiga ko'ra, to'qqiz yillik haftalik umumiy yuklama 222 soat. Bu ko'rsatkich O'zbekistonda 254 soatni tashkil etadi.

Finlandiyada maktab o'quvchilarida kasblar va sohalar bilan bog'liq ko'nikma va bilimlarni shakllantirishda o'ziga xos yondashuv mavjud. Bunda bilim, ko'nikma bilan bir qatorda yondashuv, munosabat va iroda kabi xususiyatlar ham muhim ahamiyatga ega. Ya'ni o'quvchilarga hayotlari davomida egallashlari lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar bilan birga hayotiy transversal kompetensiyalar o'quv dasturlarining bir qismi sifatida muntazam o'qitib boriladi. Bundan tashqari, o'quv dasturlarining ta'lim jarayonlariga tatbiq etilishida an'anaviy darsliklar bilan bir qatorda innovatsion texnologiyalar yordamida tashkil etilgan elektron qo'llanmalar hamda turli formatdagi materiallardan ham keng foydalaniladi. Masalan, Finlyandiya davlat teleradiokompaniyasi va Finlyandiya ta'lim agentligi hamkorligida o'qituvchilarga kundalik hayotini mazmunli o'tkazishi, o'z-o'zini rivojlantirishlari va boshqa o'qituvchilar bilan o'zaro muloqot qilishlari uchun alohida telekanal tashkil qilingan. Telekanal dasturlari asosan yoshlarda media va raqamli texnologiyalardan foydalanish mahorati, ta'lim olish, tillarni o'rganish bilan bog'liq ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda Finlyandiya qo'llanilayotgan o'quv dasturlari o'zbek tiliga tarjima qilinib, izchillik bilan o'rganilmoqda. Mazkur jarayonda Finlyandiya ta'lim tizimining mahalliy sharoitga mos jihatlari yangilanadigan o'quv dasturlariga singdiriladi.

Finlyandiya ta'lim siyosatida uchta muhim tamoyil mavjudligini ta'kidlash mumkin: bilimga asoslangan jamiyat haqidagi qarashlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim tengligini ta'minlash va mahalliy hokimiyat vakolatlarini kuchaytirish. Mahalliy hokimiyat vakolatlarini kuchaytirish jarayonini o'tgan asrning 70 yillaridan 2000-yillarga qadar Finlyandiya ta'lim tizimidagi eng muhim o'zgarishlardan biri sifatida ta'kidlash mumkin. Ta'lim muassasalarini boshqarish asosan mahalliy hokimiyatlar tomonidan amalga oshiriladi. Ta'lim muassasasi faoliyatiga deyarli hech kim aralashmaydi. Finlyandiya ta'lim tizimining yana bir tamoyili bo'lgan ishonch madaniyati tufayli maktablarga tekshiruv tashriflari yo'q.

Finlyandiya ta'lim tizimining asosini quyidagi 7 ta tamoyil tashkil etadi deyish mumkin:

1. Tenglik - Finlyandiyadagi barcha maktablar o'quvchilarga bir xil sharoit va bir xil ta'lim tizimini taqdim etadi.

2. Bepul ta'lim - bepul ta'lim berish bilan birgalikda o'quvchilarga barcha o'quv jihozlari va tushlik ham bepul taqdim etiladi.

3. Individuallik – darslarni o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchilar bilan o'qituvchilar yoki yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilar alohida shug'ullanishadi. Finlyandiyada o'quvchilar qo'shimcha darslarga qoldirilmaydi.

4. Amaliylik – o'quvchilarni imtihonga emas balki hayotga tayyorlash. Darslarda

o'quvchilar, masalan, viza kartadan qanday foydalanish, shartnomalar tuzish, saytlar

yaratish, tikish, ovqat pishirish, marketing va sotuv ishlari bilan shug'ullanish kabi

amaliyishlar bilan shug'ullanadilar.

5. Ishonch va o'qituvchilar salohiyati – barcha maktablardagi o'qituvchilar magistratura darajasiga ega bo'lishlari shart. O'quvchilarga uy vazifasi deyarli berilmaydi, ota-onalar farzandlari bilan uyda shug'ullanmaydi va o'qituvchilarning o'quvchilarni hayotga tayyorlashiga to'liq ishonishadi.

6. Ixtiyoriylik – dars jarayonida qay darajada ishtirok etish o'quvchilar ixtiyorida. O'qituvchilar o'quvchilarni darsga qiziqтира olmasalar o'quvchilar sinfni tark etishi yoki o'zlari yoqtirgan boshqa biror mashg'ulot bilan shug'ullanishlari mumkin.

7. Mustaqillik – fin ta'lim tizimida o'qituvchilar o'quvchilarni imkon qadar o'zlari bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishlari kerakligiga yo'naltiradi. Bilimlarni hayotda qanday tatbiq etish ko'nikmalari amaliy mashg'ulotlar yordamida shakllantiriladi. O'quvchilarning har qanday fikrlari inobatga olinadi va qo'llab quvvatlanadi. Finlyandiya ta'limining muhim xususiyatlaridan yana biri shundaki, u barcha darajalarda, ya'ni maktabgacha ta'limdan oliy ta'limga qadar to'liq bepul ta'lim olishni ta'minlaydi. Shuningdek, barcha o'quv materiallari, darsliklar, sog'liqni saqlash xizmatlari va maktabga qatnash transport xizmatlari ham bepul amalga oshiriladi hamda boshlang'ich va o'rta ta'limda barcha o'quvchilarga maktablarda bepul tushlik beriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari ularning davlatlarini rivojlanishiga katta xizmat qilib kelmoqda. Xitoyliklarning —Bir yilni ko'zlasangiz sholi eking, ellik yilni ko'zlasangiz daraxt eking, yuz yilni ko'zlasangiz farzand tarbiyalang degan hikmatidan bugungi kunda xorij davlatlarning deyarli barchasi samarali foydalanmoqda. Shu nuqtai-nazardan, bizning mamlakat ham unib-o'sib kelayotgan barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor qaratmoqda. Bu borada kerak bo'lsa, xorijiy davlatning ilg'or tajribalaridan unumli foydalanish orqali milliy ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish davr talabi hisoblanadi. Zero, mamlakatimiz ezgu maqsad uchinchi Renessans davrini barpo etishni rejalashtirgan. Ana shunday ezgu maqsadlarni esa albatta bugungi kunda voyaga yetayotgan avlod amalga oshiradi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya esa ana shu avlodni ta'limning birinchi bo'g'inidan savodli va tarbiyali bo'lishini ta'minlashga xizmat qilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, 2020 yil 23 sentabr, O'RQ – 637;
2. Yo'ldoshev J.F. Xorijda ta'lim (metodik qo'llanma) - Toshkent: 1995- yil
3. G.Anorqulkova, A. Karimov.Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xos yo'nalishi uslub va tahlili. Xalq ta'limi ilmiy metodik jurnali. 2017-yil. 3-son.

MAKTABGACHA TA'LIMDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Jo'rayeva Dilafro'z Shuhrat qizi

Guliston davlat universiteti tayanch doktranti, dili95samira20@gmail.com

Kalit so'zlar: STEAM texnologiyasi, integratsiya, intellektual qobiliyat, tajriba, innovatsion texnologiya.

Dinamik o'zgaruvchan dunyo sharoitida inson hayotining barcha sohalariga yangi texnologiyalar joriy etilmoqda. Tadqiqotchilar zamonaviy maktabgacha yoshdagi bolalarning 65% kelajakda mavjud bo'lmagan kasblarga ega bo'lishiga ishonishadi. Kelajakda yosh mutaxassislar tabiiy fanlar va muhandislik kabi turli texnologik sohalardan ko'nikma va malakalarga muhtoj bo'ladi. Hozirgi vaqtda bolalarimizni maktabgacha ta'lim tashkilotida nimaga qiziqtirish mumkin? Aynan STEAM texnologiyasi bolalardan tadqiqotchilar, kashfiyotchilar, olimlar, texnologlar, rassomlar va matematiklarning avlodlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishga imkon beradi. Olingan ma'lumotlarni olish, qayta ishlash va amalda qo'llash qobiliyatini rivojlantirish STEAM - ta'lim texnologiyasining asosini tashkil etadi. Respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan.[1] Bu vazifalarni amalga oshirish uchun maktabgacha yoshdagi bolalarni davlat talablariga muvofiq tafakkurini o'stirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish bo'yicha ta'lim berish dasturlari ishlab chiqildi. Ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash, ta'lim va tarbiyani yuksaltirish, yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Texnologiyalar shunchalik tez rivojlanmoqda va o'zgarib bormoqdaki, maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogi har doim ham ular bilan birga bo'la olmaydi. So'nggi o'n yillikda pedagogika har doim ham pedagogga tushunarli bo'lmagan yangi atamalar bilan to'lib bormoqda. Bolalar uchun juda samarali resurs imkoniyatlariga ega bo'lgan ta'lim yechimlari (qurilish to'plamlari, raqamli laboratoriyalar, robot-to'plamlar va o'yinlar, kompyuter o'yinlari majmualari, mualliflik o'yin vositalari, multistudiyalar va boshqalar) turlari ko'payib bormoqda. Ushbu to'plamlarning maqsadi: STEAM texnologiyalari haqidagi tushunchalarini aniqlashtirish va eng yaxshi natijalarga erishishdir. [2]

STEAM - hozirgi kunda dunyo ta'lim tizimining eng asosiy urf bo'lgan innovatsion metodlaridan biri hisoblanadi. Bir qaraganda STEAM abbreviaturasi

juda murakkab ko‘rinadi, lekin uni alohida ko‘radigan bo‘lsak sodda va aniq ekanini ko‘rishimiz mumkin, ya‘ni: S – science, T – technology, E – engineering, A – art, M – mathematics, yoki tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik san‘ati, ijod, matematika. Oddiy so‘z bilan aytganda, zamonaviy dunyoda eng ko‘p talab etilayotgan fanlardir. Hech kimga sir emaski, ko‘plab fan tarmoqlarida katta yutuqlarga erishish uchun o‘zlashtiriladigan turli sohalardagi bilimlarning integratsiyasi talab etiladi. Aynan shunday muammolarni hal qilishda STEAM texnologiyasi yordam beradi. Bu metodika ta‘limni aralash turda olib borish va egallangan nazariy bilimlarni kundalik hayotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. STEAM bu maktabda va maktabdan tashqarida loyiha va o‘quv–tadqiqot faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi innovatsion texnologiyadir. Ushbu metod yordamida fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki integratsiyalashgan holda, umumiy bog‘liqligini ko‘rsatib o‘rgatiladi.

STEAM ta‘limi nafaqat o‘qitish usuli, balki fikrlash tarzidir. STEAM ta‘lim muhitida bolalar bilimga ega bo‘ladilar va darhol undan foydalanishni o‘rganadilar. Shuning uchun, ular o‘sib-ulg‘ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof-muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o‘zgarishi bo‘ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu yerda faqat bitta mavzu bo‘yicha bilimga tayanish yetarli emas. Bundan ko‘rinadiki, STEAM ta‘lim jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar amalda bajargan faoliyatlarini ijodiy fikrlash orqali tushuntirib berishga harakat qiladilar.[2]

STEAM yondashuvi bizning ta‘lim va tarbiyaga bo‘lgan qarashimizni o‘zgartirmoqda. Amaliy qobiliyatga e‘tibor berib, bolalar o‘zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o‘rganadi. Ushbu ko‘nikmalar va bilimlar asosiy ta‘lim-tarbiya vazifasini tashkil etadi. Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. STEAM ta‘lim texnologiyasi Amerika davlatida ishlab chiqilgan. XXI asr boshlarida AQSH iqtisodiyotida ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika sohalari eng tez rivojlanadigan tarmoqlar hisoblandi. Shu asosda AQSH va uning yetakchi kompaniyalari butun dunyo bo‘ylab raqobatbardosh bo‘lishi uchun texnologik innovatsiyalarni tatbiq etishda STEM ni ta‘lim tizimiga integratsiya qilish harakatiga katta qiziqish uyg‘otdi.

Amaliy faoliyatda tajriba-sinovdan muvaffaqiyatli o‘tdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEM ta‘lim tizimi shu tarzda shakllandi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik bu yerda **art** qo‘shildi va endi STEAM oxirigacha shakllandi. Bolalar ushbu mavzular, aniqrog‘i ushbu fanlardan bilimlar kelajakda ularning yuqori malakali mutaxassis bo‘lib yetishishiga yordam beradi, deb hisoblashadi. Oxir oqibat, bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo‘llashadi. Bundan ko‘rinadiki, an‘anaviy o‘qitish uslublari bilan taqqoslaganda, maktabgacha ta‘limda STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o‘tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o‘z g‘oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta‘lim yondashuvi bolalarga nazariy va amaliy ko‘nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon

beradi va keyingi ta'lim jarayonini osonlashtiradi. STEAM texnologiyasi bolalarga dunyoni tizimli o'rganish, atrofdagi hodisalarning o'zaro munosabatlarini aniqlash va tushunish, yangi, g'ayrioddiy va juda qiziqarli narsalarni kashf qilish imkonini beradi. Yangi narsalar bilan tanishishni kutish qiziqish va kognitiv faoliyatni rivojlantiradi; o'zingiz uchun qiziqarli vazifani aniqlash, usullarni tanlash va uni hal qilish uchun algoritmlar yaratish, natijalarni tanqidiy baholash qobiliyati - muhandislik fikrlash uslubini ishlab chiqish va jamoaviy faoliyat qobiliyatini rivojlantiradi. Bularning barchasi bolaning rivojlanishining tubdan yangi, yuqori darajasini ta'minlaydi va kelajakda kasb tanlashda yanada keng imkoniyatlar yaratadi.[4]

STEAM ta'lim texnologiyasining boshqa texnologiyalardan farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari uchun bir vaqtni o'zida aqliy faoliyat bilan birga amaliy faoliyatni uyg'unligini ta'minlaydilar. Bunda "Aql va qo'l" iborasiga amal qiladilar. Olgan bilimlarini amaliy faoliyatda ko'rib tezda uqib, o'zlashtirib oladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarning 3-7 yosh davrida intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish juda qo'l keladi. Ko'pgina tadqiqotchilar maktabgacha yosh davrini intellektual rivojlanishning eng qulay davri ekanligini isbotlaydilar. Bola hayotining maktabgacha yosh davrida shaxsiy intellektual qobiliyatlari jadal rivojlanish jarayoni hisoblanadi.[3]

An'anaviy o'qitish uslublari bilan taqqoslaganda, maktabgacha ta'limda STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o'tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o'z g'oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta'lim yondashuvi bolalarga nazariya va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va universitetga kirish va keyingi o'qishni osonlashtiradi. Hozirda investorlar, biznes-homiylar, yirik biznes vakillarining ilmiy-innovatsion loyihalarga qiziqishi ortib boryapti. Ilg'or ishlanmalarning paydo bo'lishi uchun, shubhasiz, STEAM – markazlar yaratilishi, robot texnikasi kabi fanlar kiritilishi, dasturlashtirish asoslarini informatika faniga integratsiyalash, mavjud tajribadan pedagoglarni mavzuviy hamjamiyatlarga birlashtirish yo'li bilan foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli Qarori <http://lex.uz/docs/-4327235>
2. Maxmutazimova Yu.R. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalari. O'quv qo'llanma – Toshkent.: Tamaddun, 2022. 148b
3. Jalilova S.X. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi Toshkent 2017. "Faylasuflar" nashriyoti – 496b
4. Djurayeva B.R., Tojiboeva X.M., Nazirova G.M. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendentsiyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent 2016. "O'zPFITI" nashriyoti - 110b

ABDULLA QODIRIYNING «O‘TKAN KUNLAR» ROMANIDAGI TARIXIY SO‘ZLARNING LUG‘AVIY-MA’NOVIY TALQINI

Kambarov Ma’ruffan Abduhakimovich

*Guliston davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasida katta
o‘qituvchisi e-mail maribjon_kambarov@mail.ru*

Annotatsiya

Tarixiy so‘zlar o‘zaro arxaizmlardan keskin farq qiladigan hodisa bo‘lib, o‘tmish voqeligining nomidir. Tarixiy so‘zlar nominativ vazifadan, davrni gavdalandirish vazifasidan tashqari, uslubiy vosita bo‘lib ham xizmat qiladi. Tarixiy so‘zlar lug‘atdan ma’lum bir leksik birlikning tushib qolishiga teng: voqelikning yo‘qolishi shu voqelikning nomi bo‘lgan leksik birlikni keraksiz qilib qo‘yadi (mas.: beklarbegi (turkiy) tar. – xonliklar davrida yuqori ma’muriy unvon va lavozim). Tarixiy so‘zlarda lug‘at boyligiga qaytishi juda oz uchraydi, qaytishida ularning leksik ma’nosi tubdan o‘zgaradi, ya’ni ma’no jihatidan yangilanadi, go‘yo yangi leksik birlikka aylanadi (mas.: vazir, mahkama). Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida XIX asrning 50-60-yillardagi voqealar tasvirlangan. Muallif davr ruhini ochib berish uchun tarixiy so‘zlardan unumli foydalanadi. Ushbu ilmiy maqola tasviriy va tarixiy jahada tahlil qilinadi.

Annotation

Historical words are a phenomenon that is sharply different from mutual archaisms and is the name of past realities. Historical words, in addition to their nominative function, the function of embodying an era, also serve as a methodological tool. Historical words are equivalent to the loss of a certain lexical unit from the dictionary: the loss of reality makes unnecessary the lexical unit, which is the name of this reality (for example: *beklarbegi* (turkish) tar - a high administrative title and position during the Khanate period). Historical words very rarely return to the vocabulary; when they return, their lexical meaning changes radically, that is, they are updated in meaning, as if they become a new lexical unit (for example: minister, court). Abdullah Qadiri’s novel *Days Past* describes the events of the 1950s and 1960s. The author effectively uses historical words to reveal the spirit of the times. This scientific article is analyzed from a descriptive and historical point of view.

“Tarixiy so‘zlar tilning o‘tmish tarixiga oid eski lug‘aviy birlik bo‘lib, hozir o‘tmish voqeligini nomlash zaruriyati tufayli ishlatiladi (istorizm)”[1]. Ushbu iqtibos muallifi bo‘lgan atoqli olim Sh.Rahmatullayev, shuningdek, o‘zbek tilshunos olimasi L.Abdullayeva [2] o‘zlarining ilmiy-tadqiqot ishlarida tarixiy so‘zlar (istorizmlar) to‘g‘risida batafsil ma’lumot berishgan. Akademik nashr hisoblangan “O‘zbek tili leksikologiyasi»da ham tarixiy so‘zlarga olimlarimiz batafil to‘xtalgan [3].

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida XIX asrning 50-60-yillaridagi voqealar, ya’ni Qo‘qon xonligining podshosi - Xudoyorxon hukmronlik qilgan davrlar tasvirlangan. O‘shanda xonlik g‘alayonlar, ixtiloflar, nizolar davrini, iqtisodiy va siyosiy tanazzul davrini boshidan kechirardi. Romanda voqealari

Marg‘ilon bilan Toshkentda kechadi. Abdulla Qodiriy o‘sha zamonlarda xonlar zulmi, amaldorlarning beboshligi, saroy ahlining makkorligi, munofiqiligini ishonarli, yorqin aks ettiradi. Muallif davr ruhini ochib berish uchun tarixiy so‘zlardan unumli foydalanadi. Asar birinchi navbatda g‘oyat hayotiyligi bilan ajralib turadi. Roman go‘zal til bilan yozilgan bo‘lib, asarning tilidan uning xalqning boy va ajoyib tilini g‘oyatda yaxshi bilganligi yaqqol seziladi. Romanda muallif 60 dan ortiq tarixiy so‘zlardan foydalangan. Ularni yuqorida ta’kidlaganimizdek, tasviriy va tarixiy jabhada ekanligini aniqlashga harakat qilamiz.

1. Tarixiy (diaxron) jabhadagi tarixiy so‘zlar. “O‘tkan kunlar” romanida muallif asar yuzaga kelgan vaqtda ham ishlatilgan, biroq qo‘llanishi uzoq “moziy”ga borib taqaladigan ijtimoiy-siyosiy lug‘aviy birliklar hisoblangan tarixiy so‘zlardan unumli foydalangan. Ayni shunday tarixiy so‘zlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin [4]:

Bek (turkiy-dastlabki ma’nosi “katta”, “yirik”, keyinchalik ma’no taraqqiyoti natijasida bu sifat otga aylangan. O‘zbek tilida a / e unlisi ye unlisiga, g undoshi k undoshiga almashgan : *beg* / *bek*.) [5]. Bu so‘z qadimgi turkiy tilda *bag* [6], *begII* [7] tarzida talaffuz qilingan. (O‘TIL 2006-2008, 214-bet; O‘TIL 2023, 374-bet, tarixiy so‘z) - turkiy xalqlarning ba’zilarida xonliklar davrida davlat arboblari, shahar yoki viloyat hokimlariga, ularning bolalariga ham berilgan faxriy unvon hamda shunday unvonga sazovor bo‘lgan shaxs, yuqori martabali amaldor: - Marg‘ilonni qanday topdingiz, bek aka, xushlandingizmi, yo?.. (33-bet); Hasanali qo‘ltug‘ida bir narsa bilan kirib, bek qarshisiga o‘lturdi (70-bet) ; ...men o‘z umrimdagi Toshkand beklari orasida birinchi martaba kuraman (286-bet); Xon tomonidan xiroj (zakot-soliq) uchun yuborilgan devon beklarini o‘ldirgan!» (57-bet); Atrof shahar va qishloq beklari, aksar Musulmonqulning o‘z odamlaridan (A.Qodiriy, “O‘tkan kunlar”, 77-bet); Azizbek –Turkiston xonligining eng zolim va mustabid sanalgan *beklaridan* biri (A.Qodiriy, “O‘tkan kunlar”, 85-bet); “Necha mabilig bilsa beglar ozi, bitigchi kerak –ok bitisa so‘zi” (“Beglarning o‘zi qanchalik bilimli bo‘lmasin, yorliq (yoki xabar) yozgudek bo‘lsa, albatta, kotib kerakdir” [8].

Ilg‘or (turkiy-“oldinda boruvchi”, “peshqadam”) tar. (O‘TIL 2023, 501-bet, tar.). Qadimgi turkiy tilda “old” ma’nosini anglatgan il otining il shaklidan –a qo‘shimchasi bilan yasalgan ilg‘a (“oldinga bor” fe’li mavjud bo‘lib, -r qo‘shimchasini qo‘shib, bu fe’lning sifatdosh shakli hosil qilingan (“oldinda boruvchi”). Bu sifatdosh keyingi ma’no taraqqiyoti natijasida sifatga aylangan (il + g‘a = ilg‘a-) + r > ilg‘ar > ilg‘or) [9]. Bu so‘z harbiy sohada qo‘shinning old qismi, - qo‘shinning old qismi, avangardi ma’nosida ham keng ishlatilgan: Musulmonkul *ilg‘ori* Chirchiq bo‘yiga kelib yetkanda,... (282-bet).

Ulamo (arab) - Azizbekning buyrug‘i bilan kecha o‘rda tegiga barcha Toshkand xalqi yigilgan, bu yiginda *ulamolar* ham bor, fuzalo ham bor (57-bet). Arab tilida bosh kelishik qo‘shimchasi (-un) va (-u) dir. O‘zbek tilida arabcha o‘zlashmalardan bu qo‘shimcha (-u) tushib qolgan va “ulamo” shaklida o‘zlashgan. *Ulamo* so‘zi “a’limun”, ya’ni “olimlar” so‘zining “siniq” ko‘plik shaklidir. Arab tilida “siniq” ko‘plik yasash qoliplari ko‘pdir. Shulardan o‘zbek tiliga o‘zlashgan

“siniq” ko‘plik shakllaridan [fuzala’+u], [ulama’+u] qolipida yasalgan so‘zlar nisbatan sermahsuldir. Lekin ko‘plik shaklida o‘zlashgan so‘zlar qabul qiluvchi o‘zbek tilida birlik shaklida qo‘llanishi tilshunoslikda ko‘p kuzatilgan holatdir. Masalan, fuqaro (faqirlar), ajdod (bobolar), avlod (bolalar). “Ulamo” “olimlar” degan ma’noni anglatib, “ilm bilan shug‘ullanuvchi shaxs” ma’nosini bildiradi. Islom dini qabul qilinganidan so‘ng “ulamo” so‘zi asosan “diniy ilm bilan shug‘ullanuvchi shaxs”larga nisbatan qo‘llangan va xalq tilida shunday saqlanib qoldi. XX asrning boshlaridan (jumladan, 30-yillarda ham-ta’kid bizniki. M.Q.) hozirgi kungacha ham “ulamo” so‘zining “olimlar” ma’nosi “dunyoviy ilm bilan shug‘ullanuvchi shaxs”larga nisbatan qo‘llangan va qo‘llanmoqda. Masalan: “Ulug‘ ma’rifatparvar Ibrat domlamizning “Millatni kim isloh etar? Ulamo g‘ayrat etganda millat, albatta, isloh topur” degan hikmatli so‘zlarida chuqur ma’no bor” [10].

Qushbeg‘i, qushbegi (turkiy) (O‘TIL- 2023, 318-bet, tarixiy so‘z) - amir va xonlar saryida bosh vazir yoki huquqi vazirga teng bo‘lgan yirik amaldor; hokim: - Muhammad Rajab qo‘rboshi boshini chayqab Niyoz *qushbeg‘iga* qaradi:... (287-bet); -Ul birinchi martaba o‘laroq o‘zining ichki kasalini (hoziq deb) Normuhammad *kushbeg‘iga* ochdi (130-bet); -O‘tabboy *qushbeg‘i* hozirgina ichkari o‘rdadan kaytib chiqq‘an edi. Shu orada qo‘rboshi kirib unga qulliq qildi:... (92-bet); Hasan Ali jaloyir Sulton Husayn mirzo qoshida *qushbegi* edi, shoir edi, “Boburnoma”, 135-bet).

Yasovul (mo‘g‘ulcha) –intizom saqlovchi, qo‘riqchi, katta mansabdorlar yonida yuruvchi kichik amaldor [11]. (O‘TIL-2023,149-bet, tarixiy so‘z) – O‘rta Osiyo xonliklari davrida:yuqori mansabdagi amaldorlarga xizmat qiluvchi qurolli soqchi, posbon, intizom saqlovchi, qo‘riqchi, katta mansabdorlar yonida yuruvchi kichik amaldor: - “Ahmad *yasovul* bila Qora Ahmad yurtchini dag‘i Kobuldag‘i beklarga yiborildikim,..” (Boburnoma, 149,11, 210-bet). Shu so‘z asosida *yasovulboshi* (O‘TIL-2023,149-bet, tarixiy so‘z) - yasovullar boshlig‘i, *yasovulxona* (O‘TIL-2023,149-bet, tarixiy so‘z) –yasovullar, soqchilar va quroyarog‘ turadigan bino yoki maxsus xona so‘zlari yasalgan.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida ko‘p bor takrorlangan tarixiy so‘zlardan biri *o‘rda*[12] so‘ziga kengroq to‘xtalmoqchimiz: - Azizbekning buyrug‘i bilan kecha o‘rda tegiga barcha Toshkand xalqi yig‘ilgan, bu yiginda ulamolar ham bor, fuzalo ham bor;... (57-bet); “Yormozor” mavzi‘ida shahar qo‘rg‘oniga tiralib solingan o‘rda (88-bet); - Shamayda ekanman, qanotim balsa, vatanimga uchsam, to‘ppa-to‘g‘ri xon o‘rdasiga tushsam-da, -o‘risning hukumat qonunlarini birma-bir arz qilsam, xon ham arzimni tinglasa-da, barcha elga yorlig‘ yozib....(56-bet); Yusufbek hoji boshliq yer-u ko‘kka sig‘magan muzaffar xalq *o‘rda* tevaragini qurshab tushdi (65).

O‘rda so‘zi quyidagi lug‘aviy ma’nolarni anglatib keladi: 1.Turk-mo‘g‘ul xalqlarida bir yoki bir necha qabilaga mansub urug‘-aymoqlarning yig‘ilishi, yig‘ini. 2.Turk-mo‘g‘ul davlatlari hukmdorlari, xonlarining qarorgohi, poytaxti [13]. 3.Balandlikka qurilgan saroy, qal‘a, qarorgoh. 4.Qo‘shin qarorgohi, lashkargoh, xon o‘rdasi kabi. Toshkent shahrida O‘rda degan maskan bo‘lgan. O‘tmishda shu yerda

xon oʻrdasi joylashgan, Hozirgi Oʻrda toponimi shundan qolgan.

Oʻrda soʻzidagi oʻr qismi dastlab “doʻng, “tepalik” maʼnosini anglatadi. “...qadimgi turkiy tilda “tepaga harakatlan” maʼnosini anglatgan (Mas. “Oʻrlab ketdi”, “Oʻrlab ketmoq”. Birinchi gapda –yuqoriga qarab harakatlanmoq” maʼnosi, ikkinchi gapda koʻchma maʼnoda “koʻp gapirmoq”, “boʻlar-boʻlmas gaplarni aytmoq” maʼnolarini anglatadi) or-feʼlining –u(t) orttirma qoʻshimchasini qoʻshib hosil qilingan shaklidan -u qoʻshimchasi bilan yasalgan (ESTYA, 1,472); keyinchalik ikkinchi boʻgʻindagi tor unli talaffuz qilinmay qoʻygan; t undoshi r undoshining taʼsirida jarangli tovushga, soʻz oxiridagi u unlisi a: unlisiga almashgan: (or- = ut = orut-) + u = orutu > ortu > ordu > orda:. Quyidagi manbada turkiy soʻz deyilgan, lekin oʻsha manbaning “Moʻgʻulcha soʻzlar” boʻlimiga “Oʻrda –balandlikka qurilgan saroy, qalʼa, qarorgoh” maʼnosida kiritilgan) [14]. Oʻrda–hukmdorlar qarorgohi, –“tepaga harakatlan”:
or+ut+orut+uorutu+ortu+ordu+orda -E.V.Sevortyan, “ESTYA”, 427) [15].

Qadimgi turkiy tilda “shahar” maʼnosida ordu soʻzi ham ishlatilgan; “shahar”ni anglatuvchi boshqa soʻzlardan farqli oʻlaroq “poytaxt”ni bildirgan. Mahmud Koshgʻariyning yozishicha: ordu –“shoh turadigan shahar, oʻrda”. Shuning uchun Kashyar ni Ordukend deydilar, yaʼni “shohlar turadigan shahar” demakdir..; Ordu-Balasayun yaqinidagi bir shahar, shuning uchun Balasayun ni Quzordu ham deyiladi (DLT, Nashrga tayyorlovchi Q.Sodiqov.-T.,2017, 63). Ordu soʻzi “xon saroyi, oʻrdasi” maʼnosida ham ishlatilgan: “Men u yerda “oʻrdu” deb ataladigan qarorgohda bir necha kun turib qoldim (Ibn Battuta, 2012, 370). “Devoni lugʻotit turk” asarida “oʻrdulandi” feʼli ishlatilgan: Beg bir yerig ordulandi (Bek bir yerni oʻziga oʻrda qildirdi (DLT, 123). Tilshunos olimimiz Q.Sodiqov urdu tili atamasi eski oʻzbek tilidagi ordu soʻzi asosida hosil boʻlgan degan fikrni aytadi va “bu atama boburiylar zamonidan qolgan. Boshlab u “oʻrda tili”, saroy tili” degan maʼnoni anglatib, keyinchalik butun bir xalqning yozma adabiy tiliga aylangan. Mirzo Gʻolib ana shu tilda ijod qilgan. Urdu tili –hozirgi Pokistonning davlat tilidir” (Q.Sodiqov. Til tarixi, T.,2022, 49-bet): ...ichida bir oʻrdu tushguncha yer boʻlgʻay, “Boburnoma”, 60).

Shu oʻrinda Volga daryosining quyi, past qismida joylashgan Oltin Oʻrda qarorgohi toponimiga toʻxtalsak. Oltin Oʻrda toponimi (OʻTIL-2023, 432-bet) – XIII asrning 40-yillaridan 16-asrning boshlarigacha mavjud boʻlgan, poytaxti turli davrlarda turli shaharlarda joylashgan, asosan, turkiy va moʻgʻul koʻchmanchi qabilalari ittifoqidan iborat yirik davlat markazi hisoblangan. Shu oʻrinda ushbu soʻz tarkibidagi oltin soʻzi haqida fikr yuritsak. Bu soʻzning qadimgi asl maʼnosi “zar”, turkiycha “al” (alvon, qizil) [16] va xitoy tilidagi tun //tung-mis soʻzlaridan tarkib topgan boʻlib, qizil mis maʼnosini bildirib kelgan. Oltin Oʻrda soʻzi tarkibidagi oltin leksemi esa boshqa maʼnoda, yaʼni altin-pastki, quyidagi, oldingi quyi past tekislikdagi maʼnolarni bildiruvchi soʻzdir. Lekin bu soʻz aslida Quyi Oʻrda-pastlikda, quyida joylashgan qarorgoh nomi bilan yuritilgan. Buni quyidagi manba ham tasdiqlaydi: “Oltin soʻzi qizil mis maʼnosini bildirgan. ...oʻzbek tilining Xorazm shevalarida tuncha // tungcha— misdan yasalgan kichikroq choy qaynatadigan idish. Oltin Oʻrda soʻzi tarkibidagi oltin esa, oltin - oldingi, pastki, quyidagi, quyi past tekislikdagi maʼnolarini bildiruvchi turkiy

so‘zdir. Lekin bu so‘z o‘z-o‘zidan o‘xshash bo‘lgani uchun uni «zolataya orda» tarzida tarjima qilib qo‘llab kelganlar. Asli Quyi orda — pastlikka, quyilikka joylashgan o‘rda, qarorgoh (bu shaharning o‘zi ham Volganing quyi, past qismiga o‘rmashgan) nomi bilan yuritilishi kerak edi. Qiyoslang: Oltin o‘rda — Sirdaryo viloyatidagi qishloq nomi” [17]. *O‘rda* (mo‘g‘ulcha) –hukmdorlar qarorgohi, - “tepaga harakatlan”: *or+ut+orut+ uorutu+ortu+ordu+orda* [18]:

O‘tmishda *o‘rda* so‘zidan lavozim otlari yasalgan: ordu begi, ordu bashi – “shohlar xizmatidagilarning oti” (“Devonu lug‘otit turk”, 63-bet): - O‘rda begiga ayt, hojiga bir kimxob to‘n chiqarib kiydiring! – dedi (125-bet); - *O‘rda oyimlarining* (turkiy va mo‘g‘ul xalqlaridagi hukmdorlarning ayollari, qizlari, opa-singillari- ta‘kid bizniki-M.Q.) turmushlarini ko‘rmagani uchun Kumushning ham ular bilan birga borgusi keldi...(342-bet).

Keltirilgan tarixiy so‘zlar bevosita o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan bog‘liq nomlarini ifodalaydi.

Shy bilan birga, asarda ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bog‘liq davlat tuzumi, davlat tizimiga aloqador o‘rin-joylar nomlari, jihozlar, pul birliklari, harbiy, qurol-yarog‘ va boshqa jihatlarga doir diaxron jabhadagi tarixiy so‘zlardan ham foydalanilgan. Misollar keltiramiz:

Beklik (turkiy) –tar. Bek mavqei, lavozimi yoki vazifasi : Man Oyim qishlog‘ining *bekligining* uddasidan chiqolmayman (67).

Zindon (forscha) -.....,- shuning uchun to haqiqat oshkor bo‘lgunchalik har ikkingiz *zindonda* qolarsiz (96); ... - bir darbozaning ostonasidan uch-turt qadam ichkariga kirilsa Buxoro zindonlaridan birini his etilur (51). yo‘lak zindoni - Qoqilib-suqilib yo‘lak zindonidan qutilingach bir ulug‘ ariq yoqasiga, o‘rdadek havliga chiqilur va rohat tin olinur (51). Bu o‘rinda muallif “zindon” leksemasini uslubiy vazifa sifatida qo‘llagan.

Paranji, paranja (fors) -Otabek eshik yoniga kelgandan sung uydan bir necha xotun *paranji* yopinib chikdilar (378); - Ikki-uch kiz chopib havliga tushdilar-da, Kumushbibidan *paranjini* olib uyga boshladilar (76).; - Oy tuynukdan tubanroqda, bu kun bo‘lmasa erta – chimmati qo‘lida, *paranjasi* ustida,... (292);

Chimmat - Oy tuynukdan tubanrokda, bu kun bo‘lmasa erta – *chimmati* qo‘lida, paranjasi ustida,... (292).

Mahkama (arabcha so‘z)[19] : Mirshablar tomonidan qo‘rboshi *mahkamasiga* suroqqa olib ketilgan qutidor (266);

Yorlig‘ (tarixiy so‘z)- O‘TIL(2006-2008): biror amal, unvon, suyurg‘ol va sh.k.berilganligi haqidagi rasmiy hujjat, farmon) : Azizbek Qo‘qonning *yorlig‘* va farmonlarini iltifotsiz qoldira boshladi (208).

Simkor (fors) tar. - shogirdlarga ishbay asosida to‘lanadigan ish haqi : - Yo‘q-yo‘q - deb kuldi usta Alim, - men sizga o‘xshab do‘konning ustida sira tuxum bosqan emasman, *simkorni* ko‘zim qiymaydir desangiz, men ishonar edim. (236); *tilla* (turkiy) tar.–pul birligi, qiymati 10 so‘mga teng tilla tanga, oltin : Hasanalini bolalik vaqtida Erondan kishi ugirlab kelguchi bir turkman qo‘lidan Otabekning bobosi o‘n besh *tilla* barobariga sotib olgan edi (33); -Xoji kulimsirab qo‘lidagi uch-to‘rtta oq *tanga* bilan bitta tillani Oybodoqqa uzatdi (374); - Xo‘ja Bahovaddin yo‘liga ugurib kuygan yetti *tanga* pulini Tuybekaga berib,... (267); *shashvar* (fors)

-... chip orqalari *shashvar*, miltiq, xanjar, nayza ushlagan olomon bilan liq to‘da edi (127).

Tavsifiy (sinxron) jabhadagi tarixiy so‘zlar. Ma’lumki, asar yuqorida ta’kidlanganidek, XIX asrning 50-60-yillarini o‘z ichiga oladi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, tadqiq obyekti bo‘lmish nasriy asarlarda qo‘llangan (o‘sha davrda yangi deb hisoblangan), hozirda esa eskirgan qatlamlar qatoriga o‘tib qolgan leksemalardan, asosan, zamon ruhini, koloritini aks ettirish maqsadida foydalanilgan. Bunday leksemalar ayni shu maqsadda ko‘proq personajlar nutqida, kamroq mualliflar nutqida qo‘llanilganligi kuzatiladi. Yana bir holatga borki, asar davr ruhiyatini yoritishga qaratilgan bo‘lib, leksemalarning ko‘pi hozirda iste’moldan tushib qolgan, ya’ni tarixiy so‘zga aylangan. Bular sinxron (tasviriy) jabhadagi tarixiy so‘zlar jumlasiga kiradi. Fikrimizni tasdiklash uchun misollarga murojaat etamiz: *to‘p*, *to‘pchi* (turkiy): shimoli g‘arbga qaratib yana bir - barisi uchta to‘p qo‘yulgan edi. Bu tepa ustida doimiy *to‘pchi* va qorovullar turar edilar (471); *muzaxona* (forscha) - Uy jihozga g‘oyatda boy, go‘yo *muzaxona* (eskirgan, aynan *muzei*) tusini berar edi (67); *qutidor*...qafasqa yangi solingan qushdek urinmakka olgan xotunini bosmoq bo‘ldi ... (161); *Qutidor* oilasida boshka er zoti bo‘lmay Oftoboyimning birdan-bir og‘asi bo‘lmish Ahmadbek ham umrining ko‘pini Qo‘qondami, Xo‘janddami o‘tkazgan (87); - Bu kishi bilan ikkinchi martaba tanishib ulturmaymiz, chunki, bu odam ukuguchi bilan tanishkan - Mirzakarim *qutidor* (51); - Otabek qaytadan Mirzakarim *qutidorni* ko‘zdan kechirdi (38).

Asarda tarixiy so‘z shakllaridan foydalanish holati ham kuzatiladi. Masalan: *yog‘mur* –yomg‘ir (oylar bo‘yicha ko‘z yoshini yog‘mur kabi to‘kdim), *jekirdi* –jerkidi, *kiprak* –kiprik, *jo‘blamoq*- mo‘ljalladi, *shirni* - shinni, *miqrozilamoq*, *miqroz*[20] (arabcha– qaychi). O‘TIL-2023ning 202-betida eskirgan so‘z ekanligi ta’kidlangan:... sham so‘xtasini kesadigan kichkina qaychi (199-bet) ma’nosida. Bu bilan adib davr, muhit ruhini ifodalab, tarixiy kolorit yaratish tamoyilini saqlagan.

Asardagi mushovur, qutidor, qushbegi, qo‘rboshi, hudaychi so‘zlarining hozirgi tilimizda sinonimlari yo‘q, ular mazkur predmetlarning yagona nomlari sifatida asar tili strukturasi kiritilgan bo‘lib, eski nutq uslubi xususida tasavvur beradi.

Tahlil natijasida asardagi tarixiy so‘zlar turkiycha, tojikcha-forscha va arabcha so‘zlardan iborat ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmatullayev Sh. Istorizm // Ko‘rsatilgan manba, 164- Shu manba, 163-164-betlar.
2. Abdullayeva L. Leksicheskaya stilistika....-S. 54-55.
3. O‘zbek tili leksikologiyasi, T., 1981, 151-152-betlar.
4. Keyingi o‘rinlarda keltirilgan misollardagi raqamlar Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidan olingan. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. Toshkent, Info Capital Group, 2017. (1926, 1933-yil nashrlari asosida).
5. Sh.Rahmatullayev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (turkiy so‘zlar), T., 2000, 43-bet.

6. Malov S.Ye. Pamyatniki drevnetyurkskoy rismennosti. M.Lgr.:1951., 369-bet.
7. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. I-III tomlar; Indeks. Toshkent:1960-1967., III, 169-bet.
8. Yu.X.Hojib, "Qutadg'u bilig", Vena (Hiro) nusxasi, 110 –bet, 2).
9. Sh.Rahmatullayev. O'zbek tilining etimologik lug'ati (turkiy so'zlar), T., 2000, 116-bet.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligida 2023 -yil 22-dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqidan ("Xalq so'zi" gazetasi, 2023-yil, 22-dekabr).
11. F.Is'hoqov. "Boburnoma" uchun qisqacha izohli lug'at, T., 2008, 210-bet.
12. O'zbek tilining izohli lug'ati. T., 2023, 432-bet,
13. O'zbek tilining izohli lug'ati. M.,1981, 510-bet.
14. A.Aliyev,Q.Sodiqov. O'zbek adabiy tili tarixidan. T.,1994, 19-28-betlar.
15. Sh.Rahmatullayev "O'zbek tilining etimologik lug'ati (turkiy tillar), T., 2000, 485-bet.
16. U.Tursunov, B.O'rinboyev, A.Aliyev. "O'zbek adabiy tili tarixi", T.,1995, 36-bet. Mo'g'uliston poytaxti Ulan Bator, Buryatiya avtonom viloyati markazi Ulan Ude (Rossiya) toponimlari tarkibidagi ulan so'zi alvon, qizil ma'nosini anglatadi (ta'kid bizniki-M.K).
17. U.Tursunov, B.O'rinboyev, A.Aliyev. "O'zbek adabiy tili tarixi", T.,1995, 35-bet.
18. Sevortyan E.V. Etimologicheskiy slovar tyurkskix yazikov. I-IV tomlar. M. 1981, 427-bet.
19. Hozirda mazkur atama «vazirlar hay'ati, hukumat tarkibi; hukumat ma'nosida yana qo'llana boshladi: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.
20. B.Hasanov. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at, T.,1993, 170-bet.

Shartli qisqartmalar:

Devon – Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. I-III tomlar; Indeks. Toshkent:1960-1967.

PDP – Malov S.Ye. Pamyatniki drevnetyurkskoy rismennosti. M.Lgr.:1951.

KRS - Yudaxin K.K. Kirgizsko-russkiy slovar. M.: 1965.

SSTN- Budagov L.Z. Sravnitelniy slovar turetsko-tatarskix narechiy. I-II tomlar. Sanktpeterburg: 1969-1971.

ESTYA- Sevortyan E.V. Etimologicheskiy slovar tyurkskix yazikov. I-IV tomlar. M. 1981.

O'TIL- O'zbek tilining izohli lug'ati 2006-2008; 2023.

ABDULLA QODIRIY ASARLARIDA DIALEKTIZMLAR

Sh. Xudoyqulova

GulDU

O'zbek tilshunosligining oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri barcha lahjalarni sinchiklab o'rganib chiqish va ulardagi ko'plab unutilgan so'zlarni to'plash, ularni adabiy til xazinasiga olib kirishdan iboratdir. Milliy qadriyatlarimiz, madaniy meros deyilganda o'zbek badiiy adabiyoti asarlari ham tushuniladi. Shu boisdan milliy tariximiz, an'analarimiz, madaniyatimiz,

ma'naviyatimiz o'z aksini topgan ko'pgina asarlarimiz mustaqilligimiz sharofati bilan o'zining haqqoniy talqiniga ega bo'lib, xalqimizning diqqat-e'tiboriga sazovor bo'lmoqda. Bu biz uchun mustaqillik bergan ne'matlardan biridir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning "O'z tarixi va ajdodlarini siylagan xalqning kelajagi, albatta, porloq bo'ladi" degan gaplariga amal qilib, yosh avlodning ma'naviy dunyosini kengaytirish, ularning o'zligini chuqur anglash ushbu kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib kun tartibida turgan bir paytda Abdulla Qodiriy kabi yozuvchining asarlarini har tomonlama tadqiq etish g'oyatda muhimdir.

Abdulla Qodiriy ulkan so'z san'atkori va ustasi, xalq jonli tilini yaxshi bilgan va undan mohirona foydalana olgan, o'z asarlariga singdirgan buyuk allomadir. Uning har bir asarida xalqchilik, o'zbek tilining nozik jihatlari o'z aksini topgan. Shu jumladan "Mehrobdan chayon" romanida ham xalqona so'zlarning go'zal namunalarini ko'rishimiz mumkin. Adibning qaysi asarini o'qimang har satri va har varag'ida shevaga xos so'zlarga duch kelamiz.

Yozuvchining mahorati shundaki, yirik asarlarida asosiy qahramonlar – Otabek, Kumushbibi, Anvar, Ra'no turli joylardan bo'lib, ikki shevaning vakillaridir. Bulardan tashqari saroy xizmatkorlari, saroy atrofidagi kishilar ham turli shevaga mansub kishilardir. Asarni o'qigan kitobxon o'zini shaharma-shahar, qishloqma-qishloq kezib qahramonlar orasida o'zini his etadi: *-Sen bilan men bo'lsak, qattiq nonni ham eya beramiz; jazzasi(chorasi demoqchi) choyga bo'ktirishda.* ("Mehrobdan chayon".78-bet) *-Dehqon Mahdumning hurmatiga o'rnidan turib, qo'l qovushtiradi: - O'n uch tanob yerimiz bor edi, taqsir. Chamasi yong'ish bo'g'onda*(yanglish, xato bo'lgan demoqchi), *o'ttiz uch tanobga haq sog'onlar(solganlar). Men shunga arza (ariza demoqchi) yozdirayma, ...deb*(-mi affiksi ko'p o'rinlarda –ma shaklida qo'llangan va bu bilan o'sha davr xalq jonli tilini ifodalagan). ("Mehrobdan chayon".128-bet)

"Yangi Mirzo malaka hosil qilguncha vazifa emas ekan (128-bet) Anvar Ra'noga qarab:

-O'ltur,-Ra'no.

-Tug'ulg'ondan so'ng o'sish, o'sgandan so'ng ikkov-ikkov bo'lib yashash bor.(114-bet)

Anvar tomonidan aytilgan ancha silliq va sayqallashgan bu so'zlarda mirzolik tufayli saroy adabiy muhitining ta'sirida ekanligi ko'rinadi. Xudoyorxon saroyi tili Qo'qon-Marg'ilon shevalari asosida qurilgan.

-Men zeriktirmayman... Qanday osh (ovqat demoqchi) qilay?

-Qaysi xilini buyursam ekan? – deb o'z-o'ziga savol berdi, Anvar. – **Ubraga** uquving yo'q, palovni lanj qilasan, **samsani** yopolmaysan, **tuppani** kesalmaysan, senga qayla buyurg'andan, atala qil degan yaxshi.

-Men uquvsiz bo'lsam, o'zingiz osh qiling.(202-bet)

Asardagi **o'xshaldi**(135), **eshshak**(134) **umur**(135), **sarjaz**(135), **chimxo'r**(135), **to'ppi**(163) kabilar shahar shevalariga xos so'zlardir. Bulardan tashqari so'z tarkibida undoshning (qo'sh undoshni) qo'llash orqali emotsionallik va ekspressivlikni kuchaytirgan:

-Turpoqqa ag'nadingmi, eshshak! Attang-a, essiz kiyim. Hoy, bachcha taloq kabilar.

Asarda vodiya xos forsha-tojikcha, arabcha o'zlashmalar o'rni bilan ishlatilgan, bu o'z navbatida asarning jozibadorligini oshirgan: -O'zi yaxshi mulla bo'lgan ko'rinadi, **zakki tab' yigit** (137-138) –Ana xolos! **Az karnaychi yak puf!** (139-bet).

Yozuvchining yana bir mahorati shahar shevalariga xos so'zlarni asar qahramonlari nutqiga go'yatda ustalik bilan qo'llaydiki, bu bilan ham salbiy, ham ijobiy xislatlarni yorqin ochish mahorati namoyish etiladi. Mehmonxona dahlizida qo'lida **choydish** (choyduvush) ko'targan Ra'no ko'rindi...(221 –bet) Anvar o'rnidan turib **dahlizga** chiqdi, qo'lida **obdasta, dastsho'** ko'tarib Ra'noni yonig'a keldi. (222-bet) Anvar **qoziqdan** sochiq keltirib berdi(222-bet). Ra'no ko'zini tizzasiga tikib, qo'li bilan **sholcha** ipini chirmab o'ltirar edi(223-bet). Chunki xotin Ra'noni ko'rib qolgan, shuning uchun **bo'g'oz** xotin bilan chiqib ko'rishishi Ra'noga lozim **bo'lg'an** edi(228-bet). To'rdagi **toqchadan** ustiga ko'k sir berilgan bir **davotni** olib qaradi(227-bet). Chamasi ular oshiq-ma'shuq, baloxo'r xon loqal shunga **cho'vagini** tiqmasa nima qilar edi(230-bet). **Tunqotar** emish yonig'a keldi.-Siz shundamisiz, **yanga?**(Siz shu yerdamisiz kelinoyi demoqchi). **Bo'g'an** gap shu aylanay! Safar **tanchadagi** yuzini yashirg'ichig'a qaramasliqqa tirishib daromadi ayvondan bo'lg'an hujra eshigiga chiqdi(265-bet). Ayvonning to'r toqchasida qora **charog'** sasib yonadir(255-bet). Sandal ustig'a **qora charog'** qo'yib, oldig'a kitob yozg'an Anvar Safar bo'zchining **istiqbolig'a** qo'zg'aldi(256-bet). –**Jazzasi choponni** olib tashlashda, mirzam,- dedi Safar **choponini eshib**(257-bet). **Qoziqda** osilg'an **choponini** keltirib, Safarning **yaktakchan** yelkasiga yopti(257-bet).- Toza **yaxtak** kiymagan edim, buningiz menga uvol-da, uka,- deb **siqilinqiradi**(257-bet). Siz shu yigitni bu yerga olib kelasiz, o'zi **manim og'am** bo'ladir, xo'bmi?(262-bet).

O'zbek tili turkiy tillar ichida ko'p shevali til bo'lib, bu shevalar tabiiy, adabiy tilni boyitishga xizmat qilgan. Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon"ni yozishda tarixiy shakllar bilan bir qatorda xalq tili, xususan Qo'qon guruh shevalaridan ham ma'lum maqsad uchun o'rinli foydalangan. Xususan, "Mehrobdan chayon" Qo'qon xonligi haqidaligiga e'tiborni qaratsak, bu holning tabiiyligiga ishonch hosil qilamiz. Jumladan quyidagi matnda bu hol juda ochiq ko'zga tashlanadi:

-Hissiyotg'a qattiq berilibsan, Ra'no... Har qadamingda seni bir falokat kutadir, menga qolsa **ayamga** ham ishonib bo'lmas.

–Paranji ichida borgan Ra'noni tanish uchun hech kimda karomat yo'q, **ayamga** nega ishonib bo'lmasin?

Qo'qon shevasida tovushlar til oldi va til orqalikda farqlanib, so'z o'zagi tabiatiga qarab qo'shimchalarning ham shunga monandi qo'shiladi. Bu esa badiiy asar tiliga o'ziga xos joziba bag'ishlaydi.

Badiiy asarda personaj nutqi bilan aloqador bo'lgan bu o'rinda ishora tarzida berilgan bunday izohning o'ziyoq tilga o'ta mas'uliyat bilan yondoshgan yozuvchining tilimiz tabiatini naqadar nozik his etganligiga guvoh bo'lamiz.

Xullas, ulkan soʻz sanʼatkori Abdulla Qodiriy xalq tilining imkoniyati cheksizligini namoyon etadi. Ularda voqelikning xarakterli nuqtalarini mujassamlashtirib, ifoda mantiqini kuchaytiradi, tasvirga aniqlik va ixchamlik baxsh etadi. Oʻzbek tili badiiy uslubining rivojini, unda adabiy til, badiiy til hamda xalq tili lisoniy imkoniyatlarining tutgan oʻrnini asar matnida oʻzbek tilining turli lugʻaviy qatlamlari, grammatik vositalari, uslubiy tovlanishlari qanchalik ishga solinishini hisobga olmasdan turib adibning badiiy mahoratini belgilash mumkin boʻlmaydi. Abdulla Qodiriy katta soʻz sanʼatkori va ustasi, xalq jonli tilini mukammal bilgan va undan mohirona foydalana olgan, oʻz asarlarida qoʻllagan buyuk adibdir. Uning har bir romanida xalqchilik, oʻzbek tilining nozik jilvalari oʻz aksini topgan. Shu jumladan “Mehrobdan chayon” romanida ham xalqona soʻzlarning goʻzal namunalarini koʻrishimiz mumkin. Shuning uchun ham adib asarlari oʻqimishli va kitobxonlarning qoʻlidan tushmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

- 1.A.Qodiriy. “Mehrobdan chayon”-T.,-1992-yil.
- 2.Karimov I.A.“Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch”.-T.: “Maʼnaviyat”, 2008-yil.
3. Enazarov T va boshqalar.”Oʻzbek shevashunosligi”.Toshkent.Universitet. 2012-yil.
- 4.Toʻychiboyev B, Hasanov B. Oʻzbek dialektologiyasi. A.Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti.Toshkent., 2004- yil.
5. B.Toʻychiboyev, Qozoqboy Qashqirli. Zominning til qomusi.Toshkent. 2012-yil.

TABAQALASHTIRILGAN TAʼLIM ASOSIDA BOʻLAJAK BOSHLANGʻICH SINIF OʻQITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBALARI

Fayzullaev Abdumhammad Yuldosh oʻgʻli

Guliston davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

XXI asrda taʼlim sohasida sezilarli oʻzgarishlar roʻy bermoqda. Dunyoning koʻplab mamlakatlarida taʼlim tizimi bilan jamiyatning ijtimoiy –iqtisodiy obʻektiv talablari oʻrtasida tafovut mavjud. Bu soʻnggi oʻn yilliklarda global tus olgan taʼlimni isloh qilishni tezlashtirishni taqozo etadi. Taʼlimning oʻziga xos mazmunini oʻzida mujassam etgan oʻquv rejalari, dasturlari, darsliklarini ishlab chiqishda pedagogika fani ilmiy asoslangan yechimlarni talab qiladigan murakkab muammolarga duch keladi.

Zamonaviy jahon taʼlim makoniga talabalar individual va tabaqalashtirilgan tayyorlashga boʻlgan ehtiyoj lari, qobiliyatlari va manfaatlari bilan belgilovchi trend zamonaviy maktablar tashkil topa boshladi. Bunday maktablar shakl va olib boriladigan taʼlim turlariga koʻra jamiyat talablariga mos taʼlim berila boshladi[1].

Jamiyatning ijtimoiy buyurtmasiga mos taʼlim mazmuni takomillashtirish, oʻquv jarayonini zamonaviy tashkil etishga va zamonaviy 5 35 mutaxassisliklarga boʻlgan ehtiyoj sezilarli darajada ortib borishi taʼlimdagi bir xillikdan voz kechish talab etadi. Natijada taʼlim sohasi rivojlangan mamlakatlarda tabaqalashtirilgan dars mashgʻulotlarini tashkil etila boshladi. Bu paytda "Oʻrganishni differentsiyalash" tushunchasiga turlicha yondashuvlar paydo boʻldi.

Tabaqalashtirilgan maktablar o'qitishga individual yondashib, talabalarning ehtiyojlari uchun zarur bilimlarni mahorat bilan yetkazib berilgan.

Ta'limda differentsiatsiyani dastlabki targ'ibotchilaridan biri G. Kershenshteyner, chop etilgan maqolada "maktablarni tabaqalash"dan maqsadlarini bayon etadi.

a) jamiyatning turli maqsadlariga;

b) o'quvchilarning qiziqishlariga ko'ra Bu vaziyat farqlash, maktab davlat o'rtasidagi ko'prik rolini o'ynaydi, deb ko'rsatiladi (jamiyat) va bola, maqsadlar birinchi tomonidan belgilanadi, ikkinchi tomon esa talab qiladi[2].

1920-larda E. Torndayk va L. Terman tabaqalashtirilgan holda o'qitish qurilish g'oyasini ilgari surdi o'qitish darajasiga ko'ra tabaqalashtirilgan yo'nalishlar bo'yicha o'quv dasturlari tayyorlandi[3].

Jahon mamlakatlaridagi iqtisodiy yuksalishlar 1960 yildan boshlab, individuallashtirishga yana talab kuchaytirdi yangi turdagi sohalarning vujudga keligi ta'lim muassasalari turlicha yangi talablarni qo'yadi va ta'lim islohotlar o'tkazila boshladi.

Ta'lim islohotlarining maqsadi 1960 va 1970 yilda G'arb mamlakatlarida amalga oshirilgan maktab modernizatsiya qilish edi. Talabalarni to'liq bilimga erkin kirish imkonini beruvchi maktablarni tashkil etish edi. XX asr o'rtalarida yangi tipdagi o'rta maktab Yevropada yaratila boshladi, tayyorlash uchun mo'ljallangan umumiy o'rta yoki kasb-hunar ta'limi. Yagona maktablarni yaratish (Angliyada Birlashgan maktablar, Fransiyada Birlashgan kolleji, umumiy maktablar Germaniya) talabalar soning ortishiga olib keldi.

2000 yil 26-28 aprel kunlari Senegalda o'tkazilgan Jahon ta'lim Forumi tomonidan qabul qilingan "ta'lim hamma uchun" shiori barcha talabalarning ehtiyojlari bilan emas, balki yangi sharoitga moslasha olish mavzusida differentsiatsiyani amalga oshirish bo'yicha xalqaro tajribani ommalashtirish zarur degan xulosaga kelindi. Yevropa mamlakatlarida ta'lim tizimlarini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari quyidagilardir: insonni bilimning turli sohalarida rang-barang mustaqil faoliyatga jalb qilish orqali uning aqliy va ma'naviy kamol topishini ta'minlashga qaratilgan. Uzluksiz ta'lim g'oyasining rivojlanishi insonni, uning shaxsiyati, mayllari va qobiliyatini, ularni har tomonlama rivojlantirishni o'z diqqat markaziga qo'yuvchi gumanistik paradigma bilan bog'liq. Bu g'oyalar o'z mazmuni va qimmatini hozirgi jamiyat uchun ham ko'p jihatdan saqlab qoladi, ammo ularning talqinlari hozirgi hayot voqeligini inobatga olishi lozim[4].

Maktablarda amalga oshirilayotgan islohotlarda ta'limni tabaqalashtirish zarurligi ko'rindi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda bu narsaga e'tibor kuchaydi. Fransiyada ta'lim jarayonida sinf ta'lim oluvchilarini uch tabaqaga ajratib o'qitishni afzal ko'radilar. Bular quyidagilar :

1. Gomogenlar — matematika va gumanitar fanlarga qiziquvchilar.
2. Yarim gomogen — tabiiy fanlarga juda qiziquvchilar.
3. Gegeron — barcha fanlarni turli saviyada o'zlashtiradigan ta'lim oluvchilar.

Tabaqalashtirishning eng muhimi xususiyati to'ldiruvchi ta'limni bo'lib, o'quv jarayonlarini tabaqalashtirish bo'yicha chet mamlakatlarining ko'pchiligida tadqiqotlar olib borilishining kuzatilishidir.

Yevropada ta'lim sohasi rivojlangan mamlakat hisoblangan Angliyada differensial o'qitishga ehtiyo sezila boshladi. Mamlakatda talabalarning umumiy ta'lim darajasini oshirishdagi yutuqlar bilan bir qatorda, matbuot ta'limda uning mazmunidagi mavjud kamchiliklarni qayd etilib dastur va darsliklarning murakkab va ikkilamchi materiallar bilan boyitish, maktablarda ehtiyolarga asoslangan kurslar tashkil etilib ta'lim yo'nalishi, kognitiv mustaqillik, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan bilimlar berila boshladi.

Dunyoda olib borilayotgan pedagogikadagi turli didaktik izlanishlar va o'quv jarayonini xorijiy nazariy va amaliy yondashuvlarni o'zlashtirishga qaratilgan konseptual ko'rsatmalarning yaratishga zarurat sezildi. Dunyoning har qanday rivojlangan mamlakatida ta'lim ijtimoiy, iqtisodiy, milliy-etnik va madaniy munosabatlarni tizimiga solishga yordam beradi. Ta'lim tizimining tubdan takomillashtirishi va mazmunan yangilanishi mamlakatning rivojlanish tarixi va an'alarini hisobga olgan holda jamiyatning talablariga xizmat qiladi. Dunyoning barcha mamlakatlarida XXI asrga qaratilgan modernizatsiya va maktab islohotlari ta'lim mazmuni sohasida tadqiqotchilar amalga oshirila boshladi. Xorij tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, olimlar ta'lim mazmunini takomillshatirishga qaratilgan turlicha yondashuvlarida xalqlar va davlatlarning tarixiy va milliy xususiyatlari aks etadi.

Xulosa o'rnida Angliyada umumta'lim maktablarida ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqish ishlarini markazlashtirish tendensiyaning o'sishi 80- yillarda amalga oshirildi. Hozirgi kunda umumta'lim maktablaridagi o'quv dasturlari umummehnat o'quv rejasiga muvofiq qurilgan. Milliy o'quv dasturi 1989 yilda kuchga kirgan bo'lib, unda majburiy fanlar sonining ko'payishi o'rta maktab o'quvchilarining qiziqishlariga mos ravishda ta'limning tabaqalanishiga olib keldi, o'qish vaqtining kichik qismi fakultativ mavzularga ajratiladi. Ushbu yondashuv "ta'lim darajalari" ni rivojlantirishga qaratilgan. O'quv dasturlaridan tashqari, har bir daraja uchun "erishish maqsadlari" ishlab chiqilgan bo'lib, talabalar bilishi va qila olishi kerak. Talabalar erishgan natijalari aniqlash maqsadida Angliyaning barcha hududlari uchun bir xil testlar qo'llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Reznik A. V. *Differensirovanoe obuchenie v istorii otechestvennoy pedagogiki*. Diss. .kand. ped. nauk/.- Karachaevskiy, 2005,- 188 s
2. *Korrelyatsionnyy analiz. Ispolzovanie MS Excel dlya rascheta koeffitsienta korrelyatsii* [Tekst] // *Uchebno-metodicheskoe posobie dlya studentov*. Kazan, 2011. – 105 s.
3. Barannikov, A.V. *Kompetentnostnyy podxod i kachestvo obrazovaniya* [Tekst] / A.V. Barannikov. – M.: MSKO. – 2008. – 142 s.
4. Xalikov A. A. «Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilar pedagogik mahoratini rivojlantirish», *Ped. fan. bo'yicha fal. dok. ... dis. avtr.* –T.: 2018. –52 b.

YOSHLAR DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRUVCHI OMILLAR

Ruzmetova Munisa Ma'ruf qizi

Annotatsiya: Yoshlar dunyoqarashini rivojlanishi yoshlarning atrof-muhitni yanada chuqurroq o'rganish va anglashga yordam beradigan jarayon. Ushbu maqolada biz yoshlar dunyoqarashini rivojlantirish omillarini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Dunyoqarash, jamiyat, ma'naviy qadriyat, ijtimoiy-pedagogik vazifa, ta'lim, tarbiya.

ФАКТОРЫ, ФОРМИРУЮЩИЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ МОЛОДЕЖИ.

Аннотация: Развитие мировоззрения молодежи – это процесс, который помогает молодым людям глубже изучать и понимать окружающую среду. В данной статье мы рассмотрим факторы развития мировоззрения молодежи.

Ключевые слова: Мировоззрение общества, нравственные ценности, социально-педагогическая задача, воспитание, обучение.

FACTORS THAT DEVELOP THE WORLD VIEW OF YOUTH

Abstract: The development of youth worldview is a process that helps young people to learn and understand their environment more deeply. In this article, we will consider the factors of development of young people's worldview.

Key words: Worldview of society, moral value, socio-pedagogical task of education, upbringing.

Zamonaviy jamiyat sharoitida o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy dunyoqarashni rivojlantirish muhim ijtimoiy-pedagogik vazifadir.

Dunyoqarashda jamiyatda shakllangan falsafiy, ilmiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik bilimlar, qarashlar o'z aksini topadi. Shaxsning dunyoqarashi ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'langan. Dunyoqarash insonning o'zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi hamda baholashi asosida shakllanadi. Bu jihatdan dunyoqarash voqelikning inson ongidagi subyektiv in'ikosidir. Ayrim individning ongi bilan bog'langan individual dunyoqarash, muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, sinf, millat va jamiyat miqyosidagi ijtimoiy ong bilan bog'langan ijtimoiy dunyoqarash mavjud. Bular bir-birini to'ldiradi, bir-biriga ta'sir qiladi, bir-birini rivojlantiradi.

O'quvchining xarakteri va axloqiy tamoyillarining asosi ularning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Jamiyatning jadal o'zgarishlari, axborotva texnologiyalarning har tomonlama mavjudligi bilan tavsiflangan davrda o'qituvchilar oldida o'quvchilarning axloqiy ongini va ma'naviy qadriyatlarini tarbiyalashdek ulkan vazifa turibdi. Ushbu ijtimoiy-pedagogik muammo bir-biriga bog'liq bo'lgan ko'plab omillarni, jumladan, oilaviy va ijtimoiy masalaning zamirida mazmunli introspektsiya, tanqidiy fikrlash, hamdardlik va axloqiy mas'uliyatni rivojlantirishga yordam beradigan muhitni shakllantirish muhimligi yotadi. Maktab jamiyatning mikrokosmosi sifatida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. U qadriyatlarni etkazish, axloqiy tamoyillarni singdirish va ijtimoiy mas'uliyat hissini tarbiyalash uchun asosiy platforma bo'lib xizmat qiladi. Biroq, axloqiy relativizm, jamiyatning qutblanishi

va raqamli ommaviy axborot vositalarining ko'payishi kabi zamonaviy muammolar oldida ma'naviy va axloqiy tarbiyaning an'anaviy usullari ko'pincha yangi va dahshatli to'siqlarga duch keladi.

O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini rivojlantirishning asosiy ijtimoiy-pedagogik vazifalaridan biri ta'lim muhitida e'tiqod tizimlari va qadriyatlar yo'nalishlarining xilma-xilligini yo'lga qo'yishdir. Ta'lim muassasalari o'quvchilarning turli xil madaniy, diniy va mafkuraviy kelib chiqishiga moslashish, umumiy qadriyatlar va axloqiy tamoyillar tuyg'usini rivojlantirish vazifasi bilan duch keladi. Bu madaniy va diniy xilma-xillikni e'tirof etish va hurmat qilish o'rtasida nozik muvozanatni talab qiladi, shu bilan birga individual farqlardan ustun turadigan universal axloqiy asosni targ'ib qiladi.

Ijtimoiy-pedagogik kontekstda talabalarning ma'naviy va axloqiy dunyoqarashini rivojlantirishga yordam beradigan turli strategiyalar mavjud. Umumjahon axloqiy tamoyillarni targ'ib qilish bilan birga xilma-xillikni nishonlaydigan inklyuziv va empatik maktab muhitini rivojlantirish eng muhim hisoblanadi. Bu turli fanlar bo'yicha axloqiy va ma'naviy ta'limni birlashtirish, madaniyatlararo muloqot uchun imkoniyatlar yaratish va turli nuqtai nazar va qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan kengroq jamoatchilik bilan hamkorlikni o'z ichiga oladi. Qolaversa, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini rivojlantirishda oila va mahallaning faol ishtirok etishi zarur. Ta'lim muassasalari, ota-onalar va jamiyat manfaatdor tomonlari o'rtasidagi hamkorlikdagi sa'y-harakatlar axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash va ma'naviy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Mahalliy diniy yoki madaniy tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali maktablar o'quvchilarga turli e'tiqod tizimlari va axloqiy an'analar haqida kengroq tushuncha berishi va shu orqali o'zaro hurmat va tushunishni rivojlantirishi mumkin. Qolaversa, tarbiyachilarning axloqiy va ma'naviy yo'lbo'shchi sifatidagi rolini ham kamaytirib bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning dunyoqarashini rivojlantirish murakkab ijtimoiy-pedagogik masala bo'lib, ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Madaniy xilma-xillikni hurmat qilgan holda axloqiy ongni tarbiyalash, empatiyani rivojlantirish va universal axloqiy asosni targ'ib qilish ushbu muammoni hal qilishning muhim elementlari hisoblanadi. Ta'lim muassasalari oilalar, mahallalar, pedagoglar bilan hamkorlikda o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini har tomonlama rivojlantirishga yordam beradigan inklyuziv va aks ettiruvchi muhitni yaratishga intilishi kerak. Faqatgina ushbu vazifaning murakkabliklarini birgalikda hal qilish orqali biz ta'lim muhitida ijtimoiy mas'uliyatli, axloqiy jihatdan xabardor va ma'naviy jihatdan asoslangan shaxslarni tarbiyalash yo'lini yaratishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kamolova, S. (2023). ILMIY DUNYOQARASHNI YUKSALTIRISH YORDAMIDA TALABALARGA AQLIY TARBIYA BERISHNI TAKOMILLASHTIRISH. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (I).

2. Shukurovna, X. M. (2023). YOSHLARNI OILADA MA'NAViy-AXLOQiy TARBIYALASHDA MILLiy QADRIYATLARDAN FOYDALANISH.

Новости образования:

3. arxiv.uz

4. psixologiya.uz

TABIY GEOGRAFIYA TA'LIMIDA TAJRIBA VA AMALIY ISH USULLARIDAN FOYDALANISH

*Ahmadqulov Saidjon Rauf o'g'li, Yo'ldoshev Abdurauf Suyunboy o'g'li
Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi,*

*Email. saidjonahmadqulov5@gmail.com, SVPYMO'MM Metodik xizmat
ko'rsatish bo'limi metodisti, Email. abduraufyoldoshev05@gmail.com*

Annotatsiya

Har bir rivojlanayotgan mamlakatning tub asosini qaraydigan bo'lsak albatta uning tub asosida sifatli ta'lim turganini ko'ramiz. Shuni ham aytib o'tish joizki sifatli ta'lim o'qituvchining qanchalar qobiliyatli ekanligi va darslarda turli xil eng kerakli metodlardan foydalanganligi ham muhim ahamiyatga ega.

Bu kabi metodlar o'z mohiyatiga ko'ra Tabiiy geografiya fani bo'yicha ta'lim oluvchilarda o'quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash, o'rganilayotgan mavzu, muammolar bo'yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o'z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g'oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga rag'batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Annotation.

Today, in developed countries, a lot of experience has been accumulated on the application of pedagogical technologies that increase the educational and creative activity of students, guarantee the effectiveness of the educational and educational process, the basis of which is interactive methods.

Such methods are of particular importance in their essence due to the fact that they have the opportunity to increase educational and cognitive activity in students of Geography, encourage them to work in a small group and team, boldly, freely express their personal views on the topic under study, problems, defend their opinions, substantiate them with arguments, listen to peers, enrich ideas.

Kalit so'zlar. Tabiiy geografiya, tajriba, retseptorlar, effektorlar, amaliy ishlar, amaliy uslublar, tajriba sinov maydonlari.

Kay words. Natural geography, experience, receptors, effectors, practical work, practical methods, experimental test fields.

Kirish.

Bolalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, mehnat qobiliyatini faollashtirish, kuzatuvchanlik, mantiqiy fikr yuritishda amaliy metodlar katta ahamiyatga ega. Amaliy metodlar atrof tabiat bilan insonlar orasidagi o'zaro aloqadorlikni bilishning samarali metodi hisoblanadi, chunki ularda bolalarni qiziqtiradigan natijalar bo'ladi.

Tabiiy geografiyani o'qitishda amaliy metodlarni uchga bo'lib izohlaymiz:

1. Tajribalar.
2. Joydagi o'lchov ishlari.
3. Ijtimoiy foydali mehnat.

Tajribalar atrof tabiatni bilishning samarali metodi hisoblanadi, chunki ularda bolalarni qiziqtiradigan jarayonlar mavjud. Bolalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, kuzatuvchanlik, mantiqiy fikr yuritish va nutqni tarbiyalashda tajribalar katta ahamiyatga ega. Bolalar kishilarning tabiatni o'zgartirishlarida tajribalar chinakam vosita bo'lishini ko'rishlari kerak. Tajribalarni o'quvchilar asosan mustaqil holda o'tkazadilar. Asboblar va moddalar bilan juda ehtiyot bo'lib ishlash talab etiladigan murakkab tajribalarni o'qituvchining o'zi o'tkazadi.

Tajriba o'tkazishdan oldin o'quvchilar undan ko'zlangan maqsadni yaxshi tushunib olishlari, tegishli anjomlar (moddalar, asboblar va boshqalar) bilan tanishib chiqishlari kerak. Tajribani o'tkazish, uning borishi va natijalarini tutilgan daftarlarga yozib borish uchun bolalar bilan birgalikda batafsil ishlab chiqilgan reja bo'lishi zarur. Tajribalar natijalari ham daftarlarda yoritiladi va xulosalar chiqariladi.

Sinfda, maktab o'quv-tajriba yer maydonida va joylarda olib boriladigan amaliy ishlardan maqsad bilimlarni o'zlashtirib olishdangina emas, balki ma'lum malaka va ko'nikmalarni egallab olishda ham o'quvchilarga yordam berishdan iborat. Bunday ishlar sirasiga, masalan, tabiat ustidan kuzatuv olib borish; kuzatuv natijalarini yozib borish va ishlab chiqish malakasini egallashga, gerbariy, kolleksiyalar, ko'rgazmali qo'llanmalar tayyorlashga, o'lchov ishlarini bajarishga (havoning harorati, gnomon soyasining uzunligi va boshqalarni o'lchashga) qaratilgan ishlar; tuproqning xossalarini, foydali qazilmalarni o'rganishga bog'liq bo'lgan amaliy ishlar kiradi. O'quvchilarning har bir amaliy ishi oldindan yaxshilab tayyorlangan, to'g'ri tashkil etilgan, aniq rejalashtirilgan, topshiriqlar mazmuni puxta tuzilgan bo'lsagina ular samarali natija berishi mumkin.

Tajriba tabiiy geografiyani o'qitishning yetakchi uslubi ekanligi bois hamda ba'zi turdagi amaliy ishlarni tayyorlash, tashkil etish, ularning o'zlariga xos xususiyatlari va ahamiyati bilan tanishamiz. Tajriba tabiiy geografiyani o'qitishning amaliy metodidir. Tajriba o'qitish metodi bo'lib, uning yordamida o'rganilayotgan hodisa qonuniyatini aniqlashga yordam beruvchi sharoitlar yaratiladi. Tajribalar o'tkazishda o'quvchilarda boshqa metodlar bilan egallash mumkin bo'lmagan tabiiy tasavvurlari shakllanadi.

Tajribalar atrof olamni bilib olishning qiziqarli va samarali metodidir. Ular ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, kuzatuvchanlik, mantiqiy tafakkur va nutqni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. U dunyoning moddiyligini, uni idrok qilib olish mumkinligini tasdiqlovchi har xil jismlarning xossalarini bilib olishning chinakam ilmiy metodidir.

Tajribalar mavhum tushunchalarni aniq tushunchalarga aylantirishda bolalarga yaqindan yordam beradi. Masalan, ular faqat tajriba jarayonidagina termometrning simob ustuni haroratning o'zgarishiga qarab ko'tarilishi va pasayishiga ishonch hosil qiladilar. Faqat tajribagina suvning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini ko'rsatadi.

Oddiy tajribalar o'quvchilar tomonidan uy sharoitlarida, o'quv-tajriba maydonida yoki tirik tabiat burchagida mustaqil bajariladi. Murakkabroq tajribalarni o'qituvchi darsda namoyish qiladi. Shuni esda tutish kerakki, mazmuni jihatidan eng oddiy tajriba faqat bilim berishi bilangina emas, balki kuzatish jarayonini fahmlashga, uning natijalarini ta'riflashga yordam berishi bilan ham qimmatlidir.

Faraz qilaylik, o'quvchilar darsda Quyoshning Yer yuzasiga nisbatan holatiga qarab kuzda ob-havoning sovib borishi to'g'risida bilim olishlari kerak. Bu hodisani tushuntirish uchun o'qituvchi tajriba o'tkazadi. U yonib turgan shamga ingichka qog'oz tasmachasini tutadi. Bitta tasmachani shamning tepasida, ikkinchisini shamdan sal uzoqroqda ushlab turadi. O'quvchilar qog'oz tasmachalarning qaysisini oldinroq yonganligini aytishlari va nima uchunligini tushuntirishlari lozim. O'quvchilar bu tajriba orqali yozda va kuzda Quyosh nurlarining Yer yuzasini qanday isitishini bilib oladilar.

Tajribaning borishini kuzatib, o'quvchilar kuzda Quyosh Yer ustida kun sayin tobora pasayishi to'g'risida xulosa chiqaradilar. Uning qiya tushayotgan nurlari Yer yuzasidan uzoqlashib o'tadi va havoni isitmaydi. Shuning uchun ham kuzda sovuq tusha boshlaydi.

Ma'lumotlarni mustahkamlash uchun o'qituvchi namoyish qilgan va o'quvchilarning o'zlari o'tkazgan tajribalarning rasmini chizish yoki ularni ta'riflab yozish, ba'zi hollarda uni ham, buni ham bajarish kerak. Asbob va moddalar bilan ishlashda ehtiyotlikni talab qiluvchi tajribalarni o'qituvchining o'zi o'tkazadi. Har qaysi tajribani boshlashdan oldin o'quvchilarga uning maqsadini, tajriba o'tkazishda nima uchun xuddi shu asbob va moddalar olinganligini yaxshilab tushuntirish, tajribaning o'tkazilishini hikoya qilib berish rejasini yozish kerak.

Amaliy uslublar o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan va yo'naltiriladigan, o'quvchilar fikrini rivojlantirishga mo'ljallagan so'z, ko'rgazmalilik va amaliy ishning o'zaro murakkab bog'lanishida bo'lishini ko'rsatadi.

Amaliy uslublar qo'llanilishi o'quvchilar retseptorlari va effektorlarining faolfaoliyati bilan bog'liq. Amaliy uslublar o'rganilgan manbalarni chuqur tushunib yetishga, ko'nikma va malakalar hosil qilishga imkoniyat yaratadi. Amaliy uslublarni qo'llashga o'quvchilar faoliyatining o'zi bilim manbai hisoblanadi. Bunday usullar sirasiga og'zaki, yozma mashqlar, laboratoriya ishlari, maktab yer maydoni, tirik tabiat burchagida sinfdan tashqari bajariladigan mashg'ulotlar kiradi.

Amaliy uslublarning turlariga:

1. O'quvchilarning tarqatma didaktik manbalar bilan turli narsalar yasashi;

2. Rasm chizishi;

3. Tabiat obyektlarini tanib olish va aniqlash bo'yicha ishlari;

4. Hodisalarni kuzatish va qayd qilishlari;

5. Tajriba o'tkazishlari (tajriba vositasida masalalarni hal qilish) kiradi.

Amaliy ish boshlanishi oldidan qo'yilgan savol, muammo, masalaga

o'quvchilar uning natijalari bilan javob berishlari kerak. Tabiiy geografiya darslari tanib olish va aniqlash amaliy metodlarining bir turi bo'lib, tarqalgan o'simliklarni yoki ularning qismlarini farqiga borib, tanib olish xususiyatlarini o'rgatadi.

Taqqoslashdagi farqga borish o'quvchining aniqlash qobiliyatini rivojlantiradi. Farq qilish va aniqlash bo'yicha ishlar darslardagina olib borilmaydi, o'qituvchi tabiatga uyushtiriladigan ekskursiyalarda ham o'simliklarni topish va to'plashni, namunalar yig'ishni, ularning yoshi, vegetativ usullari, tuproq kesmalari, moslashishlarini, o'zgaruvchanlikni o'quvchilarning o'zlashtira olish qobiliyatlariga qarab tanlab berishi kerak. O'simliklar, ular qismlarining shaklini bilib olish bo'yicha ishlarni o'quvchilar uy vazifasi sifatida bajaradilar.

Tabiiy geografiyani o'qitish metodlari tizimida amaliy ishlar. Tabiat haqidagi bilimlarni o'zlashtirishda amaliy ishlar katta ahamiyat o'ynaydi. Amaliy ishlar o'quvchilarni ular faoliyati jarayonida har xil mehnat jarayonlariga o'rgatish metodidir. Amaliy ishlarga o'quvchilarning ekskursiya vaqtida tabiiy namunalar yig'ish, maktab oldi yer maydonidagi va tirik tabiat burchagidagi o'simliklarni parvarish qilish, gerbariy va kolleksiyalar tuzish, mulyaj, maket, ko'rgazmali qurollar tayyorlash kabi faoliyat turlari kiradi.

Tabiiy geografiya bo'yicha amaliy ishlar dastur va darsliklarga kiritilgan, ularning bajarilishi majburiydir. Amaliy ishlarning samaradorligi o'quvchilarning ularni bajarishga tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Amaliy ishlarga tayyorlanish odatda uzoq vaqtni talab qiladi va bir necha bosqichdan iborat bo'ladi:

1.O'quvchilarning nazariy tayyorlanishi. Masalan, maktab oldi yer maydoniga sabzavot va manzarali o'simliklarni o'tqazish oldidan o'quvchilar ularning urug'larining unib chiqishini uzoq vaqt kuzatadilar. Uyda, tirik tabiat burchagida yoki darsda bolalar o'simlik urug'dan asta-sekin va muayyan sharoit (namlik, havo, issiqlik) bo'lgandagina rivojlanishini aniqlaydilar. Olingan nazariy bilimlar o'quvchilarni o'zlariga ajratilgan yer maydonida yoki tirik tabiat burchagida amaliy ishlarni diqqat bilan, yodda saqlab bajarishga imkon beradi. Nazariy tayyorgarlikdan keyin bolalar ekish vaqtida tuproqning yumshoq, nam va issiq bo'lishi kerakligini bilib oladilar, amaliy ishda faol qatnashadilar.

2.Amaliy ishda o'quvchilarning barchasi qatnashishlari lozim. Buning uchun bolalarni ishbajarishga kerak bo'ladigan ish qurollari, o'lchov asbob-uskuna va manbalar bilan ta'minlash zarur. Masalan, gerbariy tuzish uchun yig'ilgan o'simliklar solinadigan papka, qalin qog'oz yoki karton varag'i, ip, igna bo'lishi lozim.

3.O'quvchilarning amaliy ishlari o'qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi. U ishni bajarishda qiynalganlarga o'z vaqtida yordam berishi lozim. Biroq bunda bolalarning faolligi hamda mustaqilligini chegaralanmaslik kerak.

4.O'quvchilarning ishlari albatta tahlil qilinadi va baholanadi, muvaffaqiyatli bajarganlar rag'batlantiriladi.

Bu ishlarning bajarilishi o'quvchilarning bilish faolligini oshirishda, bilimlarni aniqlashtirish va mustahkamlashda o'qituvchiga yordam beradi.

Xulosa

Boshlang'ich tabiiy geografiya darslarida amaliy ishni mashq qilish o'ziga xos tarzda amalga oshiriladi. Masalan, tushda (kunning o'rtasida) soyaning

qoziqdan uzunligini aniqlashga yoki havo haroratini o'lchashga va ularning natijalarini yozib borishga o'rgatish uchun uzoq vaqt mashq qilish kerak bo'ladi. O'quvchilar oddiy, ko'p vaqt va urinishni talab qilmaydigan topshiriqlardan asta-sekin ancha murakkabroq vazifalarni bajarishga o'tadilar. Vaqt o'tishi bilan amaliy ishlar tobora mustaqillashib borishi kerak. O'qituvchining amaliy ishlarga rahbarlik qilish shakllari ham o'zgarib bormog'I lozim: agar birinchi darslarda har bir o'quvchiga bosqichlar bo'yicha batafsil yo'l-yo'riq berish kerak bo'lsa, yilning ikkinchi yarmida ish bo'yicha sinfdagi barcha o'quvchiga ko'rsatma berish kifoyadir. Amaliy ish o'tkazishda o'qituvchi o'quvchilar asoslanadigan bilimlar saviyasini aniqlash kerak

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistinning taraqqiyot strategiyasi. PF, 2022 y.
2. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, 2003.-24-38b.
3. Avliyakov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. Toshkent, 2010.-18b.
4. Ahmadaliyev A., Qosimov A. Innovatsion faoliyat va ilg'or pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2011.-60 b.
5. Geografiya o'quv fanidan umumta'lim maktablari uchun Davlat ta'lim standarti (5-9 sinflar). Toshkent, 2014.
6. Ishmuhammedov R. Bolalarni tarbiyalash va sog'lomlashtirish ishlarida pedagogik texnologiya. Toshkent, UDAP. 2014.-28b
7. Ishmuhammedov R., Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Toshkent, 2005.-52b.
8. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar – Toshkent, 2008.-34b
9. Karimova V.M. Auditoriyada bahs-munozarali darslarni tashkil etishning psixologik texnologiyasi. – T.: 2010.-52b.

FURTHER IMPROVEMENT OF TRAINING IN ELEMENTARY GRADES THROUGH MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

Akbarova Maftuna Botirjon qizi

Abstract: This scientific paper investigated the effective use of modern educational technologies in primary school classrooms. By including interactive tools, educational programs, virtual and augmented reality, online collaboration platforms, and personalized study areas, teachers can enhance student engagement, encourage active learning, and improve academic performance.

Keywords: Basewords and phrases: Technology, Information Technology, pedagogical technology, masala, educational effectiveness, pedagogical, pedagogical process.

Introduction: Modern educational technologies have the potential to transform primary school education by providing modern methods to attract students and enrich learning experiences. This article explores the different areas of inclusion of these technologies in classrooms, highlighting their benefits in shaping critical thinking, creativity and collaboration among young learners.

Today, in an increasingly digital world, the integration of modern educational technologies into primary classes has become very important to enhance the learning experience. These technologies provide unique opportunities to engage and motivate students, form critical thinking skills, and facilitate personalized learning. This article explores effective ways to apply modern educational technologies in primary-class settings.

1. Interactive whiteboards and displays:

Interactive whiteboards and displays allow teachers to provide students with dynamic and visually stimulating content. Teachers can create interesting classes that employ separate learning styles through the use of educational programs and interactive resources. The interactive nature of these tools encourages active participation and increases student motivation. One of the popular modern educational technologies is interactive whiteboard. This interactive tool allows teachers to provide multimedia content, create interactive lessons, encourage collaborative learning. Teachers can use a variety of educational programs and resources to make classes more dynamic, visible and fun.

2. Curricula and programs:

With the availability of educational programs and software, students can access a wide range of interactive learning materials tailored to the curriculum. These resources offer interesting activities, quizzes and simulations that reinforce the concepts taught in the classroom. Integrating these tools into classes can lead to more fun, immersive, and personalization of learning. With the advent of educational software and software, students can access a wide range of interactive learning materials on computers, tablets or smartphones. These tools offer educational games, quizzes, simulations, and interactive exercises to reinforce concepts taught in the classroom. The introduction of these programs can make the learning process enjoyable and meaningful.

3. Virtual and augmented reality:

Virtual reality (VR) and augmented reality (AR) technologies provide immersive experiences that develop students' understanding of complex topics. VR allows students to explore historical sites, experience scientific phenomena, and engage in 3D models. AR is transferring digital data to the real world, and develops and covers a variety of topics. VR and AR technologies provide immersive experiences that take students to virtual worlds or add digital information to the real world. By integrating these technologies into classes, students can explore historical objects, visit remote locations, manipulate 3D models, and interact with virtual objects. This increases their understanding of the subject and their connection with the subject.

4. Online collaboration platforms:

Online collaboration platforms facilitate effective communication and teamwork among elementary students. These platforms allow students to collaborate on projects, share ideas, and provide constructive feedback regardless of physical location. By encouraging collaboration and peer learning, these tools develop the necessary skills of the 21st century. Online collaboration tools allow students to work together remotely, shaping teamwork and communication skills.

Platforms such as Google Classroom, Microsoft Teams, and others allow students to share and collaborate on assignments, discuss ideas, provide feedback, and collaborate in real time. These tools provide active participation and expand the perspective of students.

5. Personalized study areas:

Modern technologies help educators personalize guidelines to meet the diverse needs and abilities of students. Adaptive curricula, intelligent teaching systems, and instructional management platforms allow teachers to individualize learning pathways, adjust content difficulties, and provide immediate feedback. This privatization enhances student engagement and improves academic performance. Modern educational technologies adapt to the needs and abilities of individual students, facilitating personalized learning. Intelligent teaching systems, adaptive curricula, and instructional management systems support differentiated instruction, allowing teachers to adapt content, tempo, and assessment to meet each student's requirements. This approach helps students advance at their own pace and enhances the mastery of concepts.

Conclusion: Mastering modern educational technologies in elementary grades has the potential to revolutionize traditional classroom practice. Through the use of interactive whiteboards, educational programs, VR and AR technologies, online collaboration tools, and personalized learning platforms, teachers can create a more interesting and effective learning environment. By supporting these technologies, we can give students the opportunity to develop the necessary skills and competencies to flourish in the digital age. The introduction of modern educational technologies into primary school classrooms provides valuable opportunities to transform traditional educational practices. By supporting interactive whiteboards, educational programs, VR and AR technologies, online collaboration platforms, and personalized study areas, teachers can grow a dynamic, student-centered learning environment. These technologies provide children with the skills necessary to succeed in the digital age, giving them the opportunity to become an active participant in their education.

References:

1. F.I. Mardonova. Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiyani takomillashtirish. Toshkent: 1998 yil.
2. www.ziyonet.uz.
3. www.kitobxon.com

TA'LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNING AHAMIYATI

Abdullayeva Fotima Baxtiyor qizi¹, Turabekova Dilorom Baxtiyarovna²
GulDU, Biotexnologiya yo'nalishi talabasi¹. GulDU, Oziq-ovqat texnologiyalari
kafedrasida katta o'qituvchisi².

Anotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim tizimi, tajribasi va zamonaviy ta'lim dasturlari qisqacha tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy davlatlarning metodikasi, ularning tahlili, qo'llashdagi afzalliklari va talim tizimidagi yutuqlar bayon etilgan.

Kalit soʻzlar: taʼlim, tajriba, globallashtirish, taraqqiyot, pedagog, innovatsiya, loyiha, interfaol metod.

Abstract: This article briefly analyzes the education system, experience and modern educational programs. The methods of foreign countries, their analysis, advantages in application and achievements in the education system are also described.

Key words: education, experience, globalization, development, pedagogue, innovation, project, interactive method.

Аннотация: В данной статье кратко анализируется система образования, опыт и современные образовательные программы. Также описаны методики зарубежных стран, их анализ, преимущества в применении и достижения в системе образования.

Ключевые слова: образование, опыт, глобализация, развитие, педагог, инновации, проект, интерактивный метод.

Taʼlim samaradorligini belgilashda eng optimal qarorlar qabul qilish yuqori taʼlim sifatiga erishishni talab etadi. Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 5-maydagi PQ-3697 sonli “Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” qarori va 2018-yil 7-maydagi PQ-3698 sonli “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarorida fan, taʼlim va ishlab chiqarish oʻrtasidagi integratsiyani kuchaytirish lozimligi keltirilib, hozirgi kunda oliy taʼlim muassasalari amaliyotida jahon tajribasini joriy etish oʻta muhimligini taʼkidlaganlar.

Qadimdan bizda bilim olish qadrlangan. Bilimdon kishilar esa el-yurt ardogʻida boʻlganlar. Shuning uchun ham bilim olish va olingan bilimni mamlakatimiz xizmati yoʻlida xizmat qildirish oliy insoniylik burchimizdir. Bu vazifalarni muvvafoqlik bilan etishni muhim shartlaridan biri chet el taʼlimi va pedagogikasi tajribalari oʻrganishdir. Xalqaro tajribalarini sinchkovlik va qunt bilan oʻrganish orqali taʼlim tarbiyada qotib qolgan, oʻz dolzarbligini yoʻqotib borayotgan ish shakllari, uslublaridan xalos boʻlish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda, qoʻshimcha boy manbalarga ega boʻlamiz.

Taʼlimning global istiqbollari- bu dunyoning turli burchaklarida oʻqitish tizimini qay koʻrinishda ketayotganini oʻrganib, oʻz yurtimizda qoʻllashdir. Bu bizga turli oʻqitish tizimini va uning taʼlim olishga qanday taʼsir qilishini tushunishga yordam beradi. Taʼlim tizimida, jumladan, oliy taʼlimda amalga oshirilgan islohotlar natijasida yuz bergan oʻzgarishlar ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va maʼnaviy jihatdan katta tarixiy ahamiyatga ega. Amalga oshirilgan islohotlar nafaqat mamlakatimizda ijobiy oʻzgarishlarga olib keladi, balki xalqaro maydonda ham mamlakatimiz nufuzini yangi bosqichga olib chiqdi. Mamlakatimizda pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi yoʻlga qoʻyilgan. Bu borada xalqaro tajribalar ham oʻrganilmoqda. Professor oʻqituvchilarimiz Buyuk Britaniya, Germaniya, Avstriya, Italiya, Fransiya, Chexiya, Slovakiya, Gretsiya, Ispaniya, Belgiya, Niderlandiya kabi davlatlarda taʼlim olib, malaka oshirib kelmoqdalar. Yevropa Ittifoqi komissiyasining

«Erasmus+», «Texnik yordam dasturlari» kabi loyihalari oliy ta'lim tizimni modernizatsiyalash, yanada takomillashtirishda qo'l kelmoqda. Bu esa o'z navbatida ta'limni yanada rivojlantirish, xorijiy tajribalarni qo'llash imkonini kengaytiradi. Bugungi kunda har qaysi xalq, davlat va jamiyatning taraqqiyot darajasi, avvalambor uning inson kapitaliga, inson rivojida qaratilayotgan e'tibori, bu yo'ldagi say harakatlari bilan o'lchanadi. Ilg'or mamlakatlar ichida Yaponiya ta'limi o'ziga xos yetakchi o'rinni egallaydi. Yaponiyada ta'lim sifati yuqori va butun dunyoda tan olingan. QS xalqaro reytingi Yaponiyaning beshta universitetini dunyodagi eng yaxshi 100 ta universitetlar ro'yxatiga kiritdi. Bu yerda dunyoning 170 ta davlatidan 140 000 dan ortiq xalqaro talabalar tahsil oladi. Yaponiya innovatsiyalar va texnologiyalar sohasida taniqli yetakchi bo'lib, talabalarga nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi. Jumladan, Yaponiya ta'limida "iqtidorli o'quvchi" tushunchasi yo'q. Chunki har bir o'quvchi alohida iqtidor sohibidir. Shu boisdan talabalarni iqtidorini yanada rivojlantirish, keng ko'lamli xorijiy tajribalar asosida bilim berish katta ma'suliyat yuklaydi. Shu boisdan AQSH, Fransiya, Germaniya, Yaponiya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarning ilg'or pedagogik ish tajribalari ham ijodiy o'rganilib, samarli ravishda yurtimizda qo'llanib kelmoqda. Bunday tajribalar Respublikamiz ta'lim tizimini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishda qo'l kelishi shubhasiz. Shu boisdan, ana'naviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish- ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayonini oqilona tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va talabalarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Talabalar Finlyandiya, Yaponiya va Amerika Qo'shma Shtatlari kabi mamlakatlar ta'lim tizimlarini, jumladan, o'quv dasturlari, o'qitish usullari va baholash amaliyotlarini qanday tuzilganligini bilishlari mumkin. Jumladan, Finlyandiya oliy ta'limni e'tibori ilmiy tadqiqotlarga qaratiladigan universitetlarda yoki ko'proq amaliyotga asoslangan amaliy fanlar universitetlarga qaratilgan. Finlyandiya ta'lim tizimidagi islohotlarning yana bir muhim jihati 1970-yillardan boshlab boshlang'ich maktab o'qituvchilarini tayyorlash kollej va seminariyalardan, universitetlarning qayta tashkil etilgan ta'lim fakultetlariga ko'chirilgan. Shuningdek, maktab o'qituvchilari magistr darajasiga ega bo'lishi shartligi belgilab qo'yilgan. Hozir boshlang'ich maktabda dars berish uchun o'qituvchi ta'lim sohasida magistr darajasiga, o'rta maktabda dars berish uchun esa dars berayotgan fani bo'yicha magistr darajasiga ega bo'lishi lozim bo'ladi. Oliy va OTMdan keyingi ta'lim bakalavriat, magistratura, litsensitura (litsensiat-magistr va fan doktorligi o'rtasidagi oraliq bosqich) va doktoranturaga bo'linadi. Shu kabi tizimlarni tahlil qilish orqali ta'limda turli yondashuvlarning kuchli va zaif tomonlarini bilib olishimiz va o'zimizning ta'lim sharoitlarimizga takomillashtirishning potensial yo'nalishlarini aniqlashimiz mumkin bo'ladi.

Ushbu o'rganish orqali talabalar mamlakatlar qanday hamkorlik qilishlari va ta'lim sohasidagi ilg'or tajribalarni almashish borasida orttirilgan bilimlarga ega bo'lishlari mumkin bo'ladi. Umuman olganda, ta'limning global istiqbollari talabalarga butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimlarining xilma-xilligi va o'zaro bog'liqligi haqida keng qamrovli tushuncha beradi. Ushbu istiqbollarni o'rganish orqali talabalar ta'lim sohasidagi intiluvchan o'qituvchilar, tadqiqotchilar va siyosatchilar sifatida bilim va ko'nikma olishlari mumkin bo'ladi.

Xulosa: Umuman olganda, o'qitish strategiyasida xorijiy tajribalarni yurtimizda qo'llash orqali talabalarni yanada inklyuziv va samarali ta'lim muhitini yaratishimiz mumkin. Bunda barcha talabalar o'zlarining akademik savodxonligini, xorijiy tajribalar asosida o'rganilgan bilimlarini o'z ish faoliyatida qo'llash orqali yuqori natijalarga erishishlari mumkin. Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning mustahkam nazariy bilim, faoliyat, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni kasbiy mahoratga aylanishini ta'minlash maqsadida o'quv tarbiya jarayonida interfaol metodlardan foydalanish davr taqozosi hamda ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Hozirgi kunda o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish, uning mazmun mohiyatini bilish, uni ta'lim jarayoniga tadbiq qilish va metodikasini yaratish juda muhimdir. Pedagogik kadrlarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashda ularning metodik tayyorgarligini shakllantirish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish mazkur jarayonning samaradorligini orttirishga zamin tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anorqulkova G., Karimov A. Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xos yo'nalishi uslub va tahlili. Xalq ta'limi ilmiy metodik jurnali. 2017-yil. 3-son. 527-533
2. Qurbonaliyeva D. Ta'limdagi ilg'or xorijiy tajribalar. XXI asrda innovatsion texnologiyalar, fan va ta'lim taraqqiyotidagi dolzarb muammolar jurnali. 2023-yil. 4-son, 160-162 b.
3. Dexqonova S. X. Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish. Talqin va tadqiqotlar respublika ilmiy-uslubiy jurnali 2021. 19-21 b.
4. Soataliyeva N. I., Rejapov X.X. Yaponiya oliy ta'lim tizimi xususiyatlari. Innovative development in the global science. Iyul. 2022. 28-32 b
5. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Moliya.
6. Yo'ldoshev J.F. Xorijda ta'lim (metodik qo'llanma) - Toshkent: 1995- yil.

MAKTABGACHA TA'LIMDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Jo'rayeva Dilafro'z Shuhrat qizi

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti, dili95samira20@gmail.com

Kalit so'zlar: STEAM texnologiyasi, integratsiya, intellektual qobiliyat, tajriba, innovatsion texnologiya.

Dinamik o'zgaruvchan dunyo sharoitida inson hayotining barcha sohalariga yangi texnologiyalar joriy etilmoqda. Tadqiqotchilar zamonaviy maktabgacha yoshdagi bolalarning 65% kelajakda mavjud bo'lmagan kasblarga ega bo'lishiga ishonishadi. Kelajakda yosh mutaxassislar tabiiy fanlar va muhandislik kabi turli

texnologik sohalardan ko'nikma va malakalarga muhtoj bo'ladi. Hozirgi vaqtda bolalarimizni maktabgacha ta'lim tashkilotida nimaga qiziqtirish mumkin? Aynan STEAM texnologiyasi bolalardan tadqiqotchilar, kashfiyotchilar, olimlar, texnologlar, rassomlar va matematiklarning avlodlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishga imkon beradi. Olingan ma'lumotlarni olish, qayta ishlash va amalda qo'llash qobiliyatini rivojlantirish STEAM - ta'lim texnologiyasining asosini tashkil etadi. Respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan.[1] Bu vazifalarni amalga oshirish uchun maktabgacha yoshdagi bolalarni davlat talablariga muvofiq tafakkurini o'stirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish bo'yicha ta'lim berish dasturlari ishlab chiqildi. Ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash, ta'lim va tarbiyani yuksaltirish, yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Texnologiyalar shunchalik tez rivojlanmoqda va o'zgarib bormoqdaki, maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogi har doim ham ular bilan birga bo'la olmaydi. So'nggi o'n yillikda pedagogika har doim ham pedagogga tushunarli bo'lmagan yangi atamalar bilan to'lib bormoqda. Bolalar uchun juda samarali resurs imkoniyatlariga ega bo'lgan ta'lim yechimlari (qurilish to'plamlari, raqamli laboratoriyalar, robot-to'plamlar va o'yinlar, kompyuter o'yinlari majmualari, mualliflik o'yin vositalari, multistudiyalar va boshqalar) turlari ko'payib bormoqda. Ushbu to'plamlarning maqsadi: STEAM texnologiyalari haqidagi tushunchalarini aniqlashtirish va eng yaxshi natijalarga erishishdir. [2]

STEAM - hozirgi kunda dunyo ta'lim tizimining eng asosiy urf bo'lgan innovatsion metodlaridan biri hisoblanadi. Bir qaraganda STEAM abbreviaturasi juda murakkab ko'rinadi, lekin uni alohida ko'radigan bo'lsak sodda va aniq ekanini ko'rishimiz mumkin, ya'ni: S – science, T – technology, E – engineering, A – art, M – mathematics, yoki tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik san'ati, ijod, matematika. Oddiy so'z bilan aytganda, zamonaviy dunyoda eng ko'p talab etilayotgan fanlardir. Hech kimga sir emaski, ko'plab fan tarmoqlarida katta yutuqlarga erishish uchun o'zlashtiriladigan turli sohalardagi bilimlarning integratsiyasi talab etiladi. Aynan shunday muammolarni hal qilishda STEAM texnologiyasi yordam beradi. Bu metodika ta'limni aralash turda olib borish va egallangan nazariy bilimlarni kundalik hayotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. STEAM bu maktabda va maktabdan tashqarida loyiha va o'quv-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi innovatsion texnologiyadir. Ushbu metod yordamida fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki integratsiyalashgan holda, umumiy bog'liqligini ko'rsatib o'rgatiladi.

STEAM ta'limi nafaqat o'qitish usuli, balki fikrlash tarzidir. STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib-ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof-muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va

birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu yerda faqat bitta mavzu bo'yicha bilimga tayanish yetarli emas. Bundan ko'rinadiki, STEAM ta'lim jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar amalda bajargan faoliyatlarini ijodiy fikrlash orqali tushuntirib berishga harakat qiladilar.[2]

STEAM yondashuvi bizning ta'lim va tarbiyaga bo'lgan qarashimizni o'zgartirmoqda. Amaliy qobiliyatga e'tibor berib, bolalar o'zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadi. Ushbu ko'nikmalar va bilimlar asosiy ta'lim-tarbiya vazifasini tashkil etadi. Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. STEAM ta'lim texnologiyasi Amerika davlatida ishlab chiqilgan. XXI asr boshlarida AQSH iqtisodiyotida ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika sohalari eng tez rivojlanadigan tarmoqlar hisoblandi. Shu asosda AQSH va uning yetakchi kompaniyalari butun dunyo bo'ylab raqobatbardosh bo'lishi uchun texnologik innovatsiyalarni tatbiq etishda STEM ni ta'lim tizimiga integratsiya qilish harakatiga katta qiziqish uyg'otdi.

Amaliy faoliyatda tajriba-sinovdan muvaffaqiyatli o'tdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEM ta'lim tizimi shu tarzda shakllandi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik bu yerda **art** qo'shildi va endi STEAM oxirigacha shakllandi. Bolalar ushbu mavzular, aniqrog'i ushbu fanlardan bilimlar kelajakda ularning yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishiga yordam beradi, deb hisoblashadi. Oxir oqibat, bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo'llashadi. Bundan ko'rinadiki, an'anaviy o'qitish uslublari bilan taqqoslaganda, maktabgacha ta'limda STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o'tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o'z g'oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta'lim yondashuvi bolalarga nazariy va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va keyingi ta'lim jarayonini osonlashtiradi. STEAM texnologiyasi bolalarga dunyoni tizimli o'rganish, atrofdagi hodisalarning o'zaro munosabatlarini aniqlash va tushunish, yangi, g'ayrioddiy va juda qiziqarli narsalarni kashf qilish imkonini beradi. Yangi narsalar bilan tanishishni kutish qiziqish va kognitiv faoliyatni rivojlantiradi; o'zingiz uchun qiziqarli vazifani aniqlash, usullarni tanlash va uni hal qilish uchun algoritm yaratish, natijalarni tanqidiy baholash qobiliyati - muhandislik fikrlash uslubini ishlab chiqish va jamoaviy faoliyat qobiliyatini rivojlantiradi. Bularning barchasi bolaning rivojlanishining tubdan yangi, yuqori darajasini ta'minlaydi va kelajakda kasb tanlashda yanada keng imkoniyatlar yaratadi.[4]

STEAM ta'lim texnologiyasining boshqa texnologiyalardan farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari uchun bir vaqtning o'zida aqliy faoliyat bilan birga amaliy faoliyatni uyg'unligini ta'minlaydilar. Bunda "Aql va qo'l" iborasiga amal qiladilar. Olgan bilimlarini amaliy faoliyatda ko'rib tezda uqib, o'zlashtirib oladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarning 3-7 yosh davrida intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish juda qo'l keladi. Ko'pgina tadqiqotchilar maktabgacha yosh davrini intellektual rivojlanishning eng qulay davri ekanligini isbotlaydilar. Bola

hayotining maktabgacha yosh davrida shaxsiy intellektual qobiliyatlari jadal rivojlanish jarayoni hisoblanadi.[3]

An'anaviy o'qitish uslublari bilan taqqoslaganda, maktabgacha ta'limda STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o'tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o'z g'oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta'lim yondashuvi bolalarga nazariya va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va universitetga kirish va keyingi o'qishni osonlashtiradi. Hozirda investorlar, biznes-homiylar, yirik biznes vakillarining ilmiy-innovatsion loyihalarga qiziqishi ortib boryapti. Ilg'or ishlanmalarning paydo bo'lishi uchun, shubhasiz, STEAM – markazlar yaratilishi, robot texnikasi kabi fanlar kiritilishi, dasturlashtirish asoslarini informatika faniga integratsiyalash, mavjud tajribadan pedagoglarni mavzuviy hamjamiyatlarga birlashtirish yo'li bilan foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli Qarori <http://lex.uz/docs/-4327235>
6. Maxmutazimova Yu.R. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalari. O'quv qo'llanma – Toshkent.: Tamaddun, 2022. 148b
7. Jalilova S.X. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi Toshkent 2017. "Faylasuflar" nashriyoti – 496b
8. Djurayeva B.R., Tojiboeva X.M., Nazirova G.M. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendentsiyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent 2016. "O'zPFITI" nashriyoti - 110b

CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNI IJODIY–KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TATBIQIY MEXANIZIMLARI

Inoyatov Odiljon Sobitovich

*Guliston davlat pedagogika inistituti Ijtimoiy fanlar va san'atshunoslik
kafedrasi katta o'qituvchisi gulduinayatov@gmail.com +998972480801*

***Annotatsiya:** Fazoviy tassavurni o'stirishning birinchi usulida narsalarda berilgan chizmalardan foydalanib ularni oddiy figuralarga fikran ajratib o'qish va uning yaqqol tasvirini bajarish yo'li bilan talabalarning fazoviy tassavuri oshiriladi. Xaqiqatdan ham chizmada tasvirlangan narsaning ko'rinishlari yonida uning yaqqol tasviri bo'lsa, talaba chizma bilan yaqqol tasvirini uzviy bog'langan holda chizmalarda ko'rinishlari berilgan narsani ko'z o'ngida gavdalantirishi osonlashadi.*

***Kalit so'zi:** Chizma, qobiliyat, tasavvur qilish, fazoviy tasavvurlarini shakillantrish, idrok, modellashtirish, fa'oliyat.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.06.2022 yildagi PQ–289–

son, qarorida, “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora–tadbirlari to’g’risida” gi Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg’or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko’tarish, shuningdek, pedagogika sohasida ta’lim, ilm–fan va amaliyot uyg’unligini ta’minlash, shuningdek, 20.04.2023–yildagi “Ilmiy–metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta’lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo’yicha chora–tadbirlar to’g’risida” gi PQ–128–son qarorini qabul qilish pedagogika sohasida kompleks tadqiqotlar olib boorish, bu jarayonga zamonaviy talablar va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy qilish vazifalarini kun tartibiga qo’ydi. Bu borada bo’lajak mutahassislarda ijodkorlik fazilatlarini, tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga ustuvor tarzda qaralishiga alohida e’tibor qaratiladi.

Tadqiqot maqsadi. Talabalarning ijodiy–kreativ fikrlash Oliy ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlashning muhim omili sifatida alohida didaktik ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa alohida aqliy operatsiyalar talab etiladigan fanlarni o’qitishda ta’lim oluvchining tanqidiy–tahliliy musohada, sinfetik holatlarini mohiyatini aniqlash, kompozitsion va fazoviy tasavvurlar hal qiluvchi ro’l oynaydi. Shu ma’noda chizmachilik fanini o’qitishda talabalarda ijodiy–kreativ fikrlashga oid kompetensiyalarni rivojlantirish ijobiy yakunning o’ziga hos kafolati hisoblanadi. Chizmachilik fani darslarida muntazam yuqori samaradorlikga erishish uchun chizmalarini to’g’ri o’qish, tuzish hamda fazoviy to’g’ri fikrlashga yo’naltirish. Fazoviy fikrlash–buyumlar, jismlarning nafaqat muhitdagi, fazodagi holatini, ularning tuzilishi, konstruksiyasi, tarkibiy component (element)lari, ularning alohida tuzilishi va funksiyasi haqidagi tasavvurlarni shakllantiradigan va rivojlantirish uchun didaktik asos yaratishni ta’minlaydigan aqliy faoliyat turi bo’lib, talabalarda fazoviy tasvirlarni shakllantirish va ularni boshqa narsalarda manipulyatsiya qilishga e’tibor qaratish bilan biga amaliy va nazariy masalalarni yechish jarayonidir. Bu murakkab jarayon nafaqat mantiqiy (og’zaki tushunarli) operatsiyalarni, balki ko’p ijodiy harakatlar, ularsiz fikrlash davom eta olmaydi ehtimol, ya’ni haqiqatda yoki chizmalarda taqdim etilgan obyektlarni aniqlash turli grafik vositalar bilan bajariladi. Shuning uchun ham bu jarayonni optimal tarzda tashkil etish uchun mukammal pedagogik mexanizm va uning tatbiqiy asoslarini ishlab chiqish lozim bo’ladi. Talabalarni turli xil fikrlashi majoziy fikrlashning ko’rinishi, fazoviy fikrlash hamma narsani saqlaydi. Fikrlash shakllari uning asosiy xususiyatlari bilan verbal–diskursivdan farq qiladi. Biz bu farqni, birinchi navbatda, dars jarayonida ko’ramiz, yani talaba grafik vazifalarni bajarishda tabiiy fikrlash tasvirlar bilan ishlaydi. Mazkur uslub davomida ular talab qilinadigan tartibda qayta ishlanadi, rekonstruksiya qilinadi, chizmalar o’zgartiriladi. Bu yerdagi tasvirlar ham manba, ham asosiy didaktik ma’lumotlar hisoblanadi, yani bir vaqtning o’zida ham ijodiy birlik va aqliy jarayonning natijasi hisoblanadi. Bu uslubda materialni o’zlashtirishda og’zakidan ko’ra ko’proq chizmani o’qish, tuzish va chizish bilan amalga oshiriladi. Ammo, boshqa

usullardan farqli o'laroq og'zaki–munozarali fikrlashdan (bu yerda og'zaki bilim asosiy hisoblanadi) yangi mazmun, obrazli tafakkurda so'zlar vosita sifatida qo'llanadi.

Fazoviy tafakkur ham bosqichma–bosqich uzviylik va uzluksizlik prinsipi asosida ontogeneznining barcha bosqichlarida shakllanadi va bu jarayonda turli omillar ta'sirida yaqqol namoyon bo'ladi. Natijada individual o'ziga xoslik, uning turli xil namoyon bo'lish xususiyatlari faoliyat turlari (o'yin, o'quv, professional) davomida shakllanadi. Tabiiyki, bu natijaga erishish uchun muayyan maptib–qoida, mexanizmga tayaniladi. Ta'lim oluvchida yangi bir sifatlarni tarkib toptirish uchun mazmun va metodikani tatbiqiy mexanizmi bo'lishi talab etiladi. Shuning uchun ham mazkur tadqiqotda chizmachilik darslarida talabalarni ijodiy–kreativ fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirishning tatbiqiy mexanizmini yaratish maxsus tadqiq etilmoqda.

Fazoviy fikrlashning mazmuni amalda fazoviy tasvirlar, ularni yaratish asosida novizual qo'llab–quvvatlash (mavzu yoki grafik, umumiylikning turli o'lchovlari va konventsiyalar)larni nazarda tutuvchi quydagi amallarni qamrab oladi.

- fazoviy tasvirlar bilan ishlash ular bilan belgilanadi original tarkibga ega bo'ladi (geometrik shakl, aniq parametrlarga ega bo'lgan o'lchamdagi tasvirda aks etish darajalari, obyektlarning fazoviy joylashuvi);
- operatsiya turi (obyektning holatini, uning tuzilishini ishlash jarayonida o'zgartirish);
- to'la ya'ni, tasvirning dinamizmi (undagi turli xususiyatlarning mavjudligi, jumladan ularning tizimlilik, harakatchanlik xususiyatlariga egaligi).

Fazoviy tafakkurning yuqorida tavsiflangan xususiyatlari talabalarda fazoviy tasavvurlarni shakllantirish jarayonini aks ettiradi. Tasvir bilan ishlash uning sifat jihatidan o'ziga xosligini, hayoliyligini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Oliy ta'lim muassasalarida muhandislik grafikasi fanlarini o'rganayotganda talabalar, asosan, ikki o'cho'vli orthogonal proyeksiyalarda tekis figuralarni tasvirlash bilan shug'ullanadilar. Birinchi kurs talabalarining ko'pchiligi muhandislik grafikasi fanlarda yetarli darajada tasavvurga ega bo'lmaydilar. Chunki yassi shakllarni va fazoviy figuralarning ta'rifiga asoslangan holda biladilar. Ammo ular o'quv jarayonida eng oddiy chizmalarni fazoviy va proyeksiyalarda ishlashlari maqsadli tashkil etimagan. Ko'pincha, savollarga javob berishda, lekin uchburchak va konus, aylana va silindr kabi tushunchalarni talabalari farqlay olmaydilar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida chizmachilik o'qitish jarayonida o'quvchilarda fazoviy tasavvur, ijodiy fikrlash borasida bilimlari yetarli darajada shakllanmaganligi bois oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ijodiy–kreativ fikrlashga o'rgatishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelinadi. Masalan, talabalar chizmachilikni o'zlashtirish jarayonida bor harakatini individual geometrik shakllarni tasvirlash, jismlarni proyeksiyalari bilan shug'ullanish, tekislikda tasvirlashni o'rganadilar, ammo ularni proyeksiyalash usullari o'rgatilmasa, u holda proyeksiyalash qonunlariga oid o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonini qiyinlashtiradi.

Talabalar chizmachilik kursini o'rganishda tushunishlari kerak bo'lgan eng

muhim sifat chizmalarni o'qish, tuzush, qayta ishlash, standartlarga to'liq roya etish ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish va uni rivojlantirishda ishtirok etishdan iborat. Buning uchun talaba malakali mutaxassis bo'lishi uchun u chizmani to'g'ri o'qiy olishi kerak. Shuningdek, chizma va uning tekis figuralari yordamida fikrlarini aniq ifodalashi, koordinatalar va chiziqlarda fazoviy obyektни ifodalaydilar. Shuning uchun talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishda chizma chizish katta ahamiyatga ega. Bu borada talabalar uch o'lchovli makonda boshqacha fikrlashni boshlaydilar, epyurda fazoviy uch o'chovlik jismlarni tasvirlash ularning dunyo haqidagi g'oyalari o'zgaradi, bu ularga ijodkorlikni rivojlantirishga imkon beradi.

Bilim olish jarayoni to'rt bosqichni o'z ichiga oladi: tushunish, yodlash, bilimlarni qoida bo'yicha qo'llash va ijodiy muammolarni hal qilish. Bosqichlar tanib olish, ko'paytirish, qayta ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq. Grafik ta'limda zamonaviy bilimlarni qo'llash talab qiladigan standart va nostandart vazifalarni hal qilish imkonini beradi. Muhandislik grafikasi fanining har bir bo'limning o'quv materialini o'zlashtirish jarayoni mahalliy miqyosda propedevtik ijodiy muammolarning yechimlarini o'z ichiga olishi kerak bo'lgan tegishli bilimlarni egallashga qaratiladi. Bu chizmachilik darslarida talabalarni ijodiy–kreativ fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirishning tatbiqiy mexanizmining muhim shartlaridan biridir.

Talabalarni ijodiy fikirlashga o'rgatish, masalan, detalning u yoki bu qismini o'zgartirish, o'ziga hos tarzda loyhalash bilan hal qilish katta ahamiyatga ega. Buyumlarning shaklini tasvirlash, uning fazodagi o'rnini tasavvur etishda talabalarining konstruktiv va fazoviy fikrlashlari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ularni qurishga oid elementlari bilan bog'liq muammolarni yechish amaliyotda ko'nikmalarni hosil qilishda, ijodiy fikrlashni o'rganishda va olingan bilimlarni qo'llash imkonini beradi. Talabaning ijodiy–kreativ fikrlashlarini rivojlantirishda ularning ijodiy salohiyati inklyuziya orqali rivojlanadi. Oliy muassasalarida tehsil olayotgan ta'lim talabalar turli xil ijodiy faoliyat turlari bo'yicha tehsil oladilar. Zamonaviy sharoitga bo'lajak mutahassislarni professional kasbiy muvaffaqiyatli moslashishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega zamonaviy jamiyatda nafaqat bilim hajmi va tizimlilik, balki qo'llash qobiliyati ham mavjud bo'lib ularni amalda o'zgartirishni hamda ularga moslashgan holda ijodiy fikirlashni shakllanish talab qilinadi.


Talabalarda ijodiy fikrlashga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning ma'lum bir turi, oddiy buyumlar o'rtasidagi yangi aloqalarni sodda va murakkab geometrik jismlar bo'yicha qobiliyatini ishga solish orqali, yangi buyumlarni uch o'lchovli modellarini yaratish jarayoni kechadi.

Talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun e'tiborni faollashtiradigan o'qitish texnologiyalaridan foydalanish uchun tatbiq qilish usullari va metodlarini ishlab chiqish va qiziqish kabi didaktik ma'lumotlar bilan talabalarini faol kognitiv faoliyatga jalb qilish zarur. Faoliyatning bu turini tarkibida turli usullar, texnologiyalar, metodlardan iborat pedagogik mexanizm orqali tashkil etiladi.

Tajriba–sinov davrida tadqiqot ishining amaliyoti shuni ko'rsatdiki,

talabalarni ijodiy–krativ fikrlashga o‘rgatishning eng samarali usullari ularning mustaqil ijodiy grafik ishlarini tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: loyiha, izlanish–ijodiy, tadqiqot, o‘quv suhbat, materialning muammoli taqdimoti. Talabalarning ijodiy–krativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ulardan foydalanish orqali ularda, ijodiy fikrlashni faollashtiradigan o‘qitish texnologiyalari va usullarini ishlab chiqish, bu vositalar orqali talabalarni qiziqtirish, ularni faol kognitiv faoliyatga jalb qilish tavsiya etiladi.

Bundan tashqari, tadqiqotning tahliliy natijalari shuni ko‘rsatdiki, tashkil etishning eng samarali usullari talabalarning mustaqil ijodiy–krativ fikrlashga undovchi grafik ishlari quyidagilardan tashkil etish lozim (2.2.2–rasm).



2.2.2–rasm. Ijodiy fikrlashga undovchi samarali usullar.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Shunday qilib, talabaning ijodiy salohiyati rivojlanadi shu jumladan oliy ta‘lim muassasalaridagi muhandislik grafikasi fanlaridan talabalarini turli xil ijodiy faoliyatga bog‘liq muammoli vaziyatlarni va ijodiy vazifalarni tahlil qilish, yechish jarayonida grafik bilim va ko‘nikmalardan foydalanish asosida ta‘milanadi.

Ijodiy faoliyat talabalarda ijodiy–krativ fikrlashni rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Bundan tashqari, grafik ta‘limda talabalarning ijodiy shaxsiy xususiyatlari (uzoq muddatli qobiliyat, ijodiy fikrlash va intellektual kreativ fikrlash, mustaqillik va chizmalarni tez chizish, topshiriqlarni fazoviy bajarish qobiliyati, to‘liq standart bilan ishlash zarurati, o‘z mustaqil ijodiy fikrni himoya qilish qobiliyati va boshqalar) rivojlanadi. Ijodkorlik natijasi talabalarning mehnati – bu ularning intellektual faolligining o‘sishi, kreativ fikrlashni o‘zlashtirilishi va ijodiy tajribaga intilish, natijada ular talabaning ijodiy salohiyatini rivojlantirishni ta‘minlaydi.

Talabalarga o‘zlarining ijodiy imkoniyatlaridan foydalanishga yordam berish va oliy ta‘lim muhitida muhandislik grafikasi fanlarida ijodkorlikni namoyish qilish uchun muayyan ta‘limiy strategiyalar ishlab chiqish hamda tadqiqotda uni ustuvor yo‘nalish sifatida qabul qilish lozim. Bizning tadqiqotimizda oliy ta‘lim muassasalarida chizmachilikni o‘qitish jarayonida talabalarni ijodiy–krativ fikrlashga o‘rgatish metodikasini takomillashtirishning tatbiqiy mexanizmlari joriy etish natijasida talabalarni ijodiy fikrlashga o‘rgatishning barcha sohalarida muvaffaqiyatga erishish uchun zaruriy kompetensiyalarga ega bo‘lishi

ta'minlanadi. Talabalarni ijodiy–kreativ fikrlash va muammoni ijodiy yechishga o'rgatish orqali ijodiy– fikrlashga o'rgatishni rivojlantirish mumkin. Demak, chizmachilik darslarida talabalarni ijodiy–kreativ fikrlashga o'rgatishning strategic asoslari besh usuli mavjud bo'lib, ular quydagilardan iborat.

Xulosa. Talabalarni ijodiy–kreativ fikrlashga o'rgatishda muhandislik grafikasi fanining tushunchalari va qonuniyatlarini o'zlashtirishning chuqurligiga, mustahkam bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va talabalarning chuqur yoki puxta bilimlar olishga, ularga chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanining nazariyalarini tushuntirishga, dars samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hennessey, B. and T. Amabile (2010), "Creativity", *Annual Review of Psychology*, Vol. 61, pp. 569-598 (3-чи ихтибос)
2. Nafisa, Yakubova. "Chizmachilik darslarida talabalarni ijodiy–kreativ fikrlashga o'rgatish." *Uz-Conferences*. Vol. 1. No. 1. 2023.
3. Norboy, Boriboyeva Dilrabakhon. "DEVELOPMENT OF STUDENTS' GRAPHIC COMPETENCE IN TRAINING ENGINEERING GRAPHICS." *International Journal of Pedagogics* 3.12 (2023): 145-147.
4. Alikulovich, Berikbaev Alisher. "Subject Training Disciplines as a Means of Forming Professional Competence in Future Teachers of Fine Arts" *Annals of the Romanian Society for Cell Biology* (2021): 8965-8989.
5. Yakubova. N.O. Chizmachilik (1-qisim) qo'llanma –T.: "Ilm ziyo zakovat" 2023.

RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLARDA OLIY TA'LIM TIZIMI VA JAHON OLIY TA'LIM MUASSASALARINING 2024-YILGI XALQARO REYTINGDAGI O'RNI BO'YICHA TAHLILLAR

N.N.Umarov, G.R.Murodova

*Navoiy davlat pedagogika instituti dekan o'rinbosari,
Navoiy davlat pedagogika instituti doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimidagi tajribasi, oliy ta'limda erishgan muvaffaqiyatlari hamda xalqaro oliy ta'lim muassasalarining 2024-yildagi jahon reytingidagi o'rni va istiqbol rejalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Xalqaro integratsiya, Metriz, Lisans, Anglo-amerikacha model, Fransuzcha model, Elitar o'quv yurtlari, Grande Ecole, Ecole Normale.

Global integratsiyalashgan hozirgi vaqtda mamlakatda ta'lim darajasi qancha yuqori bo'lsa, u mamlakatning iqtisodiyoti shuncha samarali rivojlanishi, ishsizlik darajasi past va umrning uzoqlik darajasi shuncha yuqori bo'lishi shakshubhasiz bir hol sifatida qaraladi. Bundan tashqari, aholi bilim darajasining yuqoriligi jamiyat hayotining boshqa sohalariga, masalan, davlat boshqaruvining sifatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston ta'lim sohasida bozor islohotlarini amalga oshirib, xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi bilan integratsiya jarayonlarini aniq maqsadlarga muvofiq ravishda olib bormoqda. Hamdo'stlik mamlakatlaridan

Rossiya, Belorusiya, Qozog'iston, Ozarbayjon, xorijiy davlatlardan AQSH, Finlandiya, Singapur, Buyuk Britaniya, Italiya, Germaniya va boshqa nufuzli davlatlar bilan oliy ta'lim sohasida hamkorlik aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. Xorijiy davlatlar oliygohlarining Respublikamizda filiallari ochilishi va ularda xalqaro standartlarga mos ravishda o'quv dasturlarining tuzilganligi, ta'lim sifatining yuqori darajada ekanligi, ta'lim-tarbiya jarayonining uzluksizligi hamda eng ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida olib borilishi ushbu oliygohlar bitiruvchilarining mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishini ta'minlaydi.

Jahondagi ko'plab mamlakatlarda oliy o'quv yurtlari o'rta umumiy ta'lim tizimidan keyingi, navbatdagi ta'lim bosqichi hisoblanadi. Oliy ta'lim maktablarining ko'pchiligida o'qish muddati 2 yil yoki undan ko'proq bo'lib, uch siklda yoki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich ta'limi 3-4 yil (yoki ko'proq) davom etadi va bitiruvchilarga bakalavr diplomi beriladi (AQSH, Angliya, Yaponiya, Avstraliyada).

Fransiyada birinchi bosqich oliy maktabni bitiruvchilarga metriz Belgiyada lisans unvoni beriladi. Ikkinchi bosqich oliy ta'lim maktablariga birinchi siklni tugatgan bitiruvchilarning 10-25 foizi qabul qilinadi. Bu davrda tanlangan yo'nalish bo'yicha ixtisoslashtirilgan umumiy fundamental bilimlar o'qitiladi (Angliya, Ispaniya, AQSH). Germaniya, Fransiya, Belgiya kabi mamlakatlarda esa ikkinchi bosqich oliy ta'lim maktablari talabalari ancha mukammal va muayyan maqsadga yo'naltirilgan bilimlarni egallaydilar. Lekin hali ular tor profildagi yuqori malakali mutaxassis unvonini olish uchun ikkinchi sikldagi o'qishlarini yana ixtisoslashtirilgan kurslarda 1-2 yil davom ettirishlari mumkin. Muayyan ixtisosliklar bo'yicha maxsus imtihonlar 3 yillik amaliy ish faoliyatidan keyin ham topshirilishi mumkin. Oliy maktablarining ikkinchi bosqichida o'qish 1-2 yil davom etadi. Bu siklni bitirgan talabalarga magistr unvoni beriladi (AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Avstraliya).

Fransiya va Belgiyada magistr unvoni ma'lum mutaxassisliklari chuqur o'rgatiluvchi kurslarning bitiruvchilariga ham beriladi. Magistrlik ta'limining o'ziga xos xususiyatlaridan biri o'quv dasturlarini individuallashtirilganligidir. Bunda o'quv dasturlari talabalar va ularning ilmiy rahbarlari tomonidan tuziladi va kafedralar, dekanatlar tomonidan tasdiqlanadi. Magistraturani bitirgan yoshlar doktoranturaga kirishga huquqiga ega bo'ladilar. Oliy ta'limning uchinchi bosqichi bu - doktoranturadir. Bunga asosan ikkinchi bosqich oliy ta'lim maktablarini muvaffaqiyatli bitirgan talabalar qabul qilinadi. O'qish muddati mutaxassislik turiga ko'ra 1-3 yil. Doktoranturaga birinchi sikl oliy ta'lim maktablarini bitirganlar ham kirishi mumkin. Lekin bu holda o'qish muddati 3-5 yilgacha uzaytiriladi.

Birinchi sikl oliy ta'lim qoidalariga binoan mutaxassislik bo'yicha umumiy bilimlar berishga yo'naltirilgan. Ta'limni alohida ixtisoslarga bo'lib tashkil qilish, odatda, 3-kursdan boshlanadi. Tor mutaxassislar bo'yicha kadrlar tayyorlash faqat uchinchi sikldagina amalga oshiriladi. Ko'p bosqichli oliy ta'lim tizimining bunday o'ziga xos xususiyatlari anglo-amerikacha va fransuzcha modellarda jahon bo'yicha keng tarqalgan. Oliy ta'limning anglo-amerikacha tizimi AQSH, Buyuk Britaniya, Hindiston, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Yaponiya, Isroil va boshqa

mamlakatlarda mavjud. Birinchi sikl oliy o'quv yurtlaridagi o'qish muddati turli mamlakatlarda turlicha. Masalan, AQSHda 4 yil, Buyuk Britaniyada 3 yil. Magistrlik darajasini olish uchun yana 2 yil o'qish lozim (ayrim ixtisosliklar bo'yicha 1-1,5 yil). AQSHdagi qator muhandislik oliy maktablarida bakalavrluk diplomini 5 yillik tizimdan keyin olish mumkin. Tibbiyot sohasida birinchi doktorlik diplomini (stomatologiya, veterinariya sohalari bo'yicha) olish uchun esa 8 yillik ta'lim joriy qilingan. Yaponiyada esa bakalavrluk darajasini 4 yillik ta'limdan so'ng olish mumkin (tibbiyot mutaxassisliklari esa bundan mustasno), magistrlik darajasiga teng diplomni olish uchun yana 2 yillik ta'lim dasturini o'tash lozim.

Oliy ta'limning fransuz modeli Fransiyadan tashqari Belgiya, Shvetsariya, Norvegiya va boshqa mamlakatlarda joriy qilingan. Bu tizim talabalarning sinchiklab tanlash asosida qabul qilishni ko'zda tutadi. Talabalar dastlabki 1-3 yilda umumiy dasturlar orqali ta'lim olish bilan bir qatorda bo'lajak tor ixtisosliklarni tanlashda faol ishtirok etadilar.

Ko'p bosqichli fransuz oliy ta'lim modelining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Fransuz universitetlarida ta'limning dastlabki ikki yilida qator mutaxassisliklar uchun yagona o'quv dasturlari mavjud.

2. Universitetning 2-kursini tugatib, tegishli guvohnoma olgan talaba shu universitetning 3-kursini o'zi tanlagan mutaxassislik bo'yicha o'qishni davom ettirishi yoki boshqa universitetga o'tishi va yoki o'qishni elitar o'quv yurtlari (Grande Ecole-katta maktab, Ecole Normale-oddiy maktab)da davom ettirishi mumkin.

3. Universitetning 3-kursini bitirgan talabalar "lisans" diplomini oladilar. Bunday diplomni olgan talabalar o'qishlarini 4-kursda davom ettirish yoki o'qishni tashlab o'z mutaxassisliklari bo'yicha amaliy ish bilan shug'ullanish huquqlariga egadirlar. 4-kursni tamomlagan talabalar esa "metriz" diplomini oladilar. "Metriz" diplomi uning egasiga to'liq oliy ma'lumot olganligidan dalolat beradi.

4. Fransuz oliy ta'lim tizimidagi ikkinchi sikl ta'limning maxsus atamasi, nomi ham yo'q. ikkinchi sikl deyilganda odatda 4 yillik birinchi sikl oliy ta'limidan so'ng keladigan navbatdagi bosqich tushuniladi xolos. Fransuzcha oliy ta'lim modelining ikkinchi sikli 1-2 yillik ta'limni o'z ichiga olib, uni bitiruvchilar tanlagan mutaxassisliklari bo'yicha chuqur bilimlarni o'rganganliklari haqida maxsus ixtisos diplomini oladilar.

5. Ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlarida ma'lum soha mutaxassislik diplomini beruvchi yoki doktoranturaga kirish huquqini beruvchi 1 yillik qayta tayyorlov kurslarining keng tarmog'i faoliyat ko'rsatadi.

Hozirgi kunda xorijiy mamlakatlarning oliy ta'lim sohasidagi olib borayotgan davlat siyosatlari asosan xususiy oliy o'quv yurtlarini tashkil qilish bilan xarakterlanadi. Xususiy oliy o'quv yurtlarini tashkil qilish, ularni rivojlantirish borasidagi amaliy ishlar davlatlar tomonidan qo'llab quvvatlanmoqda, chunki bu sohaga davlat va mahalliy byudjet ko'magidan tashqari, yirik xususiy sarmoyalarni ham jalb qilish imkonini beradi. Bunday yondashuv ayniqsa AQSH, Yaponiya va Fransiyada ko'zga yaqqol tashlanadi.

Ularning mavjudligi davlat tasarrufidagi oliy o'quv yurtlari obrusiga putur yetkazmaydi. Yuqoridagi barcha mamlakatlardagi xususiy oliy o'quv yurtlar moliyaviy jihatdan davlat tomonidan qo'llab quvvatlanadi.

Oliy ta'limga oid yangiliklar va muammolar haqida maxsus xabar beradigan "The Times Higher Education" Britaniya jurnali tomonidan 2024-yilgi jahon oliy ta'lim muassasalari reytingi e'lon qilindi. Ushbu reyting 108 mamlakat va mintaqadagi 1906 ta universitetni o'z ichiga oladi. Reyting besh yo'nalish bo'yicha muassasa faoliyatini o'lchaydigan 18 ta sinchkovlik bilan sozlangan samaradorlik ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi. Xususan, o'qitish, tadqiqot muhiti, tadqiqot sifati, sanoat va xalqaro istiqbol shular jumlasidandir. Bu yilgi reyting 16,5 million tadqiqot nashrlari bo'yicha 134 milliondan ortiq iqtiboslarni tahlil qildi va butun dunyo bo'ylab 68 402 olimning so'roviga javoblarini o'z ichiga oldi.

Oksford universiteti ketma-ket sakkizinchi yil reytingda birinchi o'rinni egallab turibdi, biroq kuchli beshlikdagi boshqalar o'z saflarida siljishlar kuzatgan. Stenford universiteti ikkinchi o'ringa ko'tarilib, Garvard universitetini to'rtinchi o'ringa tushirdi. Massachusetts texnologiya instituti (MIT) bu yil ikki pog'onaga ko'tarilib, uchinchi o'rinni egalladi. Kembrij universiteti o'tgan yili uchinchi o'rinni egallaganidan keyin beshinchi o'ringa tushib ketdi. Eng yuqori yangi kirish Italiyaning Muqaddas yurak katolik universiteti bo'lib, 301-350 qavsda joylashgan. Biroq bu yil reytingga ilk bor qo'shilgan muassasalarning aksariyati Osiyoda joylashgan. Demak, bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki Osiyoda ham jahon standartlariga yuqori darajada javob beruvchi oliygohlar soni oshib bormoqda.

AQSH 169 ta institut bilan eng ko'p vakillik qilingan davlat bo'lib, shuningdek, eng yaxshi 200 ta (56) ichida eng ko'p vakillik qilingan davlatdir. Oliy o'quv yurtlarida ilmiy izlanishlar olib borish bo'yicha AQSh jahon mamlakatlari orasida yetakshi o'rinlardan birini egallaydi. Bu mamlakatda ilmiy izlanishlar uchun ajratilgan mablag'ning 48% davlat tomonidan, 50 % firma, konsern, sindikatlardan undiriladi, qolganlarini oliy o'quv yurtlarining mablag'lari tashkil qiladi.

91 ta institutga ega Hindiston hozirda Xitoyni (86) ortda qoldirib, eng ko'p vakillik qiladigan to'rtinchi davlat bo'ldi. Stenford universiteti o'qitish ustunini boshqaradi, Oksford va Kembrij universitetlari tadqiqot muhiti bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Yangi nomi o'zgartirilgan iqtiboslar ustuni bo'lgan tadqiqot sifati ustuni birinchi o'rinda MITni ko'radi. 1904 ta reytingga ega bo'lgan muassasalardan tashqari yana 769 ta universitet "muxbir" maqomiga ega, ya'ni ular ma'lumotlarni taqdim etgan, lekin unvon olish uchun muvofiqlik mezonlariga javob bermagan va yakuniy jadvalda muxbir sifatida ko'rsatilishiga rozi bo'lgan. Bir qarashda, ro'yxatning yuqori qismi o'tgan yilga nisbatan unchalik o'zgarmagan. Oksford universiteti birinchi o'rinni saqlab qolgan, AQSh esa eng yaxshi 10 o'rinning yettitasini egallagan. Ammo yaqinroq tekshirilganda, Jahon universitetlari reytingining yuqori bo'g'ini shuni ko'rsatadiki, Xitoyning eng yaxshi institutlari birinchi o'ntalikka kirishga har qachongidan ham yaqinlashmoqda. Tsinghua universiteti va Pekin universiteti mos ravishda 12 va 14-o'rinlarni egallash uchun bir necha pog'ona ko'tarilgan. Jahon universitetlari

reytingining 400 taligiga kiruvchi Xitoy ta'lim muassasalari soni 2021-yilda atigi 15 ta bo'lsa, 2024-yilda 30 taga yetdi.

Ushbu tendentsiya bilim iqtisodiyoti kuchining G'arbdan Sharqqa siljishidan dalolat beradi. Bu kelajakda ko'proq xalqaro talabalarni Xitoyda o'qishga undaydi. Xitoy universitetlarining jahon reytingidagi o'rinlari tobora yaxshilanishi ularning reyting ko'rsatkichlari bilan yaxshi tanishligi, hukumatning sektorni rivojlantirish uchun mo'ljallangan katta darajadagi mablag'lari hamda sektorning xalqarolashtirish, ta'lim islohotlari va tadqiqot innovatsiyalariga sodiqligi bilan bog'liq bo'lishi tahlil qilinmoqda. Yangi reytingga kiritilgan muassasalar orasida 20 tasi Hindistondan, ya'ni uning ishtiroki 2024 yilgi reytingdagi boshqa mamlakatlarnikiga qaraganda ko'proq oshdi. Mamlakatning yetakchi muassasasi - Hindiston fan instituti 2017-yildan beri birinchi marta yana kuchli 250 talikka kirdi. Biroq, bu eng yaxshi 500 talikka kirgan yagona universitet. Bu reyting 2016 yilda 400 dan ortiq institutlarni qamrab olganidan beri mamlakatdagi eng yomon ko'rsatkichdir. O'rtacha hisobda Hindiston universitetlari reytingda 14 pog'onaga pasaygan, bunga asosan tadqiqot sifati bo'yicha uslubiy o'zgarishlar sabab bo'lgan. Turkiya va Pokiston ham bu yil juda ko'p institutlarni qo'shmoqda (mos ravishda 14 va 11), ya'ni Osiyo 200 talik ichida umumiy vakillik va vakillik bo'yicha yetakchiligini oshirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.J.Mutalipova, B.X.Xodjayev "Qiyosiy pedagogika" darslik, Toshkent 2015-yil.

2. A.A.Ikramov, G.N.Davranova, A.A.Ikramova "Qiyosiy pedagogika" o'quv qo'llanma, Buxoro 2022-yil.

3. www.timeshighereducation.com

DARS JARAYONIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI VA ULARNI QO'LLASH TEXNIKASI

Agibayeva Shaxzoda Baxtiyor qizi

GulDU Interyer dizayn loyihalash yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz dars jarayonida interaktiv usullarning ahamiyatini, ularning afzalliklari va samarali amalga oshirish usullari to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin.

Kalit so'zlar. Interfaol usullar, vizual, kinestetika, tanqidiy fikrlash.

Interfaol o'qitish usullari samarali va qiziqarli darslarni yaratishda muhim rol o'ynaydi. Ular o'quvchilarni jalb qilishga yordam beradi, o'qishga bo'lgan qiziqishini rag'batlantiradi, tanqidiy fikrlash va muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi, ijobiy ta'lim muhitini yaratadi va o'quvchilarga o'rganilgan materialni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi. Interfaol usullarni amalga oshirish o'qituvchining ijodkorligi va moslashuvchanligini talab qiladi, ammo bu, albatta, kuch sarflashga arziydi, chunki bu ta'limni o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari uchun yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Interfaol usullar darslarni o'quvchilarning turli xil o'quv uslublariga moslashtirishga imkon beradi. Ba'zilar vizual o'rganishni, boshqalari audiolarni,

va yana boshqalari kinestetika (jismoniy faollik va harakatdan faol foydalaniladigan o'qitish) usullarini afzal ko'rishadi. Interaktiv usullar o'qituvchiga ushbu farqlarni hisobga olish va darslarni hamma uchun qulay va samarali qilish imkonini beradi.

O'quv jarayonida interfaol usullardan foydalanish o'quv samaradorligini sezilarli darajada oshirishi, o'quvchilarni qiziqtirishi va materialni yaxshiroq tushunishiga yordam beradi. O'quv jarayonida interaktiv usullardan foydalanish bir qator muhim afzalliklarga ega va o'rganish samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin:

1. Talabalarni faollashtirish: Interfaol usullar talabalarning darsda faol ishtirokini rag'batlantirishga yordam beradi. Interfaol usullarning asosiy afzalliklaridan biri bu o'quvchilarni o'quv jarayoniga jalb qilish qobiliyatidir. Ma'ruzalarni passiv tinglash o'rniga, ular munozaralarda, topshiriqlarda va turli xil o'yinlar orqali darsda faol ishtirok etadilar, bu esa materialni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

2. Motivatsiyani oshirish: O'yin elementlari, guruh topshiriqlari, multimedia taqdimotlari va boshqa interaktiv texnikalar talabalar uchun darslarni yanada qiziqarli va esda qolarli qiladi, bu ularning o'rganish motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

3. Muloqot va aloqa ko'nikmalarini rivojlantirish: Interfaol o'qitish usullari o'quvchilarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Guruhlarda ishlash, dars mavzusini muhokama qilish, munozaralar va taqdimotlar o'tkazish ularga o'z fikrlari va g'oyalarini ifoda etishni, o'z nuqtai nazarini ilgari surgan holda bahslashishga va boshqalarning fikrlarini tinglashni va hurmat qilishni o'rganishga yordam beradi.

4. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Ular ma'lumotni tahlil qilishga, qaror qabul qilishga va o'z nuqtai nazarlarini ishlab chiqishga majbur bo'ladilar, bu ularga mustaqillik va ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

5. Ijobiy ta'lim muhitini yaratish: Interfaol usullar sinfda ijobiy ta'lim muhitini yaratishga yordam beradi. O'quvchilar o'zlarini yanada ishonchli va qiziqroq his qilishadi, bu esa sinf muhitini yaxshilaydi va o'rganish motivatsiyasini oshiradi.

6. Materialni eslab qolish qobiliyatini oshirish: Darsda faol ishtirok etish va interfaol usullardan foydalanish tufayli talabalar o'rganilgan materialni yaxshiroq yodlaydilar. Buning sababi shundaki, faol faoliyat jarayonida olingan ma'lumotlar xotirada yanada ishonchli tarzda o'rnatiladi.

7. Ta'limni individuallashtirish: Interaktiv usullar o'qituvchiga har bir o'quvchining ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda o'rganishni individuallashtirishga imkon beradi. U har bir talaba o'z darajasida muvaffaqiyatga erishishi uchun turli xil mashg'ulotlar va o'qitish yondashuvlarini taklif qilishi mumkin.

8. Bilimlarni amalda qo'llash: Interfaol usullar ko'pincha talabalarga topshiriqlarni bajarish, ishlarni hal qilish va boshqa amaliy mashqlar orqali olgan

bilimlarini amalda qo'llashga imkon beradi.

9. Ota-onalarning faol ishtirokini rag'batlantirish: Interfaol usullar, shuningdek, ota-onalarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishini o'z ichiga olishi mumkin. Ular munozaralarda, darsdan tashqari mashg'ulotlarda qatnashishlari va uyda bolalarga topshiriqlarni bajarishda yordam berishlari mumkin.

Muayyan texnikani tanlash o'quv maqsadlariga, mavzuning o'ziga xos xususiyatlariga va talabalarning individual ehtiyojlariga bog'liq.

Interfaol o'qitish usullari zamonaviy ta'limda muhim rol o'ynaydi, darslarni zerikarli ma'ruzalardan bilim dunyosi bo'ylab hayajonli sayohatlarga aylantiradi. Interfaol usullarni qo'llash usullari xilma-xil bo'lishi mumkin va mavzu sohasiga, talabalarning yoshiga, mavjud resurslarga va boshqa omillarga bog'liq. Ulardan ba'zilari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Guruh ishlari va jamoaviy loyihalar.
- Interfaol doskalar va onlayn platformalar kabi interaktiv texnologiyalardan foydalanish.
- Munozaralar va rolli o'yinlarni tashkil etish.
- Materialni mustahkamlash uchun o'yinlar va kvestlarni o'tkazish.
- Amaliy topshiriqlar, shu jumladan laboratoriya ishlari, tajribalar va loyihalar.
- Fikr-mulohaza, o'z-o'zini hurmat qilish va aks ettirish kabi faol o'rganish usullaridan foydalanish.

O'quv jarayonida interfaol usullardan foydalanish talabalarning faolligini sezilarli darajada oshirishi va o'rganishni osonlashtirishi mumkin. Quyida siz foydalanishingiz mumkin bo'lgan bir nechta texnikalar keltirilgan:

1. PowerPoint yoki Google Slides kabi taqdimot vositalaridan so'rovlar, testlar yoki fikr-mulohaza topshiriqlari kabi interfaol elementlardan foydalaning.
2. Talabalarga o'z bilimlarini amalda qo'llash imkonini beruvchi o'yin elementlarini o'quv jarayoniga kiritish ularning faolligini oshirishga va ma'lumotni yaxshiroq qabul qilishga yordam beradi.
3. Kichik guruhlarda ishlash o'quvchilarga materialni muhokama qilish, o'z nuqtai nazarini rivojlantirish va hamkorlik qilishni o'rganish imkonini beradi. Shuningdek, u muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Sinfni guruhlariga ajrating va har bir guruhga hal qilish uchun topshiriq yoki muammo bering. Bu hamkorlik va fikr almashish ko'nikmalarini rag'batlantiradi.
4. O'quvchilarga material bilan faolroq muloqot qilish imkonini beruvchi interaktiv doskalar, planshetlar, onlayn platformalar, mobil ilovalar – bularning barchasidan interfaol darslar yaratishda foydalanish mumkin. Bu interfaol grafik va animatsiyalardan foydalangan holda materialni taqdim etishdan tortib, talabalar texnologiyadan foydalangan holda bajarishi mumkin bo'lgan vazifalargacha bo'lishi mumkin.
5. Savollar berish va talabalardan real vaqtda fikr-mulohazalarni olish uchun onlayn ovoz berish tizimlari yoki mobil ilovalardan foydalaning. Dolzarb mavzular bo'yicha munozaralar yoki munozarali masalalar bo'yicha muhokamalar tashkil etish o'quvchilarga argumentatsiyani rivojlantirish, o'z fikrlarini bildirishni va boshqalarning nuqtai nazarini tinglashni o'rganish imkonini beradi.
6. Talabalarga o'z fikrlarini muhokama qilish va murosaga kelish orqali muammo

yoki muammolarni hal qilish uchun birgalikda ishlashga imkon bering.

7. Materialni oddiygina tushuntirish o'rniga, o'quvchilarga real vaqtda ishtirok etish va natijalarni ko'rish imkonini beruvchi namoyishlar, tajribalar yoki videolardan foydalaning.

8. Amaliy masalalarni yechish yoki vaziyatlarni tahlil qilish talabalarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash va tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

9. O'quvchilarning topshiriqlari va darslari yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirish muhimdir. Shuningdek, ularga muvaffaqiyatlarini o'z-o'zini baholash, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkoniyatini berish foydalidir.

10. Olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashni talab qiluvchi vazifalarni belgilash, masalan, loyihalar yaratish, insho yozish yoki muammolarni hal qilish.

Mumkin bo'lgan eng qiziqarli va samarali o'rganish tajribasini yaratish uchun dars maqsadlari, talaba ehtiyojlari va fan sohasiga qarab ushbu usullarning kombinatsiyasidan foydalanish zarur.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki dars jarayonida interfaol usullardan foydalanish o'qitish jarayonini qiziqarli qilishga, o'quvchilarda kreativlikning rivojlanishiga, tanqidiy fikrlash, bahslashish, o'z fikrini ifodalay olish va bilimlarini amalda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Johnson, L., Adams, S., & Haywood, K. (2011). The NMC Horizon Report: 2011 K-12 Edition. The New Media Consortium.
2. Puentedura, R. R. (2006). Transformation, technology, and education. Retrieved from <http://hippasus.com/resources/tte/>
3. Bates, T. (2015). Teaching in a digital age: Guidelines for designing teaching and learning. Tony Bates Associates Ltd.
4. Hrastinski, S. (2019). Teaching and Learning Online: Volume 1: Foundations of Online Education. Independently Published.
5. Palloff, R. M., & Pratt, K. (2013). Lessons from the Virtual Classroom: The Realities of Online Teaching. John Wiley & Sons.
6. Salmon, G. (2013). E-tivities: The Key to Active Online Learning. Routledge.

XXI ASR KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA REBUS VA KROSSVORDLARNING AHAMIYATI

Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna

Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi mudiri v.v.b

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida rebus va krossvordlardan foydalanish asosida XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari misollarda keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, o'qish savodxonligi, 4K modeli: kollaboratsiya, kommunikativlik, kritik va kreativ fikrlash, rebus, krossvord.

Boshlang'ich ta'lim – shaxs shakllanishi davrining eng muhim bosqichi. Bu

davr bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo‘lgani uchun ham nozik e’tibor talab etadi. Ayni shu pallada bola o‘zida “o‘quvchi shaxsi”ni yaratadi, maktabga va ta’lim olishga nisbatan qiziqishni, mehrni tuyadi, ilm yo‘lidagi kelgusi natijalar uchun kuch to‘plashni boshlaydi. Bu esa, zamonaviy pedagogika oldidagi doimiy va murakkab masala sifatida darsliklarning g‘oyaviy, tarbiyaviy va ma’rifiy saviyasiga jiddiy yondashishni talab etadi.

Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o‘qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo‘yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari yangidan “4K” modeli asosida tayyorlandi. “4K” modelidan foydalanish ko‘plab sinovlardan o‘tgan, muhimi, zamonaviy yondashuvdir. Bugungi kunda o‘quvchilarda zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishning asosiy maqsadi – yosh avlodni har tomonlama yetuk, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan barkamol insonlar etib shakllantirishdir.

O‘quvchilarning zamonaviy ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida bolaning turli qobiliyatlari rivojlanadi, g‘oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi.

Pedagog olimlar o‘quvchilarning zamonaviy ko‘nikmalarining hayot bilan bog‘liqligi, bolaning yoshi, o‘ziga xos xususiyatlari, hatto jinsiy tafovutini hisobga olish ham qonun deb hisoblaydilar.

O‘quvchilarning zamonaviy ko‘nikmalarini ma’lum maqsadga qaratilganligi prinsipi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollari ko‘ra bilishda muhim o‘rin tutadi. Quyida krossvord va rebuslar asosida zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyatlarini ko‘rib chiqamiz.

Krossvordlar darslikdagi mavzular asosida tuzilishi ularning turlaridan: rasmlar asosidagi krossvordlar, savollar asosidagi krossvordlar, raqamlar asosidagi krossvordlar va boshqalar o‘quvchini intellektual qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan krossvordlardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Krossvordlarni yechish orqali o‘quvchilarda mavzuni mustahkamlash imkoni yuzaga keladi, integratsiya jarayoni amalga oshiriladi. Berilgan krossvordlarning slayd ko‘rinishida berilishi esa o‘qituvchi uchun axborot texnologiyasi asosida dars tashkil etish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan bir qatorda krossvord va rebuslar yechish yoki yaratish kreativ fikrlashga, tahlil qila olish, baholash ko‘nikmalarini shakllanishi kritik fikrlashga, fikrlarini bayon qila olish – kommunikativlikni, berilgan krossvord yoki rebusni guruhlarda topish – kollaboratsiyani yuzaga keltiradi.

Rasmlı rebus namunasi:

Rasmlarni bosh harflarini ketma-ketlikda to‘g‘ri joylashting.



Javobi: Nutq sehri.
 Sonli krossvord namunasi:

3	6	9	1	5	7	8	4	2
bil	pa	mas	qa	ni	ri	bil	gan	ri

Javobi: Qari bilganni pari bilmas.
 Savollar asosidagi krossvord namunasi:

"Navro'z" krossordi

1) Fasllar kelinchagi .

- 2) Milliy o'yin
- 3) Millat .



Xulosa qilib aytish mumkinki, krossvordlardan foydalanish mashg'ulotlar dasturda qayd etilgan mavzularning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarini hal qilishga qaratilgan bo'lishi bilan bir qatorda 4k modeliga asoslangan holda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

16. Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
17. Azizxojayeva N.N., Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. –T. Adabiyot jamgarmasi. 2006.
18. "Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy metodikasi" dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo'llanmasi. – Toshkent, 2023.
19. Aydarova. U.B. O'qish savodxonligi. 2-sinf uchun darslik. –Toshkent, Novda Edutainment, 2023.
20. Toirova. M.E. O'qish savodxonligi. 4-sinf uchun darslik. –Toshkent, Novda Edutainment, 2023.

TA'LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJ TAJRIBALARNING AHAMIYATI

Ergasheva Mahbuba Ne'mat qizi

Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi

Anotatsiya: Kirib kelayotgan va kashf etilayotgan texnologiyalarning vujudga kelishi, migratsiya jarayoni, demografik muammolar O'zbekiston jamiyatining ma'naviy intellektual hayoti va ishlab chiqarish munosabatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi haqida.

Bugungi kunda butun jahon miqyosida texnologik taraqqiyotning 4-bosqichi davom etmoqda. Aksariyat faoliyat usullarini sun'iy intellekt vositalari ya'ni robotlar bajarmoqda. Bu esa o'quvchilarni hayotga tayyorlash maqsadida vujudga keladigan muammolarni yechishga ko'maklashadigan ko'nikmalar bilan qurollantirishni talab qilmoqda. Ushbu ko'nikmalar "soft skills" ya'ni moslashuvchan barqaror ko'nikmalar sifatida talqin etilmoqda. Ular rivojlanib qat'iylashgan kasbiy ko'nikmalarga aylanadi. Bu ko'nikmalar to'rt guruhga mujassamlashtirilgan. Bugungi kunda fan va ta'limda ushbu ko'nikmalarni 4K kompetensiyalari sifatida talqin etish tajribasi shakllangan.

Agar ta'lim jarayonida 4K kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari kengaytirilmasa, o'quvchilarning bilish faoliyatini jadallashtirish, ularni mikrosotsiumga samarali tayyorlash maqsadiga erishib bo'lmaydi. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarning o'z rivojlanish traektoriyalarini tanlashlari, kasbiy qiziqish va tafakkurga ega bo'lishlari, o'z layoqatlariga ko'ra kasb tanlashlari uchun ham 4K kompetensiyalari nihoyatda zarur hisoblanadi. Aks holda ular o'z oldilariga maqsad qo'yish, shaxsiy motivlarini namoyon qilish ko'nikmasiga ega bo'lmaydilar. Biz uzoq yillar davomida o'quvchilarning akademik bilimlarini rivojlantirishga harakat qildik. Bugungi kunda katta va o'rta avlodning samarali faoliyat ko'rsatish uchun akademik bilimlari yetarlidir. Biroq kichik avlodda amaliy tajribalar, zarur kompetensiyalarning yetarlicha shakllanmaganligi kuzatilyapti. Mustaqil, kreativ fikrga ega bo'lmagan yoshlar boshqalarning fikrini tahlil qilmasdan turib aynan ko'chirib olish, xalqimiz va millatimiz uchun yot bo'lgan madaniy stereotiplarga ko'r-ko'rona amal qilishlari ayon bo'lmoqda. Bu esa ijtimoiy-madaniy munosabatlarda bo'shliqlarni vujudga keltirib, fan-texnika taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bu o'z navbatida ta'lim jarayoni oldiga o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish vazifasini qo'moqda. Buning uchun birinchi navbatda davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va darsliklarda XXI-asr ko'nikmalarini integratsiyalashtirgan holda taqdim etish lozim. Har bir o'quv predmeti bo'yicha tashkil etiladigan o'quv-tarbiya jarayonlarida o'quvchilarda mazkur ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarda XXI-asr ko'nikmalari negizida 4K kompetensiyalarining shakllanganlik darajasini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish ham muhim ahamiyatga ega.

Mazkur ko'nikmalarni shakllantirish asosida o'quvchilar bosqichma-bosqich rivojlanib, o'zlarining shaxsiy nuqtai nazarlari va kasbiy tanloviga ega

bo'ladilar. Bunda o'quv jarayonida 4K kompetensiyalarini tadrijiy tarzda shakllantirish mexanizmlariga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasiga tayangan holda O'zbekiston xalqining o'ziga xos tajribasi, madaniyati, mentalitetidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda 4K kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlarini tadbiq etish taqozo qilinmoqda. O'quvchilarning ijtimoiy hayotga tayor, raqobatbardosh mutaxassis bo'lishlari uchun XXI-asr kompetensiyalarini o'zbek xalqi va O'zbekiston jamiyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda muayyan ko'nikmalar bilan boyitish zaruriyati mavjud. Buning uchun o'quvchilar muntazam tarzda rivojlanishlari, intellektual faollik ko'rsatish tajribasiga ega bo'lishlari, o'z dunyoqarashlarini boyitishlari lozim.

Mazkur vazifalarni samarali hal qilish uchun yangi darsliklar ta'lim oluvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishda "4K" modelini (kritik fikrlash, kreativlik, kollaborasiya, kommunikasiya) qo'llash orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Ta'lim jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun – mohiyati o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ygan mamlakatimizda yoshlarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlarga sodiqlik ruhida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi qilib voyaga yetkazish zarurligini ko'rsatmoqda. Bugun "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi" degan ezgu g'oya asosida maktabgacha va maktab ta'limi tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasida ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning moddiy-ma'naviy sharoiti tubdan yaxshilanib, maktablarda ta'lim-tarbiya sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda. Boshlang'ich sinflar uchun ushbu yangi darsliklar o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, nafaqat bilim, balki zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Tanqidiy fikrlash- bu mustaqil fikrlaydigan shaxsdir. U boshqa odamlarning fikrlarini o'zlashtirmaydi, u har doim o'z fikriga ega va ularni dalillar bilan isbotlay oladi.[3.104]

Tanqidiy fikrlash elementlarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- tahlil – topshiriqni alohida kichik vazifalarga bo'lish, masalalarni yechishning yakuniy algoritmlarini yaratish qobiliyati;
- baholash – kirish va chiqish ma'lumotlarining sifati va muvofiqligini baholash qobiliyati;
- tushuntirish – o'z nuqtayi nazarini dalillash, mantiqiy-bog'liq izchil matnlar qurish;
- maqsadlarni belgilash – erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni to'g'ri shakllantirish, zarur ma'lumotlarni va uning yetarliligini aniqlash, shu asosda mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyati;
- o'zini boshqara bilish – o'z-o'zini tekshirish, xulosalarni tuzatish va mulohazayuritish (refleksiya);
- modellashtirish – amaliy vaziyatni sifatli tahlil qilish va vazifalarni hal qilish uchunvaziyatni mavhum modeli bilan almashtirish qobiliyati;

- o'rganilayotgan predmetga turli nuqtalyi nazardan qarash amaliyoti;
- kuzatish va o'lchovlarni rejalashtirish va amalga oshirish amaliyoti;
- muammolarni hal qilish malakalarini rivojlantirish;
- dalillarni ajrata olish, ularni shakllantirish va baholash qobiliyati;
- strategik fikrlash.

Kreativlik (Ijodkorlik) ko'nikmasi- ijodiy fikrlash, muammolarga nostandart yondoshish, murakkab vaziyatlarga samarali yechim topish shu bilan birga insonni mashinadan va sun'iy intellektdan ajratib turadigan narsadir.[3.98]

Kreativ fikrlash elementlari quydagilardan iborat:

qiziquvchanlik – tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko'proq bilishga intilish, dunyo obyektlari o'rtasidagi sabab-natija munosabatlarini aniqlash, axborotnimustaqil izlash va o'z savollariga javob topish qobiliyati;

tasavvur – ko'plab original va nostandart g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;

optimallashtirish – maqsadga tez va samarali erishish uchun bir nechta usullarni solishtirish qobiliyati;

g'oyalarni rivojlantirish – g'oyalarni turli nuqtayi nazardan baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini izlash, o'zgaruvchan sharoitlarda va yangi ma'lumotlarning paydo bo'lishida o'z faoliyatini tezda qayta qurish qobiliyati.

Muloqot qilish ko'nikmasi- muloqot qilish qobiliyati hayot davomida zarur bo'lgan mahoratdir. Muloqotsiz maktabda ham, universitetda ham, ishda ham, shaxslararo ham munosabat qilolmaysiz.[3.123]

Kommunikativlik (Muloqot qilish) ko'nikmasi quydagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- muloqotdan cho'chimaslik va muloqotni uyushtira bilish qobiliyati, savollar berish va ularga javob berishga tayyorlik;
- muloqot maqsadi va mazmuniga, shuningdek, suhbatdoshga moslashish qobiliyati;
- muloqotchanlik maqsadlariga erishishda verbal va noverbal vositalardan foydalanish qobiliyati;
- muloqot qoidalari ma'nosini tushunish va ishonch darajasini oshirish;
- boshqa odamlarning fikrini tinglashni o'rganish;
- o'zining ijobiy obrazi shakllanishini ta'minlash;
- o'z fikr va his-tuyg'ularini ifodalash amaliyoti;
- taqdim etish, qabul qilish va qayta aloqani aks ettirish amaliyoti;
- o'z fikrlari va mulohazalarini aniq dalillash amaliyoti;
- katta va kichik jamoada boshqalar bilan ishlash amaliyoti.

Jamoaviy ishlash ko'nikmasi - hamkorlik bu jamoada ishlash ko'nikmasi. Topshiriqni bajarayotganda yordamni qabul qiling, birovning nuqtai nazarini qabul qiling, o'zingizni himoya qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to’g’risida” gi O‘RQ – 637-son Qonuni. – Toshkent, – “O‘zbekiston” NMIU, 2020. – B. 10–12. <https://lex.uz>.

2. To‘xliyev B. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. 167-b.

3. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. – 462 b.

4. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: Innovatsiya-Ziyo. 2020. – 354

FOREIGN EXPERIENCES TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION

Robiya Zayniddinova Sabriiddin qizi

Student of UzSWLU, Uzbekistan. E-mail: robiyasabriddivna@gmail.com

Abstract. *In enhancing the quality of education, the unique methodologies and distinctive approaches utilized by foreign countries in their education systems are of particular importance. This article provides insight into the strengths of the leading education system, which has garnered recognition in global rankings due to its specific teaching and learning methods. You will gain an understanding of why their competence in teaching and learning is exceptional.*

Keywords: education system, teachers, methods, competence, critical thinking.

Introduction

Like every country, Uzbekistan also faces certain issues and shortcomings within its education system. These include assessing the potential of students, recognizing the limitations of traditional teaching methods primarily from a theoretical perspective. Additionally, it is essential to create opportunities for experienced professors or teachers to mentor their skilled apprentices and innovative pedagogues. Currently, science and technology are advancing rapidly, and educational systems are exploring new fields such as computer science or working with algorithms. Utilizing information, analysis, and insights from other countries' platforms can provide valuable experiences and insights to teach or develop knowledge in these fields or other areas. This creates numerous opportunities for future generations to learn, explore, and innovate. As an example of countries that have taken ownership of excellence in the education system in the world rankings, Finland, Sweden, the United States of America, and Germany can be cited.

Finland Education

According to statistics, Finnish school students demonstrate the highest level of

knowledge in the world. They are also among the most avid readers globally. Additionally, Finnish school students rank second in natural sciences and fifth in mathematics worldwide. However, it is not only the educational system but also the educational society that contributes to these results. What is surprising is that despite achieving high indicators on a global scale, Finnish school students do not spend as much time in class as one might expect. Compulsory education in Finland is divided into two parts: lower (*alakoulu*), grades 1-6; and upper (*yläkoulu*), grades

7-9. In addition, in the 10th grade, students have the opportunity to improve their grades. Afterwards, children either proceed to vocational college or continue their studies at a high school (lukio). In Finland, the education process focuses primarily on the interests of children. Each student is engaged individually, and financial limitations in the education program further enhance their enthusiasm for learning. In Finland, the most respected and highly valued profession is that of being a skilled educator. Therefore, they prioritize providing quality education by employing competent pedagogues.

Switzerland Education

The Swiss education system integrates vocational training with academic education, which contributes to a high level of employability among Swiss youth. Students enrolled in vocational education receive a salary during their studies, so they do not need to take out student loans to pay for their education. State universities in Switzerland are relatively affordable. Unlike in other countries, students do not pay tuition fees; they only pay administrative fees ranging from 500 to 2000 CHF. Swiss universities are renowned for providing quality education and conducting research. Both the Swiss Federal Institute of Technology (ETH Zurich) and the University of Zurich rank among the top 100 universities in the world. Additionally, numerous specialized institutions offer programs in fields such as hospitality or business, making them internationally renowned among students. The Swiss population speaks four official languages (German, French, Italian, and Romansh) and boasts a rich cultural history.

US Education

In the United States, the literacy rate was 99% in 2008, with 46% of individuals aged 25 and older having completed secondary education, and 30% holding bachelor's degrees. English is the primary language of instruction. One distinctive feature of the American higher education system is its flexibility in allowing students to change their academic focus, known as their "major," multiple times during their studies. Americans frequently take advantage of this flexibility. This flexibility suggests that students may develop an interest in a different field of study during their pursuit of higher education, and American universities are highly accommodating in this regard. It's important to note that changing one's major often requires taking additional courses, which incurs both time and financial costs. University activities vary widely, ranging from large-scale presentations for hundreds of students to small group classes and seminars. The atmosphere in American university classrooms is vibrant and dynamic. Active participation in discussions, expressing opinions, defending viewpoints, attending seminars, and delivering presentations are all encouraged. These aspects often leave international students in the United States impressed.

When considering the superiority of foreign educational systems, it can be inferred that Uzbekistan can also benefit from some of the technologies used in those countries. In terms of fundamental concepts, it should be noted that teachers play a crucial role in education. That is, before becoming a teacher, it is necessary for young academics to undergo psychological testing. Conversely, it is undesirable for them to work as pedagogues until their full potential in the teaching process has

been fully developed. Because to become a teacher, one needs precisely such qualities as adaptability, creativity, and competence in working with children. We know that currently, primarily diplomas or documents related to this degree are required to become a teacher. However, if a teacher does not have sufficient experience or qualifications to teach, they should be accepted as responsible individuals for preparing teaching materials in the curriculum. That is, if they are interested in this field but cannot meet the necessary requirements, their use in the curriculum will only be detrimental to the future of the students. As we know, theoretical and practical knowledge and skills differ from each other.

Conclusion

Monitoring the highly developed educational programs in advanced countries, we can also implement them in our own educational system. When education advances, the country also progresses economically, politically, and culturally. As our President emphasized: "The more knowledgeable our children become from school, the faster economic sectors based on high technologies develop, and the ability to solve many social issues emerges. Therefore, if we say the New Uzbekistan begins with school, I believe that our entire nation will support this idea." Indeed, basing on such ideas, incorporating new knowledge and applying it becomes our primary task. Likewise, in every field, moving in line with the ongoing modernization era is demanded accordingly.

Reference:

- "Foreign Experiences to Improve the Quality of Education in Non-State Educational Institutions "Xalokova Maksudaxon Ergashevna.
- "Teacher Quality Understanding the Effectiveness of Teacher Attributes" Book By Jennifer King Rice 2003.
- Reports of the education commission. New Delhi: GOI, 1964-66
- Seymour D. On Q: Causing quality in higher education. American Council on Education. New York: Macmillan, 1992..
- <https://zenodo.org/records/10206004>
- Popov V.V., Kruglov Y. (2011) Creative pedagogy. Methodology, theory and practice.
- https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekistonda_ta%CA%BClim
- https://t.me/goldenbrain_journal
- "AMERIKA QO‘SHMA SHTATLARI TA’LIM TIZIMI" by Madina Nurmatova
- <https://cyberleninka.ru/article/n/amerika-qo-shma-shtatlari-ta-lim-tizimi>
- https://world.uz/blog/view/vysshee_obrazovanie_v_shveytari
- <https://hidoya.uz/uz/news/769>

TA’LIMDA SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARNING AHAMIYATI

Axnazarova D, G‘aniyeva U

*Guliston davlat universiteti v.b dotsenti, p.f.n, Guliston davlat universiteti
talabasi*

Bugun globallashuv jarayonlari shiddatli rivojlanib borayotgan davrda barcha

jabhalarda bo'lgani kabi yoshlar siyosatini amalga oshirish, ular bilan ishlashsohasida ham yangicha qarashlar, munosabatlar tizimini ishlab chiqish hamda xorijiy davlatlarning ilg'or texnologiyalaridan foydalanish taqozo etilmoqda. Zero, ushbu tajribalarni tahlil qilish, ulardan mamlakatimiz amaliyotida unumli foydalanish yo'llarini o'rganish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin. Vatanimiz ta'limi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirdi va kechirmoqda. Ulardan ko'zda tutilgan maqsad maktab faoliyatini demokratlashtirish uning, insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosida o'quv tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir.

Yangilangan ta'lim to'la ma'noda yangicha tafakkur, sog'lom fikr demakdir. Hozirgi zamonda ta'limning qadr-qimmatini, obro' va nufuziga teng darajada uning ijrochilarida tashabbuskorlik, fidoyilik va ishbilarmonlik ham bo'lmoqi zarur. Jahon tajribalarini sinchkovlik va qunt bilan o'rganish orqali ta'lim tarbiyada qotib qolgan, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan ish shakllari, uslublaridan xalos bo'lish bilan birga, unum munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ega bo'lamiz. Yurtboshimiz mamlakatda kadrlar muammosi mavjudligini barcha sohalarga islohotlar sur'atiga mos zamonaviy mutaxassislar kerakligini aytgan edi. Shu maqsadda butun ta'lim tizimi takomillashtirilmogda.

Maktabgacha ta'lim rivojlantirilayotganini maktab saboqlariga puxta zamin bo'lmoqda. Umumiy o'rta ta'lim sifati ilg'or xalqaro tajriba va zamon talablari asosida yuksaltirilmoqda. Yurtboshimiz Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan. Shunday ekan biz xorijiy davlatlarning tarjibasini o'zlashtirib yangi zamonaviy ta'lim tizimini isloh qilish qilishimiz kerak.

L.S.Vigotskiyning ta'kidlashicha boshlang'ich maktab yoshining o'ziga xos xususiyati shundaki, faoliyatning maqsadlari asosan bolalar uchun kattalar tomonidan belgilab beriladi. O'qituvchilar va ota-onalar bolaga nima mumkinligini va nima qilib bo'lmasligini, qanday vazifalarni bajarish kerakligini, qaysi qoidalarga bo'ysinishni va hokazolarni aniqlaydilar. Bolalarga topshiriq berishda muayyan qoidalarga rioya qilish orqali amalga oshirilsa, bu qiyinchiliklardan qochish mumkin. O'zaro hamdardlik va do'stlik paydo bo'lishi uchun mehribonlik, diqqatlilik, mustaqillik, o'ziga ishonch, halollik kabi fazilatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Asta sekin, bola maktab haqiqatni o'rganar ekan, u sinfda shaxsiy munosabatlar tizimini rivojlantiradi. U har kimdan ustun bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri hissiy munosabatlarga asoslanadi. Polshalik mualliflar ishlarida didaktik muvaffaqiyatsizliklar ortishi jarayonini tahlil qilish tahsinga loyiq. V.Okon o'zlashtirmovchilik vujudga kelishida uch asosiy bosqichni ajratib ko'rsatadi:

didaktik muvaffaqiyatsizliklar, ikkinchi yilga qolish va chiqib ketish. Birinchi bosqichda bilimda orqada qolish unchalik sezilmaydi, o'qishni istamaslikning dastlabki belgilari namoyon bo'ladi. Ikkinchi bosqichda o'quvchi o'zlashtirsada, yaxshi deb hisoblanadi, lekin uning bilimida muhim kamchiliklar seziladi. Uchinchi bosqichda dastlabki qoniqarsiz baholar paydo bo'ladi, maktabga salbiy munosabat o'qituvchilarning tavsiyalarini bajarishni istamaslik holatlari vujudga keladi. To'rtinchi bosqichda - ikkinchi yilga o'qishga qoldiriladi. Ya.Konopniskiy didaktik muvaffaqiyatsizliklarni o'z vaqtida aniqlash uchun bilimdagi yetishmovchilikni belgilaydigan diagnostik testlar tizimini ishlab chiqdi. Chunki mualliflar faqat ikki omilning bilimdagi bo'shliq va o'qishga munosabatning o'zgarishini kuzatishadi va intellektual va irodaviy sohalardagi o'zgarish etiborga olinmaydi. Polshalik mualliflar tadqiqotlaridagi yana bir muhim xususiyat shundan iboratki, o'zlashtirmovchilik sabablarini aniqlash hamda didaktik muvaffaqiyatsizliklarni bartaraf etish vositalarini tanlash bo'yicha original eksperiment tashkil etish muhim hisoblanadi. Polshalik hamda rossiyalik pedagoglarning eksperimentlariga bog'chalarda bolani maktabda o'qishga tayyorlash bo'yicha, o'qishda orqada qolayotgan bolalarga qo'shimcha mashg'ulotlar uyushtirish bo'yicha markazlar tashkil etish kabilar kirgizish mumkin. Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'lishicha, o'quvchilar ko'proq rus tili, ingliz tili, arifmetika va tarix fanlaridan orqadalar. Anketa natijalaridan ma'lum qilinishicha, o'quvchilar materialni tushunmasliklari, tez charchashlari, diqqatni bir joyga to'plashda qiynalish, mavzuga qiziqish yo'qligi uchun qiynalishlarini ta'kidlagan. Muallifning ta'kidlashicha, ota-onalar, sinf rahbari va o'qituvchilarning birgalikdagi harakati tufayli bunday sabablarni bartaraf etish mumkin. Shunday qilib, tajribalarning ko'rsatishicha, individning o'z harakatlarining natijasini bilishi, oldida turgan vazifani yechishga undaydi va harakatlari to'g'rilanadi. Natijalarini bilmaslik esa, yo'nalishning yo'qolishiga va buning asosida o'z harakatlarining to'g'riligiga ishonmaslikning vujudga kelishiga olib boradi.

Ta'limdagi innovatsion texnologiyalar ta'limni tartibga solish, uni to'g'ri yo'nalishga yo'naltirish ham ta'lim samaradorligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Negaki, biz yashayotgan 21-asrda hayotni fan-texnologiyalarsiz tasavur qilib bolmaydi. Odamlar har doim noma'lum va yangi narsalardan qo'rqib kelishgan, ular har qanday o'zgarishlarga salbiy munosabatda bo'lishadi. Ommaviy ongda mavjud bo'lgan, odatiy turmush tarziga ta'sir qiluvchi stereotiplar og'riqli hodisalarga olib keladi, ta'limning barcha turlarini yangilashga to'sqinlik qiladi. Odamlarning zamonaviy ta'limdagi yangiliklarni qabul qilishni istamasligining sababi qulaylik, xavfsizlik va o'zini o'zi tasdiqlash uchun hayotiy ehtiyojlarni blokirovka qilishdadir. Albatta ta'limga har qanday yangilik, o'zgarish, jiddiy tahlillar, tajribalar asosida kirib keladi. O'zbekiston 2021-yilda PISA va PIRLS xalqaro baholash tizimida ishtirok etishi rejalashtirilgan. Bu sinovga barcha tayyorgarlik ko'rishi kerak. Ya'ni bu yilgi 3- sinf o'quvchilarimiz 2021-yilda 4-sinf bo'ladi. Bu o'quvchilarni mazkur jarayonga tayyorlash uchun xalqaro baholash tizimida ishtirok etib kelayotgan rivojlangan davlatlarning xalqaro tajribalari bilan o'rtoqlashishga to'g'ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev J.F. Xorijda ta‘lim (metodik qo‘llanma) – Toshkent: 1995- yil.
2. Ikromov A.B., Mxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Ta‘lim, ilm-fan, metodik qo‘llanma. Kasb mahorati jurnali -2004-yil. 2 son.
3. G.Anorqulkova, A. Karimov.Xorijiy mamlakatlar ta‘lim tizimining o‘ziga xos yo‘nalishi uslub va tahlili. Xalq ta‘limi ilmiy metodik jurnali. 2017-yil. 3-son.
5. Muxtorov A., Sultonov T., Mustafakulov Sh.I. Ta‘lim sohasini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribalar Iqtisodiyot va innovacion texnologiyalar. 2012. 4. 9 b.

TA‘LIM TIZIMIDA XORIJ TAJRIBASINI QO‘LLASH VA MILLIY DASTURGA KIRITILISHNING AHAMIYATI

Axnazarova D.E, Haydarova L

Guldu v.b dotsenti, p.f.n, Guldu 1-bosqich talabasi

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018-yil 5-maydagi PQ-3697 sonli “Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori va 2018 yil 7 maydagi PQ-3698 sonli “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohaslariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida fan, ta‘lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish lozimligi keltirilib, hozirgi kunda oliy ta‘lim muassasalari amaliyotida jahon tajribasini joriy etish o‘ta muhimligi ta‘kidlangan. Oliy ta‘lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash sifatini ta‘minlash muammosi har doim eng muhim dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o‘tish bilan ishlab chiqarish korxonalaridagi mulkchilikka bo‘lgan munosabat va talablarning o‘zgarishi hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash pedagoglar, talabalar va ota-onalar, shuningdek, jamiyatning hamma tizimlariga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda.

Shuning uchun oldimizda turgan asosiy vazifalaridan biri, bu ta‘lim sifatini ta‘minlash va uni mazmunini boyitish va zamonaviy innovatsion va pedagogik texnologiyalarini tadbiiq etish, jahon tajribasini qo‘llashda uning samarasini oshirish va ta‘lim sifatini ta‘minlash bilan bog‘liqligini doim ustivor yo‘nalishligini bilishimiz kerak. Demak, bugungi kunda sifatni ta‘minlashning yo‘nalishlaridan biri bu oliy ta‘lim muassasalarida nafaqat mamlakat ichkarisida, balki xorijiy mamlakatlar bilan shakllanishi albatta eng taraqqiy etgan ta‘lim usullarni tadbiiq etishni taqozo etadi. Buning asosida video konferensiyalar, masofaviy ta‘lim turlarini amalga oshirish mumkin. Onlayn rejimida o‘tkaziladigan bunday faol muloqot jarayonida, ikki tomondagi olimlar o‘rtasida dolzarb muammolar bo‘yicha baxs-munozaralar, ularning yechimlari, ma‘lum bilim sohalari bo‘yicha tajriba almashish kabi vazifalar amalga oshirilishi lozim.

Etirof etish kerakki, rivojlangan xorijiy davlatlarda ta‘lim mamlakat ichki siyosatiga faol ta‘sir etadigan ijtimoiy jarayondir. Shu tufayli yurtimizda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta‘minlashga ajratilayotgan mablag‘lar miqdori yildan-yilga oshib bormoqda. Shu bilan birga respublikamizda ta‘lim tizimida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish va ularni natijaviyligini ta‘minlash bu borada ta‘lim tizimi sifatini nazorat qilishning zamonaviy usullarini qo‘llash

zaruratini keltirib chiqaradi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'minlashni va nazorat qilishni xorijiy tajribalar asosida oshirish, mazkur mavzu dolzarbligi va bugungi kunda zaruratini ko'rsatadi. Kadrlar raqobatbardoshligini ta'minlash uchun o'qitishni yangi zamonaviy ta'lim texnologiyalarga moslashtirish, zamonaviy metodlarni va tamoyillarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishda xorijiy tajribalar bugungi kunda zarur bo'ladi. Bugungi kunda oliy ta'lim sifatini ta'minlash va modernizatsiyalashtirishda avvalombor, zamonaviy o'quv-metodik ta'minotni shakllantirish masalasi paydo bo'ldi. Shu sababli davlatimiz tomonidan oliy ta'lim oldiga qo'yayotgan masalalarni ijobiy hal etish uchun zamonaviy o'quv-metodik ta'minotni yaratish dolzarb masala bo'lib turibdi. Ta'lim sifati va ta'lim samaradorligi jamiyatda hayot sifatini ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Davlat va jamiyat umumiy va kasbiy ta'limga qanchalik ko'p mablag' sarflasa va natijasi eng yuqori xalqaro standartlarga javob bersa, hayot sifati shunchalik yuqori bo'ladi. Ta'lim samaradorligini belgilashda eng optimal qarorlar qabul qilish yuqori ta'lim sifatga erishishni talab etadi. Mamlakatimizning hozirgi davrdagi rivojlanish bosqichida oliy kasbiy ta'lim globalashuv jarayonlari davrida mamlakatning milliy, iqtisodiy, ekologik, siyosiy xavfsizligini ta'minlashga qodir bo'lgan shaxslarning shakllanishidagi, insoniyatning universallashtirish va postindustrial axborot jamiyatiga o'tishidagi asosiy vositalardan biri bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga hozirgi kundagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi asoratlari davom etayotgan bir pallada oliy ta'lim jamiyatni birlashtirishning, yagona ijtimoiy-madaniy makonni saqlab qolish, ijtimoiy nizolar va etnomilliy ziddiyatlarni yengib o'tishning eng muhim salohiyatli omili sifatida olib qaralishi lozimdir. Yangicha ta'lim tizimlarining shakllanishi tendensiyalari aniq ravshan turibdiki, hozirgi zamon jamiyatining umumiy rivojlanishi tendensiyalar bilan belgilanadi.

Ta'lim sifati an'anaga ko'ra o'qitishning va ilmiy tadqiqotlarning OTM darajasidagi tabiiy elementi va olimlarning kasbiy faoliyatidagi ajralmas bir bo'lagi bo'lib sanaladi. Hozirgi kunda oliy ta'lim sifatini oshirish butun dunyoda ta'lim tizimidagi eng muhim va asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham oliy ta'lim sifatini baholashdagi yondashuvlarni tadqiq qilishga ehtiyoj tug'iladi. Shunga ko'ra, oliy ta'lim sifatini ta'minlash turli oqibatlariga va xususiyatlarga ega bo'ladi. Oliy ta'lim sohasidagi turli tadqiqotchilar ta'lim sifatini ta'minlashning adekvat(mos) tizimini ishlab chiqishda har doim ilg'or tajribalarga tayanadilar. Ta'lim sifatini ta'minlash "jangovar harakat qoidalari" deb talqin qilinishi mumkin bo'lgan aniq oqibatlariga ega bo'ladi. Shu bilan birga tashqi intensiv nazorat zaruratini pasaytiradigan ta'lim xizmatlari sifatining shaffofligi borasidagi "yozilmagan qoidalar" ham mavjuddir.

Xulosa qiladigan bo'lsak, oliy ta'lim sifatini ta'minlash borasida shu paytgacha mavjud bo'lgan milliy va xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, hozirgi paytda OTMlarda alohida, tizimsiz tarzda o'tkaziladigan islohotlar va innovatsiyalar samarasiz bo'lib, bu ko'pincha oliy ta'lim sohasidagi umumiy samaradorlikka putur yetkazadi. Shuning uchun oliy ta'lim sifatini oshirish bo'yicha shu paytgacha to'plangan xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimi yutuqlari

bilan o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda ham faqat majmuaviy, tizimli va bir butun tarzda amalga oshirish mamlakatimizda oliy ta‘lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarishi shakshubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qatiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T: O‘zbekiston, 2017. 104 b.

2. Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risida Nizom (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2018 yil 9 avgustda 19-2018-son buyru‘gi bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 26 sentabrda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3069).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi - Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarida faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risidagi PQ-3775-sonli qarori.

4. Muxtorov A., Sultonov T., Mustafakulov Sh.I. Ta‘lim sohasini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribalar Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2012. 4. 9 b.

TURIZM UCHUN INGLIZ TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY INTERFAOL PEDAGOGIK METOD VA USLUBLARDAN FOYDALANISH

Quziyev Sarvarbek Ilmiddinovich

Ingliz filologiyasi kafedrasida o‘qituvchisi, Farg‘ona davlat universiteti

sarvarkuziev1988@gmail.com

Annotatsiya: Turizm - bu har qanday davrda o‘zgarishini isbotlagan va 21-asrda ham tez sur‘atlar bilan o‘shirda davom etadigan xizmat ko‘rsatish sohasi bo‘lib, bu soha uchun xorijiy tillarda muloqot juda muhimdir. Biroq, asrimizning lingua frankasi bo‘lgan ingliz tilini o‘zlashtirish qiyin bo‘lib qolmoqda va ilm-fan va kasbiy fanlarga urg‘u berilganligi sababli, til o‘rganish ko‘pincha universitetlarda e‘tibordan chetda qolmoqda.

Ushbu maqolada biznes ingliz tilini rivojlantirishning bir necha bosqichlari va so‘nggi paytlarda turizm talabalariga ingliz tilini o‘rgatishning ba‘zi yangi yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. Mehnat bozorida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar tufayli talabalarning ehtiyojlari o‘zgardi va turizm bo‘yicha talabalar uchun ingliz tilini o‘qitish pedagogikasida o‘zgarishlar yuz berdi. Umuman olganda, kasbga yo‘naltirilgan ingliz tili ham juda qiyin vazifadir, chunki u chet tilini o‘rgatish bilan bog‘liq qiyinchiliklarga ham, o‘sha chet tilining o‘zining maxsus lug‘atiga ega bo‘lgan boshqa tilga aylanishiga ham duch kelishi kerak. Bu bizning bitiruvchilarimizdan mehnat bozorida talab qilinadigan doimiy yangi muloqot ko‘nikmalarini o‘rganishlari kerakligini talab qiladi.

Kalit so‘zlar: mehnat bozori, globallashtirish, turizm uchun ingliz tili, kompetensiya, turizm bo‘yicha talabalar, universitetlar

USE OF MODERN INTERACTIVE PEDAGOGICAL METHODS AND APPROACHES IN ENGLISH LANGUAGE LESSONS FOR TOURISM

Kuziev Sarvarbek Ilmiddinovich

Teacher of the English philology department, Fergana State University

sarvarkuziev1988@gmail.com

Abstract: Tourism is a service industry that has proven to be stable in any era and continues to grow rapidly even in the 21st century, for which communication in foreign languages is very important. However, English, the lingua franca of our century, remains difficult to master, and because of the emphasis on science and professional subjects, language learning is often neglected in universities.

This article examines several stages in the development of business English and some recent approaches to teaching English to tourism students. Due to the changes taking place in the labor market, the needs of students have changed and there have been changes in the pedagogy of teaching English for tourism students. In general, professional English is also a very difficult task, because it faces both the difficulties of teaching a foreign language and the transformation of that foreign language into another language with its own special vocabulary. need This requires our graduates to constantly learn new communication skills that are in demand in the job market.

Keywords: labor market, globalization, English for tourism, competence, tourism students, universities

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИНТЕРАКТИВНЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ И ПОДХОДОВ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА ДЛЯ ТУРИЗМА

Кузиев Сарварбек Ильмиддинович

Преподаватель кафедры английская филология, Ферганский государственный университет sarvarkuziev1988@gmail.com

Аннотация: Туризм – это сфера услуг, зарекомендовавшая себя стабильно в любую эпоху и продолжающая быстро развиваться даже в XXI веке, для которой очень важно общение на иностранных языках. Однако английский язык, лингва франка нашего века, по-прежнему трудно освоить, а из-за акцента на науке и профессиональных предметах изучением языка в университетах часто пренебрегают.

В данной статье рассматриваются несколько этапов развития делового английского языка и некоторые современные подходы к преподаванию английского языка студентам-туристам. В связи с изменениями, происходящими на рынке труда, изменились потребности студентов и произошли изменения в педагогике преподавания английского языка студентам-туристам. В целом профессиональный английский тоже является очень сложной задачей, поскольку сталкивается как с трудностями преподавания иностранного языка, так и с трансформацией этого иностранного языка в другой язык со своей специальной лексикой. Это требует от наших выпускников постоянного освоения новых коммуникативных навыков, востребованных на рынке труда.

Ключевые слова: рынок труда, глобализация, английский язык для

туризма, компетентность, студенты-туристы, университеты.

1. Kirish

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, xalqaro assotsiatsiyalarning 85 foizi ingliz tilidan rasmiy foydalanishini, jahon kino bozorining 85 foizi ingliz tilida, dunyodagi ilmiy maqolalarning 85 foizi ingliz tilida yozilgan, dunyoda elektron saqlanadigan ma'lumotlarning 80 foizi hozirda ingliz tilida hamda dunyodagi tilshunoslik jurnallarining 70 foizi faqat ingliz tilida nashr etilishini aniqlaganidan beri ingliz tili XXI asrning lingua francasiga aylandi deyish ayni haqiqatdir.

Butun dunyo bo'ylab ishbilarmonlik muzokaralari odatda ingliz tilida olib borilganligi sababli, ushbu tildan foydalanish xalqaro kompaniyalar orqali biznes muhitini xalqarolashtirish kontekstida tobora kengayib bormoqda. Xorijiy mamlakatlarga tashrif buyurgan xalqaro sayyohlar bilan muloqot qilishda ingliz tilini puxta egallashi turizm sohasida ishlayotgan xodimlar uchun zarur. Bu sayyohlar bilan muloqot qilish va madaniy farqlarni tushunish va ushbu xalqaro kontekstda xodimlarning ish imkoniyatlarini oshirish uchun vositadir. Turizm uchun ingliz tili kasbga yo'naltirilgan ingliz tili sohasi sifatida qaraladi va akademik maqsadlarda sohaviy ingliz va umumiy ingliz tillarini birlashtiradi. Ya'ni, u aeroportlarda, turizm va sayyohlik firmalarida, bozorlarda va mehmonxonalarda turli madaniyat vakillari o'rtasidagi muloqot va o'zaro munosabatlar uchun zarur bo'lgan tilni o'rgatish bilan shug'ullanadi. Ingliz tilini bilish turizm sohasiga odamlarni yollashning asosiy mezonlaridan biri bo'lib, ingliz tilini yaxshi bilishi sayyohlarni jalb qilish uchun muhimdir. Shuning uchun ham butun dunyoda turizm oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili asosiy fan sifatida o'qitilmoqda. Lekin bu oson ish emas, chunki biz chet tilini o'rgatish va o'sha chet tilini o'zining ixtisoslashgan so'z boyligi orqali o'z-o'zidan boshqa tilga aylanib qolishi bilan bog'liq muammolarga duch kelishimiz kerak, chunki talaba ingliz tilini bilish darajasini oshirishi kerak. Shu bilan birga, u biznes bilan bog'liq lug'at va mazmun bilan tanishishi kerak. Universitetlarda kasbga yo'naltirilgan ingliz tilini o'rgatish jarayoniga shubha tug'diradigan boshqa faktlar ham mavjud: turli lingvistik kompetentsiyalarga ega bo'lgan katta sinflar, kitoblar va materiallarning mavjud emasligi, talabalar motivatsiyasining etishmasligi va boshqalar. Yechim til ko'nikmalarini egallash va ingliz tilini o'rganishni birlashtirishdir. ingliz tilini o'rgatishda kommunikativ yondashuvni hech qachon e'tiborsiz qoldirmagan holda biznes mazmunini adekvat nisbatda o'rgatish. Vaqtning cheklanganligi va ba'zi talabalarimizning ingliz tilini bilish darajasi cheklanganligi biznes aloqalarini o'qitishni qiyin vazifaga aylantiradi, chunki bunday kurs yuqori darajadagi tilni bilishni talab qiladi. Talabalarning til bilish darajasi va kursning til talabi o'rtasidagi nomuvofiqlik bizning bitiruvchilarimizning turizm sohasidagi muloqotga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun tegishli o'qitish strategiyalari bilan hal qilinishi kerak. Birinchi qadam o'quvchilarimizning muloqot ehtiyojlarini tahlil qilish va keyin usul va materiallarni mos ravishda tartibga solishdir.

Turizm uchun ingliz tili kurslari tegishli bo'lgan maxsus maqsadlar uchun ingliz tilining turli mualliflari o'rtasida o'quvchining ehtiyojlari va ma'lum bir kasbiy sohada faoliyat yurituvchi talabalar bilan mashg'ulotlarda mavzuga oid matnlardan foydalanish kerakmi yoki yo'qligi haqida uzoq vaqt munozaralar bo'lib

kelgan. 1980-yillarning boshida Xatchinson va Uoters shunday ta'kidladilar: "Mavzuga oid maxsus ESP materiallari uchun hech qanday asos yo'q", chunki ular ma'lum bir tilning o'ziga diqqatni jalb qilishdan ko'ra, tilning asosiy kompetensiyalariga va ularni eng yaxshi qanday egallashga e'tibor qaratishni tushunishgan." [1]

Mounftord ta'kidlaganidek, "o'quv materiallarining dolzarbligi va maqsadga muvofiqligi, talabaning o'z ta'lim sohasiga yoki ishiga bo'lgan qiziqishini rag'batlantiruvchi maqsad sifatida ko'rsatadigan biron bir dalil mavjud bo'lishidan qat'i nazar, maqsadli vaziyat tilidan kelib chiqishi kerak." (Mounford 1988: 83) [4]

Kasbga yo'naltirilgan ingliz tilida nashr etilgan materiallar ma'lum mezonlarni hisobga olishi kerak: o'ziga xoslik, muvofiqlik, haqiqiylik, moslashuvchanlik, sifat yoki vaqt va xarajat, biz ular Hutchinson & Waters tomonidan berilgan ikkita asosiy yo'nalish o'rtasida murosa bo'lishi kerak deb hisoblaymiz (ko'nikmalar va ta'lim strategiyalari bir tomondan muvaffaqiyatli ta'lim natijasi uchun muhim) va boshqa tomondan Pickett (asosiy leksika o'qitish jarayonida muhim rol o'ynaydi).

Ko'rinib turibdiki, leksika biznes ingliz tili kurslari haqida hamma narsani aks ettirmaydi, lekin bu maxsus leksikasiz kursning samaradorligi, albatta, pasayadi.

Shu nuqtai nazardan, kasbiy ingliz tili leksikasi faqat ma'lum bir sohada joylashgan texnik atamalar bilan cheklanmaydi, u umumiy ingliz tilidagi kabi funktsiyali so'zlarni ham o'z ichiga oladi: ya'ni umumiy ingliz tilida uchraydigan, lekin turli xil umumiy texnik ma'nolarga ega bo'lgan,

Shunday bo'lsa-da, bugungi kunda kasbiy ingliz tili bo'yicha trenerlar tomonidan darsda qo'llaniladigan yangi formula - yaxshi o'qitish tajribasi va autentik matnlari biznes aloqalarida qanday ishlashini haqiqiy tushunishni anglatadi, biznes ingliz tilini o'qitishda katta yaxshilanishdir.

An'anaga ko'ra, kasbiy ingliz tili darslari o'qituvchilarga yo'naltirilgan bo'lib, o'qituvchilar lug'at va grammatik tuzilmani tushuntirib berishlari kerak. Shu bilan birga, tavsiflovchi grammatikaga e'tibor qaratish o'quvchilarning tilni o'zlashtirishiga to'sqinlik qilmasligi lozim. O'qituvchiga yo'naltirilgan tizimlar ostida talabalar passiv tarzda o'rganmoqdalar va tildan foydalanish uchun kamroq imkoniyatlar mavjud, bu esa ularning haqiqiy kommunikativ dunyoda zarur bo'lgan til kompetensiyasini rivojlantirishni keskin kamaydi, agar yo'q bo'lsa, nazariy yoki mavhum o'qitish samarasiz bo'lib, o'quvchilarda salbiy munosabatni keltirib chiqarishi mumkin. Grammatikani o'rgatish va xatolarni tuzatish ifodaning aniqligi yoki ravonligini oshirishga olib kelmasligi haqida ko'plab dalillar mavjud.

90-yillarning oxirlarida pedagogikaning an'anaviy darsliklardan mehnat bozorida bitiruvchilarimizdan talab qilinadigan yangi ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan materiallarga o'tish tobora yaqqol namoyon bo'ldi, chunki bu yondashuv ularning bitiruvdan keyin mehnat bozoridagi muvaffaqiyatlariga ko'proq hissa qo'shadi.

2. Turizm bo'yicha talabalar uchun ingliz tili

Hozirgi kunda ingliz tili talabalarga turistik mehnat bozoriga moslashish uchun zarur bilim va ko'nikmalarni egallashga yordam berish uchun o'rgatilmoqda

va IT va boshqa sohalardan kirib boradigan kommunikativ ko'nikmalar va yangi iqtisodiy atamalarga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. qoplangan. Ishonamizki, bunday yondashuv ikkita muhim oqibatlariga olib keladi: talabalarimiz uchun mamlakatimizda ham, xorijda ham, hozirgi globallashuv va doimiy o'zgaruvchan muhitda mehnat bozorida keng imkoniyatlar va ingliz tili darsining yanada qiyin va foydali turi. Vazifalarni bajarish zamonaviy ta'limni amalga oshirish uchun yaxshi yondashuvdir. Amaliy til qobiliyatlarini topshiriqlarni bajarish orqali egallash yo'lini o'qituvchining grammatik tuzilmalar haqidagi ko'rsatmalari va lug'atni tushuntirish bilan almashtirib bo'lmaydi.

O'qitiladigan ingliz tili kurslari quyidagilarga qaratilgan: turizm va mehmondo'stlik bo'yicha bilim komponenti, ularning kelajakdagi ish joylarida qo'llaniladigan tildan xabardorligini oshirish; bitiruvchilarning turizm sohasida ishlashlari uchun asosiy talab sifatida ingliz tilida so'zlash ko'nikmalarini va og'zaki ravonligini oshirish bilan bog'liq nutq komponenti; turizm ish joylari uchun zarur bo'lgan yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan yozuv komponenti; va turistlar tilini qanday tarjima qilishni bilishlariga yordam beradigan tarjima komponenti. Maxsus maqsadlar uchun ingliz tilining keng dunyosida turizm ingliz tili eng jozibali tillardan biridir, chunki biz hayotimiz davomida ko'p marotaba sayyoh bo'lamiz va shuning uchun o'qituvchilar sifatida o'zimizning haqiqiy tajribamiz va fikrlarimizni keltira olamiz. til xonasi. Biroq, turizmning ingliz tilini o'rgatish murakkab ishdir.[9]

Universitetlarimizda turizm yo'nalishi bo'yicha bakalavriat talabalariga ingliz tilini o'qitishda qo'llanilgan darsliklar, o'quv topshiriqlari va imtihonlarni o'rganadigan bo'lsak, har bir fakultet/oliy institut turli xil darsliklardan, asosan o'qituvchilarning turli manbalardan to'plagan va ikkalasi ham mavjud bo'lgan materiallardan foydalanishini ko'ramiz.[7] Turizm uchun ingliz tili va umumiy maqsadlar uchun ingliz tili materiallari. Barcha darsliklarda ingliz tilidagi tinglash va nutq faoliyati, shuningdek, yozish, grammatika, o'qish va lug'at faoliyatiga ham urg'u berilgan. O'qituvchilar o'qish qobiliyatlari, grammatika tuzilmalari va turizm va mehmondo'stlik terminologiyasiga e'tibor berishadi va yaqinda ularning nutq yoki tinglash qobiliyatlarini yaxshilashga qaratilgan har qanday o'qitish shakllariga qiziqish bor.[6]

Shuningdek, talabalarga ingliz tilini o'rganish bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradigan va kelajakdagi martabalar uchun saralashda yordam beradigan turli xil ingliz tilini o'rganish tadbirlari mavjud, jumladan: guruh muhokamasi, rol o'ynash va xat yozish. Afsuski, ilgari o'qishda ingliz tilida og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratilmagan va bu bizning muassasalarda turizm yo'nalishi bo'yicha bakalavriat talabalarini ingliz tiliga tayyorlashdagi kamchiliklardan biridir. Shu sababli, hozirgi vaqtda turizm uchun ingliz tilini o'rgatish, ehtimol, mavzuga asoslangan yo'nalish orqali yaxshiroq erishiladi, bu to'g'ri ishlansa, talabalar til bilimi va ko'nikmalarini oshirishi mumkin bo'lgan mazmunli asosni ta'minlashning ikki tomonlama rolini bajaradi. til saboqlarini o'quvchilarning turizm bo'yicha kengroq tajribasiga birlashtiradi. Bu ular allaqachon ko'rgan til elementlarining juda aniq takrorlanishini oldini

oladi. Bundan tashqari, mavzuga asoslangan yondashuv ko‘rib chiqilgan til elementlari

tanlangan sohada haqiqatan ham zarur bo‘lishini kafolatlaydi.[8]

Shu sababli, barcha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi muloqot ko‘nikmalari turizm ish joylari uchun eng zarur va shuning uchun talabalarning ingliz tili kurslarida tinglash va gapirish qobiliyatlariga e‘tibor qaratish lozim. Bundan tashqari, ushbu kurslar talabalarning og‘zaki muloqot ko‘nikmalarini oshirishi mumkin bo‘lgan texnologiyaga asoslangan tadbirlardan maksimal darajada foydalanishi kerak. Labordaning ikkita tadqiqoti (2003, 2009), masalan, kompyuterlardan foydalanish talabalarning tildan foydalanishini oshirish orqali chet tillarini o‘rganishga yordam berishini va ular turizm talabalariga ingliz tilida og‘zaki muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berishini ko‘rsatdi.

3. Xulosa:

Iqtisodiy globallashuv jarayonida ishbilarmonlik nutqi savdo, savdo, investitsiyalar, menejment, moliya, marketing, turizm va boshqalarga qaratilgan barcha iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarda tildan foydalanishdir. muammo o‘qitishning yangi yondashuvi yoki usulini qabul qilishda ekanligi ko‘rinib turibdi.[7]. Biroq, o‘qitish muammolarini biron bir alohida yondashuvga murojaat qilish orqali hal qilib bo‘lmaydi. Chjan biznes ingliz tilini o‘rgatish bo‘yicha uch tomonlama o‘quv dasturini taklif qiladi, u uchta tarkibiy qismdan iborat: fan bilimlari, biznes amaliyoti va til ko‘nikmalari Business English, bu shunchaki til ko‘nikmalarini o‘rgatish va fan sohalarini bo‘yicha diskret bilimlarni o‘rgatish o‘rniga biznes tajribasini rivojlantirishga qaratilgan. ESP adabiyotida tez-tez targ‘ib qilinadi.[8]

Dunyoda iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy globallashuvning kuchayishi tufayli biznes ingliz tiliga o‘qituvchilar va tadqiqotchilar katta e‘tibor qaratmoqda. Ishbilarmon ingliz tilini o‘rgatishning o‘ziga xos muammolari bo‘lsa-da, tadqiqotdagi yechimlar va o‘qitish innovatsiyalari o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otish va ularning til ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligini isbotladi. Ularning barchasi muhim rol o‘ynaydi, chunki ingliz tilida yaxshi muloqot qilish ko‘nikmalari turizm bo‘yicha bitiruvchilarimiz uchun juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Barnes, E. 2016. *The minority body: A theory of disability*. Oxford University pp.17-42. Polechoński, J. and Tomik, R., (2019) ‘*Can tourism in immersive virtual reality can replace real travel?*’. *Folia Turistica* 2019; 52, pp. 11-30.
2. Beck, J., Rainoldi, M. and Egger, R., (2019) ‘*Virtual reality in tourism: a state-of-the-art review*’. *Tourism Review*, 74(3), pp.586-612.
3. Quziyev, S. (2022). Sarvar TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA CHET TILINI O‘QITISH JARAYONIDA TIBBIYOT ATAMALARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA CHET TILINI O‘QITISH JARAYONIDA TIBBIYOT

ATAMALARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(4).

4. Ilmiddinovich, Q. S. (2023). CHET TILLARNI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARINI TAKKOMILLASHTIRISH ASSOSLARI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 2(18), 14-19.
5. Quziyev, S. (2023). MAXSUS ATAMALARNI O‘QITISHNING NAZARIY METODIK ASOSLARI. *Молодые ученые*, 1(3), 92-95.
6. Kuziyev, S. (2023, May). DISTINCTIVE ADVANTAGES OF LEARNING AND TEACHING SPECIFIC DICTIONARIES IN FOREIGN LANGUAGE CLASSES OF NON-PHILOLOGY HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. In *International Conference on Business Management and Humanities* (Vol. 1, No. 1, pp. 127-129).
7. Quziyev, S. (2023). CHET TILINI O‘QITISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI. *Наука и инновация*, 1(7), 120-124.
8. Ilmiddinovich, Q. S. (2023). NOLIGVISTIK FAKULTETLARDA KASBGA YO‘NALTIRILGAN CHET TILINI O‘QITISHNING XUSUSIYATLARI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(30), 83-93.
9. Kuziev, S. I. (2022). MODERN METHODS OF TEACHING ENGLISH LANGUAGE AT MEDICAL UNIVERSITIES. *Academic research in educational sciences*, 3(11), 242-245.

**TA’LIMDA SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG‘OR
XORIJY TAJRIBALARNING AHAMIYATI, YAPONIYA TA’LIM
TIZIMI TIMSOLIDA**

Axnazarova D.E, Sunnatova G.

Guldu v.b dotsenti, p.f.n, Guldu 1-bosqich talabasi

Ta’limdagi muvvafaqiyat, aksariyat dadil harakat qiluvchilar tarafida bo’ladi. Dadil harakat, shijoat tufaylifdir. Shijoatni esa insonga, o‘zbek milliy pedagogikasining mumtoz namoyondasi Abdulla Avloniy takidlaganlaridek maktab Ilm- ma’rifat baxsh eta oladi.

Qadimdan bizda bilim olish qadrlangan. Bilimdon kishilar esa el-yurt ardog‘ida bo‘lganlar. Shuning uchun ham bilim olish va olingan bilimni mamlakatimiz xizmati yo‘lida xizmat qildirish oliy insoniylik burchimizdir. Bu vazifalarni muvvafaqiyatli hal etishni muhim shartlaridan biri chet-el maktabi va pedagogikasi tajribalari o‘rganishdir. Xalqaro tajribalarini sinchkovlik va qunt bilan o‘rganish orqali ta’lim tarbiyada qotib qolgan, o‘z dolzarbligini yo‘qotb borayotgan ish shakllari, uslublaridan xalos bo‘lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo‘shimcha boy manbalarga ega bo‘lamiz. Davlatimiz rahbari mamlakatda kadrlar muammosi mavjudligini barcha sohalarga islohotlar sur‘atiga mos zamonaviy mutaxassislar kerakligini aytgan edi.

Shu maqsadda butun ta’lim tizimi takomillashtirilmoqda. Maktabgacha ta’lim rivojlantirilayotganini maktab saboqlariga puxta zamin bo‘lmoqda. Umumiy o‘rta ta’lim sifati ilg‘or xalqaro tajriba va zamon talablari asosida yuksaltirilmoqda.

Prezident maktablari, buyuk allomalarimiz nomi bilan ataladigan ixtisoslashtirilgan maktablar, ijod maktablari, Temurbeklar maktablari kabi zamonaviy va innovatsion ta'lim maskanlari tashkil etildi. Ularda xalqaro tajribalar yo'lga qo'yilganligi kelajakda yetuk kadrlar yetishib chiqishidan dalolat beradi. 2019-yil 26- noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zamonaviy maktab" larni tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Qarorga muvofiq 2021-yilgacha maktablarning kamida 3 foizi, 2025-yilgacha 20%, 2030-yilga qadar esa 50 %ini "zamonaviy maktab" larga aylantirishning asosiy parametrlari belgilandi.

Prezidentimiz shu yil yanvar oyida Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomada maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarurligini takidlagi. Maktablarda moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash, o'quv tarbiya jarayonida xalqaro zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo'llash bo'yicha vazifalarini belgilab berdi. Yurtimizda matematika, kimyo, fizika, va biologiya darslarining 10 foizigina amaliy mashg'ulotga ajratilgan. Rivojlantirilgan davlatlarda bu ko'rsatkich 30-50 foizni tashkil etadi. Shu bois xalq ta'limi vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga o'quv dasturlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, aniq fanlarda amaliy mashg'ulotlar ko'lamini oshirish vazifasi qo'yildi.

Yaponiya ta'limida "iqtidorli o'quvchi" tushunchasi yo'q, chunki har bir o'quvchi alohida iqtidor sohibidir. Ilg'or mamlakatlar ichida Yaponiya ta'limi o'ziga xos yo'nalishi yetakchi o'rinni egallaydi. Jumladan, Yaponiya ta'lim tizimining tarkibi quyidagicha:

- maktabgacha ta'lim, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi oliy o'quv yurtlari.

Boshlang'ich maktabda o'qituvchilar bolalarni tanqidga, ya'ni o'z xulqining yomon jihatlari, maktabdagi kamchiliklarni tanqid qilishga o'rgatishadi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi faqat ta'lim berish bilan cheklanib qolmay, bolaning har tomonlama rivojlanishiga tasir etadi.

Yaponiya rivojlangan davlatlar ichida o'qituvchining maoshi davlat rahbarlari orasida ham yuqori bo'lgan yagona davlat. Majburiy ta'lim muhiti 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi. Muhtoj oilalarning bolalariga moddiy yordam ko'rsatiladi. Yuqori o'rta maktab 10-11-12-sinflarni o'z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi, kechki bo'limlari mavjud. Yuqori bosqich o'rta maktablarda butun o'quv jarayonida o'quvchilar 80 ta sinov topshirishadi. O'quvchilar majburiy asosiy fanlardan tashqari o'z xohishlariga ko'ra ingliz tili, texnik ta'lim va maxsus sinovlarga jalb etiladi.

Universitetlariga yuqori va o'rta maktabning yoki 12 yillik oddiy maktabni bitirgan o'quvchilari qabul qilinadi. Universitetlarga qabul qilinish 2 bosqichga bo'linadi: 1-bosqich turar joyda o'tkaziladi, buning uchun yapon tili, matematika, fizika, kimyo, jamiyatshunoslik, tarix bo'yicha test sinovlaridan o'tkaziladi.

Yaponiyada oliy ta'lim majburiy hisoblanadi va u kasb ta'limi bilan uzviy bog'liqdir. Yaponiyada bolalar tarbiyasida onalarning roli va mas'uliyati ayniqsa

kattadir. Ular farzandlarining aqlli, dono va mehnatsevar bo‘lib o‘sislari uchun oila sulolasi va davlat oldida o‘zlarini ma’sul deb hisoblaydi. Yaponiyada oilaviy tarbiya xususida ko‘plab metodik qo‘llanmalar va tavsiyanomalar nashr etiladi, radio va televideniya orqali ko‘plab pedagogik maslahatlar berib boriladi. Yaponiya oilalaridagi uy partalari diqqatga sazovordir .

Ayni damda AQSH pedagogikasidagi:

1. Bolani o‘z kuchi, imkoniyatiga ishonch ruhiyatida tarbiyalash.
2. O‘quvchining eng kichik shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun kurash .
3. Bolani kamsitmaslik, insoniylik qadriyatlarini va g‘ururini yerga urmaslik .
4. O‘quvchini ilk davridanoq kasbga yo‘naltirish .
5. Vataniga faxr va iftixor ruhi bilan tarbiyalash.

Yaponiya ta’limidagi :

1. Bolani maktabga puxta tayyorlash
2. Kichkintoylar ta’lim va tarbiyasiga ota-onalar masuliyatini kuchaytirish;
3. O‘quvchilarni nafosat jismoniy kamolotiga berilayotgan etibor;
3. O‘qituvchi kadrlariga yuksak talabchanlik;
4. Yosh talantlar bilan olib borilayotgan izchil ishlar.

Germaniya ta’limidagi :

1. Tabaqallashtirib o‘qitishga kuchli e’tibor;
2. O‘quvchilarni mehnat ta’limini mustahkamlash .
3. Kasbga yo‘naltirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev J.F. Xorijda ta’lim (metodik qo‘llanma) – Toshkent: 1995- yil.
2. Ikromov A.B., Mxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Ta’lim, ilm-fan, metodik qo‘llanma. Kasb mahorati jurnali -2004-yil. 2 son.
3. G.Anorqulkova, A. Karimov.Xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimining o‘ziga xos yo‘nalishi uslub va tahlili. Xalq ta’limi ilmiy metodik jurnali. 2017-yil. 3-son.
4. A.Nosirov. Fransiyada talim sifati qanday nazorat qilinadi? – “Boshlang‘ich ta’lim“ jurnali. 2019- yil. 12- son.
5. R.Ilashova. Amerika maktablarida.- , , Boshlang‘ich ta’lim” jurnali. 2019- yil.

FIZIKA DARSLARIDA ISSIQLIK MASHINALARINING F.I.K. NI HISOBLASH


Xojiyev B.I., Ulug‘berdiyeva N.A., Xo‘jayev A.A., Amonov A.A
NavDPI akademik litseyi

Aylanma jarayon yoki **sikl** deb, shunday termodinamik jarayonlar to‘plamiga aytiladiki, bu jarayonlar natijasida tizim boshlang‘ich holatiga qaytadi. Muvozanatli aylanma jarayonlar $P - V$, $P - T$ va boshqa diagrammalarda yopiq egri chiziq ko‘rinishida tasvirlanadi, chunki har qanday diagrammada ham ikkita o‘xshash holatga – aylanma jarayonning boshi va oxiriga bitta nuqta mos keladi. Boshqa jismlar bilan energiya almashayotgan va aylanma jarayon o‘tayotgan jismga **ishchi jism** deyiladi. Odatda bunday jism gazdan iborat bo‘ladi. Aylanma jarayonlar barcha issiqlik mashinalari – ichki yonuv dvigatellari, bug‘ va gaz

turbinalari, sovutgich mashinalar va boshqalarning asosida yotadi. Shuning uchun har xil aylanma jarayonlarning xossalarini o‘rganish-termodinamikaning muhim vazifasidan biridir. Biz aylanma jarayonlarning faqat ba’zi qonuniyatlarini ko‘rib o‘tamiz.

1-rasml - rasmda bu yuza bo‘yab ko‘rsatilgan. Ko‘rilayotgan shakl **to‘g‘ri sikl** deyiladi. To‘g‘ri siklga misol qilib, issiqlik dvigatelida ishchi jism bajarayotgan siklni olish mumkin, bunda ishchi jismga issiqlik tashqi manbadan keladi va uning bir qismini ish ko‘rinishida boshqa jismlarga beriladi.

Agar 1 - rasmda tasvirlangan aylanma sikl teskari, ya’ni soat strelkasiga teskari yo‘nalishda o‘tadigan bo‘lsa, sikl davomida gaz bajargan yig‘indi ish manfiy bo‘ladi va oldingidek u $AaBbA$ yuza bilan o‘lchanadi. Bunday sikl **teskari sikl** deyiladi. Teskari siklga misol qilib, sovutgich qurilmalaridagi ishchi jismda sodir bo‘ladigan aylanma jarayonni olish mumkin. Teskari siklda ishchi modda tashqi kuchlarning musbat ish bajarishi hisobiga issiqlikni sovuqroq jismdan issiqroq jismga uzatadi.



1-rasm

Ishchi moddaning ichki energiyasi faqat uning termodinamik holatiga bog‘liq. Shuning uchun aylanma jarayonda ishchi jism ichki energiyasining to‘liq o‘zgarishi nolga teng: $\Delta U = 0$. Demak, termodinamikaning birinchi qonuniga ko‘ra har qanday sikl uchun


$$Q = A \quad (1)$$

tenglik bajarilishi kerak. Bu yerda Q – shu siklda ishchi jismga berilgan umumiy issiqlik miqdori; A – sikl mobaynida ishchi jism bajargan ish.

To‘g‘ri siklda $Q > 0$ bo‘ladi, ya’ni ishchi jismga undan olinganidan ko‘proq issiqlik beriladi. Natijada sikl davomida

$A = Q$ musbat ish bajariladi. Teskari siklda $Q < 0$ bo‘ladi va sikl davomida tashqi kuchlar $A' = -A < 0$ ish bajaradi.

Birinchi marta S.Karno (1824) tomonidan o‘rganilgani uchun **Karno sikli** deb ataluvchi qaytuvchan aylanma jarayonni ko‘raylik. Bu sikl to‘rtta qaytuvchan jarayondan iborat: ikki izoterma va ikki adiabat. Karno sikli issiqlik dvigatellarining foydali ish koeffitsientlarini tahlil qilishga imkon bergani uchun u termodinamika va teplotexnikaning rivojlanishida katta rol o‘ynadi. 2 - rasmda ideal gazda quyidagi ketma-ketlikda sodir bo‘lgan to‘g‘ri Karno sikli tasvirlangan: T_1 ($T_{1'} = T_1$) haroratdagi 1 – 1' izotermik kengayish jarayonni, 1' – 2 adiabatik kengayish, T_2 ($T_{2'} = T_2$) haroratdagi 2 – 2' izotermik siqilish va 2' – 1 adiabatik siqilish. Amalda to‘g‘ri Karno siklini quyidagi tarzda sodir bo‘ladi deb tasavvur qilish mumkin. Harakatlanuvchan porshenli silindrga qamalgan gaz 1 – 1' izotermik kengayish jarayonida T' haroratli jism unga tegib turgani uchun o‘zaro muvozanatda va issiqlik almashuvda bo‘ladi. T_1 haroratli bu jism **isitgich** (issiqlik uzatgich) deb ataladi. U suv quyilgan



2-rasm

katta idish bo'lishi mumkin. 1 – 1' jarayonda isitgich gazga Q_1 issiqlik beradi ($Q_1 > 0$). Isitgichning issiqlik sig'imi, qat'iy aytganda cheksiz katta bo'lishi kerak. Aks holda gazga Q_1 issiqlikni berilishi uning haroratini pasayishiga va natijada gazning izotermik kengayish jarayonini buzilishiga olib keladi. 1' – 2 jarayonda gaz to'lig'icha issiqlikdan himoyalanaadi va uning kengayishi adiabatik tarzda sodir bo'ladi. Buning uchun gazni 1' – 2 sikl davomida isitgichdan ajratiladi va adiabatik qobiqqa, masalan gazli silindrni qalin kigizga o'raladi. Siklning 2 – 2' sohasida gazni harorati T_2 ($T_2 < T$) bo'lgan boshqa jism bilan issiqlik kontaktiga keltiriladi. U **sovutgich** (issiqlik qabul qiluvchi) deb ataladi. 2 – 2' jarayonda gaz izotermik siqiladi va sovutgichga Q_2 issiqlikni beradi. Agar gaz sovutgichdan Q_2 issiqlikni olmoqda deb hisoblansa, $Q_2 < 0$ bo'ladi. 2' holatda gaz yana to'lig'icha issiqlikdan himoyalanaadi va dastlabki 1 holatigacha adiabatik siqiladi va shu bilan bitta Karno sikli tugallanaadi.

To'g'ri Karno siklida ishchi jism bajargan ish (1) tenglamaga asosan quyidagi ifodaga teng bo'ladi

$$A = Q = Q_1 + Q_2 = Q_1 - |Q_2| \quad (2)$$

Bu formuladan ko'rinadiki, $A < Q_1$, ya'ni Karno siklida ishchi jism bajargan foydali ish, isitgichdan issiqlik ko'rinishida olingan energiyadan, sovutgichga berilgan Q_2 issiqlik miqdoricha kam. Bu natija har qanday aylanma jarayon uchun ham o'rinli: to'g'ri sikl davomida bajarilgan ish, doimo barcha isitgichlar tomonidan ishchi jismga berilgan Q_{ber} issiqlik miqdoridan kichik.

To'g'ri qaytuvchan siklida ishchi jism bajargan A ishni, bu jarayonda ishchi jismga isitgichlar bergan Q_{ber} issiqlik miqdoriga nisbatiga teng kattalik, siklning termik foydali ish koeffitsiyenti (FIK) deyiladi:

$$\eta = \frac{A}{Q_{ber}} \quad (3)$$

Termik FIK issiqlik dvigateli siklining tejamkorligini bildiradi.

Faraz qilaylik ideal gazda Karno sikli sodir bo'layotgan bo'lsin. Bunday sikl uchun, (2) formulaga muvofiq, $A = Q_1 - Q_2$ va $Q_{ber} = Q_1$ bo'ladi. Bu siklning (3) formula bo'yicha η_k termik FIK

$$\eta_k = \frac{Q_1 - Q_2}{Q_1} \quad (4)$$

ko'rinishda bo'ladi.

η_k faqat isitgich va sovutgichlarning haroratlariga bog'liq

$$\eta_k = \frac{T_1 - T_2}{T_1} = 1 - \frac{T_2}{T_1} \quad (5)$$

ifoda bilan aniqlanaadi.

$$\text{Keyingi ikki formuladan to'g'ri Karno sikli uchun} \quad \frac{Q_1 - Q_2}{Q_1} = \frac{T_1 - T_2}{T_1} \quad (5')$$

yoki

$$\frac{Q_1}{T_1} - \frac{Q_2}{T_2} = 0 \quad (5'')$$

munosabatlar o'rinli ekanligi kelib chiqadi.

Masala: Bir atomli ideal gaz 1- rasmda ko'rsatilgan 1-2-3-1 siklni hosil qiladi. Mashinaning shu sikldagi FIK ni toping.

Berilgan: $P_1 = P_0$; $P_2 = 2P_0$; $P_3 = 2P_0$; $V_1 = V_0$;
 $V_2 = V_0$; $V_3 = 3V_0$

Topish kerak: η -?

Yechilishi. Bunda issiqlik mashinasining

$$\text{FIK } \eta = \frac{A}{Q_1} \quad (1)$$

ifoda orqali aniqlanadi. P-V diagrammada gaz bajargan ish 1-2-3-1 sikl bo'yicha shtrixlangan sohaning yuziga teng.

$$A = \frac{1}{2}(2P_0 - P_0)(3V_0 - V_0) = P_0V_0 \quad (2)$$

Grafikda 1-2 izoxorik jarayon. Izoxorik jarayonda gaz ishlamaydi, $A_{1,2} = 0$. Gaz ichki energiyasining o'zgarishi:

$$\Delta U_{1,2} = U_2 - U_1 = \frac{3}{2}P_2V_2 - \frac{3}{2}P_1V_1$$

$$\Delta U_{1,2} = \frac{3}{2}(P_2V_2 - P_1V_1) = \frac{3}{2}(2P_0V_0 - P_0V_0) = \frac{3}{2}P_0V_0 = 1,5P_0V_0$$

Termodinamikaning 1-qonuni quyidagicha bo'ladi.

$$Q_{1,2} = \Delta U_{1,2} + A_{1,2} = \Delta U_{1,2}$$

Bundan $Q_{1,2} = 1,5P_0V_0$ ekanligi kelib chiqadi.

Grafikda 2-3 izobarik jarayon. Izobarik jarayonda gaz bajargan ish:

$$A_{2,3} = P_2(V_3 - V_2) = 2P_0(3V_0 - V_0) = 4P_0V_0.$$

Gaz ichki energiyasining o'zgarishi: $\Delta U_{2,3} = U_3 - U_2 = \frac{3}{2}P_3V_3 - \frac{3}{2}P_2V_2$

$$\Delta U_{2,3} = \frac{3}{2}(P_3V_3 - P_2V_2) = \frac{3}{2}(2P_0 \cdot 3V_0 - 2P_0V_0) = \frac{3}{2}4P_0V_0 = 6P_0V_0$$

Termodinamikaning 1-qonuni quyidagicha bo'ladi. $Q_{2,3} = \Delta U_{2,3} + A_{2,3}$.

Bundan $Q_{2,3} = 6P_0V_0 + 4P_0V_0 = 10P_0V_0$ ekanligi kelib chiqadi.

Isitgichdan olingan issiqlik miqdori quyidagiga teng: $Q_1 = Q_{1,2} + Q_{2,3}$.

Bundan $Q_1 = Q_{1,2} + Q_{2,3} = 1,5P_0V_0 + 10P_0V_0 = 11,5P_0V_0$ (3) bo'ladi.


(2) va (3) tengliklarni (1) tenglik orqali ifodalasak, quyidagi hosil bo'ladi.

$$\eta = \frac{A}{Q_1} = \frac{P_0V_0}{11,5P_0V_0} = \frac{2}{23} = 0,087; \quad \text{yoki } \eta = 8,7\%.$$

Xulosa: Biz bu mavzuda grafik asosida masalar yechishda termodinamika qonunlari, termodinamikaning birinchi qonunining izojarayonlarga va Karno sikliga tatbiqi, hamda issiqlik dvidatellarning FIK ini hisoblashni ko'rib chiqdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Fizika kursi" A.Qosimov va boshqalar Toshkent "O'zbekiston" 1994 yil
2. "Mexanika va molekulyar fizika" akademik litseylar uchun B.I. Hojiyev va boshqalar Toshkent "IJOD NASHR" nashriyoti 2023 yil
3. "Kvant" jurnali Moskva 1987 yil



3-rasm

PEDAGOG KOMPETENTLIGI VA KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Xudayberdiyeva Xuriyat Karimberdiyevna

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni Qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi kunda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillardan biri kreativ, kreativ fikrlash, pedagogning kreativligi va uni rivojlantirish yo'llari haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, o'quvchi, tasavvur, tafakkur, fikr, g'oya, talab, kreativlik, pedagogik kreativlik, dars, usul, rivojlanish.

Абстрактный. В данной статье одним из факторов, служащих повышению качества и эффективности образования сегодня, является творческое, творческое мышление, творческий потенциал педагога и пути его развития.

Ключевые слова: учитель, ученик, воображение, мышление, мысль, идея, потребность, творчество, педагогическое творчество, урок, метод, развитие.

Abstract. In this article, one of the factors that serve to improve the quality and efficiency of education today is creative, creative thinking, the creativity of the pedagogue and the ways of its development.

Key words: teacher, student, imagination, thinking, thought, idea, demand, creativity, pedagogical creativity, lesson, method, development.

Bugun dunyoda yuz berayotgan to'rtinchi sanoat tamaddunining dvigateli - harakatga keltiruvchi kuchi kreativlikdir. Atrofga boqsangiz, har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalari duch kelasiz: elektron xizmatlar, virtual reallik, to'rtburchak tarvuzlar, tuproqsiz hosil olish va hakoza. Bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsuli. Bugun biz uchun odatiy tuyulgan kitob, musiqa, bino, samolyot, hatto lampalar ham qachonlardir orzu va tasavvurda bo'lgan, keyinchalik aql-idrok samarasi o'laroq yaratilgan. G'ildirakning kashf etilishidan boshlangan yaratuvchanlik namunalari bugun koinotda kezib yuribdi. Innovatsiyalar kundalik turmushimizda qulayliklar yaratadi, og'irimizni yengil, uzog'imizni yaqin qiladi. Shu tarzda kreativlik taraqqiyotning ajralmas bo'lagiga aylangan. Barcha sohada ijodiy fikrlovchi mutaxassislariga talab katta. Dunyoga mashhur dasturiy mahsulotlar, mobil telefonlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar mutaxassislaridan har kuni yangi g'oya so'raladi. Mehnat bozorida kreativ fikrlovchi mutaxassislariga talab oshib borayotgan ekan, ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarning noodatiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Xo'sh, ta'lim oluvchilarni qanday qilib kreativ fikrlashga o'rgatish mumkin? Innovatsiya yaratish uchun tafakkurda qanday o'zgarishlar kechishi lozim? Tasavvur bilimdan muhim(mi?) Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim.

Kreativlik inglizcha "create" so'zidan olingan bo'lib, yaratish ma'nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamidagi originallik, amaliylik,

noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakurs (fr.raccourciqisqartirish, biror obyektga turli tomonlardan qarash) yondashishni anglatadi. Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir. Masalan, ingliz tilida so'zlarni yodlab, grammatika qoidalarini "suv qilib ichib yuborgan" bo'lsangizda, insho yozolmasangiz, barchasi bekor. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi. Albert Eynshteyn "Tasavvur - bilimdan muhim" deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Ko'pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim. Inson miyasi o'z ishini "yengillashtirish", "qulaylashtirish" uchun shablon (nem. Schabloneandaza, namuna) va stereotip (yunon tilida iz, tamg'a, alomat) lardan foydalanadi.

Stereotiplar shu paytgacha ma'lum bo'lgan va umumqabul qilingan fikrlar. Ular asosida fikrlash bizga hech qanday yangi g'oya bermaydi. Qoliplarning yuzaga kelishida jamiyatda ustuvor bo'lgan ijtimoiy fikr, mediamahsulotlarda taqdim etilayotgan shakl va ko'rinishlar ham yetakchi o'rin tutadi. Inson ommadan ajrab qolmaslik nuqtayi nazaridan hammaning fikriga qo'shiladi. Qolaversa, "oqim bo'ylab suzish" mustaqil fikrlashdan ko'ra oson tuyuladi. Stereotiplar orqali fikrlaganda muayyan mavzu bo'yicha inson ongiga "so'rov" berilganida odatiy ma'lumot va mulohazalar yuzaga keladi. Masalan, "yangi yil" deganda to'kin dasturxon, reklamadan tushmaydigan gazli ichimliklar, archa va hokazolarni tasavvur qilish, bobo obrazida qo'lida hasa tutgan, ko'zoynakli cholni ko'rish qolip asosida fikrlashning ko'rinishi. Kreativ fikrlovchi insonlar odatiy manzaralardan o'zgacharoq tasvirlarni ham tasavvur qilib, hech kim ilg'amagan jihatlarni payqaydi, yangilik yaratoladi. Eng ajablanarli jihati, ta'lim-tarbiya jarayoni, bolalarni bir xil fikrlashga o'rgatib qo'yarkan. Mashhur ixtirochi va kashfiyotchilarning aynan maktabdagi ta'lim jarayonidagi bir xillikka ko'nikolmagani, qoliplarga sig'maganini ko'rish mumkin. Masalan, Albert Eynshteynning maktabdan haydalihi yoki Dmitriy Mendeleevning kimyo fanidan "uch" olgani bunga misol bo'ladi. Ken Robinson tomonidan tayyorlangan va YouTube saytida 5 million marta tomosha qilingan "Maktab kreativlikni barbod etyaptimi?" nomli videolavhada ham shu xususida so'z boradi. Harf o'rganish jarayonidayoq bolalarning belgilangan chiziqlar bo'ylab yozishi, topshiriqlarni bajarishda namunalar orqali ishlashi, adabiyot darslarida asarni qanday tushunish kerakligi to'g'risida ma'lumotlar berilishi, pedagoglarning yaxshi bajaruvchilarni yaxshi baholashi natijasida bolalar qoliplar doirasida fikrlay boshlaydi. Oqibatda ko'plab yoshlar topshiriq berilsa, namuna bormi, deb so'raydigan holga kelgan. Bu oldin mavjud bo'lgan modellar asosida ishlashga o'rganib qolish natijasi. Bunday

vaziyatni bartaraf etish uchun o'quv jarayonida ijodkorlik sifatlarini tarbiyalashga ahamiyat qaratilishi maqsadga muvofiq. Ta'limda muayyan vaziyatlarni yuzaga keltirish orqali, o'quvchi yoshlardaijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun pedagogning kreativligi muhimahamiyatga ega.

Pedagogik kreativlik – pedagogning ananaviy pedagogik fikrlashidan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratishi, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati. Bunda o'qituvchidan o'zining kasbiy-shaxsiy faoliyatiga tahliliy, tanqidiy va ijodiy yondashishi talab etiladi. "Kreativ pedagog" quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1) past o'zlashtiruvchi, o'qish va o'rganishni zerikarli faoliyat debhisoblaydigan o'quvchilar e'tiborlarini fan asoslarini yaxshi o'rganishgayunaltiruvchi, ichki motivlarni hosil qilishning optimal yo'llarini topishga ijodiy yondashish;
2) o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyat turlarini darsda va undan tashqari jarayonlarda tashkil etaolish. Pedagogning kreativligi turli shakllarda nomoyon bo'ladi:

- me'yoriy hujjatlar (o'quv fanlari bo'yicha DTS), o'quv dasturlari va rejalarining mazmun mohiyatini tushunishida;

- o'quv manbalari (darslik, o'quv-metodik va metodik qo'llanma, tavsiyanoma, lug'at, inseklapediya, ish daftarlari, AKT vositalari va boshqalar)dan to'g'ri foydalana olishida;

- ta'lim jarayoni, ma'naviy ma'rifiy ishlar loyihalarini tayyorlay olishida;

- o'quv axborotlari, nazorat hamda sinov topshiriqlarini shakllantirishida;

- ta'lim jarayonini qiziqarli, jonli va jo'shqin tashkil etaolishida;

- ilmiy tadqiqotlarni muvoffaqiyatli olib borishida;

- ilmiy metodik anjumanlarda faol ishtirok etishi va chiqishlar qilishida;

- ilmiy, ilmiy-metodik ishlarni chop ettirishlarida;

- davriy hisobotlarni topshiraolishida;

- ommoviy axborot vositalarida ishtirok etisi;

- kasbiy-shaxsiy faoliyati davomida vataniga, o'zi tug'lib o'sgan eliga, oilasiga va ishlayotgan jamoasiga qandaydir foyda keltirish g'oyasi bilan yashashida va h.k.z.

Pedagog o'zining kasbiy-shaxsiy faoliyatining barcha yo'nalishlarida vujudga keladigan har qanday muammolarning konvergent yechimlarini topishga kreativ yondashishi talab etiladi.

Pedagog kreativligining uchta darajasi mavjud. Ular:

Yuqori daraja: muntazam ravishda boshqalar kutmagan turli tashabbuslarni, g'oyalarni ilgari suradi; kreativ qobiliyatga egaligini izchil namoyib etib boradi; kreativ jihatdan o'ta faol va izlanuvchan.

O'rta daraja: ayrim hollarda u yoki bu tashabbusni ilgari suradi; kreativ qobiliyatga egaligi muntazam bo'lmasa-da, ammo namoyon bo'ladi; kreativ jihatdan bir qadar faol, izlanuvchan bo'lishga intiladi.

Past daraja: garchi u etarlicha asoslanmagan bo'lsa-da, tashabbusni ilgari

surishga intiladi; kreativ qobiliyati etarlicha namoyon bo'lmaydi, izlanuvchan bo'lishga intilmaydi.

Vatani taraqqiyotini, avlodlarning kelajagini o'ylaydigan ta'lim-tarbiya beruvchi, pedagogik kreativlikning yuqori darajasini egallashi uchun o'z ustida aniq maqsadni ko'zlab, oldindan chuqur o'ylab uzluksiz ishlashi, fidokorona mehnat qilishi, ushbu yunalishda egallangan bilimlarni amaliyotga qo'llashi, natijalarini mushohada qilishi, erishilgan yutuqlarni yanada rivojlantirishi, yul qo'yilgan xato kamchiliklarni bartaraf etishi, yangidan payda bo'lishi mumkin bo'lgan kamchiliklarning oldini olgan holda faoliyatini faol tarzda davom ettirishi kerak. Kreativ sifatlarni rivojlantirish yo'llari:

1-yo'l: kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish. Kreativ mahsulotlar tarkibiga kiruvchi ta'limga doir barcha matnli manbalar, jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Respublika Prezidentining Farmonlari va Qarorlari, Hukumat qarorlari, turli me'yoriy hujjatlar, davlat siyosati va mamlakat iqtisodi, mutaxassisligiga doir fanlar, ularni o'qitish metodikasi, pedagogika, psixologiya va yondosh fanlar asoslaridan yetarli bilimga ega bo'lishi va ulardan o'zining kasbiy-shaxsiy faoliyatida konvergent foydalanaolishi zarur.

2-yo'l: kreativ fikrlash ko'nikmani shakllantirish. Pedagogik kreativlik yo'nalishida egallagan bilimlarini, o'zining kasbiy-shaxsiy faoliyatiga qo'llash orqali kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish.

3-yo'l: kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish. O'quvchilarning kreativligini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiyaviy faoliyat turlarini tashkil etish va amalga oshirish.

4-yo'l: interfaol usullarni tashkil etish. Kreativ sifatlarni rivojlantirishning eng maqbul yo'li kichik guruhlarda interfaol usulda ishlashni tashkil qilishdan iborat. O'qituvchining ta'lim oluvchilarni o'rganilayotgan mavzu matnidagi har bir ma'lumotning mazmun mohiyatini tahliliy, tanqidiy, ijodiy o'rganishga yo'naltirishi, kichik hajmli matnlarni uyga vazifa qilib berishi, o'quvchilarning kreativligini rivojlantiradi. Shuningdek, kreativlikning mikro va makrosignallarini anglash, uning inson fiziologiyasi bilan bog'liq jihatlari, ya'ni qanday holatlarda inson xayoliga yangi fikrlar kelishini bilish ham muhim.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi kasbiy-shaxsiy faoliyatiga kreativ yondashish orqali ta'limning bosh maqsadi bo'lgan jamiyat, davlat va oila oldida o'zining mas'uliyatini chuqur anglaydigan, erkin fikrlovchi, faol, ilmni, axloqni, mehnatni va haqiqatni sevadigan, kamtar, o'zgaruvchan sharoitlarda muvoffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan, umr bo'yi yangi g'oyalarni o'zlashtirib boruvchi iste'dodli insonlarni tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr
2. R.Yu.Toshimov, E.G'.G'oziev Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. T. 2004.
3. Sh.Po'latov Ta'lim muassasalarini ilmiy-metodik boshqarish texnologiyasi. T. 2012.
4. J.G'.Yo'ldashev Ta'lim yangilanish yo'lida. T. 2000.

5. J.Xasanboev, X.To'raqulov va boshqalar. Pedagogika. 2011.
6. M.H.To'xtaxo'jaeva, S.Nishonova va boshqalar. Pedagogika. T. 2010

EHTIMOLLAR NAZARIYASINI O'QITISH VA O'RGANISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR

Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi

NamDU 2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ehtimollar nazariyasini o'qitish va o'rganish bo'yicha xorijiy olimlarning tadqiqotlari o'rganilgan va tahlil qilingan. Fanni o'qitishdagi o'qituvchilarning bilim va malakasini asosiy komponentlari keltirilgan. Ehtimolli fikrlash bosqichlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Ehtimollik ta'limi, Ehtimolli fikrlash, tasodifiy hodisa, Ehtimolli modellash.

Ehtimollar nazariyasi bugungi kunda zamonaviy matematikaning muhim va tezlik bilan rivojlanib borayotgan tarmoqlaridan biridir. Ehtimollar nazariyasi fani XVII asr o'rtalaridan vujudga kela boshlagan. Bu davrda qimor o'yinlari keng tarqalgan bo'lib, bu o'yin ko'plab olimlarning e'tiborini ham o'ziga jalb qildi. Bu o'yinlarda ro'y berayotgan hodisalar o'ziga xos qonuniyatlarga bo'ysunishini bilgan Gyuygens, Paskal, Ferma, Ya.Bernuli kabi olimlar bu qonunlarni o'rgandilar va ehtimollar nazariyasiga oid ehtimol, matematik kutilma va shunga o'xshash tushunchalarni kiritdilar. Ehtimollar nazariyasining keyingi bosqichidagi rivojlanishi Muavr, Laplas, Gauss, Puasson kabi olimlarning ilmiy izlanishlari bilan bog'liq. Ehtimollar nazariyasi rivojida rus matematik olimlari V.YA.Bunyakovskiy. P.L.Chebishev, A.A.Markov, A.M.Lyapunovlarning nomi alohida ahamiyatga ega. V.Ya.Bunyakovskiyning Rossiyada birinchi bo'lib 1908-yilda yozgan ehtimollar nazariyasidan darsligi ehtimollar nazariyasiga bo'lgan qiziqishning ortishiga sabab bo'ldi.

Umumta'lim maktablarida Ehtimollar nazariyasini o'qitish o'qituvchidan birmuncha bilim va tajriba talab qiladi. Chunki o'quvchilarga Ehtimollik tushunchasini tushuntira bilish, uni hayotiy sohalarga tadbqiq qilish, misollar orqali yetkazib berish ancha mushkul vazifa. Bugungi kunda bu fanni o'qitish va o'rganishga bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan Ispaniyaning Granada universiteti m.f.d. professor Carmen Batanero ilmiy izlanishlariga ko'ra Ehtimollik ta'limini o'rganish jarayonini psixologiya, statistika va matematika sohalari bo'yicha tasniflab

quyidagi natijalarga ega bo'ldi:

1. Gnoseologik tahlillar: Ehtimollikda turli tushunchalarning tabiatdagi aks ettirilishi ayniqsa muhim, chunki hali ham statistik amaliyot va ehtimollikni o'qitish birgalikda degan qarashlar mavjud. Gnoseologik mulohazalar turli ehtimollik yondashuvlarni aniqlashga yordam beradi. Ular:

- | | |
|----------------------------------|---------------------------|
| 1.Klassik yoki Laplas ma'nosida; | 4.Mantiqiy ma'noda; |
| 2.Takrorlanuvchi yondashuv; | 5.Subyektiv ko'rinishda; |
| 3.Moyillik ma'nosida ; | 6.Aksiomatik ko'rinishda. |

2. Maktab o'quv dasturlarida ehtimollik tahlili: Ehtimollikni o'qitish darajasi va rasmiylashtirishdagi muhim bo'lgan turli qarashlar o'rtasidagi bahslar maktab o'quv dasturlariga ta'sir qiladi. O'quv rejaları, darslik mazmuni va imtihon testlaridagi o'zgarishlar bir necha tadqiqotchilar tomonidan tekshiriladi.

3. Bolalarning ehtimolli fikrlashlari: Bolalar bog'chasi va boshlang'ich maktabda ehtimollik va ehtimollik tilining intuitiv tushunchalarini joriy etishga bo'lgan qiziqish bolalarning ehtimolli fikrlashlarini tahlil qiladigan yangi tadqiqotlarga olib keladi. Ularga ko'ra bolalarning ehtimolli fikrlashlarining quyidagi 4ta asosiy bosqichlari mavjud:

-Tasodifiylikni sezish- 3 va 4 yoshdan bolalar deterministik va tasodifiy vaziyatlarni farqlay boshlaydilar. 4-5 yoshdan tasodifiy hodisalarni tushunishlarini namoyish etib, oldindan aytib bo'lmaydigan ehtimolli hodisalarni og'izaki ifoda eta boshlaydilar

-Ehtimollik tili – bolalar 7-8 yoshdan mumkin bo'lgan tasodifiy hodisalarni tasvirlashda birmuncha aniqlik bilan ehtimollik tilidan foydalanadilar.

-Kombinatorik fikrlash – ehtimolliklarni hisoblash va tasodifiy tajribalardagi turli hodisalarni sanash uchun kombinatorik qobiliyat kerak.

-Ehtimolliklarni taqqoslash yoki baholash – 4 va 6 yosh oralig'idagi bolalar oddiy holatlarda ko'proq imkoniyatlisini tanlay oladilar va ehtimolliklarini solishtiradilar.

4. Sezgilar va ehtimollikdagi o'rganish qiyinchiliklari: Ko'plab mualliflar o'rta maktab va universitet talabalariga turli xil mavzularni o'rgatish va o'rganishni har tamonlama tekshirishdi. Maqsad o'rganish muammolarining bog'liqligini va noto'g'ri qarashlarni aniqlash.

5. Bayes fikrlarini rivojlantirishda vizuvalizatsiyani ro'li: Shartli ehtimollik va Bayes masalalarini yechishda mantiqiy noto'g'ri fikrlashni bartaraf etish va imkoniyatlarni oshirish uchun turli xil resurslarni o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqotlarni kuzatdik.

6. Ehtimolli modellash: Ehtimolli modellash yangi tushuncha emas, ma'lumotlar va imkoniyatlar bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek, ehtimollikni klassik va takrorlanuvchi ehtimolli modellashdan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar mavjud.

7. O'qituvchilarning ta'limi: Hozirda o'qituvchilarning ehtimollikni o'qitishdagi bilimi va malaka oshirish amaliyotini o'rgatish komponentlarini tahlil qilish bo'yicha tadqiqotlar soni ortib bormoqda.[1]

O'qituvchilarga ta'lim jarayonida kerak bo'ladigan Didaktik-Matematik bilimlarning asosiy ko'rinishlari:

-epistemik (maxsus matematik bilim yoki o'qitishga xos bo'lgan matematik bilimlar)

-ekologik (mavzuning o'zaro bog'liqligini bilish, o'quv dasturidagi va jamiyat bilan bog'liq boshqa mavzular),

-kognitiv (talabalarning o'qishini tushunish, qiyinchiliklar va mulohaza yuritish),

-emotsional (o'quvchilar bilan shaxsiy munosabatlarni boshqarish, e'tiqod va his-tuyg'ular),

-vositachilik (o'qitish resurslari va texnologiyasi bilan tanish bo'lish)

-o'zaro bog'lanish (sinfdagi nutqni boshqarish). [2]

Ehtimollikni o'qitishning turli jihatlarini mavjud:

1. Ehtimollikni hayotiy o'rgatish;
2. Ehtimollik faoliyatiga kirish;
3. Ehtimollikni turli talqinlarini bog'lash va farqlash;
4. Ehtimollikni turli ko'rinishlaridan foydalanish.[3]

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ehtimollik ta'limini muvaffaqiyatli va samarali o'rgatish o'qituvchilardan yetarli darajada tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi. Ta'lim jarayonida Didaktik-Matematik bilimlarni barcha ko'rinishlaridan foydalanish, ularni qo'llay olish pedagogik mahoratning yuqoriligidan dalolat. Ehtimollar nazariyasidagi tasodifiy hodisalar, ularning ehtimolliklarini hisoblash, Ehtimolli modellash va ular yordamida bashoratlash kabi tushunchalarni o'qitishda ham malaka va bilimning yuqori darajada bo'lishi muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Batanero, C. & Álvarez-Arroyo, R. Teaching and learning of probability. ZDM Mathematics Education, 56, 5–17.

<https://doi.org/10.1007/s11858-023-01511-5>

[2] Carmen Batanero. Training Teachers to Teach Probability: A Promising Research Area. Can. J. Sci. Math. Techn. Educ. (2022) 22:729-734 Vol.:(0123456789)

<https://doi.org/10.1007/s42330-022-00234-1>

[3] Elbehary, S. G. A. Rethinking mathematics teachers' professional knowledge for teaching probability from the perspective of probabilistic reasoning: A proposed framework. International Electronic Journal of Mathematics Education, 17(3), em0695. <https://doi.org/10.29333/iejme/12145>

[4]<https://genderi.org/ehtimollar-nazariyasining-vujudga-kelishi-va-rivojlanishtarix.html>

OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI TALABALARINING HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH JARAYONINI INDIVIDUALLASHTIRISH MASALALARI

D.M.Xolnazarova

*Guliston davlat universiteti, dotsent Raximshikova M.K. Falsafa fanlari
nomzodi, dotsent, M.Auezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining huquqiy madaniyatni rivojlantirish jarayonini individuallashtirish, talabalarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishda ularning individual psixologik xususiyatlari, ya'ni diqqat, e'tibor va xotirasini rivojlantirish jarayoni borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: individuallashtirish, muammoli ma'ruza, xotira, diqqat, e'tibor, individual yondashuv.

Oliy ta'lim tashkilotlarida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish shakllari ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, seminarlar, laboratoriya ishlari o'qituvchining talabalar bilan o'zaro aloqa qilish va talabalar faoliyatini boshqarish usullari sifatida olib boriladi. Bugungi kunda ma'ruzalar o'qituvchining odatdagi monologi tarzida o'tishi lozim degan ma'noni anglatmaydi. Ishlab chiqilayotgan ta'limning

metodik tizimi innovatsion xususiyatga ega ekanligini inobatga logan holda ma'ruza materialini ifodalashning yangi usullariga murojaat etiladi.

Muammoli ma'ruza shaklida, yangi nazariy material muammoli vazifa tarzida ifodalanadi. Uning shartida aniqlash va yechish talab etiladigan ziddiyatlar mavjud bo'ladi. Ma'ruza–vizuallashtirish – bunday ma'ruzani o'qish tayyorlangan materiallarni keng sharhlashdan iborat bo'lib, ular:

- mavjud bilimlarni tizimga solishni ta'minlashi;
- yangi axborotni o'zlashtirishni ta'minlashi;
- muammoli vaziyatlarni yaratish va yechishni ta'minlashi;
- vizuallashtirishning turli usullarini namoyish etishi lozim.

Ta'limni axborotlashtirish sharoitida amaliy mashg'ulotlarning turlari orasida laboratoriya ishlari va praktikumlar tarzidagi mashg'ulotlar ayniqsa keng qo'llaniladi. AKT vositalaridan foydalanib o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar tarzidagi o'quv mashg'ulotlari ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi o'zaro aloqa qilishi uchun qulay imkoniyat yaratadi: ta'lim oluvchi olinaetgan axborotdan passiv foydalanuvchidan ta'lim jaraenining faol ishtirokchisiga aylanadi, ta'lim beruvchi esa murabbiydan maslahatchiga aylanadi [1].

Ta'limning mustaqil ta'lim shaklida esa talabalarning individual ishlashlarini, pedagogik qobiliyatlarini namoyon qilishlarini, huquqiy madaniyatni rivojlantirishning individual xususiyatlarini shakllantiradi. Talabalar mustaqil ta'limda asosan huquqiy axborot-qidiruv tizimlariga murojaat qilgan holda matnli hujjatlar bilan ishlaydi. U matnning muhim qismlarini, huquqiy jixatdan fikrlash va aniqlash uchun tahlil qilishiga to'g'ri keladi. Muhim qismlar deganda hujjatning vaziyatga huquqiy tavsif berish uchun imkoniyat yaratadigan qismlari tushuniladi.

Talabalarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishda ularning individual psixologik xususiyatlari, ya'ni diqqat, e'tibor va xotirasini rivojlantirishga ahamiyat beriladi. Mustaqil ta'lim orqali talabalarning huquqiy ong va tasavvurlari takomillashib boradi va bu ularda huquqiy madaniyatni rivojlanishiga zamin bo'ladi.

Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishda ularning psixologik hususiyatlarini inobatga olish alohida ahamiyatga ega. Talabalarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishni individuallashtirish - asosiy yo'nalish bo'lib, har bir shaxs uchun jamiyat uchun zarur bo'lgan huquqiy madaniyat darajasiga mos keladigan va shaxsning yoshga bog'liq xususiyatlarini, imkoniyatlarini, ehtiyojlarini, qobiliyatlarini hisobga olgan holda individual ta'lim yo'lini qurishni o'z ichiga oladi.

I.P.Podlasiyning ta'kidlashicha, pedagogikaning eng muhim printsiplari - bu individual yondashuv, uning fikriga ko'ra, u shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini va yashash sharoitlarini chuqur bilishga asoslangan va shaxsning rivojlanishini boshqarishdan iborat [2]. Demak, pedagogik ta'sirning to'g'ri tanlangan shakllari va usullarining individual xususiyatlariga moslashuvini, asosiy tarkibiy vazifalarini har bir o'quvchiga moslashtirmaslik kerakligini ko'rib chiqish kerak.

I.S.Yakimanskaya individual yondashuv asosiy psixologik va pedagogik prinsip sifatida ko'rib chiqilishi kerak, unga ko'ra har bir o'quvchining individualizmini

mashg'ulotda shaxslashtirish mumkin. Aynan shu o'ziga xoslik uning psixofiziologik tuzilishi va o'ziga xosligining o'ziga xos belgilari sifatida qaraladi deb ta'kidlaydi [3]. Demak, huquqiy madaniyatni rivojlantirish jarayonini individuallashtirish bu pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo'lib, xar bir talabaning individual jixatlarini xisobga olgan holda yondashish oliy ta'lim tashkilotlari talabalarida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlanishiga olib keladi.

I.S.Yakimanskaya [3]ning fikricha, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida talabalar sub'ekt sifatida o'zlarining shaxsiy tajribalari va huquqiy bilimdonliklarini namoyon eta olishlari kerak. Bunday tajriba umumiy va shaxsiy xarakterga ega bo'lgan tajriba sifatida alohida qimmatga ega. Shuning uchun ham shaxsga yo'naltirilgan oliy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning to'plagan tajribalari huquqiy bilimlar va tushunchalar bilan boyitilishi kerak.

Individual yondashuvning mohiyati o'qituvchining har bir o'quvchiga bo'lgan munosabati, o'ziga xos shaxs va o'ziga xos rivojlanishining sub'ekti sifatida qarashidir [39]. Shuning uchun, individual yondashuv shaxsga yo'naltirilgan bo'lib, talaba shaxsining huquqiy ongini tarkib topishiga qaratilgandir. Huquqiy madaniyat huquqiy ong darajasini tavsiflaydi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida professor-o'qituvchilar va talabalar o'zaro tenglik prinsipiga amal qilishlari kerak. Ta'lim jarayoni sub'ektlari orasidagi o'zaro tenglik g'oyasi dastlab I.A.Kolesnikova [4] tomonidan ilgari surilgan. Professor-o'qituvchilar talabalar bilan ularning shaxsiy fikrlash doirasini hisobga olgan holda muloqot va hamkorlik o'rnatishlari kerak. I.A.Kolesnikova [4] ta'kidlaganidek, bo'lajak o'qituvchilar o'z faoliyatini o'quvchilarni tarbiyalash nuqtai nazaridan yondashgan holda tashkil etishga e'tibor bermaydilar. Ular o'quv predmeti doirasida insonparvarlikka asoslangan ta'lim-tarbiya berishga intilishlari kerak.

Demak, professor-o'qituvchilarning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etishga oid pedagogik faoliyati huquqiy fanlarni o'qitish jarayonida alohida ahamiyatga ega. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etuvchi professor-o'qituvchilarning o'zlari, birinchi navbatda, huquqiy bilimlar bilan to'liq qurollangan bo'lishlari kerak. Shundagina shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida talabalarning kasbiy-shaxsiy takomillashishlari uchun qulay imkoniyat yaratiladi. Natijada talabalarning kasbiy mahoratlari, tajribalari, huquqiy bilimdonlik darajalari ortadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Юнусова М.С. Замоновий ҳуқуқий ахборот қидирув тизимларининг таълим жараёнига татбиқи.: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати, Т-2019.
2. Подласый И.П. Педагогика: новый курс. – М.: Наука, 1996. – 576.
3. Якиманская И.С. Личностно-ориентированное обучение современной школе. // – М.: Педагогика, 1996. – 96с.
4. Колесникова И.А. Как приблизить подготовку учителей к потребностям школы// Педагогика. – 1992. - № 5-6. – С. 71-74.

5. Холназарова, М. Х. (2015). Формирование творческих способностей личности в процессе социализации. *Austrian Journal of Humanities and Social Sciences*, 1(3-4), 109-111.
6. Гафуров, Б. А., & Холназарова, Д. М. (2016). Отражение социальной и религиозной политики Бабур в его завещании. *Наука и образование сегодня*, (4 (5)), 59-60.
7. Нишонова, З. У., Камилова, Н. Ф., Абдуллаева, Д. У., & Холназарова, М. Х. (2017). Ривожланиш психологияси. *Педагогик психология-Тошкент-2017-йил*.
8. Холназарова, М., & Алибаева, Д. (2021). БОШҚАРУВ ҚАРОРЛАРИНИ ҚАБУЛ ҚИЛИШ ВА РАЎБАР ШАХСИНИНГ ИНДИВИДУАЛ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(Special issue), 209-212.
9. Холназарова, Д. М. (2022). ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИ ТАЛАБАЛАРИДА ХҲҲҲҲҲҲ МАДАНИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(12), 225-232.
10. Kholnazarova, M. (2023). THE DEVELOPMENT STAGES OF TEACHING KUBROVIA IN PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL INTERPRETATION. *Science and innovation*, 2(C11), 86-92.
11. Kholnazarova, D. (2022). THE ROLE OF THE EDUCATION SYSTEM IN THE DEVELOPMENT OF LEGAL CULTURE IN STUDENTS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 10(1).
12. Kholnazarova, M. X., & qizi Khudaiberdieva, D. K. (2023). OBSESSIVE–COMPULSIVE DISORDER HISTORY AND FACTORS. *ILM FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY METODLARNING QO‘LLANILISHI*, 3(8), 44-47.
13. Kholnazarova, M. X., & Mukhlibayev, M. K. Age and pedagogical psychology. *Textbook. Tashkent-2014*.
14. Nishanova, Z. T., Kamilova, N. G., Abdullayeva, D. U., & Kh, M. Kholnazarova “Developmental psychology. *Pedagogical psychology*.
15. Mamatmuratovna, K. D., & Gapparovich, T. S. (2021, April). SYSTEM OF PREPARATION OF YOUNG PEOPLE FOR SPIRITUAL, LEGAL AND LEGAL EDUCATION. In *Archive of Conferences* (Vol. 23, No. 1, pp. 168-171).
16. Kholbotaevna, K. M. (2023). Development of Cognitive Processes in Early Childhood. *International Journal of Formal Education*, 2(11), 372-379.
17. Kholbutaevna, K. M. (2021). Features of personality psychology. *Psychology*, 58, 6165-6169.
18. Xolnazarova, D., & Ungarova, I. (2024). YANGI O ‘ZBEKISTONDA AHOLI IJTIMOIIY HIMOYASINING USTUVOR YO ‘NALISHLARI. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(4), 45-47.
19. Xolnazarova, D. M. (2022). METHODS OF DEVELOPING LEGAL CULTURE IN STUDENTS. *Conferencea*, 126-134.

20. Kholnazarova, D. (2022). THE ROLE OF THE EDUCATION SYSTEM IN THE DEVELOPMENT OF LEGAL CULTURE IN STUDENTS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 10(1).

TALIM JARAYONIGA INNOVATSION YONDOSHISHDA KASBIY KOMPETENTLIKNING ROLI

Saboat Orifova Yakubovna

Namangan VPyAMO‘MM katta o‘qituvchisi

Ta‘lim sifatini ta‘minlash - pedagogning kasbiy tayyorgarlik darajasi bilan birga uning belgilangan sifat mezonlariga javob berishida ko‘rinadi. Ushbu vazifa bir qator qonunchilik va me‘yoriy hujjatlarda, xususan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish misolida aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan ko‘rsatma va tamoyillar ko‘rinishida o‘z aksini topgan.

Hozirgi davrda ta‘lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarining kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirish, ta‘lim muassasalaridagi o‘quv jarayoniga innovatsion ta‘lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish va maqsadli yo‘naltirish oliy ta‘lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi.

Innovatsion jarayonlarning kechishi: Bu o‘z navbatida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari sifatida ma‘ruza (muammoli ma‘ruza, ma‘ruza-seminar, virtual-texnologik ma‘ruza, vizual ma‘ruza, binar ma‘ruza, kirish ma‘ruzasi, ma‘ruza-konferentsiya, axborotli ma‘ruza, ma‘ruza bahs-munozara, sharhlovchi ma‘ruza, on-Line ma‘ruza) trening, videotrening, vebinarlar, internet konferentsiyalar, innovatsion o‘qitish metodlari sifatida esa muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o‘yinlar, o‘quv loyihalari, portfoliolar, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya

texnologiyalaridan foydalanish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Ta‘lim muassasalaridagi o‘quv jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etishdagi yana bir muhim komponent - o‘qituvchi, uning kasbiy kompetentligi va innovatsion faolligi hisoblanadi.

Kompetentlik (lat. *competens*) – faoliyat talablariga mos kelish, yaroqlilik, layoqatlilik. Mutaxassisning kasbiy kompetentligi – uning kasbiy tayyorgarligi va kasbiy yetuklikligini baholovchi me‘yor.

Kasbiy kompetentlik tushunchasiga nisbatan ilmiy doirada turli munosabatlar ilgari suriladi. U mehnat sub‘ektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan, sub‘ektning aniq faoliyatning o‘ziga xos jihatlariga nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qo‘llaniladi.

Masalan, tadqiqotchi olim E.F. Zeer kasbiy kompetentlikning funksional taraqqiyotini tadqiq qilish kasbiy kamolotga erishish chog‘ida kompetentlikning turli ko‘rinishlari integratsiyalashib borishini va ularning

kasbiy muhim shaxs sifatlarini yan qancha kuchaytirib borishini ko'rsatadi. Xususan, kasbiy kompetentlikning asosiy darajalariga kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o'zini o'zi anglash, o'z kuchiga ishonish, o'zga insonlar tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni to'g'ri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi shaxs xususiyatlarini kiritadi. Yuqorida qayd etilgan fikrlarni tahlili pedagogning kasbiy kompetentligini shaxsiy, ijtimoiy, kreativ, metodik kompetentlik kabi qator o'ziga xos xususiyatlar majmuasi sifatida to'liq izohlanishiga imkon beradi.

Pedagoglarni qayta tayyorlash va ularni malaka oshirish markazida ko'p yillik tajribamdan va kuzatishlarimdan kelib chiqib, o'qituvchilar orasida o'qituvchi uchun zarur bo'lgan asosiy sifatlardan: muomila madaniyati, nutqiy qobiliyat, sabrlik, tashabbuskorlik kabi xususiyatlarning yetishmasligini sezman. O'quv mashg'ulotlarida pedagoglardagi ana shunday sifatlarni rivojlantirish maqsadida psixologik trening mashqlaridan foydalanish juda yaxshi natijalar bermoqda. Quyida ana shunday mashqlardan na'munalar beramiz.

Pedagoglar uchun o'tkaziladigan mashg'ulotlar

1. Past baho mashqi.

Maqsad: O'quvchilarga ruhiy ta'sir ko'rsatish ko'nikmasini rivojlantirish

O'tkazish qoidasi: O'qituvchilar o'quvchilarga past baho qo'yishi kerak. Buni navbat bilan har bir o'qituvchi aytib chiqadi. Har bir o'qituvchining ovoz ohangi o'quvchiga qanday ta'sir qilishini barcha qatnashchilar bilan birga taxlil qilinadi.

2. Emotsiya

Maqsad: O'qituvchilarni boshqalarni ruhiy holatlarini his qilishga o'rgatish.

O'tkazish qoidasi: O'qituvchilar ikki kishidan sheriklarga ajratiladi va har bir juftlik bir-biriga qarab navbat bilan yuzlarini turli xil emotsional holatga soladilar. Ular bir-birlarini hozirgi holatini topishlari kerak

3. Bolalik bilan so'zlashuv.

Maqsad: Bolalarni xis tuyg'ularini tushunishga o'rgatish

O'tkazish qoidasi: Qatnashchilarga shunday deyiladi: Tasavvur qiling siz bolaligingizdagi uydasi. Ich-ichingizdan muhim uchrashuvga tayyorlanyapsiz. Xonangizdan asta hovliga chiqing, tashqarida bir bolaga ro'paro' keldingiz, bu o'zingizni bolaligingiz. Unga savollar bering va javob olishga urinib ko'ring.

4. Mening qiyin o'quvchim

Maqsad: Kam tajribali o'qituvchilarga yordam berish.

O'tkazish qoidasi: O'qituvchilar o'zlarining eng qiyin o'quvchilari, ularning tashqi ko'rinishi, darslarda o'zini tutishi, u bilan qiyin vaziyatlar vujudgakekgani haqida gapiradilar. Fikrlar birgalikda muxokama qilinadi.

5. Ohang mashqi

Maqsad: O'quvchilarni rag'batlantirish bo'yicha tajriba oshirish

O'tkazish qoidasi: O'qituvchilar navbat bilan o'quvchilarga maqtab (kompliment) gapiradigan gaplarni turli xil ko'rinishda gapiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.O'rinova – p.f n dotsent Farg'ona. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari.

2.Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini

oshirish kursi uchun ma'ruzalar matni.

3.www.uzedu.uz

4.htt www lib. psixology.ru

JON UOTSON SHAXS NAZARIYASIDA BIXEVIORAL YO'NALISHNING ASOSCHISI SIFATIDA

Matlyuba Xolnazarova, Kamola O'razaliyeva

Guliston davlat universiteti professori, Guliston davlat universiteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Amerikada yuzaga kelgan, psixologiyaning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan Bixeviorizm va Jon Uotson shaxs nazariyasida bixevioral yo'nalishning asoschisi sifatidagi o'rni borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Bixeviorizm, stimul, xotira, diqqat, inson ruhiyati, yondashuv.

Bixeviorizm (ingl. „behavior“ - xulq) 1913-yilda Dj. Uotson tomonidan „Psixologiya bixeviorist nuqtai nazarida“ nomli maqola chop etilgandan boshlangan. Amerikada yuzaga kelgan, psixologiyaning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan Bixeviorizm psixologiyaning, psixologik yo'nalishining yagona ob'yekti xulq, xulqiy reaksiyalar bo'lishi lozimligini talab qilib chiqdi. Ong kuzatib bo'lmaydigan hodisa bo'lganligi tufayli bixevioristik sohasidan o'chirib yuborilgan edi. Unda faqat real namoyon bo'ladigan xulq o'rganilgan xolos. Bu o'sha vaqtdagi pragmatik yo'nalishda bo'lgan barcha amerika ilmi bilan juda yaxshi kirishib ketgan edi.

Bixeviorizm tushunchasi fanda foydalanish uchun ilk bor 1913 – yili Uotson tomonidan kiritilgan. Bixeviorizm XX asrning boshlarida AQSH da yuzaga kelgan psixologiyadagi mexanik yo'nalish bo'lib, bu maktab namoyondalarining fikricha, psixologiyani o'rganish predmeti faqat insonning xulqigina bo'lishi mumkin. Inson xulqi deganda ular mutlaq tashqi sabablar (stimullar, qo'zg'atuvchilar (S)) ta'siri ostida yuzaga kelgan xatti-harakatlar, qiliqlarni (R) tushunadilar (S - R). Bixeviorizm tarafdorlarining takidlashicha inson ruhiyati (xulqi - R)ni bilish (bashorat qilish) uchun unga ta'sir etayotgan stimul (S)lar tabiatini bilish muhim. Bixevioristlar shaxsga ta'sir etayotgan stimullar (S) qandayligini bilgan holda, uning javob reaksiyasi (R)ni, ularga javoban bildiradigan munosabatini oldindan bashorat qilish

mumkin deb hisoblaydilar. Bixeviorizmda ongning roli inkor etiladi. Ushbu yo'nalishning yirik namoyondalari Djon Uotson va Eduard Torndayk hisoblanadi.

Psixologiya fanining bosh vazifasi xulqni tadqiq etishdan iborat deb hisoblaydi Bixeviorizmning asoschisi DJ.Uotson (1878-1938). U psixik hodisalardan mutlaqo voz kechib, xulqni ikki shaklga, ya'ni ichki va tashqiga ajratadi, ular o'zaro javoblar Stimuli bilan uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tadi. Bixeviorizm uchun “xulq” asosiy tushunchaga aylanib, uning psixikasi bilan aloqasi chetlab o'tilgandir.

DJ.Uotson “Bolani psixologik tarbiyalash” asarida bolani ruhan va jismonan

sohлом qilib tarbiyalash uchun nimalarga e'tibor qaratish zarurligi haqida to'xtalib o'tdi. Jumladan, qat'iy kun tartibiga rioya qilish, turli stimullarning ta'siridan himoya qiladigan bolaning maxsus xonasi mavjudligi, bolaga nisbatan muhabbat va g'amxo'rlik ko'rsatishda me'yor bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Uotson insonlarni tarbiyalashda muhitning ustuvor rolini ta'kidladi. Uning ta'kidlashicha, sog'lom bolalar to'plamidan muhitning ta'sirida kimni bo'lsa-da tarbiyalash mumkin: yoki bir xil xulq-atvorli bolalar qilib tarbiyalash mumkin, yoki har xil sohadagi insonlarni, vrach, sotuvchi, yoki o'g'ri qilib tarbiyalash mumkin.

Klassik bixeviorizmning asosiy g'oyasi quyidagilardan iborat: bola psixikasining rivojlanishi asosan atrof-muhitga bog'liq. Bola taraqqiyotini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda stimullar va ular asosida paydo bo'ladigan reaksiyalar o'rtasida bog'lanish hosil bo'lishiga, o'rganishga imkon beradigan yoki unga to'sqinlik qiladigan sharoitlarni o'rganishga e'tibor qaratildi. Muhit bolani o'rab turuvchi tevarak-atrof, aniq hayotiy vaziyatlardan iborat sharoit sifatida qaraldi; vaziyat turli stimullar to'plamidan iborat bo'lib, ular o'z navbatida qo'zg'atuvchilar zanjiriga bo'linadi. Tashqi muhit ta'sirlari bola xulq-atvori mazmunini va uning rivojlanish xarakterini belgilaydi.

Ba'zi bixevioristlar, jumladan E.Tomdayk, E.Tolmen, K.Xall, D.Xebb kabilar xulq motivatsiyasiga muayyan darajada e'tibor qilganlar. Ular o'zlarining izlanishlarida xulq motivatsiyasining "quyi darajalari"ni o'rganib, kalamushlarda tajriba ishlarini olib borib, jonivorda ochlik, tashnalik va ularning turlicha darajalarini reaksiya tezligiga nisbatan namoyon bo'lish xususiyati, har xil sharoitda motivatsiyaning kuchi to'g'risida muayyan qonuniyatlar ochishga intilganlar. Hozirgi zamon bixevioristlari stimulni tashqi qo'zg'aluvchi sifatida talqin qiladilar va organizmning ichki energiyasini faollashtiruvchi deb hisoblaydilar. Neobixevioristik nazariyalar yangi qo'zg'atuvchilar paydo bo'lishiga asoslangan bo'lib, ular insonning organik eshtiyojlarini qoniqtirish bilan stimul natijasining uyg'unlashuvi tariqasida tahlil etiladi. Ularning ta'kidlashiga ko'ra, ikkilamchi qo'zg'ovchilar organik qo'zg'atuvchilarning go'yoki qobig'iga o'xshaydi, xolos. Vilyam Makdugall (1871-1938) motivatsiyaning irsiy (tabiatdan beriladigan) xususiyatga ega degan holatni asoslash uchun tug'ma instinktlar masalalari bilan mazkur voqelikni bog'lab tushuntirishga harakat qilgan.

Uning fikricha, tug'ma instinktlar ham insonlarga, ham hayvonlarga bir tekis taalluqli bo'lib, ular odamlarning motivida oldin 14 ta, keyinchalik esa 18 tagacha "asosiy instinktlar" sifatida hukm surishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Холназарова, М. Х. (2015). Формирование творческих способностей личности в процессе социализации. *Austrian Journal of Humanities and Social Sciences*, 1(3-4), 109-111.
2. Гафуров, Б. А., & Холназарова, Д. *сегодня*, (4 (5)), 59-60.
3. Нишонова, З. У., Камилова, Н. Ф., Абдуллаева, Д. У., & Холназарова, М. Х. (2017). Ривожланиш психологияси. *Педагогик психология-Тош.* М. (2016). Отражение социальной и религиозной политики Бабура в его завещании. *Наука и образование кент-2017-йил.*
4. Холназарова, М., & Алибаева, Д. (2021). БОШҚАРУВ ҚАРОРЛАРИНИ

ҚАБУЛ ҚИЛИШ ВА РАЎБАР ШАХСИНИНГ ИНДИВИДУАЛ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(Special issue), 209-212.

5. Холназарова, Д. М. (2022). ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИ ТАЛАБАЛАРИДА ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(12), 225-232.

6. Kholnazarova, M. (2023). THE DEVELOPMENT STAGES OF TEACHING KUBROVIA IN PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL INTERPRETATION. *Science and innovation*, 2(C11), 86-92.

7. Kholnazarova, D. (2022). THE ROLE OF THE EDUCATION SYSTEM IN THE DEVELOPMENT OF LEGAL CULTURE IN STUDENTS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 10(1).

8. Kholnazarova, M. X., & qizi Khudaiberdieva, D. K. (2023). OBSESSIVE–COMPULSIVE DISORDER HISTORY AND FACTORS. *ILM FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY METODLARNING QO‘LLANILISHI*, 3(8), 44-47.

9. Kholnazarova, M. X., & Mukhlibayev, M. K. Age and pedagogical psychology. *Textbook. Tashkent-2014*.

10. Nishanova, Z. T., Kamilova, N. G., Abdullayeva, D. U., & Kh, M. Kholnazarova “Developmental psychology. *Pedagogical psychology*.

11. Mamatmuratovna, K. D., & Gapparovich, T. S. (2021, April). SYSTEM OF PREPARATION OF YOUNG PEOPLE FOR SPIRITUAL, LEGAL AND LEGAL EDUCATION. In *Archive of Conferences* (Vol. 23, No. 1, pp. 168-171).

12. Kholbotaevna, K. M. (2023). Development of Cognitive Processes in Early Childhood. *International Journal of Formal Education*, 2(11), 372-379.

13. Kholbotaevna, K. M. (2021). Features of personality psychology. *Psychology*, 58, 6165-6169.

14. Xolnazarova, D., & Ungarova, I. (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA AHOLI IJTIMOIIY HIMOYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(4), 45-47.

15. Xolnazarova, D. M. (2022). METHODS OF DEVELOPING LEGAL CULTURE IN STUDENTS. *Conferencea*, 126-134.

16. Kholnazarova, D. (2022). THE ROLE OF THE EDUCATION SYSTEM IN THE DEVELOPMENT OF LEGAL CULTURE IN STUDENTS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 10(1).

YOSHLAR AXLOQIY TAFAKKURIDA VATANPARVARLIK IDEALINI YUKSALTIRISH MASALALARI

Yusupova Feruza Zoyirovna

*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
katta o‘qituvchi*

Annotatsiya: *Maqolada vatanparvarlik insonga xos bo‘lgan eng muhim*

ma'naviy-axloqiy fazilatlardan biri bo'lganligi sababli uni yoshlar axloqiy tafakkurida yuksaltirish, targ'ib qilish, yuksak axloqiy sifatlarini singdirish ta'lim tizimining maqsadi va tarbiya usuli sifatida peshqadam bo'lishi kerak ekanligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: barkamol avlod, axloqiy ideal, vatanparvarlik.

Hozirgi yoshlar axloqiy tafakkurida vatanparvarlik idealini yuksaltirish, targ'ib qilish, yuksak axloqiy sifatlarini singdirish ta'lim tizimining maqsadi va tarbiya usuli sifatida peshqadam bo'lishi kerak. Vatanparvarlik g'oyasi bilan shug'ullangan Ali Altikulachning fikricha, "Vatanparvarlik fazilati ijtimoiy fanlar xodimlari tomonidan ma'lum fanlar orqali, muhim qadriyat sifatida talabalarga demokratik va konstruktiv tarzda yetkazilishi kerak. Bunga erishish uchun ta'lim tizimining har bir qadami vatanparvarlik va uning ahamiyati uchun rag'batlantirilishi kerak. Ijtimoiy fanlar o'qituvchisi tayyorlashda bakalavriat bosqichida tegishli kurslar doirasida konstruktiv vatanparvarlik va global fuqarolikka munosabatini shakllantirish va turli qiziqishlarini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borilishi zarur"[1].

Ta'lim tizimida vatanparvarlik vertikal ta'sir qilish kuchiga ega bo'lib, yoshlarda maqsad, niyat, intilish, asraydigan qadriyatlarini paydo bo'lishiga, manfaatsiz muhabbat shakllanishiga olib keladi. Respondentlarga "Sizningcha, bugungi kunda yoshlar ta'lim-tarbiyasi jarayoniga qanday yondashilganda ularda vatanparvarlik idealni shakllantirish oson kechgan bo'lardi?" degan savolga ta'lim-tarbiya maskanlarida kitob mutolaasini keng yo'lga qo'yish darkorligini (61,8%) ta'kidlashgan.

Vatanparvarlik borasida amalga oshirilgan ishlar yanada ilg'or va zamonaviy bo'lishi uchun, nazarimizda, Turkiya tajribasini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu davlat tilga olingan sohada boy va zarur tajribaga ega.

Vatanparvarlik insonga xos bo'lgan eng muhim ma'naviy-axloqiy fazilatlardan biri bo'lganligi sababli uni o'sib kelayotgan avlod ongiga singdirish, bolalar, o'smirlar va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamisha ta'lim - tarbiyaning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. Vatanimiz tarixi haqida bolalarga tushunarli tarzda tizimli ma'lumotlar berish vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Vatanparvarlik tarbiyasida o'quvchilarga xalqimizning qahramon farzandlari, tarixiy shaxslari haqida berilgan ma'lumotlar, berilayotgan bilimlar kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar bilan olib borilayotgan vatanparvarlik tarbiyasi ishlari ularning Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida ulg'ayishiga, xalqimizga xos eng yaxshi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni egallashiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Buni biz respondentlar javoblarida ham kuzatishimiz mumkin. Xususan, "Aytinchi, siz o'zingizni vatanparvar deb bilasizmi?" degan savolga "Ha" (60,9%), "Ha, qisman" (30,4%) deb javob berishgan.

Bizningcha, yoshlarga harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini singdirish e'tibor markazida bo'lishi kerak. Harbiy-jismoniy tayyorgarlikning dolzarb masalalaridan biri O'zbekistonning hududiy yaxlitligi va suverenitetini himoya qilishga tayyorlik ruhini singdirishdir. Davlatchilikni mustakamlashda yoshlarni harbiy-jismoniy tarbiyalash milliy xususiyatga ega bo'lib, uning hozirgi ilmiy-nazariy asoslari milliy o'z-o'zini tarbiyalashning muhim asosi bo'lishi mumkin.

Yangi O'zbekiston sharoitida vatanparvarlik g'oyalarini yoshlar o'rtasida keng targ'ib etishga ehtiyoj katta. Davlatimiz uchun haqiqiy fuqaroni tarbiyalash ta'lim oldiga katta vazifalarni qo'yadi. Biroq davlatchilik, fuqarolik faqat o'rta maktab darsliklarida yoki ayrim ko'rgazmali qo'llanmalarda o'z aksini topmasligi kerak. Ularni har tomonlama targ'ib qilish, mehr va hurmat obyektiga aylanishi kerak. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, targ'ibotning muvaffaqiyatli va samarali bo'lishida televideniyaning o'rni va xizmati ajralmasdir. Siyosiy-ijtimoiy tarbiya ishlari samaradorligini oshirish, ularning dunyoqarashini rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalash ishlariga e'tiborni kuchaytirish, ijtimoiy ahamiyatga molik g'oyalar, me'yoriy va tamoyillarni o'zlashtirishga qaratilgan faoliyatni rag'batlantirish muhim milliy-psixologik masaladir. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmog'i lozim. Bu borada Jaloliddin Davoniy askarlarda 3 ta fazilat mujassam bo'lmog'i kerakligini ta'kidlaydi. "Bular a) jasurlik, b) zukkolik, v) mohirlik"[2]. Hozirgi kunda yosh yigit-qizlarning axloqiy tafakkurida Vatan va unga daxldor tushunchalar bir muncha so'ngandek tuyilmoqda. Harbiy ishlari yoshlarni ko'nikmasi, vatanparvarlik tuyg'usi esa ma'nviyatni asosi bo'lishi kerak.

Vatanparvarlikni yoshlar ongiga singdirish vositalari bo'lib sport va san'at bo'lishi mumkin. Bu jarayon sport musobaqalari va san'at ko'rik tanlovlarida ko'proq namoyon bo'ladi. Yosh avlodni harbiy-jismoniy tarbiyalash doimo dolzarb masala bo'lib kelgan. Busiz xalqning milliy xotirasini tiklash va rivojlantirish mumkin emas. Mamlakatimizda global geosiyosiy beqarorlik sharoitida o'sib kelayotgan avlodning harbiy-jismoniy tarbiyasi dolzarblik nuqtayi nazaridan nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Ali Altıkulaç. Patriotism and Global Citizenship as Values: A Research on Social Studies Teacher Candidates. Journal of Education and Practice www.iiste.org Online. Vol.7, No.36, 2016, P-32.
2. Jaloliddin Davoniy. Axloqi Jaloliy. O'zR FA Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan qo'lyozma. Inv. №7703.; Aliqulov H. Jaloliddin Davoniy. –Toshkent: O'zbekiston, 1992. –Б.38-39.
3. Юсупова Ф.З. Конструктивная связь нравственно-эстетической культуры и нравственного идеала молодежи // Электронный журнал Научные исследования в Кыргызской Республике. – Бишкек, 2023. 4 квартал. – №4. – С.80-90.
4. Yusupova F.Z., Eshonkulova N.A. Ideal And Values As The Expression Of The Aspiration Of The Human Towards Spiritual Perfection// Boletin De Literatura ral - The Literary Journal, 10(1), Vol. 10 No. 1 (2023). Pg no: 3939-3943. ISSN: 2173-0695 (Scopus).

KREDIT –MODUL TIZIMINING BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFO‘QITUVCHILARIDA TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Sheraliyeva Nasiba Alimkulovna

Guliston davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

nasibasheraliyeva23@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Kredit-modul tizimini O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalarida qo‘llash bosqichlari va ularning ahamiyati tahlil etilgan bo‘lib, unda kredit-modul tizimining mazmun va mohiyati, ustuvor tomonlari, bu tizimning bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘tuvchilar bilimini oshirishdagi ahamiyati muallifning tavsiya va fikrlari ilmiy asoslab ko‘rsatilgan. Tarbiya darslarida raqamli texnologiyalarning afzalliklari va kamchiliklari haqida ma‘lumot berilgan. Loyiha maktablarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan foydalangan holda hisoblash va savodxonlik bo‘yicha samarali metodlarni o‘rganishga qaratilgan. O‘quvchilarning o‘zlashtirishiga oid ba‘zi dastlabki xulosalar va bir qator dars kuzatishlari haqida xabar berilgan. Tarbiya darsi va AKT rivojlantirishga qaratilgan ikkita maxsus amaliy tadqiqotlar muhokama qiligan. Shuningdek, dunyo mamlakatlarining ta‘lim tizimida kredit-modul tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va afzalliklari haqida fikrlar keltirilgan. Raqamli texnologiyalar -narsalar interneti (Internet of Things, IoT). Raqamli axborotga asoslangan asosiy texnologiyalardan biri bu narsalar internetidir. Ko‘pgina maishiy texnikaning elektr tarmog‘iga ulanganligi odatiy holdir, lekin asta-sekin jismoniy dunyoning tobora ko‘proq ob‘ektlari Internetga ulanadi, bu esa ma‘lumot to‘plash va hatto ushbu ob‘ektlarnimasofadan turib boshqarish imkonini beradi. Darhaqiqat, Internetda ob‘ekt va tashqi dunyoning turli parametrlarini o‘z ichiga olgan va Internet orqali ob‘ektning boshqarish imkonini beruvchi jismoniy ob‘ektning virtual nusxasi paydo bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Kredit, modul, kredit-modul tizimi, kredit-modul tizimi ahamiyati, kredit-modul tizimi imkoniyati, kredit tarixi.

Abstract: The article analyzes the stages of applying the credit-module system in higher education institutions of Uzbekistan and their importance. The author’s recommendations and opinions on the importance of improving children’s knowledge are shown scientifically. The advantages and disadvantages of digital technologies are given in educational classes. The project aims to study effective methods of numeracy and literacy using information and communication technologies (ICT) in schools. Some preliminary findings on student learning and a series of lesson observations are reported. Two special case studies aimed at the development of education and ICT are discussed. Also, there are opinions about the unique features, possibilities and advantages of the credit-module system in the educational system of the countries of the world. Digital technologies - the Internet of Things (IoT). One of the main technologies based on digital information is the Internet of Things. It is common that many household appliances are connected to the electrical network, but gradually more and more objects of the physical world

are connected to the Internet, which allows collecting information and even controlling these objects remotely. In fact, a virtual copy of a physical object appears on the Internet, containing various parameters of the object and the outside world, and allowing to control the object via the Internet.

Key words: Credit, module, credit-module system, importance of credit-module system, opportunity of credit-module system, credit history.

Аннотация: В статье анализируются этапы применения кредитно-модульной системы в высших учебных заведениях Узбекистана и их значение. Научно показаны авторские рекомендации и мнения о важности совершенствования знаний детей. Приведены преимущества и недостатки цифровых технологий. образовательные занятия. Целью проекта является изучение эффективных методов счета и грамотности с использованием информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в школах. Приводятся некоторые предварительные выводы об обучении учащихся и серия наблюдений за уроками. Обсуждаются два частных кейса, направленных на развитие образования и ИКТ, а также высказываются мнения об уникальных особенностях, возможностях и преимуществах кредитно-модульной системы в системе образования стран мира. Цифровые технологии – Интернет вещей (IoT). Одной из основных технологий, основанных на цифровой информации, является Интернет вещей. Обычно многие бытовые приборы подключены к электрической сети, но постепенно все больше объектов физического мира подключаются к Интернету, что позволяет собирать информацию и даже управлять этими объектами удаленно. Фактически в Интернете появляется виртуальная копия физического объекта, содержащая различные параметры объекта и внешнего мира и позволяющая управлять объектом через Интернет.

Ключевые слова: Кредит, модуль, кредитно-модульная система, значение кредитно-модульной системы, возможности кредитно-модульной системы, кредитная история

Kredit (credit)-talabaning alohida ta'lim yo'nalishi yoki dasturi (kurs)

bo'yicha fanlarni o'qib o'rganishi va o'zlashtirishi uchun sarflangan vaqt yuklamasining (vaqtning) o'lchov birligidir. Kredit -talabaning me'yoriy hujjat bilan belgilangan, odatda bir hafta davomida auditoriyada mustaqil ravishda ta'lim olishi uchun ajratilgan minimal vaqt o'lchovidir. Talabaga kredit ma'lum bir fandan belgilangan topshiriqlarni bajarib, yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng beriladi.

Har bir talaba kelajakda tanlagan yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha diplomga ega bo'lishi uchun kreditlarni yig'ib borishi lozim. Shu o'rinda bo'lajak boshlang'ich o'qituvchilari ya'ni boshlang'ich ta'lim yo'nalishidagi talabalarni

ko'rib chiaqdigan bo'lsak to'plangan kredit talabaga butun umr davomida o'zining malakasini oshirib borish yoki qo'shimcha oliy ma'lumot olishiga xizmat qilib boraveradi. Iqtisodiy tilda aytganda, to'plangan kredit talabaning akademik, aktiviga aylanib boradi.

Tarixda kredit tizimi ilk marotaba XVIII-XIX asrlarda AQSh universitetlarida joriy etilgan bo'lib, o'quv jarayonlarini liberalizatsiya qilish,


talabanning haftalik akademik yuklamasini belgilab berish maqsadida yaratilgan.1869-yilda Garvard universiteti prezidenti, Amerika ta'limining taniqli arbobi Charls Uilyam Eliot, "Kredit soati" tushunchasini iste'molga kiritadi. Shunday qilib, 1870-1880-yillarda kredit soatlari bilan o'lganadigan tizim joriy qilinadi.

Kredit tizimi bilan o'qish va o'quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish, ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish uchun imkoniyat yaratib berdi.Kredit to'plash o'lgovining kiritilishi talabaga katta erkinlik berish bilan bir qatorda, kelajakda tanlagan sohasining raqobatbardosh mutaxassisi b o'lib yetishishi uchun akademik jarayonni mustaqil rejalashtirish imkonini ham taqdim etdi. Ayni chog'da, baholash tizimi va ta'lim texnologiyalarning takomillashishiga ham olib keldi.

U b o'lajak boshlang'ich ta'lim y o'nalishidagi ta'lim oldagan talabalar uchun ma'lum bir bilim va ko'nikma hosil qilish, tahliliy -mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lishiga qaratilgan bir nechta fanlar (kurslar) majmui hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video hamda audio ma'ruzalar o'qiydi, talabanning faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi.

Biz bugun maktablarimizga yangi fan sifatida kirib kelgan tarbiya faniga boshlang'ich sinf o'qituvchilarini munosabati haqida t o'htalib o'tamiz. Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga bu fan 2020- yil fan sifatida kiritildi bunda darslikda turli xil rukunlardan iborat mavzulardan tarkib topgan .

Har bir rukunni monitoring ya'ni davlat ta'lim standartlari asosida berilgan b o'lib o'quvchini yoshiga bilim saviyasiga qarab mavzular berilgan va bu rukunlar oila davraqsida ham topshiriqlar bajariladi .Bunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarimiz o'quvchilarni turli xil diagrammalardan foydalanib topshiriqlarni soniga qarab o'quvchilarni baholashadi. Bundan raqamli hisob kitob ya'ni boladi o'siish prossesi vujudga keladi ya'ni bola qaysi mavzuni qaysi rukunnida aynan tarbiya fanida mavjud rukunlarda qanchalik o'zlashtirgan haqida bilib olamiz.Biz Sirdaryo viloyatida maktablarda tarbiya fanidan monitoring oldik va quydagi natijalarga ega bo'ldik .



Albata bu ikkita maktabdan olingan dastlabki bitta rukun bo'yicha olingan natijadir. Biz bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga esa maktabga

amaliyot davrida bunday tizimda monitoringni o'rganib borilmoqda. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mavzuni mustaqil o'rganadi hamda berilgan topshiriqlarni bajaradi.

Xorijiy tajribaga asosan kredit-modul tizimida o'quv jarayoni har semestrda 2-4 tagacha moduldan iborat bo'ladi. Modulda jamlangan fanlar osondan murakkablik sari, nazariy-uslubiy fanlardan amaliy fanlarga qarab hamda mantiqiy jihatdan bir-birini o'zaro toldirish prinsipi asosida shakllantiriladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga mutaxassis bo'lib shakllanishi uchun nafaqat axborotlar, balki ularni qayta ishlash, amaliyotga joriy qila olish-malakasiga ega bo'lishi talab etiladi.

Modulga asoslangan o'quv dasturlari maxsus sxema asosida ishlab chiqiladi va quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:- o'quv maqsadi hamda vazifalarning

to'liq ochib berilishi;-talabning fanni (kursni) boshlashi va tugatishidan keyingi orttirishi lozim bo'ladigan malakasiga qo'yiladigan talablar;-modul tarkibiga kirgan har bir fanning qisqacha mazmuni (sillabus), ya'ni ma'ruzalar mavzulari, seminar va amaliy mashg'ulotlarning rejasi, mustagil ta'limni baholash uchun mo'ljallangan topshiriqlar;- o'qitishning qisqacha bayoni: ta'lim berish usul hamda vositalari; bilimlarni baholashning usul va shakllaridan iborat. Modul asosida o'qitish tizimida talabalar bilimi, malakasi hamda ko'nikmasini baholashda reyting baholash tizimidan foydalaniladi. Unda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga barcha o'quv faoliyati, ya'ni auditoriya va auditoriyadan tashqarida olgan, o'zlash-tirgan bilimlari ball berish orqali baholanadi. Kredit-modul tizimi, bu ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib,

o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir.

Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarining mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimni reyting asosida baholash. Kredit -modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:-o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;-bitta fan, kurs (kredit) ning qiymatini aniqlash;-talabalar bilimni reyting bali asosida baholash;-talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;-ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning usulini oshirish;-ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligini talab qiladi.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yilning 1-oktabrida " O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni imzolandi.

Ushbu muhim dasturilamal hujjatarda, respublikadagi hamda 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish va oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-

bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish belgilab berildi. Shuningdek, 2030-yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasasi (DTM) ning 85 foizi, jumladan, 2020-2021 o'quv yilining oxida 33 ta oliy ta'lim dargohini kredit-modul tizimiga o'tkazish ko'rsatib o'tildi. Kredit-modul tizimi avvalambor mamlakatimiz oliy ta'lim tizimiga ta'limning amaldagidan ko'ra ancha mukammal o'lchov birligini olib kiradi. Unga ko'ra, universitetda o'tiladigan har bir fan endilikda undagi o'qish yuklamasi miqdoriga qarab, kreditlarda aks etadi.

Masalan, har bir fan o'rtacha 5,6 yoki 7,5 kreditlarda aks etishi mumkin.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida esa har semestr, o'quv yilida muayyan miqdorda kreditlar to'plab borishi mumkin, va bu miqdorga qarab, unga bakalavr yoki magistr darajasi beriladi.

Yangi tizimning talabalar uchun afzalliklari. Mazkur tizimning oliy ta'limga joriy qilinishi o'qitish sifatini oshirish, shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyaga barham berish, ta'lim oluvchining haqiqiy bilimini yuzaga chiqarish hamda talabaning mustaqil o'qib- o'rganib, o'zi ustida ishlashiga zamin yaratadi. Bugungi kunda Yevropa kredit tizimi qit'aning deyarli barcha oliy o'quv yurtida amalga qo'llab kelinmoqda.

Kredit-modul tizimining joriy etilishi o'qituvchi va talabaning hamkorlikda ishlashida muhim rol o'ynaydi. Modulli ta'limda pedagog Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga talabaning o'zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi esa yo'naltirilgan obyekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng katta urg'u ham Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga mustaqil ta'lim olishiga qaratiladi. Bu juda ham yaxshi va samarali usuldir.

Kredit-modulli tizim talabalarining o'quv faoliyati va harakatchanlik vositasi sifatida Yevropa ta'lim uslubi talabalarining yuqori faolligini anglatadi.

Ta'lim jarayoni nafaqat ta'lim ob'yekti, balki odamlar sifatida ham ta'lim tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu bir tomondan talab qiladi, talabaning o'z-o'zini anglashning yuqori darajasi va boshqa tomondan, ehtiyojni taqozo etadi talaba va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartiradi.

An'anaviy ta'limdan farqli o'laroq talaba oldindan bo'lgan konveyer sifatida namoyish etilishi mumkin bo'lgan ta'lim tizimi muayyan trayektoriyadan harakatlanadi kreditmodulli tizim turli xil modullarni jalb qilishga imkon beradi, majburiy fanlardan tashqari, ya'ni individual o'quv dasturini shakllantirish mumkin.

Shunday qilib, modul-kredit tizimida talabalarining sifatli ta'lim olishida mustaqil o'qish metodikasi talaba shaxsiy ehtiyojlar asosida yo'naltirilgan, o'z ta'lim yo'nalishini sifatli garovidir. O'qish jarayonida har bir talaba daromad oladi talaba faoliyatining mehnat intensivligining o'lchovi bo'lgan narsa – bu kreditlar. Ushbu tizim shuningdek, o'qitishning loyihaviy shakli – shaxsni rivojlantirish va himoya qilishni nazarda tutadi yoki tegishli mavzular bo'yicha guruh loyihalari ishlab chiqadi.

Ushbu tizimning boshqa afzalliklari bor:

bir vaqtning o'zida o'rganilgan kamroq fanlar, individualizasiya pedagogik jarayonning, amaliy y o'naltirilganligi, shuningdek oshkor etilishi talabalarning ijodiy qobiliyatlari.

Zamonaviy sharoitda ushbu tizim sizga ko'proq mobil, vakolatli va talab darajasidagi mutaxassislar haqida ma'lumot berishga imkon beradi. "Modul" tushunchasini haqiqiy tarkib bilan to'ldirish bugun barcha universitetlar uchun dolzarb muammoga aylandi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, modullarni shakllantirish uchun asosni aniqlash qiyin. Bu yerda bir nechta variant bo'lishi mumkin: modullarni tarkibiy-tematik yoki tashkiliy-tarkibiy prinsipga muvofiq yig'ish. Modul haqida ikki tomonlama tushuncha beradi. Birinchisida modul o'quv dasturi doirasida ma'lum bir o'zaro bog'langan yaxlitlikni tashkil etuvchi fanlar bloki tushuniladi, uni dasturning umumiy tuzilishi doirasida mantiqiy substruksiya deb qarash mumkin.

Ta'lim modulining mustaqillik o'lchovi uning nisbiy tematik izolyasiyasi bilan belgilanadi. Bu yerda modul malaka xususiyatlari talablariga javob beradigan o'quv fanlari majmuini ifodalovchi yo'nalishdagi o'quv dasturining birligi sifatida talqin etiladi. Mustaqil izlanish va rivojlanish uchun kata miqdordagi o'quv materiallari chiqariladi. Mustaqil mashg'ulotlar doirasida o'qituvchi rahbarligida qo'shimcha dars mashg'ulotlar ham o'tkaziladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga tarbiya metodikasini o'rgatishda ushbu olimlarimizni olib borgan tadqiqot ishlariga suyangan holda ta'lim dargohlarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ta'lim berilmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar va nashrlar tahlili shuni ko'rsatdiki, Y. Babanskiy, A. Verbiskiy, L.

Derkach, V. Kazakov, O. Kirichuk, B. Korotyayev, A. Kucheryavy, S. Matushkin, A. Moroz, N.

Nikandrov, P. Pidkasiy, N. Polovnikova kabi olimlar tomonidan talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning turli jihatlari o'rganilgan, V. Slastenin, T. Shamova va boshq. V. Aksenova, T. Gusak, V. Krilova, V. Leontiyev, G. Shchukina, V. Vergasov va boshqalar talabalarning o'quv faoliyatini rag'batlantirish masalalarini ko'rib chiqdilar. Talabalarni mustaqil o'quv faoliyatiga tayyorlashni takomillashtirish yo'llari M. Antonyuk, V. Buryak, N.

Vazheyevskaya, L. Derkach, I. Mostovaya, L. Onuchak, M. Soldatenko va boshqalar tomonidan tahlil qilingan.

O'qitishni tashkil etishning modulli tizimi A. Aleksyuk, K. Vazina, A. Kucheryavy, A. Gumenyuk, B. Ognevyuk, A. Furman, P. Yusevichene va boshqalar tomonidan batafsil o'rganilgan.

Olimlar va amaliyotchilarning universitet talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish muammosiga katta e'tibor qaratishlariga qaramay, aks yettirish va hal qilishni talab qiladigan muhim masalalar hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Kredit tizimida o'qitish texnologiyasi – bu o'quv jarayonini tashkil etish usuli bo'lib, unda talabalar o'quv trayektoriyasining ketma-ketligini alohida rejalashtirish imkoniyatiga ega. O'qitishning kredit texnologiyasining mohiyati shundaki, o'quv ishlarining mehnat intensivligi o'qitiladigan material hajmini

tavsiflovchi kreditlarda hisobga olinadi. Ta'limning kredit texnologiyasining asosiy vazifalaridan biri talabalarning mustaqil ishlari rolini oshirishdir.

Shunday qilib, oliy o'quv yurtlarida kredit texnologiyasini joriy etish universitetda o'quv jarayonini tashkil etishni tubdan qayta ko'rib chiqishni, o'qitish texnologiyasidagi o'zgarishlarni va ularni uslubiy qo'llab-quvvatlashni talab qiladi, talabalarning mustaqil ishlarini (TMI) faollashtirishga e'tibor qaratishga imkon beradi. TMIning barcha doirasi talabdan har kuni mustaqil ishlashni talab qiladigan vazifalar bilan tasdiqlanishi kerak. TMI soatlariga o'quv rejasining yeng qiyin masalalari bo'yicha konsultasiyalar, uy vazifalari, hisobotlar va TMIning boshqa turdagi vazifalari kiradi. Talabaning mustaqil ishi (TMI) mazmuni, albatta, fanning ish dasturi va o'quv dasturida aks etadi. Talabalarning mustaqil ishi-bu jarayonda o'qituvchilarning bevosita ishtirokisiz talaba tomonidan yangi bilim va ko'nikmalarni faol, maqsadga muvofiq o'zlashtirish usuli hisoblanadi. Talabaning o'qish qobiliyatini rivojlantirish, ularning ijodiy faoliyati va tashabbusini tarbiyalash bilan rivojlanadi va ravnaq topadi.

Xulosa qilib aytganda, kredit-modul tizimi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ko'plab imkoniyatlar yaratadi. Kredit-modul tizimining ahamiyati ham bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'lim olishlarida yuqori bo'ladi. Kelajak biz yoshlar qo'lida ekan rivojlanish uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlarni ishga solib islohotlarni qurqmasdan amalga oshirib ulardan maksimal darajada. Har birimiz yurtimizning kelajagi uchun astoydil harakat qilamiz. Ilm olishdan, o'rganishdan hech qachon charchamaylik!

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni
2. O'.Asqarova, M.Nishonov, M. Xayitbaev "Pedagogika" T., "Talqin" 2008 y
3. M.To'xtaxo'jayeva "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2010 y
4. O.U.Avlayev, S.N. Jo'rayeva, S.P.Mirzayeva "Ta'lim metodlari" o'quv-uslubiy qo'llanma, "Navr o'z" nashriyoti, Toshkent –2017
5. Pedagogika nazariyasi va tarixi. R.Mavlonova va boshqalar. –Toshkent, Fan va texnologiya. 2010.
6. Монгуш М. В. модульно рейтинговая система контроля качества знаний студентов // Вестник педагогической инновации / Новосибирский государственный педагогический университет. -2007
7. Сазонов Б. А. Болонский процесс: актуальные вопросы модернизации российского высшего образования. –М.: Федеральный институт развития образования, 2006.
8. Usmonov. B. Sh. Xabibullayev. R. A Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. –Toshkent, TKTI, 2020. –120 bet
9. O'rinov. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O'quv qo'llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020 y.

10. Axmedova M.E (hammualliflikda) Pedagogik mahorat va tibbiy pedagogikaning kasbiy kompetentligi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma T.: “Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi MCHJ,2021-62-63b.(126)
11. Axmedova M.E. (hammualliflikda) Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Дарслик–Т., 2019. 5-6.(302)
11. Ahmedova M. (hammualliflikda) –Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. T., Fan va texnologiya nashriyoti. 2018. — 393 b (102-b).
12. Axmedova M.E.U.A.Tashkenbayeva., E.Suyunova Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti (Darslik) – T.: Tibbiy matbaa, 2022.

O‘QUVCHILAR NUTQINI OSHIRISHDA DIDAKTIKO‘YINLARNING O‘RNI

Boychayeva Sharifa Saidkulovna

Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikalari kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Annotasiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bilim saviyasini oshirishda hamda nutq faoliyatini rivojlantirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish, o‘yinlarning asosiy turlari, o‘quvchilar o‘yin vaqtida qiziqish bilan harakat qilishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: didaktika, nutq o‘stirish, qobiliyat, usul, bolalar, o‘yin, ta‘lim-tarbiya, kompyuter, tafakkur, ijodiy qobiliyat.

Ta‘lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma‘lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya‘ni o‘zlashtirilayotgan ma‘lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta‘lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Shu maqsadda biz siz bilan ta‘lim jarayonini oshirishda hamda o‘quvchilar nutqini o‘stirishda diaktik o‘yinlarning o‘rni haqida suhbatlashim o‘tmoqchimiz.

Didaktik o‘yinlar texnologiyalari o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o‘quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Didaktik o‘yinlarning asosiy turlari: Intelektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bu o‘yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy ahloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta‘lim – tarbiya jarayonida asosan o‘quvchilarda

ta'lim olish motivlarini, ularning turli yo'nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi.

Didaktik o'yinlar intellektual metodlarning tarkibiy qismlaridan biri sifatida o'quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushirishga, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka, nutq faoliyatini rivojlantirishga yetaklaydi. Ayniqsa unda atrof – muhit, hayotga bo'lgan qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to'siqlarni qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.


Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy jismoniy, roli, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha, turlari bo'yicha ajratiladi. Didaktik o'yinlar o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, ahloq odob o'rgatish, yangi bilimlar o'rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarga ajratiladi.

Didaktik o'yinlardan amalda foydalanish orqali boshqa usullar yordamida erishish qiyin bo'lgan ta'lim –tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi. Turli o'quv fanlariga oid didaktik o'yinlar mavjud bo'lib, ular shu fanlarni sifatli o'rgatish maqsadlariga xizmat qiladi.

Umumiy o'yinlar nazariyasiga, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funksional, mavzuli konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlariga ajratiladi. Bularning orasida ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini berishi bilan alohida o'ringa ega. O'yinlar kichik yoshdagi o'quvchilarni asosiy faoliyat shakli hisoblanadi. Bu esa pedagog va psixolog olimlar tomonidan shu yosh davridagi o'yinlarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish va yanada oshirish bo'yicha izlanishlar olib borilishiga sabab bo'ldi.

Boshlang'ich sinf darslarida bolalarni darsga qiziqtirishimiz uchun turli ta'limiy o'yinlardan foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bola o'yin orqali fanga qiziqib boradi va shu fanni yaxshi o'zlashtiradi. Yana darsda turli tarqatma vositalaridan ham foydalanish yaxshi natijalarni beradi. Men o'z darslarimda turli ta'limiy o'yinlardan foydalanishga harakat qilaman. Misol tariqasida ko'rsatib o'tsam.

“Bir so'z” metodi. Bu metod o'quvchilarni tezkorlikka, nutqini rivojlanishiga, tafakkurini kengayishiga olib keladi. Buni jadvalga solib foydalansak bo'ladi. Misol uchun bolalarga olma rasmini ko'rsatishimiz kerak. Ular olmani bir so'z bilan ifodalashlari kerak. Aytilgan so'zni boshqa o'quvchi aytishi kerak emas.

O'quvchilar javoblari jamlanib jadval ichiga yozib boriladi. Olma haqida qanday ma'lumotlar borligini bilib olamiz.

	<u>Olma</u>	<u>Shirin</u>	<u>Mazali</u>	<u>Yumaloq</u>	<u>Qizil</u>	<u>Yashil</u>
	<u>Sharbat</u>	<u>Vitamin</u>	<u>Turshak</u>	<u>Daraxtda yetiladi</u>	<u>Gullaydi</u>	<u>Turli xil turlari bor</u>

Demak bu o'yinni har darsda har qanday fan miqiyosida o'tkazib borsak bo'ladi. Darsni mustahkamlash jarayonida ham bu oyin turidan foydalansak bo'ladi.

Umuman olganda ta'limiy o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali bo'lishiga, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini muvoffaqiyatli boshqarishga, fanlardan nazariy bilimlarni oson egallashlariga, ulaning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirib boradi. Har bir ta'limiy o'yinning o'ziga xos ko'ngilochar tomoni bor. Bir nechta o'quv fanlarining kognitiv elementlarini o'z ichiga olgan o'yinlar ham mavjud.

Didaktik o'yin qanchalik mohirona tuzilgan bo'lsa, didaktik maqsad shunchalik mohirona yashiringan bo'ladi. O'quvchi beixtiyor o'ynab, o'yinga kiritilgan bilimlar bilan ishlashni o'rganadi. Eng yaxshi didaktik o'yinlar o'z-o'zini o'rganish prinsipi asosida tuzilgan, va o'quvchini bilim va ko'nikmalarni egallashga yo'naltiradi.

O'yin nafaqat bola uchun zavq va quvonchdir, bu o'z-o'zidan juda muhimdir, uning yordami bilan biz uning e'tiborini, xotirasini, tafakkurini, tasavvurini rivojlantira olamiz. O'yin orqali bolaning yangi bilim, ko'nikmalarni egallashi, qobiliyatlarni rivojlantirishi mumkin.

Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligini, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning o'ylab olishiga va o'sha aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yinlar qoidalarini o'quvchilarning o'zlari bajarishlariga imkon beradi. Didaktik o'yinlarning bu tarzda tuzilish xususiyatlari o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o'yin vaqtida qiziqish bilan harakat qiladilar.

Shunday qilib, yuqoridagilardan quyidagi xulosalar chiqarishimiz mumkinki, boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni muloqot qilish ko'nikma va malakalarini, o'zaro yordam ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantiradi, tafakkur doirasini kengaytiradi, nutq faoliyatini kengaytiradi va o'quvchilarning bilim saviyasini oshirishga xizmat qiladi deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atayeva N., Salayeva M., Hasanov S. Umumiy pedagogika. T., 2013 y.
2. Avliyaqulov N., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. T., 2008 y.
3. Zunnunov A., Maxkamov U., Didaktika (Ta'lim nazariyasi). O.O'Yu uchun qo'llanma. T., Sharq, 2006y.
4. Mavlonova R. , Vohidova N. , Rahmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 May 2022 / Volume 3 Issue 5 www.openscience.uz 746 tarixi. „Fan-texnologiya“ T., 2010y.

5. Mahmudov A.X. Uzluksiz ta'lim jarayoniga kompetentlik yondoshuvini joriy qilishning didaktik asoslari // Uzluksiz ta'lim. 2012y.

6. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida inovasion faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari. //Uzluksiz ta'lim, 2010

O'QUVCHILARDA MANTIQUIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA MUAMMOLI TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISH

Fayzullaev Manas Musurmonqul o'g'li, Yo'ldoshev Abdurauf Suyunboy o'g'li, Axmedov Umarmul Baxtiyor o'g'li

Guliston davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar va san'atshunoslik kafedrası o'qituvchisi. SVPYMO'MM Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodisti. Guliston akademik litseyi fizika fani bosh o'qituvchisi.

Annotasiya: Yoshlar bizning kelajagimiz, ularga qancha ta'lim bersak, yurtimiz shuncha rivojlanadi. Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qoldirishi lozim. Ushbu maqolada o'quvchilarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda muammoli ta'lim metodlaridan foydalanish doir ma'lumotlar tahlil qilingan.

Abstract: Young people are our future, the more we educate them, the more our country will develop. In the future, Uzbekistan should impress the world not only with its highly developed economy, but also with its educated, spiritually mature children. This article analyzes data on the use of problem-based learning methods in the development of logical thinking in students.

Kalit so'zlar: mamlakat, intellektual, fikr, o'quvchi, o'qituvchi, yangi pedagogik texnologiya, tafakkur, muammo, kibernetik pedagogika, tadqiqot.


Key words: Young people are our future, the more we educate them, the more our country will develop. Future country, intellectual, thought, student, teacher, new pedagogical technology, thinking, problem, cybernetic pedagogy, research.

Mavzusining dolzarbligi. Bugun mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida kechayotgan o'zgarishlar va yangilanishlar o'sib kelayotgan avlodni jismoniy sog'lom, ruhiy hamda intellektual fikrlaydigan, katta pozitsiyaga ega, Vatanga sodiq qilib tarbiyalash bilan birga bolalar va navqiron avlod avlodlar o'rtasida kitobga mehr qoyish orqali ongu tafakkurni yuksaltirish hamda matematik, informatik, tabiiy bilimlarni yuksaltirish muhim mezoni sifatida belgilangan. O'quvchilarning tabiiy bilimlarni o'rganish jarayonidagi mantiqiy mulohazalari va mustaqil tafakkuri darsni o'qituvchi tomonidan tashkil ettirilishiga bog'liq. O'qituvchi o'quvchilardan murakkab masalalarni hal etishni talab etsa, ularning zehniy qobiliyatlarini ishga soladigan usullarini tatbiq eta olsa, o'quvchilar o'sha murakkab masalalarni bilishga intiladilar. Avvalo o'qituvchi o'quvchilar o'rganadigan bilimlarning mazmunini tahlil qilib, o'quv ishlaridagi usullarni aniqlaydi. Shundan keyin o'quvchilar fikrini qaysi vositalar bilan rivojlantirish mumkinligini bilib oladi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Hozirgi milliy pedagogikamizning daraxti ikki hayotbaxsh irmoqdan suv ichadi. Biri – mingyilliklar davomida

shakllanib, gavhar zarralaridan hosil bo'lgan milliy tarbiya tajribasi bo'lsa, ikkinchi – jahonning ilg'or, sinalgan pedagogik innovatsiya yutuqlaridir. O'quvchilarida ilmiy dunyo qarash elementlarini shakllantirishda "yangi pedagogik texnologiya", "pedagogik diagnostika", "kibernetik pedagogika" kabi tushunchalarning tub mohiyatini o'zlashtirmasdan, ulardan o'quv – tarbiya jarayonida foydalanmasdan turib yaxshi natijalarga erisha olmaymiz. Biz jahon pedagogik integratsiyasida o'zimizning munosib mavqemizni egallab olishimizni nazorat qilib turishimiz hozirgi davrning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Bunday muammolarni hal qilish uchun ta'limda o'qitishning yangi – yangi usullari qo'llanila boshlandi. Ulardan biri o'quvchi faol fikrlashga o'rgatuvchi masala qo'yib o'qitish deb ataldi. Lekin "masala" so'zi yunon tilidan "muammo" deb tarjima qilingan. Holbuki, "muammo" so'zining ma'nosi "masala" so'zi ma'nosidan ancha teranroq bo'lib, muammoli o'qitish mazmunini beradi. Muammoli o'qitish texnologik yo'l bilan rivojlanadi. Natijada muammoli o'qitishning to'rt bosqichdan iborat mantiqiy tuzilmasi paydo bo'ladi.



O'quvchi javobini bilmagan savolning hammasi ham muammoli vaziyatni vujudga keltirmaydi. Masalan, Toshkentda qancha odam yashaydi? Kabi masalani yechish muammoli vaziyat bo'la olmaydi. S.L.Rubinshteyn o'qitish jarayonida qarama-qarshilik paydo bo'lgan vaziyatni muammoli vaziyat deb atadi. O'quvchi o'qish (bilish) jarayonida qarama-qarshilikka duch kelsa, uning bilishga bo'lgan qiziqishi yanada ortadi, ya'ni motivatsiya paydo bo'ladi. Masalan, jismning suzishini o'rganishda nima uchun suvga tashlangan temir mix botibketadi, metall kema esa suvda suzibyoradi? degan savol muammoli hisoblanadi (chunki bu savolda qarama – qarshilik bor). Bu savol o'quvchini qiyoslashga va talqin etishga, tahlil qilishga undaydi va hatto majburlaydi, ya'ni jismning suyuqlikda suzish qonuniyatini tushunishga olib keladi. Metodologik jihatdan qaraganda tushuncha orasidagi qarama-qarshilik emas, balki qarama – qarshilikning asl manbayi birlamchi hisoblanadi. O'quvchining ijodiy qobiliyatini shakllantirish uchun uni doimo savol berishga undash lozim. Yo'q joydan savolning qanday paydo bo'lishini ko'rsatish, qarama – qarshilik dars oxirida oydinlashtirilib berilishi zarur. Atoqli polyak olimi V.Okon shunday yozadi: "O'quvchi tadqiqotchi o'tgan yo'lni tanlashni qanchalik istasa, natija shunchalik yaxshi bo'ladi".

Muammoli o'qitish orqali o'quvchini o'z fikrini aytishga uni himoya qilish

va bahslashishga o'rgatish mumkin. O'qitish jarayonida qarama-qarshilik bo'lmasa bahs ham, munozara ham bo'lmaydi. Munozarasiz esa muammo o'z yechimini topmaydi. Dars jarayonida bir – biriga hurmat, ishonch ruhi hukmron bo'lishi kerak. O'quvchi o'qituvchining o'rgatishga intilayotganini bilishi, uni o'ziga teng ko'rayotganini yaqqol his qilish zarur. Bu esa, shubhasiz, o'qitishda shaxs omilini hisobga olish, birga ishlash pedagogikasini qo'llash va ta'limni insoniylashtirish bilan uzviy bog'liq. Agar "pedagogik texnologiya" "pedagogik tizim" tushunchasiga yaqin va uning loyihasi hisoblansa, xususiy predmetli pedagogik texnologiya xususiy metodika tushunchasiga yaqindir va fan mavzusini muayyan texnologiya doirasida o'rganadi, ya'ni u o'qitish texnologiyasi hisoblanadi. Bugungi kunda har bir fan o'qituvchisi ijodkorga aylanishi, fan mavzu bo'yicha loyiha ishi tayyorlashi va amaliyotga joriy etishi lozim. Zero, ta'lim jarayonini axborotlashtirish va kompyuterli pedagogik texnologiya ishlanmasini yaratish pedagogikadagi samarali ishlardan biridir.

Fikrlashga o'rgatish – bu bilim o'rtasidagi tafovutni yechish, o'quvchi ega bo'lgan va ega bo'lmagan, ammo yuzaga kelgan muammo – topshiriqni yechishda unga asqotadigan bilim. Bu boradagi tavsiyalar M.Mahmutovning o'qitish muammolariga bag'ishlangan kitobidan o'rin olgan. Xuddi shu mavzuda I.Lengerning risolasi ham mavjud. Ularning har ikkisi ham pedagogika fanlari doktori bo'lib, vaziyatni pedagogik nuqtayi nazardan ta'riflashadi. Lengerning ta'rifiga ko'ra, bu shunday o'qitishki, bunda o'quvchi o'quv materialini asosida tuzilgan tizimli muammo va muammoli topshiriqni yechishga jalb etiladi. Muammoli o'qitishda bilim o'quvchiga tayyor holda berilmaydi, - deb yozadi M.I.Mahmutov, - balki muammoli vaziyat jarayonida uning o'zi tomonidan o'rganish faoliyatida egallanadi.

"Muammo" (grekcha - problema - topshiriq) – nazariy yoki amaliy savol, qaysiki unga tayyor javob yo'q, shuning uchun ham o'rganish, tekshirish javobni topish uchun kerak bo'ladi. Odatda, kishi oldida muammo biror bir eski metod bilan yechib bo'lmaydigan topshiriq paydo bo'lganda kelib chiqadi. O'qitish maqsadida o'qituvchi metodik muammosi metodist tomonidan o'quvchi oldiga atayin qo'yilgan bo'lishi mumkin. O'qitish jarayonidagi muammo hayotiy muammoning modeli.

Muammoli vaziyat – bu subyektning muammo bilan to'qnashgandagi ruhiy holati, u tomonidan qiyinchilik sifatida aniq yoki noto'liq idrok qilinayotgan va uni yechish uchun yangi bilim talab etilishi bilan bog'liq bo'lgan intellektual muammo hisoblanadi. Muammoli vaziyatda paydo bo'lgan yangi bilim subyektning egallashga qaratilgan ehtiyoji shaxsning o'rganishga bo'lgan faolligidir.

A.N.Leontev tomonidan quyidagi misol keltiriladi: aviamodel to'garagiga qatnashuvchi o'quvchi katta qiziqish bilan uchadigan aviamodelni yasar edi. Instruktor undan uchish nazariyasini o'rganib kelishini talab etadi. Ammo, eng keyin va mayda ishni ham bajargan o'quvchi uchish nazariyasi bilan deyarli qiziqmagan edi. Nazariyani bilish zarurligi haqidagi tashviqot foyda bermadi va o'quvchi uchish nazariyasiga doir kitobni o'qib turib ham faqat amaliyotga taalluqli bo'lgan joyni tushunar va eslab qolar edi. Nimaga bola nazariyani o'rganaolmadi? Chunki uni bilmaslik bolani hech qanday muammoli vaziyatga

qo‘ymasdi va amaliyotda xalal bermas edi. Topshiriqni bajarishda quyidagi usul taklif qilindi, ya’ni aviamodelni yasovchi uni yasabgina qolmasligi, balki uni uchirishi ham lozim deb o‘rgatiladi va natijada model 2 metr ham uchmay to‘xtab qolganida, "nega bunday bo‘ldi?" degan muammoli vaziyat yuzaga keldi. Shunda instruktor nazariyani tushuntirib berdi va endi bola muammoli vaziyat yordamida nazariyani ham o‘rganish lozimligi, uning ahamiyati qanchalik katta ekanligini tushunib yetdi. Muammoli savollar 1.2.3... Bugungi kunda har bir pedagog muammoli ta’limni tashkil etish malakasi va ko‘nikmasiga ega bo‘lishi, amaliyotda muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalana olishi zarur. Muammoli ta’limni amalga oshirishda "RMI", "AVV", "Baliqsuyagi", "Nimauchun?", "Qanday?", "6x6x6" kabi usullardan foydalanish mumkin.

Muammoli ta’lim jarayonida "Keys"lardan foydalanish katta samaradorlikka erishishga yordam beradi. "Keys" tushunchasi – axborot majmuasi, "Stadi" tushunchasi – ta’lim degan ma’noni bildiradi. Keys stadi – bu amaliy vaziyatni yoritish asosida muammoni tushunishga, baholashga va muammoning yechimini topishga yordam beruvchi axborot majmuasidir. Bu metod yuqori sinflar uchun mo‘ljallangan.

Muammoli ta’limning asosi muammoli savol sanaladi. Muammoli savol tafakkur qilish yo‘li bilan izlangan noma’lumni topishni ta’minlaydigan so‘roq bo‘lib, alohida holda muammoli vaziyat va vazifalarning tarkibida bo‘lishi mumkin. Muammoli savolga fikr yuritish orqali javob topiladi. Nima uchun? Nima sababdan? Buni qanday izohlab berasiz? Bundan qanday xulosa chiqarish mumkin? Kabi so‘roqlar muammoli savol paydo bo‘lishini ta’minlaydi.

Muammoli savol va vazifalar birgali da muammoli topshiriqning tarkibida kelishi mumkin. Muammoli topshiriq o‘qituvchi, ta’lim beruvchi, kitob muallifi tomonidan muammoli savol va vazifashaklida bilim oluvchini muammoli vaziyatga tushiradigan o‘quv topshirig‘idir.

To‘g‘ri tashkil etilgan dars o‘z samarasini beradi. Ammo har bir bosqichda qo‘llaydigan usullarni o‘rganmay turib, dars samaradorligini oshirib bo‘lmaydi. Shunday interfaol usullardan biri- "INSERT" jadvalidir.

“Insert” o‘qish davomida o‘z shaxsiy tushunishlarini faol ko‘rib chiqishga yordam beruvchi kuchli usul hisoblanadi. Matnni oxirigacha o‘qib, undan hechnarsani eslay olmaslik holati ko‘pchilik o‘quvchilarda uchraydi. Matnni o‘qiyotganda o‘quvchi faolligini to‘plab turish uchun "insert" yordam beradi. "Insert" fikrlar bosqichini amalga oshirish, idrok etishda muhim ahamiyatga ega.

Masalan, o‘quvchilarga fikrlash bosqichida o‘qilgan matnni samarali tushunishda o‘quvchilarga quyidagi jadval yaqindan ko‘maklashadi.

B	+	?

B- o‘quvchi bilgan ma’lumot.

+ - o‘quvchi uchun yangilik bo‘lgan ma’lumot.

? - o‘quvchi tushunishga qiynalgan ma’lumot.

O‘quvchilar bu shartli belgilarni o‘rganganlaridan so‘ng jadvalni to‘ldirishadi. Ushbu jadvaldan o‘quvchining qancha bilimga egaligi, yangi bilim egallagani va qaysi ma’lumotlar haqida qo‘shimcha yangilik olishi lozimligi yaqqol ko‘rinadi.

Xulosa. Maqolada “ o‘quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil qilishda o‘qitish usullarini tanlash zarurati” deb nomlangan bo‘lib, unda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda muammoli ta’lim metodlaridan foydalanish, geografiyani o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanishning imkoniyatlari, geografiya o‘qitishda muommoli ta’limdan foydalanish, inter faol metodlardan namunalar va ma’lumotlar keltirilgan. O‘quvchilar oddiy, ko‘p vaqt va urinishni talab qilmaydigan topshiriqlardan asta-sekin ancha murakkabroq vazifalarni bajarishga o‘tadilar. Vaqt o‘tishi bilan amaliy ishlar tobora mustaqillashib borishi kerak. O‘qituvchining amaliy ishlarga rahbarlik qilish shakllari ham o‘zgarib bormog‘i lozim: agar birinchi darslarda har bir o‘quvchiga bosqichlar bo‘yicha batafsil yo‘l-yo‘riq berish kerak bo‘lsa, yilning ikkinchi yarmida ish bo‘yicha sinfdagi barcha o‘quvchiga ko‘rsatma berish kifoyadir. Amaliy ish o‘tkazishda o‘qituvchi o‘quvchilar asoslanadigan bilimlar saviyasini aniqlash kerak

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son farmoni “2022 — 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” qarori. <https://lex.uz/docs/4785256>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son “2022 — 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha” farmoni. <http://lex.uz/docs/5841063>
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” 2017 y..
4. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar.
5. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar Strategiyasi. O‘zbekiston qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y.
6. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, 2003.-24-38b.
7. Ahmadaliyev A., Qosimov A. Innovatsion faoliyat va ilg‘or pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2011.-60 b.
8. Ishmuhammedov R. Bolalarni tarbiyalash va sog‘lomlashtirish ishlarida pedagogik texnologiya. Toshkent, UDAP. 2014.-28b
9. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar – Toshkent, 2008.-34b
10. Karimova V.M. Auditoriyada bahs-munozarali darslarni tashkil etishning psixologik texnologiyasi. – T.: 2010.-52b.
11. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. “Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari” Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan”

nashriyoti. 2006. – 149-175b.

12. Tolipova J.O. Pedagogik texnologiyalar – do‘stona muhit yaratish omili. -Toshkent: UNISEF, 2015.

КЕНГ ТАРҚАЛГАН ТУРЛАРДА БОРАДИГАН ЎЗГАРУВЧАНЛИК ЖАРАЁНИ

Сафарова Наргиза Камаловна

ГулДУ “Биология” кафедраси ўқитувчи

Ўрта Осиё куруқлик моллюскалари турлари сонининг турли-туманлиги ва эндемик турлар сонининг кўплиги билан бошқа ҳудудлардан кескин фарқ қилиб, ҳозирги даврда ҳам турлар ҳосил бўлиш жараёни интенсив тарзда давом этмоқда. Шунини алоҳида таъкидлаш зарурки, турлар ҳосил бўлиш жараёнида эса ўзгарувчанлик муҳим аҳамиятга эга.

Умуман, Ўрта Осиё фаунасида ўзгарувчанликнинг икки хил турини учратишимиз мумкин. Биринчидан, фенотипик ўзгарувчанлик, бу моллюскаларнинг бирор-бир шароитга мосланишини у ёки бу даражада намоён бўлиши.

Pseudonapaeus albiplicatus турининг конхологик белгилари ниҳоятда ўзгарувчан бўлиб, улар бир-биридан унча узоқ бўлмаган биотопларда яшаб конхологик белгилари кескин ўзгарувчан бўлиши мумкин. Масалан, Мирзачўл табиий географик ўлкасида Сангзор дарёси водийси Амир Темур ғорига унча узоқ бўлмаган 3 та биотопда тарқалаган *Ps. albiplicatus* турининг конхологик белгилари қуйидаги ўзгарувчанликка эга.

1-биотоп. Сангзор дарёсининг чап қирғоғидаги тепаликларнинг жанубий ён бағридаги тош уюмлари ва харсангалар остида учрайдиган моллюскаларнинг чиғаноқлари (1-расм.А) овал-цилиндрсимон тузилишга эга бўлиб, чиғаноқ деворлари қалин. Чиғаноқ ўрамлари 5-5,5 та бўртиб чиққан, чоки чуқур. Охирги ўрами қолган барча ўрамларга нисбатан 1,5 баробар баланд ва чиғаноқ оғиз қисмида биланар-биланмас юқорига кўтарилган. Чиғаноқ ранги кирсимон оқиш. Чиғаноқ скульптураси дағал ажинлардан ташкил топган. Чиғаноқ оғзи кенг овалсимон, бир – бирига қўшилиш жойи яқинлашмаган. Четлари бир оз ўтмаслашиб, лабсимон ўсимта яхши ривожланмаган.



А



Б



В

1-расм. *Pseudonapaeus albiplicatus* чифаноғининг ўзгарувчанлиги: А- 1 биотоп; Б- 2 биотоп; В- 3 биотоп.

2-биотоп. Сангзор дарёсининг ўнг қирғоғидаги тепаликларнинг шимолий ён бағридаги тош уюмлари остида учрайдиган моллюскаларнинг чифаноғи (1-расм.Б) овал-конуссимон, чифаноқ деворлари ўртача қалинликка эга. Ўрамлари 6-6,5 та, биланар-биланмас бўртиб чиққан. Чифаноқ охириги ўрами баландлиги чифаноқнинг қолган ўрами баландлиги билан тенг бўлиб, оғиз қисмида юқорига кўтарилмаган. Чифаноқнинг юқориги 3 та ўрами оч жигарранг, қолганларининг асоси оч жигарранг бўлиб, дағал ажинлар эса кирсимон оқ. Шунинг учун чифаноғи оқиш кирсимон кўринишга эга. Чифаноқ оғзи бир оз қийшиқ, тор овалсимон, унинг бир-бирига қўшилиш жойи ўртача яқинлашган ва юпқа қавариқ орқали кўшилган. Чифаноқ чети ўтмас бўлиб, лабсимон ўсимта яхши ривожланган.

3-биотоп. Тепаликнинг шимолий ён бағридаги сийрак тарқалган чала бутали ўсимликлар ва ўтли ўсимликлар поясининг пастки қисмида учрайдиган моллюскаларнинг чифаноқлари (1-расм.В) конус-цилиндрсимон, ўрамлари 8 та бўлиб, бир текисда. Чифаноқ охириги ўрами баландлиги қолган ўрамлар баландлигидан 1,3 баробар кам, оғиз қисмида юқорига бирдан кўтарилган. Чифаноқ ранги асоси оч жигарранг, скульптуранинг дағал чизиқлари оқиш. Скульптураси дағал радиал чизиқлардан ташкил топган. Чифаноқ оғзи овалсимон қийшиқ, қўшилиш жойи яқинлашиб дағал қавариқ орқали туташган, четлари бир оз ўткирлашган.

Ps. albiplicatus турининг биотоплар бўйича конхологик белгиларида сифат ўзгарувчанлик (чифаноқ шакли, ранги, скульптураси, оғиз тузилиши) дан ташқари миқдор ўзгарувчанлик (чифаноқ баландлиги, катта диаметри, чифаноқ оғзи ва охириги ўрами баландликлари) ҳам яққол намоён бўлади (1-жадвал).

1-жадвал

***Pseudonapaeus albiplicatus* нинг конхологик белгиларининг турли хил биотоплардаги ўзгарувчанлиги**


Статистик кўрсаткич	Чб	Кд	Чоб	Чоўб
1 – биотоп				
$\bar{x} \pm$	12,46±0,14	4,68±0,04	4,71±0,10	7,71±0,03
CV,%	3,3	2,13	6,13	1,12
r ²	0,045	0,043	0,01	0,01
2 – биотоп				
$\bar{x} \pm$	12,76±0,24	4,48±0,04	4,39±0,18	6,69±0,07
CV,%	5,28	2,59	3,46	2,82

r^2	0,06	0,01	0,01	0,07
3 – биотоп				
$\bar{x} \pm$	14,81±0,08	4,11±0,03	3,42±0,03	6,12±0,09
CV,%	1,45	2,23	2,86	4,11
r^2	0,34	0,04	0,2	0,28
4 – биотоп				
$\bar{x} \pm$	11,7±0,08	4,34±0,03	3,78±0,04	6,79±0,03
CV,%	2,03	1,07	3,01	1,11
r^2	0,13	0,08	0,07	0,02
Биотоплар кесимида				
\bar{x}	12,93 ±0,14	4,40±0,04	4,07±0,09	6,82±0,07
CV,%	2,19	2,0	3,86	2,79
r^2	0,14	0,04	0,07	0,10

Изох: ўртача арифметик кўрсаткич (\bar{x}), ўзгарувчанлик коэффиценти (CV), детерминлашиш(r^2).


Жадвал таҳлиliga кўра барча конхологик белгилар кам ўзгарувчан, яъни 1-6,31% га тенг. Бироқ конхологик белгиларнинг ўзгарувчанлиги яшаш жойига қараб турлича бўлади. Масалан, 1- биотопда чиғаноқ оғзи баландлигининг(Чоб) ўзгарувчанлиги юқори бўлиб, 6,31% тенг. Бу конхологик белгининг ўзгарувчанлиги ташқи факторларга боғлиқ.

Чиғаноқ баландлиги(Чб) ва катта диаметр (Кд) кучли детерминлашган бўлиб, уларнинг ўзгарувчанлиги(2-расм) бошқа белгиларга боғлиқ ҳолда ўзгаргади. Чиғаноқ охирги ўрамининг баландлиги эса бошқа конхологик белгиларга нисбатан энг кам ўзгарувчан ва кам детерминлашган бўлади.




2-расм. 1-биотопда яшайдиган моллюскаларнинг конхологик белгиларининг ўзгарувчанлиги (cv,%) ва детерминлашганлиги(r^2).

2-биотопада яшайдиган моллюскаларнинг конхологик белгиларнинг ўзгарувчанлиги(3-расм). 1 биотоппа нисбатан чиғаноқ баландлиги кам ўзгарувчан ва кам детерминлашган бўлиб, чиғаноқ оғиз баландлиги эса кучли ўзгарувчан хусусиятига эга.



3-расм. 2-биотопада яшайдиган моллюскаларнинг конхологик белгиларининг ўзгарувчанлиги (cv,%) ва детерминлашганлиги(r²).


3-биотопада яшайдиган моллюскаларда конхологик белгиларни ўзгарувчанлиги(4-расм) кўпроқ чиғаноқ баландлигида ва чиғаноқ охириги ўрамининг баландлигида намоён бўлган. Тадқиқотлар натижасига кўра бу ўзгарувчанлик кўпроқ ташқи фактор таъсирида рўёбга келган.



4-расм. 3-биотопада яшайдиган моллюскаларнинг конхологик белгиларининг ўзгарувчанлиги (cv,%) ва детерминлашганлиги(r²).

4-биотопадаги моллюскаларда чиғаноқ оғзининг баландлиги бошқа белгиларга нисбатан ўзгарувчан бўлса, чиғаноқ баландлиги эса кучли

детерминлашган. Чиганоқ катта диаметри кам ўзгарувчан ва кам детерминлашган хусусиятига эга. (5-расм)




5-расм. 4-биотопада яшайдиган моллюскаларнинг конхологик белгиларининг ўзгарувчанлиги (cv,%) ва детерминлашганлиги(r^2).

Статистик маълумотлар таҳлили шуни кўрсатдики, моллюскаларнинг конхологик белгиларини ўзгарувчанлик хусусияти, асосан ташқи факторларга боғлиқ бўлиб, ҳар бир биотопада конхологик белгилар шу биотопга хос даражада ўзгарувчанлик намоён қилган. Барча ўрганилган биотопларда чиганоқ оғзи баландлиги бошқа конхологик белгиларга нисбатан кучлироқ ўзгарувчанлик ва чиганоқ баландлиги эса кучли детерминлашган хусусиятни намоён қилган.

Pseudonapaeus albiplicatus турининг конхологик белгилари қатори анатомик белгиларида популяцион ва географик ўзгарувчанликни кузатишимиз мумкин.

Мирзачўл табиий географик ўлкасида тарқалган *Ps. albiplicatus* турининг жинсий органи белгиларининг ўзгарувчанлигини тақослаш мақсадида, Зарафшон ва Чотқол тизма тоғларида тарқалган моллюскалар ҳам ўрганилди ва улар куйидагича ўзгарувчанликка эга.

Зарафшон тоғ тизмаси Китоб геологик қўриқхонаси ҳудудида тарқаладиган *Ps. albiplicatus* турининг жинсий органи куйидаги тузилишга эга (6-расм, А,Б). Оқсил беги текис, вагинанинг пастки қисми юқорисига нисбатан 1,5 баробар катта



6-расм. *Pseudonapaeus albiplicatus* жинсий органининг ўзгарувчанлиги. А, Б – Китоб геологик кўриқхонаси(Зарафшон тоғ тизмаси) В,Г- Бахмал қишлоғи атрофи (Туркистон тоғ тизмаси).


Уруғ йўли эпифаллус учидан бир оз силжиб жойлашган, шунинг хисобига қамчи учига ўхшаш калта “бич” ҳосил бўлган. Яхши ривожланган цекум эпифаллус ўртасида жойлашган. Пенис цилиндрсимон тузилишга эга бўлиб, унинг ичида иккита V- шаклига ўхшаган бурма мавжуд.

Пениал аппендиксининг барча қисми яхши ривожланган. Жинсий орган ретрактори турли даражада диафрагмага яқинлашган бўлиб, унинг бир шохи А1 ўртасига, иккинчиси эса пениснинг ўрта қисмига туташган.

Уруғ қабул қилгич яхши ривожланган ва ҳар доим ўзининг калта уруғ йўлига эга. Дивертикул яхши ривожланган бўлиб, баъзида оқсил безигача етиб боради.

Туркистон тоғ тизмаси, Бахмалсой қишлоғи атрофида учрайдиган моллюскалар жинсий органи тузилиши олдинги популяцияга нисбатан кўйидаги ўзгарувчанликка эга(6-расм, В,Г). Оқсил беи апикал ҳолатда кесилган; пастки ва юқориги вагина бир хил узунликка эга; пениси калта; пенис ичида битта кўндаланг бурма мавжуд; жинсий ретракторнинг бир шохи А1 ни юқориги қисмига, иккинчиси эса пениснинг пастки қисмига туташган.

Чотқол тоғ тизмаси Дўкантисой дарасида яшайдиган моллюскаларнинг жинсий органи тузилиши, Зарафшон ва Туркистон тоғ тизмаларига нисбатан кўйидагича ўзгарувчанликка(7-расм, А,Б)эга: эпифаллуси цилиндрсимон пенисга нисбатан 4 маротаба узун; пениси ичида битта V- симон бурма мавжуд; уруғ йўли ниҳоята калта; дивертикул оқсил безига етиб бормайди.



7-расм. *Pseudonapaeus albiplicatus* жинсий органининг ўзгарувчанлиги. А, Б – Дўкантисой дараси; В, Г- Билдирсой дараси (Чотқол тоғ тизмаси).

Чотқол тоғ тизмаси, Билдирсой дарасида яшайдиган моллюскалар жинсий органи(7-расм, В,Г) бошқа популяцияларга нисбатан кўйидагича ўзгарувчанликка эга. Пастки вагинаси юқорисига нисбатан узунроқ; Пениал аппендиксининг А4 қисми калта; пениснинг ичида иккита кўндаланг бурма мавжуд.

Тадқиқотлар натижасида *Ps. albiplicatus* турининг жинсий органи

белгиларининг сифат ўзгарувчанликдан ташқари миқдор ўзгарувчанлиги ҳам аниқланди(2-жадвал).

2-жадвал

***Ps. albiplicatus* турининг жинсий органи белгиларининг ўзгарувчанлиги(мм) ҳисобида**

Популяция		Жинсий орган параметрлари (мм)									Чифанок баландлиги (мм)
		1+ 2	3	4	5		п	ПҚ	ЮҚ	Е	
Китоб геологик кўрикхони(Зарафшон тоғ тизмаси)	5		.2	.5				.3	.5	1	1 3
Бахмалсой қишлоғи атрофи(Туркистон тоғ тизмаси)	5		.3		.5	.5	.2	1	3		1 2
Дукантисой дараси (Чотқол тоғ тизмаси)	5	.5			.5			.1	.7	1	1 1
Билдирсой (Чотқол тоғ тизмаси)	5			.5	.5	.7		.2	2	4	1 0

2-жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики *Ps. albiplicatus* жинсий органи баъзи белги ўлчамларининг ўзгарувчанлиги турли хил популяцияларда турлича. Масалан, Пениал аппендиксининг А4 қисмининг узунлиги Туркистон тоғ тизмасида тарқалган моллюскаларда 4 мм бўлса, Чотқол тоғ тизмасида эса бу кўрсаткич 2,5 мм тенг.

Олиб борилган тадқиқот натижасига кўра жинсий орган баъзи белгиларнинг ўзгарувчанлиги чиғанок ўзгарувчанлиги билан кореллатив боғлиқ эканлиги аниқланди. Бу ўзгарувчанлик асосан Пениал аппендикисининг қисмларига хос.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Feruza Gaibnazarova, Nilufar Ruzikulova, Nargiza Safarova,, Khilola Khakberdiyeva, and Ulugbek Musabekov “Conchological variation of widely common species of terrestrial mollusks of Uzbekistan” E3S Web of Conferences <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202449401021494AEES2023>
2. Feruza Gaibnazarova. Faunistic spectrum of terraneous mollusks of Uzbekistan and bordering territories E3S Web of Conferences 392, 02040 (2023) <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202339202040RSE-II-2023>
3. Pazilov A., Gaibnazarova F., Saidov M. Patterns of vertical distribution of terrestrial mollusks of Uzbekistan and adjacent territories. Tashkent: Fan, 2014. B-11
4. Pazilov A., Gaibnazarova F. Geographical variability of conchological features of the terrestrial mollusk *Pseudonapaeus aptechus* // Proceedings of the VIII International Scientific and Practical Conference.- Krasnodar, 2014.- pp. 128-130.
5. Gaibnazarova F. The nature of the variability of the signs of the sexual apparatus of *Pseudonapaeus albiplicata* From the Chatkal, Kuraminsky Ridges - Guliston Davlat Aksborotnomasi University, No. 3. 2015 B-21
6. Gaibnazarova F., Pazilov A. On the fauna of terrestrial mollusks (gastropods, Puymonata) of the Kugitangtau ridge. Proceedings of the conference "Ecology, Evolution and systematics of animals" November 13-16, 2012 B-13-16
7. Gaibnazarova F., Pazilov A. Conchological variability of terrestrial mollusks *Nanosignals of gibbulinopsis* of Turkestan and Zarafshan ridges. Zoological studies of the regions of Russia and adjacent territories materials for the III International Scientific Conference. Nizhny Novgorod - 2014.
8. Pazilov A. Gaibnazarova F., Karimova H. Complexes of terrestrial mollusks in various biotopes of the Zarafshan ridge JOURNALNX - Interdisciplinary peer-reviewed journal ISSN: 2581-4230, Website: journalnx.com, June 18-19, 2020.
9. Pazilov A., Gaibnazarova F., Karimova x alien species *Monacha carthusiana* (Mollusks, gastropods, pulmonary) as a new intermediate host of the nematode *cystocaulus ocreatus* in Uzbekistan. Naukoviy visnik Uzhhorod universitetu Seriya Biologiya, Vipusk 40, 2016: B 83-85.
10. Gaibnazarova F. The nature of the variability of the signs of the sexual apparatus of *Pseudonapei albiplicate* from the Chatkal and Kuramin ranges. Biological Sciences of Kazakhstan No. 3, 2014.
11. Gaibnazarova F. Biological diversity of terrestrial mollusks of the Surkhan-Sherabad valley and its surrounding mountain ranges // Naukovi zapiski Ternopil National Pedagogical University im. Volodimira Gnatyuk. Ser. Biologiya Ternopil: TNPU, 2012. - Vip. 2 (51), Spec. vip. : Moluski: results, problems and prospects doslizhen. - pp. 54-57– - Bibliogr. in kinci art.
12. Pazilov A., Gaibnazarova F. Conchological variability of the terrestrial mollusk *Signature of gibbulinopsis* from the Baysuntau, Kugitangtau and Babatag ridges.

"Ecology, evolution and systematics of animals". Ryazan -2012 Materials of the international scientific and practical conference

13. Pazilov A., Gaibnazarova F. Species composition and variability of terrestrial mollusks of the genus *Cochlicopa* of Uzbekistan and adjacent territories / Ecological features of biological diversity: proceedings of the 5th International Conference - Hadjent, 2013 - pp.96-97.

17. Pazilov A., Gaibnazarova F. Population variability of conchological features of the terrestrial mollusk *Pseudonapei secalin* from the Turkestan ridge // Theory and practice of current research. Materials of the VI International Scientific and Practical Conference.- Krasnodar, 2014. pp. 45-47.18.

15. Goibnazarova F., Pazilov A. Conchological variability of terrestrial mollusk *Nanosignals* of *gibbulinopsis* in Turkestan and Zarafshan ridges//Zoological studies of the regions of Russia and adjacent territories. III International Scientific Conference.- Nizhny Novgorod, 2014. pp.35-37.

16. F. Gaibnazarova. A variety of dry shellfish is common in the regions of Uzbekistan and adjacent to it. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology* 25(6), 2828-2834

17. Gaibnazarova Feruza. Distribution of land snail by vertical zones and biotopes of *Pseudonapaeus* species in Fergana, Chatkal and Kurama mountain range // *European science review.* – 2016. – No. 1-2. – pp. 3-4

18. A. Pazilov, F. Gaibnazarova, M. Saidov - Tashkent. from "Fan", Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, 2014

19. Gaibnazarova F. Geographical variability of conchological characteristics of the terrestrial mollusk *Pseudonapaeus aptechus* // *modern science: development trends. Materials of the VIII International Scientific and Practical Conference.* – 2014. – P. 128-130.

GEOGRAFIYANI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI

*Fayzullaev Manas Musurmonqul o‘g‘li, Ahmadqulov Saidjon Rauf o‘g‘li,
Fayzullayeva Fotima Musurmonqul qizi*

Guliston davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar va san‘atshunoslik kafedrasida o‘qituvchisi. Guliston davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar va san‘atshunoslik kafedrasida o‘qituvchisi. Guliston davlat universiteti 1- kurs talabasi.

Annotasiya: Bugun mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida kechayotgan o‘zgarishlar va yangilanishlar o‘zida kelayotgan avlodni jismoniy sog‘lom, ruhiy hamda intellektual fikrlaydigan, katta pozitsiyaga ega, Vatanga sodiq qilib tarbiyalash bilan birga bolalar va navqiron avlod avlodlar o‘rtasida kitobga mehr qoyish orqali ongu tafakkurni yuksaltirish hamda matematik, informatik, tabiiy bilimlarni yuksaltirish muhim mezoni sifatida belgilangan. Ushbu maqolada geografiyani o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanishning imkoniyatlariga doir ma’lumotlar tahlil qilingan.

Abstract: Today, the changes and updates in the socio-economic life of our

country, along with educating the growing generation to be physically healthy, mentally and intellectually thinking, having a great position, loyal to the Motherland, by instilling love for books among children and the younger generation. It is defined as an important criterion for improving thinking and improving mathematical, informatics and natural knowledge. This article analyzes data on the possibilities of using interactive methods in teaching geography.

Kalit soʻzlar: interfaol, metodlar, intellektual, fikr, oʻquvchi, oʻqituvchi, yangi pedagogik texnologiya, tafakkur, muammo, kibernetik pedagogika, tadqiqot.

Key words: interactive, methods, intellectual, thought, student, teacher, new pedagogical technology, thinking, problem, cybernetic pedagogy, research.

Mavzusining dolzarbligi. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida kechayotgan oʻzgarishlar va yangilanishlar oʻsib kelayotgan avlodni jismoniy sogʻlom, ruhiy hamda intellektual fikrlaydigan, katta pozitsiyaga ega, Vatanga sodiq qilib tarbiyalash. Oʻquvchilar faoliyati takomillashtirilgan sharoitdagi taʼlimgina bilimlarning ongli va puxta oʻzlashtirilishida yaxshi natija beradi. Oʻquvchilar muayyan muammolarga duch kelgandagina ularning tafakkuri, bilish qobiliyatlari faollashaoladi. Muammoli masalalarni oʻquvchilar bilan birgalikda hal qilish ularning aqliy qobiliyatini rivojlantirishdagi eng muhim va eng samarali yoʻldir. Geografiya metodikasida asosiy eʼtibor taʼlim jarayoniga qaratilgan boʻlib, oʻquvchining taʼlim olayotgan vaqtida nima qilish kerakligiga, oʻquv taʼlimidagi faoliyatiga, tabiiy bilimlarni oʻrganayotgan vaqtda oʻquvchi qanday ishlarni bajarishi zarurligiga eʼtibor berib kelinmoqda.

Natijalar va ularning muhokamasi. Metodik uslublar xilma–xilligi ularni bir tizimga keltirishni talab qiladi. Ular mantiqiy, tashkiliy va texnikaviy oʻziga xosda boʻlishi mumkin. Shunga eʼtibor berishi kerakki, barcha metodlarda bir xil mantiqiy uslublardan: belgilarni aniqlash, oʻxshashlik va farqiga qarab obyektlarni solishtirish, xulosalar chiqarish, umumlashtirishdan foydalaniladi. Bu hol barcha metodlarning oʻquvchilar tafakkuri va ularning ishdagi mustaqilligini rivojlantirishda muhim imkoniyatlarni ochib beradi.

Geografiyani oʻqitishda oʻquvchilarning bir qator faoliyatlari rivojlantiriladi:

1. Boshlangʻich tabiiy geografiya darslarida maktab oʻquvchilarida tabiat va uning qobiqlari haqida aniq tasavvurlar hosil qilinadi va shu asosda tizimlashgan bilimlar berib boriladi. Bunga, oʻquvchilarning geografiya fanining dastlabki tushunchalarni bilishlari, Quyosh va kompasga qarab tomonlarni aniqlay olishlari, ob–havo belgilariga ahamiyat berishlari, tabiatning oddiy hodisalarini tushuna olishlari, yil fasllarining farqlay bilishlari misol boʻla oladi.
2. Tabiiy geografiya fanini oʻqitish toʻgʻri yoʻlga qoʻyilganda bolalarga tabiatga muhabbat singdiriladi, tabiat komponentlariga qiziqish vujudga keltiriladi, kuzatuvchanlik, mantiqiy tafakkur va maʼnoli nutq rivojlantiriladi.
3. Tabiat hodisalarini kuzatish oʻquvchilarga taqqoslash, umumlashtirish, oʻz taassurotlarini ogʻzaki va yozma bayon qilish uchun xilma–xil aniq maʼlumot beradi.
4. Oʻquvchilarning jonli tabiat bilan muloqotda boʻlishi (toʻqnalishi) ularning

jismoniy mehnat va estetik tarbiyasi uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Shuning uchun ham o'quvchilar tabiat bilan qanchalik ertaroq tanishsalar, tabiatning ular tarbiyasi va aqliy rivojlanishiga ta'siri shunchalar ijobiy bo'ladi.

Albatta, bu maqsadlarga erishish uchun o'qitish metodlarini yanada takomillashtirish kerak. O'qituvchilarining e'tibori o'quvchilar bilan ishlash tadqiqiy metodiga qaratilmog'i zarur, chunki bu metod keng bilimlar beribgina qolmay, bolalarni mustaqil bilim olishga ham o'rgata oladi.

Muammoli o'qitish o'z ichiga olgan darslarda o'quvchilarga yangi ma'lumotlarni o'zida saqlagan masalalarni hal qilish taklif qilinadi. Bundan o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish va ularni amalda mustaqil qo'llash usullarini egallashlari ko'zda tutiladi. Bunday masalalardan bilimlarni tekshirishda o'zlashtirishning chuqurligi va ongli ekanligini aniqlash uchun foydalaniladi.

Muammoli o'qitish keying yillarda psixolog olimlar, didaktik metodistlar, ijodkor o'qituvchilarning e'tiborini tobora ko'proq jalb qilmoqda. Olimlar muammoli darsni quyidagi bosqichlarga bo'lishini taklif qiladilar:


- muammoli vaziyat yaratish va uning tahlili;
- muammoni ifodalash (qo'yish);
- muammo yechimini izlash (avvalgi bilimlarni muhimlashtirish, farazlarni ilgari surish, eng to'g'ri farazni tanlash va isbotlash);
- muammoni hal qilish;
- yechimning to'g'riligini tekshirish.

Darsda muammoli vaziyat yaratish murakkab didaktik masaladir. Har bir dars muammoli bo'lishi mumkin va lozim. Muammoli o'qitishning samaradorligi faqat material chinakam idrok muammoga ega bo'lgandagina bilinadi. Muammoli darsning o'ziga xosligi darsni o'tish uchun o'qituvchi undagi muammoli vaziyatlarni oldindan ajratishi, qo'yilgan muammoni yechishda o'quvchilar faoliyatining borishini belgilovchi metodik vositalar nianiqlash, darsning barcha tafsilotlarni puxta o'ylab chiqishi kerak.

Dars shunday tarzda tuzilishi kerakki, unda qo'yilgan muammoga bolalarda qiziqish uyg'onsin, uning bilim olish tizimidagi ahamiyati ko'rsatilsin, yangi bilimlar olishga ehtiyoj tug'ilsin. Muammoli darsning birinchi bosqichida o'quvchilar qaysi tayanch bilimlarga asoslanib oldilariga qo'yilgan masalalarni hal qilishlari mumkinligini aniqlash zarur. Bu bosqichda o'qituvchining ishi o'quvchilarga yordam berishi, ularning faolligini o'quv matni bilan ishlash va aqliy faoliyat uslublarini to'g'ri tanlashga qaratishdan iborat bo'lishi lozim. O'qituvchi tomonidan yo'naltirilgan muammoli vaziyatni o'quvchilar tahlil qiladilar, idrok qilish vazifasini aniqlaydilar, uni hal qilishga o'zlarining bilim hamda tajribalarini safarbar qiladilar.

Interfaol metodlar (interaktiv metodlar) - o'zaro fikr almashishga, o'zaro fikrlarni to'ldirishga, goh noverbal, goho verbal ta'sir o'tkazishga qaratilgan harakatlar majmuasidir. Interfaol metodlar o'zaro ta'sir asosida qurilgan intellektual harakatlar shunchaki ta'sir, turtki vazifasini bajarish bilan cheklanib qolmasdan, balki hamkorlik sub'ektlarini ijodiy izlanishga yo'naltirish, noma'lum holatni ochishga, kashf etishga ko'mak beruvchi nazariy-aqliy mulohazalarda ifodalanishi mumkin.

Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda quyidagi interfaol metodlar qo'llaniladi:



O'qitish jarayonida o'quvchi-talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshish mas'uliyatini sezish ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, o'qishga, fanga, pedagogikaga va o'zi tanlagan kasbga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Bunday natijalarga erishish o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llashni taqqozo etadi.

Geografiyada interfaol metodlarni o'qitish o'z ichiga olgan darslarda o'quvchilarga yangi ma'lumotlarni o'zida saqlagan masalalarni hal qilish taklif qilinadi. Bundan o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish va ularni amalda mustaqil qo'llash usullarini egallashlari ko'zda tutiladi. Bunday masalalardan bilimlarni tekshirishda o'zlashtirishning chuqurligi va ongli ekanligini aniqlash uchun foydalaniladi. Dars shunday tarzda tuzilishi kerakki, unda qo'yilgan muammoga bolalarda qiziqish uyg'onsin, uning bilim olish tizimidagi ahamiyati ko'rsatilsin, yangi bilimlar olishga ehtiyoj tug'ilsin. Muammoli darsning birinchi bosqichida o'quvchilar qaysi tayanch bilimlarga asoslani boldilariga qo'yilgan masalalarni hal qilishlari mumkinligini aniqlash zarur. Bu bosqichda o'qituvchining ishi o'quvchilarga yordam berishi, ularning faolligini o'quv matni bilan ishlash va aqliy faoliyat uslublarini to'g'ri tanlashga qaratishdan iborat bo'lishi lozim. O'qituvchi tomonidan yo'naltirilgan muammoli vaziyatni o'quvchilar tahlil qiladilar, idrok qilish vazifasini aniqlaydilar, uni halqilishga o'zlarining bilim hamda tajribalarini safarbar qiladilar.

Muammoli darsning kelgusi bosqichlari o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligidagi mustaqil faoliyatidir. Izlanish ishlari jarayonida umumiy muammo jism (narsa) yoki hodisalarning biror muhim belgilarini kuzatish yoki o'rganilayotgan obyektning muhim va muhim bo'lmagan belgilarini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan qator vazifalarga ajratilishi mumkin. Izlanish jarayonida taqqoslash, tahlil sintez qilish, umumlashtirish kabi fikrlash faoliyati keng qo'llaniladi.

Bilimlarni muammoli bayon qilish faqat yuqori sinflarda qo'llanilishi mumkin,

kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga og'irlik qiladi, degan fikrlar ham bor. Ilg'or o'qituvchilar tajribasi bunday emasligini ko'rsatadi. Shubhasiz, boshlang'ich sinflarda muammoli o'qitishning faqat elementlari bo'lishi kerak, butun dars izlanishga va qo'yilgan muammoni hal etishga bag'ishlanmasin, bu bolalarni charchatib qo'yadi, idrok qilish faolligini pasaytiradi. Muammoli o'qitish elementlari esa, aksincha, darslarda va amaliy mashg'ulotlarda ular faoliyatini faollashtiradi.

Muammo qo'yilishi va uni mustaqil hal qilinishi bolalarning bilishga qiziqishini, ya'ni ularning bilimlarni egallashga va masalalar yechishni o'rganishga bo'lgan intilishlarini rivojlantirish uchun rag'batlantirish bo'lib xizmat qiladi. Muammoni hal qilishda asosiy vaqtni amaliy ish egallaydi. Quyida dasturlashtirilgan muammoli o'qitishning qo'llanilishi mumkin bo'lgan variantlarini ko'rib chiqamiz.

Xulosa. Maqolada “o'quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil qilishda o'qitish usullarini tanlash zarurati” deb nomlangan bo'lib, unda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda muammoli ta'lim metodlaridan foydalanish, geografiyani o'qitishda interfaol metodlardan foydalanishning imkoniyatlari, geografiya o'qitishda muammoli ta'limdan foydalanish, inter faol metodlardan namunalar va ma'lumotlar keltirilgan. Geografiya darslarida amaliy ishni mashq qilish o'ziga xos tarzda amalga oshiriladi. Masalan, tushda (kunning o'rtasida) soyaning qoziqdan uzunligini aniqlashga yoki havo haroratini o'lchashga va ularning natijalarini yozib borishga o'rgatish uchun uzoq vaqt mashq qilish kerak bo'ladi. O'quvchilar oddiy, ko'p vaqt va urinishni talab qilmaydigan topshiriqlardan asta-sekin ancha murakkabroq vazifalarni bajarishga o'tadilar. Vaqt o'tishi bilan amaliy ishlar tobora mustaqillashib borishi kerak. O'qituvchining amaliy ishlarga rahbarlik qilish shakllari ham o'zgarib bormog'i lozim: agar birinchi darslarda har bir o'quvchiga bosqichlar bo'yicha batafsil yo'l-yo'riq berish kerak bo'lsa, yilning ikkinchi yarmida ish bo'yicha sinfdagi barcha o'quvchiga ko'rsatma berish kifoyadir. Amaliy ish o'tkazishda o'qituvchi o'quvchilar asoslanadigan bilimlar saviyasini aniqlash kerak

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son farmoni “2022 — 2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida” qarori. <https://lex.uz/docs/4785256>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son “2022 — 2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha” farmoni. <http://lex.uz/docs/5841063>
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O'zbekiston” 2017 y..
4. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining nutqi. Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar.

5. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar Strategiyasi. O‘zbekiston qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y.

6. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, 2003.-24-38b.

7. Ahmadaliyev A., Qosimov A. Innovatsion faoliyat va ilg‘or pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2011.-60 b.

8. Ishmuhammedov R. Bolalarni tarbiyalash va sog‘lomlashtirish ishlarida pedagogik texnologiya. Toshkent, UDAP. 2014.-28b

9. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar – Toshkent, 2008.-34b

10. Karimova V.M. Auditoriyada bahs-munozarali darslarni tashkil etishning psixologik texnologiyasi. – T.: 2010.-52b.

11. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. “Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari” Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti. 2006. – 149-175b.

12. Tolipova J.O. Pedagogik texnologiyalar – do‘stona muhit yaratish omili. -Toshkent: UNISEF, 2015.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA UMURTQALILAR ZOOLOGIYASI FANINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Гаубназарова Феруза Пардабаевна
ГулДУ «Биология» кафедраси доценти
feruz.bio@yandex.ru

O‘zbekiston respublikasi “Milliy o‘quv dasturi”da ta‘lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanishi ta‘kidlab o‘tilgan . O‘zbekiston respublikasida ta‘lim tizimini modernizatsiyalash borasidagi amalga oshirilayotgan ishlarning asosiy yo‘nalishi uning samaradorligini ta‘minlash, yangi asosli natijalarga erishish, jamiyat talablariga moslashtirishga qaratilgan. Bu esa, o‘z navbatida ta‘lim sohasida qo‘lga kiritilgan yutuqlar ijtimoiy talablarga muvofiqligini ta‘minlashni nazarda tutadi. Ayni vaqtda ta‘lim sifatini ta‘minlashga oid muammolarni turlicha hal etish yo‘llari mavjud. Birinchidan, ta‘lim jarayoni sifati hamda ta‘lim jarayoni natijasi o‘zaro farqlanadi. Shundan kelib chiqib, ta‘lim jarayoni sifati (uni tashkil etish darajasi, o‘qitish metod va vositalarining mosligi, o‘qituvchi malakasi va h.k.) o‘z-o‘zidan ta‘lim sifatini ta‘minlashni kafolatlamaydi, uning maqsadi jamiyatning yangi talablariga to‘liq darajada mos kelmasligi mumkin. Ikkinchidan, ko‘pincha “ta‘limiy natijalar” tushunchasi bilan almashtiriladi. Zamonaviy pedagogik psixologiya va didaktikada ular shaxsning motivatsion, operatsional va kognitiv resurslarining o‘sishi bilan aniqlanadi, ya‘ni ularning yig‘indisi muammolarni ahamiyatli darajada hal etishni tashkil etadi.


Motivatsion salohiyatni rivojlantirish (yo‘nalishni baholay olishi, ehtiyoj va qiziqishlar) ta‘lim sohasidagi shaxsiy natijalarni muvofiqlashtiradi, operatsional

resurslar (faoliyatni o'zlashtirish usullari) – metapredmetli xususiyat kasb etadi. Kognitiv imkoniyatlar (bilimlar) predmetlarga oid natijalarni ifodalaydi. Ushbu natijalarning yig'indisi jahon ta'lim amaliyotida qabul qilingan kompetentli yondashuvni tavsiflaydi. Yuqorida qayd etilgan resurslarning o'zi muhim kompetensiyalardan iborat bo'ladi.

Respublikamizda ta'lim tizimini yuqori malakali raqobatbardosh pedagogik kadrlar bilan ta'minlash maqsadida bir necha yillardan buyon amalga oshirilayotgan harakatlar oqibatida ayni vaqtda sezilarli natijalarga erishildi. Bugungi kunda talabalarning mustaqil bilim olish va amaliy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. O'quv jarayonining asosiy maqsadi nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki talabalarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish va ijodiy salohiyatini orttirishdan iborat. Ta'limda shaxsiy natijalarga erishish, talabalarning motivatsion resurslarini rivojlantirish shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini amalga oshirishni, har bir talaba uchun individual ta'lim dasturlari hamda trayektoriyalarini tuzishni talab etadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir talabaning shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashishni nazarda tutadi.

Ta'lim muhitlari komponentlari mazmunini aniqlashga oid mavjud va boshqa (funktional) yondashuvlar: muhit subyektlari, o'quv axboroti manbalari, o'quv faoliyati uskunalari va kommunikatsiya vositalari, shuningdek, ta'lim muhitini to'ldiruvchilarga (o'quv va metodik mazmun) ajratiladi [29].

Umurtqalilar zoologiyasi fanini o'qitishda axborot-kommunikatsion texnologiyadan foydalanib, mavzular bo'yicha talabalarga topshiriqlardan misollar keltirib o'tamiz(1 rasm).




1-rasm. Berilgan sxemadagi xatoliklarni toping topshiriqni amalga oshirish.

“NAFAS OLISH” mavzusini o‘tgandan so‘ng, siz quyidagi savollarni taklif qilishingiz mumkin:
Qaysi ta’riflar to‘g‘ri berilgan?

- 1) Barcha tirik organizmlar nafas oladi.
- 2) Faqat hayvonlar nafas oladi.
- 3) Barglardagi gaz almashinuvi barg og‘izchalari orqali amalga oshiriladi.
- 4) Bir hujayrali organizmlar tananing butun yuzasi bilan nafas oladi.
- 5) Jabralar - yomg‘ir chuvalchangining nafas olish organlari.
- 6) Traxeya orqali nafas olish hasharotlarga xosdir.
- 7) Faqat baliqlar jabralar bilan nafas oladi.
- 8) Faqat baliqlarda o‘pka bor.
- 9) Odam o‘pka va teri bilan nafas oladi.



2-rasm. Hayvonlarni nafas olish jarayonini takrorlash bo‘yicha topshiriq.



TOPSHIRIQ:

Hayvonlarda metabolism, ya'ni plastik va energiya almashinuvi xususiyatlari, bu jarayonning murakkab ekanligini ko'rsatadi. Umurtqali hayvonlarning barcha organlar sistemasilarining ishi o'zaro bog'liqligini izohlab bering.

Buni sxema asosida isbotlang.

3-rasm. Sxemadagi topshiriqni izohlang.

Yuqoridagi rasmlar bilan birga quyidagi topshiriqlardan ham foydalanish mumkin.

“Umumiy tushunchalarni aniqlash”

Umumlashtiruvchi so‘z bilan mantiqiy bog‘liq bo‘lgan so‘zlarni aniqlang va tagiga chizing.

1. Lansetnik (endostil, arxegoniy, paypaslagichlar, endosperm, miosepta, anteridiy, zigota, halqum,).

2. Minoga (miomer, yelkan, gommoz, yon chiziq, xorda, murtak, kokk, oraliq miya).

3. Akula (rostrum, tallom, rizoid, dum suzgich, taloq, mikoza, og‘iz teshigi, zoospora, aorta).

4. Zog‘ora baliq (dum suzgich, , anal suzgich, umurtqa pog‘onasi, o‘t pufagi, silos, kokk).

5. Kaltakesak (tetropoda, qorin suzgich, reptiliya, qalqon, o‘mrov suyak, boldir, epistrofey)

6. Ko‘k kaptar (metacarpus, to‘sh, to‘piq, qovurg‘a, berkituvchi teshik, korakoid, chanoq suyak, yelka,)

7. Quyon (ensa, ko‘zyosh suyak, tanglay, oziq tishlar, nog‘ora suyak, manlay suyak)

O'troq qushlar	Ko'chib yuruvchi qushlar	Uchib ketuvchi qushlar

“Xatoni tuzating”

Talabalarga varaqda darslikdagi matnlardan bir parcha beriladi. Matnda bir nechta xatoliklar bor. Talaba shu xatolarni tuzatishi lozim.

Masalan: “Hayotning organizm darajasi Yerda hayotning paydo bo‘lishi va rivojlanishining birlamchi asosi sifatida o‘rganilishi, shuningdek, tiriklikning keyingi darajalari bo‘lgan molekula, hujayra, organ, to‘qima, populyasiya va tur, biogeosenoz, biosfera bilan o‘zaro aloqadorlik va uzviy likni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hayotni organizm darajasida o‘rganishning mohiyati tirik organizm hujayralarida uchraydigan noorganik moddalar molekulari, ya’ni: uglevodlar, oqsillar, nuklein kislotalar, lipidlarning tuzilishi va ularning biologik ahamiyatini aniqlash sanaladi.”

“Sarlavha”

Talabalarga varaqda darslikdagi birorta matndan bir parcha beriladi. Matnni talabalar diqqat bilan o‘qib chiqib, undagi bosh g‘oyani ajratib ko‘rsatadi, matnga sarlavha qo‘yishadi.

Masalan: “Organizm doimo o‘zgarib turadigan muhit sharoitlarida yashaydi. Tashqi muhit omillari ta’sirining o‘zgarishiga qaramay, tirik organizmlar o‘zining morfologik, anatomik, fiziologik xususiyatlarini, kimyoviy tarkibini va ichki muhitini nisbatan doimiy saqlay olish xususiyatiga ega. Buni ta’minlashda organizm immunitetini yuzaga chiqaruvchi tizimlar, regenerasiya muhim ahamiyatga ega. Regenerasiya deb, organizmlarning hayot faoliyati davomida yoki biron ta’sir natijasida yashash muddati tugagan yoki shikastlangan hujayralar, to‘qimalar yoki a’zolarining qayta tiklanishiga aytiladi.”

Axborot-kommunikatsion texnologiya(AKT)larga murojaat etish ta’lim muhitlari komponentlari tarkib va imkoniyatlari qatorini yanada kengaytiradi. Ushbu sharoitda o‘quv axborotlari manbalari safi ma’lumotlar bazasi va axborot-ma’lumotli tizimlar, elektron darsliklar va ensiklopediyalar, Internet resurslari va h.k. lar bilan to‘ldiriladi. O‘quv faoliyati uskunasi sifatida – kompyuterli trenajerlar, nazorat dasturlari va h.k., kommunikatsiya vositalar – lokal kompyuter tarmoqlari yoki Internet bilan boyitiladi. Axborot–kommunikatsion texnologiyalar vositalari asosiga axborot-kommunikatsion ta’lim muhitini (AKTM) qo‘shish mumkin.

Mazkur sharoitlarda subyektlar roli o‘zgaradi: o‘qitish markazida talabaning

o‘zi – uning motivlari, maqsadi va psixologik xususiyatlari turadi. Barcha metodik harakatlar (o‘quv materialini tashkil etish, foydalanilgan uslublar, usullar mashqlar va h.k.) talaba shaxsi–ehtiyoji, qobiliyatlari, faolligi, intellekti va h.k. prizmasiga ko‘chadi.

Umurtqalilar zoologiyasi fanining ilmiy va metodik asoslarini rivojlantirish borasida keng qamrovli izlanishlar olib borilmoqda . Ularni tahlil qilish natijasida bir qator ziddiyatlar mavjudligiga guvoh bo‘ldik. Jumladan, birinchi ziddiyat ko‘pgina ahamiyatga molik tadqiqotlarning asosiy shart-sharoitlari sifatida nafaqat ta‘lim jarayonining rivojlanish talablarini o‘rganish, balki AKT vositalarining didaktik salohiyati imkoniyatlariga yo‘naltirilgan. Buning natijasida, AKTning (ko‘rgazmalilikning ortishi, tezkor nazorat, o‘ziga xos ko‘nikmalar treningi, interaktivlikning ortishi kabi) “yuqorida yotadigan” va ancha oddiy amalga oshiriladigan imkoniyatlaridan foydalanilgan. Ularning aniq pedagogik samaradorligi, odatdagidek baholanmaydi, balki shunday bo‘lishi muqarrardek hisoblanadi(1.3.5-rasm).

Zoologiya bo‘limlarini o‘qitish uchun vazifalarni loyihalashning asosiy yondashuvlari.

Topshiriqda nima berilgan?

Nimani aniqlash kerak?

Ko‘nikma: ilmiy usullar bilan tekshirilishi mumkin bo‘lgan savollar, g‘oyalar yoki muammolarni tan olish.

Ko‘nikma: ilmiy tadqiqot olib borishda dalillarni topish yoki xulosalarni tasdiqlash uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni ajratib ko‘rsatish.

Ko‘nikma: taklif qilingan vaziyatni hisobga olgan holda xulosalar (xulosa) chiqarish yoki allaqachon qilingan xulosani baholash.

Qobiliyat : muloqot qobiliyatlarini namoyish etish: asosli, aniq va aniq xulosalar, dalillarni shakllantirish.

Qobiliyat zoologiya fan tushunchalarini bilish va tushunishni namoyish etish.

4-rasm. Zoologiya bo‘limlarini o‘qitishning imkoniyatlari.

Ilmiy adabiyotlar tahlilini ko‘rsatishicha, barcha mualliflarning ishlarida axborot ta‘lim muhitining uskunalari, faoliyat vositalari va kommunikatsiya, axborot manbalari, shuningdek, operatsional komponent xususida so‘z yuritiladi, deyarli ko‘pgina tadqiqotchilar mazmunan to‘ldirish haqida so‘z yuritilmaydi. Shunday qilib, yangi elektron ta‘lim muhitini shakllantirish hamda uning komponentlarini takomillashtirish xususida so‘z yuritish mumkin bo‘ladi.

Demak, yangi muhit mavjud metodika va pedagogik texnologiyalar samaradorligini oshirishi hamda an‘anaviy ta‘lim natijalariga yo‘naltirilishiga alohida e‘tibor qaratish zarur.

GEOGRAFIYA DARSLARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

Fayzullaev Manas Musurmonqul o‘g‘li, Yo‘ldoshev Abdurauf Suyunboy o‘g‘li, Fayzullaeva Zuxra Musurmonqul qizi

Guliston davlat pedagogika instituti, Ijtimoiy fanlar va san‘atshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi. SVPYMO‘MM Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi metodisti. Toshkent kimyo-texnologiyasi instituti Yangiyer filiali talabasi.

Annotasiya: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va xukumat qarorlarida

hamda “Harakatlar strategiyasi” da aholi yashash xududlarini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu maqolada o‘quvchilarda geografiya darslarida ekologik madaniyatni shakllantirish doir ma‘lumotlar tahlil qilingan.

Abstract: In the decisions of the President of the Republic of Uzbekistan and the Government, as well as in the "Strategy of Actions", special attention is paid to beautification and greening of residential areas. In this article, the data on the formation of environmental culture in students in geography lessons are analyzed.

Kalit so‘zlar: ekologik madaniyat, tabiiy resurslar, atrof-muhit, o‘quvchi, o‘qituvchi, yangi pedagogik texnologiya, ma‘naviy qadriyatlar, ekologik savodxon, muammo, tadqiqot.

Key words: ecological culture, natural resources, environment, student, teacher, new pedagogical technology, spiritual values, ecological literacy, problem, research.

Mavzusining dolzarbligi. Hozirgi kunga kelib atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish muammolarining dolzarbligi hech kimga sir emas. Yer sayyorasining geologik tarixidan ma‘lumki, undagi inson uchun zarur bo‘lgan tabiiy resurslar millionlab yillar davomida hali yer yuzida insonlar mavjud bo‘lmagan davrlarda yaratilgan. Insoniyat esa ona zaminning minglab biologik turlaridan biri sifatida ana shu resurslardan foydalanib, o‘z hayot tarzini sayyoraning turli qismida turlicha shakllantira boshlagan. Hozirgi ekologik inqirozning sababchisi va o‘z aqli zakovati bilan shu inqirozdan holi etuvchisi inson ekanligi ma‘lum bo‘lib qoladi. Atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash, tabiiy boyliklardan tejab-tergab foydalanish ko‘p jihatdan insonlarning ekologik savodxonlik darajasiga va ekologik madaniyatiga bog‘liqdir. Aholining ekologik savodxonlik darajasini oshirish esa eng ustivor masalalardan hisoblanadi. Bunga uzluksiz ta‘lim va tarbiya tizimida “ekologiya” fanining mazmuni va mohiyatini chuqur taxlil qilish, ekologik inqirozni kelib chikish sabab va oqibatlarini keng targ‘ib qilish va har bir insonning tabiatga nisbatan mehrini oshirish orqali erishish mumkin.

Natijalar va ularning muhokamasi. Insoniyat X-XI asrga qadam qo‘ygan hozirgi paytda eng dolzarb masalalardan biri ekologik madaniyatni shakllantirishdir. Chunki ekologik madaniyat, birinchi navbatda inson hayoti, salomatligi, farovon yashashi, qobiliyat va imkoniyatlarini to‘laroq namoyon etish bilan bevosita bog‘liq. Ekologik ma‘daniyat umumiy dunyoqarashning tarkibiy qismi bo‘lib, keng va tor ma‘nolarda tushuniladi. Keng ma‘noda ekologik madaniyat insoniyatning jtimoiy – tarixiy amaliyoti jarayonida atrof – muhitni muhofaza qilishga qaratilgan moddiy va ma‘naviy qadriyatlar majmuasidir. Tor ma‘noda esa kishilarning amaliy va nazariy faoliyati, tabiatini muhofaza qilish borasidagi oqilona, samarali xarakati deb qarash mumkin. Ekologik madaniyatning yetishmasligi umuman madaniyatga, ma‘naviyatga juda katta ziyon yetkazadi.


Respublikamizda qabul qilingan «Ta‘lim to‘g‘risida»gi qonunda va kadrlar tayyorlash milliy Dasturda yoshlarda ekologik va tibbiy madaniyat tarbiyasi dolzarb masala qilib qo‘yilgan. Bu masalani hal etish uchun ta‘lim tizimida ekologik madaniyat tarbiyasiga e‘tiborni kuchaytirishni talab etiladi. Ekologik

madaniyatning mazmun mohiyati nimada, degan savoltug‘ilishi tabiiy. Buning uchun eng avval, insonning shakllanishi va ulg‘aya borgan sari dunyo qarashning kengayishi, hayotga munosabati shakllana boradi. Inson hayoti bilan tashqi muhit o‘rtasidagi bog‘liqlikni hech kim inkor etmaydi, biroq bu bog‘liqlikni ko‘pincha yuzaki tushunamiz. Aslida mana shu nuqtai nazar, yuzaki tasavvur insonni muhitdan, tashqi olamdan ajratib qarashga olib keladi. Ekologik madaniyatning mazmuni inson bilan tabiatning birligini chuqur his qilish, inson hayoti bilan tashqi muhit qonuniyatlari o‘rtasidagi ichki bog‘lanishlar asl mohiyatini yaxshi tushinib olish va unga amal qilishda namoyon bo‘ladi.

Ekologik madaniyat, eng avvalo insonning o‘z-o‘zini bilishdan boshlanadi. Agar inson o‘z organism ichki tuzilishi, a‘zolarining o‘zaro aloqadorligi, faoliyat xususiyatlarini yaxshi bilsa, ularning me‘yorda ishlashi uchun sharoit yaratsa, bu borada yuksak darajada g‘amxo‘rlik qilib borsa, unda inson bu bilan o‘z salomatligini saqlash yo‘lini ta‘minlaydi, kasalikka kamroq chalinadi, doimo tetik, bardam yuradi, o‘z umrini ancha uzaytirishga erishadi. Bu jarayon ekologik madaniyat shakllanishining hal qiluvchi bosqichidir. Bu bosqich inson tarbiyasida muhim omil hisoblanishi lozim. Ushbu masala insonning butun tarbiya tizimi markazida turishi va ekologik tushunchalarning barqarorlashib borishiga qaratilishi kerak.

Bundan tashqari, inson o‘zini tabiatning, bu cheksiz olamning ajralmas bir bo‘lagi deb bilsa va o‘zining yashash tartiblarini yaxshi tasavvur qilsa, undan u tabiatning, koinotning ichki mohiyatini to‘g‘ri tushina oladi. Madaniyat ekologiyaga va aksincha, ekologiya madaniyatga turli sohalarda ta‘sir ko‘rsatadi. Faqat madaniyatlik ishigina tabiat va jamiyatning o‘zaro ta‘sirini oqilona yo‘lga qo‘yishga intiladi. Madaniyat odamlarni bilimli qilishga, ularga ishtartib qoidalarni o‘rgatishga xizmat qiladi.

Ekologik madaniyat quyidagilarni qamrab oladi: tabiatni muhofaza etish madaniyati, tabiat boyliklaridan foydalanish madaniyati. Ekologik madaniyat sohibi bo‘lish faqat tabiatga zarar keltirmaslik emas, balki uning gullab yashnashi, yanada yaxshilanishiga hissa qo‘shish, unga beshafqatlarcha munosabatda bo‘lganlarga qarshi kurashmoq ham demakdir. Umuman, madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Hozirgi paytda odamlarning ekologik madaniyati xali unchalik darajada yuqori deb bo‘lmaydi. Tabiatning boylik yaratish imkoniyati chegaralangan, shu sababli inson endilikda tabiatning o‘z –o‘zini tiklashga, modda almashuvga o‘zining oqilona va samarali tashkil etilgan mehnatlari bilan jiddiy yordam berishi kerak. Ekologik bilimlarsiz ekologik madaniyat ham shakllanmaydi.



Ekologik madaniyatning shakllanish bosqichlar

Inson umumiy madaniyatining bir qismi hisoblangan ekologik madaniyat eng avvalo oilada shakllanadi. Ota-onaning uydagi saranjom-sarishtalikka, ozodalikka bo‘lgan munosabati albatta, uning farzandariga ham o‘tadi. Yoshlikdan bolani tabiatni sevishga, undan bahramand bo‘lishga o‘rgatish, uning ekologik ongi va bilimini, ekologik savodxonligini shakllantiradi. Ekologik savodxon kishi esa albatta ekologik madaniyatli bo‘ladi.

Xulosa. Maqolada “geografiya darslarida ekologik madaniyatni shakllantirish” deb nomlangan bo‘lib, unda ekologik madaniyat rivojlantirishda muammoli ta’lim metodlaridan foydalanish, geografiyani o‘qitishda ekologik metodlardan foydalanishning imkoniyatlaridan ta’limdan foydalanish, inter faol metodlardan namunalar va ma’lumotlar keltirilgan. Maktab jonli tabiat burchagining asosiy vazifasi - bolalarda tabiat olamidagi muhim bog‘liqliklar ya’ni o‘simliklarning kompleks sharoitlar-namlik, issiqlik, yorug‘lik va shu kabilarga, hayvonlarning tashqi tuzilishi va hayot tarzining yashash muhitiga bog‘liqligi haqida oddiy bilimlarni shakllantirishdan iboratdir. Shuningdek, bolalar turli mavsumlarda o‘simlik va hayvonlar hayotida sodir bo‘layotgan doimiy takrorlanuvchi o‘zgarishlar, ularning o‘shishi va rivojlanishining asosiy davrlari bilan tanishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son farmoni “2022 — 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” qarori. <https://lex.uz/docs/4785256>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son “2022 — 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha” farmoni. <http://lex.uz/docs/5841063>
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” 2017 y..
4. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining nutqi. Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar.

5. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar Strategiyasi. O‘zbekiston qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 iyundagi PQ-3052-sonli “Sog‘liqni saqlash organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori.

7. Ahmadaliyev A., Qosimov A. Innovatsion faoliyat va ilg‘or pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2011.-60 b.

8. Dosaxmetov A.O. Aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish. Ma‘ruzalar matni. - Toshkent, 2001.

9. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar – Toshkent, 2008.-34b

БИОЛОГИК ТАЪЛИМИДА ТАДҚИҚОТЧИЛИК ФАОЛИЯТИ

Сафарова Наргиза Камаловна

ГулДУ “Биология” кафедраси ўқитувчи

Аннотация: Таълим тизимидаги замонавий ёндашувлар ўқувчиларнинг ижодий меҳнат фаолиятига интилиш, касбий-методик компетентликни ва касбий ижтимоий қадриятлар дунёсини юқори даражада эгаллаш, креатив ижодкорлик, тадқиқотчилик фаолиятига йўналтириш алоҳида эътиборга қаратилган.

Калит сўзлар: глобал, жараён, ахборотлаштириш, ёндашув, тизим, билим, педагогика, топшириқ

Ҳозирги вақтда таълим тизимидаги энг муҳим вазифалардан бири - бу ҳар бир таълим олувчининг ўз шахсий тажрибасини тўлиқ эгаллашга йўналтиришдан иборат. Бунга эришишнинг асосий усули - ўқувчиларнинг ижодий, яратувчанлик фаолияти. Глобал жараёнлар муқаррар равишда таълимни ахборотлаштиришга олиб келади, ўқув жараёнини ташкил этишда янги ёндашувларни излаш заруратини келтириб чиқаради, ўқувчи шахсининг ўзини ўзи англаши ва ривожланишига ҳисса қўшади. Бу, ўз навбатида, таълим фаолияти учун кенг имкониятлар яратадиган, унинг иштирокчилари ўртасида ролларнинг қайта тақсимланишига таъсир этадиган глобал ахборот таълим муҳитини яратиш истиқболларини белгилайди.

Таълим тизимидаги замонавий ёндашувлар ўқувчиларнинг ижодий меҳнат фаолиятига интилиш, касбий-методик компетентликни ва касбий ижтимоий қадриятлар дунёсини юқори даражада эгаллаш салоҳиятига эга бўлишни тақозо этади. Креатив ижодкор мутахассисни шакллантиришнинг ушбу босқичида ўқувчиларнинг тадқиқотчилик фаолиятига йўналтириш алоҳида эътиборга лойиқдир.

Таълим амалиётида билимларнинг аксарияти тайёр ҳолда тақдим этилади ва қўшимча изланиш ҳаракатларини талаб қилмайди, бироқ ўқувчилар учун асосий қийинчилик бу мустақил маълумот излаш, билим олишдир. Шунинг учун ўқув жараёни самарадорлигини оширишнинг энг муҳим шартларидан бири бу ўқувчиларнинг ўқув тадқиқотчилик фаолиятини

ташқил этиш ва унинг асосий таркибий қисми тадқиқотчилик қобилиятларини ривожлантиришдир. Бугунги кунда педагогикада аудиторияда ва аудиториядан ташқари машғулотларда ўқувчиларнинг тадқиқотчилик фаолияти турларини аниқлашга бир қанча ёндашувлар мавжуд изланиш, тажриба, лойиҳалаш, техник, ижодий ва ҳ.к.

Илмий-тадқиқот топшириқларининг мазмуни ўқувчиларнинг билиш мустақиллигини ривожлантириш, табиатга нисбатан эҳтиёткорона муносабатни тарбиялаш, махсус ўқув кўникмаларини ривожлантириш, флора ва фауналарнинг хилма-хиллигини ўрганиш, айниқса уларнинг ҳудудида, биология хонасининг ўқув базасини ўз мустақил фаолияти натижасида тайёрланган гербарийлар, коллекциялар билан тўлдиришга қаратилган.

Тадқиқот фаолиятини ташқил этиш қуйидаги тузилишга эга: мотив, муаммо, мақсад, вазифалар, метод ва услублар, ҳаракатлар режаси, натижалар, мулоҳаза. Тадқиқот муаммони ҳал қилишга қаратилган ғояга асосланган. Бу ўқитишнинг турли хил ташкилий шакллар орқали зарур: дарс, (дарс - семинар, дарс - ғояларни ҳимоя қилиш, дарс - рол ўйнаш, дарс - конференция ва бошқалар), кўшимча машғулотлар, лойиҳа фаолияти, гуруҳ, индивидуал, жуфтлик шакллари ўқувчиларнинг тадқиқотчилик фаолияти компетенцияларини шакллантириш.

Тадқиқотчилик фаолияти турлари:

1. Экспресс - тадқиқот: мақсади мустақил равишда тадқиқот олиб бориш ва тавсифга мувофиқ лойиҳалаш. Масалан - озиқлантиргичда қушларни кузатиш, уй ҳайвонларининг хатти-ҳаракатларини кузатиш ва ҳ.к.

2. Ўқув тажрибасини ўтказиш: бу лаборатория ва амалий машғулотларни ўз ичига олади. Ўқув тажрибаси бу энг самарали ўқитиш усулларида биридир.

3. Тадқиқот - рақобат. Дарсларда ҳам самарали. Масалан, тестдаги хатоларни топиш.

4. Ижодий топшириқлар.

«Ўсимлик устида бир томчи сув билан саёҳат қилиш», «Ҳужайралар оламига саёҳат» композициялари, кроссвордлар, викториналар, тақдимотлар.

5. Ёзги топшириқлар: гербарийлар, тўплам (коллекция)лар тузиш

6. Аудиториядан ташқари тадқиқот фаолияти турлари: биология фанидан олимпиадаларга, мусобақаларга тайёргарлик кўриш ва қатнашиш, ўқув экспедицияларида қатнашиш, атроф-муҳитни тозалаш, ижодий ишлар, рефератлар ёзиш.

Ўқувчилар тадқиқотчилик фаолиятини ривожлантиришда қуйидаги методлардан фойдаланилади; репродуктив, қисман-изланиш, тадқиқотчилик. Ўқувчилар тадқиқотчилик фаолияти технологияси билан танишамиз. Биология таълими жараёнида ўқувчиларнинг тадқиқотчилик фаолиятини ривожлантиришда лаборатория ва амалий машғулотлар алоҳида ўрин тутди.

Унда:

- 1) микроскоп остида биологик объектларни тадқиқ этиш;
- 2) тирик табиат жисмлари таркибини ўрганиш;
- 3) организмларнинг тузилишини ўрганиш;

- 4) тирик табиат объектларини кузатиш;
- 5) организмлар ҳаётини фаолияти жараёнларини кузатиш;
- 6) тирик материянинг (турлар ва экотизим) ташкилий тузилиш даражаларини ўрганиш.

Ўқув ишларини ташкиллаштиришда ўқувчилар тадқиқот жараёнини қийинчиликларсиз ўзлаштирадиган тарзда ташкил қилиш муҳимдир: сиз кутилган натижаларнинг аҳамиятига эътибор қаратишингиз, оригинал ёки кутилмаган тарзда тузилган ўқув вазифасини таклиф қилишингиз мумкин. Ўқувчиларга топшириқда акс эттирилганидан кўра кўпроқ умумий муаммо ҳақида «тасаввур» бериш лозим. Идеал ҳолда, муаммони ўқувчининг ўзи тузиши керак, аммо амалда бу ҳар доим ҳам самарали бўлавермайди.

Мен ўз амалиётимда ўқувчиларга аҳамиятли, муаммоли топшириқларни таклиф қилишга ҳаракат қиламан, бу эса кейинги ишларда қийинчилик туғдирмайди, балки қизиқарли бўлиб чиқади. Қуйида “Умуртқасизлар зоологияси” фанида интеллектуал хариталардан фойдаланиш орқали ўқувчилар тадқиқотчилик фаолиятини ривожлантиришга оид топшириқлар билан танишиб чиқамиз.

“Ҳайвонлар тўғрисидаги умумий тушунчалар. Ҳайвонлар систематикаси”нинг тузилиши ва тарқалиши мавзусидаги лаборатория машғулотини ўтказишни қуйидагича ташкиллаштириш мумкин:

Муаммоли изланишга доир топшириқлар

1-топшириқ. Саволларга жавоб беринг.

Биологик нуқтаи назаридан қуйидаги тасдиқларни тушунтиринг:

1. Зоология бошқа биология фанлари, яъни тиббиёт, ветеринария ва қишлоқ хўжалиги билан узвий боғлиқ.
2. Палеозоология қадимги геологик даврда яшаб, ҳозир қирилиб кетган ҳайвонларни ўрганади.
3. Физиология фани эса ҳайвонлар организми функцияларини ўрганади.
4. Фаннинг объектлари - ҳайвонлар, предмети - ҳайвонот оламининг хилма- хиллиги, ҳайвонларнинг тузилиши, ҳаёт кечириши, тарқалиши ва яшаш муҳити билан муносабатлари, ҳайвонларнинг хусусий ҳамда тарихий тараққиёти қонуниятлари.
5. аутапоморфий (ноёб ўзига хос белги) - аجدодлардаги эволюцион янгилик
6. синапоморфи (умумий ирсий белгилар) - авлодлардаги эволюцион янгилик

Аутапоморфий - аждодлардаги эволюцион янгилик, Синапоморфи - авлодлардаги эволюцион янгилик, Гелминтология – паразит чувалчанглари, Ентомология – ҳашаротларни,

Акарология – каналарни, Ихтиология балиқларни, Орнитология – қушларни, Териология – сўт эмизувчиларни ўрганади.

4- топшириқ: Дарс маълумотларини “Ҳайвонлар тўғрисидаги умумий тушунчалар. Ҳайвонлар систематикаси” интеллектуал харитасида ифодаланг.

Қуйидаги атамалардан фойдаланинг:


- аутапоморфией – тур,
- синапоморфии - туркум,
- гелминтология – систематика,
- энтомология – бўлим,
- акарология – хужайра,
- ихтиология – организм,
- орнитология – кушлар,
- териология – сут эмизувчи,

2. “Ҳайвонлар тўғрисидаги умумий тушунчалар.

Ҳайвонлар систематикаси” интеллект харитасини тузиш учун саволлар:

1. Зоология фани XIX асрдан бошлаб фан сифатида шаклланди бунга сабабнима?
2. Зоология фанини бошқа фанлар билан боғлиқлиги нимада?
4. Зоология фани ва унинг вазифалари.... 5. Зоология фанлари системаси..... 6. Зоологиянинг тадқиқот методлари.... 7. Зоологиянинг назарий ва амалий аҳамияти.....
8. “Морфология” тушунчасига таъриф беринг?
9. “Анатомия” тушунчасига таъриф беринг? 10. Этиология нимани ўрганади?
11. “Физиология” тушунчасига таъриф беринг? 5-топшириқ.

1) “Ҳайвонлар систематикаси” схемасини тўлдириш ва ўқинг.



УЙГА ВАЗИФА БЕРИШ. Қуйидаги саволларга жавоб ёзадилар.

1. Зоология фани XIX асрдан бошлаб фан сифатида

шаклланди бунга сабаб нима?

2. Зоология фанини бошқа фанлар билан боғлиқлиги нимада?

Ўқувчилар тадқиқотчилик фаолиятини интеллектуал хариталар ёрдамида ривожлантиришга доир ишланмалар 2-иловада келтирилган.

Ўқувчилар тадқиқотчилик фаолиятини ривожлантиришга оид бундай топшириқлар илмий изланишга интеллектуал ривожланишига ижобий таъсиркўрсатади.

Бундай топшириқлар таълим олувчиларга қонуниятларнинг моҳиятини кидириш жараёнида рағбатлантириш, оддийгина асослаш тарзида тақдим этилади. Бундай топшириқлар ўқувчиларни оддий асослашларни олиб боришга, нақшларни излашга ундайди. Уларга тайёр гербарий намуналари, ўсимликлар, ҳайвонлар ва одамларнинг органлари коллекциялари ва моделлари билан ишлаш каби вазифалар киради.

Адабиётлар

1. Игнатъева Е.Ю. Педагогическое управление учебной деятельностью студентов в современном вузе : монография. – СПб.: Изд-во «ЛЕМА», 2012. – 300 с.

2. Мавлонов О.М., О.Наджимова, М.Нишонбоева. Зоология ўқитиш методлари ва технологиялари. 7-синф. Ўқитувчилар учун қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2005. – 160 б

2. Нарзиева Н.Н. Умумтаълим мактаб ўқувчиларида таянч компетенциялар асосида тадқиқотчилик кўникмаларини шакллантириш. Дисс. автореф. П.ф.ф.д. (PhD). Самарқанд-2019 й. 51 б.

3. Назарова О.Л. Рефлексивное управление профессионально педагогическим образовательным учреждением: монография / О.Л. Назарова, А.Я. Найн, В.И. Кондрух. – Челябинск, 2006. – 368 с.

MAFKURAVIY HAVFSIZLIKNING TUSHUNCHASI, VA MAZMUN MOHIYATI

To ‘rabayev Orif, To ‘rabayeva Go ‘zal

Sirdaryo viloyati pedagogika markazi Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi, Boyovut tumani 33-sonli maktab Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mafkuraviy havfsizlikning tushunchasi, va mazmun mohiyati, jamiyatda yangi paydo bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy kuchlarning talab-ehtiyojlari, maqsadlarini ifoda etuvchi yangi g‘oyaviy tizimlar haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlari: Mafkuraviy immunitet, shaxs, jamoa, buzg‘unchi mafkuraviy.

Ushbu makon 6000 yillik davlatchilik tarixiga ega hududlar mavjud. Ana shu davrlarda bu hududda ko‘plab rivojlanish va inqirozlar, barqarorlik va urushlar sodir bo‘lganligiga tarixning o‘zi guvohlik beradi. Sharq atamasi esa aslida uning geografik joylashuvidan ya’ni Yerning geografik markazidan sharqda joylashganligiga asoslanib qo‘llaniladi. Shundan kelib chiqib Sharq dunyosi an’anaviy ravishda bu butun Markaziy, Shimoliy va Sharqiy Osiyo (Uzoq Sharq),

Gʻarbiy Osiyo (Yaqin Sharq), Janubi-Sharqiy Osiyo va Janubiy Osiyoni (Hindiston yarimoroli) oʻz ichiga oladi. Sharq tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy imkoniyati bilan dunyoning maʼlum ulkan potensialga ega qismi hisoblanadi. Ammo bu ulkan hudud potensialidan samarali foydalanishda va barqaror taraqqiyotni taʼminlashda xavfsizlik muhim ahamiyat kasb etadi. Sharq davlatlari taraqqiyotini taʼminlashda, xalqaro maydonda salmoqli oʻringa ega boʻlishi uchun avvalo xavfsizlik masalasini hal qilish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga mintaqaning oʻziga xos xususiyatlari (sharqona vazminlik) bilan birga hududiy daʼvolar, davlatlararo va etnik nizolar ham mavjudki, bu mintaqa xavfsizligi arxitekturasiga oʻzining taʼsirini muntazam koʻrsatib kelmoqda. Globallashuvning tobora avj olishi milliy maʼnaviyatlarga qarshi tahdidlarning kuchayishini tezlashtirmokda, dunyo xaritasida boʻlayotgan voqeya va hodisalar xavfsizlik choralari kuchaytirishni taqazo qilmoqda.

Bugungi kun shuni koʻrsatadiki xavfsizlik borasida hamkorlik tarixiy zaruriyat hisoblanadi. Mintaqa davlatlari ayri holda XXI asrning tahdidlariga, globallashuvning salbiy oqibatlariga munosib javob berishi, davlatlar orasida yuqori mavqeiga ega boʻlishga erishishi qiyin kechadi. Xavfsizlik muammosi yangi asrda ham jahon hamjamiyati oldida turgan eng asosiy muammolardan biri boʻlib qolmoqda. Ayrim gegamon davlatlarning revanshizmga asoslanib olib borayotgan siyosatlari, mustaqil davlatlarga bepisandlik bilan qarashlari va oshkora va pinxona xalq ongiga yod gʻoyalarni singdirishga urinayotganligi yaqqol sezilmoqda.

“Gʻavvoslikning muhim bir qoidasi bor, unga koʻra chuqur suv tubiga shoʻngʻigan inson suv yuzasiga koʻtarilayotganda qatʼiy tartib va qoidalarga amal qilishi kerak, agar amal qilmasa vafot etishi mumkin. Bu “dekompressiya” deyiladi. Ayni jarayon siyosatda ham kuzatiladi: maʼlum bir totalitar rejim tubidan adolatlik hayotga koʻtarilayotgan jamiyat ham siyosiy dekompressiya (destalinizasiya, dekolonizasiya va h.k.) talablariga rioya qilishi kerak. Agar rioya qilinmasa eski rejim asoratlaridan aslo qutilib boʻlmaydi, balki u yana qaytalaydi. Abulfayz Elchibey aytganidek: “Qulsifatlar ozod qilinsa, yo qullik davrini qoʻmsaydi yoki bozordan oʻziga quldor sotib oladi”. Taraqqiyot uchun, avvalo, insonning oʻzi taraqqiy etishi kerak, inson esa taraqqiyotni barpo qiladi, bu eng toʻgʻri yoʻldir.”³³

Soʻz oʻrnida mustamlakachlik davrini 70 yildan ziyod boshdan kechirgan millat sifatida shuni aytishimiz mumkinki bugun biz xavfsizlik haqida gapirar ekanmiz avvalo biz mafkuraviy xavfsizlik masalasiga jiddiy yondashimiz lozim. Albatta biz plyuralizm gʻoyalariga qarshi emasmiz, lekin shuni yodda chiqarmasligimiz lozimki Sobiq mustamlaka davlatlarning asosiy gʻoyasi “Boʻlib tashla va hukumronlik qil” tamoyili asosida bosqinchilik xarakterini sodir etganligini yoddan chiqarmasligimiz lozim. Buning uchun biz avvalo mafkura soʻzining tub mohiyatiga nazar tashlashimiz kerak.

MAFKURA (arab. — fikrlar majmui) — muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlatning manfaatlari, orzulari, maqsadlari ifodalangan

³³ Vaslav Gavel Kuchsizlar kuchi [Matn] / Vaslav Gavel – Toshkent: Azon kitoblari, 2021.

qarashlar va ularni amalga oshirish tizimi. Unda manfaatlari ifodalanayotgan guruh va qatlamlarning o‘tmishi, bugungi kuni va istiqboli o‘z ifodasini topadi. Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Insoniyat tarixida turli-tuman Mafkuralar bo‘lgan. Turli xalqlar va ijtimoiy kuchlarning g‘oyaviy rahnamolari, mutafakkir va arboblari o‘zlarining manfaat va maqsadlaridan kelib chiqib mafkuraviy ta’limot va dasturlar ishlab chiqqanlar. Har qanday Mafkura jamiyatda yangi paydo bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy kuchlarning talab-ehtiyojlari, maqsadlarini ifoda etuvchi yangi g‘oyaviy tizim sifatida vujudga keladi va asosan, quyidagi vazifalarni o‘z oldiga qo‘yadi:

- muayyan g‘oyani odamlarning ongiga ruhiyatiga singdirish;
- aholining turli guruhlarini birlashtirish;
- ko‘zlangan maqsad va niyatlarga erishish uchun odamlarni safarbar etish;
- ularni ma’naviy ruhiy rag‘batlantirish;
- aholini, ayniqsa, yosh avlodni g‘oyaviy tarbiyalash va mafkuraviy immunitetni shakllantirish;
- boshqa mafkuraviy va g‘oyaviy ta’sirlardan himoya qilish va h.k.

Mafkura muayyan falsafiy, diniy ta’limotlar asosida yaratiladi, ma’lum ilmiy qarashlar, axloqiy tamoyillarga tayanadi. Mafkura o‘z mohiyati va ta’sir kuchiga ko‘ra,

- jamiyatni birlashtirishi yoki uni bir-biriga qarama-qarshi taraflarga bo‘lib yuborishi,
- davlatning jahondagi obro‘ va mavqeini oshirishi yoki tushirishi,
- xalqlarni yuksaklikka ko‘tarishi yoki tanazzulga duchor etishi mumkin.

Yuksak maqsadlar, bunyodkor g‘oyalarga asoslangan mafkura ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga turtki bo‘ladi, ma’naviyatni yuksaltiradi, insonlarni ulug‘vor ishlarga safarbar etadi. Ozodlik, erkinlik, mustaqillik, tinchlik, hamkorlik g‘oyalari asosida shakllangan, ezgu maqsadlarga xizmat qiladigan mafkura bunyodkorlik xususiyatiga ega bo‘ladi. Hukmronlik, mustabidlik, tajovuzkor, bosqinchilik, ekstremistik, aqidaparastlik g‘oyalari asosida shakllangan, millat va xalqlarni asoratga soladigan mafkura vayronkorlik xususiyatiga egadir. Mafkuraning diniy, dunyoviy, milliy, siyosiy va boshqa ko‘rinishlari bor. Aksariyat rivojlangan mamlakatlar xalqdari erkinlik, adolat, qonun, inson huquqlari, millatlararo hamjihatlik, diniy bag‘rikenglik kabi g‘oyalarga asoslangan mafkuraga tayanmoqda.³⁴ Yot g‘oyalarga qarshi turish uchun mafkuraviy imunitetni shakllantirish lozim.

Mafkuraviy immunitet shakllantirishda ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki Har bir kishi yoki jamoa, jamiyat mafkuraviy immunitetini besh darajaga bo‘lib o‘rganish, baholash va shu asosda takomillashtirish mumkin. Bunda:

- birinchi, ya’ni mafkuraviy immunitetning quyi darajasi shaxs, jamoa, jamiyat yuqoridagi bilimlardan xabardor emas; buzg‘unchi mafkuraviy

³⁴ Karimov I.A., O‘zbekiston: milliy istiklol, iqtisod, siyosat, mafkura, 1-j., T., 1996; Barkamol avlod orzusi, T., 1999

g'oyalarga befarq, loqayd;

- ikkinchi darajasi bilimlar bor, lekin ular his qilinmagan, sistemalashmagan, shu sababli ularni buzg'unchi mafkuraviy g'oyalarga qarshi ishlatishga tayyor emas;
- uchinchi daraja — mafkuraviy bilimlarga ega, lekin ular nazariy, shaxs, jamiyat ularni qo'llashga qiynaladi;
- to'rtinchi daraja — asosli bilimlarga ega, vaziyatni to'g'ri baholay oladi; ichki va tashqi siyosiy, mafkuraviy ta'sirlarga qarshi immuniteti shakllangan va uni ongli ravishda ishlatadi;
- beshinchi — oliy daraja — mukammal g'oyaviy, siyosiy, iqtisodiy bilimlarga ega va bu bilimlarni bemalol amalda qo'llab, buzg'unchi mafkuraviy, siyosiy g'oyalarni doimo hamma joyda faol fosh qila oladi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, keyingi yillarda ayrim yoshlarda millatga, Vatanga foyda keltirishni o'ylash, mustaqillikni mustahkamlashda foydali inson bo'lib yetishish hissi maxsus, ilmiy asosda shakllantirilmaganligi tufayli shaxsiy manfaatni o'ylash, yengil yo'llar bilan to'kis xayotga intilish hissi namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, ayrim fuqarolar orasida ma'naviy cheklanganlik dunyoqarashning torligi, milliy odob me'yorlariga rioya qilmaslik so'z va ish orasidagi tafovut, milliy g'ururning sustligi kabi noxush ko'rinishlar uchrab turadiki, ularni birgalashib bartaraf qilish lozim. Yot mafkuralar targ'ibotining «mehribonligi», «xolisligi» va «betarafligi», «yoqimlilik», «do'stonaligi»ning ortida nima yotganini doimo bilishlari lozim. Ya'ni ularning zamirida O'zbekistonning rivojlanib ketishiga qarab muntazam taktikasini o'zgartirib turuvchi jonsarak aqidaparastlik targiboti natijasi va amaliyoti yotganini, ularning an'anaviy fundamentalistik nazariya va g'oyalarni zamonaviy usullarda «jonlantirayotganini» tushunish zarur.

Foydalanildan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi o'zbekiston strategiyasi. –T.:o'zbekiston,2021
2. Karimov I.A., O'zbekiston: milliy istiklol, iqtisod, siyosat, mafkura, 1-j., T., 1996; Barkamol avlod orzusi, T.,1999
3. Vaslav Gavel Kuchsizlar kuchi [Matn] / Vaslav Gavel – Toshkent: Azon Kitoblari, 2021.
4. Ochil Sirojov, Oybek Sirojov "Sharq Mamlakatlarida Xavfsizlik Muammolari" 1-Qism O'quv qo'llanma «Zamon Poligraf» Toshkent 2022
5. Sadulla Otamuratov Globalashuv va Milliy-Ma'naviy Xavfsizlik Tosh Kent «O'zbekiston»"- 2015
6. Q.Rajabov, M. Haydarov Turkiston tarixi (1917-1924 yillar) Toshkent "Universitet" 2002

AGRESSIV BOLA BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKTSION ISHLAR

Toshxo jayev Musabek Abdug'offor o'g'li

Sirdaryo viloyat PYMO'MM Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodisti

Annotatsiya: Ushbu maqolada agressiv bola bilan olib boriladigan

korreksion ishlar, korreksion metodlarni qo'llash sabablari, Metodini tanlash konkret holat va konkret bolani hisobga olish bilan bog'liq masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlari: Agressiv xatti-harakat, kritik (frustrasiya), korreksion metodlarni, agressiv tenlentsiya, bolaning agressivligi.

Agressiv xatti-harakatni umuman yomon deb hisoblab bo'lmaydi. Kritik (frustrasiya) holatda paydo bo'lganda u himoya funktsiyasini, ba'zida hal qiluvchi holatdan chiqib ketish funktsiyasini bajaradi. Ko'pincha bolada agressiv xatti-harakat bolani o'tish davrida kuzatiladi. Bu shundan dalolat beradiki, bolani yashashi qiyinlashdi. Har qanday qiyin holatda bola yosh krizisi paytida qiyinroq o'tkazadi, shuning uchun undan xatti-harakatidan agressiv elementlarni ko'payishini kutish mumkin. Bu oddiy bolaga ham, emotsional buzilishdagi bolaga ham tegishlidir. V.V.Lebidinskiy va boshqalar ta'kidlab o'tdilarki, bolaning aniq agressivligi davrida, atrofdagilar bilan garmonik munosabatni u tomondan buzilishi qaysiki normal affekt rivojlanishida kuzatilgan, asosan yosh affekti va shaxsiy krizislar kechinmalari bilan to'g'ri keladi. Affektiv buzilish holatida agressiya odatiy hol, deyarli xulq-atvorning birlamchi formasi bo'lib qoladi. Biroq, bolaning xulq-atvorning birlamchi formasi bo'lib qoladi. Biroq, bolaning xulq-atvoridagi agressiyaning borligi doim u bilan bo'lgan munosabatda katta qiyinchiliklar tug'dirsa-da, agressiv tendentsiyalarni faqatgina salbiy baholash mumkin emas. Shuni esda tutish kerakki, ular (tendensiyalar) bolaning affekt rivojlanishi davridagi aktivligini oshishi fonida qonuniy kattalashib beradi. Odatda bu psixokorreksion ishning ajralib bo'lmas bosqichidir, bulardan kattalarning yordami bilan o'tib, bola uni o'rab turgan reallik bilan yanada adekvat formalarni egallashi mumkin. Shuni aytib o'tish mumkinki, agressiya o'zining kelib chiqishi dinamikasi bo'yicha ko'pincha bolani yaqin atrofdagilari bilan bo'lgan o'zaro munosabatlari usullaridan o'zgacha qiyinlashuv ko'rsatkichida ko'rinadi. Bolada agressiyani to'g'rilash, ya'ni korreksiya qilish, uning sabablarini, kelib chiqishini bilishdan boshlash kerak. Agar agressiya emotsional-motivatsion sohada buzilish signali bo'lib hisoblanmasa, unda korreksion harakatlar uni (agressiyani) yo'qotishga qaratilgan bo'lmay, balki uni yumshatishga va boladagi agressiv xulq-atvordan kelib chiqadigan yomon asoratlarni oldini olishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bundan tashqari bu holatda ota-onalarni bolaning agressiv reaksiyalarini adekvat ravishda qabul qilishga tayyorlash kerak. Boshqa holatlarda, agar agressiya shaxsning emotsional-motivatsion sohasining buzilishida ko'rinsa, psixolog yoki tarbiyachilarning harakati bolaning agressiv harakatini mustahkamlanmasligiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Korreksion metodlarni qo'llash sabablari xarakteriga bog'liq bo'ladi. Metodini tanlash konkret holat va konkret bolani hisobga olish bilan o'tkaziladi. Buni quyidagi korreksion metodlarni ko'rib chiqishda hisobga olish kerak:

1. Agressiv tendentsiyalarni tan olmaslik, atrofdagilarni unga ahamiyat berishini bilmaslik;

2. Agressiv xatti-harakatga o'yin qo'yish va unga yangi ijtimoiy yondashishni tadbiiq qilish, ma'noni emotsional to'ldirish. Bu bilan bola uchun agressiv tendentsiyalarni atrofdagilar bilan bo'lgan munosabatda asoratsiz kuchayishida qulaylik tug'iladi (misol uchun "qaroqchilar" o'yinida agressiv bolaga qaroqchi

va boshqa rollarni berish maqsadga muvofiq).

3. Bolaning agressiv harakatini ta'qiqlash (bolaga agressiyani ko'rsatishga ruxsat bermaslik);

4. Psixologni o'yin holatida agressiv harakatlarni, qaysiki, ularning asosida ko'pincha qo'rquv yotadigan, o'ylab topish yoki "cho'zish" uchun aktiv ishtirok ettirish kerak;

5. Psixodrama affektiv keyingi katarsis-emotsional holatni yo'qotishi, yechimini Tayanish tushincha: Xavotir, xavf, ta'zyiq, emotsional holatlar, uyatchanlik, taqlika, stress, nevrotik xavotir, ob'yektiv havotir, kognitiv havotir, havotirlanishning oldini olish va korrektsiya qilish bosqichlari.

Shaxs uchun turli narsalar xaqida tashvishlanish qobiliyati xosdir, bu esa uning hayotga befarq munosabatda emasligidan dalolat beradi. Biroq bu tashvishlanish ba'zida noadekvat shaklda bo'ladi, ya'ni shaxs asoslanmagan holda bu holatni boshdan kechiradi. Psixik holat sifatida xavotirlanish tushunchasining ko'p qirraliligi shundan kelib chiqadiki, turli xil tadqiqodchilar "Xavotirlanish" tushunchasini turli ma'noda qo'llaydilar. Ch.D.Spilberger (1968) fikriga ko'ra, xavotirlanish konsepsiyasining noaniqligi va ko'p qirraliligining asosiy sababi. Bu atama odamda ikki asosiy ma'noda foydalaniladi. Lekin ular bir-biri bilan bog'liq. Shu bilan birga turlicha tushunchalar sifatida qo'llanishadi. Ko'pincha "havotir" terminini yoqimsiz ichki emotsional bezalgan holat sifatida qaraladi. Bu holat esa zo'riqish, notinchlik, g'amginlikni his qilish tariqasida fiziologik jixatdan avtonom nerv sistemasining faollashuvi sifatida tavsiflanadi. Havotirlanish holati inson muayan qo'zg'atuvchini o'zida xavf, ta'zyiq, ziyon elementlari sifatida idrok qilishinatisida kelib chiqadi. Havotirlanish holatini insonda vujudga kelishi mumkin bo'lgan stress darajasi funksiyasi dekvaqt va intensivligi bo'yicha o'zgarib boradi. Shuningdek, "havotirlanish" atamasi insonning bu holatini boshdan o'tkazish moyilligi kabi, nisbatan barqaror individual farqni ifoda etishi uchun ham ishlatiladi. Bunda xavotirlanish shaxs xislati ya'ni shaxs xavotirlanishi ko'rinishida bo'lib, u bevosita xulq-atvorida namoyon bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

- 1)Boymurodov N Amaliy psixologiya T.: 2008 y
- 2)Voxidov M. "Bolalar psixologiyasi" T.: O'qituvchi. 1982 y.
- 3)Jo'raev S. , F.Qodirov "Kichkintoylar nutqini o'stirish" T.: 2005 y.
- 4). Ivanov P.I. M.Zufarova "Umumiy psixologiya" T.: 2008 y
- .5) Nishonova Z. Alimova G. "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" T.: 2006 y
- .6) Nishonova Z.T. Do'stmuxammedova Sh.A. To'lyaganova Sh.T. Pedagogik psixologiya.Toshkent 2011
- 7)Muminova, Sobirova va boshqalar.«Bolalar bogchasida ta'lim-tarbiya dasturlari»
- . 8)G'oziev E. Umumiy psixologiya T.: 2010 y.
- . 9)G'oziev E. "Ontogeniz psixologiyasi" 2010 y
- 10) G'oziev E, Jabborov A. "Faoliyat va hulq - atvor motivatsiyasi" T. 2003 y

OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARI PSIXOLOGIYASI

To'rabayeva Farangiz Abdumajid qizi

Guliston davlat universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ota-ona va bola munosabatlari psixologiyasi, G'arb mamlakatlarida ota-ona tomonidan o'smirlarga nisbatan voyaga yetgan shaxs sifatida munosabatda bo'lishga doir masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlari. Oila psixologiyasi, osiyo xalqlari, g'arb mamlakatlarida, oila etnosi va psixologiyasi.

X-XI asrlardanoq ota-ona va farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va oilada bola tarbiyasi masalalariga dolzarb muammo sifatida qarab kelingan. Bu borada o'zbek va g'arb olimlari tomonidan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

V. Karimova o'zining "Oila psixologiyasi" kitobida g'arb va sharq olimlarida ota-onalarning bolalariga bo'lgan munosabatlariga alohida to'htaladi. "Masalan, ayrim xalqlar, (aksariyat Yevropa xalqlari) bolaga u kichikligida juda katta mehr va g'amxo'rlik ko'rsatadi, taxminan o'smirlik davridan boshlab, uning erkinligi tan olinadi va ota-ona tomonidan beriladigan tarbiya uslublari o'zgartirilib, unga kattalarcha munosabatlar barqarorlashadi. Boshqa bir madaniy-etnik xududlarda, askincha farzand balog'atga yetgani sari ota-onaning unga e'tibori kuchayadi. Masalan, Osiyo xalqlari, xususan, o'zbeklarda ham oila kattaligi va serfarzandligi bois, bolalarning kichik yoshdagi rivojlanish hususiyatlariga tabiiy holatday qarab, juda katta qayg'urish bilan uning ma'naviy, ruhiy rivojlanishiga e'tibor qaratilmaydi. Lekin, qiz bola Lekin, qiz bola balog'atga yetib, ko'rkamlashib borgani sari, o'g'il bolaning qo'lidan ish kelib, qatorga qo'shilgani sari, ota-onada ulardan g'ururlanish, taqdiriga kuyunish, g'amxo'rlik ko'rsatish ham ortib boradi. Bunday g'amxo'rlik shu qadarki, uylangan o'g'ilning qadam bosishlarini ham hamon ota-ona nazorat qilaveradi, bu ba'zan, qaynona-kelin munosabatlarida, yoki ota-o'g'il munosabatlarida tarangliklarni, nizolarni keltirib chiqaradi."

G'arb mamlakatlarida ota-ona tomonidan o'smirlarga nisbatan voyaga yetgan shaxs sifatida munosabatda bo'ladi. Sharq xalqlarida esa aksincha, o'smir va o'spirinlarga nisbatan ota-onalar tomonidan bolalarcha munosabatda bo'linib, ularning qiziqishlari, xoxish istaklari inobatga olinmaydi. Buning natijasida oilada ota-ona va farzandlar o'rtasida nizolar kelib chiqadi.

Professor G'. Shoumarov o'zining "Oila psixologiyasi" kitobida oilaviy munosabatlar, ota-ona va bola munosabatlari, oilada ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarga alohida to'xtaladi. U quyidagi vositalarni ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarga sabab bo'lishini omil sifatida ko'rsatadi:

1. Dunyoqarashlar orasidagi mavjud farqning hisobga olinmasligi.

2. Yoshlarning bo'sh vaqtlarini mustaqil tashkil etish, do'stlar tanlashdagi mustaqilligi, xissiyot sohasidagi mustaqilligi, moda va bugungi kun talabiga mos kiyinish, kasb natlashda mustaqilligi uchun ota-onalar bilan ba'zan kurash olib borishning xush kelmasligi.

3. Ota-onalari ichkilikka ruju qo'yishi yoki or-nomusni yig'ishtirib qo'yib, buzuqchilik qilish.

4. Ba'zi bolalarni mehnat qilishga o'rgatilmaganligi va buning oqibatida yengil-yelpi hayot kechirishga o'rganib qolish.

5. Ayrim yoshlarning farzandlik burchini unutib qo'yishi va hokazo.

6. Ota-onalarning psixologik-pedagogik bilim va saviyalari yetarli darajada emasligi natijasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar.

Bularda tashqari boshqa olimlar ham ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarga sabab bo'ladi.

Ota-onalar tomonidan bolalarni yosh hususiyatlarini hisobga olmaslik, ular tomonidan bolani doimo nazorat qilishga intilish ham nizolarga sabab bo'ladi.

G'.Shoumarovning fikricha, "Ba'zi ota-onalar bolalariga 3-6, 1-14 yoshlarda muqarar ravishda bo'lib o'tadigan krizislarni bilmaydilar. Bu yosh bosqichlarida bola ruhiyati yangi psixologik qo'shilmalar yuzaga keladi. Bu esa ularning kattalar, jumladan ota-onalar bilan bo'lgan munosabatlarida ko'zga tashlanadi. Buni sezmagani ba'zi ota-onalar "bolam nihoyatda qaysar, quloqsiz bo'lib qoldi" deb o'ylaydilar va shikoyat qilishga tushadilar. Bunga qarshi o'zaricha chora-tadbirlar belgilashlari natijasida ota-ona va bola bir-birini tushunmay qoladilar. Bolaning ota-onadan berish hollari kuzatiladi".

Psixologiya fanlari doktori, professor E.G'oziev o'zining "Oila etnosi va psixologiyasi" kitobida ota-ona va bola munosabatlari va oilada farzand tarbiyasi masalalariga alohida e'tibor beradi.

Oilada psixologik nosog'lom muhitning bo'lishi, bolaning faqat ruhiyatiga salbiy ta'sir qilib qolmasdan, uning kelajakda diviant xulq-atvorli shaxs sifatida shakllanishiga sabab bo'ladi.

Bu borada E.G'oziev quyidagilarni yozadi: "Ota-onalarning ichkilikka ruju qo'yishi, buning oqibati va boshqa sabablarga ko'ra tez-tez sodir bo'lib turadigan oilaviy janjal-muajarolar tufayli bolalarning oromi buziladi, uyqusi qochadi, cho'chidi bo'lib qoladi, farzandlari ko'z o'ngida ota-onalarning obro'si to'kiladi. Buning oqibatida oilada obro'siz ota-ona tarbiyasini olgan bola ko'pincha o'g'ri, muttaxam, bosqinchi, yo'lto'sar va g'irt bezori bo'lib yetishishi shubhasizdir."

M.S.Salaeva o'zining psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasida ota-ona va o'smirlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga alohida e'tibor beradi. U o'zining ota-ona va bola o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganish bo'yicha Toshkent shahar va Xorazm viloyatida istiqomat qiluvchi oilalar bilan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijasi yuzasidan quyidagi hulosalarga keladi:

1. "O'smir yoshdagi o'g'il bolalarda oila a'zolari tomonidan o'zaro tushunmaslik va muammolarni do'stlari bilan muhokama qilish holatlari qizlarga nisbatan ko'proq uchraydi".

2. "O'z maqsadlariga erishish yo'lida ota-ona va oilaning boshqa a'zolari bilan tortishuvlarga, nizo-janjallarga borishga moyillik holati shahar oilalardagi bolalarda kuchliroq ifodalanadi. Bu holat qizlarda o'g'il bolalarga nisbatan ustunroq".

3. "O'zbek oilalardagi ota-onalarning bolalaridagi "tajovuskorlikni" bosish, ularning jinsiy tarbiyasiga yetarlicha e'tibor bermaslik, otalar tomonidan o'z

farzandlariga nisbatan xissiy yaqinlikni namoyon qilmaslik hamda ota-bola munosabatlarida muayyan “masofa saqlashi” kabi hislatlar hosdir”.

Bu borada G‘arb olimlari tomonidan ham bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Shoumarov G‘.B. “1001 savolga psixologning 1001 javobi” T.: “Mehnat” 2000.
- 2.Eydemelir E.G, Yusteskiy V.V “Semeynaya psixoterapiya” “Leningrad” 1989.192s.
- 3.“O‘zbek oilasining etnopsixologik muammolari” (Respublika ilmiy amaliy anjuman ma’ruzalarining qisqacha bayoni) T.: 1993.
- 4.Qurbonov Sh “Jamiyatni erkinlashtirish va ta’limning yangi qadriyatlari” T.: “O‘zbekiston” 2000.
- 5.Qirg‘izboev A “Yoshlar tarbiyasida ma’naviyatning qudratli kuchi” T.: “O‘zbekiston” 2001.

ВИРТУАЛ ТАҲДИДЛАРИНИНГ ЁШЛАР ДУНЁҚАРАШИГА ТАЪСИРИ

*Урдабаева Гулнора Мамбеталиевна
Гулистон давлат университети*

Аннотация: Виртуал ижтимоий тармоқ таҳдидларининг омма онгига таъсир доираси жуда катта бўлиб, унинг асосий сабабларидан бири, жуда катта оқимдаги инсонларни (фойдалувчиларни) қамраб олганлигидадир. Тармоқлардан оқилона фойдалан олган шахслар учун катта манфаатлар кўзланган бўлиб, кенг маънода ахборот алмашиши, айниқса бир неча йил давом этган карантин даврларида таълим жараёнига ҳам ёрдами беҳисоб бўлди. Аммо, виртуал макондан ўзининг шахсий вайронокр мақсадлари учун фойдаланадиган шахслар ҳам йўқ эмас. Виртуал тармоқнинг кўринмас қармоғидан ҳимояланишимиз зарур.

Калит сўзлар: *Виртуал тармоқ, гоёлар, ахборот воситалари, тармоқ фойдалари, таҳдидлар, ёлгон хабарлар, фойдаланувчилар, омма онги, таъсир доираси, таълим, тарбия, дунёқараш.*

Виртуал макон тушунчаси давлат ва хўжалик ишларида кенг фойдаланилиб, давлат раҳбарининг муҳим стратегияларидан бири ҳисобланади. Жумладан, Ўзбекистон Республикасида давлат ва хўжалик бошқаруви органларининг виртуал маконда иштирокини таъминлаш, электрон давлат хизматлари кўрсатишнинг ягона тизимини ривожлантириш борасида изчил ишлар олиб борилмоқда. Шу билан бирга, бугунги туб демократик ислоҳотлар давлат ва хўжалик бошқаруви органлари фаолиятининг янада очиқлиги ва шаффофлигини таъминлашни, уларнинг жамоатчилик билан алоқаларини янги босқичда ривожлантиришни тақозо этмоқда.

2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида белгиланган давлат ва жамият қурилиши тизимини такомиллаштиришга оид вазифаларни амалда рўёбга чиқариш ҳамда давлат ва хўжалик бошқаруви органларининг виртуал

маконда иштирокини янада такомиллаштириш, ахборот хизматларининг жамоатчилик фикрини, ушбу органлар томонидан қабул қилинаётган қарорларга аҳолининг муносабатини тизимли ўрганиш бўйича ролини кучайтириш, рўй бераётган воқеа-ҳодисаларга давлат органларининг ўз вақтида ва доимий равишда муносабат билдиришини самарали ташкил этиш мақсадида Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари қабул қилинди.³⁵

Мамлакатда давлат органларининг виртуал маконда иштирокини таъминлаш, электрон давлат хизматлари кўрсатишнинг ягона тизимини ривожлантириш, давлат органларининг аҳоли билан мулоқотини такомиллаштиришнинг янги механизмларини жорий қилиш борасида изчил ишлар амалга оширилмоқда. Давлат ҳокимияти тизимида янги институт — Ўзбекистон Республикаси Президентининг виртуал қабулхонаси, жойларда эса Халқ қабулхоналари ташкил этилди. Ушбу тузилмалар барча даражалардаги давлат ҳокимияти ва бошқаруви органларининг фуқаролар билан уларнинг энг муҳим муаммоларини ҳал этиш бўйича самарали ҳамкорлик тизимига айланди. Жадал ривожланаётган миллий ахборот-коммуникация инфратузилмасининг янги ахборот технологияларини фаол қўллаш ҳисобига давлат органларининг жисмоний ва юридик шахслар, тадбиркорлик субъектлари билан ўзаро тезкор алоқа ўрнатишини таъминламоқда. Шу билан бирга, ушбу соҳада ислоҳотларнинг ҳозирги босқичи, ривожланишнинг замонавий тенденциялари давлат ва хўжалик бошқаруви органлари фаолиятининг янада очиклиги ва шаффофлигини, қарорлар қабул қилишда жамоатчилик билан фаол ҳамкорликни таъминлаш борасида бир қатор тизимли муаммо ва камчиликлар сақланиб қолмоқда. Чунончи:

биринчидан, Интернет жаҳон ахборот тармоғидаги (кейинги ўринларда Интернет деб аталади) миллий ахборот ресурслари мамлакатнинг инновацион ривожланиш йўлига, рақамли жамият ва иқтисодиётга ўтиш, ахборотлашган жамият шаклланиши билан боғлиқ муҳим вазифаларни амалга оширишга етарли даражада хизмат қилмаяпти

иккинчидан, давлат ва хўжалик бошқаруви органлари ахборот хизматларининг жамоатчилик фикрини, ушбу органлар томонидан қабул қилинаётган қарорларга аҳолининг муносабатини тизимли ўрганиш, рўй бераётган воқеа-ҳодисаларга давлат органларининг ўз вақтида ва доимий равишда муносабат билдиришини самарали ташкил этиш борасидаги фаолияти ҳозирги кун талабларига тўла жавоб бермайди;

учинчидан, давлат бошқаруви тизими, ижтимоий-иқтисодий соҳалар, аҳолининг кундалик ҳаётига ахборот-коммуникация технологияларини татбиқ этиш борасидаги ишлар янгича инновацион ёндашувни талаб этмоқда;

тўртинчидан, Ўзбекистоннинг тезкор «рақамли тараққиёти»ни ривожлантириш учун зарур ташкилий-ҳуқуқий шароитлар яратишда давлат

³⁵ Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири А. АРИПОВ Тошкент ш., 2018 йил 7 август, 622-сон ДАВЛАТ ВА ХЎЖАЛИК БОШҚАРУВИ ОРГАНЛАРИНИНГ ВИРТУАЛ МАКОНДА ИШТИРОКИНИ ФАОЛЛАШТИРИШ КОНЦЕПЦИЯСINI ТАСДИҚЛАШ ТЎҒРИСИДАги қарори

ва хўжалик бошқаруви органларининг бизнес ва фуқаролик жамияти институтлари билан ҳамкорлиги етарли даражада ривожланмаган; **бешинчидан**, аҳолининг ахборот ва рақамли технологиялардан фойдаланиш маданиятини шакллантириш ва ривожлантириш, соҳада илмий тадқиқотларни қўллаб-қувватлаш, кадрлар тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш масалаларига етарли даражада эътибор қаратилмаяпти; **олтинчидан**, халқаро ахборот маконида Ўзбекистоннинг ижобий имижини шакллантириш, мамлакатнинг миллий манфаатларини илгари суриш ва ҳимоя қилиш мақсадида халқаро ҳамкорликни ривожлантиришда қўшимча чоралар белгилаш талаб этилмоқда.



Ўзбекистонда ахборотлашган жамиятни жадал шакллантириш, Интернет тармоғини фуқаролар, жамият ҳамда давлат эҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда уларнинг барқарор ижтимоий, маданий ва иқтисодий тараққиётига хизмат қилувчи маълумотлар билан бойитиш, глобал виртуал маконда миллий ахборот маҳсулотларини кенг тарқатиш; аҳоли билан мулоқотнинг ва икки томонлама алоқанинг фаол ва самарали шаклларини жорий этиш, айниқса, қарорлар қабул қилишда давлат ва хўжалик бошқаруви органларининг жамоатчилик билан барқарор, режали ҳамда репрезентатив ахборот-коммуникация алоқаларини таъминлаш; давлат бошқаруви тизимига, ижтимоий-иқтисодий соҳаларга, аҳолининг кундалик ҳаётига ахборот-коммуникация технологияларини татбиқ этиш бўйича кенг миқёсли ишларни изчил давом эттириш ва уларни янги босқичга олиб чиқиш; Ўзбекистон ҳамда унинг иқтисодиёти, ижтимоий ва гуманитар соҳаларда замонавий рақамли технологияларни кенг жорий этишни бизнес тузилмалари ва фуқаролик жамияти институтлари иштирокида амалга оширишнинг ташкилий-ҳуқуқий шароитларини яхшилаш; давлат ва хўжалик бошқаруви органларининг виртуал макондаги иштирокини, аҳолининг ахборотдан ва рақамли технологиялардан фойдаланиш маданиятини ривожлантириш мақсадида илмий тадқиқотлар ҳамда ишланмаларни кўпайтириш, соҳада кадрлар тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш

тизимини такомиллаштириш; халқаро ахборот маконида Ўзбекистоннинг ижобий имижини шакллантириш, мамлакатнинг миллий манфаатларини илгари суриш ва химоя қилиш мақсадида халқаро ҳамкорликни ривожлантириш; кичик бизнес вакиллари ва аҳолининг рақамли иқтисодиёт маконини шакллантиришдаги фаол иштирокини қўллаб-қувватлаш ва уларнинг рақамли технологиялардан кенг фойдаланиш самарадорлигига ишончини оширишга қаратилган ташкилий шарт-шароитлар яратиш ва унинг ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлаш; виртуал макондаги муносабатларни тартибга солиш мақсадида қонун ҳужжатларини такомиллаштириш, ахборотлашган жамиятни шакллантириш, жамият ва давлат фаолиятида рақамли технологияларни, ахборот технологияларини ривожлантириш, давлат ахборот тизимлари ва ресурсларини, шунингдек, Интернет миллий сегментининг ахборот хавфсизлигини таъминлаш.³⁶

Юқорида давлатимиз томонидан ижтимоий тармоқлар ва улардан фойдаланиш чоралари ҳамда фойдали томонлари келтирилди. Шунга қарамасдан, вақт ўтгани сайин болалар ва интернет муаммоси тобора чуқурлашиб бораётган бир пайтда, глобал тармоқнинг яширин хавфларига фақатгина таъсир тушиб қолишни эмас, балки экстремистик характердаги, секта ва турли хил уюшмалар сайтларининг фойдаланишга очиқлигини, виртуал фирибгарликка кенг йўл қўйилганликни ҳам кўрсатиш мумкин. Болаларнинг қизиқувчан табиати уларни юқорида тилга олинган турдаги сайтларга етаклаши, бу веб саҳифаларда уларнинг руҳий ёки жисмоний соғлиғига хавф солувчи маълумотларни кўришига олиб келиши табиий. Электрон почта манзиллари орқали олинган хабарлар кучли руҳий таъсир ўтказиб, болаларни интернет доирасида ва ундан ташқарида ҳам жиноятга ундаши ҳеч гап эмас. Шубҳасиз, интернет билим ва керакли ахборотни олиш учун улкан имкониятлар яратади, бироқ тармоққа жойлаштирилдиган катта ҳажмдаги ахборотнинг барчасини ҳам ишончли ва фойдали деб бўлмайди. Фойдаланувчилар маълумотларнинг тўғрилигини аниқ ажрата билиши учун танқидий фикрлаш қобилиятига эга бўлиши талаб этилади. Ёш авлодни кенг доирадаги манбалардан фойдаланишга йўналтириш натижасида фактларни фикрлардан фарқлашга, тўғрилиги тасдиқланмаган ахборотдан химояланишга уларни ўргатиш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири А. АРИПОВ Тошкент ш., 2018 йил 7 август, 622-сон ДАВЛАТ ВА ХЎЖАЛИК БОШҚАРУВИ ОРГАНЛАРИНИНГ ВИРТУАЛ МАКОНДА ИШТИРОКИНИ ФАОЛЛАШТИРИШ КОНЦЕПЦИЯСИНИ ТАСДИҚЛАШ ТЎҒРИСИДАги қарори

³⁶ Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 7 августдаги 622-сон қарорига Давлат ва хўжалик бошқаруви органларининг виртуал маконда иштирокини фаоллаштириш КОНЦЕПЦИЯСИ

2. Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 7 августдаги 622-сон қарорига Давлат ва хўжалик бошқаруви органларининг виртуал маконда иштирокини фаоллаштириш КОНЦЕПЦИЯСИ
3. Педагогика назарияси ва тарихи. 1-қисм. Педагогика назарияси / М.Х.Тохтаходжаева ва бошқалар. Проф. М.Х.Тохтаходжаеванинг умумий таҳрири остида. – Тошкент: “Iqtisod-moliya”, 1996.
4. Олий таълим: меъёрий хужжатлар тўплами. – Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2001. – 18-52-бетлар.
5. Очилов М., Очилова М. Ўқитувчи одоби. – Тошкент: Ўқитувчи, 1998.
6. Шарипова Д. Д., Черников В. Г Противонаркотическое воспитание подрастающего поколения. — Т.: Укитувчи, 1991.
7. Методика и технология работы социального педагога / Под ред. М.А.Галагузовой. — М.: Изд.центр «Академия», 2002.

TA'LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJIRIBALARNING AHAMIYATI "TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI MUHUM OMILLAR – XORIJIY TAJRIBALAR"

Sarimsaqov Ravshanjon Abdusalomovich

Marg'ilon turizm va madaniy meros texnikumi direktori

Annotatsiya: *Ushbu maqola, "Ta'lim samaradorligini oshirishdagi muhim omillar – xorijiy tajribalar " mavzusini o'rganadi, bu orqali ta'lim sifatini global miqyosda yaxshilash yo'llarini ko'rsatib beradi. Maqola, Finlandiya, Singapur va Kanada kabi mamlakatlarning ta'lim tizimlarini tahlil qilar ekan, ularning ta'limdagi yutuqlarini O'zbekiston ta'lim tizimiga tatbiq etish imkoniyatlarini muhokama qiladi. O'rganilgan asosiy faktorlar: o'qituvchilarning professional rivojlanishi, ta'lim muassasalarining mustaqilligi va zamonaviy o'quv dasturlarining joriy etilishi. Bu tajribalar O'zbekiston uchun ta'lim sifatini oshirishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan muhim yondashuvlar sifatida taqdim etiladi.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim sifati, samaradorlik, xorijiy tajribalar, kasbiy rivojlanish, ta'lim tizimi, muassasalarining mustaqilligi, o'quv dasturlar.*

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish zamonaviy jamiyatimizning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Global iqtisodiyot va tezkor texnologik o'zgarishlar sharoitida, har bir davlatning ta'lim tizimi mamlakatning kelajagini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ulardan o'z ta'lim tizimimizda foydalanish, bu boradagi muvaffaqiyatimizni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tajribalar, ayniqsa, yuqori natijalarga erishgan mamlakatlar misolida, ta'lim sifatini oshirishning turli usullarini ko'rsatib beradi. Masalan, Finlandiya ta'lim tizimi o'zining yuqori saviyasi va o'quvchilarning keng qamrovli yondashuvi bilan tanilgan. Finlandiya maktablari o'quv dasturlarining moslashuvchanligi, o'qituvchilarning yuqori malakasi va ta'lim muassasalarining mustaqilligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, Singapur ta'lim tizimi ham texnologik integratsiya va ilmiy yondashuv orqali o'zining global raqobatbardoshligini oshirishga muvaffaq bo'lgan. Bu mamlakatlar ta'lim sifatini

o'shishda ilmiy va amaliy yondashuvlarni qo'llash orqali yaxshi natijalarga erishganlar.

Bularning barchasi, ta'lim sifatini oshirishda ilg'or xorijiy tajribalarning o'rganilishi va tatbiq etilishini ta'kidlaydi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimining samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy omillar orasida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, o'quv dasturlarining zamonaviy talablarga moslashuvi va ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasining mustahkamlanishi muhim o'rin tutadi.

Bu borada bizning maqsadimiz, xorijiy tajribalarni chuqur tahlil qilish va ularni o'z mamlakatimizning ta'lim tizimiga moslash uchun kerakli yechimlarni taklif etishdir. Shu bilan birga, global ta'lim standartlariga javob beradigan, raqobatbardosh va innovatsion ta'lim tizimini yaratish yo'lida qadamlar qo'yishdir.

Mana shu maqsadlar yo'lida, ushbu ilmiy maqola xorijiy tajribalarning ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyatini tahlil qilib, ularning eng yaxshi amaliyotlarini namoyish etadi va bu borada o'z takliflarimizni beradi.

Adabiyotlar tahlili Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda xorijiy tajribalarning ahamiyatini chuqurroq tushunish uchun quyidagi adabiyotlar tahlil qilindi:

Tadqiqodchi Pasi Sahlberg Finlandiya ta'lim tizimining yutuqlarini va uni qanday qilib boshqa mamlakatlar o'z tizimlariga tatbiq eta olishlari mumkinligini tahlil qiladi. Olim Finlandiya ta'limining asosiy ustunliklarini, jumladan, o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash va professional rivojlanish tizimlarini ta'kidlaydi.

Lee, C.K. olib borgan tadqiqodlatrida Singapur ta'lim tizimining muvaffaqiyatlarini amalga oshirish istiqbollari hamda ta'lim sifatini oshirish uchun qo'llanilgan strategiyalar, jumladan, qattiq tanlov va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga katta e'tibor berilgan.

Tadqiqodchi olim Marc Tucker dunyo bo'ylab ta'lim tizimlarining eng yaxshi amaliyotlarini o'rganib, Amerika ta'lim tizimini takomillashtirish uchun takliflar kiritadi. Kitobda Xitoy (Shanxay), Finlandiya, Yaponiya va Kanada kabi mamlakatlarning ta'lim tizimlari tahlil qilinadi.

OECD. "PISA 2018 Results." - PISA (Xalqaro o'quvchilar baholash dasturi) hisoboti dunyo bo'ylab 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va fan sohasidagi bilimlarini baholaydi. Hisobot, shuningdek, ta'lim sifatini yaxshilash uchun qo'llanilayotgan turli xil yondashuvlar haqida ma'lumot beradi. [4]

Andreas Schleicher OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlar o'qituvchilarni tayyorlash va maktab rahbarlarini rivojlantirish bo'yicha global tajribalar tahlil qilinadi. Hisobot, o'qituvchilarning malakasini oshirish va ularni qo'llab-quvvatlashning muhimligini ta'kidlaydi. [5]

Bu adabiyotlar, ta'lim tizimini takomillashtirishda ilg'or xorijiy tajribalarni qanday qo'llash mumkinligini ko'rsatib beradi va shu orqali o'quvchilar va o'qituvchilarga yaxshiroq ta'lim berish imkoniyatini yaratadi. Har bir asar o'z sohasida qimmatli ma'lumotlar taqdim etadi va bu bilan ta'lim sifatini yaxshilash yo'lidagi muhim qadamlarni belgilab beradi.

Tadqiqotning asosiy metodologiyasi sifatida, **Solishtiruv tahlil (Comparative analysis)** dunyoning turli mamlakatlarida qo'llanilayotgan ilg'or ta'lim strategiyalari va yondashuvlarini solishtiruvchi tahlil qilish tanlandi. Bu metod yordamida, jumladan Finlandiya, Singapur va Kanada kabi mamlakatlarning ta'lim tizimlari chuqur o'rganiladi. Har bir mamlakatning ta'lim tizimida qo'llanilayotgan yondashuvlar, dasturlar va siyosatlar tahlil qilinib, ularning qanday qilib ta'lim sifatini oshirishga yordam bergani o'rganiladi. Bu tahlil natijalari asosida, eng samarali deb topilgan usullar ajratib olinadi va ularning O'zbekiston ta'lim tizimiga qo'llanilishi mumkinligi ko'rib chiqiladi.

Ekspertlar bilan intervyular (Expert interviews) Ta'lim sohasidagi ekspertlar bilan o'tkaziladigan intervyular yordamida, xorijiy tajribalarning O'zbekiston ta'lim tizimiga qo'llanilishi haqida chuqurroq tushuncha olish rejalashtirilgan. Bu intervyular davomida, soha mutaxassislari, o'qituvchilar, ta'lim boshqaruvchilari va siyosatshunoslar bilan muloqot qilinadi. Ularning tajribalari va ta'lim sohasidagi bilimlari asosida, ilg'or yondashuvlar va strategiyalar haqida fikr almashiladi. Shuningdek, ularning ta'lim sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalari to'planadi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish (Data analysis): Tadqiqot davomida to'planadigan ma'lumotlar statistik va mazmun tahlili orqali ko'rib chiqiladi. Bu tahlil yordamida, xorijiy ta'lim tizimlarida qo'llanilayotgan usullarning samaradorligi va ularning muvaffaqiyat omillari aniqroq belgilanadi. Shu bilan birga, ushbu usullarning O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashuvchanligi va tatbiq etilish imkoniyatlari baholanadi.

Ushbu metodologik yondashuvlar orqali tadqiqot maqsadlari aniq belgilanadi va ilmiy ishning amaliy qismi uchun asosiy yo'nalishlar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari ta'lim sifatini oshirishda ilg'or xorijiy tajribalarning ahamiyatini yoritib, ushbu sohada O'zbekistonning kelajakdagi strategiyalarini shakllantirishga yordam beradi.

Ilg'or ta'lim tizimlarining asosiy xususiyatlari: Tahlil qilingan mamlakatlar – Finlandiya, Singapur, va Kanada kabi davlatlarning ta'lim tizimlari o'zlarining yuqori sifatli natijalari bilan ajralib turadi. Bu mamlakatlar ta'lim sifatini oshirishda quyidagi umumiy xususiyatlarga ega:

- O'qituvchilarning yuqori malakasi va kasbiy rivojlanishga doimiy e'tibor berish.
- O'quv dasturlarining zamonaviy talablarga moslashuvchanligi.
- O'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga oluvchi ta'lim yondashuvlari.

Ilg'or tajribalarning O'zbekiston ta'lim tizimiga tatbiqi: Tadqiqot davomida o'rganilgan ilg'or yondashuvlar va strategiyalar O'zbekistonning ta'lim tizimiga qanday qilib integratsiya qilinishi mumkinligi haqida takliflar ishlab chiqildi. Xususan, quyidagi yo'nalishlar ajratib ko'rsatildi:

- O'qituvchilarni tayyorlash va ularning professional rivojlanishini ta'minlash bo'yicha yangi dasturlarni joriy etish.
- Ta'lim muassasalariga ko'proq mustaqillik berish va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash.

- O‘quv dasturlarini zamonaviy bilim va texnologiyalarga moslashtirish.

Ushbu natijalar va takliflar O‘zbekistonning ta‘lim tizimida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan ilg‘or xorijiy tajribalarning ahamiyatini yorqin namoyish etadi va kelajakda bu borada qo‘shimcha tadqiqot va ishlanmalar olib borish uchun asos yaratadi. Bu yondashuvlar ta‘lim sifatini oshirishda muhim qadam bo‘lib, ta‘lim tizimimizni yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Tadqiqot jarayonida o‘rganilgan ilg‘or xorijiy tajribalar orqali ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish borasida bir qator muhim fikrlar va yondashuvlar aniqlandi. Ushbu muhokama bo‘limida biz tadqiqot natijalarini kengroq kontekstda ko‘rib chiqamiz va O‘zbekiston ta‘lim tizimi uchun kelgusidagi strategiyalarni shakllantirishda ularning qanday ahamiyatga ega ekanligini muhokama qilamiz.

Ta‘lim sifatini oshirishning global andozalari: Ilg‘or mamlakatlarning ta‘lim tizimlari o‘rganilganda, ta‘lim sifatini oshirishda muhim omil sifatida o‘qituvchilarning malakasi va ularning kasbiy rivojlanishiga beriladigan e‘tibor ajralib turadi. Masalan, Finlandiya va Singapur kabi mamlakatlarda o‘qituvchilar tayyorlash dasturlari juda qattiq nazorat qilinadi va ularning professional rivojlanishiga katta sarmoya kiritiladi. O‘zbekiston uchun bu yondashuvlar, o‘qituvchilarning malakasini oshirish orqali, umumiy ta‘lim sifatini yaxshilashda kalit vazifa o‘tashi mumkin.

Innovatsion ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish: Zamonaviy ta‘limda texnologiyalarning roli beqiyos. Singapur kabi mamlakatlarda ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘quvchilarning bilim olish jarayonlari samaradorligi sezilarli darajada oshirilgan. O‘zbekiston ta‘lim tizimida ham shunday texnologiyalarni joriy etish, ta‘limning barcha darajalarida o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirishi va bilim sifatini yaxshilashi mumkin.

Xalqaro hamkorlik: Ta‘lim tizimlarining global tarmoqlar orqali o‘zaro hamkorlik qilishi, ta‘lim sifatini oshirishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu tarmoqlar orqali eng yaxshi amaliyotlar va g‘oyalar almashinuvi amalga oshiriladi, bu esa o‘z navbatida ta‘lim tizimlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston uchun bu yondashuv, ta‘lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish va dunyo bo‘ylab tan olinishini ta‘minlashda yordam beradi.

Ushbu muhokama orqali ko‘rinib turibdiki, ilg‘or xorijiy tajribalar O‘zbekiston ta‘lim tizimining turli jihatlarini yaxshilashga katta hissa qo‘shishi mumkin. Eng muhimi, bu tajribalar orqali ta‘lim sifatini oshirish va jahon standartlariga moslashuvchan ta‘lim tizimini yaratish yo‘lida qadamlar qo‘yish zarur.

Tadqiqotning asosiy xulosalariga ko‘ra, ta‘lim sifatini oshirish uchun quyidagilar muhimdir:

- O‘qituvchilarning malakasini oshirish va ularning professional rivojlanishini ta‘minlash.
- Ta‘lim muassasalariga ko‘proq mustaqillik va resurslarni taqdim etish.
- O‘quv dasturlarini zamonaviy talablarga moslashuvchan qilish.
- Ta‘lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.
- Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va eng yaxshi tajribalarni almashish.

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ilg'or xorijiy tajribalar ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilashga yordam beradi va ularni o'z ta'lim tizimimizga tatbiq etish orqali nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, balki ularni kelajakda raqobatbardosh kuch sifatida tayyorlash mumkin. Shu bilan birga, ilg'or tajribalarni tatbiq etish jarayonida milliy madaniy va ijtimoiy xususiyatlarni hisobga olish zarur.

Xulosa qilib aytganda, ilg'or xorijiy tajribalarning O'zbekiston ta'lim tizimiga integratsiyasi ta'lim sifatini oshirishda muhim qadam bo'lib, bu jarayon barcha manfaatdor taraflarning faol ishtirokini talab qiladi. Ushbu tajribalarni o'rganish va tatbiq etish orqali biz o'z ta'lim tizimimizni yanada rivojlantirish va xalqaro miqyosda tan olinishiga erishishimiz mumkin.

Adabiyotlar ro'yhatiSahlberg, P. "Finnish Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland?" 2011, 2-3-b, 45-b.

2. Lee, C. K. "Singapore's Education System: A Pathway to Success." 2014, 10-30-b.

3. Tucker, M. S. "Surpassing Shanghai: An Agenda for American Education Built on the World's Leading Systems." 2011, 48 b.

4. Schleicher, A. "Preparing Teachers and Developing School Leaders for the 21st Century: Lessons from around the World." 2012, 11-15-b

5. Schleicher, A. "Preparing Teachers and Developing School Leaders for the 21st Century: Lessons from around the World." 2012, 9, 21-b.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'ZLASHTIRMOVCHILIKNING OLDINI OLIHGGA YO'NALTIRILGAN TADBIRLAR

O. Shirinov

*Sirdaryo viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedراسi mudiri*

Kalit so'zlar: O'quvchi, o'zlashtirilmaslik, boshlang'ich sinflar.

Annotatsiya: O'zlashtirilmaslikning oldini olishga yo'naltirilgan umumta'lim maktab ta'dbirlariga quyidagilar kiradi.

O'zlashtirilmaslikning oldini olish bo'yicha pedagogika va psixologiya fanlarining ilg'or tajribalarini, tavsiyalarini maktab jamoasida umumiy o'rganishni tashkil etish.

Bu masalalarni pedagogik jamoa yig'ilishlarida, o'quvchilar konfrensiyalarida muhokama qilish maqsadga muvofiq metodik birlashmalarning yig'ilishlariga mustaqil o'rganish yo'li bilan muhokama qilinishi mumkin. Bu ishda o'quvchilar o'zlashtirilmalikning oldini olish bo'yicha maktab o'quvchilarining va alohida o'quvchilarning muvaffaqiyatli faoliyati haqida gazeta va jurnallardan maqolalarni targ'ib qiluvchi stendlar, ko'rgazmalar, ota – onalar faol o'quvchilar uchun seminarlar tashkil etish katta yordam beradi.

2. O'quvchilarning o'qishga bo'lgan hohishi, uni bartaraf etish yo'llari haqida shu sinfdan dars beradigan barcha o'qituvchilar va psixologlarning o'zaro fikrlashishi, ya'ni psixologik – pedagogik konsilumni tashkil etish.

3. Barcha maktablar miqyosida sinflarda o'zlashtirilmaslikning sabablarini tahlil qilish orqali umumlashtirish, ular orasidan mazkur maktab uchun xoslarini aniqlash, o'quvchilar o'zlashtirilmaganligini oldini olish maqsadida o'quv tarbiya jarayonining takomillashtirish bo'yicha maktabdagi ishlarning bosh bo'g'inlarini va asosiy bosqichlarini ajratish.

4. O'zlashtirilmaslikning oldini olishga qaratilgan tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun va o'quv materiallarining bazasini aniqlash bo'yicha ishlarni aniqlash, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning idrok qilishlariga imkon beruvchi diagnostik materiallarni tayyorlash.

5. O'quvchilarni o'qishga munosabatiga salbiy ta'sir etuvchi omillar va hodisalarni aniqlash maqsadida maktab joylarida joylarni o'rganish. Bunday hodisalarni bartaraf etish uchun hokimiyat va jamoat tashkilotlari bilan aloqa o'rnatish..

6. O'quvchilarning ish qobiliyatlarini mustahkamlash va ularni real o'quv ishtiyoqlarini rivojlantirish uchun maktablarda qishki va yozgi sog'lomlashtirish lagerlari va sport guruhlarini tashkil etish.

7. O'quvchilar o'zlashtirilmaganligini oldini olish bo'yicha tadbirlar tizimini amalga oshirish uchun maktab ishida doimo nazorat qilish. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim.

A) Psixologik – pedagogik konsilum natijalarini o'quvchilarning qo'shimcha fandan o'zlashtirayotganligini aniqlash yozma ish natijalarini tekshirish.

B) Dars jarayonida o'qituvchi tomonidan o'zlashtirishning odini olish usullaridan foydalanayotganligiga e'tibor berish, murakkab mavzularga e'tibor berish, muhimini ajratish, o'quvchilarning yangi materiallarini tushunganligini tekshirish. Doimiy mustahkamlash va taqdirlash, xatolar ustida ishlash, o'qishda alohida qobiliyatini, o'quvchilarga individual yondashuv va boshqalar.

V) O'quvchilarning yillik, chorak va har kungi o'zlashtirish yozma ishlari va diagnostik ishlarini doimiy tahlil qilish. Kamchiliklar, ularni yo'qotish bo'yicha tadbirlar tizimini aniqlash.

G) O'quvchilarning o'zlashtirish va tarbiyalanganligi nuqtai nazaridan ularni maxsus hisobda nazorat qilish.

D) O'quvchilar faoliyatidagi kamchiliklarni o'rganish, o'zlashtirish materiallarini egallash maqsadida o'quvchilarning faoliyatini o'zlari tahlil qilishlarini yaxshilash.

Ilg'or o'quvchilar ishidagi tajribalarni umumlashtirish va eksperimental tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha o'zlashtirilmaganlikning oshirilishi bo'yicha umumlashtirish ta'birlaridan tashqari dastlabki jamoalardan sinflararo guruhiy va individual profilaktik tadbirlar ham zarur.

Boshlang'ch sinflarda o'zlashtirilmaslikning oldini olishga yo'naltirilgan tadbirlar tizimini ishlab chiqish, avvalo, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar aqliy taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishni taqozo etadi.

Bu davrga kelib bola atrofida atrofida bilan bola insoniy munosabatlar tizimida ham alohida o'rin egallayotganini, ota-onasi, yaqinlari, atrofida uniga yosh boladek emas, balki o'z vazifalari, majburiyatlari bor bo'lgan, o'z faoliyat

natijasiga ko'ra hurmatga sazovor bo'lishi mumkin bo'lgan alohida shaxs sifatida munosabatda bo'ladilar. Buning natijasida bog'lanish o'z-o'zidan oilasi, sinfi va boshqa jamoalardagi o'z o'rnini anglay boshlaganini ko'rish mumkin. Bu davrda bolaning " *Men shuni xohlayman*" motividan " *Men shuni bajarim kerak*" motivi ustunlik qila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan har bir o'quvchida psixik zo'riqish kuchayadi. Bu nafaqat uning jismoniy salomatligida, balki xatti-harakatida ham, ya'ni ma'lum darajada qo'rquvni kuchayishi, irodaviy faollikning susayishida namoyon bo'ladi. O'zaro munosabatda ma'lum bir natijalarga erishgan, o'zi xohlayotgan narsalarni hamda, o'z oilasida o'zi egallagan o'rnini aniq biladigan bo'ladi. Shuningdek, u o'zini-o'zi boshqarish malakasiga ega bo'ladi, vaziyat va holatga qarab ish yurita oladi. Bu yoshdagi bolalar xatti-harakatlari va motivlari ularning o'zlariga beradigan baholariga harab " *Men yaxshi bolaman*" emas, balki bu xatti-harakatlar o'zgalari ko'z o'ngida qanday namoyon bo'lishiga qarab baholashini tushuna boshlaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Асмолов А.Г., Цветков А.В. О роли символа в формировании эмоциональной сферы младших школьников с трудностями развития психики// Вопросы психологии.
2. Asomova R.Z. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi: Psixol. f. n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis.
3. Бекниязова Л.Б. Психологические особенности адаптации у младших подростков: Дисс. канд. психол. наук.
4. Васильев И.А., Магомед-Эминов М.Ш. Мотивация и контроль за действием.
5. Венар Ч., Керич П. Психопатология развития детского и подросткового возраста.
6. Виллюнас В.К. Психологические механизмы мотивации человека.

O'QUVCHILAR MOTIVATSIYASINI O'RGANISHGA NISBATAN NAZARIY YONDASHUVLAR MAZMUNI

Nazarova Mamlakat Jamalovna

Guliston shahar 1-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Kalit so'zlar: Motivatsiya haqida tushuncha, uning kelib chiqishi, turlari, motivatsiya qo'llash usullari.

Annotatsiya: Mazkur tezisdan motivatsiya so'ziga ta'rif va uning kelib chiqishi, qo'llash usullari, turlari keng yoritib berilgan hamda bu ma'lumot asnosida umumiy xulosalar berib o'tilgan.

Motivatsiya – bu odamlar va boshqa hayvonlarning ma'lum bir vaqtda xatti-harakatni boshlashi, davom ettirishi va to'xtatishi sababi. Motivatsion holatlar odatda inson ichida harakat qiluvchi, maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatlarga moyillikni yaratadigan kuchlar sifatida tushuniladi. Ko'pincha turli xil ruhiy holatlar bir-biri bilan raqobatlashadi va faqat eng kuchli holat xatti-harakatni belgilaydi. Bu shuni anglatadiki, biz biror narsani amalga oshirmasdan turib, biror narsa qilishga undashimiz mumkin. Motivatsiyani ta'minlovchi paradigmatic ruhiy holat, istak deyiladi. Ammo boshqa turli holatlar, masalan, nima qilish kerakligi

yoki niyatlari haqidagi e'tiqodlar ham motivatsiyani ta'minlashi mumkin. Motivatsiya "motiv" so'zidan olingan bo'lib, u kishining ehtiyojlari, istaklari, yoki undovlarini bildiradi. Maqsadga erishish uchun shaxslarni harakatga undash jarayoni. Ish maqsadlari kontekstida odamlarning xatti-harakatlarini kuchaytiradigan psixologik elementlar pulga bo'lgan xohishni o'z ichiga olishi mumkin. Ba'zi hollarda motiv alohida harakatlarga undab, bu harakatning maqsadi bilan bevosita mos keladi. Ko'pincha murakkab faoliyatda motiv harakat maqsadiga bevosita mos kelmay, bir maqsadni amalga oshirish uchun bir qancha harakatlarni bajarishga to'g'ri keladi. Shuning uchun faoliyat predmeti motiv harakatining o'zidir. Haqiqatda, motivlar faollashgan, maqsadga qaratilgan, faqat xayolda amalga oshuvchi yoki idrok qilingan bo'lishi mumkin. Asosan, bularning zaminida u yoki bu ehtiyojlar turadi.

Harakatlarning negizini tashkil etuvchi hayajon, harakatga nisbatan qiziqishlar ularning motivi sifatida namoyon bo'ladi. Individ uchun ahamiyatli bo'lgan qandaydir hayajon undash bilan birga, unda shaxsiy ma'noni anglatadi. Bu motivlar ma'no anglatuvchilar deb ataladi.

Insonning ma'lum bir qadriyatlarga moslashishi (yo'naltirilishi) ularga taxminiy ijobiy baho natijalari orqali singib boradi. Shu bilan birga, subyekt uni ongli ravishda loyihalashtirib olgan taqdirdagina u yoki bu qadriyatga yo'naltirish haqida mulohaza yuritish mumkin. Ba'zi individlar qadriyatlar yo'naltirishning shakllanish yo'li qadriyatlarga nisbatan ehtiyojlar orqaligina emas, to'g'ridan-to'g'ri qarama-qarshi ma'noda: tevarak-atrofini o'rab turgan odamlarning qadriyatlarga qaratilgan qarashlarini o'zlashtirib olgan holda buni o'z xulqiga va faoliyatiga moslashtiradi, xuddi shu yo'l bilan ilgari o'zida bo'lmagan yangi ehtiyojlar negizini tiklaydi.

Faoliyatning mazmuni faqat shu faoliyatni qoniqtira oladigan ehtiyojlar mundarijasi bilangina belgilanmaydi. Inson asosiy ehtiyoj bilan bir yo'nalishda harakat qilayotgan vaziyatning obyektiv va subyektiv imkoniyatlarining mavjudligini, ehtiyojlar bor-yo'qligini hisobga oladi. Mana shundan keyingina motiv asosiga (ahamiyatiga, qimmatiga, ma'nosiga) ko'ra, subyekt uchun mos bo'lgan xulqni subyektiv asosda hal qilishga undaydi, yo'qsa subyekt ushbu xulqni oqlab, qonunlashtirib qo'yadi.

Motiv bir xulqni ikkinchi xulq bilan, kamroq qo'llanadiganini ko'proq qo'llanadigani bilan almashtiradi. Shu yo'l bilan ko'zlangan faoliyatga imkoniyati yetadi. Harakatlar ikki motiv bilan shunday bog'langanki, ulardan biriga yo'naltirishda birinchi qadam bo'lib xizmat qiladi va ayni paytda boshqasiga qaytishda ham shu tarzda xizmat qiladiki, shunday ziddiyatli ma'noda ish tutishga qodirdir.

Qahramonona ish – bu shunday ishki, bunda inson qandaydir harakatni sodir qiladi va bir vaqtning o'zida ko'rquvni, o'zini saqlash instinktini va jamiyat bosim kuchini yenga oladi. Nomardlarcha ish – bu ham qiyinchiliklarni yengishdir, lekin endi bu shaxsiy ziddiyatdir.

Motivatsiya deganda biz shaxsning nima uchun ma'lum vaqtda boshqa fikr va harakatlarni emas, aynan shu fikr va harakatni bajarishga qaror qilganligini asoslab berishi, tushuntirib berishidan iborat mantiqiy jarayonni tushunamiz.

Motivatsiyani shakllantirish mexanizmlari esa, bizning fikrimizcha, quyidagi nazariy tushunchada ifoda qilinadi.

Birinchi, iyerarxik boshqarishning yaratilishi, ikkinchi, bunday boshqarishning yuqori darajasi bilan ehtiyojlar va qiziqishlarning uyushmagan shakllarini qarama-qarshi qo'yish.

Motivatsiyaning shakllanishi ikkita mexanizmga ega. Birinchisi – uyushmagan holat yoki tarbiyachilar tomonidan ataylab shunday tashkil qilinganki, bunda situativ yoki vaziyatga qarab qiziqishlarini faollashtirgan sari o'quvchilarda qat'iy motivatsiyalar paydo bo'ladi. Bu "quyidan yuqoriga" qarab shakllanish mexanizmidir. Ikkinchi jarayon "yuqoridan pastga" mexanizmi bo'lib, uning ma'nosi shundan iboratki, bunda tarbiyalanuvchi tayyor holdagi qiziqishlar, maqsad, intilish, shaxsga qaratilganlik mazmuni va hokazolarni o'zlashtirib olish va o'zida shakllantirish hamda sekin-astalik bilan tushunchalarni ichki dunyosiga qabul qilib olish va haqqoniy harakat qila bilishdir.

Shaxs motivatsiyasi tizimining bekamu ko'st shakllanishida ana shu ikkala mexanizm mujassam bo'lishi shart.

Mayl (maqsad, intilish, ehtiyoj, ideal) esa shaxsning rivojlanishida eng ajoyib ko'rinishlardan biridir.

Mayl deb biz intilish, maqsad, ehtiyojlarning hali yuzaga chiqmagan kelajak holatlarga yo'nalishini tushunamiz. Mayllar hozirgi (ixtiyorsiz) va kelgusi (ixtiyoriy) hissiyotlarning qarama-qarshiliklari bilan izohlanadi. Faoliyatga qaratilgan barcha mayllar 4 ta omillar yig'indisidan tashkil topadi:

1. Faoliyatning to'g'ridan-to'g'ri yakuniy natijalari.
 2. Rag'batlantiruvchi motivlar.
 3. Ixtiyorsiz xulq: biron kuchga bo'ysunish yo'li bilan jazodan qutulishi.
 4. Faoliyat jarayonining o'zidan zavq olish.
- Aniq faoliyat hamisha umumiy jihatdan motivlashgan bo'ladi. Bunda:
- a) faoliyatning barcha motivlari ma'lum darajada iyerarxiyalashgandir;
 - b) motivlar bir-biriga tobe emas, balki o'zaro bog'liqdir;
 - v) ba'zi motivlar salbiy shaklda namoyon bo'lishi mumkin.

Faoliyatdan qoniqish va zavq olishda faoliyatning obyektiv ahamiyati va shaxsiy ma'nosi yo'qolmasligi kerak. Agar faoliyat ma'lum (aniq) qadriyatlarni yaratishga qaratilsa, xuddi shu qadriyatlar faoliyatning asosiy motivi bo'lishi kerak. Shu bilan bir qatorda, faoliyat jarayonida ham zavq olish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

7. Асмолов А.Г., Цветков А.В. О роли символа в формировании эмоциональной сферы младших школьников с трудностями развития психики// Вопросы психологии.

8. Asomova R.Z. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi: Psixol. f. n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis.

9. Бекниязова Л.Б. Психологические особенности адаптации у младших подростков: Дисс. канд. психол. наук.

10. Васильев И.А., Магомед-Эминов М.Ш. Мотивация и контроль за действием.

11. Венар Ч., Керич П. Психопатология развития детского и подросткового возраста.

12. Виллюнас В.К. Психологические механизмы мотивации человека.

**OLIJ TA'LIM TIZIMIDA MA'NAVIJ TARBIYANI TASHKIL ETISH
SOHASIDAGI XALQARO TAJRIBALAR VA ULARDAN
FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

Po'latov Djavdat Abdujabborovich

***O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Pedagogika va psixologiya"
kafedrasida dotsenti Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***

Tel (90) 3587827

Annototsiya. Mazkur maqolada OTMda ma'naviy-ma'rifiy ishlar monitoringini takomillashtirish muammosini hal qilishda dastlab u orqali qanday masalalarga e'tibor qaratish lozimligini aniqlashtirib olish, xorijiy davlatlarda oliy ta'lim muassasi faoliyatini monitoring qilish bo'yicha har xil yondashuvlar ishlab chiqilganligi ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar, monitoring, ta'lim tizimi, Buyuk Britaniya Fransiya, Belgiya, xorijiy tadqiqotlar tahlili, oliy ta'lim muassasi.

Xalqaro miqyosda BMTning International Institute for Sustainable Development (IISD), Swiss Federal Institute of Technology (Shveysariya), University of Bridgeport (AQSH) kabi dunyoning etakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlari, Olomoutskiy universiteti Indigenous Teacher Education Project (ITEP) loyihasi (Chexiya) tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarni o'rganib chiqish va tarbiyaviy faoliyat jarayoniga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki so'nggi yillarda ko'pgina mamlakatlarda ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Samarali ta'lim tizimining ahamiyatini anglash ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik kontseptsiyalarini qabul qilishga sabab boldi. Masalan AQSHda 2000 yilda ta'lim departamenti tomonidan ishlab chiqilgan «Milliy ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish rejasi» bajarilmoqda, Evropada qabul qilingan va muvoffaqiyatli amalga oshirilayotgan milliy dasturlarni yo'lga qo'yish bilan bir qatorda, Evropa Ittifoqi Komissiyasi ta'lim istiqbollari doir bir qator millatlararo loyihalar tasdiqlangan va moliyalashtirmoqda. Rossiyada esa «Milliy ta'lim doktrinasi» va «Ta'lim tizimining umumiy informatsion muhitini yaratish» bo'yicha maqsadli rejalar qabul qilingan. Tabiiyki, O'zbekistonda ham «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning, qolaversa, "2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi" Davlat dasturining mantiqiy davomiyati sifatida, ta'lim tizimini jahon andozalari darajasiga ko'tarish bo'yicha, jumladan, bu sohada innovatsiyalarni qo'llab – quvvatlash, informatsion texnologiyalarni tezkorlikda joriy etish bo'yicha bir qator qarorlar va eng muhimi ularni amalga oshirish bo'yicha e'tiborga loyiq tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Yuqorida biz bejiz, ta'lim tizimida berilayotgan e'tibor haqida to'xtalmadik. Bugungi kunda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifatli tashkil etish ijtimoiy buyurtma va

davlat ta'lim standartlariga mos tarzda tarbiyaviy tadbirlarni talaba yoshlarga ta'sir etganlik darajasining natijasini monitoring qilish Oliy ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar sifatini yangi bosqichga ko'tarish imkoniyatlarini ko'tarish, reja va dasturlarni ushbu nuqtai nazardan yondashgan holda takomillashtirish masalasi har qachongidan ko'proq dolzarblik kasb etmoqda. Bu sohada xalqaro tajribalarni o'rganish, umumlashtirish, ularning ijobiy jihatlarini o'zlashtirish alohida amaliy ahamiyatga ega. Oliy ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli va sifatli tashkil etish va 2030 yilga qadar belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishishda muhim ijtimoiy ahamiyatga ega.

Demak, OTMda ma'naviy-ma'rifiy ishlar monitoringini takomillashtirish muammosini hal qilishda dastlab u orqali qanday masalalarga e'tibor qaratish lozimligini aniqlashtirib olish va shundan keyingina navbatdagi qadamlarni bajarish maqsadga muvofiqdir. Chunki har qanday faoliyat qilinadigan ishni belgilash orqali boshlanadi.

Xorijiy davlatlarda oliy ta'lim muassasi faoliyatini monitoring qilish bo'yicha har xil yondashuvlar ishlab chiqilgan. Unga ko'ra jahon miqyosida OTM reytinglariga ya'ni baholanayotgan OTM boshqasidan ustunligini tasniflaydigan songa ko'ra davlatlarning ta'lim tizimlari va oliy ta'limni baholash usullari mavjud.[10]

Shuningdek AQSH, Angliya, Yaponiya, Koreya, Xitoy, Niderlandiya, Rossiya kabi davlatlarning ta'lim muassasasi reytingi aniqlash va monitoring o'tkazish bo'yicha boy tajribaga ega.

Angliyada OTM reytingini monitoring qilish ommaviy axborot vositalari statistik manbalardan olingan ma'lumotlarga asoslanib aniqlansa, AQSHda talabalardan so'rovnomani olish asosida, Germaniyada reyting bo'yicha qaror qabul qilishda OTM va ular joylashgan shaharlar haqida ma'lumotlar, talabalar kontingenti, kurslar va o'qitish bo'yicha asosiy ma'lumotlar va talabalar fikrlari inobatga olinadi.

Yaponiyada universitetlar reytingi asosan 3 ta yo'nalishda olib boriladi. Ya'ni: ta'lim faoliyati, ilmiy tadqiqot faoliyati va rivojlanishga qo'shilgan hissa. Buyuk Britaniya Frantsiya, Bel'giyada o'zaro hamkorlik tarbiya maktablarida Bell-Lankaster tizimi orqali monitoring o'tkazilgan.

Biz bejiz Yuqorida rivojlangan mamlakatlar reytingini monitoring qilish xususida to'xtalmadik. O'rganib chiqqanimizdek aksariyat OTM faoliyati ta'lim faoliyati, ilmiy tadqiqot faoliyatiga urg'u berilgan bo'lib, ma'naviy ma'rifiy ishlarni monitoring qilish borasida deyarli to'xtalinmagan.

Shu bilan birga rivojlangan davlatlarda monitoring tizimi pedagogik jarayon amaliyoti ECEC (Early childhood education and care) ning barcha tizimlarida Angliya va boshqa amaliy tadqiqotlar o'tkaziladigan ko'plab davlatlarda tizimli tarzda nazorat qilib boriladi. Amaliy tadqiqotlar o'tkazuvchi davlatlarda ko'proq nazorat qilinadigan ECEC tizimlarining jabhalarini 4 ta asosiy sohaga ajratishimiz mumkin:

- xodimlar sifati;
- xizmat ko'rsatish sifati;
- o'quv dasturlari;

-bolaning rivojlanishi; [4]

AQSH ta'limida monitoring tushunchasi avvalo ta'limning yuqori va quyi organlarida teskari aloqani yo'lga qo'yish, shuningdek ta'lim dasturlarining natijaviylikni kuzatish bilan bog'liq [5]

Shu nuqtai nazardan xorijiy tadqiqotlar tahliliga tayanib aytishimiz mumkinki, OTM ma'naviy - ma'rifiy ishlarni tashkil etish ma'naviy (tarbiyaviy tadbirlar, tanlovlar, ijodiy uchrashuvlar, sport musobaqalari) va ma'rifiy (ta'limiy jarayonni qamrab olgan barcha faoliyat mahsuli: olimpidalar, ilmiy seminarlar...) o'zaro munosabati tarkiban quyidagi qismlardan iborat: 1) ma'naviy va ma'rifiy ishlarni tashkil etishda o'quv material: metodik ta'minot va ko'rgazmali qurol: 2) dasturiy ta'minot: ma'naviy-ma'rifiy tadbir rejasining strukturasi, ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari mazmunini baholash va nazorat qilish tarbiyaviy faoliyat jarayonini monitoringini tashkillashtirishdagi bosh munosabat va uning turli ko'rinishlariga qarab aloqa turlari ham aniqlanadi.

Shundan kelib chiqib biz, o'z tadqiqotlarimizda:

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish didaktika nuqtai nazaridan o'qituvchi va talabalar hamkorligidagi ikkita sub'ektning ta'lim (o'qitish) va tarbiya (ijtimoiy jarayon)ning birgalikdagi kooperativ shirkat faoliyati bo'lib, mazkur jarayonga pedagog tomonidan amalga oshiriladigan uzluksiz, izchil faoliyat sifatida qaraymiz;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish doimiy harakatdagi dinamik ijtimoiy tizim sifatida tarbiyaviy faoliyatini tashkil etish ob'ekti hisoblanadi va u ijtimoiy tizimlarga xos bo'lgan barcha xususiyatlarni o'zida jamlashini ta'kidlaymiz;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga metodologik yondashuvlarni didaktikaning umumiy qonuniyatlari, tamoyillari va funktsiyalaridan kelib chiqqan holda amalga oshirish lozim, deb hisoblaymiz.

I.A. Gal'mukova fikricha, pedagogik monitoring, pedagogik jarayonning holatini kuzatish (ko'rsatkichlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash), o'quvchilar rivojlanishini bashorat qilish va tuzatishni ta'minlashdan iborat bo'lishi kerak. [11]

A.N.Mayorov ilmiy tadqiqotlarida ta'lim monitoringi tushunchasiga quyidagicha tasnif beradi. Aniq bir ob'ekt yoki jarayonni nazoratga olishda monitoring metodologiyasi mavjud bo'lib, unda jarayonga baho berish, tashqi omillarning ta'siri natijasida ro'y beradigan o'zgarishlarni kuzatish mumkin. [12]

V.A.Ivanova., T.V.Levinalar tomonidan "monitoring" tushunchasi lotincha monitor-eslatish, nazorat qilish so'zidan kelib chiqqan. Uslubiy nuqtai nazardan monitoring fan mazmuniga befarq bo'lmagan universal faoliyat turi sifatida qarash kerak. Monitoring, har qanday jarayonni qurishda, joriy kuzatishlar natijalarini boshqaruv jarayoniga kiritish uchun real ob'ekt muhitida sodir bo'layotgan hodisalarni doimiy ravishda kuzatib borish muhim bo'lganda zarur

Monitoring kontseptsiyasi teskari aloqa, aks ettirish, nazorat qilish, sertifikatlash kabi umumiy ilmiy pedagogik va psixologik tushunchalarga yaqin, ammo bu jarayonlar faqat monitoringning alohida elementlari yoki uning alohida holatlari hisoblanadi.

V.A.Ivanova., T.V.Levinalar tomonidan bildirilgan fikrlarga tayanib biz, ma'naviy-ma'rifiy monitoringni tashkil etishning bir qator o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etdik. Bular:

Birinchi, ma'naviy-ma'rifiy monitoringni ko'plab funktsiyalarni amalga oshiradigan yaxlit tizim;

Ikkinchi, monitoringni boshqa shunga o'xshash jarayonlardan ajratib turadigan quyidagi jihatlarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin: uzluksizlik (doimiy ma'lumotlarni yig'ish;)

diagnostika (nazorat qilinadigan ob'ekt, tizim yoki jarayonning haqiqiy holatini bog'lash mumkin bo'lgan model yoki mezonlarning axborot mazmuni (eng muammoli ko'rsatkichlar va mezonlarni kuzatish mezonlariga kiritish, ular asosida kuzatilayotgan jarayonlardagi buzilishlar to'g'risida xulosa chiqarish mumkin;

ilmiy xarakter (modelning haqiqiyliigi va nazorat qilinadigan parametrlar teskari aloqa (natijalar to'g'risida monitoring ob'ektining xabardorligi, bu kuzatilayotgan jarayonga tuzatishlar kiritishga imkon beradi;

teskari aloqa (natijalar to'g'risida monitoring ob'ektining xabardorligi, bu kuzatilayotgan jarayonga tuzatishlar kiritishga imkon beradi)

Oliy ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar monitoring ob'ektlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

OTM faoliyat yuritayotgan professor - o'qituvchilarning "Ustoz shogird ishlari", ta'limiy va tarbiyaviy faoliyat ko'rsatkichi;

-t'utorlar va pedagoglarning ma'naviy-ma'rifiy tadbirlari;

-talabalarning akademik ko'rsatkichlari;

-talabalarning shaxsiy rivojlanishi;

-o'quv guruhini shakllantirish;

Talabalar shaxsini rivojlantirish, shuningdek, ularning ta'lim va tarbiyaviy-kasbiy faoliyatini rivojlantirish bo'lgan monitoring oliy ta'lim tizimi uchun katta ahamiyatga ega

Rivojlangan davlatlar tajribasi va tahlillar shuni ko'rsatdiki, ma'naviy ma'rifiy ishlarni tashkil etish monitoringini takomillashtirish jarayonining bir necha bosqichda amalga oshirilishi hamda ularning natijalarini korreksion tahlil qilish tarbiyaviy ishlarni oqilona tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar natijasida ma'naviy ma'rifiy ishlarni tashkil etish monitoringini takomillashtirish bo'yicha ish rejada belgilangan ishlarni amalga oshirish "yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. Unga ko'ra: professor o'qituvchi mehnat qiladigan ta'lim muassasida "Ustoz-shogird" ishlarini rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan aniq tadbirlar, mexanizmlar, muddatlar, mas'ullar, hamda kutilayotgan natijani o'zida aks ettirgan. Quyida biz jadval ko'rinishida OTM ma'naviy ma'rifiy ishlarni tashkil etish monitoringini takomillashtirish bo'yicha yo'l xaritasini keltirib o'tamiz. "Yo'l xaritasi" ni ishlab chiqishda professor o'qituvchi va t'utorlar o'zi faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda uchraydigan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish va uni rivojlantirish Yuzasidan belgilangan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan. "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish va baholash jarayonida professor o'qituvchilar faoliyatini, ma'naviy ma'rifiy ishlarni

rejalashtirilganligini analitik va strategik tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T: O‘zbekiston, 2023. – <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – QHMMB, 24.09.2020. 03/20/637/1313-son. <https://lex.uz/uz/>

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi PF-165-son «2022–2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni, 06/22/165/0615. <https://lex.uz/uz/>

4. Каримова Г.Қ. Шахсга йўналтирилган таълим жараёнида педагогик мониторинг таркиби ва мазмунини такомиллаштириш . Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент-2019

5. Юзликаева Э.Р. Педагогический мониторинг в личностно ориентированном образовательном процессе в системе высшего образования. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. 2007.-12-13,21, 42, 56-58 с

6. Вахобов М.М. Умумий ўрта таълим тизимида ўқитиш сифати мониторинги моделини такомиллаштириш. П.ф.д. автореферати. Тошкент, – 2016. – 81 б.

7. Каримова Г.Қ. Шахсга йўналтирилган таълим жараёнида педагогик мониторинг таркиби ва мазмунини такомиллаштириш . Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент-2019

8. Маҳманов О.Қ. Олий таълим ва илмий тадқиқот муассасалари илмий салоҳиятини мониторинг қилиш усул ва моделларини яратиш. Техника фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент-2017

9. Ахмедов М.У. Умумтаълим мактаб директорларининг малакасини ошириш жараёнида таълим сифати мониторингини такомиллаштириш. пед. б.ф.д (PhD)...дисс. автореферат. Тошкент, 2019. – 47 б.

10. Маҳманов О.Қ. Олий таълим ва илмий тадқиқот муассасалари илмий салоҳиятини мониторинг қилиш усул ва моделларини яратиш. Техника фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент-2017

11. Гальмукова И.А. Педагогический мониторинг в контексте педагогики и дидактики // Фундаментальные исследования. – 2005. – № 3. – С. 84-85; URL: <https://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=5888> (дата обращения: 03.12.2023).

12. Майоров А.Н. Мониторинг в образовании.-М.:Интеллект-Центр 2005-424 с

YOSHLARNI EKOLOGIK TARBIYALASHDAGI MANZARA JANRINING O'RNI

D.B.Karshiboyeva

stajyor o'qituvchi, Guliston davlat universiteti, karshiboyeva89@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda yoshlarimizda ekologik ta'lim-tarbiyani yanada rivojlantirish, ona tabiatning tabiiyligini asrab-avaylash va kelajak avlodga butunligicha yetkazishdagi manzara janrining o'rni xususida so'z yuritilgan.

Tayanch so'zlar: ekologiya, tabiat, ta'lim-tarbiya, tasviriy san'at, manzara, janr, rassom, kompozitsiya.

Ona tabiatning o'zi buyuk musavvir bo'lib, jamiki tirik mavjudotlar uchun muqaddas zamindir. Zero, tabiat insoniyat va hayvonot olamining barcha ehtiyojlarini qondiradi. O'z navbatida biz ham tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'la boshlaymiz. Unga mehr qo'yamiz. Lekin ona tabiatga muhabbat bilan masala hal bo'lib qolmaydi. Biz «Tabiatni sevamiz» deb bong urdigu, biroq uni asrab-avaylashda biroz loqaydlik qilib qo'ymoqdamiz. Ana shu e'toborsizligimiz sabab kundalik hayotimizga yangi «Ekologiya» deb nomlanuvchi fan kirib keldi. Ushbu atama dastlab taniqli nemis biologi Ernest Gekkel tomonidan uning «Organizmlarning umumiy morfologiyasi» (1866-y.) va «Olam vujudga kelishining tabiiy tarixi» (1868-y.) kabi ilmiy asarlarida keltirilgan. Unga ko'ra ekologiya lug'aviy jihatdan yunoncha; oikos (oikos) - yashash makoni, o'rni, joyi hamda logos (logos) - fan, mantiq so'zlari birikmalaridan tuzilgan atamadir. Ma'nosiga ko'ra tirik organizmlarning yashash sharoiti yoki tashqi muhit bilan o'zaro munosabatini anglatadi.³⁷

Bugungi zamon talabi ilm – fan va texnika taraqqiyot bo'sag'asida barchamizning ekologik ta'lim - tarbiya va madaniyatimiz yetarlicha shakllangan bo'lishi, nafaqat jamiyat balki butun dunyo oldidagi eng oliy burchimizdir. Ekologik ta'lim - tarbiya va madaniyat bu jamiyatning tabiatga, atrof-muhitga ongli munosabati, u haqidagi chuqur bilimga ega bo'lishi, flora va fauna olamiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishi, yer osti va usti foydali qazilmalaridan oqilona foydalanish va ularni ko'paytirish demakdir. Shu kabi fazilatlarni o'zida mujassam etgan insonni ekologik madaniyat egasi e'tirof etish mumkin. Ishlab chiqarish jarayonlari oqibatida muhitning ifloslanishi kelgusi avlodlar uchun mutlaqo ochiq-ko'rinib turgan xavf bo'libgina qolmay, balki u hozirning o'zida ham ijtimoiy halokat yoqasiga kelib qoldi.³⁸

Bugun fan va texnikaning shiddatli taraqqiyoti natijasida, ona zamin xam halokatga yuz tutmoqda. Tabiatning in'omlari evaziga biz uni asrab-avaylashimiz, yashil makonga aylanishida o'z xissamizni qo'shmog'imiz darkor. Xalqimiz va ayniqsa, yoshlarimizda mehr – muhabbat, go'zallik kabi tuyg'ular, san'at asarlarini anglay olish, tabiat boyligini asrash va qadrlay bilish kabi ko'nikmalarini

³⁷ P.S.SULTONOV.EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH. «M U SIQ A » nashriyoti Toshkent 2007. 16 bet.

³⁸ Yu. Shodymetov. IJTIMOY EKOLOGIYAGA KIRISH. Toshkent "O"QITUVCHI" nashriyoti 1994 y. 11 bet.

shakllantirmog‘imiz lozim. Bunda tasviriy san‘atning o‘rni ahamiyatlidir. Zero, san‘at ma‘naviy madaniyatning tarkibiy qismi bo‘lib, unga oshufta qablardan yomonlik chiqmaydi. Shu boisdan ham, yurtboshimiz tashabbusi bilan bugun ijodkorlar faoliyati qo‘llab – quvvatlanib, ko‘plab qaror va farmonlar chiqarilmoqda. Jumladan, 2017-yil 3-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyev ijodkorlar bilan uchrashuvda taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida madaniyat, adabiyot, va san‘at sohasini rivojlantirish vazifalarini va mavjud muammolarni hal etish yo‘llarini belgilab berdi. Bundan tashqari 2017-yil 16- avgustda Yurtboshimiz tomonidan “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3219 sonli qarori³⁹ shu yo‘nalishdagi yana bir muhim hujjat bo‘ldi.

Muxtasar aytganda, yoshlar milliy merosimizni o‘zlashtirish, ona tabiatni asrab avaylash hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan yaqindan tanishishlari uchun qator imkoniyatlar yaratilib, bog‘cha va maktablar tasviriy san‘at mashg‘ulotlarida borliq va san‘atni idrok etish, naturaga qarab ishlash, kompozitsiya, haykaltaroshlik kabi mavzular o‘tilmoqda. Tasviriy san‘at ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida muhim bo‘lib, ekologik ta‘lim vositasi sifatida qaraladi. Tabiatdagi tabiiy nafosat, ranglar uyg‘unligi ijodkorga asarning mo‘jizakor va jonli chiqishida yordam beradi. Tasviriy san‘at asarlari va ranglar, yoshlarda, san‘atni tushunish uchun zarur bo‘lgan estetik tuyg‘uni, tasavvurni, rang, shakl, harakat, nisbat, ritm go‘zalligi kabi tushunchalarni rivojlantirishga zamin yaratadi. Jumladan, ijodiy qobiliyatlar, kuzatish, tahlil qilish, badiiy did, kuchli iroda kabi fazilatlarini tarbiyalaydi. Bolalar bog‘chasida estetik va ekologik tarbiya muammolarini hal qilish bo‘yicha xilma-xil usullardan foydalaniladi. Masalan: san‘at asarlari bilan tanishtirish, san‘at galereyalariga ekskursiyalar, taniqli rassomlarning rasmlari, reproduksiyalari, bolalar o‘rtasida ijodiy ko‘rgazmalar, shuningdek, har bir bola tashabbuskor bo‘lishi va o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi mumkin bo‘lgan mustaqil tadbirlarni tashkil etish lozimdir. Tasviriy san‘at va yoshlarning tasviriy faoliyati ularning barkamol rivojlanishida, atrofdagi dunyoga, tabiatga mehr-muhabbat kabi tuyg‘ularni kamol topishida yordam beradi.

Tasviriy san‘atda borliq go‘zalligini tasvirilaydigan janrlaridan biri manzara janridir. Ko‘plab rassomlar manzara janrida ijod qilganlar. Ulardan S.Shedrin, A.Savrasov, I.Levitan, S.Chuykov, O‘.Tansiqboyev, N.Karaxan, I.Shishkin, V.Mixaylovich va boshqalarining ijodini kuzatar ekanmiz undagi perspektiva, kompozitsiyalar, ranglar va shu kabi har bir nuqtalarning o‘z o‘rnida qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu janrda ijod qilishda, dastlab ishni tabiatni kuzatishdan so‘ngra qalamchizgilardan boshlaymiz. Kerakli nuqtadan tabiatdagi narsalarning alohida qismlarini, biror-bir bo‘lagini o‘ziga qarab tasvirlash nihoyatda foydalidir. Masalan, ufq chizig‘i va osmon, daraxt tanasi,

³⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyev. Toshkent sh. 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3219-son [qarori](#). [LexUZ](#)

gullar, qushlar va hokazo. Bunda narsalarning xarakterli belgilari, kompozitsiyasi, perspektivasi va yo‘nalishini to‘g‘ri tasvirlashga harakat qilish kerak. Keyinchalik esa biror-bir daraxtni osmondagi bulutlar bilan birgalikda chizish kabi vazifalarni bajarib, asta-sekin butun manzara ko‘rinishini chizishga o‘tiladi. Manzara ishlashda perspektiva qonuniga ya‘ni yaqinda joylashgan narsalarning shakli, rangi aniq va tiniq, uzoqdagi joylashgan buyumlarning rangi va xajmi xiraligi bilan farqlanishi ahamiyatlidir. Ranglar bilan ishlash vaqtida asosiy e‘tibor tabiatdagi narsa rangining atrofdagi boshqa narsalar rangiga ta‘sir etishiga, kompozitsiya koloritining yaxlitligiga qaratiladi.

Biz yoshlarni tasviriy san‘atga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish barobarida ularni tabiatni kuzatish, unga qoyil qolish, manzara go‘zalligini ko‘rish qobiliyatlarini rivojlantirishga harakat qilmog‘imiz lozim. Zero, tabiatdagi ranglar uyg‘unligi, go‘zalligini kuzatish mobaynida unga mehrimiz yanada ortadi va uning maftunkorligini saqlab qolish uchun harakat qilamiz. Buning uchun yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek, yosh avodni tasviriy san‘atga yanada qiziqtirishimiz, ko‘rgazmalarga san‘at galereyalariga ko‘proq jalb etmog‘imiz kerak bo‘ladi va bu o‘z navbatida kelajakda yoshlarimizda estetik didni shakllanishiga, atrof-muhitni kuzatish uni sevish kabi ko‘nikmalarining shakllanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.P.S.sultonov. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish. «Musiqqa» nashriyoti Toshkent 2007.
- 2.yu. Shodymetov. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. Toshkent “o‘qituvchi” nashriyoti 1994.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyev. Toshkent sh. 2017-yil 16-avgustdagi [PQ-3219-son qarori.](#) [LexUZ](#)

O‘QUV JARAYONINI HAYOTIY VOQELIKKA BOG‘LASH BILAN HUQUQ FANI ASOSIDA O‘QUVCHILARNI HAYOTGA TAYYORLASH

Rixsiboyev Behzod Alisherovich

Sirdaryo viloyat Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi davlat va huquq asoslari fani metodisti (Gmail: b.rixsiboyev3118@gmail.com)

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb bo‘lgan 4K modelini muhimligi, o‘quvchilarni maktabda berilayotgan bilimlarni hayotda qo‘llashning ahamiyati, o‘yinlar orqali ta‘lim berishning afzalliklari (deduktiv ta‘lim) hamda shu usullarni davlat va huquq asoslari fanlarida qo‘llash yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ta‘limiy o‘yinlar, 4K modeli, raqamli texnologiya, ijtimoiy ko‘nikmalar

Аннотация. В данной статье рассматривается значение модели 4К, актуальной на сегодняшний день, важность применения в жизни знаний, полученных учащимися в школе, преимущества обучения через игры (дидактическое обучение) и использования этих методов в преподавании таких предметов как государственные и правовые основы.

Ключевые слова: искусственный интеллект, модель 4К, цифровые технологии, социальные навыки.

Abstract. This article discusses the importance of the 4C model relevant today, the importance of applying the knowledge students learn in school to life, the benefits of learning through games (didactic learning), and the use of these methods in teaching subjects such as government and legal foundations.

Keywords: Artificial intelligence, 4C model, digital technology, soft skills

Shuni ta'kidlash joizki, bugun qaysidir ma'lumotlarni topish uchun inson barmoqlarini qimirlatsa kifoya. Ya'ni oldingi zamon odamlari kabi qaysidir ilmni o'rganishi uchun musofirlikda yurishi shart emas. Shu bilan birga o'qituvchi avvalgiday informatsiya olishi mumkin bo'lgan yagona shaxs ham emas. Bu bo'lsa o'qituvchidan yanada o'z ustida ishlashi va ko'nikmalarini takomillashtirib borishiga majbur qiladi.

Shaxsan men hozirgi o'quvchilarga dars o'tar ekanman ularning ko'zlarida doim "buni o'qishimdan nima ma'no?" qabilida nigohlarga duch kelaman. Agar buni yoshi kattalardan so'rasangiz ham aksariyati bunga faqatgina yuzaki javoblarni qaytara oladilar. Aytmoqchimanki, bu fanlarni nega kerak ekanligini ota-onalar ham tushunib yetganicha yo'q. Ularning aksariyati faqat hayotida qo'llaganlarinigina keraklik deb bilishadi va qolgan narsalarni ortiqcha vaqt sarflash degan xulosaga kelishgan. Haqiqatdan ham shundaymi? Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda xuddiki, oliy ta'lim va o'rta ta'limga sarflangan vaqt, havoga uchirilgan umrdek qaralayotgan postlar hamda video roliklarni kuzatishingiz mumkin. Bu savolga javob qilib shuni aytish mumkinki, bu asosan o'quvchilarni hayotdagi maqsadlari, xohishlari va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda yondashadi. Ko'pchilik o'quvchilar hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib o'zini "soft wear engenering" sohasiga ya'ni hozirda hammaga mashhur bo'lgan IT yoki masofadan turib ishlash sohasini tanlaydi va asosan shu sohani o'rgatayotgan aksar o'qituvchilar oliy ma'lumoti yo'qligini va asosan o'rganishi kerak bo'lgan ko'nikmalar boshqa ekanligini ta'kidlaydi. Buning asosiy sababi bu yo'nalishlar orqali kamroq vaqt sarf etib ko'proq daromad ishlab topish mumkin bo'ladi. Men shaxsan bunga qarshi emasman lekin aytmoqchimanki bu sohadagi yutuqlar ham o'z-o'zidan kelmaydi. Aytaylik IT sohasi vakili faqatgina shu sohanigina o'rganib ish yurita oladimi? Albatta yo'q! Nafaqat bu soha balki barcha sohalarda faqat bittagina narsani o'rganib muvaffaqiyat qozonib bo'lmasligi kundek ravshan. Ya'ni avvalam bor bolalarda har bir soha yuzasida eng kamida fundamental bilimlar bo'lishi zarur. Undan tashqari ingliz tili yoki biror bir xorijiy tilni o'rganmay turib bu sohalarda yetuk mutaxassis bo'lib yetishishingiz mushkul. Yana o'quvchida iqtisod va huquq sohasidagi bilimlari ham asqatishi mumkin. Men o'zim shaxsan shu elementar narsalarni bilmaganligim sababli juda katta pul yo'qotgan tadbirkorlarni bilaman. Shunday ekan, biz ham pedagog sifatida o'quvchilarga hayotiy voqelikka maksimal darajada yaqin holatda o'qitishimiz zarur deb hisoblayman. Shu bilan birga biz dars o'tish vaqtida o'quvchilarga buni nima sababdan o'rgatayotganimizni tushuntirib berishimiz zarur. Men bu haqida ko'p bora takrorlayman agar o'quvchi "darsdan men nima olaman" savoliga javob topa olmasa bu o'tilgan mavzu u uchun hech bir ahamiyati bo'lmaydi ya'ni bu

sohaga qiziqmaydi. O'qitilayotgan bu mavzu faqatgina baho olish maqsadida o'qiladi xolos. Biz davlat va huquq asoslari va boshqa ijtimoiy fanlarni nima sabadan farzandlarimizga o'rgatamiz? Sababi shuki, inson faqatgina bilimi orqali jamiyatdagi o'rnini topa olmaydi. Bu gap bilan aytmoqchimanki, o'quvchi faqatgina nazariy qismini o'zi o'qib olishi mumkin. Lekin jamiyatda o'zini tutish boshliqlar hamda mansab jihatdan o'zaro teng bo'lgan shaxslar bilan munosabatni faqatgina ijtimoiy soha vakillari o'rgatishi mumkin. Afsuski, bugunda o'qituvchilarning o'zlari ham o'z fanlarini ijtimoiy jihatdan qanchalar muhim ekanligini his qilmaydilar. Bu ko'nikmalarni o'quvchi hayoti davomida juda ko'p xatolar evaziga orttirishi mumkin, ammo buni o'quv jarayonida qilsak har tomonlama maqsadga muvofiq bo'ladi nazarimda.

Biz tug'ilgan vaqtimizda o'z tilimizni bilmagan bo'lsakda, vaqt o'tishi bilan o'rganib olganmiz. Bunga asosiy sabab bizning har bir so'zga doir qaysidir emotsiyalarni bog'laganmiz bo'lgan. Buni hozir biz mnemonika fanidan bilsak bo'ladi. Shu sababdan ham hozirda ta'lim sohasiga 4 K modeli joriy etildi.

Kollaboratsiya: O'quvchilarning jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashadi.

Kommunikativlik: O'quvchilar o'z fikrlarini aniq va samarali ifodalashga o'rgatadi.

Kreativ fikrlash: O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangicha yondashuv bilan tez va samarali erishishga o'rgatadi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: O'quvchilarning u yoki bu masalada o'z mustaqil dunyo qarashning shakllanishiga yordam beradi.

4K modeli o'quvchilarni kelajak talablaridan kelib chiqqan holda o'qitishning imkonini yaratadi.

Bu ko'nikmalarni shakllantirishda ta'limiy o'yinlar samarali hisoblanadi.

O'yinga asoslangan ta'limning qiziqarli afzalliklari

O'yinga asoslangan ta'limdan foydalanadigan erta bolalik dasturlari an'anaviy o'qitish yondashuvlariga mos ravishda o'yinga asoslangan faoliyat va yo'naltirilgan ta'limning dinamik uyg'unligini taklif qiladi. Ushbu dasturlarda o'yin tuzilmagan erkin o'yin yoki boshqariladigan o'yin shaklida bo'lishi mumkin, bunda o'qituvchilar maqsadli o'qitishni qo'llab-quvvatlash uchun o'quvchilar bilan faol ishtirok etadilar. O'yinning ikkala turi ham yosh o'quvchilarga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Trissurdagi Xalqaro maktab (<https://tist.school/>) (TIST) o'yinga asoslangan ta'limning innovatsion yondashuvini o'zlashtirib, uni o'z o'quv dasturiga muammosiz integratsiyalashgan holda o'quvchilarga muammolarni yechish ko'nikmalarini oshirish va global istiqbolga ega bo'lib, institutlar ushbu ta'lim rolida qanday ustun turishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Maksimal foyda olish uchun o'yinga asoslangan ta'lim strategiyasi ham cheklanmagan, ham nazorat ostida o'yinni birlashtirishi kerak.

Tadqiq qilish va nazorat qilish treningi: O'yin bolaning tabiiy qiziqishini qo'llab-quvvatlaydi, ularni yangi narsalarni o'rganishga va o'rgatishga undaydi. Bolalarga bu o'zaro ta'sir orqali atrof-muhit ustidan nazoratni amalga oshirish qobiliyati beriladi, bu oxir-oqibatda diqqatni jamlash qobiliyatini yaxshilaydi. O'yin, shuningdek, zamonaviy o'quvchilar uchun muhim bo'lgan, masalan,

tanqidiy fikrlash, ijodiy muammolarni hal qilish, axborotni qo'llash, tahlil qilish va baholash kabi murakkab kognitiv jarayonlarga jalb qilishni rag'batlantiradi.

O'rganishga ijobiy munosabat: Faol o'ynagan bolalarda ijodkorlik, qiziquvchanlik, ishtiyoq va qat'iyat kabi xususiyatlar, shuningdek, o'rganishga ijobiy munosabat rivojlanadi. Bundan farqli o'laroq, o'yin orqali shakllanadigan murakkab o'quv jarayonlari va ko'nikmalarini eslab qolishga asoslangan o'rganish bilan takrorlab bo'lmaydi.

Tabiiy qiziqishdan foydalanish: O'qituvchilar bolalarning tabiiy qiziqishi va yangi narsalarni o'rganish istagidan foydalanadilar. Bu usul bolalarga muhim akademik ko'nikmalarni rivojlantirish bilan birga qiziqarli ta'lim tajribasiga ega bo'lish imkonini beradi.

Savodxonlikni oshirish: So'nggi tadqiqotlar o'yinga asoslangan savodxonlik dasturlarining foydali ta'sirini tasdiqlaydi. An'anaviy sinf xonalari bilan taqqoslaganda, o'yin muhiti bolalarning so'z boyligi va hikoya qilish qobiliyatini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi.

Kengaytirilgan o'rganish: Ko'proq ishtirok etish materialni yaxshiroq qo'llash va saqlashga olib keladi. O'yinlar tanqidiy fikrlashni va muammolarni hal qilishni, hayotning ko'p jabhalarida foydali bo'lgan ikkita qobiliyatni rag'batlantiradi.

Rohatlanish: O'yin o'ynash tabiiy ravishda odamlarni xursand qiladi, bu esa o'rganishni qiziqarli qiladi. Ta'limga ijobiy munosabat quvnoq o'quvchilarda ko'proq uchraydi, bu ham maktabda, ham hayotda muvaffaqiyatlarga yordam beradi.

Ijtimoiylashtirish: O'yinlar bolalarga bir-biri bilan muloqot qilish va muhim qobiliyatlarni, jumladan, hamkorlik, jamoaviy ishlash va muloqotni rivojlantirishga yordam beradi. Bu qulaylik va ta'lim holatlarida ishtirok etishni ta'minlaydi.

O'yinga asoslangan ta'lim bilan tanishtirish: amaliy maslahatlar

Ta'limdagi faollikni oshirish va ta'lim natijalarini yaxshilash uchun ba'zi amaliy maslahatlar:

To'g'ri o'yinlarni tanlang: bolangizning yoshi va qobiliyat darajasiga mos keladigan o'yinlarni tanlang. Siz tanlagan o'yin siz rivojlantirmoqchi bo'lgan qobiliyatlarni to'ldirishga ishonch hosil qiling.

Sekin-asta boshlang: agar bolangiz o'yinni bilmasa, uni asta-sekin o'yinga kiritish orqali osonlashtiring. Qisqa muddatlardan boshlang va o'yin vaqtini asta-sekin uzaytiring.

Ishtirok eting: qiziqish va dalda ko'rsatish uchun bolangizning o'yinida faol ishtirok eting. Sizning ishtirokingiz ekspert darajasida bo'lishi shart emas, lekin u bolani o'z-o'zidan rag'batlantiradi.

Ijobiy dalda: yosh bolalarning harakatlarini olqishlab, qattiq tanqid qilishdan saqlanishni rag'batlantiring. O'rganish uchun qulay muhit yaratish uchun o'yin-kulgini old va markazda saqlang.

Asosiy akademik muvaffaqiyat: O'yinni ta'kidlaydigan dasturlar kelajakdagi akademik muvaffaqiyat uchun mustahkam asos yaratadi. Ular tanqidiy fikrlay oladigan va muammolarga javob topa oladigan ijtimoiy bilimdon talabalarni

rag'batlantiradi.

O'quvchilarning tanqidiy fikrlashini yaxshilash uchun jamoaviy o'yinlarini(<https://tist.school/blog/team-building-games-to-improve-critical-thinking-of-students>) tashkil etish orqali o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishingiz mumkin

Garchi o'qituvchi rahbarligidagi ta'lim afzalliklariga ega bo'lsa ham, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erta bolalik davridagi ta'lim o'z ichiga o'yin va interaktiv ta'lim faoliyatini qamrab olishi kerak. O'yinga asoslangan dasturlarda o'yin ham mukofot, ham o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu seminarlar bolalarga nimani va qanday o'rganishlarini tanlashda ko'proq erkinlik berish orqali ijtimoiy ko'nikmalarni rag'batlantiradi.

Trissurdagi Xalqaro maktab (TIST) o'yinga asoslangan ta'lim imkoniyatlaridan foydalanib, o'quvchilarda yaxlit rivojlanish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun uni o'quv dasturiga mohirlik bilan kiritdi. Zamonaviy jihozlar (<https://tist.school/our-facilities>) va innovatsion ta'limga sodiqlik bilan TIST o'zining progressiv yondashuvining asosi sifatida o'yinga asoslangan ta'limni qabul qilib, zamonaviy ta'limni shakllantirishda faol rol o'ynadi.

Farzandingizning ta'lim tajribasi o'yinga asoslangan ta'limni qo'shish orqali yaxshilanadi, bu ham ijtimoiy o'zaro munosabatlarni, tanqidiy fikrlashni va hayotiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. O'yin kuchidan foydalanib, farzandingizning ta'lim tajribasini yaxshilash va uning umumiy rivojlanishiga yordam berishingiz mumkin. Xuddi shu jarayonda shaxsan o'zim bir metodika ishlab chiqqanman va men shu ishimi sizlarga taqdim etishim mumkin. Bu metodni qanday qo'llash o'qituvchilarning kreativligiga bog'liq. Bu metod aynan o'quvchining tanqidiy fikrlashi uchun yordam beradi va sizni zerikarli dars muhitidan xalos etadi. Bu deduktiv o'yin PowerPoint dasturi orqali qilingan bo'lsada, buni ustozlar banner yoki A3 formatdagi qog'ozga chiqarib har bir katak uchun alohida shaffof cho'ntak yasagan holatda amalga oshirsalar ham bo'ladi.



1-rasm



2-rasm

Bu o‘yin 1-rasmda ko‘rsatilganidek o‘quvchilar ko‘rib olishlari uchun ma’lum bir vaqt beriladi. So‘ng 2-rasmdagi holatga keltiriladi. O‘yinning mohiyati shundaki, atamalar hamda ta’riflar mos keluvchi kataklarni ketma-ket topishlari kerak bo‘ladi. O‘quvchiga 5 marotaba adashish imkoniyati beriladi. Agar ishtirokchi 5 ta urinishda ham ketma-ket mos keluvchi ta’rif va atamalarni to‘g‘ri topsa o‘quvchiga a‘lo baho qo‘yiladi. Shu orqali biz o‘quvchini ortiqcha stresslarsiz o‘yin qo‘llagan holatda ma’lumotlar bilan tanishtirishimiz hamda baholashimiz mumkin bo‘ladi.

Xulosa shuki, biz hozirda davlat va huquq asoslari fani darsligini doimgidek an’anaviy uslubdan chekingan holatda qiziqarli tashkil etish uchun barcha imkoniyatlarimiz mavjud. Albatta hamma o‘quvchilar ommaviy ravishda qo‘l telefonlariga mukkasiga ketgan vaqtda bu mushkul bo‘lsada imkonsiz emas.

Foydalanilgan adabiyot:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son farmoni.

2. R. Kuchkarov, fil.f.n., Umumta’lim fanlar va madaniyat kafedrasida dotsenti v.b. (Kirish, 1-, 7-, 11-, 12-, 15-mavzular); G.A. Nosirxodjayeva, fal.f.n., Umumta’lim fanlar va madaniyat kafedrasida dotsenti (3-, 5-, 9-mavzular); D. Tadjibayeva, Umumta’lim fanlar va madaniyat kafedrasida dotsenti v.b. (4-, 13-, 14-mavzular); X. Oblomuradova, fal.f.f.d.(PhD), Umumta’lim fanlar va madaniyat kafedrasida dotsenti v.b. (2-, 8-, 16-mavzular); F.T. Xusainova, Umumta’lim fanlar va madaniyat kafedrasida dotsenti v.b. (6-, 10-mavzular). Huquqiy ko‘nikma va metodologiya © Toshkent davlat yuridik universiteti, 2022-yil

3. <https://tist.school/blog/how-game-based-learning-benefits-children>

4. <https://bing.com>

MANZARA CHIZISHDA XOMAKI CHIZGILAR

D.B.Karshiboyeva, K.F.Xudoyberdiyeva

stajyor o'qituvchi; 69-23 guruh talabasi, Guliston davlat universiteti,

karshiboyeva89@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola tasviriy san'atda manzara janri va uning mohiyati, manzara chizishda xomaki chizgilarning bajarilish usul va uslublari, unda qanday ashyolardan foydalanish hamda uning ahamiyati borasida fikrlar yuritilgan.

Tayanch so'zlar: manzara, tasviriy san'at, rang, janr, ijodkorlik, kompozitsiya usul, uslub.

Buyuk usta rassomlarning ijodiy ishlarini kuzatar ekanmiz, ularning xar bir asar ustida ko'plab qoralamalar va xomaki chizgilar bajarilganligini kuzatamiz. Bunda ularning borliq, atrof-muhitni chuqur o'rganilishi, xarakterli tomonlarining kuzatishi va yaratiladigan kompozitsiyaning betakror asl nusxalarini uchramiz. Manzara ko'pincha tarixiy, maishiy kabi asarlarda vosita - fon sifatida muhim rol o'ynaydi. Manzarada tabiat go'zalligini aks ettirish bilan inson kayfiyatiga ijobiy ta'sir etib, unga estetik zavq bag'ishlaydi. "Peyzaj" so'zi fransuz tilidan olingan bo'lib, ma'nosi "tabiat". Biz olamining eng nozik, tipik xolatlarini, rang garmoniyalarini realizm yoki kompozitsiyada tasvirlashni peyzaj yoki manzara deb ataymiz. Qoralama - xomaki chizgilar to'plami, materiallarning yig'ilishi rassomga biron-bir badiiy asarni yaratishda oldindan umumiy tayyorgarlik beradi va aksincha, bunday kuzatuv ashyolarning mavjud emasligi, ijodiy tasavvurning tug'ilishi, ish faoliyatini sezilarli darajada qiyinlashtiradi⁴⁰. Rangtasvirda ijod qilayotgan rassom dastlabki bosqichlarda naturadan xar bir detallari, rang xususiyatlarigacha nusxa olishga intiladi. Bunda ko'plab bir-biriga o'xshagan yoki bog'liq bo'lmagan qoralama va etyudlar xosil bo'ladi. Ijodkor manzaraning yaxlit kompozitsiyasini topishga urunadi. Manzara qalamtasvir yoki haykaltaroshlikda ham yaratilishi mumkin. Biroq manzara janrining imkoniyatlari rangtasvir san'atida har tomonlama, to'laligicha o'z ifodasini topadi⁴¹. Rassom ma'lum bir asar ustida ishlar ekan, uning kompozitsiyasi, qoralama ko'rinishdagi ishni materiallarini yig'masdan tasavvur qilish mumkin emas. Ya'ni buyum va detallarning bir - biri bilan munosabati, nisbati, holatning harakati, oldi va orqa plandagi shaxs va buyumlarning o'zaro farqi, perspektivasi, gorizont chizig'i, yorug' - soya, ranglar uyg'unligi, kontrastligi undagi inson qomatlarining joylashuvi kabi kompozitsion qonun-qoidalar asosida eskizlar bajaradi. Bunda eskizlar yordamchi material hisoblanadi. Ma'lumki, matematik kompozitsiyalarni bajarish bir qator bosqichlarga bo'linadi: g'oyaning mazmunini oydinlashtirish, dastlabki eskizning yechimi, belgilangan eskizni aniqlashtirish uchun chizmatasvirlar bajarish, etyudlar yozish, kompozitsiyaning oxirgi yechimi, kompozitsiyani chizmatasvirda bajarish, xomaki variantlarni bo'yoqda bajarish, tasviriy vositalarda kompozitsiyaga oxirgi ishlov berish⁴². Yevropa rassomlaridan

⁴⁰ E.Xaitov "Kompozitsiya". O'quv qo'llanma. Cho'lpon. Toshkent-2019. 88 bet

⁴¹ E.Xaitov. "Kompozitsiya". O'quv qo'llanma. "Cho'lpon" Toshkent-2019. 10 bet

⁴² A.Kalonov. "Qoralama va xomaki chizgilar" Uslubiy qo'llanma. "Tafakkur" Toshkent 3013. 89 bet

Leonardo da Vinchi, Rafael, I.Ye.Repin, V.I.Surikov, Ye.Ye.Moiseenko kabi, o‘zbek rassomlarimizdan R.Axmedov, J.Umarbekov, A.Mirzaev, B.Jalolov, O.Olloberganov, A.Hotamov, A.Nuriddinov, F.Ahmadaliev, E.Jo‘rayev, O.Qozoqov, O‘.Tansiqboyev va boshqa ko‘plab rassomlarning ham ijodidagi asarning xomaki qalamchizgilarni kuzatamiz.

Ochiq havoda (plenerda) manzara chizishda dastlab etyudlar ishlanib, ranglar uyg‘unligi topiladi. Rassom etyud jarayonida tabiatning asl ko‘rinishinigina emas balki, badiiylik bilan kompozitsion o‘zgartirib ishlashi mumkin. Tabiatdan etyudlar ishlash ijodkorga kuzatuvchanlik, rang ko‘rish, tasvir va vositalarni mahorat bilan amaliyotda qo‘llashga o‘rgatadi. Tabiatning cheksiz xilma – xilligini qog‘ozga tushurish juda ham qiziqarli va mashaqqatli jarayon bo‘lib, rassom keng yaylovlar, tog‘u – toshlar, daryolar, daraxtlar, qishloq va shahar ko‘rinishlarni joylashtirishda to‘g‘ri kompozitsion markazini ochib berishi lozimdir. Rassom ijodiy ishining to‘xtash holatini bilishi va shu holatni tanlashi shunchaki oson ish emas. Zotan, motiv, mavzu, kuzatuv nuqtasini tanlash katta ahamiyat kasb etadi. Manzaraning muvaffaqiyatli kompozitsiyasi, mavzuni ifodali ko‘rsata oladi. Manzarani ochiq tabiatdan ishlashda qoramalar juda muhimdir. Demak, endi siz bilan qoramalar va xomaki chizgilarni bajarishda qo‘llaydigan ashyolarimizga to‘xtalib o‘tamiz. Bular: turli vumshoqlikdagi grafit qalamlar, rangli qalamlar, pastel, tush, sous (ishlanishiga ko‘ra ixtiyoriy texnikada), sangina, sepiya (ishlanishiga ko‘ra ixtiyoriy texnikada), ko‘mir, moybo‘yoqda kabi ashyolardan foydalanishimiz mumkin. Xomaki chizgilar qog‘oz, karton, yoki xolstlarga chizilishi mumkin.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, manzara janridagi ishlangan kartinalar inson qalbida tabiatga bo‘lgan muhabbat va go‘zallik kabi insoniy fazilatlarini shakllantirishda muhim omil bo‘la oladi. Xar bir ijodkor, o‘z davrida manzara janrida xam o‘zini sinab ko‘radi, lekin hamma ham manzarani yaxshi his etib, manzarachi rassom bo‘lishi qiyin. Tabiatni tasvirlashda, butun vujudi bilan his etib, sevgan malakali ijodkorgina, uni nafosat bilan ifodalab beradi. Qachonki, tasvirlar jonli tabiatdan qoralama va xomaki chizgilar asnosida ishlanar ekan, manzara janridagi asarlar inson uchun ma‘naviy ozuqa beradi ruhlantiradi, shodlik va quvonch bag‘ishlaydi. Zero, ona tabiatning o‘zi buyuk musavvir. Ustoz rassomlar yaratgan go‘zal manzara asarlari hamda ularning qoralama va xomaki chizgilarini o‘rganar ekanmiz, ushbu san‘at asarlarining mazmun mohiyati, kompozitsion tuzilishi, ularning ish tajribalarini yosh ijodkorlarga tahlillar va kuzatishlar asnosida o‘rgatib, ko‘rgazmali vosita sifatida foydalanib amaliyotga tadbiiq etish o‘rinlidir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. E.Xaitov “Kompozitsiya”. O‘quv qo‘llanma. Cho‘lpon. Toshkent-2019.
2. A.Kalonov. “Qoralama va xomaki chizgilar” Uslubiy qo‘llanma. “Tafakkur” Toshkent 3013.

MUSIQA DARSLARIDA MUSIQA SAVODINI O'RGATISH METODIKASI

Xudoynazarov Dilshodbek Obidjon o'g'li

*Sirdaryo viloyat Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
metodik xizmat ko'rsatish bo'limi musiqa madaniyati fani metodisti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim muassalarida musiqa darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati to'g'risida mulohazalar yuritilgan. Shuningdek maqolada musiqa darslarida musiqa savodini o'quvchilarga o'rgatish metodikasi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: musiqa savodi, musiqiy ladlar, alteratsiya belgilari, intervallar, dinamika.

Mustaqilligimizning poydevorini mustahkamlashda O'zbekiston buyuk davlatga aylanishida ta'lim-tarbiya ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilishi dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki ilm-fan, madaniyat va ma'rifat har qanday mamlakat va xalqning yuksaklikka ko'taradi, uning taraqqiyotini ta'minlaydi, kelajagini oldindan ko'rsatib beradi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Musiqa madaniyati hayotimizda keng o'rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi, har bir insonni ma'naviy shakllanishida oilaning, maktabning, jamiyatning ahamiyati katta, chunki insonning insoniylik xususiyatlari jamiyatda tarkib topadi. Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyaning ko'plab omillari qatori musiqa tarbiyasi alohida o'rin tutadi. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, insonni atrofdagi go'zal narsalarni tog'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi.

Musiqa savodi faoliyati maktabdan boshlanadi. Musiqa savodi musiqa tahlili tizimidagi muhim jarayonlar hisoblanadi. Shuning uchun o'qituvchi bolalarga zarur musiqiy-nazariy bilimlarni, ma'lumotlarni berishi kerak. Musiqa savodiga doir olib boriladigan ish asosan bolalarning musiqiy o'quvini o'stirish va nota yozuvlarini o'rganishdan iborat bo'libgina qolmay, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim saviyasini tarkib toptiruvchi umumiy bilim, tushunchalar majmuasini: (ijrochiligini, xalq va bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy uslublari, mumtoz musiqa) tashkil etadi. Musiqa savodi o'quvchilarda musiqaga, uning ifoda vositalariga ongli munosabatni tarbiyalaydi, musiqaning asl mazmunini tushunib olishga yordam beradi, notaga qarab kuylash va qo'shiq kuylash malakalarini hosil qilish hamda garmonik qobiliyatning o'sishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga ovozlarni aniq talaffuz qilishga va jamoa bo'lib qo'shiq aytish sifatini, samaradorligini oshirishga qulaylik tug'diradi. Maktabda musiqa savodiga qo'yiladigan asosiy metodik talab --- dars jarayonida olingan musiqiy-nazariy bilimlarni boshqa faoliyatlarda - qo'shiq aytish, musiqa tinglash va musiqaga ritmik jo'r bo'lishda qo'llay olishdan iborat. Har bir faoliyat bilan shug'ullanganda o'quvchilar kuylayotgan, jo'r bo'layotgan yoki tinglayotgan asarlarini kim tomonidan yaratilganligi, qaysi ladda yozilganligi, asarning tempi,

o'lcho'vi, ritmi, shakli, dinamik belgilari, tonalligi va hokazolarni qisman bo'lsa ham aniqlashlari darkor. Mana shu jarayonda musiqa savodi benazir ko'makchidir. Musiqiy-nazariy bilimlar ancha sayoz va bir tizimga solinmagan bo'lsa ham o'qituvchi imkoni boricha darslarni ko'rgazmali qurollardan, o'qitishning zamonaviy texnik vositalaridan foydalangan holda dars o'tishi maqsadga muvofiqdir. Musiqa savodida musiqiy atamalar, an'analar, templar (sur'at), intervallar, alteratsiya belgilari, dinamik belgilar, musiqaning ifodalovchi vositalari, oddiy musiqa shakllari va janrlari, major va minor ladi haqida tushuncha beriladi. Lekin bu tushunchalar oddiydan murakkabga qarab, iloji boricha tizimiylikka rioya qilib o'tilsa ko'zlangan maqsadga erishiladi.

1-sinfda musiqa savodi boshlang'ich bilimlari beriladi. Bolalarning maktabga endigina kelganliklariga qaramay ular bog'chada ko'pgina ashulalar aytib raqsga tushgan bo'ladilar. Musiqa savodiga kirishdan avval bolalarning oldingi bilimlariga tayanishimiz kerak. Bu borada o'qituvchi nihoyatda ehtiyotkor bilan bolalarga musiqa haqida tushuncha beradi. Uyda tarbiyalanayotgan bolalar ham muayyan musiqaviy tasavvurga ega bo'ladilar: radio va televideniya orqali eshittiriladigan bir qancha musiqa asarlari bilan tanishgan bo'ladilar. Garchi ana shu bilimlar tasodifiy va sistemaga solingan bo'lsa-da, ammo o'qituvchi bolalarga musiqadan nazariy tushunchalar hosil qilishda o'sha bilimlarga ma'lum darajada suyanib ish ko'rishi mumkin. 1-sinfda o'quvchilarning butun musiqa ta'limiga negiz solinadi, shuning uchun bu sinfda o'qituvchi o'qitish metodikasini yaxshi bilishi, maktab yoshidagi kichik bolalarning yosh va individual xususiyatlarini, ularning musiqiy vokal qo'shiqchilik imkoniyatlarini chuqur bilishi zarur. Donishmand xalqimiz azaldan kuy va qo'shiqni bola qalbiga tez yo'l topa olishi, uning ruhiyatiga ijodiy ta'sir ko'rsatishi, yaxshi xulq va odob, mehr oqibat, sabr-toqat, kattalarga hurmat fazilatlarini musiqa orqali tarkib topishini azaldan anglab yetgan. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarilarining kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish, ixtisoslarga doir fanlarni o'qitish va pedagogik mahoratni egallash, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatish bugungi kun talabidir. O'qituvchilik kasbi sharaflilik, lekin juda murakkab kasbdir, o'qituvchi musiqa nazariyasini egallashi bilan birga, bolalarni sevishi, pedagogik amaliyotdan ham o'tgan bo'lishi kerak chunki, maktab hayotidagi pedagogik jarayon juda xilma-xildir. Bu esa, musiqa o'qituvchisidan puxta bilim, amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi. Ushbu maqolamni buyuk mutaffakkir shoir A.Navoiyning shunday so'zlari bilan yakunlamoqchiman: "Musiqa jamiyat hayotining muhim negizidir. Faqat musiqagina odamning qalbiga tiniqlik, mutanosiblik va o'z-o'zidan qanoat tuyg'usini olib kiradi va uni baxtiyor qiladi".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Omonullayeva D. «Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasidagi lersiyalar kursi» T., 1990.
2. Gudkova Ye.A., Vasilyeva A.B. «Ashula darsi metodikasi» T.1983.
3. Nurmatov H, Yo'ldosheva N. "O'zbek xalq musiqasi ijodiyoti" T: 2007.

RAHIM AXMEDOV IJODIGA NAZAR

D.B.Karshiboyeva, O'.R.Abdumajidova

stajyor o'qituvchi; 72-21 guruh talabasi, Guliston davlat universiteti

karshiboyeva89@mail.ru

Annotatsiya: ushbu maqolada, O'zbekiston xalq rassomi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi Rahim Axmedovning hayoti va ijodi, uning yaratgan asarlaridagi kompozitsiyalar, oddiy turmush tarzini ma'naviy halollik, ichki ruhiy kechinmalarini, so'zsiz ranglar orqali ko'rsatib bera olganligi borasida fikrlar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: Raxim Axmedov, tasviriy san'at, ijod, asar, rassom, portret, kompozitsiya, rang.

Ijod – doimiy ish

R.Axmedov

“Rassom Rahim Ahmedov hayotida ikki sana — 1921 va 2008 yillardir. Bular - otam hayoti va uning hayot palitrasi. Otam umrining so'nggi kunlarigacha – o'zining tabiati bilan bog'lar, gullar va tog'lar orasida ishladi. Oxirgi rasm - bu singan qo'shiq kabi. U molbertda tugallanmagan holda qoldi. "Kesilgan qovun bilan natyurmort"⁴³. deya yodga oladi qizi E.Raximova. Rahim Axmedovich Axmedov O'zbekiston xalq rassomi. O'zbekiston Badiiy akademiyasining faxriy a'zosi. (1997y). 1921-yilda Toshkentda tavalud topgan. Bolaligidan tasviriy san'at olamiga qiziqishi bo'lgan. Biroq qismat uni erta yetim qoldirdi va bolalar uyida tarbiya topdi. 1937-1941 yillarda P.Benkov nomidagi badiiy o'quv yurtini, 1947-1953 yillarda Sankt-Peterburgdagi Repin nomidagi rassomlik, haykaltaroshlik va me'morlik institutida o'qidi. Iskandar Ikromov, O'rol Tansiqboyev kabi taniqli rassomlardan keyingi avlod vakili bo'lgan Rahim Axmedov o'zbek tasviriy san'atiga 50-yillarning boshlarida kirib keldi va o'zining ijodini portret janrida boshladi.

Rassom ishining asosiy tamoyili qat'iy realizm printsiplariga rioya qilish bo'ldi. Uning asarlarida oddiy dehqonlar, cho'ponlar, qishloq ayollari va atoqli san'at arboblarning qiyofalarini tasvirlab kelgan. “Cho'pon yigit”, “Xalq bastakori-qo'shnaychi Ahmadjon Umrzoqov”, “Surxondaryolik qiz” va boshqa asarlar rassomning dastlabki ijod namunalari. Ushbu asarlarda rassom xalq hayoti va turmushining oddiy va murakkab lavhasi, ko'rinishini tasvirlay olgan. R.Axmedov O'zbekiston realistik rangtasvirida o'z maktabini yaratgan ijodkordir. U nafaqat portret janrida balkim manzara, natyurmort va maishiy janrlarda xam sermahsul ijod qilgan va o'z shogirdlariga ham tasviriy san'atning sir asrorlarini o'rgatgan.

R.Axmedov ranglar bilan tillasha oladigan, vataniga, tabiatiga mehr qo'ygan o'z kasbining ustasi edi. Bu uning chizgan asarlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Uning asarlarida o'zbek xalqining mexnatkashligi, matonatini, qahramonlarining ma'naviy qiyofasini, ruhini, his-tuyg'ularini ta'sirli qilib ifodalanganligini ko'ramiz. Ayniqsa, uning yaratgan ayollar obrazlari, jozibali va maftunkordir.

⁴³ “R.Axmedov zamondoshlari xotirasida”, “Baqtria press”.Toshkent 2019y. 6 bet

Rassomning bu mavzudagi suratlari nazm ruhi bilan sugʻorilgan, nozik his-tuygʻularga boy. R.Axmedov “Choʻpon qizcha” (1956), “Olim Bekmurodov portreti” (1956), “Ona oʻylari” (1956), “Kolxozchi chol portreti” (1956), “Sozanda A.Umurzoqov portreti” (1957), “Opa-singillar” (1958), “M.Pashkovskiy portreti” (1958), “Avtoportret” (1959), “Qashqadaryolik ayol” (1959), “Qizim Elmira portreti” (1960), “Mehnatda xam soldat” (1960), “Kashtachi qiz,” “Tong.Onalik” (1962), “Deputat ayol” (1963), “Muqumiy” (1968), “Nigora” (1971), Oʻ.Tansiqboyev” (1972), “Lola portreti”(1979), “Nabi Rahimov” (1983), “Shuhrat Abbosov” (1986) kabi asarlar yaratdi. Betakror sanʼat sohibi R.Axmedov oʻz xayotida nafaqat musavvir sifatida ijodiy ishlar yaratgan balki, 1953 yildan Toshkent teatr va rassomlik sanʼat institutida oʻqituvchi, 1976 yildan professor Oʻzbekiston Rassomlar uyushmasining boshqaruvi raisi (1965-84, 1992-94) lavozimida ishladi va koʻplab shogirdlar yetishtirib chiqdi. Oʻziga xos va betakror isteʼdod sohibi R.Axmedovning asarlari yuksak qadrlanib, jahonning nufuzli muzeylari va tashkilotlari tomonidan sotib olingan. Xususan, uning asarlaridan “Qashqadaryolik ayol” (1959 y. Tretyakov Davlat galleriyasida saqlanadi), “Kashtachi qiz” (1962 y. Tretyakov Davlat Galleriyasida saqlanadi), va Oʻzbekiston sanat muzeyi, Badiiy koʻrgazmalar direksiyasi, Sharq xalqlari sanʼat muzeyi va boshqalarda saqlanadi. Asarlari 1948 yildan Respublika va xalqaro koʻrgazmalarda namoyish etilib kelinadi. U yuksak xizmatlari uchun Hamza nomidagi Oʻzbekiston Davlat mukofoti laureati (1967). “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlangan (1998).

Rassomning 50-yillarda chizgan “Ona oʻylari” (1956 y.) asari oʻzining yuksak badiiyligi, chuqur psixologik ifodaliligi bilan tomoshabin diqqatini oʻziga jalb etadi. Bu portretida hovlining bir burchagida oʻtirgan onaning ichki kechinmalari, his-tuygʻulari ishonarli ifodalangan. Suratda ona mavzusi shoirona va dildan talqin qilingan. Unda ona qiyofasi daraxt yonida oʻychan, qoʻllarini tizzasiga qoʻygan holda bir nuqtaga tikilganicha hayot tashvish va quvonchlari haqida chuqur oʻy surayotgan holatini koʻrishimiz mumkin. Rassom asar qahramonining holatini sokin tasvirlangan boʻlsada, uning ichki tugʻyonlarini, oʻzbek ayolining shijoatini, qatʼiyatini, onalik tuygʻularini koʻrsatib bera olgan. Rassomning badiiy didi oʻziga xosligida, ona gavdasi aniqligi yengil ranglardagi manzara fonida, koʻk, binafsha, pushti, yashil, sariq ranglarda namoyon boʻladi. R.Axmedov asar kompozitsiyasini mohirlik bilan yecha olgan va undagi ranglarning ketma-ketligi, yorqinligini, bir-biriga mutanosibligini ajoyib tarzda tasvirlagan.



Akademik R.Axmedovning ijodiy ishlarini xususan, portretlarini kuzatar ekanmiz uning qahramonlari oddiy insonlar, qishloq kishilari boʻlib, aynan ularda rassom begʻubor gʻoʻzallikni, yashirin tuygʻularni, donishmandlikni, halollikni, yuksak axloqiy mezonlarini gavdalantiradi.



Кекса kolxozchi portreti (1956 y).

Rassomning ushbu asarida keksa dehqon kunning jazirasidan salqin havoda dala ishlaridan biroz tin olib, hordiq chiqarib o'tirgani ko'rishimiz mumkin. Unda dehqon gavdasi biroz oldinga bukilgan, qo'lidan o'roqni qo'ymay, go'yoki o'tgan yillarni, bir umrlik mehnatlarini, sarhisob qilayotganday chuqur o'yga tolgan holatda tasvirlangan. Kompozitsiya jihatdan mavzu va ma'no bir-biriga juda mos bog'langan. Yarim asr mobaynida yaratilgan asarlar ko'rgazmasi rassom qo'lga kiritgan yutuqlar va uning O'zbekiston san'ati ravnaqiga qo'shgan xissasi unutilmas ekanligini namoyon etmoqda. Undagi asarlarda oddiy bo'lmagan va endilikda moziy qa'ridan o'rin olgan asrimiz tarixi aks etgan⁴⁴.

Bugungi kunda yosh ijodkorlar uchun R.Axmedov siymosi va uning yaratgan asarlari, portret janridagi ulkan yutuqlari, ranglar uyg'unligi, ranglarni yorqinligini va rang – barangligi, katta bir mahorat maktabi vazifasini o'tayabdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Rassomning tasviriy san'at olamidagi erishgan ulkan yutuqlarini hozirda uning iqtidorli shogirdlari davom ettirib kelishmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "R.Axmedov zamondoshlari xotirasida", "Baqtria press". Toshkent 2019y.
2. R.Axmedov. O'zbekiston badiiy akademiyasi. "Yozuvchi" nashriyoti. Toshkent 2001

ЦИФРОВИЗАЦИЯ СФЕРЫ ОБРАЗОВАНИЯ – ПОТРЕБНОСТЬ СОВРЕМЕННОЙ ЖИЗНИ

Сайидова Мухаббат Гаффаровна

*старший преподаватель кафедры «Социально-гуманитарных
дисциплин и физической культуры» Навоийского государственного
горно-технологического университета*

Цифровые образовательные технологии-это инновационный способ организации учебного процесса, основанный на использовании электронных систем, обеспечивающих наглядность. Целью применения цифровых технологий является повышение качества, эффективности учебного процесса, а также успешной социализации студентов

Массовая цифровизация образования объясняется в первую очередь следованием за трендами развития общества. Цифровые технологии внедряются абсолютно в каждую сферу жизни: в экономику и финансы, здравоохранение, транспортное сообщение, культуру, сферу обслуживания. И образование не стало исключением. Это уже новая реальность, в которой мы живем.

Растущую популярность информационных технологий легко объяснить

⁴⁴ R.Axmedov. O'zbekiston badiiy akademiyasi. "Yozuvchi" nashriyoti. Toshkent 2001. 5 bet.

тем, что они делают жизнь удобнее и проще. Конкретно в учебном процессе выделяют следующие преимущества ИТ:

- повышение вовлеченности, мотивации и интереса учащихся к учебному процессу;
- активизация самостоятельности и познавательной деятельности;
- наглядная и более занимательная подача материала;
- доступ к большим объемам информации, в том числе за пределами учебного курса;
- отсутствие бумажной волокиты для преподавателей;
- обратная связь, упрощение коммуникации между учащимися, преподавателями и родителями;
- использование дистанционных технологий и возможность обучаться из любой точки мира, где есть интернет-соединение;
- появление множества учебных онлайн-курсов.

Кроме того, цифровые образовательные технологии помогают обеспечить индивидуальный подход к каждому ученику, учет его особенностей и познавательных способностей.

Цифровизация образовательного процесса – это широкое понятие. Оно включает не только дистанционное образование или работу учащихся с компьютером, как считают некоторые. Цифровизация подразумевает использование информационных технологий на всех уровнях: не только учебном, но и организационном (электронные дневники, чаты с учителями). Технические новшества затронут разные типы учебных учреждений: школы, колледжи, вузы, образовательные курсы.

Среди причин развития цифровых технологий в системе образования многие исследователи выделяют сокращение аудиторной нагрузки и увеличение доли самостоятельной работы. Поэтому, для того чтобы сохранить и повысить качество обучения активно внедряются цифровые образовательные технологии, обеспечивающие взаимодействие педагога и обучающегося для своевременного устранения пробелов в обучении студента.

Среди возможностей цифровых технологий в подготовке студентов отмечают:

- повышение мобильности выполнения заданий и изучения материалов;
- повышение мотивации студентов;
- индивидуализация процесса обучения;
- увеличение наглядности материалов;
- осуществление оперативной обратной связи с преподавателем;
- обеспечение моментального доступа студентов к результатам сразу после прохождения задания.

Цифровые технологии являются неотъемлемой частью жизни общества, поэтому, отмечают ученые, они легко интегрируются в процесс обучения, поскольку студенты привыкли к использованию различных электронных средств в собственной жизни и это облегчает их работу с различными электронными инструментами и предоставляет возможность более легкого

восприятия информации и усвоения материалов.

Цифровые технологии позволяют сделать процесс обучения дифференцированным, выстраивать его в соответствии с потребностями каждого отдельного студента, давать задания, соответствующие уровню подготовки и таким образом повышать качество обучения. Использование цифровых инструментов способствует созданию условий, в которых студент становится активным субъектом образовательного процесса. От пассивного восприятия он переходит к активным действиям и включается в выполнение заданий.

Среди основных видов цифровых технологий можно выделить следующие: мобильное обучение, технология облака, онлайн-курсы и игрофикация. Сейчас технология мобильного обучения наиболее востребована в сфере образования. Благодаря ее использованию появляется возможность наиболее удобной и продуктивной совместной работы, обмена знаниями. Субъекты образовательного процесса могут обмениваться материалом удаленно, передавать мобильные устройства внутри студенческой группы, используя беспроводные сети, инфракрасные функции карманного персонального компьютера.

Облачные технологии имеют удобный сетевой доступ, позволяют хранить большое количество информации и дают возможность использовать ее при минимальных управленческих усилиях, т. е. облако позволяет распределять, обрабатывать и хранить данные.

Так, благодаря данной технологии преподаватели и обучающиеся могут осуществлять групповую, командную деятельность удаленно. Например, создавать домашние групповые исследовательские проекты, доклады, презентации, где каждый обучающийся отвечает за свой раздел учебной работы, но при этом может редактировать и изменять другие блоки. Изменения, вносимые каждым их студентов, будут синхронизироваться в документе с общим доступом. Облачная технология может применяться на основе дистанционного обучения. Например, педагог в электронной системе вуза может размещать задания, практические работы и другие письменные задания, где задача студента сводится к выполнению упражнений в документе, созданным преподавателем. Это могут быть задания следующего вида: заполнить таблицу или пропуски в тексте, ответить на вопросы или продолжить мысль. По мере выполнения работы педагог проверяет задания, так как имеет доступ к документу.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Блинов В.И. Образовательный процесс в профессиональном образовании: учебное пособие для вузов / В. И. Блинов [и др.]; под общей редакцией В. И. Блинова. — Москва: Издательство Юрайт, 2018.
2. Вишневская Г.В. Технологический подход в педагогическом процессе высшей профессиональной школы// Известия Пензенского государственного педагогического университета им. В.Г. Белинского. 2008. №6 (10). С. 235-239
3. Маркова С.М., Наркозиев А.К. Методика исследования содержания

- профессионального образования // Вестник Мининского университета. 2019. Т. 7, №1. С 2.
4. Померанцева Н.Г., Сырина Т.А. Особенности формирования иноязычной социокультурной компетенции средствами массовых открытых онлайн курсов // Азимут научных исследований: педагогика и психология. 2017. Т. 6. № 4 (21). С. 167-170.
 5. Зайцев В.С. Современные педагогические технологии: учебное пособие. — В 2-х книгах. — Книга 1. — Челябинск, ЧГПУ. 2012. 411 с.
 6. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии ДОС: учебное пособие / Г.К. Селевко. — М.: Народное образование, 1998. — 256 с.
 7. Муравьева Г.Е. Проектирование технологий обучения: Учеб. пособие для студентов и преподавателей пед. вузов, слушателей и преподавателей курсов повышения квалификации учителей / Г.Е. Муравьева. - Иваново, 2001. 123 с.

INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVDA TARIX FANI O'QITUVCHILARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH

Abduraimov Ikromjon Ravshanbekovich

Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi "Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari" kafedrasini mudiri, mustaqil tadqiqotchi

ANNOTATSIYA *Ushbu maqolada tarix fani o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi asosida malakasini oshirish bo'yicha umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablaridan kelib chiqib, tarix o'qituvchilari og'zaki o'qitish usulidan voz kechgan holda tarix fanlarini integratsion asosda o'qitishga, axborot texnologiyalari asosida multimediyali ilovalar hamda mustaqil ishlashga o'rgatish.*

Kalit so'zlar: *kompetensiyalarni rivojlantirish, kasbiy rivojlantirish, integratsion, multimedia, interaktiv usullar, modellashtirish, kompetensiya.*

АННОТАЦИЯ *В данной статье, исходя из требований к уровню общих знаний и профессиональной подготовки учителей истории на основе курса непрерывного повышения квалификации, учителя истории преподают историю на комплексной основе, отказываясь от устного метода обучения по информационным технологиям и самостоятельной работе.*

Ключевые слова: *развитие компетентности, профессиональное развитие, комплексное, мультимедиа, интерактивные методы, моделирование, компетентность.*

ABSTRACT *Based on the requirements for the level of general knowledge and professional training of history teachers on the basis of a continuous professional development course, this article discusses the preparation of history teachers to teach history on an integrated basis, abandoning the oral method of teaching, using information technology, and teaching students independent work*

Key words: *competence development, professional development, integrative, multimedia, interactive methods, modeling, competence.*

KIRISH

Ta'lim-tarbiya jarayonida integratsiyalashgan ta'limni keng miqyosida qo'llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Jahon ilm-fani va ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida fanlarning o'zaro bir-birlari bilan bog'liq ekanliklari dolzarb masala sifatida ko'tarilib, bu dolzarblik jamiyatda ishlab chiqarish kuchiga va muhim ijtimoiy institutga aylanmoqadi.

Yangi O'zbekistonning asosiy strategiyalaridan biri sifatida "Uzluksiz ta'lim tizimida ijtimoiy fanlarni o'qitish tartibi va tamoyillari to'g'risida" qonun ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish ehtiyoji ham mavjudligi ta'kidlab o'tildi. Bu yo'nalishda Sh.Mirziyoyev tomonidan "2022-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim va tarbiya sohasini gumanitarlashtirish strategiyasi" yaratilishi va amalga oshirilishi tavsiya etildi.[1]

Zamonaviy ta'limda o'quvchilarda XXI asr kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali usullaridan biri integratsiyalashgan yoki fanlararo o'quv dasturidan foydalanishdir.

Ayni paytda integratsiyalashgan ta'lim muhitini yaratish, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning integratsion shakllari va usullarini joriy etish tarix fanini o'qitish bilan bog'liq.

Bu borada milliy o'quv dasturi doirasida pedagog kadrlarning malakasini oshirish, ularni kompetensiyalarni rivojlantirish orqali jamiyatda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Uzluksiz kasbiy rivojlanish tizmi orqali tarix fani o'qituvchilarining malakasini oshirish va ularning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish va kasbiy mahoratini takomillashtirish mexanizmi orqali, milliy o'quv dastur asosida o'quvchilarni tarix fanlarini o'qitishning o'ziga xos integratsiyasi asosida uzviyligi va izchilligni ta'minlashga asoslanmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida milliy o'quv dasturi asosida fanlarni o'qitish pedagoglardan katta mahorat talab etilmoqda, bu esa o'z navbatida malaka oshirish kurslarida o'qituvchilarning ijodiy-tadqiqotchilik, amaliy faoliyat tajribasini rivojlantirish hamda kreativlik kompetentlik darajasini yanada rivojlantirishga undamoqda. Uzluksiz kasbiy rivojlanishda ta'lim-tarbiya jarayoniga interfaol ta'lim texnologiyalari va strategiyalarini tadbiiq etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha izlanishlar olib borishga sabab bo'lmoqda.

Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda fanlar integratsiyasi asosida kasbiy kompetentlikni oshirish masalasiga pedagog olimlardan Q.Yo'ldoshev, S.Matchonov, M.Mirqosimova, R.A.Mavlyanova, D.Sharipova, O.Musurmonova, M.Quronov, B.Abdulayeva, S.Nishonova, U.Mahkamov, E.Turdiqulov, R.Safarova, B.Adizov, A.Choriyev, Sh.Mardonov, Sh.Shodmonova, O.Davlatov, A.Ismoilov, Q.Shonazarov R.Yarmatov kabi pedagog olimlarning ilmiy izlanishlarida o'quvchi tafakkuri, ma'naviy-axloqiy, ijodiy, badiiy, innovatsion tafakkurni rivojlantirish masalasining o'ziga xos jihatlarini ochib berishga alohida e'tibor qaratishgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) davlatlarida O'zaro fanlararo aloqalar zarurati V.F.Odoyevskiy, K.D. Ushinsky P.G.Kulagin, O.I.Baxtina, N.I.Vorjeykina, N.I.Zaporojes, A.G.Koloskov, A.A.Vagin, Ye.F.Golovkina kabi olimlarning ilmiy- tadqiqot ishlari va qo'llanmalarida tarix fanini o'qitishda ta'limning fanlararo, integratsion shakllari va usullarini joriy etish, fanlar ichidagi aloqalarning ahamiyatini, uni amalga oshirish yo'llarini, o'zlarining ilmiy asarlarida bayon qilishgan [2].

O'tgan asrning 50-yillarda. Chet yelda va mamlakatimizdagi ayrim pedagogika bilimlarning yaxlitligini ta'minlash uchun kompleks sub'ektlar yaratildi. Shunday qilib, AQShda "Ijtimoiy fanlar" (jumladan, tarix, huquq, geografiya va fuqarolik tadqiqotlari elementlari) kompleks kursi paydo bo'ldi. Polshada "Madaniyat" kompleks kursini yaratishga urinish bo'ldi.

Chunonchi, Buyuk Britaniya ta'lim tizimida asosan integrativ fanlar joriy qilingan bo'lsa, Koreya va Shveysariyada integratsiyalashgan fanlar yoki alohida o'quv predmetlari Avstraliyada integratsiyalashtirilgan fanlar, Yaponiya, Shimoliy Irlandiya, Uels, Gong-Kong va Germaniyada ham alohida fanlar, Vengriyada madaniyat yo'nalishidagi o'quv predmetlari, inson va tabiat integrativ fanlar, Niderlandiyada alohida o'quv predmetlari, Rossiya Fanlar akademiyasining tarix institutida, Irlandiyada Fan va texnika kabi bloklarda barcha o'quv fanlari mujassamlashtirilgan holda o'qitiladi. Bizda bu sohada dastlabki qadamlar qo'yilmoqda.[3]

NATIJALAR

Tarix fanlarini o'qitishda o'qituvchilarini shaxsiy kasbiy salohiyatining individual va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda hayot davomida o'sishi jarayonini qamrab olgan "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi orqali kompetentlik darajasini oshirish va kasbiy mahoratini takomillashtirish mexanizmi sanaladi.

Ijtimoiy-siyosiy rivojlanish istiqbollari tabiat va jamiyatning ko'plab hodisalari mohiyatini tushunish, yoshlarning ijtimoiylashuvi va madaniylashuvi mamlakatning kelajagini belgilashi, milliy madaniy an'analar, qadriyatlarni saqlashi va rivojlantirishi nazariy-metodologik ahamiyatga ega bo'lib, sivilizatsiyalashgan yoshlarni shaxsiy va kasbiy o'sishini tadqiq etishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. [4]

Bunda tarix fanlarini o'qitish metodikalarini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida tinglovchilarning an'anaviy malaka oshirish bilan bir qatorda kasbiy o'qitishning uyg'unlashgan, ish jarayoni bilan birgalikda olib boriladigan, masofaviy va boshqa turlarini joriy etish ta'lim muassasalarining o'zaro teng huquqli hamkorligi asosidagi ta'lim turlari integratsiyasi hamda fanlararo, integratsion kurslar va bo'limlararo uzviylikni ta'minlashga asoslanmoqda.

Tarix fani o'qituvchilari malaka oshirish kurslari jarayonida, milliy o'quv dastur asosida tarix fanlarini o'qitishning integratsiyalashgan fanlar kesimida jadvallar, diagrammalar, xaritalar bilan ishlash, ilustratsiyalar tayyorlash multimediyali ilovalar yaratish bo'yicha o'ziga xos kompetensiyalarini yanada rivojlantiradilar.

O'qituvchining ijodiy izlanishlari natijasida darslar jarayonida o'quvchilar bilan birgalikda tarix va hayotni o'rganish o'rtasidagi bog'liqlik o'quvchilar bilim saviyasining ortishiga olib keladi.

O'qituvchilar tomonidan jarayonni uslubiy takomillashtirish bo'yicha doimiy izlanishlar olib borilgandagina o'quvchilar fanga oid kompetensiyalarni mukammal o'zlashtiradi.

Bu esa o'quvchilarda:

- mustaqil ishlash ko'nikmasini o'stirishga;
- tafakkur dunyosining rivojlanishiga;
- tahlil va taqqoslash ko'nikmasini shakillanishiga;
- notiqlik faoliyatini rivojlantirishga;
- olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish imkonini yaratadi.

MUHOKAMA

Pedagog xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish ulardagi kasb mahorati va malaka saviyasining doimiy o'sishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy talablarga muvofiq qayta tayyorlash va muntazam ravishda malaka oshirib borishning samarali mexanizmlarini joriy etish asosida mazkur xodimlarning yuqori saviyadagi uzluksiz kasbiy tayyorgarligini ta'minlashga yo'naltirilgan holda doimiy tarzda zamon bilan xamnafas holda o'qitish metodikalarini yangilab borish zarurati tug'ilmoqda.

Mamlakatimizda maktabgacha va maktab ta'limini isloh qilish va tarix fanlarini o'rganishda malaka oshirish kurslaridagi o'quvlarni hisobga olgan holda tarix fanlarini o'qitishning integratsiyalashgan fanlar kesimida tarix ta'limining quyidagi maqsadlarini belgilab olish maqsadga muvofiqdir:

- Ko'rgazmali qurollardan foydalanishi;
- Ilg'or dars o'tish uslubiyotini qo'llashi;
- Kompyuterdan foydalanib samarali dars o'tishi;
- Milliy va jahon madaniyati yutuqlari bilan tanishtirishi;
- Yangi pedagogik va innovatsion usullaridan foydalanib interfaol dars mashg'ulotlarini tashkil etishi.

Tarix fani o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi asosida malakasini oshirish bo'yicha umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablaridan kelib chiqib, tarix o'qituvchilari og'zaki o'qitish usulidan voz kechgan holda tarix fanlarini integratsion asosda o'qitishga, axborot texnologiyalari asosida multimediyali ilovalar hamda mustaqil ishlashga o'rgatishga katta ahamiyat berilmoqda.

Bu orqali o'quvchilarning tafakkur dunyoqarashini rivojlantirishning innovatsion metod va texnologiyalarini takomillashtirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

XULOSA

Integratsion yondashuv asosida tarix fani o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning maqsadi - tarix fani o'qituvchilarining dars beradigan fanlari bo'yicha kasbiy va pedagogik mahorati doimiy ravishda o'sib borishini, ularning ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, shuningdek, o'qitishning interaktiv usullari bo'yicha kasbiy bilimlari, malaka va ko'nikmalarini muntazam ravishda

yangilab borilishi asosini ta'minlashdan iborat.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, milliy o'quv dastur asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish ulardagi kasb mahorati va malaka saviyasining doimiy o'sishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy talablarga muvofiq tayyorlash va muntazam ravishda malaka oshirib borishning integratsion samarali mexanizmlarini joriy etish asosida tarix fani o'qituvchilarining yuqori saviyadagi uzluksiz kasbiy tayyorgarligini ta'minlashga yo'naltirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. "O'zbekiston", 2021. 233-B.
2. Yo'ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari: Ped. fan. dokt. ... diss. – T., 1997. – 256.; Husanboyeva Q.P. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari: Avtoref. ...ped.fan.dok. – T., 2007. – 39 b.)
3. Shonazarov Q.R. Bo'lajak tarix o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida tarixiy tafakkurni shakllantirishga tayyorlash. liss.ped.f.n. –Toshkent, 2002. -134 b
4. (Ta'lim taraqqiyoti 7-maxsus son. Sharq. Toshkent, 1999, 46-71-betlar.)

O'QITUVCHI SHAXSINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Eshquvvatova Farida Kozimovna

Sirdaryo viloyati Guliston shahar 8-maktabining amaliyotchi psixologi

Annotasiya: Maqolada o'qitish faoliyatida o'z vazifasini bajarish uchun zarur bo'lgan o'qituvchi shaxsining psixologik-pedagogik xususiyatlari, ta'lim samaradorligini ta'minlashda o'qituvchi va o'quvchi hamkorligining o'рни masalalariga tuxtaladi. Pedagogik faoliyat subekti bo'lgan o'qituvchi shaxsiga xos psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: O'quvchi, sabr, ishonch, motivatsiya, kommunikatsiya, ijodiylik, individual qo'llanma, tanqidga o'tish, o'z-o'zini rivojlantirish.

Respublikamizdagi uzluksiz ta'lim tizimi strategiyasi, taraqqiyoti, xalqimizning boy ma'naviy merosi va umuminsoniy qadriyatlari, madaniyat, iqtisod, fan- texnika va texnologiyalarda erishilgan yutuqlari negizida barcha davlat tuzilmalari va jamiyat tashkilotlari oldiga oliy pedagogik maktablar shuningdek, psixologiya fanlarining ham pedagogik kadrlar tayyorlash tizimi va ta'lim islohatlarini hayotga tadbiiq etishni jonlantiruvchi asosiy vazifalarini belgilab bergan. Aynan mazkur masalalarni keng doirada tadbiiq qilish zamon talablariga javob bera oladigan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. Albatta buning uchun insonlar psixologiyasini bilish, ularda kechadigan psixologik o'zgarishlarni anglagan holda yondashishni talab qilmoqda. Bu jarayonda o'z navbatida psixologik bilimlarga bo'lgan ehtiyojni ortib borishini ko'rishimiz mumkin. Chunki insonlar haqidagi bilimlarni qo'lga kiritish uchun avvalo psixologik bilimlardan xabardor bo'lishi lozim. Inson psixologiyasini bilish

asosida shaxsni shakllantirishga, uning ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratish mamlakatimiz taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi psixologiyasi ta'lim, tarbiya va o'quvchilarni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi, shakllanadi va o'zgaradi.

Pedagogik faoliyat – inson mehnatining eng murakkab va mas'uliyatli sohalaridan biri. Bundan kelib chiqib, jamiyat o'qituvchining shaxsiy va kasbiy xususiyatlariga Yuksak talablarni qo'yadi: Yuksak kasbiy mahorat, g'oyaga sadoqat, ma'naviylik, onglik, ijtimoiy mas'uliyat, o'zini tuta bilish, bosiqlik, olijanoblik, aqliy mukammallik, poklik, ya'ni jamiyat bolalarda gavdalantirishni istagan axloqiy, ruhiy va intellektual idealga muvofiqlik.

O'qituvchi shaxsning psixologik-pedagogik xususiyatlari, o'qitish faoliyatida o'z vazifasini bajarish uchun zarur bo'lgan xususiyatlardir. Bu xususiyatlarni quyidagicha ko'rsatib berish mumkin:

- *Sabrlilik*: O'qituvchining sabrli bo'lishi ta'lim jarayonida yaxshi samara beradi, chunki o'quvchilar o'rganish jarayonida turli darajada o'zaro farqda bo'lishlari mumkin. Sabr, o'quvchilarga kerakli yordam berish va ularga ko'maklashish imkonini beradi.

- *Adolatlilik*: O'qituvchi adolatli bo'lishi lozim. Barcha o'quvchilarga teng huquqlar berish va ularni boshqarishda tarafsizlikni saqlash kerak. Adolat, o'quvchilarning o'ziga va boshqalarga qarshi hurmatni o'rgatadi.

- *Ishonch bildirish*: O'qituvchi o'quvchilarga ishonchli bo'lishi kerak. Ular bilan o'zaro ishonchni o'rgatish va ulardagi potentsialni aniqlash uchun ularga yo'l-yo'riq berish lozim. O'quvchiga ishonch bera olish, o'quvchilarning o'zlariga ishonishini oshirish bilan birga o'qituvchiga bo'lgan hurmatni shakllantiradi.

- *Motivatsiya*: O'qituvchi o'quvchilarni o'rgatishga va o'zlashtirishga motivatsiya yaratishi kerak. Motivatsiya, o'quvchilarning maqsadlarga erishishga qaratilgan qobiliyatlarini oshiradi.

- *Mavjud bilim va tajriba*: O'qituvchining katta darajada bilim va tajribaga ega bo'lishi muhimdir. Bu, o'quvchilarga yuqori sifatli ta'lim berish va ulardan kelajakda o'zlarini rivojlantirish uchun kerakli bilim va tajribani ta'minlashga yordam beradi.

- *Kommunikatsiya(muloqot o'rnata olish)*: O'qituvchi o'quvchilar bilan samarali kommunikatsiya o'rnatishi kerak. Yaxshi kommunikatsiya o'quvchilar bilan o'zaro aloqani kuchaytiradi, ularning ehtiyojlari va muammolarini tushunishga imkon beradi.

- *Ijodiylik*: O'qituvchi ijodiylikni oshirishi va o'quvchilarga ijodiy fikrlashni o'rgatishi kerak. Bu, ularga muammolar yechish va eng yaxshi yechimlarni topishga yordam beradi.

- *Individual qo'llanma*: O'qituvchi har bir o'quvchi bilan individual ravishda ishlash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Har bir o'quvchi o'ziga xos qobiliyat va ehtiyojlarga ega bo'lishi mumkin, shuning uchun o'qituvchi ularni individual qo'llanmalarga asoslangan ta'lim berishi kerak.

- *Tanqidga o'tish*: O'qituvchi o'z faoliyatini tanqidga ochiq bo'lishi kerak. Bu, o'zini rivojlantirish va o'quvchilarga yaxshi ta'lim berish uchun zarur bo'lgan

o'zini baholash va o'zini yangilash imkonini beradi.

- *O'z-o'zini rivojlantirish*: O'qituvchi o'z-o'zini rivojlantirishga investitsiya qilishi kerak. O'zini rivojlantirish, yangi o'quv-uslublarini o'rganish, so'nggi pedagogik xabarlarini kuzatish va o'z faoliyatini yanada yaxshilashga imkon beradi.

Bu faoliyatning barcha xususiyatlari o'quvchilar bilim va shaxsiy rivojlanishiga e'tibor berishga yordam beradi. O'qituvchi o'quvchilarga yaxshi ta'lim berish va ularni o'zlarini rivojlantirishga yo'l-yo'riq berish uchun bu xususiyatlarni rivojlantirishga intiladi.

O'qituvchining pedagogik qobiliyati. Bolalarga mehr – o'qituvchining muhim shaxsiy va professional xususiyatidir. Usiz samarali pedagogik faoliyat yo'q.

O'qituvchi o'quvchilar hayoti va faoliyatining tashkilotchisi bo'lishi, har bir bolaning psixologiyasini yaxshi bilishi va o'zi ham yetarlicha pedagogik qobiliyatga ega bo'lishi kerak.

Pedagogik qobiliyat – o'qituvchi shaxsining ma'lum bir psixologik xususiyatlari bo'lib, bolalarga ta'lim berish va ularni tarbiyalashda yuqori natijalarga erishish shartidir.

O'qituvchi o'quvchilarini, ularning o'zaro munosabatlarini barobar qabul qilish va ko'rish qobiliyatini doimo mukammallashtirishi zarur, o'zining ular bilan munosabatlarini ayni paytda qanday bo'lsa shunday, ya'ni o'quv–tarbiyaviy jarayonda sodir bo'layotgan voqealarni tashqi ta'sir emas, balki ichki sabab natijasida qabul qila olishi zarur. Bu oson emas. Gap shundaki, o'qituvchi o'quvchilarga munosabatda har doim tashqi pozitsiyada qoladi, har doim u yoki bu darajada ulardan, ularning hayoti va faoliyatidan chetda turadi, vaholanki, u bularning tashkilotchi-sidir.

O'qituvchi uchun zarur bo'lgan boshqa sifatlar orasidan yana pedagogik taktni, madaniyatni ajratib ko'rsatish mumkin. O'qituvchidan yoshlarning murabbiyi sifatida adekvat, to'g'ri qabul qilish yoki ijtimoiy umidlarga mos xatti-harakat qilish talab etiladi.

Shunday qilib, xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, pedagoglarning pedagogik mahoratida shaxsiy faoliyat tizimini ishlab chiqish muhimdir. Pedagog bir xil metodlarda dars o'tish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Aksincha, u o'qitish metodlarini takomillashtirish ustida tinimsiz ishlashi zarur. Xalqimizning kelajagi mustaqil O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan pedagogga, unning saviyasiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyashiga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davletshin M.G. va boshqalar. “Yosh davrlar va pedagogik psixologiya”. – T.: TDPU. 2009.
2. Югай А.Х., Мираширова Н.А. “Общая психология”-Ташкент 2014.
3. U.Fayziyeva, N.Jumayev. Umumiy psixologiya: Buxoro,, 2021.

MATEMATIKA DARSLARIDA IQTIDORLI O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKASI

*Tashtemirova Nargiza Nematovna, Ikromova E‘zoza Ikrom qizi
Perfect University, Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrası katta
o‘qituvchisi, e-mail: tnargiz76@mail.ru;*

*Perfect University, Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2-kurs sirtqi bo‘lim
talabasi, e-mail: ikromovaezoza98@gmail.com*

Malakali pedagoglarga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, iqtidorni kerakli yo‘nalishda rivojlantirish uchun ijodiy yondashish va uni yuzaga chiqarish uchun zarur shart-sharoitni yaratish, o‘quvchilar ruhiyatini tushuna olish va malakali yordam bera olishdan iborat. Iqtidor - inson psixikasining butun umr davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo‘lib, insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori natijalarga erishish imkoniga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Iqtidorli o‘quvchilar boshqa o‘quvchilardan quyidagi belgilari bilan ajralib turadilar:

- qiziquvchanligi;
- doimo turli savollarga javob axtarishligi;
- nutqi, tafakkuri, xotirasining tez rivojlanishi;
- erta yoshdanoq musiqa, rasm chizish, kitob o‘qish, matematikaga qiziqishi;
- yuqori darajadagi bilish faolligi va o‘quv faoliyati;
- masalalarning yechimini topishda maqsadga intiluvchanlik va originallik;
- tafakkurning unumdorligi.

Amerikalik psixolog L.Termannning fikricha, “iqtidorlilarni to‘g‘ri tarbiyalash” “ideal darajadagi kattalar”ga aylanadi va ular haqiqiy hayotda muvaffaqiyat qozonadi [1]. Shuning uchun bolalarning iqtidorini saqlab qolish pedagogik muammo bo‘lib, aslida tarbiyaviy muammoga aylanadi. Ko‘plab tadqiqotchilar shunday xulosaga keldilarki, aksariyat iste‘dodli bolalar ko‘plab tengdoshlaridan farq qilib turuvchi alohida xususiyatlarga ega bo‘lishadi. Iqtidorli bolalarda dunyoni bilish usullari har doim ham an‘anaviy ta‘lim muhitiga muvofiq kelmaydi[2]. Chunki iqtidorli bolalar uchun bu dunyoni tushunish ularning idrokida organik ravishda mos keladigan odatiy hodisadir. Iqtidorli bola konformizmga moyil bo‘lmaganligi sababli bir qator qiyinchiliklarga duch keladi. Ba‘zi iqtidorli o‘quvchilar zerikarli va takrorlanadigan o‘quv dasturlari va o‘qitish usullariga qiziqish yo‘qligi sababli maktabni bilvosita yoki ochiq rad etadilar. Iqtidorli o‘quvchilarda ko‘pincha jismoniy, intellektual va ijtimoiy rivojlanish o‘rtasida nomuvofiqlik mavjud bo‘lib, bu ko‘plab muloqotdagi qiyinchiliklarga va boshqalarga yoqmaydigan muloqot fazilatlarining rivojlanishiga sabab bo‘ladi va ko‘pincha nizolarga olib keladi.

Iqtidorli o‘quvchilarda mulohaza yuritishning mustaqilligi, kognitiv egosentrizm, mukammallikka intilish, etakchilik, tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlarning raqobatbardosh shakllariga intilish, odamlar va hodisalarni baholashda, o‘ziga va boshqalarga talablarning kuchayishi, har qanday adolatsizlikni rad etish, muvaffaqiyatsizlik qo‘rquvi, haqiqiy va xayoliy xavf kabi fazilatlar ularni odatiy, hamma uchun yaratilgan oddiy munosabatlar bilan har doim

muvofiglanmaydi[3].

Maktab o'quvchilari bilan pedagogik ish shakllari asosida iqtidorli bolalar bilan o'zaro munosabatlar quyidagi strategiyalari yotadi:

– iqtidorli bolalar uchun maxsus ta'lim dasturlarini ishlab chiqish;


– iqtidorli bolalarni sezilarli darajada qo'llab-quvvatlash;

– iqtidorli bolaning ta'lim mazmunini muvofiglashtirish.

Boshlang'ich ta'lim dasturlari, o'qitilayotgan o'quv predmetlarining tahliliy natijalari shuni ko'rsatadiki, 1-4-sinf o'quvchilarida iqtidorini rivojlantirishni bir necha bosqichda amalga oshirish uchun imkoniyat yaratilgan. Jumladan, darsda o'quvchilarning ijodiy faoliyatiga yo'naltirilgan o'quv materiallarini to'g'ridan to'g'ri taqdim qilinishi belgilanmagan bo'lsa-da, mahoratli o'qituvchi o'z faoliyatini o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishni turli metodlar asosida amalga oshirishi mumkin. Masalan, boshlang'ich sinflarning «Matematika» darsida bolalarning iqtidorini rivojlantirish uchun o'quv materiallarida berilgan tushunchalarga mos turli qiyinchilikdagi topshiriqlarni o'quvchilarga taqdim etish mumkin. Quyida boshlang'ich sinf matematika faniga qiziquvchi va iqtidorli o'quvchilar uchun topshiriqlar va ularni yechish usullarini ko'rib chiqaylik.

1-masala. Suv bilan to'ldirilgan idishning vazni 400 grammga teng. Bo'sh idishning vazni 100 grammga teng. Yarmigacha suv bilan to'ldirilgan idishning og'irligini aniqlang?

(A) 150 (B) 200 (C) 225 (D) 250 (E) 300



Yechilishi: Avval suv bilan to'la idishdagi suvning vaznini topib olishimiz kerak. Bizga ma'lumki, bo'sh idishning vazni 100 grammni tashkil qiladi. Birinchi idishdagi suvni vaznini topib olishimiz uchun quyidagi amalni bajaramiz.

$$400 \text{ gr} - 100 \text{ gr} = 300 \text{ gr}$$

Bizga birinchi idishdagi suvning sof vazni ma'lum bo'ldi. Endi yarmigacha suv bilan to'ldirilgan idishning og'irligini aniqlaymiz?

Buning uchun 300 grammli suvni yarimi necha gramm bo'lishini aniqlab olishimiz zarur.

$$300 : 2 = 150$$

Yarimigacha suv bilan to'ldirilgan idishda 150 gramm suv borligini aniqladik. Yarmigacha suv bilan to'ldirilgan idishning og'irligini topamiz:

$$150 + 100 = 250$$

Javob: Yarimigacha suv bilan to'ldirilgan idishning og'irligi 250 gramm.

2-masala. Qahvaxonada 16 ta to'rt o'rinli stol bor, qolgan stollar olti o'rinli. Qahvaxonada hammasi bo'lib 172 kishini sig'dira oladi. Qahvaxonada nechta olti o'rinli stol bor.



$$= 16$$



$$= ?$$

Yechilishi: Bizga qahvaxonada 16 ta to‘rt o‘nli stol borligi ma’lum. 16 ta to‘rt stoli o‘rindiqqa qancha odam o‘tirishi mumkinligini aniqlab olamiz:

$$16 \cdot 4 = 64$$

Qahvaxona jami 172 kishini sig‘dira oladi. 64 o‘rinli joy 4 o‘rinli bo‘lsa, qolgani 6 o‘rinli stollardan iborat:

$$172 - 64 = 108$$

Endi masalaning asosiy savoliga o‘tamiz. Qahvaxonada nechta olti o‘rinli stol bor? Biz masalani ishlash davomida 172 o‘rinli qahvaxonaning 64 ta o‘rni 4 ta stoli o‘rinlilarga to‘g‘ri kelishini bilib oldik. Demak qolgan 108 ta o‘rinli 6 o‘rinli joylar ekan. Qahvaxonada necha 6 o‘rinli joy borligini aniqlaymiz:

$$108 : 6 = 18$$

Qahvaxonada 16 ta 4 o‘rinli joy va 18 ta 6 o‘rinli joylar bor ekan.



3-masala. Ruqiya ikkita non bo‘laklaridan buterbrod tayyorladi. Paketda 24 ta non bo‘lagi bor. Agar Ruqiyada bunday paketdan ikki yarimta bo‘lsa, u nechta buterbrod tayyorlay oladi.

- (A) 24 (B) 30 (C) 48 (D) 34 (E) 26

Yechilishi:

Masala shartiga ko‘ra ikkita non bo‘lagidan bitta buterbrod tayyorlash mumkin. Bitta paketda 24 bo‘lak non bor. Dastlab, bitta paketdagi non bo‘laklaridan nechta buterbrod tayyorlash mumkinligini topamiz: $24 : 2 = 12$.

Demak, bitta non paketidan 12 ta buterbrod tayyorlash mumkin. Ruqiyada esa shunday paketdan 2 yarimta bor. Biz 2 yarimta paketdagi nonlardan nechta buterbrod tayyorlash mumkinligini aniqlaymiz.



Ikkita non paketchadagi nonlardan Ruqiya 24 ta buterbrod tayyorlay oladi. Yarimta non paketidagi nonlardan nechta buterbrod tayyorlash mumkinligini aniqlaymiz.

$$12:2=6$$

Demak, 12 ta non bo'laklaridan 6 ta buterbrod tayyorlash mumkin. 2 yarimta paketdagi nonlardan nechta buterbrod tayyorlanish mumkinligini aniqlaymiz.

$$12+12+6=30$$

Ruqiya ikki yarimta non paketchasidan 30 ta buterbrod tayyorlay olar ekan.

Ta'kidlash joizki, iqtidorli o'quvchilarni rivojlantirish muammosini hal qilish uchun ta'lim tizimining asosiy shaxsi sifatida o'qituvchining faoliyatini qayta qurish, uning shaxsiy ustuvorliklarini, kasbiy pozitsiyalarini va vakolatlarini o'zgartirish kerak. Iqtidorli bolalar bilan pedagogik faoliyat ko'p qirrali bo'lib, ilg'or individuallashtirilgan ta'limni tashkil etish, mehnat obyektlariga emas, balki alohida ehtiyojli o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan o'quv faoliyatini modellashtirish masalalarini hal qilishga qaratilgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Одарённые дети – образовательный вызов XXI века: сб. статей / под общ.ред. С.В.Жолована, под науч. ред. Л.М.Ванюшкиной. – Вып. 1. – СПб.: СПбАППО, 2014. – 70 с

2. Yarmatov R.B. Iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi va tarixi. Ta'limda menejment pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent – 2017.

3. Raxmatova F. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash texnologiyasini takomillashtirish: Ped. fan. fal. dok. disser – Samarqand., 2020

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O'ZIGA HOS JIHATLARI

N.N.Abdullajonova, S.O'.Isaqova

TATU Farg'ona filiali, assistant; TATU Farg'ona filiali, talaba

Raqamli texnologiyalar bilan o'qitish o'qitish va o'rganish tajribasini yaxshilash uchun turli xil raqamli vositalar, resurslar va platformalarni o'quv amaliyotiga integratsiyalashni o'z ichiga oladi. Raqamli texnologiyalar bilan samarali o'qitish uchun ba'zi strategiyalar va eng yaxshi amaliyotlar:

Aniq o'quv maqsadlarini qo'yish: Darslaringiz yoki bo'limlaringiz uchun aniq o'quv maqsadlari va natijalarini aniqlang. Raqamli texnologiyalar interaktiv faoliyat, multimedia resurslari yoki hamkorlikdagi loyihalar orqali bu maqsadlarni qanday qo'llab-quvvatlashi va yaxshilashi mumkinligini aniqlash zarur.

Tegishli raqamli vositalarni tanlash: o'quv maqsadlaringiz va talabalar ehtiyojlariga mos keladigan raqamli vositalar va resurslarni tanlang. Talabalarigizning yoshi, sinf darajasi va fan sohasi, shuningdek, asboblarning xususiyatlari va funktsiyalari kabi omillarni ko'rib chiqiladi.

Ta'lim va qo'llab-quvvatlash: Talabalarni siz foydalanadigan raqamli vositalar va platformalar bilan tanishtirish uchun o'qitish va qo'llab-quvvatlashni taklif qiling. Talabalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ishonch

va malaka oshirish uchun bosqichma-bosqich ko'rsatmalar, o'quv qo'llanmalar va amaliy mashg'ulotlar uchun imkoniyatlar taqdim etiladi.

Raqamli savodxonlikni rag'batlantirish: Talabalarga raqamli savodxonlik ko'nikmalarini, jumladan, raqamli vositalarni boshqarish, onlayn ma'lumotlarni baholash va texnologiyadan mas'uliyatli va axloqiy foydalanishni o'rgatish. Raqamli fuqarolik, internet xavfsizligi va maxfiylik bo'yicha darslarni o'quv rejangizga kiritiladi.

Differentsial ta'lim: Ta'limni farqlash va talabalarigizning turli ehtiyojlarini qondirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalaning. Moslashuvchan ta'lim platformalari, multimedia resurslari va interfaol tadbirlar o'quvchilarning individual qobiliyatlari va qiziqishlariga moslashtirilgan shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasini taqdim etishi mumkin.

Faol ta'limni rag'batlantirish: faol ishtirok etish va tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradigan qiziqarli va interaktiv ta'lim tadbirlarini loyihalash. O'rganishni yanada dinamik va amaliy qilish uchun o'quv o'yinlari, simulyatsiyalar va multimedia kontenti kabi raqamli vositalardan foydalaniladi.

Hamkorlikni rivojlantirish: Raqamli platformalar va vositalar orqali talabalar o'rtasida hamkorlik va muloqotni osonlashtirish. Onlayn muhokama forumlari, hamkorlik hujjatlari va virtual guruh loyihalari talabalarga birgalikda ishlash, fikr almashish va bir-biridan o'rganish imkonini beradi.

O'z vaqtida fikr-mulohazalarni taqdim eting: Talabalarga ularning muvaffaqiyati va ishlashi haqida o'z vaqtida va konstruktiv fikr bildirish uchun raqamli vositalardan foydalaning. Onlayn viktorinalar, baholashlar va baholash platformalari fikr-mulohazalar jarayonini soddalashtiradi va sizga talabalarning tushunchalarni tushunishi va o'zlashtirishini kuzatish imkonini beradi.

Nazorat qilish va sozlash: Talabalarning raqamli texnologiyalardan foydalanishi va ishtirokini doimiy ravishda kuzatib boring va kerak bo'lganda o'quv strategiyalaringizni o'zgartiring. Talabalarning fikr-mulohazalari va baholash ma'lumotlariga e'tibor berib, takomillashtirish kerak bo'lgan sohalarni aniqlash va o'qitish amaliyotini takomillashtirish zarur.

Mulohaza yuriting va takrorlang: Raqamli texnologiyalar bilan dars berish tajribangiz haqida fikr yuriting va nima yaxshi ishlagan va nimani yaxshilash mumkinligini aniqlang. Talabalar va hamkasblarning fikr-mulohazalarini so'rang va bu fikr-mulohazalardan kelgusi darslar uchun o'quv yondashuvlaringizni takrorlash va takomillashtirish uchun foydalaniladi.

Ushbu strategiyalar va ilg'or tajribalarni o'z ichiga olgan holda, o'qituvchilar o'qitish va o'rganish tajribasini yaxshilash, talabalarni jalb qilish va akademik muvaffaqiyatlarni rag'batlantirish uchun raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X Qodirov, X Rajabova, N Abdullajonova, Z Otaxonova, I Aliev, On analytical study of heat transfer phenomenon in special-shape soldering iron. E3S Web of Conferences 508, 05006

2. NN Abdullajonova, FF TATU, SO Isaqova, FF TATU, G'OYALARNI RIVOJLANTIRISHDA INFOGRAFIKANING RO'LI, Reserch and publication conference, part-I, 2023, 91-94

3. NN Abdullajonova, FF TATU, SO Isaqova, FF TATU, MASSMEDIA VA MULTIMEDIA TA'LIM OMILLARI SIFATIDA, Reserch and publication conference, part-I, 2023, 88-90

4. NM Jo'rayev, NN Abdullajonova Kontent marketingi ma'lumotlardan foydalanishning o'ziga hos xususiyatlari, Journal of technical research and development 1 (1), 151-157

5. N Jo'rayeva, N Abdullajonova, YANGI POCHTA ALOQASI XIZMATLARI. Journal of technical research and development 1 (3), 140-145

6. N Jo'rayeva, N Abdullajonova XIZMAT TURLARI BO'YICHA BOZOR SEGMENTATSIYASI VA UNING HOLATI. Journal of technical research and development 1 (3), 135-139

7. G'aniyeva, S. (2023). VIRTUAL REALLIKKA ASOSLANGAN TA'LIMYIY RESURSLAR YARATISH MUAMMOSINI TADQIQ QILISH YO'NALISHLARI. Engineering problems and innovations.

8. G'aniyeva, S. (2023). VIRTUAL REALLIKKA ASOSLANGAN TA'LIM RESURSLARI VA ULARNING TASNIFI. Engineering problems and innovations.

TELEKOMMUNIKATSIYA FANLARINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Jo'rayev Nurmuhammad Mamatovich

TATU Farg'ona filiali, dotsent

Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish uni an'anaviy usullardan ajratib turadigan bir qancha o'ziga xoslik va mulohazalarni keltirib chiqaradi. E'tiborga olish kerak bo'lgan ba'zi asosiy fikrlar:

Raqamli savodxonlik: Raqamli texnologiyalarni birlashtirish talabalar va o'qituvchilardan raqamli savodxonlik ko'nikmalariga ega bo'lishni talab qiladi. Bu raqamli vositalarni boshqarish, onlayn ma'lumotni tanqidiy baholash va texnologiyadan mas'uliyatli va axloqiy foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Moslashuvchanlik: Ta'limdagi raqamli texnologiyalar doimiy ravishda rivojlanib bormoqda, bu o'qituvchilardan o'z o'qitish usullari va o'quv materiallarini mos ravishda moslashtirishni talab qiladi. Moslashuvchanlik va o'zgarishlarga ochiqlik raqamli vositalarni o'qitish amaliyotiga samarali integratsiya qilish uchun zarurdir.

Kirish va tenglik: Raqamli texnologiyalar rivojlangan ta'lim tajribasi uchun imkoniyatlar taqdim etsa-da, texnologiya va internetga ulanish barcha talabalar uchun teng bo'lmasligi mumkin. Raqamli resurslardan foydalanishni ta'minlash va raqamli tafovutni bartaraf etish ta'limda tenglikni ta'minlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ma'lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligi: Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish ma'lumotlar maxfiyligi va xavfsizligi bilan bog'liq

xavotirlarni keltirib chiqaradi. O'qituvchilar va muassasalar o'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish choralarini ko'rishlari va tegishli ma'lumotlarni himoya qilish qoidalariga rioya qilishlari kerak.

Ishtirok etish va motivatsiya: Raqamli texnologiyalar interaktiv multimedia kontenti, o'yinlar va shaxsiylashtirilgan o'quv tajribalari orqali o'quvchilarning faolligini va motivatsiyasini oshirishi mumkin. Biroq, talabalarning faolligini saqlab qolish va raqamli chalg'itishlarning oldini olish hal qilinishi kerak bo'lgan muhim muammolardir.

Kasbiy rivojlanish: O'qituvchilar raqamli texnologiyalarni o'qitish amaliyotiga samarali integratsiya qilish uchun doimiy kasbiy rivojlanishni talab qiladi. O'quv dasturlari va resurslari o'qituvchilarni raqamli savodxonlik ko'nikmalarini, o'quv dizayni bo'yicha tajriba va texnologiya integratsiyasi strategiyalarini rivojlantirishda qo'llab-quvvatlash uchun zarurdir.

Aralashtirilgan ta'lim modellari: An'anaviy yuzma-yuz o'qitishni onlayn ta'lim faoliyati bilan aralashtirish puxta rejalashtirish va muvofiqlashtirishni talab qiladi. Samarali aralash ta'lim tajribasini ishlab chiqish tegishli raqamli vositalarni tanlash, o'quv faoliyatini tizimlashtirish va shaxsan va masofaviy o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi.

Baholash va fikr-mulohaza: Raqamli texnologiyalar onlayn viktorinalar, multimedia loyihalari va tengdoshlar bilan fikr-mulohazalar platformalari kabi yanada moslashuvchan va interaktiv baholash usullari uchun imkoniyatlarni taklif etadi. Biroq, raqamli baholashning haqiqiyliги, ishonchliligi va adolatliligini ta'minlash ehtiyotkorlik bilan loyihalash va amalga oshirishni talab qiladi.

Hamkorlik va aloqa: Raqamli texnologiyalar geografik joylashuvidan qat'i nazar, talabalar va o'qituvchilar o'rtasida hamkorlik va muloqotni osonlashtiradi. Onlayn hamkorlik vositalari, aloqa platformalari va virtual sinflar asenkron va sinxron o'zaro ta'sirlarni ta'minlaydi, jamoaviy ish va bilim almashishni rag'batlantiradi.

Axloqiy mulohazalar: Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish mualliflik huquqi, plagiat, onlayn xulq-atvor va raqamli fuqarolik bilan bog'liq axloqiy mulohazalarni oshiradi. O'qituvchilar texnologiyadan mas'uliyatli foydalanishni targ'ib qilish va talabalar o'rtasida axloqiy xulq-atvorni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ushbu o'ziga xosliklarni tan olish va ular bilan bog'liq muammolarni hal qilish orqali o'qituvchilar o'qitish va o'rganish tajribasini yaxshilash, talabalar muvaffaqiyatini rag'batlantirish va o'quvchilarni raqamli asr talablariga tayyorlash uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishlari mumkin.

Raqamli texnologiyalar yordamida telekommunikatsiya fanlarini o'qitish talabalarni jalb qilish, amaliy o'rganish tajribasini osonlashtirish va ularni tez rivojlanayotgan telekommunikatsiya sohasida martaba tayyorlash uchun ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda telekommunikatsiya fanlarini o'qitishning samarali strategiyalari:

Simulyatsiya dasturiy ta'minoti: O'quvchilarga telekommunikatsiya tarmoqlari va tizimlarini loyihalash, sozlash va nosozliklarni bartaraf etishda virtual amaliy tajribalarni taqdim etish uchun simulyatsiya dasturidan foydalaning.

Simulyatorlar talabalarga turli stsenariylar bilan tajriba o'tkazish, real vaqtda natijalarni kuzatish va xavf-xatarsiz muhitda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish imkonini beradi.

Onlayn laboratoriyalar: Talabalar real telekommunikatsiya uskunalari va qurilmalariga masofadan kirishlari va ularni boshqarishlari mumkin bo'lgan onlayn laboratoriyalar yoki virtual laboratoriyalarni o'rnatish. Virtual laboratoriyalar o'quvchilarga internetga ulangan istalgan joydan tajribalar o'tkazish, o'lchovlar o'tkazish va ma'lumotlarni tahlil qilish imkonini beradi, bu esa foydalanish imkoniyati va moslashuvchanlikni oshiradi.

Interaktiv multimedia resurslari: telekommunikatsiyadagi murakkab tushunchalar va jarayonlarni tushuntirish uchun videolar, animatsiyalar va interfaol o'quv qo'llanmalari kabi interaktiv multimedia resurslarini qo'shish. Multimedia resurslari mavhum tushunchalarni ko'proq tushunarli va jozibador qiladi, vizual va eshitish o'quvchilariga xizmat qiladi.

Hamkorlikdagi loyihalar: Talabalardan raqamli hamkorlik vositalaridan foydalangan holda telekommunikatsiya yechimlarini loyihalash, amalga oshirish va baholash uchun birgalikda ishlashni talab qiladigan hamkorlik loyihalarini tayinlang. Loyihani boshqarishning onlayn platformalari, hamkorlikdagi hujjatlar va aloqa vositalari talabalar o'rtasida jamoaviy ish va muvofiqlashtirishni osonlashtiradi.

Masofaviy laboratoriyalar: telekommunikatsiya kompaniyalari yoki tadqiqot institutlari bilan hamkorlik qiling, bu erda talabalar masofadan turib boshqarish va real telekommunikatsiya uskunalari va tizimlari bilan o'zaro aloqada bo'lishlari mumkin bo'lgan masofaviy laboratoriyalarga kirishni ta'minlash. Masofaviy laboratoriyalar haqiqiy o'rganish tajribasini taklif qiladi va talabalarni ilg'or texnologiyalar va sanoat amaliyotlari bilan tanishtiradi.

Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR): telekommunikatsiya sohasida chuqur o'rganish tajribasini yaratish uchun virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalaridan foydalanishni o'rganing. VR va AR simulyatsiyalari talabalarga murakkab telekommunikatsiya tushunchalari va muhitlarini tasavvur qilish va ular bilan o'zaro aloqada bo'lish imkonini beradi, ularning tushunishini va asosiy tushunchalarni saqlab qolishini oshiradi.

Onlayn munozaralar va forumlar: Talabalar tengdoshga o'rganishda ishtirok etishlari, tushunchalar almashishlari va telekommunikatsiya mavzulariga oid savollar berishlari mumkin bo'lgan onlayn munozaralar va forumlarni rag'batlantirish. Munozara forumlari talabalar o'rtasida faol ishtirok etish, tanqidiy fikrlash va bilim almashishga yordam beradi, hamkorlikda o'quv hamjamiyatini yaratadi.

Onlayn baholash va fikr-mulohazalar: Viktorinalar, testlar va topshiriqlarni boshqarish uchun onlayn baholash vositalari va platformalarini joriy qiling va talabalarga o'z vaqtida fikr-mulohazalarni taqdim eting. Onlayn baholash vositalari baholash jarayonini soddalashtiradi, darhol fikr-mulohazalarni bildiradi va o'qituvchilarga o'quvchilarning muvaffaqiyati va ish faoliyatini samarali kuzatish imkonini beradi.

Kasbiy rivojlanish resurslari: O'qituvchilarga telekommunikatsiya ta'limining eng so'nggi tendentsiyalari, texnologiyalari va ilg'or tajribalaridan xabardor bo'lishlari uchun onlayn professional rivojlanish resurslariga, vebinarlarga va kurslarga kirishni ta'minlash. Kasbiy rivojlanish imkoniyatlari o'qituvchilarga o'zlarining o'qitish ko'nikmalarini va sohadagi tajribalarini oshirishga imkon beradi.

Sanoat hamkorliklari va mehmon ma'ruzachilar: sanoat hamkorlari bilan hamkorlik qiling va telekommunikatsiya kompaniyalari, nazorat qiluvchi idoralar va tadqiqot institutlaridan o'z tajribalari, tushunchalari va real dunyo tajribasini talabalar bilan bo'lishish uchun mehmon ma'ruzachilarni taklif qiling. Sanoat hamkorliklari talabalarni martaba imkoniyatlari va sanoat tendentsiyalari bilan tanishtirib, akademiya va sanoat o'rtasidagi tafovutni bartaraf etadi.

Telekommunikatsiya fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali o'qituvchilar talabalarni telekommunikatsiya sohasida va undan tashqarida muvaffaqiyatga tayyorlaydigan dinamik, interaktiv va tajribali o'quv muhitlarini yaratishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X Qodirov, X Rajabova, N Abdullajonova, Z Otaxonova, I Aliev, On analytical study of heat transfer phenomenon in special-shape soldering iron. E3S Web of Conferences 508, 05006

2. NN Abdullajonova, FF TATU, SO Isaqova, FF TATU, G'OYALARNI RIVOJLANTIRISHDA INFOGRAFIKANING RO'LI, Reserch and publication conference, part-I, 2023, 91-94

3. NN Abdullajonova, FF TATU, SO Isaqova, FF TATU, MASSMEDIA VA MULTIMEDIA TA'LIM OMILLARI SIFATIDA, Reserch and publication conference, part-I, 2023, 88-90

4. NM Jo'rayev, NN Abdullajonova Kontent marketingi ma'lumotlardan foydalanishning o'ziga hos xususiyatlari, Journal of technical research and development 1 (1), 151-157

5. N Jo'rayeva, N Abdullajonova, YANGI POCHTA ALOQASI XIZMATLARI. Journal of technical research and development 1 (3), 140-145

6. N Jo'rayeva, N Abdullajonova XIZMAT TURLARI BO'YICHA BOZOR SEGMENTATSIYASI VA UNING HOLATI. Journal of technical research and development 1 (3), 135-139

7. G'aniyeva, S. (2023). VIRTUAL REALLIKKA ASOSLANGAN TA'LIMiy RESURLAR YARATISH MUAMMOSINI TADQIQ QILISH YO'NALISHLARI. Engineering problems and innovations.

SUN'IIY INTELEKT YORDAMIDA ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI AVTOMATLASHTIRISH VA OPTIMALLASHTIRISH

Ergashev Sanjar Toshtemir o'g'li

*Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali, o'qituvchisi,
sanjaregashev0305@gmail.com*

Annotatsiya: Sun'iy intellektning ma'lumotlarni kiritish, monitoring va nazorat qilish kabi an'anaviy ravishda inson operatorlari tomonidan bajariladigan odatiy vazifalarni avtomatlashtirishdagi rolini o'rganishdan boshlanadi. Mashinani o'rganish algoritmlari va ilg'or robototexnikadan foydalangan holda ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarish ish oqimlarini soddalashtirishi, mehnat xarajatlarini kamaytirishi va xatolarni minimallashtirishi mumkin, bu esa operatsion samaradorlik va izchillikni oshirishga olib keladi.

Kalit so'zlar: Ishlab chiqarishda sun'iy intellekt, Jarayonlarni avtomatlashtirish, Optimallashtirish texnikasi, Ishlab chiqarish samaradorligi, AIga asoslangan ishlab chiqarish, Ishlab chiqarishni optimallashtirish, Aqlli ishlab chiqarish, Bashoratli texnik xizmat ko'rsatish, Ta'minot zanjirini optimallashtirish, AI bilan sifat nazorati.

Sun'iy intellekt inson intellektiga taqlid qilishga qodir bo'lgan texnologiyadir va u odatda ong bilan bog'liq imkoniyatlar: Tilni tushunish o'rgatish muhokama qilish masalani yechish tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'ullanadi. Hozirda sun'iy intellekt turli amallarni bajarishga mo'ljallangan algoritmlar hamda dasturiy tizimlardan iborat va u inson ongi bajarishi mumkin bo'lgan bir qancha vazifalarning uddasidan chiqariladi.

Shunday ekan bu texnologiyaning tijoratda tutgan o'rni muhim hisoblanadi.

Ammo dastlab bu tushuncha jamiyatimiz tomonidan tahlidli hisoblangan bo'lsada birinchi insoniyatga tadbiiq qilingan texnologiyalardan biri chat GPT insonlar tomonidan ijobiiy baholandi. O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish uchun sun'iy intellektdan tobora ko'proq foydalanilmoqda. Bugungi kunda kompaniya rahbarlari o'z bizneslarida sun'iy intellektdan barcha sohalarida foydalanishni niyat qilishmoqda. NFOLine kompaniyalari rahbari Ivan Fedakovning so'zlariga ko'ra, turli so'rovlar shuni ko'rsatadiki, dunyodagi eng yirik tashkilotlarning 70 foizdan ortig'i sun'iy intellekt texnologiyalariga muhtoj, biroq hozirgacha ularning atigi 5 foizigina sun'iy intellektni joriy qilgan. Masalan, global elektron tijorat yetakchilaridan biri Amazon neyron tarmog'i mijozlarga avvalgi xaridlari tarixidan foydalangan holda bergan tavsiyalari tufayli sotuvlarning 30 foiziga erishganini taxmin qildi, dedi Ivan Fedakov.

Udan tashqari sun'iy intellekt yuzni tanib olish va "jonlilik"ni tekshirish uchun masofaviy biometrik identifikatsiyada faol qo'llaniladi. "Ushbu sektorda bozor faqat 2023-yilda 27 milliard dollardan oshadi va bu raqamlar ortib bormoqda. Marketing hamda telekommunikatsiya yo'nalishlarida Sun'iy intellektning yana bir qiziqarli qo'llanilishi - bu nutq tahlili. 3iTech direktori Dmitriy Makarenkoning

soʻzlariga koʻra, ushbu asboblarning toʻplami xodimlarning mijozlar va bir - birlari bilan muloqotidan biznes uchun qimmatli boʻlgan yangi bilimlarni olish imkonini beradi. Mijozlarning aksariyati robot bilan muloqot qilayotganidan bexabar. Va ular taxmin qilgan hollarda, bu hali ham robotga javob berishga oʻrgatmagan savollar mavjudligini anglatadi. Shuning uchun bu robotning oʻzi emas, balki yaratuvchilarning kamchiliklari bilan bogʻliq”, — deb tushuntirdi Akulov. biometrik, ovozli va matnli aloqada. Bugungi kunda bunday robot mijozlar bilan ishlashda faol foydalanilmoqda. U mustaqil ravishda tovarlar va xizmatlarni sotishi yoki uni aksiyada ishtirok etishi, yangi mahsulotlar haqida gapirishi va mijoz manfaatdor boʻlsa, operatorga oʻtishi mumkin.

Bundan tashqari, robot mijozlarni xizmatdan voz kechishga qaror qilsalar, undan foydalanishga qaytishga undashi mumkin. Nutq tahlili xodimlarning ish sifatini nazorat qilishni, Ishlab chiqarish jarayonlarida sun'iy intellektni joriy etishning dastlabki bosqichida mavjud ish oqimlarini tushunish, ogʻriqli nuqtalarni aniqlash va sun'iy intellekt eng katta foyda keltirishi mumkin boʻlgan sohalarni aniqlash uchun chuqur tadqiqot va tahlil qilish zarur. Ushbu bosqich quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

Ishlab chiqarish zanjirlarida AI bilan vazifalarni avtomatlashtirishning afzalliklari:

Kompaniyada ishlab chiqarish jarayonlarida avtomatlashtirish tizimlarini joriy etish bir qancha foyda keltirishi mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

- Yaxshilangan samaradorlik : ishlab chiqarishda takrorlanuvchi jarayonlarni avtomatlashtirish orqali vaqt va resurslarni tejashga yordam beradi.

- Samaradorlikni oshirish : xodimlaringizni zerikarli vazifalardan ozod qilish orqali ularning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

- Xatolarni kamaytirish : inson xatolariga moyil boʻlgan vazifalarni dasturlash orqali xatolarni kamaytirishga yordam beradi.

- Kengaytirilgan aniqlik : Vazifalarni avtomatlashtirish ishlab chiqaruvchi kompaniyalarga jarayonning aniqligini oshirishga yordam beradi.

Ishlab chiqarishdagi qanday jarayonlarni avtomatlashtirish mumkin?

Har qanday ishlab chiqaruvchi kompaniyaning ishlab chiqarishida texnologiya bilan optimallashtirish mumkin boʻlgan nuqtalar mavjud.

Sun'iy intellekt yordamida avtomatlashtirilishi mumkin boʻlgan vazifalar boʻlsa, biz quyidagilarni sanab o'tishimiz mumkin:

- Yig'ish : Avtomatlashtirish uchun eng keng tarqalgan tadbirlardan biri bu mahsulotni yig'ish jarayoni boʻlib, samaradorlik va jarayonning aniqligini oshiradi.

- Sifat nazorati : AI bilan vazifalarni avtomatlashtirish sifat nazorati jarayonini yaxshilash uchun ishlatiladi. Bu mahsulotlardagi nuqsonlarni samaraliroq va aniqroq aniqlashga yordam beradi.

- Texnik xizmat ko'rsatish : prognozli texnik jarayonlarni optimallashtirish, ishlamay qolish vaqtini kamaytirish va uskunaning ishonchligini oshirish uchun ishlatilishi mumkin.

AI yordamida ishlab chiqarishini optimallashtirish:

Sun'iy intellekt yordamida vazifalarni avtomatlashtirish - bu ishlab chiqarish kompaniyalari uchun bir qancha imtiyozlarni taqdim etishi mumkin boʻlgan kuchli

texnologiya. Agar siz ishlab chiqarish zanjiringiz samaradorligi va unumdorligini oshirish yo'llarini izlayotgan bo'lsangiz, AI yordamida vazifalarni avtomatlashtirish ko'rib chiqishga arziydigan variantdir.

Ishlab chiqarish zanjirida AI yordamida vazifalarni avtomatlashtirishni amalga oshirish bo'yicha ba'zi maslahatlar:

- Avtomatlashtirishni xohlagan vazifalarni aniqlashdan boshlang. Takroriy, zerikarli yoki xatoga yo'l qo'yadigan vazifalar yoki jarayonlar bormi?

- Belgilangan vazifalarni avtomatlashtirish uchun mavjud variantlarni baholang. Ko'plab vositalar va platformalar mavjud, shuning uchun ehtiyojlaringizga eng mosini topish uchun variantlarni solishtirish muhimdir.

- AI vazifalarini avtomatlashtirishni bosqichma-bosqich amalga oshiring. Kichkina pilot loyihadan boshlang, so'ngra o'rganib, tajriba orttirgan sari amalga oshirishni kengaytiring.

Ehtiyotkorlik bilan rejalashtirish va bajarish bilan AI vazifalarini avtomatlashtirish ishlab chiqarish zanjiringiz samaradorligi va unumdorligini oshirishga yordam beradi.

Sun'iy intellekt tizimlari bilan ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga erishgan kompaniyalarning ba'zi misollari:

BMW avtomobil kompaniyasi o'z avtomobillarini payvandlash jarayonini avtomatlashtirish uchun AI vazifalarini avtomatlashtirishdan foydalanadi. Bu BMW-ga payvandlash vaqtini 20% ga qisqartirishga va payvandlash aniqligini 5% ga yaxshilashga yordam berdi.

Samsung elektronika kompaniyasi o'z smartfonlarini yig'ish jarayonini avtomatlashtirish uchun AI vazifalarini avtomatlashtirishdan foydalanadi. Bu Samsungga yig'ish liniyasining mahsuldorligini 15 foizga oshirishga va nuqsonlarni 20 foizga kamaytirishga yordam berdi.

Ko'rib turganingizdek, ishlab chiqarish jarayonlaringizga avtomatlashtirishni kiritish kompaniyangizning raqobatdosh ustunliklariga hissa qo'shadigan katta foyda keltiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellektga asoslangan ta'minot zanjirini optimallashtirish - bu tashkilotlarga tez o'zgaruvchan bozor dinamikasiga moslashish, xavflarni minimallashtirish va paydo bo'layotgan imkoniyatlardan foydalanish imkonini beruvchi transformativ yondashuv bo'lib, natijada barqaror o'sish va rentabellikni ta'minlaydi. Sun'iy intellektga asoslangan sifat nazorati va prognozli texnik xizmat ko'rsatish - bu ishlab chiqarish tashkilotlariga o'z faoliyatida yuqori sifat, ishonchlilik va samaradorlik darajasiga erishish imkonini beradigan, pirovardida xaridorlarning qoniqishini oshirish va bozorda raqobatbardosh ustunlikni ta'minlaydigan transformatsion texnologiyalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Архипов В.В., Наумов В.Б. Искусственный интеллект и автономные устройства в контексте права: о разработке первого в России закона о робототехнике // Труды СПИИРАН. 2017. № 6 (55). С.

2. Бегишев И.Р., Хисамова З.И. Искусственный интеллект и

робототехника: теоретико-правовые проблемы разграничения понятийного аппарата // Вестник Удмуртского университета. Серия Экономика и право. 2020. Т. 30. № 5. С.

3. Филипова И.А. Искусственный интеллект в системе трудовых отношений с учетом концепции служебного произведения // Право интеллектуальной собственности. 2020. № 1 (59). С.

4. Yan S. Artificial intelligence will replace half of all jobs in the next decade, widely followed technologist, 27.04.2017. URL: <https://www.cnbc.com/2017/04/27/kai-fu-lee-robots-will-replace-half-of-alljobs.html> (дата обращения: 10.12.2021).

5. Sirojiddin Komolov, Sherzod Raxmatov: Sun'iy intellekt asoslari. Mashinaviy o'qitish, 2022.

6. Ravshan Xamdamovich Ayupov. Sun'iy intellekt: ChatGPT va uning imkoniyatlari, 2023.

МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМНИНГИ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА РИВОЖЛАНИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

Холмуродова Шохсанам Маматкарим қизи

Мактабгача таълим ташиқлотлари директор ва мутахассисларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти I-босқич таянч докторанти, shoxsanam8893@gmail.com

Аннотация: Мазкур мақолада ҳозирги кунда дунёда кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини ривожлантириш, бўлажак мутахассисларнинг рақобатбардошлигини таъминлаш, таълимда илгор технология, дидактик воситалар ва ускуналардан кенг фойдаланиш, ўқитишнинг замонавий усулларини интеграциялаш масалалари долзарб вазифалардан бири сифатида эътироф этилган.

Калит сўзлари: Замонавий ахборот коммуникация технологиялари, масофавий ўқитиш, профессор-ўқитувчилар, мультимедиа-маърузалар ва лаборатория амалиётлари, электрон ва мультимедиа-дарсликлари.

ХАРАКТЕРИСТИКА ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ТЕХНОЛОГИЙ РАЗВИТИЯ

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы развития системы подготовки, переподготовки и повышения квалификации кадров, обеспечения конкурентоспособности будущих специалистов, широкого использования передовых технологий, дидактических средств и оборудования в образовании, интеграции современных методов обучения. признана одной из актуальных задач современного мира.

Ключевые слова: Современные информационно-коммуникационные технологии, дистанционное образование, преподаватели, мультимедийные лекционные и лабораторные практики, электронные и мультимедийные

учебники.

CHARACTERISTICS OF DISTANCE EDUCATION AND DEVELOPMENT TECHNOLOGIES

Annotation: *In this article, the development of the system of training, retraining and improving the qualifications of personnel, ensuring the competitiveness of future specialists, the wide use of advanced technology, didactic tools and equipment in education, and the integration of modern teaching methods are recognized as one of the urgent tasks in the world today.*

Key words: *Modern information and communication technologies, distance education, teachers, multimedia lectures and laboratory practices, electronic and multimedia textbooks.*

Мамлакатимизда олиб борилаётган туб ислохотлар, фан-техника ва технологияларнинг ривожланиши ҳамда ахборотлашган жамиятга ўтиш талаблари таълим стратегиясини ўзгаришига олиб келмоқда. Узлуксиз таълим тизимининг янги шакллари, жумладан замонавий ўқитиш технологияларига асосланган тармоқли, ахборотли, масофавий ва инновацион таълим технологиялари вужудга келди.

Таълимнинг барқарор тараққиётини таъминловчи ўқитувчиларнинг касбий ривожлантириш методикаларини ишлаб чиқиш ва ривожлантириш юзасидан илмий изланишлар олиб бориб, таълим дастурларини UNESCO томонидан қабул қилинган “Таълимнинг халқаро стандарт таснифлагичи” (MSKO) даражалари билан уйғунлаштириш, ўқув жараёнига миллий квалификация тизимини тўлақонли жорий этиш, таълим тизими ва мазмунини инновацион лойиҳалаш, таълимнинг инновацион методик моделларини яратиш ва уларни муайян таълим амалиётига жорий этиш муҳим аҳамият касб этмоқда.

Замонавий ахборот коммуникация технологияларининг ривожланиши таълим жараёнини масофадан туриб ташкил этиш, бошқариш, назорат қилиш имкониятларини оширади.

Ривожланган давлатларнинг аксариятида шу метод асосида ўқитишни ташкил этадиган ўқув марказлари барпо этилмоқда. Масофали ўқитишнинг имкониятлари жуда кўп, масалан, тингловчиларда таълим малакаларни шакллантириш вақти камаяди, амалий жиҳатдан бажариладиган топшириқлар сони бирмунча ошади, компьютер томонидан фаол бошқаришни талаб қилиши натижасида тингловчи таълим субъектига айланади, энг асосийси тингловчиларнинг мустақил ишлаш суръатлари жадаллашади.

Ўқитишнинг турли шакллари билан биргаликда ва бирликда таълимни такомиллаштириш учун янги имкониятлар яратилмоқда, таълимнинг янги шакллари – масофавий таълим ривожланмоқда. Лекин педагог малака оширишнинг қайси шаклини танламасин, унинг самарадорлиги, натижада, мустақил ишларнинг кўлами, мустақил ўқиш билан аниқланади. Мустақил таълим, онгнинг юқори ривожланиш даражасига, педагог кадрларнинг ўз-ўзини ривожлантириш ва ўзини ижодий амалга оширишга бўлган эҳтиёжига

таянади.

Масофавий ўқиш – бу янги ахборот технологиялари, телекоммуникация технологиялари ва техник воситаларига асосланган таълим тизимидир. У таълим олувчига маълум стандартлар ва таълим қонун-қоидалари асосида ўқув шарт-шароитлари ва ўқитувчи билан мулоқотни таъминлаб бериб, тингловчидан кўпроқ мустақил равишда шуғулланишни талаб қилувчи тизимдир. Бунда ўқиш жараёни таълим олувчини қайси вақтда ва қайси жойда бўлишига боғлиқ эмас.

Тингловчининг бундай мустақил таълим фаолиятига тайёргарлиги ўқишга бўлган юқори мотивация, ўз-ўзини ташкил етиш ва ўз-ўзини тартибга солиш қобилияти, мустақил равишда маълумот қидириш ва ўқув материални ўзлаштириш, оралиқ ва якуний аттестация ишларини бажариш қобилияти билан белгиланади.

Масофавий таълим тизими биринчи навбатда аҳолининг қуйидаги ижтимоий қатламлари ва касбий гуруҳларига мўлжалланган:

- қўшимча таълим олиш орқали ўз малакасини ошириш ва иккинчи мутахассисликка эҳтиёжи бўлган бакалаврлар, магистрлар ва олий таълим тизимида фаолият олиб бораётган педагоглар;

- фаолият турини ўзгартиришни хоҳловчи ва янги касбни эгаллашга талабгор бўлган фуқаролар;

- амалиётда фаолият олиб бораётган мутахассислар;

- Ўзбекистон Республикаси ҳудудида фаолият юритаётган чет эл олий ўқув юрталарининг филиалларида таълим олаётган талаба ва мутахассислар;

- чет эл фуқаролари;

- қўшимча таълим хизматлари ёрдамида билим олишга эҳтиёжи бўлган фуқаролар (мактаб, академик лицей ва касб-ҳунар коллежлари ўқувчилари).

Масофавий таълим тизимининг мақсади ва вазифалари қуйидагилардан иборат:

- аҳолини мазмун-моҳиятига кўра янгича сифатга эга бўлган таълим хизматлари билан таъминлаш;

- таълим тизимини ҳалқаро талабларга мослаштириш ва аҳолининг сифатли таълим хизматларига бўлган талаб ва эҳтиёжларини қондириш;

- ўқитишнинг амалда ўзини оқлаган ва қўлланилаётган усуллари билан биргаликда, илғор педагогик ва ахборот технологияларини кенг қўллаш орқали унинг янги шакллари яратиш ва фойдаланиш.

Масофавий таълимни амалга ошириш икки босқичда олиб борилиши кўзда тутилган.

Биринчи босқич – лойиҳани амалга ошириш мониторинги даври бўлиб, унинг харажатлари асосан вилоят педагогларини янги методикаларга ўргатиш миллий марказининг бюджетдан ташқари маблағлари ҳисобидан молиялаштирилади. Шу билан бирга, масофавий ўқитишни тизими фаолияти йўлга қўйилиб профессор-ўқитувчиларнинг малакаси оширилади.

Иккинчи босқич – масофавий ўқитиш тизимининг тўлиқ фаолият юритиш даври бўлиб, унинг хужжатлари, асосан, ўқитишни амалга оширишдан тушган маблағлар ҳисобидан молиялаштирилади.

Масофавий ўқитиш технологияси қуйидагиларни ўз ичига олади:

- таълим ахборотларини тақдим этиш технологияси;
- таълим ахборотларини узатиш технологияси;
- таълим ахборотларини сақлаш ва қайта ишлаш технологияси.

Масофавий ўқитиш тизимида қуйидаги таълим технологияларини ишлатиш мумкин:

- видео-маърузалар;
- мультимедиа-маърузалар ва лаборатория амалиётлари;
- электрон ва мультимедиа-дарсликлари;
- компьютер тест тизимлар;
- имитация моделлари ва компьютер тренажёрлар;
- телекоммуникация воситаларидан фойдаланувчи маслаҳатлар ва тестлар;
- видеоконференциялар.

Дарс жараёни самарадорлигини ошириш ҳозирги замон педагогикасининг долзарб масаласига айланиб бормоқда. Техника, технология ва ишлаб чиқаришнинг жадал суръатлар билан ривожланиб бориши таълим муассасаларида ўз малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш бўйича таълим олаётган тингловчилар олдида шу ривожланишга мос бўлган билим ва кўникмаларга эга бўлишларини тақозо қилмоқда. Тингловчиларга техника ва технологияларнинг янги ютуқларини ўзлаштириш кўникмаларини ҳосил қилиш учун уларни ўқитиш усулларини тубдан янги поғонага кўтариш зарурати давр талаби бўлиб қолмоқда. Бу муҳим вазифани ҳал этишда кундалик турмушда жадал суръатлар билан кириб келаётган замонавий педагогик ва ахборот коммуникацион технологиялари, электрон таълим ресурсларидан кенг фойдаланиш муҳим рол ўйнаши муқаррардир.

Электрон таълим ресурслари ёрдамида дарсларни ташкил этиш жараёнида тингловчиларнинг олаётган билимларини нафақат эшитиш, балки кўриш сезгилари орқали ҳам қабул қилишлари ва тушунчаларнинг ғоя ва мазмунини чуқур англаб йетишларига самарали ёрдам беради.

Тадқиқотчилар томонидан турли электрон таълим воситалари ёрдамида мавзуларнинг ёритилишни жорий этиб борилаётганлиги, бунда талабаларнинг билим савияларининг ортиб бораётганлигидан хулоса қилиш мумкинки, бу усулларнинг янада такомиллаштирилиши, юқори поғонага олиб чиқиш каби заруратлар олдиндан кўриб, шу йўсинда таълим ва тарбия жараёнини ташкил этиш ҳар бир раҳбар ҳамда педагогнинг долзаб вазифаси бўлиши талаб этилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янгибосқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 146 б.

2. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 7-сон.

3. Эшмуродов А. “Малака ошириш тизимини такомиллаштириш таълим сифати ва самарадорлигини таъминлашнинг бугунги кундаги ўрни”. – Педагоглар малакасини оширишнинг ахборот-таълим муҳитини ташкил етиш: муаммо ва йечимлари. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари, Гулистон.: 2023, 39 б.

4. Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. дисс. ... док. пед. наук. - СПб.: 1995. -43 с

5. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Ҳ., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари – Тошкент, 2015. 93 бет

ФУТБОЛЧИ ҚИЗЛАРДА ОРГАНИЗМНИНГ ФУНКЦИОНАЛ ТИЗИМЛАРИ ҲОЛАТИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ

Каримов Фазлиддин Жамолиддин ўғли

Гулистон давлат университети докторанти

Analysis of the state of functional systems of the organism in football girls

Abstract. The article presents data on the control of the level of special physical training of high qualification women football players. Pedagogical testing made it possible to establish the level of physical training of women football players. The obtained data and recommendations will allow specialists to plan the physical training of highly qualified women football players.

Key words: Special physical training, control, highly qualified women football players.

Футболчи қизларда организмнинг функционал тизимлари ҳолатини таҳлил қилиш

Ушбу мақолада юқори малакали футболчи қизларнинг махсус жисмоний тайёргарлиги даражаси таҳлилига оид маълумотлар келтирилган. Ўтказилган педагогик тестлар футболчи қизларнинг жисмоний тайёргарлик даражасини аниқлаш имконини берди. Олинган натижалар ва тавсиялар мутахассисларга юқори малакали футболчи қизларнинг жисмоний тайёргарлигини режалаштиришга имкон беради.

Калит сўзлар: махсус жисмоний тайёргарлик, назорат, юқори малакали футболчи қизлар, спортчилар тайёрлаш тизими

Анализ состояния уровня функциональных систем организма футболисток

Аннотация. В статье приведены данные контроля уровня специальной физической подготовки футболисток высокой квалификации. Педагогическое тестирование позволило установить уровень физической подготовленности футболисток. Полученные данные и рекомендации

позволят специалистам планировать физическую подготовку футболисток высокой квалификации.

Ключевые слова: специальная физическая подготовка, контроль, футболистки высокой квалификации, система подготовки спортсменов


Мавзунинг долзарблиги: Мамлакатимизда бугунги кунда футболни ривожлантириш масалалари давлатимиз сиёсатининг устивор йўналишларидан бирига айланган [1,2]. Сўнгги ўн йилликда аёллар футболи дунёда кенг оммавийлашмоқда. Ўзбекистонда ҳам аёллар футболига нафақат ҳукуматимиз балким, Осиё футбол Конфедерацияси (ОФК) томонидан ҳам катта эътибор қаратилмоқда. 2020-2021 йилларда Тошкент шаҳрида Осиё кубогининг саралаш ўйинларини ўтказиш ҳақида ОФК томонидан қарор қабул қилиниши юқоридаги фикрнинг яққол исботидир.

Бироқ, Ўзбекистон футболчи-қизлари иштирокидаги турли даражадаги ўйинлар таҳлили шуни кўрсатадики, аксарият футболчиларнинг ҳаракат фаоллиги замонавий ўйин талабларига жавоб бермайди. Кўп жиҳатдан бу ҳолат машғулотлар жараёнида махсус жисмоний тайёргарлик даражасини оширишга етарлича эътибор қаратилмаётганлиги билан асосланмоқда

Тадқиқот мақсади: юқори малакали футболчи қизларнинг махсус жисмоний тайёргарлигини ошириш.

Спортчиларнинг махсус тайёргарлик даражаси кўп жиҳатдан уларнинг морфофункционал кўрсаткичларига боғлиқ: тайёргарлик даражаси қанчалик юқори бўлса, мушак массасининг фоизи шунчалик юқори, ёғ массасининг фоизи ҳам шунчалик кам бўлади [4,5,7,10].

1.1-расмда Ўзбекистон терма жамоаси футболчи қизларида тананинг таркибий қисмларига оид маълумотлар тақдим этилган.



1.1-расм. Юқори малакали футболчи қизларда тана таркибининг кўрсаткичлари

Тана таркибининг таҳлили шуни кўрсатадики, терма жамоа футболчи қизларида мушаклар массасининг жамоа бўйича ўртача кўрсаткичлари $33,8\% \pm 4,35$ ташкил қилди, ёғ массаси эса $20,8\% \pm 3,72$ га тенг бўлди.

Аниқланишича, футболчи қизларнинг 4 нафари (12,5%) да ёғ массаси модел қийматларга мос. Ёғ массасининг энг паст (6,1%) кўрсаткичи футболчи қиз С. Н-вада аниқланди ва шу билан биргаликда унда юкламага

яхши бардошлилик ҳам қайд қилинди. Футболчи қизларнинг 8 нафари (25%) да ёғ массаси модел қийматлардан биров ортган. 20 нафари (62,5%)да эса ёғ массасининг кўрсаткичлари меъёрий талаблардан сезиларли даражада юқорилиги қайд қилинди. Шунинг ҳам таъкидлаб ўтиш жоизки, ёғ массасининг энг катта фоизи (16%-19,5%) жамоа ҳужум ҳаракатларида тезлик ва суръатни белгилаб берувчи ўрта чизик ўйинчиларида аниқланди. Ҳимоя чизиғи футболчи қизларида ёғ массаси кам (14,5% - 15,4%) бўлишига қарамай, аниқланган қиймат меъёрий кўрсаткичлардан баланд ҳисобланади.

Интервалокардиография услубида функционал тизимлар ҳолатини ўрганиш жараёнида футболчи қизларда юрак ритмини тартибга солувчи тизимларнинг кучланиш даражасида ҳилма-ҳиллик аниқланди (1.2-расм).



1.2-расм. Футболчи қизларнинг ораликли-кардиография кўрсаткичлари Тасвирдан кўриниб турибдики, футболчи қизларнинг фақат 5 нафарида (15,6%) тинч ҳолатда ва юрак ритмини тартибга солувчи механизмларнинг оптимал кучланиши билан кузатиладиган стандарт юкламадан кейин организмнинг яхши мослашиши қайд қилинган. 9 нафар (28,1%) футболчи қизда ҳимоя механизмларининг сафарбарлиги, шу жумладан мослашишга жавоб берувчи организм симпатoadренал тизимнинг фаоллиги ортиши билан кузатиладиган кучланиш ҳолати қайд этилган. Бу ўз навбатида, ушбу гуруҳ спортчи қизларида чарчоқнинг дастлабки аломатлари пайдо бўлганлигини билдиради. Футболчи қизларнинг 8 (25%) нафарида стандарт юкламага номувофиқ реакция қайд қилинди ва мослашиш механизмларининг етарли эмаслиги аниқланди, бу эса спортчи қизлар организмда чарчоқ даражаси анча юқори эканлигидан хабар беради. 10 нафар (31,2%) футболчи қизда мослашиш-тўлдириш имкониятлари механизмнинг бузилиш ва стандарт юкламага организмнинг мувофиқ реакциясини таъминлай олмаслик аломатлари кузатилди, бу эса функционал тизимларининг зўриққанлигини, тикланиш жараёни секинлашганлигини изоҳлайди, умуман олганда эса уларнинг шуғулланганлик даражаси анча пастлиги тўғрисида маълумот беради.

Футболчи қизларнинг махсус тайёрланганлик даражасини баҳолашда футбол мураккаб координацияли спорт турларига мансублигини инобатга олган ҳолда, уларнинг координацион қобилиятларини ўрганиб чиқиш муҳим аҳамият касб этади. Шу сабабли, футболчи қизларнинг мувозанат сақлаш ва балансни ушлаб туриш маҳоратини аниқлаш мақсадида сататик стабилломерт услубидан фойдаланиб тестлаш тадбирлари ўтказилди.

Текширув натижасида аниқланишича, очиқ кўзлар (ОК) билан тестда футболчи қизларнинг мувозанат функцияси сифати (МФС) қиймати ўртача $85,5\% \pm 5,5$ ташкил этган (3-илова). Энг яхши кўрсаткич 93% М. Б-вада аниқланди, ёмон кўрсаткич бир нечта футболчи қизларда қайд қилинди ва 80% тенг бўлди. Олинган кўрсаткичларнинг кенг доирада вариативлиги аниқланди ва ушбу кўрсаткичлар натижаларига кўра жамоа шартли 3 гуруҳга бўлинди: - биринчи гуруҳ 90% дан юқори кўрсаткичлар билан 8 (25%) нафар футболчи қизлардан ташкил топди; - иккинчи гуруҳ 85% дан 89% гача кўрсаткичлар билан 9 (28%) нафар футболчи қизлардан иборат; - учинчи гуруҳ сон жиҳатдан энг катта бўлди ва 80% дан 88% гача кўрсаткичлар билан 15 (47%) футболчи қизларни ўз ичига олди. Мазкур маълумотлар ОК билан тестда футболчи қизларнинг фақат 17 (53%) нафари вертикал ҳолатни ушлаб туришда ўртача қийматга эга бўлган қобилиятларни кўрсатганлигидан далолат беради.

Иккинчи тест анча мураккаб бўлиб, футболчи қизлар вертикал ҳолатни анча мураккаб шароитда- юмилган кўзлар билан эркин турган ҳолда ушлаб туришлари керак. Ушбу тестнинг мураккаблиги шундан иборатки, спортчи қиз кўриш анализаторлари билан ўзининг ҳолатини назорат қила олмайди ва у бошқа анализаторлардан фойдаланиб, вертикаль ҳолатни ушлаб туришига тўғри келади.

Иккинчи тестда олинган маълумотлар шуни кўрсатадики, гуруҳ бўйича ЮК билан МФСнинг ўртача кўрсаткичи $77,1 \pm 9,2\%$ га тенг. Футболчи қизлар орасида энг яхши натижа -М. Б-ва тегишли бўлди– 89%, энг ёмон кўрсаткич эса– 68% М.А-вага тегишли бўлди. Натижалардаги бундай тарқоқлик (ҳилма-ҳиллик) индивидуал хусусиятлараро фарқланиш ва вертикаль ҳолатни ушлаб туриш қобилиятлари бўйича футболчи қизларда кўрсаткичларнинг кенг вариативлигини изоҳлайди.

Олинган маълумот асосида футболчи қизларни қуйидаги 3 гуруҳга бўлинди: - биринчи гуруҳ – 85% дан 89% гача натижалар билан 4 нафар (13%) МФС қобилиятлари юқори даражадаги футболчи қизлардан ташкил топди; - МФС қобилиятлари ўрта иккинчи гуруҳ, у 75% дан 84% гача натижалар билан 10 (31%) нафар футболчи қизлардан ташкил топди; - учинчи гуруҳ 74% гача натижалар ҳилма-ҳиллиги билан 18 (56%) нафар футболчи қизларни ўз ичига олди.

ЮК билан тестдан олинган натижалар таҳлили шуни кўрсатадики, футболчи қизларнинг 56%да МФС мувозанатлаш реакциясини компенсациялаш даражаси қониқарсиз. Спортчи қизларнинг 31%да вертикаль барқарорлик кўрсаткичлари ўртачани ташкил қилди. Ушбу маълумотлар шундан далолат берадики, спортчи қизларнинг аксарият

кўпчилигида вертикаль барқарорликни сақлаш қобилияти етарли даражада яхши ривожланмаган. Биринчи навбатда сенсор тизими, вестибуляр ва кўриш анализаторлари етарли даражада яхши ривожланмаган, бу эса футболчи қизларнинг муҳитда мўлжал олиш маҳорати ва улар томонидан бажариладиган техник-тактик ҳаракатлар самадорлигига салбий таъсир кўрсатиши мумкин.

Машғулот жараёнида мувозанатлаш реакцияларини яхшилашга қаратилган дастурлардан фойдаланиш бўйича тавсияларни ишлаб чиқиш зарур.

“Нишон” тестида олинган натижаларни ўрганиш жараёнида ўртача кўрсаткич $76,1 \pm 8,3\%$ ни ташкил этганлиги аниқланди. Энг яхши натижа – 91% С.Н-вада, энг ёмон натижа – 68% эса уч нафар футболчи қизларда, яъни Х. Г-ва, М. Т-ва ва Д. Х-вада қайд қилинди.

Шуни ҳам кўрсатиб ўтиш керакки, 19 (59,3%) нафар футболчи қизларда умумий оғирлик марказининг (УОМ) ўртача радиуси ва УОМ тебранишининг ўртача умумий тарқоқлигида аҳамиятли оғиш мавжудлиги аниқланди, бу эса ўз навбатида барқарорлик иккала юзада ҳам камайганлигини билдиради. Футболчи қизларнинг 13 (40,7%) нафарида вектрограмма умумий марказининг ортиши, ўрта чизиқли тезлик қийматининг пасайиши ва ўртача бурчак тезлик кўрсаткичининг ошиши кузатилди. Вектрограмманинг меъёрий майдон (ВММ) кўрсаткичи ва ўртача чизиқли тезлик орасида ўзаро алоқа аниқланди – футболчи қизларда ВММ катталиги қанчалик юқори бўлса, чизиқли тезлик қиймати ҳам шунчалик юқори бўлади. Майдоннинг ортиши барқарорлик ёмонлашганлигини, камайиши эса яхшиланганлигини билдиради. Координата ўқларига нисбатан УОМ векторларидаги оғишнинг фоиз нисбати қанчалик юқори бўлса, барқарорлик ҳам шунчалик яхши бўлади.

МФС ни ўрганиш мақсадида ўтказилган тадқиқот якунларига кўра, 13% дан 25% гача футболчи қизлар яхши кўрсаткичларга эга бўлдилар, бу эса уларнинг вестибуляр тизимда чарчаш ҳолати пайдо бўлмаганлигидан далолат беради. Футболчи қизларнинг 28% – 31%ни ташкил этувчи иккинчи гуруҳида мувозанатни ушлаб туриш қобилиятининг паст даражаси кузатилди, бу ўз навбатида, уларда вестибуляр тизим етарли даражада ривожланмаганлиги ва чарчоқнинг бошланғич аломатлари пайдо бўлганлиги тўғрисида маълумот беради. Ва ниҳоят 34% дан 44% гача МФС қиймати билан учинчи гуруҳга тегишли футболчи қизларда мувозанат реакциясининг сифати, дастлабки ҳолатда қўйилган баҳоларга нисбатан сезиларли даражада пастлиги кузатилди. Ушбу маълумотлар мувозанат сифати етарлича яхши даражада эмаслиги ва вестибуляр тизимда сезиларли даражада чарчоқ ҳолати вужудга келганлигини билдиради.

МФС кўрсаткичларининг паст даражаси, футболчи қизларда мувозанатни ушлаб туриш қобилияти етарлича юқори даражада бўлмаганлиги ҳамда координация ва мувозанат сақлашда бузилишлар шаклида намоён бўлувчи чарчоқнинг ўсиб бориши билан тавсифланади.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, футболчи қизларнинг махсус тайёрланганлик даражасини баҳолашда уларнинг функционал, сенсор тизимлари ва анализаторлар ҳолатини инобатга олиш зарур. Мураббий олинган маълумотларга таянган ҳолда, юқори малакали футболчи қизларда тайёргарлик жараёнини такомиллаштириш бўйича ишларни режалаштириши мумкин бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида” ги № ЎРҚ-394-сонли Қонуни. Т.-2005
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023-йил 7-апрелдаги “Оммавий ва профессионал футболни ҳар томонлама ривожлантиришнинг кўшимча чора-тадбирлари тўғрисидаги” ПҚ-115-сонли Қарори. Т.-2023
3. Гасанова Н.Б., Зайцева Т.В., Золотарев А.П., Гакаме Р.З. Сравнительный анализ показателей двигательной активности высококвалифицированных футболисток разных игровых амплуа в условиях соревновательной деятельности. Ученые записки университета имени П.Ф.Лесгафта. 2020. №3. С.97-102.
4. Зайцева Т.В. Сравнительный анализ количественных показателей проявления скоростных способностей в процессе двигательной активности футболисток высокой квалификации во время матча / Т.В. Зайцева, Н.Б. Гасанова, А.П. Золотарев // Физическая культура и спорт. Олимпийское образование: материалы международной научно-практической конференции. – Краснодар, 2019. – Часть 1. – С. 56–58.
5. Каримов Ф.Ж., Комилов Ж.К. Сравнительный анализ двигательных перемещений футболисток высокой квалификации, как показатель их специальной физической подготовленности// Вестник НУУ.-Ташкент,2023, №1/2/1. С.84-88.
6. Каримов Ф.Ж. Определение уровня специальной физической подготовки футболисток высокой квалификации на основе педагогического тестирования// Вестник ГГУ.-Гулистан,2024,№1.С.145-148
7. Мельзиддинов Р.А. Совершенствование специальной физической подготовленности квалифицированных футболистов в межигровых циклах. Автореф. дис.канд. ...пед.наук. Чирчик. 2021. – 25 с.
8. Перцухов А. А., Перевозник В. И. Двигательная активность футболистов высокой квалификации в условиях соревновательной деятельности. Спортивные игры. 2019. №1(11). С 32-39.
9. Селуянов, В.Н. Футбол: проблемы физической и технической подготовки / В.Н. Селуянов, К.С. Сарсания, В.А. Заборова. – Москва: ИНТЕЛЛЕКТ и К, 2012. – 160 с.
10. Юсупов Н. М. Педагогические основы и методика совершенствования скоростно-силовой подготовки футболисток высокой квалификации. Автореф. дис.канд. ...пед.наук. Ташкент. 2012. – 26с.

**AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI
BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY NUTQINI
TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

Suyunov Ilhom Egamberdiyevich

Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Zamonaviy o‘quvchilarni zamonaviy jamiyat hayotiga tayyor bo‘lishi kerakligi muhimligi, ushbu muammoning yechimi o‘quv jarayoniga AKTni keng joriy etishni ta‘minlash, o‘quv jarayonini individuallashtirish va differentsiallashtirish va vizual-badiiy tafakkurni rivojlantirish uchun mavhum-mantiqiy ustunlik sifatida misli ko‘rilmagan imkoniyatlar paydo bo‘lishi muhimligi ta‘kidlangan.*

Kalit so‘zlar. *Kasbiy nutq, axborot texnologiyalar, kompetensiya, grafik, matn, son, kompyuter.*

Abstract. *The importance of preparing modern students for the life of modern society, the solution to this problem is to ensure the wide introduction of ICT in the educational process, to individualize and differentiate the educational process, and to develop visual-artistic thinking as an abstract-logical priority. It was emphasized the importance of emerging opportunities.*

Keywords. *Professional speech, information technology, competence, graphic, text, number, computer.*

Абстрактный. *Важность подготовки современных студентов к жизни современного общества, решение этой проблемы заключается в обеспечении широкого внедрения ИКТ в учебный процесс, индивидуализации и дифференциации учебного процесса, развитии наглядно-художественного мышления как абстрактно-образовательного процесса. Логический приоритет. Была подчеркнута важность появляющихся возможностей.*

Ключевые слова. *Профессиональная речь, информационные технологии, компетентность, графика, текст, число, компьютер.*

O‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan boshlang‘ich umumiy taxminiy

asosiy ta'lim dasturlari: pedagogik, dizayn, tadqiqot va madaniy-ma'rifiy. Shu munosabat bilan bo'lajak o'qituvchlarni tayyorlashda nafaqat axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi bilim, ko'nikma va kompetensiyalar to'plamiga ega bo'lish, balki tobora ko'payib borayotgan o'quv va uslubiy ma'lumotlarni qidirish va tanlash uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini amalga oshirish ko'nikmalari talab etiladi, uni qayta ishlash, o'zgartirish va haqiqiy o'quv jarayonida qo'llash talab etiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyati bolalarni turli xil fanlarni o'qitish jarayonida ham, o'quv materiallarini elektron shaklda yaratishda o'quv materiallarini yaratish jarayonida, ota-onalar va ularning hamkasblari bilan o'zaro aloqada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanishdir. Ushbu xususiyatlar bo'lajak o'qituvchilarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi kasbiy faoliyatida o'qitish doirasining kengayishini belgilaydi, bu ma'lum darajada respublikamiz tadqiqotchilarining ilmiy va uslubiy ishlanmalarida aks etadi.

Maktab o'qituvchisi, o'rta va oliy o'quv yurtlari o'qituvchisi tomonidan muvaffaqiyatli kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlarini amalga oshirish bo'yicha bilim va ko'nikmalar Axborot jamiyati global ommaviy aloqa sharoitida yosh avlodni o'qitish jarayonida yetakchi rolni saqlab turibdi.

Shunday qilib, hozirgi vaqtda kasbiy faoliyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish sohasida bo'lajak o'qituvchilarining tayyorlashning quyidagi asosiy yo'nalishlarini ajratish mumkin:

Bo'lajak o'qituvchilarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishi ularning kasbiy faoliyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq vakolatlari doirasida ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, turli xil ta'riflar taklif etilmoqda, masalan, «axborot-kommunikativ kompetensiya», «axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kompetensiyasi», «axborot va texnologik kompetensiya», ular mohiyatiga ko'ra

bir-birlaridan farq qilmaydi. Vakolatni amalga oshirish darajalari ham taklif etiladi va uning shakllanish xususiyatlari va shartlari tavsiflanadi, ammo, qoida tariqasida, vakolat darajalarining mohiyat jihatlari ochib berilmaydi. Ta'kidlash joizki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kompetensiyasiga bo'lgan barcha yondashuvlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining didaktik imkoniyatlaridan foydalanish hisobga olinmaydi. Boshlang'ich sinflar uchun to'g'ri dasturlarni tanlash bo'yicha bilim va ko'nikmalar hisobga olinmaydi. Bundan tashqari, uni shakllantirish uchun o'quv va uslubiy yordam aniq shaklda ko'rinmaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish informatika fanining bir qismi hisoblanadi, ammo «Informatika» fanining mazmuni o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish uchun javobgarlikni o'z ichiga olmaydi.

Ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun turli xil (grafik, matn, son, ovoz, musiqa, video, foto va boshqalar) ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi axborot manbai sifatida qaraluvchi ETRlaridan o'quv-uslubiy resurs sifatida foydalaniladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, elektron ta'lim resursining yanada to'liq va ko'p o'lchovli ta'rifi mavjud bo'lib, unda uning mohiyati ko'rsatilgan. Ayrim mualliflar tomonidan tavsiya etilgan matn terish (masalan, «ETR yaratish» ma'lumot turiga ko'ra: matnli, vizual, audio va video ma'lumot, murakkab tuzilishga ega interfaol modellar) katta taxminlar bilan qabul qilinishi mumkin va keyin tarkib mazmunidan farqli o'laroq faqat tashqi belgilar bilan qabul qilinishi mumkin; ta'limni axborotlashtirish ilm-fan va amaliyotiga allaqachon kirib kelgan. Hozirgi vaqtda bo'lajak o'qituvchilar asosan o'zlari tomonidan ishlab chiqilgan taqdimotlardan va xususiy amaliy dasturiy ta'minot ishlanmalaridan foydalanadilar, ammo ular mualliflik o'qitish usullarini boyitish uchun Internetning audiovizual axborot resurslari va instrumental axborot tizimlarining imkoniyatlaridan foydalanmaydilar.

Kasbiy faoliyatda bo'lajak o'qituvchilarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi tajribasini inobatga olgan holda shuni ta'kidlash kerakki, bolalarni ushbu fanga ko'proq qiziqtirish, e'tiborini jalb qilish, bilim olishda g'ayratni kuchaytirish va yangi bilimlarni mustaqil ravishda izlashni o'rganish uchun ko'rish imkoniyatlarini kengaytirishga e'tibor qaratilgan. O'qituvchilar uchun (asosan kompyuterda taqdimotlardan foydalangan holda) ijodiy kognitiv faoliyatni tashkil qilish uchun ham, bolani idrok etish uchun tushunarli va oson shaklda taqdim etish uchun ham yangi ta'lim usullarini ishlab chiqmoqdalar, bu esa ta'lim mazmunini yaxshiroq yodlashga hissa qo'shadi va tushunishni rag'batlantiradi.

Bo'lajak sinf o'qituvchining amaliy ishida kompyuterdan keng tarqalgan va tez-tez ishlatib turadigan narsa bu mashg'ulot uchun mo'ljallangan o'quv kompyuter o'yinlari (masalan, og'zaki hisoblash), o'quv materiallarini vizuallashtirish va ta'lim muammolarini hal qilish uchun ekranda turli xil o'yin syujetlari va jumboqlarni taklif qilishdan iborat o'yin faoliyatini tashkil etish va h.k.

O'qituvchining o'z faoliyatini metodik jihatdan yangilashga ijodiy yondashuvi darslarda ular o'zlarining mualliflik ishlanmalaridan, jumladan kompyuter taqdimotlari, tayyor dasturlar, proektor, interfaol doskadan foydalanishlarida namoyon bo'ladi. Masalan, adabiyot darslarida o'quvchilarga yozma va og'zaki nutq to'g'risida «kompyuter filmlari» taklif etiladi, nutq o'stirish darslarida audioresurs eshittiriladi. O'quvchilar audioresursni tinglab yozadilar. Tinglab yozish orqali yozma nutq savodxonligi oshiriladi.

Bir qator bo'lajak o'qituvchilari fikr va mulohazalariga ko'ra, bo'lajak o'qituvchining asosiy vazifalari - bilim olishga, ijodga va dunyoni bilishga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish. Buni hal qilish usullaridan biri o'qituvchilar turli xil axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan, xususan, boshlang'ich sinflar o'quv jarayonida elektron o'quv materiallaridan foydalanishda ko'rishadi, bu esa shakllar, usullar va o'quv qo'llanmalarini diversifikatsiya qilish, o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirish imkonini beradi. Test sinovlari,

viktorinalar, vizual kartalar, so'rovnomalar, didaktik materiallar (matn muharririda, prezentatsiyalarda, Internetda qidirishda) yaratish uchun MS Word – dan qanday foydalanish to'g'risida misollar keltirilgan. Xulosa sifatida o'qituvchi «nutqni o'stirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan samarali foydalanish» o'quv jarayoniga ijobiy ta'sirini sanab o'tadi: kognitiv faoliyatni faollashtirish; talabalar faoliyatini takomillashtirish; bo'lajak o'qituvchilarida mustaqil ta'lim va o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish; o'quv qulayligi darajasini oshirish; darsda faollik va tashabbuskorlikning ortishi; o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda kompyuter ko'nikmalarini egallash sifatida axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Haydarova O. Bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim jarayoniga texnologik yondashuvga tayyorlash. Ped.fan.nom. diss.– Qarshi: 2004.-159b.
2. Hoshimov K. Bo'lajak o'qituvchilarni milliy qadriyatlarimiz asosida axloq-odob ruhida tarbiyalaylik//Ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. –T.: 1993. - 123-b.
3. Haydarov M.E. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining mehnat tarbiyasida xalq an'analaridan foydalanish.T.: Yozuvchi,1995.-238-b.
4. Quronov M. O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. diss. -1998. -316-b
5. Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz (Ota-onalar uchun). – T.: «Ma'naviyat», 2013. – 320-b.

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI	4
1-SHO‘BA. RAQAMLI TA‘LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHDAGI INNOVATSION YONDASHUVLAR	6
RAHBAR MA‘NAVIYATINING BOSHQARUVDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI <i>Nodira Djanibekova</i>	6
XXI ASR KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA REBUS VA KROSSVORDLARNING AHAMIYATI <i>Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna</i>	8
O‘QUVCHI SHAXSIDA TALABLAR DARAJASINI ORTISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI <i>O.Shirinov</i>	10
TA‘LIM SAMARADORLIGIGA TA‘SIR ETUVCHI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK USULLARI <i>F.F.Babajanova, Ustin P.N</i>	13
O‘QUVCHILARNI KRITIKAGA O‘RGATISH <i>Uralov Azamat Begnarovich</i>	16
ELEKTRON TA‘LIM MUHITIDA PEDAGOGLARNING TA‘LIM BERISHDAGI ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI <i>Nizamov Akmal Shoxobiddinovich</i>	20
VIRTUAL MAKONNING DAVLAT BOSHQARUV SOHASIDAGI O‘RNI. VIRTUAL TAHDIDLARINING YOSHLAR DUNYOQARASHIGA TA‘SIRI <i>Muhiddinova Dilnoza Shavkatovna</i>	23
VERTUAL IJTIMOY ALOQALARNING YOSHLARDAGI PSIXOLOGIK MUAMMOLARNI HAL QILUVCHI MANBA SIFATIDA <i>Muxiddinova Dilnoza Shavkat qizi</i>	27
BUYUK BRITANIYA VA O‘ZBEKISTONDA KIMYO FANINI O‘QITISHNING SOLISHTIRMA TAHLILI <i>Xasanova Nilufar Xaqnazarovna, Nizamova Saida Adilovna</i>	31
TO‘GARAK MASHG‘ULOTLARIDA O‘QUVCHILARNI KAMOLIDDIN BEHZODNING SHARQONA TASVIRIY SAN‘ATI BILAN TANISHTIRISHNING AHAMIYATI ¹ <i>Kayumov Erkin Kazakbayevich, </i> ² <i>Raximjonova Xusnida Odil qizi</i>	36
INTEGRATIV TA‘LIM YONDASHUVI ASOSIDA PEDAGOGLARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Abduraimov Ikromjon Ravshanbekovich</i>	39
ICHKI ISHLAR TIZIMIDA ZAMONAVIY MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI <i>Arzikulov Dilshod Ne‘matovich</i> .	44
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI TA‘LIM JARAYONIDA QO‘LLASH <i>Yaxshiboyeva Baxtigul Ismatovna</i>	47
O‘QUVCHILARDA MUTOLAA VA KITOBXONLIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA, MAKTAB KUTUBXONACHILARNING ROLI <i>Shavkat Bazarov</i>	48
O‘QUVCHILARNI TARBİYALASHDA MILLIY QADRIYATLARNING O‘RNI <i>U.A.Qlichev</i>	51

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINI AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MODELII <i>I.E.Suyunov</i>	53
MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA PEDAGOGIKANI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI <i>K.Eshkuvatov</i>	59
YOSHLARNING INTERNETDAN TO‘G‘RI FOYDALANMASLIGINI RUHIYATGA TA‘SIRI <i>Mirzavev Djamshid Turdaliyevich (PhD), Sheraliyev Sarvar Jumali o‘g‘li</i>	60
TA‘LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNI QO‘LLASH <i>K.Eshkuvatov</i> .	63
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВЛИЯНИЯ ИНТЕРНЕТ-ОБЩЕНИЯ НА СОЦИАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ МОЛОДЕЖИ <i>Мирзаев Джамшид Турдалиевич</i>	65
PEDAGOGIK MAHORAT-IJODKORLIKDIR <i>K.Eshkuvatov</i>	70
ТЕХНОЛОГИИ ЦИФРОВОГО ОБУЧЕНИЯ: ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ VR И AR <i>Ганиева Шахризод Нурмахамадовна</i>	72
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ VR И AR В ОБРАЗОВАНИИ: ПЛЮСЫ И МИНУСЫ <i>Ганиева Шахризод Нурмахамадовна</i>	77
PEDAGOGLAR UCHUN AHAMIYATLI RAQAMLI KOMPETENTSIYALAR TAHLILI <i>Otamurodov G‘olibjon Ro‘zimurodovich</i>	79
RIVOJLANTIRUVCHI TA‘LIM TEXNOLOGIYALARI <i>Ergasheva Mahbuba Ne‘mat qizi</i> ...	85
MALAKA OSHIRISH JARAYONIGA INNOVATSION YONDASHUVNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI <i>Eshnazarova Farida Jo‘raqulovna</i>	88
BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QUVCHILAR BILIMINI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA BAHOLASH USULLARI <i>Rasulova Sanobar Mamatkulovna</i>	92
BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING HAYOTIY KO‘NIKMALARINI DIDAKTIK O‘YINLAR ORQALI SHAKLLANTIRISH <i>Mamatkulova Nigora Sherbekovna</i>	94
O‘QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH <i>Sh.Abdufatayev, B.Jumaboyev</i>	97
INTEGRATSIYA TA‘LIM JARAYONIGA YANGICHA YONDOSHUV SIFATIDA <i>Olimjonova Sadoqat Axrorjon qizi</i>	102
TA‘LIM JARAYONIGA INNOVATSION YONDOSHISHDA KASBIY KOMPETENTLIKNING ROLI <i>Saboat Orifova Yakubovna</i>	105
BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA 4K MODELII ASOSIDA O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Shodiyeva Matluba Jo‘rayevna</i>	107
OILA - JAMIYATNING AZALIY USTUNI <i>Akramova Feruza Akmalovna</i>	111
MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARI BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARI NUTQINI O‘STIRISH VOSITASI SIFATIDA <i>Artikova Nozima Muxiddin qizi</i>	114

2-SHO‘BA. ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTERFAOL DARSLARNI TASHKIL ETISH.....	118
BOSHLANG‘ICH SINFLAR ONA TILI DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI <i>Kulaxmetova Mavlyuda Pulatovna</i>	118
FIZIK KIMYO FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TA‘LIM USULLARIDAN FOYDALANISH <i>Ergasheva Roziya Bahodir qizi,¹Abdullayev Sirojiddin Sayfulla o‘g‘li¹</i>	121
ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМ МУТАХАССИСЛАРИНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИШ, ШАХСИЙ ВА КАСБИЙ СИФАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШДА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР <i>Райимкулов Акмал Акбаралиевич, Халмонов Умид Очилович</i>	124
ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ORQALI KASBIY IJODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI ¹ <i>Jumaboyev Nabi Pardaboyevich,</i> ² <i>Ibodullayeva Zarifa Tojikulovna</i>	127
DARS MASHG‘ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING ASOSIY OMILLARI <i>Yunusmetova Nasiba Satimbekovna, Bekmatova Umida, Pulatova Shoirra Narzullayevna</i>	130
ADVANTAGES OF USING MODERN DATA TECHNOLOGIES FOR TEACHING ROAD ENGINEERING STUDENTS IN HIGHER EDUCATION <i>Yusupjonov Mukhriddinjon Odiljon o‘g‘li, Narzullaev Xurshid Saydullaevich, Jalolov Zafar Muhammadi o‘g‘li</i>	137
“SHAHAR KO‘CHALARIDA PIYODALAR XAVFSIZ HARAKATINI TASHKIL ETISH” MAVZUSIDA “CHARXPALAK TEXNOLOGIYASI” NI QO‘LLASH <i>G‘ulomov Umidjon Baxodir o‘g‘li, Sapayev Azamat Zakirjon o‘g‘li</i>	139
UMUMTA‘LIM MAKTABLARIDA TABIIY FANLAR (GEOGRAFIYA)NI O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI <i>Bekzod Boymatov</i>	140
QURILISH TA‘LIM YO‘NALISHI DARSLARINI ZAMONAVIY INTERFAOL METODLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH SAMARADORLIGI <i>Jaloldinov Ahror Abdusattor o‘g‘li, Jaloldinov Nizomjon Abdusattor o‘g‘li</i>	144
INFORMATIKA DARSLARIDA BULUTLI TEXNOLOGIYALARNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI <i>Ashurova Sarvinoz Fayzullayevna</i>	148
MAKTABGACHA TA‘LIMDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI <i>Agibaeva Nursulu Anarbekovna</i>	151
DARS JARAYONIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI VA ULARNI QO‘LLASH TEXNIKASI <i>Agibayeva Shaxzoda Baxtiyor qizi</i>	153
TARIX FANI DARSLARINI SIFATLI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY METODLARI <i>Biybalayev Islombek Abdunazarovich</i>	157
ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTERFAOL DARSLARNI TASHKIL ETISH <i>Mardiyev Javohir Ma‘ruffjonovich</i>	160
ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTERFAOL DARSLARNI	

TASHKIL ETISH <i>Esonova Dilfuza Abdurasulovna</i>	162
YOSHLAR DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHIDA TASHKILLASHTIRILGAN VA STIXIYALI TA'LIM-TARBIYANING O'RNI <i>Allayarov Doniyor Islom o'g'li</i>	167
ZULFIYA SHE'RIYATDA NEYTRALIZATSIYA HODISASI VA SINTAKTIK-STILISTIK VOSITALARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH <i>To'ychiyeva Zulayho Hamraqulovna</i>	170
TA'LIM JARAYONIDA OPTIMAL USULLARNING QO'LLANILISHI VA MEZONLARI <i>Berikbayeva Dilnoza Turayevna</i>	174
ZAMONAVIY TA'LIMDA DARSLARNI TASHKIL ETISHDA GENDER YONDASHUVNING KO'RINISHLARI VA USTUNLIKHLARI <i>Axnazarova D.E.</i>	176
INTERFAOL O'QITISH METODLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKHLARI <i>Bo'riboiyeva Dilraxon Norboy qizi, Xudoyberdiyeva Nigina O'razali qizi</i>	181
TA'LIM TASHKILOTLARIDA ZAMONAVIY TALABLAR ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Pirmanova Gavhar Nazarkulovna, Haydarova Nozigul Bahrom qizi</i>	185
O'QUVCHILARDA MUSTAQIL O'QISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI <i>Shaxmurodova Diljahon Almardonovna</i>	187
DIZAYN O'QITUVCHILARINING MALAKASI VA IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH <i>Xudoyberdiyev Dostonbek Rustambek o'g'li</i>	190
O'ZBEKISTONDA INTERYER DIZAYNI USUBLARINING XUSUSIYATLARI <i>Xudoyberdiyev Dostonbek Rustambek o'g'li, Bobomurotov Jahongir</i>	193
OLIY O'QUV YURTLARIDA LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR <i>Mavlyanov Mo'minjon Akramovich</i>	197
MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI KOMPYUTER GRAFIK DASTURLARI ORQALI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN METODLARNI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xamidov Dilshod Olimjon o'g'li, Olimov Muhammadjon Shuxratjon o'g'li</i>	202
BBB (BILARDIM, BILMOQCCHIMAN, BILIB OLDIM) METODI ORQALI INTERFAOL DARSLARNI TASHKIL ETISHNING SAMARALI USULLARI <i>Mashrapov Qaxramon Olimjonovich</i>	205
TURIZM UCHUN INGLIZ TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY INTERFAOL PEDAGOGIK METOD VA USUBLARDAN FOYDALANISH <i>Quziyev Sarvarbek Ilmiddinovich</i>	208
O'QUVCHILARDA NUTQIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI <i>Ro'ziqulov Shohruh Ilhom o'g'li, Abdumavlonova O'g'loy Abdurahmon qizi</i>	214
DARS DAVOMIDA INTERFAOL METODLARNI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI <i>Rajabova Xurshida Hakimovna</i>	218
FIZIKA DARSLARIDA TO'LIQ MEXANIK ENERGIYANING TATBIQI <i>Xojiyev B.I, Ulug'berdiyeva N.A, Xo'jayev A.A, Amonov A.A</i>	221

ADVANTAGES OF MODERN PEDAGOGICAL INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION <i>Uzaqova Sevara Akram qizi</i>	224
CHET TILINI O‘QITISHDA YANGI PEDAGOGIK VA INFOROMATSION TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH <i>Nargiza Olimovna Xalilova</i>	226
ZAMONAVIY TA‘LIM TEXNOLOGIYALARINING O‘QUV-TARBIYA JARAYONIDAGI ROLI <i>Xolmatova Guzal Islomovna</i>	230
BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA ZAMONAVIY USULLARDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI <i>Rajabova Xurshida Hakimovna</i>	235
O‘QUVCHILARDA KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY PSIXOLOGIK ASOSLARI <i>O‘razalievna Feruza Norqul qizi, Nazarova Shoxista Azzamkulovna</i>	238
KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARINING O‘ZIGA XOSLIGI <i>O‘razalievna Feruza Norqul qizi, Nazarova Shoxista Azzamkulovna</i>	241
O‘SMIR YOSHLARDA SALBIY XULQ-ATVOR PAYDO BO‘LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI <i>Xaydarova Sayyora Chinaliyevna</i>	245
DARS JARAYONIDA INTERFAOL METODLARNI QO‘LLASH <i>Berikbayev Alisher Alikulovich, Agibayeva Shaxzoda</i>	248
DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA OILAVIY NIZOLARNING TA‘SIRI <i>Xaydarova Sayyora Chinaliyevna</i>	251
ВОЗДЕЙСТВИЕ НЕСТАНДАРТНЫХ ФОРМ ОБУЧЕНИЯ НА НАУЧНО-ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ <i>Бабажанова Ф.Ф</i>	254
MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARNI RUHIY RIVOJLANISHINI TA‘MINLASHDA PSIXOLOGIK O‘YIN MASHQLARIDAN FOYDALANISH <i>Olimjonova Sadoqat Axrorjon qizi</i>	257
ЭЛЕКТРОННАЯ ТЕТРАДЬ—ЭФФЕКТИВНЫЙ ПОМОЩНИК УЧИТЕЛЯ В РАБОТЕ С УЧАЩИМИСЯ <i>Тешаева Нугора</i>	259
КИТОБХОНЛИК МАДАНИЯТИНИ ШAKLLANTIРИШДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ <i>Шоймуродов Тоҳир Зомонович, Ибодуллаева Зарифа</i>	262
SONLARGA OID MASALALAR VA ULARNI YECHISH USULLARI <i>Daminov Otabek Abdualimovich, O‘talova Ozoda Amirullo qizi</i>	267
3-SHO‘BA. PEDAGOG KOMPETENTLIGI VA KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLARI	272
XALQ O‘YINLARINING O‘QUVCHILAR AXLOQIY TARBIYASIDAGI O‘RNI <i>Kulaxmetova Mavlyuda Pulatovna</i>	272
SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA OTA-ONA VA BOLALAR MUNOSABATLARI TAHLILI <i>To‘rabayeva Farangiz Abdumajid qizi</i>	275

ILMIY-IJODIY QOBILIYATLAR DIAGNOSTIKASIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O'RNI <i>F. Babajanova, Bobojonova N</i>	277
BOSHLANG'ICH SINIF INGLIZ TILI DARSLARIDA ENERJAYZERLARDAN FOYDALANISHNING TA'LIMiy VA TARBIYAVIY AHAMIYATI <i>Kalandarova Mavjuda Obidjonovna</i>	280
DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA OILAVIY NIZOLARNING TA'SIRI <i>Xaydarova Sayyora Chinaliyevna</i>	282
«BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH USULLARI» <i>Asadullayeva Marg'uba Hamidullayevna</i>	286
STUDYING THE PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INTERNET ADDICTION IN THE SOCIAL BEHAVIOR OF YOUNG PEOPLE <i>Mirzavev Djamshid Turdaliyevich</i>	288
INTERNET VA IJTIMOiy TARMOQLARNING INSON RUHIYATIGA TA'SIRI <i>Toshtemirova Mohinabonu Bahodir qizi</i>	292
TA'LIMDA KOMPETENTLIKKA ASOSLANGAN SAMARALI YONDASHUV – KASBIY RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA <i>Shukurova U.U, Jurayeva Y</i>	296
O'QITUVCHI KASBINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI <i>Usmonqulova Feruza Eshbekovna</i>	299
SHAXSIY RIVOJLANISHNI PSIXOLOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH <i>Xudoyqulova Zarifa Ummatqulovna, Taniqulova Go'zal Sherali qizi</i>	301
TA'LIM JARAYONINING PSIXOLOGIK MAZMUNI <i>Usmonqulova Feruza Eshbekovna</i>	305
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOSINING PEDAGOGIK ASOSLARI <i>Qodirqulov Nodirbek Xamroqul o'g'li</i>	307
UZLUKSIZ TA'LIMDA BOSHQARUV JARAYONINI TASHKIL QILISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH <i>Yunusmetoa Nasiba Satimbekovna, Bektemirov Sirojiddin Rustamovich</i>	311
O'QUVCHILARNI INSONPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH METODIKASI <i>Qodirqulov Nodirbek Xamroqul o'g'li</i>	315
YOSHLARDA VATANGA DAHLDORLIK HISSINI MUSTAHKAMLASHDA – ISLOM QADRIYATLARINING AHAMIYATI <i>Bozorov Muhammad Alijon o'g'li</i>	318
UMUMTA'LIM MAKTABI O'QUVCHILARIDA KASB-HUNAR TANLASHGA OID MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Qodirova Nilufar Adusattor qizi</i>	321
STUDYING THE PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INTERNET ADDICTION IN THE SOCIAL BEHAVIOR OF YOUNG PEOPLE <i>Mirzavev Djamshid Turdaliyevich</i>	324
TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KONSTRUKTIV YONDOSHUVI <i>Amirullayeva Barno Abdulhaqovna</i>	327
DARSLIK – TA'LIMINING ASOSIY VOSITASI <i>Murodova Shaxodat Shamurzayevna</i>	330

ONA TILI TA'LIMIDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV <i>Mamaraximov Sirojiddin Murtazayevich, Kulibayeva Gulshoda Baxtiyor qizi</i>	335
TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOG KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI <i>Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna</i>	337
UMUMTA'LIM MAKTAB RAHBARLARI BOSHQARISH FAOLIYATIDA TAYM-MENEJMENT TEXNOLOGIYALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Bekniyazov Bayrambay Sapparbaevich</i>	340
BOLA SHAXSINI HAR TOMONLAMA KAMOL TOPTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI <i>Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna, Begmatov Najmiddin Jahongir o'g'li</i> ..	344
TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHINING IJODKORLIGI VA FAOLLIGI <i>Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna, Mardonov Jaxongir Sherbek o'g'li</i>	346
TECHNOLOGY OF CONDUCTING LESSONS ON THE BASIS OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES FOR STUDENTS STUDYING IN HIGHER EDUCATION <i>Yusupjonov Mukhriddinjon Odiljon o'g'li, Jalolov Zafar Muhammadi o'g'li, Jurayev Isroil Shavkat o'g'li</i>	349
O'QUVCHILARNING O'ZLASHTIRISHIDA HISSIY MUNOSABATLAR TANQISLIGINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI <i>Oqmurzayev Dilshod Jo'raqul o'g'li</i>	351
TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH METODLARI <i>N.N.Abdullajonova</i>	353
OLIY TA'LIM DARSLIKLARIDAN FOYDALANILGAN HOLDA UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA "TABIIY FANLAR YO'NALISHIDA" VARIATIV SINFLARNI O'QITISH TIZIMINI TASHKIL ETISH <i>Abdurasulov Akbar Shavkat o'g'li, Bazarova Ruzigul Shakarovna, Sidiqova Maxfuza Aliqulovna, Qahhorova Nilufar O'ktam qizi</i>	355
ZULFIYA SHE'RIYATIDA O'ZLASHMA SO'ZLARINING QO'LLANISHINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH <i>To'ychiyeva Zulayho Hamraqulovna</i>	361
O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHDA OPTIMALLASHTIRISHNING O'RNI <i>Berikbayev Alisher Alikulovich, Noraliyeva Sevinch</i>	366
BO'LAJAK MUTAXASSIS O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA AYRIM QARASHLAR <i>Berikbayev Alisher Alikulovich</i>	369
FIZIKA VA ASTRONOMIYA FANLARIDA LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI VIRTUAL SIMULYATSIYALAR YORDAMIDA BAJARISH USULLARI <i>Jumaniyazov A.U</i>	374
O'QUVCHILARDA ERTAK VA HIKOYA O'QISH USTIDA ISHLASHNING METODIK ASOSLARI <i>Azizova Dilnoz Yo'ldashevna</i>	377
DARSLARNI SHARQ ALLOMALARI QARASHLARIDAN FOYDALANIB TASHKIL ETISH <i>Azizova Dilnoz Yo'ldashevna</i>	381

CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNING GRAFIK KOMPETENTLIGINI OSHIRISHNING SAMARALI USULLAR <i>Xalikov A'zam Abdusalomovich, Bo'riboyeva Dilraxon Norboy qizi</i>	385
TO'GARAK MASHG'ULOTLARIDA O'QUVCHILARNI KAMOLIDDIN BEHZODNING SHARQONA TASVIRIY SAN'ATI BILAN TANISHTIRISHNING AHAMIYATI <i>Kayumov Erkin Kazakbayevich, Raximjonova Xusnida Odil qizi</i>	387
O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA TASVIRIY SAN'AT FANINING AHAMIYATI <i>Alkarova Feruza Nazarbayerovna</i>	390
TARIX DARSLARINI INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANIB O'TISHGA OID TEXNOLOGIK XARITA VA DARS ISHLANMALARINI TUZISH BO'YICHA TAVSIYALAR <i>Samadov J.R.</i>	393
INKLUZIV TA'LIM JARAYONIDA OILA, JAMOATCHILIKNI O'RNI <i>Muqaddas Sobirova Sharipovna</i>	398
QO'QON XONI ABDURAHIMBIY DAVRIDA BUXORO VA QO'QON XONLIKLARI O'RTASIDAGI MUNOSABATLARDA USTRUSHONA TARKIBIGA KIRGAN HUDUDLARNING O'RNI VA RO'LI <i>O.Begiyev</i>	401
QO'QON XONI OLIMXON DAVRIDA BUXORO VA QO'QON XONLIKLARI O'RTASIDAGI MUNOSABATLARDA USTRUSHONA TARKIBIGA KIRGAN HUDUDLARNING O'RNI VA RO'LI <i>Xoliqulov Shohruh, Shaymatov Rustam</i>	404
ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ORQALI KASBIY IJODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI <i>Jumaboyev Nabi Pardaboyevich, Ibodullayeva Zarifa Tojikulovna</i>	407
TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARI TAYYORLASH TIZIMIDA, CHIZMATASVIR FANINING AHAMIYATI <i>B.A.Usmanov</i>	410
CHIZMATASVIRDA VOQELIKNI HAQQONiy TASVIRLASH <i>B.A.Usmanov, M.M.Mavlonova</i>	412
O'QUVCHILARNI KRITIKAGA O'RGATISH <i>Uralov Azamat Begnarovich</i>	413
OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI TALABALARINING HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH JARAYONINI INDIVIDUALLASHTIRISH MASALALARI <i>D.M.Xolnazarova, Raximshikova M.K</i>	417
KOMIL INSON IQTIDORINI ANIQLASH VA TARBIYALASHDA PSIXOLOGIK MEZONLAR <i>Saparov Murod Yuldashovich, Raxmonova Sevinch</i>	421
HADIS TUSHUNCHASI VA UNING ISLOM OLAMIDAGI O'RNI <i>Matlyuba Xolnazarova</i>	424
ИЖТИМОЙ ТАРМОҚЛАРДАН ТЎҒРИ ФОЙДАЛАНИШДА ОТА-ОНАНИНГ ЎРНИ <i>Максумкулова Гулнора Қурбоновна, Шайдуллаев Мақсуд Рустамович</i>	428
UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA IJODKORLIKNING AHAMIYATI <i>Saboat Orifova Yakubovna</i>	431

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ <i>Расулова Санобар Маматкуловна</i>	432
OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI TALABALARINING TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR MUAMMOLI TA'LIMNING TURLARI VA ASOSIY FUNKSIYALARI <i>Elmurodova Dilnoza Shuhrat qizi</i>	435
4-SHO'BA. TA'LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNING AHAMIYATI.....	439
PEDAGOGLARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR <i>Berdaliyeva Gulasal Abduqunduzovna</i>	439
O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATI VA KASBIY RIVOJLANISHIGA YANGI QARASHLAR <i>Gaffarov Azizjon Muhammadsaidovich</i>	447
ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ ТАДҚИҚОТЧИЛИК ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ <i>Гаубназарова Феруза Пардабаевна</i>	452
TALABALARNI INNOVATSION FAOLIYATGA YO'NALTIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNING AHAMIYATI <i>Shukurova U.U, Iskandarova S</i>	457
KONFLIKTLARNING YUZAGA KELISHI VA ULARNI HAL QILISH YO'LLARI <i>Ahmadov O'ktamjon Zokirjon o'g'li</i>	461
TASK-BASED LANGUAGE TEACHING SPEAKING <i>Ergasheva Feruza Davlatali qizi</i> ...	463
XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARINI O'RGANISH ORQALI METODBIRLASHMA FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA <i>Yunusmetoa Nasiba Satimbekovna, Davranova Gulsara</i>	466
«Гўрўғли» дostonлари ўзбек вариантларининг узига хос хусусиятлари <i>Мирзаев Жонмирза Нематович</i>	475
TABAQALASHTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI LOYIHALASHTIRISH PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI <i>Sharipova Sevara Erkin qizi</i>	478
YO'L XO'JALIGI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA O'QITISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH <i>Amanov Zokir Choriyevich, Jumayev Samandar</i>	483
AVTOMOBIL YO'LLARINI QURISH FANIDAN CHET EL AVTOMOBIL YO'LLARINI QURISH USULLARINI TAHLIL QILISH <i>Odinayev Rustam Qurbonaliyevich, Aliqulova Madina Ural qizi</i>	487
YO'L XO'JALIGI INNOVATSION FAOLIYATINI IVOJLANTIRISH MAVZUSINI O'QITISHDA O'QUV MODULI ISHLANMASI <i>Amanov Zokir Choriyevich, Yusupjonov Muxridinjon Odiljon o'g'li, G'ulomov Umidjon Baxodir o'g'li</i>	490
AVTOMOBIL YO'LLARINI EKSPLUATATSIYA QILISH FANIDAN YO'L XO'JALIGINI BOSHQARISHNI TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA TABIRLARI <i>Odinayev Rustam Qurbonaliyevich, Aliqulova Madina Ural qizi</i>	492

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH BORASIDAGI ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR (Fransiya ta'lim tizimi misolida) <i>Jaloldinov Ahror Abdusattor o'g'li, Jaloldinov Nizomjon Abdusattor o'g'li</i>	494
O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI <i>Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna, Nishonov Dilshod Rustam o'g'li</i>	498
RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLARDA OLIY TA'LIM TIZIMI VA JAHON OLIY TA'LIM MUASSASALARINING 2024-YILGI XALQARO REYTINGDAGI O'RNI BO'YICHA TAHLILLAR <i>N.N.Umarov, G.R.Murodova</i>	499
TA'LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARINING AHAMIYATI <i>Abdullayeva Fotima Baxtiyor qizi¹, Turabekova Dilorom Baxtiyarovna²</i>	503
JIGITLER PSIXOLOGIYASI <i>Allayarov Doniyor Islom o'g'li</i>	506
TA'LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARINING AHAMIYATI <i>Anarbayeva Muqaddas Ibadullayevna</i>	509
MAKTABGACHA TA'LIMDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI <i>Jo'rayeva Dilafro'z Shuhrat qizi</i>	513
ABDULLA QODIRIYNING «O'TKAN KUNLAR» ROMANIDAGI TARIXIY SO'ZLARINING LUG'AVIY-MA'NOVIY TALQINI <i>Kambarov Ma'rufjan Abduhakimovich</i>	516
ABDULLA QODIRIY ASARLARIDA DIALEKTIZMLAR <i>Sh. Xudoyqulova</i>	522
TABAQALASHTIRILGAN TA'LIM ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARI <i>Fayzullaev Abdumuhammad Yuldosh o'g'li</i>	525
YOSHLAR DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRUVCHI OMILLAR <i>Ruzmetova Munisa Ma'ruf qizi</i>	528
TABIIY GEOGRAFIYA TA'LIMIDA TAJRIBA VA AMALIY ISH USULLARIDAN FOYDALANISH <i>Ahmadqulov Saidjon Rauf o'g'li, Yo'ldoshev Abdurauf Suyunboy o'g'li</i> ...	530
FURTHER IMPROVEMENT OF TRAINING IN ELEMENTARY GRADES THROUGH MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES <i>Akbarova Maftuna Botirjon qizi</i>	534
TA'LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARINING AHAMIYATI <i>Abdullayeva Fotima Baxtiyor qizi¹, Turabekova Dilorom Baxtiyarovna²</i>	536
MAKTABGACHA TA'LIMDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI <i>Jo'rayeva Dilafro'z Shuhrat qizi</i>	539
CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNI IJODIY-KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TATBIQIY MEXANIZIMLARI <i>Inoyatov Odiljon Sobitovich</i>	542
RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLARDA OLIY TA'LIM TIZIMI VA JAHON OLIY TA'LIM MUASSASALARINING 2024-YILGI XALQARO REYTINGDAGI O'RNI BO'YICHA TAHLILLAR <i>N.N.Umarov, G.R.Murodova</i>	547

DARS JARAYONIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI VA ULARNI QO‘LLASH TEXNIKASI <i>Agibayeva Shaxzoda Baxtiyor qizi</i>	551
XXI ASR KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA REBUS VA KROSSVORDLARNING AHAMIYATI <i>Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna</i>	554
TA‘LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG‘OR XORIJ TAJRIBALARNING AHAMIYATI <i>Ergasheva Mahbuba Ne‘mat qizi</i>	557
FOREIGN EXPERIENCES TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION <i>Robiya Zayniddinova Sabridin qizi</i>	560
TA‘LIMDA SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARNING AHAMIYATI <i>Axnazarova D, G‘aniyeva U</i>	562
TA‘LIM TIZIMIDA XORIJ TAJRIBASINI QO‘LLASH VA MILLIY DASTURGA KIRITILISHNING AHAMIYATI <i>Axnazarova D.E, Haydarova L</i>	565
TURIZM UCHUN INGLIZ TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY INTERFAOL PEDAGOGIK METOD VA USLUBLARDAN FOYDALANISH <i>Quziyev Sarvarbek Ilmiddinovich</i>	567
TA‘LIMDA SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARNING AHAMIYATI, YAPONIYA TA‘LIM TIZIMI TIMSOLIDA <i>Axnazarova D.E, Sunnatova G.</i>	573
FIZIKA DARSLARIDA ISSIQLIK MASHINALARINING F.I.K. NI HISOBLASH <i>Xojiyev B.I., Ulug‘berdiyeva N.A., Xo‘jayev A.A., Amonov A.A</i>	575
PEDAGOG KOMPETENTLIGI VA KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI <i>Xudayberdiyeva Xuriyat Karimberdiyevna</i>	579
EHTIMOLLAR NAZARIYASINI O‘QITISH VA O‘RGANISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR <i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i>	583
OLIY TA‘LIM TASHKILOTLARI TALABALARINING HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH JARAYONINI INDIVIDUALLASHTIRISH MASALALARI <i>D.M.Xolnazarova</i>	585
TALIM JARAYONIGA INNOVATSION YONDOSHISHDA KASBIY KOMPETENTLIKNING ROLI <i>Saboat Orifova Yakubovna</i>	589
JON UOTSON SHAXS NAZARIYASIDA BIXEVIORAL YO‘NALISHNING ASOSCHISI SIFATIDA <i>Matlyuba Xolnazarova, Kamola O‘razaliyeva</i>	591
YOSHLAR AXLOQIY TAFAKKURIDA VATANPARVARLIK IDEALINI YUKSALTIRISH MASALALARI <i>Yusupova Feruza Zoyirovna</i>	593
KREDIT –MODUL TIZIMINING BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFO‘QITUVCHILARIDA TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI <i>Sheraliyeva Nasiba Alimkulovna</i>	596
O‘QUVCHILAR NUTQINI OSHIRISHDA DIDAKTIKO‘YINLARNING O‘RNI <i>Boychayeva Sharifa Saidkulovna</i>	603

O'QUVCHILARDA MANTIQUIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA MUAMMOLI TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISH <i>Fayzullaev Manas Musurmonqul o'g'li, Yo'ldoshev Abdurauf Suyunboy o'g'li, Axmedov Umarmkul Baxtiyor o'g'li</i>	606
КЕНГ ТАРҚАЛГАН ТУРЛАРДА БОРАДИГАН ЎЗГАРУВЧАНЛИК ЖАРАЁНИ <i>Сафарова Наргиза Камаловна</i>	611
GEOGRAFIYANI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI <i>Fayzullaev Manas Musurmonqul o'g'li, Ahmadqulov Saidjon Rauf o'g'li, Fayzullayeva Fotima Musurmonqul qizi</i>	619
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA UMURTQALILAR ZOOLOGIYASI FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Гаубназарова Феруза Пардабаевна</i>	624
GEOGRAFIYA DARSLARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH <i>Fayzullaev Manas Musurmonqul o'g'li, Yo'ldoshev Abdurauf Suyunboy o'g'li, Fayzullaeva Zuxra Musurmonqul qizi</i>	628
БИОЛОГИК ТАЪЛИМИДА ТАДҚИҚОТЧИЛИК ФАОЛИЯТИ <i>Сафарова Наргиза Камаловна</i>	632
MAFKURAVIY HAVFSIZLIKNING TUSHUNCHASI, VA MAZMUN MOHIYATI <i>To'rabayev Orif, To'rabayeva Go'zal</i>	636
AGRESSIV BOLA BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKTSION ISHLAR <i>Toshxo'jayev Musabek Abdug'offor o'g'li</i>	639
ОТА-ОНА ВА БОЛА МУНОСАБАТЛАРИ ПСИХОЛОГИЯСИ <i>To'rabayeva Farangiz Abdumajid qizi</i>	642
ВИРТУАЛ ТАҲДИДЛАРИНИНГ ЁШЛАР ДУНЁҚАРАШИГА ТАЪСИРИ <i>Урдабаева Гулнора Мамбеталиевна</i>	644
ТА'LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNING AHAMIYATI "TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI MUHUM OMILLAR – XORIJIY TAJRIBALAR" <i>Sarimsaqov Ravshanjon Abdusalomovich</i>	648
BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'ZLASHTIRMOVCHILIKNING OLDINI OLISHGA YO'NALTIRILGAN TADBIRLAR <i>O.Shirinov</i>	652
O'QUVCHILAR MOTIVATSIYASINI O'RGANISHGA NISBATAN NAZARIY YONDASHUVLAR MAZMUNI <i>Nazarova Mamlakat Jamalovna</i>	654
OLIY TA'LIM TIZIMIDA MA'NAVIY TARBIYANI TASHKIL ETISH SOHASIDAGI XALQARO TAJRIBALAR VA ULARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI <i>Po'latov Djavdat Abdujabborovich</i>	657
YOSHLARNI EKOLOGIK TARBIYALASHDAGI MANZARA JANRINING O'RNI <i>D.B.Karshiboyeva</i>	662
O'QUV JARAYONINI HAYOTIY VOQELIKKA BOG'LASH BILAN HUQUQ FANI ASOSIDA O'QUVCHILARNI HAYOTGA TAYYORLASH <i>Rixsiboyev Behzod Alisherovich</i>	664

MANZARA CHIZISHDA XOMAKI CHIZGILAR <i>D.B.Karshiboyeva, K.F.Xudoyberdiyeva</i>	670
MUSIQA DARSLARIDA MUSIQA SAVODINI O'RGATISH METODIKASI <i>Xudoynazarov Dilshodbek Obidjon o'g'li</i>	672
RAHIM AXMEDOV IJODIGA NAZAR <i>D.B.Karshiboyeva, O'R.Abdumajidova</i>	674
ЦИФРОВИЗАЦИЯ СФЕРЫ ОБРАЗОВАНИЯ – ПОТРЕБНОСТЬ СОВРЕМЕННОЙ ЖИЗНИ <i>Сайидова Мухаббат Гаффаровна</i>	676
INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVDA TARIX FANI O'QITUVCHILARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH <i>Abduraimov Ikromjon Ravshanbekovich</i>	679
O'QITUVCHI SHAXSINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI <i>Eshquvvatova Farida Kozimovna</i>	683
MATEMATIKA DARSLARIDA IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKASI <i>Tashtemirova Nargiza Nematovna, Ikromova E'zoza Ikrom qizi</i>	686
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O'ZIGA HOS JIHATLARI <i>N.N.Abdullajonova, S.O'.Isaqova</i>	689
TELEKOMMUNIKATSIYA FANLARINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI <i>Jo'rayev Nurmuhammad Mamatovich</i>	691
SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI AVTOMATLASHTIRISH VA OPTIMALLASHTIRISH <i>Ergashev Sanjar Toshtemir o'g'li</i> .	695
МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМНИНГИ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА РИВОЖЛАНИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ <i>Холмуродоава Шохсанам Маматкарим қизи</i>	698
ФУТБОЛЧИ ҚИЗЛАРДА ОРГАНИЗМНИНГ ФУНКЦИОНАЛ ТИЗИМЛАРИ ҲОЛАТИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ <i>Каримов Фазлиддин Жамолиддин ўғли</i>	702
АХБОРОТ КОМПЕТЕНТЛИгинИ РИВОJЛАНТИРИШ ОРҚАЛИ БО'ЛАЖАК О'QITUVCHILARNING KASBIY NUTQINI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA <i>Suyunov Ilhom Egamberdiyevich</i>	708

